

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

TARIX INSTITUTI

O‘RTA ASRLAR TARIXI

(O‘zbekiston tarixi)

(maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari, abituriyentlar
va tarix fani o‘qituvchilari uchun qo‘shimcha qo‘llanma)

*MA‘RUZALAR
CHIZMA-JADVALLAR
TARIXIY SHAXSLAR
ATAMA VA TUSHUNCHALAR
GEOGRAFIK NOMLAR
TARIXIY SANALAR
TESTLAR
KROSSVORDLAR*

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti 2007 yil



Tuzuvchi-mualliflar: **Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev**
Tarix fanlari doktori, professor **D.A. Alimova** ilmiy tahriri ostida

Tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha davlat ekspert guruhi hamda Respublika Ta'lim Markazi tarix fani o'quv-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

tarix fanlari nomzodi **A. Otaxo'jayev,**

tarix fanlari nomzodi **M. Is'hoqova**

pedagogika fanlari nomzodi **S. Mahkamov,**

Respublika Ta'lim markazi ijtimoiy fanlari bo'limi boshlig'i **N. Ismatova,**

O'zbekiston teleradiokompaniyasining siyosiy sharhlovchisi **Q. Karimbekov,**

TSHPXQTMOI kafedra mudiri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi **M. Mo'ydinova**

Toshkent shahar o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining bosh mutaxasisi **L.Ahmedova,**

Toshkent shahar Hamza temir yo'l kasb-hunar kollejining oliy toifali tarix o'qituvchisi **M. Obidova**

Maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, abiturent va tarix fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan ushbu qo'shimcha qo'llanma o'quvchilarni o'rta asrlar tarixidan mukammal bilimlarga ega bo'lishga ko'maklashadi. Qo'llanmada o'zbek davlatchiligining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan davlatlar tarixiga oid ma'lumotlar ensiklopedik tarzda keltiriladi. E'tiborli tomoni shuindaki, bobdagi mavzular ma'ruza shaklida berilgan. Bu o'quvchida tarixiy voqealarni aniq tasavvur qilishi uchun birmuncha qulaylik tug'diradi. Ma'ruzalardan so'ng berilgan jadvallar esa ma'ruzaning qisqa mazmunini o'zida mujassamlashtiradi.

Oquvchilar o'zini olgan bilimlarini mustahkamlash uchun test savollari va boshqotirmalar orqali amalga oshirishlari mumkin. Testlar va boshqotirmalar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tashkil etgan tender g'olibi bo'lgan darsliklar asosida tuzilgan.

© Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2007 yil



*Yoshlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, aqlli, dono va albatta,
baxtli bo‘lishlari shart!*

Islom Karimov

KIRISH

Aziz o‘quvchi! Sizga ma‘lumki, o‘rta asrlar davri olamshumul voqealarga juda boy bo‘lish bilan birgalikda g‘oyatda qiziqarli hamdir. Ming yildan oshiqroq muddatni qamrab olgan bu davrda jahonda va yurtimizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotda keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jahon tarixida o‘rta asrlar davri Rim imperiyasining qulashi bilan, ya‘ni milodiy V asr oxiridan boshlab XVII asr o‘rtalariga qadar davom etgan. Vatanimizda esa bu davr milodning IV asridan XVI asrgacha bo‘lgan voqealar bayonini o‘z ichiga oladi.

O‘rta asrlarda odamlar qanday yashaganliklari haqida biz tarixiy manbalar orqali habardormiz. Ayniqsa, jahon muzeylarida saqlanayotgan mehnat qurollari, qurol yarog‘lar, pullar, ro‘zg‘or buyumlari, shuningdek, uylar, ko‘priklar, ibodatxonalar va qal‘a devorlari kabi ko‘plab ashyoviy yodgorliklar mavjud. Ular o‘rta asr kishilarining kundalik hayot tarzi haqida ko‘p ma‘lumotlar berishi mumkin. Arxivlarda hukmdorlarning qonun va farmonlari, sud qarorlari, mulk tafsiflari va boshqa shunga o‘xshash yozma manbalar mavjud. Yilnomalarda esa qaysi yilda mamlakatlar va xalqlar hayotida ro‘y bergan muhim voqealar haqida bayon etiladi. O‘rta asr olimlarining badiiy adabiyoti asarlarida va yozishmalarida o‘sha davr kishilarining ichki dunyosi, ularning ijodiy, ilmiy izlanishlari ochib berilgan. Ertaklar, afsonalar, qo‘shiqlar va rivoyatlar bizga o‘rta asr kishilarining dunyo qurilishini hamda undagi o‘z o‘rinlarini qanday tasavvur etishlari anglab olishimiz imkonini beradi.

O‘quvchilar o‘rta asrlar tarixini o‘rganish davomida turli xalqlarning hayoti va o‘z ozodligi uchun kurashi jarayonlarini, davlatlar tarixi, ularning boshqaruv shakllari, sayyohlarning xilma-xil geografik kashfiyotlari-yu o‘z izlanishlari bilan jahonga ilm ziyosini taratgan buyuk allomalar va rassomlarning ijodi hamda hayoti bilan tanishadilar.


Shuningdek, ushbu davrda yurtimiz hududida Eftallar, Turk xoqonligi, Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar hamda Temuriylar davlati kabi bir qator yirik davlatlar tashkil topgan. Bu davlatlar o‘z faoliyati davrida o‘tkazgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda davlat boshqaruvi ishlaridagi islohotlari ajdodlarimizning hayot tarzini keskin o‘zgarishiga olib kelgan.

Xullas, o‘rta asrlarda Jahon hamda Vatanimizda bo‘lib o‘tgan barcha siyosiy voqealar bayoni, xalqlar va davlatlar tarixi, shu davrda yashagan tarixiy shaxslar, atama va tushuncha, tarixiy-geografik nomlar hamda tarixiy sanalar qo‘lingizdagi ushbu “O‘rta asrlar tarixi” kitobida batafsil yoritilgan. Qadimgi dunyo tarixidan olgan bilimingizni O‘rta asrlar tarixi qo‘llanmasida davom ettirib, yanada o‘zingizni erishayotgan yutuqlaringizni mustahkamlab borasiz. “O‘rta asrlar tarixi” qo‘llanmasi 7-sinf darsliklari — O‘zbekiston va Jahon tarixi asosida tuzilgan. Qo‘llanmada ma‘ruzalar, mavzularga oid chizma-jadvallar, har bob bo‘yicha shaxslar, atamalar, geografik nomlar hamda tarixiy sanalar berilgan. Mavzular bo‘yicha olgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida har bob bo‘yicha mavzulashtirilgan testlar va boshqotirmalar berilgan. “O‘rta asrlar tarixi” qo‘llanmasi ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi O‘zbekiston tarixi, ikkinchi qismi esa Jahon tarixi yoritilgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning “*tariximizga istiqloq nazari bilan qaraydigan tadqiqotchilarni maktab davridan tayyorlash*” haqidagi orzulari, ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning muvaffaqiyati sifatida qo‘llingizda varaqlab ko‘rayotgan O‘rta asrlar tarixi Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san‘at litseyining “**Iqtidorli yosh tarixchi**” to‘garagi a‘zolari tomonidan tayyorlanib, sizning hukmingizga havola etmoqdamiz.

*Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san‘at litseyining
oliy toifali tarix o‘qituvchisi,
“Iqtidorli yosh tarixchi” to‘garagi rahbari.*





I BOB

ILK O'RTA ASRLARDA VATANIMIZNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

I QISM.

O'ZBEKISTON O'RTA ASRLAR DAVRIDA

O'рта asrlar tarixini davrlashtirish. O'zbekistonda o'рта asrlar tarixi IV-XVIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'z navbatida uch davrga bo'linadi: 1) **IV-IX asrlar** — ilk o'рта asrlar; 2) **IX-XV asrlar** — rivojlangan o'рта asrlar; 3) **XVI-XVIII asrlar** — so'nggi o'рта asrlar.

Ilk o'рта asrlar davrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Yer egaligi munosabatlarining tashkil topishi;
- Ilk o'рта asr davlatlarining vujudga kelishi;
- Turkiy qabilalarning O'рта Osiyoga siljib kelishi va bu yerlarda o'z davlatlariga asos solishlari;
- Ilk o'рта asr shaharlarining shakllanishi;
- O'рта Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi;
- Xalifalik zulmiga qarshi xalq ozodlik qo'zg'olonlari;
- Islom dinining paydo bo'lishi va keng tarqalishi.

Rivojlangan o'рта asrlar davrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Arab xalifaligidan mustaqil davlatlarning ajralib chiqishi;
- 1 va ikkinchi Renessansning vujudga kelishi va ularning jahon madaniyatiga ta'siri;
- O'zbek xalqining shakllanishi;
- Chingizxon istilosi;
- Mo'g'ullar zulmiga qarshi xalqimizning ozodlik kurashi;
- Chig'atoy ulusining tashkil topishi va uning inqirozi;
- Amir Temur va Temuriylar saltanatining tashkil topishi va ularning inqirozga uchrashi.

So'nggi o'рта asrlar davrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining tashkil topishi va uning O'рта Osiyoni zabt etishi;
- Movarounnahrning qadimiy aholisi o'zbek nomini olishi;
- O'рта Osiyoning uchta bir-biriga yovlashgan davlatlarga ajralib ketishi;
- O'рта Osiyo davlatlarining jahon bozorida uzilib qolishi oqibatida qoloqlikka mahkum bo'lishi;
- Iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga ehtiyoj tug'dirmasligi.

O'рта asrlar tarixiga oid manbalar. Inson faoliyati yoki uning ta'siri natijasida yaratilgan barcha ashyolar **tarixiy manbalar** deyiladi. O'рта asrlar tarixiga oid manbalar **moddiy** va **yozma** manbalarga bo'linadi. Moddiy manbalarga o'рта asrlarga oid ashyoviy yodgorliklar, mehnat qurollar, qurol-yarog'lar, tanga chaqalar, kiyim-kechaklar, uy jihozlari va idishlar kiradi. Bu davrga oid yozma manbalar ikki guruhga bo'linadi: **1) rasmiy hujjatlar va 2) tarixiy, mahalliy va biografik asarlar.**

Rasmiy hujjatlarga yorliqlar, farmonlar, vasiyatnomalar, vaqfnomalar, hisob-kitob daftarlar, rahnomalar, rasmiy yozishmalar kiradi.

Tarixiy, mahalliy va biografik asarlarga hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan bo'lib, ularda podshohlar, xonlar, amirlar, yirik ruhoniylarning hayoti va faoliyati yoritilgan bo'lib, unda xalqning tarixi cheklab o'tilgan.

O'рта asrlar tarixi manbalari bir qator yordamchi sohalarga: **paleografiya, diplomatika, geraldika, sfragistika, epigrafika, numizmatika, metrologiya, xronologiya** va **toponomika** qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanadi.

Yerga egalik qilish munosabatlari. Qang' va Kushon podshohliklari davridagi yuksalish aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Dehqonchilikdagi yutuqlar bunda yaqqol namoyon bo'ldi: 1) Shaharlar soni ko'paydi; 2) Shahar — hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markazga aylandi; 3) Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalaklar kashf etildi; 4) Sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi; 5) G'allakorlik, polizchilik, paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi.

Dehqonchilikdagi bunday o'zgarishlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi. Bular quyidagilardan iborat bo'lgan: 1) Qishloqlar nufuzi oshdi; 2) O'troq aholi bilan ko'chmanchi aholi o'rtasida aloqalar rivojlandi; 3) Ko'chmanchi aholining o'troq hayotga o'tishi kuchaydi; 4) Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish jadallashdi; 5) Sarkorlar obro'-e'tibori va ta'siri kuchaydi.

Bularning barchasi dastlabki yer egaligi munosabatlarining shakllanishiga olib keldi. **“Dehqon”** — qishloq hokimi, avvalgi sarkorlar bo'lib, o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to'g'on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z tazyiqini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan. Dehqonlar qadimgi mulkdor tabaqa bag'rida dunyoga kelgan va yanada boyib borayotgan katta yer egalari edi. Dehqonlarning shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalarga, qishloqlarda ekinzor paykallar, ko'shk, qo'rg'on, objuvoz, moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Ularning bundan tashqari mol-u jonini qo'riqlaydigan, ichki va tashqi dushmanlardan muhofaza qiladigan harbiy yigitlari — **chokarlari** bo'lgan.

V asrning o'rtasida yerlar mulkdor dehqonlar va koinlar qo'lida to'planib borsada, obikor yerlar asosan qishloq jamoalari tasarrufida bo'lgan.

Yer egaligi munosabatlarning tarkib topishi bilan mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qishloq jamoalari **mulkdor dehqon** va unga qaram bo'lgan yersiz va erksiz **kadivarlarga**, ya'ni qishloq qo'rg'onida yashovchilarga ajralib ketdi. **Kashovarzlarni**, yani erkin ziroatkorlarni qaram **kadivarlar**ga aylanish jarayoni kuchaydi. Ayrim katta yerlarga ega bo'lgan dehqonlar o'z viloyatlarida mustaqil hokim bo'lib oladilar va buning oqibatida mamlakat mayda davlatlarga ajralib ketdi.

ILK O'RTA ASR DAVLATLARI

Xorazm davlati. Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy **Afrig'iyalar sulolasiga** mansub **xorazmshohlar** idora qila boshlaydi. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a bo'lgan. 305-yilda xorazmshoh **Afrig'** o'z qarorgohini Kat shahriga ko'chirdi va uning yonida o'ziga Alfir qasri ichida saroy qurdiradi. Xuddi shu paytdan boshlab Afrig'iy podshohlari kumush tangalar zarb qila boshlaydilar.

III asrdan boshlab Kushon podsholigi tanazzulga yuz tutadi. Asta—sekin shaharlar huvillab qoladi. Kuchsizlanib qolgan Kushon podsholigi ko'chmanchi qabilalar hujumiga uchraydi.

Xioniylar davlati. IV asr o'rtalarida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan **Grumbat** boshchiligidagi **xiyon** qabilalarining hujumi boshlanadi. 353-yilda ular Sug'dga bostirib kiradilar. Xiyoniylar sosoniylar bilan to'qnash kelib, ularni yengadilar. IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda 120 yildan oshiqroq hukmronlik qilgan kuchli **xiyoniylar** hukmronligi o'rnatiladi. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi.

Kidariylar davlati. V asrning 20-yillarida Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga **Kidar** boshchiligidagi kushonlarning avlodlaridan bo'lgan **to'xtarlar** kirib keladi. Ular **kidariylar** nomi bilan ham tilga olinadi. Tez orada **kidariylar** Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol qilib, **xiyoniylar** davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatadi. **Balx** shahri **Kidariylar davlatining** paytaxtiga aylantiriladi. V asrning 60-yillariga qadar ular Sosoniy shohlarining Sharqdagi asosiy dushmani bo'lib qolgan. **Kidariylar** bilan **sosoniylar** davlatlari o'rtasidagi chegara **Talikon** yaqinida bo'lgan. 456-yilda sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar **Eftallar** bilan ham to'qnash kelib O'rta Osiyoni tark etadi va Shimoliy Hindistonda o'rmashib, u yerlarda 75 yil hukmronlik qiladi.

Eftallar davlati. V asrning o'rtalarida eftallar deb atalgan yirik qabilalar birlashmasi O'rta Osiyoga bostirib kiradi. **“Eftal”** degan nom ilk bor **“xetal”** shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida **“Eftalon”** deb yuritilgan qabila nomidan olingan. Muarrixlar eftaliylarni asli sak-massaget va xunn qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Qabila oqsoqoli **Vaxshunvar** boshliq Eftallar davlati tashkil topadi. Eftallar davlatiga O'rta Osiyodan tashqari Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonning yerlari kirgan. Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar shohi **Peruz** (459-484) ularga qarshi uch marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. Uning vorislari **Kubod** (488-431) va **Anushervon** (531-579) hukmronlik qilgan davrlarda eftallar bilan munosabatlar yaxshilanadi. Eron uzoq vaqt davomida xiroj to'lab turgan.

563-567-yillari janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan zarbaga uchragan Eftallar davlati barbod bo'ladi. Natijada Eftallar davlati Eron sosoniylari va Turk xoqonligi o'rtasida o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Eftallar davrida yerga egalik munosabatlari shakllanib bordi. Ilgarilari harbiy yurishlardan katta daromad qilib turgan zodagonlar yer ularni doimo ta'minlash manbai bo'lishini anglab olishadi.

Eftallar davlatining aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, qolgani esa ko'chmanchi chorvachilik hayot tarzini o'z boshidan kechirgan. Eftaliylarning ko'pchiligi mahalliy aholi bilan aralashib, o'troq hayot tarziga o'tgan. To'xtariston va Sug'd rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblangan. Qashqadaryo va Zarafshonda g'alla, sholi, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoda paxta yetishtirishgan. Farg'ona vodiysi arg'umoq otlari bilan mashhur bo'lgan.

Yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarga tegishli bo'lgan. Dehqonlar va ibodatxonalarga tegishli yerlar ham bo'lgan.



Ibodatxonalarga tegishli yerlar “**vag'nze**” deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug' jamoalari va ularning oqsoqollari-biylar tasarrufida edi.

V asrda eng yirik sug'orish tarmoqlari hisoblangan **Zog'ariq, Bo'zsvu** va **Darg'om** kanallari barpo etiladi. **Chag'oniyon** (Surxondaryo), **Samarqand, Buxoro, Kesh** (Shahrisabz), **Naqshab** (Qarshi) va **Toshkent** atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi.

Eftallar ichki va tashqi savdoda dastlab sasoniylarning kumush tangalaridan keng foydalanganlar. Keyinchalik o'zlarining kumush tangalarini zarb qiladilar. **Buxoro, Poykand, Vardona, Naqshab, Samarqand** va **Xorazmda** mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar ichki savdoda keng muomalada bo'lgan.

Eftallar o'z tashqi siyosatlarida kuchli harbiy qo'shinga suyananlar. Uning asosini suvoriylar tashkil qilgan. Eftal suvoriylari gurzi va shamshir bilan qurollangan. Kamondan o'q uzishda mohir mergan bo'lganlar. Eftallarning qonuniy davlati podshoh tomonidan boshqarilgan.

Madaniyati. Eftallar davlatining tashkil topishi mahalliy aholining madaniy hayotiga ham ta'sir qildi. **Xorazm, Buxoro, Naqshabning** ziroatkor yerlari payhon etilib, ko'plab qishloq va shaharlar huvillab qoldi. **Xorazm** aholisining katta qismi **Zarafshon vodiysiga** kelib o'rtnashdi. Ko'chmanchi qabilalarning dasht udumlari va e'tiqodlari o'troq aholining hayotiga kirib bordi. Kulolchilik mahsulotlari odmilashdi va dag'allashdi. Bunday holat ayniqsa **Xorazm, Buxoro** va **Qashqadaryo** vohalarida ko'zga tashlanadi. **Toxariston** va **Sharqiy Sug'da** deyarli sezilmaydi. O'troq hayotning madaniy an'analari dasht udumlari bilan omixtalashib, ilk o'rtta asrlarga xos madaniyat shakllana boshladi. Binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atda bunday o'zgarishlar ko'proq namoyon bo'ldi. **Samarqand, Buxoro, Naqshab** va **Toshkent** dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va qo'rg'onlar qad ko'tardi. Bu davr binokorligi va me'morchiligida ayniqsa qasrlar alohida o'rin tutgan. Saroy va ibodatxona devorlarini rangdor tasvirlar bilan bezash hamon odatiy tusda edi. Bunday tasvirlar **Bolaliktepa qasri** devorlarida topib o'rganilgan.

Eftallarning diniy ta'limoti xilma-xil bo'lgan. Aholi **zardushtiylik, budda, nasoro, moniy, mazdak** va **yahudiy** ta'limotlariga e'tiqod qilganlar. V-VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan tasviriy san'at — **koroplastika** — ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Eftallar xati baqtriya yozuvi asosida paydo bo'ladi. Ularning yozuvi asosan 22 harfdan iborat bo'lib, chapdan o'nga ko'ndalangiga yozilgan.

Bu davrda Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan iqtisodiy aloqalar kengayib boradi. Eftallar “Buyuk Ipak yo'li”ni o'z nazoratida tutib turishga harakat qilgan. Ipak yo'li savdosida sasoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug'diylar vositachilik rolini o'ynardi. V asrda O'rtta Osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. O'rtta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan.

Turk xoqonligi. Olimlarning fikriga ko'ra, eng qadimgi turkiyzabon xalqlar to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi 1756-yilga tegishli. Turk atamasi **kuchli, baquvvat** degan ma'noni bildiradi. V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi yarmilarida Oltoy va Janubiy Sibirda Ashina (himmatli, mard bo'ri) qabilasining yabg'ulari **Asanshod, Tuu** va **Bumin** (460-553)lar boshchiligida turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga keladi. 551-yilda **Bumin** boshchiligida Turk xoqonligi tashkil topadi. Davlat hukmdori xoqon deb yuritilgan. Xoqonlikni markazi Oltoydagi **Utukan** shahri edi. Turklarning g'arbga tomon yurishlarida **Istemi** boshchilik qiladi. Unga “**yabg'u xoqon**” VI asrning 60-yillarida Turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor-mor qilib, katta davlatga asos soladi. Turk xoqonlari O'rtta Osiyoni o'zlariga bo'ysundirib, mahalliy hokimlardan har yili belgilangan miqdorda o'lp on olib turgan, ularning ichki ishlariga aralashmagan.

Eftallar davlati yo'q bo'lgach, Eron Amudaryodan to Suriyagacha o'tgan Ipak yo'li ustida nazoratni o'z qo'lida tutib turishga harakat qiladi. Turklarni uning hududi orqali Vizantiya bilan aloqa qilishga yo'l bermaydi. Turklarni aloqani tiklash uchun **Maniakh** boshchiligidagi elchilarni yuborishi natija bermaydi. Turklar Vizantiya bilan harbiy ittifoq tuzib, sasoniylarga zarba berish maqsadida harbiy yurish boshlashga qaror qiladi. 568-569-yillarda Turk xoqonligi Konstantinopolga imperator **Justin II** huzuriga o'z elchilarini yuboradi. Biroq, ko'p o'tmay Vizantiyaning avarlar bilan olib borgan tinchlik aloqalarini turklar ittifoqqa xiyonat deb bilib, 575-576 yillarda turklar Kimmeriy Bosforigacha kirib boradilar. Keyinchalik Vizantiya va xazarlar ko'magida turklar bir necha bor Eronga qarshi qo'shin tortadilar. 588-yilda ular Hirot yaqinida Erondan yengiladilar. Buning oqibatida Turk davlati endi Vizantiya bilan aloqalarni Kaspiy dengizining shimoliy qismidan yangi savdo yo'ldan olib borishga majbur bo'ldi.

VI asrning 70-80-yillarida Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho'zilgan ulkan maydonda ko'chmanchi chorvadorlarning **Buyuk Turk xoqonligi** tashkil topdi. Turk xoqonligi markazlashgan davlat emas edi. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan edi. Mamlakat chorvador aholi va o'troq aholiga bo'linardi. Ko'chmanchi chorvador aholi “**budun**” yoki “**qora budun**” deb atalgan. Budun o'z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. Jamoani “**xoqon**” va zodagonlar kengashi — qurultoy boshqargan. Xoqonni taxtga o'tkazishda maxsus marosim bo'lgan. Amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tkazib, quyosh aylanasi bo'ylab 9 marta aylantirganlar va so'ngra otga mindirib bo'yniga ipak mato bog'laganlar. Xoqondan keyingi birinchi shaxs yabg'u (bahodir) bo'lgan. Elning hokimi “**yabg'u**” yoki “**jabg'u**” nomi bilan atalardi. Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qarindosh bo'lganlar ko'tarilardi. Shuning uchun ba'zan u “**yabgu xoqon**” deb ulug'lanardi. Yabg'u boshchiligida bir tuman, ya'ni o'n ming suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboshisi “**shod**” deb yuritilardi.

VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida o'ndan ortiq mayda mahalliy hokimiyatlar

mavjud edi. Turkular ularning ichki ishlariga deyarli aralashmay faqat boju yasoq undirib olish bilan cheklanardilar. Turkular o'troq viloyatlarni boshqarishda Xitoy, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Sug'dning maslahatchilaridan keng foydalanar edilar.

VI asrning 80-yillari oxirlarida bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi hamda Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat natijasida Turk xoqonligi ikki mustaqil davlatlarga ajralib ketadi. Ulardan biri mo'g'ulistonda tashkil topgan **Sharqiy turk xoqonligi**, ikkinchisi esa O'rta Osiyo, Jung'oriya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan **G'arbiy turk xoqonligi** edi.

G'arbiy turk xoqonligi. G'arbiy turk xoqonligining markazi **Yettisuv** edi. Aholisining asosiy qismi o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanar edi. Sharqiy turk xoqonligining aholisining asosiy qismi ko'chmanchi chorvador edi. G'arbiy turk xoqonligida **To'nyabg'u** davrida (618-630) boshqaruv islohoti o'tkaziladi. Mahalliy hukmdorlarga "yabg'u" unvoni beriladi. Bundan ko'zlangan maqsad ularni xoqonlik ma'muriyati bilan bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish edi. Natijada mahalliy hukmdorlar xoqonning noibiga aylanadilar. Ular ustidan siyosiy nazoratni kuchaytirib, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning hukmdorlari huzuriga o'z vakillarini — tudunlarni yuboradilar.

Ichki va tashqi savdo-sotiq ishlarida sug'd savdogarlarining mavqei katta edi. VII asrning birinchi yarmida G'arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy aloqalar ayniqsa gavjumlashdi. Bu davrda Xitoyga 9 marta savdo elchilari yuborildi.

Kashovarzlarning zodagon dehqonlarga qarshi V asrning oxiri — VI asrning boshlarida Eronda **Mazdak**, 585-586-yillarda Buxoroda **Abruy** qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi.

Madaniyati. VI-VIII asrlarda O'zbekiston hududida shahar hayoti, moddiy madaniyat va san'atning rivojlanishi davom etadi. Eng asosiysi turli istilolar-u voqealarga qaramasdan, oldingi davr madaniyati bilan uzviylik saqlanib qolgan.

Xoqonlikda Xorazm, Sug'd, oromiy, turk-runiy, urxun-enasoy, ko'k-turk yozuvlari bo'lgan. Sug'd yozuvlari katta hajmda 1932-yilda Panjakent yaqinidagi Mug'qal'asidan topilgan edi. Sug'd yozuvi asosida uyg'ur va turk yozuvlari shakllangan. Turk xoqonligi to'g'risida bitiktoshlar ayniqsa qimmatli ma'lumotlar beradi. Qultegin bitiktoshi, Bilga xoqon bitiktoshi, To'n-Yuquq bitiktoshi ana shular jumlasidandir.

VI-VIII asrlarda tasviriy san'at yuksak cho'qqiga ko'tariladi. **Afrosiyob**, **Bolaliktepa** (Surxondaryo), **Varaxsha** (Buxoro)da topilgan devoriy rasmlar bunga yaqqol misol bo'ladi. Rasmlarda turli voqealar katta did va mahorat bilan ishlangan.

Xitoy manbalarining ko'rsatishicha, besh yoshga to'lgan o'g'il bolalar yozuv va hisob ishlariga o'rgatilar edi. Ular balog'at yoshiga yetgach, boshqa mamlakatlarga savdo ishlarini o'rganish uchun yuborilgan.

Yirik kanallar qazilishi, qishloq xo'jalik ishlarining samarali olib borilishi ajdodlarimizning har tomonlama keng bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

VI-VIII asrlarda O'rta Osiyoda zardushtiylik, budda, nasoro, moniy, qam (shaman) kabi bir necha dinlar mavjud bo'lsa-da, aholining ko'pchiligi otashparastlar edi. Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida otashparastlik keng tarqalgan edi.

MAHALLIY HOKIMLIKLARNING TASHKIL TOPISHI

Mahalliy hokimliklar. V-VII asrlarda yer egaligi munosabatlar rivoj topib, siyosiy jihatdan zaiflashuvi oqibatida 15 dan ortiq mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. Bunday davlatlarning eng yirigi **Sug'd**, **Toxariston**, **Xorazm**, **Choch** va **Iloq**, **Farg'ona** edi. V-VII asrlarda bu davlatlar avval eftallarga, keyin esa Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ularning ichki ishlariga bu davlatlar aralashmagan. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Sug'd. Sug'd Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan. Uning tarkibida **Samarqand**, **Buxoro**, **Kesh** va **Naqshab** mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o'z hokimiga va harbiy chokarlariga ega edi. Ularning ko'pchiligi Samarqand ixshidiga siyosiy jihatdan tobe bo'lsa-da, ammo **Buxoro**, **Kesh** va **Naqshablar** deyarli mustaqil edi. Sug'dda dehqonchilik, bog'dorchilik, ayniqsa uzumchilik rivoj topgandi. Bu yerning histori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi. Hunarmandchilikning to'qimachilik, kulolchilik, ko'ncilik, chilangarlik, taqachilik, najjorlik, qurolsozlik va zargarlik yuqori darajada rivojlangan edi.

Toxariston. Toxariston Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan bo'lib, 27 tog' va tog' oldi viloyatlarini birlashtirgan edi. Ular ichida **Xuttalon**, **Shuman**, **Qabodiyon**, **Shug'non** va **Vaxon** viloyatlari eng kuchli va nufuzli edi. Poytaxti **Balx** shahri bo'lgan. Toxaristonning ilk o'rt a'asr mahalliy hokimliklari hali yagona davlatga birlashib markazlashmagan edi. Toxariston aholisi budda diniga e'tiqod qilgan. O'zining 25 harfli yozuviga ega bo'lgan. Aholining asosiy qismi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Toxaristonda ayniqsa qurolsozlik yuksalgan. Chokarlari kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar va shamshir bilan qurollanardi. Toxaristonda shishasozlik va to'qimachilik ancha rivoj topgan.

Farg'ona. Farg'ona mahalliy hokimligi Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, poytaxti **Koson** va **Axsikat** shaharlari bo'lgan. Farg'ona hukmdorlari "ixshid" deb atalgan. Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli

shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu yerda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Aholisi budda diniga sig'inishgan.

Choch va Iloq. Choch va Iloq Chirchiq va Ohangaron vodiylarida joylashgan edi. Chochning poytaxti **Chochkat** shahri, Iloqning poytaxti **Tunkat** edi. Chochning hukmdori "**tudun**", Iloqniki esa "**dehqon**" deb yuritilgan. Choch va Iloqda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, konchilik, ichki va tashqi savdo rivoj topgan. Oltin va kumushlarni kovlab olishda ayniqsa Iloq O'rta Sharqda mashhur bo'lgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Ayrim tanga pullar orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar uchraydi. Sug'd tili rasmiy til edi. VIII asrda Choch va Iloq birlashib yagona davlatga aylanadi.

Boshqaruv ma'muriyati. Mahalliy hokimliklarda boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, hujjatlashtirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan.

VI-VII ASRLARDA MADANIY HAYOT

Yozuv. Bu davrda Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bo'lgan. Qadimgi oromiy yozuvi asosida **sug'd** va **xorazm** yozuvlari vujudga kelgan edi. Baxtar yozuvi asosida esa **toxar yozuvi** shakllangan edi. Xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog'och, sopolga va qog'ozning bahosi nihoyatda baland bo'lganligidan kamdan-kam hollarda qog'ozga bitilardi. Ayrim bitiklar esa podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik kirim va chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan Sug'd yozuvlari Panjikent yaqinidagi **Qal'ai Mug'da**, Sharqiy Turkistondagi **Turfan** shahri yaqinida, Samarqandning qadimiy xarobasi **Afrosiyobda** qayd etilgan. Ularda Sug'dning siyosiy tarixi, huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Sug'dda o'g'il bolalar besh yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi. Sug'd xati asosida uyg'ur va turk yozuvlari shakllangan. Uyg'ur yozuvidan esa o'z navbatida keyinchalik mo'g'ul va manjur xatlari paydo bo'lgan. Sug'diylarning kattagina guruhi doimo turk xoqonlarining qarorgohida yashagan. Ularning ayrimlari saroy a'yonlari va ma'murlari qatoridan o'rin egallab, maslahatchi, elchi, xat va savodga o'rgatuvchi ustoz vazifasini bajarganlar.

Shuningdek, **ko'k turk xati** ham qo'llanilgan. Turklarning bu yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38—40 harflardan iborat edi. U tosh va yog'ochlarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi **ko'k turk bitiklari (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari)** Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topilib, o'rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metall buyumlar, yog'och hamda tanga pullarga bitilgan.

Diniy e'tiqodlar. VI—VII asrlarda O'rta Osiyoda **zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik** va **qam (shomoniylilik)** kabi bir nechta mahalliy dinlar mavjud bo'lgan. Aholining ko'pchiligi zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan.


Samarqand viloyatining Urgut tumani Sug'ddagina emas, balki butun O'rta Osiyoda **nestorianlik** markazlaridan hisoblanardi. Ilk o'rtasrlarda O'rta Osiyo xalqlarining mafkuraviy hayotida **moniy** dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Moniy dini ta'limoti bo'yicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi — yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir. Ibodat, ro'za, sadaqa moniy dinining arkoni hisoblangan.


Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan **shomoniylilik** diniga sig'inib kelgan. Bu din jon va ruhlarga, otobobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimgi turklar o'z dinini "**qam**" deb yuritganlar. Chunki ularda "**shomon**" degan so'z bo'lmagan. Bu din koinotni yo'qlikdan bor qilgan Ko'k Tangriga e'tiqod qiluvchi yakka xudolik dini hisoblanadi. Chorvador ko'chmanchi aholi Tangriga bag'ishlangan marosimlar o'tkazib, qurbonliklar qilishgan. Masalan, Ko'k Tangri sharafiga qurbonlik uchun qora qashqa ot so'yilgan.


San'at. Tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ular o'z davrida sodir bo'lgan o'zgarishlardan dalolat beradi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida **Panjikent, Varaxsha** va **Afrosiyob**, Farg'ona vodiysida **Quva** xarobalarida hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha zamonning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Devoriy tasvirlar o'sha zamonning o'ta murakkab hayoti, din-u e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalardan hikoya qiluvchi manba hamdir. Haykaltaroshlik rivojiga ayniqsa budda dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinida **Ajinatepadan** buddaning bahaybat haykallari topilib, o'rganildi. Ajinatepadan topilgan budda haykalining bo'yi 12 metrga boradi.


Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan. Ilk o'rtasr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.


Musiqa san'ati. O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohaları ham rivojlangan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan edi. Choch o'yinchi yigitlari ijro etgan mashhur "**Choch raqsi**" yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi "**Doira raqsi**" Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.





























TARIXIY SHAXSLAR

ABRUY (unvoni; turkchada Apa, xitoycha Abo — katta ma'nosida, asl ismi To'ramon) (?-taxminan 585-yil, Poykent) — 585-586-yillarda bo'lib o'tgan *kadivarlar* qo'zg'oloni rahbari. Xoqon xonadoniga mansub ba'zi tarixchilarning fikricha, turk xoqoni *Mug'on* (Muqon) bilan Sug'd kanizagidan tug'ilgan shahzoda *To'ramonning* unvoni Abo xoqon (forscha Abruy) bo'lgan. Abruy Sharqiy turk xoqonligidagi taxt uchun kurashlarda mag'lub bo'lgach, onasi, xotini, bola-chaqasidan ajragancha, ozgina tarafdorlari bilan Zarafshon vohasiga qochib kelib qo'zg'olon ko'targan. X asr Buxoro tarixchisi *Muhammad Narshaxiyning* yozishicha, qo'zg'olon natijasida Abruydan jabrlangan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib Turkiston va Taroz atrofiga borib o'mashdilar. Buxoro aholisi Abruyni Poykent shahri hokimi etib tayinlagan. Qochib ketganlar orasida bir katta dehqon Buxoroda Buxorudot nomi bilan shuhrat topgan edi. Qochib borganlar turk xoqoniga murojaat qilib qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so'raganlar. Turk xoqoni *Qoracho'rin Turk o'g'li Sheri Kishvar* boshliq qo'shin yuboradi. Qo'zg'olon bostirilgach, Abruy qiynab o'ldirilgan. Kadivar va xizmatkorlar o'z xo'jayinlari — dehqonzodalarga qaytariladi.

AFRIG', Ofrig' — milodiy IV asr boshida Xorazmda hukmronlik qilgan xorazmshoh, afrig'iylar sulolasi asoschisi. Qadimgi Xorazmdagi ko'plab qal'alarning bunyod etilishi Afrig' nomi bilan bog'liq. 305-yilda xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Kat shahriga ko'chiradi. Kat qayta tiklanib, Al-Fir qal'asi ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning Afrig'iy shohlari betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar.

ALBAUM L.I. — 1953-1955-yillarda Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan V-VII asrlarga mansub tasviriy san'atning nodir namunalari bilan biri *Bolaliktepa* yodgorligini ochib o'rgangan arxeolog.

ANUSHIRVON (to'liq ismi Xusrav I Anushirvon) — *Sosoniylar* sulolasidan bo'lgan Eron podshohi (531-579). Anushirvon otasi — *Kubod* joriy qilgan idora usuli, soliq tizimi hamda harbiy sohalarda jiddiy islohotlar o'tkazdi, mamlakatni raiyatparvarlik bilan boshqardi. Uning hukmronligi davrida eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab tinchlik tusini oldi. Hatto ayrim vaqtlarda Vizantiyaga qarshi eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilingan bo'lsa-da, ammo sosoniylar yil sayin kumush hisobida muayyan bojni muttasil to'lab turadi. Hind eposi *"Kalila va Dimna"* Anushirvon topshirig'i bilan pahlaviy tilga tarjima qilindi, *Avesto* qayta ko'chiriladi. Anushirvon shahar va qishloqlarni obod etish, ko'hna qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor berdi, uning davrida zardushtiylik rivojlandi, o'zaro urushlarga uzil-kesil barham berildi. Uning hukmronligi davrida eftaliylar bilan munosabatlar ancha yumshab, tinchlik tusini olgan. Anushirvonning adolatliliigi, ma'rifatpar-varligi xalq orasida keng yoyildi, og'zaki ijodda ham, yozma adabiyotlarda ham Anushirvon tog'risida

qissalar to'qildi. *Firdavsiy* Anushirvon haqida doston yaratgan va uni *"Shohnoma"*ga kiritgan. Anushirvon asli tarixiy shaxs bo'lgan, keyinchalik Sharq xalqlari badiiy ijodida keng tarqalgan timsolga aylangan.

ASANSHOD — V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarimlarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan *Ashina* qabilasining yabg'usi. U *Tuu* va *Bumin* bilan birlashib turkiy qabilalarning ittifoqini tuzadi.

ASHINA Xelu (VII asr) — G'arbiy Turk xoqonlaridan biri. 645-yil Tan sulolasi Yaochi tumani (hozigi Xitoydagi Urumchi shahrining shimoli-sharqidagi Fokan uezdi)da Ashina Xelu boshchiligidanoiblik barpo etgan. Xitoy imperatori *Li Shimin* shu yo'l bilan turkiy qavmlarga o'z ta'sirini o'tkazib, ularning mulklarini egallab olmoqchi bo'lgan. Biroq 651-yil Ashina Xelu katta kuch to'plab Tan imperiyasi yerlariga hujum qilgan. Bunga javoban Xitoy Ashina Xeluga qarshi jazo qo'shini jo'natgan. Ko'p yillik janglardan so'ng Xitoy turkiylarini yengga olgan. Ashina Xeluni hiyla bilan Chochga boshlab keltirib, asir olganlar va Tan qo'shinlari qo'mondoni qo'lga topshirganlar.

BUMIN (Xitoy tarixiy manbalarida "Tumin") (? — 553-yil mart) — *Turk xoqonligi* asoschisi va uning birinchi hukmdori (55-553). *Jujan xonligiga* tobe ashina urug'i (ma'dan qazish, temir eritish va undan qurol-yarog'lar yasash bilan shug'ullan-gan)ning sardori. Bumin G'arbiy Vey imperiyasi hukmdori bilan yashirincha harbiy ittifoq tuzadi-da, uning qizi *Chanlega* uylanadi (551). So'ng, Bumin 55-yil qishida to'satdan jujanlarga hujum qilib, ularni tor-mor keltiradi. Xon *Anaxuan* (520-552) mag'lubiyat alamiga chiday olmay o'zini o'zi o'ldiradi, uning o'g'li — taxt vorisi *Yangluchen* esa jujanlar ittifoqchisi bo'lmish *Tsi imperatori* huzuriga qochadi. Shunday qilib, Bumin *"elxon"* unvoni bilan ilk Turk xoqonligi taxtiga o'tiradi.

DUG'DG'UNCHA — sug'd ayoli, laqabi *Chata* bo'lgan kelin. Uning turk yigiti *Uttegin* bilan qayd etilgan nikoh bitimi va vasiqa 1932-yilda Mug' tog'idan topilgan. Topilgan bitimga asosan Dug'dg'unchaning ixtiyori bilan qonunga mufofiq *Uttegin* sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, zebu ziynat bilan ta'minlamog'i va hurmat-izzat qilmog'i lozim edi. O'z o'rinda Dug'dg'uncha ham *Utteginni* sevimli va ardoqli er sifatida tutmog'i, uning baxtli turmushi haqida qayg'urmog'i va uning buyruqlarini qonun kabi tinglamog'i darkor edi. Hujjatda eru xotinlardan biri ikkinchisining roziligisiz nikoh bitimini buzish shartlari bayon etilgan. Jumladan, agar *Uttegin* Dug'dg'unchaning roziligisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda Dug'dg'unchaga 30 dinoriy sof kumush drahma tovon to'lashi va uni na xotin va na xizmatkor sifatida tutib turmay ozod etishi shart bo'lgan. Yana boshqa hujjat *Utteginning* Dug'dg'uncha qarindoshlariga bergan vasiqasi bo'lib, unda kuyov quyidagi shartlarni o'z ustiga olgani bayon etiladi. Ushbu vasiqaga binoan *"Chata* bugundan boshlab, kelajakda, to' abad mening xotinim bo'lib qoladi. Sening va Mitra (xudo) ning ishtirokida majburiyat olaman: uni sotmayman, qarz hisobiga qullikka bermayman, biror kimsaga himoyaga bermayman. Bordi-

Tarixiy shaxslar

yu, uni mendan kimdir tortib olsa, xo'rlasa, uni ziyon-zahmatsiz (sizlarga) jo'nataman. Chata o'zi ketishni xohlasa ham shu tariqa ziyon-zahmatsiz jo'nataman va sog'salomat topshiraman. Agar topshirmasam, u holda toza sifatida 100 dinoriy kumush drahma to'layman'.

ELTARISH — Turk xoqoni. Qultigin bitigida (VII asrning birinchi yarmi) nomi keltirilgan. Uning hukmronligi davrida turklar mamlakatda sodir bo'layotgan falokatlardan qutqariladi. Bu borada Bilga va Kultegin xizmatlari, ayniqsa Kultegin jasorati va qahramonligi to'g'risida bayon etiladi.

ESKIL — *nushibi* qabilasining boshlig'i. 563-yilda Turk xoqonligining elchilari rahbari sifatida Konstanti nopolga tashrif buyuradi. Tashrifdan maqsad — Vizantiyaning avarlarga xomiyligini to'xtatishga imperatorni ko'ndirish edi.

GRUMBAT (IV asr) — qadimda Turon zaminining shimolida yashagan xiyoniylar podshosi. Milodiy 353-yilda xiyoniylar Grumbat boshchiligida Sug'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular O'rta Osiyoga siyosiy tazyiqi kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashib, *Shopur II* ni yengganlar. 356-yil Shopur II *Amid* (Suriya) shahrini qamal qilgan paytda Grumbat o'g'li bilan unga ittifoqchi sifatida qatnashgan. Rim tarixchisi *Ammiam Marsellin* (IV asr)ning yozishicha, bu jangda xiyoniylar shahzodasi, Grumbatning o'g'li halok bo'lgan.

ISTAMI xoqon, Istemi (xitoycha Shi-de-mi, yunoncha-stemvis, vizantiyacha-Dizavul yoxud Silzibil, arabcha-Sindjibu) (?-576) — *G'arbiy turk xoqonligi*ning asoschisi va birinchi xoqoni (553-576). Bumin xoqonning ukasi. Akasi vafoti (553)dan so'ng *Turk xoqonligi*ning g'arbga qilgan harbiy yurishiga rahbarlik qilgan. Istami xoqon qo'shinining soni 100 ming kishi bo'lgan. Uning unvoni yabg'u-xoqon bo'lgan. Istami xoqon g'arbni zabt etishga jiyani Mug'on xoqonning yabg'usi sifatida yo'l olgan. Istami xoqon qo'shini qattiq qarshilikka uchramagan. 555-yil ular "G'arbiy dengiz" (*Orol dengizi*) bo'yiga yetib borganlar. Turkiylar bir yarim yil ichida butun Markaziy Qozog'iston, Yettisuv va Xorazmni zabt etganlar. 558-yil turkiylar Volga bo'ylariga chiqqanlar. Istami xoqonga tobe bo'lishdan voz kechgan *var* va *xuni* qabilalarining qolgan-qutganlari (20 mingga yaqin kishi) qochib, keyinchalik yagona xalq — *avarlarga* birlashgan. Istemi eftaliylarga qarshi yurishni faqat 561-yil boshlagan, chunki bu davrda *Xusrav I Anushirvon* (531-579) Vizantiya imperatori *Yustinian* bilan sulh tuzib, e'tiborini Sharqqa qaratgan edi. *Xusrav I Anushirvon* tashabbusi bilan yuzaga kelgan o'zaro harbiy ittifoq Eron shohining Istami xoqonga kuyov bo'lishi orqali yanada mustahkamlandi. Sosoniylarni Balxga bergan zarbasidan foydalanib, Istami xoqon qo'shini 565-yili O'rta Osiyoda eftaliylar podshosi *Gatifarning* qo'shinini tormor qilgan. O'rta Osiyoni to'la zabt etish 571-yilda tugallangan. Turkiylarning ashaddiy dushmani bo'lgan avarlar Savadan Donga qadar cho'zilgan dashtlarni egallaganlar va Istami xoqon janubga qilayotgan yurishini to'xtatib, e'tiborini g'arbga qaratishga to'g'ri kelgan. 567-571-yillarda turkiylar butun Shimoliy Kavkazni egallashgan, ular *balanjar* va *xazarlarni* tobe etib, Darbandga qadar yetib borganlar. Ularning yarlari Bospor yaqinida Vizantiya

imperiyasi yerlari bilan tutashgan. Istami xoqon 10 ta turkiy xalqni birlashtirgan yagona ittifoqni barpo etgan. Istami xoqon vafot etgach, og'illari *Qora Churinga* Yettisuv, *Turksanovga* esa Quyi Volga va Ural atrofidagi yerlar meros qolgan.

KIDAR — V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga kirib kelgan toxtarlarning yo'l boshchisi. *Kidariylar davlati*ning asoschisi.

KUBOD I, Qavad (?-531) — Sosoniylar davlati shohi (488-496, 499-531). Zodagonlar va kohinlarning siyosiy va iqtisodiy qudratini zaiflashtirish maqsadida mazdakiylar harakatiga qo'shilgan va ularning dasturiga mos keladigan bir qancha islohotlar o'tkazgan. Taxminan 496-yili zodagonlar Kubod I ni taxtdan ag'darib, o'rniga ukasi *Zamaspn* o'tqazishgan. Kubod I eftaliylar huzuriga qochib borgan, ularning harbiy yordamida taxtini qaytarib olgan (499). Shundan so'ng zodagonlarga qarshi qaratilgan siyosatini davom ettirgan, mazdakiylik tarafdorlariga yuqori mansablarni bergan. Vizantiyaga qarshi muvaffaqiyatli urush olib borgan (502-505 yoki 506); shimolda *gunnlarning* bosqinini qaytargan. Kubod I davrida bir qancha shaharlarga asos solingan, sug'orish kanallari tarmog'i kengaygan, eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab tinchlik tusini olgan, hatto ayrim vaqtlarda Vizantiyaga qarshi eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilgan bo'lsa-da, ammo sosoniylar yil sayin kumush hisobida muayyan bojni muttasil to'lab turadi. Shuningdek Kubod I ning o'g'li *Xusrav I Anushirvon* davrida nihoyasiga yetgan ichki islohotlarga tayyorgarlik ishlari boshlangan. Kubod I hukmronligining oxirida mazdakiylar bilan aloqasini uzgan va 3-o'g'li *Xusrav* (Kubod I ning katta o'g'li — *Qovus* mazdakiylar tarbiyasini olgan) yordamida mazdakiylar tarafdorlarini qatag'on qilishni tashkil etgan (528/529). 527-yilda Vizantiya bilan qaytadan urush boshlagan; u Kubod I ning o'limidan so'ng ham davom etgan.

MANIAX (VI asr) — Turk xoqonligining Eronga yuborgan elchilar guruhi rahbari, sug'dlik savdogar. Xusrav I Anushirvon uzoq vaqtgacha Sug'd elchilariga uzil-kesil javob bermay turgan, sug'dlar keltirgan ipak mollari namunalarini o'tga tashlattirgan. Maniakh elchiligi muvaffaqiyatsiz chiqqach, turklar Vizantiya bilan ittifoq bo'lib, Eronga qarshi yurish boshlashga qaror qilishgan. 568-569-yillarda Turk xoqonligi Konstantinopolga, *Yustin II* saroyiga yana Maniakhni boshliq qilib elchilar yuborgan. Unga Eronni bir chekkada qoldirib, Vizantiya bilan bevosita savdo munosabatlari o'rnatish vazifasi yuklatilgan. U zimmasidagi vazifani uddalagan.

MAZDAK Ibn Hamdadon (470-529) — mazdakiylar ta'limotining asoschisi, mazdakiylar harakatining rahbari. Mazdak Eron shohi *Kubod I* (488-531) hukmronligi davrida Zardushdiylik otashgohlarining birida kohin, keyinchalik Eron bosh kohini bo'lgan. Mazdak ta'limotining asosida tenglik g'oyasi yotadi. Uning fikricha, dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi lozim. Buni zo'rlik yo'li bilan amalga oshirishni yoqlagan. Kohinlar va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan keyin *Kubod I* Mazdak bilan aloqani uzadi. Mazdak zardusht kohinlari va zodagonlarga qarshi dehqon va hunarmandlar qo'zg'alonga rahbarlik qildi. 529-yil

qozg'olon bostirilgach, Mazdak qatl etiladi.

MONIY ibn Fatak (216-yil, Bobil — 274-yil, Eron) — *moniylik ta'limoti* asoschisi. III asrning 30-yillarida Eron, O'rtasiy, Hindistonga safar qilib, buddizm, braxmanizm va boshqa dinlar bilan tanishgan. Keyinchalik o'z ta'limotini targ'ib etgan. U o'z targ'ibotini Midiya va Forsda boshlagan. Bu ta'limotni Eron shohi *Shopur I* quvvatlab, uni xristianlik va mahalliy dinlarga qarshi qo'ygan. Biroq Eronda uning ta'limoti otashparastlikning ashaddiy ruhoniylari tomonidan qaqshatqich zarbaga uchradi. Moniy Erondan qochishga majbur bo'lgan. Keyinchalik, bu mazhab tarafdorlari O'rtasiyning janubiy viloyatlari va Sharqiy Turkistonda qaror topadi. 273-yil Moniy Eronga qaytgan, bir oz vaqtdan so'ng qatl qilingan. Turli rivoyatlarda Moniyning o'z davrida iste'dodli naqqosh, rassom ham bo'lgani haqida hikoya qilinadi.

PERO'Z — *Sosoniylar* hukmdori (459-484). Uning hukmronligi davrida sosoniylar va eftallar o'rtasida uch marotaba shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Dastlabki janglarda Pero'z mag'lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori *Zenon* tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Bir oz vaqt o'tgach u Vizantiyaning elchisi bilan ittifoq bo'lib, eftallarga qarshi ikkinchi yurishini olib boradi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ikkinchi marta asirlikka olingan Pero'z 30 xachir o'lpon to'lash majburiyatini oladi. 484-yil Pero'z eftallarga qarshi uchinchi marta yurishga otlanadi. Bu galgi urush sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Marv ishg'ol qilinib, Eron ustiga juda og'ir o'lpon yuklanadi.

PROKOPIY — VI asrda yashab ijod etgan Vizantiya tarixchisi. Eftallar davlati haqida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Uning yozishicha, eftallarning qonuniy davlati podshohi mutlaq tomonidan boshqarilgan. Qo'shni davlatlar bilan munosabatlarida ular rumiy (vizantiyalik)lar va forslar adolatidan zarracha kam bo'lmagan adolatga amal qilganlar.

QAPAG'ON xoqon (?-716) — Turk xoqonligi hukmdori (691-716). Uning ismi *O'rxun bitiktoshlarida Qapag'an*, Xitoy yilnomalarida esa *Mochjo* shaklida uchraydi. U Ikkinchi Turk xoqonligining asoschisi bo'lmish akasi *Eltarish xoqon* vafot etgach, 691 yilda xoqonlik taxtiga o'tirgan. Qapag'on xoqon davrida xoqonlik yana O'rtasiyning eng yirik davlatiga aylangan. Qapag'on xoqon dastlabki faoliyatini Tabg'ach (Xitoy)ga hujum uyushtirish bilan boshlagan. U 693-706-yillar oralig'ida *Eltarish xoqonning* o'g'illari — *Bilga xoqon* va *Kultegin* bilan birgalikda Xitoydagi Xuanxe daryosi havzalari hamda Shandun (Xitoyning shimoliy-sharqi) o'lkasiga yurish qilib, 23 ta shaharni qo'lga kiritganligi qadimiy turkiy bitiktoshlarda qayd etilgan. 699-yilda bir qism xoqonlik qo'shinlari janubiy-g'arbga, Temir qapig'acha yetib kelgan, 710-yilda esa Buxoro, Sug'd, Toxariston o'lklariga istilochilik yurishlari uyushtirayotgan arablar bilan to'qnash kelgan. Qapag'on xoqon 700-yilda *Bilga xoqon* rahbarligida Tangut o'lkasiga (Shimoliy-G'arbiy Xitoy — Tibetning shimoli) qo'shin yuboradi va bo'ysundiradi. 701-yilda xoqonlik qo'shinlari Xitoyning shimoliy-g'arbidagi Olti Chub Sug'daq o'lkasiga yurish qiladi va *O'ng-Tutuq* rahbarligidagi 50 ming kishilik Xitoy qo'shinini mag'lub etadi. Qapag'on xoqon davrida yirik turkiy qabilalardan

699-yilda turgashlar, 703-yilda basmillar, 705-706-yillarda bayirquqlar, 709-yilda chik va azlar, 710-yilda qirg'izlar va turgashlarga qarshi qo'shin tortilib ular qaytadan Turk xoqonligi tarkibiga qo'shib olinadi. Qapag'on xoqon hukmronligi davomida xoqonlik va O'rtasiyoda katta nufuzga ega bo'lgan bir qancha yirik qabilalar orasida to'qnashuvlar yuz bergan. Bitiktoshlarda 711 yilda turgash, 711-714-yillarda qarluq, 714-yilda az, 715-yilda izgil, 715-716-yillarda o'g'uz va to'qqiz tatar singari qabilalar bilan jang olib borilgani hikoya qilinadi. Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, 716-yilda Qapag'on xoqon To'g'la (Tola) daryosi bo'yida bayirqu urug'i ustidan g'alaba qozonib, poytaxt O'tukanga qaytayotganda yo'lda yetarli xavfsizlik chorasi ko'rilmagani bois pistirmaga duch keladi va mazkur qabilaga mansub jangchi tomonidan o'ldirilgan.

QORACHO'RIN Turk — G'arbiy Turk xoqonligi hukmdorlaridan biri (576-603). *Istaming* o'g'li. Qoracho'rin 576 yilda Istami yabg'u vafot etgach, uning o'rnini egallaydi. Qoracho'rin otasining ishini davom ettirib, asosiy e'tiborni G'arbga, xususan, Sosoniylar Eroniga qaratadi. Qoracho'rin davrida Turk xoqonligi Sosoniylar siyosiy munosabatlarida xoqonlikning qo'li baland kela boshlaydi. U o'g'li *Sheri Kishvarni* Buxoroga *Abruy* qo'zg'olonini bostirish uchun yuboradi. VI asrning oxirgi choragiga kelib xoqonlikning sharqiy qismida boshboshdoqlik avj ola boshlagan. *Taspar xoqon* vafot etgach (581), uning vorislari orasida taxt talashuvlari avj oladi. Sharqiy Turk xoqonligi hukmdori *Ishbara xoqon* davrida (581-587) undan norozi bo'lgan shahzodalar Xitoy sulolalari bilan til birliktira boshlaydilar. Bunga Qoracho'rin ham tortiladi. Xitoydagi Suy sulolasi xoqonlikni parchalash niyatida "O'n o'q" boshqaruvi yabg'usi Qoracho'ringa elchi yuborib, uni yagona Turk xoqoni sifatida tan olishini bildiradi. Natijada, markazi Yettisuv bo'lgan Shimoliy Qora dengiz bo'ylari, Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, Amudaryo-Sirdaryo oralig'i, Xuroson, Shimoliy Afg'oniston, Sharqiy Turkiston hududlarini o'z ichiga olgan g'arbiy Turk xoqonligi tashkil topadi. Suy sulolasi Turk xoqonligining bir markazga birlashtirishga harakat qilgan *Tuli* (600-609) tarafini oladi, *To'nga Turon* o'ldiriladi (600), fursatdan foydalangan Qoracho'rin markaziy hokimiyatni egallaydi. Endi Suy sulolasi *Tulini* Qoracho'ringa qarshi qo'ya boshlaydi. 601-603-yillar orasida Xitoyning shimoliy viloyatlariga bir necha safar uyushtirib *Tulini* bartaraf etishga harakat qilgan Qoracho'rin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, zaiflashadi. Buning ustiga tele qabilalarining isyoni hokimiyatga qarshi katta zarba bo'ladi. Qoracho'rin hokimiyatni boy berib, 603-yilda Nanshan tog'lari atrofida yashovchi tuguxun (togon)lar huzuriga qochib, o'sha yerda bedarak ketadi.

SHISHPIR — Sug'd ixshidi (642-655). Uning ismi o'zi zarb qildirgan sug'diy yozuvli tangalarda *Shishpir*, xitoy yilnomalarida *Shashebi*, arab manbalarida *Shishbir* shakllarida uchraydi. Ismining lug'aviy ma'nosi sug'diycha — "*din tarqatuvchi*". Shishpir dastlab Kesh hukmdori bo'lgan, keyinchalik o'z qarorgohini Samarqandga ko'chirgan. Shishpir o'z nomidan mis tangalar zarb qilgan. Ularning bir tomonida Shishpirning nomi va malka (ixshid) so'zi, ikkinchi tomonida Samarqand ixshidlari tamg'asi va boshqa belgilar tasvirlangan. Shishpir davrida Sug'dda pul munosabatlarining rivojlanishi tezlashgan va iqtisodiy

Tarixiy shaxslar

ko'tarilish jarayoni kuchaygan. Bu davrda Sug'd Turk xoqonligi tarkibida edi. 642-yilda Shishpir o'z elchilarini Xitoyga yuborgan. Shishpirdan keyin taxtga *ixshid Varxuman* (655-696) chiqqan.

SHOPUR II — Sosoniylar hukmdori (309-379). Uning hukmronligi davrida xioniylar bilan bir qancha janglar bo'lib o'tadi. Dastlabki janglardayoq Shopur II yengilib, o'zaro sulhga kelishiladi. Hatto ular o'rtasida ittifoqlik ipi bog'lanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tuzilib turgan.

SHERI Kishvar, El Arslon — Turk xoqonligi shahzodasi. U xoqonlikning mashhur hukmdorlaridan *Qorachurin* (Tardu; 576-603) xoqonning to'ng'ich o'g'li bo'lib, Turk xoqonligining asoschilaridan biri *Istami* yabg'uning (55-576) nevarasi bo'lgan. Narshaxiyning "*Tarixi Buxoro*" asarida yozilishicha, *Abruy qo'zg'olonini* bostirgan va Buxoro vohasida 20 yil hukmronlik qilgan. Vohada bir qancha qishloqlar barpo etgan. Bir qator tadqiqotchilar fikricha, Sheri Kishvar Buxoro vohasida VII-VIII asrlarda hukm surgan turkiy sulolaning asoschisidir. 673-yilda arablar istilosi paytida Buxoro vohasiga *Bidun* buxorduxot hukmdor bo'lgan. Tadqiqotchilar fikricha, Bidunning nasli Sheri Kishvarga borib taqalgan.

TO'NGA Turon (xitoy yilnomalarida Tunlo Dulan, Yun Yuyluy [Yun Ulug']) -Turk xoqonligi hukmdori (588-600). *Ishbara xoqon* (581-587)ning o'g'li, *Bumin xoqonning* evarasi. Uning davrida ashina xonadoni a'zolari o'rtasida ichki kurashlar avjga chiqqan bo'lsa-da, hukmdorligining oxirgi yillarida Xitoyga qarshi bir necha marotaba muvaffaqiyatli safar uyushtirilgan. Shuningdek, xoqonlik ikki qismga G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonligiga bo'linib ketish arafasida bo'lgan. Ayniqsa, *Istami yabg'uning* o'g'li *Tardu* (Qoracho'rin Turk) xoqon (576-603) xoqonlikning G'arbiy qismida yakka hokimlik o'rnatishga va *Ishbara xoqonning* hukmdorligini tan olmaslikka harakat qiladi va birmuncha muvaffaqiyatga erishadi. Uyg'urlar bilan birgalikda tele (to'las) qabilalar uyushmasining biri bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

TO'NYUQUQ, Tunyuquq (taxm. 645-726) — Turk xoqonligida davlat arbobi va sarkarda. Ashina qabilasiga mansub boshqa Turk zodagonlarining Xitoy imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biri. Uning ismi xitoy yilnomalarida *Tunyuygu* va *Yuanchjen* shakllarida uchraydi. Ushbu ismning ikkinchi shakli xitoychada "*birinchi gavhar*" degan ma'noni bildirib, u To'nyuquq ismi (qadimiy turkchada "to'ng'ich gavhar")ga mos keladi. U Tabg'ach (Xitoy)da tug'ilib, voyaga yetgan. Imperator saroyida ishonch qozonib, ma'muriy xizmatga yuborilgan. To'nyuquq 680-yillarda Turk xoqonligini Xitoy asoratidan qutqarib, uni yangitdan barpo qilishda *Eltarish xoqonning* eng yaqin maslahatchisi bo'lgan. U uch xoqon: *Qutlug' Etlarish* (680-691), *Qapog'on* (691-716) va *Bilga xoqon* (716-734) hukmronliklari davrida bosh vazir va lashkarboshi bo'lgan. Umrining katta qismini xoqonlikni mustahkamlash, turli qabilalar ahilligini saqlash, tashqi dushmanlarga qarshi kurash bilan o'tkazgan. Xitoy yilnomalarida xoqonlikning eng dono amaldori sifatida tilga olinadi. Ularda bayon qilinishicha, *Bilga xoqonning* Xitoy ichkarisiga yurish qilib, turkiy qavmlarni shaharlarda

joylashishi, budda diniga o'tishi ularning jangovarligini yo'qotishini, o'troq yashash tarzi turkiylarga to'g'ri kelmasligini aytib, xoqonni bu yo'ldan qaytaradi. Bu esa To'nyuquqning nihoyatda aqlli, tadbirkor va kelajakni ko'ra oladigan shaxs bo'lganligini ko'rsatadi. To'nyuquq lashkarboshi sifatida Xitoyning shimoliy-sharqidagi Shandun viloyatiga, Uzoq Sharqda qoraxitoylarga, Yenisey daryosi havzalaridagi qirg'izlarga, O'rxun va Selenga daryosi bo'ylaridagi o'g'uzlarga Yettisuvdagi turkashlarga qarshi yurishlar uyushtiradi va ularni tobe etadi. U 719-yilda uyg'urlar, chinliklar va basmillarning Ikkinchi Turk xoqonligiga qarshi yurishini to'xtatishga va Xitoy bilan 10 yillik sulh tuzishga muvaffaq bo'ladi. U o'limidan oldin o'zining hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi kitoba barpo qildiradi. Ushbu yodgorlik qadimiy turk yozuvining ajoyib majmuasi hisoblanadi.

TUN Yabg'u — G'arbiy Turk xoqonligining hukmdori (618-630). U *Sheguyxon* vafotidan so'ng taxtga chiqqan. Tun Yabg'u qobiliyatli sarkarda va davlat boshlig'i bo'lib, faol harbiy harakatlar olib borgan. Janubiy Toxariston (hozirgi Afg'oniston) va qisman Gibin (hozirgi Pokiston) yerlarini zabt etdi. Bu davrda G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga deyarli butun O'rta Osiyo, Qozog'istonning katta qismi, quyi Volga bo'ylari, Shimoliy Kavkaz yerlari kirgan. Davlat poytaxti Suyab shahri edi. Tun Yabg'u markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida davlatda ma'muriy islohot o'tkazgan. O'troq viloyat hokimlarini xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning "yabg'u" unvoni berilishi natijasida, ular xoqonning noibiga aylanadilar. Viloyatlarda nazoratni kuchaytirish uchun o'z vakillari — *tudun*larni yuborgan. Mahalliy hukmdorlarga turkiy unvonlar in'om etgan. O'g'li *Tardushodni* Toxaristonga noib qilib tayinlagan. Tun Yabg'u xoqon Eronga qarshi Vizantiya bilan ittifoq tuzgan. 627-yilda G'arbiy turklar bilan tuzilgan shartnomaga asosan, Eronga qaram bo'lgan Kavkazorti hududiga hujum qilgan. 627-yili Chor (Darband), 628-yili esa Tiflis (hozirgi Tbilisi) zabt etilgan. 630-yili Tun Yabg'u amakisi *Qul Bahodur* tomonidan o'ldirilgan.

TURK, Turk ibn Yofas, Yofas o'g'lon, Turkxon — qadimiy diniy aqidalarga ko'ra, *Yofasning* to'ng'ich o'g'li. Otasi vafotidan so'ng, turkiy o'lkalarni boshqargan xon. *Mirzo Ulug'bekning* yozishicha, *Kayumars* zamondoshi bo'lgan. *Kayumars* Sharqiy Eronning birinchi hukmdori bo'lganidek, Turk "*Mashriq diyori xoqonlarining birinchi qooni*" bo'lgan. *Abulg'oziy Bahodirxonning* yozishicha, Turk "*otasidan so'ng yerlarni yurib ko'rdi. Taqi bir yerni xushlab, anda o'lturdi. Bu kun ul yerlarni Issig'ko'l derlar*". Turk o'z qavmi o'rtasida xush rasm-rusumlar, tahsinga loyiq tartiblar o'rnatgan. U bag'oyat oqil va boadab, hunarmand bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra "*Chin mamlakati sarhadidanki, uni Xonju deb ataydilar, asosiy yerlar, masalan, Turkiston zamin mamlakati chegaralarigacha uning hukumati qo'li ostida edi. Jami turklar orasida in'om qilish (odatini), hirgoh udumini o'rnatdi. Odil va komil, ko'ngilchan podshoh bo'lgan. Turkning 5 o'g'li: Abilcha, Tung, Chigil, Barsxon, Atloq bor edi. Taomga tuz solmoq, shuningdek, chorva va*

vahshiy hayvonlar terisidan libos tikib kiyish ham Turk davrida paydo boʻldi”. Turk 240 yil umr koʻrgan.

TUU — V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirda *Ashina* qabilasining yabgʻusi. U *Bumin* bilan birlashib turkiy qabilalarning ittifoqini tuzadi.

UTTEGIN — turk yigiti, kuyov. 1932-yilda Mugʻ togʻidan topilgan nodir hujjatlar majmuasi orasida VII-VIII asrlarga oid nikoh guvohnomasida Uttegin va *Dugʻdgʻuncha, Chata* laqabli sugʻd ayoli oʻrtasida tuzilgan nikoh qayd etilgan. Topilgan bitimga asosan *Dugʻdgʻuncha*ning ixtiyori bilan qonunga muvofiq Uttegin sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, zebu ziynat bilan taʼminlamogʻi va hurmat-izzat qilmogʻi lozim edi. Oʻz oʻrnida *Dugʻdgʻuncha* ham Utteginni sevimli va ardoqli er sifatida tutmogʻi, uning baxtli turmushi haqida qaygʻurmogʻi va uning buyruqlarini qonun kabi tinglamogʻi darkor edi. Hujjatda eru xotinlardan biri ikkinchisining roziligisiz nikoh bitimini buzish shartlari bayon etilgan. Jumladan, agar Uttegin *Dugʻdgʻuncha*ning roziligisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda *Dugʻdgʻunchaga* 30 dinoriy sof kumush drham tovon toʻlashi va uni na xotin va na xizmatkor sifatida tutib turmay ozod etishi shart boʻlgan. Yana boshqa hujjat Utteginning *Dugʻdgʻuncha* qarindoshlariga bergan vasiqasi boʻlib, unda kuyov quyidagi shartlarni oʻz ustiga olgani bayon etiladi. Ushbu vasiqaga binoan “*Chata* bugundan boshlab, kelajakda, to abad mening xotinim boʻlib qoladi. Sening va Mitra (xudo) ning ishtirokida majburiyat olaman: uni sotmayman, qarz hisobiga qullikka bermayman, biror kimsaga himoyaga bermayman. Bordi-yu, uni mendan kimdir tortib olsa, xoʻrlasa, uni ziyon-zahmatsiz (sizlarga) joʻnataman. *Chata* oʻzi ketishni xohlasa ham . shu tariqa ziyon-zahmatsiz joʻnataman va sogʻ-salomat topshiraman. Agar topshirmasam, u holda . toza sifatida 100 dinoriy kumush drahma toʻlayman.”.

VAXSHUNVAR (V asr) — Eftaliylar podshosi, u haqda tarixchi *Feofan Vizantiyskiy* (VI asr) maʼlumot berib oʻtgan. Uning asl ismi *Eftalon* boʻlib, uning qabilasini eftaliylar deb atashgan. Xitoyning “*Tan shu*” yilnomasi ham bu maʼlumotni ham tasdiqlaydi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Vaxshunvar 457-yilga kelganda Oʻrta Osiyodan tashqari, Toxariston va Badaxshonni oʻziga boʻysundirgan. Sosoniylar shohi *Peroʻz* Vaxshunvarga qarshi uch marta muvaffaqiyatsiz yurush qilgan va soʻnggi uchinchi yurishi (484)da oʻzi halok boʻladi. Vaxshunvar Eron ustiga juda katta oʻlpon soladi va Marv, Kobul, Panjobni hamda Sharqiy Turkistondagi Qorashar, Kucha, Koshgʻar va Xoʻtanni zabt etadi. Vaxshunvar rahbarligida eftaliylar Oʻrta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlaridan tarkib topgan yagona ulkan saltanatni vujudga keltirganlar.

YUSTIN II — Vizantiya imperatori (565-578). U hukmronligi davrida avarlar bilan tinchlikka oid aloqalar olib boriladi. Uning huzurida 568-569-yillarda turklar elchisi boʻlgan. Yustin II elchiga “*Eftallar shaharlarda yashaydilar yoki qishloqdami?*” — degan savoliga “*Ular — shaharda yashovchi qabilalar, janobi oliylari*” deb javob bergan.

ZEMARX (VI asr) — Vizantiya elchisi. U Vizantiyaga tashrif buyurgan Turk xoqonligining elchisi *Maniakh* (568-569) bilan birgalikda turklar mamlakatiga yuboriladi. Vizantiya elchisini xoqon *Tyanshaning* Oltin togʻi etagidagi *Oʻrdugoh*ida qabul qiladi.

ZENON (474-475) — Vizantiya imperatori. U eftallarga qarshi birinchi jangda asirlikka tushgan sosoniylar hukmdori Perozni oʻlpon evaziga asirlikdan ozod etadi.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

ABRUY QOʻZGʻOLONI — VI asrning 80-yillarida mahalliy tabaqa — dehqonlarga va savdogarlarga qarshi Quyi Sugʻd (hozirgi Buxoro viloyati) aholisi kambagʻal tabaqasining koʻtargan qoʻzgʻoloni. Qoʻzgʻolonga *Abruy* boshchilik qilgan. *Narshaxiyning* xabar berishicha, Buxoro aholisi *Abruy*ni Poykand shahriga hokim qilib tayinlaydi. *Abruy* qoʻzgʻolonidan zarar koʻrgan dehqonlar va mulkdorlarning koʻpchiligi Turk xoqonligi qoʻl ostidagi Taroz va Turkiston shaharlariga qochib borib, Turk xoqoni *Qorachur*indan qoʻzgʻolonchilarga qarshi kurashda yordam soʻraydilar. *Qorachoʻrin* oʻgʻli *Sheri Kishvar* boshchiligida Buxoroga katta lashkar yuboradi. Natijada qoʻzgʻolon bostiriladi. Buxorodagi yerlar yana oʻz egalari — dehqonlarga qaytarib beriladi.

AFRIGʻIYLAR — Xorazmda IV-X asrlarda hukmronlik qilgan xorazmshohlar sulolasi. Asoschisi — *Afrigʻ*. 995-yil *Afrigʻ*ning soʻnggi vakili *Abu Abdulloh Muhammad* raqibi Urganch amiri *Maʼmun ibn Muhammad* tomonidan asir olinib, oʻldirilgan. Xorazm Urganch hokimiyati ostiga birlashgan. *Maʼmun* qadimgi xorazmshoh unvonini qabul qilgan.

AFRIGʻIYLAR MADANIYATI — Xorazmdagi IV-VIII asrlarga oid madaniyat afrigʻiylar sulolasi nomi bilan bogʻliq. Afrigʻiylar madaniyatiga oid yodgorliklar 1937-1940-yillarda Xorazm arxeologiya, etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan oʻrganilgan. Afrigʻiylar madaniyati shakllanishida qoʻshni koʻchmanchi qabilalar katta rol oʻynagan. Bu davrda antik hunarmandchilik markazi — qadimgi shaharlar inqirozga uchrab, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot qishloqda, mulkdorlarning qoʻrgʻoni va qasrlari atrofida jonlangan. Burgut qalʼa vohasida olib borilgan qazishmalar vaqtida sertarmoq sugʻorish kanali va ariqlar, dalalalarning rejali joylashuvi aniqlangan. Kattakichik turar joylar toʻp-toʻp joylashgan. Katta yer egalarning qasrlari kanallar boshida boʻlib, ular suv taqsimotini nazorat qilib turganlar. Xorazmda bu davr istehkomlari, asosan, paxsadan toʻrtburchak taxta qurilgan, devori burjlar bilan mustahkamlangan, davra yoki toʻrtburchak tarxli boʻlgan. Yirik qalʼalar (*Yakka Porson, Teshikqalʼa, Qum qalʼa, Uy qalʼa*) mudofaa istehkomlariga ega boʻlgan. Eng yirik istehkom — Burgutqalʼa (maydon 6 gektardan oshiq) atrofida shahar vujudga kela boshlagan. Turar joylar dahliz, asosiy va xoʻjalik xonalaridan iborat boʻlgan. Imoratlarning tarxi, qiyofasi aholini ijtimoiy mavqega bogʻliq boʻlgani aniqlandi. Xarobalardan mis tangalar jez, qoʻlda va charxda yasalgan sopol idishlar (xum, koʻzacha, ketmon, oʻroq, pichoq va boshqalar) shoyi ip, jun gazlama parchalari, uchparrakli temir poʻykonlar,

xanjarlar, yorg'unchoqlar, tegirmon toshlari, yozma yodgorliklar topilgan. Ostodon (sopol tobut)larda kumush rasm bo'lgan. Tarixiy manbalarda VIII asrga oid Kat, Hazorasp, Urganch shaharlari eslatib o'tilgan.

ARK — ichki qal'a, O'rta Osiyo ko'hna shaharlari-dagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'a-band o'rda. Yozma tarixiy manbalarda ko'handiz, diz, koh, qasr, qal'a, hisor nomlari bilan ham tilga olinadi. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do'nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o'ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo'lgan. Ark ichida podshoh va amirlarning, amaldor va lashkarboshilar-ning uy-joylari, davlat devonlari, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo'lgan.

ARKON — dindagi eng muhim vazifa.

ATLABON — otashparastlarning ibodatxonalarida doimo yonib turadigan muqaddas olov — "azarxo'rra'ga o'tin tashlab, kulini olib turadigan ruhoniylar. Olovga topinuvchi otashparastlar atrobonlarga hadyalar keltirib, ular orqali muqaddas olovdan madad so'raganlar.

AZARXO'RRRA — muqaddas olov. Otashparastlik (zardushtiylik) dinidagi qadimgi xalqlar azarxo'rraga sig'inishgan. Mil.avv. VI-V asrlardan to islom dini tarqalgunga qadar otashparastlar o'rtasida azarxo'rraga e'tiqod juda kuchli bo'lgan. Azarxo'rra har bir mamlakat va shaharda maxsus joylarda saqlanib, kechayu kunduz yonib turgan. Azarxo'rraning eng mo'tabari Xorazmda bo'lgan.

BANTAK — ilk o'rta asrlarda erkak qul.

BILGA XOQON BITIKTOSHI — marmar bitiktosh, turkiy yozuv yodgorligi. *Bilga xoqon* sharafiga qo'yilgan (735-yil). Ulan-Batordan 400 km janubdagi Qorabalg'asun shahrining xarobalaridan taxminan 40 km shimolda joylashgan. Bo'yi 3 metr 45 sm, eni 1 metr 74 sm, qalinligi 72 sm. Bilga xoqon bitiktoshi 80 satrdan iborat. Mazkur bitiktoshni Qultegin bitiktoshi bilan birga 1889-yil rus olimi *N.M.Yadrintsev* mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko'kshin Urxun daryosi bo'yida topgan. Yodgorlik matni nemis, fransuz, ingliz, rus tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan.

BEK — el-yurt, viloyat hokimi.

BIY — urug' va qabila oqsoqoli.

BOJU yasoq — soliq turi. VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida o'ndan ortiq mayda mulkdorlar hokimiyatlarining iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi, yerli sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat shu soliq turini undirib olish bilan cheklanadilar.

BUDUN — Turk xoqonligida chorvador aholi. Budun qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi.

BUXORXUDOT (Buxoro va fors. "xudo" — tangri, ega, hokim) — Buxorxudotlar hokimligini idora qilgan hukmdorlar unvoni. Buxorxudot atamasi dastlab "Buxorxudo" ("Buxoro hokimi") shaklida bo'lgan. Buxoroga Islom kirib kelgach (VIII asr), arablar uni Buxorxudot deb o'z tillariga moslab olganlar.

BUXORXUDOT hokimligi — Buxorxudotlar idora qilgan kichik davlat (VI-VIII asrlar). Poytaxti Buxoro shahri. Hududi hozirgi Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako'l tumanlari yerlaridan iborat bo'lgan. Arablar Buxoroni fath etgandan keyingi

dastlabki yillarda hokimiyatni buxorxudotlar bilan birgalikda boshqarganlar. 715-yilda Xuroson noibi *Qutayba ibn Muslim* o'ldirilgach, buxorxudotlar hokimligini bir yil davomida mustaqil idora qilganlar. VIII asrning 3-choragida arablar butun Movarounnahrni fath etib, buxorxudotlarni rasman o'z o'rinlarida qoldirgan bo'lsalarda, hokimiyatni amalda to'laligicha o'zlari boshqarganlar. 782-yilda so'nggi buxorxudot *Bunyod Muqanna qo'zg'olonini* qo'llab-quvvatlagani uchun arablar tomonidan qatl etilib buxorxudotlar hokimligi bartaraf etilgan. Buxorxudot hokimligi hududi arxeologik jihatdan mukammal o'rganilmagan. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, buxorxudot hokimligida bir qancha mustahkam qal'ali shaharlar bo'lgan. Buxorxudot Kono buxorxudot hokimligida birinchi bo'lib o'zining tasviri va uning ostiga "Buxoro hokimi" degan yozuv zarb qilingan kumush tangalar dirhamlar chiqargan. *Narshaxiy* o'zining "*Buxoro tarixi*" asarida buxorxudotlardan bir nechasining nomini keltirgan bo'lib, ular orasida *Kono* va *Abruy* (Abarzi) degan ismlar ham mavjud. Buxorxudotlar vakillari: *Bidun* (?-673), *Xo'tak xotun* (673-692), *Tug'shoda I* (692-724), *Tug'shoda II* (724-738), *Qutayba ibn Tug'shoda* (738-753), noma'lum buxorxudot (*Tug'shoda III*) (753-768), *Sukon* (768-775), *Bunyod* (775-782).

DEVORI qiyomat-Samarqand atrofini o'rab turgan mudofaa devor.

DARRA — charm va qayishdan to'qilgan yo'g'on va og'ir zarb beruvchi qurol.

DARG'OT — to'g'on.

DARG'OM kanali — Zarafshon daryosidan suv oladigan kanal. Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai Darg'om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi.

DEBO — tovlanuvchi nafis ipak mato.

DEHQON — ilk o'rta asrlarda "qishloq hokimi", yerdor. Ular o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bema'lol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z tazyiqini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular qishloqlarda o'z tazyiq doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Dehqonlar o'rta asrlarda endigina shakllana boshlagan yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi oqibatida, qadimgi mulkdor tabaqa bag'rida dunyoga kelgan va yanada boyib yer egallashib borayotgan quldor katta yer egalari edi. "Dehqon" lar odatda shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ega edilar. Qishloqlarda esa, ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko'shk va istehkomi qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Dehqonlar ilk o'rta asrlar mulkchiligi munosabatlarning shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer mulkdorlari bo'lgan.

DEVG'ISHT — xalq tilida paxsa bo'laklari. Yunusobod oqtepesi devorlari devg'isht (70x70x70) hajmda uzun va qalin homg'ishtlardan urib chiqilgan.

DOYA — ilk o'rta asrlarda cho'ri.

DIGIR — charxpalak va chiqirlarga ariqdan yoki chiqir xandaqdan suv botirgich ko‘za.

DULOB — charxparrak; quduqdan suv chiqaradigan charx.

EFTALIYLAR, EFTALITLAR, EFTALLAR, XAYTALLAR, ABDALLAR, YE-DA — O‘rta Osiyoning shim.-sharqidan Movarounnahr-ning ichki viloyatlariga kirib, mil. V asrda davlat barpo etgan qabila ittifoqi. Eftaliylar O‘rta Osiyo, Hindiston, Afg‘oniston, Eron va Sharqiy Turkiston tarixida muhim rol o‘ynagan. Eftaliylarning ilk ajdodlari hunlardan bo‘lishi taxmin etiladi. Ularning kelib chiqishi tog‘risida turli fikrlar bayon etilgan. A.N. Bernshtamning fikricha, eftaliylar tarkib topgan yerlar o‘rta va quyi Sirdaryo hamda Amudaryoning yuqori havzasidir; A.P. Tolstov esa ularni Orol bo‘ylaridan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Garchi eftaliylarning tarkib topgan joyi qat‘iy aniqlanmagan bo‘lsa-da, ular turkiy etnik elementlar aralashgan o‘rta osiyolik qabilalar (asosan jangovar ko‘chmanchi qabilalar) negizida shakllanganligi ma‘lum. Eftaliylar otashparast bo‘lganlar, lekin ular orasida asta-sekin buddizm va xristianlikka e‘tiqod qila boshlaganlar ham bo‘lgan. Eftaliylar yozma manbalarda *fetal*, *xaftal*, *xaytal* degan nomlar bilan tilga olinadi. “*Eftal*” degan nom ilk bor “*xeptal*” shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida “*Eftalon*” deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni *Vaxshunvor* deb ham ataganlar, u eftaliylar yurishiga boshchilik qilgan. Mil. avv. VII asrda Xitoyning shim.-g‘arbi (Xesi)da yashovchi mallasoch, ko‘zi ko‘k hunlarning bir qismi yashab turgan yerlarini tashlab, Pomirning tog‘li viloyatlariga kelib yashaydilar. Keyinchalik ular mahalliy aholiga aralashib, tillarini ham o‘zgartiradi. Hunlarning boshqa bir guruhi Hunlar davlati yemirilgach, Jung‘oriyaga, Ila havzalariga kelib o‘rnashgan va bu yerda Yueban etnik uyushmasini tashkil qilgan. Yuebandan eftal etnik nomi bilan atalgan yirik bir guruh ajralib, III asrda Movarounnahrda kelib o‘rnashdi. Eftaliylarning yana bir guruhi g‘arbiga Kaspiy dengizining shim. hududlariga borib, keyinchalik bu yerlardagi boshqa turkiy xalqlarga aralashib ketadi. Eftaliylar IV asrning ikkinchi yarmida ko‘payib, Movarounnahrda yashovchi xioniy, kidariy va boshqa xalqlarni tobe etib, davlat barpo etadi. V asrda ular Qang‘ davlatini mag‘lubiyatga uchratadi. Xurosonning talay qismini egallaydi. Xuroson yeri uchun eftaliylar Eron bilan qattiq urush olib borgan. VI asrning oxirlarida Eftaliylar davlati inqirozga uchraydi. Turk xoqonligi Movarounnahrni egallaydi. Eftaliylarning jangovar qismi Afg‘oniston va Hindistonning shimoliy mintaqalariga chekinib, ularning keyingi avlodlari shu yerlardagi xalqlarga aralashib, ular bilan qorishib ketadi. Eftaliylarning O‘rta Osiyoda qolgan qismi keyinchalik o‘zbek, turkman xalqlari tarkibiga singib ketadi. Turkmanlar tarkibida va anatoliyalik turklarning tarkibida abdal nomi bilan eftaliylarning keyingi avlodlari saqlanib qolgan. Eftaliylar otashparast bo‘lganligi ma‘lum, lekin ularning orasida asta-sekin buddizm va xristianlikka e‘tiqod qila boshlaganlar soni ham orta boshlagan.

ELCHI — bir davlatning boshqa bir davlatdagi elchixonasiga rahbarlik qiluvchi diplomatik vakil. Tarixiy manbalarda bir davlat hukumati tomonidan ikkinchi davlat

hukumatiga diplomatik vazifa bilan yuboriladigan doimiy yoki muvaqqat vakil elchigina emas, balki yalavoch, yalafar, rasul atamallari bilan ham ifodalangan. Muxtor vakil hisoblanmish elchi zimmasiga diplomatik aloqalar o‘rnatish, davlatlar yoxud dushman tomonlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish, hamkorlikdagi harakatlarga oid bitimlar tuzish, davlat boshlig‘i yoki hukmdor sulola a‘zolarining vafoti munosabati bilan ta‘ziyalar bildirish, biron bir shodiyona bois muborakbodlar qilish kabi mas‘uliyatlar yuklatilgan. Oltin O‘rda xonligida elchining bosh vazifalari sirasiga hukumat xazinasiga tobe yurtlardan yig‘ilgan o‘lponni o‘z muddatida yetkazish ham kirgan. XI a. yozma obidasi “*Qutadg‘u bilig*”da elchi etib tayinlanadigan shaxsning bir qator talablarga javob berishi ta‘kidlangan. Xususan, uning bilimli, zakovatli, sadoqatli, ko‘zi to‘q, bosiq, uyat-andishali, keng qamrovli, zehnlil, dono, ziyrak, ichimlik ichmaydigan, ko‘rkli, mard, shirin so‘zli bo‘lishi talab etilgan. “Elchi” atamasi ilk bor qadimgi turkiy Enasoy runiy bitigida qayd etilgan bo‘lsa, «yalavoch» atamasi birinchi marta Oltinko‘l yaqinidan topilgan Enasoy yodnomasida ko‘zga tashlanadi. Mazkur qadimgi turkiy bitigida 711 yilning avgust-sentyabrda Tibetga Turk xoqonligidan kelgan diplomatik vakilning tashrifi xususida gap boradi. Chingiziylar davrida elchilar darajasiga qarab oltin, kumush, cho‘yan, jez va yog‘och payza bilan ta‘minlangan. Elchi o‘z vataniga qaytishdan oldin diplomatik vakolati tugayotgan davlat boshlig‘idan maxsus yorliq — ijozat qog‘ozini olishi lozim hisoblangan. Elchining o‘ldirilishi yoki hibsi qilinishi aksariyat diplomatik munosabatlarning keskinlashuviga, ba‘zan uzilishiga olib kelgan. Jumladan, O‘trorda mo‘g‘ul elchilarining Xorazmshoh tomonidan qatl qilinishi Movarounnahrning *Chingizxon* boshliq istilochilar tomonidan zabt etilishini tezlashtirdi. *Amir Temur* va Temuriylar davrida Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdosotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e‘tibor berilgan. *Amir Temur* Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va elchilik aloqalarini o‘rnatgan. Tashqi savdoni kengaytirishda temuriylarning turli mamlakatlar (Xitoy, Tibet va Hindiston va b.) bilan olib borgan elchilik aloqalari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

ETNIK MUNOSABATLAR — aholining o‘zaro munosabatlari.

GALEREYA (fransuz. galerie) — 1) Peshayvon, bostirma; binolarda yon devorlaridan biri o‘rniga ustunlar o‘rnatilgan usti yopiq, uzun, ensiz ayvonli qurilma; uzun balkon; 2) Yon devorlarining biri oynavand qilib qurilgan uzun zal; 3) O‘rta asrlarda saroy va uylarning rasm va haykallari bilan bezatilgan yo‘laklari.

GUVOKOR — ilk o‘rta asrlarda So‘g‘ddagi savdogarlar.

GYOL — sopol gardish, sopol uzuk — tunnellar tutqichi.

IXSHID — 1) Sug‘d va Farg‘ona podsholari unvoni (V-VIII asrlar). Ilk o‘rta asrlarda Movarounnahr 15 dan ortiq mayda hokimliklarga bo‘linib ketgan edi. Ular turli nomda yuritilgan. Buxoro vohasida — *buxorxudorlar* va *vardonxudotlar*, Miyonko‘lda — *dabusshohlar*, Ustrushonada — *afshinlar*, Choch va Iloqda — *budun* va

tudun va boshqalar. Ular mahalliy turkiy qabilalarning turli sulolalariga mansub bo'lgan. Bu davlatchalar orasida Sug'd ixshidlari eng qudratli sanalgan. Ularning poytaxti Samarqand shahri bo'lgan. Ixshid atrofiga shaxsiy qurolli lashkarlar — chokarlari bo'lgan badavlat dehqonlar to'plangan edi. Sug'd ixshidlari Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Ishtixon, Maymurg', Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshab mulklarini bir ittifoqqa birlashtirgan. Samarqand ixshidlari saroyida ajdodlar ruhiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan. Samarqand ixshidlari yaqin-olis davlatlar bilan elchilik aloqalari olib borganlari ma'lum. Masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida Sug'd ixshidlari *Varxumanning* Chag'oniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan. Arab istilochilariga qarshi kurashda Sug'd ixshidlari *Tarxun* katta jonbozlik ko'rsatgan. VIII asr boshida (712) Samarqandni arablar bosib olgach, Sug'd ixshidlari poytaxtni Ishtixonga ko'chirganlar. Movarounnahr Arab xalifaligi tarkibiga kiritilgach, ixshid arvoni bekor qilingan; 2) Suriya va Misrda hukmronlik qilgan yarim mustaqil turkiy sulola (935-969-yillar) vakillari unvoni.

IZDAHOM — mehmondorchilik. 1953-1955-yillarda arxeolog *L.I. Albaum* Surxondaryo viloyatining Angor tumanida joylashgan Bolaliktepa yodgorligini qazib ochib o'rganganida kattagina xonaning devorlarida rangli bo'yoqlar bilan izdahom tasvirlangan.

JORIYA — cho'ri.

KADIVAR — O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda iqtisodiy jihatdan boy tabaqaga butunlay qaram bo'lib qolgan qishloq ahli. Zamindorlar qishloqlarda o'z taxyiq doiralari kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlagan. Shuning uchun ham ular ilk o'rta asrlarda "dehqon", ya'ni "qishloq hokimi" nomi bilan shuhrat topgan. Ularga qaram kishilar "kadivar" ya'ni "qishloq qo'rg'onlarida yashovchilar", deb atalgan. Qishloq jamoasi ichida o'z erkidan mahrum bo'lgan kadivarlar paydo bo'lgan. Sug'd, Xorazm va Toharistonda dehqonchilik qiluvchi mahalliy aholining kattagina qismi qaram kadivarlarga aylangan. Kadivarlar bu davrda O'rta Osiyodagi asosiy ijtimoiy tabaqa hisoblangan.

KAMPIRDEVOL — Toshkent atrofini o'rab turgan mudofaa devor.

KASHOVARZ (yerni omoch bilan ag'daruvchi) — ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda dehqonchilik bilan shug'ullangan qishloq aholisi. Kashovarzlilar ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a'zosi. Dehqonchilik mahsulotlarining deyarli asosiy qismi qo'shchi-kashovarzlarning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilgan edi.

KOH — saroy, ichki qal'a, ark, o'rda.

KORIKOR — ilk o'rta asr xizmatkori.

KOROPLASTIKA — ma'budalarning sopol haykalchalari.

KULTEGIN BITIKTOSHI — marmar bitiktosh, turkiy yozuv yodgorligi. *Eltarish* xoqonning o'g'li *Kultegin* sharafiga qo'yilgan (732-yil 14-avgust). *Ulan-Batordan* 400 km janubda, Qorabalg'asun shahrining xarobalaridan taxminan 40 km shimolda joylashgan. Bo'yi 3 metr 15 sm, eni 1 metr 24 sm, qalinligi 41 sm. Bitiktoshdagi barcha

voqealar *Kulteginning akasi Bilga xoqon* tilidan hikoya qilinadi. Bitikni esa *Kulteginning jiyani Yo'llug' tegin* yozgan. Ushbu bitikda *Bilga xoqon* og'o-inilariga, qarindosh-urug'lariga, xalqqa murojaat qilgan. Xoqonning murojaatidan maqsadi — hokimiyatni mustahkamlash, o'zaro urush-janjallarga chek qo'yish, ittifoq bo'lib yashashga chaqirish bo'lgan. *Kultegin* bitiktoshini *Bilga xoqon* bitiktoshi bilan birga 1889-yil *N.M. Yadrinsev* mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko'kshin-Urxun daryosi bo'yidan topgan. Dastlab bitiktoshni hech kim o'qiy olmagan. Uni *Urxun* yozuvini o'rganib chiqqanidan so'ng, daniyalik olim *V. Tomsen* 1893-yil o'qishga muvaffaq bo'lgan. Yodgorlik matni nemis, fransuz, daniya, ingliz, rus tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan.

KO'HANDIZ (fors. — eski, qadimgi) — ko'hna, diz-qal'a, qasr, saroy, ark. qal'aband maxsus istehkom. Asosan, qal'aning tarkibida saqlangan qad. qismi.

KO'SHK (ko'chik) — to'rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog'ochdan qurilgan yengil inshoot, istehkomli baland qo'rg'on.. Kelib chiqishi jihatidan oddiy o'tovga borib taqaladi. O'rta asrlar Sharq me'mrologida keng tarqalgan. Dastlab qadimgi ko'chmanchi xalqlarning ko'chib yurishiga qulay uy (ko'chik) sifatida paydo bo'lgan. Arava ustiga o'rnatilgan ko'shklardan ham foydalanilgan. Keyinchalik ko'shklar badavlat kishilar, hukmdorlar uchun bezakdor qilib bog'lar ichida qurilgan. Tarixiy manbalarda ko'shk namunalari haqida ma'lumotlar saqlangan. Vizantiya elchisi *Zemarx* 568-yilda O'rta Osiyo ko'chmanchilarining xoqoni o'rtasida 4 tovus haykalini ko'tarib turgan ko'shkni ko'rgani haqida yozgan. 738-yilda Termiz yaqinida arab sarkardasiga oltin va kumush bilan bezatilgan 2 ko'shk taqdim etilgan va boshqa X-XV asrlarda ko'shk me'morligi rivojlanib, aksari bog' ichkarisidagi sinchkori yengil qurilmalar (ko'shklar) ustun, ayvon va boloxonali, zebu ziynatli, hashamatli, ko'rkam imoratlari bilan ko'zga tashlangan. *Amir Temur* bunyod etgan bog'lar ichidagi ko'shklar shakli shamoyili bilan me'moriy taraqqiyotida yangi davr ochgan. Samarqand atrofida bunyod etilgan (XIV-XVI asrlar) bog'-rog'lar ichidagi ko'shklar haqida tarixiy manbalar aniq ma'lumot beradi. Samarqanddagi Ko'ksaroy, Shahrisabzdagi Oq saroyini Bobur ko'shklar qatoriga kiritgan.

LABIRINT (yunoncha labyrinthos) — xonalari behad ko'p, yo'laklari odamni adashtiruvchi ulkan bino. Xorazmning janubida devorning qoq belida mustahkam labirint bo'lgan. Dalon, g'ulom gardish; darvoza og'zi istehkomi.

LAG'M — tunel, yer osti yo'li.

MAZDAKIYLAR HARAKATI (V asrning 90-yillari — VI asr 20-yillari) — Sosoniylar davlatidagi xalq harakati.g'oyaviy rahbari — *Mazdak*. Mazdakiylik ta'sirida vujudga kelgan. Mazdakiylar harakati jamoa huquqlarini qayta tiklash, yer-suv va mol-mulkka barobar egalik qilish, hammaning teng huquqli bo'lishini ta'minlash uchun kurash shiori ostida boshlangan edi. Mazdakiylar harakatining boshlang'ich davrida sosoniylar podshosi *Qubod I* (488-531) bu harakatdan o'z manfaatlari maqsadlarida foydalanishga intilgan va mazdakiylar

yordamida yirik yer egalari, zodagonlar va zardusht kohinlarining mustaqilliklarini tugatmoqchi bo'lgan. Lekin Mazdakiylar harakati kuchayib ketishi, zodagonlar va kohinlarning mol-mulkklarini tortib olinishi shohni cho'chitib qo'ygan. 528/529-yili *Qubod I* ning o'g'li *Xusrav I Anushirvon* Mazdakiylar harakatini shafqatsiz bostirgan va *Mazdakni* qatl ettirgan.

MAZDAKIYLIK — diniy-falsafiy ta'limot. Asoschisi *Mazdak*. Mazdakiylar harakati davrida Eronda keng tarqalgan. Mazdakiylik ta'limotiga ko'ra, olamda bo'ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi yaxshilik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi yomonlik, qorong'ulik (johillik) manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash "yaxshilik"ning "yomonlik" ustidan g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakiylikda birinchi o'rinda sof falsafiy va diniy masalalar emas, ijtimoiy masalalar turadi. Mazdakiylikda asosiy yovuzlik boylikka hirs qo'yish va kambag'allik, deb ta'kidlanadi. Ijtimoiy zulmga qarshi kurash muqaddas vazifa sifatida talqin etiladi va unga diniy tus beriladi. Mazdakiylikning asosiy g'oyasi mulkiy tenglikni o'rnatishdan iborat. Bu tenglik barcha moddiy boyliklarga dehqonlar jamoasi orqali egalik qilish, ya'ni moddiy boyliklar odamlarga teng taqsimlanishi kerak deb tasavvur etiladi. Bu g'oya xalq ommasi ichida keng tarqalib, mazdakiylik harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Bu ta'limot garchi xayoliy bo'lishiga qaramay, uning adolatsizlik va zulmga qarshi qaratilgani, tinchlikka chaqirishi ijobiy ahamiyat kasb etdi. Mazdakiylik keyingi asrlar davomida Eron, O'rta Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlarning va shahar kambag'allarining (Abu Muslim, Muqanna, Bobak qo'zg'oloni) kurash bayrog'i bo'lib qoldi.

MONIYLIK — III asrda Eronda vujudga kelgan din. Asoschisi *Moniy*. Moniylik koinotda nur bilan zulmat, ruhiy asos bilan moddiy asos, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi o'zaro kurashni e'tirof etishga asoslanadi. Nur, ruhiy asos, yaxshilik olamida xudo, ikkinchisida — shayton (iblis) hukm suradi. Moniylikka ko'ra, ikki olam kurashi falokat bilan tugaydi, natijada moddiy asos olami halokatga uchrab, ruh ozodlikka chiqadi. Moniylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosidir. Inson 2 unsur (ruh — nur farzandi, jism — zulmat farzandi) dan iborat mavjudot bo'lgani uchun zulmat kuchlariga qarshi kurashda nur kuchlariga yordam bera oladi. Moniy samo nuri elchisi hisoblangan. Moniyda zardushtiylik va xristianlik g'oyalari mavjud. Moniylik dunyoning ko'p mamlakatlariga, jumladan, Italiyadan to Xitoyga qadar tarqalgan. VIII asrda Uyg'ur xonligiga hukmron dinga aylangan. *Moniy* VIII-IX asrlarda islom tarafdorlarining ta'qibiga uchraydi. Keyinchalik Yevropa va Osiyoda barham topdi. Xitoyda u XIV asrga kelib taqiqlandi.

MUG' QAL'A HUJJATLARI — Mug' qal'a xarobalaridan topilgan hujjatlar majmuidan iborat o'ziga xos arxiv qoldig'i (milodiy VII asr oxiri — VIII asr boshi). Uning tarkibidagi jami 80 hujjatdan 74 tasi fanda shartli ravishda "milliy sug'd yozuvi" yoki Samarqand sug'd yozuvi deb nomlangan yozuvda bitilgan. 3 ta hujjat xitoy yozuvida bo'lib, mazkur arxiv mazmuniga daxldor emas. Xitoycha matn bitilgan qog'ozning orqa toza yuzasidan

yozuv materiali sifatida foydalanilgan. 2 ta hujjat arab yozuvini kufa usulida bitilgan va arxiv mazmuniga aloqador. 1 ta hujjat teri yuzasiga qadimgi turk-runiy yozuvda bitilgan. Hujjatlar bitilgan materiallar turlicha. 20 dan ortiq hujjat oshlangan teri yuzasida va bir qancha hujjat xitoy qog'ozlarda yetib kelgan. Hujjatlarning mazmun doirasi xilma-xil, ularning bir turkumi huquqiy (nikoh va bu munosabat bilan oila mulkiy munosabatlari haqidagi masalalarni aks ettiradi) munosabatlarga oid. Hujjatlarning yana biri tegirmon ijarasi, ikkinchisi yer mulkchiligi haqidagi hujjatlardir. Bir turkum hujjatlar diplomatik yozishmalar toifasiga kiradi. Hujjat mazmun e'tibori bilan arab bosqinchiligi voqealari bilan bevosita aloqador, unda xalifalik noibining Movarounnahrda omili *Abdurrahmon binni Subhning* Panch hokimi *Devashtichga* ogohlantirish va do'q-po'pisasi ifoda topgan. Yana biri diplomatik maktub *Devashtich* tomonidan Rust hokimi *Afarunga* yozilgan bo'lib arablarga qarshi harbiy kuchlarni birlashtirish masalasiga ishorat qiladi. Arxiv hujjatlarning kattagina guruhi framandar (xo'jalik ishlari bo'yicha nozir) nomiga yozilgan *Devashtichning* buyruqlaridir. Yana bir qancha hujjatlar Sug'd davlatining xo'jalik munosabatlarini aks ettiradi. Ular orasida teri oshlash, charmgarlik, ziroatchilik, bog'dorchilik va boshqa xo'jalik sohalarining arab istilosi kunlaridagi ahvolini ko'rsatuvchi bir qancha hujjat namunalari bor. Yana bir guruh hujjatlarda moliyaviy munosabatlar aks etgan bo'lib, avvalo, saroy ehtiyojlari uchun xarajatlar ro'yxati, turli xil to'lovlar haqidagi axborotlar, soliq va boj yig'malaria kabi bevosita moliya iqtisod munosabatlari aks etgan. Mug' qal' hujjatlarining tarixiy manbalik ahamiyati g'oyat darajada yuksak baholanadi.

MO'LA — shahar devorlarining burji, minorasi.

NAF — ilk o'rta asrlarda So'g'dda shahar va qishloq aholisi. Ijtimoiy jihatdan u bir nechta tabaqaga bo'lingan.

NAJJORLIK — duradgorchilik.

ONGIN bitigi — mo'g'ulistondan topilgan marmar bitiktosh, O'rta Osiyo aholisi tarixini o'rganishdagi qimmatli manba.

OQTEPA — O'rta Osiyoda qadimgi binolar qoldiqlari va arxeologik madaniy qatlamlar saqlangan tepaliklar nomi. Masalan, Toshkent shahrining o'zida bir qancha Oqtepalar mavjud.

OTASHGOH, olovxona — otashparastlar sig'ingan, doimiy olov yonib turadigan maxsus bino. Har bir shahar va kattaroq qishloqda otashgohlar bo'lgan. Ular qavm raisi tomonidan tayinlangan ozarbon (otashbon) tomonidan qo'riqlanib, nazorat qilib turilgan. Xalq doimiy olovdan tutantirib olib, uylarida olov yoqqan. Qadimda hokimiyatni qo'lga olgan har bir podshoh o'z nomidan maxsus otashgohlar qurdirgan. Doro otashgohi, Anushirvon otashgohi, Afrosiyob otashgohi yoki Mitra, Anaxita otashgohi deb nomlangan otashgohlar shu tarzda paydo bo'lgan. Persepol, Isfahon, Yazd, Xuroson (Eron), Xorazm va Surxondaryoda qadimgi otashgohlar topilgan. Doro I zamonidan boshlab otashgohlarni binolarning janub tomon etagiga, aholi gavjum yashaydigan shaharlarning chetrog'iga qurish rasm bo'lgan.

OTASHKADA — zardushtiylik dini ibodatxonasi.

Gushtapning farmoni bilan qurila boshlangan. Otashkadalar turli tabiiy ofatlardan muhofaza qilish maqsadida balandlikka, tepa ustiga yoki xarsang toshlardan yasalgan 3-4 m lik tagkursilar ustiga qurilgan. Dastlab otashkada diniy marosim va ibodatlarini bajarish maskani bo'lgan. Asta-sekin otashkadaning vazifalari o'zgarib borib, sasoniylar davrida jamoa yig'inlari va boshqa tadbirlar o'tkaziladigan joyga aylangan. Barcha harajatlar podsholik tomonidan otashkadaga vaqf qilingan yer, chorva, bog'rog'lardan olinadigan daromadlar hisobiga qoplangan; Otashkadalar bir necha hujra, tolol (zal) lardan iborat bo'lgan. Bino oldida doim olov yonib turadigan otashkada maydoni bunyod etilgan. Isfaxon, Yazd, Koma (Hindiston) shaharlarida eng qadimgi otashkadalarning xarobalari mavjud. Otashkadalarda 7 xil musiqa asbobi jo'rligida Gohlarni yodlattiradigan maxsus go'shalar bo'lgan. Otashkadalar diniy udum va marosimlarni o'tkazadigan manzil bo'lish bilan birga ma'naviy, ma'rifiy ishlar markazi hisoblangan.

OTLIQ ASKARLAR — qo'shin turi. G'arbiy Yevropada XI-XII asrlarda armiyaning asosiy zarbdor qismini risarlardan tuzilgan otlq askarlar tashkil qilgan. Suvoriy risar qilich, og'ir nayza, qalqon, dubulg'a va zirh bilan qurollangan. XII asrning ikkinchi yarmidan jangovar otlar ham maxsus zirh bilan ta'minlangan. Qadimiy Rus davlati (IX-X asrlar) qo'shinida knyaz drujinalaridan tashkil qilingan otlq askarlarning soni piyoda askarlarga nisbatan ancha kam bo'lgan. Turk-mo'g'ul davlatlari armiyasining asosini tashkil etuvchi otlq askarlar o'zining tashkiliy hamda jangovar qobiliyati bilan alohida ajralib turgan. hunlar davrida otlq askarlarning soni 240 mingtaga yetgan. Turkiylar tomonidan jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib suvoriylar safining joriy qilinishi (har bir otlq askar orasidagimasofa 20 m, jangovar qatorlar soni 10 ta) otlq qo'shinning dushman ustidan to'la ustunligini ta'minlagan. Turk xoqonligining (VI-VIII asrlar) sovutli muntazam otlq askarlari nafaqat tekislikda, shuningdek, tog'lik hududlarda ham muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lib, ko'p vaqtlar davomida unga teng keladigan raqib topilmagan. Nayza bilan jang qilish san'atini mohirona egallagan turk otlqlari itoylik piyoda nayzabozlar va eronlik otlq o'qchilar (kamonkashlar) bilan bo'lgan muhorabalarda, aksar hollarda, zafar qozongan. Turk suvoriysi ko'krak qismida dumaloq qalqoni bo'lgan zirh bilan ta'minlangan, boshiga temir dubulg'a kiygan, qilich, shoxsimon yoy, to'qmoq va nayza bilan qurollangan. Og'ir qurolli otlq askarlar zodagon hamda tajribali jangchilardan tashkil etilgan jangda hal qiluvchi rol o'ynagan. Tobe yurtlarning askarlaridan tuzilgan yengil otlq askarlar, asosan, razvedka hamda ayg'oqchilik vazifalarini bajargan. Zarur paytlardagina jangga kirgan. Chingiziylar armiyasida yengil qurolli otlq askarlarning mavqe baland bo'lgan. Mo'g'ul jangchilari otda yurish, kamon, qilich va arqon bilan muomala qilish san'atini mukammal egallagan. Ular janggohda ustalik bilan manyovr-harakat qilgan, soxta chekinish, pistirma qo'yish san'ati kabi taktik amaliyotlarni muntazam qo'llagan. Amir Temur armiyasining zarbdor qismini yengil va og'ir qurollar bilan qurollangan otlq askarlar tashkil etgan. Dubulg'a, sovut, qilich, yoy, sadoq,

qalqon va nayza bilan ta'minlangan og'ir qurolli suvoriylar sara jangchilardan tuzilgan, g'animning asosiy zarbasiga qarshi turgan, jang natijasi shularga bog'liq bo'lgan. yoy, sadoq va qilich bilan qurollangan yengil otlq askarlar, asosan, soqchilik va razvedkaga mo'ljallangan. o'ta zarur chog'dagina yov bilan jang qilish huquqiga ega bo'lgan. Yevropa mamlakatlari armiyasida o't sochish qurolining rivojlanishi (XIV asr) hamda piyodalar rolining oshib borishi bois (XV asr) otlq askarlarning mavqe sekin kamaya boradi. XX asrning 50-yillari o'rtalarida ommaviy qirg'in qurollarining rivojlanishi va armiyalarning to'liq motorlashtirilishi tufayli otlq askarlar qo'shin turi sifatida barham topdi.

OZOD — ilk o'rta asr mulkdori.

OZODKOR — ilk o'rta asr hunarmandlari.

PANDUS (fransuzcha pante douce — nishab, qiyalik) — binoning eshigi, darvozasiga kiriladigan nishab maydoncha, maxsus ko'tarma; ba'zan zinapoya vazifasini o'taydi. O'rta Osiyo hududidagi qadimgi shahar qal'a va ko'shklarga panduslar orqali ko'tarilgan. Tog'lar orasida joylashgan turar joylarga maxsus panduslar ishlangan.

QABO — ustki kiyim, uqali uzun va keng guldor yopinchiq.

QAM-SHOMON — Ko'k Tangriga sig'inuvchi yakka xudolik dini.

QASR — saroy, oliy va hashamatli bino.

QORA budun — Turk xoqonligida qora xalq.

QUBO — ilk o'rta asrlarda Farg'onadagi yirik markaziy shahar. Quboda hunarmandchilikning turli sohaları rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgi bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga arg'umoqlar, bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

QUVA BUDDA IBODATXONASI (VII-VIII asrlar) — qadimiy Shahrison yodgorligining shimoliy tomonidagi rabod qismida bunyod etilgan ibodatxona. Arxeologik tekshirishlar natijasida shu aniqlandiki, VII asr oxiri — VIII asr boshlarida Shahrisonda uy-joy va aholi ko'payib, undan tashqaridagi hududni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'ilgan. Ushbu joyda 80 dan ortiq xona, 5 ta ko'cha va ular bilan bog'liq markaziy maydon qazib ochilgan. Uning shim.da esa VII-VIII asrlarda foydalanilgan budda ibodatxonasi qoldiqlari kavlab o'rganilgan. Ibodatxona 2 ta katta zaldan iborat bo'lib, biri sig'inish uchun, ikkinchisi ibodat qilishga mo'ljallangan. birinchi xonada iloh (xudo)larga qurbonliklar (gul, meva-cheva va boshqa) keltirilib, o'rtadagi tagkurasiga qo'yilgan va ibodat qiluvchilar aylanib chiqib ketishgan. Uning yonginasida asosiy ibodat bajariladigan xona bo'lib, uni yarmi saqlangan xolos. Kuchli yong'in natijasida binolar va ulardagi buyumlar kuyib yo'q bo'lib ketgan. Shunga qaramay, 2 otlq va ular yonidagi jangchilar haykallarining parchalari saqlangan. haykallar, tasvirlar majmuasida yovuzlik ilohi Mara, yaxshilik ilohi va budda himoyachisi Shri-devi, Manjushra siymolari yaxshi saqlanmagan. Quva budda ibodatxonasi o'zining me'moriy yechimi bilan O'rta Osiyodagi Budda inshoatlaridan ayrim belgilariga ko'ra bir oz farq qiladi. Xususan, Budda ibodatxonalariga xos va diniy marosimo'tkazishda foydalanilgan ayrim me'moriy

belgilar bunda uchramaydi. Quva budda ibodatxonasi qurilishida ko'proq mavjud shart-sharoit va mahalliy qurilish an'anasidan foydalanilgan. Yana bu yerdan topilgan haykallar tasvirlarida, ayniqsa, yuz tuzilishida bir oz bo'lsa-da, turkiylashgan qiyofa berishga harakat qilingan. Bu ibodatxona va topilmalar mutaxassislar tomonidan ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ldi. Bu inshoot budda dinidagi mustaqil oqim — vadjayana yo'nalishiga taalluqli yagona yodgorlik deb talqin etilmoqda. Bu oqim ko'proq hinduizm ta'sirida bo'lib, o'rta Osiyoda faqat Quva budda ibodatxonasida kuzatilgan. Quva budda ibodatxonasi topilmalari hindiston va Sharqiy Turkistonda aniqlangan materiallarga o'xshashligi bilan, o'rta asrlardagi madaniy-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlanganini, madaniyat va san'atni yuksalganini ko'rsatadi.

QO'RG'ON — atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan darvozali turar joy.

QO'SHCHI — ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a'zolari "*kashovarz*", ya'ni yerni haydovchi — yerni omoch bilan ag'daruvchi.

RABOD (arabcha) — O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistondagi o'rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do'konlari, mahallalari joylashgan qismi. Rabodlar VII-VIII asrlarda paydo bo'lib, shaharlarning arki yoki shahristoni atrofiga qurilgan. XI-XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarining mustahkam qismiga aylangan. XIII asr boshida mo'g'ullar istilosi natijasida ko'plab qadimgi shaharlarning arki va shahristoni xarobaga aylanib qolgan bo'lsa-da, rabodlar hayot davom etgan.

RABOT (arabcha) — o'rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tarhi to'rtburchak, devorlarida minoralari bo'lgan. Dastlab (Islom dini tarqala boshlagan davrda) g'oziyalarga mo'ljallab qurilgan maxsus bino. Keyinchalik rabot faqat, istehkom ma'nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. Zohidlar ham maxsus rabotlarda yashaganlar. O'rta Osiyoda VIII-X asrlarda ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlar bilan chegaradosh hududlarda ko'plab rabotlar qurilgan. Ulardan eng mashhuri Raboti Malikdir.

RUNIK bitigi — qadimda turkiy yozuvlar, ya'ni urxun-yenisey yozuvlari.

SARKOR — ish boshi, ilk o'rta asrlarda "*dehqon*", ya'ni "*qishloq hokimi*" nomi bilan shuhrat topgan katta yer egasi.

SOVUT — jangda tanani o'q, nayza va qilich zarbidan saqlash uchun kiyiladigan mustahkam harbiy kiyim. O'rta Osiyo va Sharq qo'shinlarida ilk o'rta asrlardan boshlab qo'llanishda bo'lgan. Turkiylar tomonidan temir eritishning yo'lga qo'yilishi turli jang qurollari qatori sovutning ham ixtiro qilinishiga zamin bo'lgan. Sovut dastlab to'rt yalak shaklida po'lat simdan to'qilgan. Keyinchalik uning chidamligini yanada oshirish maqsadida ustiga har xil shakldagi metall tangachalar qoplangan. Sovutning yoqasiz va yengsiz turlari ham bo'lgan, ular yashirin ravishda oddiy kiyim tagidan kiyilgan. Sovut ostidan maxsus paxtali kiyim — hafton kiyilgan. Turk xoqonligi qo'shinida sovut yaraq (yaraq), qoraxoniylar qo'shinida yariq (yariq), kuba yariq, quyag' (quyag'), ko'krak sovuti

esa tura so'zlari bilan ifodalangan. *Amir Temur, Bobur* va o'zbek xonlari qo'shinida sovutning rang-barang turlari mavjud bo'lgan. Jumladan, simdan to'qilgan javshan, temir zanjirlardan yasalgan zirh, metallardan yasalgan jubba, ko'ktumur, po'latdan yasalgan oha, ko'ha kabi sovut turlari tarixiy-badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Jangovar otlarga va fillarga mo'ljallab tayyorlangan sovutlar ham qurollanishda bo'lgan va ular kejim hamda bargustvon deb yuritilgan. Tunda askar tomonidan to'shak o'rnida foydalanilgan va ot sag'risida olib yurilgan yopinchiq bagtar deb atalgan. Askar tizzasi va butini dushman quroli zarbidan saqlovchi sovut turlari tizlik va butluq deb nomlangan.

SUVORIY — otliq qo'shin.

SUG'D ADABIYOTI — sug'd tilida yaratilib, bizgacha saqlangan yozma manbalar. Manbalarning asosiy qismi IV-X asrlarga taalluqli bo'lib, budda, moniylikka tegishli matnlar, kundalik turmushga oid hujjatlar, turli yozishmalar, farmon va yorliqlar, sug'd astronomik kalendari, O'rta Osiyo xalqlari eposlarini tashkil etadi. Turli alifboda bitilgan bu yodgorliklar oromiy yozuvlarida yozilgan bo'lib, Sinszyan hududidan, shuningdek, Mug'tog'idan topilgan. Afrosiyob devoriy rasmidagi elchi tasvirida 16 satrdan iborat ishonch yorlig'i yozilgan. Sug'd yodgorliklaridan yaxlit bir adabiy-badiiy asar saqlanmagan bo'lsa-da, turli mazmunlardan tuzilgan qochirim so'zlar, hikmatli iboralarga to'la maktub va yorliqlar sug'dlarda boy adabiyot bo'lganini ko'rsatadi. Sug'd yodgorliklari orasida *Rustam* haqidagi eposdan parchalar (V-VII asr) katta adabiy qimmatga ega bo'lib, bularda *Rustamning* devlar bilan qilgan jangi tasvirlangan. *Rustam* obrazi avval xalq og'zaki ijodida, keyinchalik yozma adabiyotda yaratildi. Moniylikka taalluqli sug'd matnlari orasida "*Kalila va Dimna*"dagi "*Savdogar va marvarid teshuvchi*", "*Uch baliq haqida*", "*Tulki va maymun*" masallariga mazmunan yaqin bo'lgan hikoya va masallar uchraydi. "Xalqlar ro'yxati" nomli sug'd hujjati VIII asrga oid. Bunda o'sha vaqtda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elatning nomi berilgan.

SUG'D YOZUVI — mil.avv. I-IX asrlarda mavjud bo'lgan, oromiy yozuvi asosida shakllangan harf-tovush yozuvi; u bir manba — oromiy yozuvidan tarqalganligiga ko'ra suryoniy yozuviga yaqin turadi, lekin ular parallel holda mustaqil shakllanib, rivojlangalar. Zarafshon daryosining vodiy va yuqori oqim qismlarida joylashgan Sug'd (Sug'diyona) viloyatida qo'llangan. Dastlab unda 22-23 harf mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi qadimgi oromiy alifbosidagi singari bo'lgan. Keyinchalik, IV asr boshlarida ba'zi harflarning alifbodan chiqib ketishi, ba'zi harflarning alifbodan shaklan bir-biriga yaqinlashuvi, o'xshab qolishi natijasida harflar soni 17 dan iborat bo'lib qolgan. So'g'd yozuvining milodiy I asrga oid eng qadimgi namunasi Samarqand yaqinidagi Talli Barzu degan joydan topilgan, eng so'nggi namunalari esa VIII asr oxiri — IX asr boshlariga mansub. Yodgorliklarning ko'pi XX asrda Sharqiy Turkistondan topilgan. Shulardan biri 808-821 yillarda hukmronlik qilgan xoqon sharafiga bitilgan, uch tildagi (sug'd, qadimgi turk va xitoy) qabr toshi yozuvidir. So'g'd yozuvi namunalarining aksariyati IV-VIII asrlarga tegishli bo'lib, ulardan Mug' qal'a xarobasidan topilgan

hujjatlar (1933) muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar va so'g'd yozuvining ba'zi boshqa yodgorliklarida sug'd adabiy tili me'yorlari, uning adabiy-badiiy uslubi yaqqol seziladi. Sug'd yozuvi, o'z navbatida, qadimgi turkiy runik yozuvi hamda uyg'ur yozuvini shakllantirish uchun asos bo'lgan.

TERMIZSHOHLAR — Termiz va uning viloyatini boshqargan merosiy hukmron sulola (V-VII a. oxirlari). Arablarning Shimoliy Toxaristonga qilgan yurishlari (VII a. oxiri — VIII a. boshi) munosabati bilan arab-fors yozma manbalarida (*Tabariy*, *Balozuriy*, *Ibn Xurdodbeh*) qayd etilgan. Buddaviy rohib *Syuan-Szan* (taxm. 630-y.)ning ma'lumotiga ko'ra, Tami (Termiz) mulki hududi g'arbdan sharqqa tomon 600 li (180-300 km), shimoldan janubga tomon esa, 400 li (120-200 km) masofani tashkil etgan, ya'ni Termizdan tashqari Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlarni ham qamragan. Shaharda buddaviylik hukmron mavqega ega bo'lib, unda 12 ta monastir va 1000 ga yaqin rohib, shuningdek, stupalar, budda haykallari bo'lgan. Termizshohlar hokimiyat tepasiga mil. 5-a.da kelganlar, bunga ular zarb etgan mis tangalar guvohlik beradi. Tangalar VII a. oxiriga qadar zarb etilgan. Termizshohlarning etnik kelib chiqishi noaniq, eftaliylar yoxud kidariylar bilan bog'liq bo'lishi ehtimol. 689-690-yillarda Termizni arablarning qaysiylar qabilasi sardori *Muso ibn Abdulloh* egallagan va shahardan termizshohni quvib yuborib, xalifalikdan ajrab chiqib, 15 yil mustaqil hokimlik qilgan. Termizshohning turkiylar yordamida taxtni qaytarib olish uchun qilgan harakatlari zoe ketgan. 704-yili *Usmon ibn Mas'ud* 15 ming kishilik lashkar bilan kelib shaharni Ummaviylar tobeligiga qaytarishga erishgan. Termizshohlar hokimiyati xalifalik tomonidan nomigagina bir muncha muddat tiklangan, Termiz butunlay xalifalik tomonidan idora etiladigan bo'lgan, shahar arablarning asosiy tayanch punktiga aylangan.

TERRAKOTA (italyancha terra-yer, tuproq, cotta — qizdirilgan) — tor ma'noda — loydan ishlanib xumdonda pishirilgan sirlanmagan va rang berilamgan mayda haykalchalar; keng ma'noda — loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda qizdirilgan badiiy va amaliy ahamiyatga ega sirlangan sopol buyumlar (idishlar, ko'za, haykalcha, o'yinchoq, koshin va boshqalar). Qizdirilgan so'ng o'ziga xos tus (sarg'ish, qizg'ish-jigarrang, qora) va sirt (faktura)ga ega bo'ladi. Terrakota neolit davridan ma'lum bo'lgan. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududidan ko'plab nodir terrakota namunalari topilgan.

TOXARLAR, TO'XORLAR — O'rta Osiyoning qadimiy etnoslaridan biri. Ilk marotaba yunon-rim manbalarida toxar, tagur (mil. av. I — mil. I asrlar), keyinroq esa, ilk o'rta asrlarda hind manbalarida tukxara, xitoy yilnomalarida tuxolo, qadimiy turk manbalarida toqar, toxri shakllarida qayd etiladi. Ko'pchilik olimlar toxarlarni hind-evropa tillari oilasining alohida tarmog'i hisoblaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar esa ularni hind-evropa til oilasining eron guruhiga kiritadilar. Yunon manbalaridan ma'lum bo'lishicha, toxarlar mil. av. II a. o'rtalarida bir guruh ko'chmanchi qabilalarning Sharqiy Turkistondan chiqib, janubiy-g'arbda Yunon-Baqtriya podsholigini bosib olishida ishtirok etadilar va Amudaryoning yuqori

havasida joylashib qoladilar. *Ptoleme*y (mil. I asr) toxarlarni "Baqtriyaning eng katta xalqi" sifatida tilga oladi. Ilk o'rta asrlarda Baqtriya o'lkasining Toxariston nomi bilan yuritila boshlanishi ham ularning milodning ilk asrlaridan boshlab Baqtriya aholisining ko'p sonli va hukmron tabaqasini tashkil etganligini ko'rsatadi. Baqtriya o'lkasi qadimiy Xitoy yilnomalarida Dasya shaklida qayd etiladiki, tadqiqotchilar uning toxar so'zining xitoycha talaffuzidir, deb hisoblaydilar. Toxarlarning ilk vatani masalasi bahsli. Bir qism tadqiqotchilar fikricha, ularning ilk ona yurti Shimoliy Qora dengizbo'yi yoki Volgabo'yi dashtlari bo'lib, mil. av. 3-ming yillikda Old Osiyo orqali Sharqqa, O'rta Osiyo orqali Sharqiy Turkistonga borib joylashganlar. Boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, toxarlarning ilk vatani aynan Sharqiy Turkiston bo'lib, ular bu yerning tub joy aholisi bo'lgan va mil. av. so'nggi asrlarda O'rta Osiyo va Baqtriya ko'chib o'tishgan. Bir qancha tadqiqotchilar qadimiy Xitoy yilnomalaridagi *yuechji* va yunon-rim manbalaridagi toxarlarni bitta xalq deb, hisoblashadi va ular dastlab hozirgi Xitoydagi Gansu (Kengsu) viloyatida yashaganliklarini ta'kidlaydilar. Aynan Sharqiy Turkiston hududida toxarlarga mansub braxmiy xatida bitilgan ko'plab qadimiy yozma yodgorliklar topilgan. Ushbu yozma asarlarning asosiy qismi mil. V-X asrlarda yaratilgan bo'lib, aksariyati buddaviy asarlar va matnlarning toxarcha tarjimalari yoki qayta ishlanmalaridir. Bundan tashqari, Lobnor ko'li atrofidan topilgan Krorayna davlatining mil. III-IV asrlarga mansub prakrit tilidagi hujjatlarida toxarcha so'zlarning uchrashi toxar tilining ushbu davrgacha tarqalganligini ko'rsatadi. *Z. Validiy* fikricha, ular asli ural-oltoy xalqlariga mansub bo'lib, keyinchalik toxar etnonimi Sharqiy Turkistonga ko'chib kelgan hind-evropaliklarning bir guruhi uchun qo'llanila boshlagan. Xususan, toxar etnonimining yasalihi Ural-Oltoy tillariga xosdir. Ushbu til oilasiga mansub xalqlarda -ar (er) "odam" ot yasovchi qo'shimchasi asosida ko'plab etnik nomlar vujudga kelgan. Jumladan, avar, majar (mojor), bulg'ar (bulg'or), tatar, xazar, sabar kabi. Toxar etnonimi ham xuddi shu shaklda paydo bo'lgan, ya'ni toxar=>tox+ar». Shuningdek, Dunxuanidan topilgan ilk o'rta asrlarga taalluqli "Sak-Xo'tan-Brahma" yozuvli "qavmlar va geografik nomlar ro'yxati"da sharqiy turklarning besh tardush urug'idan biri tugara etnonimini toxar bilan tenglashtiradilar. O'g'uzlarning bir urug'i bo'lgan to'gar nomini ham toxar etnonimi bilan bog'laydilar. Bular qatoriga turk-mo'g'ul qabilasi bo'lmish jaloyirlarning bir urug'i toxraut, Old Osiyoda yashagan oqqo'yunli turklarning tuxarlu singari etnonimlarini qo'shish mumkin. Bundan tashqari, fors til guruhiga mansub osetinlarning yana bir nomi digor deb yuritiladiki, tadqiqotchilar uni toxar etnonimining izlaridan biri hisoblashadi.

TUDUN, TUTUN — Turk xononligi boshqaruvidagi unvonlardan biri. Xoqon xonadoniga mansub va bo'ysundirilgan viloyatlardagi hokimlar faoliyatini nazorat qilib, o'lpon va soliqlar yi'gishni tashkil etish maqsadida tayinlangan noib unvoni. Xitoyning Tan-shu yilnomasida VII asrning 40-yillaridan to VIII asrning 40-yillarigacha hukm surgan Choch hukmdorlari tudun unvoni bilan qayd etiladi. Ushbu yilnomada Chochni turli yillarda idora qilgan 4 nafar tudun haqida so'z boradi.

TUPROQQAL'A DEVORIY RASMLARI VA



HAYKALLARI — Oʻrta Osiyo hududida saqlangan qadimiy sanʼat obidalaridan. Tuproqqalʼadagi Xorazm shohlari saroyi majmuasi devorlariga ishlangan rasmlar va haykallar mil. I-III asrlarga mansub. Arxeologlar “Shohlar xonasi” (haykallar guruhida ajdodlar ilohiylashtirilgan boʻlsa kerak), “gʻalaba xonasi” (goreleflarda shoh shonshavkati ifodalangan), “Askarlar xonasi” (shohlar ulkan, jangchilar kichik hajmda aks ettirilgan) va boshqa ramziy atalgan saroy xonalari haykallar, boʻrtma tasvirlar hamda rangtasvir bilan bezatilgan; rangtasvir haykaltaroshlik hamda monumental bezaklarda keng qoʻllanilgan. Tasvirlar Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan usulda — quruq ganch suvoqqa mineral boʻyoqlarga yelim qoʻshib ishlangan: tasvir oq zaminni butunlay qoplab ishlanib, qora boʻyoqda tasvirning shakli aniq qilib chizib chiqilgan, soʻng shakllar ichi kerakli ranglar (qora, koʻk, zangori, qizil, binafsha, pushti va boshqa) bilan boʻyalgan. Tuproqqalʼa devoriy rasmlari va haykallari, asosan, quyidagicha kompozitsiya tuzilishiga ega: kengligi 0,5-0,7 m boʻlgan bezak hoshiyadan iborat pastki qism (mas., moviy suv toʻlqini uzra suzayotgan qizil baliqlar), asosan, tabiiy kattalikda ishlangan turli jonzotlar, odamlar tasvirlari, ov manzaralaridan iborat asosiy qism hamda devor bezagini yakunlovchi ganch bezakli friz koʻrinishidagi yuqori qism. Asosiy qismda tasvirlangan ov sahnalari, odamlar tasvirlari diqqatga sazovor, mavzuli lavhalar oʻsimliksimon naqshlar bilan uygʻunlashtirilgan. Yaxshi saqlangan ayrim tasvirlar Xorazm rangtasviri (mas., arfa chalayotgan ayol tasviri)ning ishlanishini kushongandxar anʼanalari bilan bogʻlash imkonini beradi, shuningdek, shunday qiyofalar ham uchraydiki, bu qiyofalar Suriya-Misr yoki Shim. qora dengiz boʻyi xalqlarining rim davri sanʼatida uchrashini tadqiqotchilar aniqlagan. Barcha tasvirlar oʻta erkinlik va haqqoniylik bilan yaratilgan boʻlib, qadimiy Xorazmning yuksak badiiy madaniyatidan darak beradi.

TURK, turkiylar — jahondagi eng qadimiy va yirik etnoslardan birining nomi. Soʻnggi davrda jahon olimlari, jumladan, oʻzbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida va qadimiy xitoy manbalaridagi maʼlumotlarga koʻra, ushbu atama bundan 3,5-4 ming yil muqaddam rasmsimon ierogliflar bilan yozilgan bitiklarda «*tiek*» va «*tiauk*» shaklida uchraydi. Turk soʻzi *baquvvat*, *barkamol*, *odillik* kabi maʼnolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Qadimiy Xitoy manbalarida turklar qiyofasi chuqur koʻzli, qirra burunli, basavlat va sersoch deb koʻrsatiladi. Bir necha ming yilliklar davomida turkiy qabilalar koʻp marta birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi oʻzgarib turgan. Mil. avv. II asrdan — mil. III asrgacha boʻlgan davrda turklar hun xoqonligi tarkibida boʻlganligi sababli Xitoy manbalarida *shyunnu*, *hunnu* deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni *tiekle* (zamonaviy tilda *tele*) deb atashgan. VI asrda turklarda boʻlgan *Ashina* avlodi kuchayib turk xoqonligini barpo etgan. Xitoy manbalariga koʻra, IX asrda tilga olinadigan turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan. Shulardan 22 tasi *uygʻur* (ittifoqchilar) deb nomlangan. Uygʻur xoqonligi tugatilganidan soʻng bularning katta bir qismi Turkiston hududida joylashgan. Turkiya olimlari asarlarida turk

qabilasi *koʻkturk* deb ham ataladi. Tadqiqotlarga koʻra, *koʻkturk* soʻzi tangriga, yaʼni osmonga ishongan turklar, balandlik turklari, koʻk boʻri totemi boʻlgan turklar kabi maʼnolarni anglatgan. Oʻrta Osiyoda turk toponim, etnonim, gidronim sifatida koʻplab uchraydi.

TURKASHLAR, TURGASH, TURGESH — ilk oʻrta asr turkiy xalqlaridan biri. Turkashlarning qadimiy ajdodlaridan birini yuechji qabilalari tashkil qilgan. Turkashlar toʻgʻrisida ilk maʼlumotlar VII asrning ikkinchi choragidan uchraydi. Ular, asosan, Yettisuvda yashagan. Bu davrda turkashlar gʻarbiy Turk xoqonligi hududida yashagan dulu qabilaviy ittifoqiga kirgan. VII asrning oxirida turkashlar oʻz davlati — Turkash xoqonligini barpo etdi. Turkashlar ikki katta guruh — qora va sariqlarga boʻlingan. Ular oʻrtasida vaqt-vaqti bilan oʻzaro kelishmovchiliklar boʻlib turgan. *Gardiziyning* maʼlumotiga qaraganda, turkashlar ikki urugʻ: tuxsi va azlarga boʻlingan. 766-yili qarluqlar kuchayib Turkash xoqonligini tugatdilar va turkashlarning asosiy qismini oʻzlariga boʻysundirdilar. Turkashlarning qolgan qismi uygʻurlarga qaram boʻldi. *L.N. Gumilyovning* fikricha, bu voqeadan soʻng turkashlar xalq sifatida tugatildi. Ularning bir qismi qarluq nomini qabul qildi, qolgani esa uygʻurlar tarkibiga singib ketdi. Ammo, shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, turkashlarning nomi IX asrda ham manbalarda uchraydi. Az va tuxsi urugʻlarining nomi esa keyingi asrlarda ham manbalarda tilga olingan.

TURON — tarixiy-geografik atama. Oʻrta asrlar adabiyotlarida (Tabariy, Beruniy, Firdavsiy) Eron va Turon hududiy chegaralari Amudaryo orqali belgilanadi. Dastlab Avestoda qayd etilgan “*tur*” etnonimi keyinchalik Oʻrta Osiyo dasht va togʻ yerlarida yashovchi chorvador aholi bilan bogʻlangan. Olimlarning fikriga koʻra, “*turlar*” tushunchasi — bu sak-massagetlarning dastlabki nomi boʻlishi mumkin. Sak-massagetlar va ularga yaqin qarindosh qabilalar mil. avv. VI-IV asrlarda Oltoy va Janubiy Sibir dashtlarigacha tarqalgan. Bu haqda arxeologik maʼlumotlar ham dalolat beradi va Shinjon-Uygʻur oʻlkasida saklar yozuvlarining tarqalishi ham shu fikrni tasdiqlaydi. *Mahmud Koshgʻariyning* taʼkidlashicha, Uygʻuristonning qashqar tumanida “*kansak*” tili saqlangan edi. Sharqiy Turkistondagi Xotan vohasidan topib tekshirilgan yozuvlar “*xotan-sak*” hujjatlari nomi bilan atalgan. Demak, Turon — faqat Oʻrta Osiyo hududining qadimiy atamasi degan xulosa bahslidir. “*Turon*”, “*turonliklar*” yurti tushunchasini keng hududlar bilan bogʻlash mumkin. oʻrta asr mualliflari ham “*Turon*” geografik tushunchasini turlicha tasdiqlaydilar. Baʼzi tarixchi va geograflarning aytishicha, Turon — bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan maʼnoni bildirib, keyinchalik “*Turkiston*” tushunchasiga aylangan. Akademik *A. Muhammadjonovning* fikricha, “*Turon*” atamasi sugʻdcha — yer, tuproq, dala va dasht kabi maʼnolarni bildirgan. Shunga koʻra, “*Turon*” toponimi pasttekislik, dalayu dashtliklar, yaʼni keng yaylovlar degan maʼnoni anglatgan.

TOʻNYUQUQ bitigi — marmar bitiktosh, turkiy yozuv yodgorligi, Eltarish xoqon (680) ning maslahatchisi va sarkarda *Toʻnyuquq* (taxminan 645-726) sharafiga qoʻyilgan (712-716). Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqda joylashgan. Bitik 62 satrdan iborat boʻlib, janubiy va shimoliy

tomonlarga bir-biriga qarab qo'yilgan 2 to'rt qirrali tosh ustunga yozilgan. Janubdagi ustunning balandligi 170 sm, shimolidagisini 160 sm. Bitiktoshda Turk xoqonligining qayta tashkil topishi, bu ishda *Eltarish xoqonning xizmati*, *To'nyo'quqning xoqonlik shakllanishi*, yuksalishidagi, turli o'lka va qabilalarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlardagi qahramonligi, vatanparvarligi batafsil bayon etilgan. Yodgorlik nafaqat badiiy-tarixiy asar sifatida, balki qadimgi toponimlar va etnografizmlarni o'rganish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Mazkur bitiktoshni 1897-yilda rus etnografi *Yelizaveta Klements* eri *Dmitriy Klements* bilan birga Shimoliy mo'g'ulistonning Bain-Sokto manzilidan topgan. Dastlab, bitiktoshning fotosurati, transkripsiyasi va nemischa tarjimasini *V.V. Radlov* tomonidan 1899-yilda nashr ettirilgan. Yodgorlik matni dan (dat), ingliz, rus, fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan.

URXUN-ENISEY YOZUVI, QADIMGI TURK RUK YUZUVI — tosh, metall, yog'och va boshqalarga o'yib bitilgan qadimiy turkiy yozuvlar. V-VIII a. (ba'zi manbalarda VIII-X a.)larga mansub. Urxun va Yenisey daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qadimiy german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun *runik yozuv* deb ham atalgan. Urxun-Yenisey yozuvi haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus olimi *S. Remezov*, keyinroq shved olimi *F. Strahlenberg* hamda nemis olimi *D.G. Messerschmidt*lar xabar bergan. Bu yozuvning turkiy xalqlarga mansubligini birinchi marta fransuz olimi *J.P. Abel-Remyuz* (1820), so'ngra rus olimi *N.M. Yadrinsev* (1889) isbotlagan. Urxun-Yenisey yozuvining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o'rtasida tan olingan yagona fikr yo'q. Bu haqdagi nisbatan keng tarqalgan mulohazaga qaraganda, mazkur yozuv o'z kelib chiqishiga ko'ra sug'd va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Urxun-Yenisey yozuvining paydo bo'lish joyi va vaqti ham hozircha uzil-kesil hal qilingan masala emas. Mazkur yozuv o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Urxun-Yenisey yozuvi 38 belgi (harf)dan iborat bo'lib, fonetik yozuv tizimiga kiradi. Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ifodalaniib, bir-biriga ulanmay, yakka-yakka yozilgan. Urxun-Yenisey yozuvi turkiy tillar tarixi, madaniyati, etnografiyasi, til va yozuvlari tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

UYG'UR YOZUVI — Sharqiy Turkistondagi turkiy zamon xalqlar foydalangan harf-tovush yozuvi; sug'd yozuvi asosida paydo bo'lgan. Dastlabki yozma yodgorliklari VIII asrga mansub. Uyg'ur yozuvida harflar vertikal chiziq bo'ylab yuqoridan pastga qarab yozilgan, yozuv ustunlari esa chapdan o'ngga tomon joylashtirilgan. harfning so'zdagi o'rniga (boshi, o'rtasi, oxiriga) qarab tegishli o'rinlarda uning alohida shakllari qo'llangan. Diniy asarlar, odatda, qat'iy kitobiy yozuvda, rasmiy hujjatlar esa tez yozuvga asoslangan kursivda yozilgan. Uyg'ur yozuvi IX-XIII asrlarda budda diniga sig'inuvchi turkiy qabilalar o'rtasida keng tarqalgan. Ushbu qabilalar islomni qabul qilganlaridan keyin bu yozuv asta-sekin arab yozuvi tomonidan siqib chiqarilgan, lekin uyg'ur yozuvi budda ibodatxonalarida XVIII asrda ham qo'llangan. XVIII asrda uyg'ur yozuvi mo'g'ullar tomonidan o'zlashtirilgan va

hozirda ham mavjud bo'lgan mo'g'ul yozuvi shakllangan; uyg'ur yozuvi asosida manjur yozuvi ham yaratilgan.

VAG'N — ilk o'rta asr ibodatxonasi.

VAG'NAT — ilk o'rta asrlarda ibodatxonalarning bosh ruhoniy mulozimi, ya'ni kohini.

VAG'NZE — ilk o'rta asrlarda kohinlar tasarrufidagi yerlar.

XANDAQ — qadimgi va o'rta asrlarda shahar, qal'a, qo'rg'on va mudofaa istehkomlarini dushman hujumidan ehtiyot qilish maqsadida ularning tashqi devori yonidan gir aylanasiga qazilgan, o'ra, chuqurlik.

XIONIYLAR — turkiy qabila. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, dastlab Oltoy tog'lari atrofida yashashgan va IV asrning birinchi yarmida jan.-g'arbga siljib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'iga kirib kelishgan. Bu erda dastlab ular Zarafshon vohasini egallab, janubga harakat qilishgan va ancha zaiflashib, sosoniylar Eroniga qaram bo'lib qolgan Kushon podshohligi o'rnini egallaganlar hamda markazi Toxariston bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xurosonning bir qismini ham o'z ichiga olgan Xioniylar davlatini (IV-V asrlar) barpo qilishgan. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa xioniylarning dastlab Orol dengizi shimolida yashaganligi va yirik massaget qabilalar ittifoqiga mansub bo'lib, hunlar bilan aralashganligini ta'kidlaydilar (L.N. Gumilev, S.P. Tolstov, K.V. Trever). Ularning fikricha, yunon va lotin tilidagi asarlarda xioniylar "oq hunlar" deb atalgan. IV asrning 70-yillarida xioniylar sosoniylar Eroniga qarshi hujum uyushtirib, muvaffaqiyatga erishganlar. Shuningdek, sosoniy podshohlar *Varaxran* (418-438), *Yazdigard II* (438-457) davrlarida ular Eronning eng yirik raqibiga aylanganlar. Xioniylar hukmronligi davom etayotgan bir paytda yangi bir sulola — kidariylar o'rta chiqqan. Ular Oltoy tog'lari va Sharqiy Turkiston oralig'idan jan.-g'arbga siljib, 420-yilda Bolo (Naxshab) sh.ni o'ziga qarorgoh qilishgan va Xioniylar davlati bilan qo'shni bo'lib qolganlar. V asrning ikkinchi yarmida Xioniylar va Kidariylar davlati hududini o'z ichiga olgan yangi bir davlat eftaliylar sulolasi o'rta chiqadi va VI asrning 60-yillarigacha O'rta Osiyodagi eng yirik davlatga aylanadi.

XORAZMSHOH — Xorazm hukmdorlarining unvoni. Beruniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, dastlab xorazmshohlar unvoni bilan Xorazm-ni Kayxusrav idora etgan. quyidagi 4 sulola: afrig'iylar (305-995); ma'muniylar (995-1017); oltintoshlar (1017-34); anushteginiylar (1077-1231) hukmdorlari xorazmshoh unvoniga ega bo'lganlar.

XOQON, QAG'AN, QOON — O'rta Osiyolik ayrim xalqlarda, shu jumladan, turkiy xalqlarda hukmdorlarning eng oliy unvoni. Ushbu unvon imperator, shaxanshoh unvonlari bilan teng ma'noni bildirgan. Mil.avv. I asrdan to so'nggi o'rta asrlargacha O'rta Osiyo, Shimoliy Xitoy, Shimoliy Kavkaz, Janubiy Rossiya, Sharqiy Yevropa, Eron, Hindiston va boshqa o'lkalarda hukm surgan turkiy sulolalar aksariyati hukmronlar uchun qo'llangan. Dastlab mil. avv. I asrda Osiyo hunlarida ko'ringan ushbu unvon Yevropa hunlari — gunnar, syanbilar, tabg'ach, eftaliylar, Avar xoqonligi (Sharqiy Yevropada), Turk xoqonligi, Xazar xoqonligi, Uyg'ur xoqonligi davlatlarida mavjud bo'lgan. Keyinchalik, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Usmoniylar davlatlarida ham yuksak unvon

sifatida qo'llanilgan. Bundan tashqari, ushbu unvon turkiylar bilan qo'shni bo'lgan boshqa xalqlarda: slavyanlarda (Kiev Rusi davlati), mo'g'ullar (Chingizxon imperiyasi)da ham ishlatilgan. Ayniqsa, Turk xoqonligi davrida oliy hukmdor sifatida davlat tepasida xoqonlar turgan. Bu davrga taalluqli qadimiy turkiy, xitoy, yunon, arman, sur-yoniy, sug'diy, baqtriy, tibet tilidagi manbalarda turk xoqonlari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xitoy yilnomalarida xoqonlarning taxtga chiqish marosimi haqida keng tafsilotlar berilgan. Jumladan, xoqon bo'ladigan shaxs oq kigiz ustiga o'tirg'izilib, 9 kishi tomonidan yuqoriga ko'tarilgan holda o'tov (chodir)ning atrofida quyosh yo'nalishida 9 marotaba aylantirilgan. So'ngra esa ipak ro'mol bilan tomog'i siqilib, undan qancha yil hukmdor bo'lishi so'ralgan, og'zidan chiqqan birinchi tovush yoki so'zga qarab, uning qancha muddat hukm surishi tayin qilingan. Shunga o'xshash ma'lumotlar yunon, arab, fors, turkiy manbalarda ham saqlanib qolgan. Turk xoqonligi davrida, jumladan, VI-VIII asrlarda O'rta Osiyoning bir qancha o'lkalarida; Toxariston, Sug'd, Farg'ona, Choch, Yettisuvda "xoqon" unvoni bilan tangalar chiqarilgan.

XVABU — viloyat hokimi.

XVATOV — hokim.

YABG'U, YABG'U XOQON, JABG'U — Turk xoqonligida xoqon urug'idan bo'lgan el-yurt hokimi.

YER EGALIGI — muayyan huquqiy asoslar (mulkka, yerni tasarruf etish va meros qolgan yerdan umrbod foydalanishga va ijaraga oid huquqlar)ga muvofiq yerga egalik qilish; xo'jalik oborotiga va bozor iqtisodiy mexanizmi tarkibiga kiritilgan yerdan foydalanish shakli. Yer egaligi zimmasiga tegishli huquq va majburiyatlar yuklaydi. O'rta Osiyoda yer egaligining amlak, vaqf, mulk, tanho va boshqa shakllari mavjud edi.

SHAD, SHOD — Turk xoqonligi boshqaruvchi unvon. Shad Turk xoqonligida bosh hukmdor — xoqondan keyingi o'rinda turuvchi yabg'udan so'ng eng yuqori unvon bo'lib, ushbu unvonga, asosan, xoqon xonadoniga mansub, biror o'lkaga ma'mur qilib tayinlangan va o'z qo'shiniga ega bo'lgan tegin, shahzodalar sazovor bo'lishgan. Xoqonlikning markaziy hokimiyatida xoqon, o'ng (To'las) va so'l (Tardush) qanotlari boshqaruvida shodlar turar edi. Ular o'n ming qo'shinga ega bo'lgan. Turk xoqonligi davrida Choch, Buxoro, Toxaristonni shodlar boshqargani xitoy va arab manbalaridan ma'lum.

SHAHRISTON — O'rta asrlarda Sharqdagi shaharlarning markazi, mudofaa devori bilan mustahkamlangan asosiy qismi. Saroy (ba'zan ark), jome masjid, yopiq (tim) yoki ochiq bozor, bosh maydon — registon, muhim ma'muriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarining qo'rg'onlari, shuningdek oddiy aholi xonadonlari va boshqalari bo'lgan. Ilk davrlarda unda bog', ekinzorlar ham bo'lgan. Qadimiy Buxoro shahristoni arkan alohida qurilgan (Narshaxiyning yozishicha, arkning bir darvozasidan shahristonga chiqilgan). Shahristonlar yirik-asosiy ko'chalar bilan bir necha kvartalga bo'lingan. Masalan, Buxoro shahristonida g'arbdan sharqqa, shimoldan janubga o'tgan ko'cha shahristonni 4 teng qismga bo'lgan. Shahristonda dastlab dehqonlar, arab istilosidan keyin savdo va hunarmandchilik rivoj topgach, savdogarlar, hunarmandlar (hokim tabaqa bilan bir shahristonda) yashaganlar. Keyingi asrlarda shahriston

atrofida tashqi shahar — rabod qurilgan. O'rta Osiyo qo'sh — ichki va tashqi rabod bilan o'ralgan shahristonlar ham bo'lgan (masalan, Binkat).

SHOMONLIK, SHAMANLIK (evenk tilida shaman — jazavaga tushish) — ibtidoiy diniy e'tiqod shakllaridan biri. yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish shomonlikning asosini tashkil etadi. Shomonlikda uning ruhoniylari — shomonlar ruhlar bilan aloqa bog'lay oladigan, bo'lajak voqealarni oldindan aytib bera oladigan shaxslar deb, ularga sig'iniladi. Maxsus kiyim kiygan, childirma ushlagan va boshqa turli narsalar taqingan shomonning xalq o'rtasida raqs tushib va jazavaga kirib, ruhlar bilan "aloqa bog'lashi" hamda ulardan ma'lum yo'l-yo'riq olishi shomonlikning asosiy marosimi hisoblanadi. Bu diniy e'tiqodda oddiy dindorlarga belgilangan keng marosimchilik belgilari va ibodatxonalar yo'q. Shomonlarga bemorlar o'zlarini davolash maqsadida murojaat qilib turadilar. Shomonlik Afrika, Shim. va Sharqiy Osiyoning ko'p xalqlarida, Sibirda, indeyslar va boshqa xalqlarda tarqalgan.

CHOCH RAQSI — mil. birinchi mingyillik o'rtalarida Xitoyda shuhrat qozongan raqs turi. Chjchjji (Choch — Toshkent) nomi bilan atalgan. Choch raqsini, asosan, qiz-juvonlar ijro etgan. Raqsga avval bir kishi tushgan, ya'ni yakka o'yin hisoblangan. V-VI asrlarda esa, 5 kishi, keyingi asrlarda esa 24 kishi o'ynagan. Choch raqsi davra qilib, aylanib o'ynalgan, u milliy musiqa, maqom va xonanda ashulasi bilan ham qo'shib yuborilgan. Raqqosalardan biri davraning markazida o'ynab, o'yinni boshqarib borgan. U xuasin ("gulning markazi") deb atalgan. Raqqosalar qimmatbaho matolardan tikilgan, dur va javohirlar, chiroyli kashta nusxalar bilan bezalgan liboslarda chiqishgan. Choch raqsi xitoyliklarni o'ziga maftun etgan. o'sha davrlarda yozilgan musiqa risolalarida bu o'yinga juda yuqori baho berilgan. Mas., *Chyan Yan* o'zining «*Musiqa kitobi*» asarida «Xitoyliklar chjchjji raqsini ijro etishda xuslar (xorijiyalar) bilan tenglasha olmaydilar», deb yozgan. Xitoy shoirlari Choch raqsining maftuni bo'lib, unga bag'ishlab 29 ta she'r va qasidalar yozganlar.

CHOKARLAR — ilk o'rta asrlar (IV-VIII asrlar)da qishloqning yirik mulkdor-dehqonlarning istehkomli qo'rg'onlari va mulklarini qo'riqlash va ularni tashqi hujumlardan muhofaza etish uchun tuzilgan yollanma qurolli otryad (guruh). Chokarlar guruhi 30-40, 50-100 va undan ortiq harbiy navkarlardan iborat bo'lgan. Ular qilich, qalqon, nayza hamda kamon sadoq to'la o'qlar bilan qurollangan. Chokarlar dehqon qo'rg'onlariga yaqin yoki shahar girdida bino qilingan istehkomlarda yashaganlar. Bunday istehkomlar Chokardiza deb yuritilgan. Toshkentning Chaqar va Samarqandning Chokardiza kabi mahallalari ilk o'rta asrlarda chokarlar joylashtirilgan qarorgohlarning o'rni bo'lgan. Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z valine'matiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, o'sha davr udumi bo'yicha, hojasi vafot etgan chokarlar hatto u bilan birga tiriklayin go'rga ko'milishi lozim bo'lgan. Bunday sadoqatli va jangovar chokarlar bilan dehqonlar yovgarchilik paytlarida dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashar, osoyishtalik zamonda esa ularga suyanib qishloqning ziroatkor aholisi ustidan o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qilgan.

TARIXIY — GEOGRAFIK NOMLAR

AJINATEPA — budda ibodatxonasi xarobasi saqlangan tepalik (VI-VIII asrlar). Qo'rg'ontepa shahri (Tojikiston Respublikasi) dan 12,5 km sharqda. Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qazib o'rganilgan (1961-1969-yillar). Ibodatxona va monastirdan iborat 2 qismli inshoot (100x50) topilgan. Qazishmalar davrida besh yuzdan oshiq san'at yodgorliklari — haykallar, naqshlar, devoriy rasmlar va ularning parchalari topilgan. Buddaning o'lim to'shagida yotgan 12 metrli haykali va sovg'a keltirayotganlarning devoriy rasmlari muhim tarixiy ahamiyatga ega.

AL-FIR QAL'ASI — IV asrda Xorazmshoh Afrig' tomonidan Kat shahri yonida qurilgan qal'a. Beruniy ta'riflashicha, uning "uchta devori paxsadan va xom g'ishtdan qurilgan; bularning biri ikkinchisi ichiga joylashgan; har birining balandligi boshqasiniqiga qaraganda oshib boradi, ammo shohlar qasri hammasidan ham balanddir" — deb yozadi.

AXSIKAT — qadimgi shahar xarobasi. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Axsikat shahri mil.avv. III-II asrlarda vujudga kelgan, IX-X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. 1219-yil mo'g'ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Axsikatning eski o'rnidan 5-7 km g'arbda bunyod etilgan yangi shahar — Axi XIV-XVII asrlarga oiddir. Axsikatni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asr oxirlari — XX asr boshlaridan boshlangan. 1885-yil N.I. Veselovskiy, 1914-yil I.A. Kasten'e qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sho'rolar davrida M.E. Masson (1939) va A.N. Bernshtat (1948) lar tekshirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Axsikat ark, shahriston va raboddan iborat bo'lganligi, shaharning uch qismi ham alohida devorlar bilan o'ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome masjidi, pishiq g'ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar, rabodda hunarmandlar mahallalari va tashqi bozor mavjud bo'lganligi aniqlangan. Axsikat Namangan o'lka shunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o'rganilgan (1957-1959). 1960-yilda O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Axsikat rabodidan XI asrga oid ko'hna hammom o'rini ochgan. U yerdan sopol idish quvir, chaqatanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Axsikat xarobalaridan g'arbroqda O'rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlangan. Akademik Y. G' G'ulomov va arxeologik I. Axrorov maskur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikki shahar bo'lganligini, ulardan biri qadimgi Axsikat va ikkinchisi Bobur Mirzo tug'ilgan Axi ekanligini birinchi bo'lib isbotladilar. 1967-yilda rassom I.A. Semernov Axsikat xarobalaridan yig'ib jamlangan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikat yodgorligi o'zbek xalqi madaniyati tarixida muhim o'rin tutganligi uchun 1950-yildan davlat muhofazasiga olingan.

BOLALIKTEPA — termizshohlar qal'a-qasri xarobasi

(V-VI asrlar). Termiz shahridan 30 km shimolda. Katta va kichik tepaliklardan iborat bo'lgani uchun shunday atalgan. Bolaliktepani san'atshunos-arxeolog L.I. Albaum o'rgangan (1953-1955-yillar). Qal'a-qasr to'rtburchak shakldagi paxsa poydevor (30x30x6 metr) ustiga xom g'isht (50x30x10 sm) dan qurilgan bo'lib, 16 xonadan iborat (ulardan 11 tasi V asrda, 5 tasi VI asrda bunyod etilgan). Tashqariga qaragan xonalarning devorlari nishon tuynukli. Eng katta xona o'rtasida xom g'ishtdan davra tarhli otashkada (diametri 1,2 metr, balandligi 60 sm) ishlangan. Undagi kul qoldiqlari ichidan kuygan bug'doy doni va o'rik danaklari topilgan. Xonalardan sopol va shisha idishlar, turli musiqiy asbob bo'laklari, naqshinkor chilim, taqinchoqlar qadalgan ipak kiyimlar parchasi, chordana qurib bola emizayotgan ayol tasviri tushirilgan shisha turunj (medal'on), yog'och qoshiq va boshqalar topilgan. Xonalardan birida devorlarida to'y marosimi aks ettirilgan devoriy rasmlar topilgan.

BO'ZSUV — Chirchiq daryosidan chiqarilgan qadimgi kanal. Bo'zsuv Chirchiqning o'ng sohilidagi qadimgi terassalar bo'ylab shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon yo'nalib, Toshkent viloyati Qibray, Zangiota va Yangiyo'l tumanlari, Toshkent shahri hududi, shuningdek Qozog'iston Respublikasi yerlaridan o'tib, Chinoz yaqinida Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi 159 km.

EFTALIYLAR DAVLATI (V asrning ikkinchi yarmi — VI asrning 60-yillari) — O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini birlashtirgan ilk o'rta asr davlati. Eftaliylar asos solgan. Uning asosiy negizini Baqriya-Toxariston tashkil qilgan. Shu yerdan turib eftaliylar qo'shni davlatlarga yurishlar qilganlar. *Eftalon* deb yuritilgan shoh *Vaxshunvor* eftaliylar yurishiga boshchilik qilgan.

FRAGONA — Farg'ona qadimda shu nom bilan yuritilgan.

ILOQ — tarixiy viloyat. Toshkent viloyatining janubiy qismida. Ohangaron daryosi (XIII asr boshlariga qadar Iloq deb atalgan) havzasida bo'lgan. Qadimgi dehqonchilik va konchilik mintaqalaridan. Milodiy V asrdan mustaqil davlat sifatida ma'lum. Iloq hukmdorlari "Iloq dehqonlari" unvoni bilan yuritilib, katta iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lgan. VI-VII asrlarda Shoshga qo'shilgan. IX-X asrlarda 17 shahar bo'lgan. Aholisi dehqonchilik, chorvachilik, keng ko'lamda ma'dan qazish va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Iloq aholisi jangovarligi va erksevarligi bilan mashhur bo'lgan. Iloqda davlat zarbxonasi bo'lgan. X asr oxirlarida Iloq Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Iloq yerlari jaloyirlar qabilasi tasarrufiga o'tgan. Iloq nomi XIV asrdan manbalarda uchramaydi. Poytaxti Tunkat shahri bo'lgan.

ITIL, Idil, Etil — o'rta asr arab va fors adabiyotlarida Volga daryosining atalishi. Tatar, boshqird, chuvash va boshqa turkiy xalqlarda hozir ham qo'llanilib kelinadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Etil — vodiyning nomi.

ISHTIXON — Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi shahar. U qadimdan ma'lum bo'lib, ilk zamindorlik davrida mustaqil hokimlikning markazi bo'lgan, keyinchalik Sug'diyona tarkibiga kirgan. Samarqand arablar tomonidan

bosib olingach (VIII asr boshlari), Sug'd ixshidlari Ishtixonga kelib uni poytaxt qilgan. X asrda Ishtixon qal'a, shahriston va raboddan iborat katta shahar bo'lgan. Keyingi asrlarda ham yirik savdo shahri sifatida mashhur edi. Tarixiy manbalarda Ishtixon savdo-sotiq rivojlangan, atrofi bog'-rog', dalalar bilan o'ralgan chiroyli shahar sifatida tilga olinadi. Ishtixonga Zarafshon daryosi orqali suv kelgan. Keyinchalik shahar xarobaga aylangan. Uning o'rnida kichikroq qishloq (hozirgi Ishtixon shahri) vujudga kelgan.

KAT — Xorazmning qadimgi poytaxti.

KIDARIYLAR davlati (V asr) — O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda yuzaga kelgan turkiy davlat. Ko'chmanchi chorvador aholi bo'lgan toxarlar V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdayo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, *Kidar* ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Shuning uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi.

KO'KCHA Oqtepassi — arxeologik yodgorlik (VI-XI asrlar). Toshkentning janubi-g'arbiy qismida, Ko'kcha arig'i bo'yida joylashgan. 1927-yil N.G. Mallitskiy tomonidan qayd etilgan. 1968-yil Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Qo'rg'onning balandligi 5 metrga yaqin bo'lgan. Undan VI-VIII asrlarga mansub turli xil sopol idishlar, sopol ostodon topilgan. Tepalikning do'ng qismi ostidan xom g'isht va paxsadan barpo qilingan imorat qoldiqlari kavlab ochilgan. Ko'kcha Oqtepassida hayot X-XI asrlargacha davom etganligi aniqlangan. Hozir tekislab tashlangan.

KOSON — Qashqadaryo viloyatidagi shahar. Koson tumanining ma'muriy markazi, viloyatning g'arbiy qismida. Koson o'rnidagi dastlabki qishloq milodning boshlarida vujudga kelgan, Yerqo'rg'on hayot tanazzulga uchragach, aholi bu yerga ko'chgan. IV-V asrlarda qal'a bunyod etilib, atrofi mudofaa devori bilan o'rab olingan; u mo'g'ullar istilosi davrigacha (XIII asr boshi) mavjud bo'lgan. Mo'g'ullar istilosidan avval Kosonning mudofaa devori 3 marta ta'mirlangan bo'lib, kengligi 10 metrga yetgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Kosonda ancha vaqtgacha hayot so'ngan va faqat XV-XVI asrlardagina qayta jonlangan. Karvon yo'lida bo'lgani uchun savdo va hunarmandchilik rivojlangan. IV-VI asrlarga oid mis tangalarda "Kosonning ulug' shohi" deb yozilgan sug'diycha bitik aniqlangan (E.Rtveladze). U shoh qarorgohi bo'lgan. XVI asr 40-yillarida shayboniylarga qarshi Kosonda Bobo Mirak qo'zg'oloni sodir bo'lgan. XVII asrdan Ashtarxoniyalar, XVIII asr o'rtalaridan Buxoro amirligi tarkibida. Antik manbalarda uchraydigan Ksenippa viloyatining nomi Koson atamasining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. Undagi "pa" qo'shimchasini sug'diycha "ob", ya'ni suv deb hisoblansa, qadimda Qashqadaryodan chiqarilgan kanal Kosonob ya'ni Koson daryosi deb atalgan bo'ladi.

KUYOVQO'RG'ON — ilk o'rta asrlarga oid badavlat dehqon qo'rg'oni (V a.). Yodgorlik Termizdan 26 km shimolida, Angor tumanida, Zartepadan 300 m sharqda joylashgan. Kuyovqo'rg'on 1977-yili Arxeologiya institutining Baqtriya ekspeditsiyasi tomonidan to'liq ochib

o'rganilgan. Kuyovqo'rg'on haykallari O'rta Osiyodagi ilk asrlarga oid hayotiy obrazlarni o'zida mujassamlashtirgan yagona haykaltaroshlik namunasidir. haykallar ilk o'rta asrlardagi Toxaristonning boy va yuqori rivojlangan moddiy va ma'naviy madaniyatidan dalolat beradi. Kuyovqo'rg'on ilk o'rta asrlarga xos bo'lgan qo'rg'on me'morligining dastlabki ko'rinishidir. qo'rg'on o'zining ilg'or me'moriy yechimlari bilan ajralib turadi.

MUG' QAL'A, QAL'AI MUG' — istehkom qal'a xarobasi (V-VI asrlar). Qum daryosining Zarafshon daryosigacha kelib quyilish burchagidagi (Tojikiston) tog' cho'qqisi ustiga qurilgan ikki qavatli qasr-qo'rg'on. Bu qurilish undan avvalgi inshoot o'rnida amalga oshirilgan bo'lishi, ehtimol. Chunki, qadimgi yunon mansablarida zabt etish mushkul bo'lgan "sug'd qoyalari" haqida ma'lumotlar uchraydi. Olimlarning fikricha, Mug' qal'a shunday istehkom "qoya" lardan biri bo'lgan. O'rta asr yozma manbalarida Mug' qal'aga nisbatan abargar nomi ishlatilgani ham ma'lum. Bu sug'dcha atamaning ma'nosi "tog' ustidagi" demakdir. Mug' qal'ada 1932-yilda tasodifan bir sug'dcha hujjat topilishi, uning xaroba qoldiqlarida arxeologik qazish ishlari boshlanishiga sabab bo'ldi. Mug' qal'ada o'tkazilgan qazishmalar natijasida mustahkam devor bilan o'ralgan ixcham hovli yuzasi hamda qamal holatda yashashga mo'ljallangan xo'jalik va turar joy binolari majmuidan iborat qo'sh qavatli inshoot qoldiqlari namoyon bo'ldi. Yuzlab moddiy va ashyoviy topilmalar bilan bir qatorda Mug' qal'a xarobalarida sug'd, qadimgi turkiy, xitoy va arab yozuvlari bilan bitilgan 80 ta hujjatdan iborat qadimgi arxiv qo'lga kiritildi. Mug' qal'a yozma yodgorliklarining guvohlik berishicha, qal'a arab istilosi davrida (722) vayronaga aylantirilgan. Mug' qal'ada Panch (ilk o'rta asr Panjikenti) hokimi *Devshitch* o'z yaqinlari va arkoni davlati bilan qamal qililib asir olingan, keyinchalik qatl etilgan. Inshoot esa buzib tashlangan.

OLTINTEPA — o'rta asr shahar xarobasi (V-XIII asrlar). Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi Qorabog' qishlog'i yaqinida joylashgan. Oltintepa dastlab ToshDUning arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan tekshirilgan (1966). 1964 yildan muntazam arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Shahar ikki qismdan: hisor rolini o'ynagan markaziy qism (2,5 ga dan ortiq) va raboddan iborat. Oltintepadagi markaziy tepalikning hajmi 160x160 m, balandligi 13 m ga yaqinni tashkil qiladi. Oltintepaning umumiy mayd. 40 ga bo'lgan. Dastlab Oltintepa o'rnida V-VI asrlarda kichik qishloq yoxud alohida turgan inshoot joylashgan; u VII-VIII asrlarda kengaygan. Asosiy tepalik mudofaa devori bilan o'rab olingan, qishloqni shaharga aylanish jarayoni kechgan. X asrda shahar nihoyatda katta bo'lgan, hunarmandchilik rivojlangan. XIII a. boshida mo'g'ullar istilosi natijasida vayron bo'lib, XIII asrning 30-yillarida shahar hayoti qayta jonlangan. Oltintepadan ko'plab sirlangan, turli xildagi naqshlar, yozuvlar bilan bezatilgan sopol idishlar (ko'za, xum, lagan va b.), tangalar, o'yma naqsh tushirilgan terrakota parchalari, o'g'irlar, jez ko'zgu, kuldon, haykalchalar va boshqalar topilgan.

OLTOY (turkiy va mongol tillarida altan-oltin) — Osiyodagi tog' sistemasi, RF, Mongoliya va Xitoy hududida. Shimoliy-g'arbda G'arbiy Sibir tekisligidan

janubiy-sharqda Gobi tekisliklarigacha cho‘zilgan. Uzunligi 2000 km. Ayrim tizmalardan iborat. Baland cho‘qqilari g‘arbiy qismida (Beluxa, 4506-metr). Oltoy uch qismga — Asl Oltoy, Gobi Oltoyi va Mongoliya Oltoyiga bo‘linadi.

PANJAKENT, PANJIKENT — Tojikistonning Sug‘d viloyatidagi shahar. Zarafshon daryosi vodiysida, Samarqanddan 68 km janubi-sharqda. Hozirgi Panjikentdan 1,5 km janubi-sharqda qadimgi Panjikent shahri xarobalari joylashgan. Uning maydoni 13,5 ga, shahriston, ko‘handiz, rabod va qabristondan iborat. Shahristondan ko‘p ko‘cha tarmoqlari, xom g‘isht va paxsadan qurilgan ikki qavatli ayvonli turar joy binolari, hunarmanchilik ustaxonalari va do‘konlar qoldig‘i topildi. Shahriston markazida V-VII asrlarga oid ibodatxona ko‘rinishida ikkita bino bo‘lgan. Shahar devoridan g‘arbda uch qavat istehkom bilan o‘ralgan ko‘handiz joylashgan. Shahardan sharqda esa ikki qavat uyli hovlilar (chorbog‘lar) bo‘lgan. Ko‘handizga qamal vaqtida yashashga mo‘ljallangan mustahkom minora (donjon) va hokim saroyi joylashgan. Arxeologik qazishlar jarayonida Panjikentdan bir necha ming jez va kumush tanga topilgan. Bulardan Panjikentda zarb qilingan sug‘d tangalari alohida qimmatga ega. Sopol parchalariga sug‘d tilida va kamdan-kam arab tilida tush” siyohda yozuvlar bitilgan. Ko‘pchiligi yong‘in paytida kuyib ketgan sopol haykallar, o‘yib ishlangan yog‘och shakllar, shuningdek, har xil mazmundagi manzaralar tasviri va naqshgul solingan yog‘och g‘o‘lalar topildi. Shahar V-VIII asr o‘rtalarida ravnaq topgan, VIII asr I-choragida shaharni arab bosqinchilari vayron qilgan. VIII asr ikkinchi yarmida Panjikent butunlay xarobaga aylanib, aholi yashamagan. Qadimgi Panjikent asosida muzey-qo‘riqxona tashkil etilgan.

PARAK — O‘rta asrlarda Chirchiq daryosining nomi.

QUBODIYON, QABODIYON — O‘rta Osiyodagi tarixiy viloyat. Kofirnihon daryosining quyi oqimida, Sag‘oniyon bilan Vaxsh oralig‘ida, hozirgi Qo‘rg‘ontepa viloyatining Shartuz tumani (Tojikiston) hududida joylashgan. Toxaristondagi eng kuchli va nufuzli bo‘lgan viloyat, uning mahalliy hukmdorlari harbiy kuchlar zarur bo‘lgan paytlarda 50 minggacha chokar to‘play olardi. Xitoy manbalarida (VII a.) Ke-xo-yen-na mulki tarzida keltirilib, uning hududi sharqdan g‘arbgacha tomon ikki kunlik yo‘l ekani qayd etilgan. Qubodiyonning markaziy shahri Sag‘oniyon poytaxtidan qolishmagan. Shaharda uchta Budda monastiri joylashgan. O‘rta asrlarda Qubodiyon nomi ilk bor Tabariy asarida 725-y. *Asad ibn Abdulloh*ning Xuttalonga yurishi munosabati bilan uchraydi. Qubodiyon VIII a. o‘rtalarida arablar tomonidan bosib olingan. IX asrda Qubodiyon ma‘muriy jihatdan Xuttalon viloyatiga qaragan. X asrda esa Sag‘oniyon (Chag‘oniyon) viloyati tarkibida bo‘lgan. Sam‘oniyning yozishicha, XII asrda Qubodiyon Balx viloyatiga mansub obod nohiya edi. Qubodiyon hududini Romil daryosi kesib o‘tgan. Bu yerda arablarning tamim qabilasi yashagan, ular harbiy ishda mohir bo‘lishgan. Hozirda Qo‘rg‘ontepaning jan.-g‘arbidagi tuman markazi Qabodiyon deb ataladi. Uning atrofida Kaykubodshoh va Qal‘ai Mir shahar xarobalari bor, lekin Qubodiyon markazi o‘rni Shaartuzdan 9 km masofada joylashgan Qiziltepa yoxud Qizqal‘a o‘rnida bo‘lgan. Bu yerda hayot kushonlar davridan XIII a. boshiga qadar davom etgan. XI asrda

Xurosonda ro‘yan o‘simligining «kubodi» nomli maxsus navi mashhur bo‘lgan. Bu nav Qubodiyonda etishtirilgan va X asrda asosiy qishloq xo‘jaligi ekini hisoblangan; ro‘yan katta miqdorda Hindistonga eksport qilingan. Undan olingan daromadning bir qismini viloyat hokimi olgan. XVII asrda ham ro‘yan Qubodiyondan chetga chiqariladigan asosiy qishloq xo‘jaligi mahsuloti sanalgan, undan tashqari Qubodiyondan ajoyib anorlar va ikki turdagi uzum shinnisi chiqarilgan. Qubodiyon tog‘larida X asrda neft, saqich va bitum, shuningdek, feruza konlari bo‘lgan. XII asrda Somoniy Qubodiyonning mashhur shifobaxsh bulog‘i haqida yozgan. Bu buloq hozirda Chiluchor chashma deb ataladi. Uning oldida yaqin vaqtlargacha eski masjid bo‘lgan, uning ustunlaridan birida masjid qurilgan sana (749-y.) ko‘rsatilgan. XIX a. va XX a. boshida Qubodiyon Buxoro amirligining Qubodiyon bekligiga bo‘ysungan.

QUVA — Farg‘ona viloyatidagi shahar. Farg‘ona shahridan 40 km. Qadimgi Fargo‘na tumanidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan. Quva “*Hudud ul-olam*” asarida (X asr), arab geograflaridan *Istaxriy*, *Ibn Havkal*, *Maqdisiy* asarlarida Quba deb tilga olingan. O‘rta asrlarda Quva alohida viloyat poytaxti bo‘lgan va Farg‘onada Axsikatdan so‘ng ikkinchi shahar hisoblangan. Quva gullab-yashnashi uzoqqa cho‘zilmadi. X asrdan keyin Quvaning shahar ekanligi haqida ma‘lumot yo‘q. “Boburnoma” da Quva Andijondan 4 og‘och (Farsax) narida joylashgan qishloq deb aytiladi. Quva 3 qismdan: ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Qazishmalar natijasida Quva shahrining mil.avv. vujudga kelganligi aniqlandi. Shahar hayoti milodning birinchi ming yilligi o‘rtalari hamda X-XII asrlarda ikki marta rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirgan. Birinchi bosqich arablar istilosi, ikkinchi bosqich esa XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi tufayli tugagan. Shahar atrofini mudofaa devoirs o‘rab olgan. Quvada turar joy binolari kompleksi hamda budda diniga mansub ibodatxona qazib tekshirilgan. Ibodatxona o‘rtasida hovli bo‘lib, eshiklari janubga qaragan. Ibodatxona binosi kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan. Uning balandligi 3,60 m bo‘lib, g‘isht va loydan qilingan sun‘iy ko‘tarmadan iborat. Ibodatxona devorlaridagi tokchalarga budda xudolarining haykallari qo‘yilgan.

QO‘SHTEPA YODGORLIGI — Urgut yaqinidagi cho‘qintirish marosimi tasvir etilgan yodgorlik.

SUG‘D, SO‘G‘D, SUG‘UD — O‘rta Osiyodagi qadimiy tarixiy-madaniy viloyat. “Sug‘d” so‘zining ma‘nosi fanda turlicha talqin qilib kelinadi. Masalan, So‘ch — So‘z — «*kuymoq, yonmoq, porlamoq*» deb izohlangan. Bundan Sug‘dni “*Muqaddas ilohiy olov* (Zardushtiylik tasavvuriga ko‘ra) *bilan poklangan yer*” kabi ma‘noda talqin etishga harakat qilingan. Yana bir izohga ko‘ra, “Sug‘d” so‘zi *sernam, unumdor yer* deb tushuniladi. Bunga hozirga qadar pastlik, suv yig‘iladigan yer “Sug‘d”, “Sug‘ut” deb atalishini dalil qilib ko‘rsatiladi. “Sug‘d” mamlakati (poytaxti — Samarqand, 645-654 yillarda Kesh) uch tarixiy-geografik hududni birlashtirgan. Samarqand Sug‘di, Buxoro Sug‘di va Kesh-Naxshab Sug‘di har uch qism o‘zaro tabiiy chegaraga ham ega edi: Zarafshon tog‘ tizmalari Samarqand va Kesh-Naxshab o‘rtasini, Karmanadan keyin Malik cho‘li Buxoro va Samarqand Sug‘dini ajratib turgan. Buyuk ipak

yo'lining markaziy tarmoqlari Sug'di orqali o'tgan. Natijada Sug'd xalqaro savdo munosabatlarida muhim o'rin tuta boshlagan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab Sug'd savdogarlarining qishloqlari, shaharlarida esa ularning mahallalari paydo bo'lgan. Sug'd tili xalqaro til rolini o'ynagan. Bu hol Xitoy sayyohlari tomonidan Sug'dning chegaralari haqida noto'g'ri tasavvurlar hosil qilgan (Syuan Szan). Sug'd asta-sekin har 3 qismni o'z atrofiga to'plagan konfederativ davlat uyushmasiga aylanib borgan. Mil. birinchi ming yillikning birinchi yarmida Sug'd kushonlar, xioniyar, abdallar, kidarlar ta'sirida bo'la turib, o'z nisbiy mustaqilligini saqlab keldi. Sug'd konfederatsiyasi mil. VI a. o'rtalaridan VIII asrning boshlarigacha siyosiy jihatdan kuchayib borgan. Arab istilosining boshlang'ich davridan (VIII asrning birinchi choragi), to Sug'd podshosi Turg'ar davri oxirigacha (738-759-yillar) Sug'd o'zining konfederativ xususiyatini saqlashga harakat qilgan. Turg'ardan keyin Sug'dda ixshidlik siyosiy hokimiyat tugab, mamlakat xalifalik tarkibiga singdirilgan.

TALIQON, TOLIQON, TALQON — o'rta asrlarda Shimoliy Afg'onistondagi qadimgi shahar va viloyat. Taliqon o'rta asrlarda Toxaristonning poytaxti bo'lsa-da, Balxdan 3 marta kichik edi. Taliqon Qunduzdan sharqda, Qunduzdaryo irmog'i Taliqon daryosi bo'yida joylashgan. Taliqon mustahkam istehkomli, savdo yo'llari kesishgan yerda joylashgani uchun obod va boy shahar hisoblangan. O'rta asrlarda uni, shuningdek, "*Xuroson Taliqoni*" deb ham atashgan, chunki ayni vaqtda bu nomdagi yana 2 shahar Qazvin va Reya viloyatlarida ham bo'lgan. Mahmud ibn Valining yozishicha, Maymana viloyatidagi shahar ham Taliqon deb atalgan. Firdavsiyning "*Shohnoma*" sida Taliqon shahri Afrosiyob podsholigi davri voqealari munosabati bilan qayd etilgan. Qadimda Taliqon atrofida chegara, tosh minorasi bo'lgan, uni sosoniylar shohi Varavran V (421-438 hukmronlik qilgan) bunyod etgan. Arablar istilosi arafasida Taliqon alohida bir mulk bo'lib, uni Sahrak yoki Suhrob nomli shoh idora etgan. X asrda Taliqon shahri Guzganon viloyati shohiga tobe bo'lgan. XII asrda Taliqon manbalarda yana Xurosonning alohida viloyati tarzida qayd etilgan va unga bir qancha shahar va qishloqlar qaragan. Taliqon qal'asi o'rta asrlarda Mansurko'h yoki Nusratko'h deb nomlangan. U juda mustahkam bo'lib, XIII asrda Chingizxon qo'shinlari uni kuch bilan egallay olmay, 7 oy qamal qilib olishga majbur bo'lishgan. Amir Temur va temuriylar davrida Taliqon dastlab Pirmuhammad ibn Jahongir mulki, so'ngra Shohruh davrida uning o'g'li Ibrohim Sultonga tegishli bo'lgan. XVI asr oxirida Taliqonni temuriy Sulton Mahmud Mirzo va Xisravshohning noiblari idora etishgan. 1503-1504-yillarda Toxariston va Badaxshonning katta qismini Shayboniyxon qo'shinlari bosib olganda bu viloyatlar Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonga in'om etilgan. Shayboniyxon o'limidan so'ng (1510) Toxariston va Badaxshonning katta qismi yana temuriylar (Mirzaxon o'g'li Sulaymonshoh) tasarrufida bo'lgan. Biroq uning nabirasi va vorisi Shohruh Mirzo davrida Taliqon Badaxshon shohlaridan Shoh Imod qo'lga o'tgan. 1584-yil Taliqonga shayboniylar qo'shni kelib shahar Mahmud sulton ibn Sulaymon sultonga qaragan. U o'z navbatida, Shayboniylarning Balxdagi noibi

Abdulmo'min Sultonga tobe bo'lgan. Taliqon viloyat markazi maqomini Ashtarxoniylar davrida ham saqlab qolgan. XVIII asrning birinchi yarmida Taliqon yoriylar sulolasidan Mir Sultonshoh tasarrufiga o'tgan. XVIII asr o'rtalaridan Afg'oniston tarkibida.

TOXARISTON, TO'XORISTON — hozirgi janubiy O'zbekiston, janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan tarixiy viloyat. Shimolda Afg'onistonni o'z ichiga olgan tarixiy viloyat. Shimolda Hisor tog'lari, janubda Hindikush, g'arbda Murg'ob va Herirud daryolari, sharqda Pomir bilan chegaralangan. "Toxariston" nomi mil.avv. II asrda Yunon-Baqtriya podsholigi tugatgan ko'chmanchi qabilalardan biri — toxarlar nomidan olingan. Fors va arab tarixchi, geograflari (IX-XIII asrlar) "Toxariston" atamasini V asrdan XIII asrgacha qo'llagan. Toxariston milodiy I-IV asrlarda Kushon podsholigi tarkibiga kirib, uning o'zagini tashkil qilgan. Kushon podsholigi parchalangach, Toxariston alohida mulklarga bo'linib ketgan. VII asr boshida Syuan Szanning so'zlariga ko'ra, Toxariston 27 ta alohida mulk: Balx (Baqtriyaning sobiq poytaxti), Qunduz (Shimoliy Afg'onistonda), Termiz, Chag'oniyon, Xuttal va boshqalardan iborat bo'lgan. V-VI asrlarda Toxariston mulklari eftaliylarga. VII asrda Turk xoqonligiga tobe bo'lgan. 618-yil turk xoqoni To'nyabg'u (618-630-yillar) Toxaristonni to'ng'ich o'g'li Tardushodga topshirgan. U yabg'u unvoni bilan Toxaristonda hukmronlik turkiy sulola asoschisi bo'lgan. VIII asrning birinchi yarmida Toxaristonni arablar zabt etgan. Keyinchalik u Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'uriylar davlati tarkibiga kirgan. XIII asr boshida Toxariston mo'g'ullar istilosi natijasida vayron qilingan. O'zbek va tojik arxeologlari, Fransiya, Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning olimlari olib borgan tadqiqotlar Toxariston O'rta Sharqning yirik iqtisodiy va madaniy markazi bo'lganligini ko'rsatdi. Toxariston O'rta Osiyoning boshqa viloyatlari, Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq bilan savdo-madaniy aloqalar o'rnatgan. Kushonlar va ilk o'rta asrlarda Toxariston O'rta Osiyoda buddaviylik, shuningdek, moniylikning rivojlanishi va tarqalishida muhim rol o'ynagan. IX-XIII asrlarda Toxariston islom madaniyati va ilmining markazlaridan biri bo'lgan.

TUNKAT — o'rta asr shahar xarobasi (milodiy V-XII asrlar). Ohangaron daryosi havzasida joylashgan. Umumiy maydoni 50 ga. Ark, shahriston va raboddan iborat bo'lib, atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. Tunkat o'rnidagi qishloq V asr boshlarida chorvador qabilalarning o'rtoqlashishi tufayli vujudga kelgan. VI asrga kelib qishloq shaharga, VI asr oxirida esa Iloq poytaxtiga aylangan. Qoramozor tog'larida oltin va kumush konlari mavjudligi Tunkatning tez taraqqiy etishiga imkon bergan. Tunkat arkida hokim saroyi, masjid qurilgan. Shahriston va raboddan ko'plab metal, shisha va sopol buyumlarning topilishi, Tunkatda hunarmandchilik rivoj topganidan darak beradi. Tunkatdan, shuningdek, zeb-ziynat buyumlari, qurol-yarog'lar va ko'plab tangalar topilgan. Tunkatning o'z zarbxonasi bo'lgan. Qoraxoniylar bilan kurash, qazilma boyliklarining tugab qolishi va Tunkatning savdo yo'lidan chetga chiqib qolishi natijasida XI asrning ikkinchi yarmidan shahar tanazzulga uchragan. XII asrdan Tunkat

kimsasiz, tashlandiq holga kelib qolgan.

TUPROQQAL'A — qadimiy shahar-qal'a xarobasi; III-IV asrlardagi xorazmshohlar qarorgohi. Hozir Beruniy shahri atrofidagi hududda joylashgan. 1938-50-yillarda *S.P.Tolstov* rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Tuproqqal'a tarhi to'g'ri burchakli (500S350 m) bo'lib, gumbazimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning mustahkam jan. darvozasidan otashkada tomon markaziy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni o'nta kvartal (mahalla)ga ajratgan. Tuproqqal'aning madaniy qatlamidan, milod boshlaridan VI asrgacha bo'lgan davrga oid ashyoviy materiallar chiqqan. Tuproqqal'aning shimoliy-sharqiy qismida maxsus ko'tarma supa (balandligi 14 m, maydoni 80S80 m) ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yondosh qilib balandligi 25 m li uch ta minorasi bo'lgan ark binosi (mayd. 40S40 m) bunyod etilgan. Arkka sharq tomonidan ko'tarma yo'lak orqali kirilgan. Tuproqqal'ada 100 ga yaqin turar joy, xo'jalik binolari va sakkizta saroy xonalari qazilgan. Xonalar devori bo'rtma naqshlar va relefli rangli haykallar bilan bezatilgan. Tuproqqal'aning sharqiy qismida qurol-aslaha ustaxonasi bo'lgan, u yerdan temir nayzalar, 3 parrakli o'qlar, saroyning yemirilib ketgan ikkinchi qavatidagi podsho arxividan esa teri va yog'och taxtachalarga yozilgan 100 dan ortiq hujjat topilgan. Ular qadimiy xorazmiy tilida bitilgan (I-III asrlar). Tuproqqal'adan jun, shoyi, ip gazlama parchalari, bo'yra, rangli gilam, ko'plab haykal bo'laklari, sopol buyumlar va Kushon tangalari topilgan. Tuproqqal'a sug'orish inshootlarining buzilishi, harbiy to'qnashuvlar natijasida xarobaga aylangan.

TURFON, TULUFON — Xitoyning shimoli-g'arbiy qismidagi shahar, Sizyan-Uyg'ur muxtor tumanida, Turfon soyligining shimoliy chekkasida joylashgan. Mil.avv. II asrda Turfon xunlarga tobe bo'lgan, VI asr oxiridan Turk xoqonligi tarkibida, keyinchalik Uyg'ur xonligi poytaxti. 1209-yilda mo'g'ullar egallagan. Mog'uliston xoni Vaysxon davrida (1418-1425) Turfon iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuksalgan. XV-XVII asrlarda Chig'atoy xonlari qarorgohi bo'lgan. 1758-yilda xitoylar bosib olgan va Turfon aholisining ko'pchiligi Uch shahri (Uchturfon) ga ko'chirilgan. Turfon shahrida sug'd yozuvi saqlanib qolgan.

TURK XOQONLIGI (VI-VIII asrlar) — O'rta Osiyo mintaqasi va unga tutash bir necha o'lkalarni o'z ichiga olgan yirik saltanat. Og'a-ini *Bumin* va *Istami* 55-yil Turk xoqonligiga asos soladilar. *Bumin* o'zini xoqon deb e'lon qiladi.

TURKASH XOQONLIGI (699-766) — ilk o'rta asr turkiy davlatlaridan biri. VII asrning oxirida g'arbiy Tyanshanda ko'chib yurgan turkash qabilalarining boshlig'i *Uch-elig* (699-706), Yettisuvdagi Tan imperiyasi gumashtasi *Xusrav Burishodni* quvib chiqardi va Chochdan Jung'oriyagacha o'z hokimiyatini o'rnatdi. Natijada yangi turkiy davlat tashkil topdi. *Uch-elig* ikki qarorgohga asos soldi. Biri Navokat shahri Chu daryosi bo'yida, ikkinchisi Kungut shahri Ili daryosi bo'yida joylashgan edi. Davlat 20 tuman — tutuqlikdan iborat edi. har birini hokim — tutuq boshqarardi. *Uch-elig* g'arbiy turklar hukmdorlarining sobiq "O'n o'q eli xoqoni"

unvonini qabul qildi. Shu bilan birga u "Turkash xoqon" unvonini ham joriy etdi. Turkash xoqonlari o'z tangalarini zarb qilganlar. 711-715-yillarda Turkash xoqonligi Sharqiy Turk xoqonligiga qaram bo'lib turdi. 715-yili *Suluk Chobish-churxoqon* (715-737) davlat mustaqilligini qaytadan tikladi. U asosan, bosqinchi arab qo'shinlari bilan urushlar olib borishga majbur bo'lgan. Uning vafotidan keyin (737) Turkash xoqonligida "sariq" va "qora" turkash qabilalari o'rtasida o'zaro urushlar boshlanib ketgan va 766-yili davlat qarluqlar tomonidan tugatilgan.

USTRUSHONA (tojikcha Istaravshan), — Tojikistonning qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, shaharning bunyod etilishi mil.avv. VI asrga to'g'ri keladi. Ustrushona ilk o'rta asrlarda (V-IX asrlar) O'rta Osiyodagi Ustrushona tarixiy-geografik viloyati tarkibiga kirgan. Ushbu viloyat Sirdaryoning so'l qirg'og'i bilan Sangzordaryo oralig'idagi hududni o'z ichiga olgan (hozirgi Tojikistonning shimoli-g'arbiy qismi va O'zbekistonning Jizzax, Sirdaryo viloyatlari). Ustrushonaning siyosiy tarixi tarixiy manbalarda kam yoritilgan. Mil.avv. VI asrning 30-yillarida qadimgi Ustrushona hududi Kir II tomonidan bosib olingan. Kir II o'z davlatining shimoli-sharqiy chegaralarini mustahkamlash maqsadida Sirdaryoning so'l qirg'og'i bo'ylab 7 ta chegara qal'asi qurdirgan. Mil. avv. IV asrda Aleksandr bu qal'alarni qiyinchilik bilan zabt etgan, ayniqsa, Kiropol qattiq qarshilik ko'rsatgan. Milodiy V asr oxiri — VII asrda Ustrushona hududi eftaliylar va G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Bu davrda Ustrushonani mahalliy shohlar — afshinlar idora qilgan. Arablar istilosi davrida Ustrushona mustaqilligini uzoq vaqt saqlab qolgan va faqat 822-yilga kelib uzil-kesil xalifalikka qo'shib olingan. 893-yilgacha Ustrushonani xalifalik vassallari bo'lgan afshinlar boshqarishni davom ettirganlar. 893-yildan Somoniylarga tobe bo'lgan. Ustrushona O'ratepa nomi bilan dastlab Boburning "Boburnoma" asarida (XVI asr) tilga olingan.

VARAXSHA — Qadimgi shahar xarobasi. Buxorodan 40 km shimoli-g'arbda, Dashti Urganji ko'lining qadimgi Ranjfundun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandligi 10-20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, Varaxsha mil. avv. II asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko'targan. Varaxsha xarobalarining shimoli-g'arbida qadimgi qo'rg'onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shaklidagi burji (ichki sahni 4,5x5 m) kavlab o'rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,9 m) xom g'ishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38-40 sm, tashqarisi 75-80 sm, kengligi 20-22 sm) ochilgan. Mil. avv. II-I asrlarda va milodiy I-II asrlarda Varaxsha va uning atrofiga madaniy hayot gullagan. III-IV asrlarda Varaxsha tanazzulga yuz tutgan. V asrda Varaxsha yana tiklanib Buxoroning qadimgi hukmdorlari — buxorudotlarning qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o'ralgan, uning janubiy qismida ark qurilgan. VIII-X asrlarda ayniqsa obod bo'lgan. Varaxsha va uning atroflari o'nikki kanal bilan sug'orilib, Rajfundun vohasidagi eng yirik va markaziy qal'alardan biriga

aylangan. Buxoro va Xorazm oralig'idagi karvon yo'li Varaxsha orqali o'tgan (Istaxriy va Ibn Havqal ma'lumotlari). Har o'n besh Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. Har o'n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro'zi kashovarzon, ya'ni dehqonlar yangi yili) o'tkazilgan (Narshaxiy). Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI-XII asrlarda uning hududi eniga 6 km dan ziyod bo'lgan. XII asrda Varaxsha vohasidagi hayot to'satdan noma'lum sabablarga ko'ra to'xtab qolgan. 1949-1954-yillarda Varaxsha tarixi va me'morligi o'rganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom g'ishtlardan ko'shminora tarzida o'rab chiqilgan tagkursi (balandligi 15 m) larning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo'lgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5 x 17 m) va G'arbiy (6,6x7,25 m) mehmonxona hamda Qizil xona (zal) (8,5x12 m) lardan iborat bo'lgan. Saroy g'arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o'rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o'ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girihlar bilan bezatilgan. Saroyning Qizil xona va Sharqiy mehmonxonalarini to'la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo'yoqlar bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shahzoda va chokarlarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o'q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o'tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho'kib, qo'lida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qo'lida qisqich ushlagan podshoh, o'rtada vazasimon otashgohda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgohdan o'ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho'kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg'a kiygan, qo'llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek butazor, to'qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan. Ko'plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, yerlkasidan o'q yegan arxar, yelib borayotgan jayran, bedanalar, ayol boshli baxt qushi — Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog'lagan suvoriy hamda ko'pdan ko'p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islamiy va girih parchalari uchraydi.

VAXON — Toxaristondagi eng kuchli va nufuzli bo'lgan viloyat, uning mahalliy hukmdorlari harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 mingga chokar to'play olardi.

XIONIYLAR davlati (IV asrning 70-yillari-V asrning 90-yillari) — Orta Osiyada vujudga kelgan ilk o'rta asr turkiy davlati. Bu davlat Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan bo'lib, 120

yildan oshiqroq hukmdorlik qilgan. IV asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi chorvador xion qabilalarining hujumi boshlanadi. Ular 353-yilda o'z hukmdori *Grumbat* boshchiligida Sug'dga bostirib kiradilar. Xioniylar Zarafshon vohasini egallab, janubga harakat qilishgan va ancha zaiflashib, sosoniylar Eroniga qaram bo'lib qolgan Kushon podsholigi o'rmini egallaganlar hamda markazi Toxariston bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xurosonning bir qismini ham o'z ichiga olgan Xioniylar davlatini barpo qilishgan. IV asrning 70-yillarida xioniylar sosoniylar Eroniga qarshi hujum uyushtirib, muvaffaqiyatga erishganlar. Dastlabki janglardayiq sosoniylar shohi *Shopur II* (309-379) xioniyardan yengiladi. So'ngra o'zaro sulhga kelishib, ular o'rtasida ittifoqlik ipi bog'lanadi. Shuningdek, sosoniy podshohlar *Varaxshan* (418-438), *Yazdigard II* (438-457) davrlarida Xioniylar davlati Eronning eng yirik raqibiga aylanganlar. Nihoyat, IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o'rnatiladi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi.

XUTTALON — Panj bilan Vaxsh daryolari oralig'ida joylashgan qadimiy viloyat, XVI asrda Ko'lob deb atalgan. Toxaristondagi eng kuchli va nufuzli bo'lgan viloyat, uning mahalliy hukmdorlari harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 mingga chokar to'play olardi.

YOYIQ — Ural daryosi o'rta asr Sharqida shunday nomlangan.

YUNUSOBOD OQTEPASI — arxeologik yodgorlik. Oqtepalar orasida arxeologik jihatidan deyarli to'la qazib o'rganilgan. Tepalik ostida dehqon qo'rg'oni, qasri va ko'shkining hamda ularga tutashib ketgan hunrmandchilik mahallalarining xarobalari qayd etilgan. Yunusobod Oqtepasining eng baland qismi 21 metrga, umumiy maydoni 100 gektarga teng. Yunusobod qazib ochilgan dehqon qo'rg'oni va qasri tabiiy do'nglik ustiga o'rnatilgan tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. U ikki qavatli qasr va ko'shkdan iborat. Birinchi qavatning maydoni — 80x80 metr, ikkinchi qavatning maydoni — 50x50 metrga teng. Ko'shkining maydoni esa 22x22 metr. Imorat devorlari xalq tilida “devg'isht” deb atalgan paxsa bo'laklari (70x70x70 sm) hamda uzun va qalin homg'isht (48x24x10 sm)lardan urib chiqilgan. Binoning tashqi devorining to'rt burchagida doira shaklidagi to'rt burji — mo'lasi bo'lgan. Mo'lalar ichkari tomondan ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo'lak — galereya bilan tutashtirilgan. Galereya xalqasi bo'ylab qator yo'laksimon kazematlar, toqli eshik o'rnlari, doira shaklidagi burxonalar, xona gumabazlari davrimizgacha juda yaxshi saqlangan. Qasr ichida mulkdorning turar joyi, mehmonxona, ibodatxona, omborxonalar, chillaxona kabi turli xil imoratlar joylashgan. Qazishma jarayonida ko'plab sopol idishlar, tosh, suyak, metallardan yasalgan buyumlar, qurol-yarog', zeb-ziynat, jumladan, temir pichoq, xanjar, bolta, o'roq, yoy o'qlarining paykonlari, tosh yorg'uchoqlar, kumush uzuk kabi ashyolar topildi. Topilmalar orasida nuroniy mo'ysafidning qiyofasi tushirilgan terrakota ayniqsa diqqatga sazovor. Unda qadimgi Choch (Toshkent) da yashagan aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan. Arxeologik topilmalar orasida 18 ta kumush tanga va bir dona mis chaqa topilgan. Ulardan 6 tasi Choch mahalliy hukmdorlaridan sosoniylar shohi Pero'zning (459-484)

dirhamlariga taqlidan zarb etilgan. Ular xalifalikning Ummaviylar xonadoniga tegishlidir. Bulardan tashqari, tepalikdan old tomoniga gajak dumli bars, orqasiga Chochning ayri tamg'asi va sug'dcha "Yabg'u Tarnavch" deb yozilgan Toshkentning mahalliy hokimining tangalari topildi. Ushbu tangalarga asoslanganda Yunusobod qo'rg'oni V asrda bino qilinib, VIII asr o'rtalariga qadar unda hayot bo'lgan.

ZANKTEPA YODGORLIGI — Termiz yaqinidagi qadimgi yodgorlik. Zanktepadan VII-VIII asrlarga mansub qayin po'stlog'iga bitilgan buddoyi qo'lyozma matnlari qayt etilgan.

ZOG'ARIQ — Kanal. Vaqf hujjatlarida Zog' shaklida tilga olingan. Ba'zan Zolariq ham deyishadi. Kanal Firdavsiyining "Shohnoma" sida tasvirlangan Zol podshosining nomi bilan atalgan degan fikr bor. Toshkentdagi ba'zi bir toponimlarning kelib chiqishini klassik fors adabiyoti qahramonlarining nomlari bilan bog'lashadi (Kalkovus — Kaykovus, Bo'zsvu — Barzu, Zax-Zol va boshqalar). Aniqrog'i "sernam", "zaxkash" ma'nosidagi Zax so'zi asosida yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Bu kanal hozirgi vaqtda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlaydi.

G'ARBIY TURK XOQONLIGI (589-744) — O'rta Osiyo, Jung'oriya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan ilk o'rta asr davlati. Markazi Yettisuv bo'lgan. Xoqonning yozgi qarorgohi Mingbuloqda (Isfijob yaqinida), qishkisi Suyob shahrida (Chu daryosi yuqori oqimi sohilida) bo'lgan. O'z davrida *O'n O'q xoqonligi* deb yuritilgan. G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan. Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turklarning bir qismi o'troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan qorishib ketadi. O'troq hayotning an'anaviy ma'muriy udumlari ta'sirida boshqaruv tartiblari asta-sekin o'zgaradi. VII asrning birinchi choragida G'arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoygga, janubiy esa Sind (Hind) daryosi bo'ylariga borib taqaladi. Xoqon *To'n yabg'u* (618-630) hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. O'troq viloyat hokimlarini xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning "yabg'u" unvoni beriladi. Natijada ular xoqonning noibiga aylanadilar. Shu bilan birga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar "*tudun*" deb yuritiladi. Biroq xoqonlikning ayrim qabilalar o'rtasidagi xokimiyat uchun tobora kuchayib borgan kurash oqibatida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib, bo'linib ketadi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657-659-yillarda Yettisuvga bostirib kiradi. Natijada xoqonlik Xitoyga qaram bo'lib qoladi. G'arbiy turklarning ularga qarshi muttasil kurashi xoqonlik mustaqilligini tiklab oladi.

SHARQIY TURK XOQONLIGI — Janubiy Sibir, mo'g'uliston, Shimoliy Xitoy hududlarini o'z ichiga olgan ilk o'rta asr davlati. Uning markazi O'tukan vodiysi (Mo'g'uliston) bo'lgan. Sharqiy turk xoqonligi VI asrning

80-yillari oxirida Turk xoqonligining ikki qismga bo'linib ketishi natijasida tashkil topgan. Sharqiy turk xoqonligi *Shibi* xoqon (609-619) davrida Xitoy (Suy) imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615-yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin (Ordos) viloyatida imperator Yandini qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qal'adan 39 tasi Turk xoqonligi qo'liga o'tadi. 618-yilda Suy sulolasini ag'darib, uning o'rnini egallagan Tan sulolasining ishlariga ham Shibi xoqon aralashadi. U bu paytgacha kidan va shivey qabilalarini, Janubiy-G'arbda Tuguxun (Togon) davlati hamda Turfon o'lkasini bo'ysundirgach, Xuanxe daryosini kechib o'tib, Xitoy hududiga kirgan vaqtda vafot etadi. Taxtga *El xoqon* (xitoy manbalarida Xyelixan; 620-630) o'tiradi va 10 yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. ikki marta, 624-626-yillarda poytaxt Chan'anni qurshab oladi. Uning o'limidan so'ng Sharqiy Turk xoqonligi 50 yilga yaqin Xitoyga qaram bo'lib qoladi.

SHOSHTEPA, CHOCHTEPA — ko'p qatlamli arxeologik yodgorlik. Toshkent shahri hududida qad ko'targan eng qadimiy qishloq va ilk qo'rg'on — Chochkatning xarobalari (mil. av. VI a. — mil. XVI asrlar). Yodgorlik Jo'nariqning chap va o'ng sohillarida joylashgan. Biri tik va baland, ikkinchisi yassiroq ulkan tepaliklardan iborat. Umumiy maydoni taxminan 25 ga. Jo'nariqning so'l sohilida joylashgan balalandligi 18-19 m li tik tepa (maydoni 150-120 m) istehkomli ilk qishloq xarobasi bo'lib, uning ostki madaniy qatlamlaridan qadimiy dehqonchilik madaniyatining so'nggi bosqichi (mil. av. VI-IV asrlar)da yashagan o'troq ziroatkor aholi turar joylarining qoldiqlari qayd etilgan. Arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mil. av. III asrda Janubiy Ural va Sharqiy Orol oldi mintaqalaridan janubga tomon siljigan ko'chmanchi chorvador sarmat qabilalari qadimiy Chochkatni vayron etib, qabristonga aylantirganlar. Mil. avv. II — I asrlarda Shoshtepada qadimiy qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rab olingan doira shaklidagi qal'a-qo'rg'on qad ko'targan. Qalinligi 4 m li qo'rg'on devori yirik xom g'ishtlardan urib chiqilgan. Diametri 60 m li qo'rg'on devorining ichki aylanasi bo'ylab tomi ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo'lak bino qilingan. Yo'lak qismlarga bo'lingan va har biridan tashqariga chiqadigan darvozasi bo'lgan. Qo'rg'onning markaziy qismida xoch shaklida monumental bino qad ko'targan. Uning devorlarining qalinligi 2 m, tomi esa ravoqsimon. Bino qator xonalar va yo'laklarga ajratilgan. Peshtoqi binoning shim. qanotida, u ravoqli darvozaxona va uning ikki biqinida paykonsimon darchalar joylashtirilgan. Qo'rg'on binosining umumiy tarhi: yo'lakli aylanma tashqi devoriyu, xochsimon markaziy binosi, ravoqli peshtoqi-yu paykonsimon darchalariga qaraganda, u avvaldan anchagina puxta o'ylangan reja asosida qurilgan zamonasining nodir me'moriy obidalaridan hisoblangan. Shoshtepaning madaniy qatlamlaridan ko'pdan-ko'p ashyoviy topilmalar qayd etildi. Ular orasida uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari: xum, xumcha, ko'za, bir quloqli va jo'mrakli ho'qachalar, ikki quloqli sopol qozonlar, tova, suvdonlar, ho'kiz boshli kabob qo'ralar, yoysimon yorg'uchoqlar, temir pichoq, o'roq va hakoza iborat. Topilmalar orasida 2 ta nodir buyum: fil suyagidan yasalgan

qadahning bir bo‘lagi va suyakdan ishlangan qalam, ayniqsa, diqqatga sazovordir. hajmi 5 — 3,5 sm.li suyak qadah parchasida boshida ulkan kuloh, keng peshonali, ot yuzli, qirraburun, bodom qovoq, sersoqol va mo‘ylovli o‘rta yoshdagi kishining siymosi qabartma qilib tasvirlangan. Suyak qalamning uzunligi 15 sm. Bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi tomoni esa ilonni boshidek romb shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilmalar mil. birinchi ikkinchi a.larga mansub bo‘lib, Chochda ham qadimda xat-savod bo‘lgani hamda shoshtepaliklar karvon yo‘li orqali Yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlari bilan aloqada bo‘lganidan dalolat beradi. Topilmalar ko‘chmanchi dasht bilan o‘troq dehqonchilik vohasi chegarasida uzoq asrlar davomida yonma-yon yashagan hamda bir-biri bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lgan qadimiy qavmlarning yaratgan o‘ziga xos madaniyatining mahsuli edi. Bu madaniyat fanda qovunchi madaniyati deb ataladi. Istehkomli qishloq sifatida qad ko‘targan Shoshtepa mil.avv. II — I asrlarda ilk shaharcha qiyofasiga kirib, u Sirdaryoning o‘rta oqimida tashkil topgan Qang‘ davlatining dasht bilan Toshkent vohasiga tutashib ketgan chegarasidagi istehkom, hunarmandchilik markazi, ko‘chmanchi chorvador aholi bilan o‘troq dehqonlar o‘rtasida olib boriladigan o‘zaro savdo bozori vazifasini o‘tagan. V a. o‘rtalarida chorvador eftaliylarning jan.ga tomon siljishi oqibatida Sh.da qadimdan o‘tparastlik ibodatxonasi bo‘lgan xoch shaklidagi markaziy bino qabristonga aylantirilgan. VI-VIII asrlar boshlarida Shoshtepada hayot yana ancha yuksalgan. Arab xalifaligi istilosida Shoshtepa vayron bo‘lgan. XI-XII asrlarda undagi hayot birmuncha jonlansa-da, ammo XVI asrda Shoshtepa deyarli xarobaga aylangan. Garchi Shoshtepada qad ko‘targan qo‘rg‘on to‘la shahar qiyofasida shakllanmagan bo‘lsa-da, biroq u Toshkent vohasida shaharsozlik madaniyatini shakllanishi va rivoji tarixini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega yodgorlik hisoblanadi.

SHUG‘NON — Toxaristondagi eng kuchli va nufuzli bo‘lgan viloyat, uning mahalliy hukmdorlari harbiy kuchlar zarur bo‘lgan paytlarda 50 minggacha chokar to‘play olardi.

SHUMAN — Toxaristondagi eng kuchli va nufuzli bo‘lgan viloyat, uning mahalliy hukmdorlari harbiy kuchlar zarur bo‘lgan paytlarda 50 minggacha chokar to‘play olardi.

CHAG‘ONIYON (arabcha Sag‘oniyon) — Surxondaryo (Chag‘onrud)ning o‘rta va yuqori oqimi bo‘ylarida joylashgan tarixiy-madaniy viloyat. Dastlab Syuan Szan tomonidan (mil.avv. 630-yil) qayd etilgan. Bu hududda insonlar yashaganligining eng qadimgi izlari mezolit va neolit davrlariga oid. Mil.avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida bu yerda ilk dehqonchilik manzilgohlari (Mo‘lalitepa), mil.avv. I mingyillik o‘rtasida esa ilk shahar (Qiziltepa) vujudga kelgan. Mil.avv. I asr — milodiy I asrda Chag‘oniyon yuejiylar davlatining asosiy markazlaridan biri bo‘lgan. Milodiy I-III asrlarda Chag‘oniyon Kushon podsholigi tarkibiga kirgan. Chag‘oniyonning iqtisodi va madaniyati bu davrda ravnaq topgan, ko‘plab shahar va qishloqlar vujudga kelgan, Tovar-pul munosabatlari, sug‘orma dehqonchilik, turli kasb-hunarlar, tasviriy va amaliy san‘at (ayniqsa, haykaltaroshlik) rivojlangan (Xolchayon, Dalvarzintepa). Milodiy III-IV asrlarning

ikkinchi yarmida Chag‘oniyon sasoniy kushonshohlar qo‘l ostida bo‘lgan. Milodiy V asrning ikkinchi yarmi — VI asrda viloyat avval Eftaliylar, so‘ngra Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. VI asrning ikkinchi yarmidan — VIII asrning ikkinchi yarmigacha Chag‘oniyonni mahalliy sulola boshqargan, u nomigagina Toxaristonning oliy hukmdorlari — turkiy yabg‘ularga bo‘ysungan. Chag‘oniyonning ayrim hukmdorlari — xidevlar yoki chog‘onxudotlarning ismlari yozma, epigrafik va numizmatik ma‘lumotlar bo‘yicha aniqlangan: Fag‘anish, Sashr, Zarin, Turontosh, Tish, Xnar. Milodiy VII asrning ikkinchi yarmida Chag‘oniyonga arablar kirib kelgan, ular VIII asr oxirida mahalliy sulolani tugatganlar. IX asrning o‘rtasi yoxud ikkinchi yarmidan XI asr boshigacha Chag‘oniyon — somoniylarning eng qudratli yarim mustaqil vassallaridan hisoblangan muxtojilar sulolasidan bo‘lgan hokimlarning merosiy mulki bo‘lgan. Bu sulola amirlari *Abu Bakr Muhammad bin Muzaffar* (940/941-yilda vafot etgan), ayniqsa, *Ahmad bin Abu Bakr Muhammad — Abu Ali Chag‘oniy* (955/956-yil) Somoniylar saroyida eng muhim ma‘muriy mansablarni (jumladan, Xuroson noibi va sipoxsolarlik) egallaganlar, Muhtojilar davrida Chag‘oniyon tarkibiga hozirgi Surxondaryo viloyotidan tashqari Tojikistonning shimoliy-g‘arbidagi Shuman va Oxarun viloyatlari kirgan. Chag‘oniyon poytaxti ham Sag‘oniyon deb atalib, Denovdan 6 km janubiy-sharqda Budroch shahri xarobasi o‘rnida bo‘lgan. Chag‘oniyon (Sag‘oniyon) shahrining bu davrda O‘rta Osiyoning eng yirik va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Chag‘oniyon amiri *Ahmad bin Muhammad* esa ko‘plab buyuk shoirlar (*Daqiqiy, Faruhiy, Manjuqiy*) homiysi (mamdux) sifatida Sharqda shuhrat qozongan. XI asrning I-yarmida Chag‘oniyon ma‘lum darajada qoraxoniylarga qaram bo‘lgan, ayrim vaqtlarda u mustaqil mulk hisoblangan. XI asrning ikkinchi yarmi — XII asrning birinchi yarmida Chag‘oniyon Saljuqiylar davlati tarkibiga kirgan. XII asrning ikkinchi yarmi — XIII asrning boshida Chag‘oniyonni qoraxoniylar, qarluqlar, g‘uriylar, xorazmshohlar idora etgan. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng XIII asr o‘rtasida Chag‘oniyon Chig‘atoyxonning nabirasi *Esun Tuvaning*, so‘ngra uning o‘g‘li *Baroqning* merosiy mulkiga aylangan. Bu davrda yangi shahar ilgarigi rabod o‘rnida vujudga kelib, XVI asr boshiga qadar mavjud bo‘lgan, so‘ngra *Shayboniyxon* tomonidan bosib olingan. Shundan so‘ng asosiy markaz Dehinav (hozirgi Denov) ga ko‘chgan.

CHIG‘ATOY OQTEPASI — arxeologik yodgorlik, istehkomli qishloq xarobasi (V-VIII asrlar, X-XII asrlar). Toshkentning shimoli-g‘arbida, Kaykovus kanali bo‘yida joylashgan. Tik yon bag‘irli tepalik shaklida saqlangan ark xarobasining diametri 30 metr, balandligi oltinchi 8 metr bo‘lib, atrofida mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralmagan qishloq joylashgan. Chig‘atoy oqtepasi hududi hozir tepalik shaklida saqlanib qolgan.

CHILONZOR OQTEPASI — Toshkentning janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan arxeologik yodgorlik (IV-VIII asrlar; X-XI asrlar). Bo‘zsuv anhuri bo‘yida. Chilonzor Oqtepasi balandligi 15 metrli tepalik bo‘lib, atrofida umumiy maydoni 60x75 m² keladigan qadimgi qishloq xarobasi qoldiqlari joylashgan. Tepalikda olib borilgan qazishmalar

natijasida undagi imoratlar majmuasi ustma-ust xom g'isht va paxsadan qurilganligi aniqlangan. Vazifasiga ko'ra majusiyalik bilan bog'liq bo'lgan, kompozitsiyasi jihatdan bir-biridan farq qiladigan binolar 3-davrga mansubligi aniqlangan. birinchi davrida (IV asr) bino paxsa poydevorning ustiga qurilgan to'r minorali qasrdan iborat bo'lgan. Bino kvadrati ($13,5 \times 13 \text{ m}^2$) ichki tomondan gumbazli uzunchoq uch xonaga ajratilgan. ikkinchi davrda (V-VI asrlar) da dastlabki imorat atrofiga yangi xonalar yordamchi xo'jalik xonalari qurilgan, shinakli qo'shimcha qal'a devori bilan mustahkamlangan. 3-davr (VII-VIII asrlar) dastlabki imorat qoldiqlari tuproq bilan to'lg'azilib, shibbalanishi natijasida vujudga kelgan, 9 metrli tak kursi ustiga qurilgan tepasi ochiq to'rtburchak $38 \times 27 \text{ metr}^2$ hovli ko'rinishidagi noyob bino bo'lgan. Hovli sahning qalin qatlamlaridan organik qoldiqlari, Qovunchi II madaniyatiga xos sopol buyumlar, turkashlarning VIII asrga oid tangasi ham topilgan. Arab Xalifaligi istilosidan so'ng bino bir qancha vaqt zardushtiyarning dafn etish joyi bo'lib xizmat qilgan, so'ngra xarobaga aylangan. Keyinchalik Chilonzor Oqtepesi (X-XI asrlar) xaroba atrofida hayot tiklanib kichik qishloq vujudga kelgan. Hozir Cholonzor oqtepesi atrofida zamonaviy imoratlar qad ko'targan.

CHOCH — V-VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida hukmronlik qilgan ilk o'rta asrlardagi davlat. Uning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi "tudun" deb yuritilardi. V asrda Choch viloyati Eftaliylar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy turk xoqonligiga bo'ysundiriladi. VIII asrga borganda Choch Eloq bilan birlashib, yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligina tiklab oladi. Choch va Eloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda su'gorma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa, konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada edi. Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi uzil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shaxobchalari vositasida sug'oriladi. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilardi. Ayniqsa, Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, yer egaligi qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi. Choch va Eloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoq toshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan kovlab olishda ayniqsa Eloq O'rta Sharq mamlakatlarida shuhrat topadi. Karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Eloqda ichki va tashqi savdo-sotiqni kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi. Chochdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va yilqilar chetga chiqarilgan. Shahar aholisining bir qismi savdogarchilik bilan mashg'ul bo'lgan. VI-VIII asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o'rinda turgan. Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarining markazi edi VII-VIII asrlarda Chochda kumush va mis tangachalar yasaydigan zarbxona bo'lgan. VIII asrda esa kumush dirhamlar hatto Eloqning kumush konlarida ham zarb etilgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning portreti, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqatangalar zarb etganlar. Shu davrda zarb etilgan Chochning

ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu siyosiy hayotda hukmdor ayollarning nufuzini ko'rsatadi. Chochda turkcha va sug'dcha so'zlashuvchi ikki tillilarning safi kengayib boradi. Biroq, Choch o'lkasi bu davrda Turk xoqonligiga tobe bo'lishiga qaramay, hali o'zining tili, yozuvi va qadimiy madaniyati an'analarini saqlab qolgan edi. Bu yerda hali sug'd tili rasmiy til edi. Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk o'rta asrlar jamiyatiga xos edi.

CHOCHKAT — Chochning poytaxti. Arab manbalarida bu shahar Chochning poytaxti — "*Madinat ash-Shosh*" (Shoh shahri) deb atalgan. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, maxsus saroy-qal'a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo'lganidan dalolat beradi. Manbalarga ko'ra, shahar, ichida saroy, ibodatxona bo'lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o'rnatilgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo'lgan. Shahar atrofida ozod jamoalarning keng ekinzorlari, qishloqlari, ilk zamindorlik dehqonlarining qo'rg'on va bog'rog'lari, istehkomlari paydo bo'lgan. Ekinzor yerlar va bog'lar chekkasida — ko'chmanchilar dashtiga tutash chegaralarda mudofaa istehkomlari qurilgan. Chochkat hunarmandlari metallardan mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, zeb-ziynat va ro'zg'or buyumlari yasashgan, konchilik bilan shug'ullanishgan, paxta va jun-shisha idishlar, zargarlik buyumlari yasab, ichki va tashqi savdoni ta'minlashgan. Shahar qizg'in savdo markazi ham bo'lgan.

TARIXIY SANALAR

216-274-YILLAR — Moniy diniga asos solgan bobillik *Moniyning* hayot faoliyati. *Moniy* o'z targ'ibotini Midiya va Forsda boshlagan.

305-YIL — *Beruniyning* yozishicha, Xorazmshoh *Afrig'* o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti *Kat* shahriga ko'chirdi. *Kat* qayta tiklanib uning yonida joylashgan *Alfir* qasri ichida Shoh o'ziga yangi saroy qurdirdi. Xorazmning *Afrig'iy* podshohlari betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etilib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladi.

309-379-YILLAR — Sosoniylar shohi *Shopur II* hukmronligi davrida xiyoniylardan mag'lubiyatga uchrab, o'zaro sulh tuzishi va ittifoqdosh bo'lishi.

353-YIL — *Grumbat* boshchiligida xiyoniylar So'g'dga bostirib kirishi. Ularni Sosoniylar davlati bilan to'qnashuvi.

456-YIL — Kidariylar sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchrab, o'zlarini qayta o'nqlab ololmaydilar. Ular shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko'chmanchi chorvador aholi eftallar bilan to'qnashadilar. Natijada kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, janubga Shimoliy Hindistonga tomon chekinadilar va u yerlarda 75 yil hukmronlik qiladilar.

456-yil — Eftallar o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida Xitoyga elchi yubordilar.

459-484-YILLAR — Sosoniylar davlatida *Pero'z* hukmronligi davrida Eftallar o'rtasidagi jangu-jadallar avjiga

chiqdi. Eftallarga qarshi sosoniylarning uch marta muvaffaqiyatsiz harbiy yurish olib borishi. *Pero*‘z dastlabki janglardayoq mag‘lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori *Zenon* yuborgan o‘lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Ikkinchi marta *Pero*‘zning harbiy yurishida ittifoqdoshi Vizantiyaning elchisi ishtirok etadi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ikkinchi marta asirlikka olingan *Pero*‘z 30 xachir o‘lpon to‘lash majburiyatini oladi. Biroq uning xazinasidan faqat 20 xachirga yuk bo‘ladigan mablag‘ topiladi. Shohning *Kubod* ismli yosh o‘g‘li Eftallar yurtiga garovga yuborilib, *Pero*‘z tutqinlikdan ozod etiladi. Ikki yil davomida shoh aholi boshiga og‘ir soliq solish yo‘li bilan to‘plagan katta o‘lpon Eftallarga to‘lab turiladi.

460-553-YILLAR — Turk xoqonligining birinchi hukmdori *Bumin* yashagan.

477-YIL — Shimoliy hind yerlarini egallagan kidariylar Ganxara viloyatidan Xitoyga o‘z elchilarini yuborgan.

484-YIL — *Pero*‘z Eftallarga qarshi 3-marta yurish qilib, halok bo‘lishi. Eftallar Marvni ishg‘ol qilib, Eron ustiga juda katta o‘lpon yuklaydi. *Pero*‘zning Eftallarga qarshi 3-marta yurish qilishiga quyidagilar sabab bo‘lgan: *Pero*‘z singlisi o‘rniga cho‘rilardan birini yuborib, Eftallar hukmdorining izzat-nafsiga tekkan va bunday hiylanayrang bilan uni nihoyatda ranjitgan edi. Eftallar hokimi *Kunxa* Eron yuborgan 300 harbiy mutaxassislarni bir qismini o‘ldirishga, qolganlarini esa urib mayib qilishga buyuradi.

488-531-yILLAR — Sosoniylarda *Kubod* hukmronligi davrida Eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab tinchlik tusini olgan, Vizantiyaga qarshi Eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilishgan. Yil sayin kumush hisobida muayyan bojni mutassil to‘lab turishi.

531-579-YILLAR — Sosoniylar hukmdori *Xusrav I Anushervon* tashabbusi bilan yuzaga kelgan o‘zaro harbiy ittifoq Eron shohining Yabg‘u xoqon *Istemiga* kuyov bo‘lishi orqali yanada mustahkamlanadi. *Xusrav I Anushervon* hukmronligi davrida Eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab tinchlik tusini olgan, Vizantiyaga qarshi Eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilishgan. Yil sayin kumush hisobida muayyan bojni mutassil to‘lab turgan.

551-YIL — *Bumin* “*xoqon*” deb e‘lon qilinib, O‘rta Osiyoda yangi saltanat — “*Turk xoqonligi*”ga asos solinishi. *Oltoy* xoqonlikning markazi qilib belgilanadi.

555-YIL — turklar Sharqiy Turkistonning hamda Sirdaryo va Orol dengizi bo‘ylarigacha cho‘zilgan keng dashtliklarni egallashi.

558-YIL — turklar *Yoyiq* (Ural) va *Itil* (Volga) bo‘ylarini zabt etib, g‘arbdagi va shimoliy Kavkazning bepoyon yerlarini egallab olgan *avarlar* bilan to‘qnashadilar.

563-YIL — Eron askarlarining Balxga hujumi ko‘magida turklar Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar. *Parak* (Chirchiq) vodiysi va uning markazi *Choch* shahri ishg‘ol qilinadi. Turklar Sirdaryodan o‘tib, Zarafshon vodiysiga kirib boradilar. Samarqand, Kesh va Naxshabni egallab, Buxoroga yaqinlashadilar. Buxoro yaqinida eftaliylar qo‘shini turklardan yengiladi. Janubda Eron sosoniylaridan, shimolda esa Turk xoqonligidan qaqshatqich zarbaga uchragan Eftaliylar davlati tamomila barbod bo‘ladi. Natijada mag‘lub davlatning merosi o‘zaro

bo‘linib, Amudaryoning janubiy qirgo‘qlarigacha bo‘lgan viloyatlar Eron, uning shimoliy sohillari bo‘ylab Kaspiy dengizigacha cho‘zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o‘tadi.

563-YIL — Vizantiyaning avarlarga homiyligining to‘xtatishiga imperatorni ko‘ndirish maqsadida *nushubi* qabilasining boshlig‘i *Eskil* boshchiligida Turk xoqonligi elchilari Konstantinopol shahriga yetib keladilar.

563-567-YILLAR — janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan zarbaga uchragan Eftaliylar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so‘ng, tamomila barbod bo‘ladi.

568-569-YILLAR — Turklar Konstantinopolga *Justin II* saroyiga o‘z elchilarini yuboradi. Vizantiya va Turk xoqonligi o‘rtasida Eronga qarshi harbiy ittifoq tuziladi. Vizantiya elchisini xoqon Tangritog‘ (Tyanshan)ning Oltin tog‘i etagidagi O‘rdugohida qabul qiladi.

575-576 YILLAR — turklar Qrim yarim oroligacha kirib boradilar. Sosoniylar Toxariston va Chag‘aniyonni eftaliylardan tortib oladilar.

585-586-YILLAR — Buxoroda xoqon xonadoniga mansub *Abruy* boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Qo‘zg‘olon natijasida *Abruydan* jabrlangan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, Turkiston va Taroz atrofiga kelib o‘rnashadilar. Ular turk xoqoniga murojaat etib, qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so‘raganlar. Turk xoqoni qoracho‘rin o‘g‘li *Sheri Kishvar* (El Arslon) boshliq qo‘shin yuboradi. *Abruy* o‘ldirilib, qo‘zg‘olon bostiriladi. Kadivar va xizmatkorlar o‘z xo‘jayinlari — dehqonlarga qaytariladi.

618-630-YILLAR — G‘arbiy Turk xoqonligida *To‘nyabg‘u* hukmronligi davrida boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. O‘troq viloyat hokimlarini xoqonlik ma‘muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularni ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning “*yabg‘u*” unvoni berilishi natijasida ular xoqonning noibiga aylanadilar. O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari — “*tudun*”lar yuboriladi.

627-YIL — Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushonadan birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi.

685-686-YILLAR — Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonchilik asoratiga qarshi Buxoroda *Abruy* boshchiligida qo‘zg‘olon natijasida jabrlangan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib Turkiston va Taroz atrofiga borib o‘rnashadilar. Qochib borganlar qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so‘rab Turk xoqoniga murojaat qiladilar. Turk xoqoni *Qoracho‘rin Turk* o‘g‘li *Sheri Kishvar* boshliq qo‘shin yuboradi. *Abruy* o‘ldirilib, qo‘zg‘olon bostiriladi.

705-732-yILLAR — Ummaviylarga tegishli 12 kumush tangani Yunusobod Oqtepasidan topilishi.

718-YIL — Sug‘diylar hadya tariqasida yuborgan dubulg‘asidan nusxa olib, Xitoy qurolsozlari o‘z qo‘shinlarini dubulg‘alar bilan ta‘minlaganlar.

1932-yIL — Mug‘ tog‘idan nodir hujjatlar majmuasi topildi. Bu hujjatlardan 74 tasi sug‘dcha, 2 tasi xitoycha, 2 tasi arabcha va bittasi turkiy tilda bo‘lib, fan uchun beqiyos

ahamiyat kasb etdi.

1953-1955-YILLAR — arxeolog *L.Albaum* tomonidan Bolaliktepa yodgorligi o'rganilishi.

III ASR O'RTALARI — Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

IV ASR — Xorazmshoh *Afrig'* tomonidan qurilgan Al-Fir qal'asini ta'riflar ekan, Beruniy uning "...*uchta devori paxsadan va xom g'ishtdan urilgan; bularning biri ikkinchisi ichiga joylashgan; har birining balandligi boshqasirikiga qaraganda oshib boradi, ammo shohlar qasri hammasidan ham balanddir*" — deb yozadi.

IV ASR O'RTALARI — Yettisuv va Sharqiy Turkistondan *Grumbat* podshohi boshchiligida ko'chmanchi chorvador xiyon nomli qabilalarning hujum boshlashi.

IV ASRNING 70-YILLARI — O'rta Osiyo (Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha)da xiyoniylar hukmronligi o'rnatilib, bu davlatni 120 yildan oshiqroq hukmronlik qilishi.

IV ASRNING IKKINCHI YARMI — **V ASR** — Mamlakatning ichki va tashqi hayotida sodir bo'lgan keskinlik ayniqsa binokorlikka kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Naqshab va Toshkent kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va mulkdor dehqonlar qo'rg'onlari qad ko'tardi.

MILODNING I MINGYILLIK O'RTALARI — Qadimgi Turon aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sodir bo'lgan keskin o'zgarish mamlakatning mayda davlatlarga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi.

V ASR — "Eftal" degan nom ilk bor "*xetal*" shaklida arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida "*Eftalon*" deb yuritiladigan qabila nomidan olingan.

V ASR — Choch Eftallar davlatiga bo'ysudirilgan.

V ASR — O'rta Osiyolik shishasozlar xitoylik hunarmandlarga rangli shisha va shisha buyumlarni yasashni o'rgatishlari. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turishi, Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanishlari.

V ASR — Sosoniy tangalarining mamlakat ichki hayotida keng muomalada bo'lishi.

V ASR — Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlaydigan *Zog'ariq* va *Bo'zsuv*, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai *Darg'om* kanalini barpo etilishi.

V ASRNING 20-YILLARI — Kushonlarning avlodidan bo'lgan, *Kidar* boshchiligida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga ko'chmanchi chorvador aholi — toxarlarni kirib kelishi.

V ASRNING 30-50-YILLARI — kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan.

V ASRNING 50-YILLARI — Eftallar davlatining nihoyatda kuchayishi.

V ASR O'RTALARI — ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar va majusiy ruhoniylar-kohinlarning

qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarining qaramog'ida edi. Ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a'zolari "*kashovarz*", ya'ni yerni haydovchi — yerni omoch bilan ag'daruvchi—"qo'shchi" deb yuritilardi. Dehqonchilik mahsulotlarining deyarli asosiy qismi qo'shchi-kashovarzlar mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilardi.

V ASR O'RTALARI — O'rta Osiyoga bostirib kelgan Eftallar yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi.

V ASRNING 60-YILLARI — Kidariylar sosoniylarning asosiy dushmani bo'lib qolishi, Marv vohasidagi jangda sosoniylar shohining qo'li baland kelib, Kidariylar va Sosoniylar davlatlari o'rtasida Talikon yaqinida chegara belgilanishi.

V ASR OXIRI — binokorlikda an'anaviy xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g'isht ham ishlatila boshlandi. Pishiq g'ishtdan saroy va ibodatxonalarining sahnini to'shshda foydalanilgan.

V ASR OXIRI — **VIASR BOSHLARI** — Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi ilk bor Eronda *Mazdak* boshchiligida xalq qo'zg'oloni ko'tarilgan va bu qo'zg'olon mag'lubiyat bilan tugagan.

V ASRNING IKKINCHI YARMI VA VIASRNING BIRINCHI YARMI — Oltoy va Janubiy Sibirda *Ashina* qabilasining yabg'ulari *Asanshod*, *Tuu* va *Buminlar* boshchiligida turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga kelishi.

V ASRNING IKKINCHI YARMI — **VIASRNING BOSHLARI** — Eftallar davri binokorligi va me'morchiligida ayniqsa qasrlar alohida o'rin tutgan. Ularning ayrimlari ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga maxsus ko'tarma pandus orqali chiqilgan. Saroy va ibodatxona devorlari turli mazmundagi rangdor tasvirlar bezash odatiy tusda edi.

V ASRNING IKKINCHI YARMI VA VIASRNING BOSHLARI — O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va sharqda Turkiston yerlarini birlashtirgan Eftallar davlati tashkil topishi. Eftallar davlati siyosiy jihatdan Kushon podshohligiga nisbatan mustahkam bo'lmasa-da, ammo maydoni jihatidan undan katta edi.

V-VI ASRLAR — Dehqonchilik vohalari tevarakat-rofiga kelib o'rnatilgan ko'chmanchi eftallarning ommaviy ravishda o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik ortdi. Daryo vodiylari bo'ylab katta-kichik sug'orish kanallari qazib bitkazildi. Minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. Sug'orma dehqonchilikning kengayishi bilan sug'orish texnikasi murakkablashib bordi. Shoxariqlar chuqurlashtirilib, sersuv va sershoxa sug'orish tarmoqlariga aylanadi. Ular daryodan suvni bog'lab oluvchi va yuqoriga ko'tarib beruvchi suv inshootlari bilan jihozlanadi. Chag'oniyon, Termiz, Samarqand, Buxoro, Kesh, Naqshab va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllandi.

V-VI ASRLAR — diniy e'tiqot va tasavvurlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at koroplastika ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyilishi.

V-VIASRLAR — yerga egalik munosabatlar rivoj topib,

siyosiy jihatdan zaiflashuv oqibatida mamlakat bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketib, uning hududida viloyat va yirik shaharlariga tayangan 15 dan ortiq mustaqil mahalliy hokimliklar tashkil topdi. Bunday davlatlardan eng yirigi Sug'dda — *ixshidlar*, Toxaristonda — *malikshohlar*, Xorazmda — *xorazmshohlar*, Choch va Eloqda — *budun* va *dehqonlar*, Farg'onada — *ixshidlar* hukmronlik qilardilar.

V-VIASRLAR — Nasaroniy dini Sug'dga kirib kelgan.

V-VIASRLAR — *Sug'd yozuvi* va uning "*Samarqand yozuvi*" uslubi, *Xorazm* va *Eftal yozuvlari* tarqalishi.

V-VIASRLAR — Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilib, uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmagan edi.

V-VII ASRLAR — O'rta Osiyoda yerga egalik munosabatlari jarayoni tobora avj olib, mulkdor dehqonlar zulmi kuchayadi. *Kashovarlar* ularning asoratiga tushib, qaram *kadivarlarga* aylanadi.

V-VIIASRLAR — mayda hokimliklar eftallarga, so'ngra Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsalar-da, ammo eftallar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqlab qoladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o'z atrofidagi mulkdor dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar.

V-VIIASRLAR — Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikki mustaqil ilk o'rta asr davlat — Choch va Eloq hukmronlik qilishi.

V-VII ASRLAR — O'rta Osiyoda yerga egalik munosabatlar o'rnatilishi, ko'chmanchi chorvadorlarning beto'xtov shiddat bilan kirib kelishi oqibatida mamlakat obodonchiligi, xo'jaligining ravnaqi, shahar va qishloqlarining qiyofasi va aholisining turmush tarzi va ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

V-VIIASRLAR — tasviriy san'atning nodir namunalari Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Bolaliktepa yodgorligidan topib o'rganilgan.

V-VIIASRLAR — O'rta Osiyoning chorvador aholisi o'rtasida asosan "*shomon*" ya'ni "*qam*" dini keng tarqalgan. Aholi o'rtasida ushbu din ta'limotini talqin etuvchi urf, aqida va marosimlarini bajarishda rahnamolik qiluvchi dindorlari bo'lgan. Ularning yetuk bilimdonlarini "*qam*" va "*to'yin*" deb atalgan.

V-VIIASRLAR O'RTALARI — Yunusobod qo'rg'onida hayot bo'lishi.

VIASR — Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi eftallar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy ayollarini eslatishi.

VI ASR — Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida 10 dan ortiq mahalliy hokimiyatlarning mavjud bo'lishi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat boj va yasoq undirib olish bilan cheklanadilar.

VI ASR — Choch G'arbiy Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan.

VIASR — Vizantiya tarixchilarining asarlarida eftallar "*shaharlik*" ekanligi ta'kidlanishi.

VI ASR — Vizantiya tarixchisi *Prokopeyning* yozishicha, eftallarning qonuniy davlati podshohi mutloq asosida boshqarilishi.

VI ASR BOSHLARI — Samarqandda yepiskop nasaroniy, jamoalarga rahnamolak qilardi.

VI ASR O'RTALARI — Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirgan. Uning asoschisi *Bumin* edi.

VI ASR O'RTALARI — *Bumin* boshliq turk ittifoqi *tele* qabilasini bo'ysundirishi.

VIASRNING 50-YILLARI — turklar tazyiqi oqibatida yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib sasoniyalar Toxariston va Chag'oniyonni eftallardan tortib oladilar.

VIASR IKKINCHI YARMI — Buxoroda ilk mulkdor dehqonlarning *kadivarlar* ustidan hukmronligi yanada mustahkamlandi.

VI ASR 70-80-YILLAR — Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho'zilgan ulkan maydonda ko'chmanchi chorvadorlarning Buyuk Turk Xoqonligini tashkil topdi.

VI ASRNING 80-YILLARI OXIRLARI — bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi Turk xoqonligini tobora zaiflashtirishi va Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat xoqonlik ahvolini yanada og'irlashtirishi oqibatida Turk xoqonligi ikkiga — mo'g'ulistonda tashkil topgan *Sharqiy turk xoqonligi* va O'rta Osiyo, Jung'ariya va Sharqiy Turkistonning bir qismini tasarrufiga olgan *G'arbiy turk xoqonligiga* bo'linib ketadi.

VIASR OXIRI — **VII ASR BOSHLARI** — G'arbiy Turk xoqonlari budda dinini qabul qilib, butxonalarning qurilishida homiylik qiladilar.

VI-VII ASRLAR — Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi Varaxsha qasri *buxorxudotlar* — Buxoro mahalliy hukmdorlarining yozgi qarorgohiga aylantirilishi.

VI-VII ASRLAR — O'rta Osiyo shaharlarida savdosotiq ishlari avj olgan va shaharlar maydoni uncha katta bo'lmagan.

VI-VII ASRLAR — O'rta Osiyoda dehqonlar tomonidan yerlarning egalash jarayoni tobora avj olib, zulm kuchayadi. Yer va suvdan ajralib qashshoqlashib borayotgan ozod ziroatkor — *kashovarlar* mulkdor dehqonlar asoratiga tushib, qaram *kadivarlarga* aylanadi.

VI-VIII ASRLAR — Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi.

VI — VIII ASRLAR — mehnatkash aholining hayoti nihoyatda og'ir kechdi. Ular hamma vaqt nochorlik, tanglik, xavf-xatar va muhtojlikda yashagan.

VI-VIII ASRLAR — bebaho madaniyat obidalari, diniy etiqodlari, tasviriy san'at rivojlandi.

VI-VIII ASRLAR — G'arbiy turk xoqonligining chorvador aholisi o'rtasida buddoiy va nasaroniy jamoalari

paydo bo'lib, ayrim turk xoqonlari bu yangi dinlarga homiylik qilsalar-da, ammo chorvador aholining aksariyati hali "shomon" diniga e'tiqod qilardi.

VI-VIII ASRLAR — Moniy dini Murg'ob vohasi orqali Toxariston, Sug'd, Sharqiy Turkiston va Xitoyga yoyildi. Moniy ta'limoti tasviriy san'atga va musiqaga katta ahamiyat bergan. Diniy targ'ibot va marosimlarda, ayniqsa tasviriy san'atdan keng foydalanilgan.

VI-VIII ASRLAR — O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va me'morchilik bilan bir qatorda tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi.

VI-VIII ASRLAR — O'rta Osiyo xalqlari jahon tarixi jarayoniga tortilib, bu diyorda ilk o'rta asrning o'ziga xos serqirra va nihoyatda boy madaniyati shakllanishini va rivoj topishini madaniyatning serjilo qirralari, bebaho madaniyat obidalari, diniy e'tiqodlari-yu tasviriy san'at namunalari o'z aksini topishi.

VI-VIII ASRLAR — O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotida yer egaligi munosabatlar shakllanib, mustahkamlanib bordi. Iqtisodiy hayotda hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivoj topib, ichki va tashqi savdo kengaydi. Madaniy hayotda me'morchilik, xat-savod, diniy e'tiqodlar, tasviriy san'at va musiqa ravnaq topib, madaniy aloqalar jonlandi. Natijada ilk o'rta asrlarning ma'naviy hayotini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos serqirra madaniyat yaratildi.

VI-VIII ASRLAR — O'rta Osiyoda aholi zardushtiy, budda, nasoroni, moniy va qam dinlariga sig'ingan, ya'ni din erkinligi bo'lgan.

VI-VIII ASRLAR — O'rta Osiyoda, zardushtiylik, budda, nasoro(xristianlik), moniy va qam(shomon) kabi bir necha dinlar mavjud bo'lgan. Mamlakatda ko'p dinlik e'tiqodlari rasman bo'lsada, ammo aholining ko'pchiligi olovga topinuvchi ma'jusi edi. Otashparastlik Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida ayniqsa keng tarqalgan.

VI-VIII ASRLAR — shahar aholisi ortib, gavjumlashuvi hunarmandchilik, savdo-sotiqning tobora kengayib borishi bialn shaharlar atrofi o'zlashtirilib, obod etiladi. Natijada ayrim markaziy shaharlarning tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzolari paydo bo'ladi. Atrofi mudofaa devori bilan o'ralmagan bu istehkomlar mavzalar manbalarida "*rabod*" nomi bilan ataladi. Shaharlar yonboshida rabotlarning qad ko'tarishi bilan ilk o'rta asrlarda ular 3 qisimli bo'lib qoladi. Uning podshoh qasri joylashgan qismi "*ark*", ichki shahar "*shahriston*" deb yuritiladi. Shaharning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o'rab olinadi. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan.

VI-VIII ASRLAR — Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Buxoro va Samarqand savdogarlaridan keyin 3-o'rinda turgan.

VI-VIII ASRLAR — Tasviriy san'atda haykaltaroshlik muhim o'rin tutgan. Uning rivojiga budda dini kuchli ta'sir ko'rsatgan.

VII ASR — Balxda 100 ta, Termizda 10 tacha, Qabodiyonda 3 ta budda monastirlari bo'lgan. Ularning har birida ikkitadan to 50 nafargacha rohib (monax)lari bo'lgan.

VII ASR BIRINCHI CHORAGI — G'arbiy Turk xoqonligi nihoyatda kuchaydi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, janubiysi Hind daryosi bo'ylariga borib taqaladi.

VII ASRNING BIRINCHI YARMI — G'arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy aloqalar gavjumlashib, Xitoyga 9 marotaba savdo elchiligi yuboriladi.

VII ASRNING BIRINCHI YARMI — Qultegin bitigi qabr toshiga o'yib yozilgan. Qabr toshining balandligi 3 m 15 sm, kengligi 1 m 24 sm, qalinligi 41 sm. Bitik 63 satrdan iborat.

VII ASR OXIRI — Buxoro taxti vorisining hali go'dakligi tufayli uning tul qolgan onasi davlatni boshqargan. Malika Buxoroda donolik bilan hukmronlik qilgan, xalq unga itoatda bo'lgan.

VII-VIII ASR BOSHLARI — Hujjatlarda Sug'dning siyosiy tarixi huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlarning keltirilishi.

VII-VIII ASRLAR — 1932-yilda Mug'tog'idan topilgan hujjatlarning orasida nikoh guvohnomasi qayd etilgan. Unda oila va nikoh shartlari, oilaviy-mulkiy munosabatlar, nikohlanayotgan shaxslarning o'zaro va har birining ikkala tomon qarindoshlari bilan munosabatlari, kuyovning kelin qarindoshlari oldidagi majburiyatlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumot bor. Hujjatda *Uttegin* ismli turk yigiti bilan *Dug'dg'uncha* ismli, *Chata* laqabli sug'd ayoli o'rtasida tuzilgan nikoh qayd etilgan.

VII-VIII ASRLAR — Chochda kumush va mis tangachalar yasaydigan zarbxona bo'lgan.

VII-VIII ASRLAR — O'rta Osiyo, Yettisuv va Sharqiy Turkiston viloyatlarida sug'd tilining amaliy ko'lami juda keng bo'lgan. Bunday joylarda aholi sug'd va turk tillarida bimalol so'zlashgan.

VII-VIII ASRLAR — Sug'd jamoasida inson, xotin-qizlarning haq-huquqlari va axloq qonun-qoidalari, xususan kuyovning kelin oldidagi burchi va majburiyatlari o'z zamonasi uchun juda adolatli ravishda belgilab qo'yilgan.

VII-VIII ASRLAR — Termiz yaqinida Zangtepa yodgorligidan qayin po'stlog'iga bitilgan buddoyi qo'lyozma matnlar qayd etiladi.

VII-VIII ASRLAR — Toxariston aholisining yarmi mahalliy, yarmi turklar bo'lgan. Aholisi budda diniga sig'ingan, qator ibodatxonalari va kohinlari bo'lgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. 25 harfli yozuvi ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan.

VII-VIII ASRLAR — O'rta Osiyoda raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning boshqa turli sohalari ham kamol topgan. Buxoro aktyorlari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari, Xo'jand surnaychilari va Kucha bastakorlari bilan shuhrat topgan.

VII-VIII ASRLAR — Termiz yaqinidagi Zangtepa yodgorligida qayin po'stlog'iga bitilgan qo'lyozma topiladi.

VII-IX ASRLAR — Buxoro, Yettisuv, Samarqandda yashagan nasoroiiylar haqida arabnavis mualliflar qayd etadilar.

VIII ASR — Buxoro 5 qismdan iborat bo'lib, u besh qator devorlar halqasi bilan o'ralgan. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor *xandaq* vazifasini bajargan.

VIII ASR — Buxoro vohasidagi qadimgi Poykand shahri

xarobalari ostida dorixonaga qoldiqlari kovlab ochilgan.

VIII ASR — Choch va Eloq birlashib, yagona davlatga aylanadi va o‘z mustaqilligini tiklab oladi.

VIII ASR — Chochda kumush dirhamlar Eloqning kumush konlarida zarb etilgan.

VIII ASR — Samarqandda mitropolit nasaroniy, jamoalariga rahnamolik qilardilar.

XI ASR — Nodir yozma manba sanaladigan *Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”* asarida “*To‘yin burxonqa yuqundi, to‘yin sanamga topindi*”, ya‘ni to‘tin butxonaga kirdi va sanamga topindi deb, ta‘kidlanadi.

XVII ASR — *Runik* yoki *ko‘kturk* bitiklari (qadim turk manbalari) Sibir, mo‘g‘uliston, Oltoy va O‘rta Osiyoda topilishi. Mo‘g‘ulistonda topilgan *To‘ntuquq*, *Qultegin*, *Bilga xoqon* va *Ongin* bitiklari O‘rta Osiyo aholisi tarixini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

TESTLAR

1. Qadimgi Turon diyorida yuksalish qaysi davlatlar ravnaq topgan davrda boshlangan edi?

- A) Eftallar davlati va Turk xoqonligi
- B) Baqtriya va Sug‘diyona davlatlari
- S) Xorazm va Qang‘ davlatlari
- D) Qang‘ davlati va Kushon podsholigi

2. Ilk o‘rta asrlarga o‘tish davrida Turon zaminida ro‘y bergan dehqonchilik yutuqlarini aniqlang.

1) sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaydi; 2) dehqonchilikda ikki dalali almashlab ekish joriy qilindi; 3) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qo‘shni mamlakatlarga chiqarila boshlandi; 4) suv tegirmoni, chig‘ir va charxpalaklar kabi suv inshootlari kashf etildi; 5) qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi; 6) dehqonchilikda uch dalali almashlab ekishni joriy etilishi; 7) g‘allakorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog‘dorchilik maydonlari kengaydi; 8) davlatning tashkil topishi xom ashyo yetkazuvchi qishloq xo‘jaligining o‘sishi bilan bo‘g‘liq bo‘lib qoldi.

- A) 2, 4, 6, 8
- B) 1, 3, 5, 7
- S) 1, 4, 5, 7
- D) 1, 2, 6, 8

3. Ilk o‘rta asrlar davrida O‘rta Osiyoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj nimaning natijasida ortib bordi?

- A) shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdning rivoj topishi natijasida
- B) dehqonlar, kadivarlar va kashovarzlar tabaqalarining shakllanishi natijasida
- S) dehqonchilikda almashlab ekish joriy qilinishi natijasida
- D) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shni mamlakatlarga chiqarilishi natijasida

4. Ilk o‘rta asrlarda mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keldi?

1) yirik o‘rta asr davlatlari shakllana boshladi; 2) ziroatkor maydonlarga egalik qilish shakli asta-sekin o‘zgarib boshladi; 3) sex hunarmandchiligiga va o‘ziga xos shahar ijtimoiy tuzumiga ega bo‘lgan o‘rta asr shaharlari vujudga keldi; 4) o‘troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o‘rtasidagi aloqalar rivojlandi; 5) xalqlarning buyuk ko‘chishlariga olib keldi; 6) ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholinining o‘troq hayotga o‘tishining kuchayishi; natijasida obikor yerlarga bo‘lgan muhtojlik oshib bordi; 7) ikki dalali almashlab ekish joriy qilindi; 8) katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllandi.

- A) 2, 4, 6, 8
- B) 1, 3, 6, 8
- S) 1, 2, 4, 6, 7, 8
- D) 1, 3, 5, 7

5. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qay tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllandi?

- A) dehqonlarning yerga ishlov berishi natijasida yirik mol-mulkka ega bo‘lib qolishi natijasida
- B) nufuzga ega bo‘lgan mulkdorlar qo‘liga yangi yer maydonlarning ma‘lum bir ulushining o‘tishi va vorisiy mulkiga aylanishi natijasida
- S) chorvadorlarning ko‘psonli chorvalarini boqqan yerlariga ega bo‘lib qolishi natijasida
- D) dehqonlarning shahar va qishloqlarda hashamatli qasr va saroylarga ega bo‘lib qolishi

6. Ma‘lumki, ilk o‘rta asrlarda sarkorlar o‘zlariga tegishli yer maydonlarini sug‘orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to‘g‘on boshi atrofida ajratib olar edilar. Bu yo‘l bilan ular qanday imkoniyatlarga ega bo‘lardilar?

- A) barcha sug‘orish inshootlarini egasi bo‘lish
- B) suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq ziroatkor mehnatkashlarining yerlariga yetarlicha suv yetkazib berish
- S) dehqonchilikda faqat o‘zlari uchun suvdan bimalol foydalanish
- D) suvdan dehqonchilikda bimalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o‘z ta‘sirini o‘tkazish

7. Ma‘lumki, ilk o‘rta asrlarda sarkorlar qishloqlarda o‘z ta‘sir doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O‘sha zamonda ular nima deb atalgan?

- A) kashovarzlar
- B) kadivarlar
- S) dehqonlar
- D) ziroatkorlar

8. Ilk o‘rta asrlarda kimlar to‘g‘on boshi atrofida o‘ziga tegishli yer maydonlarini ajratib olib, suv taqsimotini nazoratga olishi natijasida qishloq aholisi ustidan o‘z ta‘sirini o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan?

- A) ixshidlar
- B) kashovarzlar

- S) kadivarlar
- D) sarkorlar

9. Quyidagi qaysi javobda ilk oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan aholi tabaqasining yuqori vakili koʻrsatilgan?

- A) qishloq oqsoqoli
- B) kadivar
- S) chokar
- D) dehqon

10. “Ular shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik doʻkon-u rastalaridan iborat kattagina xoʻjalikka ega edilar, qishloqlarda esa ekinzor paykallardan tashqari, ularning koʻshk va istehkomli qoʻrgʻonlar, objuvoz-u moyjuvoz va tegirmonlari boʻlardi”. Ushbu soʻzlar ilk oʻrta asr aholisining qaysi tabaqasiga mansub?

- A) urugʻ va qabila boshliqlari
- B) kadivar
- S) dehqon
- D) kashovarlarlar

11. Chokarlar — bu ...

- A) ziroatchi oddiy qoʻshchilar
- B) qishloq hokimi
- S) dehqonning hayotini va mol-mulkini qoʻriqlovchi, harbiy posbon
- D) qishloqning dehqonlarga qaram boʻlib qolgan ahli

12. “Ular baquvvat va abjir hamda oʻz hojasiga sadoqatli oʻspirinlardan tanlab olingan, xojasi vafot etganda hatto u bilan birga tiriklayin koʻmilishi lozim boʻlgan”. Gap kimlar haqida ketmoqda?

- A) xalfalar
- B) kadivarlar
- S) chokarlar
- D) shadlar

13. Kadivarlar kimlar?

- A) ziroatchi oddiy qoʻshchilar
- B) qishloq hokimi
- S) qishloqning dehqonlarga qaram boʻlib qolgan ahli
- D) dehqonning hayotini va mol-mulkini qoʻriqlovchi, harbiy posbon
- E) ekin maydonlariga ishlov beruvchilar

14. Quyidagi qaysi javob ilk oʻrta asrlarda shakllangan aholi tabaqasining vakili chokarlar uchun taaluqli?

- 1) dehqonning hayoti va mol-mulkini qoʻriqlagan; 2) xojasi vafot etganda u bilan birga tiriklayin koʻmilishi lozim boʻlgan; 3) qishloq jamoalarida yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega boʻlgan; 4) qoʻriqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining maʼlum bir ulushi ularning qoʻliga oʻtgan va vorisiy mulkiga aylanardi; 5) ular dehqonchilikning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari edi; 6) ular bilan dehqonlar yovgarchilik paytlarda dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashgan; 7) ular viloyat hokimining oʻrinbosari hisoblangan.

- A) 1, 2, 6
- B) 2, 3, 5, 7
- S) 1, 2, 5
- D) 2, 4, 6

15. Ilk oʻrta asrlarda kimlar dehqonchilik xoʻjaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylangan?

- A) kadivarlar
- B) chokarlar
- S) dehqonlar
- D) sarkorlar

16. Ilk oʻrta asrlarda qishloq hokimi nima deb atalgan?

- A) kashovar
- B) dehqon
- S) kadivar
- D) tudun

17. V asrning oʻrtalarida ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi ...

- A) qishloq jamoalarining qaramogʻida edi
- B) mulkdor dehqonlar qoʻl ostida edi
- S) kadivarlar qoʻl ostida edi
- D) erkin ziroatchi kashovarlar qoʻl ostida edi

18. Ilk oʻrta asrlarda qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega boʻlgan erkin ziroatchilar tabaqasi nima deb atalgan?

- A) kashovar
- B) chokar
- S) kadivar
- D) sarkor

19. Quyidagi qaysi javobda ilk oʻrta asrlarda shakllangan tabaqa vakillari taʼrifi notoʻgʻri koʻrsatilgan?

- A) dehqon — qishloq hokimi
- B) kadivar — erkin ziroatchi
- S) kashovar — ziroatchi oddiy qoʻshchilar
- D) chokar — dehqon qoʻriqchisi

20. Ilk oʻrta asrlarda Turon aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi sodir boʻlgan qanday keskin oʻzgarish mamlakatning mayda davlatlarga boʻlinib ketishiga sabab boʻladi?

- A) ekin maydonlarining barchasi qishloq oqsoqollari hamda urugʻ va qabila boshliqlari qoʻlida toʻplanishi
- B) dehqonlarning kadivarlarni ekspluatatsiya shaklida ishlatishi
- S) koʻchmanchi chorvador xion qabilasining hujumi
- D) dehqonlar, kadivarlar va kashovarlar tabaqalarining shakllanishi

21. Milodiy III asrda zaiflashib borayotgan Qangʻ davlatidan birinchi boʻlib qaysi davlat ajralib chiqadi?

- A) Xorazm
- B) Xiyoniylar davlati
- S) Eftaliylar davlati

D) Dovon davlati

22. Quyidagi qaysi davlatda Afrig'iyar sulolasi hukmronlik qilgan?

- A) Turk xoqonligi
- B) Qang' davlati
- S) Dovon davlati
- D) Xorazm davlati

23. Milodiy III asrda Xorazm davlatining poytaxti qadimgi qaysi shahar xarobasining o'rnida bo'lgan?

- A) Jonbosqal'a
- B) Jarqo'ton
- S) Qo'yqirilganqal'a
- D) Turoqqal'a

24. Ilk o'rta asrda Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulola nomini aniqlang.

- A) Afrig'iyar
- B) Anushteginiyar
- S) Kidariylar
- D) Sosoniylar

25. Xorazmning qadimgi poytaxti hisoblangan Tuproqqal'a shahar xarobasi hozirgi qaysi hududda joylashgan?

- A) Urganch shahri yaqinida
- B) Qoraqolpog'istonning Ellikqal'a tumanida
- S) Qoraqolpog'istonning Mang'it tumanida
- D) Qoraqolpog'istonning To'rtko'l tumanida

26. Shaharning mustahkam labirintli darvoza og'zi istehkomi darvozaxonasi bo'lgan... Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli-g'arbiy burchak qismida esa balandligi 25 metr bo'lgan uch minorali hukmdor qasri qad ko'targan. Yuqoridagi ta'rif qaysi shahar xarobasiga tegishli?

- A) Bolaliktepa
- B) Turoqqal'a
- S) Yunosobod Oqtepesi
- D) Jonbosqal'a

27. Ilk o'rta asrlarda Xorazm poytaxti bo'lgan shaharlar nomini aniqlang.

- A) Jonbosqal'a va Tuproqqal'a
- B) Urganch va Xiva
- S) Turoqqal'a va Ellikqal'a
- D) Tuproqqal'a va Kat

28. Xorazmning qadimgi poytaxti Tuproqqal'a shahrining umumiy maydoni necha gektarni tashkil etgan?

- A) 15 hektar
- B) 34 hektar
- S) 18 hektar
- D) 26 hektar

29. Xiyoniylarning Sug'dga bostirib kirishidan 48 yil oldin ...

1) zaiflashgan Qang' davlatidan Xorazm davlati ajralib chiqdi; 2) xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga; 3) Xorazm va Amudaryo

havzasiga toxtalar kirib keldi; 4) Katdagi Al-Fir qasrida yangi saroy qurildi; 5) Afrig'iy shohlari betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb ettira boshladilar; 6) Sosoniylar hukmdori Pero'z eftaliylarga qarshi uchinchi marta yurishga otlandi.

- A) 5, 6
- B) 1, 4, 6
- S) 2, 4, 5
- D) 3, 4, 5

30. Quyidagi qaysi davlatda betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb qilingan?

- A) Somoniylar davlatida
- B) Eftaliylar davlatida
- S) Turk xoqonligida
- D) Afrig'iyar davlatida

31. Qachon O'rta Osiyoga xion nomli ko'chmanchi qabilalar hujumi boshlandi?

- A) V asr 20-yillarida
- B) IV asr o'rtalarida
- S) IV boshlarida
- D) V asr oxirlarida

32. Nechanchi yilda xiyoniylar Sug'dga bostirib kiradilar?

- A) 309-yilda
- B) 379-yilda
- S) 353-yilda
- D) 459-yilda

33. Grumbat kim?

- A) toxtalar yo'l boshchisi
- B) sosoniylar shohi
- S) xiyoniylar hukmdori
- D) eftaliylar hukmdori

34. O'rta Osiyoga hujum qilgan xion qabilalari qaysi hududdan kelishgan edi?

- A) Yettisuv va Sharqiy Turkistondan
- B) Sirdaryo va Orol bo'ylaridan
- S) Eron hududlaridan
- D) Xitoy va mo'g'uliston hududidan

35. Xiyoniylar Sug'dga bostirib kirgach, ular kimlar bilan to'qnashadilar?

- A) kidariylar
- B) sosoniylar
- S) eftaliylar
- D) kushonlar

36. Xiyoniylardan yengilgan sosoniylar shohini aniqlang.

- A) Kubod
- B) Pero'z
- S) Shopur II
- D) Anushervon

37. Qachon O'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi

o'rnatildi?

- A) IV asr o'rtalarida
- B) VI asr boshlarida
- S) V asrning 20-yillarida
- D) IV asrning 70-yillarida

38. Xioniyar davlati necha yil hukmronlik qilgan.

- A) 120 yildan oshiqroq
- B) 80 yil
- S) 90 yildan ortiqroq
- D) 140 yil

39. V asr 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga kimlar kirib keladilar?

- A) toxarlar
- B) xioniyarlar
- S) eftaliylar
- D) turklar

40. Kidar — bu ...

- A) toxarlar yo'lboshchisi
- B) sosoniylar shohi
- S) xioniyar hukmdori
- D) Turk xoqonligining asoschisi

41. Toxarlar kimlarning avlodlari hisoblanadi?

- A) kushonlarning
- B) parfiyaliklarning
- S) saklarning
- D) massagetlarning

42. V asr 20-yillarida kidariylar Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol etib qaysi davlatning janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatdilar?

- A) Xorazm davlati
- B) Xioniyar davlati
- S) Eftaliylar davlati
- D) Sosoniylar davlati

43. Quyidagi qaysi shahar ilk o'rta asr davlati bo'lgan Kidariylar davlatining poytaxti hisoblanadi?

- A) Marv
- B) Balx
- S) Yangikent
- D) Naxshab

44. Ilk o'rta asr davlati hisoblangan Kidariylar davlatining nomi qanday kelib chiqqan?

- A) Kidar ismli hukmdor nomidan
- B) toxarlar qabilasining muqim aholisi kidariylar nomidan
- S) ko'chmanchi chorvador kidar nomli qabila nomidan
- D) mamlakat poytaxti Kidar shahri nomidan

45. Kidariylar kimlar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va tajovuzlarini Janubga tomon kengaytirishga intilgan?

- A) turklar
- B) sosoniylar
- S) eftaliylar

D) xioniyarlar

46. Qachon kidariylar bilan sosoniylar o'rtasidagi ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan?

- A) V asr 60-70-yillarida
- B) V asr 20-yillarida
- S) VI asr boshlarida
- D) V asr 30-50-yillarida

47. 456-yilda ...

1) kidariylar sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchradilar; 2) xioniyarlar Sug'dga bostirib kirdilar; 3) O'rta Osiyoda kidariylar hukmronligi barham topdi; 4) O'rta Osiyoga eftaliylar hujumi boshlandi; 5) eftaliylar Xitoyga elchi yubordilar; 6) xioniyar eftaliylar bilan bo'lgan jangda qaqshatqich zarbaga uchradilar; 7) Pero'z eftaliylarga qarshi uchinchi marta yurishga otlandi

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 3, 7
- S) 1, 4, 5, 7
- D) 2, 4, 6

48. Kimlar bilan bo'lgan to'qnashuvda kidariylar O'rta Osiyoni tark etishga majbur bo'ladilar?

- A) xioniyarlar
- B) sosoniylar
- S) turklar
- D) eftaliylar

49. V asr o'rtalarida O'rta Osiyoda kimlarning hukmronligi boshlandi?

- A) arablar
- B) turklar
- S) eftaliylar
- D) kidariylar

50. O'rta Osiyoni tark etgan kidariylar Shimoliy Hindistonda necha yil hukmronlik qiladilar?

- A) 120 yil
- B) 75 yil
- S) 47 yil
- D) 140 yil

51. Ma'lumki, "eftal" degan nom ilk bor "xeptal" shaklida uchraydi. Bunday ma'lumotlarni qanday manbalarda uchratish mumkin?

- A) V asr arman manbalarida
- B) Behistun yozuvida
- S) Avestoda
- D) IV asr turk manbalarida

52. Vaxshunvar kim?

- A) sosoniylar shohi
- B) "Eftalon" deb yuritilgan shoh
- S) eftaliylar hukmdori
- D) B va S



53. Nima sababdan sosoniylar Eftaliylar davlatiga qarshi yurish qiladi?

- A) sosoniylarning tobora kuchayib borayotgan eftaliylar hujumidan havfsirashlari sababli
- B) eftaliylarning sosoniylar bilan tuzgan savdo shartnomasini buzganliklari sababli
- S) eftaliylar shohining sosoniylar shohi Pero'zga nisbatan haqoratli maktub yo'llashi sababli
- D) eftaliylarning sosoniylar davlati tasarrufidagi hududni bosib olishlari sababli

54. Eftaliylar va Sosoniylar o'rtasidagi jang-u jadallar qaysi sosoniy shohi hukmronligi davrida ayniqsa kuchaydi?

- A) Pero'z
- B) Kubod
- S) Anushervon
- D) Shopur II

55. Sosoniylar shohi Pero'z (459-484) Eftaliylarga qarshi necha marta yurish qiladi va necha marta g'alaba qozonadi?

- A) 4 marta yurish, 2 marta g'alaba
- B) 3 marta yurish qiladi, ammo har galgisida mag'lubiyatga uchraydi
- S) 6 marta yurish, 4 marta g'alaba
- D) 3 marta yurish, 2 marta g'alaba

56. Ma'lumki, Eftaliylar davlatiga qarshi yurish qilgan Sosoniylar shohi Pero'z dastlabki janglardayoq mag'lubiyatga uchrab, asir tushadi. Pero'z kim tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga asirlikdan ozod etiladi?

- A) Pero'zning vorisi Kubod tomonidan
- B) Vizantiya imperatori Zenon tomonidan
- S) Turk xoqonligi hukmdori Bumin tomonidan
- D) Vizantiya imperatori Yustinian

57. Sosoniylar shohi Pero'zning eftaliylarga qarshi ikkinchi yurishida qaysi davlat unga ittifoqdoshlik qiladi?

- A) Franklar qirolligi
- B) Xitoy
- S) Vizantiya imperiyasi
- D) Turk xoqonligi

58. Ma'lumki, eftaliylarga ikkinchi marta asirga tushgan sosoniylar shohi Pero'z 30 xachirga yuklatilgan kumush dirhamlar bilan o'lpon to'lash majburiyatini oladi. Ammo 20 xachirgagina yuk bo'ladigan mablag'i bo'lgan Pero'z qay tarzda tutqunlikdan ozod etiladi?

- A) shohning Anushervon ismli nevarasi Pero'zning o'rniga eftaliylar yurtiga garovga yuborilib, to'rt yil davomida eftaliylarga katta o'lpon to'lab turiladi
- B) ittifoqdosh Vizantiya imperatori Zenon 10 xachirga yuklatilgan kumush dirhamlar bilan o'lpon qarzini to'laydi
- S) shohning Kubod ismli yosh o'g'li Pero'zning o'rniga eftaliylar yurtiga garovga yuborilib, ikki yil davomida eftaliylarga katta o'lpon to'lab turiladi
- D) Eftaliylar davlatini bir qismini qo'lga kiritish maqsadida Xitoy hukmdori 10 xachirga yuklatilgan kumush

dirhamlarini yuborishi natijasida Pero'z tutqunlikdan ozod etiladi

59. Sosoniylar shohi Pero'zning eftaliylarga qarshi 484-yilgi yurishi qanday oqibatga olib keladi?

- A) eftaliylarning tor-mor etilishi va juda og'ir miqdorda o'lpon to'lash majburiyatini yuklanishiga
- B) Eron tomonidan Eftaliylar davlatining egallanishiga
- S) eftaliylar va sosoniylar o'rtasida do'stlik bitimining tuzilishiga
- D) Pero'zning halokati, eftaliylar tomonidan Marvning ishg'ol qilinishi, Eron ustiga juda og'ir o'lpon yuklanishiga

60. Sosoniylar shohi Kubodning hukmronlik yillarini aniqlang.

- A) 309-379-yillar
- B) 531-579-yillar
- S) 459-484-yillar
- D) 488-531-yillar

61. Sosoniylar davlatida kimlarning hukmronligi davrida eftaliylar bilan munosabatlar ancha yumshab, tinchlik tusini olgan?

- A) Kubod va Anushervon
- B) Shopur II va Pero'z
- S) Shopur I va Shopur II
- D) Ardasher I va Shopur I

62. Ilk o'rta asrlarning qudratli davlati hisoblangan Eftaliylar davlati qachon tashkil topgan?

- A) V asrning II yarmi va VI asrning boshlarida
- B) IV asrning oxiri va V asrning boshlarida
- S) V asr o'rtalarida
- D) V asrning I yarmida

63. Ilk o'rta asrlarning qudratli davlati hisoblangan Eftaliylar davlati qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?

- 1) O'rta Osiyo; 2) mo'g'uliston; 3) Sharqiy Eron; 4) Shimoliy Hindiston; 5) Vizantiya; 6) Sharqiy Turkiston; 7) Shimoliy Afg'oniston; 8) Shimoliy Xitoy.
- A) 1, 3, 4, 6
- B) 1, 3, 6, 8
- S) 1, 2, 4, 7, 8
- D) 1, 2, 3, 7

64. Eftaliylar so'zi qaysi so'zdan olingan?

- A) "Eftalon" deb yuritilgan shoh nomidan
- B) eftal nomli ko'chmanchi chorvador qabila nomidan
- S) "Xeptal" deb yuritilgan qabila sardori nomidan
- D) Xeptal daryosi nomidan

65. Eftaliylarning asosiy mashg'uloti nima bo'lgan?

- A) chorvachilik
- B) ziroatchilik
- S) savdo-sotiq
- D) hunarmanchilik

66. Eftaliylar davlatida qaysi hududlar dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblangan?

- A) Toxariston va Sug'd
- B) Chag'oniyon va Badaxshon

- S) Kobul va Koshg'ar
D) Marv va Balx

67. V-VI asrlarda O'rta Osiyoning qaysi hududlarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan?

- A) Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'ylarida
B) Amudaryoning quyi oqimida
S) Sirdaryo bo'ylari va Farg'ona vodiysida
D) Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida

68. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona vodiysi o'zining qanday hususiyati bilan mashhur edi?

- A) sifatli chinnilari bilan
B) ziravorlari bilan
S) zotli otlari bilan
D) bog'dorchilik markazi bo'lganligi bilan

69. Nima sababdan ilk o'rta asrlarda qishloq jamoasining kashovarz (erkin qo'shchi)lari qaram kadivarlarga aylana borgan?

- A) dehqonchilikda kadivarlarning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylana borishi
B) ekin yer maydonlarining ma'lum bir qismi dehqonlar qo'lida to'plana borishi
S) ekin yer maydonlarining ko'pgina qismi qishloq jamoalari qo'lida to'plana borishi
D) ekin yer maydonlarining ma'lum bir qismi qishloq oqsoqoli qo'lida to'plana borishi

70. Ilk o'rta asrlarda yaylovlarning asosiy qismi kimlarning tasarrufida bo'lgan?

- A) qabila va urug' jamoalari va ularing oqsoqollari xvabulari
B) qishloq oqsoqollari
S) yirik chorvadorlar
D) dehqonlar

71. Hozirgi vaqtda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan Zog'ariq va Bo'zsuv kanallari qachon barpo etilgan?

- A) XV asrda
B) V asrda
S) XVIII asrda
D) milodiy III asrda

72. Ilk o'rta asrlarda barpo etilgan Darg'om kanali hozirda O'zbekistonning qaysi hududida asosiy suv ombori hisoblanadi?

- A) Qashqadaryo viloyati va Surhondaryoning shimoliy tumanlarida
B) Farg'ona vodiysida
S) Samarqand viloyati janubiy tumanlarida
D) Xorazm va Orol bo'yi atrofida

73. V asrda O'zbekiston hududida barpo etilgan kanallar nomini aniqlang.

- 1) Ulug'nor; 2) Shahrixonsoy; 3) Zog'ariq; 4) Yangiariq;
5) Bo'zsuv; 6) Darg'om; 7) Tuyatortar.

- A) 3, 5, 6
B) 1, 3, 6, 7
S) 2, 4, 5
D) 1, 2, 4

74. Eftaliylar davlati "Buyuk Ipak yo'li" orqali qaysi davlatlar bilan xalqaro savdoda faol qatnashardi?

- A) Xitoy, Hindiston va O'rtayer dengiz davlatlari bilan
B) Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan
S) Xitoy, Eron va Bolqon yarimoroli davlatlari bilan
D) Hindiston, Vizantiya va Franklar qirolligi bilan

75. V-VI asrlarda Ipak yo'li savdosida asosan kimlar sosoniy savdogarlari bilan raqobatda vositachilik rolini o'ynardi?

- A) usmonli turklar
B) xitoyliklar
S) xioniylar
D) sug'diylar

76. Eftaliylar dastavval ichki va tashqi savdo munosabatlarida kimlarning kumush tangalaridan keng foydalandilar?

- A) kidariylar
B) xitoyliklar
S) sosoniylar
D) xioniylar

77. V-VI asrlarda chaqa tangalar O'rta Osiyoning qaysi hududlarida chiqarilgan?

- 1) Buxoro 2) Poykand 3) Toxariston 4) Vardona 5) Naxshab 6) Chag'oniyon 7) Samarqand; 8) Xorazm; 9) Badaxshon
A) 1, 3, 5, 7, 9
B) 1, 2, 4, 5, 7, 8
S) 2, 4, 6, 8, 9
D) 2, 3, 6, 7, 8, 9

78. Eftaliylarda davlat boshqaruvida qonun va qoidalarning qaror topishiga asosiy sabab nima edi?

- A) aholining tabaqalanishi, mulkiy tengsizlikning kuchayib borishi
B) qishloqlarda dehqonlar nufuzining ortib ketishi
S) aholining tabaqalanishi
D) mamlakatda o'zaro ichki kurashning avj olishi

79. V-VI asrlarda O'rta Osiyoda ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalariga kelib o'rashishi natijasida ...

- A) dehqonlarga qaram bo'lgan kadivarlar tabaqasi ko'paya bordi
B) shaharlarning soni ko'paya bordi
S) dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o'troq aholining hayotiga kirib bordi
D) sug'orish inshootlari takomillashdi

80. V-VI asrlarda O'rta Osiyoning qaysi vohalarida ko'chmanchilar tezda o'troqlasha olganlar?

- A) Quyi Amudaryo va Xorazmda
B) Buxoro va Naxshab

- S) Farg'ona vodiysida
D) Toxariston va Sharqiy Sug'dda

81. Ma'lumki, eftaliylar davri binokorligi va me'morchiligida ikki qavatli qasrlar alohida o'rin tutgan bo'lib, qasrlarning yuqori qismiga maxsus ko'tarma orqali chiqilgan? Bu ko'tarma nima deb ataladi?

- A) pandus
B) to'brez
S) kuren
D) chohpar

82. Ma'lumki, V-VI asrlarda O'rta Osiyo aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida qaysi til muhiti hukmron edi?

- A) nog'ay tili
B) turkiy til
S) sug'd tili
D) uyg'ur tili

83. V-VI asrlarda O'rta Osiyoda qaysi til xalqaro savdo tili edi?

- A) nog'ay tili
B) turkiy til
S) sug'd tili
D) uyg'ur tili

84. Quyidagi qaysi til Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlargacha kirib borgan?

- A) Xorazm tili
B) fors tili
S) sug'd tili
D) nog'ay tili

85. Baqtriya yozuvi asosida vujudga kelgan yozuv nomini aniqlang?

- A) eftaliylar yozuvi
B) Sug'd yozuvi
S) Xorazm yozuvi
D) oromiy yozuvi

86. V-VI asrlarda O'rta Osiyo hududida qanday yozuvlar tarqalgan edi?

1) Sug'd yozuvi; 2) oromiy yozuvi; 3) Xorazm yozuvi; 4) Baqtriya yozuvi; 5) eftaliy yozuvi; 6) kushon yozuvi; 7) kirill yozuvi.

- A) 1, 3, 5
B) 2, 4, 6, 7
S) 2, 3
D) 1, 3, 4

87. Eftaliylar yozuviga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.

1) Xorazm yozuvining vujudga kelishiga asos bo'lgan; 2) Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'lgan; 3) o'ngdan chapga tomon ko'ndalangiga yozilgan; 4) 22 harfdan iborat; 5) Sug'd yozuvi asosida vujudga kelgan; 6) chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan; 7) 26 harfdan iborat;

- 8) Toxariston yozuvining vujudga kelishiga asos bo'lgan;
9) Oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan.

- A) 1, 3, 5, 7,
B) 2, 4, 6
S) 5, 6
D) 2, 3, 7, 8

88. Qachon o'rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar?

- A) III asrda
B) IV asrda
S) V asrda
D) XII asrda

89. Etnik munosabatlar — bu ...

- A) xalq va elatlarning kelib chiqishi
B) dehqonlar va oddiy o'rtasidagi munosabatlar
S) urug' va qabilalar o'rtasidagi o'zaro munodabatlar
D) aholining o'zaro munosabatlari

90. Pandus nima?

- A) tashqi shahar, karvonsaroy
B) bino yuqorisiga chiqaruvchi maxsus ko'tarma yo'l
S) toshotar; harbiy qurol
D) otashparastlar ibodatxonasi

91. Qaysi hududda yashovchi turkiy qabilalar Turk xoqonligi davlatiga asos solishdi?

- A) Oltoy va Janubiy Sibirda
B) Sharqiy Turkiston va Yettisuvda
S) Sirdaryo va Orol bo'ylari
D) Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo'ylarida

92. Turk xoqonligi davlati qachon va kim tomonidan asos solingan?

- A) IV asr o'rtalarida To'nyabg'u tomonidan
B) V asr oxirlarida Istami tomonidan
S) VI asr o'rtalarida Bumin tomonidan
D) VI asrning ikkinchi yarmida Bumin tomonidan

93. 55-yilda ...

- A) turklarning g'arbga tomon yurishi boshlandi
B) Bumin "xoqon" deb e'lon qilindi
S) turklar Yoyiq va Itil bo'ylarini zabt etdi
D) sosniylar Toxariston va Chag'oniyonni eftaliylardan tortib oldilar

94. VI-VII asrlarda O'zbekiston hududida qanday davlat mavjud edi?

- A) Turk xoqonligi
B) Eftaliylar davlati
S) Arab xalifaligi
D) Kidariylar davlati

95. Turk xoqonligining markazi hisoblangan shahar nomini aniqlang?

- A) Toxariston
B) Oltoy

- S) Balx
- D) Marv

96. Quyidagilardan qaysi biri "Yabg'u xoqon" unvonini olgan?

- A) Eltarish
- B) Bumin
- S) Istami
- D) Qoracho'rin

97. Bumin kim?

- A) Istamiga kuyov bo'lgan fors shohi
- B) 618-630-yillarda turk xoqoni
- S) g'arbga tomon yurishlarda turklarga boshchilik qilgan el-yurt hokimi
- D) Turk xoqonligining asoschisi

98. Turklarning g'arbga tomon yurishiga kim boshchilik qilgan?

- A) Eltarish
- B) Bumin
- S) Istami
- D) Qoracho'rin

99. Qachon turklar Sirdaryo va Orol bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallaydi?

- A) 555-yilda
- B) 558-yilda
- S) 575-yilda
- D) 576-yilda

100. Sirdaryo va Orol bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallagan Turk xoqonligi chegaralari qaysi davlat hududlariga borib yondoshadi?

- A) Xitoy davlati
- B) Sosoniylar davlati
- S) Eftaliylar davlati
- D) Vizantiya imperiyasi

101. 558-yilda turklar ...

- A) Eftaliylar davlatiga zarba berdilar
- B) yangi Turk xoqonligi davlatiga asos soldilar
- S) Yoyiq va Itil bo'ylarini zabt etdi
- D) Toxariston va Chag'oniyonni egalladilar

102. Qaysi voqeadan keyin turklar Qrim yarim oroliga kirib bordilar?

- A) turklarning Shimoliy Kavkaz yerlarini egallashi
- B) turklarning Yoyiq va Itil boylarini zabt etishi
- S) Buminning "xoqon" deb e'lon qilinishi
- D) turklarning eftaliylar bilan to'qnashishi

103. VI asr oxirgi choragida sosoniylar eftaliylardan qaysi hududlarni tortib oladilar?

- A) Parak vodiysi va Choch shahrini
- B) Toxariston va Chag'oniyonni
- S) Toxariston va Badaxshonni
- D) Samarqand va Xorazmni

104. Qachon turklar Shimoliy Kavkaz yerlarini egallaydilar?

- A) 575-576 yillarda
- B) 558-yilda
- S) 55-yilda
- D) 579-583-yillarda

105. Ma'lumki, turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha bo'lgan yerlarni egallagach, Turk xoqonligining eftaliylar bilan to'qnashishi muqarrar bo'lib qoladi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni qaysi davlatlar bilan yaqinlashtiradi?

- A) Eron va Kidariylar davlati
- B) Xitoy va Eron
- S) Arab xalifaligi va Vizantiya
- D) Eron va Vizantiya

106. Nima sababdan turklarning eftaliylar bilan to'qnashishi arafasida Eron davlati va Turk xoqonligi yaqinlasha bordi?

- A) sosoniylar eftaliylardan o'zlarining Marv va Badaxshon hududlarini qaytarib olish kerak edi
- B) turklar va sosoniylar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra sosoniylar eftaliylar tasarrufidagi Toxariston va Chag'oniyonni olish kerak edi
- S) eftaliylar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi
- D) sosoniylar shohi Xusrav I turklarning yabg'u xoqoni Istamiga kuyov bo'lgan edi

107. Turklarning Yabgu xoqoni Istamiga kuyov bo'lgan sosoniylar shohini aniqlang.

- A) Xusrav I
- B) Shopur II
- S) Pero'z
- D) Kubod

108. Sosoniylarning qaysi shaharga hujumi ko'magida turklar Eftaliylar davlati yerlariga bostirib kiradilar?

- A) Badaxshon
- B) Marv
- S) Balx
- D) Chag'oniyon

109. Qachon Turk xoqonligi Eftaliylar davlati hududiga bostirib kirdi?

- A) 567-yilda
- B) 558-yilda
- S) 563-yilda
- D) 579-yilda

110. Necha kun davom etgan shiddatli jangda eftaliylar sosoniylardan yengiladilar?

- A) 7 kun
- B) 15 kun
- S) 8 kun
- D) 3 kun

111. Ilk oʻrta asrlardagi qudratli Eftaliylar davlati nechanchi yillarda va qaysi davlatlarning zarbalari natijasida barbod boʻldi.

A) 563-567-yillarda janubdan Eron sosoniylari va shimoldan Turk xoqonligi zarbalari natijasida

B) 569-583-yillarda janubdan Vizantiya va shimoldan Turk xoqonligi zarbalari natijasida

S) 563-564-yillarda shimolda Turk xoqonligining zabasi natijasida

D) 567-583-yillarda janubda Eron sosoniylari va shimolda Turk xoqonligi zarbalari natijasida

112. Eftaliylar davlati barham topgach, uning hududlari qaysi davlatlar oʻrtasida va qay tariqa taqsimlanadi?

A) Amudaryoning janubiy qirgʻoqlarigacha boʻlgan viloyatlar Eron, uning sohillari boʻylab Kaspiy dengizgacha choʻzilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga oʻtadi

B) Eron va Vizantiya oʻrtasida taqsimlanib, chegara Talikon yaqinida belgilandi

S) Sirdaryoning janubiy qirgʻoqlarigacha boʻlgan viloyatlar Eron, uning sohillari boʻylab Kaspiy dengizgacha choʻzilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga oʻtadi

D) hududlar Vizantiya va Arab xalifaligi oʻrtasida taqsimlanib, chegara Amudaryo qilib belgilandi

113. VI asrning 70-80-yillarida qaysi davlat Amudaryodan to Suriyaga qadarli Ipak yoʻli ustidan haqiqiy sarbon boʻlib oladi?

A) Eron

B) Turk xoqonligi

S) Vizantiya

D) Xitoy

114. VI asrning 70-80-yillarida Turk xoqonligi hududini aniqlang.

A) Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo boʻylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha choʻzilgan hudud

B) Sirdaryo boʻylaridan to Amudaryo havzasigacha boʻlgan hudud

S) Oʻrta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlari

D) Janubiy Sibirdan to Amudaryo boʻylarigacha, Xitoydan to Oʻrtayer dengizigacha choʻzilgan hudud

115. Ilk oʻrta asrlardagi turkiy zabon davlatlarining qaysi biri ulkan hududga ega boʻlmasin, chinakam markazlashgan davlat emas edi?

A) Eftaliylar davlati

B) Turk xoqonligi

S) Kidariylar davlati

D) Afrigʻiylar davlati

116. VI asr oxiri -VII asr boshlarida Oʻrta Osiyo hududini boshqargan hukmdor nima deb atalgan?

A) podshoh

B) xoqon

S) tamgʻachxon

D) amir

117. Turk xoqonligi hukmdorining hokimiyati ...

A) qishloqlarda eng nufuzli dehqonlar qoʻlida edi

B) xalq hokimiyatiga asoslangan edi

S) barcha huquqlarga ega boʻlgan yakka hokimlikka asoslangan edi

D) urugʻ-aymoq udumlariga tayangan harbiy-maʼmuriy boshqaruvga asoslangan edi

118. Turk xoqonligi davlatida aholi qanday turlarga boʻlingan?

A) zodagonlar va qullar

B) koʻchmanchi chorvador va oʻtroq chorvador

S) hunarmandlar va savdogarlar

D) budun va oʻtroq dehqon

119. Turk xoqonligida chorvador aholi qanday nomlangan?

A) periyek

B) budun

S) qora budun

D) B va S

120. Maʼlumki, turklarning gʻarbga tomon yurishiga boshchilik qilgan Istemi “Yabgʻu xoqon” unvonini olgan. Yabgʻu xoqon nima?

A) oʻn ming qoʻshin qoʻmondoni

B) xoqon urugʻidan boʻlgan el-yurt hokimi

S) buyuk hukmdor, podshoh, imperator

D) xonlarning xoni

121. “Oʻn oʻq budun” — bu ...

A) koʻchmanchi chorvador aholi

B) qabilalar ittifoqi birlashmasi

S) dehqon boʻlgan aholi

D) oʻn minglik qoʻshin

122. Turk xoqonligida faqat kimlarga “Yabgʻu” darajasiga koʻtarilgan?

A) xoqon urugʻiga qon-qarindosh boʻlganlar

B) qishloq oqsoqollar

S) harbiy xizmatni oʻtagan yigitlar

D) qishloqlarda yuqori nufuzga ega boʻlgan dehqonlar

123. Turk xoqonligida oʻn ming qoʻshin qoʻmondoni nima deb atalgan?

A) qoon

B) yabgʻu

S) xoqon

D) shad

124. Maʼlumki, VI asrda Oʻrta Osiyo hududlarida oʻndan ortiq mayda hokimliklar boʻlgan. Turklar bu hokimliklardan qanday soliqlar undirgan?

A) xiroj va jizʼya

B) xiroj va yasoq

S) boj va yasoq

D) zakot va jizʼya



125. VI asrda O'rta Osiyoning qaysi hududlarida o'ndan ortiq mayda hokimliklar mavjud bo'lgan?

- A) Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida
- B) Sirdaryo va Chirchiq havzalarida
- S) Balx, Marv va Badaxshonda
- D) Badaxshon va Chag'aniyonda

126. Qanday omillar Turk xoqonligining markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermadi?

- 1) katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqining markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilishi;
 - 2) janubdan doimiy sosoniylar tazyiqi;
 - 3) eftaliylar avlodlarining hokimiyatni o'z qo'liga olishga intilishi;
 - 4) hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo'lishga intilishi;
 - 5) eftaliylar avlodlarining hokimiyatni o'z qo'liga olishga intilishi;
 - 6) Turk xoqonligining Vizantiya, Xitoy va Eron bilan munosabatlarining keskinlashishi.
- A) 1, 5
 - B) 1, 3, 6
 - S) 2, 4, 5
 - D) 1, 4, 6

127. Turk xoqonligi qachon ikki qismga bo'linib ketdi?

- A) VII asrning o'rtalarida
- B) VI asrning o'rtalarida
- S) VII asrning boshlarida
- D) VI asrning 80-yillari oxirlari

128. Turk xoqonligining Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketishining asosiy sababi nimada edi?

- A) hududlarda mustaqil hokimliklarning ko'payib ketishi
- B) markazlashgan hokimiyatning yo'qligi hi
- S) mamlakatdagi o'zaro ichki urushlar
- D) Turk xoqonligi maydonining kattaligi

129. Ma'lumki, 395-yil qudratli Rim imperiyasi Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketadi. Xuddi shunday bo'linish yana qaysi tavlarga xos?

- A) Turk xoqonligi
- B) Arab xalifaligi
- S) Sosoniylar davlati
- D) Temuriylar davlati

130. Ma'lumki, VI asrning 80-yillarida Turk xoqonligi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketadi. G'arbiy turk xoqonligi tasarrufiga qaysi hududlar kirgan?

- A) O'rta Osiyo Sharqiy Turkistonning bir qismi
- B) mo'g'uliston va Xitoyning bir qismi
- S) Oltoy va Janubiy Sibir
- D) O'rta Osiyo va Eronning bir qismi

131. G'arbiy turk xoqonligining markazini aniqlang.

- A) Balx
- B) Yettisuv

- S) Marv
- D) Badaxshon

132. Sharqiy turk xoqonligi aholisining asosiy qismi nima bilan shug'ullanardi?

- A) savdo-sotiq
- B) hunarmandchilik
- S) chorvachilik
- D) dehqonchilik

133. Qachon G'arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchaydi?

- A) VII asrning birinchi choragida
- B) VII asrning o'rtalarida
- S) VI asrning oxirlarida
- D) VII asrning oxirlarida

134. Ga'arbiy turk xoqonligi aholisining asosiy qismi nima bilan mashg'ul edi?

- A) dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq
- B) dehqonchilik
- S) chorvachilik
- D) savdo-sotiq

135. Kimning hukmronligi davrida G'arbiy turk xoqonligida boshqaruv tartiblari isloh qilinadi?

- A) Qoracho'rin
- B) To'nyabg'u
- S) Sheri Kishvar
- D) Bumin

136. G'arbiy turk xoqonligida nima maqsadda mahalliy hukmdorlarga "yabg'u" unvoni berilgan?

- A) mamlakatdagi urug' va qabilalarni xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash
- B) viloyat hokimlarini rag'batlantirish va hukmdor faoliyatini qo'llab-quvvatlash
- S) mamlakatdagi tarqoq urug' va qabilalarni birlashtirish
- D) viloyat hokimlarining xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish

137. G'arbiy turk xoqoni To'nyabg'uning hukmronlik yillarini aniqlang.

- A) 630-648-yillar
- B) 603-618-yillar
- S) 618-630-yillar
- D) 625-636-yillar

138. Turk xoqonligining viloyatdagi noibi nima deyiladi?

- A) budun
- B) tudun
- S) yabg'u
- D) xoqon

139. G'arbiy turk xoqonligining zaiflashishiga sabab nima edi?

- A) o'zaro ichki kurash
- B) Eron davlatining tazyiqi
- S) ko'chmanchi yuehji qabilalarining hujumi

D) Sharqiy turk xoqonligining tazyiqi

140. Turk xoqonligida mulkdorlarning eng yirik vakili kim edi?

- A) xoqon
- B) tudun
- S) yabg'ʻu
- D) shad

141. Sarrojlik — bu ...

- A) egar-jabduq yasash
- B) zargalik faoliyati
- S) arava yasash
- D) miskarlik

142. VI-VII asrlarda Oʻrta Osiyoning qaysi hududida qoʻrgʻoshin, kumush va oltin qazib olinardi?

- A) Fargʻona
- B) Eloq
- S) Sugʻd
- D) Badaxshon

143. Turk xoqonligi davrida ichki va tashqi savdo-sotiqda kimlarning mavqe baland edi?

- A) Fargʻona savdogarlarining
- B) Sugʻd savdogarlarining
- S) Yettisuv savdogarlarining
- D) Badaxshon savdogarlarining

144. Nima sababdan VII asrda Turk xoqonligi uchun ahamiyatli boʻlgan karvon yoʻllari janubdan shimol tomonga koʻchgan?

- A) xitoyliklarning doimiy tazyiqi
- B) Eron bilan munosabatlarning keskinlashuvi
- S) Vizantiya bilan munosabatlarning keskinlashuvi
- D) janubdan arablarning hujumi

145. Qachon Gʻarbiy turk xoqonligi bilan Xitoy oʻrtasida iqtisodiy aloqalar ayniqsa faollashdi?

- A) VII asrning ikkinchi yarmida
- B) VII asrning boshida
- S) VII asrning birinchi yarmida
- D) VI asrning oxirida

146. 627-yilda ...

- A) turklar Yoyiq va Itil boʻylarini zabt etdi
- B) Buxoroda Abruy boshchiligida qoʻzgʻolon boʻlib oʻtdi
- S) Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Usturushonadan birlashgan katta savdo karvoni Xitoyga yetib bordi
- D) sosoniylar Toxariston va Chagʻoniyonni eftaliylardan tortib oldilar

147. Buxorodagi Abruy qoʻzgʻoloni qachon boʻlib oʻtgan?

- A) 685-686-yillarda
- B) 627-yilda
- S) 585-586-yillarda
- D) 615-617-yillarda

148. Ilk oʻrta asrlarda koʻtarilgan Buxorodagi Abruy qoʻzgʻolonining sababi nima edi?

- A) qashoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asorati
- B) dehqonlar asorati
- S) mamlakatdagi 10 dan ortiq turli xil soliqlarning yigʻilishi
- D) doimiy harbiy yurish

149. Buxoroda Abruy qoʻzgʻoloni davom etayotgan bir paytda turk xoqoni kim edi?

- A) Toʻnyabgʻu
- B) Qorachoʻrin
- S) El Arslon
- D) Istemi

150. Abruy qoʻzgʻolonini bostirgan turk sarkardasini aniqlang.

- A) Qutlugʻxon
- B) Divashtich
- S) El Arslon
- D) Suketu Cherbi

151. Sheri Kishvar kim?

- A) 704-yil Xuroson noibi boʻlgan arab sarkardasi
- B) 585-586-yillari Buxoroda boʻlib oʻtgan qoʻzgʻolon boshchisi
- S) 618-630-yillarda hukmronlik qilgan Gʻarbiy turk xoqoni
- D) Abruy qoʻzgʻolonini bostirgan sarkarda

152. Ilk oʻrta asrlarda Oʻzbekiston hududida 15 dan ortiq bir qancha hokimliklarning tashkil topishi nechanchi asrlarga toʻgʻri keladi?

- A) V-VII asrlar
- B) IV-V asrlar
- S) VII-VIII asrlar
- D) VII-IX asrlar

153. Ilk oʻrta asrlarda mahalliy hokimliklar markaziy hokimiyatga boj toʻlab turish bilan ...

- A) oʻz mutaqilligini maʼlum darajada saqlab turardilar
- B) hokimliklar orasida oʻz mavqeni oshirib olardilar
- S) hokimning oʻzgartirilmasligini birmuncha saqlab qolardilar
- D) birmuncha vaqtga boʻlsa-da mustaqil ish yuritardilar

154. V-VII asrlarda Oʻrta Osiyodagi mustaqil viloyatlarning hukmdorlari kimlarga tayanardilar?

- A) mulkdor dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga
- B) urugʻ va qabila boshliqlariga
- S) qishloq oqsoqollariga
- D) mulkdor dehqonlar va ularning kadivarlariga

155. Ilk oʻrta asrlardagi mustaqil hokimliklarning eng yirigi qaysi biri edi?

- A) Choch
- B) Fargʻona
- S) Toxariston
- D) Sugʻd

156. Ilk oʻrta asrlarda Sugʻd hukmdorlari nima deb atalgan?

- A) tudun
- B) xoqon
- S) qoon
- D) ixshid

157. Najjorlik — bu ...

- A) qurolsozlik
- B) zargalik
- S) duradgorchilik
- D) chilangarlik

158. Toxaristonning poytaxtini aniqlang.

- A) Marv
- B) Balx
- S) Nishopur
- D) Yettisuv

159. Toxariston avval eftaliylar, soʻngra ... tomonidan boʻysundirilgan.

- A) Turk xoqonligi
- B) sasoniylar
- S) Arab xalifaligi
- D) Vizantiya

160. Quyidagi qaysi hudud aholisi budda diniga eʼtiqod qilgan?

- A) Sugʻd
- B) Toxariston
- S) Fargʻona
- D) Choch

161. Toxariston yozuviga xos hususiyatlarni aniqlang.

- A) Sugʻd yozuvi asosida vujudga kelgan, Xorazm yozuvining vujudga kelishiga asos boʻlgan va chapdan oʻngga tomon koʻndalangiga yozilgan
- B) 22 harfdan iborat va u Baqtriya yozuvi asosida paydo boʻlgan
- S) Oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan va oʻngdan chapga tomon koʻndalangiga yozilgan
- D) 25 harfdan iborat va u koʻndalangiga chapdan oʻngga qarab yozilgan

162. Toxariston aholisi asosan qaysi dinga eʼtiqod qilgan?

- A) budda
- B) nasroniylik
- S) zardushtiylik
- D) shomon

163. Ilk oʻrta asrlarda Toxariston aholisining asosiy qismi nima bilan shugʻullangan?

- A) chorvachilik
- B) oʻtroq dehqonchilik
- S) hunarmandchilik
- D) savdo-sotiq

164. Toxariston chokarlari nimalar bilan qurollangan edi?

1) kamon; 2) gurzi; 3) qalqon; 4) choʻqmor; 5) xanjar; 6) toʻr; 7) shamshir; 8) sovut; 9) uch ayrili nayza.

- A) 1, 2, 4, 5, 7, 8
- B) 1, 3, 5, 6, 7, 9
- S) 1, 2, 4, 7, 9
- D) 2, 3, 5, 6, 8, 9,

165. Quyidagi qaysi hudud hukmdorlari “ixshid” deb atalgan?

- A) Choch va Iloq
- B) Sugʻd va Fargʻona
- S) Sugʻd va Toxariston
- D) Toxariston va Choh

166. Ilk oʻrta asrlarda Fargʻonaning qanday yirik markaziy shaharlari mavjud edi?

- A) Yettisuv, Axsikat, Quva va Parkana
- B) Koson va Andijon
- S) Koson, Axsikat va Quva
- D) Andijon, Quva va Parkana

167. Fargʻonaning qaysi togʻlari yonbagʻirlarida qadimdan jahonga mashhur boʻlgan tulpor otlarni yetkazib beruvchi yilqichilik bilan shugʻullanilgan?

- A) Boʻysun va Shohimardon
- B) Qurama va Shohimardon
- S) Qoramozor va Boʻysun
- D) Qurama va Qoramozor

168. Ixshid — bu ...

- A) viloyat hokimi
- B) oʻn minglik qoʻshin qoʻmondoni
- S) buyuk hukmdor, podshoh
- D) xoqon urugʻidan boʻlgan el-yurt hokimi

169. Quyidagi qaysi hokimliklar Chirchiq va Ohangaron vodiylarida mavjud boʻlgan?

- A) Choch va Iloq
- B) Sugʻd va Toxariston
- S) Badaxshon va Chagʻoniyon
- D) Toxariston Iloq

170. Quyidagi qaysi hokimlikni “dehqon” deb atalgan hukmdor boshqargan?

- A) Fargʻona
- B) Choch va Iloq
- S) Choch
- D) Iloq

171. Choch viloyatining markazi qaysi shahar va uning hukmdori nima deb yuritilgan?

- A) markazi Balx shahri va hukmdori “dehqon” deb yuritilgan
- B) markazi Tunkat shahri va hukmdori “tudun” deb yuritilgan
- S) markazi Quva shahri va hukmdori “ixshid” deb yuritilgan
- D) markazi Choch shahri va hukmdori “tudun” deb yuritilgan

172. Tunkat shahri ilk oʻrta asrlarda qaysi hokimlik



markazi hisoblangan?

- A) Sug'd
- B) Choch
- S) Toxariston
- D) Iloq

173. Ilk o'rta asrlarda qanday omil Choch va Iloqqa ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon berdi?

- A) sug'orish inshootlarining barpo etilishi
- B) dehqonchilikdagi yutuqlar
- S) sug'orma dehqonchilik maydonlarining kengayishi
- D) karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi

174. Tudun nima?

- A) Choch viloyati hukmdori
- B) chorvador aholi
- S) shaharning hokim qasri joylashgan qismi
- D) oliy hukmdor, podshoh, imperator
- E) o'troq dehqonlar

175. Kimlar old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar?

- A) Choch tudunlari
- B) Afrig'iylar
- S) Arab xalifalari
- D) Turk xoqonlari

176. Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgan edi. Boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi nima edi?

- A) fuqarolarni dehqonlar qaramligidan ozod etish va ularni jamoat ishlariga safarbar etish
- B) hokimliklar o'rtasidagi tinchlikni ta'minlash va ularni nazorat qilish
- S) fuqarolarda boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish va jamoat ishlariga ularni safarbar etish
- D) mamlakatda huquqbuzarlikni oldini olish va jinoyatchilarni jazolash

177. V-VII asrlarda O'rta Osiyoda qay turdagi turar joylar qad ko'tardi?

- 1) ko'shk; 2) to'r; 3) o'rdugoh; 4) qasr; 5) qo'rg'on; 6) qo'rg'oncha; 7) madrasa.
- A) 1, 3, 5, 7
- B) 2, 4, 6
- S) 1, 4, 5, 6
- D) 3, 4, 5

178. V-VII asrlarda ko'shk va qasrli qo'rg'on kabi istehkomli turar joylarda kimlar yashar edi?

- A) hukmdor va uning oilasi
- B) qishloq oqsoqollari
- S) mulkdor dehqonlar
- D) ziroatchi mehnatkashlar

179. V-VII asrlarda istehkomli qasr, qo'rg'on va

ko'shklar asosan qanday vazifalarni o'tagan?

- 1) tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti;
- 2) oliy ilmgoh markazi; 3) chokarlar to'planadigan joy; 4) qurol-yarog' saqlanadigan ombor; 5) bozor; 6) otashparastlar ibodatxonasi; 7) ma'muriy markaz
- A) 1, 3, 4, 7
- B) 2, 4, 6
- S) 1, 3, 5, 7
- D) 3, 6

180. O'rta asrlarda shaharlar necha qismdan iborat bo'lgan va ular nima deb yuritilgan?

- A) ikki qismdan: shahriston, karvonsaroy
- B) ikki qismdan: ark, karvonsaroy
- S) to'rt qismdan: ark, karvonsaroy, shahriston, ibodatxona
- D) uch qismdan: ark, shahriston, rabod

181. O'rta asrlarda shaharning hokim qasri joylashgan qismi nima deyiladi?

- A) qasr
- B) rabod
- S) ark
- D) rabod

182. Shahriston — bu ...

- A) shaharning tashqi mavzesi
- B) shaharning ichki qismi
- S) shaharning hokim qasri joylashgan qismi
- D) oliy ilmgoh markazi

183. O'rta asrlarda shaharlarning tashqi mavzesi nima deb ataladi?

- A) ark
- B) rabot
- S) shahriston
- D) rabod

184. O'rta asrlarda shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor mudofaa inshooti vazifasini bajarardi. Ushbu mudofaa inshooti nima deb nomlanadi?

- A) qaznoq
- B) rabot
- S) xandaq
- D) band

185. O'rta asr shaharlarining uch qismidan biri bo'lgan ark qanday ma'noni anglatadi?

- A) shaharning hokim qasri joylashgan qismi
- B) shaharning tashqi mavzesi
- S) shaharning ichki qismi
- D) oliy ilmgoh markazi

186. VI-VII asrlarda O'zbekiston hududida qanday yozuvlar mavjud edi?

- A) sug'd, xorazm va toxar
- B) sug'd, kushon va oromiy
- S) toxar, baxtar
- D) kushon-baqtriya va oromiy

187. Quyidagi yozuvlardan qaysi biri qadimgi oromiy



yozuvi asosida vujudga kelgan?

- A) toxar
- B) sug'd va xorazm
- S) baxtar
- D) sug'd

188. Ilk o'rta asrlardagi Toxariston aholisining yozuvi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?

- A) oromiy
- B) kushon
- S) baxtar
- D) sug'd

189 V-VII asrlarda O'rta Osiyo hududida xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktublar qanday buyumga bitilardi?

- A) charm
- B) yog'och
- S) sopol
- D) barcha javoblar to'g'ri

190. Quyidagi qaysi yodgorliklardan sug'd yozuvlari namunalari topilgan?

- 1) Qal'ai Mug'; 2) Ajinatepa; 3) Bolaliktepa; 4) Varaxsha;
- 5) Turfan; 6) Qiziltepa; 7) Kaltaminor;
- 8) Afrosiyob
- A) 1, 5, 7
- B) 1, 5, 8
- S) 2, 4, 6, 8
- D) 1, 3, 5, 7

191. Ilk o'rta asrlarda Sug'dda o'gil bolalar necha yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilgan?

- A) 7 yoshga
- B) 6 yoshga
- S) 5 yoshga
- D) 8 yoshga

192. Sug'd xati asosida ... yozuvlari shakllangan.

- A) toxar va baxtar
- B) toxar va xorazm
- S) mo'g'ul va manjur
- D) uyg'ur va turk

193. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan mo'g'ul va manjur xatlari qaysi yozuv asosida paydo bo'lgan?

- A) uyg'ur yozuvi
- B) kushon yozuvi
- S) baxtar yozuvi
- D) sug'd yozuvi

194. Ma'lumki, VI-VII asrlarda Sug'd o'gil bolalari 5 yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilgan. 20 yoshga to'lganlarida nima bilan shug'ullanishgan?

- A) harbiy xizmatga jo'natilgan
- B) savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilgan
- S) dunyo ilmini o'rganish maqsadida oliy o'quv yurtlariga kirishardi
- D) harbiy ilmni o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga

jo'natilgan

195. Ko'kturk xati necha harflardan iborat?

- A) 25 ta
- B) 28 ta
- S) 38-40 ta
- D) 32-34 ta

196. VI-VII asrlarda mavjud bo'lgan qaysi yozuv tosh va yog'ochlarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi?

- A) xorazm yozuvi
- B) sug'd yozuvi
- S) toxar yozuvi
- D) ko'kturk yozuvi

197. Mo'g'uliston hududidan topilgan Kultegin va Bilga xoqon bitiklari qaysi xat asosida yozilgan?

- A) mo'g'ul yozuvi
- B) runik yozuvi
- S) sug'd yozuvi
- D) ko'kturk yozuvi

198. VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda qanday mahalliy dinlar mavjud bo'lgan?

- 1) zardushtiylik 2) buddaviylik 3) islom 4) hinduiylik 5) yahudiylk 6) xristianlik 7) moniylik 8) sintoiylik 9) qam
- A) 2, 4, 6, 8
- B) 2, 3, 5, 8, 9
- S) 1, 2, 6, 7, 9
- D) 1, 2, 7

199. VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda qaysi dinga e'tiqod qiluvchi aholi ko'pchilikni tashkil etardi?

- A) shomoniylk
- B) zardushtiylik
- S) buddaviylik
- D) moniylik

200. "Olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi — yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir". Ushbu so'zlar qaysi din ta'limotiga taaluqli?

- A) moniylik
- B) buddaviylik
- S) xristianlik
- D) qam

201. O'zbekistonning qaysi hududi VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda nestorianlik markazlaridan hisoblangan?

- A) Qoraqolpog'istonning Ellikqal'a tumani
- B) Samarqandning Urgut tumani
- S) Chirchiq va Ohangaron vodiylari
- D) Urganch shahri

202. Quyidagi qaysi din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan?

- A) moniylik
- B) zardushtiylik
- S) qam



D) xristianlik

203. Moniy dinining arkoni nimalardan iborat.

- A) kalimai shahodat, namoz, ro'za, zakot,
- B) namoz, ro'za, zakot, haj safari
- S) ibodat, sadaqa
- D) ibodat, ro'za, sadaqa

204. Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan qaysi dinga e'tiqod qilib kelgan edi?

- A) zardushtiylik
- B) buddaviylik
- S) shomoniylik
- D) moniylik

205. Quyidagi dinlardan qaysi biri Ko'k Tangriga e'tiqod qiluvchi yakka xudolik dini hisoblanadi?

- A) qam
- B) zardushtiylik
- S) moniylik
- D) buddaviylik

206. O'zbekistonning qaysi yodgorliklaridan VI-VII asrlarga oid devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlari topib o'rganilgan?

- 1) Bolaliktepa; 2) Qiziltepa; 3) Varaxsha; 4) Kaltaminor;
- 5) Ajinatepa; 6) Qo'yqirilganqal'a; 7) Afrosiyob; 8) Panjikent; 9) Quva
- A) 1, 3, 7, 8, 9
- B) 2, 4, 6, 9
- S) 1, 4, 9
- D) 1, 5

207. VI-VII asrlarga oid qaysi arxeologik yodgorliklar Zarafshon daryosida joylashgan?

- A) Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob
- B) Bolaliktepa, Ajinatepa, Panjikent
- S) Bolaliktepa, Varaxsha
- D) Varaxsha, Afrosiyob, Quva

208. Qaysi din VI-VII asrlarda O'rta Osiyo haykaltaroshligi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi?

- A) buddaviylik
- B) zardushtiylik
- S) moniylik
- D) sintoiylik

209. Quyidagi qaysi yodgorliklardan buddaning

bahaybat haykallari topib o'rganilgan?

- A) Qoraqolpog'istonning Ellikqal'a tumanidan
- B) Surhon vohasidagi Bolaliktepadan
- S) Farg'ona vodiysida Quva xarobalaridan
- D) Farg'ona vodiysidagi Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinida Ajinatepadan

210. Quyidagi yodgorliklarning qaysi birida 12 metrli budda haykali topib o'rganilgan?

- A) Varaxsha
- B) Quva
- S) Bolaliktepa
- D) Ajinatepa

211. Arkon — bu ...

- A) qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq
- B) islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i
- S) mavjud tartibni o'zgartirish
- D) dindagi eng muhim vazifa

212. Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunasi O'zbekistonning qaysi hududida joylashgan?

- A) Samarqandning yodgorligidan
- B) Farg'ona vodiysida Quva xarobalaridan
- S) Buxoroning Varaxsha yodgorliklarida
- D) Surhon vohasidagi Bolaliktepadan


213. VI-VII asrlarda san'at sohasida Toshkent o'zining nimasi bilan shuxrat topgan edi?

- A) qiziqchilari bilan
- B) o'yinchi yigit va raqqosa qizlari bilan
- S) naychilari bilan
- D) darbozlari va qiziqchilari bilan

214. VI-VII asrlarda O'rta Osiyoning qaysi shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalandi?

- A) Buxoro
- B) Samarqand
- S) Toxariston
- D) Badaxshon

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: 1. Sosoniylar hukmdori (459-484). 2. Xiyoniylar podshosi. 3. Turk xoqoni (618-630). 8. 585-yilgi kadivarlar qo'zg'oloni rahbari. 9. Turk xoqonligi asoschisi.

ENIGA: 4. Sosoniylar hukmdori (309-379). 6. Vizantiya imperatori. 7. Mazdakiylar ta'limotining asoschisi. 10. Eftaliylar podshosi. 11. Al-Fir qal'asini qurdirgan xorazmshoh. 12. Toxarlar yo'l boshchisi.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)




BO'YIGA: 2. O'rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do'konlari, mahallalari joylashgan qismi. **4.** Samarqandning qadimgi xarobasi. **5.** Poytaxti Balx bo'lgan mahalliy hokimlik. **6.** "Qishloq hokimi", yerdor, feodal. **8.** V-VI asrlarda yirik qabilalar uyushmasi. **12.** Sug'd va Farg'ona podsholari unvoni.

ENIGA: 1. Shaharning hokim qasri joylashgan qismi. **3.** Xorazmshohlar sulolasi. **7.** Yer egasi qo'riqchisi. **9.** VI-VIII asrlardagi yirik saltanat. **10.** Yerni omoch bilan ag'daruvchi. **11.** Eronda vujudga kelgan din. **15.** "Qishloq qo'rg'onlarida yashovchilar".

XRONOKROSS

(yillar bo`yicha)



BO`YIGA: 1. Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushonadan birlashgan juda katta savdo karvonining Xitoyga yetib borishi. 3. Turklarning Yoyiq(Ural) va Itil(Volga) bo`ylarini zabt etishi. 4. Sosoniylar hukmdori Anushervon hukmronligining so`ngi davri. 5. Turklarning Eftallar davlati yerlariga bostirib kirishi. 6. Pero`zning Eftallarga qarshi 3-yurishi. 7. Buminning "xoqon" deb e`lon qilinishi. 8. Sosoniylar davlatida Pero`z hukmronligining boshlanishi. 11. G`arbiy Turk xoqonligida To`nyabg`u hukmronligining so`ngi davri.

ENIGA: 1. To`nyabg`u hukmronligining boshlanishi. 2. Turklarning Sirdaryo va orol dengizi bo`ylarigacha bo`lgan yerlarni egallashi. 4. Turklarning Shimoliy Kavkaz yerlarini egallashi. 6. Sosoniylarda Kubod hukmronligining boshlanishi. 7. Turklarning avarlar bilan to`qnashuvi. 9. Xorazmshox Afrig` qarorgohining Kat shahriga ko`chirilishi. 10. Kidariylarning sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchrashi. 12. Sosoniylarda Shopur II ning hokimiyat tepasiga kelishi.



ARABLARNING O'RTA OSIYONI FATH ETISHI

Islom dini. Arablar somiy qabilasiga mansub bo'lib, ularni badaviylar – sahroyilar deb atashgan. VII asrning boshida urug'chilik tuzumi inqirozga uchrab, arablarda yangi ijtimoiy tuzum – yer egaligi munosabatlari shakllana boshlandi. Arablarni birlashtirish – ijtimoiy va iqtisodiy zaruriyat edi. Vujudga kelgan vaziyatda islom dini arablarni birlashtiruvchi omilga aylandi. Islom dinining asoschisi **Muhammad** alayhissalom (570-632) bo'ldilar. 610-yilda Muhammad alayhissalom o'zini payg'ambar deb e'lon qiladi. **Islom** – “*itoat*”, “*tobelik*” va “*bo'yin egish*” ma'nolarini anglatgan. Islomni qabul qilib, Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari o'zlarini “**muslim**” (bo'yin eguvchi) xudo oldida teng ekani, rizq-ro'zni barchaga Yaratguvchining o'zi yetkazib berishi hamda jamiyatdagi adolatsizlik barham topishi haq ekanini targ'ib etadilar. 622-yil 16-iyulda Muhammad alayhissalom Makkadan Madinaga hijrat qiladilar. Xuddi shu kundan boshlab musulmon Sharqida **hijriy yil hisobi** boshlanadi. **Qur'oni Karim** – islom dinining muqaddas kitobi bo'lib, 23 yil davomida nozil bo'lgan. 630-yilda arablarning ko'pchiligi islom dinini qabul qiladi.

Muhammad alayhissalom vafot etgach, **xalifalik davri (632-1258)** boshlandi. “**Xalifa**” – “**o'rinbosar**” demakdir. Dastlabki to'rt xalifa **xulafoyi roshidiyn** – to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi xalifalar hisoblanadi. Bular **Abu Bakr (572-634)**, **Umar (582-644)**, **Usmon (576-656)**, **Ali (598-661)**dir. Ular hukmronlik qilgan davrda Arabistonda islom dini to'la g'alaba qozonib, o'ta markazlashgan musulmon davlati — **Arab xalifaligi** tashkil topadi. Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Vizantiya va Eron bo'ysundirilib, islom jahon dinlaridan biriga aylanadi.

Movarounnahrning zabt etilishi. 651-yili arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar. Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarni arablar **Movarounnahr**, ya'ni “**daryoning narigi tomoni**” deb atardilar. Shimoliy Afg'oniston, shimoliy-sharqiy Eron va janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan yerlar **Xuroson** deb atalardi. Uning markazi **Marv** shahri edi. Movarounnahrda bo'lgan hujumlar Xuroson noibi tomonidan uyushtirilardi. O'рта Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi ikki bochqichdan iborat bo'lgan: **birinchi bosqichda (651-705)** arablar harbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlarni sinash, ayrim sarkardalarning boylik orttirish maqsadida yurish qiladi. 704-yilda **Qutayba ibn Muslim** Xuroson noibi qilib tayinlanadi, unga Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligini o'rnatish vazifasi topshiriladi. Shu tariqa O'рта Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishining **ikkinchi bosqichi (705-715)** boshlanadi. **Ikkinchi bosqichni** ahamiyatli tomoni Movarounnahrni arablar tomonidan istilo etish va islom diniga kiritish edi.

Movarounnahrda ilk hujumlar 654-yilda **Maymurg'** va 667-yilda **Chag'oniyondan** boshlanadi. 673-yilning kuzida xalifa **Muoviya I** farmoniga ko'ra, **Ubaydulloh ibn Ziyod** Buxoro yerlariga bostirib kiradi. Poykand va Romittonni egallab, Buxoro shahrini qamal qiladi. Turklar va buxoroliklarning birlashgan qo'shinlari jangda arablardan yengilib, yuzming dirham miqdorda arablarga boj to'laydilar, bundan tashqari arablar ko'p o'ljalarni qo'lga kiritib, Marvga qaytib ketadilar. 676 yilda Xuroson noibi **Said ibn Usmon** boshliq arab qo'shinlari yana Buxoro, Samarqand va Termizga bostirib kirib, katta o'ljalar bilan qaytadi.

Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik va mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar tufayli mahalliy hukmdorlarning o'zaro siyosiy nizolarni to'xtatish, xalifalikka qarshi birlashib kurashishi amalga oshmadi. Bundan esa arab lashkarboshilari ustalik bilan foydalandi.

Qutayba ibn Muslim 704-yilda Xurosonga noib etib tayinlanadi. Unga Movarounnahrda to Xitoygacha bo'lgan yerlarni xalifalikka bo'ysundirish vazifasi yuklanadi. Harbiy yurishni Qutayba 705-yilda Balx viloyatini atroflarini egallashdan boshlaydi. 707-yilda **Qutayba** Zarafshon vodiysiga yurish qilib, qadimgi va katta shahar bo'lgan **Poykent**ni qamal qilib egallaydi.

709-yil **Qutayba Vardonze** (Shofirkon) hukmdori **Vardonxudot** ustiga yurish qiladi, **Vardonze** va **Buxoroni** egallaydi. 710-yil **Shuman, Kesh** (Shahrisabz) va **Nasaf** (Qarshi) shaharlarini bosib oladi.

711 yili Xorazm shohi **Chag'on** ukasi **Hurzod** boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, yordam so'rab **Qutayba**ga murojaat qiladi. **Xorazmda** boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay vaziyat **Qutaybani** Sug'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb qiladi. Xorazmda Arab xalifaligi o'z hukmronligini o'rnatadi. 712-yilda **Qutayba** Buxoro va Xorazmda harbiy kuch to'plab **Samarqandga** hujum uyushtiradi, ko'p talofatdan keyin Samarqand taslim bo'ldi.

713-715-yillarda **Qutayba Toshkent, Farg'ona** viloyatlarini bo'ysundirib, Qashg'argacha bo'lgan yerni bosib oladi va arab noiblarini qoldiradi, yangi tartiblar o'rnatadi. 715-yili arab xalifasi **Volid** vafot etadi. Uning o'rniga **Qutaybaga** g'anim bo'lgan **Sulaymon** taxtga o'tiradi. **Qutayba** unga bo'ysunmay qo'zg'olon ko'taradi. Biroq **Qutaybaning** o'zi 715-yilda Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi.

Movarounnahrning zabt etilishining oqibatlari. Movarounnahrni arablar tomonidan oson zabt etilishining sabablari quyidagilardan iborat bo'ldi: **1. Mamlakatda hukm surgan siyosiy parokandalik va viloyat hukmdorlari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar. 2. Mahalliy hukmdorlarning sotqinligi. 3. Aholining turli xil diniy g'oyalarga sig'inishi.**

Arablar Movarounnahrni zabt etishi natijasida dehqonchilik vohalarni, shahar va qishloqlar vayron bo'ldi. Sulh tuzishga majbur bo'lgan Buxoro, Poykand, Sug'd hukmdorlaridan katta miqdorda boj va tovonlar undirib olindi. Bosqinchilar Movarounnahrning barcha shahar va yirik qishloqlariga o'z harbiy qismlarini joylashtirib, aholidan turli soliqlar undirib, ularni jamoa ishlarga safarbar etadilar. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarning yarmi arablar va ular bilan kelgan ajamlarga bo'shatib beriladi. Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun islom dinini aholi o'rtasida yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf-odatini, dini va e'tiqodini, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati poymol etildi.

ARABLAR HUKMRONLIGIGA QARSHI XALQ HARAKATLARI

Qo'zg'olonning sabablari. Arablar sosoniylarning soliq tartibini joriy qildi. Bunga ko'ra, aholi ekin maydonlaridan 1/4 "**xiroj**", chorva, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan 40/1 "**zakot**" hamda islom dinini qabul qilmaganlar "**jiz'ya**" kabi jonboshi solig'i to'lagan. Istilochilar kuch – xirojda deganlar. Yerli xalqlarni avvalgi barcha haq-huquqlardan mahrum bo'lishi, madaniyatning oyoq-osti qilinishi, zulm, urushlar, talon-tarojlar, islom dini, arab tili va yozuvi, xalifalik qonun-qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi xalq noroziligini kuchaytirdi, natijada qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Gurak va Divashtich boshchiligidagi qo'zg'olon. 720-yili Samarqand ixshidi **Gurak** va Panjikent hokimi **Divashtich** boshchiligidagi Sug'dda qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi. Xuroson noibi **Said ibn Abdulaziz** Sug'dga qarshi muvaffaqiyatsiz uch marta yurish qiladi. Qo'zg'olonn bostirish uchun qilgan barcha chora-tadbirlari natija bermaydi. 721 yilda **Said Xaroshiy** Xurosonga noib etib tayinlanadi. Uning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida **Gurak** boshchiligidagi Sug'd mulkdorlarning bir qismi arablar tomoniga o'tadi. **Divashtich** boshchiligidagi qo'zg'olonchilarning boshqa qismi **Obgar qal'asida** qo'lga olinadi. Omon qolish sharti bilan qo'lga tushirilgan **Divashtich Arbinjonga** (Kattaqo'rg'on bilan Karmana oralig'i) olib borilib, qatl etiladi. 723-yilda Farg'ona hokimi Shosh, Nasaf va turklar yordamida arablarni Xo'janddan to Samarqandgacha ta'qib qilib boradilar. Soliq siyosatiga qarshi 725-yilda **Xuttalonda**, 728-yilda **Sug'dda**, 736-737-yillarda **Toxariston** va yana **Sug'dda** qo'zg'olon ko'tariladi. Xurosonning yangi noibi **Nasr ibn Sayyor** moliya islohotini o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etiladi. Barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasining e'tiqodidan qat'iy nazar xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi. Bundan tashqari oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasida qarindoshlik munosabatlar o'rnatilishi davlat miqyosida qo'llab-quvvatlandi. 720-yildan 737-yilgacha davom etgan xalq qo'zg'olonlari arab bosqinchilariga qarshi kurashning birinchi bosqichidir. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, ularning oldiga qo'ygan maqsad va talablari ham turlicha edi. Mahalliy hokimlar o'zlarining hukmdorligini tiklash uchun imtiyozlarga ega bo'lish uchun, oddiy xalq esa xiroj va jiz'yadan va zulmdan ozod bo'lish uchun kurashdilar.



Abu Muslim harakati. Ummaviylar davri (661-749) o‘ta zo‘ravonlik va bosqinchilik siyosati bilan ajralib turadi. Ularga qarshi norozilik kuchayib bordi. Ummaviy xalifalikning qo‘pol siyosatidan mazlum xalqlar hamda arab aholisi, ayniqsa mulkdor tabaqasi ham norozi edi. Ularga qarshi kuchlarga Muhammad payg‘ambarning amakisi Abbasning evarasi **Muhammad ibn Ali** boshchilik qildi. Ummaviylar Rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblandi. Targ‘ibotchilar aholining og‘ir ahvoliga faqat ummaviylar sababchi degan fikrni oshkora targ‘ib qiladi. Ummaviylarga qarshi ommaviy norozilik ayniqsa **Xalifa Marvon II (744-750)** davrida kuchayib ketadi. 747-749-yillarda **Abu Muslim harakati** – Movarounnahrda ummaviylarga qarshi qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi. Ummaviylarga qarshi tashviqotni **Abu Muslim** Xuroson aholisining yuqori tabaqasiga murojaatdan boshlaydi. Abu Muslim Kufaning **Savad** qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, yoshligida gumashta bo‘lib ishlagan, keyin sarrojlilik bilan kun kechirgan. Tim qora rang abbosiylar harakatining timsoli sanalgan. Abu Muslim va uning tarafdorlari qora libos kiyib, qora bayroq ostida ummaviylarga qarshi kuchlarni birlashtirishga kirishadilar. 749-yilda qo‘zg‘olon g‘alaba bilan tugab, ummaviylar ag‘darib tashlanadi, ularning o‘rniga abbosiylar vakili **Abul Abbas Saffox** xalifalik taxtiga o‘tiradi. Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi bilan mehnatkash aholining ahvolidan hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi. Mehnatkash aholi o‘rtasida abbosiylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish kayfiyati paydo bo‘ladi. 750-yilda Buxoroda **Sharik ibn Shayhulmahri** boshchiligida qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi. Bu qo‘zg‘olonni Abu Muslim mahalliy kuchlar yordami bilan bostiradi. Ichki ziddiyatlardan foydalangan Xitoy qo‘shinlari 751-yilda Talos vodiysiga bostirib kiradi. Abu Muslim tomonidan yuborilgan qo‘shin ularni bu yerdan quvib chiqaradi. 755-yilda Abu Muslim xalifa buyrug‘iga ko‘ra o‘ldiriladi. Uni o‘chini olish uchun 755-yilda Nishopurda **Sumbad** boshchiligida 70 kun davom etgan qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tadi. Bu qo‘zg‘olon xalifa tomonidan bostiriladi.

“Oq kiyimliklar” qo‘zg‘oloni. 769-783-yillarda Movarounnahrda **“Oq kiyimliklar”** qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tadi. Qo‘zg‘olonga **Muqanna** boshchilik qiladi. Uning asli ismi **Hoshim ibn Hakim** bo‘lib, marvlik matolarga oxor beruvchi hunarmand bo‘lgan. U Marv yaqinidagi Koza qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, **“Muqanna”**, ya‘ni **“Niqobdor”** nomi bilan mashhur bo‘lgan. Xurosonda kichik lashkarboshidan vazir darajasigacha ko‘tarilgan. Mazdak ta‘limotini targ‘ib qilib, payg‘ambarlik da‘vosini qilganligi uchun Bag‘dod zindoniga tashlangan. Uning targ‘iboti ayniqsa Naxshob va Kesh shaharlarida yaxshi samara beradi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som qal‘asini o‘z qarorgohiga aylantiradi. Bu qo‘zg‘olon ayniqsa Sug‘dda avj olib, Iloq va Shoshga ta‘sirini o‘tkazadi. **“Oq kiyimlik”**larga zarba berish uchun xalifa **Abu Ja‘far** 775-yilda **Jabroil** boshchiligida katta qo‘shin jo‘natadi. Biroq, u qo‘zg‘olonchilar tomonidan mag‘lubiyatga uchratiladi. 776 yilda Narshaxdagi qo‘zg‘olon bostirilgach, arablar asosiy kuchlarni Samarqand va Keshga tashlaydilar. Xalifa **Maxdiy** 777-yilda qo‘zg‘olonga uzil-kesil zarba berish maqsadida harbiy kuchlarni to‘plash maqsadida Nishopurga keladi. **“Oq kiyimlik”**lar va turkiy qabilalar Samarqandda ikki yil jang qilib, qo‘zg‘olonchilar yengiladilar. Kurashning oxirgi bosqichida Kesh vodiysida janglar qizib ketadi. Muqannaning ukasi **Qabzam**, Som qal‘asining mudofaasiga qo‘mondonlik qilgan **Sarhama** o‘z qo‘shinlari bilan taslim bo‘ladilar. Muqanna arablarga taslim bo‘lishni istamay yonib turgan tandirga o‘zini tashlab halok bo‘ladi.

Rofe ibn Lays qo‘zg‘oloni. **“Oq kiyimliklar”** qo‘zg‘oloni mag‘lubiyatga uchragach, 806-810-yillarda **Rofe ibn Lays** boshchiligida Samarqand, Buxoro, Shosh, Naxshob va Xorazm aholisining qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tadi. Xuroson noibi **Ma‘mun** (806-819) Somonxudot nabiralari **Nuh**, **Ahmad** va **Yahyolardan** yordam so‘rab qo‘zg‘olonni bostiradi. Somoniylarning xalifalik oldidagi bu xizmatlari natijasida Movarounnahr kelajak taqdiri mahalliy mulkdorlar qo‘liga o‘tishiga yo‘l ochiladi.

Arablarga qarshi olib borilgan xalq harakatlarining mag‘lubiyatiga uchrashi sabablari quyidagilardan iborat edi:

- **Xalq harakatlarining uyushmaganligi;**
- **Arablar qo‘shinining uyushganligi, ko‘p qurol-aslahaga ega ekanligi;**
- **Mahalliy boylarning xalqqa yordam bermaganligi.**

Muqanna va **Rofe ibn Lays** qo‘zg‘olonlari mag‘lubiyat bilan tugagan bo‘lsada, lekin arab xalifaligi negizini larzaga keltirdi, uning tarqalishini tezlashtirdi.

Arablar O‘rta Osiyoda o‘zining siyosiy hukmronligini o‘rnata olmadi. Lekin arablar istilosi Movarounnahrda yer egaligi munosabatlarini o‘rnatishini tezlashtirdi, islom dinining tarqalishiga sabab bo‘ldi. Arablar istilosi va islom dinining zo‘rlilik bilan kiritilishiga qarshi ajdodlarimiz o‘z mustaqilliklari uchun, o‘z e‘tiqodlari yo‘lida kurashdilar.

O`RTA OSIVO ARAB XALIFALIGI TARKIBIDA 715-821-y.

1-bosqich
651-705 -y.

Harbiy yurishlar ayrim sarkardalarning boylik orttirish maqsadida o`z boshimchalik bilan amalga oshirgan talonchiligidan iborat

651 -y. - Marv zabt etilishi
654 -y. - Maymurg` zabt etilishi
667 -y. - Chag`aniyon zabt etilishi
673 -y. - *Ubaydulloh ibn Ziyodning* Buxoroga bostirib kirishi
676 -y. - *Qusam ibn Abbosning* Samarqand yonidagi janglarning birtida halok bo`lishi

Islom dinining ahamiyati:

- Ko`p jihatdan afzal
- Ahloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi
- Oliy-soliq, maishiy hayot bobida, zakot masalasida afzalligi
- Alloh oldidagi tenglik
- Xalqparvarligi
- Ma`naviy bo`shliqni tugatdi
- Islom mohiyatiga yetilgachgina unga rag`bat va e`tiqod kuchayib ketdi

Soliq turlari:

- *Hiroj* - yer solig`i, 0,25%
- *Zakot* - chorvador va savdogarlardan olinadigan soliq 40/1
- *Jizya* - jon solig`i, islom diniga kirmaganlardan olinadigan soliq

2-bosqich
705-715 -y.

O`rta Osiyoni zabt etish, islom diniga kiritish

705 -y. - Balx
707 -y. - Buxoro
710 -y. - Shuman, Nasaf, Kesh
711 -y. - Xorazm
712 -y. - Sug`d zabt etishdi
713 -y. - Ustrushona va Choch
714 -y. - Isfijob
715 -y. - Farg`ona
715 -y. - *Qutaybaning* o`ldirilishi

Qo`zg`olon sabablari:

- Yerli xalqlarni ilgari barcha imtiyozli haq - huquqlardan mahrum bo`lishi
- Madaniyatning oyoq-osti qilinishi
- Zulm
- Islom dini, arab tili va yozuvi, xalifalik qonun-qoidalarining zo`ri bilan joriy etilishi

720 -y. - *Gurak va Divashnich* boshch. qo`zg`olonlar
728 -y. - Sug`d qo`zg`oloni
736-737 -y. - Toxariston va Sug`d qo`zg`olonlari

747-749 -y. - *Abu Muslim* harakati
750 -y. - Buxoroda *Sharik ibn Shayhulmahri* boshch. qo`zg`olon
755 -y. - Nishopurda *Sumbad* boshch. qo`zg`olon

769-783 -y. - "*Oq kiyimliklar*" qo`zg`oloni
806-810 -y. - *Rofye ibn Lays* boshch. *Samarqand*, *Buxoro*, *Sosh*, *Naxshob* va *Xorazm* aholisining

TARIXIY SHAXSLAR

ABDULJABBOR ibn ABDURAHMON al-AZDIY (?-759, Bog‘dod) – Arab xalifaligining Xurosondagi noibi (757-759). Uning davrida *Muqanna* vazirlik darajasiga ko‘tarilgan. Xalifa *al-Mansur* (754-775) Abduljabbor ibn Abdurahmonning o‘ziga sodiqligidan shubhalanib, o‘g‘li *Muhammad al-Mahdiy*ni uni hibsga olmoqqa jo‘natdi. Shunda Abduljabbor ibn Abdurahmondan norozi bo‘lgan Marvarrud shahri aholisi bosh ko‘tardi-da, uni tutib xalifaga topshirdi. Xalifa uni qattiq azoblab qatl etadi.

ABDUMALIK (646/647-705) – ummaviylarga mansub xalifa (685-705). Abdumalik 685-692-yillarda Makkada *Abdulloh ibn Zubayr* va Iroqda uning tarafdorlarining, 689-702-yillarda Damashqda *Amir ibn Said al-Ashtoq* va Eronda *Abdurahmon ibn al-Ashasniy*, shungdek xorijiyarning Iroqdagi chiqishlari (692-697)ni bostirgan; xalifalikdagi ichki tarqoqlikka barham berib, markaziy hokimiyatni mustahkamlagan; moliya va soliq islohotlarini o‘tkazgan; devon va idoralarda yunon, o‘rta fors tillari o‘rniga arab tilida ish yuritishni joriy etgan; Vizantiya va sosoniylar tangalarini bekor qilib, arabcha yozuvida oltin va kumush tangalar zarb qildirgan, barid (pochta) ishini yo‘lga qo‘ygan.

ABU MUSLIM (laqabi; boshqa laqablari Abo Muslim, Abu Muslim Marvaziy; asl ismi Abdurahmon ibn Muslim) (taxm. 727-755) – Xuroson va Movarounnahrda ummaviylar sulolasiga qarshi harakat rahbari. U Kufaning *Savad* qishlog‘i yaqinidagi *Xutarniyn* degan joyda dunyoga kelgan. Yoshligida bir davlatmand kishining qo‘lida gumashta bo‘lib ishlagan. So‘ngra sarrojlik (egar-jabg‘ur yasovchi hunarmand) bilan kun kechirgan. 747-yil ummaviylarga qarshi tayyorlanayotgan harakatga rahbarlik qilish uchun Marv vohasiga jo‘natilgan. Ummaviylarga qarshi harakatni kuchaytirish maqsadida Abu Muslim Marv yaqinidagi **Safizanj**, **Mohuvon** (Mahon) va **Shavvol** qishloqlarini qarorgohga aylantirib, xalifalikka qarshi tashviqot olib boradi. Abu Muslim qullar uchun *Shavval* qishlog‘ida maxsus joy tashkil ettiradi va ularga *Dovud* ismli targ‘ibotchini boshliq qilib tayinlaydi. U g‘alaba qozonib, xalifalik abbosiylar qo‘liga o‘tgach (750), Xuroson voliysi. Abbosiylarga Abu Muslim sidqidildan xizmat qilgan bo‘lsa-da, ammo ular unga ishonmas edilar. Ularning nazarida Abu Muslim xalifalik taxtining da‘vogaridek bo‘lib tuyular edi. Undan hatto qattiq qo‘rqar ham edilar. Shu boisdan ular Abu Muslimni yo‘qotish payiga tushdilar. Nihoyat 755-yilda qurolsiz va yolg‘iz saroyga tashrif buyurgan Abu Muslim xalifa *Mansur* buyrug‘iga binoan o‘ldiriladi. Abu Muslimning o‘ldirilishi xalifalik sharqida, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona bo‘ladi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahrni obod etish borasida birmuncha ishlar qiladi. Jumladan, Samarqand rabodi quriladi, Buxoroning janubi-sharqiy qismini sug‘oruvchi Abu Muslim kanali qaziladi. Biroq Abu Muslim davrda mehnatkash ommaning ahvoli yanada og‘irlashadi. Xalqni bezor qilgan hashar ishlari yana ko‘payadi, soliqlarning miqdori oshib boradi, jiz‘ya to‘lamagan kishilarning bo‘yniga “qarzdor” deb yozilgan taxtachalar osilib, ularni xo‘rlash va haqoratlash tobora avj oladi. Bu davrda ham xalq ikki yoqlama: bir tomondan, arab zodagonlari, ikkinchi tomondan, mahalliy mulkdorlar tomonidan azob-uqubatlarga tortiladi. Bunday og‘ir ahvol xalq noroziligini kuchaytirib, yangi sulolaga nisbatan 750-yilda Buxoro shahrida *Sharik ibn Shayhulmahri* boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga olib keladi.

ABUJA‘FAR DAVONAQIY (xalifa Mansur) – Arab xalifasi (754-775). U *Muqannani Mazdak* g‘oyalari asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da‘vat etuvchi ta‘limotni targ‘ib etib, payg‘ambarlik da‘vosini qilgani uchun Bag‘dodda zindonga tashlagan.

ABULABBOS SAFFOX – Arab xalifasi (749-754). Abbosiylar xonadonidan. Uning hukmronligi davrida ummaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari qirib tashlanib, Arab xalifaligida davlat abbosiylar qo‘liga o‘tadi.

ABULABBOS TUSIY FAZL IBN SULAYMON (VIII asr) – xalifalikning Xuroson va Seyistondagi noibi (782-786), amir, *Abu Muslim* safdoshi. Movarounnahr ham uning nazoratida bo‘lgan. Abul Abbas Tusiy ko‘chmanchi qabilalar hujumidan saqlanish uchun Buxoro bilan So‘g‘d oralig‘ida devor qurdirgan. Har bir farsahga (1 farsah – oltinchi 7 km teng) bittadan darvoza, har yarim mil masofada bittadan mustahkam minora barpo etgan. Ba‘zi manbalarda (Ma’sudiy) Abul Abbas Tusiy Buxoroning vayron bo‘lgan devorlarini tiklagan, deb yoziladi. Abul Abbas Tusiy mamlakat obodonchiligi yo‘lida ko‘p ishlarni amalgam oshirgan.

ASAD IBN ABDULLOH – Arab xalifaligining Xurosondagi noibi (724-727 va 735-738). Xalifa *Ma‘mun Abdulloh*ning o‘g‘li. Yer egalari (dehqonlar) orasida obro‘i baland bo‘lgan. Somoniylar ajdodi Somonxudot xalifa *Ma‘mun* qo‘lida islomni qabul qilgani sharafiga o‘z o‘g‘lini *Asad* deb atagan. *Asad ibn Abdulloh* Toxariston hokimlari va unga ittifoqchi bo‘lgan turkiy qabilalar shuningdek *Horiz ibn Surayj* boshchiligidagi isyonkorlarga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida urushlarda vayron bo‘lgan Balxni tiklatgan (736), uni o‘ziga qarorgoh qilgan.

BAHODIR TUDUN (Tutun) – Choch hokimlaridan biri. 713-yil Choch viloyati hokimi, Xitoy yilnomalarida Mohedu tutun deb berilgan. *Qutayba ibn Muslim* rahbarligidagi arab fothihlarining Chochga 713-yilda qilgan dastlabki hujumini qaytarishga muvaffaq bo'lgan. So'g'd hujjatlaridan birida Panjikent hokimi *Divashtich*ning elchisi *Fatufarm* 719-yil Chochda Tudun va Choch hokimi bilan uchrashgani haqida gap boradi. Bunda Tudun xoqonlik tayin etgan lavozim nomi xolos. Shunga ko'ra, *Mohedo Tudun*ning Choch bilan bog'lanishi bir ilmiy taxmin deb qaralishi mumkin.

BOG'IY — Muqanna qo'shinidagi uch lashkarboshilardan biri. Fuzayl ko'shkidan. *Xashviy*, *Girdak* bilan birgalikda Narshax qal'asini egallab olib, arablarga qattiq qarshilik ko'rsatadilar.

CHAG'ON — VIII asr boshlarida Xorazmda hukmronlik qilgan *xorazmshoh*. Xorazmshoh Chag'on o'ziga qarshi qo'zg'olon ko'targan xalqqa boshchilik qilgan ukasi *Hurzod* (Xo'rzod)ga qarshi kurashish uchun Xorazmga bostirib kirgan arablar lashkarboshisi *Qutayba ibn Muslim*dan harbiy yordam so'raydi va o'z shaharlarining oltin kalitlarini unga yuboradi (711 yil). *Hurzod* bu paytda o'z tarafdorlari bilan Mizdahqonda turgan. Xorazmni bosib olishga 2 yilcha tayyorgarlik ko'rgan *Qutayba* bu ixtilofdan unumli foydalanib, 712-yilda o'z qo'shini bilan Fir shahriga bostirib kirgan. *Qutaybaga* qarshi *Hurzod* qo'shini mardlik bilan kurashgan. Biroq *Hurzod* jangda asir olinib o'ldirilgan. Xorazmshoh Chag'on *Hurzod* tarafdorlari va o'ziga qarshi chiqayotgan *Hamjir* hokimlariga qarshi kurash olib borish uchun yana *Qutaybadan* yordam so'raydi. Xorazmshoh Chag'on oqibatda arablar hukmronligini tan olib, ularga xiroj to'lashga majbur bo'ladi. Xorazm o'z mustaqilligini yo'qotgan. Xorazmshoh Chag'onning qo'shinlari arablarning Samarqand va boshqa shaharlar ustiga qilgan yurishlarida bir necha marta ishtirok etganlar. *Qutayba* Xorazmni tark etgach, vatanparvarlar Chag'onni xoinlikda ayblashgan. Sarosimada qolgan Chag'on turklar, so'ngra *Qutayba* huzuriga qochib borgan.

DIVASHTICH, DIVASHTI, DIVASTI – So'g'dning muhim viloyatlaridan biri bo'lgan Panj (Panjikent) hokimi (708-722), qo'zg'olon rahbari. So'g'd podshosi *Tarxunning* bolalariga homiylik qilgan. Divashtich Samarqand taxtiga o'tirgan *Gurakni* tan olmagan, taxtning qonuniy vorisi – *Tarxunning* kichik yoshli o'g'li nomidan o'zini So'g'd podshosi deb e'lon qilgan. So'g'dda qo'sh hokimiyatchilik vujudga kelgan. 719-722-yillar arab istilolariga qarshi qo'zg'olonlarda Divashtichning o'rni katta. Divashtich So'g'd – Choch – Farg'ona harbiy ittifoqini tuzishga harakat qilgan. Divashtichning shu maqsadda elchi orqali Chochga yuborgan maktubi, Choch elchisining esa Divashtichga yozgan maktubi bizgacha yetib kelgan. Divashtich usta diplomat sifatida arablar (Xuroson noibi) bilan ham yozishmalar ham olib borgan. Arablar Divashtich qo'zg'olonini bostirish chog'ida Mug' qal'asida yashirinib yotgan Divashtichni xiyonatkorona ravishda asirga olishib, Rabinjon yaqinidagi Zardushtiylar qabristonida (Xochga tortib) qatl qilishgan. Boshi Iroq hokimiga yuboriladi, tanasi otashparastlarning xilxonasi – nous devoriga qoqib qo'yiladi.

DOVUD – *Abu Muslim* tomonidan Shavval qishlog'idagi qullarga boshliq qilib tayinlangan targ'ibotchi.

GIRDAK — *Muqanna* qo'shinadagi uch lashkarboshilardan biri. G'ijduvon qishlog'idan. *Xashviy*, *Bog'iy* bilan birgalikda Narshax qal'asini egallab olib, arablarga qattiq qarshilik ko'rsatadilar.

GURAK, Gurek (VII asr oxiri — taxm. 737) — Sug'd ixshidi (podshosi) (710-737) va arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari. *Tarxunning* birodari. *Qutayba ibn Muslim* rahbarligidagi arab qo'shini bilan Kattaqo'rg'on yaqinidagi Arbinjon mavzeida shiddatli jang qilgan (712). Sug'diylar Samarqandga chekinishga majbur bo'lishgan. Gurak Shosh podshosi, turklar xoqoni va Farg'ona ixshidiga elchilar yuborib, yordam so'ragan. Ammo *Qutayba Gurakka* yordamga kelayotgan turk xoqonining qo'shiniga qo'qqisdan hujum qilib tor-mor keltirgan va Samarqandni qamal qilgan. Bir oylik qamaldan so'ng Samarqand taslim bo'lgan. Gurak bilan *Qutayba* o'rtasida sulh tuzilgan. Unga ko'ra, Gurak arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirham hisobida xiroj to'lashi, 30 ming nafar odam berishi, shaharda birorta ham askar saqlamaslik, ichki shaharni bo'shatib, unda minbari bilan masjid bino qilishi, otashparastlik ibodatxonasini buzib, butlarini topshirish kabi shartlarni bajarishi lozim bo'lgan. Bularning evaziga *Qutayba Gurakni* Samarqand, Kesh va Naxshabga hokim etib tayinlaydi. Shunday qilib, u arablarga mute noib bo'lib qoladi. 720-yili Sug'd aholisi arab istilochilariga qarshi qo'zg'olon ko'targan, unga Gurak va Panjikent hokimi *Divashtich* boshchilik qilgan. Gurak Xitoy imperatoriga xat yozib harbiy yordam so'ragan, biroq yordam kelmagan. Xuroson noibi Sa'id Xarashiy bosh bo'lgan arablar qo'shini qo'zg'olonni bostirish uchun ko'p kuch sarflagan. Sa'id Xarashiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida Gurak boshliq sug'd zodagonlarining bir qismi arablar tomonga o'tgan. Kuchlar bo'linib ketgach, Xo'janddagi jangda qo'zg'olonchilar yengilgan. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan. 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonatkorona qirib tashlangan. Taxminlarga ko'ra, Gurak arablarga qarshi yurishlarning birida halok bo'lgan.

HAKIM IBN AHMAD – “*Oq kiyimlilar*” qo'zg'oloni rahbarlaridan biri. Narshax qal'asida arablarga qarshi bo'lgan jangda rahbar. U bilan yana uchta lashkarboshi bor edi: *Xashviy*, *Bog'iy* va *Girdak*. Jangda

qo'zg'olonchilar yengilib, arablar Narshax qo'rg'onini ishg'ol qiladilar. Qo'zg'olon boshliqlaridan Hakim ibn Ahmad va *Hishriy* o'ldiriladi.

HURZOD – Xorazm shohi Chag'onning ukasi. Xorazmshohga qarshi qo'zg'olon rahbari. *Chag'on* ukasining qo'zg'olonidan qo'rqib, 711 yilda yordam so'rab *Qutaybaga* murojaat qiladi. Garchi dushman qo'li bilan Hurzod tor-mor qilinib, u o'ldirilsa-da, ammo Xorazmshoh bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, u o'z mustaqilligini yo'qotib, xalifalikning bojdoriga aylanadi. Uning qo'shini esa *Qutaybaning* harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

HUSAYN IBN MAOZ – Buxoro amiri, keyinchalik Xuroson noibi. Narshax qal'asi yaqinida "*oq kiyimlilar*" bilan arablardan Buxoro amiri Husayn ibn Maoz va Samarqand noibi *Jabroilning* birlashgan qo'shinlari o'rtasida to'rt oy mobaynida jang bo'ladi. Arablar bilan bo'lgan jangda "*oq kiyimlilar*" ning qo'li ustun keladi. Ammo son jihatdan ko'p bo'lgan arab qo'shinlari Narshax qal'asi devori ostidan uzunasiga 50 gazlik chuqur qazib, uni qulatgach, qal'aga bostirib kiradilar. Qal'a ichida davom etgan shiddatli janglarda qo'zg'olonchilar yengilib, Narshax qo'rg'oni ishg'ol qilinadi. Qo'zg'olon boshliqlaridan *Hakim ibn Ahmad* va *Xishriylar* o'ldiriladi. Narshaxdagi qo'zg'olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni "*oq kiyimlilar*" qo'zg'olonining markazi bo'lgan Samarqand va Keshga tashlaydilar. 777-yilda "*oq kiyimlilar*" ga uzil-kesil zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa *Maxdiy* Nishopurga keladi. Katta qo'shin to'plab Samarqandga yuboriladi. Qo'zg'olonchilar Sirdaryo vohasida yashovchi turkiy qabilalarni arablarga qarshi yordamga chaqiradilar. O'zaro bo'lib o'tgan jangda arablar mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Husayn ibn Maoz Xuroson noibliigidan mahrum etiladi. O'rniga *Said Xaroshiy* noib etib tayinlanadi.

ISHOQ, ISHOQ TURK (VIII a.) – Movarounnahrda Abbosiylarga qarshi xalq qo'zg'oloni (755) rahbari. *Abu Muslimni* jo'shqin tarafdori. Garchi savodsiz bo'lsa-da, xalq orasida katta obro'ga ega edi. U *Abu Muslimning* elchisi sifatida turkiylar xoqoni huzuriga borib kelganidan so'ng, "Ishoq turk" nomi bilan xalq orasida tanilgan. Ishoq qo'zg'oloni *Sunbod harakati* bilan bir vaqtda bo'lgan. U o'zini zardushtiyardan hisoblardi. U boshchilik qilgan harakat beshafqat bostirilgan, biroq, uning tarafdorlari abbosiylarga qarshi faol siyosiy kuch sifatida uzoq vaqt davom etib keldi.

JABROIL – 775-yilda Movarounnahrda xalifa *Ja'far* tomonidan "*Oq kiyimlilar*" qo'zg'oloniga zarba berish uchun yuborilgan harbiy qo'shin qo'mondoni. U qo'zg'olonchilardan yengilib, katta talofatlar beradi va zo'rg'a Samarqanddagi arab qo'shinlariga qo'shiladi.

JUNAYD IBN ABDURAHMON (?-734) – ummaviylarning Xurosondagi noibi (729-734, Marv). Xalifa *Yazid II ibn Abdulmalik* (720-724) davrida xalifalikning Hindistondagi islom mulklarini idora qilgan. 724-yilda *Shom ibn Abdumalik* xalifa bo'lgach, uni Xuroson noibi etib tayinlagan. Junayd ibn Abdurahmon 730-yili 500 askar bilan Xurosonga kelib, ayni vaqtda Buxoro va Sug'd ahliga qarshi jang qilayotgan sobiq Xuroson noibi *Ashras ibn Abdulloh*dan harbiy yordam oldi. So'ng, u Xuroson tomon yo'lga chiqqan turk hoqoni bilan Hind daryosi bo'yida jang qilib, uni yengdi va ko'plab o'ljalar oldi. 731-yilda hoqon yana Xurosonga yurish qildi. Shunda Junayd ibn Abdurahmon Samarqand hokimi *Savra ibn al-Hurr ad-Dorimiy*dan madad olib, uni tor-mor keltirdi. Samarqand va Buxoro Junayd ibn Abdurahmon tasarrufiga o'tdi. Junayd ibn Abdurahmon xalifa *Hishom ibn Abdulmalik* bilan kelishmay qolgani boisidan 734-yil amaldan tushirilib o'sha yili vafot etgan.

MA'MUN (786-833-yillar, Tarsus shahri) – abbosiylar sulolasidan bo'lgan xalifa, yirik siyosiy arbob, ilm fan homiysi. Xalifa *Xorun ar-Rashidning* o'g'li. Xalifa (813-833). Ma'mun otasining vaziri *Ja'far ibn Yahyo* tarbiyasini olib, kamol topgan. Ma'mun Xuroson viloyati (markazi – Marv shahri) noibi (809-819). U ancha bilimli hukmdor bo'lib, olim, shoir, san'atkor, naqqosh va musavvirlarga homiylik qilardi. Uning noibliigi davrida *Rofe ibn Lays* boshchiligidagi xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. U qo'zg'olonni bostirish uchun xalifalik tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlari natija bermagach, dehqonlardan Somonxudotning nabiralari *Nux, Ahmad* va *Yahyolardan* iltimos qilib, ulardan yordam so'raydi. Ular *Rofe ibn Laysni* qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga majbur qiladilar va shu bilan navbatdagi xalq harakati bostiriladi. Somonxudotlarning avlodi bo'lgan somoniylarning xalifalik oldidagi bu xizmatlari xalifa tomonidan inobatga olinib, Movarounnahr kelajak taqdiri mahalliy mulkdorlar vakillari qo'lga o'tishiga yo'l ochiladi. *Xorun* vafotidan so'ng u bilan ukasi *Amin* o'rtasida 809-813-yillarda taxt uchun kurash bo'lib o'tadi. U uzoq yillar mobaynida Xuroson va Movarounnahrning noibi bo'lib, mahalliy mulkdorlar bilan juda yaqinlashib ketgan edi. Garchi uni mahalliy zodagonlar qo'llab-quvvatlasalarda, ammo xalifalikning markaziy qismidagi arablar uning ukasi *Aminni* xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan Ma'mun ukasi *Aminga* qarshi kurashish uchun besh yil tayyorgarlik ko'radi. Hirot viloyatining zodagonlaridan *Tohir ibn Husayn* boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam beradilar. 813-yilda ular Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Ma'mun xalifalik

taxtiga o‘tqaziladi. Buning evaziga *Tohir* yuqori lavozimlarga ko‘tariladi. Shuningdek, Ma‘mun Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmaydi. Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. *Nuxga* Samarqand, *Ahmadga* Farg‘ona, *Yahyoga* Shosh va Ustrushona, *Ilyosga* esa Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag‘ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar. Ma‘mun Movarounnahr va Xuroson olimlarini o‘z saroyida to‘play boshlab ularni o‘zi bilan Bag‘dodga olib ketgan, ular “*Bayt ul-hikmat*” (“Bilim uyi”)da o‘z ilmiy faoliyatlarini davom ettirganlar. Dunyoning turli burchaklaridan, O‘rta Osiyo va Xuroson (*Muhammad al-Xorazmiy*, *Yahyo ibn Abu Mansur*, *Habash al-Xosib al-Marvaziy*, *Xolid al-Marvarudiy*, *al-Abbos al-Javahariy*, *Ahmad al-Farg‘oniy*)dan taklif etilgan allomalar ilmiy mavzularda munozaralar olib borishgan. Misrdagi isyon va Ozarbayjondagi *Bobak* qo‘zg‘oloniga qarshi kurash olib borgan. Ma‘mun davri ilm-fanning nihoyatda rivojlangani bilan ajralib turadi. Ma‘mun riyoziyot, falakiyot, tabobat, kimyo, geografiya, falsafa, mantiq, adabiyot, diniy ilmlar sohasida qator yutuqlarga erishgan, mu‘taziliya ta‘limoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ma‘mun bobosi *Mansur*, otasi *Horun ar-Rashid* tomonidan saroyda to‘plangan kitoblar sonini ko‘paytirgan. Otasi davrida bu kutubxona “*Bayt ul-hikmat*” deb nomlana boshlagan, keyinchalik u kutubxonalik doirasidan chiqib, tarjima va ilm markazi yoki o‘ziga xos akademiya vazifasini o‘tagan.

MARVON II (688-750) — ummaviylar sulolasidan bo‘lgan xalifa. *Marvon I* ning nabirasi. Dastlab (734-744) Armanistonda noib bo‘lgan, so‘ngra xalifa *Valid III* ning qasoskori sifatida tanilgan, xalifalikka saylangan (744) va G‘aron shahrini qarorgoh qilgan. Harbiy iqtidori tufayli Suriya va Iroqdagi ko‘plab raqiblari (ayniqsa, xorijiyalar) ustidan g‘alaba qozongan. Lekin abbosiylar xonadoniga mansub Ibrohimni qatl etishi bilan ushbu xonadon a‘zolarining qo‘zg‘olon ko‘tarishlariga sababchi bo‘lgan. Arbela shahri yaqinidagi *Zob* daryosi bo‘yida *Abul Abbos* sarkardasi *Abu Muslim* tomonidan yengilgach (750), Misrga qochgan va u yerda xristian *Qibliy* tomonidan o‘ldirilgan. *Marvon II* o‘limi bilan Ummaviylar xalifaligining Osiyodagi hukmronligi barham topgan. Bunga xiroj solig‘i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo‘ladi. Uning hukmronligi davrida ummaviylarga qarshi umumiy norozilik nihoyatda kuchayadi. Ummaviylarga ko‘plab qarshi kurashga da‘vat qilish uchun Iroq va Ajam viloyatlariga ko‘plab targ‘ibotchilar yuboriladi.

MUHAMMAD IBN ALI – *Muhammad* payg‘ambarning amakisi *Abbos*ning evarasi, ummaviylar hukmronligiga qarshi ishchan raqiblar guruhining asoschisi. Ummaviylar Rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblandi. Xalifalikni abbosiylarga topshirish kerak degan da‘vo ilgari surildi. Abbosiylar harakatini targ‘ib qilish uchun bu guruhning sodiq faollari xalifalikning deyarli barcha o‘lka va viloyatlariga yuborildi. Bu borada ayniqsa sharqiy viloyatlarga alohida ahamiyat beriladi. Targ‘ibotchilar aholining og‘ir ahvoriga faqat ummaviylar sababchi degan fikrni oshkora targ‘ib qiladilar.

MUOVIYA I (?-680) – ummaviylar sulolasi asoschisi va shu suloladan bo‘lgan dastlabki xalifa Arab xalifasi (661-680). Quraysh qabilasi zodagonlaridan. 639-yildan Suriyada noibo 657-yil xalifa deb e‘lon qilingan. Xalifalar hokimiyatini merosiy qilgan. Muoviya I davrida xalifalik poytaxti Damashq shahriga ko‘chirilgan. Muoviya I siyosati arab qabila zodagonlarining manfaatini ifodalagan. Yirik diplomat va ma‘mur bo‘lgan. Uning farmoni bilan *Ubaydulloh ibn Ziyod* Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradi.

MUQANNA (taxm. 719-yil, Marv yaqinidagi Koza qishlog‘i – 783-yil, Shahrisabz) – Movarounnahrda Arab xalifaligi hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan ozodlik harakatining boshlig‘i (VIII-asrning 70-80). *Marv* shahri yaqinidagi *Koza* qishlog‘ida tug‘ilgan. Asl ismi *Hoshim ibn Hakim* bo‘lib, *Narshaxi*ning yozishicha, u ko‘p o‘qigan, g‘oyat ziyrak bo‘lib, kimyogarlik, sehr va tilsim ilmlarini o‘rgangan. Arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Bir ko‘zi ko‘r, boshi kal va basharasi xunuk bo‘lganligidan boshi va yuziga ko‘k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham “*Muqanna*”, ya‘ni “*Niqobdor*” laqabi bilan mashhur bo‘lgan. *Yaqubiy*ning tasvirlashicha, *Muqanna*ni *Hoshim ul-A‘var*, ya‘ni bir ko‘zli *Hoshim* deb ham ataganlar. *Muqanna* yoshlik chog‘ida kudungarlik (matolarga ohor beruvchi) kasbi bilan shug‘ullangan. Xuroson noiblaridan *Abu Muslim* davrida sarhanglik (kichik lashkarboshi) va *Abduljabbor Azdiy* davrida (757-759) esa vazirlik darajasiga ko‘tarilgan. U *Mazdak* g‘oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da‘vat etuvchi ta‘limotni targ‘ib etib, payg‘ambarlik da‘vosini qilgani uchun xalifa *Abuja‘far Davonaqiy* tomonidan Bag‘dodda zindonga tashlangan. 769-yilda *Muqanna* *Marv*ga qaytib kelgan, shu yildan boshlab umrining oxirigacha Movarounnahrda Arab xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan xalq harakatiga boshchilik qilgan. U mazdakiylik ta‘limotini targ‘ib qilgan. Qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchragach, o‘zini olov yonib turgan tandir ichiga tashlab, halok bo‘lgan. *Hamid Olimjon* *Muqanna* jasoratiga bag‘ishlangan «*Muqanna*» (1943) dramasi, *Sadriddin Ayniy* «*Muqanna isyoni*» (1944) tarixiy-adabiy ocherkini yozgan.

MUSAYYAB ibn ZUHAYR — Arab xalifaligining Xurosondagi noibi (779-780). Noiblik markazi *Marv* shahri bo‘lgan. *Gardiziy*ning yozishicha, *Muqanna* qo‘zg‘olonini bostirishda qatnashgan. *Musayyab* ibn

Zuhayr Xurosonda 8 oy noiblik qilib, majburiy xiroj solig'ini oshirgan. Raiyat undan norozi bo'lib xalifa *Mahdiyga* shikoyat qilishgach, vazifasidan olingan. Movarounnahrda pul islohoti o'tkazib uning nomi bilan ataluvchi qadri past *musayyabiy* dirham tangalarini zarb etgan. Bu dirhamlar mis va rux qotishmasidan tayyorlangan.

NASR IBN SAYYOR AL-LAYSIY IBN LAYS IBN ROFE IBN ROBI'A IBN JURAY IBN AUF IBN AMIR (taxm. 666-748) – mashhur arab sarkardasi, Xuroson voliyasi (738-748). Arablarning mudariy qabilasidan. 728-729-yillarda Samarqand noibi, so'ngra Balx va butun Xuroson noibi. *Qutayba ibn Muslimning* Movarounnahrda qilgan yurishlarida ishtirok etgan. *Tabariyning* yozishicha, Xuroson Nasr ibn Sayyor davrida nihoyatda ravnaq topgan. U noibli davrida o'z mavqeni mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi. Shu asosda Movarounnahr va Xurosonning barcha viloyatlari uchun xiroj miqdori belgilab beriladi. Shu bilan birga Nasr mahalliy mulkdorlari bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib yurishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomonga o'tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatilishini himoya qiladi. Ayni vaqtda o'zi ham namuna ko'rsatib, Buxoroxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida, shubhasiz arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga keladi. Bu o'z navbatida ittifoqchi kuchlarning susayishiga sabab bo'lsa-da, ammo ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi. U Isfaxon rustoqlaridan biri Sava (Savat, Savax)da vafot etgan.

NUX IBN ASAD (819-842) – Somonxudotning nabiralaridan. U Xuroson noibi *Ma'munga Rofe ibn Lays* qo'zg'olonini bostirishda katta yordam beradi. Arab xalifasi *Ma'mun* taxtni egallashda yordam bergani uchun Nuxni Samarqandga noib etib tayinlaydi.

QABZAM – Muqannaning ukasi. Muqannachilar harakatining rahbarlaridan biri. Uzoq davom etgan janglardan so'ng u uch ming nafarli qo'shini bilan *Said Xaroshiya* taslim bo'ladi.

QUSAM IBN ABBOS (taxm. 624-677) — sahoba. *Muhammad* (sav)ning amakivachchasi. Xalifa *Ali ibn Abu Tolib* davrida Makka voliyasi bo'lgan. *Muoviya* davrida Xuroson voliyasi *Said ibn Usmon* bilan birga O'rta Osiyoni fath etishda qatnashgan. Manbalarda aytilishicha, Said dinni kuchaytirmoq va shariat hukmlarini yurgizmoq maqsadida Qusam ibn Abbosni bir necha islom qo'shini bilan Samarqandda qoldirgan. 677-yilda sug'diylar Samarqandga hujum qilganda Qusam ibn Abbos shahid bo'lgan. Banu nojiya qabristonida g'or yonida (boshqa manbalarda – g'oziyalar yonida) dafn etilgan. *Sulton Sanjar Moziy* (1118-1157) zamonasida o'sha qabristonda "Qusamiya" madrasasi solingan. U Obi mashhad arig'i yaqinida bo'lgan. *Amir Temur* davrida ushbu mozor ustiga imorat qilinib, turli bezaklar bilan bezatilgan. Xalq orasida *Shohizinda* ("Tirik shoh") nomi bilan mashhur bo'lgan bu yodgorlik o'rta asr me'morligining noyob obidalaridan sanaladi.

QUTAYBA IBN MUSLIM AL-BOHILIY, ABU HAFS (660-715, Andijon viloyati Jalolquduq tumani, Kox qishlog'i) — Ummaviylarning Xurosondagi noibi (705-715), Movarounnahrni bosib olgan arab sarkardasi. Qutayba ibn Muslim qays (qaysit) nomli shimoliy arab qabilasiga mansub bo'lgan. *Hajjo ibn Yusuf* tomonidan Xuroson amiri (noibi) qilib tayinlangach (705), dastlab Xuroson va Toxaristonni to'la ravishda arablarga bo'ysundirdi. So'ngra u 706-715-yillar orasida Movarounnahrning katta qismini (Romitan va Poykendni, 707; Varaxsha, Vardona va Buxoroni, 709; Shuman, Kesh va Nasafni, 710; Xorazm va Samarqandni, 712; Shosh, Farg'ona va Qoshg'arni, 713-715-yillarda) arab xalifaligiga tobe etgan. Qutayba ibn Muslim qo'shiniga Buxoro va Samarqanddagi sug'diylar va turkiylar, xususan, Vardona mulkining hukmdori *Vardonxudot* qattiq qarshilik ko'rsatgan. Qutayba ibn Muslim tomonidan mahalliy aholini islom diniga kiritish dastlab qattiq qarshilikka uchragan. Masalan, u to'rtinchi marta jang qilib Buxoroni olgach, arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar buxoroliklar zaruratdan musulmon bo'ladi degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqardi. Qutayba ibn Muslim shu yo'l bilan Buxoro va boshqa shaharlarda musulmonchilikni o'rnatdi. U Movarounnahrda dastlabki Jome' masjidini Buxoroda qurdiradi (712-713). Qutayba ibn Muslim boshqa shaharlarda ham masjidlar qurdirib, zardushtiylik va buddaviylikka qarshi ayovsiz kurashdi. *Beruniyning* "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirilishicha, "*Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi*". Qutayba ibn Muslimning yangi xalifa Sulaymon (hukmronlik davri: 715-717)ga bo'ysunmasligi, Movarounnahrda arab qo'shinlari o'rtasida unga nisbatan norozilik paydo bo'lishi va isyon ko'tarilishiga olib keldi. Arablarning shaybon qabilasiga mansub Hayyon an-Nabatiy (uning 7 ming kishilik qo'shini bo'lgan) va tamim (tamimiy) qabilasi vakili Vaqi ibn Abu Sud boshchiligidagi isyonchilar Qutayba ibn

Muslimning chodiriga bostirib kirib, u bilan birgalikda *Abdurrahmon, Abdulloh, Solih, Husayn, Abdulkarim* nomli ukalarini, o'g'li Kasir ibn Qutayba va jiyanlarini (jami 11 erkakni) o'ldirishgan. Qutayba ibn Muslim Kox qishlog'idagi Raboti Sarxang (hozirgi Mozorbuva) qabristonida dafn etilgan. Uning shaxsi ilk o'rta asrlardan boshlab Movarounnahrda islom ulamolari tomonidan muqaddaslashtirilgan.

QUTAYBA IBN TUG'SHODA (VIII asr, Buxoro) — buxorxudot (738-753). Qutayba ibn Tug'shodaning otasi Tug'shoda 32 yil. Buxoroda buxorxudot lavozimida turgan. Tug'shoda musulmon bo'lgandan so'ng tug'ilgan o'g'liga *Qutayba ibn Muslim* sharafiga Qutayba deb ism qo'ygan. Tug'shoda arablar tomonidan Samarqandda o'ldirilgach, Buxoro taxtiga uning o'g'li Qutayba ibn Tug'shoda o'tirgan (738). Narshaxiyning yozishicha, Qutayba ibn Tug'shoda *Sharik qo'zg'olonini* bostirishda arab lashkarboshisi Ziyod ibn Solihga yordam bergan. Biroq Qutayba ibn Tug'shoda keyinchalik arablarga qarshi kurash e'lon qilgach, Xuroson va Movarounnahr noibi *Abu Muslim* tomonidan o'zi, birodari, oila a'zolari va tarafdorlari bilan birgalikda o'ldirilgan (753). Qutayba ibn Tug'shodaning o'limidan keyin uning boshqa birodarlari *Sukon ibn Tug'shoda* va *Bunyot ibn Tug'shoda* Buxoroga buxorxudot (podshoh) bo'lganlar.

ROFE IBN LAYS – *Nasr ibn Sayyorning* nabirasi, buxorxudot *Tug'shodaning* kuyovi. Movarounnahr va Xurosonda abbosiylar xalifaligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon (806-810-yillar) rahbari bo'lgan arab lashkarboshchisi. U arab bo'la turib, arablar va islomga qarshi chiqishi, qo'zg'olonchilar safiga o'tishi (xalifa *Xorun ar-Rashid*ga nisbatan shaxsiy adovati bo'lsa kerak) Xuroson va Movarounnahr xalqlari orasida uning obro-e'tiborini oshirib yuborgan. Qo'zg'olon Shosh, Farg'ona, Xo'jand, Ustrushona, Chag'oniyon, Buxoro, Xuttalon, Balx, Toxariston va Xorazmga yoyilgan. Xorun ar-Rashid qo'zg'olonni bostirish uchun xalifalik tomonidan ko'rilgan chora tadbirlar natija bermagach, Xuroson noibi Ma'mun (806-819-yillar) dehqonlardan Somonxudotning nabiralari *Nux, Ahmad* va *Yahyolardan* iltimos qilib, ulardan yordam so'raydi. Ular Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga majbur qildilar va qo'zg'olon bostirildi.

SAID IBN USMON — Xuroson noibi. U 676 yili arab qo'shinlarining Buxoroga bostirib kirishida boshchilik qilgan. Sug'd, Kesh va Nasaf viloyatlaridan yordamga kelgan 120 mingli harbiy kuchga suyanib Buxoro malikasi dushman bilan jang qilish uchun o'z qo'shinini safga tortadi. Biroq, sug'diylar vahimaga tushib Buxoroni o'z taqdiriga tashlab, jang maydonidan chiqib ketadilar. Natijada malika katta boj to'lab, malikzoda va dehqon aslzodalardan 80 nafarini garovga berib, sulh tuzishga majbur bo'ladi. Said ibn Usmon Buxorodan Samarqandga qo'shin tortadi. Bir oydan oshiqroq davom etgan jangdan so'ng Said ibn Usmon sug'diylar bilan sulh tuzib, kelishishga majbur bo'ladi. Samarqanddan u o'ljalar bilan bir qatorda 30 ming nafar asir olib qaytadi. Yo'l-yo'lakay u Termiz shahrini egallaydi.

SAID XAROSHIY – 721 yil tayinlangan Xuroson noibi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozongan edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshiriladi. Said Xaroshiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida *Gurak* boshliq so'g'd mulkdorlarning bir qismi arablar tomonga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonatkorana qirib tashlanadi. U Xo'jandda qo'zg'olonning yengilishi hamda *Divashtichning* fojiali mag'lubiyatlaridan keyin Said Xaroshiy Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytiradi. Tabariyning yozishicha, Said Xaroshiyning Keshga hujumi katta o'lpon evaziga to'xtatiladi, ammo erksevar Movarounnahr aholisi xalifalik hukmronligiga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurashni tinmay davom ettiradi.

SARHAMA – “*Oq kiyimlilar*” qo'zg'oloni yetakchilaridan biri. Som qal'asi mudofasiga qo'mondonlik qilgan sarkarda. U 3300 nafarli qo'shini bilan *Said Xaroshiyga* taslim bo'ladi.

SULAYMON – 715-yil xalifa *Volid* vafot etgach, uning o'rniga o'tirgan xalifa. Xuroson noibi *Qutaybaning* g'animi. *Qutayba* yangi xalifaga qarshi isyon ko'taradi. Lekin u 715-yilda Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi.

TARXUN – Sug'd podshosi (700-711). 707-yilda buxoroliklar va turgashlar bilan ittifoq bo'lib, O'rta Osiyoda arablarga qarshi kurashgan. Poykand fojiasidan keyin, *Qutaybaga* zarba berib, uni daf qilish maqsadida unga Buxoro hukmdori *Xunuxudot* va Shopurkom hokimi *Vardonxudot* boshliq katta harbiy kuch hamda 40 ming lashkar bilan yordamga kelgan turklar Tarob va Romitan oralig'ida to'planadilar. Ittifoqchilar Qutayba qo'shinini qurshovga oladilar. Uning ahvoli nihoyatda tanglashadi. Undan xalos bo'lish uchun *Qutayba* o'ta makkorlik bilan hiyla ishlatib, Movarounnahrning viloyat hokimlari ustidan birin-ketin g'alaba qozona boshlaydi. 709-710-yillarda Tarxun arablar bilan bitim tuzib, tovon to'lagan, shu tufayli Sug'd zodagonlari tomonidan taxtdan ag'darilib, qatl etilgan.

TUG'SHODA – Buxorxudot. Buxoro viloyatiga hokim qilib *Qutayba* Tug'shodani va o'z yaqinlaridan birini unga amir etib tayinlaydi.



UBAYDULLOH IBN ZIYOD (taxm. 649-685) — Arab xalifaligining Xurosondagi noibi (673-674); Movarounnahrni arablar tomonidan fath etilishining dastlabki bosqichida faol qatnashgan arab sarkardasi. Xalifa *Muoviya* farmoni bilan u 673-yil kuzida arab qo‘shiniga bosh bo‘lib, Amudaryoni birinchi bo‘lib kechib o‘tgan. So‘ngra Buxoroni qamal qilgan. Buxoro malikasi turklarni yordamga chaqirgan va ular yordamida arablarga qarshi zarbalar bergan. Biroq, oqibatda arab qo‘shini g‘olib kelib, o‘rtada sulh tuzilgan. Sulhga ko‘ra, Buxoro malikasi bir lak (bir million) dirham hajmda boj to‘lagan, shuningdek, arablar ko‘plab qurol-yarog‘lar, kiyim-kechaklar, oltin, kumush buyumlar va 4 ming buxorolik kamonchilarni o‘lja olib, Xuroson noibi qarorgohi — Marvga qaytishgan. Ubaydulloh ibn Ziyod buxorolik kamonchilarni o‘zining shaxsiy gvardiyasiga aylantirgan. *Muoviya* Ubaydullohni 674-yil Xurosondan chaqirtirib olib, Basra noibi etib tayinlagan, 681-yildan — Basra va Kufa noibi.

UMAR IBN ABDULAZIZ – Arab xalifasi (717-719). U hukmronligi davrida murakkab vaziyatni hisobga olib, bo‘ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo‘ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to‘xtatish hamda moliyaviy islohot o‘tkazish to‘g‘risida farmon berdi. Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan ajamliklardan xiroj va jiz‘ya soliqlarini olish bekor qilindi. Ammo Xuroson noiblari farmonni xalifalikning moliya siyosatiga zid degan bahona bilan uni bajarishdan bosh tortadilar. Ular hatto aholi hali yuzaki musulmon, jiz‘yadan ozod qilish uchun xatnaga e‘tibor berish ham lozim degan beandishalikkacha boradilar. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko‘pchiligi o‘zini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq to‘lamay qo‘yadi. So‘ngra xalifalik ma‘murlari bir yo‘la hammadan jiz‘ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan xalifalik vakillari o‘rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda xalifalikka qarshi xalq qo‘zg‘oloni ko‘tariladi.

VARDONXUDOT – Shopurkom hokimi. Poykand fojiasidan keyin, *Qutayba* boshliq dushmanga zarba berish maqsadida unga Sug‘d podshosi *Tarxun*, Buxoro hukmdori *Xunukxudot* boshliq katta harbiy kuch hamda 40 ming lashkar bilan yordamga kelgan turklar Tarob va Romitan oralig‘ida to‘planadilar. Ittifoqchilar *Qutayba* qo‘shinini qurshovga oladilar. Uning ahvoli nihoyatda tanglashadi. Undan xalos bo‘lish uchun *Qutayba* o‘ta makkorlik bilan hiyla ishlatib, Movarounnahrning viloyat hokimlari ustidan birin-ketin g‘alaba qozona boshlaydi.

VOLID – Arab xalifasi. U 715-yil vafot etgan.

XASHVIY – Muqanna qo‘shinidagi uch lashkarboshilardan biri. Fuzayl ko‘shkidan. *Girdak* va *Bog‘iy* bilan birgalikda Narshax qal‘asini egallab olib, arablarga qattiq qarshilik ko‘rsatadilar.

XISHRIY – “*Oq kiyimlilar*” qo‘zg‘oloni rahbarlaridan biri. Narshax qal‘asida arablarga qarshi bo‘lgan jangda yengilib, arablar tomonidan o‘ldiriladi.

XUNUKXUDOT – Poykand fojiasidan keyin, beshafqat *Qutayba* boshchiligidagi arab xavfli dushmaniga zarba berib, uni daf qilish maqsadida harbiy kuch bilan yordamga kelgan Buxoro hukmdori.

YAHYO ibn Asad (819-855) – Somonxudotning nabiralaridan. U Xuroson noibi *Ma‘munga Rofe ibn Lays* qo‘zg‘olonini bostirishda katta yordam beradi. Ma‘munga xalifalik taxtini egallashda yordam bergani uchun Shoh va Ustrushonaga noib etib tayinlanadi.

ZIYOD IBN SOLIH AL HUZA‘IY (?-taxm 754) – *Abu Muslimning* yaqin safdoshlaridan biri va sarkardasi. Arablarning Huza‘a qabilasidan. *Abu Muslim* uni 10 ming kishilik qo‘shin bilan Buxorodagi *Sharik ibn al-Maxriy* harakatini bostirish uchun yuborgan (750/751). *Sharik* bilan Ziyod ibn Solih qo‘shinlari o‘rtasidagi urush 37 kun davom etgan. *Sharik* jangda halok bo‘lgan. Buxoro amiri *Abdujabbor ibn Shuab* shaharni qattiq mudofaa etgan. Ziyod ibn Solih Buxoroni ololmay shaharga o‘t qo‘yishni buyurgan: 3 kun ichida shaharning katta qismi kuyib kul bo‘lgan. Oxiri jang shaharning janubiy qismidagi Attoron darvozasi oldida bo‘lgan, juda ko‘p aholi qirilib ketgan. Qolgan mudofaachilarni shahar darvozasiga osishgan. Ziyovuddin ibn Solih Samarqanddagi g‘alayonni ham bostirgan. 751-yili Talas jangida O‘rta Osiyoda o‘z mavqeni kuchaytirmoqchi bo‘lgan Xitoy qo‘shinini butkul tor-mor etgan. 754-yili Xalifa *Mansur* buyrug‘i bilan *Abu Muslimga* qarshi chiqqan. Ziyod ibn Solihga qarshi bo‘lgan Buxoro hokimlari *Abu Muslimni* qo‘llab-quvvatlashgan. Ziyod ibn Solih Samarqand atrofidagi Barkas qishlog‘ida yashovchi zodagon dehqon uyiga yashiringan, lekin dehqon uni o‘ldirib, boshini barkashga solib *Abu Muslim* oldiga olib kelgan.

XUTAK XOTUN — arablarga qarshi kurashgan Buxoro malikasi (673-695). 673 yilda arab sarkardasi *Ubaydulloh ibn Ziyod* Toxariston o‘lkasini ishg‘ol qilgandan keyin Amudaryoni kechib o‘tib, Poykend va Romitan shaharlarini bosib oladi. Unga qarshi chiqqan Buxoro hukmdori *Bidun* o‘ldirilgach, Buxoro hokimiyati uning ayoli qo‘liga o‘tadi va u arablarga qarshi kurashga boshchilik qiladi. Arab-fors manbalarida ushbu ayolning ismi Xutak xotun, Qabaj xotun, Xotun shakllarida zikr etiladi. Narshaxiyning “*Buxoro tarixi*” asarida

qayd etilishicha, arablar tomonidan buxorxudot *Bidun* o'ldirilgach, uning o'g'li *Tug'shoda* yosh bo'lganligi sababli o'rniga ayoli Xotun o'tiradi. Xotun 695-yilgacha Buxoroni boshqargach, uning o'rnini o'g'li *Tug'shoda* oladi. Narshaxiyning ta'kidlashicha, Xotun hukmronlik qilgan davrda undan donoroq biror kishi bo'lmagan. U donolik bilan hukmronlik qilgani uchun xalq unga itoatda bo'lgan. Tabariyning "*Tarix ar-rasul va-l-muluk*" asarida qayd etilishicha, 681-yili arablarning Xurosondagi noibi amir *Salm ibn Ziyod* Buxoroga yurish boshlaydi. Bundan xabar topgan Xutak xotun turk xoqoni huzuriga elchi yuborib, uni yordamga chaqiradi. O'zining maktubida Xutak xotun xoqon bilan nikoh tuzishga rozi ekanligini xabar qiladi. Turk xoqoni katta qo'shin bilan Buxoroga yetib kelib, arablar bilan qattiq jang qiladi. Lekin, u arablardan mag'lubiyatga uchragach, Xutak xotun arablar bilan sulh tuzishga majbur bo'lsa-da, Buxoroni ancha yillar arablar hukmronligidan saqlab qoladi. **SHARIK IBN SHAYX AL-MAHRIY** — 750-yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari. Qo'zg'olonchilar abbosiylarni xalifalik taxtidan haydab, ularning o'rniga Muhammadning kuyovi *Ali ibn Abu Tolib* avlodidan xalifa ko'tarish shiori bilan chiqadilar. Bu harakatni bostirishda *Abu Muslim* barcha chora va tadbirlarni ko'radi. U *Ziyod binna Solih* boshchiligida 10 minglik qo'shin yuboradi. *Abu Muslim* harchand urinsa-da, ammo qo'zg'olonni bostira olmaydi. Qo'zg'olon nihoyatda avj olib ketadi. U 750-yilda Buxoroning mahalliy hukmdori buxorxudot *Qutayba ibn Tug'shoda*ning yordami bilangina bostiriladi.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

ABBOSIYLAR – Arab xalifalari sulolasi (750-1258), Muhammad(sav)ning amakilari Abbas avlodlari. Abu Muslim harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan. laqabi bilan mashhur bo'lgan Abul-Abbos Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754-775) Bag'dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chiradi. Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrida savdo-sotiq rivojlanadi. Bag'dod Sharqning yirik savdo markaziga aylandi, ilm-fan ravnaq topib, falsafa, matematika, tibbiyot va boshqa fanlarga oid ko'plab asarlar yaratiladi. Andalusiya (Ispaniya) dan tashqari butun musulmon mamlakatlari – Mag'ribdan to Movarounnahr gacha Abbosiylar qo'l ostiga o'tadi. Bular xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa, Horun ar-Rashid va uning o'g'li Mam'un zamoni Abbosiylar sulolasining gullagan davri edi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abbosiylar xalifaligi zaiflasha boshladi. X asrning boshiga kelib faqat Bag'dod va uning atroflaridagina siyosiy hokimiyat Abbosiylar qo'lida qoldi. Harbiy kuchlar turk sarkardalari qo'lga o'tib ketdi. Ular xohlagan vaqtlarida xalifalarni almashtira olar edilar. X asr o'rtalariga kelib Abbosiylar siyosiy hokimiyatni tamoman qo'ldan boy berib, musulmonlarning diniy xalifasi (payg'ambar o'rinbosari) gina bo'lib qoldilar. Erondagi buvahiylar (945-yil) Bag'dodni o'z qo'lga oldi, lekin ular Abbosiylarning mavqe bilan hisoblashar edi. Bag'dod saljuqiy-sunniylar tomonidan bosib olingandan keyin Abbosiylar siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va mavqe mustahkamlandi. 1258-yil mo'g'ullar Bag'dodni vayron qilib, Abbosiylarni tamoman tor-mor keltirdi. Mo'g'ul xoni Huloku buyrug'i bilan Abbosiy xalifalarning so'nggisi – Musta'sim qatl etildi. Abbosiylar sulolasining qolgan vakillari esa Misrga qochdi. Mamluk sultonlari davrida (turklar 1517-yil

Dastlabki poytaxti – Kufa shahri "Saffoh" ("Xunrez") Misrni olgunga qadar) Abbosiylar Qohirada muqaddas kishilar sifatida yashab keldilar. 1261-yil Mamluk sultoni Beybars Abbosiylardan biri al-Mustansirni xalifa deb e'lon qildi. 1517-yil Abbosiylarning avlodi Mutavakkil III Istanbulga keltirilib, u diniy rahnamolik huquqini turk sultonlariga topshirgan. Abbosiylardan 37 kishi xalifa bo'lgan.

ABU MUSLIM HAKARATI – 747-750-yillarda arab xalifaligining sharqiy qismi – Movarounnahr va Xurosonda Ummaviylar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan harakat. Unga *Abu Muslim* boshchilik qilgan. Harakatning asosiy kuchi shahar hunarmandlari va qishloq mehnatkashlari, Movarounnahr va Xurosonning mahalliy zodagonlari, Ummaviylar siyosatidan norozi bo'lgan Xurosondagi arab muxolifatchi guruhlar va qullar edi. Ummaviylarga qarshi harakatni kuchaytirish maqsadida *Abu Muslim* Marv yaqinidagi Safizanj, Mohuvon (Mahon) va Shavvol qishloqlarini qarorgohga aylantirib, xalifalikka qarshi tashviqot olib boradi. *Abu Muslim* soliqlarni qisqartirish va majburiy hashar ishlarini bekor qilishga va'da beradi. Shu sababli harakat ayrim joylarda mulkdorlarga qarshi keskin tus oladi. 747-yil dekabr – 748-yil yanvarda *Abu Muslim* Ummaviylarning Xurosondagi voliysi Nasr ibn Sayyorni yengib, Marv shahrini, 748-yilda Nishopur va Tus shaharlarini egallaydi. 748-yilda xalifalikning poytaxti Damashqqa yurish qiladi, 749-yilda Nahovand yaqinida Ummaviylarni tor-mor etib, 750-yil boshlarida Katta Zab daryosi bo'yida hal qiluvchi g'alabaga erishdi va xalifa *Marvon II* ni taxtdan olib tashladi. Uning o'rniga payg'ambar (sav) ning amakisi Abbas avlodidan bo'lgan *Abul Abbas*

as-Saffoh (750-754) xalifa bo'ladi. Shu bilan xalifalik abbosiylar qo'lga o'tadi.

AJAM — Arab xalqlari va mamlakatlaridan o'zga yurt va xalqlar.

GURAK VA DIVASHTICH QO'ZG'OLONI – 720-yilda Sug'dda arablarga qarshi bo'lib o'tgan qo'zg'olon. Qo'zg'olonida Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari keladi. Sug'ddagi barcha hokimliklar aholisi isyon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga katta zarba beradilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan harbiy qismlargina katta o'lpon va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar. Tabariyning yozishicha, qo'zg'olonni bostirish uchun Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz Sug'dga qarshi uch marta yurish qiladi. Hatto u shahar va uning atrofini suv bilan ta'minlaydigan to'g'olni egallab, Samarqand va uning tevarak-atrofini suvsiz qoldirish bilan qo'zg'olonchilarni taslim bo'lishga majbur etish uchun harakat qiladi. Biroq, buning uddasidan chiqa olmaydi. Sug'dliklar tog'on boshini mardonavor himoya qiladilar. Shunday qilib, qo'zg'olonni bostirish yo'lida amalga oshirilgan barcha chora va tadbirlar natija bermaydi. 721 yilda Said Xaroshiy Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozongan edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshiriladi. Said Xaroshiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida Gurak boshliq Sug'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomoniga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonatkorona qirib tashlanadi. Divashtich boshliq qo'zg'olonchilarning ikkinchi guruhi ham yuqori Zarafshonda Obgar qal'asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan qo'lga tushirilgan Divashtich Arbinjonga olib borilib, qatl etiladi, boshi Iroq hokimiga yuboriladi, tanasi otashparastlarning xilxonasi – nous devoriga qoqib qo'yiladi.

FARMON – qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq.

HURZOD QO'ZG'OLONI – Xorazmda bo'lib o'tgan qo'zg'olon. Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay fursat *Qutaybani* Sug'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb etadi. Xorazm shohi *Chag'on* ukasi *Hurzod* boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, 711 yilda yordam so'rab *Qutaybaga* murojaat qiladi. Garchi dushman qo'li bilan *Hurzod* tor-mor qilinib, u o'ldirilsa-da, ammo Xorazmshoh bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, u o'z mustaqilligini yo'qotib,

xalifalikning bojdoriga aylanadi. Uning qo'shini esa *Qutaybaning* harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

ISLOHOT – mavjud tartibni o'zgartirish.

ISLOM DINI (arabcha – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dindand (buddizm va xristianlik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "*muslim*" ("sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. Islom dini VII asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston)da paydo bo'ldi. Uning asoschisi *Muhammad* (sav)dir. Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom dini manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqtiriladi. Islom dini talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'ni Alloh odamlarga payg'ambar-elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib *Muhammad* (sav)ni tanladi, unga o'zining kalomi – Qur'onni nozil qildi. *Muhammad* (sav) oldin o'z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo – Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etdi. Qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy bobakaloni *Ibrohim* Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, islom batamom yangi e'tiqod emas, balki *Ibrohimning* qayta tiklangan dinidir. Islom dini tarixini o'rganishda o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olish kerak. Islom dini vujudga kelgan davrda Arabiston yarim orolida *Makka* va *Yasrib* (Madina) kabi shahar-davlatlar boshqalarga nisbatan muayyan ustunlikka ega edilar. Bu shaharlar xalqaro savdoning eng yirik markazlaridan bo'lib, iqtisodiy hayot jo'shqin tus olgandi. Shahar-davlatning kelajak taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshlagan. *Hijoz* (*Makka*, *Yasrib*, *Xaybar*, *Dumat al-Jandal*, *Tayma* va boshqalar) va umuman Arabistonni xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona saltanatga aylantirish davr talabi bo'lib qolgan edi. Saltanat tuzish bilan bir qatorda Arabiston yarim orolidagi qabilalarning etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffiyatga yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan. *Muhammad* (sav) har tomonlama

barkamol inson bo'lgani uchun, uning shaxsiy fazilatlarini tufayli yahudiy-xristian mazhablariga yaqin g'oya bilan yashovchi mahalliy hijozliklar harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etdi, diniy va siyosiy kuchga ega bo'ldi. Bu kuch islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi. *Muhammad* (sav) 610-yil, 40 yoshida o'zining diniy faoliyatini boshladi va vahiy (ilohiy ko'rsatma) olayotganini e'lon qildi. Ammo, bir necha nufuzli yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, quraysh qabilasining zodagonlari uning targ'ibotlariga ochidan-ochiq qarshi chiqdilar. *Muhammad* (sav) o'zga yerlarda tarafdorlarni izlashga majbur bo'ldi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdi, so'ng Makka zodagonlari bilan ma'lum davrdan buyon raqobatlashib kelayotgan Yasribdagi banu Avs va banu Xazraj qabilalarining vakillari 622-yil musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, *Muhammad*ni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo'lishdi. Yasrib shahridagi mavjud etnik vaziyat ham shuni taqozo etgandi. Hijra nomini olgan bu voqea Islom tarixida buriyish yasadi. Ko'chib o'tgan kishilar *muhojirlar* (ko'chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar *ansorlar* (tarafdorlar) deb ataldilar. *Madina* va *Makka* o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi. 628-yil *Makka* zodagonlari *Muhammad* bilan kelishishga majbur bo'ldilar. 630-yil musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz *Makkaga* kirib bordi. *Makka* aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va *Muhammad* (sav)ni Allohning elchisi (rasuli) deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab *Makka* Islom dini markaziga, *Ka'ba* musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. *Muhammad* (sav) vafot etgan 632-yilda Arabiston yarim oroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida islom dini muhim omil bo'lib hizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi. *Muhammad* (sav) vafotidan so'ng *Abu Bakr*, *Umar ibn Xattob*, *Usmon ibn Affon*, *Ali ibn Abu Tolib* payg'ambarning o'rinbosari (xalifa) sifatida hukmronlik qildilar. Ular va ulardan keyingi xalifalar VII-VIII asrlarda Iroq, Falastin, Suriya, Eron, Movarounnahr, Misr, Shimoliy Afrika, Pireney Yarim oroli, Shimoliy Hindistonni egalladilar. Bir asrdan kamroq vaqt davomida Shimoliy Xitoydan Ispaniyagacha, Kavkaz ortidan Hind okeanigacha bo'lgan katta hududni zabt etdilar va Islom dinini yoydilar. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'onidir. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilingan so'zi deb tushunildi. Islomning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va taqiqlari Qur'on bilan birga

uning tafsirlarida, hadis to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, VIII-XII asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan. Islom dinining asosiy aqidasi – "*Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli*". Islom ilohiyotining ilk shakli – kalom bo'lib, VIII asrda arab xalifaligida vujudga kelgan. *Mutakallimlar* Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar. Islom dini 5 "asos" yoki "ustun" (arkon ad-din al-islomiy)ga ega: 1) kalima keltirish; 2) namoz o'qish; 3) ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 aqidani – Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishiga ishonishni o'z ichiga oladi. Islom dinida xatna, ro'za hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, aqiqa, mavlid, xudoyi, ashuro kabi o'ziga xos diniy marosimchilik tarkib topgan. Bundan tashqari, mahalliy xalqlarda islomgacha mavjud bo'lgan urf-odatlar, jumladan, fol ochirish, dam soldirish, aziz-avliyolarga, muqaddas joylarga sig'inish ham islom marosimchiligiga moslashib ketgan. Islomda ilk davrdan paydo bo'lgan eng birinchi yirik muammo – oliy hokimiyatni egallashga payg'ambardan keyin kim xaqliroq, degan masala bo'ldi. Ali tarafdorlari "*shia*" nomi olib, Islomda birinchi bo'linishni boshlab berdilar. Uchinchi xalifa Usmon aynan shu bo'linishning qurboni sifatida jon taslim qildi. Ikki taraf – *sunniylik* va *shialik* o'rtasidagi kurash asnosida xorijiyalar deb atalgan uchinchi yo'nalish ham paydo bo'ldi. Ammo Islom tarixi uzra sunniylik asosiy yo'nalish bo'lib keldi. O'rta asrlarda hukmronlik qilgan abbosiyalar, saljuqiylar, ayyubiylar, mamluklar, usmonli turklar, temuriylar sulolalari sunniylikda edilar. Hozirgi kunda ham sunniylar musulmonlarning mutlaq ko'pchiligi (93 %) ni tashkil etadi. Birdan-bir davlat – Eronda shialik rasmiy diniy yo'nalish sifatida qabul qilingan. Iroq, Livan, Shimoliy Yaman, Ozarbayjon va Afg'onistonda shialarning yirik jamoalari mavjud. Ummon va Shimoliy Afrikada xorijiyalarning ba'zi toifalari saqlanib qolgan. Musulmon huquqshunosligi – fiqhda 4 sunniy (hanafiylik, sofi'ylik, molikiylik, hanbaliylik) va 1 shia (ja'fariylik) mazhablari shakllangan. Mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Firqalar, asosan, geografik va iqlimiy omillar hamda Islomni qabul qilgan xalqlarning oldingi madaniyati, an'analari va diniy tasavvurlari ta'sirida vujudga kelgan. Ularning aksariyati shia yo'nalishiga yo'nalishiga mansub bo'lib, eng yiriklari – imomiylar, ismoiliylar va zaydilar. Islomda ilk davrlardan shariat (barcha to'la rioya qilishi kerak bo'lgan qonunchilik) bilan shariat (barcha to'la rioya qilishi kerak bo'lgan qonunchilik) bilan tariqat (faqat ayrimlar Alloh xayrihohligiga muayassar bo'lishi

mumkinligi) yonma-yon rivojlanib kelgan. Tariqat asoschilari – murshidlarining “vali-ne‘mati” asrlar osha hozirgi avlodgacha yetib keladi, degan tushuncha bor. VIII-IX asrlarda Islomda diniy-falsafiy oqim – tasavvur paydo bo‘ldi. Sharqda eng mashhur bo‘lgan tasavvuf tariqatlari – naqshbandiylik, qodiriylar, shoziliylardir. Islom dinning muhim xususiyatlaridan biri – uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun Islom dini aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berganidadir.

JIZ‘YA (arabcha – jon solig‘i) – dastlab arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlari (jumladan, O‘rta Osiyo)da musulmon bo‘lmagan fuqarolardan olingan jon soli‘g‘i. Davlat musulmon bo‘lmagan fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishi, ularni tashqi va ichki tajovuzlardan saqlashi lozim bo‘lgan. Shuning evaziga ulardan jiz‘ya undirilgan. Jiz‘ya balog‘atga yetganlarga solingan (qariyalar, ayollar, bolalar, qul va ishga yaroqsizlar esa undan ozod qilingan). Jiz‘ya, asosan, pul va natura tarzida undirilgan.

KUDUNGAR – matoga ohar beruvchi.

LAK – O‘rta asrlarda yuz ming.

MANJANIQ – toshotar harbiy qurilma. Eshilgan pay, tola yoki junning egiluvchanlik kuchi ostida harakatga keltirilgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda katapulta nomi bilan yuritilgan. Asosan, qal‘a va qo‘rg‘onlarni qamal qilishda qo‘llanilgan. Manjaniq yordamida qamaldagilarga qarata tosh yadrolar irg‘itilgan. Tosh topilmagan kezlarda turli daraxtlardan tayyorlangan g‘o‘la va kundalardan foydalanilgan. Xususan, mo‘g‘ul bosqinchilari Urganchni 7 oy davomida qamal qilish asnosida tevarak-atrofdan tosh topmay, tutning kundalarini kesib, manjaniqqa solib shaharga otganlar. Manjaniqdan otilgan tosh, kunda, g‘o‘lalar bir necha yuzmetrga borib tushgan. Manjaniq qal‘a, qo‘rg‘on devorlarini buzish, raxna ochish yoki binolarni yakson qilish, shuningdek, qamaldagilarga qiron keltirish uchun ham mo‘ljallangan. Amir Temur armiyasida ham manjaniq mavjud bo‘lgan. Tikrit, Mordin kabi mustahkam qal‘alarni egallashda manjaniq qo‘l kelgan. O‘rta Osiyoda XV asrdan e‘tiboran o‘t sochish quroli – to‘p, zambarakning qator turlari qurollanishidan muhim o‘rin egallashi sababli manjaniqdan asta-sekin voz kechilgan. Toshotar qurilmaning manjaniqqa nisbatan kichik turi arroda deb nomlangan.

MUQANNA — niqobli kishi.

MUQANNA QO‘ZG‘OLONI (VIII asrning 70-80-yillari) – Movarounnahrda Arab xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan xalq ozodlik harakati, *Muqanna* rahbarlik qilgan. Qo‘zg‘olonchilar oq kiyim kiyganlari uchun “*oq kiyimliklar qo‘zg‘oloni*” nomi bilan mashhur. Qo‘zg‘olonda dehqonlar, qishloq hunarmandlari va mahalliy boylarning bir qismi qatnashgan. *Muqanna*

Mazdak ta‘limotining davomchisi sifatida ijtimoiy tenglikni keng targ‘ib qilganligi ta‘sirida qo‘zg‘olonchilar iqtisodiy tengsizlik va o‘lkada arablar hukmronligiga qarshi kurash boshlaganlar. *Muqanna* o‘ziga qarorgoh qilib *Som* tog‘idagi qal‘ani (Shahrisabz shahri yaqinida) tanladi. Samarqand, Buxoro, Kesh, Narshax shaharlari qo‘zg‘olon markaziga aylangan. Xalifa *Mansur* 775-yilda *Jabroil ibn Yahyoni* Ozarbayjondan katta harbiy kuch bilan Movarounnahrda yuborgan, ammo *Jabroil* qo‘zg‘olonchilardan yengilgan. 10 ming askar bilan *Jabroilga* yordamga yuborilgan *Uqaba ibn Salim* birinchi marta Kesh va Samarqandda *G‘aricha* boshliq, ikkinchi marta 14 ming askar bilan Termiz yaqinida Sarxama va Kayyoki *G‘uziy* boshliq qo‘zg‘olonchilar tomonidan tor-mor keltirildi. Natijada Naxshab va Chag‘oniyon viloyatlari qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tdi. Qo‘zg‘olon 766-yildan Buxoro vohasida kuchayib ketdi. Narshax qal‘asi qo‘zg‘olonchilarning qo‘rg‘oniga aylantirilgan. Bunda “oq kiyimliklar” ning katta qismi to‘plangan. Shu yili Narshax qal‘asi yaqinida “oq kiyimliklar” bilan arablardan Buxoro amiri *Husayn ibn Maoz* va Samarqand noibi *Jabroilning* birlashgan qo‘shinlari o‘rtasida 4 oy mobaynida jang bo‘ldi. Jangda “oq kiyimliklar” ning qo‘li baland keldi, ammo son jihatdan ko‘p bo‘lgan arab qo‘shinlari Narshax qal‘asi devori ostidan uzunasiga 50 gazli lahim kavlab, uni qulatgach, qal‘aga bostirib kirganlar. Qal‘a ichida davom etgan shiddatli janglarda qo‘zg‘olonchilar yengilgan, qo‘zg‘olon boshliqlaridan *Hakim ibn Ahmad* va *Hashviylar* o‘ldirilgan. Narshaxdagi qo‘zg‘olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni *Muqanna* qo‘zg‘olonining markazi bo‘lgan Samarqand va Keshga tashladilar. Xalifa *Mahdiy* 777-yilda *Muqanna* qo‘zg‘oloniga zarba berish uchun Nishopurga keldi, Xuroson noibi *Maoz* va Hirot amiri *Said Xarashiy* boshliq katta qo‘shin Samarqandga yuborildi. Qo‘zg‘olonchilar bilan bo‘lgan jangda arab qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi. Natijada *Maoz* Xuroson noibligidan iste‘foga chiqdi. 2 yillik to‘qnashuvlardan so‘ng Samarqand taslim bo‘ldi. So‘ngra arablarning birlashgan qo‘shinlari *Muqannaga* qarshi tashlandi. Narshax va Samarqandda “oq kiyimliklar” yengilgach, mahalliy boylar sotqinlik qilib, arablarga yordam bera boshladilar. Ular arablar bilan birga *Muqannaning* *Som* tog‘idagi istehkomini qamal qilishda qatnashdilar. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng tinkasi qurigan muqannachilar taslim bo‘ldilar. *Muqannaning* ukasi *Qabzam* 3300, *Som* qo‘rg‘oni mudofaasiga qo‘mondonlik qilayotgan *Sarxama* 3300 kishilik qo‘shini bilan *Said Xarashiyga* taslim bo‘ldilar. Ammo, arablarga taslim bo‘lishni istamagan

Muqanna o‘zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo‘ldi.

MUSLIM, musulmon (arab. — o‘zini Allohga bag‘ishlagan) — islom diniga e‘tiqod qilgan shaxs. M.ning ko‘plik shakli (muslimun)ni buzib talaffuz qilinishi tufayli Eronda “musalmon”, O‘rta Osiyoda “musulmon”, Rossiyada “basurman” atamaları kelib chiqqan.

MUZOFOT – hudud, yer.

NOYIB, noib (arabcha – o‘rinbosar, yordamchi) – o‘rta asrlarda musulmon davlatlarida tobe o‘lka yoki viloyat hokimi. Noyiblar, odatda, oliy hukmdorning o‘rinbosari hisoblangan.

QUR‘ON (arab. — o‘qimoq, qiroat qilmoq) — musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e‘tiqodiga ko‘ra, Qur‘on vahiy orqali Muhammad payg‘ambarga 610-632-yillar davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh). Qur‘on «Kitob» (yozuv), «Furqon» (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), «Zikr» (eslatma), «Tanzil» (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, «Nur» (yorug‘lik), «Hudo» (hidoyat), «Muborak» (barakotli), «Mubin» (ochiq-ravshan), «Bushro» (xushxabar), «Aziz» (e‘zozlanuvchi), «Majid» (ulug‘), «Bashir» (bashorat beruvchi), «Nazir» (ogohlantiruvchi) kabi so‘zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur‘on mushaf nomi bilan ham mashhur. Ulamolar Qur‘onning 30 xil nom va sifatlarini sanab o‘tganlar. Islom tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Qur‘on nozil bo‘lishi mil. 610-yil boshlangan. Muhammad payg‘ambar 40 yoshda Makka shahri yaqinidagi Hiro g‘orida chuqur tafakkurga berilib o‘tirgan bir paytda Jabroil farishta «Iqra’» («O‘qi») deb boshlanuvchi «Alaq» surasining avvalgi 5 oyatini keltirdi. Bu jarayon Makkada 13 yil, Madinada 10 yil, hammasi bo‘lib 23 yil davom etgan. Qur‘onning nozil qilinishi islom aqidasi bo‘yicha ramazon oyining 27-kuniga o‘tar kechasi yuz bergan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib, ro‘za tutilgan kunning 27-kechasi laylatul-qadr, ya‘ni qadrli, ilohiy qudrat namoyon bo‘ladigan, bandalarning bir yillik taqdiri hal qilinadigan (qadr — taqdir, o‘lchov) tabarruk kecha deb ulug‘lanadi. Qur‘on sura va oyatlarining nozil bo‘lish tartibi voqealarning rivojiga qarab davom etgan. Ilk islom davrida nozil bo‘lgan suralar, asosan, Allohning yagonaligi, borliqning mutlaq ilohi, dunyodagi barcha narsalar uning borligidan darak beruvchi dalil ekani, islom ta‘limotida belgilangan aqidaviy tushunchalar — farishtalar, payg‘ambarlar, muqaddas kitoblar, oxirat, jannat va do‘zaxning haqligi to‘g‘risida edi. Payg‘ambar va musulmonlarga og‘ir kelgan Makka davrida sabr-bardoshga chaqiruvchi, din yo‘lida chekilgan mashaqqatlar uchun ulug‘ ajru mukofotlar borligi haqidagi oyatlar nozil etilgan bo‘lsa, musulmonlar jamoasi shakllangan Madina davrida

diniy marosim va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan oyatlar to‘g‘ri keladi. Payg‘ambarga diniy masalalar bo‘yicha berilgan savollarga u vahiy orqali nozil qilingan oyatlar bilan javob berar edi. Qur‘onning bo‘limlari sura deyiladi, uni shartli ravishda bob bilan taqqoslash mumkin. Har sura oyatlarga bo‘lingan. Qur‘on 114 sura, 6236 oyatdan iborat. Har bir suraning o‘z nomi bor. Oyatlar esa tartib raqami bilan berilgan. Suralarning nomlari uning boshida kelgan so‘zdan olingan yoki zikri ko‘proq kelgan narsalar, voqealar yohud asosiy qahramon nomi bilan atalgan. Keyinchalik o‘qish va yodlash oson bo‘lishi uchun Iroq hokimi *Hajjoj ibn Yusuf* (hukmronlik yillari 694-714) ko‘rsatmasiga binoan Qur‘on 30 qism (arabcha — juz, forscha — pora)ga bo‘lingan. Qur‘onda birinchi kelgan «Fotiha» surasidan keyingi suralar katta, o‘rtacha va kichik suralar tartibida joylashgan. ikkinchi «Baqara» surasi 286 oyatdan, eng qisqa «Kavsar» surasi 3 oyatdan iborat. Eng qisqa oyatlar «Toho» va «Yosin», eng uzun oyat «Baqara» surasining 282-oyatidir. Suralar nozil bo‘lish vaqti va joyiga ko‘ra 2 ga: hijradan oldin nozil bo‘lgan suralar — «Makka suralari» (610-622-yillar, 90 sura) va hijradan keyin nozil bo‘lgan suralar — «Madina suralari» (622-yildan, 24 sura) ga ajratiladi. Qur‘on matnining ko‘p qismi Alloh bilan so‘zlashish, islom dushmanlari yoki undan ikkilanuvchilar bilan munozara qilish shaklida berilgan. Muhammad (sav) Qur‘on oyatlarini Jabroildan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar, jumladan, *Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka‘b* xurmoning po‘stlog‘i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o‘xshash narsalarga Qur‘onni yozib borganlar. Payg‘ambar hayotlik chog‘ida yana vahiy tushib qolar, degan umidda Qur‘on jamlab kitob shakliga keltirilmagan. Payg‘ambarning vafotidan keyin Qur‘on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida qoldi. Birinchi xalifa *Abu Bakr* davrida ridda (dindan qaytish)ga qarshi olib borilgan qattiq janglarda Qur‘onni to‘liq yod olgan ko‘plab qorilar halok bo‘lib, Qur‘onning kelajak avlodga saqlanmay yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilgan paytda *Umar ibn Xattob* Abu Bakrga Qur‘onni kitob holiga keltirib, jamlab qo‘yish zarurligini maslahat beradi. *Abu Bakr* bu ishni amalga oshirishni Payg‘ambar bilan ko‘p vaqt birga yurgan sahoba, Qur‘onni eng yaxshi yod olgan *Zayd ibn Sobit*ga topshirdi. *Zayd ibn Sobit, Umar ibn Xattob* va boshqalar Qur‘oni karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning ishonchli bo‘lishiga harakat qilib, masjidda: «*Kimning qo‘lida yozilgan Qur‘on bo‘lsa va uni Payg‘ambardan tinglaganiga ikkita guvohi bo‘lsa, bizga olib kelsin, Qur‘onni jam qilishga xalifaning buyrug‘i bo‘ldi*», deb e‘lon

qildilar. Ular masjidida o'tirib, guvohlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan 1 yildan ortiq vaqtda Qur'on sahifalarini jamladilar. So'ng ko'pchilikka ko'rsatdilar, hamma rozi bo'ldi. Shunday qilib, *Zayd va Umar* mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozib, *Abu Bakr*ning uyiga qo'ydilar. U olamdan o'tgandan keyin sahifalar *Umar*ning uyida, u kishidan so'ng esa, qizi — *Payg'ambar*ning xotini *Hafsa binti Umar* huzurida qoldi. Vaqt o'tishi bilan islom dini tarqalgan davlatning chegarasi kengayib bordi. Ko'plab xalqlar islomni qabul qilib, musulmonlar soni ko'paygandan so'ng Qur'onni o'qishda turli kelishmovchiliklar chiqa boshladi. Bunga Qur'onning «etti harf» (lahja)da nozil bo'lgani ham sabab bo'ldi. Hadisda ta'kidlanishicha, *Jabroil Qur'on* oyatlarini turli arab qabilalariga tushunarli bo'lishi uchun yetti xil lahjada keltirgan. Bunda ayrim so'zlar boshqacha shaklda yozilishi va o'qilishiga to'g'ri kelgan. Bu holatni ko'rgan xalifa *Usmon ibn Affon Hafsa*dan *Abu Bakr* davridagi sahifalarni so'rab olib, undan bir necha nusxa ko'chirishga buyruq berdi. Qur'on qiroatida farqli bo'lgan so'zlarda quraysh lahjasiga rioya qilindi. Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan diyoralardagi markaziy shaharlarga bittadan nusxaga qori qo'shib jo'natildi, hammaga faqat shu nusxadan Qur'onni ko'chirish va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq berildi. *Usmon ibn Affon* Makkaga *Abdulloh ibn Soib*ni, Shomga *Mug'iyra ibn Shihob*ni, Kufaga *Abdurahmon Sulamiy*ni, Basraga *Omir ibn Abul Qays*ni yubordi va har biriga bir nusxadan mushaf berdi. Madinada qolgan mushafdan odamlarga qiroat ta'limi berishni *Zayd ibn Sobit*ga topshirdi. *Usmon ibn Affon*da bir nusxa mushaf qoldi. Keyinchalik nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina *Usmon* davrida yozilgan nusxalarga suyanish joriy bo'ldi. Pirovardida har bir nusxaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida «*bu nusxa Usmon mushafiga muvofiqdir*», deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Qur'on harflarini yozish uslubi bir xilligi ham saqlab qolindi. Qur'on harflariga biror nuqtachalik ham o'zgarish kirmasin, degan maqsadda ulamolar mushaf ichiga hatto gul, daraxt bargi va shunga o'xshash boshqa narsalarni mutlaqo qo'yib bo'lmaydi, aks holda, o'sha narsalar sahifaga yopishib qolsa, shubha paydo bo'lishi mumkin, deb fatvo chiqardilar. Qur'onni nuqtalashni *Abul Asvad Dualiy* amalga oshirdi. U nuqta alomatlarini harflarning usti, osti va o'rtasiga qo'yib chiqdi. Vaqt o'tishi bilan kishilar Qur'onni xato o'qimasliklari va uning qiroati haqida turli ixtilofga tushmasliklari uchun, ulamolar mushaflarga diakritik belgilar (fatha, kasra, zamma) qo'yish kerak, degan fikrga to'xtaldilar. Bu ishni Iroq hokimi *Hajjo ibn Yusuf* hukmronlik davrida *Hasan*

Basriy bajardi. Bunda asl harflarga zarracha o'zgartirish kiritmaslik sharti qo'yildi. IX asrga kelib Qur'on arab bo'lmagan xalqlar tomonidan ham xatosiz o'qish mumkin bo'lgan holga keldi. Taraqqiyot davri kelib, Qur'onni texnik jihozlar vositasida chop etish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Lekin ulamolar avvaliga Qur'onning obro'siga to'g'ri kelmaydi, degan fikr bilan bu ishga ruxsat bermadilar. Ammo vaqt o'tishi bilan musulmonlar ham nashr ishlarini o'zlashtirdilar. Qur'onni chop etishga ehtiyoj ortib bordi va ulamolar kerakli shartlarni qo'yib, Qur'onni chop etishga izn berdilar. Qur'onning har bir nusxasi musulmonlar tomonidan e'zozlanadi. Ammo ularning ichida Usmon Qur'onlarining alohida o'rni bor. Toshkentda O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasining maxsus hujrasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni bevosita xalifa *Usmon* davrida (644-656) yozilgan muqaddas qo'lyozma deb hisoblanadi. Hozirgi kunda jahonda «*Usmon Qur'oni*» degan nom bilan ataladigan 4 qo'lyozma mavjud. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo'lib, islom manbalarida u «Imom» deb ataladi. Ikkinchi nusxa Ka'bada, uchinchi nusxa Qohira (Misr milliy kutubxonasi)da saqlanmoqda. To'rtinchisi Toshkentda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida uzoq vaqt saqlanib, 1989-yil boshida musulmonlar qurultoyida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasiga saqlash uchun topshirilgan. Boshqa tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, Toshkentdagi Usmon mushafidan tashqari Qohira va Istanbul shahrida (2 ta) saqlanayotgan nusxalari mavjud. Toshkentda saqlanayotgan Qur'onning bu yerga kelib qolishi tarixi haqida turli taxminlar bor. Ko'pchilik tadqiqotchilar uni *Amir Temur* Basradan Samarqandga olib kelgan, degan fikrni bildiradilar. Boshqa tarixchilar *Amir Temur To'xtamish*ni mag'lubiyatga uchratib, Oltin O'rdani egallaganidan keyin, o'sha Qur'onni qo'lga kiritib, Samarqandga keltirgan, degan xulosada. Tarixda yana boshqa farazlarga ham duch kelinadi. Ushbu Qur'on 1868-yil (ba'zi manbalarda 1869-yil) Samarqanddan Sankt-Peterburgga olib ketiladi va avval Rossiya xalq maorifi vazirligiga, so'ngra shahardagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasiga beriladi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng, musulmonlar qurultoyining iltimosiga ko'ra, RSFSR XKSning qarori bilan musulmonlarga qaytarib berilgan. Avval Ufada saqlanib, 1923-yilda Toshkentga keltirilgan. Bir necha vaqt Samarqandda, keyin Toshkentdagi Respublika xalq kutubxonasida, O'zSSR FA Sharq qo'lyozmalari institutda saqlangan. XX a. boshlaridagi tekshiruvga ko'ra, mushafning umumiy hajmi 68½53 sm hisoblanib, 353 varaqdan iborat bo'lgan. Bu varaqlarning yaltiroq va sarg'ish rangdagi yuz tomoni yaxshi saqlanib, ularning orqa beti salgina g'ijimlangan,

bir oz uringan kabiko‘rinar edi. Mushafning sahifalari nam tortishi natijasida bir muncha shikastlangan va ularda qon dog‘lari bor edi. Uning yirtib olingan yoki qattiq shikastlangan varaqlari o‘rniga 69 ta teriga o‘xshash qalin va mayin varaqlar tikib qo‘yilgan. Bu varaqlar paxta qog‘ozlardan mohirlik bilan ishlangan bo‘lib, ularni Mushafning asl sahifalaridan farqlash qiyin edi. Qur‘onning asosiy g‘oyasi — Alloh to‘g‘risidagi ta‘limotdir. Uning mavzusi va mohiyati insonlar tafakkurida ko‘pxudolikka barham berish, yakkaxudolikni targ‘ib qilish va islom dinini qaror toptirishdir. Shu bilan bog‘liq ravishda unda payg‘ambarlar, oxirat, taqdir va boshqa haqidagi aqidalar bayon etiladi. Alloh Qur‘onda o‘zining Odamoto, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Ya‘qub, Muso, Dovud, Iso, Muhammad (sav) va boshqa payg‘ambarlarini zikr etadi. Ularga yuborilgan din — islom ekani, Tavrot, Zabur, Injil va Qur‘on o‘zi nozil qilgan ilohiy kitoblar ekani, yahudiylar, nasroniylar va musulmonlarni «ahli kitob» deb atab, ularning e‘tiqodlari vahdoniyat ekanini Qur‘on oyatlarida qayta-qayta uqtiradi. Qur‘onda asosiy ibodat talablari (namoz, ro‘za, zakot va boshqa) belgilab berilgan. Undagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shakllangan shariatga asos qilib olingan. Qur‘onda insoniyatning etnik bo‘linishi, ijtimoiy tabaqalanishi, ayirmachilik, millatchilik inkor etiladi. Alloh nazdida barcha tengdir. Insonlar Alloh tomonidan millati, nasabi, boyligi, imtiyozi va hakozaq qarab emas, balki ularning qalbi va qilgan yaxshi yoki yomon amallariga qarab hukm qilinadilar. Diniy e‘tiqodda mustahkam turish, yaxshilik, ezgulik, savob ishlar, mehr-shafqat, miskin va muhtojlarga yordam berish, insonparvarlikni ulug‘lash barcha ilohiy kitoblar kabi Qur‘onning mazmuni-mohiyatini belgilaydi. Unda tekinxo‘rlik, birovlar haqini yeyish, boshqalar hisobiga yashash, poraxo‘rlik, ishyoqmaslik, jabr-zulm, o‘g‘rilik, qotillik, dil-ozorlik, fitnatchilik, kibru havo qoralanadi. Barcha xalqlar bir ota-onaning avlodi ekani eslatiladi. Ulamolar Qur‘on oyatlarini Allohning amrlari va nahyilar (ya‘ni mo‘min bandalarga buyurganlari va qilmanglar deb qaytarganlari), va‘da va va‘idlari (ya‘ni bandalarga dunyo va oxiratda savob amallari uchun yaxshilik berurman deya qilgan va‘dalari-yu, dunyo hamda oxiratda gunoh ishlari uchun azoblayman deb qo‘rqitishlari), avval o‘tgan ummatlar, payg‘ambarlarning tarixlari, halol-harom narsalar, banda qilishi kerak bo‘lgan duolar kabi qismlarga bo‘ladilar. Qur‘on kalom ilmining shakllanishi va rivojlanishida birinchi manba bo‘ldi. *Abu Hanifa «al-Fiqh al-akbar»*, *Abu Mansur Moturidiy «Kitob at-tavhid»*, *Abu Hafs Nasafiy «Aqoid an-Nasafiy»* asarida olg‘a surilgan islom ta‘limotiga oid o‘z fikrlariga dalil sifatida Qur‘on oyatlarini keltiradilar. Qur‘on

fiqhiy hukmlarni qabul qilishda asosiy va birinchi manba hisoblanadi. Undan keyin esa sunna, ijmo, qiyos turadi. Qur‘onda kelgan hukm shariatda farz sifatida qabul qilinadi. Arab tili grammatikasi va adabiyotining rivojlanishida Qur‘onning o‘rni beqiyos. Qur‘on uslubi (qofiyalashtirilgan she‘riy proza — saj‘da yozilgan) keyingi arab adabiyotiga, umuman sharq adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Qur‘on ilmlari rivojlanishi jarayonida aniq grammatik qoidalarga nisbatan paydo bo‘lgan ehtiyoj bu sohaning taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi. Qur‘on faqat arab tilida emas, balki islom tarqalgan mamlakatlar xalqlarining tillarida yaratilgan asarlarda ham o‘z aksini topdi. Xususan, *Jaloliddin Rumiy*, *Alisher Navoiy*, *Zahiriddin Muhammad Bobur* kabi adabiyot namoyandalari asarlarida Qur‘ondan olingan iqtibos, ibora, hikoyat, zarbulmasallarni uchratish mumkin. Qur‘on musulmon xalqlar hayoti, tarixi, ilmi, adabiyoti, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar va dunyoqarashlarida o‘zining salmoqli ta‘siriga ega. Ulamolar Qur‘onni tushunish uchun zarur bo‘lgan fanlar majmuasi — Qur‘on ilmlaridan nosix va mansux (bekor qiluvchi va bekor qilingan oyatlar), asbob an-anzul (oyatlarning nozil bo‘lish sabablari), tafsir kabi sohalarni sanab o‘tganlar. Tafsir Payg‘ambar davridayoq yuzaga kelgan. Eng birinchi mufassir (tafsirchi) Muhammad (sav)ning o‘zi bo‘lib, u odamlarga Qur‘on ma‘nolarini bayon qilib berardi. Payg‘ambardan keyin *Abu Bakr*, *Umar ibn Xattob*, *Usmon ibn Affon*, *Ali ibn Abu Tolib* mufassir bo‘lgan. Shuningdek, *Abdulloh ibn Abbos* (690-yilda vafot etgan), *Abdulloh ibn Mas‘ud* (654-yil vafot etgan), *Ubay ibn Ka‘b* (VII a.), *Anas ibn Molik* (712-yil vafot etgan) kabi sahobalar ham ilk mufassirlardan hisoblanadi. *Tobein* mufassirlardan *Mujohid ibn Jabr Makkiy* (723-yil vafot etgan), *Ikrima Abu Abdulloh al-Barbariy* (723-yil vafot etgan), *Said ibn Jubayr* (714-yil vafot etgan), *Ato ibn Abi Raboh* (734-yil vafot etgan) kabilarni zikr etish mumkin. Sahoba va tobeinlar davrida tafsir og‘zaki rivoyat va naql shaklida bo‘lib, kitob tarzida yozilmagan. *Muhammad ibn Jarir Tabariy* (923-yil vafot etgan), *Abu Mansur Moturidiy* (944-yil vafot etgan), *Abul Barakat Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiy* (1310-yil vafot etgan) kabi yirik mufassir ulamolar o‘zlarining tafsir kitob-larini yozdilar. Afsuski, islomda paydo bo‘lgan turli firqalar Qur‘onga o‘z ta‘limotlariga mos ravishda tafsirlar yoza boshladilar, zero tafsirchilik mufassirning dunyo-qarashi bilan bog‘liqdir. Ammo islomning sof ta‘limotiga zid bo‘lgan tafsirlar vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib, ularning nomi va mualliflari haqidagi xabarlar manbalarda saqlanib qolgan. Tarixda Qur‘onning islom jamiyatidagi ulkan mavqedan turli firqalar o‘zlarining g‘arazli maqsadlarida foydalanish holatlari ko‘plab kuzatilgan.

Ulamolar esa ularning bunday noto‘g‘ri talqinlariga qarshi doimiy ravishda o‘zlarining xolis fikrlari bilan kurashib kelganlar. Qur‘onni g‘arazli talqinlardan xoli tutish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qur‘on XII asrdan Yevropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. Fransuz sharqshunosi *Andre dyu Rie* tomonidan qilingan fransuz tilidagi tarjimasini 1647-yil Parijda chop etildi. Shu tarjima asosida *Pyotr I* buyrug‘iga binoan Qur‘on rus tiliga o‘girildi va 1716-yil Peterburgda chop etildi. Fransuzcha tarjima ko‘p tillardagi nashrlarga asos bo‘ldi. Qur‘on XVIII a. boshlarida Yevropa xalqlari tillaridan, XIX a. o‘rtalaridan arabcha asl matndan rus tiliga tarjima qilingan. Arabchadan *G.S. Sablukovning* dastlabki ruscha tarjimasini Qozonda 3 marta (1878, 1894, 1907) nashr qilingan. Qur‘onning rus tilidagi adekvatlik-adabiy tarjimasini ilmiy izohlari bilan akademik *I.Y. Krachkovskiy* tomonidan amalga oshirilgan va uning vafotidan keyin (1963) nashr qilingan. Hozirgi kunga qadar Qur‘onga 1700 xil tafsir yozilgan. Jumladan, *Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning* bir necha jildidan iborat «*Tafsiri hilol*» nomli asari (Toshkent, 1992-2005), *Abdulaziz Mansurning* «*Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri*» (Toshkent, 2004) o‘zbek tilida chop etilgan. Qur‘on 1000 dan ortiq tilga tarjima qilingan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin *Alouddin Mansurning* «*Qur‘oni karim*»ning o‘zbekcha izohli tarjimasini (Toshkent, 1991), *Abdulaziz Mansurning* «*Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimasini*» (Toshkent, 2001), *Mutallib Usmon* va boshqalarning «*Qur‘oni karim. Tarjima va ilmiy-tarixiy izohlar*» (birinchi kitob, Toshkent, 2004) kitoblari chop etildi. Shuningdek, ko‘zi ojizlar uchun Qur‘onning bo‘rtma harflar (brayl yozuvi)da alohida 8 jildli kitobi nashr qilindi (2004).

ROFE IBN LAYS QO‘ZG‘OLONI (806-810-yillar) – Movarounnahr va Xurosonda abbosiylar xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon. Unga Nasr ibn Sayyorning nabirasi, buxorxudot *Tug‘shodaning* kuyovi *Rofe bin Lays* boshchilik qilgan. Qo‘zg‘olonga Xuroson va Movarounnahr noibi *Ali ibn Isoning* mahalliy xalqqa nisbatan zulmi sabab bo‘lgan. Unda mahalliy dehqonlar, kashovarlar va kadivarlar, turk qabilalari (qarluqlar va boshqa) hamda ayrim arab zodagonlari faol qatnashgan. Qo‘zg‘olon 2 bosqichdan iborat bo‘lgan. *Tabariyning* yozishicha, qo‘zg‘olon boshlanishiga maishiy holatlar (nufuzli arab oqsuyaklari o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik va boshqa) bahona bo‘lgan. Qo‘zg‘olonning birinchi bosqichida o‘zi arab va Xuroson noibining mehtari bo‘lgan *Rofe ibn Laysning* harakatga yetakchilik qilishi uning qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida nufuzi ortishiga olib kelgan. Janglarda *Rofe ibn Lays* guruhi Samarqand hokimi

Sulaymon ibn Humayd (806)ni o‘ldirgach, qo‘zg‘olon avj olib ketgan va Samarqanddan tashqari Buxoro, Xorazm, Shosh, Xo‘jand, Ustrushona, Nasaf, Chag‘oniyon, Xuttalon, Balx va Toxaristonga keng yoyilgan. Buxorodagi qo‘zg‘olonga *Rofe ibn Laysning* ukasi *Bashir ibn Lays*, Ishtixondagi qo‘zg‘olonga esa *Ujayf ibn Anbas* boshchilik qilgan. Qo‘zg‘olon ko‘laminin tobora kengayib borishidan cho‘chigan xalifa *Horun ar-Rashid* 300 ming kishilik qo‘shinni *Harsama ibn Ayyon* boshchiligida Xurosonga jo‘natgan (807-yil oxiri). *Harsama* Marv va Amul orqali Buxoroga keladi va shiddatli janglardan so‘ng uni egallaydi (809). *Bashir ibn Lays* qo‘lga olinib, Tusda qiynab o‘ldirilgan. Keyinchalik *Horun ar-Rashid* o‘g‘li – *Ma‘mun* bilan birga qo‘zg‘olonchilarga qarshi qo‘shin tortib kelgan. Biroq Tusga yetib kelgach, xastalanib vafot etgan (809-yil mart). Xuroson noibi bo‘lib olgan *Ma‘mun* turli yo‘llar bilan qo‘zg‘olonni bostirishga intilgan. *Rofe ibn Lays* Samarqandda mustahkam o‘rnashib, unda mudofaa devorlari qurdirgan. U qarluqlar, qo‘qqiz o‘g‘uzlar va boshqa turk qabilalaridan ham yordam so‘ragan. *Mam‘un* mahalliy mulkdor Somonxudotning – *Nuh, Ahmad, Yahyo* va *Ilyos ibn Asadga* maktub yuborib, lashkarboshi *Harsama ibn Ayyonning* qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashida madad berishini so‘raydi. *Bal‘amiyning* aytishicha, *Mam‘un* Xuroson va Movarounnahr aholisini bir yil xiroj to‘lashdan butunlay ozod qilib, xiroj miqdorini ¼ qismga kamaytirgan. *Ma‘munning* akasi – xalifa *Amin* bilan hokimiyat uchun bo‘lgan kurashlarda mahalliy tabaqa zodagonlari *Ma‘munni* qo‘llab-quvvatlaydi. Lekin shu paytdan boshlab qo‘zg‘olon susayadi va uning ikkinchi bosqichi boshlanadi. *Narshaxiyning* yozishicha, *Asad* o‘g‘illarining da‘vatiga ko‘ra, *Rofe ibn Lays* dastlab *Harsama* bilan sulh tuzgan va ular o‘rtasida quda-andachilik vujudga kelgan. Samarqandda *Rofe ibn Lays* va uning tarafdorlari o‘z xohishlari bilan taslim bo‘lgach (809-yil oktabr), qo‘zg‘olondan arab va mahalliy zodagonlar chetlashgan. Yo‘lboshchilarsiz qolgan qo‘zg‘olon tez orada butunlay bostirilgan (810). *Rofe ibn Laysning* keyingi taqdiri haqida bir-birga zid turli fikrlar (yangi xalifaning saroyida xizmat qilishdan tortib to‘qat qilinishigacha kabi) mavjud. *Rofe ibn Lays* qo‘zg‘oloni Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hokimiyati inqirozining tezlashuvi hamda somoniylar sulolasi vakillari *Nuh ibn Asadni* Samarqand, *Ahmad ibn Asadni* Farg‘ona (*Narshaxiyning* yozishicha, Marv), *Yahyo ibn Asadni* Choch va Ustushona, *Ilyos ibn Asadni* Hirot amirlari bo‘lishi (817)ga imkon yaratdi. Tohiriylar sulolasining aoshisi *Tohir ibn Husayn* esa Xuroson amiri bo‘lgan (821).

RUKN – islomda eng muhim sanalgan 5 ta vazifa. Unga kalimai shahodat, namoz, zakot, ro‘za va haj

ibodatlari kiradi. Rukn talablarini bajarish islomda har bir musulmon uchun farz hisoblanadi. Lekin ba'zi istisno holatlarda bu majburiyat zimmadan soqit bo'ladi. Masalan, boyligi shariat belgilagan ma'lum miqdor (nisob)ga yetmagan kishi zakot bermaydi yoki imkoni bo'lmagan musulmon uchun haj ibodatini amalga oshirish shart hisoblanmaydi.

SARHANGLIK – kichik lashkarboshi shu nom bilan yuritilgan.

SARXANG (forscha – qo'shin boshlig'i) – kichik lashkarboshi.

SARROJLIK – egar va jabdug' yasovchi ustaxona.

SUNBOD HARAKATI — Shim.-Sharqiy va Markaziy Eronda Abbosiylar xalifaligiga qarshi xalq (asosan, dehqonlar) harakati (755-y.). Harakatni Nishopur atrofidagi Oxan qishlog'idan bo'lgan *Sunbod* ismli kishi boshqargan. Sunbod harakatining boshlanishiga asosiy sabab — abbosiylarning xalqdan xiroj yig'ish va majburiy ishlatish (qasrlar qurish, kanallar qazish va b.)dan ozod qilish haqidagi va'dasini bajarmagani bo'lgan. Xuroson va Movarounnahr noibi *Abu Muslimning* xalifa *Mansur* buyrug'i bilan o'ldirilishi Sunbod harakatiga bahona bo'lgan. Bu harakat sunniy abbosiylarga qarshi qaratilgan bo'lib, unda zardushtiylar, shialar va xurramiylar qatnashgan. *Tabariyning* yozishicha, harakat 2 oy davom etgan. Xalifa *Mansur* bu harakatni bostirish uchun 10 ming kishilik qo'shin yuborgan. Bu qo'shin Hamadon bilan Ray o'rtasidagi cho'lining chekkasida Sunbod qo'shinini tor-mor keltirgan. Shu jangda *Sunbod* ham halok bo'lgan. Sunbod harakati bilan bir vaqtning o'zida Movarounnahrda ham abbosiylarga qarshi harakat boshlangan. Unchalik katta bo'lmagan bu harakatga *Abu Muslim* tarafdori — *Ishoq* boshchilik qilgan.

TALAS JANGI — Talas (Taroz) daryosi bo'yida arab va xitoy qo'shinlari o'rtasida yuz bergan hal qiluvchi jang (751). VIII asrning birinchi yarmida Tan imperiyasi Buyuk ipak yo'lini egallash va bu yo'ldagi davlatlarni o'ziga bo'ysundirish uchun bir necha bor urushlar qilgan. Movarounnahrda murakkab ichki ahvol (arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari), Farg'ona hokimining Choch hokimiga qarshi kurashida Xitoydan yordam so'ragani bu yurishlarga bahona bo'lgan. Tan davlati 750-yil millati koreys bo'lgan *Gao Syanchji* (Gav Shanchji) qo'mondonligida katta qo'shin jo'natgan. Bu qo'shin farg'onaliklar bilan ittifoqlikda Chochni olib vayron qilgan, katta o'lja (tuyalar, otlar, oltin, kumush)ni qo'lga kiritgan. Choch hokimi qatl qilingan, uning o'g'li arablardan yordam so'ragan. 751-yil iyul oyida arablarning *Ziyod ibn Solih* qo'mondonligi ostidagi qo'shini *Gao Syanchjining* xitoylar, farg'onaliklar, qashqarliklar, kucharliklar hamda qarluqlardan iborat yirik qo'shini (arab

manbalariga ko'ra 70 ming kishi) bilan Talas daryosi bo'yida to'qnashgan. Talas jangi 5 kun davom etgan. To'qnashuv jarayonida Tan armiyasi tarkibidagi qarluqlar arablarga qarshi kurashdan bosh tortgan va xitoyliklarning ar'ergardiga zarba berganlar. Xitoy qo'shini butunlay yakson qilingan. *Gao Syanchji* yordamchilari *Li Siye* va *Duan Shoushilar* bilan birga zo'rg'a qochib qutilgan. *Ibn al-Asirning* yozishicha, xitoyliklardan 50 ming kishi o'ldirilib, taxminan 20 ming kishi asir olingan. Asirga tushgan Xitoy jangchilari orasidan tanlab olingan hunarmandlar Samarqandga keltirilgan. Ular Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shganlar. Xitoylik hunarmandlar hatto Mesopotamiya shaharlariga ham keltirilgan. Talas jangi O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'ta muhim rol o'ynaydi. U Tan imperiyasining O'rta Osiyo hududini egallash yo'lidagi tajovuzkorona siyosatiga uzil-kesil chek qo'ygan. Ammo bu G'arb bilan Sharq o'rtasidagi savdo aloqalarini butunlay uzilishiga olib kelmagan.

TAVHID (arabcha — yakkaxudolik) – umumiy ma'noda – yakkaxudolik haqidagi ta'limot. Shar'iy istilohda esa, tavhid – islomda Allohga shirk keltirishning turli ko'rinishlaridan voz kechish va Allohning birligiga e'tiqod qilish. Tavhid islomda (sunnilikda ham, shialikda ham) rasman e'tirof etilgan aqidalarning birinchisi, mohiyatan, asosiy va markaziy aqida. Mazmunan shunday tasavvurni ifoda etgani uchun Qur'onning 112 — "Ixlos" surasi ham ba'zan tavhid deb yuritiladi.

UMAVIYLAR (661-750-yillar) – Yaqin va O'rta Sharq, Movarounnahrda hukmronlik qilgan arab xalifalari sulolasi, arablarning Makkadagi quraysh qabilasining *umayya* urug'idan kelib chiqishgan. Asoschisi – *Muoviya I*, Ummaviylar davrida arablar g'arbda Shimoliy Afrika, Pireney yarim orolining katta qismi, sharqda Tabariston, Jurjon, Movarounnahr, Sind va boshqa hududlarni bosib olishgan. *Muoviya I* (661-680) va *Abdumalik* davrida (685-705) davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy qudratini oshiruvchi bir qancha ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Xususan, xalifa lavozimi nasliy bo'lib qolgan, davlat xazinasi va davlat arxivi tashkil etilgan, arab tili davlat tili deb e'lon qilingan, yangi (oltin, kumush va mis) pul chiqarilgan, harbiy-dengiz floti tashkil etilgan. Ummaviylar poytaxtni *Damashq* shahriga ko'chirganlar, shu tufayli bu xalifalikni *Damashq* xalifaligi deb ham atashadi. Ummaviylar davrida ko'plab qo'zg'olonlar (736-737-yillarda O'rta Osiyoda *Xoris ibn Surayj*, 731-740-yillarda Marokashdagi barbarlar qo'zg'oloni, 742-yil Mag'ribda xorijiyalar qo'zg'oloni va boshqalar) bo'lgan. 747-750-yillardagi *Abu Muslim* qo'zg'oloni natijasida xalifa *Marvon II* taxtdan tushgan, hokimiyat abbosiylar qo'lga o'tgan. Ummaviy hukmdorlar:

Muoviya I (661-680-yillar), *Yazid I* (680-683-yillar), *Muoviya II* (683-684), *Marvon I* (684-685-yillar), *Abdulmalik* (685-705), *Valid* (705-715-yillar), *Sulaymon* (715-717), *Umar* (717-720), *Yazid II* (720-724), *Hishom* (724-743), *Valid II* (743-744), *Yazid III* (744), *Ibrohim* (744), *Marvon II* (744-750).

USHR, ASHUR, ASHAR (arabcha) – idora ishlari uchun daromadning o‘ndan biri hisobidan olinadigan soliq turi. Musulmon mamlakatlarida natura shaklida (ba‘zan pul bilan) undirilgan. Ushr solig‘i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan. Dastlabki davrlarda sayyidlar, yirik musulmon ulamolari, shuningdek, ayrim amirlar hamda “islom lashkariga o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan” hududlar aholisidan undirilgan. Ushr olingan yer-suv “mulki ushuriya” deb atalgan. Turli davrlarda ushr shakli mahalliy shart-sharoitga ko‘ra o‘zgargan. Ushr miqdori ba‘zan dehqon daromadining 10% dan yarimigacha qismini tashkil etgan.

XALIFA (arabcha – o‘rinbosar, noib) – musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshlig‘i. Xalifa Muhammad payg‘ambar (sav) ning o‘rinbosari, Ummaviylar davridan boshlab esa Allohning yerdagi noibi hisoblangan. *Muhammad* (sav) dan keyingi to‘rt Xalifa (*Abu Bakr Siddiq*, *Umar*, *Usmon*, *Ali*)ni xulofai roshidin, ya‘ni to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar deb atashgan. Abbosiylar, fotimiylar sulolasidan bo‘lgan hukmdorlar xalifa nomi bilan atalgan. XIII asrdan keyin ayrim musulmon mamlakatlarining hukmdorlari o‘zini diniy boshliq ham da‘vo qilib, xalifa nomiga ega bo‘lishgan.

XALIFALIK — VII-VIII asrlarda arab istilolari natijasida Arabiston yarim oroli, Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, O‘rta Osiyo va Kavkazortini o‘z ichiga olgan davlat. *Ibn Xalduinning* yozishicha, “johiliya arablari” faqat diniy sifatdagi (payg‘ambarlik, valiylik, kohinlik va h.k.) hokimiyatni tan olganlar. Shuning uchun ham hijratdan so‘ng (622-y.) Madinada barpo bo‘lgan va 630-632-yillarda butun Arabiston yarim orolini o‘z ichiga olgan tuzum islom diniga asoslangan, teokratik davlat shaklini olgan. Bu davlatning boshlig‘i — rasululloh — Allohning elchisi, ammo u abadiy emasligi payg‘ambarning o‘zi tomonidan qayta-qayta ta‘kidlab kelingan. Bu davlatni kelajakda boshqaradiganlar siyosiy usullardan foydalanishlari muqarrar edi, zero Muhammad (sav) — payg‘ambarlarning oxirgisi (xotam ul-anbiyo). Birinchi bo‘lib bu haqiqat Payg‘ambar (sav) tomonidan anglandi. “*Xalifalik mendan keyin ummatlarim ichida o‘ttiz yil, so‘ngra amirlik (podsholik)dir*”, degan mazmundagi hadis aynan shu fikrni isbotlaydi. Darhaqiqat, Allohning nomidan (vahiy orqali) ummatini boshqargan Muhammad payg‘ambar vafotidan so‘ngra rahbarlikka ilohiy rahnamolik

sifatiga ega bo‘lmagan va bunga da‘vo ham qilmagan xalifalar kelgan. Sahobalar bundan keyin dunyoviy ishlarni oddiy inson hukmdor — amir boshqarishini tushunganlar. Makkalik va madinalik sahobalar — muhojirlar va ansorlar o‘rtasidagi bahs faqatgina ularning qaysi biri ana shu lavozimga saylanishi haqida borar edi. *Abu Bakr Siddiqning* Xalifatu Rasululloh — Alloh elchisining o‘rinbosari bo‘lib saylanishi shundan dalolatdir. Aynan shu davrda hokimiyat vazifalarining (sud, moliya va h.k.) bo‘linishi va ularning, asosan, muhojirlar o‘rtasida taqsimlanishi yuz bergan. Bu jarayon, ya‘ni davlat boshqaruv tizimi diniylik qiyofasini yo‘qotib, dunyoviy tus olishi 4 xalifa — *Abu Bakr Siddiq* (632-634), *Umar ibn Xattob* (634-644), *Usmon ibn Affon* (644-656) va *Ali ibn Abu Tolib* (656-661) davrida uzil-kesil amalga oshgan. Ular “al-Xulafo ar-roshidun” (to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar) degan nom oldilar. *Ali ibn Abu Tolib* vafotidan so‘ng davlatni boshqargan Ummaviy xalifalar (661-750) arab tarixiy adabiyotida “diniy tarbiyadan umuman yiroq” shaxslar sifatida tavsiflanadilar. Xalifalar rasman diniy va dunyoviy yagonalikni mujassam etgan bo‘lsalarda, lekin amalda jamiyatning diniy hayotiga ta‘sir ko‘rsatmasdilar. Diniy arboblal (muhaddislar, qorilar, mufasssirlar, faqihlar) qatlami vujudga kelganki, endi diniy masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini xalifalar emas, balki aynan o‘sha arboblal shakllantiradigan bo‘lganlar.

XIROJ, XARAJ (arabcha) – Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida jumladan, O‘rta Osiyoda davlat tomonidan hosilning 1/3 qismi hajmida undirilgan yer solig‘i. Sosoniylar davlatida *Qavad I* va uning o‘g‘li *Xusrav I Anushirvon* o‘tkazgan soliq islohoti natijasida joriy qilingan yer solig‘i (xarag). Xiroj ilk xalifalik hududida “jizya” atamasining sinonimi sifatida qo‘llanilib, musulmon bo‘lmagan aholi bilan bir qatorda yer, suvga ega bo‘lgan musulmonlardan ham undirilgan.

ZAKOT – (arabcha – tozalanish, sadaqa berish) – mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning 5 asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo‘lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot beruvchi kishining mablag‘i o‘zi va qaramog‘idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo‘lishi lozim. Bu mablag‘ga kishining jamg‘armasi, do‘konda sotiladigan narsalari, sotaman deb olib qo‘ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Qur‘oni karimning ayrim suralarida zakot namoz bilan yonma-yon zikr etilgan. U yilda bir marta berilishi shart bo‘lgan xayr-ehson (sadaqa) qatoriga kiradi va ayni vaqtda ibodat hisoblanadi. Zakot miqdori mablag‘larning 1/40 ulushi (2,5%)ga teng. Zakotni zakot berolmaydigan musulmonlar olishga haqli. Zakot avval qarindoshlar orasidagi muhtojlarga, bunday

qarindoshlar bo‘lmasa, kambag‘al, qarzdor, musofirlarga beriladi. Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan zakot miqdori bir oz boshqacharoq belgilangan. Zakotning asl hikmati faqir va muhtojlarning hojatini chiqarmoqdir.

SHARIK QO‘ZG‘OLONI (751-yil) — Buxoroda Abbosiylar xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon. Unga *Sharik ibn Shayx al-Mahriy* boshchilik qilgan. Qo‘zg‘olonga Ummaviylar o‘rniga 750-yilda hokimiyat tepasiga kelgan abbosiylarning xalifalik hududidagi arab bo‘lmagan xalqlarga nisbatan siyosatida o‘zgarishlar qilmaganligi; qonuniy hokimiyat *Ali* avlodlari qo‘liga topshirilishi lozim, degan shialarning fikrlari sabab bo‘lgan. Unda Buxorodagi sug‘diyalar va arab aholisi qatnashgan. Biroq qo‘zg‘olonda mahalliy zodagonlar, savdogarlar, kashovarlar deyarli ishtirok etmagan. *Narshaxiyning* yozishicha, qo‘zg‘olon rahbari *Sharik* arab harbiylaridan bo‘lib, u Buxoroda yashagan. Uning atrofida juda ko‘p kishi yig‘ilgan. Buxoro amiri *Abduljabbor ibn Shuayb*, Xorazm amiri *Abdulmalik ibn Xarsama*, Barzam (hozirgi Karki) amiri *Muhammad ibn Husayn* va boshqalar *Sharikka* bay‘at qilib, uni qo‘llab-quvvatlashgan. *Tabariyning* fikricha, *Sharik* tarafdorlari 30 ming kishidan ortiq bo‘lgan. Xuroson voliyi *Abu Muslim Ziyod ibn Solih* boshchiligidagi 10 ming kishilik lashkarni qo‘zg‘oloni bostirish uchun Buxoroga jo‘natgan. Buxoro shahri darvozalari oldida 37 kun uzluksiz jang bo‘lib, unda buxoroliklar doim g‘alaba qozonib turgan. Buxoruxudot *Qutayba ibn Tag‘shoda* 10 ming odam bilan kelib, *Ziyod ibn Solih* bilan ittifoqlikda *Sharik* qo‘shiniga qarshi urushga kirishi qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchrashiga sabab bo‘lgan. *Sharik* lashkari katta qiyinchilikda qolgan. Qo‘shin o‘rtasida ochlik boshlangan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, qo‘zg‘olonchilar *Ziyod* va *Tag‘shodaning* birlashgan qo‘shinini Buxoro shahridan bir farsang uzoqlikda bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchratishgan. Navkand (Navkanda) qishlog‘ida bo‘lgan ikkinchi jang (751-y. yozi)da esa qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchrashgan. *Sharik ibn Shayx* ham jang paytida otdan yiqilgan va o‘ldirilgan. Buxoro amiri *Abduljabbor* bu mag‘lubiyatga qaramay, shaharni arablarga topshirishdan bosh tortgan. Arab lashkarboshisi *Ziyod ibn Solih* Buxoroga kelib, uch kecha-kunduz davomida shaharga o‘t qo‘ydirgan. Shahar ichida ham arab qo‘shini buxoroliklarning qattiq qarshiligiga uchragan. *Narshaxiyning* yozishicha, *Ziyodning* buyrug‘i bilan shahar aholisidan kimni tutsalar, ularni dorga osganlar va nihoyat shaharni olganlar. *Sharikning* o‘g‘li va harbiy qo‘mondonlari ham o‘ldirilgan. So‘ngra *Ziyod ibn Solih* Samarqandga kelib, bu yerdagi qo‘zg‘olonni ham

bostirgach, Xurosonga qaytgan. *Sharik* qo‘zg‘oloni keyinchalik Movarounnahr va Xurosonda arablarga qarshi ko‘tarilgan Muqanna qo‘zg‘oloni oldidan o‘ziga xos tayyorgarlik vazifasini o‘tagan.

SHAVVAL – Abu Muslim qullar uchun maxsus joy tashkil ettirgan qishloq.

CHORYORLAR (forscha — to‘rt do‘st) — Muhammad (sav) vafotidan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki 4 xalifa (*Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali*). Ularni choryorlar deb atash Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi oddiy dindorlar orasida rasm bo‘lgan. Choryorlar arab tilidagi diniy manbalarda “xulafo ar-roshidin” (“to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar”) nomi bilan tilga olinadi. Choryorlar xalifalikni boshqarish va kengaytirish, qo‘shni yerlarni fath etib islom bayrog‘i ostida birlashtirishga rahnamolik qilgan hukmdorlardir. Islomda choryorlar “payg‘ambar noiblari” hisoblanadilar. Islom an‘anasida choryorlar hukmronlik davri islomning oltin asri deb yuritiladi. Bu davr 30 yil davom etgan.

GEOGRAFIK NOMLAR

ARAB XALIFALIGI (632-1258-yillar) – Arabiston yarimoroli, Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, O‘rta Osiyo va Kavkazortini o‘z ichiga olgan saltanat. VII-VIII asrlarda tashkil topgan. Arab xalifaligi asoschisi payg‘ambar *Muhammad* (sav) ning eng yaqin safdoshi xalifa *Abu Bakr*dir. Arablar yuqorida zikr etilgan mamlakatlarni 633-715-yillar orasida bosib olganlar. Bu mamlakatlar, asosan, “Xulafo ar-roshidin” (“To‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar”) va Ummaviylar zamonida fath etildi. Lekin abbosiylar bu ulkan hududni butun saqlab qololmadilar. Ichki ixtiloflar ta‘siri ostida Arab xalifaligi VIII asrning oxirlaridan boshlab mayda-mayda qismlarga parchalanib keta boshladi; 788-yil Mag‘ribning g‘arbiy qismida (hozirgi Marokash) ibrisiylar (788-985), uning sharqiy qismida (hozirgi Tunis) ag‘labiylar (800-909) hukmronligi o‘rnatildi. Xuroson va Movarounnahrda esa IX asrning 20-yillaridan boshlab mahalliy sulolalar: tohiriylar (821-873), iylar (867-903-yillar) va somoniylar (875-999) bosh ko‘tarib chiqdilar. Ular Arab xalifaligiga nomigagina tobe bo‘lib, aslida mustaqil hukmdor edilar. Arab xalifaligi 1258-yil mo‘g‘ullar tarafidan tugatildi.

NARSHAX, Narjaq — Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qadimiy qishloq. Ilk o‘rta asrlarda Narshaxda katta hisor (qo‘rg‘on) bo‘lgan. Muqanna qo‘zg‘olonining markazlaridan biri shu qishloqda joylashgan. 776 yili aprelda Muqanna tarafdorlari bilan Buxoro amiri *Husayn ibn Maoz* lashkari o‘rtasida Narshaxda katta jang bo‘ladi. Xalifa *Mahdiyning* vaziri *Jabroil ibn Yahyo* arablarga yordamga kelib,

Narshaxni qamal qiladi. To'rt oylik janglarda *Hoshim Ahmad* boshchiligidagi *Muqanna* tarafdorlari bo'lgan oq kiyimliklar g'alaba qozonishgan. Biroq arablar hiyla yo'li bilan Narshaxni egallab, qo'zg'olon rahbarlarini xoinlarcha o'ldirishadi. Bu paytda Narshaxning hokimi bo'lgan ayol kishi (erining nomi *Sharaf* bo'lib, u *Abu Muslimning* lashkarboshisi bo'lgan)ni ham Jabroil o'ldirtirgan. Narshaxdan mashhur tarixchi olim *Narshaxiy* chiqqan. Narshax haqida *Abu Sa'd as-Sam'oni*ning "*Kitob al-ansob*" asarida ham muhim ma'lumotlar mavjud (XII a.). Hozir Narshax *Narchoqtepa* nomi bilan mashhur.

NUMIJKAT — qadimda Buxoroga yaqin, lekin undan alohida bir shahar bo'lib, so'ng bu ikki shahar bir-biriga qo'shib ketgan. Shuning uchun Buxoro goho "Numijkat" deb ham atalgan.

TAROZ, TALAS — Qozog'iston Respublikasi Jambul viloyatidagi qadimiy shahar, viloyatning ma'muriy markazi. Olmaotadan 545 km g'arbda, Talas daryosini temir yo'l kesib o'tgan joyda. Aholisi arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Taroz taxminan V asrda vujudga kelgan. Dastlab, vizantiyalik elchi *Zemarx* tomonidan 568-y. qayd etilgan. Shahar arab, fors manbalarida Talas, Taroz, Yangi nomlari bilan tilga olingan (VIII-XVIII asrlar). Qadimda Taroz Talas daryosi yoqasida joylashgan. U qal'a, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. VII asrda Taroz muhim savdo markazi. 751-y. Taroz yaqinida Talas jangi bo'lib o'tgan. IX a. oxiridan Somoniylar, X a. oxiridan Qoraxoniylar davlati tarkibida. XII a. oxiridan boshlab Qoraxitoylar va mo'g'ullar istilosidan ancha shikastlangan Taroz tanazzulga uchray boshlagan. XVI a. boshida shaharda hayot barham topgan.

ISFIJOB – O'rta asrdagi Isfijob hokimligining markaziy shahri. Aris daryosi vodiysi (Qozog'iston) da joylashgan. Ko'pgina tadqiqotchilar uni Chimkentdan 12 km sharqda, Sayram stansiyasining o'nida bo'lgan deb hisoblaydilar. Shaharning qachon vujudga kelgani noma'lum. Sharq geograflarining ma'lumotlariga qaraganda, maydoni Binkardan 3 marta kichik bo'lib, Isfizjobning arki X asrdayoq vayrona holatda bo'lgan; faqat shahriston va rabod saqlangan. Rabod devorining aylanma uzunligi 1 farsax (oltinchi 7 km) ni tashkil qilgan. Shahristonning 4 darvozasi: Nujkat, Farxon, Shakron va Buxoro bo'lgan. Unda saroy, qamoqxona, jome masjidi va bozorlar joylashgan. 714-yilda Qutayba Choch va Turk xoqonligi kuchlarini ajratib, ittifoqdoshlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Isfizjobga yurish qilgan. 840-yilda Isfizjob viloyati somoniylardan Nuh ibn Asad qo'l ostiga o'tgan. Viloyatni ko'chmanchilar hujumidan muhofaza etish maqsadida Nuh ibn Asad Isfizjob atrofini devor bilan o'rattirgan. Isfizjob Buyuk Ipak yo'li ustida bo'lib, bu yerda bo'z, qurol, metal, qul savdosi olib borilgan. 1700 ga yaqin

mustahkam qo'rg'on (rabot) i bo'lgan. X asr oxirlarida qoraxoniylarga, XIII asr boshida Muhammad Xorazmshohga, 1219-yildan mog'ullarga bo'ysungan; shaharning yangi nomi – Sayram dastlab shu davrdan (1221) tilga olinadi.

MOVAROUNNAHR (arabcha-daryoning narigi tomoni) — o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Uning xuddi shu ma'noni anglatgan fors tilidagi "Varorud" va "Varojayxun" shakllari ham mavjud bo'lib, ularning barchasi avval (XI asrgacha) Xuroson viloyatining davomi sifatida, XI asr boshdan e'tiboran esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlati va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma'muriy birlik sifatida tushinilgan. XI asrda Yevropa tarixshunosligida mazkur arab atamasining lotincha tarjimasi bo'lmish yangi "Transoksiana" yoki "Transoksaniya" atamalari muomalaga kiritilgan. Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotda Movarounnahr deganda, asosan, Turkmanistondan tashqari bo'lgan O'rta Osiyo hududlari, ya'ni, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismi tushiniladi. Movarounnahr atamasi ilk bor payg'ambarimiz *Muhammad* (sav) haqidagi hadislarda tilga olingan. Movarounnahr atamasi o'rta asr manbalarida turlicha talqin qilinib, geografik hudud sifatida avval Turon, Turk xoqonligi yoki Turkiston mamlakati (VII asrgacha), keyin Xuroson (VII-X asrlarda) undan ham keyin Turkiston (XII asrdan boshlab), ma'lum vaqt esa Xorazm (XII asrning oxiri-XIII asrning bosh) tarkibiga kiritilgan. Demak, bu atama faqat geografik ma'noga ega bo'lib, har xil davrlarda turli davlatlar — Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, shuningdek, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va boshqa davlatlarning tarkibiga ma'muriy birlik sifatida kirgan. Bu atama haqida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning yig'indisi ham hududiy jihatdan "O'rta Osiyo" atamasini anglatadigan Turkiston tabiiy-geografik o'lkasining barcha yerlarini qamrab olmaydi. Chunki, mazkur mintaqa tarkibiga kirgan Shimoliy Xuroson (Turkmaniston), Yettisuv (Qozog'iston) va Janubiy Toxariston (Afg'oniston) yerlari hech qanday manbalarda Movarounnahr tarkibiga kiritilmagan. Shuning uchun, Movarounnahr atamasining o'rta asrlarda ishlatilgan eng keng ma'nodagi tushunchasi tarkibiga shartli ravishda faqat Amudaryo va Sirdaryo oraliqida joylashgan yerlarni kiritish mumkin.

POYKEND, Poykand — qadimgi karvon yo'li ustida qad ko'targan shahar xarobasi (miloddan avvalgi IV-III-milodiy XI asrlar). Buxorodan 44 km janubiy-g'arbda, Jondor va Qorako'l tumanlari tutashgan hududda joylashgan. o'rta asr yozma manbalarida shahar *Boykand*, Xitoy solnomalarida esa *Bi* nomlari bilan tilga olinadi. Uning nomlari "*Quyi shahar*" ma'nosini anglatadi. Arablar uni "*Madinat ut-tujjor*", ya'ni "*savdogarlar shahri*", ba'zan esa,

qal'asining mustahkamligi tufayli "jez shahar" deb yuritar edi. Poykend tashqi devorlarining nihoyatda mustahkamligidan shahar ilk o'rta asrlarda "*Shahristoni Rhin*", ya'ni "*Jezdan qurilgan shahriston*" (Jez shahar) nomi bilan shuhrat topgan. Poykend o'tmishda 4 qism: 1) darvozali ark (maydoni 1 ga); 2) darvozali ichki shahriston (maydoni 11 ga); 3) darvozali tashqi shahriston (maydoni 6 ga); 4) sharq, g'arb hamda janubiy tomonlarida qad ko'targan (maydoni 100 ga dan oshiqroq) ulkan rabodlardan iborat bo'lgan. Arkda qadimgi ibodatxona, podshoh saroyi, IX-X asrlarda qad ko'targan koshinkor mehroblu jome masjidi, ichki va tashqi shahristonlarda savdogar va hunarmandlarning turar joy, mahalla-ko'ylari, ichki bozor, ustaxona, nonvoyxona va dorixonalar kabi bino va inshoot korxonalar joylashgan. Shaharning rabod qismida esa 50 dan ortiq naus (ostodonlar xilxonasi)lardan iborat otashparastlarning qabristoni (nekropol), tashqi bozor va bir necha (Narshaxiyning ko'rsatishicha, mingdan ortiq) rabotlar, ya'ni karvonsaroylar qad ko'targan. Manbalarda qayd etilishicha, islomiyat davrida ham Poykend nauslari ochiq bo'lgan. Otashparastlar o'z marhumlari ustuxonlarini xatto, Buxoro shahardan Poykend nauslariga eltib dafn etganlar. Ayrim ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Poykend qadimgi Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lgan. Har bir podsho o'zi uchun bu shaharda o'rdugoh barpo etgan. *Eftaliylar davlati* hukmronligi davrida (V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlari) u poytaxtga aylantirilgan. Narshaxiyning yozishicha, shahar aholisining aksariyati savdogar bo'lib, ular Xitoy va dyengiz bo'yi mamlakatlari bilan savdo qilganlar va juda davlatmand bo'lgan. Shu boisdan arab geograflari *Ibn Hurdodbeh* va *Ibn al-Faqihlar* Poykendni "*Madina at-tujjor*", ya'ni "*Savdogarlar shahri*" nomi bilan ta'rif etadilar. Poykend o'z tarixi jarayonida Buxoro vohasining nafaqat yirik savdo markazlaridan biri sifatida, balki tutgan geografik o'rni jihatidan g'arbiy Sug'dning siyosiy hayotida strategik tomondan muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Vohaning janubiy-g'arbiy chegarasida harbiy istehkom sifatida bino qilingan Poykend ilk o'rta asrlarda Buxoro viloyatining atrofi yagona mudofaa inshooti — Kanpir devor bilan o'rab olingunga qadar u janubiy-g'arb, dasht hududlaridan muttasil sodir bo'ladigan ko'chmanchi qabilalarning chopqunlarini qaytarish va tashqi dushman hujumlarining yo'lini to'sib, ularga dastlabki zarbalarni berishda mustahkam harbiy qarorgoh vazifasini o'tagan. Uning mudofaa inshootlari nihoyatda mustahkam qurilgan bo'lib, zamonasining har qanday qamaliga bardosh bera olgan. Poykend arki, ichki va tashqi shahristonlarining har biri alohida qalin (3,5-5 m) va baland devorlar halqasi bilan

o'ralgan. Devor bo'ylab har 60 m masofada va tashqi burchaklarda baland (11,5-12,5 m) 2 qavatli burjlar o'rnatilib, darvoza atrofi mudofaa inshootlari (labirint) bilan mustahkamlangan. Shahar devorlari va burjlari har 1,6 m oralig'i bo'ylab shaxmat uslubida 3 qator nishon tuynuklari (tirkash) o'rnatilgan. 674-yilda Poykend Arab xalifaligi lashkarboshi *Ubaydulloh ibn Ziyod* tomonidan fath etiladi. 707-yilda esa Poykend xalifalikning Xuroson voliyisi Qutayba ibn Muslim tomonidan qamal qilinadi. Poykendliklar qattiq turib arablarga qarshilik ko'rsatadilar. Qamal 50 kun davom etadi. Kuch bilan Poykendni qo'lga kiritma olmagan arablar shahar devori ostidan lahim (tunnel) qazib ichkariga bostirib kiradilar. Poykend arablar qo'lga o'tadi. Poykendliklar kattagina boj to'lab *Qutayba* bilan sulh tuzadilar. Biroq shaharliklarning qo'zg'oloni oqibatida Poykend qayta egallanib, vayron etiladi. Juda katta miqdorda oltin va kumushdan yasalgan but va jomlar bilan bir qatorda ko'plab qurol-yarog' hamda harbiy anjomlar o'lja tarzida olinadi. Qutayba askarlari bu qurol-aslahalarning bir qismi bilan qurollanib oladilar. *Tabariyning* yozishicha, shaharning boyligidan arablar hayratga tushganlar. Hatto, eritilgan oltin-kumush anjomlar va butlarning toshu qolipidan 150 ming misqol miqdorda yombi ajratib olingan. IX asrning oxirgi choragi va X asr mobaynida Poykend va uning dehqonchilik vohasi ravnaq topadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlari kengayib kulollik, shishasozlik, koshinkorlik, misgarlik va binokorlik taraqqiy etadi. Ilm-fan, ayniqsa, fiqhshunoslik rivojlanib, bir guruh Poykendlik fiqhshunos olimlar yetishib chiqadi. Ammo *somoniylar* hukmronligi barham topgach, XI asrda Poykendning sug'orish tarmoqlari suvsizlikdan qurib qoladi. oqibatda shahar bo'shab, xarobaga aylanadi. XII asrning I-choragida *Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon* hukmronligi davrida Poykend qayta tiklanib va uning atrofi qayta obodonlashtiriladi. Shahar aholisi yana gavjumlashib, ko'rkam turar joylar, podshoh uchun esa muhtasham saroy quriladi. Poykendning suv ta'minotini yaxshilash maqsadida Qorako'l daryosidan uz. 1 farsaxli kanal qazib chiqarish uchun harakat qilinadi. Biroq, kanal qazilib tugatilmay qoladi. Poykend suvsizlikdan XII-asrning ikkinchi yarmida butunlay qurib yana vayronaga aylanadi. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, Poykenda hayot mil.avv. IV asrdan to milodiy XI asrgacha, ya'ni 1500 yil davomida kechgani ma'lum bo'ldi. Arkda qadimgi ibodatxona, jome masjid va podshoh saroyi xarobalari, ichki shahristonda dorixona (VIII asr), bir qancha ulkan tandirlar o'rnatilgan shahar nonvoyxonasi, tashqi shahristonda kulollik, shishasozlik kabi hunarmandlarning mahalla-ko'ylari, 4 tomoni supali markazida sandali bor yotoqxona, oshxona,

omborxonada va tashnoblilik tahoratxonali mo'jazgina bir qavatli hovli-joylarning xarobalari qazib ochildi.

SOM – Kesh yaqinida tog' tepasiga bino qilingan qal'a. "Oq kiyimlilar" qo'zg'olonining rahbari *Muqanna* bu qal'ani o'z qarorgohiga aylantiradi.

XUROSON (forscha – kun chiqish, sharq) – Eronning shimoli-sharqiy qismidagi tarixiy viloyat. Parfiya podshohligining markazi (mil.avv. 250-yil – milodiy 224-yil). Xuroson nomi sosoniylar davridan ma'lum. Xuroson III asrdan XVIII asr o'rtalarigacha hozirgi Eronning shimoli-sharqiy qismi, Marv vohasi, hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi va Afg'onistonning shimoliy va shimoli-g'arbini o'z ichiga olgan. Mashhad, Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Tus, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzavor Xurosonning muhim shaharlari bo'lgan. VII asr o'rtalarida uni arablar egallagan. Arab xalifaligi tanazzulga uchragach, Xuroson Tohiriylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Hulokuiylar, Kurtlar davlati tarkibiga kirgan (IX-XIV asrlar). VIII asrdan XIII asrning 20-yillarigacha Xuroson Yaqin va O'rta Sharqda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. U qo'shni davlatlarga qishloq xo'jalik mahsulotlari, mevalar, ipak, jun, mo'yna chiqargan. Shuningdek, Xurosonda kumush, qo'rg'oshin, mis va temir rudalari, oltin, oltingugurt, to'tiy, margimush, marmar, malaxit va boshqalar qazib chiqarilgan, to'qimachilik avj olgan. 1220-yil va 1223-yillarda Xurosonga mo'g'ullar, hujum qilib, vayron etgan; aholisining ko'pchiligi qirib tashlangan. Shundan keyin Xuroson avvalgi mavqega chiqa olmagan. XIV asr oxirida Amir Temur Xurosonni o'z davlatiga qo'shib olgan, keyinchalik Shayboniylar, 1510-1736-yillar Safaviylar davlatlariga tobe bo'lgan. Keyinchalik Xurosonning bir qismi (Hirot viloyati va Balx) Afg'onistonga, bir qismi Eronga qo'shilgan.

TARIXIY SANALAR

570-632-yILLAR – *Muhammad binni Abdulloh* (s.a.v.)ning yashagan yillari.

622-YIL 16-IYUL – *Muhammad* (s.a.v.)Makkadan Madinaga hijrat qilishga majbur bo'lishlari, musulmon Sharqida qabul qilingan hijriy yil hisobi boshlanishiga zamin yaratadi. Islom bayrog'i ostida Makka shahrida boshlangan *tavhidlik dini* targ'iboti Madinaga ko'chadi va Madina shahri kurashning markaziga aylanadi.

630-YIL — *Muhammad* (s.a.v.) arablarni yagona davlatga birlashtiradi.

632-634-YILLAR – Arab xalifaligida *Abu Bakr* hukmronligi. U "xalifa", ya'ni "o'rinbosar" deb e'lon qilinadi.

634-644-YILLAR – Arab xalifaligida *Umar* hukmronligi.

644-656-YILLAR – Arab xalifaligida *Usmon* hukmronligi.

651-YIL – arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar. Bu yerda o'rnashib olgach, arablar Amudaryodan shimolida joylashgan boy viloyatlarni bosib olishga tayyorgarlik ko'radilar.

654-YIL — arablar *Maymurg* ga hujum boshladilar.

656-661-YILLAR – Arab xalifaligida *Ali* hukmronligi.

661-680-YILLAR – *Muoviya I* xalifalik davri.

667-YIL – arablar Chag'oniyonga hujum boshladilar.

673-YIL – Xalifa *Muoviya I* farmoni bilan *Ubaydullox ibn Ziyod* Amudaryodan kechib o'tib, Buxoroga bostirib kiradi. *Poykand* va *Romitonni* egallab, *Buxoro* shahrini qamalga oladi. Yordamga kelgan turklar va buxoroliklarning birlashgan qo'shinlari jangda arablardan yengiladi, *bir lak* (yuz ming) dirham hajmda boj to'laydi. Bojdan tashqari arablar to'rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko'p o'ljalar bilan Marvga qaytadilar.

704-YIL – *Qutayba ibn Muslim* Xurosonga noib qilib tayinlanadi. Unga Movarounnahrda to'rt Xitoy hududlarigacha bo'lgan viloyatlarni xalifalikka bo'ysundirish vazifasi yuklanadi.

705-YIL — harbiy yurishni *Qutayba* Balx viloyati atroflarini zabt etishdan boshlaydi. Chag'oniyon hokimi jangsiz taslim bo'ladi. Arablarning Movarounnahrda tomon yurishining ikkinchi davri boshlanadi.

707-709-YILLAR – *Qutayba* Buxoro va uning atroflariga bir necha bor hujumlar qilib, ko'pdan-ko'p qal'alar va obod yerlarni bosib oladi. Buxoro viloyatiga hokim qilib, u buxorudot *Tug'shodani* va unga amir qilib o'z yaqinlaridan birini tayin etadi.

707-YIL – *Qutayba* katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib, Buxoro vohasiga kiradi. Uning bu yurishida Balx dehqoni va chag'on-xudotlarning harbiy kuchlari ishtirok etadi, *Poykand* egallanadi.

709-738-YILLAR – Sug'dda *Gurak* hukmronligi davrida arablarga qarshi kurash olib boriladi..

710-YIL – *Qutayba Shuman, Kesh, Nasafni* bosib olib, *Samarqandga* hujum boshlash uchun tayyorgarlik ko'radi. Biroq, Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay fursat *Qutaybani* Sug'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb qiladi.

710-737-YILLAR – Sug'dda *Gurakning* hukmronlik yillari.

711 YIL — Xorazm shohi *Chag'on* ukasi *Hurzod* boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, yordam so'rab *Qutaybaga* murojaat qiladi. *Qutayba* yordamida *Hurzod* boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni bostirilib,



Xorazmshoh o'z mustaqilligini yo'qotib, xalifalikning bojdoriga aylanadi. Uning qo'shini *Qutaybaning* harbiy yurishida majbur etiladi.

712-YIL — *Qutayba* arablardan tashqari Buxoro va Xorazm qo'shinlari bilan Samarqandga tashlanadi. Bu davrda ixshid *Tarxun* taxtdan tushirilib, uning o'rniga *Gurak* Sug'dga podsho qilib ko'tarilgan edi.

713-YIL – *Qutayba* qo'shin saflarini butlash maqsadida Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazm aholisidan 20 ming askar to'plab berishini talab qiladi. Yig'ilgan katta qo'shin ikkiga ajratiladi. Uning Kesh, Nasaf va Xorazm qo'shinlarining birlashmasidan iborat birinchi safi Choch viloyatiga, o'zi boshliq asossiy kuch Ustrushona va Xo'jand orqali Farg'ona vodiysi tomon yo'l oladi. Choch vohasi bosib olinib, Chochning poytaxti *Madinatt ash-Shosh*, juda ko'p qal'a va qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib vayron etiladi. *Qutayba* Ustrushona va uning soylik va adirlarida janglar qilib, Xo'jand va Kosonni zabt etadi.

714-YIL – *Qutayba* Choch va Turk xoqonligi kuchlarini ajratib, ittifoqdoshlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida *Isfijobga* yurish qiladi.

715-YIL BOSHI — *Qutayba* Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, Qoshg'argacha kirib boradi. Hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlanadi, xalifa *Volid* vafot etadi. Uning o'rniga *Qutaybaning* g'animi *Sulaymon* xalifalik taxtiga o'tiradi. *Qutayba* yangi xalifaga qarshi isyon ko'taradi.

715-YIL — *Qutayba* Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi.

717-719-YILLAR – Arab xalifaligida Xalifa *Umar ibn Abdulaziz* hukmronligi davrida bo'ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon berdi. Bunga binoan, musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan ajamliklardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi. Biroq, xalifalik ma'murlari bir yo'la hammadan jiz'ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan xalifalik vakillari o'rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda xalifalikka qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tariladi.

720-YIL – Samarqand ixshidi *Gurak* va Panjikent hokimi *Divashtich* boshchiligida arablarga qarshi Sug'dda qo'zg'olon boshlanishi.

721 YIL — *Said Xaroshiy* Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda dong qozongan. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshirilgan.

723-YIL – Arablarga qarshi Farg'ona hokimi qo'shin tortadi. Unga Shosh, Nasaf va turklar yordamga boradilar. Ittifoqchilar dushmanga qattiq zarba berib, uni Xo'janddan to Samarqandgacha ta'qib qilib boradilar.

725-YIL – Xuttalonda Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi.

728-YIL — Sug'dda Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi qo'zg'olon avjiga ko'tariladi.

736-737-YILLAR – arablarga qarshi Toxariston va Sug'dda qo'zg'olon ko'tariladi.

737-YIL – arablar tang ahvolda qoladi. Xuroson va Movarounnahrning noibi va amirlari bir necha bor o'zgartiriladi. Xurosonning noibi Nasr ibn Sayyor mamlakatda o'z mavqeni mustahkamlab olish maqsadida moliya islohatini o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasining e'tiqodidan qat'iy nazar xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi. Nasr mahalliy mulkdorlar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib turishga harakat qiladi.

738-748-YILLAR – Xuroson noibi *Nasr ibn Sayyor* mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohati o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etildi. Barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi, yer egasining e'tiqodidan qat'iy nazar ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi. Movarounnahr va Xurosonning barcha viloyatlari uchun xiroj miqdori belgilab beriladi. Shu bilan birga Nasr mahalliy mulkdorlar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib turishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomonga o'tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatilishini himoya qiladi. Ayni paytda o'zi ham namuna ko'rsatib, Buxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida, shubhasiz, arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi. Ammo bu ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi.

744-750-YILLAR – Arab xalifaligida *Xalifa Marvon II* hukmronligi davri. Uning davrida Ummaviylarga qarshi umumiy norozilik nihoyatda kuchaydi. Bunga xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilish sabab bo'ladi.

746-YIL — Abbosiylar targ'ibotiga rahbarlik qilish uchun *Abu Muslim* Xurosonga keladi.

747-749-YILLAR — Movarounnahrda ummaviylar hukmronligiga qarshi *Abu Muslim* harakati.

747-YIL – *Abu Muslim* ummaviylarga qarshi aholini ochiq kurashga da'vat etadi. Bu davrda Xurosonda *Nasr ibn Sayyor* noiblik qilardi.

748-YIL BOSHI – *Abu Muslim* Xurosonning poytaxti Marv shahrini jangsiz egallaydi.

749-YIL – *Abu Muslim* boshliq qo'zg'olonchilar xalifalikni markaziy viloyatlariga tomon yo'l oladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Xalifa *Marvon II* taxtdan ag'dariladi. Uning o'rniga abbosiylar xonadonidan bo'lgan *Abul Abbas Saffox* xalifalik taxtiga ko'tariladi. Joylarda ummaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari qirib tashlanadi. Arab xalifaligida davlat abbosiylar qo'lga o'tadi.

750-YIL – Abbosiylarga qarshi Buxoroda *Sharik ibn Shayhulmahri* boshchiligida xalq qozg'oloni ko'tariladi. *Abu Muslim* mahalliy kuchlar yordami bilan qo'zg'olonni bostirdi.

750-754-YILLAR – Arab xalifaligida *Abul Abbas Saffox* hukmronligi davri.

751-YIL – *Abu Muslim* tomonidan *Ziyod ibn Solih* boshchiligida yuborilgan arab va so'g'd, turklardan iborat harbiy kuch Talos vodiysida Xitoy qo'shinlariga zarba berib, ularni mamlakat hududidan quvib chiqaradi.

755-YIL – qurolsiz va yolg'iz saroyga tashrif buyurgan *Abu Muslim* xalifa buyrug'iga binoan o'ldiriladi.

769-783-YILLAR – Movarounnahrda "*Oq kiyimliklar*" qo'zg'olonini bo'lib o'tishi.

775-YIL – "*Oq kiyimliklar*"ga zarba berish uchun xalifa *Abu Jafar (Mansur) Jabroil ibn Yahyo* boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qilishi mag'lubiyat bilan tugadi. U katta talofat ko'rib, zo'rg'a Samarqanddagi arab qo'shinlariga kelib qo'shiladi. Naqshab va Chag'oniyon vohalari qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi.

776 YIL – "*Oq kiyimliklar*" qo'zg'oloni Buxoro vohasida kuchayib ketadi. Narshax qal'asi qo'zg'olonchilarning qo'rg'oniga aylantirib, unda "*oq kiyimliklar*"ning kattagina qismi to'planadi.

777-YIL – Narshaxdagi qo'zg'olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni "*oq kiyimliklar*" qo'zg'olonining markazi bo'lgan Samarqand va Keshga tashlaydilar, qo'zg'olonchilarga uzil-kesil zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa *Maxdiy* Nishopurga keladi.

783-YIL – *Muqannaning* Som qal'asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng muqannachilar taslim bo'ladilar. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan *Muqanna* o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ladi.

806-819-YILLAR – Xurosonda *Ma'mun* noibligi davrida *Rofe ibn Lays* qo'zg'olonini bostirishda Somonxudotning nabiralari *Nuh, Ahmad* va *Yahyolardan* yordam olishi. Somonxudotlarning avlodi bo'lgan somoniylarning xalifalik oldidagi bu xizmatlari xalifa tomonidan inobatga olinib, Movarounnahr kelajak taqdiri mahalliy mulkdorlar vakillari qo'lga o'tishiga yo'l ochiladi.

806-YIL – *Rofe ibn Lays* boshliq Samarqand, Shosh, Farg'ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm aholisining qo'zgoloni.

VII ASR BOSHI – Arablarda siyosiy tarqoqlik nihoyatda kuchaydi. Arabistonda bo'lgan bunday ijtimoiy va siyosiy vaziyat, mamlakatning birlashuviga olib keldi. Bunday harakatning asosiy tarafdori bo'lib shaharning savdogar va hunarmand aholisi ko'tariladi. Bu harakat yagona e'tiqodga da'vat qilishdan boshlanadi. Bu yakkaxudolik dini bo'lib, tarixda "itot", "tobelik" va "bo'yin egish" ma'nolarini anglatuvchi "islom" nomi bilan shuhrat topadi.

VII ASRNING 80-YILLAR BOSHI – Movarounnahrning mahalliy hukmdorlari Sirdaryo etagidagi Xorazm yaqinidagi shaharlarda bir necha bor to'planishlari, o'zaro siyosiy nizolarni to'xtatish, xalifalikka qarshi birlashib kurashish to'grisidagi sa'yi-harakatlari amalga oshmadi.

VII-ASR OXIRI – Butun Arab xalifaligida tartib o'rnatilishi Movarounnahrni bosib olishga zamin yaratdi.

VIII ASR BOSHI – Arablar Movarounnahrni istilo qiladilar, bosib olingan yerlarda islom dini zo'rlik bilan yoyilib, mahalliy xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti Arab xalifaligining tartib-qoidalariga bo'ysundirildi. Istilochilar mahalliy madaniyatni oyoq osti qilib, xalq boyluklarini taladilar, ajnabiylar jabr-zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari shafqatsiz bostirildi.

VIII ASR BIRINCHI YARMI – Movarounnahrda xalifalikka qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari arab istilochilariga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi.

VIII ASRNING 40-YILLARI — Ummaviylarga qarshi umumiy norozilik *Xalifa Marvon II* hukmronlik qilgan davrda nihoyat kuchayadi. Bunga xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo'ladi.

VIII ASRNING 40-YILLARI – xalifalikda tojuxt uchun kurash kuchayadi. *Muhammad* payg'ambarning amakisi *Abbosning* evarasi *Muhammad ibn Ali* xalifalik uchun kurash boshladi. Ummaviylar *Muhammad* (s.a.v.) avlodini qirib tashlashda ayblandi. Hokimiyatni abbosiylarga topshirish kerak degan da'vo ilgari surildi. Abbosiylar

harakatini targ'ib qilish uchun xalifalikni deyarli barcha o'lka va viloyatlariga alohida ahamiyat beriladi. Targ'ibotchilar aholining og'ir ahvoliga faqat Ummaviylar sababchi degan fikrni oshkora targ'ib qiladilar. Shu tariqa xalifalikda ummaviylar hukmronligini ag'darib tashlash uchun keskin harakat boshlanib ketdi.

VIII ASRNING 70-80-YILLARI – Movarounnahrda arablarga qarshi “*Oq kiyimlilar*” qo'zg'oloni ko'tariladi. Bu harakatning rahbari *Muqanna*, ya'ni “*Niqobdor*” laqabi bilan mashhur bo'lgan marvlik *Hoshim ibn Hakim* ismli hunarmand bo'lgan.

TEST

1. Qachondan boshlab Arabiston yarim orolida yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlandi?

- A) VII asr o'rtalari
- B) VII asr oxiri
- S) VI asr oxiri
- D) VII asr boshlari

2. “Islom” so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A) “e'tiqod qilish”
- B) “jasur”, “erkin”
- S) “bo'ysunish”, “itoat etish”
- D) “arablar dini”

3. Bugungi kunda jahon dinlaridan biri bo'lgan islom dini targ'iboti dastlab qaysi shaharda va qachon boshlangan?

- A) VII asr boshlari Madinada
- B) VII asr boshlari Makkada
- S) VI asr oxirlari Bag'dodda
- D) VII asr o'rtasida Maymurg'da

4. “Muslim” – bu ...

- A) islomni qabul qilib, rasulohga ergashgan uning izdoshlari
- B) Muhammad (s.a.v)ning o'rinbosarlari
- S) xalifa Alining izdoshlari
- D) shomoniylik diniga e'tiqod qiluvchilar

5. VII asrda Arabiston yarim orolida tashkil topgan qudratli Arab xalifaligi davlatining asoschisi kim?

- A) Abu Bakr
- B) Muhammad (s.a.v)
- S) Qutayba ibn Muslim
- D) Usmon

6. Nechanchi yilda arablarning Muhammad (s.a.v) atrofida birlashgan yagona davlati vujudga keldi?

- A) 610-yilda

- B) 632-yilda
- S) 630-yilda
- D) 634-yilda

7. Arab xalifaligi davlatining birinchi xalifasini aniqlang.

- A) Umar
- B) Usmon
- S) Ali
- D) Abu Bakr

8. 651-yili arablar ...

- A) jangsiz Marv shahrini egalladilar
- B) Maymurg' shahrini egalladilar
- S) Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradi
- D) Franklar qiroli Karl Martell qo'shinidan zarbaga uchradilar

9. Arablar tomonidan nomlangan Xuroson hududini aniqlang.

- A) Eronning shimoli-sharqiy qismi va Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar
- B) Amudaryodan to Sirdaryo bo'ylarigacha cho'zilgan hudud
- S) Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho'zilgan ulkan hudud
- D) O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan hudud

10. Xurosonning poytaxti arablar tomonidan nechanchi yilda bosib olinadi?

- A) 654-yilda
- B) 651-yilda
- S) 667-yilda
- D) 673-yilda

11. “Movarounnahr” so'zi qaysi tildan olingan va uning ma'nosi nima?

- A) arabcha “ikki daryo oralig'i”
- B) turkiycha “ikki daryo oralig'i”
- S) arabcha “daryoning narigi tomoni”
- D) forschacha “daryoning quyi qismi”

12. Arablar dastlab Movarounnahrda nima maqsadda yurish qildilar?

- A) harbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlarni sinash va turli xil o'lja-yu boyliklar orttirish maqsadida
- B) islom dinini Movarounnahr va unga tutash mamlakatlarga keng yoyish maqsadida
- S) bosib olib, arablar hukmronligini o'rnatish maqsadida
- D) boylik orttirish maqsadida

13. Arablarning Movarounnahrda ilk bor hujumlari qaysi shaharlarni bosib olishdan boshlandi?

- A) Maymurg', Chag'oniyon
- B) Chag'oniyon, Buxoro
- S) Marv, Balx
- D) Buxoro, Samarqand

14. 654-yilda arablar qaysi shaharni egallaydilar?

- A) Chag'oniyon
- B) Maymurg'
- S) Marv
- D) Balx

15. Arablar kimning boshchiligida ilk bor Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradilar?

- A) Muoviya I
- B) Qutayba ibn Muslim
- S) Ubaydulloh ibn Ziyod
- D) G'urak

16. Arablarning Buxoroga qilgan dastlabki talonchilik yurishlari nechanchi yilda amalga oshirildi?

- A) 680-yilda
- B) 654-yilda
- S) 667-yilda
- D) 673-yilda

17. Arablarning Marv shahrini egallashlaridan 10 yil o'tgach ...

- A) Muoviya I xalifa deb e'lon qilindi
- B) arablar Chag'oniyon shahrini egalladilar
- S) Qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlandi
- D) Qutayba katta qo'shin bilan Poykandni qamalga oldi

18. Quyidagi qaysi voqeadan so'ng arablar Termiz shahrini egallaydilar?

- A) arablarning turli xil o'ljalar bilan Buxorodan Marvga tomon qaytishi
- B) arablarning Poykand va Romittonni egallashlari
- S) Qutaybaning Naxshab va Keshni bosib olishi
- D) arablarning Marv shahrini egallashlari

19. 704-yilda ... Xurosonga noib qilib tayinlanadi?

- A) Ubaydulloh ibn Ziyod
- B) Qutayba ibn Muslim
- S) G'urak
- D) Abu Ali Chag'oniy

20. Nechanchi yilda Balx viloyati atroflari va Chag'oniyon arablar tasarrufiga o'tadi?

- A) 707-yilda
- B) 704-yilda
- S) 705-yilda
- D) 712-yilda

21. Arablar tomonidan 50 kunlik qamal natijasida egallangan shahar nomini aniqlang.

- A) Chag'oniyon
- B) Poykand
- S) Balx
- D) Maymurg'

22. Qaysi voqeadan so'ng buxoroliklar har yili xalifalikka boj to'lash, uylarining yarmini arablarga bo'shatib berishga majbur etiladi?

- A) arablarning turli xil o'ljalar bilan Buxorodan Marvga tomon qaytishi
- B) Qutaybaning Naxshab va Keshni bosib olishi
- S) arablar tomonidan Poykandning egallanishi
- D) arablarning Marv shahrini egallashlari

23. Qutayba ibn Muslim Buxoroni egallagach, u yerda qanday ishlarni amalga oshiradi?

- 1) Buxoro shahrining markazida joylashgan zardushtiyar ibodatxonasini jome masjidga aylantirdi
 - 2) Buxoroda arab me'morchiligiga xos turli xil hashamatli inshootlar qurdirdi
 - 3) sug'diy tili xatida bitilgan asarlarni yo'qotdi
 - 4) buxoroliklarni turli xil soliqlardan ozod qildi
 - 5) mahalliy aholini islom diniga kiritishga harakat qildi
 - 6) aholiga turli xil yengilliklardan tashqari asirdagi mahbuslarni ham ozodlikka chiqardi
- A) 1, 3, 5
 - B) 2, 4, 6
 - S) 1, 2, 6
 - D) 4, 5

24. Qutayba ibn Muslim Buxorodagi aholini islom diniga kiritish maqsadida qanday ishni amalga oshirdi?

- A) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 2 dirhamdan pul hadya etishni joriy etdi
- B) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun davlat oldidagi barcha qarzlardan ozod etilishi haqida qonun joriy etdi
- S) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun barcha boj-u yasoq soliqlaridan ozod etishni joriy etdi
- D) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 10 dirhamdan pul hadya etishni joriy etdi

25. Qutayba ibn Muslim 710-yilda qaysi shaharlarni bosib oldi?

- A) Chag'oniyon va Buxoro
- B) Maymurg' va Chag'oniyon
- S) Naxshab va Kesh
- D) Marv va Balx

26. Nima sababdan 710-yilda Samarqand hujumiga tayyorgarlik ko'rayotgan Qutayba ibn Muslimning yurishi amalga oshmay qoladi?

- A) Farg'onada boshangan ichki ziddiyatlarning Qutaybani u yerga qo'shin tortishga jalb etishi
- B) Sug'd podshosi G'urakning Qutayba bergan qaqshatgich zarbasi
- S) Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlarning Qutaybani Xorazmga qo'shin tortishga jalb etishi
- D) Sug'dda G'urak va Divashtich boshchiligida qo'zg'olonning ko'tarilishi

27. Qanday omil Qutaybaning Xorazmni egallashiga sabab bo'ladi?

- A) xorazmshoh Chag'onning Hurzod boshliq qo'zg'olonidan qo'rqib, Xuroson tomon qochishi
- B) xorazmshoh Chag'onning ukasi Hurzod boshliq qo'zg'olonidan qo'rqib, Qutaybaga yordam so'rab murojaat qilishi
- S) Xorazmda taxt uchun o'zaro kurashlarning avj olishi
- D) Xorazmning ko'chmanchi turkiy qabilalar hujumi natijasida zaiflashib qolishi

28. Xorazm nechanchi yilda arablar tasarrufiga o'tadi?

- A) 711 yilda
- B) 704-yilda
- S) 707-yilda
- D) 712-yilda

29. Ma'lumki, 712-yilda Qutayba qo'shinlari Samarqandga hujum qiladi. Bu davrda Sug'd podshosi kim edi?

- A) Hurzod
- B) Tarxun
- S) G'urak
- D) Divashtich

30. Arablar qaysi shahar ustiga 2 ming, yiliga 200 ming dirham hisobida boj to'lash, 30 ming nafar odam berish, shaharda bironta ham askar saqlamaslik, ichki shaharni arablarga bo'shatib berish, masjid bino qilish kabi majburiyatlarni yuklaydi?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- S) Marv
- D) Nishopur

31. Nechanchi yilda Farg'ona vodiysi arablar tomonidan uzil kesil egallanadi?

- A) 715-yilda
- B) 713-yilda
- S) 720-yilda
- D) 717-yilda

32. Arablar bosqini davrida Choch viloyatining poytaxtini aniqlang.

- A) Tunkat
- B) Madinat ash-Shosh
- S) Binokat
- D) Koson

33. Arablar Movarounnahrni zabt etish jarayonida ...

- A) ular rivojlangan Sharq mamlakatlari madaniyatini mahalliy aholi o'rtasida keng yoyishga harakat qilardi
- B) har bir zardushtiylar ibodatxonasini jome masjidga aylantirdilar va arab me'morchigiga xos hashamatli binolar qurdilar
- S) uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalarini oyoqosti qilib, juda ko'p shahar va qishloqlarga o't qo'yib vayron etdilar
- D) mahalliy aholini bitta qolmay qirib tashlashga harakat qilardi

34. Movarounnahrda arablar qanday soliq turlarini joriy etdilar?

- 1) xiroj 2) ushr 3) kalon 4) zakot 5) alg'ut 6) qopchur 7) mushrifona 8) jiz'ya 9) tanobona
- A) 2, 4, 6, 8
- B) 1, 2, 4, 8
- S) 1, 3, 5, 8, 9
- D) 2, 6, 7, 9

35. Arablar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashda qanday ishga alohida ahamiyat berdilar?

- A) tarqoq mahalliy hokimliklarni markaziy hokimiyatga birlashtirishga
- B) o'zlari joriy qilgan bir necha turdagi soliqlarni vaqtida yig'ib olishga
- S) aholi o'rtasida islom dinini yagona din sifatida yoyishga
- D) mamlakatdagi doimiy qo'zg'olonlarni bostirishga

36. Arablar tomonidan joriy etilgan jiz'ya solig'i – bu ...

- A) islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i
- B) mol-mulkning 1/40 qismi hajmida oligan soliq
- S) idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olinadigan soliq
- D) hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i

37. Movarounnahrda arablar islom dinini yoyish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirganlar?

- 1) ibodatxonalar vayron etilib, ularning o'rniga jome masjidlari bino qilinadi

- 2) islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan mahalliy aholi xiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etilgan
- 3) otashparastlik diniga e'tiqod qiluvchilar uchun o'lim jazosi joriy etilgan
- 4) islomni qabul qilishdan bosh tortgan kimsalardan jiz'ya solig'i undirilgan
- 5) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun davlat oldidagi barcha qarzlar va soliqlardan ozod etilishi haqida qonun joriy etilgan
- 6) jiz'ya solig'ini o'z vaqtida to'lamagan kishilar tutib olinib, bo'yinlariga "qarzdor" deb yozilgan taxtacha osib qo'yilardi
- 7) islomni qabul qilishdan bosh tortgan kimsalardan ushr solig'i undirilgan
- 8) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 2 dirhamdan pul hadya etilgan
- A) 3, 5, 6
B) 1, 2, 4, 6, 8
S) 1, 3, 4, 5, 8
D) 1, 2, 4, 7

38. Arablar Movarounnahrda islom dinini qabul qilishdan bosh tortgan kimsalardan qanday soliq undirgalar?

- A) zakot
B) xiroj
S) jiz'ya
D) ushr

39. Zakot – bu ...

- A) hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i
B) islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i
S) idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olinadigan soliq
D) mol-mulkning 1/40 qismi hajmida oligan soliq

40. Movarounnahrda arablar joriy etgan hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i nima deyilgan?

- A) xiroj
B) ushr
S) qopchur
D) tanobona

41. Quyidagi qaysi soliqning ta'rifi noto'g'ri ko'rsatilgan?

- A) ushr — hosilning 1/5 qismi hajmida olinadigan yer solig'i mol-mulkning 1/40 qismi hajmida oligan soliq
B) jiz'ya — islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i
S) zakot — mol-mulkning 1/40 qismi hajmida oligan soliq

- D) xiroj — hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i

42. O'zbekiston hududida aholi islom diniga nechanchi asrdan buyon e'tiqod qilib kelmoqda?

- A) VIII asrdan
B) VII asrdan
S) VI asr oxiridan
D) IX asr o'rtalarida

43. 717-719-yillarda hukmronlik qilgan arab xalifasini aniqlang.

- A) Marvon II
B) Horun ar-Rashid
S) Umar ibn Abdulaz
D) Abu Bakr

44. Qaysi xalifa hukmronligi davida yangi yerlarni zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon beriladi?

- A) Abu Bakr
B) Umar ibn Abdulaziz
S) Marvon II
D) Horun ar-Rashid

45. Qaysi voqeadan so'ng Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanib, arablarga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi?

- A) xalifa Umar ibn Abdulaziz tomonidan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi
B) xalifalik ma'muriyati bir yo'la hammadan jiz'ya olish haqida buyruq berdi
S) xalifa Marvon II arab tilini barcha o'rganishi haqida buyruq berdi
D) xalifalik ma'muriyati hammadan bir vaqtning o'zida mavjud barcha soliqlarni undirish haqida buyruq berdi

46. Ma'lumki, xalifa Umar ibn Abdulaziz moliyaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon berdi. Bunga binoan ...

- A) islomni qabul qilgan yerli xalqlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi
B) bo'ysundirilgan yerli aholining barchasidan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi
S) yirik kumush tangalar zarb qilish va muomulaga kiritish joriy etildi
D) islomni qabul qilgan yerli xalqlardan xiroj va zakot soliqlarini olish bekor qilindi

47. 720-yilda Sug'dda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon boshchilarini aniqlang.

- A) Said Xarashiy va Abu Muslim
B) G'urak va Divashtich
S) Abu Muslim va Muqanna

D) Abu Muslim va Dovud

48. VIII asrning 20-yillarida qanday omil butun Movarounnahrda bosqinchi arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari ko'tarilishiga turtki berdi?

A) xalifalik ma'muriyatining bir yo'la hammadan jiz'ya olish haqida buyruq berishi

B) xalifa Umar ibn Abdulaziz tomonidan xiroj va jiz'ya soliqlari olinishining bekor qilinishi

S) xalifa Marvon II ning arab tilini barcha o'rganishi haqida buyruq berishi

D) xalifalik ma'muriyatining hammadan bir vaqtning o'zida mavjud barcha soliqlarni undirish haqida buyruq berdi

49. VIII asrning 20-yillarida Sug'dda qo'zg'olon ko'targan G'urak va Divashtich qanday lavozimga ega bo'lishgan?

A) Badaxshon hokimi, dehqon

B) dehqon, tunukasoz

S) Samarqand ixshidi, Panjikent hokimi

D) Badaxshon hokimi, Panjikent hokimi

50. Sug'ddagi G'urak va Divashtich boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olonn bostirish va ularni islomga qaytarish vazifasi dastlab kimga topshirilgan edi?

A) Nasr ibn Sayyor

B) Said Xarashiy

S) Dovud

D) Abu Muslim

51. 721 yilda kim Xuroson noibi qilib tayin etilgan?

A) Said Xarashiy

B) Nasr ibn Sayyor

S) Dovud

D) Ashros

52. Quyidagi ishlardan qaysi biri Xuroson noibi Ashros tomonidan amalga oshirilgan?

A) islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi

B) yirik kumush tangalar zarb qilish va muomulaga kiritish joriy etildi

S) aholidan qo'shimcha ushr solig'ini yig'ib olish joriy etildi

D) Sug'd qo'zg'oloni butunlay tor-mor etildi

53. Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor o'tkazgan moliya islohati qanday edi?

1) islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etildi

2) barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtirildi

3) islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'ya va zakot soliqlaridan ozod etildi

4) yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar aholining xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi

5) mayda mis chaqalar zarb etildi

6) aholidan qo'shimcha ushr solig'ini yig'ib olish joriy etildi

A) 2, 4, 6

B) 1, 2, 4

S) 3, 5, 6

D) 3, 4

54. 738-748-yillarda hukmronlik qilgan Xuroson noibini aniqlang.

A) Said Xarashiy

B) Ashros

S) Nasr ibn Sayyor

D) Umar ibn Abdulaziz

55. VIII asrning 40-yillarida Arab xalifaligida ...

A) hokimiyat tepasiga Ummaviylar sulolasi keldi

B) Muqanna qo'zg'oloni ko'tarildi

S) abbosiylar hukmronligi barham topdi

D) toj-u taxt uchun kurash kuchaydi

56. Arab xalifaligida dastlab kim abbosiylar sulolasi hokimiyatini o'rnatish maqsadida kurash olib borgan?

A) Marvon I

B) Muhammad ibn Ali

S) Abul Abbos Saffoh

D) Abu Muslim

57. VIII asr 40-yillarida Arab xalifaligidagi Ummaviylar sulolasi abbosiylar tomonidan nimada ayblandi?

A) Muhammad (s.a.v) avlodini qirib tashlashda

B) xalifa Alini payg'ambar sifatida tan olishda

S) aholiga 40 dan ortiq soliq majburiyatlarini yuklashda

D) Ummaviy xalifalarining o'zlarini payg'ambar darajasiga ko'tarishida

58. Farmon nima?

A) mavjud tartibni o'zgartirish

B) qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq

S) o'n ming qo'shin qo'mondoni

D) baxt vat ole xudosi

59. Quyidagi atamalar izohi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) tudun – turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili

B) rabod – tashqi shahar, karvonsaroy

S) farmon – mavjud tartibni o'zgartirish

D) tuman – o'n minglik harbiy qism



60. Arab xalifaligida Ummaviylarga qarshi umumiy norozilik qaysi xalifa hukmronligi davrida nihoyatda kuchaydi?

- A) Marvon II
- B) Umar ibn Abdulaziz
- S) Muoviya
- D) Abu Sufyon

61. Sug'dda G'urak va Divashtich qo'zg'oloni boshlanganidan 26 yil o'tgach ...

- A) Marvon II xalifalik taxtiga o'tirdi
- B) Abu Muslim Xurosonga keldi
- S) Nasr ibn Sayyor moliya islohatini o'tkazdi
- D) Muqanna qozg'oloni boshlandi

62. Abu Muslim qo'zg'olonchilarining katta qismi qaysi tabaqa vakillaridan iborat edi?

- A) qishloq oqsoqollari
- B) dehqonlar
- S) qullar
- D) savdogarlar

63. Ma'lumki, Abu Muslim Shavval qishlog'ida qullar uchun maxsus joy tashkil ettirdi. Buning asosiy sababi nima edi?

- A) qullarni qo'shinning zahira qism sifatida saqlash lozimligi sababli
- B) tajribasiz qullarning harbiy tayyorgarlik ko'rish lozimligi sababli
- S) qullarning ko'psonligi sababli
- D) qo'zg'olonchilar tarkibidagi yuqori tabaqa vakillari uchun qullar bilan bir safda turish or tuyulganligi sababli

64. Abu Muslim Shavval qishlog'idagi qullarga kimni boshliq qilib tayinlaydi?

- A) Divashtich
- B) Abul Abbos Saffox
- S) Dovud
- D) G'urak

65. Quyidagi voqealarning xronologik ketma-ketligini aniqlang.

1) Abu Muslim Marv shahrini egalladi 2) Marvon taxtdan ag'darildi 3) Abu Muslim Xurosonga keldi 4) Arab xalifaligida abbosiylar hokimiyati o'rnatildi 5) Abu Muslim qullar uchun Shavval qishlog'ida maxsus joy tashkil ettirdi

- A) 3, 5, 1, 2, 4
- B) 1, 3, 5, 2, 4
- S) 2, 4, 5, 1, 4
- D) 1, 5, 3, 2, 4

66. Ma'lumki, Abu Muslim qo'zg'olonchilari turli tabaqa vakillaridan tashkil topib, ularning maqsadlari ham turlicha edi. Shulardan mahalliy hukmdorlarning asosiy maqsadi nima edi?

- A) xalifalik hokimiyatini abbosiylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarish
- B) o'z mamlakatini xalifalikdan ajratib, uni mustaqil idora qilish
- S) Ummaviylar zulmidan qutulish
- D) qullik kishanlaridan qutulish

67. Abu Muslim qo'zg'olonchilari libosiga xos rangni aniqlang.

- A) yashil
- B) oq
- S) qizil
- D) qora

68. Abu Muslim Marvga bostirib kirgan paytda Xuroson noibi kim edi?

- A) Ashros
- B) Nasr ibn Sayyor
- S) Said Xarashiy
- D) Umar ibn Abdulaziz

69. Nechanchi yilda abbosiylar Xuroson poytaxti Marv shahrini egallaydilar?

- A) 747-yilda
- B) 748-yilda
- S) 746-yilda
- D) 749-yil

70. Abu Muslim boshliq qo'zg'olonchilar Damashq shahrini qachon egallaydilar?

- A) 747-yilda
- B) 749-yilda
- S) 746-yilda
- D) 748-yilda

71. Abbosiylar sulolasining birinchi xalifasi kim?

- A) Umar ibn Abdulaziz
- B) Abul Abbos Saffox
- S) Abbos
- D) Muhammad ibn Ali

72. Arablar jangsiz Marv shahrini egallashlaridan 99 yil o'tgach ...

1) Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egalladi
2) Sug'dda G'urak va Divashtich boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi
3) xalifa Marvon II taxtdan ag'darildi
4) Movarounnahrda Muqanna qo'zg'oloni boshlandi
5) Abul Abbos Saffox xalifa deb e'lon qilindi
6) Arab xalifaligida Ummaviylar sulolasi ag'darilib, hokimiyat tepasiga abbosiylar keldi

- A) 1, 3, 5
- B) 3, 5, 6
- S) 2, 4, 5
- D) 1, 2, 6

73. Arab xalifaligida Ummaviylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

- A) 651-749-yillarda
- B) 750-1258-yillarda
- S) 661-750-yillarda
- D) 632-661-yillarda

74. Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi ...

- A) Abu Muslim vositasida abbosiylar tomonidan xalq ommasiga berilgan barcha vaʼdalarning amalga oshishiga imkon berdi
- B) mahalliy hukmdorlarning xalifalikdan mustaqil boʻlib olishga imkon berdi
- S) mehnatkash aholining turmush-tarziga ancha yengillik keltirdi
- D) mehnatkash aholiga hech qanday yengillik keltirmagan

75. Maʼlumki, abbosiylar xalq orasida Abu Muslim obroʻyining tobora ortib borishiga xayrixoh emas edilar. Buning oqibatida ular qanday ishni amalga oshirdilar?

- A) Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrda noib qilib yuborildi
- B) Abu Muslim Alini paygʻambar sifatida bilishda ayblandi
- S) Abu Muslim Kaspiy dengizining janubidagi Ashura oroliga surgun qilindi
- D) Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Misrga noib qilib yuborildi

76. Buxoroda abbosiylarga qarshi koʻtarilgan xalq qoʻzgʻoloni qachon sodir boʻldi?

- A) 750-yilda
- B) 754-yilda
- S) 759-yilda
- D) 760-yilda

77. Abbosiylar hukmronligining dastlabki yillarida Turkistonga qaysi davlat qoʻshinlari bostirib keladi?

- A) Xitoy
- B) Vizantiya
- S) Angliya
- D) Rossiya

78. Arablar jangsiz Marv shahrini egallashlaridan bir asr oʻtgach ...

- A) arab va sugʻd, turklardan iborat harbiy kuch Talos vodiysida Xitoy qoʻshinlariga zarba berib, mamlakat hududidan quvib chiqaradi
- B) “Oq kiyimliklar” qozgʻoloniga zarba berish uchun xalifa Mansur Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qildi

S) xalifa Mahdiy Nishopurga keldi

D) Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egalladi

79. Abu Muslim xitoyliklarni mamlakat hududidan quvib chiqarish maqsadida kimning boshchiligida qoʻshin yuboradi?

- A) Dovud
- B) Ziyod ibn Solih
- S) Ubaydulloh ibn Ziyod
- D) Jabroil ibn Yahyo

80. Abu Muslim nima sababdan abbosiylar tomonidan oʻldirilgan?

- A) abbosiylar Abu Muslimning poytaxtga yashirincha hujumidan xabar topib qolgan edi
- B) Abu Muslim begunoh kishilarni qatl ettirishda ayblangan edi
- S) ularning nazarida Abu Muslim xalifalik taxtining daʼvogaridek boʻlib tuyular edi
- D) Abu Muslim Alini paygʻambar sifatida bilishda ayblangan edi

81. Abbosiylar tomonidan Abu Muslimning oʻldirilishi Xuroson va Movarounnahrda ...

- A) mahalliy hokimlarning mustaqil davlat tuzishiga imkon berdi
- B) abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona boʻldi
- S) xitoyliklarning bosqiniga sabab boʻldi
- D) mehnatkash xalqning abbosiylar zulmi ostida qolishiga zamin yaratdi

82. Arab xalifaligida abbosiylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

- A) 750-1221 yillarda
- B) 661-750-yillarda
- S) 750-1258-yillarda
- D) 632-661-yillarda

83. Movarounnahrda boʻlib oʻtgan “Oq kiyimliklar” qoʻzgʻoloni nechanchi yillarni oʻz ichiga oladi?

- A) 769-783-yillar
- B) 750-769-yillar
- S) 806-807-yillar
- D) 697-725-yillar

84. Oʻzbekiston tarixida Hoshim ibn Hakim rahbarlik qilgan qoʻzgʻolon qanday nom bilan ataladi?

- A) “Qizil boshlilar” qoʻzgʻoloni
- B) “Sariq roʻ mollilar” qoʻzgʻoloni
- S) “Qizil qoshlilar” qoʻzgʻoloni
- D) “Oq kiyimliklar” qoʻzgʻoloni

85. Quyidagi tarixiy shaxslardan qay biri boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan?

- A) Hoshim ibn Hakim va Muqanna
- B) Hoshim ibn Hakim
- S) Mazdak
- D) Muqanna

86. Movarounnahrda bo'lib o'tgan yirik qo'zg'olon rahbari Muqannaning asl ismini aniqlang.

- A) Hoshim ibn Hakim
- B) Muhammad ibn Hamadon
- S) Rofe ibn Lays
- D) Qutbiddin ibn Hoshim

87. Quyidagi javoblardan qay birlari qo'zg'olon rahbari Muqannaga xosdir?

- 1) asl ismi Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy
 - 2) Marv shahri yaqinidagi Koza qishlog'ida tug'ilgan
 - 3) Movarounnahrda yollanma qo'shin darajasidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan
 - 4) Marv shahri yaqinidagi Mahmudobod qishlog'ida tug'ilgan
 - 5) boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan
 - 6) yoshligida kudungarlik kasbi bilan shug'ullangan
 - 7) Samarqand viloyatining Ishtixon viloyatida tug'ilgan
 - 8) Xurosonda kichik lashkarboshi darajasidan vazirlik darajasiga ko'tarilgan
 - 9) o'zbek va tojik tillarida she'rlar ham yozib turgan
 - 10) Marv shahrida umrining oxirigacha tunukasoz bo'lib ishlagan
 - 11) yoshligida temirchilik bilan shug'ullangan
 - 12) asl ismi Hoshim ibn Hakim
- A) 1, 4, 5, 9, 11
 - B) 2, 5, 6, 8, 12
 - S) 3, 6, 7, 9, 12
 - D) 1, 2, 5, 10

88. Muqanna kimning g'oyalari asoslangan ta'limotni targ'ib etgan edi?

- A) Moniy
- B) Zardusht
- S) Muhammad
- D) Mazdak

89. Dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi tarafdori bo'lgan va buni zo'rlik yo'li bilan amalga oshirishni yoqlab chiqqan qo'zg'olon rahbarini aniqlang.

- A) Muqanna
- B) Abu Muslim
- S) Divashtich
- D) Spartak

90. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni rahbari Muqanna qarorgohi joylashgan qal'a nomini ko'rsating.

- A) Marv yaqinidagi Moxuvon qal'asi
- B) Kesh yaqinidagi Som qal'asi

- S) Naxshabdagi Ishtijon qal'asi
- D) Buxoro vohasidagi Narshax qal'asi

91. Ma'lumki, Muqanna qo'zg'olonchilari turli tabaqa vakillaridan tashkil topib, ularning maqsadlari ham turlicha edi. Shulardan mahalliy mulkdor dehqonlarning asosiy maqsadi nima edi?

- A) Muqanna boshchiligidagi yirik saltanat tuzish
- B) xalifalik hokimiyatini ummaviylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarish
- S) mamlakatdan arablarni quvib, hokimiyatni o'z qo'lga olish
- D) qullik kishanlaridan qutulish

92. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Mansur 775-yilda kimning boshchiligida harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qiladi?

- A) Jabroil ibn Yahyo
- B) Ziyod ibn Solih
- S) Ubaydulloh ibn Ziyod
- D) Dovud

93. Abu Muslim o'ldirilganidan 20 yil so'ng ...

- A) Muqannaning Som qal'asi qamalga olindi
- B) xalifa qo'shinlari Muqanna qo'zg'olonchilari tomonidan tor-mor etildi
- S) Movarounnahrda juda katta xalq qo'zg'oloni – "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni boshlandi
- D) Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tarildi

94. Ma'lumki, "Oq kiyimliklar"ning qo'zg'oloni 776 yildan Buxoro vohasida kuchayib ketadi. Ushbu vohada qaysi qal'a qo'zg'olonchilar qo'rg'oniga aylantirilgan edi?

- A) Narshax qal'asi
- B) Moxuvon qal'asi
- S) Ishtijon qal'asi
- D) Som qal'asi

95. Qaysi hudud Muqanna qo'zg'olonining markazi hisoblangan?

- A) Sug'd vohasi
- B) Buxoro vohasi
- S) Farg'ona vodiysi
- D) Marv shahri

96. 777-yilda qaysi xalifa tomonidan Muqanna qo'zg'olonchilariga qarshi Samarqandga katta harbiy qo'shin yuboriladi?

- A) Mahdiy
- B) Mansur
- S) Abul Abbas Saffox
- D) Marvon

97. 777-yilda “oq kiyimliklar” kimlarni arablarga qarshi yordamga chaqiradilar?

- A) xitoyliklarni
- B) xorazmliklarni
- S) Sirdaryo vohasida yashovchi turkiy qabilalarni
- D) Amudaryoning quyi vohasida yashovchi turkiy qabilalarni

98. “Oq kiyimliklar” joylashib turgan Samarqand qachon arablarga taslim bo`ladi?

- A) 775-yilda
- B) 779-yilda
- S) 783-yilda
- D) 777-yilda

99. Arablar va Muqanna qo`zg`olonchilari o`rtasidagi kurashning oxirgi bosqichi qayerda bo`lib o`tadi?

- A) Keshda
- B) Marvda
- S) Nishopurda
- D) Samarqandda

100. Muqanna qay tariqa halok bo`ladi?

- A) istilochilarga taslim bo`lishni istamasdan o`zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo`ldi
- B) arablar tomonidan asirga olinib, tili sug`urildi va otga bog`lab tilka-pora qilindi
- S) arablarga taslim bo`lishni istamasdan o`z qorniga xanjar tiqib halok bo`ldi
- D) mag`lubiyat alamidan Muqanna o`z buyrug`iga binoan xizmatkori tomonidan o`ldirildi

101. 769-783-yillarda bo`lib o`tgan yirik xalq qo`zg`olonini aniqlang.

- A) Rofe ibn Lays qo`zg`oloni
- B) Muqanna qo`zg`oloni
- S) Sarbadorlar qo`zg`oloni
- D) Pugachyov qo`zg`oloni

102. Qanday omil Muqanna qo`zg`olonchilari-ning yengilishiga asosiy sabab bo`ldi?

- A) qo`zg`olonchilarning kamsonliligi
- B) qo`zg`olonchilarning uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganliklari
- S) qo`g`olon qatnashchilari tarkibining turli tabaqa vakillaridan iboratligi
- D) Movarounnahrda doimiy xitoyliklarning hujumi

103. Qanday sabablar “Oq kiyimliklar” qo`zg`olonning mag`lubiyatiga xizmat ko`rsatdi?

- 1) qo`zg`olonchilarning kamsonliligi
- 2) qo`zg`olonchilarning uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganlari
- 3)

qo`zg`olonchilar tarkibining turli tabaqa vakillaridan iboratligi

- 4) mahalliy muldorlarning arablar tomoniga o`tib ketishi
- 5) Movarounnahrda doimiy xitoyliklarning hujumi

6) qo`zg`olonning uzoq davom etganligi

- 7) qo`zg`olonchilarning sodda va oddiy qurollarga ega bo`lganligi

- A) 2, 4, 6
- B) 1, 3, 5, 7
- S) 3, 4
- D) 1, 4, 5

104. “Oq kiyimliklar” qo`zg`oloni bostirilganidan necha yil o`tgach Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo`zg`olon boshlandi?

- A) 18 yil
- B) 20 yil
- S) 23 yil
- D) 25-yil

105. Rofe ibn Lays qo`zg`oloni natijasida qaysi hududlar xalifalik qo`lidan ketadi?

- A) Naxshab, Kesh, Nishopur, Ray va Marv
- B) Samarqand, Naxshab, Kesh va Marv
- S) Samarqand, Shosh, Farg`ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm
- D) Farg`ona, Buxoro va Xorazm

106. Kimlar Rofe ibn Laysni qo`lga olib, uni xalifaga taslim bo`lishiga majbur qiladilar?


- A) Nuh, Ahmad va Yahyo
- B) Nuh, Nasr va Ismoil
- S) Ahmad, Tohir va Ismoil
- D) Nuh, Mansur va Yahyo

107. Quyidagi atamalar izohi mos keluvchi javobni aniqlang.

- 1) kudungar; 2) sarxang; 3) muqanna; 4) islohat; 5) farmon.
- a) qonun kuchiga ega bo`lgan buyruq
- b) kichik lashkarboshi
- s) niqobli kishi
- d) matoga ohor beruvchi
- e) mavjud tartibni o`zgartirish
- A) birinchi d; ikkinchi b; 3-s; 4-e; 5-a.
- B) birinchi b; ikkinchi s; 3-a; 4-d; 5-e.
- S) birinchi b; ikkinchi d; 3-a; 4-e; 5-a.
- D) birinchi d; ikkinchi a; 3-s; 4-e; 5-b.

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: 1. Abu Muslim Shavval qishlog'idagi qullarga boshliq qilib tayinlagan targ'ibotchi. 2. 720-yilda Sug'ddagi qo'zg'olon boshchisi bo'lgan Panjikent hokimi. 3. Ummaviylar sulolasi asoschisi. 4. Arab sarkardasi. 9. Birinchi xalifa. 10. Somonxudotning nabiralaridan biri. 12. Xuroson noibi (738-748).

ENIGA: 5. Muqannaning asl ismi. 6. Xuroson noibi (704-715). 7. Samarqand ixshidi. 8. Ummaviylar sulolasidan bo'lgan ikkinchi xalifa. 11. Ummaviylar sulolasiga qarshi qo'zg'olon rahbari. 13. 806-yilgi qo'zg'olon rahbari. 14. Somonxudot nabiralaridan biri. 15. Xorazmshoh Chag'on ukasi.

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hudud. 2. Musulmon bo'lmagan fuqarolardan olingan jon soli"i. 3. Islom dinida Qur'ondan keyingi manba. 5. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) asos solgan saltanat. 7. "Daryoning narigi tomoni". 9. Matoga ohor beruvchi. 10. Mol-mulkning 1/40 qismi hajmidagi soliq.

ENIGA: 4. Niqobli kishi. 6. Arab xalifalari sulolasi (661-750). 8. Abu Muslim harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan sulola. 11. Muqanna qo'zg'oloni qatnashchilari. 12. 50 kunlik qamal natijasida egallangan shahar. 13. Muhammad payg'ambar (s.a.v) ning o'rinbosari. 14. Hosilning 1/3 qismi hajmidagi yer solig'i. 15. VII asrda vujudga kelgan jahon dinlaridan biri.

XRONOKROSS (yillar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Arablarning Chag'oniyonga hujum boshlashlari. 3. Xalifa Marvon II ning taxtdan ag'darilishi. 5. Buxoroda Abbosiylarga qarshi Sharik ibn Shayhulmahri qozg'oloni. 7. Arab xalifaligida Ali hukmronligining tugashi. 8. Samarqand ixshidi G'urak hukmronligining so'nggi davri. 9. Muhammad (sav)ning tavallud topilshlari. 12. Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon.

ENIGA: 1. Arablarning Maymurg'ga hujumi. 2. "Oq kiyimlilar" ga uzil-kesil zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa Maxdiyning Nishopurga kelishi. 4. Arab xalifaligi hokimiyati tepasiga Umar ibn Abdulazizning kelishi. 6. Mazdak ibn Hamdodon vafot etgan yil. 8. Qutayba ibn Muslimning Balx viloyatini bosib olishi. 10. Arab sarkardasi Ubaydulloh ibn Ziyodning Buxoro muzofotiga bostirib kirishi. 11. Abumuslimning Marv shahrini egallashi. 13. Qutayba ibn Muslimning Shuman, Kesh, Nasafni bosib olishi. 14. Muqanna qo'zg'olonining boshlanishi.



MUSTAQILDAVLATLARNING SHAKLLANABOSHLASHI

Qarluqlar davlati. VIII asrning oxirlari XI asrning boshlarida Arab xalifaligining og‘ir tang ahvolga tushib qolishi O‘rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Dastlab bunday davlatlar arablar istilo qilib ulgurmagani Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida shakllandi. Ana shunday davlatlarning birinchisi Qarluqlar davlati bo‘lsa, ikkinchisi O‘g‘uzlar davlatidir.

Oltoy daryosining g‘arbida, so‘ngra Irtish daryosining o‘rta oqimida istiqomat qilgan qarluqlar qadimdan turkiy elatlardan bo‘lib, VI-VII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lganlar. VII asrning o‘rtalariga kelib ular Yettisuv o‘lkasiga joylashganlar. Qarluqlarning katta qismi Talos va Chu daryolari adoqlaridan to Issiqko‘lgacha bo‘lgan hududlarda yashaganlar.

Qarluqlar davlati VIII asrning oxirlarida tashkil topgan. Uning poytaxti Suyob shahri bo‘lgan. Qarluqlar davlatida podshohlar “yabg‘u” yoki “jabg‘u” deb atalgan. Bu davlatda Jo‘l, Navkat, Yor, Karmankat, Tun, Barsxon, Panjakent, Beklig‘ kabi shaharlari bo‘lgan. Xalqning asosiy mashg‘uloti chorvachilik, ovchilik bo‘lgan. Dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Savdo-sotiq ishlari asosan Movarounnahr va Yettisuv aholisi bilan olib borilgan. O‘z ixtiyorlari bilan dastlab moniy, nasroniy va islom dinini qabul qilganlar. VIII asrning oxirlarida qarluqlar jabg‘usi islom dinini qabul qilgan. X asr o‘rtalarida qarluqlarning katta qismi musulmon bo‘lgan.

X asrning o‘rtalarida Qoraxoniylar davlati shakllanganda qarluqlar ham uning tarkibiga kirgan. Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, qarluqlar asosan Shosh, Farg‘ona va Zarafshon vohalariga kelib joylashdilar va mahalliy aholi bilan qorishib ketdilar. Qarluqlar o‘zbek va tojiklarning etnogeozida muhim rol o‘ynagan.

O‘g‘uzlar davlati. VI asrning birinchi yarmida Xitoydan to Qora dengiz bo‘ylarigacha bo‘lgan yerlarda turkiy qabilalarning *to‘quzo‘g‘uzlarning* harbiy ittifoqi yuzaga keladi va VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrda ular Turk xoqonligi tarkibida edi. Turk xoqonligi yemirilgach, to‘quzo‘g‘uzlarning kattagina qismi g‘oz yoki o‘g‘uz nomi ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo‘yida muqim o‘rnashib, IX asr oxiri va X asr boshida O‘g‘uzlar davlatiga asos soladilar. Bu davlatning poytaxti Yangikent shahri edi. O‘g‘uzlar ko‘chmanchi chorvador bo‘lganliklari bois birorta shaharlarni o‘z qo‘llari bilan bino qilmaganlar. Ular Shosh va Xorazmga talon-tarojlik yurishlar uyushtirib turganlar. X asrdan boshlab o‘g‘uzlar islom dinini qabul qiladilar. X asrning birinchi choragida O‘g‘uzlar davlati qipchoqlar zarbasiga uchrab bo‘linib ketadilar. Ularning bir qismi janubiy Rusiya dashtlariga borib o‘rnashadilar, ikkinchi qismi esa *saljuqlar* boshchiligida Old Osiyoga istilo qilishga kirishadi. O‘g‘uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, turklarning etnogeozida muhim rol o‘ynagan.

Tohiriylar davlati. Xalifa Horun (786-809) vafotidan so‘ng uning o‘g‘illari Ma‘mun bilan Amin o‘rtasida 809-813-yillarda taxt uchun kurash bo‘lib o‘tadi. Ma‘mun uzoq yillar Xuroson va Movarounnahrning noibi bo‘lib, mahalliy mulkdorlar bilan juda yaqinlashib ketgan edi. Hirot viloyatining zodagonlaridan Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga xalifalik taxtini egallashga yordam beradilar. 813-yilda ular Bag‘dodni egallaydilar va xalifalik taxtiga Ma‘mun o‘tkaziladi. Buning evaziga Tohir 821 yilda Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Bundan tashqari Ma‘mun bergan yordami uchun Movarounnahr zodagonlari bo‘lgan Somonxudotning nabiralari Nuh Samarqand, Ahmad Farg‘ona, Yahyo Shosh va Ustrushona, Ilyos Hirotga noib etib tayinlanadi. 822-yilda Tohir davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlaydi. Biroq, ko‘p o‘tmay Tohir ibn Husayn to‘satdan vafot etadi. Uning o‘g‘illari Talxa va Abul Abbos Abdulloh birin-ketin navbat bilan noiblik qiladilar. Abul Abbos Abdulloh noibliigi (839-844) davrida poytaxt Marvdan Nishopurga ko‘chiriladi.

Tohiriylar dastlab hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo‘jaligini tartibga solishga harakat qiladilar. Bundan tashqari ular davlat boshqaruvi, fuqarolarga munosabat va soliq solish tartiblariga alohida ahamiyat beradilar.

Biroq, tohiriylar davrida mehnatkash xalq mulkdor dehqonlarning jabr-zulmiga va davlatning og‘ir soliqlariga qarshi tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarib turishardi. Ularda ayniqsa “*g‘oziyalar*” faollik ko‘rsatardi. **G‘oziyalar** – ko‘chmanchilarga

qarshi ko'ngillilardan tuzilgan qurolli maxsus guruh, adolat kurashuvchilari bo'lib, asosan kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan iborat edi. IX asrning 60-yillarida Xurosonda ular faolligida xalq qo'zg'olonni avj olib ketdi. Unga aka-uka miskar **Yoqub** va **Amr binni Lays** boshchilik qiladilar. 873-yilda g'oziyalar tohiriylarning harbiy qo'shiniga qaqshatqich zarba berib, Nishopurni egalladilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi Safforiylar davlati (873-900) tashkil topadi. Buning oqibatida Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ladi.

SOMONIYLARDAVLATI

Somoniylar hukmronligi. 865-yilda **Nasr** Movarounnahrning birdan-bir yagona hukmdori bo'lib qoladi. **Buxoro** vohasi, **Naxshab** (Qashqadaryo), **Chag'onrud** (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi. Tohiriylar davlatining barham topishi bilan siyosiy vaziyat o'zgarib, mustaqillik uchun qulay sharoit yaratildi. 874-yilda safforiylarga qarshi ko'tarilgan Buxorodagi qo'zg'olondan foydalanib, Nasr Buxoroni o'z davlatiga qo'shib oladi. Buxoroni idoro etish uchun ukasi **Ismoilga** topshiradi. Nasr mamlakat mustaqilligi belgisi sifatida Samarqanda kumush tangalar zarb etishni yo'lga qo'yadi.

888-yilda **Ismoil** akasi **Nasr** ustidan uzil-kesil g'alaba qozonadi. 892-yildan boshlab esa Ismoil Somoniy butun Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib oladi.

Ismoil Somoniy (892-907) o'z davrining qobiliyatli, serg'ayrat va zukko davlat arbobi bo'lib, Movarounnahrda yirik markazlashgan davlatga asos soldi. U o'z davlatiga doimo xavf solib turgan ko'chmanchilar ustiga 893-yilda qo'shin tortib, **Taroz** shahrini egallaydi va shimoldan bo'ladigan hujumlarga barham berdi. Kuchayib borayotgan va mustaqillikka intilayotgan **Ismoil Somoniy** siyosati Arab xalifaligini tashvishga solayotgan edi. Shu bois xalifa **Mu'tazid** Ismoil Somoniy bilan Xuroson noibi **Amr ibn Laysni** to'qnashtirib o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ldi. 900-yilda **Ismoil** hal qiluvchi jangda **Amr ibn Laysni** yengib Xurosonni ham o'ziga qo'shib oladi. Natijada xalifa **Ismoil Somoniy davlatini** tan olib, unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Buning oqibatida IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan butunlay xalos bo'ldi.

Somoniylar davlati yuz yildan ko'proq yashadi. Somoniylar hukmronligining keyingi o'n yili davomida davlat hokimiyatining kuchi yanada zaiflashdi, davlat ichida nizolar kuchaydi, viloyatlardagi hokimlar itoatsizlik qilib, kurashni kuchaytirdilar. Ichki va tashqi kurashlarga Somoniylar davlati bardosh bera olmadi.

Somoniylarda boshqaruv tizimi. Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi **Ismoil Somoniy** davrida uzil-kesil qaror topdi. Bu davlatda markaziy boshqaruv **dargoh** va **devon** orqali amalga oshirilgan. Boshqaruvda amirning shaxsiy lashkari bo'lmish **turk g'ulomlarining** roli katta bo'lgan. Markaziy boshqarma **10 ta devondan** iborat bo'lgan: **vazir devoni**, **mustavfiy devoni** (xazina (moliya) kirim chiqimlar), **amid al-mulk devoni** (davlat hujjatlari va elchilik aloqalari), **mumollikayi xos devoni** (davlat mulklari), **sohibi shurat devoni** (harbiy ishlar), **sohibi muayyid devoni** (maktubot va axborot), **mushrif devoni** (saroy ish boshqaruvchisi), **muxtasib** (bozorlardagi toshu-tarozilar, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi), **qazo devoni** (adliya), **avqof devoni** (masjid va madrasalarning vaqf xo'jaliklari). Devonlarning eng kattasi **vazir devoni** bo'lib, boshqalari unga bo'ysungan. **Nasr ibn Ahmad (914-943)** davrida Buxoroning Registon maydonida devonlar uchun maxsus saroy qurilib, davlat mahkamasi ham shu joyda joylashgan. Mahkama xizmatchilari saroy ahli, ruhoniylar va zodagan dehqonlardan iborat bo'lib, muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Mamlakat viloyatlari mahalliy hokimlar (kadudolar) va raislar tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimlari ba'zan **vazir** deb yuritilgan. Har bir viloyatda maktubot va axborot devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Har bir shaharda **rais** — shahar boshlig'i va **muhtasib** — shariat ishlari, bozorlardagi tosh-tarozi va narxlarni nazorat qiluvchi bo'lgan.

Somoniylar davlatida **"iqto"** mulklarining o'rni katta edi. Bu mulk egalari **"muqto"** yoki **"iqtodor"** deb yuritilgan. Iqtodorlar bu mulklarni davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. "Iqtodor"lar hadya qilingan yerlardan tushadigan daromad yoki uning ma'lum qismini yig'ib olish huquqiga ega edi. Iqto mulklar ma'lum muddatga berilgan, nasldan-naslga o'tkazilmagan.

Somoniylar davlatida islom dini ruhoniylarining obro'si oshib, Buxoro Sharqdagi islom dinining markazlaridan biriga aylandi. Buxoroda musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh madrasa tashkil qilinadi. Islom mafkurasiga dastlab **"ustod"** rahnomalik qilgan. Keyinchalik din peshvolari va islom ulomolari **"shayxulislom"** nomi bilan yanada ulug'langan. Ustodan keyin **"xatib"** turgan. Bu davrda diniy muassasalar tegishli yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-yer egaligi xo'jaligi tarkib topdi.

Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shin va turk g'ulomlaridan iborat bo'lgan maxsus saroy muntazam sarbozlar qismini tuzadi. Muntazam sarbozlar oliy dargoh va shaxsan amirni va uning haramini qo'riqlash uchun tuzilgan. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar **"hojib"** lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i **"hojibul hujob"** yoki **"hojibul buzruk"** deb yuritilgan. Hojiblar, ayniqsa hojibul hujob saroyda turar va dargohning ishlarida boshqarar edi. Somoniylar sarbozlaridan tashqari ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlariga ham ega edi. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan **"ariz"** boshliq **devoni ariz** shug'ullanardi. Qo'shinlarga xizmat haqi har uch oyda, yiliga to'rt marta to'lanardi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Zarafshon, Qashqadaryo, Shosh, Farg'ona vodiysi va Xorazm vohasida g'allachilik, sholikorlik, polizchilik va bog'dorchilik rivojlandi. Paxtachilik maydonlari **Murg'ob, Buxoro, Samarqand** va **Shosh**

atroflarida kengaydi. IX-X asrlarda Movarounnahrda ko'plab yangi sug'orish kanallari qazildi. Suv ta'minoti bilan **mirob, jo'ybon** va **poikorlar** shug'ullangan. IX asrdan Buxoro vohasining suv ta'qsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan. Shaharlarning uch qismi — ark, shahriston va rabod yagona devor bilan o'rab olinib, o'ndan ortiq darvozali hunarmandchilik markaziga aylandi. IX-X asrlarda sirli idishlar yasash keng tarqalgan. Afrosiyobdan shu davrga oid shishadan yasalgan siyohdon, deraza oynasi topilgan. Somoniylar davrida hunarmandchilikning boshqa turlari — **to'qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, misgarlik, zargarlik, temirchilik, ko'nchilik** va **shishasozlik** singari hunar turlari ancha rivojlandi. Ayniqsa kulolchilik va shishasozlik avj olgan edi. Bu vaqtga kelib Samarqand qog'oz ishlab chiqarishning markaziga aylandi. Samarqand qog'ozini o'zining sifati va nafisligi bilan dong taratgan. Ulardan birining nomi "**qog'oz abreshemi**" o'ta sifatli tozaliligi, nafisligi bilan barcha savdo ahlini o'ziga tortgan. Ipakdan tayyorlangan bu qog'oz naviga, ayniqsa yevropalik savdogarlar xaridor bo'lishgan. Samarqandda tayyorlangan ikkinchi qog'oz navi "**qog'oz nimkatoni**" bo'lib, uni tayyorlashda ipak va kanopdan foydalangan.

IX-X asrlarda O'rta Osiyo shaharlari har tomonlama rivojlanib, xo'jalik va madaniyatning yirik markaziga aylandi. Bu davrning yirik shaharlari **Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh, Axsikat, Termiz** edi.

Bu davrda Farg'ona vodiysida, Nurota-Zarafshon tog'larida, Iloq viloyatida turli xil qimmatbaho toshlar, madaniyot qazib olish, ulardan turli-tuman mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Somoniylar "**ismoiliy**", "**musayyabiy**", "**muhammadiy**", "**g'itriy**" nomlari bilan kumush dirhamlar zarb etgan edilar. Ular orasida "**ismoiliy**" tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, u asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida soqilgan edi. Ichki savdoda "**fals**" deb atalgan mis chaqa, tashqi savdoda tohiriylar va somoniylarning kumush **dirhamlar** ishlatilgan. Kumush tanga holda ko'proq Sharqiy Yevropa mamlakatlari olib chiqilgan. X asrda tashqi savdoda **saroflik cheklaridan** keng foydalanar edi. Somoniylar davlatining Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borilgan karvon savdosida Xorazm muhim rol o'ynardi.

Somoniylar davrida yer egaligining uch turi mavjud bo'lgan: **1) mulki sultoniy; 2) mulk yerlar; 3) vaqf yerlar.**

Olinadigan soliqqa qarab yerlar ikkiga bo'lingan: 1) "**Mulki xiroj**" — soliq olinadigan yerlar. Dehqonlar yashagan yerlar, ya'ni "mulki sultoniy" va mulk yerlar shu toifaga kirgan. Bu yerlarda ishlovchilar hosilning 3/1 davlatga soliq tariqasida topshirganlar. 2) soliq to'lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar. Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari va payg'ambar avlodidan bo'lgan sayidlar mulki hisoblangan.

X asrda ikkita yangi ijtimoiy tabaqa paydo bo'ldi: **iqtdorlar** va **barzikor** — **qo'shchilar**. Qishloqlarda yersiz dehqonlarning ko'pchiligini **kadivarlar**, ya'ni yollanib ishlovchi **korandalar** tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda "**sherik**" yoki "**barzikor**", Xurosonda esa "**akkor**" deb atalgan. Bu davrda yirik mulkdorlar kadivarlardan ko'ra barzikoralarga yerlarini ijaraga berib ishlatishni afzal bilganlar.

Aholi zimmasiga turli xil soliqlarni to'lashdan tashqari, majburiyatlar ham yuklangan edi. Ayniqsa, uzluksiz davom etgan o'zaro kurashlardan aholi bezor bo'lgan edi. Bunday og'ir siyosiy vaziyat natijasida mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'lardi. Hattoki qo'shinni ta'minlash uchun mablag' ham topilmadi. Bunday og'ir ahvoldan chiqish uchun 942-yilda aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Bunday holat mamlakatdagi vaziyatni yanada keskinlashtirdi, aholini hokimiyatga qarshi chiqishga sabab bo'ldi. 914-yilda mamlakatning janubiy qismida mustaqillikka intilish harakatlari boshlanadi. 913-yilda **Tabaristonda**, 930-yilda **Buxoroda Abu Bakr** boshchiligida, 944-yilda **Xorazmda** qo'zg'onlar bo'lib o'tadi.

Siyosiy vaziyat ayniqsa, **Nuh** (943-954) va uning nabirasi **Nuh II** (976-997) hukmronligi davrida keskin tus oladi. 947-yilda Nuhning amakisi **Ibrohim** isyon ko'tarib, Chag'oniylarning yirik yer egaligidan **Abu Ali Chag'oni** yordamida qisqa vaqt Buxoro taxtini egallab oladi. Ko'p vaqt o'tmay **Abu Ali Chag'oni**ning o'zi ham bosh ko'taradi. **Nuh** qo'zg'onlarni kuch bilan bostira olmaydi, shuning uchun u 95-yilda **Abu Ali Chag'oni**ni dastlab Chag'oniylarga, so'ngra Xurosonga hokim etib tayinlaydi. 961-yilda Buxoro harbiy askarlari g'alayon ko'tarib, amir saroyini talaydilar va unga o't qo'yadilar. 962-yilda **G'aznaviylar** Somoniylar davlatidan ajralib chiqadi. Somoniylar davlati ichidagi o'zaro ziddiyatlarning to'xtovsiz kuchayib borishi, kambag'al tabaqalar, yersiz aholi noroziligining qo'zg'onlarga o'sib chiqishi, oliy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar o'rtasidagi ixtiloflarning chuqurlashib borishi oqibatda uning zaiflashuvi va inqiroziga olib keldi. Buning natijasida X asr oxiriga kelib bu hududda qoraxoniylardan iborat yangi sulolaning hukmronligi vujudga keldi.

QORAXONIYLARDAVLATI

Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi. X asrning birinchi yarmida **qarluq, chigil** va **yag'molarda** o'troqlashuv kuchayib, yer egaligi munosabatlar rivoj topadi. X asr o'rtalarida yag'mo va chigillar qarluqlarni bo'ysundiradilar. **Yag'molar** — madaniy jihatdan eng qolog'i, eng jangarisi, **chigillar** — birmuncha madaniyroq va boyroq, **qarluqlar** — ancha madaniyroq, eng obod joylarga ega bo'lishgan. **Chigil** va **qarluqlar** — Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida muhim rol o'ynagan.

Qoraxoniylar X asrning o'rtalarida Koshg'ar va Yettisuvda o'z davlatini tuzdilar. Bu davlatga **yag'mo** urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islom dinini qabul qilgan **Sotuq Abdulkarim Qoraxon (915-955)** asos solgan. Davlatni boshqarishda qoraxoniylar qabilaviy udumining **og'alik** tartibiga qat'iy rioya qilingan. Bu udumga muvofiq qabila boshliqlari orasida eng yoshi ulug'ini "**arslonxon**" yoki "**bug'roxon**" darajasiga ko'tarib, hukmdor, ya'ni **qoraxon** qilib

saylashgan. “**Qora**” iborasi turkiy tillarda “**buyuklik**”, “**ulug‘lik**” ma’nolarini anglatgan. Odatda, qoraxoniylar hukmdorini “**tamg‘achxon**”, ya’ni xonlar xoni deb yuritilgan. “**Arslon**” chigil totemi, “**bug‘ro**” yag‘molarni totemi bo‘lgan. U og‘ir yuk ko‘taradigan bichilgan tuya ma’nosini anglatgan. Qoraxoniylar davlatiga **yag‘mo**, **chigil** va **qarluq** qabilalari birlashdilar. **Sotuq** davrida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo‘linib ketadi. Birining poytaxti **Bolasog‘un** bo‘lib, oliy hokimiyat qabilada yoshi katta bo‘lgan xoqon tomonidan boshqarilgan. Ikkinchi davlatning poytaxti **Taroz**, keyinchalik **Qoshg‘ar** bo‘lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan.

Qoraxoniylar Somoniylar davlatidagi ichki nizolardan ustalik bilan foydalanib, 992-yilda **Hasan Bug‘roxon** boshchiligida harbiy yurish boshlaydilar. Turk lashkarboshilari **Abu Ali Simjuriy**, **Sabuqtegin**, turk hojibi **Foyiqning** amir hokimiyatiga muxolifatda bo‘lib, tez orada qoraxoniylar bilan yaqin munosabat o‘rnatishlari qoraxoniylarning bu hududni osonlik bilan qo‘lga kiritishiga yordam berdi. 996-yilda qoraxoniylar **Nasr Bug‘roxon** boshchiligida Buxoroga yana harbiy yurish boshlaydi va 999-yilda Buxoro to‘liq egallanadi. Butun Movarounnahr qoraxoniylar tasarrufiga o‘tadi. 1001-yilda g‘aznaviylar hukmdori **Mahmud G‘aznaviy** bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra, Amudaryoning shimolidagi barcha hududlar qoraxoniylarga o‘tadi. Ana shu tariqa Somoniylar davlati o‘rnida ikkita turk davlati — **Qoraxoniylar** va **G‘aznaviylar** davlati tashkil topdi.

1006 va 1008-yillarda Qoraxoniylar Xurosonni o‘z davlatiga qo‘shib olish maqsadida ikki marta qo‘shin tortib boradi. Biroq, **Mahmud G‘aznaviy** qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o‘z qo‘lida saqlab qoladi. 1038-yilda qoraxoniylarning mahalliy hukmdori **Ibroxim Bo‘ritakin** Xuttalon, Vaxsh va Chag‘oniyonni g‘aznaviylardan tortib oladi. Ko‘p o‘tmay u Movarounnahr va Farg‘onani o‘ziga bo‘ysundirib mustaqil siyosat yuritadi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti **Bolasog‘un** bo‘lgan **Sharqiy qoraxoniylar**, ikkinchisi markazi **Samarqandda** bo‘lgan **Movarounnahrda** **Qoraxoniylar** davlati edi. 1130-yilda qoraxoniylar saljuqiylar sultoni **Sulton Sanjarga** tobe bo‘lib qoladi. 1137-yilda **qoraxitoylar** Xo‘jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni **Mahmudga** qaqshatqich zarba beradilar. 1141-yilda qoraxitoylar yana Movarounnahrda bostirib kirib, Samarqand yaqinidagi **Katvon cho‘lidagi** jangda g‘alaba qozonadilar.

So‘nggi qoraxoniylar qoraxitoylar tobeligidan qutulgan edilar. Biroq, 1212-yilda **Alovuddin Muhammad** Xorazmshoh g‘arbiy qoraxoniylar davlatining xoqoni **Usmonni** o‘ldirib, Samarqandni o‘z mulklariga qo‘shib oladilar. Shu tariqa Qoraxoniylar faoliyatiga chek qo‘yiladi.

Davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar markazlashgan davlat tizimidan **alohida mulk boshqaruvi** tizimiga o‘tdi. Har bir viloyat ma’lum siyosiy mavqega ega holda xondan kichikroq unvonga ega elikxonlar tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylarda ikki poytaxt **Koshg‘ar** va **Bolasog‘un** sanalib, **tamg‘achxon** shu shaharlardan birida qarorgohda o‘tirgan. Qoraxoniylar davlati boshlig‘i lavozimi xoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma’muriy idoralar ikkiga bo‘lingan: **dargoh** va **devonga**. Xoqonning **ulug‘ hojibi** xoqon bilan fuqaro o‘rtasida vositachilik qilgan. Xoqonlik hududlari el va viloyatlarga bo‘lingan. El-yurt hokimlari “**eloqxon**”, viloyat noiblari “**takin**” deb yuritilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahrda yer egaligi mustahkamlanadi. XI-XII asrlarda qoraxoniylar o‘z mustaqilligini saqlab qolishga intilgan zodagon dehqonlarni ijtimoiy toifa sifatida yo‘qotishadi. Dehqonlarning yerlari davlat ixtiyoriga o‘tadi. Bu yerlar harbiylar, ruhoniylar va boshqa oliy tabaqa vakillariga xizmatlari evaziga **iqto** sifatida bo‘lib beriladi. XI asrdan **iqto** tartiboti keng yoyiladi. Iqto egalari **muqta** yoki **iqtodor** deb ataladi. Avvaliga u vaqtinchalik in‘om bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik umrbod in‘omga, so‘ngra esa merosiy in‘omga, ya’ni avloddan avlodga o‘tadigan merosga aylangan. Iqto sifatida yerdan tashqari tegirmon, do‘kon kabi soliq olinadigan boshqa mulklar ham berilgan. Ana shu paytlardan boshlab “**dehqon**” deganda katta yer egasi bo‘lgan zodagon emas, balki ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar tushunilgan.

XII asrda **Samarqand**, **Buxoro**, **Termiz**, **O‘zgan**, **Toshkent** kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. **Bolasog‘un**, **Taroz**, **O‘zgan**, **Toshkent**, **Samarqand**, **Buxoro** shaharlarida pul ishlab chiqaradigan zarbxonalari bo‘lgan.

Bu davrda shaharlarda ayniqsa kulolchilik, shishasozlik, misgarlik va chilangarlik rivoj topdi. XI-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda tovar-pul munosabatlari nihoyatda rivoj topadi.

Qoraxoniylar davrida ijtimoiy bo‘g‘inlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- **Eloqxon** — xoqondan keyingi pog‘anada turuvchi shaxs. U xoqon xonodonga mansub bo‘lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan;
- **Iqtodorlar** – qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, asosiy harbiy harakatlarni amalga oshiruvchi jangovar bo‘linmalar vakillari. Ular o‘z martabalariga ko‘ra bir-biridan farq qilgan;
- **Islom dinining peshvolari** — imomlar, sayyidlar, shayxlar, sadrlar;
- **Hokimlar, raislar, muhtasiblar**;
- **Tariqchilar** — ziroatkorlarning turkcha nomi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam sanaladi;
- **Hunarmandlar** – turli xildagi xo‘jalik ahamiyatiga molik ashyo, asbob anjomlar yasovchi, tayyorlovchi mehnatkash qatlam;
- **Savdogarlar** – savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan shahar ahli;
- **Ko‘chmanchilar** — chorvadorlar.

Qoraxoniylarda oddiy xalq **budun**, soliq to'lovchi fuqaro **raiyyat**, qabila boshliqlari **bek**, savdogarlar **sart** deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik, ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan.

Qoraxoniylar davrida turli o'lkalarning birlashishi fan va madaniyat rivojiga ham imkon berdi. Bu davrda **Buxoro**, **Samarqand**, **Bolasog'un**, **Qashqar**, **O'zgan** kabi shaharlar ham ma'muriy, ham madaniy markaz sifatida ahamiyati oshib, yanada kengayib, rivojlanib borgan. Qoraxoniylar fan va madaniyatning o'lka hayotidagi muhim o'rnini anglab unga homiylik qilishgan. Buyuk ipak yo'li asosidagi hududlararo savdo-sotiq yanada ravnaq topdi. Shu davrda bunyod etilib, hozirgacha saqlangan **Raboti Malik**, **Masjidi kalon**, **Minorai kalon**, **Vobkent minorasi**, **Jarqo'rg'on minorasi**, **Mag'oki attori masjid** hamda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroy kabi inshootlar qoraxoniylar davrida hashamatli binolar qurish san'ati yuksak darajada taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Amaliy bezak san'ati — naqshinkorlik, ganchkorlik va kulolchilik yo'nalishlari rivojlangan. Adabiyot yuksalgan. **Yusuf Xos Hojib**ning "*Qutadg'u bilig*", **Mahmud Qoshg'ariy**ning "*Devonu lug'otit turk*" kabi asarlari shu davrda yaratilgan.

G'AZNAVIYLARDAVLATI

G'aznaviylar davlatining tashkil topishi va faoliyati. G'aznaviylar davlati **Xuroson**, **Shimoliy Hindiston** hamda qisman **Movarounnahr** va **Xorazm**da g'aznaviylar sulolasi boshqargan turkiy davlat. G'aznaviylar davlatiga **Alpteginning** g'ulomi va kuyovi **Sabuktegin** asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti **G'azna** shahri nomidan olingan. Turkiy g'ulomlar xizmatlari evaziga somoniylardan Xuroson va Afg'onistonning turli viloyatlari (G'azna, Kobul va boshqalar)ni boshqarish huquqini olganlar. **Sabuktegin** G'azna viloyatining noibi va qo'shin amiri qilib tayinlangach (977), u bu mulklarni mustaqil boshqarishga kirishgan. 994-995-yillarda Xurosonda bo'lib o'tgan ikki jangda somoniylar amiri **Nuh ibn Mansur** va noib **Sabuktegin** boshchiligidagi birlashgan qo'shin isyon ko'targan turk sarkardalari **Abu Ali Simjuriy** (**Abulhasan Simjuriy**ning o'g'li) va **Foyiq** qo'shinlarini tor-mor keltirish jarayonida **Sabukteginning** siyosiy nufuzi yanada ortadi. **Nuh** o'z kuchiga ishonmay G'azna hukmdori **Sabuqteginga** yordam so'rab murojaat etadi. Qo'zg'olonchilar tor-mor etilgach, **Sabuqteginga** bu yordami uchun **Nuh II ibn Mansur** "**Nosir ud-din va ud-davla**", ya'ni "**din va davlat homiysi**", o'g'li Mahmudga "**Sayf ud-din**", ya'ni "**din shamshiri**" degan unvonlarni beradi. Bundan tashqari **Sabuqtegin**ni Xuroson noibi etib tayinlaydi. Natijada G'azna va Xurosonda **Sabuqtegin** va Mahmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanib, G'aznaviylar davlati tashkil topadi. Tez orada bu davlat kuchayib, Hindiston chegarasidan Amudaryogacha bo'lgan yerlarni egallaydi. G'aznaviylarning rasman siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996-yilga to'g'ri keladi. Ayni shu yili **Sabuqtegin** Somoniylarni Qoraxoniylar tahdididan saqlab qoladi. **Sabuqtegin** Buxoroni egallab, Qoraxoniylar bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'ra, Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'lga o'tadi. **Sabuqtegin** esa Amudaryodan janubdagi yerlarga hukmdor bo'lib qoladi. G'aznaviylar davlatining eng kuchaygan davri amir **Sabuktegin**, ayniqsa, sulton **Mahmud G'aznaviy** hukmronligi yillariga to'g'ri keladi. XI asr boshlariga kelganda musulmon Sharqining eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan G'aznaviylar davlatining chegaralari g'arbda **Ray** va **Isfahon** shaharlari, Kaspiy dengizi hamda shimoli-g'arbda Xorazm va Orol dengizigacha cho'zilgan, sharqda esa Shimoliy Hindistonning kattagina qismini o'z ichiga olgan va janubda Balujistongacha yetgan edi. **Mahmud G'aznaviy** somoniylar sulolasi barham topgach, ularning Xurosondagi butun hududini, keyinchalik Xorazm davlatini (1017) ham o'z saltanati tarkibiga qo'shib olgan. Biroq Janubiy Toxariston (hozirgi Shimoliy Afg'oniston)dan tashqari Shimoliy Toxariston (hozirgi Surxondaryo viloyati va Janubiy Tojikiston) hududini ham egallash uchun g'aznaviylar kurash boshlaganlarida qoraxoniylar bilan ularning manfaatlari o'zaro to'qnashdi. Keskin kurashlar natijasida Chag'oniyon va Termiz g'aznaviylarga bo'ysundirilgan. G'aznaviylar bilan Qoraxoniylar davlati o'rtasidagi chegara Amudaryo deb e'tirof qilingan. 1024-1025-yillarda **Mahmud G'aznaviy** Termiz yaqinida Amudaryoni kechib o'tib, Temir darvoza (Temir qopqa) orqali Sug'dga hujum qilgan va Samarqandgacha borgan. Bu harbiy yurishlar natijasida Omul (Chorjuy)gacha bo'lgan viloyatlar qoraxoniylar hukmronligidan chiqib, g'aznaviylar ta'siriga o'tgan. Bu davrda G'aznaviylar davlati Sharqdagi yirik musulmon davlatiga aylangan edi. G'oyatda epchil diplomat, mohir siyosat arbobi bo'lgan **Mahmud G'aznaviy** qoraxoniylar bilan o'zaro kelishuvga binoan o'zining shimoliy chegaralarini aniqlab, g'arbda Kaspiygacha bo'lgan hududlarni rasmiy jihatdan mustahkamlab oladi. Mahmud G'aznaviy temir intizomli, yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan, zamonaviy aslaha-anjomlarga ega katta qo'shin tashkil qilgan. U o'zining 32 yillik hukmronligi davrida Hindistonga qarshi 17 marta yurish qildi, bu vaqtda mustaqil davlat bo'lgan Xorazmni 1017-yil qurol yordamida o'ziga bo'ysundirdi. Biroq, **Mahmud G'aznaviy**ning o'g'li va valiahdi **Mas'ud G'aznaviy** hukmronligi davrida (1030-1041) G'aznaviylar davlati o'z qo'l ostidagi hududlarni birin-ketin qo'ldan chiqarib, asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi. XI asr o'rtalaridan boshlab g'aznaviylarning asosiy raqibi saljuqiylar bo'ldi. G'aznaviylar davlati tarkibidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. G'aznaviylarning Xorazmdagi noibi **Oltintosh** vafot etgach (1032), uning o'g'li **Horun** g'aznaviylarga qarshi isyon ko'tardi (1034). U saljuqiylar va qoraxoniylar bilan do'stona aloqa o'rnatib, Xorazmni g'aznaviylardan mustaqil deb e'lon qilgan. Bu paytda qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida Chag'oniyon, Xuttalon, Termizni egallash uchun yana keskin kurash boshlangan. Marv yaqinidagi **Dandanakon jangi** (1040-y. may)da **Mas'ud G'aznaviy** qo'shini saljuqiylardan yengilgach, g'aznaviylar Xurosonni butunlay qo'ldan chiqarishdi. Mag'lubiyatga uchragan sulton **Mas'ud G'aznaviy** G'aznaga qochgan va keyinchalik fitnachilar tomonidan o'ldirilgan (1041). Taxtga **Mas'ud**ning ukasi **Muhammad** o'tirgan. Lekin **Mas'ud**ning o'g'li **Mavdud** (hukmronlik davri: 1041-1048) amakisi **Muhammad**ning qo'shinini yengib, uni o'ldirgan va taxtga o'tirgan. **Sulton**

*Mavdud*ning Amudaryo yuqori qismidagi viloyatlarni qaytarib olishdagi sa'y-harakatlari natijasiz tugagan. Sulton *Farruxzod* (hukmronlik davri: 1053-1059)ning harakatlari bir muncha samarali bo'lib, u ketma-ket ikki jangda saljuqiylar qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi. Lekin keyinchalik *Alp Arslon* g'aznaviylarni yengishga muvaffaq bo'ldi. Ikki o'rtada tuzilgan bitim (1059)ga muvofiq, g'aznaviylar Movarounnahr va Toxaristonga bo'lgan har qanday huquqlarini yo'qotdilar. Ularning hududi G'azna viloyati va Shimoliy Hindistonning bir qismi (Panjob va boshqa) bilan cheklanib qoldi. Bu hudud ham XII asr boshlaridan boshlab asta-sekin qisqarib bordi. XII asrning 60-yillarida G'uriylar davlati g'aznaviylarni Shimoliy Hindistonga butunlay siqib chiqardilar, poytaxt **G'aznadan Lahorga** ko'chirildi (1161). G'uriylar davlati hukmdori **G'iyosiddin Muhammad** qo'shini Lahorni bosib olgach, G'aznaviylar davlati butunlay tugatildi (1186).

Boshqaruv tizimi. G'aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. Boshqaruv tizimining markazida **dargoh** va **devonlar** (vazirliklar) turgan. Dargohga oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq xizmatlar va amallar kirgan. G'aznaviylar davrida **hojiblik** xizmatining o'rni alohida e'tiborga loyiq. Dargoh faoliyatida **sipohdor** (saroy xizmatchisi), **davotdor** (oliy hukmdorning hujjatlarini yurituvchi), **pardador** (mahram; xufiya ishlarni bajaruvchi), **martabador** (saroydagi o'rta amaldor), **xazinachi**, **joma xona** va **farrosh** kabi mansab va xizmatlarning o'rni katta bo'lgan. Devonlar ijroiya idoralari bo'lib, o'sha davr manbalarida 5 ta devon nomi uchraydi. Ular **vazir devoni** (bosh vazir devoni); **harbiy ishlar devoni**; **elchilik va boshqa rasmiy tadbirlarni yuritish devoni**; **moliya devoni**; **pochta-xabar devoni**. Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyatlardagi boshqaruv ishlarni **amid** olib borgan. Shahar boshlig'ini **rais** deb ataganlar. Shahar miqyosida **shihna**, **kutvol** (qal'a komendanti), **sohibi devon** (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar. G'aznaviylar davlati qudratli harbiy qo'shinga ega edi. Oliy qo'mondonlik hukmdorning ixtiyorida bo'lgan. Bosh qo'mondon — **sipohsolor** esa sulolaning eng ishonchli vakili yoxud shu xonadon a'zosi hisoblangan. Masalan, **Mahmud G'aznaviy** sipohsolor mansabiga ukasi **Muhammad Yusuf**ni loyiq topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar **salor**, o'rta darajadagilari **sarhang** deyilgan. Harbiylar o'z pochta-xabar va qozilik xizmatlariga ega bo'lgan. G'aznaviylar qo'shinida harbiy kemalar (daryo va dengiz floti) ham mavjud edi.

Ilm-fan va madaniyat. G'aznaviylar davlatida ilm-fan va madaniyat, xususan, adabiyot rivojlangan. **Mahmud G'aznaviy** ona tilisi turkiydan tashqari fors, arab, hatto pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan va o'zi she'rlar bitgan. Uning saroyida 400 dan ortiq olim, shoir va san'atkorlar to'planib, faol ijod bilan shug'ullanishgan. **Abu Rayhon Beruniy**, shuningdek, **Farruxiy**, **Unsuriy**, **Manucehriy** kabi shoirlar, **Nosir Xusrav**, **Utbiy**, **Gardiziy**, **Bayhaqiy** shular jumlasidan bo'lib, G'aznada yashashgan. **Beruniy** o'zining "*Qonuni Mas'udiy*" va **Bayhaqiy** o'zining "*Ta'rix Mas'udiy*" asarlarini **Mas'ud G'aznaviy**ga bag'ishlashgan. **Firdavsiy** mashhur "*Shohnoma*" dostonini **Mahmud G'aznaviy**ga taqdim etgan. Biroq buyuk tabib **Abu Ali ibn Sino** G'aznaga — sulton saroyiga borishdan bosh tortgan. Shimoliy Hindistonni islomlashtirish va turklashtirish jarayoni aynan G'aznaviylar davridan boshlangan. G'aznaviylar davlatida qurilish va me'morchilikka ham katta e'tibor qaratilgan. G'azna, Balx, Nishopur, Lohur va boshqa shaharlarda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar, saroylar va bog'lar qurilgan, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. Xususan, poytaxt **G'azna** shahri gullab-yashnagan.

SALJUQIYLARDAVLATI

Saljuqiylar davlatining tashkil topishi. Saljuqiylar davlatiga *Saljuq*ning nevarasi **Sulton To'g'rubek** asos solgan. Saljuq turklari XI asrning 20-yillarida harbiy xizmatlari evaziga Xurosonda **Mahmud G'aznaviy**dan ko'plab mulklar olganlar. Biroq keyinchalik g'aznaviylar ularga qarshi lashkar jo'natib, **Arslon Isroil ibn Saljuq**ni asir olishgan va Hindistondagi harbiy qal'ada tutqunlikda saqlashgan (1032-yil u hibsdan o'lgan). Saljuqiylar g'aznaviylarga qarshi olib borgan ko'plab muvaffaqiyatli janglaridan so'ng Nishopurni egallab, o'z rahbarlari **To'g'rubek**ni sulton deb e'lon qildilar (1038). Dandanakon jangidagi g'alabadan so'ng, u Xuroson hukmdori deb e'lon qilindi. Asta-sekin saljuqiylar Xuroson, Xorazm, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq (Bag'dod bilan birga)ni o'zlariga bo'ysundirdilar. Bag'dodda **To'g'rubek** nomiga xutba o'qitilgan. Abbosiylar xalifasi **al-Qoim** (hukmronlik davri: 1031-75) hokimiyatni **To'g'rubek**ga topshirib, uni sulton hamda "*Sharq va G'arb podshohi*" deb tan olishga majbur bo'lgan va qizini unga xotinlikka bergan.

To'g'rubek Rayni, uning ukasi **Chag'ribek Dovud** (990-1060) **Marv**ni o'zlariga poytaxt qildilar. 1050-yilda **To'g'rubek** poytaxtni **Raydan Isfahonga** ko'chirgan. **Alp Arslon** va **Malikshoh** hukmronliklari davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rmashib olishgan. Ular Vizantiya imperatori **Roman IV Diogen**ning 200 ming kishilik qo'shinini yengib (1071), butun Kichik Osiyoni (1071-81), keyinchalik Suriya va Falastinni zabt etishgan. Armaniston, Gruziya, Shirvon ham bo'ysundirilgan. Shu davrda Balx, Termiz (1044), Buxoro, Samarqand (1089), keyinchalik Farg'ona vodiysi saljuqiylar qo'l ostida birlashgan. Hatto Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularning ustunligini tan olishgan. **Alp Arslon** poytaxtni **Isfahondan Marvga** ko'chirgan. Saljuqiylar qo'shinlari Arabiston yarim orolidagi Yaman va Bahrayn yerlarini ham o'z tasarruflariga olishgan. **Malikshoh** hukmronligi davrida Saljuqiylar davlati harbiy-siyosiy jihatdan juda kuchli bo'lgan. Bu vaqtda poytaxt yana **Isfahonga** ko'chirilgan.

XI a. oxirlarida Saljuqiylar davlati Sharqiy Turkistondan O'rta yer va Marmar dengizlarigacha bo'lgan katta hududni o'z ichiga olgan. Bu davlat Xitoy bilan Vizantiya o'rtasida joylashgan. Salibchilarning Sharqqa qilgan yurishlarini to'xtatishda saljuqiylarning xizmati katta bo'lgan. XI a. oxirlaridan boshlab, Saljuqiylar davlati parchalana boshlaydi. Chunki birinchi salib yurishi natijasida Saljuqiylar davlati Gruziya, Shirvon hamda Kichik Osiyoning sohil bo'yi hududlaridan, Suriya va Falastinning bir qismidan ajralgan (1096-99). Saljuqiylar davlatidan bir necha mustaqil sultonliklar

ajralib chiqqan. Masalan, Kermon sultonligi (1041-1187), Shom (Suriya) sultonligi (1074-1117), Ko'niya sultonligi va boshqa saljuqiylar sultonlar o'g'uz va boshqa turkiy urug'lar boshliqlari, jasur jangchilarga iqto in'om qilganlar. Masalan, **Malikshoh** saltanatni 12 ta viloyat — mulkka ajratib, ularni amirlar va lashkarboshilarga iqto tariqasida bergan. Katta-katta mulklarga ega bo'lgan iqtodordlar esa mustaqil bo'lishga harakat qilganlar. **Malikshoh** vafoti (1092)dan so'ng, uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. Aka-uka sultonlar **Mahmud** (hukmronlik davri: 1092-94), Barqiyoruq, **Malikshoh II** (hukmronlik davri: 1104-25), **G'iyosiddin Muhammad** (hukmronlik davri: 1105-18) ayrim hokimlarning isyonlarini bostirish bilan birga ismoiliylar harakati, xususan, hashshoshiylarga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lganlar. Buyuk Saljuqiylar davlati taxt uchun kurashlar oqibatida sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lingan. G'arbiy qismga kirgan G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjonni Iroq sultonligi (1118-94) nomi bilan sulton **G'iyosiddin Muhammad**ning o'g'li sulton **Mahmud** (hukmronlik davri: 1118-31) boshqarishni boshlagan. U **Hamadonni** o'ziga poytaxt qilgan. Sharqiy qism, asosan, Xuroson, Seyiston, Xorazm va Movarounnahrda iborat bo'lib, unga sulton **Malikshoh**ning kenja o'g'li sulton **Sanjar** hukmronlik qilgan va poytaxti **Marv** bo'lgan. **Sanjarning** qudrati avjga chiqqan davrlarda g'arbiy saljuqiylar ham uning siyosiy ta'siri ostida bo'lishgan, G'aznaviylar davlati esa unga 1117-yilidan tobe bo'lgan. Biroq Sharqdan qoraxitoylarning Movarounnahrda bostirib kirishi, Samarqand yaqinida bo'lgan mashhur **Qatvon jangi** (1141-yil 9-sentyabr)da qarluqlar bilan birgalikda saljuqiylar va qoraxoniylarning birlashgan qo'shinini tor-mor qilishi natijasida **Sanjarning** kuch-qudrati zaiflasha boshlab, u Movarounnahr, keyinchalik Xurosonning asosiy qismidan ajraladi. Anushteginiylardan **Qutbiddin Muhammad**, xususan, **Otsiz** davrlarida Xorazm ham Saljuqiylar davlatidan ajralib chiqib, o'z mustaqilligini tiklagan. **Otsiz**, hatto saljuqiylar poytaxti Marvni egallab, Nishopurni qamal qilgan (1141-42). **Sanjarning** vafoti (1157)dan so'ng saljuqiylarning Xurosondagi hokimligi tugagan. Xuroson g'uzlar (o'g'uzlar) tasarrufiga kirgan. 1117-yil saljuqiylarning Shom (Suriya) sultonligi, 1187-yil Kermon sultonligi ham tugatilgan. Xorazmshohlar XII a. ikkinchi yarmidan boshlab g'arbiy saljuqiylarning Iroq sultonligiga kuchli zarbalar berishgan. Xorazmshoh **Takash** Iroq sultonligini ham tor-mor qilib, o'z davlatiga qo'shib olgan (1194). Faqat Kichik Osiyodagi Ko'niya (Anadolu yoxud Rum) sultonligi XIV a. boshlarigacha hukm surgan.

Boshqaruv tizimi. Saljuqiylar davlati tepasida oliy hukmdor — **sulton** (sulton ul-a'zam) turgan. Uning nomidan xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o'tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, amaldorlar ishini nazorat qilish va boshqa sultonning vakolatlari doirasiga kirgan. Saljuqiylarning boshqaruv tizimi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylarniki singari ikkiga: **dargoh** va **devonlarga** bo'lingan. **Ulug' hojib**, **horis amiri** (amiri horis), **salohdor**, **xos vakil**, **alamdor**, **jondor**, **tashtdor**, **sarhang**, **miroxur** dargohdagi asosiy lavozimlar sanalgan. **Bosh vazir** devoni a'lo — markaziy boshqaruv tepasida turgan. **Devoni tug'ro**, **devoni istifo** (moliya devoni), **devoni ishraf** (nazorat devoni), **devoni arz** (harbiy vazirlik) kabi rasmiy devonlar bo'lgan. Viloyat boshliqlari (voliylar) ham o'z devonlariga ega bo'lishgan. **Voliylar** sulton tomonidan tayinlangan bo'lib, ular viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham deyarli shunday bo'lgan.

Iqtisodiy hayoti. Saljuqiylar davlatida, ayniqsa, Buyuk saljuqiylardan **To'g'rubek**, **Alp Arslon**, **Malikshoh**, **Sanjar** davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta ko'tarilish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy qilgan: to'qimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, konchilik va gilam to'qish rivojlangan. Buyuk ipak yo'li ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali o'tgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Malikshoh Sharq va G'arb o'rtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj to'lovidan ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyat. Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo'lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod qilingan. Xususan, buyuk vazir **Nizomulmulk** qurdirgan Bag'doddagi Nizomiya madrasasi (1067) butun jahonga mashhur bo'lgan. **Nizomulmulk** davlatni boshqarish asoslari haqida “*Siyosatnoma*” asarini yaratgan. Munajjim va riyoziyotchi olim **Umar Xayyom** loyihasiga ko'ra, Isfahonda rasadxona qurilgan. U **Malikshoh** topshirig'iga ko'ra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib borgan va sasoniylarning shamsiy taqvimini isloh etib, Yangi taqvim (“*Malikshoh taqvimi*” yoxud “*Jalol erasi*”) ni tuzgan (1079). **Nizomiy Ganjaviy**, **Jaloliddin Rumiy**, **Sa'diy Sheroziy**, **Umar Xayyom fors she'riyatining so'nmas durdonalarini yaratishgan**. **Muhammad G'azoliy**, **Farididdin Attor**, **Xoja Yusuf Hamadoni** kabi islom ulamolari va so'fiylar ijod qilishgan. Saljuqiylar davlatida riyoziyot va ilmi nujum (**Bahovuddin Abubakr Marvaziy**, **Sharafiddin Tusiy**, **Abulhasan Ali Marvaziy**, **Abulhotam Muzaffar Isfizoriy**, **Zahiriddin G'aznaviy**), tibbiyot va kimyo (**Ismoil Jurjoni**, **Faxriddin Roziy**), tarix (**Zahriddin Nishopuriy**, **Sadriddin Husayniy**, **Anushirvon Koshoni**, **Abu Bakr Ravondiy**), adabiyot (adib **Sobir Termiziy**, **Nosir Xusrav**, **Anvari**, **Asiriddin Axsikatiy**, **Raf'iy Marvaziy** va boshqalar) sohalariga oid ko'plab bebaho asarlar yaratilgan. Bu davrda **Nishopur**, **Marv**, **Isfahon**, **Ray**, **Hamadon** kabi poytaxt shaharlar, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Termizda ko'plab me'moriy yodgorliklar qurilgan. Marv gullab yashnagan, u “*Marvi Shohijahon*” — “*Shaharlar shohi*” deb ulug'langan. Tarixchi va sayyoh **Yoqut Hamaviy** Marvda bo'lganida bu yerda 10 ta yirik kutubxona borligini ko'rgan va ulardan foydalangan. Termiz yaqinidagi Payg'ambarorolda **Zulkifl majmuasi** (XI-XII asrlar), **Sulton Saodat me'moriy majmui** (XI-XVIII asrlar), **Jarqo'rg'on minorasi** (1109), Marvda **Sulton Sanjar maqbarasi** (XII asr) va boshqa me'moriy obidalar qurilgan. Saljuqiylarning Ko'niya sultonligida

ham madaniyat taraqqiy etgan. Kichik Osiyoning islomlashish jarayoni kuchayib, tasavvufning mavlaviylik, bektoshiya kabi tariqatlari shakllangan, axiylik (javonmardlik) va qalandarlik kuchaygan. **Jaloliddin Rumiy**, **Yunus Emro** (1240-1320), **Xoja Bektosh Vali** (1248-1338), **Sadriddin Ko'nyoviy**, **Shahobiddin Suhravardiy** singari mashhur mutasavviflar yetishib chiqqan. **Ko'niya** (Ikoniy), **Sivas**, **Qaysariya**, **Nikeya** shaharlari yirik madaniy markazlar hisoblangan. Bu paytda "O'g'uznoma" dostonining yozma varianti shakllangan, latifada **Xo'ja Nasriddin** (Afandi) obrazi (Turkiston va Anadoluda) yaratilgan.

XORAZMDAVLATI

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. Xorazmshohlar davlatini xorazmshohlar boshqargan. Markazi, asosan, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo'lsa ham, rivojlangan davrlarida, ayniqsa, XIII asr boshlarida shimolda Kaspiy dengizining shimol sohillari, janubida Hindukush tog'lari, sharqda Qashqargacha yetgan. Kuchli larzalardan tushkunlikka uchragan Xorazmshohlar davlati IX-X asrlarda Arab xalifaligining yemirilishi tufayli ketma-ket O'rta Osiyo va Sharqiy Erona paydo bo'lgan yirik mustaqil davlatlar tohiriylar, safforiylar va somoniylar qo'l ostida bo'lgan. Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga qaraganda X asr oxirlarida Xorazm iqtisodiy jihatdan juda tez rivojlana boshlaydi. Bunga shaharlarning o'sishi dalil bo'la oladi. Agar, **Tabariy** 712-yilda Xorazmda uchta shahar bo'lganligini ko'rsatib o'tsa, **Istaxriy** X asr boshlarida Xorazmda shaharlar soni o'ntaga yetganligini ko'rsatadi. 985-yillarda esa, **Mag'disiyning** yozishicha, Xorazmdagi shaharlarning soni o'ttiz ikkitaga yetgan. Arxeologik qazilma vaqtida topilgan kulolchilik mahsulotlari bu shaharlarda hunarmandchilik tez rivojlanganligidan darak beradi. Arab manbalariga qaraganda, X-XI asrlarda Xorazm yirik savdo markaziga aylangan. Xorazm savdogarlari, hozirgi Qozog'iston va Turkmaniston o'rnidagi dashtlarda yashovchi aholi bilan Volga bo'yidagi Xazariya va Bulgor podsholigi hamda Sharqiy Yevropadagi slavyan olami bilan keng ko'lamda savdo ayirboshlash ishlarini olib borgan. Sharqiy Yevropa savdoning o'sishi natijasida Xorazmshohlar davlatining shimol-g'arb tomonidan eng chekka istehkomi bo'lgan Urganch Xorazmda bu savdoning birinchi ahamiyatga ega bo'lgan markaziga aylangan. "**Hudud ul-olam**" muallifining ta'rificha, "**Gurganj**" qadimgi zamonda Xorazm mulklari jumlasiga kirgan shahar bo'lib, endilikda uning al ohida podshosi bor. Shahar podshosini "**Gurganj miri**" deb ataydilar. Uning alohida bo'lib ajralib chiqishini mamlakatning iqtisodiy jihatdan gurillab o'sishi, Volga bo'yi bilan bo'lgan savdo aloqalarining rivojlanishi hamda siyosiy tarixiy sharoit bilan bog'langan holda tushinish mumkin. X asrga oid yozma manbalarda qayd qilinishicha, xorazmliklar qo'shinlari o'g'uzlar bilan muvaffaqiyatli jang qilib turgan. Xorazmliklar Xazar xoqonligida muhim rol o'ynaganlar, xoqon qo'shinlaridagi asosiy qism ulardan iborat bo'lgan.

992-yilda somoniy **Nuh ibn Nasr** o'z poytaxti Buxorodan mahrum bo'lib, Amul (Chorjo'y)ga qochadi va shu yerdan turib istilochilarga qarshi kurashni uyushtirmoqchi bo'ladi. Xorazmning ikkala hokimi unga yordamga keladi. **Nuh** ularning ko'rsatgan yordami uchun Xur osondagi ikkita yirik mulkini taqdim qiladi: xorazmshoh **Abu Abdulloh Muhammadga** Obivardni, Urganch amiri **Ma'mun ibn Muhammadga** Niso shaharini beradi. **V. V. Bartold** ko'rsatib o'tganidek, **Nuh** Xurosonning itoatsiz hokimi **Abu Aliga** qarama qarshi shunday ish qilgan edi. Shunisi qiziqki, **Abu Ali** Nisoni hech qanday qarshiliksiz **Ma'munga** topshiradi, lekin **Abu Abdulloh** yuborgan vakillarni Obivardga kiritishdan bosh tortadi. **Gardiziyning** hikoya qilishicha, isyonkor **Abu Ali** 995-yil bahorida **Nuhning** vassali va lashkarboshi sifatida harakat qilgan **Sabukteginning** lashkarlaridan yengilgach, dastlab Rayga qochadi, so'ngra Nishopurga qaytishga harakat qiladi. **Sabukteginning** o'g'li **Mahmudning** qo'liga tushadi va uncha katta bo'lmagan guruh bilan Xorazmga **Ma'munning** panohiga qochadi. Lekin uni xorazmshohning askarlari ushlab oladilar va Katga keltiradilar. Bu voqea ikki Xorazm davlati o'rtasidagi kurashning uzil-kesil barham topishiga bahona bo'ladi. **Ma'munning** qo'shini Katni ishg'ol qilgan va ozod qilingan **Abu Alini**, **Ma'mun** Urganchda tantana bilan kutib olgan. Asir olingan so'nggi afrig'iy ham shu yerga keltirilgan. **Ma'mun** o'zining azaliy dushmanini qatl qilishga buyuradi. Xorazmning ikkala qismini o'z hokimiyati ostida birlashtirib, xorazmshoh unvonini oladi. Shu tariqa 995-yilda **afrig'iyalar** sulolasi barham topib, **ma'muniylar** sulolasi hukmronligi boshlanadi. Shu davrdan boshlab Gurganj (Ko'hna Urganch) Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lib kelgan.

Ma'muniylar sulolasi davrida Xorazm. Ma'muniylar sulolasida 3 ta shoh davlat hokimiyatini boshqargan: **Ma'mun ibn Muhammad** (995-997), **Ali ibn Ma'mun** (997-999), **Ma'mun ibn Ma'mun** (999-1017). X asr oxiri — XI asr boshlarida O'rta Osiyodagi og'ir siyosiy vaziyatga qaramasdan qisqa vaqt hukmronlik qilgan ma'muniylar sulolasi Xorazmshohlar davlatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdi. Ma'muriy jihatdan bu davlat viloyatlarga, viloyatlar esa, shahar va qishloqlarga ajratilib boshqarilgan. Ular davrida Xorazmda davlat boshqaruvining ancha takomillashgan tizimi vujudga keldi. Xorazmshoh davlatning oliy hukmdori, hokimi mutlaq hisoblangan. Gurganjda shoh saroyi qoshida markaziy boshqarma-devonxona tashkil etilib, uning tarkibida zirot, savdo-tijorat, moliya, soliq ishlari, shahar va qishloqlarda osoyishtalikni saqlash, harbiy ishlar va boshqa davlat ahamiyatiga ega vazifalar bilan shug'ullanadigan mahkamalar bo'lgan. Saroyning eng yuqori lavozimlaridan biri vazirlik lavozimi bo'lib, u **xo'jayi buzruk** (bosh xo'ja) unvoniga ega bo'lgan. U devonxona ishlariga javob bergan, katta safar paytida podsho nomidan davlatni idora qilgan.

Ma'muniylar davrida Xorazmshohlar davlatida ilm-fan, madaniyat ravnaq topib, **Xorazm Ma'mun akadyemiyasi** tashkil qilindi. Unda xizmat qilgan buyuk qomusiy olimlar, allomalar o'zlarining ajoyib kashfiyotlari va asarlari bilan Xorazmshohlar davlatining mavqeni o'z davri va keyingi davrlar uchun yuksak darajaga ko'tardilar. Bir oq, bu madaniy yuksalish uzoq davom etmadi. 1017-yilda Xorazm **Mahmud G'aznaviy** tomonidan zabt etildi. Shu bilan ma'muniylar sulolasiga chek qo'yildi.

Mahmud G‘aznaviy o‘z sarkardalaridan biri **Oltintosh**ni xorazmshoh lavozimiga tayinlaydi. Oltintoshlar sulolasidan ham 3 ta xorazmshoh hukmronlik qilgan. O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan Saljuq turklari bilan G‘aznaviyalar o‘rtasida niz o‘chiqib, 1040-yilda **Dandanakon** shahar yonida ular o‘rtasida qattiq janglar bo‘lib, Saljuq turklari g‘olib chiqadilar. Ular G‘aznaviyalar mulkini qo‘lga kiritib, Xorazmni ham qaram qiladilar. Oltintoshlar sulolasining so‘nggi vakillari saljuqiylar qo‘lida turli lavozimlarda xizmat qilganlar, lekin ularga xorazmshoh unvoni berilmagan.

Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazm. Xorazmni 1040-yildan Saljuq sultonlari tomonidan tayinlangan hokimlar boshqargan. Ana shunday turk hokimlaridan biri **anushteginiylar** sulolasi asoschisi **Anushtegin Garchoi** (1077-1097) edi. 1097-yilda **Anushtegin** vafotidan keyin Xuroson noibi **Dodbek Habashiy** uning o‘g‘li **Qutbiddin Muhammad** (1097-1127)ni Xorazm noibi qilib tayinlab, unga xorazmshoh unvonini beradi. **Qutbiddin Muhammad**ning adolatli va sadoqatli xizmati evaziga **Sulton Sanjar** (1118-1157) uning o‘qli **Otsiz** (1127-1156)ni Xorazm taxtiga tayinlaydi. Dastlab, **Sulton Sanjarga** sadoqat bilan xizmat qilgan **Otsiz** 1130-yillar oxirlarida Movarounnahrda siyosiy vaziyatdan foydalanib, mustaqil Xorazmshohlar davlatini tuzishga harakat qilib, u bilan tinimsiz urush olib boradi. **Otsiz** (1127-1156) mohir diplomat, yetuk davlat arbobi edi. U o‘z raqiblari orasidagi ziddiyatlardan ustamonlik bilan foydalandi, o‘z davlati mustaqilligini saqlabgina qolmay uning hududlarini kengaytirdi. 1141-yilda **Otsiz** Xuroson yerlarini, Marv, Nishopur shaharlarini egalladi. 115-yilda Jandni Xorazmga qo‘shib oladi. **Elarslonxon** ham mamlakat mustaqilligini kuchaytirish yo‘lida qoraxitoylar bilan kurashlar olib bordi. **Takash** (1172-1200) mohir davlat arbobi, tadbirkor va uddaburon hukmdor sifatida o‘z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo‘ladi. 1187-1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194-yilda **saljuqiylar sultoni Tug‘rulga** qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo‘ysundiradi.

Otsiz vafotidan keyin taxtga o‘tirgan **El-Arslon** (1156-1172) mahalliy hokimlar va qoraxitoylarga qarshi kurash olib bordi. Uning vorislari **Sultonshoh Muhammad** (1172) va **Alouddin Takash** (1172-1200) hokimiyat uchun 1193-yilga qadar o‘zaro kurash olib bordilar. **Takash** o‘z vorisi **Muhammad Xorazmshoh**ga (1200-1220) markazlashgan mustahkam davlat va tashkiliy jihatdan qudratli qo‘shinni meros qoldirgan. **Muhammad Xorazmshoh** (1200-1220) davrida davlat yanada kengayib, Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Xorazm Kaspiy dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha, Kavkazdan Hindiqush tog‘larigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Aynan Muhammad Xorazmshoh 1210-yilda Talos vodiysida qoraxitoylarni yengadi, 1212-yilda esa Qoraxoniylar davlatini butunlay tugatgan. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti **Urganch** shahri edi. Xorazmshoh saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari itoat kamarini bog‘lab, oltin nog‘ora chalar va bu buyuk davlatning hukmdorini “**Iskandari Soniy**” (Ikkinchi Iskandar) deb atashmoqda edi. Xorazmshohlarning ulkan davlati ichki jihatdan mustahkam emas edi. Buning natijasida kuchli bo‘lib ko‘ringan davlat mo‘g‘ullarning zarbasiga dosh bera olmadi. **Muhammad Xorazmshoh** o‘g‘li **Jaloliddin Manguberdi** (1220-1231)ga parokanda saltanatni meros qilib qoldirdi. 1231-yilda **Jaloliddin Manguberdi** vafoti bilan xorazmshoh unvoni hamda saltanatni boshqargan sulolalar ham yakun topadi.

XII-XIII asr boshlari Xorazm davlatchiligining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda Xorazmda anushteginiylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar **Otsiz, Takash va Sulton Muhammad** Xorazmshohlar mamlakatni boshqarishning yanada mukammal tizimi, tartib oti va uslublarini yaratganlar. Saltanatning eng oliy lavozimi vazirlik bo‘lib, ular Sadr, Xo‘jayibuzruk va Niz omulmulk (mulkning tayanchi) unvonlari bilan yuritilgan. Vazir faqat oliy hukmdor oldida hisobdor bo‘lgan. Saltanatning barcha amaldorlari va harbiy boshliqlar ham vazirga itoat qilganlar, uning oldida hisobdor bo‘lganlar. **Sulton Muhammad Xorazmshoh** o‘z podshohligining so‘ngida saroyda vakillar Kengashi nomi bilan yuritilgan davlat Kengashi ta‘sis etadi. Kengash ishida oliy hukmdordan boshqa yana tajribali, bilimli 6 ta vakil ishtirok etadi. Davlat kengashida eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qarorlar ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilingan. Xorazmshohlar davlatida ulug‘hojib, amir oxur, amir shikor, mutasarrif, toshutdor, qissador, davlatdor, farroshu, amir ul-alam kabi yuqori lavozimlar ham bo‘lgan. Xorazmshohlar davlatida davlat hokimiyati markazlashgan va takomillashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan. Mahalliy va markaziy hokimiyatning keng vakolatli mahkamalari yordamida mamlakat idora qilingan. Davlatning mahalliy hokimiyat organlari markaziy hokimiyatning kuchli nazorati ostida bo‘lgan. Katta hududda markazlashgan yirik siyosiy birlikning vujudga kelishi tufayli davlatning siyosiy mavqe ortdi, unda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi. Xo‘jalikning turli sohalaridagi o‘sish umumiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun omil bo‘ldi. Poytaxt **Gurganj** yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Shaharlar rivoji uchun savdo, ayniqsa, xalqaro savdo muhim o‘rin tutgan. Xorazm davlatining savdo karvonlari nafaqat o‘z hududi bo‘ylabgina emas, balki undan tashqariga, janubda Hindistonga, G‘arbda Arabiston va Yevropaga qatnagan.

Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritilgan hududlardagi bir qancha shaharlarda ilm-ma‘rifat, madaniyat yuksaldi. Movarounnahr, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Iroq o‘lkalari o‘rtasida madaniy aloqalar kuchaydi. Ushbu davrning taniqli olimlari jumlasiga **Rashididdin Votvot, Ismoil Isfahoniy, Tohir Faryobiy, Abulfayz Axsikatiy, Sayfuddin Buxoriy, Abulmajid Jandiy, Ali Hijoziy, Ismoil Jurjoniy, Ali Xorazmiy, Abulhasan Xorazmiy, Najib Bakron, Mahmud al-Chagminiy, Fariduddin Attor, shayx Najmiddin Kubro, Muhammad Axsikatiy, Abdulloh ar-Roziy, Mahmud Samarqandiy, Mas‘ud Xo‘jandiy, Mahmud Zamaxshariy, Abdulkarim as-Sam‘oniy** va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, o‘sha davrda ilm-fan ham tabiiy, ham ijtimoiy sohalar bo‘yicha rivojlanganini ko‘ramiz. Xorazmda hukmronlik qilgan sulolalar davri tarixi O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi va madaniyati tarixining ajralmas qismi hisoblanadi.

TARIXIY SHAXSLAR

ABDUKARIM SOTUQ BUG‘ROXON QORAXON (859-955) — Qoraxoniylar sulolasi asoschisi. 880-yilda Torim



Qarluqlar davlati
VIII a. oxiri - X a. o`rt.
Suyob sh.

Oltoy daryosining g`arbida, so`ngra *Irtish* daryosining o`rta oqimida istiqomat qilgan.
VI-VII a. - Turk xoqonligi tarkibida bo`lganlar.
VII a. o`rt. - Ettisuv o`lkasiga joylashganlar.
Katta qismi *Talos* va *Chu* daryolari adoqlaridan to *Issiq* ko`lgacha bo`lgan hududlarda yashaganlar.

Talos, *Chu* daryolari, *Issiqko`l* atroflarida *Jo`l*, *Navkat*, *Yor*, *Karmankat*, *Tun*, *Barsxon*, *Panjakent*, *Beklig`* sh. bo`lgan

VIII a. oxiri – qarluqlar jabg`usi **islom dinini** qabul qilishgan
X a. o`rt. – qarluqlarning katta qismi musulmon bo`lgan
Ungacha **moniy** va **nasoroniylilik** tinchlik yo`li bilan kirib kelgan

X a. oxiri - *Shosh*, *Farg`ona*, *Zarafshon* vodiylariga kelib o`rnashadilar

O'g'uzlar davlati
IX a.oxiri - XI a.b.
Yangikent sh.


VI a. 1-yarmi - Xitoydan to Qora dengiz bo'ylarigacha bo'lgan yerlarda turkiy qabilalarning *to'quzo'g'uzlarning* harbiy ittifoqi yuzaga kelishi
VI a. 2-yarmi va VII a. - Turk xoqonligi tarkibida

Turk xoqonligi yemirilgach, *to'quzo'g'uzlarning* kattagina qismi *g'o'z* yoki *o'g'uz* nomi ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'r'nashadilar
IX a. oxiri va X a. b. - *O'g'uzlar davlatiga* asos soladilar.

O'g'uzlar ko'chmanchi chorvador bo'lganliklari bois birorta shaharlarni o'z qo'llari bilan bino qilmaganlar
Sirdaryo va Orol bo'yidagi *Jand, Sig'noq* sh. bo'lgan
Shosh va Xorazmga talon-tarojlik yurishlar uyushtirib turganlar.

X a. - islom dinini qabul qilishgan

X a. 1- choragida *qipchoqlar* zarbasiga uchrab, bo'linib ketishi:
1. Janubiy Rusiya dashtlari.
2. Old Osiyo.



SOMONIYLAR DAVLATI 875-999 -y. Samarqand, Buxoro sh.

Movarounnahr, Xuroson

n Hukmdorlari:

- 819-842 -y.- Nuh ibn Ahmad
- 842-864 -y.- Ahmad ibn Asad
- 865-892 -y.- Nasr I ibn Ahmad
- 892-907 -y.- Ismoil ibn Ahmad
- 907-914 -y.- Ahmad ibn Ismoil
- 914-943 -y.- Nasr II ibn Ahmad
- 943-954 -y.- Nuh I ibn Nasr
- 954-961 -y.- Abdumalik ibn Nuh
- 961-976 -y.- Mansur I ibn Nuh
- 976-997 -y.- Nuh II ibn Mansur
- 997-999 -y.- Mansur II ibn Nuh

n Siyosiy tarixi:

- 874 -y.- *Ismoilning* Buxoroga noib etib tayinlanishi
- 886 -y.- *Nasr* va *Ismoil* qo`shinlarining to`qashuvi, *Ismoilning* mag`lubiyati
- 888 -y.- *Ismoilning Nasr* qo`shinini tor-mor etishi va uning Movarounnahri birlashtirishi
- 893 -y.- *Taroz* shahri zabt etib dashtliklarga qaqshatqich zarba berilishi
- 900-908 -y.- Xurosonning Movarounnahrga qo`shib olinishi
- 914-943 -y.- *Nasr II* davrida Buxoroda devonlar uchun maxsus binolarning qurilishi.
- 914 -y.- mamlakatning janubiy qismida mustaqillikka intilishning boshlanishi
- 913 -y.- Tabaristonda qo`zg`olon bo`lib o`tishi
- 930 -y.- Buxoroda *Abu Bakr* boshch. qo`zg`olon
- 944 -y.- Xorazmda qo`zg`olon bo`lib o`tishi
- 947 -y.- *Ibrohim* boshch. isyon
- 961 -y.- Buxoroda harbiy askarlarning g`alayon ko`tarishi
- 962 -y.- *G`aznaviyalar* davlatining ajralib chiqishi
- 992 -y.- *Hasan Bug`roxon* boshch. Qoraxoniylar Buxoroni zabt etishi
- Balxida *Foyiq*, Xurosonda *Abu Ali Simjuriy* boshch. amirga qarshi qo`zg`olon ko`tarilishi va uni *Sobuqtakin* tomonidan bostirilishi
- 996 -y.- *Nasr ibn Ali* boshch. Qoraxoniylarning Movarounnahrga hujum boshlashi
- 999 -y.- *Nasr Eloqxonning* Buxoroni egallashi
- 1001 -y.- *Qoraxoniylar* va *G`aznaviyalar* o`rtasida tuzilgan bitimga ko`ra, ikki davlat chegarasi qilib Amudaryoni belgilanishi

n Madaniy hayot:


- VIII a. oxiri – «*Bayt ul-hikma*»
- 797- 865 -y.- *Ahmad Farg`oniy*
- 783-850 -y.- *Muso Xorazmiy*
- 873-950 -y.- *Abu Nasr Forobiy*
- 980-1037 -y.- *Abu Ali Ibn Sino*
- 973-1048 -y.- *Abu Rayxon Beruniy*
- 810-870 -y.- *Imom Buxoriy*
- 824-892 -y.- *Imom Termiziy*
- IX a.-820 -y.- *Hakim Termiziy*
- IX a. oxiri - 941 -y.- *Rudakiy*
- 934-1020 -y.- *Firdavsiy*
- a. - 977 -y.- *Daqiqiy*
- IX a. Buxoro – «*Qubbat ul-islom*»
- X a.- *Farjak* madrasasi - Buxorodagi dastlabki madrasa

n Me'moriy obidalar:

- *Arabota maqbarasi* (978-y *Samarqand*)
- *Buxoro registoni*, *devonxona* (X a.)
- *Ismoil Somoniy maqbarasi* (892-943 -y. *Buxoro*)
- *Ishoq ota maqbarasi* (X-XI a. *Qashq.*)
- *Mir Said Bahrom maqbarasi* (X-XI a. *Karmana*)
- *Termiziy majmuasi* (IX-XV a. *Termiz*)
- *Qirg`iz qal'asi* (IX-XV a. *Termiz*)
- *Alamardor maqbarasi* (IX-X a. *Qarshi*)
- *Poykand masjidi* (IX-X a.)
- *Chorustun masjidi* (IX-X a. *Termiz*)
- *Xonbandi suv ombori* (X a. *Forish*)

n Iqtisodiy hayot:

- X a. - *Iqto* -yirik mansabdorga mulk in'om qilishning boshlanishi
 - *Mirob, jo`ybon* va *po`ykor* - sug`orish bo`yicha mutaxassislar
 - IX a. - Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shahsan shahar qozisi shug`ullangan
 - *Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh, Kesh, Axsikat* sh. - hunarmandchilikning yirik markazi
 - X a. - Sarroflik cheklaridan tashqi savdoda keng foydalanilishi
 - Tashqi savdo uchun kumush dirhamlar *Marv, Samarqand, Buxoro* va *Shoshda* zabt qilingan: «*ismoiliy*», «*musayyabiy*», «*muhammadiy*», «*girfiy*»
 - Ichki savdo uchun O`rta hukumat, mahalliy hukmdor, ayrim feodalalar «*fulus*» - mis chaqa chiqarardi
- n Yer egaligi:**
- 1) Mulki sultoiy; 2) mulk; 3) iqto; 4) vaqf yerlar;
 - 5) jamoa yerlar



Qoraxoniylar davlati 927-1212-y.

n Asosiy xususiyati:

- Mamlakatning mahalliy-hududiy tarzda boshqarilishi
- Dehqonlar ilgari mavqesini yo'qotishi
- O'zbek xalqining shakllanishi
- Eski o'zbek adabiy tilining vujudga kelishi

n Iqtisodiy hayot:


- **XI a.** - Zarafshon vodiysida dalalar, poliz va bog'lar barbod bo'lishi
- **XI-XII a. - mulkdor dehqonlar** yer-suv mulklaridan va siyosiy mavqelaridan ajralishi
- **XI a. - iqto'ning** keng yoyilishi
- **XII a. - Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent** sh. humarandchilik va bozor tijoratining markazi
- **XI-XIII a.** - tovar-pul munosabatlarining rivoj topishi

n Madaniy hayoti:


- **Raboti Malik** (1069-1079 y)
- **Masjidi Kalon** XI-XII a.
- **Minorat Kalon** (1127 -y.)
- **Vobkent minorasi** (1190 y)
- **Jarqo'rg'on minorasi** (1108-1109 y)
- **Shohizinda ansambli** XI a.
- **Mag'oki attori masjidi** XII a.
- **Faqihlar madrasasi** XII a.
- **Faxriddin Roziy maqbarasi** (1150 -y.)
- **Yusuf Xos, Hojib**
- **«Qutadg'u bilig»** (1069-1070 -y.)
- **Mahmud Qoshg'ariy**
- **«Devonu lug'atit turk»** (1074-1075 y)

Sharq. Turkiston, Yettisuv, jan. Tyanshan

Jikil, Qarluq, Yag'mo



- **X a. 1-yarmi** - **Qorluq, jikil** va **yag'molarning** ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lishi:
1) o'troqlashuvining kuchayishi
2) ilk feodal munasabatlarning rivoj topishi
- **X a. o'rt.** - **Yag'molar** jikil qabilalari bilan yagona ittifoqqa birlashib, **qorluqlarni** bo'ysundirishi
- **Yag'mo** - madaniy jihatdan eng qollog'i, eng jangarisi
- **Jikil** - birmuncha madaniyroq va boyroq
- **Qarluq** - ancha madaniyroq, eng obod joylarga ega bo'lishgan
- **Jikil** va **qorluqlar** - Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida muhim rol o'ynagan
- **992-y.** - **Hasan Bug'roxon** boshch. qoraxoniylar Movarounnahrda hujum boshlashi
- Xuroson noibi **Abu Ali Sinjuriy** Bug'roxon bilan Somoniylar davlatini bo'lib olish haqida yashirincha muzokara olib borishi
- **996-y.** - **Nasr ibn Ali** boshch. qoraxoniylarning Movarounnahrda hujum boshlashi.
- **999-y.** - Buxoroning **Nasr Eloqxon** tomonidan zabt etilishi.
- **1006 va 1008-y.** - Qoraxoniylarning Xuroson ustiga qo'shin tortishi
- **1038-y.** - **Ibrohim Bo'ritakin** Xuttalon, Vahsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib olishi
- Movarounnahr va Farg'onani o'ziga bo'ysundirishi
- Qoraxoniylar davlatining 2 qismga ajralib ketishi:
1) **Sharqiy qoraxoniylar** - markazi Samarqand sh.
2) **Movarounnahr** - markazi Samarqand sh.
- **1130-y.** - **Saljuqiylar** sultoni **Sanjar** Samarqandni egallab, qoraxoniylarni o'ziga bo'ysundirishi
- **1137-y.** - **qoraxitoylarning Xo'jand** sh. yaqinida qoraxoniylarning elokxoni **Mahmudga** qaqshatqich zarba berishi
- **1141-y.** - **Qatvon jangi** (Samarqand yaqinida)
- **1212-y.** - **Muhammad Xorazmshoh** tomonidan qoraxoniylar hukmronligining tugatilishi



vodiysining Lop, Sharchan, Xo‘tan, Kuchor shaharlari joylashgan hududlarda mashhur bo‘lganlar o‘zining ko‘rsatmasiga bog‘liq. *Tohir ibn Husayn* unga yo‘llagan maktubida na davlatmand kishilar va na yaqinlarini soliqlardan ozod etmasdan, fuqarolarning barchasiga adolat yuzasidan soliq solish haqida o‘g‘liga ko‘rsatmalar beradi. Abdulloh ham otasi maslahatlariga amal qiladi. Ziroatchilar ahvolini birozgina bo‘lsa-da yengillashtirish maqsadida u maxsus farmon chiqaradi. Farmonda mulkdorlar va davlat ma’murlariga qarata “*Ollah mehnat ahlining qo‘li bilan rizq-ro‘zimizni yetkazib beradi, tili bilan bizni olqishlaydi, ularni ranj etishni taqiqlaydi*” — degan so‘zlar bitilgan edi. Bu bilan Abdulloh mehnat ahlinigina emas, balki umumdavlat manfaatini ko‘zda tutadi.

ABDUMALIKIBNNUH — somoniylar amiri (999-1000). Uning qisqa hukmdorligi davrida Somoniylar davlati qoraxoniylar tomonidan bosib olinadi. Qoraxoniylar hukmdori *Elik Nasr* Buxoroga *Jafar Teginni* tayinlab, o‘zi Urganchga ketadi.

ABDUMALIK IBN NUH AMIRI RASHID (944-961) — somoniylar amiri (954-961). Otasi *Nuh ibn Nasr* vafot etgach 10 yoshida taxtga o‘tirgan. *Nuh ibn Nasr* davrida buvayhiylar bilan boshlangan urush Abdumalik ibn Nuh davrida (956) yarash bilan yakun topadi. Abdumalik ibn Nuh davrida davlatni idora qilishda lashkarboshilarning mavqe baland bo‘lgan. Masalan, hojiblik mansabiga tayinlangan Alpteginning obro‘si oshib ketganidan xavfsirab, uni mansabidan chetlamochi bo‘lgan, biroq uddasidan chiqa olmagan. Abdumalik ibn Nuh chavgon o‘ynab, otdan yiqilib halok bo‘lgan.

ABU ALI CHAG‘ONIY (?-955) — Chag‘oniy hukmdori. 939-yildan somoniylarning Xurosondagi noibi. 945-yilda noiblikdan bo‘shatilganligi uchun amir Nuhga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, yangi noib *Ibrohim ibn Simjurni* Xurosondan quvib chiqargan. Amir 948-yilning dekabrda sulh tuzib, uni qayta noiblikka tayinlagan bo‘lsa-da, ko‘p o‘tmay bu qarorini bekor qilgan. U 947-yili isyon ko‘targan Nuh II ibn Mansurning amakisi *Ibrohimga* Buxoro shahrini egallashida yordam beradi. Ibrohim isyondan so‘ng juda qisqa vaqt bo‘lsa-da, hukmronlik qiladi. Ko‘p vaqt o‘tmay Abu Ali Chag‘oniy rahbarligida isyon ko‘tariladi. Nuh qo‘zg‘olonni kuch bilan bostira olmaydi. 95-yilda Abu Ali Chag‘oniy avval chag‘oniyonga, so‘ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo‘ladi. Shunda Abu Ali Chag‘oniy *buvayhiylar* yordamida amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan, ammo *Abdumalik ibn Nuh* davri (954-961)da Xurosonni tashlab ketishga majbur bo‘lgan.

ABU IBROHIM IBN NUH, AMIRI MUNTASIR — somoniylardan. Somoniylar amiri (1000-1005). Sul olaning oxirgi hukmdori *Abdumalik ibn Nuh* (999-1000)ning birodari. Qoraxoniylarga qarshi muvaffaqiyatsiz kurash olib boradi. Somoniylarning so‘nggi vakili bo‘lgan Muntasir somoniylarning avvalgi shon-shuhratini tiklay olmaydi. Muntasir *Sulton Mahmudning* noibi *Mahrurning* buyrug‘i bilan o‘ldiriladi. *Al-Utbining* yozishicha, bu voqea 1005-yilning boshlarida ro‘y beradi va u Maymurg‘ qishlog‘ida ko‘miladi.

ABUL ABBOS ABDULLOH IBN TOHIR — Tohiriylar noibi (830-844). Xuroson va Movarounnahr noibi *Tohir ibn Husaynning* o‘g‘li. Uning hukmronligi davrida poytaxt Marvdan Nishopur shahriga ko‘chiriladi. Uning topshirig‘i bilan Xurosonning bilimdon fiqhshunoslari dehqonchilikda suv manbalaridan foydalanish tartiblari, suv taqsimoti va uning qonun-qoidalariga haqida risola yozib, ma’muriyatga taqdim etadilar. Bu risola ikki asr mobaynida

120

ABULFAZL BAL’AMIY MUHAMMAD IBN UBAYDULLOH (?-940) — somoniylar vaziri. U mamlakat obodonchiligi va ilm-fan rivoji yo‘lida muhim ishlar qilgan, olim va shoirlarni o‘z himoyasiga olgan. *Istaxriyning* yozishicha, Abulfazl Bal’amiy Marv va Buxoroda ko‘p binolar qurdirgan. Shuning uchun “*Shayxul-jalil*” (“Ulug‘ shayx”) nomiga sazovor bo‘lgan. Abulfazl Bal’amiyga juda ko‘p zamondosh shoirlar madhiyalar yozgan. Abulfazl Bal’amiy *Rudakiy* bilan ayniqsa yaqin munosabatda bo‘lgan.

ABULHASAN SIMJURIY MUHAMMAD IBN IBROHIM (?-989) — somoniylar sipohsolori va Xurosondagi noibi (957-yildan). Asli g‘ulomlardan. Buvayhiylar va ziyoriylarga qarshi janglarda g‘alaba qozongan, uning yordamida G‘aznada somoniylar hukmronligi o‘rnatilgan. So‘ng, u somoniylar amiri *Nuh ibn Mansur* (976-997)dan yashirincha qoraxoniylardan *Bug‘roxon* (Horun ibn Muso, 992-yilda vafot etgan) bilan somoniylar tasarrufidagi yerlarni o‘zaro bo‘lib olish xususida muzokara olib borgan. Kelishuvga ko‘ra, Movarounnahr *Bug‘roxonning*, Amudaryoning janubidagi yerlar esa Abulhasan Simjuriy qo‘liga o‘tishi lozim bo‘lgan. Bu fitnada Abulhasan Simjuriy va *Bug‘roxon*dan tashqari *Foyiq* ham ishtirok etgan. Bu esa somoniylar inqirozini tezlashtirgan.

AHMAD IBN ASAD (?-865) — Farg‘ona (817-yildan) va Samarqand (842-yildan) amiri. Somonxudotning nabirasi. *Rofe ibn Lays* qo‘zg‘oloni paytida Ahmad ibn Asad o‘z birodarlari *Nuh, Yahyo* va *Ilyoslar* bilan Sug‘dda qo‘zg‘olonni bostirishda xalifalikka katta yordam bergan. Buning evaziga xalifa Ma‘munning ko‘rsatmasiga ko‘ra Xuroson hokimi *G‘asson ibn Abbod* (813-821) 817-yilda Ahmad ibn Asadni Farg‘onaga, akasi *Nuh ibn Asadni* esa Samarqandga, Choch va Ustrushonaga Yahyoni, Hirotga Ilyosni amir qilib tayinlaydi. Akasi Nuh vafotidan keyin (842) Ahmad ibn Asad Samarqand amiri bo‘lib qoldi. 875-yilda xalifa *Mu‘tamid* (870-892) Ahmad ibn Asadning o‘g‘li *Nasr ibn Ahmadni* butun Movarounnahr amiri etib tayinlaydi. Ahmad o‘z nomidan mis chaqalar zarb etadi. Ahmad Somoniy asta-sekin Movarounnahrni o‘z oilasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu faoliyatiga qarshilik ko‘rsata olmadilar.

AHMAD IBN ISMOIL AS-SOMONIY — somoniylar amiri (907-914). Amiri shahid. Uning davrida bir qancha qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tdi. Xususan amakisi *Ishoq ibn Ahmad* Samarqandda, Ray va Seyiston hokimlari isyon

ko'tardilar. Bu isyonlar shafqatsizlik bilan bostirildi. Ahmad uzoq vaqt hukmronlik qilmadi. Davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko'pgina mahalliy zodagon va Turk g'ulumlarining noroziligini uyg'otdi. 914-yilda u Turk g'ulomlari tomonidan o'ldirildi. Taxtga Ahmadning 8 yoshli o'g'li *Nasr ibn Ahmad* (914-943) o'tirdi. Saroyning ruxsati bilan davlat ishlarini vazir *Abdullo Jayhoniy* boshqargan.

ALITEGIN IBN HUSAYN (?—1035) — Movarounnahr ilikxoni (1025-1034). Qoraxoniylardan. Movarounnahrni somoniylardan tortib olishda ishtirok etgan (999-1012). Nasr ibn Ali vafoti (1013)dan so'ng taxt uchun kurash chog'ida arslonxonlardan Muhammad ibn Ali tomonidan asir olingan. Taxminan 1025-yilda asirlikdan qochib Buxoroni egallagan va saljuqiylardan Arslon ibn Saljuq bilan ittifoq tuzgan. Aliteginga qarshi ilikxon Mansur ibn Ali qo'shin tortib kelgan, biroq mag'lubiyatga uchragan. Shundan so'ng Alitegin Mavorounnahrni markaziy qismi (Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo vodiysi) ilikxoni bo'lgan. Aliteginga qarshi Mahmud G'aznaviy va qoraxoniylarning Sharqiy Turkistondagi xoqoni Qodirxon Yusuf harbiy ittifoq tuzib (1025) Samarqand yaqinida Alitegin qo'shini bilan to'qnashgan. Alitegin Samarqand va Buxoroni tashlab cho'lga chekingan, xotini va qizi raqiblari qo'lga asir tushgan. Biroq Mahmud G'aznaviyning asli maqsadi Aliteginni zaiflashtirish bo'lgani sababidan biroz vaqtdan so'ng Movarounnahrni tashlab chiqqan. Alitegin yana o'z mulkini qaytarib olgan. 1032-yil xorazmshoh Oltuntosh sulton Mas'ud G'aznaviyning topshirig'iga ko'ra, Alitegin yerlariga hujum qilib Buxoroni egallagan, biroq Dabusiya yaqinidagi jangda yarador bo'lib, vafot etgan. Xorazm qo'shini sulh tuzib yurtiga qaytib ketgan.

ALPTEGIN (885-963-yillar) — somoniylar lashkarboshisi. *Nasr ibn Ahmad Somoniy* davrida visof boshi, xayl boshi, hojib darajasiga ko'tarildi; *Nuh ibn Nasr Somoniyning* o'g'li *Abdulmalik* davrida Xurosonga sipohsolar etib tayinlandi. *Mansur ibn Nuh Somoniy* (961-976) taxtga o'tqazilgandan ko'p o'tmay, Buxorodagi ba'zi amirlarning ig'vosi bilan *Mansur ibn Nuh Somoniy* va *Alptegin* o'rtasida nizo kelib chiqdi; *Amir Mansur* unga qarshi katta qo'shin yubordi. Oqibatda *Alptegin* Xurosonni tark etib, Balx tarafga yo'l oldi; ta'qib qilib kelgan Buxoro qo'shinini Xulm dasarida tor-mor keltirdi. Shundan keyin Bomiyon, Kobul, G'aznani egalladi (962) va o'sha yerdan Hindistonga tez-tez hujum qilib turdi. Lekin ana shunday yurishlardan birida yo'lda vafot etdi.

AMIN IBN XORUN — *Xalifa Xorunning* o'g'li. *Xalifa Xorun* vafotidan so'ng, akasi *Ma'mun* bilan 809-813-yillarda taxt uchun kurash olib boradi. Ma'munni mahalliy zodagonlar qo'llab-quvvatlasalarda, ammo xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. 813-yilda *Ma'mun* va Hirot viloyatining zodagonlaridan *Tohir ibn Husayn* boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, *Ma'mun* xalifalik taxtiga o'tqiziladi.

AMIR IBN LAYS AS-SAFFOR (?-902) — safforiylr amiri (879-902). Manbalarining xabar berishicha, u yoshligida xachir yetaklovchi, so'ng tosh-taroshlik bilan shug'ullangan. Keyinchalik akasi *Yaqub ibn Laysga*

qo'shilgan. *Yaqub* vafot etgach (879-y.) qo'shin tomonidan sipohsolar deb tan olingan *Amir Lays* xalifaga tobeligini bildirgan. Buning evaziga u Xuroson, Fors, Isfaxon, Siyeston, Kirmon va Sind viloyatlarni boshqarish huquqini olgan. Xurosonda hokimiyatni mustahkamlash uchun raqiblari *Ahmad ibn Abdulloh al-Xujustoniy*, *Rofe ibn Xarsama* va *Husayn ibn Tohir*larga qarshi kurashgan; bu kurash jarayonida xalifa ikki maratoba (885-yil va 890-yil) *Amir Laysning* mansabidan olganligi haqida farmon chiqargan, birinchi galda hatto minbardan turib uni duoibad qilgan; nihoyat 892-yil xalifa uning noibligini tan olgan, biroq *Amir Lays* o'zini so'nggi raqibi *Rofe ibn Xarsama* ustidan faqat 896-yilgina g'alaba qilgan. O'zidan avval o'tgan Xuroson noiblariga o'xshab u ham Movarounnahrda vogarlik qilgan. Xalifa 898-yil fevralda Movarounnahr taxtidan *Ismoil ibn Ahmadni* tushirib o'rniga *Amir Lays* o'tqazilgani haqida farmon chiqaradi. Biroq *Ismoil* raqibidan ildamroq harakat qilib 899-yil *Amir Laysni* sarkardasi *Muhammad ibn Bashar* qo'mondonligidagi qo'shinni yengib, 900-yil Balx yaqinida *Amir Laysni* asir olgan va uni Bog'dodga jo'natgan. Xalifa *al-Mutadid* 902-yil *Amir Laysni* qatl ettirgan. Manbalarda yozilishicha, *Amir Lays* davlat va boshqa qo'shinni qattiqqo'llik bilan boshqargan. Poytaxti Nishopur va vatani Siyestonda ko'plab jamoat binolari qurdirgan.

ANUSHTAKIN (?-1097) — *Anushteginiylar* (1097-1231) bobakaloni. O'g'uzlarning *Bekdili* urug'idan. Yoshligida Garchistonda (Murg'ob vohasi) saljuqiylar sipohsolar *Izzuddin O'nar Bilategin* (?—1098)ga g'ulom qilib sotib yuborilgan. So'ng, u sidqitildan qilgan xizmatlari evaziga *Malikshoh* saroyida tashtdorlik mansabiga ko'tarilgan. O'sha davrda Xorazmni idora qilish ham shu mansab vazifalari doirasiga kirgan bo'lib, Xuroson amiri *Dodbek Habashiy* Anushtakin vafot etgach, uning o'g'li *Qutbiddin Muhammadni* Xorazm voliysi etib tayinlagan va unga xorazmshoh unvonini bergan.

ANUSHTEGINIYLAR, XORAZMSHOHLAR — o'zbek davlatchiligi tizimidagi yirik sulolalardan biri (1097-1231). *Anushtegin* nomidan olingan. Anushteginlar *xorazmshoh* unvoni bilan davlatni idora qilishgan. XII asr oxiri — XIII asr boshlari O'zbekiston tarixining muhim davri bo'lib, unda bu mintaqa Sharqda eng kuchli Anushteginiylar davlatining markaziga aylandi. Anushteginiylar Islom olamida hukmron mavqega ega bo'lish uchun Abbosiylar xalifaligi bilan raqobat qildilar. Bu davrda Anushteginiylarning qudrati shu darajada ortdiki, hatto ular endi "xorazmshoh" degan unvoni ep ko'rmay, o'zlarini "sulton" deb atay boshladilar. Anushteginiylar hukmronligi mo'gullar istilosi va so'nggi xorazmshoh — *Jaloliddin Manguberding* halok bo'lishi bilan barham topgan. Anushteginiylar vakillari: *Qutbiddin Muhammad* (1097-1128), *Otsiz* (1128-1156), *El Arslon* (1156-1172), *Sultonshoh Mahmud* (1172), *Takash* (1172-1200), *Muhammad* (1200-1220), *Jaloliddin Maguberdi* (1220-1231).

CHAG'RIBEK, CHAG'RIBEK DOVUD (TURKCHA CHAG'RI — burgut) (990-1060, Saraxs) — *Saljuqiylar davlati* arbobi, sarkarda. *Saljuqning* nevarasi va sulton *To'g'rulbekning* ukasi. *To'g'rulbek* bilan birgalikda ko'chmanchi o'g'uzlar — saljuqiylarning harbiy

birlashmalariga boshchilik qilgan. 1035-yil mayda saljuqiylar Chag‘ribek va *To‘g‘rulbek* qo‘mondonligida Amudaryoni kechib o‘tib, Amul (Chorjo‘y)ni egallagan va Nisoga yo‘l olgan. *G‘aznaviylar davlatining* sultoni *Mas‘ud G‘aznaviy* ularga qarshi harbiy kuchlar jo‘natgan. Bu jangda g‘aznaviylar qo‘shini mag‘lubiyatga uchrach, *Mas‘ud G‘aznaviy* Chag‘ribekka Dehiston (Kaspiy dengizining sharqiy sohili), *To‘g‘rulbekka* Niso, *Muso* bayg‘uga Farova viloyatlarini hamda ularga “*dehqon*” unvonini berishga majbur bo‘lgan. 1036-yil dekabrda Chag‘ribek 4 ming qurolli otliqqa bosh bo‘lib, G‘ozon, Gur, Siyohko‘h orqali poytaxt G‘aznani egallash uchun harbiy yurish qilgan. Chag‘ribek Marv, Andxo‘y, Shoburkon (Shibirg‘on)ni zabt etib, bu yerlarda saljuqiylar hukmronligini o‘rnatgan. 1037-yil 22-aprelda Marvda Chag‘ribek nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan va unga “*malik al-muluk*” va “*shahanshoh*” unvonlari berilgan. Chag‘ribek saljuq amirlariga qarshi yuborilgan g‘aznaviylarning *Suboshi* boshchiligidagi katta qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratgan. Bu paytda Chag‘ribek Balx viloyatini ham o‘ziga bo‘ysundirgan (1038-yil boshlari). U *To‘g‘rulbek* tomonidan butun saljuqiylar qo‘shinining Oliy bosh qo‘mondoni qilib tayinlangan. *To‘g‘rulbek* Nishopurda sulton deb e‘lon qilingach (1038-yil iyun), u birodari Chag‘ribekka Dehiston viloyati hokimligi va Marvni topshirgan. 1038-yilda Chag‘ribekka Nishopurdan Amudaryogacha bo‘lgan Xuroson, shuningdek, Movarounnahr va Xorazm hududlari tekkan. Chag‘ribek keyinchalik Xorazm, Buxoro va Balxda ham o‘z hukmronligini o‘rnatdi. *Dandanakon jangidan* so‘ng *To‘g‘rulbek* Xuroson hukmdori deb e‘lon qilingan. Chag‘ribek Marvni, *To‘g‘rulbek* Rayni o‘zlariga poytaxt qilishgan. Chag‘ribek 1042-43-yillarda Xorazmga yurish qilib, poytaxt Kotni egallagan. Qipchoqlarni ham tobe qilib, ular o‘rtasida islom dinini tarqatgan. Keyinchalik Chag‘ribek qoraxoniylar xoqoni bilan sulh tuzgan.

DOVUBBEK, CHAG‘RIBEK (?-1061) — Marv va Xuroson hokimi (1037-61). Saljuqiylardan. Jand hokimi *Mikoyilning* o‘g‘li, Saljuqning nabirasi. Dovudbek otasi vafotidan so‘ng amakisi *Yabg‘u* (Payg‘u) va akasi *Tug‘rulbek* bilan 985-yil somoniylar huzuriga kelib, Nur qishlog‘i atrofida istiqomat qilgan. 1029-yil qoraxoniylardan bo‘lgan Buxoro hokimi *Alitegin* bilan saljuqiylar o‘rtasida nizo kelib chiqqan; *Aliteginning* farmoniga ko‘ra uning lashkarboshisi *Alp Qora* (Saljuqning nabirasi) *Yusufni* o‘ldirgan. Ilgari *Aliteginning* o‘zi *Yusufni* Inonch — Payg‘u unvoni bilan o‘zining xizmatidagi turklar ustidan rahbar qilib tayinlangandi, 1030-yil marhumning amakivachchalari *To‘g‘rul* va Dovudbek qo‘zg‘olon qilib, *Alp Qora* va uning ming jangchisini qatl etadilar. *Ali Tegin* farzandlari bilan ularga qarshi chiqqan, aholi ham ularni qo‘llab quvvatlagan. Turkmanlar to‘la mag‘lubiyatga uchrashgan, ularning mol-mulklari musodara qilingan, ayollari va bolalarining bir qismi asir olingan; noilojlikdan Dovudbek akasi bilan Xorazm hokimi *Horun ibn Oltuntosh* panohiga o‘tgan. *Horun Ma‘sud G‘aznaviy* uyushtirgan fitna oqibatida o‘ldirilgach (1035), Dovudbek akasi bilan Xuroson tomonga o‘tib ketgan. Dovudbek va *To‘g‘rulbek* boshchiligidagi turkmanlar *Ma‘sud G‘aznaviy* ustidan

jangda g‘olib chiqqach Nishopurda imzolangan shartnomaga (1035)ga ko‘ra *To‘g‘rulbek* Nisoga, *Buyo bug‘u* Faravaga va Dovudbek Dehistonga hukmdor (vole) qilib tayinlandilar. Ularga dehqon unvoni va voleylik mansabiga munosib sovg‘alar berildi. 1037-yilda Marvda Dovudbek nomi bilan tanga zarb qilinadi. 1040-yil Dandanakon jangidan so‘ng saljuqiylar Xurosonni, 1043-yil Xorazmni zabt etdilar. 1059-yil g‘aznaviylardan *Ibrohimbek* bilan *Dovudvek* o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Balx Dovudbek qaramog‘iga o‘tgan. Dovudbek vafotidan so‘ng saljuqiylar davlatining sharqiy qismiga uning o‘g‘li *Alp Arslon* hukmdor bo‘lib qoldi.

ELARSLON (?-1172-yil 17-mart) — *anushteginiylar* sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori (1156-72-yillar). *Otsiz* xorazmshohning o‘g‘li. Elarslon avval, *Sulton Sanjarga* itoat etishini bildirib, noma va sovg‘a-salomlar yuborgan. *Sulton Elarslonni* xorazmshoh deb e‘tirof qilgan. *Sulton Sanjar* vafotidan so‘ng saljuqiylar taxti uchun kurash avj olgan. 1163-yil Elarslon saljuqiylar amirlari ichida eng kuchlisi *Muayyid Oy-Aboga* qarshi Nishopurga yurish qilgan, shaharni uzoq vaqt qamal qilib ololmagan, sulh tuzib Xorazmga qaytgan. Elarslon qo‘shinlari Dehistonni egallagan. 1166-yil Elarslon yana Nishopurga qarshi otlangan. Bistom yaqinidagi jangda birlashgan saljuqlar va *Otabek Eldegiz* qo‘shini bilan Elarslon qo‘shini o‘rtasida jang bo‘lib o‘tgan. Har ikki taraf biron natijaga erishmagan. Ammo xorazmshoh qo‘shinlarning bir qismini Bayhaq va Sabzavor shaharlariga jo‘natib, ularni egallagan (1167-yil may). Elarslon Nishopurni zabt etgan. 1167-yil Xorazm qo‘shinlari Raydan o‘tib, Sova shahriga yaqinlashgan, sulton *Arslonshoh* va *Otabek Eldegiz* o‘g‘li *Jahon Pahlavon* yetakchiligidagi saljuq qo‘shinlari bilan jangga kirib, g‘alaba qilgan. So‘ngra Eron Ozarbayjoniga bostirib kirib, Abxor, Zanjon va Qazvinni egallagan. Elarslon, shuningdek, Movarounnahr voqealariga ham aralasha boshlagan. *Qoraxitoylar* vassali Samarqand hokimi *Jaloliddin Ali Chag‘rixon* 1158-yil qarluqlarni tor-mor keltirgan. Qarluqlar yetakchisi *Lochinbek* bir qism qo‘shini bilan Xorazmga qochib borib, Elarslondan yordam so‘ragan. 1158-yil iyulda Elarslon katta qo‘shin bilan Samarqandga yurish qilgan. Zarafshon daryosining bo‘ylaridagi janglarda xorazmshoh zafar quchgan. 1171-yil qoraxitoylar qo‘shini Amudaryodan o‘tib, Xorazm sarhadlariga kirib kelganda Elarslon to‘g‘onlarni ochib, poytaxt yaqinidagi yo‘llarni suvga bostirishga farmon bergan. Qoraxitoylar xorazmshoh qo‘shinlarini yengib, amir *Ayyorbekni* asir olib Samarqandga qaytganlar. Xorazmshoh poytaxti Gurganjga qaytgan va xastalikdan vafot etgan.

FOYIQ — Termiz va Balx noibi. 992-yil Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg‘ol qilganidan so‘ng, *Bug‘roxon* tomonidan Termiz va Balxga noib qilib tayinlangan. Ammo *Bug‘roxon* Buxoroda uzoq turolmaydi. Kasallik uni Koshg‘arga qaytishga majbur etadi. Yo‘lda u vafot etadi. Bunday qulay sharoitdan foydalangan *Nuh ibn Mansur* Buxoroga qaytib o‘z taxtini egallaydi. Ammo Foyiq Balxda va *Abuali Simjuriy* Xurosonda amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. O‘z kuchiga ishonmagan *Nuh ibn Mansur* G‘azna hukmdori *Sobuqtakinni* yordamga chaqiradi.

Yirgirma mingli qo'shin bilan u Movarounnahrda yetib keladi va *Nuh* bilan birlashib, qo'zg'olonchilarga qarshi yurish qiladi. Bir necha janglardan so'ng Foyiq va *Abuali* qo'shinlari tor-mor qilinadi.

G'YOSIDDIN PIRSHOH (?-1229) — *Muhammad Xorazmshohning* o'g'li. *Jaloliddin Manguberding* ukasi. 1217-yil *Xorazmshoh G'iyosiddin Pirshohga* Kermon, Kesh va Makron viloyatlarini bergan. G'iyosiddin Pirshoh davlati hududiga mo'g'ullar 10 ming otliq qo'shin bilan hujum qilganda u qarshilik ko'rsatmay Iroqni talon-taroj etilishiga yo'l qo'yib bergan. Mo'g'ullar ketgandan so'ng, ularning o'rniga mahalliy turkiy amirlar mamlakatni g'orat qila boshlaganlar. *G'iyosiddin Pirshoh* ularni tinchitish uchun turli harbiy darajalar bera boshlagan: amirni malik, malikni esa xon darajasiga ko'targan. G'iyosiddin Pirshoh davlat ishlariga layoqatsiz bo'lib, bu ish bilan onasi *Bakluyo* shug'ullangan, shu sababli u *Turkon xotun* kabi *Xudovandi Jahon* laqabini olgan. Raiyat saltanatdagi beboshlik, adolatsizlikdan norozi edi. *Jaloliddin Hindistondan* qaytgach, bular barham topgan. G'iyosiddin Pirshoh *Jaloliddinning* Gruziyaga qilgan yurishida (1225-yil) qatnashib qo'shinning so'l qanotini boshqargan. 1227-yil mo'g'ullarning *Bayju* no'yon, *Taynal* no'yon va boshqalar rahbarligidagi qo'shini bilan Isfahon yaqinida bo'lgan jangda G'iyosiddin Pirshoh xiyonatkorona ravishda o'ziga tegishli askarlar va *Jaloliddinning Jahon Pahlavon* elchi boshchiligidagi harbiy qismi bilan jang maydonini tark etgan. G'iyosiddin Pirshoh Huzistonga yo'l olib, u yerdan xalifaga elchi yuborib akasini tark etgani, xalifalikka qo'shni bo'lib yashamoqchiligini bildirgan. Huzistondan *Alamut*, so'ng Kermonga *Baroq* hojib huzuriga qochgan. *Baroq* zo'rlik bilan G'iyosiddin Pirshohning onasiga uylangan, bir ozdan keyin ularni o'ziga nisbatan suiqasd qilishda ayblab onasini, vazir *Karim ash-Sharq* va *Jahon Pahlavon* elchini qatl ettirgan, G'iyosiddin Pirshohni esa, qal'aga qamab qo'ygan.

HASAN BUG'ROXON — Qoraxoniylar hukmdori. 992-yili Qoraxoniylarning Movarounnahrda tomon hujumida boshchilik qilgan. Ularning harbiy yurishlarida Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turk qabilalari ham qatnashadilar. Chunki bu yurtlar Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan qarluqlar davlatining mulki edi. Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg'ol qiladilar. Ko'p o'tmay Bug'roxon hojib *Foyiqni* Termiz va Balxga noib qilib tayinlaydi. Ammo Bug'roxon Buxoroda uzoq turolmaydi. Kasallik uni Koshg'arga qaytishga majbur etadi. Yo'lda u vafot etadi.

IBROHIM BO'RITAKIN — Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori. U 1038-yilda Amudaryo bo'yi viloyatlari Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolosog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan Movarounnahr-dagi Qoraxoniylar davlati edi. Bu g'alabalardan so'ng Ibrohim Tamg'ach "*bug'roxon*" unvoniga sazovor bo'ladi.

IBROHIM IBN AHMAD — 947-yili Somoniylarga qarshi isyon ko'targan *Nuh II ibn Mansurning* amakisi. U

saroy gvardiyasi va Chag'oniyni yirik mulkdorlaridan *Abu Ali Chag'oni* yordamida Buxoro taxtini egallab oladi. Juda qisqa vaqt hukmronlik qiladi.

IBROHIM IBN MA'SUD (?-1099) — G'aznaviylar davlati hukmdori (1059-1099). *Ma'sud I* (1030-1041)ning o'g'li, *Mahmud G'aznaviyning* nabirasi. Akasi *Farruhzod* (1053-1059) vafot etgach, taxtga o'tirgan. *Farruhzod* hukmdorligi davrida saljuqiylar bilan boshlangan urushning to'xtatib, o'zaro sulh tuzishga (1059) va hatto *Malikshoh* (1072-1092)ning qizini o'g'li *Ma'sud* (1099-1114)ga olib berib, ular bilan quda-anda bo'lishga muvaffaq bo'lgan. So'ng, Hindistonga qo'shin tortib, bobosi *Mahmud G'aznaviy* zabt eta olmagan bir qancha qal'a va viloyatlarni fath qilgan, aholisini islomga kiritgan. Ibrohim ibn Ma'sud g'oyat taqvodor, adolatli, xalqparvar, ilmparvar hukmdor bo'lgan.

IBROHIM IBN NASR, BO'RITEGIN, TAMG'ACHXON IBROHIM (?-taxminan 1070) — Movarounnahrda G'arbiy qoraxoniylar xoqonligi asoschisi (1040-1070). Qoraxoniylardan. Otasi *Nasr ibn Ali*. Iloq hokimi (1017-1021). U yerda *Bo'ritegin*, amir va malik unvonlari bilan tangalar zarb ettirgan. Qoraxoniylar bekliklaridan *Alitegin* turkmanlar yordamida Movarounnahrni bosib olgan paytda (1025) Ibrohim ibn Nasr uning farzandlari qo'lga asir tushgan. 1037 yilda asirlikdan qochib Xo'jandni egallagan. Biroq, akasi, Farg'ona hukmdori *Muhammad* bilan chiqisha olmay, janubga yo'l oldi va Chag'oniyni bosib oldi. U yerda kuch to'plab Movarounnahrni markaziy hududlariga bostirib kirgan va Kesh, Samarqandni egallagan (1040). Ibrohim ibn Nasr o'zini *Tamg'achxon* deb e'lon qilgan va mustaqil davlat birlashmasi — G'arbiy qoraxoniylar xoqonligiga asos solgan. Ibrohim ibn Nasr 1041-1042 yillarda Buxorni egallagan. 1043-yilda Chag'oniyni g'aznaviylar, so'ngra bir oz vaqtdan keyin saljuqiylar bosib olgan. Ibrohim ibn Nasr saljuqiylar bilan Termiz va Balxga egalik qilish uchun kurashgan. XI asr o'rtalarida Sharqiy xoqonlikni qamrab olgan o'zaro janjallar, nizolardan foydalanib Ibrohim ibn Nasr Farg'ona, Shoh, Isfijob, Taroz va hatto Qoraxoniylarning Chu vohasida joylashgan asosiy poytaxti Bolosog'unni ham egallab olgan. Biroq, shunga qaramasdan u Samarqandni o'z poytaxtligicha qoldirgan. Umri oxirida falaj bo'lib qolgan Ibrohim hokimiyatni o'g'li *Shamsumulk*ka topshirgan. Tamg'achxon Ibrohim o'qimishli, aqlli va tadbirkor xoqon bo'lgan. O'z siyosatida ulamolarga tayanib ish yuritgan. U Samarqandda tartib-osoysishtalik o'rnatish va uning xavfsizligini ta'minlash tog'risida alohida g'amxo'rlik qilgan, og'rilik va talonchilik uchun qattiq jazolagan. Qurilish ishlariga katta e'tibor bergan. Masalan, 1066-yilda uning buyrug'i bilan *Qusam ibn Abbos* maqbarasiga yaqin joyda madrasa qurilgan, shuningdek, Samarqandda qasr ham qurdirganligi ma'lum.

ILYOS IBN ASAD — Somonxudotning nabirasi. U *Ma'munning* xalifalik taxtiga o'tirishiga katta yordam bergan. Bunga javoban *Ma'mun* uni Hirot viloyatiga noib etib tayinlaydi.

ISMOIL SOMONIY, ISMOIL IBN AHMAD SOMONIY (849-yil, Farg'ona — 907-yil, Buxoro) — o'zbek davlatchiligi tizimida hukmronlik qilgan somoniylar sulolasi (819-899)ning yirik vakili. Unga "*amiri-moziy*" —

“dunyodan o‘tgan amir” degan laqabni berganlar. Abbosiy xalifa *Mu‘tamid* (870-892) *Rofe ibn Lays qo‘zg‘olonini* bostirishda yordam bergan sulola asoschisi *Somonxudotning* o‘g‘illaridan *Nasr I ibn Ahmadni* Movarounnahrğa noib (873-893), *Ismoil Somoniyni* esa Buxoroga hokim etib tayinlagan. Ammo aka-uka o‘rtasida ittilof paydo bo‘lib, ular ikki bor o‘zaro urush qilgan. Birinchi sulh bilan yakunlangan, ikkinchisida Ismoil Somoniy g‘olib kelganiga qaramay, akasining hokimiyatini tortib olmagan. 893-yil *Nasr I* vafot etgach, xalifa *Mu‘tazid* (892-902) Ismoil Somoniyni uning o‘rniga Movarounnahrğa noib qilib tayinlagan. U shu yiliyoq Tarozi shahrini egallagan, 899-yil xalifaning Xurosondagi noibi *Amr ibn Lays* qo‘shinini tor-mor keltirib, uning tasarrufidagi yerlarni bo‘ysundirgan. 902-yil esa u Tabariston, Ray, Qazvin va Daylamni zabt etib, o‘zini xalifalikdan mustaqil hukmdor deb e‘lon qilgan. U 907-yil vafot etgach, o‘rniga o‘g‘li *Ahmad ibn Ismoil* hokimiyat tepasiga kelgan. Ismoil butun Movarounnahrni o‘z qo‘li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o‘z davlatiga qo‘shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo‘lgan zamonasining eng yirik mustaqil o‘rta asr davlati tashkil topdi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo‘lgan hukmdorlar — amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar. Ismoil Somoniy, tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, oqil, odil va ulamolarga homiy hukmdorlardan bo‘lib, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, kuchli qo‘shin tuzish, itoatsiz amirlarni bo‘ysundirish yo‘lida qattiq kurashgan. U mamlakat obodonchiligiga ham katta e‘tibor berib, ko‘plab me‘moriy inshootlar qurdirgan. *Narshaxiy* bergan ma‘lumotga ko‘ra, Ismoil Somoniyning hukmdorlik muddati 30 yil bo‘lib, shundan 20 yili Xuroson amiri ham edi. Uning davrida Somoniylar sulolasidan chiqqan hamma amirlar Buxoroda turadigan bo‘ldilar. Undan oldingi Xuroson amirlarining hech biri Buxoroda turgan emas.

KUSHLUK (ba‘zi manbalarda ismi Kushluxon, Kashli, Kuchluk, Kojlask, Gyujlyuk shaklida uchraydi) (?-1218) — *Chingizxon* ta‘qibidan g‘arb tomon qochgan nayman qabila uyushmasi boshlig‘i. 1210-yil Kuchluk qoraxitoylarni mag‘lubiyatga uchratgan, 1211 yil Gurxonni asir olib, Xo‘tan, Yorkent, Qashqar, Yettisuv va Farg‘ona viloyatlaridan iborat qoraxitoylar davlatining sharqiy hududida o‘z davlatini barpo etgan. *Muhammad Xorazmshoh* Kuchluk hujumidan xavfsirab, 1215-yil Sirdaryoning o‘rta oqimi bo‘ylaridagi shaharlar (jumladan, Toshkent) aholisini janubi-g‘arbga ko‘chirtirgan. Musulmonlarni quvg‘in qilish bilan Kuchluk fuqarolarning bir qismini o‘ziga qarshi qilib qo‘ygan. Kuchluk dastlab nasroniy bo‘lgan, biroq keyinchalik *Gurxonning* sobiq qaylig‘iga uylanib, buddaviylikni qabul qilgan.

MAHMUD G‘AZNAVY, ABULQOSIM MAHMUD IBN SOBUQTEGIN (967-yil — G‘azna — 1030-yil) — davlat arbobi va harbiy sarkarda, G‘aznaviylar davlati hukmdori (998-1030). *Sobuqteginning* o‘g‘li. Yoshligida otasidan harbiy san‘atni puxta egallagan. Somoniylarga qarshi isyon ko‘targan turk amirlari *Abu Ali Simjuriy* va *Foyiqqa* qarshi janglarda otasining qo‘shinida qatnashib, katta jasorat ko‘rsatgani uchun “*sayfud-davla*” (“davlat

qilichi”) unvoni bilan taqdirlandi (994). G‘aznaviylar davlatining Nishopurdagi noibi (994-997). Otasi vafotidan so‘ng taxtni egallagan (998-yildan). Marv yaqinidagi jangda somoniylar qo‘shini mag‘lubiyatga uchratgan (999-yil 16-may). Somoniylar davlati ag‘darilgach, Mahmud G‘aznaviy Bag‘dod xalifasi *al-Qodir* (hukmronligi, 991-1031)dan “*yamanud-davla va aminul-milla*” (“davlatning o‘ng qo‘li va millatning ishonchi”) degan faxriy unvon va Xuroson hokimligi haqida yorliq olgan (999). Qoraxoniylar xoni *Nasr Mahmud* G‘aznaviyga elchi yuborgan; 1001-yilda qoraxoniylar bilan tuzilgan sulh shartnomasiga muvofiq, har 2 davlat o‘rtasidagi chegara chizig‘i qilib Amudaryo belgilandi. Shunday qilib, Somoniylar davlati o‘rnida 2 ta yangi davlat tashkil topgan. Mahmud G‘aznaviy qo‘lida Shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Xazar (Kaspiy) dengizigacha cho‘zilgan katta hudud birlashtirilgan. Keyinchalik bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston, Xorazm va G‘arbiy Eron ham kiritilgan. Qoraxoniylar bilan ayrim urushlar (1006-1008)dan so‘ng, Chag‘oniyon, keyinchalik Xuttalon, Qabodiyon viloyatlari va Termiz, Amul (Chorjo‘y)ni ham o‘z davlati tarkibiga qo‘shib olgan. Mahmud G‘aznaviy yirik harbiy yurishlar olib borish bilan birgalikda qo‘shni davlatlar hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar va qarindoshlik munosabatlari o‘rnatgan. Bayhaqiyning yozishicha, Xorazmdagi xalq g‘alayonlari oqibatida 1016-yilda *Abul Abbas Ma‘mun* qatl etilib, taxtga uning jiyani yosh va tajribasiz *Muhammad ibn Ma‘mun* o‘tirdi. Mahmud G‘aznaviy bu xabarni eshitgach, qasos olish bahonasida katta qo‘shin (100 ming askar, 500 fil) bilan kelib, Xorazm davlati poytaxti Qiyotni egallagan (1017) va hojib *Oltintoshni* Xorazmda o‘z noibi qilib qoldirgan va *Beruniy* boshchiligidagi olimlar, shoirlar va san‘atkorlarni, shuningdek, yosh xorazmshohni butun sulolasi bilan G‘aznaga olib qaytgan. Mahmud G‘aznaviy arab va pahlaviy (fors) tillarini puxta bilgan, turkiy tilda she‘rlar bitgan. O‘z davlatining poytaxti G‘aznada nodir kitoblardan katta kutubxona to‘plangan. Bu davrda islom dini tarqalishida katta hissa qo‘shgan. Xususan, o‘z saroyida 400 dan ortiq olimlar, shoirlar va san‘atkorlar (*Beruniy*, *Unsuriy* va boshqalar)ni to‘plab, ularga homiylik qilgan. Qudratli va jangovar harbiy qo‘shin hamda dengiz flotiga ega bo‘lgan. G‘aznada vafot etgan, qabrida maqbara o‘rnatilgan. Sharq allomalarining asarlarida Mahmud G‘aznaviy adolatli va fuqaroparvar podsho, dushmanga nisbatan shafqatsiz sarkarda sifatida tasvirlanadi.

MALIKSHOH, ABULFATH JALOLIDDIN (1055-1092) — *saljuqiylar* sultoni (1072-92). Malikshoh 1072-yil otasi Alp Arslon o‘rniga taxtga o‘tirgan va davlatni vazir *Nizomulmulk*ning kuchli ta‘siri ostida boshqargan. *Nizomulmulk* uning otasi davrida ham vazir bo‘lib, yosh Malikshohga murabbiylik ham qilgan, Malikshoh uni o‘z homiysi — *Otabek* deb atagan. Malikshoh otasi kabi iqtidorli sarkarda bo‘lgan. Uning hukmronligi davrida Saljuqiylar davlati hududi juda ham kengaygan (Qashqardan O‘rta dengizgacha, Kavkaz va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha), davlatning kuch-qudrati o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetgan. Malikshoh Movarounnahrğa 1089-yildi hujum qilgan. O‘z ma‘murlaridan *Anushtakinni* Xorazmga noib qilib tayinlagan. Malikshohga harbiy

jasoratlardan ko'ra, *Nizomulmulk*ning mamlakat ichki siyosatida olib borgan faoliyati ko'proq shuhrat keltirgan: vayron bo'lgan shahar, qishloqlar tiklangan, aloqa yo'llari yaxshilangan, ko'plab xonaqohlar, masjidlar, karvonsaroylar, rasadxonalar qurilgan. *Umar Xayyom* Malikshoh topshirig'iga ko'ra, *sosoniylarning* shamsiy taqvimini isloh etib, yangi taqvim tayyorlagan (u *Malikiy yil hisobi*) yoxud "*Jalol erasi*" nomi bilan mashhur). Nishopur, Basra, Isfahon, Hirotda madrasalar qurilgan, xususan, Bag'doddagi "*Nizomiya*" madrasasi butun jahonga mashhur bo'lgan. Olimlarga homiylik qilgan. Saroyda muntazam suratda shoirlar anjumani bo'lib turgan. Malikshoh garchi sunniy bo'lsa-da, shia imomlari maqbaralarini ziyorat qilgan. Saltanatdagi tartibni shaxsan nazorat qilish uchun Malikshoh hayoti chog'ida davlat hududini 10 marta kezib chiqqan. U saltanatni 12 ta viloyat — mulkka ajratib, ularni saljuqiy amirlar va lashkarboshilarga iqto tariqasida bergan. Malikshoh hukmronligining so'nggi davrida *hashshoshiylar* siyosat maydoniga chiqqanlar.

MANSUR IBN NUHI, ABUSOLIH, AMIRI SADID (?-976) — somoniylar amiri (961-976). *As-Sadid* ("dono", "tadbirkor") laqabi bilan mashhur bo'lgan. Davlatni mustahkamlash maqsadida bir qator tadbirlarni oshirgan. Bu ishda unga vazirlari *Bal'amiy* va *Utbiylar* yordam bergan. Buvayhiylar, Ziyoiylar bilan kurash olib borgan. Buvayhiylar ustidan qozongan g'alabasi uning shuhratini oshirgan. Uning topshirig'iga ko'ra, *Bal'amiy* Tabariyning "*Tarix ul-anbiy va-l-r-rusul va-l-mulk va-l-xulafa*" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi") nomli asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan va boyitgan.

MANSUR IBN NUH II ABU HORIS (?-999) — somoniylar amiri (997-999). Uning davrida mamlakatda parokandalik, ichki nizolar (Mansur bilan lashkarboshilar o'rtasida) tashqi xafv (qoraxoniylarning hujumlari) kuchaygan. Ayniqsa, qoraxoniylar tomoniga o'tgan xoin lashkarboshilardan *Foyiq* saroyga nisbatan uyushtirgan fitnalarda faol qatnashadi. 999-yilning fevralida *Foyiq* turk g'ulomlariga suyangan holda Mansurni taxtdan ag'darib, ko'zini ko'r qiladi. Taxtga Mansurning ukasi *Abdumalik ibn Nuhni* o'tkazishdi. Bu kuchsizlanib qolgan somoniylar sulolasiga payt poylab berilgan kuchli zarba edi. *Mahmud G'aznaviy* 999-yilning may oyida Mansur uchun o'ch olish shiori ostida Movarounnahrqa qarshi qo'shin tortdi. U somoniylar qo'shinini tor-mor qilib katta o'ljalar bilan G'aznaga qaytdi. Jang oqibatida Xuroson *Mahmud G'aznaviy* qo'lga o'tadi. Yuzaga kelgan bu vaziyatdan qoraxoniylar hukmdori *Elik Nasr* ham foydalanishga harakat qilgan. Shu yili Movarounnahr qoraxoniylar tomonidan egallangan.

MAS'UD G'AZNAVIY (? — 1041) — *G'aznaviylar davlati* hukmdori (1030 — 41). *Mahmud G'aznaviy*ning o'g'li. Mas'ud G'aznaviy davrida mamlakatda poraxo'rlik, g'ayriqonuniy soliqlar, aholini talash avj olgan. Otasi siyosatini davom ettirgan Mas'ud G'aznaviy Qoraxoniylar davlati bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini saqlab qolishga uringan. G'aznaviylarga nomigagina tobe bo'lgan Xorazm amalda mustaqil edi. *Oltintosh* vafotidan so'ng Mas'ud Xorazmni uning vorislari qo'lida qoldirgan. Mas'ud xorazmshoh unvonini o'z o'g'liga bergan, *Oltintosh*ning

o'g'li *Horunni* noib unvoni bilan Xorazm hokimi etib tayinlagan. Biroq Horun qoraxoniylar *Alitegin* va saljuqiylar bilan do'stona munosabatlar o'rnatib, 1034-yil Xorazmni mustaqil deb e'lon qilgan va g'aznaviylar sultoni nomini xutbada zikr etishni taqiqlab qo'ygan. 1035-yil bahorida *Horun* Xurosonga yurish qilgan. *Alitegin*ning o'g'illari (*Alitegin* 1034-yil vafot etgan edi) *Horunga* ko'mak bo'lib, g'aznaviylar hududiga bostirib kirishgan. Lekin yurishning boshidayoq Horun o'z g'ulomlari tomonidan o'ldirilgach (ular Mas'udga sotilganlar), *Alitegin* o'g'illari Samarqandga qaytishgan. Mas'ud qoraxoniylar bilan sulh tuzgan, natijada Xorazm va qoraxoniylar tomonidan bo'ladigan xavf-xatar diplomatik yo'l bilan hal qilingan. 1035-yil Mas'ud Xurosonga hujum qilgan saljuqiylarga qarshi chiqqan. U Nishopurdan Nisoga katta qo'shin jo'natgan. O'zaro sodir bo'lgan jangda dastlabiga g'aznaviylar g'alaba qilgan, biroq tunda saljuqiylar ularning qarorgohiga hujum qilib g'aznaviylarga og'ir talafot yetkazganlar. Saljuqiylar Xurosonning katta qismi, jumladan, Nishopurni egallashgan. Mas'ud G'aznaviy shundan so'ng ulkan qo'shin to'plab, yurishga shaxsan o'zi boshchilik qilgan. 1038-yil g'aznaviylar Saraxs yonida saljuqiylarni yengganlar. Hal qiluvchi jang 1040-yil bahorida *Dandanakon* yaqinida bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida eng qonli hisoblangan ushbu jangdan so'ng g'aznaviylarning Xurosondagi hukmronligi barham topgan. Saljuqiylar sardori To'g'rul o'zini Xuroson hukmdori deb e'lon qilgan. Mas'ud G'aznaviy Hindistonga yurish qilib, u yerda kuchli qo'shin to'plashga va shu qo'shin yordamida saljuqiylarga qarshi turishga qaror qilgan. *Bayhaqiy*ning ma'lumotiga ko'ra, Mas'ud Hindiston safaridan oldin Movarounnahrda qoraxoniylar xoni *Arslonxonga* xat yozib saljuqiylarga qarshi kurashda yordam so'ragan. So'ngra u hibsda saqlanayotgan ukasi *Muhammadni* ozod qilishga farmon bergan, Mas'ud Hindiston yurishiga ukasini ham olib ketmoqchi bo'lgan. *Muhammad* tarafdorlari fitna uyushtirib, Mas'udni qamoqqa olib, *Muhammadni* sulton deb e'lon qilishgan. Mas'ud bir necha kundan so'ng qatl etilgan. Mas'ud G'aznaviy otasi kabi saroyida olimu fuzalolar, shoir va adiblarni to'plashga intilgan. Saroyda "*malik ush-shuaro*" ("*Shoirlar shohi*") Unsuriy boshchiligida shoirlar to'plangan. Tarixchi *Bayhaqiy*ning "*Tarixi Mas'udiy*" asari Mas'ud G'aznaviyning faoliyatini yoritishda qimmatli manba hisoblanadi.

MUHAMMAD IBN ABDUL AZIZ (XII asr oxiri — XIII asr boshi) — Buxoro sadri. U xalq orasida o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida huzurida 600 nafar faqh (huquqshunos)larni tutib turadi. Biroq xalq o'rtasida uning obro'si ham, ta'siri ham ko'tarilmadi, balki hurmat qilish o'rniga hamma undan nafratlandi va yuz o'girdi. Chunki u mehnatkash aholiga nisbatan g'oyat shafqatsiz edi. Oqibatda uning "*Sadri jahon*" unvoni xalq o'rtasida "*Sadri jahannam*" laqabiga aylantirildi. Buxoro mehnatkash aholisining sadrlarga qarshi noroziligi ularni qo'zg'alishga olib keldi. Qo'zg'olon 1206-yilda Buxoro shahrida ko'tarildi. Unga qalqon yasovchi hunarmand *Sanjar* boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Sadr va uning oilasini Buxorodan quvadilar. Uning mol-mulkini talaydilar. *Xorazmshoh*

Muhammad qo'zg'olonni harbiy kuch bilan bostirib, Buxoroni Xorazm davlatiga qo'shib oladi.

MUHAMMAD XORAZMSHOH, MUHAMMAD II ALOUDDIN, ALOUDDIN MUHAMMAD (to'liq ismi Qutbiddin Muhammad ibn Takash ibn Elarslon ibn Anushtegin) (taxm. 1182-1220-yil dekabr) — Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori (1200-1220). Otasi — *Takash* xorazmshoh, onasi *Turkon xotun* qipchoq xoni *Jonkishining* qizi. Muhammad 1193-yil dekabrda otasi tomonidan Nishopur shahriga voliy (hokim) qilib tayinlangan. Muhammad davrida saltanat ham hududiy, ham kuch-qudrat jihatidan o'zining yuksak cho'qqisiga yetgan. Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati shimolda Orol, g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Iroq va G'aznagacha, sharqda Yettisuvigacha kengaygan. U mamlakatni kengaytirish siyosatini olib boradi. Dastavval u Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabt qilishga kirishadi. Ayniqsa, u qoraxoniylarga zarba berib, Movarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qiladi. 1218-yil *Chingizxon* Muhammad huzuriga shaxsiy vakili *Uhuna* boshliq 500 tuyadan ortiq elchi va savdogarlar karvoni O'troga kirib keldi. O'tror hokimi *Inolchiq* karvonni ushlab, elchilarni qatl ettirgan. Muhammadning davlatini yaxshi o'rgangan *Chingizxon* Xorazmga qaram xalqlarning noroziligidan, lashkarboshilar orasidagi nizolardan, Muhammadning onasi *Turkon xotun* qarindoshlari orasidan chiqqan amaldorlardan foydalanishi hamda Muhammadning mo'g'ullar hujumi xabarini amalga oshirgan noto'g'ri tadbirlari (har bir shahar o'z-o'zini himoya qilishi; raiyatdan 1 yil uchun 3 barobar xiroj yig'ishi) sababli muvaffaqiyatga erishmadi. Chingizxon Xorazmga yurish qilib O'tror (1219), Buxoro va Samarqand (1220)ni bosib oldi. Muhammad Movarounnahrni tashlab Xuroson tarafga qochdi. *Chingizxonning* 20 minglik qo'shinining tinimsiz ta'qib qilishi Muhammadga o'z kuchlarini qayta to'plab, nafasini rostdlashga imkon bermadi. Kaspiy dengizining Ashur oroliga borib qolgan Muhammad qattiq betob bo'lib qoldi va umrining oxirida oldingi qarorini o'zgartirib, o'g'li *Qutbiddin O'zloqshohning* o'rniga *Jaloliddin Manguberdini* valiahd deb e'lon qildi. O'sha orolda vafot etdi va shu yerda dafn etildi. Keyinchalik Jaloliddinning farmoyishiga ko'ra, Muhammadning jasadi Isfaxondagi xorazmshohlarning xotirasiga qurilgan maqbaraga ko'mish uchun Ardahn qal'asiga keltirilgan.

NASR IBN AHMAD, NASR I IBNASAD SOMONIY (taxm. 848-893) — somoniylar sulolasi boshlig'i, Samarqand hokimi (865-892). Nasr ibn Ahmad Norin daryosi bo'yidagi Haylam qishlog'ida tug'ilgan. Somoniylar davlati hukmdori. Otasi *Ahmad* vafotidan (865-yil) keyin u Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi. Tohiriylarning davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqloq uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto safforiylarga tobe bo'lishni xohlamaydi. Shahar zodagonlari

somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar, undan Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi *Ismoilni* (874) Buxoroga noib qilib yuboradi. Shundan so'ng Nasr ibn Ahmad o'zini butun Movarounnahr boshlig'i deb bilgan va kumush dirhamlar zarb qildirgan (ilgari dirham tangalar zarb qilishga faqat tohiriylarning huquqi bor edi). Ismoil bo'lsa, akasiga itoat etmay qo'ygan va ular o'rtasida 888-yil to'qnashuv bo'lib Nasr ibn Ahmad qo'shinlari butunlay tor-mor keltirilgan.

NASR IBN AHMAD, NASR II IBN ISMOIL SOMONIY, AMIRI SA'ID (Saodatlik) (taxminan 906-943) — Somoniylar davlati hukmdori (914-943). Davlatni 8 yoshli Nasr ibn Ahmad nomidan vazir *Jayhoni* boshqargan. Uning davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Uning hukmronligi davrida somoniylar davlati hududlarida karmatlar harakati ancha keskin tus oldi. Nasr ibn Ahmad shia mazhabini qabul qilganidan norozi bo'lgan sunniy ruhoniylar turk gvardiyasi yordamida Nasr ibn Ahmadga qarshi fitna uyushtirishgan. Bundan xabar topgan Nasr ibn Ahmad fitnani fosh etib, o'z o'g'li *Nuh* foydasiga taxtdan voz kechgan.

NASR IBN ALI, NASR ELOQXON (?-1012) — Movarounnahr ilikxoni (999-1012). Qoraxoniylardan. 996-yilda qoraxoniylarning Movarounnahrda hujum qilganida boshchilik qilgan. Buxoroni egallash bilan Movarounnahrning bosib olinishini nihoyasiga yetkazgan (999-yil oktabr). Somoniylar amiri *Abdumalik ibn Nuh* va uning qarindoshurug'larini asir qilib, O'zgdagi zindonga tashlangan. Shu tariqa qudratli bo'lgan somoniylar sulolasi qulagan. 1000-1005-yillarda ilik *Nuh ibn Ali* somoniylar hokimiyatini tiklashga harakat qilgan *Muntasirga* qarshi kurashgan va g'alaba qilgan. 1000-yil *Mahmud G'aznaviy* Nuh ibn Ali bilan o'z yerlari o'rtasidagi chegaralarni belgilash to'g'risida bitim tuzgan, unga ko'ra, Amudaryo asosiy chegara qilib belgilangan. Natijada somoniylar davlati o'rnida ikkita yangi davlat tashkil topgan: birinchisi — Qashqardan Amudaryogacha cho'zilgan, Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'd hududini o'z ichiga olgan *qoraxoniylar*; ikkinchisi — Shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan, hozirgi Afg'oniston va Shimoli-Sharqiy Eron viloyatlarini o'z ichiga olgan *G'aznaviylar davlati*. Biroq Nasr ibn Ali Xurosonni bosib olish niyatidan butunlay voz kechmagan edi. 1006-yil va 1008-yillarda qoraxoniylar Xurosonga ikki marta yurish qilganlar. 1006-yildagi yurish chog'ida *Mahmud G'aznaviy* Hindistonda edi. Qoraxoni qo'shinlari Balx, Tus va Nishopurni bosib olganlar. Biroq *Mahmud* Hindistondan qaytib kelib, ularni quvib yuborgan. 1008-yildagi Balx yaqinidagi jangda Mahmud qo'shinida 500 ta fil bor edi. Nasr ibn Ali qo'shini tor-mor etilib, qoraxoniylarning Amudaryoning janubidagi hududlarini egallash yo'lidagi harakatlari shu tarzda to'xtatilgan. Nasr ibn Ali nihoyatda jasur va dovyurak, imon, e'tiqodli shaxs bo'lib, u haqda ko'plab rivoyatlar to'qilgan. *Jamol*

Qarshiyning yozishicha, Nasr ibn Ali buyuk nomdor xoqon, juda ko'p fazilatlar sohibi bo'lgan va hijriy 402-yil (1011-1012)da O'zganda vafot etib, o'sha yerda dafn etilgan.

NIZOMUL MULK (1017, Tus — 1092, Nahovand) — Saljuqiylar davlati arbobi *Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishaq at-Tusi*ning unvoni, "Nizomulmulk", ya'ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. Nishopur va Marvda o'qib, voyaga yetgach, Balxga borib, *Ali ibn Shodon* xizmatiga kiradi. Keyinchalik u *Dovud ibn Mikoilga* dabir bo'ladi. Saljuqiylar shohi *Alp Arslon* saroyida vazirlik mansabigacha ko'tariladi. 1072-yil *Alp Arslon* o'ldirilgach, uning o'g'li, 17 yoshlik *Malikshoh* (1072-92-yillar) saroyida Nizomulmulk vazirlik qilib, qariyb davlatning hamma ishlarini o'zi olib borgan. *Malikshoh* uni o'z homiysi — otabek deb atagan. Nizomulmulk mamlakatda yirik mulkdorlar va qabila boshliqlarining ayirmachilik harakatlariga qarshi kurashib, davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o'tkazgan. 1067-yil Bag'dodda "Nizomiyya" aqoid va huquq madrasasini qurdiradi. 1091 yil "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk") asarini yozadi. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixonalar ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, hatto shohning oilaviy ishlari, soliq va hiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi. Nizomulmulk Bag'dod safari yo'lida yollangan qotil tig'idan halok bo'ladi.

NUH IBN MANSUR, AMIRI RASHID (963 — Buxoro — 997) — *Somoniylar* davlatining amiri (976-97), amir *Mansur ibn Nuh*ning o'g'li. Otasining vafotidan so'ng taxtga o'tirdi (976 yil 26-sentabr). Siyosiy va harbiy sohada islohotlar o'tkazgan. *Muhammad ibn Abdulloh ibn Aziz* vazir, *Abulhasan Simjuriy* sipohsolor (bosh qo'mondon) bo'ldi. Siyosiy jarayonlarda turk lashkarboshilarining mavqei kuchaygan. Nuh ibn Mansurning lashkarboshisi *Foyiq* Raboti Malik yaqinida bo'lgan jangda ataylab yengilgan va qoraxoniylar hukmdori *Bug'roxon* (Horun ibn Muso) Buxoroni urushsiz ishg'ol qilgan (992). Biroq, *Bug'roxon* kasallik tufayli Qashqarga qaytib ketayotganda yo'lida vafot etgan (992). Nuh ibn Mansur Amul (Chorjo'y)dan qaytib, Buxoroni qayta egallagan. Bu paytda Somoniylar davlatiga qarashli Xuroson *Abu Ali Simjuriy* (Abulhasan Simjuriyning o'g'li) va *Foyiq*, G'azna va Hirot viloyatlari *Sabuktegin* qo'lida bo'lgan. Nuh ibn Mansur bilan *Sabuktegin* o'rtasida Kesh va Naxshabda o'zaro uchrashuv bo'lib, unda *Sabuktegin* somoniylarni qo'llab-quvvatlashga va'da bergan. *Gardiziy*ning yozishicha, *Sabuktegin*ning 20 ming kishilik qo'shini *Abu Ali Simjuriy* (997-yil vafot etgan) va *Foyiq* askarlariga O'trot atrofida kuchli zarbalar bergan. Nuh ibn Mansur Buxoroga qaytgan. Biroq uning Somoniylar davlatini tanazzuldan saqlab qolish

yo'lidagi harakatlari o'z natijasini bermadi. Qoraxoniylarning Buxoroga 996-yil qilgan hujumlari oqibatida *Sabuktegin* bilan *Bug'roxon*ning vorisi *Nasr Iloqxon* o'rtasida Nuh ibn Mansurning ishtirokisiz muzokaralar o'tkazilib, somoniylarga Movarounnahrning faqat markazi qoldiriladi. Nuh ibn Mansur saroyida shoir *Daqiqiy* ijod qilgan. Mashhur tabib *Abu Ali ibn Sino* 16 yoshida Nuh ibn Mansurni davolab, o'sha davrda Sharqdagi eng boy kutubxona sanalgan Somoniylar davlatining kutubxonasida mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

NUH IBN NASR, AMIRI HAMID, ABU MUHAMMAD (?-Buxoro — 954) — Somoniylar davlati amiri (943-954), amir *Nasr II ibn Ahmad*ning o'g'li. Otasi 30 yil hukmronlik qilgach, tiriklik paytida taxtni unga topshirgan (943-yil 10-aprel). Buxoro qozisi, fiqh ilmining bilimdoni *Abulfazl Marvaziy* (946-yil vafot etgan) uning vaziri bo'lgan. Nuh ibn Nasr mamlakatda keng yoyilgan qarmatiylar harakatini bartaraf etish choralarini ko'rgan. Movarounnahrda bu harakat rahbari *Muhammad ibn Ahmad Narshabiyni* Buxoroda dorga ostirdi. Biroq Somoniylar davlatining moliyaviy ahvoli og'irlashganligi uchun u soliq va turli turmushlarni ko'paytirishga majbur bo'lgan. Mamlakatda isyon va g'alayonlar kuchaygan. Narshaxiyning yozishicha, hatto uning amakisi *Abu Ishaq Ibrohim ibn Ahmad* Iroqdan kelib, Nishopur amiri *Abu Ali Chag'oniy* yordamida Buxoro taxtni egallab olgan (947). Oradan ko'p o'tmay Nuh ibn Nasr Samarqanddan qaytib, taxtni qaytarib olgach, markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko'targan qarindosh-urug'larini jazolagan, Marvdagi isyonlarni ham bostirgan. Ammo u *Abu Alini* avval Chag'oniyon, so'ngra Xurosonga hokim qilib (952) tayinlashga majbur bo'lgan. Somoniylar davlati inqirozini to'xtatishga harakat qilgan. *Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi"* asari (943-944)ni unga bag'ishlagan. Og'ir kasallikdan so'ng Buxoroda vafot etgan.

NUH IBN ASAD (? — 842) — somoniylardan bo'lgan Samarqand hokimi (819-842). *Tohiriylardan Abdulla ibn Tohir* bilan birga xalifalikdan mustaqil siyosat yurgazishga intilgan, *Istaxriy* va *Ibn O'avqallarning* yozishicha, xalifa *Mu'tasim* (833-842) bundan norozi bo'lib *Abdulla ibn Tohirga* noma yuborib, uni koyigan. *Abdulla* bu xatni Samarqandga jo'natgan. Nuh ibn Asad o'zining javobida Movarounnahrda 300 ming qishloq borligini, har bir qishloq bitta sarboz va bitta navkar berishga qodir ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu bilan u xalifadan qo'rqish kerak emasligi, chunki faqat Movarounnahrning o'zigina 600 ming sarboz va navkardan iborat qo'shin to'play olishini bildirgan. Bu davrda ko'chmanchi turkiy qabilalar Shoshga ko'p hujum qilib turardi. Shosh *Yah'yo ibn Asad* ixtiyorida edi. Uning iltimosiga ko'ra, Nuh ibn Asad 840-yil Isfijobning turkiy qabilalaridan bo'lgan hokimiga qarshi qo'shin tortgan. Bu urush Nuh ibn Asadning g'alabasi bilan tugagan. *Balozuriy*ning yozishicha, bu vaqtda Nuh ibn Asad ekinzorlar, tokzorlar, bog'lar, qishloqlar va shaharlarni ko'chmanchilarning hujumidan saqlaydigan katta mustahkam devor qurishni buyurgan.

NOSIR — abbosiylardan bo'lgan xalifa (1180-1225). Nosir davrida xalifalik bilan saljuqiylar, *xorazmshohlar* o'rtasidagi ziddiyat yanada avj oldi. Saljuqiy sultonlar

Bag‘dodda xutba o‘qilayotgan vaqtda ularning ham nomi qo‘shib o‘qilishi lozimligini xalifalikdan qat‘iy talab qilganlar. Nosir buni qat‘iyan rad etgan. Xorazmshoh *Takash* 1194-yil saljuqiylarni yenggach, ushbu talabni qo‘ygan. Uning o‘g‘li *Muhammad* xorazmshoh ham otasi izidan borgan va 1217-yil qurol kuchi bilan Bag‘dodni olishga harakat etgan, biroq yurish muvaffaqiyatsiz tugagan. *Jaloliddin Manguberdi* ham Nosirga qarshi bo‘lgan. Xalifa Nosirning xalq orasida obro‘si past edi. Xalifa sultonlardan o‘zinigina emas, balki vazirini ham izzatikrom qilishlarini talab etgan. Nosir musulmon olamida xususiy yer mulki yo‘q, chunki barcha yerlar “amiral mo‘minin” (xalifa)ga tegishli deb e‘lon qilgan. Nosir o‘z raqiblari bilan kurashda har qanday vositadan qaytmagan, uning ayg‘oqchilari hamma yerda izg‘ib yurishardi, o‘zi esa kechalari kiyimini o‘zgartirib Bag‘dodni kezardi. U davlat xazinasi uchun yangidan-yangi soliqlar, to‘lovlar o‘ylab topishga mohir edi.

QUTBIDDIN MUHAMMAD (? — 1127) — *anushteginiylar* sulolasidan bo‘lgan Xorazm hukmdori (1097-1127). *Anushteginning* o‘g‘li. Yoshligida Marvda yaxshi ta‘lim olgan, ilmi adab va din ilmlarini o‘rgangan. Otasi vafotidan keyin saljuqiylarning Xurosondagi isyonkor noibi amir *Dodbek Habashiy* tomonidan Xorazm noibi etib tayinlangan va xorazmshoh unvonini olgan (1097). *Anushteginiylar* — xorazmshohlar sulolasining tarixi aslida *Qutbiddin Muhammad*dan boshlanadi. 1100-yil saljuqiylar sultoni *Barqiyoruy* va ukasi *Sanjar Dodbek Habashiy* isyonini bostirganlar. *Sanjar* Xurosonni qo‘lga kiritgach, *Qutbiddin Muhammad*ni Xorazm hokimligi mansabida qoldirib tasdiqlagan. *Qutbiddin Muhammad* sulton *Sanjarga* sadoqat bilan xizmat qilgan, har yili ikki marotaba shaxsan sulton saroyiga borib turgan, *Sanjar* olib borgan janglarda o‘z qo‘shini bilan qatnashib, xiroj, o‘lponlarni o‘z vaqtida to‘lab turgan. *Qutbiddin Muhammad* olimu fuzalolarga homiylik qilgan adolatli hukmdor bo‘lgan. Jurjoniyning tabobatiga oid “*Zahirayi xorazmshohiy*” asari *Qutbiddin Muhammadga* bag‘ishlangan.

QODIRXON YUSUF IBN HORUNBUG‘ROXON IBN MUSO TULKA ELOQ IBN SOTUQ (? — 1032-yil dekabr, Qashqar) — Sharqiy qoraxoniylar davlati xoni. *Utbiy va Ibn al-Asir Qodirxon Yusufni* Xo‘tan hukmdori deb atashadi. Numizmatik ma‘lumotlarga ko‘ra, u 1013-14-yillarda Yorkend, 1014-15-yillarda Qashqarda ham hukmronlik qilgan. 1025-yil *Qodirxon Yusuf va Mahmud G‘aznaviy* bir paytda Movarounnahrda, *Alitegin* ustiga yurish qilishgan. *Gardiziyning* yozishicha, Samarqand yaqinida *Qodirxon Yusuf Mahmud* bilan uchrashgan, o‘rtada bitim tuzilgan. *Qodirxon Yusuf Aliteginning* akasi *To‘g‘onxonni* Bolasog‘undan siqib chiqargan. *Qodirxon Yusufning* mulki 1032-yilga kelib Sharqiy Turkistondan tashqari Yettisuv va Janubiy Qozog‘istonni qamrab olgan. Poytaxt Qashqar shahri bo‘lgan. Uning vafotidan keyin Sharqiy Turkiston va Yettisuv katta o‘g‘li *Bug‘rotegin Sulaymonga* tekkan, u Arslonxon unvonini olgan. Talas (Avliyoota) va Isfijob (Sayram) *Qodirxon Yusufning* ikkinchi o‘g‘li *Yagantegin Muhammadga* tekkan. U *Bug‘roxon* unvoni bilan xonlik qilgan.

SULTONSHOH XORAZMSHOH, SULTONSHOH MAHMUD, JALOLIDDIN MAHMUD SULTONSHOH (? — 1193-yil, 19-sentyabr) — *Anushteginiylar* sulolasidan bo‘lgan *Xorazmshohlar davlati* shahzodasi (1172-93-yillar). *Elarston va Turkon xotuning* kenja o‘g‘li. Sultonshohning akasi *Takash* Jand viloyatida voliy bo‘lib turgani uchun otasi o‘limi oldidan Sultonshohni valiahd etib tayinlagan. Ammo, davlat va harbiy ishlarga uning onasi *Turkon xotun* bosh bo‘lgan. *Takash* Sultonshohga bo‘ysunishdan bosh tortgan, u *qoraxitoylar* yordamida Gurganjga qo‘shin tortgan. Sultonshoh onasi bilan Nishopurga qochib borib, *Muayyid ad-davla Oy-Abo* huzuridan panoh topgan. 1172-yil 11 dekabrda *Takash* rasman Xorazm taxtiga o‘tirgan, biroq Sultonshoh bilan *Takash* o‘rtasidagi kurash yana 20 yil davom etgan. Sultonshoh Xurosondagi bir qancha viloyat, shaharlarni egallab, Marv shahrini o‘ziga qarorgoh qilgan. U *Takashga* qarshi kurashda goh qoraxitoylardan, goh quriylardan ko‘mak olib turgan.

SABUKTEGIN, SABUQTAKIN, ABU MANSUR NOSIRUDDIN VAD-DAVLA SABUKTAKIN (940, Issiqko‘l atrofidagi Barsxon sh. — 997, Balx) — davlat arbobi va sarkarda, *g‘aznaviylar sulolasi* va *G‘aznaviylar davlati* asoschisi. Sabuktagin asli qarluq turklaridan bo‘lib, uning otasini *Qora Bajkam* (turkcha Qora Ho‘kiz; asl ismi Juk) deyishgan. O‘zaro urushlarning birida o‘smir Sabuktagin asir tushgan. Tarixchi *Bayhaqiyning* yozishicha, Nasr hoji nomli quljallob tomonidan u Buxoro bozoridan sotib olinib, Juzjon (G‘uzg‘onon)ga olib kelingan hamda Nishopurda *somoniylarning* G‘aznadagi noibi *Alpteginga* sotib yuborilgan. Sabuktagin dovyurakligi va jasurligi bois *Alptegin* huzurida mavqei tez oshib, uning qiziga uylangan (bu nikohdan uning valiahdi *Ismoil* tug‘ilgan. Zobuliston hokimining qizi bo‘lgan xotinidan esa *Mahmud* dunyoga kelgan). Hindistonga qilingan bir qancha yurishlarda faol qatnashgan. Oddiy g‘ulomlikdan *sipohsolor* darajasiga ko‘tarilgan. *Alptegin* vafot etgach (963), Somoniylarning G‘aznadagi noiblari huzurida xizmat qilgan. Qo‘shinning talabiga ko‘ra, G‘azna viloyati amiri bo‘lgan (977-yil birinchi mart). Bu davrda G‘azna viloyatiga Bust, Gardiz, Parvon, Kobul, Zamindovar, Kusdar, Bomiyon, Toxariston, Hirot va G‘ur viloyatlari qo‘shib olingan. Shimoliy Hindistonga g‘aznaviylarning ilk yurishlarini boshlab, hind rojasi *Jaylalni* mag‘lubiyatga uchratgan. Peshovar va Lamg‘on o‘rtasidagi hudud fath etilgan. Oradan ko‘p o‘tmay G‘azna viloyati somoniylardan ajralib chiqib, mustaqil davlat (poytaxti — G‘azna shahri)ga aylangan. Sabuktagin bilan somoniylar amiri *Nuh ibn Mansur* o‘rtasida Kesh va Naxshabda o‘zaro uchrashuv bo‘lib, unda Sabuktagin somoniylarni qo‘llab-quvvatlashga va‘da bergan. *Gardiziyning* yozishicha, Sabuktaginning 20 ming kishilik qo‘shini somoniylarning Xurosondagi noibi isyonkor *Abu Ali Simjuriy* (Abulhasan Simjuriyning o‘g‘li) va *Foyiq* askarlariga Hirot atrofida kuchli zarba bergan (994). 994-yil Sabuktagin qo‘shini Hindistonda ham g‘alabalarga erishgan va mahalliy aholining bir qismi islom dinini qabul qilgan. O‘sha yili Abivardda xorazmshoh *Abu Ali Ma‘mun I* (992-997) qo‘shini ustidan ham zafarga erishgan. Bu g‘alabalar uchun

abbosiylar xalifasi al-Qodir Sabuktaginga “*Nosiruddin vad-davla*” (“*Din va davlat himoyachisi*”), uning o‘g‘li *Mahmud G‘aznaviyga* “*Sayfud-davla*” (“*Davlat qilichi*”) faxriy unvonlarini bergan (994-yil noyabr). Hirot yaqinida *Abu Ali Simjuriy* va *Foyiqqa* Sabuktaging o‘g‘li *Mahmud* bilan birgalikda so‘nggi zarbani bergan (995-yil 21 iyul). Bu jangda dushmanning xazinasi va fillar o‘lja olingan, nomdor lashkarboshilar asir tushishgan. Xorazmga qochib ketgan *Abu Ali Simjuriy* o‘zining 3 safdoshi bilan keyinchalik Sabuktaging tomonidan o‘ldirilgan. Movarounnahrqa qoraxoniylar hujumi boshlangach (996), Sabuktaging o‘g‘li *Mahmud* va birodari *Bo‘g‘rochiq* boshchiligida Buxoroga 20 ming kishilik qo‘shin jo‘natgan. Ular bilan qoraxoniylar Bug‘roxonning vorisi *Nasr Iloqxon* o‘rtasida somoniylar amirining ishtirokisiz shartnoma tuzilib, somoniylarga Movarounnahr markazi qoldirilgan va Amudaryoning janubiy qismi — butun Xuroson hududida g‘aznaviylarning hukmronligi tan olingan. Sabuktaging hukmronlik davrida poytaxt G‘azna shahri yirik siyosiy va madaniy markazga aylangan. G‘aznaga borayotganda (Balx yaqinida) vafot etgan va G‘azna atrofidagi Afg‘on cho‘lida dafn etilgan. Qabri ustiga maqbara qurilgan (XI asr). *Bayhaqiqiy* o‘zining “*Tarixi Mas‘udiy*” nomli asarida Sabuktagingni aqlli va adolatli, andishali hukmdor sifatida ko‘rsatib, unga yuqori baho bergan.

SALJUQ, SALJUQBEEK IBN DO‘KAK (taxm. IX asr oxiri — X asr oxiri, Jand) — harbiy sarkarda, *saljuqiylar* sulolasi bobokaloni; o‘g‘uzlarning qiniq urug‘idan. Otasi amir Do‘kak (turkcha To‘kak — temir o‘q) xazarlar xoqoni harbiy xizmatida bo‘lgan. Saljuq yoshligidan jasur sarkarda bo‘lgan. *Rashiduddin*ning yozishicha, Saljuqning 5 ta o‘g‘li: *Isroil* (Arslon yabg‘u), *Mikoil*, *Muso* yabg‘u, *Yusuf* va *Yunus* bo‘lgan. Saljuq o‘g‘illari va o‘ziga tobe urug‘doshlari (jami 100 jangchi) bilan 1500 tuya, 50000 qo‘y va ko‘plab otlarni olib, Jand atroflariga ko‘chib o‘tgan (985) va chorvadorlik bilan shug‘ullangan. 992-yilda Jand hukmdori bilan ittifoq tuzib, o‘z urug‘doshlari bilan birgalikda islom dinini qabul qilgan va o‘g‘uz yabg‘ulariga qarshi kurashgan. Chorvadorlar o‘rtasida islom dinini tarqatganligi uchun Saljuqqa “*Malik al-G‘oziy*” unvoni berilgan. U Yangikent va Jand atroflarini Ali yabg‘u hukmronligidan xalos qilib, o‘z hokimiyatini o‘rnatgan. *Ibn al-Asir*ning yozishicha, Saljuq 107 (ba‘zi manbalarda 100) yoshga kirib vafot etgan. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘illari: *Mikoil*, *Muso*, *Arslon* (Isroil) kabi amirlar boshchiligidagi saljuqiylar somoniylarning ijozati bilan Zarafshon vodiysidagi Nuri Buxoro (Nurota) atroflarida ko‘chib yurganlar (X asr oxirlari). *Gardiziy* (XI asr) o‘z asarida so‘nggi somoniy *Muntasir*ning qoraxoniylardan *Nasr Ilekxon*ga qarshi olib borgan kurashiga 1003-04-yillarda saljuqiylar yordam berganligini ta‘kidlaydi. Saljuq avlodlari — Mikoilning o‘g‘illari: *To‘g‘rulkbek* va *Chag‘ribek* XI asr 30-yillarida saljuqlar — o‘g‘uzlarning harakatiga boshchilik qilib, *Saljuqiylar davlatini* tuzishgan.

SANJAR, SULTON SANJAR, SULTON MUIZ AD-DUNYO VAD-DIN ABUL XORIS SANJAR IBN MALIKSHOH (1086YIL OLTINCHINOYABR, JAZIRA VILOYATI SANJAR SHAHRI — 1157-yil, 26-aprel,

Marv) — *Saljuqiylar davlati* sultoni (1118-57). *Malikshoh*ning kenja o‘g‘li. Akasi sulton *G‘iyosiddin Muhammad* vafoti (1118-yil)dan so‘ng taxtga o‘tirgan. Sanjar Saljuqiylar davlatining sharqiy qismi tarkibiga dastlab Mozandaron, Tabariston, Seyiston, Kumis, Ray va Damg‘onni qo‘shib olgan va poytaxtni Marvga ko‘chirgan. Movarounnahr va Xorazmni ham o‘z saltanatiga birlashtirgan. Sanjarning qudrati avjiga chiqqan vaqtlarda G‘arbiy saljuqiylar sultonligi (G‘arbiy Eron, Iroq, Ozarbayjon) va *Qoraxoniylar davlati* uning siyosiy ta‘siri ostida bo‘lgan. Sanjarning nomi Qashqardan Yamangacha, G‘aznadan Ummongacha, Kavkaz va Anatoliyadan Makka va Madinagacha xutbaga qo‘shib o‘qilgan. XII asrning 40-yillaridan boshlab Sanjarning kuch-qudrati zaiflasha boshlagan. 1141-yilda Movarounnahrqa sharqdan *qoraxitoylarning* bostirib kirishi bilan Sanjarning ham kuchi qirqilgan. *Qatvon jangida* saljuqiylar va qoraxoniylar Sanjar boshchiligida o‘zaro birlashib qoraxitoylar va qarluqlarga qarshi kurashsalar-da, jiddiy mag‘lubiyatga uchrashgan. Jang maydonidan atigi 6 ta otlig bilan zo‘rg‘a qochib qutulgan. Marvga yetib borgan. Sanjar Movarounnahrda ajralgan. Balx va Xuttalon atroflarida ko‘chib yuruvchi g‘uzlar Sanjarga navbatdagi jiddiy zarbani berishgan. Aslida bu mag‘lubiyatga Sanjarning ochko‘z amirlari va lashkarboshilari sabab bo‘lgan. Balx hokimi amir — sipohsolor *Ko‘mach* 10 ming kishilik qo‘shin bilan soliqlarning ko‘payganligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan g‘uzlarga qarshi yurish qilib, mag‘lubiyatga uchraydi. Amir *Ko‘mach* va uning tarafdorlari Sanjarni g‘uzlarga qarshi yurish qilishga ko‘ndirishgan. 100 ming kishilik ulkan lashkar to‘plagan Sanjar g‘uzlarning uzri va tovon tariqasida 50 ming ot va tuya, 200 ming qo‘y, 200 din or va bir yillik xiroj to‘lash taklifiga rozi bo‘layotganda, urushqoq amirlar jang boshlashni talab qilganlar. Balx atrofiga bo‘lgan katta jangda sulton Sanjar lashkarlari mag‘lubiyatga uchrab (jangda amir *Ko‘mach* ham halok bo‘ladi), uning o‘zi asirga olingan (1153-yil iyul). G‘uzlar Xurosonni egallab, Marv, Nishopur, Mashhad, Tus va boshqa shaharlarni talashgan. Biroq g‘uzlar Sanjarga katta izzat-hurmat ko‘rsatib, uni Balxda sulton sifatida faxriy tutqunlikda ushlab turishgan. *Juvayniy*ning yozishicha, Termiz hukmdori *Ahmad ibn Abu Bakr* (amir *Ko‘mach*ning nevarasi) ming kishilik maxsus chavandozlar guruhini jo‘natib, Sanjarni g‘uzlar qo‘lidagi qutqargan va Termizga olib kelgan (1156-yil oktabr). Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning asosiy qismi qo‘ldan ketganligini ko‘rgan Sanjar avvalgi qudratini tiklashga behuda uringan. 1156-yil noyabrda u Termizdan Marvga kelgan va poytaxt yaqinidagi Andarobod qal‘asida yashagan. Sanjar saroyida o‘z davrining mashhur shoir va ulamolari to‘plangan. Sanjar Marv va boshqa shaharlarda ko‘plab me‘moriy obidalar qurdirgan. Sanjar xastalanib, vafot etgan. Qabri ustiga maqbara qurilgan.

TALXA — Xuroson va Movarounnahr hokimi (822-830). Xuroson va Movarounnahr noibi *Tohir ibn Husayn*ning o‘g‘li.

TAYANG‘U — Qoraxitoylar qo‘shinining qo‘mondoni. 1210-yilda qoraxitoylar rahbari *Go‘rxon*ning O‘zgendagi xazinasi nayan sardori *Kuchluk* va qarluqlarning birlashgan qo‘shini tomonidan qo‘lga kiritilganidan so‘ng,

Xorazmshoh Samarqand hukmdori *Usmon ibn Ibrohim* bilan birlashib, Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talos vodiysida *Go'rxon* qo'shinlari bilan to'qnashadilar. Jangda Xorazm askarlari ko'p talofat bergan bo'lsa-da, ikki tomondan zarbaga uchragan *Go'rxon* askarlari yengilib, Tayang'u asirga olinadi.

TOHIR IBN HUSAYN (775/776-822) — Tohiriylar davlati va sulolasi asoschisi (821-822), Hirot viloyati zodagonlaridan. Arab xalifaligiga qarshi Movarounnahrda ko'tarilgan *Rofe ibn Lays* qo'zg'olonini bostirishda qatnashgan. *Horun ar-Rashid* vafotidan keyin xalifalik taxtiga egalik qilish uchun boshlangan kurashlarda *Ma'mun* qo'shini qo'mondoni. 813-yilda Tohir bilan Xuroson, Movarounnahr mulkdorlari birgalikda Ma'munga yordam berish uchun Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Ma'mun xalifalik taxtiga o'tqiziladi. Buning evaziga Tohir yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Ma'mun xalifaligi davrida Jazira (Mesopotamiya) noibi va Bag'dod harbiy garnizoni boshlig'i (sohib ash-shurat). 821 yili Xuroson va Movarounnahrda noib qilib tayinlangan. Xurosonni xalifalikdan ajratib olish maqsadida abbosiylarga bo'ysunishdan bosh tortgan. *Ma'mun* yuborgan fitnachilar tomonidan zaharlab o'ldirilgan.

TOJIDDIN — O'tror hokimi. 1210-yil Xorazmshohlar davlatiga qarshi bo'lib o'tgan isyon rahbari. Xorazmshohlarning harbiy yurishlari, talonchilikdan iborat soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g'oyat og'irlashib, xalq xo'jaligini yanada zaiflashtirdi. Bu shahar va qishloq mehnatkashlarining xorazmshohlarga qarshi noroziligini oshirdi.

TAKASH ALOUDDIN MUHAMMAD XORAZM-SHOH (TO'LIQ ISMI ALOUDDIN TAKASH IBN ELARSLON IBN OTSIZ IBN ANUSHTEGIN) (taxm. 115-1200-yil 3-iyul) — *anushteginiylar* sulolasidan bo'lgan *Xorazmshohlar davlatining* hukmdori (1172-1200-yillar). Takash otasi Elarslon vafoti arafasida Jand viloyati voliyi bo'lib turgan. Shuning uchun Elarslon kenja o'g'li *Sultonshoh*ni valiahd qilib tayinlaydi va *Sultonshoh* taxtga o'tirgan (1172-yil). Takash *Sultonshoh*ni tan olmasligini aytgach, *Sultonshoh* unga qarshi onasi maslahati bilan qo'shin jo'natgan. Takash esa qoraxitoylar malikasi *Chen Tiyon* (1164-1177-yillar)ga har yili o'lpon to'lab turishi haqida va'da berib, o'gay ukasi *Sultonshoh* bilan kurashish uchun harbiy yordam so'ragan va undan olgan qo'shin bilan Gurganch (Ko'hna Urganch)ga yurish qilgan. *Sultonshoh* va onasi *Turkon xotun* Xurosonga qochgan. Gurganchni qo'lga kiritgach, Takash 1172-yil 11 dekabrda xalqning madadi bilan rasman Xorazm taxtiga o'tirgan. Lekin, ukasi bilan Xorazm taxti uchun yana 20 yil kurash olib borishga majbur bo'lgan. *Sultonshoh* vafotidan so'ng Xurosonning Toliqon — Marvirud — Hirot yo'nalishidagi yerlar Takashga o'tgan. U o'g'li *Nosiruddin Malikshoh*ni Marvga, boshqa o'g'li *Qutbiddin Muhammad II* ni Nishopurga voliy qilib tayinlagan. Shundan so'ng Takash Sharqiy Eronga o'z ta'sirini o'tkazish bilan birga, G'arbiy Eron ishlariga ham aralasha boshlagan. Takash *Sultonshoh*ga qarshi kurashayotgan vaqtida (1172-1193-yillar) g'uriylar, saljuqiylar va abbosiy xalifalar, hatto ba'zan

qoraxitoylar bilan ham yaxshi munosabatlarni saqlab ular bilan do'stona maktublar yozishib turgan (bu maktublar mazmuni saqlanib qolgan). 1192-93-yillarda saljuqiylar sultoni *To'g'ul III* Takash bilan yaxshi munosabatni saqlash uchun uning o'g'li *Yunusxonga* o'z qizini bergan va sulh shartnomasini tuzgan, bunga ko'ra Ray xorazmshoh mulki deb tan olingan. Lekin, *To'g'ul III* shartnomani buzgan. *To'g'ul III* ga xalifa *an-Nosir* ham qarshi bo'lib, u Takashga maktub yozib *To'g'ul III* ga qarshi kurashda yordam so'ragan. Takash 1194-yil 4-martdagi jangda *To'g'ul III* qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, unga qaram yerlarni o'z tasarrufiga qo'shib olgan, lekin, xalifaga o'ljadan hech narsa tegmagan. Bu ular o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga olib kelgan. *To'g'ul III* vafot etgach, Eron va Iroqi Ajam yerlari Xorazmga o'tadi, saljuqiylar sulolasi barham topadi. Takash o'sha yildan e'tiboran "sulton" unvonini qo'llay boshlaydi. Takash 1195-yilda Kirmonni o'ziga bo'ysundirgan. Umrining oxirgi yillarida *ismoiliylar* bilan muvaffaqiyatli kurash olib borgan. 1200-yil xalifa bilan munosabati yana yomonlashgan Takash Bag'dodga yurish qilgan, lekin yarim yo'lda Nishopur va Xorazm oralig'idagi Shahriston shahrida vafot etgan. Takashning jasadini Gurganchga keltirilib o'zi qurdirgan katta madrasa qoshidagi maqbaraga dafn qilingan. O'rta asr mualliflarining yozishicha, Takash adolatparvar, iqtidorli, buyuk diplomat va lashkarchi bo'lgan. Takash musiqani sevgan, udni juda yaxshi chalgan, hozirjavob bo'lishi bilan birga siyosiy ahvolni to'g'ri baholab, harbiy kuchdan to'g'ri foydalana olgan. Takash qipchoq xoni *Jonkishining* qizi *Turkon xotunga* uylangan. Uning bilan birga kelgan qipchoqlar keyinchalik mamlakat tanazzuliga sabab bo'lgan. Takash davrida Xorazmshohlar davlati kuchaygan. U o'g'li *Qutbiddin Muhammad*ga markazlashgan mustahkam davlat va tashkiliy jihatdan qudratli qo'shinni meros qoldirgan.

USMON IBN IBROHIM — Samarqand hokimi. 1210-yilda Xorazmshoh bilan birlashib, Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talos vodiysida *Go'rxon* qo'shinlari bilan to'qnashadilar. Jangda Xorazm askarlari ko'p talofat bergan bo'lsada, ikki tomondan zarbaga uchragan *Go'rxon* askarlari yengiladi. Qoraxitoylar qo'shinining qo'mondoni *Tayang'u* asirga olinadi. Usmon 1212-yil Xorazmshohlar davlatiga qarshi qo'zg'olon qatnashchilaridan biri. *Muhammad Xorazmshoh* qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostiradi. Samarqand uch kun talanib, Usmon qatl etiladi va aholisi qattiq jazolanadi. O'sha davr tarixchisi *Juvayniyning* yozishicha, o'sha kunlarda Samarqandda 10 ming kishi o'ldirilgan edi.

XORUNAR-RASHID — Arab xalifasi (786-809). Uning vafotidan so'ng uning o'g'illari *Ma'mun* bilan *Amin* o'rtasida 809-813-yillarda taxt uchun kurash bo'lib o'tadi.

YA'QUB IBN LAYS AS-SAFFOR (? — 879) — *Safforiylar* sulolasi va davlati asoschisi. Seyistondagi Karnin qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligida Zaranj shahriga kelib, misgarga shogird tushgan (saffor laqabi shundan), *Gardiziyning* yozishicha, Ya'qub ibn Lays dastlab miskar, so'ng ukasi *Amir ibn Lays* bilan yo'l to'sar qaroqchi bo'lgan. Keyinchalik Bust shahrining sarhanggi, xaylboshi (harbiy otryad boshlig'i), nihoyat — Seyiston amiri bo'lgan

(861-yil 22-mart). *Xorijiylarga qarshi kurashda faol qatnashgan. Ya'qub ibn Lays Xurosonga egalik qilish uchun tohiriylar bilan kurash olib borgan. Hirot va Bushang (867-yil), Kermon va Fors viloyatini (869-yil), Kobul va Bomiyon (870-yil)ni bosib oladi. 871-yil xalifa unga Toxaristondagi Balxni in'om etadi. 873-yil avgustda Nishopurni egallab Tohiriylar davlatiga barham bergan. Arab xalifasi Xuroson noibligini unga topshirishga majbur bo'lgan. 876 yil Ya'qub ibn Lays katta qo'shin bilan Bag'dodga yurish qilgan, biroq xalifa qo'shinidan yengilib orqaga qaytgan. Uning vafotidan so'ng taxtga ukasi *Amr ibn Lays* o'tirgan.*

YAHYO IBN ASAD — Somonxudotning nabirasi. U Ma'munning xalifalik taxtiga o'tirishiga katta yordam bergan. Bunga javoban *Ma'mun* uni 819-yilda Shosh va Ustrushona viloyatlariga noib etib tayinlaydi.

YOQUB IBN AHMAD — Somoniylar hukmdori *Nasrning* ukasi, *Ahmadning* o'g'li, Shosh viloyatining noibi. U o'zboshimchalik qilib chaqa pul zarb etadi.

OTSIZ XORAZMSHOH (TO'LIQ ISMI OTSIZ IBN QUTBIDDIN MUHAMMAD IBN ANUSHTEGIN) (1097-1156) — *anushteginiylar* sulolasidan bo'lgan Xorazm hukmdori (1128-56). Otasi vafotidan so'ng taxtga o'tirgan, *saljuqiylar* sultoni *Sanjarning* vassali bo'lgan. Lekin u Xorazmni mustaqil davlatga aylantirishga intilgan. Otsiz *Sanjarning* ruxsatisiz avvalo Jand va Mang'ishloqni egallab va Turkistonning ichkari tumanlariga yurish qilish bilan o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan. Shundan so'ng u o'zini mustaqil deb e'lon qilgan, biroq 1138-yilda Hazorasp yaqinida *Sanjar* qo'shini tomonidan mag'lubiyatga uchrab, mamlakatdan quvg'in qilingan. *Sanjar* o'zining jiyani *Sulaymon bin Muhammadni* xorazmshoh etib tayinlagan, lekin kelasi yili Otsizni Xorazm aholisi chaqirib olgan, shahzoda esa quvib yuborilgan. 1141-yil mayda Otsiz *Sanjarga* tobelik izhor etib, umrbod unga sadoqat bilan xizmat qilishga qasam ichgan, lekin bir necha oydan so'ng *Sanjar* qoraxitoylardan yengilgach (1141-yil 9-sentabr), qasamini buzgan. Otsiz o'sha yili kuzida kuchli qo'shin bilan Xurosonga yurib Marvni egallab olgan; kelasi yil bahorida Nishopurni tobe etgan, biroq *Sanjar* tomonidan darhol quvib yuborilgan. 1143-44-yillarda *Sanjar* yana Xorazmga yurish qilgan, Otsiz kuchi ozligi tufayli unga tobelik izhor qilgan. Shundan so'ng bir oz vaqt o'tgach, Otsiz uchinchi marta isyon ko'targan va *Sanjarning* elchisini (shoir *Adib Sobir*) Amudaryoga tashlab yuborishni amr qilgan. 1147-yil noyabrda *Sanjar* uchinchi marta Xorazmga yurish uyushtirgan, ikki oylik qamaldan so'ng Hazorasp shahrini olgan va Gurganjga yaqinlashgan, 1148-yil iyunda sulton bilan shaxsan uchrashuv chog'ida garchand o'zini takabburona, gerdaygan holda tutgan bo'lsa-da, Otsiz sultonga tobelik bildirgach, o'z lavozimida qoldirilgan. 1153-yil *Sanjar* o'g'uzlar qo'liga asir tushib qolgan. Otsiz bu safar sultonning sodiq xizmatkori va himoyachisi sifatida yana Xurosonga yurish qilishga shaylangan va o'ziga Amul shahrini berishni talab qilgan, biroq rad javobini olgan. 1156-yil u Nisoga kelib asirlikdan qochgan *Sanjarga* o'z sadoqatini bildirgan, lekin shu yilning 30-iyulida Habushon (hozirgi Kuchan)da 59 yoshida vafot etgan. Otsiz Kaspiy

dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda, keyinchalik buyuk davlat sifatida shuhrat topgan Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.

OLTINTOSH, OLTUNTOSH AL-HOJIB (asl ismi Abu Sa'id) (? — 1032) — turk g'ulomlaridan, keyinchalik g'aznaviylardan *Sabuktegin* va uning ikki vorisining lashkarboshisi. *Sabuktegin* davridayoq u hukmdor gvardiyasidagi eng yuqori martaba — "*ulug' hojib*" unvoniga ega bo'lgan; *Mahmud G'aznaviy* davrida qoraxoniylar bilan bo'lgan katta jangda (1008-yil birinchi yanvar) Oltinshoh qo'shinining o'ng qanotiga qo'mondonlik qilgan; 1000-1011 yillar u Hirot noibi sifatida manbalarda qayd etilgan. Xorazm zabt etilgach (1017), Oltinshoh xorazmshoh unvoni bilan ushbu viloyatga noib etib tayinlangan, u bu lavozimni vafot etguniga qadar egallab turgan. Oltinshoh chegara viloyati bo'lgan Xorazmni ehtiyotkorona idora etgan va o'zini qo'shni turkiy qabilalardan muvaffaqiyatli suratda mudofaa qilgan, bu bilan u Xorazmdagi o'z hokimiyatini yanada mustahkamlagan. *Mahmud* va *Mas'ud G'aznaviylar* Oltinshohning bu harakatlariga shubha bilan qarashgan, ular hiyla bilan Oltinshohni daf etish yo'liga o'tishgan. 1032-yil bahorida Oltinshoh sulton *Mas'ud* topshirig'iga ko'ra, *Aliteginga* qarshi otlangan va Dabusiya yaqinidagi jangda og'ir jarohatlanib vafot etgan. Noiblik uning o'g'li *Horunga* topshirilgan, xorazmshoh unvoni *Mas'udning* o'g'li *Sa'idga* berilgan, *Horun* mamlakatni faqat shahzodaning vakili sifatidagina boshqara olishi mumkin bo'lgan. Biroq 1034-yilning avgustida *Horun* o'zini mustaqil deb e'lon qilgan, ammo kelasi yili g'aznaviylar ko'rsatmasiga ko'ra, o'ldirilgan; uning birodari va vorisi *Ismoil Xandon* Xorazmni 1041-yilgacha idora qilgan, so'ngra g'aznaviylar topshirig'iga ko'ra, Jand hokimi *Shoh Malik* tomonidan quvib yuborilgan. Shu bilan Oltinshoh tomonidan asos solingan sulola barham topgan.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

AKKOR — koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.

AMID UL-MULK — davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri, devon.

AMIR (arabcha — amr qiluvchi, boshliq, hokim) — lashkarboshi, hokim, bek. Arab xalifaligining dastlabki xalifalari va Ummaviylar davrida alohida qo'shin qo'mondonlari amir deb atalib, ular odatda zabt etilgan viloyatlarga noib etib tayinlanganlar. Xalifalarga *Umar ibn al-Xattobdan* boshlab "*Amir al-mo'minin*" ("Mo'minlar amiri") unvoni berilgan. Abbosiylar davrida amir odatda xalifalarning oliy hukmdor ekanligini tan olgan hokimlar, shuningdek xalifalikka nomigagina qaram bo'lgan sobiq noiblar yohud qurol kuchi bilan o'zlari davlat barpo etgan mustaqil hokimlar (safforiylar, g'aznaviylar, buyayhiylar); ularni X asrda sultonlar deb ham atay boshlashgan. X asr oxiri — XI asr boshida amir deb turli tabaqaga mansub hokimlar va lashkarboshilar atalgan. O'rta asrlarda Movarounnahr xonliklarida Amir ul-umaro, Amiri shikor mansablari mavjud bo'lgan. Oltin O'rda, so'ngra Movarounnahr va Eronda mo'g'ullar istilosidan so'ng amir deb uluslar boshliqlari atalgan (bek yoki no'yon

ma'nosida). Bu unvonni *Amir Temur* ham olgan; temuriylar sulolasiga mansub shahzodalar Amirzoda (amir o'g'li) deb atalib, mirzo uning qisqartirilgan shaklidir. Bo'linma boshliqlari — amirlar janglarda bahodirlik ko'rsatib, g'alaba qozonsa *Amir Temur* tomonidan in'omlar belgilab qo'yilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo'shinni yengsa, mamlakat yoki viloyat zabt etsa u tug', nog'ora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Amirlar Temurga tobe bo'lgan qirq aymoq (qabila)dan o'n ikkitasi: barlos, arg'in, jaloir, tulki, duldoy, mo'g'ul, sulduz, to'g'oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan saylab olingan. Amirlik martabasi Temur faoliyatining dastlabki yillarida unga sodiq bo'lgan 313 nafar kishiga berilgan. Bulardan bittasi — amir ul-umaro, to'rtasi — beglar begi, yuztadan — mingboshi, yuzboshi va o'nboshi bo'lgan. Bulardan tashqari, yana o'n ikki nafar kishiga birinchidan to o'n ikkinchi darajali amirlik unvonlari berilgan. O'n ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noibi hisoblangan. O'n ikki amirning har biriga bittadan bayroq va nog'ora, amir ul-umaroga bir bayroq, nog'ora, o'n minglik qo'shin, tug' va chortug', to'rt nafar beklarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u (karnay) berilgan.

AMIR UL-UMARO — amirlar amiri, bosh sarkarda.

ARIZ — Somoniylar davlatida harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan shug'ullangan maxsus mahkama.

ARSLONXON — qadimgi turkiy xalqlar xonlarining faxriy unvoni. Bu oliy daraja buyuk hukmdor ma'nosini anglatgan. Aslida "arslon" jikil qabilasining totemi — ajdodi ibtidosi hisoblangan. Buyuklik yoki ulug'lik esa qadimda turkiy xalqlarda "qora" so'zi bilan sifatlangan. Shu boisdan taxtga o'tirgan arslonxon yoki bug'roxonlar "qoraxon", ya'ni ulug'xon hisoblangan.

AHVOLI ZOHIRA — vaziyat.

BARZIKOR — IX-X asrlarda yollanib qo'shchilik qilgan, qo'shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.

BARZIKOR-QO'SHCHI — yerlarni ijaraga olib, mehnat qiluvchi qishloqning mehnatkash aholisi.

BARID — kirim.

BUG'ROLAR — Qoraxoniylar xoqonligining g'arbiy qismi (Yettisuv, Qashqar va Janubiy Qozog'iston)ni xoqon nomidan idora qilgan sulola xonlarining unvoni (X-XI asrlar). Uning yirik vakillari *Abdulkarim Sotug' Bug'roxon* va uning nabirasi *Horun ibn Muso* davrida Yettisuv va Qashqardagi ko'pchilik turkiy xalqlar islom dinini qabul qilganlar. "Bug'ra" aslida yag'molarning totemi bo'lgan. U og'ir yuk ko'taradigan bichilgan tuya ma'nosini anglatgan.

DAPIRPAT — kotib, elchi, sarkotib.

DARGOH, dargah — 1) bo'sag'a, ostona, uy va hovli-joy, makon; 2) o'rda, qasr, saroy.

DARVOZAI MANSUR — Buxoro shahridagi mahalla, ilk madrasa shu yerda joylashgan.

DEVON — vazirlar mahkamasi.

DEVONI VAZIR (kalon) — Somoniylar davlati va Buxoro xonligida daftar yozuvlarini nazorat qiluvchi va boshqa devonlar ishini boshqaruvchi devon. Viloyatlar, xiroj, tanho, mulk yerlaridan tushumlar daftari shu devoni vazirda saqlangan.

DING — karvon yo'llarida maxsus qurilgan minorasimon

qorovulxona. Ichida istiqomat xonalari, tepasida kuzatish qafasi bo'lgan. Ular orqali favqulodda xabar (yov bosqini, suv toshqini kabi) lar tezlik bilan mamlakat markaziga yetkazilgan.

ELOQXON — Qoraxoniylar davlatida el-yurt hokimi. Eloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa-tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edi. Movarounnahr eloqxoni qoraxoniylar eloqxonlari orasida katta obro'ga ega edi. U, odatda, Samarqandda taxtga o'tiradi. Viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek vazirlar, sohibbaridlar, mustavfiylar xizmat qilardi.

ETNOGENEZ — xalqlarning nasl-nasabi, kelib chiqishi.

ERKIN — qo'shinning g'arbiy qanot amiri.

GO'RXON — Qoraxitoylar davlatining hukmdori.

HOJIB — harbiy boshliq. Unga yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar muyassar bo'lishgan.

HOJIBUL BUZRUK — hojib lavozimiga ega bo'lgan sarbozlar boshlig'i.

HOJIBUL HUJOB — hojib lavozimiga ega bo'lgan sarbozlar boshlig'i.

IMOM (arabcha — oldinda turuvchi) — namozda oldinda turuvchi, g'oyaviy rahbar, musulmon jamoasi boshlig'i. Kundalik hayotda masjidida jamoa namozining rahbarini imom deb ataydilar. Imom vazifalarini ayni bir odam bajarishi mumkin, ammo, imom mansab ham, kasb ham hisoblanmaydi: u haqiqatda namozni boshqarib turganligi uchungina imom deb e'tirof etiladi. Mahalla va qishloq masjidlarida, odatda, diniy ma'lumoti bor odam imom hisoblanadi. Jome' masjidlarining imomi maxsus diniy ma'lumotga ega va dindorlar o'rtasida obro' qozongan bo'lishi kerak. Namozda kimlar imom bo'lishiga haqliroq ekani fiqh kitoblarida bayon etiladi.

IQTO, IQTO', IQTA (arabcha) — Movarounnahr, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida o'rta asrlarda hukmdor tomonidan katta xizmatlari evaziga in'om qilingan yer. Iqto egasi iqtodod deb atalgan. Iqto haqida dastlabki ma'lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manbalarida uchraydi. Hukmdor iqtodoni istagan vaqtda qaytarib olib boshqa kishiga tortiq qilishi ham mumkin bo'lgan. IX asrda xalifa tomonidan amirga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham iqto deb atala boshlangan. *Abu Abdullo Xorazmiy* iqtodning kelib chiqishini izohlab, "*Mafotiz ul-ulum*" ("Ilmlarning kalitlari") asarida bunday yozadi; "Sulton tomonidan biror kishiga tortiq qilib berilgan yer iqto deb ataladi va uning mulki bo'lib qoladi". Iqto yerlari davlat mulki hisoblangan. X asrdan boshlab xususiy mulkka aylana boshlagan. Amir o'zi hukmronlik qilayotgan ushbu viloyatlar solig'ini butunlay yoki qisman o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan. Iqto IX-XIII asrda Movarounnahr va Eronda ham (saljuqiylar, qoraxoniylar va hulokular davrida) keng tarqalgan. Temuriylar davrida iqto o'rmda tiul va suyurg'ol, boburiylar davrida esa jogir atamallari qo'llangan.

IQTODOR — iqto egasi.

ISKANDARI SONIY — Ikkinchi Iskandar. *Muhammad Xorazmshoh* Iskandar Zulqarnaynga tenglashtirilgan.

ISMOILIY — Somoniylar davrida yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilgan tanga. U asosan, xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan. Kumush tanga holda ko'proq Sharqiy Yevropa mamlakatlariga olib chiqilgan.

JAMOA YERLARI — Qishloq jamoalari tasarrufida

ma'lum hajmdagi yer maydonlari. Bunday ko'pchilikka qarashli jamoa mulklaridan lalmikor hamda korizlar vositasida sug'oriladigan suvga tanqis tog' oldi mintaqalarida keng foydalanilardi.

JIKIL — turkiy qabila. X asr o'rtalarida ular bilan yag'molar birlashib Qoraxoniylar davlatini tashkil qildilar.

JOME' MASJID — shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e'lon qilinadigan, xaftalik juma, hayit namozlari jamoa bo'lib o'qiladigan maxsus bino. Shahar tashqarisida musallo, namozgoh. Juma masjid, guzar (mahalla) masjidlariga nisbatan uning tuzilishi salobatli. O'rta Osiyoda jome masjidning umumiy tarhi murabba yoki to'g'ri to'rtburchakli xonaqoh bo'lib, bir (old yoki yon) tomoni, ikki (janubiy va sharqiy yoki shimoliy va sharqiy) yoki uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Xonaqoh tomi gumbazli yoki to'sinli. Ayvon va xonaqoh kattaligi to'sinlar soni va qatori bilan belgilangan, ba'zan xonaqoh 1, 2, 4 gumbazli, ayvonlar atrofi qator ustunli, burchakda azon aytishga mo'ljallangan mezana va hovli o'rtasida hovuz bo'lgan. Buxoroda birinchi jome masjid 713-yil Qutayba ibn Muslim tomonidan ishga tushirilgan. Ushbu masjid uchun mahalliy majusiylar ibodatxonasi moslashtirilgan.

JUYBON — suv taqsimlovchi mirob.

JO'YBON — suv taqsimlovchi mirob.

KAMPIRAK DEVORI (782-831) — 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasining atrofini o'rab turgan qadimiy devor. Ismoil Somoniy davrida Kampirak devorining har yilgi odatiy hashari to'xtatilib, u qarovsiz qoldirilgan. Narshaxiyning yozishicha, Amir Ismoil o'zining kuchli qo'shinlarini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman", — deb aytgan ekan.

LASHKAR (fors.) — o'rta asrlarda nomuntazam qo'shin turi; cherik, qo'shin, armiya. Muntazam armiyasi bo'lmagan xon va podshohlar harbiy yurish oldidagina o'ziga tobe viloyatlarga chopar yuborib, lashkar to'plagan. lashkarga chaqirilgan har bir kishi o'z oti, quroli va bir oylik oziq-ovqati bilan kelgan.

LASHKARGOH — lashkar o'rnu mashadigan joy, harbiy lager.

MANJUQ — 1) X-XII asrlarda musulmon Sharq xalqlarining harbiy qo'shinidagi bayroq (tug') uchiga o'rnatilgan zarhal yoki misdan yasalgan yarim oy; 2) bunchuq, ya'ni uchiga yarim oy o'rnatilgan va tepa qismiga ko'ndalang qoqilgan taxtachaga ot dumi osiltirib qo'yilgan yog'och-nomdor lashkarboshilarning hokimiyat belgisi.

MAQBARA (arabcha marqad, turbat) — biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut (daxma, sag'ana). Maqbara usti qubali chortoqli bin bo'lib, ramziy g'oyalarni o'zida ifodalagan. Chortoq — yer kurrasini ifoda etuvchi barqaror shakl, qubba — osmon gumbazi ramzi, bular birgalikda Koinotni anglatgan. "Koinot modeli" ning bu tarzda barpo etilishi borliqning Alloh tomonidan yaratilgani haqidagi aqidaga muvofiqlashtirilgan. Sharqda dastlab qabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat qurish man etilgan bo'lsada IX asrdan xalifalar sharafiga maqbaralar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham IX asrdan maxsus maqbaralar qurish

odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli maqbaralar qurilgan. Oddiy maqbara gumbazli chorsi xonadon iborat bo'lgan, unga peshtoqli eshik orqali kirilgan. Ba'zan xonaning 4 tomoni ravoqli-chordara shaklida bo'ladi, keyinchalik maqbara qurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go'rxona, targxona-sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo'lgan.

MALIK SANJAR QO'ZG'OLONI (1206) — Buxoro hunarmandlari ko'targan qo'zg'olon. Buxoro hokimi sadr *Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz* ning soliq siyosatiga qarshi qaratilgan. Unga qalqon yasovchi hunarmandning o'g'li *Malik Sanjar* boshchilik qilgan. Qo'zg'olon Buxoro shahri doirasidan tashqariga chiqmagan va dehqonlar orasiga yoyilmagan. Hunarmandlar sadrni va uning oilasini Buxorodan chiqarib yuborganlar, ularning yer-mulklarini tortib olganlar. Sadr o'zining siyosiy homiysi bo'lgan qoraxitoylar go'rg'oni oldiga najot so'rab borgan, ammo undan Buxoroni idora qilish huquqi yozilgan yorliqdan boshqa hech narsa ololmagan. Bu orada Malik Sanjar bir qasr qurdirishga ulguragan. *Juvayniyning* bergan ma'lumotiga ko'ra, bu qasr keyinchalik «Malik Sanjar qasri» deb atalgan. Malik Sanjar bu qasrdan turib, chamasi shaharning boylari va zodagonlariga qarshi tadbirlarni amalga oshirgan. *Xorazmshoh Muhammad* Buxorodagi voqealardan xabardor bo'lib, xalq harakatini qurol kuchi bilan bostirishga va shaharni o'z qo'lga olishga ahd qilgan. 1207-yilda Buxoro ustiga qo'shin tortib borgan, shaharni bosib olib, xalq tomonidan ko'tarilgan yangi hokimning faoliyatiga chek qo'ygan. Buxoroni Xorazm davlati tarkibiga kiritgan va bu bilan Movarounnahrni Xorazmga qo'shib olgan. *Malik Sanjar* Urganchga olib ketilgan va u birmuncha vaqt xorazmshohning saroyida yashagan, tantanali marosimlarda ishtirok etgan.

MASNAD — taxt, suyanchiq, daraja, hukmronlik o'rni.

MIROB — suv xo'jaligi boshqaruvchisi..

MIROBONA — suv solig'i.

MIFTOH — darvozali to'gon; shlyuz, suv tashlagich.

MUHAMMADIY — Somoniylar chiqargan kumush dirham.

MUHRDOR — devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi.

MUHTASIB (arabcha — nazorat qiluvchi — nazorat qiluvchi) — o'rta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi, odamlarning jamoat joylarida yurish-turishi ustidan nazorat qiluvchi amaldor. Shariat tizimiga xos mansabdor shaxslar toifasiga kirgan. O'rta Osiyoda ular rais deb atalgan. Muhtasiblar bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilish, urf-odatlarining bajarilishini kuzatish, diniy vazifalarini bajarmagan kishilarni jazolashga hukm chiqarish kabilar bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida muhtasib shayx ul-islom va muftiydan keyin uchinchi mansab hisoblangan.

MUHASSILONA — soliq yig'uvchilar uchun to'lov.

MUHRKASH — chit va matolarga gul bosuvchi.

MULK YERLARI — hukmron sulola vakillari, mulkdor dehqon va aslzodalarning tasarrufidagi katta-katta yer maydonlari, mehnatkash qishloq aholisiga tegishli mayda xususiy yerlar.

MULKI SULTONIY — davlat tasarrufidagi yerlar.

MULKI XOS — davlat soligʻidan qisman yoki tamomila ozod etilgan oliy martabali ruhoniylar va sayyidlarga qarashli yerlar.

MUQTOʻ, IQTOʻDOR — oʻrta asrlarda iqto egasi.

MUSTOVFIY, MUSTAVFIY — markaziy hokimiyat devonxonasi daftordor hisobchisi; moliya vaziri.

MUSHRIF — saroy ish boshqaruvchisi.

MUHORABA — jang, urush, harbiy toʻqnashuv.

NAFT — shahar va qishloq aholisi.

NAFTANDOʻZ (arabcha — naft, neft, forsha — andoz, otmoq) — neftni yondirib otish quroli. Oʻrta Osiyo hududidagi koʻplab shahar xarobalaridan arxeologik konussimon idishlar (simob koʻzacha) topishgan. Ularning aksariyati naqsh, bezaksiz. V.L. Vyatkin Afrosiyob shahar xarobasidan ustiga “fath” — gʻalaba deb yozilgan shunday idish topgan. Oʻrta asrlardagi qoʻshinlar tarkibida maxsus naftandozlar qismi mavjud boʻlgan. Tarixiy manbalarda naftandoz istilohi XVI asrdan soʻng uchramaydi.

NAMOZGOH — Iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlarini oʻqiladigan sajdagoh.

NOSIR UD-DIN VA UD-DAVLA — din va davlat homiysi. Bu nom Gʻazna hukmdori *Sobuqtakinga* Buxoro amiri *Nuh ibn Mansurga* qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻoloni bostirishda bergan yordami uchun *Nuh ibn Mansur* tomonidan taqdim etiladi.

NOVA — suv tashlagʻich, tarnov.

OHANGAR — temirchi.

POYKOR — kichik mirob, qishloq mirobi.

QARLUQLAR — qadimiy turkiy qabilalardan biri. IV-V asrlargacha Oltoyning gʻarbida, Chorish daryosi (bu daryoning bir irmogʻi hozir ham Qarluq deb ataladi) boʻylarida yashaganlar. VI asr boshlarida qarluqlar Irtish daryosining oʻrta oqimlariga, Zaysan koʻli atrofiga koʻchib kelishgan. VI-VII asrlarda qarluqlarning bir qismi Yettisuv hududiga kelib joylashganlar. VIII asr oxirida bu yerda Qarluqlar davlati vujudga kelgan. IX-X asrlarda qarluqlarning xoʻjalik faoliyati dehqonchilik, ovchilik va koʻchmanchi chorvachilikdan iborat boʻlgan. Qarluqlar yirik shaharlar (Talas, Kulon, Marki, Bolosogʻun va boshqa) va koʻplab qishloqlar vujudga keltirishgan. X asrda Qoraxoniylar davlatida qarluqlarning vakillari hukmron mavqega ega boʻlganlar. Qoraxoniylar X asr oxirida Movarounnahrni egallagach, qarluqlar Toshkent vohasiga, Fargʻona va Zarafshon vodiylariga koʻchib kelishgan. X asr oʻrtalarida islom dinini qabul qilishgan. Keyinchalik qarluqlar mahalliy xalqlar tarkibiga kirishgan.

QATVON JANGI — qoraxoniylar va saljuqiylarning birlashgan qoʻshini bilan qoraxitoylar oʻrtasida boʻlgan jang (1141-yil 9-sentyabr). Samarqand yaqinidagi Qatvon dashtida sodir boʻlgan. Qoraxoniylarning Samarqanddagi hokimi Mahmudxon 1137-yil Xoʻjand yaqinida qoraxitoylardan magʻlubiyatga uchragach, saljuqiylar sultoni Sanjardan koʻmak soʻragan. 1141-yil iyulida *Sanjar* 100 ming (boshqa manbalarga koʻra, 70 ming) jangchidan iborat qoʻshin bilan Amudaryodan oʻtib Samarqandga yoʻl oladi. *Gurxon Yelyuy Dashi* qoʻshini kidanlar, xitoylar va baʼzi turkiy qavmlardan (50 ming kishilik qarluqlar qoʻshini ular tomoniga oʻtgan edi) tashkil topgan 100 mingdan ziyod

jangchidan iborat boʻlgan. Bu jangda qoraxitoylar kidanlarning sevimli harbiy usuli: raqib qoʻshinini yon tomondan aylanib oʻtib, qoʻqqisdan hamla qilish taktikasini qoʻllashgan. Gurxon qoʻshinini 3 qismga ajratib, ularning har biriga raqib tomon qoʻshinini oʻrab olishni bosh vazifa qilib qoʻyadi. *Sanjar* qoʻshinining jangovar tartibini ikki qanot va markazdan iborat qilib tuzib, markazga oʻzi boshchilik qiladi. Jangda qoraxitoylarning qanot qismlari ittifoqchilar qoʻshinining orqa tomoniga yorib oʻtib uni qurshab olgan. *Sanjar* qoʻshini tartibsiz chekinib, Dargʻom boʻyidagi bir daraga qisib qoʻyilgan, yuzlab jangchilar daryo suvi yoki kanalda gʻarq boʻlgan. *Sanjar* yonidagi 300 otliq va shaxsiy qoʻriqchilari bilan qurshovni yorib chiqib Termizga ketishga erishgan. Qatvon jangida manbalarga koʻra, 70 ming musulmon shahid boʻlgan. Gurxon jang maydonida 3 oyga yaqin turadi, soʻngra Karmanaga yoʻl olgan. Bu yerda u yangi davlat Qoraxitoylar davlati (Gʻarbiy Lyao) barpo etilganini eʼlon qilgan. Qatvon jangi koʻchmanchilarning Oʻrta Osiyoga kirib kelish yoʻllarini ochib bergan. Qoraxoniylar ularning vassaliga aylangan, qoraxitoylar davlati boshligʻi — Gurxonga soliq toʻlab turishlari lozim boʻlgan. Qoraxitoylar qoraxoniylarning ichki ishlariga aralashmaganlar, ularning poytaxti ilgorigidek Bolasogʻun shahri hisoblangan.

QORAXITOYLAR — kidanlar davlati tor-mor etilgach (1125), Oʻrta Osiyoga kelgan kidanlar va ulardan ilgariroq bu yerga koʻchib kelgan kidanlarga (16 ming oila) oʻrta asr muarrirlari tomonidan berilgan nom. Qoraxitoylar kelib chiqishi toʻgʻrisida fanda yagona fikr mavjud emas. Baʼzi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalari esa moʻgʻullarga mansub deb hisoblaydilar. XII a. oʻrtasi — XIII a. boshlarida 18 yoshga toʻlgan barcha qoraxitoylar Qoraxitoylar davlatini tuzgan kidanlarning Elyuy urugʻidan chiqqan gurxonlarning qoʻshinida harbiy xizmatni oʻtashgan. Qoraxitoylarning asosiy qismi Talas va Chu daryolari vodiysida chorvachilik bilan mashgʻul boʻlganlar. Qoraxitoylarda patriarxal-urugʻchilik tuzumi qoldiqlari bilan uygʻunlashib ketgan mulkchilik munosabatlari ustuvor boʻlgan, biroq ayollar katta huquqqa ega edilar. Qoraxitoylar buddaviylar boʻlsa-da, osmon, yer va ajdodlar ruhiga qurbonlik qilishgan. Chingizxonning maslahatchisi *Yelyuy Chusay* qoraxitoylar orasida boʻlganida ularning yuksak adabiy fazilatlariga ega dostonini yozib olgan. Keyinchalik qoraxitoylar qoʻshni turkiy xalqlar tarkibiga singib ketishgan. Qirgʻiz, qozoq va qoraqalpoqlar tarkibida qoraxitoylar qabila-urugʻ nomi uchraydi. Qoraxitoylar moddiy madaniyati obidalari tadqiq etilmagan.

QORAXON — buyuk xoqon.

QORAXONIYLAR, XONIYLAR, XOQONIYLAR — Qoraxoniylar davlatini boshqargan xoqonlar sulolasi. “qoraxoniylar” iborasi shartli ravishda sulola nomi sifatida qoʻllanilib, davlat hukmdorlari “qoraxon” — buyuk xon unvoni bilan yuritilgan. Shu bois sharqshunos olim V.V.Grigorev sulolaga “qoraxoniylar”, deb nom bergan va u ilmiy adabiyotlarda mustahkam oʻrnashib qolgan. Qoraxoniylarning yirik vakillari: *Abdulkarim Sotuyq Bugʻroxon* (859 — 955), *Muso ibn Abdulkarim* (955-970), *Hasan ibn Sulaymon* (977-992), *Ahmad ibn Ali Arslonxon* (998-1017; hokimiyat amalda ukasi *Nasr ibn Ali* qoʻlida

boʻlgan, u Movarounnahrni bosib olgan), *Mansur ibn Ali* (1017-26), *Ibrohim ibn Nasr Tamgʻachxon* (1040-70), *Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon* (1102-30). 1130-yildan saljuqiylarga, 1140-yillar boshida qoraxitoylarga qaram boʻlgan. Qoraxoniylarning soʻnggi vakili *Usmon ibn Ibrohim* 1212-y. *Muhammad Xorazmshoh* tomonidan agʻdarilib qatl qilingan.

RAIS (arabcha — rahbar, sardor) — shahar hokimi.

RANGREZ — matoga rang beruvchi; minchi.

ROʻYAN — Movarounnahrda ekilib, turli xil dori-darmonlar va boʻyoqlar tayyorlangan texnik oʻsimlik.

SADRI JAHANNAM — Buxoro sadri *Muhammad ibn Abdulaziz*ning xalq orasida yoyilgan laqabi. *Muhammad ibn Abdulaziz* bu laqabani olishiga sabab shuki, u xalq oʻrtasida obroʻsini kuchaytirish maqsadida huzurida 600 nafar faqh (huruqshunos) larni tutib turishi, mehnatkash aholiga nisbatan gʻoyat shafqatsizligi edi. Oqibatda uning “Sadri jahon” unvoni xalq oʻrtasida “Sadri jahannam” laqabiga aylantirildi.

SADRI JAHON — XII-XIII asrlarda Buxoroda hukmronlik qilgan burhonlar xonadoni unvoni. “*Kitobi mullazoda*” asarining muallifi *Ahmad ibn Mahmud*ning yozishicha, burhonlar xonadoniga *Abdulaziz ibn Umar* asos solgan. Sadri jahon unvoni unga sulton *Sanjar* tomonidan berilgan. *Abdulaziz ibn Umar* vafotidan soʻng bu lavozim oʻgʻli, keyinchalik nevaralariga berilgan. Ularning avlodlari 1207-yilgacha Buxoroda mustaqil hukmronlik qilgan. Soʻnggi Sadri jahon *Burhoniddin Muhammad ibn Ahmad* oʻsha yili *Muhammad xorazmshoh* tomonidan mansabdari tushirilgan. Burhonlarning ayrim namoyandalari ilgarigidek nufuzga ega boʻlmasalar-da, imtiyozlari moʻgʻullar davrida ham saqlanib qolgan. Ular vaqf yerlarni nazorat qilishgan; oʻz yerlari, savdohunarmandchilik korxonalari boʻlgan, karvon savdosi bilan shugʻullanishgan. XIII asrda *Malik Sanjar* Sadri jahonlarga qarshi xalq qoʻzgʻolonini boshqargan.

SAFFORIYLAR — Safforiylar davlatida hukmronlik qilgan sulola. Ular IX asrning ikkinchi yarmida Oʻrta Osiyoning janubi bilan Eron chegaralarida yashagan. Safforiylar nomi uning asoschisi *Yaʼqub ibn Lays as-Saffor* nomidan olingan. Safforiylarning yirik hukmdorlari: *Yaʼqub ibn Lays* (867-879); *Amr ibn Lays* (879-902).

SAFFORIYLIK — misgar hunarmandlar.

SALJUQIYLAR — Xuroson, Yaqin va Oʻrta Sharq, Kichik Osiyo, qisman Movarounnahrda bir necha davlatlarda hukmronlik qilgan turkiy sulola (1038-1308). Sulola nomi chorvador turkiy qavm-oʻgʻuzlar boshligʻi *Saljugʻbek ibn Doʻkak* nomidan olingan. Sulolaga Saljuqning nevarasi sulton *Toʻqrolbek* asos solgan. Sirdaryoning quyi oqimi Jand shahar atroflari (hozirgi Navoiy viloyati hududi)da yashagan oʻgʻuzlar Saljuq boshchiligida islom dinini qabul qilishgan (992). Saljugʻning vafotidan soʻng ular Nurota atroflarida joylashgan. *Mahmud Gʻaznaviy* Amudaryodan oʻtib, Buxoroga borayotganda saljuqlarning yoʻlboshchisi amir *Arslon* (Isroil)ni chaqirib, ularga Buxorodan Xurosonga koʻchishni buyurgan (1025). Tarixchi *Juzjoni*ning yozishicha, 4000 oʻtovli saljuqlar Yagʻmur, Bugʻ, Koʻktoshu, Qizil, Mansur, Anas oʻqli kabi amirlar

boshchiligida Amudaryodan oʻtib, Xurosonning Saraxs, Obivard, Farova, Niso, Dandanakon kabi turli mavzellarida qoʻnim topganlar. Qoraxoniylar bilan Gʻaznaviylar oʻrtasidagi kurashdan foydalangan Saljuqiylar harbiy kuchlarini birlashtirib, asta-sekin Xurosonni egallab, *Saljuqiylar davlatini* barpo etganlar. Keyinchalik bu davlat jahondagi eng qudratli saltanatlardan biriga aylangan. Sulola vakillari (hukmdorlari) *sulton* deb atalgan va ular quyidagilardan iborat. Xurosondagi Saljuqiylar (1038-1157): *Toʻqrolbek* (1038-1063), *Alp Arslon* (1063-1072), *Malikshoh* (1072-1092), *Mahmud* (1092-1094), *Barqiyorugʻ* (1094-1104), *Malikshoh II* (1104-1105), *Gʻiyosiddin Muhammad* (1105-1118), *Sanjar* (1118-1157); Kermondagi Saljuqiylar (1041-1187): *Kavurbek* (1041-1073), *Kermonshuoh* (1073), *Husayn* (1073-1074), *Sultonshoh I* (1074-1085), *Turonshoh I* (1085-1097), *Eronshoh* (1097-1101), *Arslonshoh I* (1101-1141), *Muhammadshoh I* (1141-1156), *Toʻqrolshoh* (1156-1167), *Bahromshoh* (1167-1168), *Arslonshoh II* (1168), *Turonshoh II* (1168-1174), *Muhammadshoh II* (1174-1187), *Muborak* (1187); Shom (Suriya)dagi Saljuqiylar (1074-1117): *Tutush* (1074-1095), *Ridvan* (Halabda; 1095-1113); *Dukak* (Damashqda; 1095-1104), *Alp Arslon Arxas* (Halabda; 1113-1114), *Sultonshoh* (1114-1117); Iroqdagi Saljuqiylar (1118-1194): *Mahmud* (1118-1131), *Dovud* (1131-1132), *Toʻqrol I* (1132-1133), *Masʼud* (1133-1152), *Malikshoh* (1152-1153), *Muhammad* (1153-1159), *Sulaymonshoh* (1159-1161), *Arslonshoh* (1161-1177), *Toʻqrol II* (1177-1194); Koʻniya (Anatoliya yoxud Rum)dagi Saljuqiylar (1077-1308): *Sulaymon I* (1077-1086), *Qilich Arslon I* (1086-1107), *Malikshoh I* (1107-1116), *Masʼud I* (1116-1156), *Qilich Arslon II* (1156-1188); *Malikshoh II* (1188-1192), *Kayxusrav I* (1192-1200; 1205-1210), *Sulaymon II* (1200-1204), *Qilich Arslon III* (1204-1205), *Kaykovus I* (1210-1219), *Alouddin Kayqubod* (1219-1236), *Kayxusrav II* (1236-1245), *Kaykovus II* (1245-1247), *Qilich Arslon IV* (1257-1265), *Kayxusrav III* (1265-1283), *Masʼud II* (1283-1296), *Kayqubod III* (1296-1307), *Masʼud III* (1307-08) va boshqa sulolalar.

SARBOZ (forscha) — Oʻrta Osiyo xonliklaridagi muntazam qoʻshin askari.

SARROF (arabcha) (pul almashtiruvchi, yirik pullarni mayda qiluvchi) — shahar koʻchalari va rastalarida oʻtirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashlab berib foyda koʻruvchi shaxs. Sarroflar horijdan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarni aniqlash, ularning bahosini belgilash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyumlarini maʼlum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan shugʻullanib, bank, omonat kassalari, garovxonalar vazifalarini bajarishgan. Sarroflar sudxoʻrlilik ishi bilan ham shugʻullangan. Sarroflar xizmatlari evaziga kishilardan maʼlum miqdorda haq olgan. Ilgari har bir shaharda sarroflar faoliyat yuritgan. Masalan: Buxoroda sarroflarning alohida mahallasi va asosiy ish joyi — Toʻqi Sarrofon mavjud edi. Hozirgi davrda sharq mamlakatlarida sarrof bank egasi hisoblanadi.

SAYYID, SAID (arabcha — janob) — 1) Muhammad paygʻambar (sav) avlodlariga mansub kishining unvoni.

Arablarda islomga qadar qabilaning saylanadigan rahbarlari unvoni — boshliq, mas'ul shaxs degan ma'noni anglatgan. Alining otasi Abu Tolib bir vaqtlar quraysh qabilasining sayyidlaridan bo'lgan. Shuning uchun bu unvon Alining o'g'illari Hasan va Husaynning butun avlodlari ismiga qo'yiladigan faxriy unvon hisoblangan. Sayyidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayyid hisoblangan. Shuning uchun ham musulmonlar dunyosida, jumladan, Movarounnahrda ko'pincha hukmdorlar o'z avlodlari mavqeni ko'tarish maqsadida sayyidlar qiziga uylanishga harakat qilishgan. O'rta asrlarda, yangi va eng yangi davrlarda ko'pgina hukmdorlar, shu jumladan, Buxoro amirlari, Xiva xonlari hamda turli ijtimoiy tabaqalarga mansub bo'lgan shaxs ham payg'ambar avlodidan hisoblanmasada, o'zlarini sayyidlar deb atayveradilar. 2) xo'ja, boshliq, rahbar.

SAYF UD-DIN — din shamshiri. *Mahmud G'aznaviyga* Buxoro amiri *Nuh ibn Mansur* tomonidan taqdim etilgan unvon. Bu unvonni *Mahmud Nuh ibn Mansurga* qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirishda bergan yordami uchun olgan.

SOHIB JAMONA — hosil miqdorini belgilovchi ma'mur uchun yig'iladigan to'lov.

SOHIBI SHURAT — harbiy ishlar vaziri, devon.

SOHIBI MUYYAD — maktubot va axborot vaziri, aloqa ishlar vaziri.

SOMONIYLAR (819-999) — Movarounnahr va Xurosondagi sulola. Somoniylarning oilaviy nisbasi, ya'ni nomi ularning ajdodi bo'lmish *Somonxudot* ismi bilan bog'liq. *Somonxudot*ning kelib chiqishi haqida turli xil ma'lumot va fikrlar mavjud. *Abu Bakr Narshaxiy* (X a.) va *Hamza Isfahoniy* (X a.) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, *Somonxudot* Balx viloyatidagi Somon qishlog'idan, *al-Muqaddasiy* (X a.)ning ma'lumotiga ko'ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo'lgan. "*Sa'diya*" nomli asar (XVII a.)da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning asl ismi *Arquq* bo'lib, u Farg'onadan Termizga ko'chib kelgan va u yerda Somon nomli qishlog'iga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro, Farg'ona, Toxariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo'lganligi qayd etilgan. Bu ma'lumotlar "*Somon*" toponimi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida va undan tashqari yerlarda ham keng tarqalgan joy nomi bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'pchilik manbalar (*Hudud al-alam*, *Ibn Havqal*, *Beruniy*, *Gardizi*)ga ko'ra, *Somonxudot* sasoniylar davridagi mashhur sarkarda *Bahrom Cho'bin* (VI a.)ning 4-yoki 5-pog'onadagi avlodi bo'lgan. *Bahrom Cho'bin*ning kelib chiqishi eftaliylar bilan bog'liq. U sasoniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib (590-y.) mag'lubiyatga uchraganidan keyin Farg'onaga qochib kelgan va turkiy malikaga uylanib, umrining oxirigacha o'sha yerda qolib ketgan. Uning avlodlari ham o'zlarini podshohlar oilasiga mansub deb hisoblaganlar va Sasoniylar davlatidagi shahanshohlar oliy taxtiga da'vo qilganlar. *Somonxudot*ning shajarasida keltirilgan ajdodlaridan ayrimlarining (Juba, Jamchan, Tamg'as kabi) turkiy ismlari bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, turkiylarning rivoyatlarida *Somon-yabg'u* (ya'ni *Somonxudot*) turkiylarning *O'g'uzxon*dan keyingi davrlarda yashagan ajdodlari qatorida tilga olingan. O'rta

Osiyoga arablar bostirib kelganda, *Somonxudot*, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Balx viloyatidan Marvga Xuroson amiri *Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy* (725/727 va 735/738-yillar)ning oldiga kelib, undan dushmanlariga qarshi qurolli yordam berishini so'raydi. Arablar yordamida dushmanlarini yenggach, *Somonxudot* islom dinini qabul qiladi va o'g'lining ismini amirning sharafiga *Asad* qo'yadi. *Asad*ning *Nuh*, *Ahmad*, *Yahyo* va *Ilyos* ismli o'g'illari *al-Ma'mun*ning Marvdagi saroyida xizmatda bo'lgan va *Rofa ibn Lays qo'zg'olonini* bostirishda faol qatnashgan. Buning evaziga *al-Ma'mun* ularni bir nechta viloyatlarga amir etib tayinlaydi (819-820). Xususan, *Nuh* — Samarqand amiri, *Ahmad* — Farg'ona amiri, *Yahyo* — Shosh va Ustrushona amiri, *Ilyos* esa Hirot amiri etib tayinlanadi. Ular dastlab Xuroson amirlari bo'lgan tohiriylarga tobe bo'lgan va harbiy kuch to'plab, Arab xalifaligining sharqiy chegaralarini qo'riqlab turishgan, shuningdek, shimoldagi turklarga qarshi bir necha bor yurishlar qilishgan. *Nuh ibn Asad* Isfijobni bosib olib (840-y.), uni o'ziga tobe qiladi. Shunday qilib, aka-ukaning to'ng'ichi bo'lgan *Nuh ibn Asad* Samarqand va Sug'dning katta qismini, shuningdek, Farg'ona va boshqa bir qancha shaharlarni o'z hokimiyati ostida birlashtiradi. *Nuh*ning vafotidan keyin (842-y.) suloladagi yetakchilik uning ukasi *Ahmad ibn Asad* oilasiga o'tadi. Uning 7 ta o'g'li bo'lib, ular otasining vafotidan keyin (866-y.) Movarounnahrning asosiy shaharlarida hokimiyatni o'z qo'llariga oladilar. Faqat Buxoro shahri tohiriylar qo'lida edi. *Ilyos ibn Asad* vafotidan keyin unga qarashli bo'lgan Hirot shahrida ham hokimiyat somoniylarning qo'lidan ketdi. Tohiriylar hokimiyati tugatilgandan keyin (873-y.) Buxoroda bir muddat siyosiy beqarorlik va tartibsizliklar yuz berdi. Shunda somoniylar oilasining boshlig'i bo'lgan *Nasr ibn Ahmad* mahalliy dehqonlar taklifiga binoan, Buxoroga ukasi *Ismoil ibn Ahmad*ni hokim qilib yuboradi. Shunday qilib, Buxoro ham somoniylar qo'lga o'tib, ularning qudrati yana ham ortdi. *Nasr* davrida somoniylar turklarning Shovg'ar shahriga yurish qiladilar. Deyarli butun O'rta Osiyo yerlari ularning hokimiyati ostida birlashgandan keyin oila boshlig'i *Nasr* xalifa *al-Mu'tamid*dan Movarounnahrni boshqarishga maxsus yorliq oldi (875-y.). Ko'p o'tmay *Ismoil* akasi *Nasr*ga bo'ysunishdan bosh tortib, unga qarshi qo'shin tortadi. Aka-uka qo'shinlari orasida bo'lib o'tgan jangda (888-y.) *Nasr* mag'lubiyatga uchraydi va natijada *Ismoil ibn Ahmad* butun hokimiyatni o'z qo'lga oladi. U Taroz shahriga yurish qilib, uni bosib oladi (893-y.) va natijada boy *Shalji* kumush konlariga egalik qiladi. O'sha yilning o'zida *Ahmad* Ustrushonadagi afshinlar sulolasining oxirgi vakillarini yo'q qiladi va viloyatni butkul o'zining hokimiyatiga bo'ysundiradi. Somoniylarning kuchayib borayotganidan xavfsiragan arab xalifasi *Ismoil*ni hokimiyatdan chetlatib, o'rniga Xuroson amiri *Amr ibn Lays Safforiy*ni tayinlaydi (898-y.). *Amr* qo'shin bilan Movarounnahrda yo'l olganda, *Ismoil* unga qarshi chiqib, bir necha jangdan keyin uni mag'lubiyatga uchratadi (900-y.) va natijada safforiylarga qarashli bo'lgan Xurosonni ham o'z yerlariga qo'shib oladi. Shunday qilib, *Ismoil ibn Ahmad* hukmronligi davrida Talas vodiysidan Xurosongacha bo'lgan yerlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. *Ismoil ibn Ahmad* vafotidan keyin (907-

y.) hokimiyat uning avlodlari qo'liga o'tdi: *Ahmad ibn Ismoil* (907-914-yillar), *Nasr ibn Ahmad* (914-943-yillar), *Nuh ibn Nasr* (943-954-yillar), *Abdulmalik ibn Nuh* (954-961-yillar), *Mansur ibn Abdulmalik* (961-976 yillar), *Nuh ibn Mansur* (976-997-yillar), *Mansur ibn Nuh* (997-999-yillar), *Abdulmalik ibn Mansur* (999-1000-yillar). Shundan keyin mamlakatdagi hokimiyat qoraxoniylar sulolasining qo'liga o'tib, somoniylar hokimiyati tugatildi. Sulolaning oxirgi vakili *Ismoil al-Muntasir* (1000-1005-yillar) qoraxoniylar sulolasiga qarshi kurash olib borib, somoniylar hokimiyatini tiklashga urindi, lekin natija bo'lmadi va oxiri o'zi ham o'ldirildi. Shu bilan somoniylar sulolasi tarix sahnasidan butunlay ketdi. Somoniylar sulolasi: *Nuh ibn Asad* (819-842), *Ahmad ibn Asad* (842-864), *Nasr I ibn Ahmad* (865-892), *Ismoil ibn Ahmad* (874-907), *Ahmad ibn Ismoil* (907-914), *Nasr II ibn Ahmad* (914-943), *Nuh I ibn Nasr* (943-954), *Abdulmalik ibn Nuh* (954-961), *Mansur I ibn Nuh* (961-976), *Nuh II ibn Mansur* (976-997), *Mansur II ibn Nuh* (997-999).

TAKIN — Qoraxoniylar davlatida viloyat noibi. Viloyat noiblari faqat qoraxoniylar xonadonining eloqxon unvoniga sazovor bo'lgan a'zolaridan saylanar edi.

TAMG'ACHXON — xonlar xoni, Qoraxoniylar davlati hukmdori shu nom bilan yuritilar edi. Davlatni boshqarishda qoraxoniylar qabilaviy udumining og'alik tartibiga qat'iy rioya qilingan. Bu udumga muvofiq qabila boshliqlari orasida eng yoshi ulug'ini "arstonxon" yoki "bug'roxon" darajasiga ko'tarib, hukmdor, ya'ni qoraxon qilib saylashgan. Odatda utamg'achxon, ya'ni xonlar xoni deb yuritilgan.

TELE — ilk o'rta asrlarda turkiy qabilalar katta bir qismining umumiy nomi. Ushbu etnom ilk bora milodiy IV asrga oid Xitoy manbalarida uchraydi. Ulardan ma'lum bo'lishicha, milodiy VI asrgacha "tele" atamasi Gobi cho'lining shimoli, Xingan tog'lari (Manjuriya)ning g'arbi va Tyanshan tog'lari atrofidagi keng hududdan to Orol va Kaspiy dengizi bo'ylarigacha tarqalgan turkiy qabilalarning umumiy nomi sifatida ishlatilgan. Ushbu yilnomalardan ayon bo'lishicha, tele qabilalari dastlab mil.avv. I mingyillikda, chidi nomi bilan atalgan, keyinchalik esa, dili, chile, dingling, gaoguyey, so'ngra tele deb atala boshlagan. Xitoy yilnomalarida ta'kidlanishicha, bir qancha qabilalar o'z etnik nomiga ega bo'lsalar ham, kelib chiqishi jihatidan telelarga borib taqalib, quyidagicha nomlanar edilar: veyxo (uyg'ur), yuange, seyanto (sir tardush), kibi, dubo (tuba), guligan (quriqan), dolange (telengut), pugu (bug'u), bayegu (bayirqu), tunlo (to'ngra), hun, adye (adiz), sihye (izgil), husye, baysi (oq si) va hokazo. Suysu nomli xitoy yilnomasida (VII asr) tele qabilalariga mansub 50 ta qabila nomi keltiriladi. Xitoy yilnomalarida telelarning tili hunlarning tiliga o'xshashligi qayd qilinadi. Ushbu ma'lumotga asoslanilsa ularning turkiy tilli xalq bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

TOHIRIYLAR — Xurosondagi Tohiriylar davlatida hukmronlik qilgan sulola (821-873). Rasman abbosiylar vassali hisoblangan. Sulolaga 821 yil *Tohir ibn Husayn* asos slogan. Tohiriylar hukmdorlari: *Tohir ibn Husayn* (821-822-yillar), *Talha ibn Tohir* (822-830), *Abdulloh ibn Tohir* (830-844), *Tohir II ibn Abdulloh* (844-862), *Muhammad ibn*

Tohir (862-873). 873-yil Xurosonda hukmronligi tugatilib, yangi Safforiylar davlati tashkil topgan.

TUMAN YERLARI — hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan (solig'ining bir qismi) mulklar (viloyat, tuman yoki ayrim shahar va qishloqlar).

TO'QUZOG'LAR — VI asrning birinchi yarmida — Xitoydan to Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan keng maydonda chorvachilik bilan kun kechirgan turkiy qabilalar. Ular VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrda Turk xoqonligi tarkibida edi. Turk xoqonligi yemirilgach, to'quvo'g'uzlarning kattagina qismi g'uz yoki o'g'uz nomi ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'rtnashib, bu hududda ular IX asr oxiri va X asr boshida O'g'uzlar davlatiga asos solganlar.

ULAMO — din olimlari.

USTOD — 1) Somoniylar davlati ma'naviy hayotining asosi, din va ilm peshvosi. 2) Temuriylar davlatida peshtoq, ravoq hamda toqilariga parchin va girixlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar.

VADORIY — Sharqda mashhur bo'lgan, Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan mato. Vadoriy matodan tikilgan kiyimlarni Xurosonda amirlar, vazirlar va qozilar kiyardilar. Vadoriy ko'ylakning bahosi ikki dinordan o'n dinorgacha borardi.

VAQF (arabcha) — musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk. Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, masjid, shifoxona va boshqa vaqf mulki bo'lishi mumkin. O'z mulkini vaqfqa topshirgan shaxs mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi. Lekin uning o'zi yoki oila a'zolari yoxud uchinchi bir shaxs vaqf mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanilayotganligini aniqlash uchun vaqf mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O'z mulkini vaqf mulki sifatida topshirgan shaxsning farzandlari yoki boshqa avlodlari mazkur vaqf mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin. Vaqf mulkini shariat qonuni bo'yicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi. Bu tartib Sharqning ba'zi mamlakatlarida hozir ham amalda.

VAZIR (arabcha — yuk ko'taruvchi) — O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq davlatlarida, shu jumladan O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i. Vazirlar vaziri a'zam rahbarligida davlatni idora etish vazifalari bilan shug'ullangan. Vazirlar podshoh, xon viloyat hokimligiga tayinlagan shahzoda va xonzodalarning yordamchilari hisoblangan. Arab xalifaligida vazir lavozimini birinchi bo'lib xalifa *al-Mansur* (754-775) joriy etgan. Somoniylar davrida 10 devon bo'lib, ularni xojayi buzurg, sohib barid, mushrif, vakil, muhtasib va boshqa vazirlar boshqargan. *Amir Temur* va uning vorislari zamonida saltanatning markaziy ma'muriyatini bosh vazir — devonbegi boshliq 7 vazirdan iborat arkoni davlat boshqargan. Ular: 1) mamlakat va ra'iyat ishlari, 2) harbiy ishlar, 3) tijorat. 4) moliya ishlari bo'yicha vazirlar sanalib, yana 3 nafar maxsus vazir chegara viloyatlari va tobe mamlakatlardagi ishlarni nazorat qilib turgan. Mazkur 7 vazir devonbegiga bo'ysungan va ular bilan bamaslahat

davlatning muhim moliyaviy ishlarini olib borishgan. Xiva xonligida vazir yuqori mansabdor shaxs sanalib, vazifasi soliq top“lash, qo‘shni xonliklar bilan aloqa qilish, amaldorlarni tayinlash va hokazolardan iborat bo‘lgan. Xo‘jalik yoki boshqaruvning alohida bir sohasiga rahbarlik qilib kelgan amaldorlarni sobiq sho‘rolar davrida komissar, ministr, ana shu boshqaruv organini esa komissarlik, ministrlk so‘zlari bilan atash rasm bo‘lgan edi. Bu atamalar O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarigacha qo‘llanib kelinib, keyin vazir, vazirlik istilohlari bilan almashtirildi.

XALQ LASHKARLARI — qadimda va o‘rta asrlarda urush vaqtida fuqarolardan (asosan, ko‘ngillilardan) tashkil topadigan harbiy tuzilmalar; chet el bosqinchilariga qarshi kurash uchun keng xalq ommasini jalb qilish shakllaridan biri. Xalq lashkari deyarli barcha xalqlar tarixida juda qadimdan ma‘lum. Bir davlat boshqa bir davlatga hujum qilganida bosqinchilikka uchragan mamlakat xalqi o‘z vatanini mudofaa qilish uchun qo‘liga qurol olgan va muntazam qo‘shinlar bilan bir qatorda dushmanga qarshi kurashgan. Xalq lashkari ko‘ngilli vatanparvarlardan tashkil topganligi bilan partizanlarga o‘xshab ketsa-da, ular birbiridan farq qiladi: ya‘ni partizanlar dushman bosib olgan hududda harakat qiladi, xalq lashkari esa, dushman bosib olmagun hududda tuziladi.

XATIB — namozda xutba o‘qiydigan ruhoniy. Xatib ustundan keyin turardi.

XONAQOH — katta bino yoki uning asosiy xonasi: diniy me‘moriy inshootlar (masjid, madrasa va boshqalar)dagi katta xona, ziyoratchilar uchun qurilgan jamoatxonalar, hujralar ham shunday ataladi; g‘aribxonona, musofirxonona.

XORAZMSHOH — Xorazm hukmdorlarining unvoni.

YAG‘MO — turkiy qabilalardan biri. IX asrning birinchi yarmida yag‘mo uyg‘urlar qirg‘izlar bilan bo‘lgan urushda yengilgach, ulardan 15 urug‘ ajralib, qarluqlar himoyasi ostiga o‘tgan. Bu 15 urug‘ birlashmasining turkiy nomi “yaqmo” bo‘lgan. X asrning boshida yag‘moning katta bir qismi Qashqarga-Tyanshanning janubi-sharqiy yon bag‘irlariga, Norin daryosining yuqori oqimlariga ko‘chib kelganlar. Bu yerlarda yag‘molarning bir qismi o‘troqlashib, shahar va qishloqlarda yashashgan, lekin ko‘pchiligi ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘lgan. Yag‘mo X asr oxirida Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chig‘il, xalaj va boshqa qabilalar bilan bir qatorda faol qatnashgan. Yag‘moning asosiy qismi XI asrning birinchi yarmida qoraxoniylar qo‘shini tarkibida Farg‘ona vodiysiga, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalariga kelib joylashgan va keyinchalik yerli xalqlar bilan aralashib, o‘z etnik nomlarini unutganlar.

ZA‘FARON — Movarounnahrda ekilib, turli xil dori-darmonlar va bo‘yoqlar tayyorlangan texnik o‘simlik.

ZANDANACHI — malla rang bo‘z. Buxoroning Zandana qishlog‘ida to‘qilgan. VII asrdan ipak, X asrdan ip gazlama sifatida shuhrat qozongan. Zandanachi jonli mavjudotlar tasviri (IX asrgacha), o‘simliksimon va handasiy naqshlar bilan bezatilgan.

ZARBXONA — chaqa va tangalar so‘qiladigan ustaxona.

ZOBITONA — kirimni hisoblovchi moliya hodimi uchun olinadigan to‘lov.

O‘G‘UZLAR (arab. va fors. g‘uzlar, guzlar) — turkiyabon qabilalarning ikki guruhi. 1) To‘qquz-o‘g‘uzlar qabila ittifoqi; VIII a. urxun-enisey yozuvlarida qayd etilgan. VII a. boshida Turk xoqonligi tarkibida paydo bo‘lgan. 744-745-yillarda Turk xoqonligi tor-mor etilgach, hozirgi MXR hududida o‘z davlatlarini tuzgan uyg‘urlar qabila ittifoqida yetakchi mavqega ega bo‘lishgan. 840-866-yillarda qirg‘izlar tomonidan siqib chiqarilgan to‘qquz-o‘g‘uzlar hozirgi Sinszyan va Gansu viloyatiga ko‘chib o‘tishgan, Ganchjou davlati va Turfon davlatini (850-1250) barpo etganlar; bu yerda to‘qqiz-o‘g‘uzlar nomi uyg‘ur etnonimi bilan almashgan. 2) IX-XI asrlarda Orol va Kaspiy dengizi bo‘ylaridagi ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalar ittifoqi (g‘uzlar); Yangikent o‘g‘uzlar yabg‘usi qarorgohi bo‘lgan. XI asrning 50-60-yillarida o‘g‘uzlarning bir qismi *Yaroslav Mudriyning* o‘g‘illari tomonidan tor-mor qilinib, Kiev knyazlarining vassallari sifatida Ros daryosi bo‘ylariga joylashganlar; Sirdaryo o‘g‘uzlarining boshqa qismi X-XI a. boshida Buxoro va Xuroson yerlari tomon siljiganlar. 1040-yildan so‘ng saljuqiylar bosh bo‘lgan o‘g‘uzlar G‘arbiy Osiyo mamlakatlarini bosib olganlar. XI-XIII asrlarda o‘g‘uzlar etnonimi O‘rta Osiyo va Eron turkman, Yaqin Sharqda esa turk etnonimi bilan almashgan. O‘g‘uzlar turkman, ozarbayjon, turk hamda gagauz va qoraqalpoqlar etnogenezida muhim rol o‘ynagan. O‘g‘uzlarning epik asarlari (“*Kitobi dadam Qo‘rqut*”, “*O‘g‘uznoma*”) saqlanib qolgan.

G‘AZNAVIYLAR — Xuroson, Shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahr va Xorazmda hukmronlik qilgan turkiy sulola (962-1186). G‘aznaviylar davlatini boshqargan. Sulolaga somoniylar lashkarboshisi *Alptegin* asos solgan. Sulola nomi davlat poytaxti G‘azna shahridan olingan. Somoniylar davrida mamlakatning siyosiy hayoti va harbiy qo‘shinda turk g‘ulomlari katta rol o‘ynagan. Somoniy amirlari ko‘plab turk g‘ulomlarini saltanatga qilgan xizmatlari evaziga siylab, ularni turli viloyatlarga noib qilib tayinlashgan. Iqtidorli lashkarboshi *Alptegin* G‘azna va Kobul viloyatlarini 962-yildan mustaqil boshqarishga intilgan. *Alpteginning* o‘limi (963)dan so‘ng o‘g‘li *Ishoq* va g‘ulomi *Bilgategin*, shuningdek, *Piritegin* hukmronlik qilgan davr (963-977-yillar)da G‘aznaviylar mulki kengaymay turgan. *Alpteginning* kuyovi va sobiq g‘ulomi *Sabuktegin* hukmronligi davrida (977-997) esa G‘aznaviylar sulolasi mustaqil siyosiy kuch sifatida Somoniylar tomonidan e‘tirof etilgan. Sulola shuhratini *Sabukteginning* o‘g‘li *Mahmud G‘aznaviy* eng yuqori cho‘qqiga ko‘targan. Sulola hukmdorlari avval amir, so‘ngra sulton (*Mahmud G‘aznaviydan* boshlab) va shoh (*Bahromshohdan* boshlab) deb atalganlar. G‘aznaviylar hukmdorlari quyidagilardan iborat bo‘lgan: *Alptegin* (962-963), *Ishoq* (963-966), *Bilgategin* (966-972), *Piritegin* (972-977), *Sabuktegin* (977-997), *Ismoil* (997-998), *Mahmud G‘aznaviy* (998-1030), *Muhammad* (1030), *Mas‘ud G‘aznaviy* (1030-41), *Mavdud* (1041-48), *Mas‘ud II* (1048), *Ali Abul Hasan* (1048-49), *Abdur Rashid* (1049-53), *To‘g‘rul* (1053), *Farruxzod* (1053-59), *Ibrohim* (1059-99), *Mas‘ud III* (1099-1114), *Sherzod* (1114-15), *Arslon* (1115-18), *Bahromshoh* (1118-52), *Xusravshoh* (115-60), *Xusrav Malik* (1160-86).

G‘ITRIFIY — Somoniylar chiqargan kumush dirham.



G'OZIY (arabcha urushuvchi, harbiy yurish ishtirokchisi) — islom dini uchun g'ayri dinlarga qarshi muqaddas urush (g'azavot) ishtirokchisi. Shariatga ko'ra, bunday urushda oti va qurol-yarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogiron va keksa kishilar bundan ozod etilgan.

G'ULOMLAR (arabcha) — 1) O'rta asrlarda musulmon mamlakatlaridagi qullar. 2) Abbosiylar xalifaligida xalifa Ma'mun hukmronligi davrida (813-833) chet ellardan sotib olingan yosh qullardan tuzilgan otliq askarlar gvardiyasi. 3) O'rta asrlarda boshqa musulmon davlatlarida ham saroy gvardiyasi askarlari, xonning shaxsiy jangchisi.

G'UZ — To'quzo'g'uzlar shu nom ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'rtnashib, bu hududda ular IX asr oxiri va X asr boshida O'g'uzlar davlatiga asos soladilar.

SHAYX (arabcha — keksa, oqsoqol) — islom dini tarqalgan mamlakatlarda yirik bilimdon kishilar, olimlar (masalan, Ibn Sino shayx ur-ra'is unvoniga ega bo'lgan), ruhoniylar, ulamolalar unvoni. Arablarda islomdan ilgari urug', qabila boshliqlari, katta patriarxal oila oqsoqollari shayx deb atalgan. Musulmon mamlakatlarida hozir ham shayx oliy diniy maktablarning mudarrisleri va yirik ulamolarga nisbatan qo'llaniladi. O'rta Osiyoda shayx ko'pincha muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjoylarda sadaqa va nazr-niyoz hisobiga yashaydigan ruhoniylar tabaqasiga nisbatan ishlatilgan.

SHAYXULISLOM — Somoniylar davlatida din peshvosi va islom ulomalarining rahnamosi.

SHERIK — IX-X asrlarda yollanib qo'shchilik qilganlar shu nom bilan atalgan.

CHEK (fors-tojik — pul hujjati) — 1) bankdagi hisob varaq egasi (chek beruvchi) ning muayyan summadagi pulni biror shaxs (chekni taqdim qiluvchi) ga to'lash to'g'risida bankka yoki kredit muassasasiga yo'llagan yozma buyrug'i, farmoyishi; pul hujjati, qimmatli qog'oz turi. Chek yoziladigan qog'oz (chek qog'ozi) tarzida maxsus daftarcha holiday chiqariladi. Chek beruvchi o'z hisob varagidan o'zi uchun pul olishda ham chekdan foydalaniladi. 2) chakana savdoda kassaning xaridordan pulni qabul qilib olgani to'g'risidagi pattasi. To'lov o'tkazilgan va xaridni olish mumkinligi tasdiqlaydi va to'lov o'tkazilgan do'kon doirasida amal qiladi.

CHOHPAR — o'ra.

CHO'R — lashkarning sharqiy qanot amiri.

TARIXIY-GEOGRAFIK NOMLAR

HAMADON — Eronning g'arbiy qismidagi shahar. Shahar mil. avv. XI asrdan ma'lum. Hamodon nomi dastlab Ossuriya mixxatlarida Amatana, qadimiy fors tilida Hagmatana, yunoncha Agbatana yoki Ekbatana shaklida uchraydi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Midiya poytaxti, mil. avv. 550-549-yillardan keyin Axamoniylarning yozgi qarorgohi. Salavkiylar, parfiyaliklar va sasoniylar davrida Mesopotamiyadan Sharqning boshqa mamlakatlariga o'tuvchi savdo yo'lining muhim markazlaridan biri. VII asrdan Arab xalifaligi tarkibida. XI asrda shaharni o'g'uzlar egalladilar. 1118-1194-yillarda G'arbiy Erondagi

Saljuqiylarga tobe bo'lgan Iroq sultonligining poytaxti. 1220-yilda Hamadonni mo'g'ullar bosib olib, vayron qilganlar. XVI-XVIII asrlarda Safaviylar davlati tarkibida. Eron-Turkiya urushlari davrida (XVI-XVIII asrlar) bir necha bor turklar qo'l ostiga o'tgan.

ISSIQKO'L — Shimoliy Tyanshandagi oqmas ko'l, Qirg'izistonning shimoli-sharqiy qismida. Dunyodagi eng yirik tog' ko'llaridan biri. 1618 metr balandlikda, Issiqko'l soyligida, shimolda Kungay Olatov va janubda Terskaya Olatov va janubda Terskaya Olatov tizmalari orasida.

MARV (Avestoda — Mouru) — O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Bayramali shahri (Turkmaniston) yaqinida joylashgan. Marvning qoldiqlari 5 qal'a (Erk qal'a, Gabr qal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a, Bayramalixon qal'a) xarobalaridan iborat. Marvning eng qadimgi qismi — Erk qal'a (maydoni 12 ga) mil.avv. I ming yillikning I-choragidan mavjud bo'lgan. Marvning ravnaq topgan (Parfiya va ilk sasoniylar) davri mil.avv. II — milodiy III asrga to'g'ri keladi. Bu davrda M.Gabr qal'a va Erk qal'a hududlaridan iborat bo'lib, Erk qal'a Marvning arkiga aylangan. Shahar va uning atrofi (60 km²) mudofaa devori bilan o'rab olingan. Milodiy III asrdan Marv Sasoniylar davlati tarkibiga kirgan, VII asrda esa arablar tomonidan bosib olingan. VIII asr o'rtasida Marv — Abu Muslim harakati markazi. IX asrda ilm-fan ravnaq topdi, u arab xalifaligining Xuroson va Movarounnahr noibligining poytaxti rolini o'ynadi. *Ma'mun ibn Horun ar-Rashid* davrida Marvda Bag'dod akademiyasining asosini tashkil etgan marvaziylar maktabi tarkib topdi. O'rta asrdagi Marvning ravnaq topgan davri XI-XII asrning I-yarmiga to'g'ri keldi; bu davrda u buyuk Saljuqiylar davlatining poytaxti bo'lgan (Sulton qal'a xarobasida Sulton Sanjar maqbarasi joylashgan). XII asr oxiri — XIII asr boshida Marv Xorazmshohlar davlatining yirik markazi bo'lgan. 1222-yil shahar mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. XIII asr o'rtasi — XIV asrda shahar qisman tiklangan (ayniqsa, uning rabod qismi). XV asr boshida *Shohruh* davrida qisqa muddat ravnaq topgan. Marvdan o'rta asrlarda ko'plab olimu fuzalolar yetishib chiqqan. 1510-1524 va 1601-1747-yillarda Marv forslar qo'lida bo'lgan. Marv urushlari tufayli inqirozga yuz tutgan (1790) va markaz Marvdan 30 km g'arbga Marv shahriga ko'chgan.

MOZANDARON — Erondagi tarixiy viloyat. Gilon bilan Xuroson oralig'ida. IX-XII asr manbalarida Tabariston nomi bilan ma'lum. XIII asrdan esa Mozandaron deb atalgan. Sasoniylar davrida mustaqil hokimlik bo'lgan; keyinchalik arablar, somoniylar, saljuqiylar, mo'g'ullar qo'l ostiga o'tgan, ammo hokimiyatni mahalliy hokimlar boshqargan. Mozandaronni XIV asr oxirida *Amir Temur* qo'shinlari egallagan. XVI asr boshida Mozandaron yana mahalliy hukmdorlar qo'lga o'tgan. *Abbos I* davrida Mozandaron mahalliy sulola tugatilib, Mozandaron Safaviylar davlatiga qo'shilgan.

NASAF, NAXSHAB — Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimi bo'ylarida joylashgan o'rta asr shahri va viloyati nomi. Nasaf shahri Qarshi shaharidan 8 km shimoli-g'arbdagi Shulluktepa shahar xarobasi o'rnida bo'lgan. VII-VIII asrlarda Nasafda ot tasviri, G — belgisi va turkiy chehra hokim rasmi tushurilgan mis tangalar zarb

qilingan. VIII asrning ikkinchi yarmidan bu tangalar fel's deb atalgan. Arablar istilosidan so'ng Nasaf viloyatining ma'muriy markazi bo'lgan. Nasaf o'rta asrlarda 3 qismdan — ark, shahriston va raboddan tashkil topgan, mudofaa devori bilan o'ralgan, 4 ta darvozasi — Buxoro, Samarqand, Kesh va Gubdin darvozalari bo'lgan. X asrda ark xarobaga aylanib, hayot keng rabodda davom etgan. Hokim uyi va qamoqxona daryo bo'yidagi Ra's al qantara — ko'prik boshi degan yerda joylashgan, jome masjidi rabodda, Gubdin darvozasi oldida bo'lgan, shahar bozor bilan hokim uyi oralig'ida joylashgan. XIV asrda Qarshi nomini olgan.

QORAXITOYLAR DAVLATI (taxm. 1140-1213) — o'rta asrlarda Sharqiy Turkiston, Ili va Chu vodiysi, Yettisuv va O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan davlat. Poytaxti — Chu daryosi bo'yida joylashgan Xusi-orda (Bolasog'un). Asoschisi — Yelyuy Dashi. U 1124-y. gurxon unvonini qabul qilgan. 1125-y. kidonlar saltanati chjurchjenlar tomonidan tor-mor etilgach, bir guruh tarafdorlari bilan Shimolga qochgan. Qoraxoniylar qoraxitoylar tomonidan bo'ysundirilgandan so'ng davlat poytaxtini Bolosog'unga aylantiradilar. Bolasog'un podshohlari "go'rxon" deb yuritilgan. Yettisuvga joylashib olgan qoraxitoylar tez orada Sirdaryoning o'rta oqimiga tomon yurish boshlaydilar. Ularning jangovar qo'shinlari avval Shosh va Farg'onaga, so'ngra Zarafshon va Qashqadaryo viloyatiga bostirib kiradi. 1137-yilda ular Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni *Mahmudga* qaqshatqich zarba beradilar. O'zaro sulh tuzilib, qoraxoniylardan katta tovon olingach, o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Lekin ko'p o'tmay qoraxoniylar 1141-yilda Movarounnahrda yurish qiladilar. Samarqand yaqinidagi jangda qoraxitoylar g'alaba qozonadi. *Sulton Sanjar* va eloqxon *Mahmud* Termizga chekinib jon saqlaydilar. Bu g'alabadan so'ng qoraxitoylar avval Samarqandni, so'ngra Buxoroni egallaydilar. Biroq Qoraxoniylar davlatini uzil-kesil barbod qilib, Movarounnahrni batamom bosib olmaydilar. G'olib qoraxitoylar mahalliy aholining har xonadonidan yiliga bir dinor hajmda soliq yig'ib olish tartibini joriy etish bilan kifoyaladilar. Gurxonlar kidanlarga taqlidan tangalar zarb etdirganlar, lekin mamlakatning iqtisodiyoti va ichki ishlariga kam aralashganlar, ular faqat vassallaridan (Balx, Xorazm, Xo'tan, Gaochan va boshqalar) soliq olish bilan kifoyalanganlar. Qoraxitoy davlatini ikki marta ayollar idora etgan. Qoraxitoy davlati Amudaryo va Balxash ko'lidan Kunlun va Beyshan tog'lariga qadar hududni egallagan. Qoraxitoy davlatining qulashi mo'g'ullar tomonidan Sharqiy Turkistonni bosib olinishi va 1208-y. ulardan qochgan naymanlarning kelishi va 1211 y. Gurxonning asir olinishi (2 yildan so'ng vafot etgan) bilan bog'liq bo'lgan. 1218-yil naymanlar *Chingizxon* tomonidan bo'ysundirilgan.

QORAXONIYLAR DAVLATI, XONIYLAR YOXUD XOQONIYLAR DAVLATI (927-1212-yillar) — Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yon bag'rida tashkil topgan davlat. Qoraxoniylar sulolasi boshqargan. Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chig'il va yag'mo qabilalari yetakchi rol o'ynagan. Qoraxoniylar davlatining saltanat darajasidagi rivoji va taraqqiyoti X asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. *Abdulkarim Sotuy Bug'roxon* hokimiyatni egallab, o'zini "Qoraxon" deb e'lon qiladi. Bug'roxondan keyingi barcha xonlar ham ushbu

unvon bilan ulug'langan.

SAFFORIYLAR davlati (861-900-yillar) — Eronda safforiylar sulolasi hukmronlik qilgan davlat. Seistonlik dehqon *Ya'qub ibn Lays as-Saffor* asos solgan. IX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo va Eron chegarasida xalq harakatlari kuchayib ketadi. Bu xalq harakatlaridan misgar aka-uka *Ya'qub* va *Amr ibn Layslar* o'z niyatlarini amalga oshirishda foydalandilar. Avval ular qarochilik qildilar, so'ngra Seyistondagi "g'oziyalar" ("e'tiqod uchun kurashuv-chilar") qo'shiniga qo'shildilar. *Ya'qub* tez orada bu qo'shinning boshlig'i bo'lib oladi. U 861-yilda Seistonning poytaxti Zaranj shahrini tohiriylardan tortib oldi. 873-yilda ularga so'nggi zarbani berib poytaxt Nishopurni egallaydi. Natijada arab xalifasi Xuroson noibligini *Ya'qubga* topshirishga majbur bo'ladi. 876 yilda *Ya'qub* katta qo'shin bilan Bag'dod tomon yo'l oldi. Bu jangda *Ya'qub* xalifa qo'shinidan mag'lubiyatga uchradi va u orqaga qaytdi. 879-yilda *Ya'qub* vafot etib taxtga ukasi *Amr ibn Lays* o'tirdi va xalifaga o'z vassalligini bildirdi. Bunga javoban xalifa *Amr ibn Laysni* Xuroson va Eronning noibi ekanligini qayd qiluvchi yorliq yubordi. Bu davrga kelib Movarounnahrda somoniylar sulolasi kuchayib borayotgan edi. *Xalifa al-Mu'tazid* (892-902) *Ismoil Somoniy* Movarounnahr hokimligidan tushirilgani va u yerga *Amr ibn Laysni* hokim qilib tayinlaganini e'lon qildi. Movarounnahr noibligi to'g'risidagi yorliqni olgan *Amr ibn Lays Ismoilga* qarshi qo'shin tortdi. 900-yilda Buxoro ostonasida *Amr ibn Lays* qo'shinlari tor-mor etildi. *Tohir ibn Muhammad* bir necha marta harakat qilib Safforiylar davlatini tiklay olmadi. IX asr boshlarida Somoniylar mulkiga qo'shib olindi.

SALJUQIYLAR DAVLATI (1038-1308) — Yaqin va O'rta Sharq, qisman Movarounnahrda saljuqiylar sulolasi boshqargan davlat. Saljuqiylar davlatiga *Saljuqning* nevarasi *Sulton To'g'rulbek* asos solgan.

SOMONIYLAR DAVLATI (875-999) — Movarounnahr va Xurosondagi o'rta asr davlati. Somoniylar davlatining tashkil topishi arab xalifaligining qulashi hamda Movarounnahr va Xurosonni bosib olgan Somoniylarning davlat tepasiga chiqishi bilan bog'liq. Ravnaq topgan davrida Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan.

SUYOB — Qarluqlar davlatining poytaxti.

TALOS — Qirg'iziston Respublikasidagi daryo. Qirg'iziston tizmasining janubiy yon bag'rida, Qorako'l nomi bilan boshlanadi, Qorasoy qishlog'i yonida Uchqo'sho'y irmog'i qo'shilgach, Talas nomini oladi. Talas Chu daryosigacha yetmasdan ancha uzoqda Mo'yinqum cho'llari orasida kichik-kichik ko'llar hosil qilib tugaydi. Eng yirik irmoqlari: Uchqo'sho'y, Ko'lba, Beshtosh, Urmalar, Kumushtog', Qorabura, Kengko'l va Nelden. Talos bo'yida Taroz, Talas shaharlari joylashgan.

TOHIRIYLAR DAVLATI (821-873-yillar) — Abbosiylar xalifaligi parchalanishi munosabati bilan Xurosonda tashkil topgan davlat. Asoschisi — *Tohir ibn Husayn*. 821 yilda *Tohir ibn Husayn* va Movarounnahrning noibi etib tayinlangan. U xalifalikdan mustaqil bo'lishga harakat qilgan. Xutbadan xalifa nomi chiqartirib tashlangan. Shunday qilib, Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi

tohiriylar xonadoniga meros bo'lib qolgan. *Tohir ibn Husayn*ning o'g'li *Abul Abbas Abdulloh* noibli (824-844) davrida ma'muriy markaz Marvdan Nishopur shahriga ko'chirilgan. Tohiriylar davrida Somonxudot avlodlari Movarounnahr shaharlarida mahalliy noib edilar. Tohiriylar ularni o'zlariga tobe sifatida tan olganlar. Tohiriylar rasman o'zlarini xalifaga tobe deb ko'rsatsalarda amalda mutlaqo mustaqil ish yuritganlar. Ular dastavval siyosiy hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo'jaligini tartibga solishga harakat qilishgan. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi kanallar qazilgan. Tohiriylar davlat boshqaruvi, fuqarolarga munosabat, ayniqsa, soliq tartiblariga alohida ahamiyat berganlar. Mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, o'g'ir soliqlardan bezor bo'lgan aholi mamlakatda tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turgan. IX asrning 60-yillarida Xurosonda *g'oziyalar* faolligida xalq qo'zg'oloni avj olib ketgan. 873-yilda Tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi Safforiylar davlati tashkil topgan. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishdan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'lgan.

XORAZMSHOHLAR DAVLATI — qadimgi davrdan XIII asr o'rtalariga qadar Xorazm hududida hukmronlik qilgan sulolalar (siyovushiyalar, afrig'iyalar, ma'muniylar, oltintoshlar, anushteginiylar). Xorazmshohlar davlatini xorazmshohlar boshqargan. Markazi, asosan, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo'lsa ham, rivojlangan davrlarida, ayniqsa, XIII asr boshlarida shimolda Kaspiy dengizining shimol sohillari, janubida Hindukush tog'lari, sharqda Qashqargacha yetgan.

YANGIKENT, JANKENT — X-XI asrlarda hukmronlik qilgan o'g'uz podshohlarining qarorgohi. Sirdaryoning quyi oqimiga joylashgan. Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiya tomonidan o'rganilgan. Yangikent to'g'ri to'rtburchak (375x225 metr) shaklida bo'lib, sharqqa tomon bir oz kengayib boradi. Shahar asosiy ko'cha bilan uzunasiga ikki teng qismga bo'lingan. Yangikentning shimoli-g'arbiy qismida hajmi 100x100 metrli ark joylashgan. Shahar yarim doirasimon burjlari bo'lgan mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Yangikent mahalliy xalqlar madaniyatining Qadimgi Xorazm va shimoli-sharqdagi turkiy xalqlar madaniyati bilan o'zaro aloqada rivojlanib borganini ko'rsatadi.

YETTISUV — Qozog'istonning janubiy-sharqiy qismi. Shimolda Balxash ko'li, shimoliy-sharqda Sasiqko'l va Olako'l, janubiy-sharqda Jung'ariya Olatovi tizmasi, janubda Shimoliy Tyanshan tizma tog'lari hamda garbda Chu-Ili tog'lari bilan chegaralangan. Yettisuv atamasi Balxash ko'liga quyiladigan yetti daryo (Ili, Qoratol, Biyon, Oqsuv, Lepsa, Baskon, Sarkand)dan olingan. Tarixiy manbalarda Yettisuv deganda ancha katta hudud (Chu daryosi vodiysi bilan birga) tushunilgan. Yettisuv — O'rta Osiyo madaniyatining qadimgi markazlardan biri. Yettisuvda saklar, keyinchalik usunlar yashagan. Milodiy VI asr oxirlarida Yettisuvda G'arbiy turk xoqonligi, keyinchalik turkashlar (VIII asrning o'rtalarigacha) va qorluqlar (766-940) hukmronlik qilishgan. Yettisuvni X asrning o'rtalaridan Qoraxoniylar, XII asrning 30-yillaridan qoraxitoylar boshqargan. Mo'g'ullar bosqinchiligi davri

(1219-1221)da Yettisuvning dehqonchilik vohalari va shaharlari qattiq zarar ko'rgan. XVI asrda Yettisuvda qozoqlarning Katta juzi tashkil topgan. XIX asrning o'rtalarida Rossiya tomonidan bosib olingan.

G'AZNA, G'AZNI — Afg'onistonning jan.-sharqiy qismidagi shahar, G'azni daryosi bo'yida joylashgan. G'azni viloyatining ma'muriy markazi. Shaharning barpo bo'lgan davri ma'lum emas. G'aznaga doir ilk ma'lumotlar VII asrga oid manbalarda uchraydi. O'rta asrlarda O'rta Sharqning muhim madaniy, savdo va siyosiy markazlaridan biri bo'lgan. X-XI asrlarda G'aznaviylar davlati poytaxti. XII a. o'rtalarida g'uriylar shaharni egallab, katta qismini vayron qilganlar. 1215-21 yillarda G'azna Xorazmshohlar qo'l ostida bo'lgan. 1221 yilda shaharni mo'g'ullar bosib olgan. XIII asrning ikkinchi yarmidan G'azna hukmdorlari Hirotidagi Kurtlar sulolasining vassali bo'lgan. XIV asr oxiri XV asr boshlarida Temuriylar davlati, XVI asr boshlaridan Boburiylar saltanati tarkibida. 1738-yilda shaharni *Nodirshoh* egallagan. Afg'oniston davlati tuzilgach (1747), G'azna uning tarkibida. Me'moriy yodgorliklardan XII asrda barpo etilgan ikkita minoraning qoldiqlari saqlangan.

G'AZNAVILAR DAVLATI (962-1186-yillar) — Xuroson, Shimoliy Hindiston hamda qisman Movarounnahr va Xorazmda g'aznaviylar sulolasi boshqargan turkiy davlat. G'aznaviylar davlatiga *Alpteginning* g'ulomi va kuyovi *Sabuktegin* asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G'azna shahri nomidan olingan.

CHAG'ONRUD — Surxondaryoning o'rta asrlardagi nomi.

CHU DAYOSI — Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalari hududidagi daryo. Uzunligi 1067 km, havzasining maydoni 62,5 ming km². Markaziy Tyanshandan boshlangan Qoraxo'jir (quyi oqimida Juvonariq) va Qo'chqor daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lib, Sirdaryoga 110 km yetmasdan qumlar orasida tugaydi.

TARIXIY SANALAR

786-809-YILLAR — Arab xalifaligida xalifa *Xorun* hukmronligi.

809-813-YILLAR — Arab xalifaligida xalifa *Xorun* vafotidan so'ng uning o'g'illari *Ma'mun* bilan *Amin* o'rtasida taxt uchun kurash bo'lib o'tadi.

813-YIL — *Ma'mun* va *Tohir ibn Husayn* ittifoqi Bag'dodga yurish qilib, *Ma'mun* xalifalik taxtiga o'tiradi. *Ma'mun* somonxudotning nabiralari bergan yordami uchun *Nux* Samarqandga, *Ahmad* Farg'onaga, *Yahyo* Shosh va Ustrushonaga, *Ilyos* Hirotga noib etib tayinlaydi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar.

819-842-YILLAR — Somoniylar davlatida *Nuh ibn Asad* hukmronligi.

821 YIL — *Tohir* Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Oradan bir yil ham o'tmay xutbadan u xalifa nomini chiqarib tashlaydi. Bu shubhasiz Bog'dod bilan aloqani uzish va o'zini mustaqil deb e'lon qilish edi.

821-873-YILLAR — O'rta Osiyoda Tohiriylar

davlatining hukmronligi.

822-YIL — *Tohir* davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlatadi.

830-844-YILLAR — Movarounnahrda *Abul Abbos Abdulloh* noibliigi davrida poytaxt Marvdan Nishopur shahriga ko'chiriladi. Movarounnahrning bir nechta shaharlarida noiblik qilayotgan Somonxudot avlodlarining mahalliy noibliigi tohiriylar tomonidan tan olinadi. Somoniylar esa, o'z navbatida, tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etadilar. Xuroson va Movarounnahrda bir asrdan oshiqroq hukm surgan xalifalik hukmronligi tugab, ikki mahalliy sulola siyosiy jihatdan qaror topishi va mustaqil davlatning tiklanishini namoyish etardi.

842-864-YILLAR — Somoniylar davlatida *Ahmad ibn Asad* hukmronligi.

865-892-YILLAR — Somoniylar davlatida *Nasr I ibn Ahmad* hukmronligi.

865-YIL — Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Ustrushona viloyatlari noibi *Ahmad* vafot etdi. Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag'onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi.

873-YIL — G'oziyalar tohiriylarning harbiy qo'shiniga qaqshatqich zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egallashi natijasida tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi *Safforiylar davlati* tashkil topadi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishdan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib chiqib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ladi.

874-YIL — *Nasr* o'z ukasi *Ismoilni* Buxoroga noib qilib yuboradi.

874-907-YILLAR — Somoniylar davlatida *Ismoil ibn Ahmad* hukmronligi.

875-999-YILLAR — Movarounnahr va Xurosonda *Somoniylar* hukmronligi davri. O'rta asrlar mulkchilik zamonasining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi an'alariga suyanib, muntazam harbiy qism va kuchli harbiy qo'shinlarga ega bo'lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi.

888-YIL — Aka-uka *Nasr* va *Ismoil* o'rtasida jang bo'lib o'tishi natijasida *Nasr* qo'shinlari tor-mor keltiriladi va *Ismoil* butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib oladi.

892-902-YILLAR — xalifa *Mu'tazid* hukmronlik davri. U safforiylar hukmdori *Amr ibn Lays*ga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni *Ismoilga* qarshi g'ijg'ijlaydi.

893-YIL — *Ismoil Somoniy* Taroz shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi. Bu somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi.

900-YIL — Safforiylar bilan somoniylar o'rtasida boshlanib ketgan urush *Ismoilning* g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi.

900-908-YILLAR — *Ismoil Somoniy* tomonidan

Xurosonning Movarounnahr qo'shib olinishi.

907-914-YILLAR — Somoniylar davlatida *Ahmad ibn Ismoil* hukmronligi.

914-943-YILLAR — Somoniylarda *Nasr II* hukmronligi davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoga joylashgan edi.

942-YIL — Somoniylar davlati aholidan 2 marta soliq undirib oldi va aholining turli tabaqalarini hokimiyatga qarshi qo'zg'alishiga sabab bo'ldi.

943-954-YILLAR — *Nuh I* hukmronligi davrida Somoniylar davlatida siyosiy vaziyat nihoyatda keskin tus oldi.

947-YIL — *Nuh ibn Nasrning* amakisi *Ibrohim* Somoniylar davlatiga qarshi isyon ko'tardi va saroy gvardiyasi hamda Chag'oniyonning yirik mulkdorlaridan *Abu Ali Chag'oniy* yordamida Buxoro taxtini egallab oldi.

95-YIL — Somoniylar hukmdori *Nuh Abu Ali Chag'oniy*ni dastlab Chag'oniyonga, so'ngra Xurosonga hokim etib tayinladi.

954-961-YILLAR — Somoniylar davlatida *Abdumalik ibn Nuh* hukmronligi.

961-YIL — Buxoro harbiy askarlarining g'alayon ko'tardilar va amir saroyini talab, unga o't qo'yib yubordilar.

961-976 YILLAR — Somoniylar davlatida *Mansur I ibn Nuh* hukmronligi.

976 997-YILLAR — Somoniylar davlatida *Nuh ibn Mansur (Nuh II)* hukmronligi. Uning hukmronligi davrida Somoniylar davlatida siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashdi.

992-YIL — *Hasan Bug'roxon* boshliq Qoraxoniylar Movarounnahr qo'shig'iga hujum boshladilar. Ularning harbiy yurushlarida Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turk qabilalari ham qatnashadilar.

996-YIL — *Nasr ibn Ali* boshchiligidagi Qoraxoniylar yana Movarounnahr qo'shig'iga hujum boshlashdi.

997-999-YILLAR — Somoniylar davlatida *Mansur II ibn Nuh* hukmronligi.

999-YIL — Buxoroning *Nasr Eloxon* tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topdi.

1005-YILGACHA — Somoniylar Samarqand va Buxoroni qaytarib olishga urinishi.

1006-1008-YILLAR — Qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Balx, Tus va Nishopur shaharlari zabt etiladi. Ularning harbiy yurishlarini Sulton Mahmudga qarshi bo'lgan Xuroson mulkdorlari qo'llab-quvvatlaydilar. Lekin *Mahmud G'aznaviy* Qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi.

1017-YIL — *Mahmud G'aznaviy* Xorazm ustiga qo'shin tortib, uni bosib oladi va Xorazm mustaqil davlat sifatida barham topadi.

1038-YIL — Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori *Ibrohim Bo'ritakin* Amudaryo bo'yi viloyatlari Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysuntirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolosog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar,

ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan Movarounnahr-dagi Qoraxoniylar davlati edi. Bu g'alabalardan so'ng Ibrohim Tamg'ach "bug'roxon" unvoniga sazovor bo'ladi.

1038-1063-YILLAR — saljuqiylar hukmdori *Tug'rubek* davrida Xorazm, Iroq Ajami, Ozarbayjon, Kurdistan va Ko'histon zabt etildi.

1040-YIL — Marv bilan Saraxs (Seraxs) oralig'idagi Dandanaqon degan joyda g'aznaviylar bilan saljuqiylar qo'shinlari to'qnashadilar. Jangda *Mahmud G'aznaviy* qaqshatqich zarbaga uchraydi. Saljuqiylar G'aznaviylar davlatining asosiy qismi hisoblangan shimoliy va g'arbiy viloyatlarini egallab oladilar. G'aznaviylar tasarrufida G'azna, Kobul, Qandahor va Panjob viloyatlarigina qolib, u kichik davlatga aylanadi.

1044-YIL — Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo'ldi. Saljuqiylar hukmdori *Malikshoh* o'z ma'murlaridan Anushtakinni Xorazmga noib qilib tayinlaydi.

1055-YIL — saljuqiylar Bag'dodda o'z siyosiy hukmronligini o'rnatadilar. Xalifa faqat diniy ishlardagina mutasaddi bo'lib qoladi. Ray shahri Saljuqiylar davlatining poytaxtiga aylantiriladi.

1097-1127-YILLAR — Xorazmda *Anushtakinning* o'g'li *Qutbiddin Muhammad* noibliigi davrida "Xorazmshoh" unvonini tiklangan bo'lsa-da, u sulton *Sanjarning* sadoqatli noibligicha qolgan.

1127-1156-YILLAR — *Qutbiddin Muhammadning* o'g'li *Alouddin Otsiz* hukmronligi davrida Xorazmning mustaqilligi uchun kurash avj oladi.

1130-YIL — Saljuqiylar sultoni *Sanjar* Movarounnahr-ga qo'shin tortib Qoraxoniylar davlatining poytaxti Samarqandni ishg'ol etadi. Natijada qoraxoniylar *Sulton Sanjarga* tobe bo'lib qoladilar.

1137-YIL — qoraxitoylar Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni *Maxmudga* qaqshatqich zarba beradilar. O'zaro sulh tuzilib, qoraxoniylardan katta tovon olingach, o'z yurtlariga qaytib ketadilar.

1141-YIL — qoraxitoylar Movarounnahr-ga yurish qiladilar va Samarqand yaqinidagi *Qatvon cho'lida* ular saljuqiylar bilan qoraxoniylarning birlashgan kuchlaridan g'alaba qozonadi. *Sulton Sanjar* va eloqxon *Mahmud* Termizga chekinib jon saqlaydilar. Bu g'alabadan so'ng qoraxitoylar avval Samarqandni, so'ngra Buxoroni egallaydilar. Qoraxitoylar mahalliy aholining har xonadonidan yiliga bir dinor hajmda soliq yig'ib olish tartibini joriy etish bilan kifoyalanadilar. O'z mustaqilligini yo'qotgan Qoraxoniylar davlati parchalanib, bir nechta viloyat hokimliklariga bo'linib ketadi. Mamlakatda boshboshdoqlik kuchayadi. *Sulton Sanjarning* ham buyuk davlati keskin xarobaga uchrab, saljuqiylarga qarshi kurashayotgan Xorazmning mustaqillik uchun olib borayotgan jang-u jadallari avj olib ketadi.

1153-YIL — *Sulton Sanjarga* qarshi ko'chmanchi guzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab parchalanib ketadi. Dastavval undan Kichik Osiyo va Karman ajralib ketadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi.

1156-1172-YILLAR — Xorazmda *Elarston* hukmronligi davrida otasi *Otsizning* siyosati davom

ettiriladi.

1172-1200-YILLAR — Xorazmda *Alouddin Takash* hukmronligi davrida bobosi *Otsizning* siyosati davom ettiriladi va Old va O'rta Osiyoda Xorazmshohlar davlatidek yirik va qudratli o'rta asr hokimligi barpo etiladi. Xorazm davlati ikki baravar kengayadi.

1187-1193-YILLAR — *Takash* Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi.

1194-YIL — *Takash* Saljuqiylar sultoni *Tug'rugla* qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi.

1195-YIL — *Takash* xalifa askarlariga zarba berib, Iroqqa bostirib kirishga muvaffaq bo'ladi. Ammo Xorazm askarlarining tajovuzkorona xatti-xarakatlari Iroqda aholining qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Natijada *Takash* qo'shinining kattagina qismi qirib tashlanadi.

1200-1220-YILLAR — Xorazmda *Alovuddin Takashning* o'g'li *Sulton Muhammad* hukmronligi davrida Xorazm davlatini kengaytirish siyosati davom etadi. Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabt qilishga kirishilgan. Qoraxoniylarga zarba berib, Movarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qilingan.

1206-YIL — Buxoroda sadrlarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonga qalqon yasovchi hunarmand *Malik Sanjar* boshchilik qildi. Ular sadr va uning oilasini Buxorodan haydab chiqardilar va uning mol-mulklarini talaydilar. Bundan xabar topgan Muhammad Xorazmshoh qo'zg'olonchilar ustiga askar tortadi. Qo'zg'olon harbiy kuch bilan bostiriladi. Buxoro Xorazmshohlar davlatiga qaratiladi.

1206-YIL — Movarounnahrni qoraxitoylarga qaramlikdan ozod etishga kirishildi.

1210-YIL — nayman sardori *Kuchluk* Go'rxonning O'z-gandagi xazinasini qo'lga kiritadi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh, Samarqand hukmdori *Usmon ibn Ibrohim* bilan birlashib, Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talos vodiysida Go'rxon qo'shinlari bilan to'qnashadilar va ikki tomondan zarbaga uchragan Go'rxon askarlari yengiladi. Qoraxitoylar qo'shining qo'mondoni *Tayang'u* asirga olinadi. Yettisuvga qadarli yerlar Xorazmshohlar davlatiga qaratiladi.

1210-YIL — O'tror hokimi *Tojiddin* boshliq aholi isyon ko'tardi.

1212-YIL — Xorazmshohga qarshi samarqandliklar qo'zg'olon ko'tarib, Xorazm ma'murlari va askarlarining ko'pchiligini qirib tashlaydilar. Qo'zg'alonda Samarqand hokimi *Usmon* ham qatnashadi. *Muhammad Xorazmshoh* qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Shahar uch kun talanib, *Usmon* qatl etiladi va aholisi qattiq jazolanadi. Samarqand qo'zg'oloni bostirilgach, Xorazmshoh Movarounnahrning boshqa viloyatlaridagi qoraxoniylar noiblarining barchasini qatl qilishga buyurdi. Farg'ona olinib, O'zgan va Samarqand shaharlarida *Muhammad Xorazmshoh* nomi bilan tangalar zarb etildi. Bu Movarounnahrda qoraxoniylar sulolasi hukmronligini uzil-kesil tugatilganini namoyish etar edi.

VI-VII ASRLAR — Oltoyning g'arbida so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan Qarluqlar Turk xoqonligi tarkibiga kirgan.

VI ASRNING BIRINCHI YARMI — Xitoydan to Qora

dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan keng maydonda ko'chmanchi chorvachilik bilan kun kechirgan turkiy qabilalarning — to'quzo'g'uzlarning harbiy ittifoqi yuzaga keladi.

VI ASRNING IKKINCHI YARMI — VII asr — to'quzo'g'uzlar Turk xoqonligining tarkibiga kirishi.

VII ASR O'RTALARI — qarluqlar Yettisuv o'lkasiga ko'chib joylashgan. Ularning katta guruhi *Talos* va *Chu* daryolarining adoqlarida va *Issiqko'lgacha* bo'lgan hududda yashagan.

VIII ASR O'RTALARI — Yettisuv o'lkasida qarluqlar davlati tashkil topdi. Bu davlatning poytaxti Chu daryosidan shimolroqda joylashgan Siyob shahri edi. Qarluqlar davlati hukmdori "yabg'u" yoki "jabg'u" deb yuritilgan.

VIII ASR OXIRI — qarluqlar jabg'usi islom dinini qabul qilgan.

VIII ASR OXIRI — IX ASR BOSHLARI — Arab xalifaligi og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, mamlakat ichida uzluksiz davom etgan urushlar arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirib, mustaqil davlatlarni paydo bo'lishiga olib keldi.

VIII ASR OXIRI — IX ASR BOSHI — Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlaridan ikki mustaqil turk davlatlari: Qarluqlar va O'g'uzlar davlati tashkil topdi. Qarluqlar o'zbek va tojiklarning, o'g'uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, turklarning etnogenezida muhim rol o'ynadi.

VIII ASR OXIRI — IX ASR BOSHI — xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o'zgartirishga majbur bo'lgan. Sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb etish va ularning qo'li bilan viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga harakat qiladilar.

IX ASR — Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan.

IX ASR — Movarounnahr va Xorazm shaharlarida to'qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik va duradgorlik kabi kasb-u hunarlar ancha rivoj topishi natijasida, shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zgaradi. Unda katta-katta oliy imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, namozgoh xonaqox va karvonsaroylar qad ko'tardi. Endilikda shaharlar ilk o'rta asrlarda ark (o'rda) shahriston (ichki shahar) va rabod (tashqi shahar) deb yuritilgan uch qismini yagona devor bilan o'rab olinib, o'ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylanadi.

IX ASR OXIRI — Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ldi. *Ismoil Somoniy* butun Movarounnahrni o'z qo'li ostiga birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o'z davlatiga qo'shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil o'rta asr davlati tashkil topdi.

IX ASRNING OXIRGI CHORAGI — Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tib, o'z mustaqilligini tiklab oldi va *Nasr* o'zini butun Movarounnahrning boshlig'i deb hisoblay boshladi. *Nasr Somoniylar* hukmronligi davrida birinchi kumush dirham

zarb ettiradi.

IX ASR OXIRI — X ASR BOSHI — Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida to'quzo'g'uzlar *O'g'uzlar davlatiga* asos soldilar. Sirdaryo bo'yidagi Yangikent shahri O'g'uzlar davlatining poytaxti hisoblangan.

IX ASR OXIRI — X ASR OXIRI — Somoniylar davlatini Somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar amirlar idora qiladilar.

IX-X ASRLAR — Movarounnahr va Xorazm aholisining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanar edi.

IX-X ASRLAR — Movarounnahrning viloyat va vohalarida daryo va tarmoqlarida ko'plab yangi-yangi sug'orish kanallari qazildi. Oqar suvga tanqis tog'oldi hududlarda bandlar, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun korizlar qazilib, ishga tushiriladi. Suv manbalari sathidan balandroq joylashgan yer maydonlariga suv chiqarish uchun charxparrak, chig'ir va duloblardan keng foydalaniladi.

IX-X ASR — Movarounnahr va Xurosonda chorvachilik, xususan yaylov chorvadorligi yuksak darajada bo'lgan.

IX-X ASRLAR — dehqonchilikning taraqqiy qilishi bilan sug'orish ishlari kengayadi. Muhandislik bilimi asosida qurilgan turli xildagi gidrotexnika inshootlari bilan jihozlangan sug'orish tarmoqlari barpo etiladi.

IX-X ASRLAR — Movarounnahrda dehqonchilik, hunarmandchilikning rivoj topishi, ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Bu davrda Old Osiyoni mo'g'uliston va Xitoy bilan tutashirgan qadimgi karvon yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari ayniqsa gavjumlashib ketadi. Bog'dod shahridan boshlangan katta karvon yo'li Hamadon, Marv, Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz, Suyob, Issiqko'lning janubiy sohili orqali o'tib, Sharqiy Turkistonga va undan Xitoyga kirib borar edi. Bu yo'lning Farg'ona orqali o'tgan janubiy, O'g'uzlar yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo'nalgan shimoliy va Xorazm orqali Itil daryosi sohillari bo'ylab Xazar va Bulg'or davlatlariga eltadigan shimoli-g'arbiy tarmoqlari ayniqsa serqatnov edi.

IX-X ASRLAR — Movarounnahr va Xorazmda kulolchilik, shishasozlik, konchilik taraqqiy qiladi. Zarafshon tog'larida temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinardi. Eloq viloyati jumush va qo'rg'oshinlarni qazib olishning yirik markazlaridan biri edi. Qoramozor tog'idan bu ikki tur ma'dandan tashqari oltin, mis, temir va feruza qazib olinardi. Farg'ona vodiysi tog'laridan temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil qazib chiqarilgan, toshko'mir va neft topib ishlatilgan. Neftdan ko'proq harbiy yurishlar foydalanilgan. Qo'shinda maxsus "naftandoz" ya'ni "neft otuvchi"lar bo'lardi.

IX-X ASRLAR — Movarounnahr, Xuroson, Xorazmning shahar, qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari ancha-muncha rivojlangan bo'lsa ham, ammo bu hududlar qishloq xo'jaligi mamlakati edi. Aholining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar edi.

IX-X ASRLAR — Movarounnahrning tog'li mintaqalarida qadimdan davom qilib kelayotgan konchilik

nihoyat darajada taraqqiy qildi.

IX-X ASRLAR — Somoniylar davlatining Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borilgan karvon savdosida Xorazm muhim rol oʻynagan.

IX-X ASRLAR — yollanib qoʻshchilik qilganlar “*sherik*” yoki “*barzikor*” deb atalgan. Katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan koʻra, oʻz yerlarini barzikorlarga ijaraga berishni afzal koʻrardilar. Ijarachilarning asosiy qismi qishloq jamoalarining kam yerli dehqonlari edi.

X ASR — Oʻgʻuzlar islom dinini qabul qila boshladilar.

X ASR — tarixda ikkita yangi ijtimoiy tabaqa: katta-katta mulklarni hadya tariqasida qoʻlga kiritgan *iqtoʻdorlar* va iqtidorlar qoʻlidagi yerlarni ijaraga olib, mehnat qiluvchi *barzikor* — *qoʻshchilar* paydo boʻldi.

X ASR — tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilar edi.

X ASR — yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar — *iqtoʻni* inʻom qilina boshlanishi.

X ASRNING BIRINCHI CHORAGI — Oʻgʻuzlar davlati shimoli-sharqdan qoʻzgʻalgan qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab, boʻlinib ketadilar. Ularning bir qismi janubiy Rusiya dashtlariga borib oʻrnashadilar, ikkinchi qismi avval Movarounnahrda kirib boradi va undan janubi-gʻarbga siljib, yangi sulola saljuqiylar boshchiligida Old Osiyoni istilo qilishga kirishadi.

X ASR OʻRTALARI — Issiqkoʻlning janubi va Koshgʻarda yashagan yagʻmo qabilasi kuchayib, avval oʻzlaridan shimoli-sharqda yashovchi jikil qabilasi bilan yagona ittifoqqa birlashdi, soʻngra Yettisuvga huruj qilib, qarluqlarni boʻysundiradi va bu ulkan hududda Qoraxoniylar davlatini tashkil qiladilar.

X ASR OʻRTALARI — qarluqlarning kattagina qismi musulmon boʻlib, bir qancha qarluq shaharlarida jomeʻ masjidi bino qilingan.

X ASR OʻRTALARI — *yagʻmolar* va *jikillar* birlashib Qoraxoniylar davlatiga asos soldilar. Bu yangi davlatning siyosiy hayotida qarluqlar faol qatnashadilar.

X ASR OXIRI — Somoniylar maʼmuriyati va harbiy qoʻshinlari boshqaruvni oʻz qoʻliga olgan turk hojiblari, hatto ayrim viloyatlarni egallab olib, deyarli mustaqil hukmronlik qilayotgan turk hojiblari mamlakatni mudofa qilish oʻrniga xoinlik yoʻlini tutib, qoraxoniylarga yon bosadilar.

X ASR OXIRI — Qoraxoniylar Movarounahrni egallagach, bu yurtga koʻplab turkiy qabilalar bilan birgalikda qarluqlar kelib oʻrnashadilar.

X ASR OXIRI — Somoniylar davlati oʻrniga ikkita yangi davlat tashkil topdi: biri Koshgʻardan Amudaryogacha choʻzilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini Yettisuv, Shosh, Fargʻona va qadimgi Sugʻdni oʻz ichiga olgan Qoraxoniylar davlati boʻlsa, ikkinchisi Shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirgʻoqlarigacha boʻlgan viloyatlarni qamrab olgan Gʻaznaviylar davlati edi.

X ASR OXIRI — Somoniylar oʻrtasida avj olib ketgan oʻzaro ichki urushlar, Movarounnahrda ayrim viloyatlarni, Xurosonda esa mahalliy hokimlar va yirik mulkdor zodagonlarning markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari

mamlakatning iqtisodiyva siyosi qudratiga katta putr yetkazdi. Natijada Somoniylar davlati zaiflashib qoldi. Yettisuv viloyatida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahr tomon shiddatli yurushlariga qarshi somoniylar bardosh bera olmadilar.

XI ASR — *iqtoʻ* — yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar inʻom qilish keng yoyildi.

XI ASR — Movarounnahrda, ayniqsa Zarafshon vodiysida koʻpgina dalalar, poliz va bogʻlar barbod boʻladi. Ekin maydonlari qisqarib ketadi. Bunday sharoitda mulkdor dehqonlar bilan chorvador koʻchmanchilar oʻrtasida ziddiyat kuchayib, dehqonlarga qarshi kurash keskin tus oladi. Qoraxoniylarning tazyiqi oqibatida mulkdor dehqonlar jon saqlash maqsadida oʻz yerlarini tashlab ketishga majbur boʻladi. Nufuzli mulkdor dehqonlarga nisbatan zoʻrluk choralari ham qoʻllanilgan.

XI ASR — yerdan foydalanishda *iqtoʻ* tartiboti juda keng yoyila boshladi. Qoraxoniylar tomonidan hukmron sulola nomoyondalaridan tashqari, oliy darajali harbiylar davlat maʼmurlari va mahalliy zodagonlarga ham katta-katta yer maydonlari *iqtoʻ* tarzida hadya qilinadi.

XI-XII ASRLAR — mulkdor dehqonlar yer-suv mulklaridan hamda mamlakatda tutgan siyosiy mavqeylaridan ajralib, katta yer egalari sifatida jamiyat hayotida oʻzining ahamiyatini butunlay yoʻqotadilar. Shundan keyin “*dehqon*” degan nom oʻzining “*qishloq hokimi*”ni anglatuvchi asli maʼnosini yoʻqotib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiy nomga aylanib ketadi.

XI-XII ASRLAR — Movarounnahr va Xurosonda mulkchilikning yangi turi *iqtoʻ* yerlari kengayib, uning asosiy shakllaridan biriga aylandi. Bu davrga kelib musulmon ruhoniylariga boʻlgan eʼtiborning kuchayishi va mamlakatda ularning siyosiy taʼsirini tobora ortib borishi bilan vaqf yerlari ham ancha koʻpaydi. Garchi bu davrda barzikorlar ilk oʻrta asrdagi kadivarlarga nisbatan ozod hisoblasalarda, ammo ularning zimmasiga davlat tomonidan turli soliqlar va har xil majburiyatlar yuklangan edi. Sugʻorish tarmoqlari, toʻgʻonlar, yoʻl va qalʼalar qurish va ularni taʼmir etishda ularning ishtiroki shart edi.

XI-XII ASRLAR — sirli koshinkor qabartma naqshli sopol idishlar va tovoqlar, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari oʻzining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi.

XI-XII — XIII ASR BOSHLARI — Movarounnahr va Xurosonada tovar-pul munosabatlari nihoyatda rivoj topgan. Qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan koʻplab chaqa va tangalar zarb qilinadi. Bolosogʻun, Taroz, Oʻzgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar boʻlgan. Movarounnahr va Xurosonda qoraxoniylarning oltin, kumush va mis chaqa-tangalari hamda dinorlari bilan bir qatorda hatto saljuqiylar, xorazmshohlar hamda gʻaznaviylar tomonidan zarb qilingan tangalar ham muomalada yurgan.

XI-XII ASRLAR — shaharlar kengaydi, aholisining soni koʻpayib, ular yanada gavjumlashdi. Samarqand, Buxoro, Termiz, Oʻzgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari

ishlab chiqaradigan hamda chaqa — tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylandi. Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etildi. Shaharlarda ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, misgarlik va chilangarlik rivoj topdi.

XII ASR 30-YILLARI OXIRI — ko‘chmanchi *goraxitoylar* hujumiga duchor bo‘lgan Qoraxoniylar davlati parchalanib ketdi.

XII ASRNING IKKINCHI YARMI — Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi.

XII ASRNING IKKINCHI CHORAGI — Xorazm mustaqilligi uchun kurash boshlandi.

XIII ASR BOSHI — poytaxti Urganch shahri bo‘lgan Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylandi. Uning shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g‘arbda Iroqqa qadar borar edi, janubi-sharqiy hududlari G‘azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa, Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o‘tar edi. Xorazmshoh saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari itoat kamarini bog‘lab, oltin nog‘ora chalar va bu buyuk davlatning tojidorini “*Iskandari Soniy*” (Ikkinchi Iskandar) deb atashmoqda edi.

TESTLAR

1. Arab xalifaligi qachon og‘ir siyosiy tanglikka uchradi?

- A) VII-VIII asrlarida
- B) VIII asr oxiri — IX asr boshlarida
- S) VIII asr o‘rtalari — X asr boshlarida
- D) VII asr oxiri — IX asr o‘rtalarida

2. Quyidagi ko‘rsatilgan omillaridan qaysi biri arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi?

- A) Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarib turishi, uzluksiz davom etgan o‘zaro urushlar va ichki ziddiyatlar
- B) xalifa Ma‘munning fitnachilar tomonidan o‘ldirilishi natijasida kelib chiqqan ichki kurashlar
- S) Yevropa davlatlarining arab xalifaligiga qarshi uzluksiz uyushtirgan istilolalari
- D) Abul Abbas Saffohning xalifalik taxtiga o‘tirishi

3. VIII-IX asrlarda mustaqil davlatlarning paydo bo‘lish sababini ko‘rsating.

- A) o‘zbek xalqining shakllanishi
- B) Movarounnahrda hokimiyatni mahalliy mulkdorlar boshqaruviga o‘tishi
- S) Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashuvi
- D) Turk xoqonligi barham topishi

4. VIII-IX asrlarda mustaqil davlatlar dastavval qaysi hududlarda tashkil topdi?

- A) Xurosonning janubi-g‘arbiy hududlarda, Sirdaryoning chap sohilida
- B) Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida
- S) Movarounnahr va Xorazmda
- D) Movarounnahrning janubi va janubiy-sharqiy

hududlarda

5. Qadimiy turkiy qabilalardan qaysi biri qadimda Oltoyning g‘arbida, so‘ngra Irtish daryosining o‘rta oqimida yashagan?

- A) o‘g‘uzlar
- B) qarluqlar
- S) yag‘molar
- D) saljuqiylar

6. Quyidagi qabilalardan qaysi birlari VI-VII asrlarda Turk xoqonligi tarkibiga kirgan?

- A) o‘g‘uzlar va toxtarlar
- B) xiyoniylar va jikillar
- S) toxtarlar va qarluqlar
- D) qarluqlar va o‘g‘uzlar

7. Qachon va qayerda Qarluqlar davlati tashkil topgan?

- A) VII asr boshida Sharqiy Turkistonda
- B) VIII asr o‘rtalarida Yettisuv o‘lkasida
- S) IX asr oxirida Movarounnahrda
- D) X asrda Xurosonda

8. Ma‘lumki, qarluqlar davlatining poytaxti Suyob shahri bo‘lgan. Ushbu shahar qayerda joylashgan edi?

- A) Oltoyning g‘arbida
- B) Chu daryosidan shimolroqda
- S) Irtish daryosining o‘rta oqimida
- D) Sirdaryo bo‘yida

9. Qarluqlar davlatining hukmdori qanday nom bilan yuritildi?

- A) bug‘roxon
- B) tudun
- S) arslonxon
- D) yabgu yoki jabg‘u

10. Ma‘lumki, qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo‘lib, ko‘pgina shaharlarida jome masjidleri bino qilingan. Qarluqlar qachon musulmonlikni qabul qilishgan?

- A) IX asr oxirida
- B) X asr o‘rtalarida
- S) VIII asr o‘rtalarida
- D) VIII asr oxiri — IX asr boshida

11. Turk xoqonligi yemirilgach o‘g‘uzlarning kattagina qismi qaysi hududlarda muqim o‘rnashib qoldilar?

- A) Issiqko‘lning janubi va Koshg‘arda
- B) Sirdaryo havzasi va Orol dengizi
- S) Yettisuv va Chag‘oniyonda
- D) Oltoyning g‘arbida va Irtish daryosining o‘rta oqimida

12. O‘g‘uzlar davlati qachon tashkil topgan?

- A) IX asr oxiri — X asr boshlarida
- B) VIII asr boshi — X asr oxiri
- S) VIII asr o‘rtalari — IX asr boshi

D) VII asrning ikkinchi yarmi — VIII asr oxiri

13. Ma'lumki, O'g'uzlar davlatining poytaxti Yangikent shahri bo'lgan. Ushbu shahar qayerda joylashgan edi?

- A) Amudaryo bo'yida
- B) Yettisuvda
- S) Oltoyda
- D) Sirdaryo bo'yida

14. O'g'uz yabg'ulari o'zining poytaxt shahridan nima maqsadda foydalanganlar?

- A) janglarda mudofaa vazifasida
- B) savdo-sotiq ishlarida
- S) qishlov uchun qarorgoh sifatida
- D) elchilarni qabul qilish qarorgohi sifatida

15. O'g'uzlarning asosiy mashg'uloti nima bo'lgan?

- A) chorvachilik, xususan qo'ychilik
- B) dehqonchilik, chorvachilik
- S) hunarmandchilik, yilqichilik
- D) savdo-sotiq, dehqonchilik

16. O'g'uzlar davlatiga islom dini kirib kelishiga sabab bo'lgan omil nima edi?

- A) islom dini targ'ibotchiligining kuchayishi
- B) o'troq vohalarning aholisi bilan savdo aloqalarning o'sishi
- S) o'g'uz hukmron doiralarning islom diniga o'tishi
- D) buddaviylik dinining aholi o'rtasida zaiflashuvi

17. O'g'uzlar qachondan boshlab islom dinini qabul qiladilar?

- A) VIII asr o'rtalaridan
- B) IX asr boshidan
- S) X asrdan boshlab
- D) XI asrdan

18. X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlatining bo'linib ketishiga sabab bo'lgan omilni ko'rsating.

- A) o'g'uzlarni qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrashi
- B) hukmron doiralarning o'zaro ichki nizolari
- S) saljuqiylarning O'g'uzlar davlatiga bostirib kirishi
- D) davlatda muttasil davom etib turgan isyonlar

19. O'g'uzlar davlati bo'linib ketganidan so'ng, ular qaysi hududlarga borib joylashadilar?

- A) Old Osiyo va Xuroson
- B) Shimoliy Kavkaz va Movarounnahr
- S) Oltoy va Yettisuv
- D) Sharqiy Turkiston va Movarounnahr

20. Bo'linib ketgan o'g'uzlar qaysi sulola boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi?

- A) g'aznaviylar
- B) safforiylar

- S) qoraxoniylar
- D) saljuqiylar

21. O'rta asrlarda qaysi turkiy davlatlar nafaqat Movarounnahr, balki butun O'rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi?

- A) Qarluqlar va O'guzlar
- B) Tohiriylar va Somoniylar
- S) G'aznaviylar va Saljuqiylar
- D) Qoraxoniylar va Xorazmshohlar

22. Qarluqlar qaysi xalqlarni etnogenizida muhim ahamiyat kasb etadi?

- A) o'zbek va tojiklar
- B) turkman va ozarbayjon
- S) qoraqalpoqlar va turkmanlar
- D) o'zbek va qoraqalpoqlar

23. Turkman, ozarbayjon va qoraqalpoqlarning etnogenizida muhim ahamiyat oynagan turkiy xalqni ko'rsating.

- A) saljuqiylar
- B) qarluqlar
- S) o'g'uzlar
- D) g'aznaviylar

24. Abbosiylar qachon og'ir siyosiy vaziyat tufayli Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur bo'lgan?

- A) VII asr o'rtalari — IX asr boshi
- B) VIII asr oxiri — IX asr boshida
- S) IX asr boshi — X asr o'rtalari
- D) VIII asr boshi — X asr oxiri

25. Abbosiylar yuzaga kelgan o'g'ir siyosiy vaziyat tufali sharqiy viloyatlarni boshqarish ishlarini mahalliy zodagonlarni jalb etish va ularning qo'li bilan viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga harakat qildilar. Natijada ...

- A) mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o'z tasarruflariga o'tkazib oldilar, balki xalifalik markazida ham imkoniyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoldilar.
- B) Movarounnahr va Xurosonda xalifalikka bo'ysunadigan kuchli hokimiyat shakllandi.
- S) xalifalik taxtiga sharqiy viloyatarning mahalliy zodaganlari o'tiradigan bo'ldi.
- D) Movarounnahr va Xuroson mayda tarqoq davlatlarga bo'linib ketib, o'zaro urushlar avj olib ketdi.

26. Xalifa Horun ar-Rashid qachon hukmdorlik qilgan?

- A) 773-805-yillarda
- B) 786-809-yillarda
- S) 732-783-yillarda
- D) 709-721-yillarda

27. Quyidagi qaysi voqea mahalliy zodagonlarning xalifalik markazida hokimiyatni boshqarishga katta yo'l

ochib berdi?

- A) Horun ar-Rashid vafotidan so'ng markaziy hokimiyatning zaiflashuvi
- B) Ma'mun bilan Amin o'rtasidagi taxt uchun kurashi
- S) mamlakatda qo'shhokimiyatchilikning viujudga kelishi
- D) Abul Abbas Saffohning o'tkazgan pul islohoti natijasida hokimiyatning zaiflashib ketishi

28. Ma'lumki, xalifa Horun ar-Rashid vafotidan so'ng uning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasida taxt uchun kurash avj oladi. Bu kurash qaysi yillarda bo'lib o'tadi?

- A) 807-811 yillarda
- B) 805-810-yillarda
- S) 812-815-yillarda
- D) 809-813-yillarda

29. Xalifalikning markaziy qismidagi arablar qaysi hukmdorni taxtga ko'taradilar?

- A) Ma'mun
- B) Amin
- S) Abul Abbas Saffoh
- D) Tohir ibn Husayn

30. Xalifalikda Ma'muning tarafdorlari kimlar edi?

- A) Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari
- B) Abul Abbas Abdulloh, Talxa va Nasr boshliq Buxoro amaldorlari
- S) Nuh, Mahmud, Yahyo va Ilyos boshliq Movarounnahr mulkdorlari
- D) Ismoil va Nasr Somoniylar boshliq Xuroson va Movarounnahr amaldorlari

31. Ma'mun va uning tarafdorlari nechanchi yilda Bag'dodga yurish qilib, poytaxtni qo'lga kiritadilar?

- A) 809-yilda
- B) 815-yilda
- S) 820-yilda
- D) 813-yilda

32. Ma'lumki, 821 yilda Tohir ibn Husayn Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlangandi. Bu lavozimga u kim tomonidan tayinlanadi?

- A) Xalifa Amin
- B) Horun ar-Rashid
- S) Xalifa Ma'mun
- D) Abul Abbas Saffoh

33. Samarqand, Farg'ona, Shosh, Ustrushona va Hirot viloyatlarida hukmronlik qilgan Somonxudotning nabiralarini ko'rsating?

- A) Hoshim ibn Hakim, Abu Muslim, Yahyo va Ilyos
- B) Abul Abbas Abdulloh, Talxa va Nasr
- S) Nuh, Mahmud, Yahyo va Ilyos
- D) Nuh, Mahmud, Umar ibn Abdulaziz va Marvon II

34. Ma'lumki, xalifa Ma'munga bergan yordami uchun Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlanadi. Buning evaziga aka-

uka somoniylar ...

- A) Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar
- B) Tohiriylar davlatini mustaqil idora qila boshlaydilar
- S) Bog'dod bilan aloqani yanada mustahkamlaydilar
- D) Xurosonni idora etishda Ma'munga ko'maklashadilar

35. Tohir davlat ishlarini idora etish maqsadida qachon xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlatdi?

- A) 813-yilda
- B) 821 yilda
- S) 822-yilda
- D) 830-yilda

36. Tohir ibn Husayn vafotidan keyin hokimlik qilgan noiblarni ko'rsating?

- A) Nasr va Ismoil
- B) Talxa va Abul Abbas Abdulloh
- S) Yahyo va Ilyos
- D) Nuh va Mahmud

37. Abul Abbas Abdulloh noibli davrida Tohiriylar davlatining poytaxt qaysi shahardan qaysi shaharga ko'chirilgan?

- A) Marvdan Nishopurga
- B) Suyobdan Yangikentga
- S) Samarqanddan Buxoroga
- D) Nishopurdan Hirotga

38. Tohiriylar davrida qaysi shaharlar poytaxt bo'lgan?

- A) Ustrushona va Marv
- B) Marv va Nishopur
- S) Hirot va Samarqand
- D) Yangikent va Buxoro

39. Qaysi voqea Xuroson va Movarounnahrda bir asrdan oshiqroq hukm surgan xalifalik hukmroligining tugaganligini bildirardi?

- A) Movarounnahrda somoniylarning noibli tohiriylar tomonidan tan olinishi va somoniylarning tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etish
- B) Abul Abbas Abdulloh noibli davrida tohiriylarning poytaxti Marvdan Nishopur shahriga ko'chirilishi
- S) Somonxudot nabiralarining ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlanishi
- D) Ma'mun bilan Amin o'rtasidagi taxt uchun kurashi

40. Tohiriylar dastavval nima qilishga harakat qiladilar?

- A) ko'chmanchilarga qarshi kurashish maqsadida "g'oziyalar" qo'shinini tashkil etishga
- B) mulkdor dehqonlarning jabr zulmiga qarshi kurashishga va davlatning og'ir soliqlarini bekor qilishga
- S) hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo'jaligini tartibga solishga
- D) pul islohotini o'tkazish va savdo-sotiqni rivojlantirishga

41. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi sabablar tohiriylar

hokimiyatiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarilishiga olib keldi?

- A) mulkdor dehqonlarning jabr zulmi va davlatning og'ir soliqlari
- B) muvaffaqiyatsiz o'tkazilgan pul islohoti
- S) xutbadan xalifaning nomini chiqarib tashlanishi
- D) "g'oziyar"ning xalqqa qarshi qilgan xunrezliklari

42. G'oziyar bu — ...

- A) xalqlarning nasl-nasabi, kelib chiqishi
- B) qadimiy turkiy qabilalardan biri
- S) miskar hunarmandlar
- D) haq din uchun kurashuvchi jangchi

43. Ma'lumki, Tohiriylar hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga aka-uka Ya'qub va Amir ibn Layslar boshchilik qiladilar. Ular asli kim edi?

- A) dehqon
- B) miskar hunarmand
- S) savdogar
- D) kulol

44. Qachon tohiriylar hukmronligi tugatilib, hokimiyat Safforiylar qo'liga o'tadi?

- A) 821 yilda
- B) 873-yilda
- S) 813-yilda
- D) 822-yilda

45. Juma namozida hukmdor nomini aytib uning haqiga duo o'qish ...

- A) farzdir
- B) namozdir
- S) xutbadir
- D) hadisdir

46. Ma'lumki, IX asrda Movarounnahrning hayotida o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval Nuh, so'ngra ... boshchilik qiladi.

- A) Amr ibn Lays
- B) Nasr II
- S) Ismoil
- D) Ahmad

47. Quyidagi hukmdorlardan qaysi biri o'z nomlaridan mis chaqalar zarb etganlar?

- A) Nuh va Ahmad
- B) Ahmad va Nasr
- C) Nasr va Ismoil
- D) Ismoil va Ahmad

48. Ahmad nechanchi yilda vafot etgan?

- A) 860-yilda
- B) 862-yilda
- C) 865-yilda
- D) 864-yilda

49. Nasr ibn Ahmad qaysi shaharni markazga aylantirdi?

- A) Samarqandni

- B) Buxoroni
- S) Nishopurni
- D) Balxni

50. Somoniylardan qay biri Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralari ko'radi?

- A) Nasr
- B) Ahmad
- S) Nuh
- D) Yahyo

51. Qanday qulay sharoit Nasr uchun Movarounnahrni birlashtirish imkonini berdi?

- A) Tohiriylar davlatining barham topishi
- B) Safforiylar davlatining barham topishi
- S) Safforiylar va somoniylar o'rtasidagi to'qnashuvi
- D) Samarqandni poytaxt deb e'lon qilinishi

52. Buxoro ahlining iltimosi bilan Nasr Buxoroga kimni noib etib tayinlaydi?

- A) Ahmadni
- B) Nuhni
- C) Ismoilni
- D) Nasr II ni

54. Xatib nima?

- A) Ro'zada o'qiladigan duo
- B) namoz o'qishdan oldin ichiladigan suv
- C) namozda xutba o'qiydigan ruhoniylar
- D) namozdagi eng oliy sura

54. Somoniylardan dastlabki Movarounnahrning hukmdorini aniqlang.

- A) Nasr
- B) Ismoil
- S) Ahmad
- D) Yahyo

55. Nechanchi asrga kelib Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi?

- A) IX asrda
- B) IX asrning birinchi choragida
- C) IX asrning o'rtalarida
- D) IX asrning oxirgi choragida

56. Somoniylardan kimlar o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi?

- A) Ahmad va Yahyo
- B) Nuh va Ahmad
- S) Ismoil va Nasr
- D) Ismoil va Nuh

57. Ismoil Somoniyning butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida birlashtirishi nechanchi yilga to'g'ri keladi?

- A) 900-yilga
- B) 885-yilga
- C) 889-yilga
- D) 888-yilga

58. Ismoil Somoniy nimaga intildi?



- A) Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga
 B) ko'chmanchilarni bosqinini to'xtatishga
 S) Buxoroning mudofaa inshootlarini qayta tiklashga
 D) Buxoroni islom dini markaziga aylantirishga

59. Ismoil Somoniy qayerlarga yurish qiladi?

- A) shimoliy-g'arbiy
 B) shimoli-sharqiy hududlarga
 S) janubiy-sharqiy
 D) janubiy-g'arbiy

60. Nechanchi yilda Ismoil Somoniy Taroz shahrini fath etadi?

- A) 893-yilda
 B) 895-yilda
 C) 894-yilda
 D) 897-yilda

61. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi voqea sabab dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo'lgan uzluksiz bosqinlari barham topib, aholi vohalar atrofi bo'ylab mudofaa devorlari yu son sanoqsiz qal'alarni bino qilish va ularni ta'mirlab turishdek mashaqqatli mehnatdan forig' bo'ldi?

- A) Nasrni butun Movarounnahr hukmdoriga aylanishi
 B) Ismoilni Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirishi
 S) Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tishi
 D) Ismoil tomonidan dashtliklarga qaqshatqich zarba berilishi

62. Kampirak devori qaysi vohaning atrofini o'rab turgan?

- A) Hirotning
 B) Samarqandning
 S) Buxoroning
 D) Marv

63. O'rta asrlarga bunyod etilgan Kampirak devori necha km ni tashkil etgan?

- A) 300 km dan oshiq
 B) 350 km dan oshiq
 S) 250 km dan oshiq
 D) 200 km dan oshiq

64. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi Arab xalifaligini ...

- A) parchalanishini boshlanishiga olib keldi.
 B) qo'zg'olonlarni avj olishiga olib keldi.
 S) katta boyliklardan mahrum bo'lishiga va cho'chishiga olib keldi.
 D) Movarounnahrqa qarshi urush ochishiga bahona bo'ldi.

65. Nima sababdan Arab xalifaligi safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi?

- A) Movarounnahr aholisini mustaqillikka erishuvi.

B) Movarounnahr aholisini Arab xalifaligiga qarshi urush harakatlarini olib borishi.

S) Movarounnahr bilan Xuroson aholisini birlashtirishga harakat qilishi.

D) Safforiylar bilan somoniylar xutbadan xalifani nomini chiqarib tashlashi.

66. Xalifa Mu'tazidning hukmronlik yillari nechanchi yillarga to'g'ri keladi?

- A) 892-902-yillar
 B) 893-902-yillar
 C) 894-900-yillar
 D) 892-901-yillar

67. Xalifa Mu'tazid qaysi safforiylar hukmdoriga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi?

- A) Ismoil Somoniy
 B) Ya'qub ibn Lays
 S) Amr ibn Lays
 D) Nasr

68. Nechanchi yilda safforiylar va somoniylar o'rtasida jang bo'lib o'tdi?

- A) 885-yilda
 B) 901-yilda
 C) 900-yilda
 D) 905-yilda

69. Amr ibn Lays kim bo'lgan?

- A) Somoniylar hukmdori
 B) Safforiylar hukmdori
 S) Tohiriylar hukmdori
 D) Arab xalifasi

70. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'li ostida birlashtirgandan so'ng qaysi shaharni poytaxt deb e'lon qildi?

- A) Samarqandni
 B) Xurosonni
 C) Tarozni
 D) Buxoroni

71. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi voqea sabab butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tdi?

- A) Ismoil Somoniyning safforiylar ustidan qozongan g'alabasi
 B) Ismoil Somoniyning butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirishi
 S) Ismoil Somoniyning dashtliklarga qaqshatqich zarba berishi
 D) Ismoil Somoniyning tohiriylar ustidan qozongan g'alabasi

72. Xalifa Mutazid kimlarga hukmdorlik yorlig'ini yuborgan?

- A) Amr ibn Lays va Nasr Somoniy
 B) Ya'qub ibn Lays va Ismoil Somoniy

- S) Amr ibn Lays va Ismoil Somoniy
D) Rofe ibn Lays va Ismoil Somoniy

73. Movarounnahr mustaqiligining barqarorligi nimaga bog'liq edi?

- A) Kuchli hukmdorning mavjudligiga
B) Markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga
C) Icham boshqaruv ma'muriyatiga
D) Kuchli qo'shinning borligiga

74. Ma'lumki, somoniylar mamlakatni boshqarishda dastavval icham boshqaruv ma'muriyatini tashkil etdilar. Ular nimalardan iborat edi?

- A) amid ul-mulk va devonlardan iborat edi
B) hojibi buzruk va ulamolardan iborat edi
S) bosh boshqaruv mahkamasi va devonlardan iborat edi
D) amir dargohi va devonlardan iborat edi

75. Somoniylar dargohida kimlarning turar joylari bo'lardi?

- 1) amir qarorgohi va harami; 2) saroy a'yonlari; 3) mahlliy mulkdorlar; 4) navkarlar; 5) xizmatkorlar
A) 1, 2, 4, 5
B) 1, 2, 3, 4, 5
S) 1, 2, 3
D) 1, 4, 5

76. Somoniylar boshqaruvi asosan nechta devon orqali idora qilinardi?

- A) 6
B) 8
S) 10
D) 12

77. Somoniylar boshqaruv tizimida bosh boshqaruv mahkamasini aniqlang.

- A) amir dargohi
B) vazir devoni
S) hojibi buzruk
D) mustovfiy

78. Somoniylar boshqaruvi tizimida ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti qaysi mahkama nazorati ostida tutib turilardi?

- A) vazir devoni
B) amir dargohi
S) hojib ul-hujob
D) sohibi shurat

79. Somoniylar boshqaruvida barcha devon boshliqlari kimga tobe edi?

- A) vazir
B) amir
S) hojib ul-hujob
D) mustovfiy

80. Nasr II ning hukmronlik yillari nechanchi yillarga to'g'ri keladi?

- A) 913-945 yillarga

- B) 914-943 yillarga
C) 915-944 yillarga
D) 917-948 yillarga

81. Somoniylardan Nasr II hukmronligi davrida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Bu saroy qayerda bunyod etilgan edi?

- A) Samarqandning Registon maydonida
B) Buxoroning Registon maydonida
S) Marvning amir qasri qarshishida
D) Hirotning bosh maydonida

82. Somoniylar boshqaruvi tizimini eslang. Mahkama xizmatchilari kimlardan iborat edi?

A) muayyan bilimlarga ega bo'lgan, arab, fors tillarni puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli hunarmand ahliidan tanlab olingan.

B) muayyan bilimlarga ega bo'lgan, arab, fors tillarni puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan olimlardan tanlab olingan.

S) muayyan bilimlarga ega bo'lgan, arab, fors tillarni puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli zodagon dehqonlardan tanlab olingan.

D) muayyan bilimlarga ega bo'lgan, arab, fors tillarni puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.

83. Viloyat devonlari kimlarga bo'ysunar edi?

- A) mahalliy hokimga bo'ysunar edi.
B) markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edi.
S) mahalliy hokimga va markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edi.
D) mamlakat hukmdoriga bo'ysunar edi.

84. Nechanchi asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun katta-katta mulklar in'om qilina boshlandi?

- A) IX asrda
B) IX asrning yarmida
C) X asrda
D) X asrning birinchi choragida

85. "Iqto" egasi ...

- A) "muqto" yoki "iqtodor" deb yuritilardi.
B) "ustod" deb yuritilardi.
S) "hojib ul-hujob" yoki "hojibi buzruk" deb yuritilardi.
D) "mustovfiy" deb yuritilardi.

86. Iqto dastlab kimlarga berilgan?

- A) amirzodalar va yirik mansabdorlarga
B) amirzodalar va harbiylarga

- C) harbiylar va vazirlarga
- D) yirik mansabdorlar va vazirlarga

87. Iqto tarzida ...

- A) ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan.
- B) faqat ayrim tumanlar hadya etilgan.
- S) faqat ayrim viloyatlar hadya etilgan.
- D) faqat ayrim shaharlar hadya etilgan.

88. Kimlarning xizmatlari tufayli poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlardan biriga aylandi?

- A) olimlar
- B) zodagon dehqonlar
- S) Movorounnahr hukmdorlari
- D) islom dini ruhoniylari

89. Qaysi davrda Buxoro shahrida musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh-madrasa bunyod etiladi?

- A) Qarluqlar
- B) Somoniylar
- S) O'g'uzlar
- D) Tohiriyalar

90. Buxoro shahrining Darvozayi Mansur mahallasida rivojlangan o'rta asrlarda ...

- A) devonlar uchun maxsus saroy quriladi.
- B) masjid quriladi.
- S) musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh-madrasa bunyod etiladi.
- D) Registon bunyod etiladi.

91. Somoniylar davrida mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga kimlar rahnomalik qilardi?

- A) "ustod"
- B) "xatib"
- S) "muqto"
- D) "hojib ul-hujob"

92. Somoniylar davrida ustoddan keyin kimlar turgan?

- A) xatiblar
- B) shayxlar
- C) ulamolar
- D) vazirlar

93. Somoniy hukmdorlardan qaysi biri yaxshi qurollangan harbiy qo'shin va saroyning maxsus muntazam sarbozlari qismini tuzadi.

- A) Nasr II
- B) Ahmad
- S) Ismoil Somoniy
- D) Nuh

94. Somoniylar davrida muntazam qo'shin oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning haramini qo'riqlash uchun kimlardan tuzilgan edi?

- A) aslzodalardan

- B) turk g'ulomlaridan
- S) zodagon dehqonlardan
- D) hunarmandlardan

95. Somoniylar davrida yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar qanday lavozimga ko'tarilganlar?

- A) sohibi shurat lavozimiga
- B) devonbegi lavozimiga
- C) mustovfiy lavozimiga
- D) hojib lavozimiga

96. Somoniylar davrida "hojib ul-hujob" yoki "hojibi buzruk" unvoniga ega bo'lgan shaxslar qanday vazifalarga ega edilar?

A) ular hojiblarning boshlig'i bo'lib, bunday unvon Somoniylar saroyidagi oliy unvon hisoblanardi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi.

B) ular mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga rahnomalik qilardi.

S) ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi.

D) ular hojiblarning boshlig'i bo'lib, bunday unvon Somoniylar saroyidagi oliy unvon hisoblanardi. Barcha devon boshliqlari unga tobe edi.

97. Nechanchi asrda Movarounnahr xalqi Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'lgan?

- A) IX asrda
- B) IX asr boshlarida
- C) IX asr o'rtalarida
- D) IX asr oxirlarida

98. Davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri kim hisoblangan?

- A) vazir
- B) mustovfiy
- C) amid ul-mulk
- D) ulamo

99. Somoniylar davrida moliya vaziri bu —

- A) amid ul-mulk
- B) hojib
- C) xatib
- D) mustovfiy

100. Ma'lumki, Somoniylar tashqi va ichki dushman xurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor berganlar. Qo'shin necha turdan iborat bo'lgan?

- A) faqat sarbozlardan iborat bo'lgan.
- B) sarbozlar va harbiy qo'shin turidan
- S) otliq qoshin va sarbozlar
- D) faqat harbiy qo'shından

101. Somoniylar davridagi harbiy qo'shin kimlardan tuzilgan edi?

- A) ozod mehnat ahlidan tuzilgan.
- B) kadivarlardan tuzilgan.
- S) turk g'ulomlaridan tuzilgan.

D) chokarlardan tuzilgan.

102. Somoniylar davrida harbiy qo‘shin va uning ta‘minoti bilan qaysi devon shug‘ullanar edi?

- A) amid ui-mulk
- B) sohibi shurat
- S) ariz devoni
- D) mustovfiy

103. IX-X asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisining asosiy qismining mashg‘uloti nimadan iborat bo‘lgan?

- A) chorvachilik, xususan qo‘ychilik
- B) sug‘orma dehqonchilik
- S) savdo-sotiq, dehqonchilik
- D) hunarmandchilik, yilqichilik

104. Nima uchun somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo‘jaligini rivojlantirishga katta e‘tibor berganlar?

- A) somoniylar aslzoda dehqonlardan bo‘lganligi uchun
- B) mamlakat aholisining ko‘pchiligi o‘troq aholi bo‘lganligi uchun
- S) chetga ko‘proq dehqonchilik mahsulotlari chiqarilganligi uchun
- D) dehqonchilik davlat xazinasiga katta daromad olib kelganligi uchun

105. Somoniylar davrida sug‘orish tarmoqlari vositasida sug‘orib obod etilgan serunum vohalarda qanday mahsulotlarni yetishtirish yuqori darajada rivoj topgan edi?

- 1) g‘allakorlik; 2) sholikorlik; 3) paxtachilik; 4) sabzavotchilik; 5) polizchilik; 6) bog‘dorchilik.
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- B) 1, 4, 6
- S) 1, 3, 4, 5
- D) 1, 2, 4, 5, 6

106. Somoniylar davrida Movarounnahr va Xorazm aholisi qaysi mahsulotlarni yetishtirar edi?

- 1) arpa; 2) bug‘doy; 3) tariq; 4) mosh; 5) adas-yasmiq;
- 6) kunjut; 7) no‘xat; 8) zig‘ir; 9) jut.
- A) 1, 2, 4, 7, 8, 9
- B) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8
- S) 2, 3, 4, 7
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9

107. IX-X asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisi qaysi ekinlardan moy olishar edi?

- A) zig‘ir, kunjut, kanakunjut
- B) zig‘ir, adas-yasmiq, jut
- S) kunjut, kanakunjut, tariq
- D) paxta, kunjut

108. IX-X asrlarda vohalarda qaysi ekin kattagina o‘rinni egallagan?

- A) arpa
- B) paxtachilik
- S) tariq

D) zig‘ir

109. IX-X asrlarda sug‘orish bo‘yicha kimlar ma‘sul bo‘lgan?

- A) muqto, iqtodori
- B) mirob, jo‘ybon va poykor
- S) xatib va hojib
- D) amid ul-mulk va mirob

110. IX-X asrlarda Movarounnahr va Xorazm shaharlarida hunarmandchilikning qaysi sohalari rivoj topgan?

- A) to‘qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik va durodgorlik
- B) to‘qimachilik, konchilik
- S) kulolchilik
- D) zargarlik

111. Qachondan boshlab shaharlar o‘ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylandi?

- A) VII-IX asrlarda
- B) IX-X asrlarda
- S) VIII asr oxiri — XI asr boshi
- D) IX-XI asrlarda

112. IX-X asrlarda shahar arkida qanday binolar joylashgan?

- A) saroy, dargoh, masjid va madrasa
- B) dargoh, xazina, zarbxona va qamoqxona
- S) katta-katta oliy imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa
- D) maqbara, xonaqoh, karvonsaroy

113. Somoniylar davrida shahar markazida qanday inshootlar joylashgan?

- A) karvonsaroy, hunarmandchilik do‘konlari va savdo rastalari
- B) Registon maydoni, devonlar, mahkama saroyi, qarlar, ustaxonalar, hunarmandchilik do‘konlari va savdo rastalari
- S) saroy, dargoh, masjid va madrasa
- D) ark

114. Somoniylar davrida qaysi shaharlar o‘rta asr hunarmandchiligini rivoj topgan yirik markazi va gavjum maskani hisoblangan edi?

- A) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marg‘ilon
- B) Buxoro, Samarqand, Urganch, Toshkent
- S) Buxoro, Samarqand, Qo‘qon
- D) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh va Axsikat

115. Somoniylar davrida qayerda yuqori navli qog‘oz ishlab chiqarilar edi?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- S) Marv
- D) Kesh

116. Ma‘lumki, somoniylar davrida Shosh o‘zining

ko'nychilik mahsulotlari va charm mollari bilan mashhur edi, floq esa ...

- A) ko'nychilik mahsulotlari va charm mollari bilan mashhur edi.
- B) kumush, qorg'oshin konlari va kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi.
- S) malla rang bo'zi bilan mashhur edi.
- D) qayiqsozligi bilan mashhur edi.

117. Somoniylar davrida qayerlarda qayiqlar yasalgan?

- A) Samarqand va Keshda
- B) Farg'ona va Marvda
- S) Xorazm va Termizda
- D) Kesh va Axsikatda

118. IX-X asrlarda qayiqsozlik qayerda taraqqiy etgan?

- A) Farg'onada
- B) Xorazmda
- S) Buxoroda
- D) Surxondaryoda

119. Sharqda mashhur bo'lgan "zandanacha" va "vadoriy" matolari qayerlarda tayorlangan?

- A) Binkat va Keshda
- B) Urganch va Marvda
- S) Buxoro va Samarqanda
- D) Axsikat va Binkat

120. Nechanchi asrda Movarounnahrda konchilik sohasi nihoyat darajada taraqqiy etgan?

- A) XII-XIII asrlarda
- B) X-XI asrlarda
- S) XIV-XV asrlarda
- D) IX-X asrlarda

121. IX-X asrlarda Zarafshon tog'laridan nimalar qazib olingan?

- A) toshko'mir va neft qazib olingan.
- B) temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil qazib olingan.
- S) temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olingan.
- D) simob, mis, qalay, feruza, novshadil qazib olingan.

122. Somoniylar davrida kumush va qo'rg'oshinlarni qazib olishning yirik markazi qaysi viloyat hisoblangan?

- A) Samarqand
- B) Farg'ona viloyati
- S) Eloq viloyati
- D) Xorazm

123. Somoniylar davrida qayerdan toshko'mir va neft topilib ishlatilgan?

- A) Farg'onadan
- B) Xorazmdan
- S) Zarafshondan
- D) Shahrisabzdan

124. Farg'ona vodiysi tog'laridan nimalar qazib

olingan?

- A) temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar
- B) temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil
- S) feruza va oltin
- D) jez, oltin va mis

125. Somoniylar davrida konlarning yaqinida rudalarni eritib ma'dan oluvchi ohangarlar va konchilarning ... bo'lardi.

- A) karvonsaroylari
- B) shaharlari
- S) qishloqlari
- D) shahar va qishloqlari

126. Karvonsaroylar qayerlarda qurilardi?

- A) yirik shaharlarda
- B) daryo bo'ylarida
- S) sahroning suv bor joylarida
- D) karvonlar o'tadigan shahar va qishloqlarda

127. O'rta asrlarda qayerda savdogarlar-u sarbonlar va sayyohlar uchun hujralar, mollari uchun omborxonalar, tuyalar, otlar, xachirlar va eshaklar uchun og'ilxonalar bo'lardi, zarur yem-xashaklar va oziq-ovqatlar saqlanardi?

- A) bozor yaqinida
- B) registon
- S) karvonsaroy
- D) shahristonda

128. Ma'lumki, IX-X asrlarda Movarounnahrda ichki va tashqi savdo kengaydi. Shimoliy yo'l orqali, Janubiy Sibir va mo'g'ulistonga Movarounnahrda qanday mahsulotlar olib chiqilgan?

- A) qimmatbaho mo'ynalar, chorva mollari, chorvachilik mahsulotlari
- B) bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut va zig'ir moyi
- S) ipak, shoyi gazlamalar va chinni idishlar
- D) mo'yna, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qoramol

129. IX-X asrlarda Sibirdan Movarounnahrda qanday mahsulotlar keltirilgan?

- A) kiyim-kechak, egar-jambuq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob
- B) bo'z, kiyim-kechak, egar-jambuq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut va zig'ir moyi
- S) ipak, shoyi gazlamalar va chinni idishlar
- D) qimmatbaho mo'ynalar, chorva mollari, chorvachilik mahsulotlari keltirilgan

130. Ma'lumki, Somoniylar davrida Xitoyga shisha va shisha buyumlar olib borilgan. Xitoydan esa ...

- A) ipak, shoyi gazlamalar va chinni idishlar keltirilgan
- B) guruch, quruq meva, kanakunjut moyi, shirinliklar,

tuzlangan baliq, bo'za, mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, gilam va choyshablar, kamon

S) mo'ynalar, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qoramol

D) paxta, ip va shoyi matolar

131. IX-X asrlarda Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan qanday mahsulotlar chiqarilar edi?

A) ipak, shoyi gazlamalar va chinni idishlar keltirilgan

B) quruq meva, kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo'za, mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, gilam, choyshablar va kamon

S) kiyim-kechak, egar-jabduq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob

D) mo'yna, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qoramol

132. Bulg'or va Xazardan Movarounnahr va Xorazmga qanday mahsulotlar olib kelinar edi?

A) o'q-yoy, qilich, idish-asbob

B) chinni idishlar

S) mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut

D) mo'yna, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qoramol

133. Ma'lumki, Somoniylar davrida ichki bozorlarda "fals" deb atalgan mis chaqalar ishlatilgan, xalqaro savdo-sotiqda esa qanday pul birligi ishlatilgan?

A) oltin va kumush tanga

B) oltin tanga

S) kumush dirham

D) qog'oz pullar

134. Somoniylar davrida mis chaqalarni kimlar chiqarar edi?

A) markaziy hukumat va sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi viloyat hokimlari

B) markaziy hukumat

S) sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi viloyat hokimlari

D) zodagon dehqonlar

135. Kumush tangalar hukumat boshlig'i nomidan qaysi shaharlarda so'qilar edi?

A) Marv, Binkat, Kesh va Axsikat

B) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh va Axsikat

S) Marv, Samarqand, Buxoro va Shosh

D) Marv, Samarqand, Buxoro, Urganch, Binkat, Kesh

136. Somoniylar davrida qaysi kumush dirham yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilgan bo'lib, asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan?

A) "ismoiliy"

B) "muhammadiy"

S) "somoniyy"

D) "g'itrifiy"

137. Ma'lumki, Somoniylar bir necha kumush dirham chiqargan edilar. Ushbu kumush dirhamlarni qayd eting.

A) "somoniyy", "ismoiliy", "muhammadiy"

B) "somoniyy", "ismoiliy"

S) "g'itrifiy", "somoniyy"

D) "ismoiliy", "muhammadiy"

138. Somoniylar hukumronligi davrida yer egaligining qanday turlari mavjud bo'lgan?

A) "mulki sultoniy", "mulk yerlari", "vaqf yerlari", "mulki xos" va jamoa yerlari

B) "mulki sultoniy", "mulk yerlari", "vaqf yerlari"

S) "vaqf yerlari", "mulki xos" va jamoa yerlari

D) "mulk yerlari", "vaqf yerlari", "mulki xos" va jamoa yerlari

139. Oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'ltidagi yerlar nima deb yuritilgan?

A) "vaqf yerlari"

B) "mulki xos"

S) "mulki sultoniy"

D) "mulk yerlari"

140. Somoniylar davrida kimlar hosilning faqatgina 1/10 hisobida "ushr" solig'ini to'lagan?

A) aslzodalar

B) mahalliy hokimlar

S) oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar

D) oliy martabali harbiylar

141. Somoniylar davrida hukmron sulola va oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilinadigan yer turi qanday nomlanadi?

A) "mulki sultoniy"

B) "mulki xos"

S) "mulk yerlari"

D) iqto

142. Somoniylar davrida sasosan lalmikor va tog'oldi yerlardan iborat bo'lgan "jamoat yerlari" kimlarning tasarrufida bo'lgan?

A) oliy martabali ruhoniylar

B) qishloq jamoalari tasarrufida

S) oliy martabali harbiylar

D) aslzodalar

143. IX-X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra, o'z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a'zolariga ijaraga berganlar. O'sha davrda bunday ijarachilar nima deb atalgan?

A) chokar

B) kadivar

S) kashavarz

D) "barzikor" yoki "qo'shchilar"

144. Somoniylar davrida agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning ... belgilanardi.

A) 1/3, 1/4 yoki 1/5 miqdorida

B) 1/10 yoki 1/12 miqdorida

S) 1/2 yoki 1/5 miqdorida

D) 1/6 yoki 1/7 miqdorida

145. Somoniylar davrida qo'shchi qay paytda hosilning



1/10 yoki 1/12 ulushiga ega bo'lardi?

A) qo'shchi o'z urug'ini, yer egasining esa qo'shini ishlatsa

B) o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa

S) na qo'shga va na urug'likka ega bo'lgan, bularni hammasi yer egasi hisobidan ishlatsa

D) qo'shchi o'z qo'shini, yer egasining esa urugini ishlatsa

146. Somoniylar davrida davlat soliqlari (xiroj va ushr) kimlardan olinardi?

A) qo'shchilardan

B) yer egasidan va qo'shchilardan

S) chorvador aholi va qo'shchidan

D) hunarmanddan

147. Somoniylar harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarining avj olib borishi qanday oqibatga olib keldi?

A) siyosiy tanglik

B) ijtimoiy tanglik

S) iqtisodiy tanglik

D) ijtimoiy-siyosiy tanglik

148. Nima sababdan Somoniylar hukmdori Nasr II 942-yilda aholidan ikki marta soliq undirib oladi?

A) mahalliy ma'muriyatga maosh to'lash uchun

B) yangi joylarni o'zlashtirish uchun sug'orish tarmoqlarni barpo etish uchun

S) masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va karvonsaroylar qurish uchun

D) harbiy qo'shinga maosh to'lash uchun

149. 943-954-yillarda Somoniylar davlatida kim hukmronlik qilgan?

A) Nuh II

B) Nuh

S) Abu Ali Chag'oni

D) Ibrohim

150. Somoniylar hukmdori Nuh II nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

A) 914-943-yillarda

B) 943-954-yillarda

S) 976-997-yillarda

D) 888-914-yillarda

151. Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim nechanchi yilda isyon ko'taradi?

A) 954-yilda

B) 947-yilda

S) 997-yilda

D) 943-yilda

152. Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim kimlarning yordami bilan Buxoro taxtini egallaydi?

A) saroy sarbozlari va Chag'aniyoning yirik yer-mulk egasi Abu Ali Chag'oni yordami bilan

B) harbiy qo'shin va hunarmandlar yordami bilan

S) saroy sarbozlari yordami bilan

D) mahalliy aholi yordami bilan

153. Somoniylar hukmdori Nuh kimni 95-yilda avval Chag'aniyonga so'ngra, Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi?

A) Nuh II ni

B) Ibrohimni

S) Abu Ali Chag'oniyni

D) Ismoilni

154. Nechanchi yilda Buxoro harbiy askarlarining qo'zg'oloni bo'lib o'tadi?

A) 947-yilda

B) 961-yilda

S) 95-yilda

D) 976 yilda

155. Somoniylar davlatining zaiflashib inqirozga yuz tutishiga nimalar sabab bo'lgan?

A) Somoniylarning xalqdan ko'p miqdorda soliqlarni undirib olishi

B) Somoniylarning harbiylarga maosh to'lay olmasligi

S) Somoniylar o'rtasidagi o'zaro urushlar, mahalliy hokimlar va yirik mulkdorlar, zodagonlarining hokimiyatga qarshi kurashi

D) Somoniylarning boshqa davlatlarga qarshi urushlari

156. Somoniylardan kimlarning hukmronligi davrida siyosiy vaziyat nihoyatda keskin tus oldi?

A) Nuh II va Abu Ali Chag'oni

B) Nuh va Ibrohim

S) Ibrohim va Abu Ali Chag'oni

D) Nuh va Nuh II

157. Somoniylar davrida qachonga kelib mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazadi?

A) X asr oxiri

B) X asr boshi

S) IX asr oxiri

D) X asr o'rtasi

158. Masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yer nima deb atalgan?

A) mulki sultoniy

B) vaqf yerlar

S) mulk yerlar

D) mulki xos

159. Mulki sultoniy bu — ...

A) masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yer

B) hukmdorga qarashli davlat yeri

S) hukmron sulola vakillari mulkdor dehqon va asilzodalar, shuningdek qishloq aholisiga qarashli yerlar

D) davlat solig'idan qisman yoki butunlay ozod etilgan oliy martabali ruhoniylar va sayyidlarga qarashli yerlar

160. Hukmron sulola vakillari mulkdor dehqon va



asizodalar, shuningdek qishloq aholisiga qarashli yerlar nima deb atalgan?

- A) mulki sultoni
- B) mulk yerlar
- S) vaqf yerlar
- D) mulki xos

161. Mulki xos bu — ...

- A) davlat solig'idan qisman yoki butunlay ozod etilgan oliy martabali ruhoniyalar va sayyidlarga qarashli yerlar
- B) masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yer
- S) hukmron sulola vakillari mulkdor dehqon va asilzodalar, shuningdek qishloq aholisiga qarashli yerlar
- D) hukmdorga qarashli davlat yeri

162. Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Husayn avlodlari nima deb atalgan?

- A) xojilar
- B) sayyidlar
- S) ustodlar
- D) sadrlar

163. Hosilning 10% miqdorida olinadigan soliq nima deb atalgan?

- A) zakot
- B) ushr
- S) xiroj
- D) jiz'ya

164. X asr o'rtalarida Issiqko'lining janubi va Koshg'arda qanday qabila yashagan?

- A) "o'g'uzlar"
- B) "chigil"
- S) "yag'mo"
- D) "qarluq"

165. X asr o'rtalarida yag'mo qabilasi o'zlaridan shimoli-sharqroqda yashovchi qaysi qabila bilan yagona ittifoqqa birlashgan?

- A) saljuqiylar
- B) qarluq
- S) o'g'uzlar
- D) chigil

166. Yag'molar qayerga xuruj qilib qarluqlarni bo'ysundirdi?

- A) Badaxshon
- B) Farg'ona
- S) Yettisuv
- D) Xuttalon

167. Qoraxoniylar davlatiga kim asos solgan?

- A) Nuh ibn Mansur
- B) Sabuktegin
- S) Abdulkarim Sotuh Bug'roxon
- D) Mamud G'aznaviy

168. Qoraxoniylar davlatining dastlabki poytaxti qaysi

shahar bo'lgan?

- A) Samarqand
- B) Bolaso'g'un
- S) Buxoro
- D) Taroz

169. Ma'lumki, Qoraxoniylar davlatining hukmdorlari "arslonxon" va "bug'roxon" unvonlari bilan yuritilgan. Bu ikki so'z qanday ma'noni anglatadi?

- A) ulug'xon
- B) og'ir yuk ko'taradigan ikki o'rkachli tuya
- S) oliy darajali hukmdor
- D) xonlar xonlar

170. Qoraxoniylar davlati taxtiga o'tirgan arslonxon yoki bug'roxon nima deb atalgan?

- A) "qoraxon"
- B) "tamg'achxon"
- S) "takin"
- D) "eloqxon"

171. Qadimda "arslon" qaysi qabilaning totemi-ajdodi ibtidosi hisoblangan?

- A) o'g'iz
- B) chigil
- S) qarluq
- D) yog'mo

172. Qadimda qanday hayvon yag'mo qabilasining totemi bo'lib, og'ir yuk ko'taradigan ikki o'rkachli tuya ma'nosini anglatgan?

- A) "takin"
- B) "arslon"
- S) "tamg'achxon"
- D) "bug'ro"

173. Qoraxoniylar davlatida kimlar "tamg'achxon" deb atalgan?

- A) rais
- B) takin
- S) qoraxon
- D) eloq

174. 992-yilda qoraxoniylar kimning boshchiligida Movarounnahrda hujum qiladilar?

- A) Horun Bug'roxon
- B) Nuh ibn Mansur
- S) Sabuktegin
- D) Mamud G'aznaviy

175. Nuh ibn Mansur qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun kimni yordamga chaqiradi?

- A) G'aznadagi noibi Sabukteginni
- B) G'aznadagi noibi Mahmudni
- S) G'aznadagi noibi Ibrohim Bo'riteginni
- D) G'aznadagi noibi Abu Ali Chag'oniyni

176. Nima uchun Nuh Sabukteginni Xurosonning noibi etib tayinlaydi?

- A) Sabuktegin somoniylar sulolasining yorqin vakili

bo'lgani uchun

- B) Sabuktegin qoraxoniylar noibi qo'shinlarini tor-mor qilgani uchun
- S) Sabuktegin G'aznaviylar hukmdori bo'lgani uchun
- D) Sabuktegin Buxoroni egallagani uchun

177. Nuh Sabukteginni Xurosonning noibi etib tayinlashi natijasida ...

- A) Qoraxoniylar davlati tashkil topadi
- B) Tohiriylar davlati tashkil topadi
- S) G'aznaviylar davlati tashkil topadi
- D) Qoraxoniylar davlati ikki qismga ajralib ketadi

178. 996-yilda qoraxoniylar Movarounnahr tomon yana hujum boshlaganda ...

- A) Nuh ibn Mansur qo'shini Buxoroni egallaydi
- B) Mahmud G'aznaviy qo'shini Buxoroni egallaydi
- S) Ibrohim Bo'ritegin qo'shini Buxoroni egallaydi
- D) Sabuktegin qo'shini Buxoroni egallaydi

179. Sabuktegin bilan qoraxoniylar o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq somoniylarga qayer beriladi?

- A) Sirdaryo havzasi
- B) Movarounnahrning markaziy qismi
- S) Amudaryodan janubdagi yerlar
- D) Amudaryo bo'yi viloyatlari — Xuttalon, Vaxsh, Chag'oniyon

180. 999-yilda Buxoroni Nasr Eloqxon boshchiligidagi qoraxoniylar tomonidan zabt etilgandan so'ng ...

- A) G'aznaviylar davlati tashkil topdi
- B) Qoraxoniylar davlati tashkil topdi
- S) Somoniylar hukmronligi barham topdi
- D) Qoraxoniylar davlati amalda ikkiga bo'linib ketdi

181. 1006-1008-yillarda qoraxoniylar Xuroson ustiga necha marta hujum qiladilar?

- A) ikki marta
- B) uch marta
- S) to'rt marta
- D) besh marta

182. XI asr boshlarida g'aznaviylarga kimlar xavf sola boshlaydi?

- A) qoraxoniylar
- B) saljuqiylar
- S) tohiriylar
- D) o'g'uzlar

183. 1038-yilda qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritegin g'aznaviylardan qayerlarni tortib oladi?

- A) Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni
- B) Taroz, Isfijob va Axsikat
- S) Koson, Isfara va G'azna
- D) Faroba, Gurgon va Sabzavor

184. Qaysi qoraxoniylarning mahalliy hukmdorining mustaqill siyosati tufayli qoraxoniylar davlati ikki

mustaqil davlatga ajralib ketadi?

- A) Sabuktegin
- B) Nuh ibn Mansur
- S) Ibrohim Bo'ritegin
- D) Mamud G'aznaviy

185. Sharqiy qoraxoniylar poytaxti qayer edi?

- A) Samarqand
- B) Bolasog'un
- S) O'zgan
- D) Koshg'ar

186. Ma'lumki, Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilganlar. Bu viloyatlarni kimlar boshqargan?

- A) tamg'achxn va qoraxon
- B) qoraxon va eloqxon
- S) eloqxon va takin
- D) rais va muhtasib

187. Qoraxoniylar orasida qayerning eloqxoni katta obro'ga ega edi?

- A) Vaxon
- B) Badaxshon
- S) Movarounnahr
- D) Xuttalon

188. Qoraxoniylar davrida viloyat boshqaruv ma'muriyatida kimlar xizmat qilgan?

- A) imomlar, shayxlar va sadrlar
- B) vazirlar, sohibbaridlar, mustovfiylar
- S) shahar hokimi, rais va muhtasiblar
- D) vazirlar, shayxlar va sadrlar

189. Qoraxoniylar davrida shaharlar kimlar tomonidan boshqarilgan?

- A) shahar hokimi, rais va muhtasiblar tomonidan
- B) vazirlar, sohibbaridlar, mustovfiylar
- S) vazirlar, shayxlar va sadrlar
- D) imomlar, shayxlar va sadrlar

190. Qaysi sulola davrida imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi?

- A) somoniylar
- B) qoraxoniylar
- S) tohiriylar
- D) g'aznaviylar

191. Qoraxoniylar qaysi shaharni davlat yoki viloyat poytaxtiga aylantirib, shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qiladilar?

- A) O'tror, Taroz, Isfijob, Axsikat, Bolasog'un va Samarqand
- B) Sabzavor, Hirot, Nishopur, Saraxs, Samarqand va Buxoro
- S) Bolasog'un, Koshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand va Buxoro
- D) Buxoro, Nasaf, Qabodiyon, Balx va G'azna

192. Eloqxonlar ...



A) el-yurt hokimi b'lib, o'z viloyatida tosh-torozi va narx-navo nazoratchisi edi

B) el-yurt hokimi b'lib, o'z viloyatida din qoidalariga amal qilinishi ustidan nazorat olib borgan

S) el-yurt hokimi b'lib, viloyatlarning obodonchiligi uchun intilar edi

D) el-yurt hokimi b'lib, o'z nomlari bilan chaqa-tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edi

193. Qoraxoniylar davrida kimlar tosh-torozi, narx-navo va din qoidalariga amal qilinishi ustidan nazorat olib borgan?

A) rais

B) shahar hokimi

S) muhtasib

D) eloq xon

194. Qoraxoniylar davrida xonlar xoni nima deb yuritilgan?

A) takin

B) tamg'achxon

S) eloq xon

D) bug'roxon

195. XI-XII asrlarda Movarounnahrda, ayniqsa Zarafshon vodiysida qishloq xo'jaligi ahvoli qanday bo'lgan?

A) ko'pgina dalalar, paykal va bog'lar barbod bo'lgan, ekin maydonlari qisqarib ketgan

B) ko'pgina dalalar, paykal va bog'lar rivoj topib, ekin maydonlari kengaydi

S) sug'orish tarmoqlari vositasida sug'orilib obod etilgan serunum vohalarda g'allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik va bog'dorchilik yuqori darajada rivoj topgan edi

D) bog'dorchilik madaniyati keng ravnaq topgan edi. Bog' va chorbog'larda uzum, anor, anjir, olma, nok, behi, o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, tut, jiyda va ko'pgina boshqa mevalar yetishtirilgan edi

196. Qaysi davrda mahalliy mulkdor dehqonlar yersuv mulklaridan hamda mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ajralib, jamiyat hayotida o'zining ilgari o'rni va ahamiyatini butunlay yo'qotadilar?

A) g'aznaviylar davrida

B) somoniylar davrida

S) qoraxitoylar davrida

D) qoraxoniylar davrida

197. XI asrdan boshlab yerdan foydalanishning qanday tartiboti keng yoyilgan?

A) mulki xos

B) iqto

S) mulki sultoniy

D) vaqf yerlar

198. Qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisidan tegishli soliqlarni undirib, uni boshqarishning eng qulay shaklini aniqlang?

A) iqto tartibi

B) el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilish

S) shahar hokimi, rais va muhtasiblar tomonidan boshqarish.

D) Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab olishda musulmon ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabatlar o'rnatadilar.

199. Qaysi davrdan boshlab iqto tartibi keng qo'llanishi bilan u vaqtinchalik in'omdan umrbod foydalanishga, bora-bora esa hatto avloddan-avlodga o'tadigan merosiy mulkka aylana boshlagan?

A) somoniylar davrida

B) qoraxoniylar davrida

S) qoraxitoylar davrida

D) g'aznaviylar davrida

200. Nechanchi asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda iqto yerlari kengayib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi?

A) X—XI asrlarda

B) XII—XIII asrlarda

S) IX—X asrlarda

D) XI—XII asrlarda

201. Qaysi davrga kelib musulmon ruhoniylariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va mamlakatda ularning siyosiy ta'sirining tobora ortib borishi bilan vaqf yerlari ham ancha ko'paydi?

A) qoraxitoylar davrida

B) somoniylar davrida

S) qoraxoniylar davrida

D) qarluqlar davrida

202. Qoraxoniylar davrida kimlar sug'orish tarmoqlari, to'g'onlar, yo'l va qal'alar qurish va ularni ta'mir etishda ishtirok etishga shart edi?

A) barzikorlar

B) kadivarlar

S) kashovarlar

D) dehqonlar

203. Qoraxoniylar davrida ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markazlari qaysi shaharlar hisoblangan?

A) Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent

B) Marv, Samarqand, Buxoro, Shosh

S) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh, Axsikat

D) Samarqand, Urganch, Kesh, Axsikat

204. Qoraxoniylar davrida shaharlarda hunarmandchilikning qaysi sohalarini ayniqsa rivoj topadi?

A) to'qimachilik, temirchilik va zargarlik

B) kulolchilik, shishasozlik, miskarlik va chilangarlik

S) qog'oz ishlab chiqarish, to'qimachilik va chilangarlik

D) ko'nchilik, duradgorlik, zargarlik va misgarlik

205. XI-XII asrlarda nima sababdan qoraxoniylar va

ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilina boshlandi?

- A) qoraxoniylarga tobe bo'lgan davlatlar tomonidan jo'natiladigan kumush va misning to'planib qolishi
- B) tashqi savdning rivoj topishi
- S) hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshganligi
- D) zargarlikning rivojlanishi sababli

206. Qoraxoniylar davrida qaysi shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan?

- A) Bolaso'g'un, Tarozi, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro
- B) Marv, Samarqand, Buxoro, Shosh
- S) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh, Axsikat
- D) Samarqand, Urganch, Kesh, Axsikat

207. Qoraxoniylar davrida ayrim viloyatlarning siyosiy mavqeni oshirib, ularning mustaqillikka bo'lgan intilishlarini kuchaytirgan omil nima edi?

- A) vaqf mulklarini kengayishi
- B) eloqxonlarning siyosiy va iqtisodiy mavqeni oshishi
- S) mamlakatni viloyatlarga bo'lib boshqarish va mulki xolis tartibotini keng joriy etilishi
- D) mamlakatni viloyatlarga bo'lib boshqarish va iqto tartibotini keng joriy etilishi

208. Nechanchi asrga kelib Qoraxoniylar davlati sharqdan kelgan qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ladi?

- A) XII asrning 30-yillarida
- B) XI asrning 30-yillarida
- S) IX asrning 30-yillarida
- D) X asrning 30-yillarida

209. Kim Bolaso'g'un shahrini Qoraxitoylar davlatining poytaxtiga aylantirgan?

- A) Ibrohim Bo'ritegin
- B) Abdukarim Sotui
- S) Go'rxon
- D) Sabuktegin

210. Ma'lumki, 1137-yilda qoraxitoylar qoraxoniylarining eloqxoni Mahmudga qashqatqich zarba beradilar. Bu jang qayerda bo'lib o'tgan?

- A) Xo'jand shahri yaqinida
- B) Shosh shahri yaqinida
- S) Termiz shahri yaqinida
- D) Samarqand shahri yaqinida

211. Nechanchi yilda qoraxitoylar Movarounnahrda hujum qilib, qoraxoniylar ustidan uzil-kesil g'alaba qozanadilar?

- A) 1137-yilda
- B) 1141-yilda
- S) 1139-yilda
- D) 1142-yilda

212. Qoraxoniylar davlati nechanchi yilda tugatilgan?

- A) 1140-yilda
- B) 1141-yilda
- S) 1142-yilda
- D) 1143-yilda

213. Ko'chmanchi qoraxitoylar qaysi qabilaga mansub bo'lgan?

- A) mo'g'ullarga
- B) uyg'urlarga
- S) turkiylarga
- D) qipchoqlarga

214. Xorazm nechanchi yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilgan?

- A) 1153-yilda
- B) 1040-yilda
- S) 1017-yilda
- D) 1194-yilda

215. 1040-yilda Xorazm davlati qaysi davlat tomonidan zabt etilgan?

- A) G'aznaviylar davlati
- B) Saljuqiylar davlati
- S) Qoraxoniylar davlati
- D) Somoniylar davlati

216. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan kimni Xorazmga noib qilib tayinlaydi?

- A) Anushtegini
- B) Qutbiddin Muhammadni
- S) Otsizni
- D) Elarlonni

217. 1097-yilda Anushtegin vafotidan so'ng Xorazmda kim hukmronlik qilgan?

- A) Elarlon
- B) Otsiz
- S) Qutbiddin Muhammad
- D) Takash

218. Xorazm hukmdorlaridan qaysi biri xorazmshoh unvonini tiklaydi?

- A) Anushtegin
- B) Qutbiddin Muhammad
- S) Otsiz
- D) Takash

219. 1127-1156-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?

- A) Elarlon
- B) Takash
- S) Qutbiddin Muhammad
- D) Otsiz

220. Qaysi hukmdor Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi?

- A) Qutbiddin Muhammad
- B) Otsiz
- S) Elarlon

D) Anushtegin

221. Xorazmda Otsizning siyosatini uning vorislaridan kimlar davom ettirgan?

- A) Malikshoh va Takash
- B) Qutbiddin Muhammad va Anushtegin
- S) Elarslon va Takash
- D) Takash va Muhammad

222. Xorazm hukmdori Elarslon nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

- A) 1127—1156-yillarda
- B) 1097—1127-yillarda
- S) 1156-1172-yillarda
- D) 1172—1200-yillarda

223. 1172-1200-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?

- A) Otsiz
- B) Takash
- S) Elarslon
- D) Qutbiddin Muhammad

224. Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar nechanchi yilda isyon ko'taradilar?

- A) 1187-yilda
- B) 1017-yilda
- S) 1194-yilda
- D) 1153-yilda

225. Nimaning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab parchalanib ketdi?

- A) ko'chmanchi o'g'uzlar isyoni
- B) Xorazm davlatining kuchayishi
- S) G'aznaviylarning hujumi
- D) qoraxitoylarning isyoni

226. Quyidagi berilgan hukmdorlarning hukmronlik yillari bilan birga to'g'ri berilgan qatorni toping.

- 1) Qutbiddin Muhammad 2) Otsiz 3) Elarslon 4) Takash
- 5) Muhammad
- a) 1156-1172 b) 1172-1200 s) 1127-1156 d) 1097-1127
- e) 1200-1220
- A) birinchi d; ikkinchi s; 3-a; 4-b; 5-e
- B) birinchi a; ikkinchi b; 3-s; 4-d; 5-e
- S) birinchi d; ikkinchi b; 3-s; 4-a; 5-e
- D) birinchi e; ikkinchi s; 3-b; 4-d; 5-a

227. O'g'uzlarning keskin zarbasidan so'ng Saljuqiylar davlatidan dastlab qaysi hududlar ajralib chiqadi?

- A) Kichik Osiyo va Kermon
- B) Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari
- S) Nishopur, Ray va Marv
- D) Eron va Xorazm

228. Xorazm davlati hududi kimning hukmronligi davrida juda kengayadi?

- A) Elarslon davrida

- B) Otsiz davrida
- S) Takash davrida
- D) Qutbiddin Muhammad davrida

229. Nechanchi yillarda va kimning hukmronlik davrida Nishopur, Ray va Marv shaharlari Xorazm davlatiga qo'shib olinadi?

- A) 1127—1156-yillarda Otsiz davrida
- B) 1187-1193-yillarda Takash davrida
- S) 1156—1172-yillarda Elarslon davrida
- D) 1172—1200-yillarda Takash davrida

230. 1194-yilda Takash saljuqiylar sultoni To'g'ulga qashqatqich zarba bergandan so'ng qayerni egallaydi?

- A) Kichik Osiyo va Kermonni
- B) Nishopur, Ray va Marv shaharlarini
- S) Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarni
- D) Eronni

231. Takash vafotidan so'ng Xorazmda kim hukmronlik qilgan?

- A) uning o'g'li Elarslon
- B) uning o'g'li Otsiz
- S) uning o'g'li Qutbiddin Muhammad
- D) uning o'g'li Muhammad

232. 1200-1220-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?

- A) Qutbiddin Muhammad
- B) Muhammad
- S) Elarslon
- D) Otsiz

233. Xorazm hukmdorlari 1206-yildan boshlab, Movarounnahrhi kimlarning zulmidan ozod etishga kirishildi?

- A) g'aznaviylar
- B) qoraxitoylar
- S) saljuqiylar
- D) qoraxoniylar

234. 1210-yilda qoraxitoylar Xorazm qo'shinlari tomonidan qayerda mag'lubiyatga uchratiladi?

- A) Nishopur yaqinida
- B) Talos vodiysida
- S) Marv yaqinida
- D) Zarafshon vodiysida

235. Ma'lumki, XIII asr boshlarida Xorazm sarhadlari juda keng maydonni egallari edi. Uning chegarasi janubi-g'arbda qayergacha borgan edi?

- A) G'azna viloyatiga qadar
- B) Orol va Kaspiy dengizi sohillarigacha
- S) Yettisuv va Dashti Qipchoqqa qadar
- D) Iroqqa qadar

236. Ma'lumki, XIII asr boshlarida Xorazm sharqdagi ulkan davlat edi. Bu ulkan davlatning poytaxti qaysi shahar bo'lgan?

- A) Vazir



- B) Xiva
- S) Urganch
- D) Marv

237. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar qanday nom bilan ulug‘langan?

- A) “xonlarning xoni”
- B) “Buyuk hukmdor”
- S) “Iskandari soniy”
- D) “bug`roxon`

238. 1210-yilda xorazmshohlarga qarshi kimlar qo‘zg‘olon ko‘taradilar?

- A) Samarqand aholisi
- B) O‘tror aholisi
- S) Buxoro aholisi
- D) Marv aholisi

239. Samarqandliklar xorazmshohlarga qarshi nechanchi yilda qo‘zg‘olon ko‘taradilar?

- A) 1212- yilda
- B) 1210-yilda
- S) 1206-yilda
- D) 1200-yilda

240. Xorazmshohlar davlatining yemirilishiga nima sabab bo‘ldi?

- A) ichki va tashqi savdning kasodga uchrashi
- B) iqtisodiy inqiroz
- S) ichki ziddiyatlar
- D) ko‘chmanchilarning doimiy hujumi

241. Xorazmshohlar davlatning beqarorlik holatini yaqqol ko‘rsatgan omilni aniqlang.

- A) ko‘chmanchilarning doimiy hujumi
- B) iqto tizimi
- S) viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko‘pgina tabaqalari noroziligi, qo‘shin va saroyda fitnalarning avj olishi
- D) ichki va tashqi savdning kasodga uchrashi

242. Mohir diplomat va g‘ayratli lashkarboshi Otsiz va uning vorislari Xorazmning mustaqilligi yo‘lida qayerda sodir bo‘lgan har qanday qulay siyosiy vaziyatdan foydalanadilar?

- A) Movarounnahr va Eronda
- B) Dashti Qipchoq va Mo‘guliston

- S) Hindiston va G‘aznaviylar davlatida
- D) Somoniylar va Qoraxoniylar

243. Dastavval Xorazm hukmdori Otsiz kimlarni o‘ziga bo‘ysundiradi?

- A) saljuqiylar va qoraxitoylarni
- B) qoraxoniylar va g‘aznaviylar
- S) turkman va qipchoqlarni
- D) o‘g‘uzlar va qarluqlarni

244. Xorazm hukmdori Otsiz Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog‘liq bo‘lgan qayerlarni egallaydi?

- A) Orol va Kaspiy dengizi sohillarini
- B) G‘azna viloyatini
- S) Sirdaryo etaklari va Mang‘ishloq yarim orolini
- D) Kichik Osiyo va Kermon

245. Xorazmshohlardan qay biri qang‘li va turkmanlardan kuchli yollanma qo‘shin tashkil etib, bir necha bor Sulton Sanjarga qarshi isyon ko‘taradi.

- A) Qutbiddin Muhammad
- B) Otsiz
- S) Elarslon
- D) Takash

246. XIII asr boshida Xorazm shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy chegarasi qayerdan o‘tar edi?

- A) G‘azna viloyatidan
- B) Orol va Kaspiy dengizi sohillari
- S) Yettisuv va Dashti Qipchoq
- D) Iroqqa qadar


247. XIII asr boshida Xorazm janubi-sharqiy hududlari qayerdan o‘tar edi?

- A) G‘azna viloyatidan
- B) Orol va Kaspiy dengizi sohillari
- S) Yettisuv va Dashti Qipchoq
- D) Iroqqa qadar

248. XIII asr boshida Xorazm shimoli-sharqiy chegarasi qayerdan o‘tar edi?

- A) Orol va Kaspiy dengizi sohillari
- B) G‘azna viloyatidan
- S) Iroqqa qadar
- D) Yettisuv va Dashti Qipchoq

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO‘YIGA: 1. Xalifa Horun ar-Rashid o‘g‘li. 3. Arab xalifasi (786-809). 4. X asr oxirlarida G‘azna noibi. 6. 947-yilgi isyon Ibrohimga Buxoro taxtini egallashida yordam bergan amaldor. 7. Xorazm hukmdori (1127-1156). 8. Anushtakinni Xorazmga noib qilib tayinlagan saljuqiy hukmdor. 10. Somoniylar hukmdori. 12. Abbosiylar sulolasidan bo‘lgan xalifa (813-833).

ENIGA: 2. Mo‘g‘ul davlati bilan munosabatda bo‘lgan xorazmshoh. 5. Tohiriylar hukmdori. 8. Abbosiy xalifa. 9. Eronni bo‘ysundirgan xorazmshoh. 10. Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori. 11. Somoniylar davlati hukmdori (914-943). 13. 947-yilgi isyon rahbari.

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO‘YIGA: 1. Pul almashtirib berish bilan shug‘ullanuvchi. 2. Somoniylar davrida kumush dirham. 3. Juma nomozida hukmdor nomini aytib uning haqiga duo o‘qish. 4. Kichik mirob. 5. IX-X asrlarda yollanib qo‘shchilik qilgan mehnatkash aholi. 6. Din qoidalariga amal qilinishi ustidan nazorat qiluvchi amaldor. 10. Din va ilm peshvosi. 11. Iqtoga ega bo‘lgan mulkdor.

ENIGA: 2. Tohiriylar davlatining dastlabki poytaxti. 7. Tohiriylar hokimiyatini tugatgan sulola. 8. Hosilning 1/10 qismida olinadigan soliq. 9. Qoraxoniylarda xonlar xoni. 11. Somoniylarda moliya vaziri. 12. Haq din uchun kurashuvchi jangchi. 13. Davlat oldidagi xizmati uchun in‘om qilinadigan yer-mulk.

XRONOKROSS (yillar bo'yicha)



BO‘YIGA: 1. Somoniylar davlatining barham topishi. 2. Qoraxitoylarning Movarounnahrda yurishi. 3. Xorazmning Saljuqiylar davlatiga qaram bo‘lishi. 5. Xorazmshoh Takashning Marv shahrini zabt etishi. 7. O‘rta Osiyoda Tohiriylar hukmronligining boshlanishi. 8. Xorazmda Muhammadning taxt tepasiga kelishi. 9. Ismoil Somoniyning Taroz shahrini fath etishi. 10. Xo‘jand shahri yaqinida Qoraxitoylarning qoraxoniylar eloqxoni Maxmudga qaqshatqich zarba berishlari.

ENIGA: 2. O‘ror aholisining xorazmshohlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishi. 4. Somoniylarda Nasr II hukmronligining boshlanishi. 6. Qoraxoniylarning Xurosonga ikkinchi yurishi. 9. Ma‘munning xalifalik taxtiga o‘tqizilishi. 10. Xorazmshohga qarshi samarqandliklar qo‘zg‘oloni. 11. Somoniylar davlatida Nuh I hukmronligining boshlanishi. 12. Xalifa Horun ar-Rashid vafoti.



IV BOB

IX-XIII ASR BOSHLARIDA MADANIY HAYOT

ILM-FAN RAVNAQI

Bayt ul-hikma. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi. Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi natijasida islom dini bilan bir qatorda arab tili ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Arab tili nafaqat davlat tili shu bilan fan tili ham edi. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Bilim olib, arab tilida ijod qilish uchun ilm toliblari **Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa** va **Basra** shaharlariga boradilar. Bu davrda ayniqsa Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda Bag'dodda "**Baytul-ul-hikma**" (Donishmandlar uyi) — islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi. **Mansur** davrida (754-775) uning poydevori yaratilgan bo'lib, xalifa **Horun ar-Rashid** davrida (786-809) tashkil etilgan. **Ma'mun** davrida (813-833) esa o'ziga xos ilmiy maktabga aylanishini ta'minlagan. "**Bayt-ul-hikma**"da **Muhammad Xorazmiy** boshchilik qilgan katta kutubxona bo'lib, unda hind, yunon, suriya, arab, fors tillarida 400000 jild qo'lyozma saqlangan. Kutubxonadan tashqari **Bag'dod** va **Damashqda** astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud bo'lgan. Bu yerda ilmiy tadqiqotlar bilan birga yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullangan. Bu yerda **Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Xabash Marvaziy** va **Abul Abbos Javhariy** kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilmiy faniga katta hissa qo'shganlar.

"Dorul hikmat va maorif". Xorazmda X a. oxiri — XI a. boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit. Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o'rnatish bo'yicha tadbirlarni boshlab yuborgan. Kun tartibida davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan. **Ali ibn Ma'mun** (997-1010) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo'lgan. Uning baxtiga tog'asi, **Abu Nasr ibn Iroq** o'z davrining o'ta bilimdon olimi bo'lgan. 1004-yilning boshida **Ibn Iroq** taklifi bilan **Beruniy** Gurganjga qaytib kelgan; Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko'plab olimlar Gurganjga kelishgan. Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda "**Dorul hikmat va maorif**" (ba'zi bir manbalarda "**Majlisi ulamo**") nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "**Platon**", Bag'doddagi "**Bayt ul-hikmat**" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan; **Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy**larning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan. "**Dorul hikmat va maorif**"ning asosini **Abu Nasr ibn Iroq** (10-a.—1034), **Abulhayr ibn Hammor** (991—1048), **Abu Sahl Masihiy** (970—1011), **Abu Rayhon Beruniy** (973—1048), **Abu Ali ibn Sino** (980—1037), **Abu Mansur as-Saolibiy an-Naysaburiy** (961-1038), **Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy** (1015-yilda vafot etgan), **Abu Ali al-Xorazmiy** (X-XI asrlar), **Abu Abdulloh al-Xorazmiy** (X-XI asrlar) va boshqalar tashkil etgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida O'rta Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati tufayli qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. Xorazmshoh **Ma'mun ibn Ma'mun** (Ma'mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o'z davrida uzoq o'lkalarga tarqalgan. Bu esa **Mahmud G'aznaviy**ning g'ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqaqd natijasida 1017-yilning bahorida **Ma'mun II** o'ldirilgan va o'sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan **Mahmud G'aznaviy** Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg'in va talon-torojliklar natijasida Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu yerdagi olimlarning ko'pchiligi G'aznaga majburan olib ketilgan.

1997-yil 11 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida**" gi farmoni chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-noyabrdagi qaroriga muvofiq, 2005-yil kuzida Respublikamizda "**Xorazm Ma'mun akademiyasi**"ning 1000 yiligi keng nishonlandi.

Oʻrta Osiyolik mutafakkirlar. IX asrdayoq aniq fanlar sohasida katta yutuqlarni qoʻlga kiritgan olimlar **Ahmad Fargʻoniy** va **Muhammad ibn Musa Xorazmiydir**. **Ahmad Fargʻoniy** (797-865) asarlari astronomiya, joʻgʻrofiya, riyoziyot ilmini oʻrganuvchilar uchun asrlar davomida dastur boʻlib xizmat qildi. U Bagʻdod va Damashq yaqinida ikkita rasadxona qurilishiga rahbarlik qilgan, **Ahmad Fargʻoniy** rasadxonalardagi kuzatishlari tufayli qator kashfiyotlar qilgan. U Yevropada **Alfraganus** nomi bilan mashhur boʻlgan. Matematika, geografiya, astronomiya, tarix fanlarining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan. Musulmon Sharqida **“hisob”** — matematik laqabini olgan. Shunday boʻlsada u astronomiya, geografiya sohalaridagi ishlari bilan shuhrat qozongan. Uning bu fan sohalaridagi ishlari XI asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Gʻarb olimlari uni birinchi arab astronomi deb hisoblaydilar. **“Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob”** asari astronomiyaga bagʻishlangan arab tilidagi birinchi kitob boʻlib, Yevropada tarqalgan asarlarning eng mashhuridir. 1998-yilda **Ahmad Fargʻoniyning** 1200 yilligi keng nishonlangan.

Muhammad ibn Musa Xorazmiy (783-1048) algebraga asos solgan olimdir. Algebraning nomi uning kitobining nomidan olingan. Riyoziyotda keng qoʻllanadigan **“algoritm”** atamasi esa Xorazmiy nomining lotincha qoʻllanishidir. Uning **“zij”** (**“Astronomiya jadvali”** maʼnosini bildiradi), **“Quyosh soati xaqida risola”** kabi asarlari ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan. Yevropada **Algoritmus**, **Alxokrismus** nomlari bilan mashhur boʻlgan. **Muhammad ibn Musa Xorazmiy** matematika, astronomiya, tarix, geografiya fanlarining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan. U Sharq qomuschilari maktabiga asos solgan, Sharq geografiyasining otasi, matematika, algebra, geometriya, fizika, astronomiya fanlarining asoschisi hisoblanadi. **“Hind hisobi haqida”** asari orqali arab dunyosi va Yevropani hindlarning hisoblash tartibi bilan tanishtirdi. Asar 1145-yili Sevilyada (Ispaniya) **Robert Chester** tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. **“Zij”** astronomiyaga oid asar hisoblanib, lotin tiliga 1126-yilda Ispaniyada **Adelard Bat** tarjima qiladi. **Muhammad ibn Musa Xorazmiyning** butun faoliyati **“Baytul-hikma”** bilan bogʻlangan. U Bagʻdod va Damashq rasadxonalarining ilmiy rahbari boʻlgan. **Muhammad ibn Musa Xorazmiy** Osmon va yerning toʻliq xaritasini tuzayotgan guruhga rahbarlik qilgan. 1983-yilda 1200 yilligi nishonlangan.

Somoniylar davlatining tashkil topishi va Xorazmiyning yuksalishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy koʻtarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi. Bu davrda **forsiy-dariy** til davlat til sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlaydi. Bu davrda buyuk mutafakkir olimlar **Abu Nasr Forobiy**, **Abu Ali ibn Sino**, **Abu Rayhon Beruniy**, **Abu Abdulloh Xorazmiy**, **Mahmud Zamaxshariy** va **Muhammad Narshaxiy**, **Rudakiy**, **Daqiqiy**, **Abulqosim Firdavsiy** kabi buyuk siymolar ijod etishgan.

Abu Nasr Forobiy (873-950) qomusiy olim, mashhur faylasuf edi. U oldin Buxoroda, soʻngra Bagʻdodda oʻqidi. **Abu Nasr Forobiy** falsafa, tilshunoslik, mantiq, riyoziyot, musiqa nazariyasining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan. U Sharq falsafasining otasidir. Sharqda **“Al-muallim as-soniy”** nomi bilan shuhrat topgan, 70 dan ortiq tilning bilimdoni boʻlgan. Fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli asarlar yozgan. Falsafa sohasidagi qilgan ishlari unga shuhrat keltirdi. Arastu, Suqrot, Evklit asarlarini chuqur tahlil qilgan va ularga sharhlar yozgan. **Farobiy** Arastuning **“Metafizika”** nomli asariga sharhlar yozdi va buyuk yunon olimi nomini Sharqqa yoyishda xizmat qildi. Farobiyning bu asari Italiya, Fransiya kabi koʻplab Gʻarb mamlakatlariga tarqaldi. Bundan tashqari Farobiy bastakor, musiqa asboblari tayyorlovchi mohir usta, ixtirochi boʻlgan. **“Fozil odamlar haqida kitob”**, **“Baxt saodatga erishuv haqida”**, **“Siyosat al-madaniya”** asarlari mashhur boʻlgan. XII-XIII asrlar asarlari lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan.

Mashhur tabib va donishmand **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida tugʻilgan. Gʻarbda **“Avitsenna”**, Sharqda **“Shayx ul-raisi”** nomlari bilan shuhrat topgan. Ustozi **Abu Abdullohdan** mantiq, falsafa, riyoziyot va fikr ilmlarini oʻrganadi. Tabobat ilmining qadimgi allomalari **Gippokrat** va **Golen** hamda Sharqning buyuk hakimi va mutafakkiri **Abu Bakr ar-Roziy** (864-925) asarlarini puxta oʻrganadi. Ibn Sino 17 yoshida hakim va olim boʻlib yetishadi. **Abu Ali ibn Sino** tibbiyot, falsafa, botanika fanlar rivojiga katta hissa qoʻshgan. Uning tabiatshunoslik va falsafaga oid qarashlari **“Tib qonunlari”**, **“Shifo kitobi”**, **“Donishnoma”** kabi asarlarida oʻz aksini topgan. Uning beshta kitobidan iborat **“Tib qonunlari”** soʻnggi asrlargacha Sharq va Gʻarb olimlari uchun tibbiyot sohasidagi asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qilgan. Adabiyot va sheʼriyatda mohir ijodkor boʻlgan. Asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi. Lekin bizgacha 160 ga yaqin asari yetib kelgan. **“Al qonun fit-tib”** asari tibbiyotga bagʻishlangandir. Bu asar XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan. **“Kitob ush-shifo”**, **“Donishnoma”** asarlarida falsafa, mantiq, matematika, astronomiya haqida soʻz yuritilgan. **“Tayr qissasi”**, **“Salomon va Ibsol”**, **“Hayy ibn Yaqzon”** nomli qissalar yaratgan. Sharq, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri, arabcha qitʼalar yozgan. Tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi **“Urjuza”** nomli tibbiy asar yaratgan.

Har tomonlama keng bilimga ega boʻlgan xorazmlik **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) falsafa, tarix, astronomiya, geologiya, etnografiya va boshqa sohalarida 154 ilmiy asarlar yozgan. Ulardan faqat 30 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Fan olamida katta shuhrat keltirgan asarlari: **“Hindiston”**, **“Oʻtmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar”**. **Beruniyning** **“Oʻtmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar”** asarida yurtimizning tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli maʼlumotlar toʻplangan. Unda turli xalqlarning yil hisoblari, bayramlari mufassal bayon qilingan. Uning **“Hindiston”** asarida hind adabiyoti, falsafasi, qonun va urf-odatlar, din, turli rivoyatlar va juda koʻp boshqa masalalar yoritilgan. Beruniy bundan tashqari **“Geodeziya”**, **“Maʼdashunoslik”**, **“Masʼud qonuni”** va boshqa asarlari ham turli tillarga tarjima qilingan. Astronomiya, fizika, geologiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, tarix fanlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshgan. falakkiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyib V asr muqaddam yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi

fikrni o'rtaslarida birinchi bo'lib ilgari surgan, Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini tuzgan.

Abu Abdulloh Al-Xorazmiy (vafoti 997) tilshunos va fan tarixchisi "*Al-kitob al-Xorazmiy*" nomi bilan tanilgan. **Mahmud Chag'iniy** (XII-XIII asr) Ahmad Farg'oni va Abu Rayhon Beruniyning ilmiy an'analari davom ettirgan yirik faylasuflardan biri, astronomiya, riyoziyot, tabobat, geografiya fanlari bilan ijod qilgan. Qadimgi yunon astronomiya maktabi yutuqlari bilan birgalikda Sharq olimlarining ilmiy ishlarini keng jalb etish orqali yangi xulosalar chiqargan. Doiraviy trigonometriya asoslarini va birinchi marta koordinatlar tizimini mufassal ishlab chiqqan va uning asosiy qoidalari "*Mulaxxas fi-l-xay'a*" asarida o'z ifodasini topgan. U "*Astronomiyaga oid qisqa to'plam*" asarining muallifidir.

Tarix fanining rivoji. Tarixchi olimlar o'rtasida **Muhammad Narshaxiy** (889-956) alohida mavqega ega. Uning "*Buxoro tarixi*" asarida arablar istilosi va undan oldingi davr tarixi hamda Buxoro va uning tevarak-atrofidagi shahar-qishloqlarning ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Asar 943-944-yillarda arab tilida yozilgan bo'lib, **Nux I Ibn Nasrga** (943-954) bag'ishlangan. Ayni shu davrda **Gardiziyning "Zaynul axbor"**, **Bayhaqiyning** o'ttiz jildlik tarixiy asari, **Majidduddin Adnoning "Tarixi mulki Turkiston"** asarlarini fors tiliga tarjima qilinadi.

Adabiyot. X-XII asrlarda Movarounnahrda ko'pgina shoir, yozuvchi va ma'rifatparvarlar yashab ijod etganlar. Ana shunday mashhur shoirlardan biri **Abu Abdullo Rudakiy** (860-941)dir. Uning "*Kalila va Dimna*", "*Keksalikka doir qasida*", "*Sindbodnoma*" qasidalar va she'rlari do'stlik, muhabbat, hayotdan lazzatlanish tarannum etiladi. Yoqimli ovozi, poetik iste'dodi va chang musiqa asbobini yaxshi chalishi bilan tezda Movarounnahrda dong taratgan. She'rlar bitishda o'z zamondoshlari orasida birinchi o'rinda turgan. She'rlarida muhabbat, oliyhimmatlik, sahiylik, mardlik, go'zal tabiat kuylangan. Uning "*Kalila va Dimna*", "*Sindbadnoma*", "*Arois un-nafois*", "*Davroni oftob*", qasidalar: "*Jo'yi Mulyon*", "*Mayning onasi*", "*Qarilik*" kabi asarlari mashhur.

Mashhur shoirlardan **Abu Nasr Daqiqiy** (vafoti 977-yil) o'z ijodini Chag'oniynon hokimining saroyida boshlagan. Keyinchalik Buxoroga amir saroyiga taklif etilgan. Amir Nuh unga "*Abu Mansur shohnomasini*" she'riy uslubga ag'darishga buyurgan, biroq o'z ishini oxiriga yetkaza olmaydi. 977-yili o'z quli tomonidan o'ldirilgan. **Abulqosim Firdavsiy** (934-1020) mashhur shoir bo'lib, "*Shohnoma*" asari tufayli shuhrat topdi.

Turkiy yozma adabiyot. XI asrda **Mahmud Qoshg'ariy** tomonidan yozilgan "*Devoni lug'otit turk*" ("Turkiy so'zlar to'plami") asarini turkiy tillar ensiklopediyasi deb atash mumkin. Asarda dunyo xaritasi doira shaklda chizib ko'rsatilgan. Turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur. U qiyosiy tilshunoslikning asoschisi.

XI asrda mashhur turkiy tili shoirlardan **Yusuf Xos Hojib** o'zining "*Qutadg'u bilik*" ("Saodatga eltuvchi bilim") dostonini yaratadi. "*Qutadg'u bilik*" — turkiy tildagi islom ma'naviyatining badiiy falsafiy, ijtimoiy axloqiy qomusiy asar. Muallif turli bilimlarni o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi va axloq-odobga doir qimmatli fikrlar bildiradi. Bu asar O'rtasiy xalqlarining tarixi, turmush tarzi, tili, axloq haqidagi ta'limotni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ahmad Yugnakiy (XII asr) turkiy tilda yozilgan "*Hibat ul-haqoyiq*" asari bilan mashhur. O'zini shoir emas, balki odob ilmi namoyondasi deb biladi. Uning dostoni turkiy elatlarga islomiy odob-qoidalari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan.

ME'MORCHILIK, SAN'AT, MUSIQA

Me'morchilik va san'at. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Binokorlikda xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g'isht va turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalari keng ishlatildi. **Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan** va **Marv** kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Somoniylar davrida **Arabota maqbarasi** (Samarqand vil. 978-yil), **Buxoro registoni, devonxona** (X asr), **Ismoil Somoniy maqbarasi** (Buxoro 892-943-yil), **Ishoq ota maqbarasi** (Qashqadaryo vil. X-XI asr), **Mir Said Baxrom maqbarasi** (Karmana X-XI asr), **Termiziy majmuasi** (Termiz, IX-X asr), **Qirqqiz qal'asi** (Termiz, IX-X asr), **Alambardor maqbarasi** (Qarshi, IX-X asr), **Poykand masjidi** (Buxoro, IX-X asr), **Chorustun masjidi** (Termiz, IX-X asr), **Childuxtaron masjidi** (Shahriston, IX-X asr), **Xonbandi suv ombori** (Forish, X asr) me'morchilik obidalarini bunyod etildi. Dastlabki madrasa — **Farjak madrasasi** Buxoro shahrida X asr bunyod etildi. IX asrdan Buxoro shahrining "**Qubbat ul-Islom**", ya'ni "**Islom dinining gumbazi**" deb atalishiga mashhur fiqhshunos olim **Abu Xafs Kabir Buxoriyning** xizmatlari kattadir.

Qoraxoniylar davrida **Raboti Malik** (1069-1079-yil), **Masjidi Kalon** (X-XI asr), **Minorai Kalon** (1127-yil), **Vobkent minorasi** (1190-yil), **Jarqo'rg'on minorasi** (1108-1109-yil), **Mag'oki attori masjidi** (XII asr), **Shohizinda ansambli** (XI asr), **Faxriddin Roziy maqbarasi** (Urganch, XI-XII asr), **Shayx Sharif maqbarasi** (Urganch, XI-XII asr) **Buronqal'a** (Xorazm XI-XII asr), **Naifqal'a** (Xorazm XI-XII asr) bunyod etildi. XII asrda Buxoro shahrida "**Faqixlar madrasasi**" qurilgan. Bundan tashqari suv omborlari — **bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar** va **korizlar** barpo etildi. X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. X-XI asrlarda paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan.

IX-XIII asr boshlarida naqshkorlik va o'ymakorlik san'ati ham rivoj topdi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarini bo'yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islami gulli naqshlar ishlatishga o'tiladi. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, misgarchilik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. **Samarqand, Buxoro, Toshkent** va boshqa shaharlar kulolchilik,

misgarchilik va zargarlik markazlariga aylandi. XI-XII asrlarda sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Xattotlik san'ati ancha rivoj topdi.

Musiqa. IX-XIII asr boshlarida musiqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Bu davrda keyinchalik "**Shoshmaqom**" uchun poydevor bo'lgan "**Rost**", "**Xusravoniy**", "**Boda**", "**Ushshoq**", "**Zerafkanda**", "**Buslik**", "**Sipohon**", "**Navo**", "**Basta**", "**Tarona**" kabi yangi kuylar ijod etiladi. Musiqa san'ati poeziya va musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda taraqqiy etdi. **Forobiy** va **Abu Ali ibn Sino** musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor beradilar va nodir asarlar yaratadilar.

DINIY E'TIQOD

Bu davr buyuk allomalar bilan bir qatorda islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan **Imom al-Buxoriy**, **Iso Termiziy** va **Mahmud Zamaxshariy** kabi aqoid ulamolarni kamolatga yetkazdi. **Imom al-Buxoriy** hadis ilmida "**amir al-mo'miniyn**" degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan. 600 mingga yaqin hadisni yod bilgan. "**Al-jome**" as saqih", "**Al-adab al-mufrad**", "**At-ta'rixas-sag'iy**" kabi 20 dan ortiq asarlarning muallifi. "**Al-jome**" as sahih" asariga 7275 hadis kiritilgan. 1974-yilda 1200, 1998-yilda esa allomaning 1225 yilligi keng nishonlangan.

Muhammad at-Termiziy (824-892) ishonchli manbalar asosida to'plangan va tartibga keltirilgan 6 hadislar to'plami mualliflaridan biri. Eng mashhur asarlaridan "**Al-jome**" va "**Payg'ambarning alohida fazilatlarini**" dir. 1990-yili 1200 yilligi keng nishonlangan.

Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144) xorazmlik buyuk mutafakkir, "**Arablar va g'ayri arablar ustozini**", "**Xorazm fahri**" faxrlil nomlarga sazovar bo'lgan. Arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis, fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan. "**Al-mufassal**" arab grammatikasiga, "**Al-Kashshof**" Qur'on tafsiriga bag'ishlangan mashhur asarlaridandir.

Fiqhshunos **Burhonuddin Al-Marg'inoniy** (1123-1197) "**Burhon ud-din va-l-milla**" islom olamidagi xalqlar va islom dinining dalili deb ulug'langan. "**Hidoya**" asari musulmon huquqi-fiqh bo'yicha eng aniq, izchil mukammal asar sifatida tan olingan.

Kaffol ash-Shoshiy (903-976) fiqhshunos bo'lib, "**Odob al-qozi**", "**Odob al-bahs**", "**Husni jadal**" asarlari muallifi.

Buyuk kalomimomi va fiqh olimi **Abu Mansur al-Moturidiy** (870-944) "**Imom al-Xuda**" va "**Imom al-mutakallimin**" (Xidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi) nomlari bilan ulug'langan. Moturidiya oqimining asoschilardan. "**Kitob Tavhid**", "**Ta'vilat ahli sunna**" asarlari mashhur.

Tasavvuf. Tasavvuf, ya'ni poklangan zohid, taqvodarlik ma'nosini anglatuvchi diniy ta'limot bo'lib, u o'rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu oqim dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda paydo bo'lgan. Turkistonda XII asrda **Yassaviya**, XII asr oxirida Xorazmda **Kubroviya**, XIV asrda Buxoroda **Naqshbandiya** vujudga keldi.

Yusuf Hamadoniy (1048-1140) so'fiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 11 qoidaning dastlabki 4 qoidasini boshlab bergan: "**Xush dar dam**", ya'ni tiriklik nafasda; "**Nazar bar qadam**", ya'ni nazar qadamda; "**Safar dar vatan**", ya'ni soliq har dam o'z diliga nazar solishi, agar unda g'ubor izi paydo bo'ladigan bo'lsa, darhol undan o'tish va haq visoliga o'z hushini bog'lash; "**Xilvat dar anjuman**", ya'ni xalq ichida o'zini bildirmay, ko'z-ko'z qilmay yashash, qo'l ishda bo'lsa ham dil yorda(xudoda) bo'lishi.

XII asrda shoir va donishmand, "**Devoni hikmat**" asarining muallifi **Ahmad Yassaviy** (1041-1167) ijod etgan. **Turkiston mulkining ulug' shayx-ul-mashoyixi.** **Yassaviyning** hikmatlari soddaligi, oddiy xalqqa tushunarli bo'lganligi bilan ajralib turadi. U **Yassaviya** tariqatiga asos solgan. Unda mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, ammo inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi, uning har qanday mol dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi. Ilk turkiyabon mutasavvuf shoir sifatida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlari xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketdi. "**Hikmat**" asarining muallifi.

Abduxoliq G'ijduvoniy (1103-1179) naqshbandiya tariqatining asoschisi. So'fiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 11 qoidaning dastlabki 4 qoidasiga yana 4 qoida qo'shgan: "**Yodkard**", ya'ni yodlash, faqat Allohni va uning rasulini tilda va dilda tutish; "**Bozgasht**", ya'ni qaytish, hamma vaqt munojotda bo'lish; "**Nigohdosht**", xotira boshqa tomonga chalg'ib ketmasligi kerak; "**Yoddosht**", ya'ni eslash-xudoning yagonaligini esdan chiqarmaslik.

Najmiddin Kubro (1145-1221) Xorazmda **Kubraviya sulukiga** asos soladi. Bu ta'limot tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Mutasavvuf donishmandlardan. "**Favoix al-jamol va favotix al-jalol**", "**Al-usul al-ashara**" nomli asarlar muallifi. **Kubraviya sulukining** asosini 10 qonun qoidalar ifodalaydi.

Bahouddin Naqshband (1318-1389) **Naqshband ta'limotiga** asos soladi. Uning asosida toat-ibodat va mehnat bilan kamol topib, Olloh visoliga yetishish, ma'naviy-ahloqiy kamolatga erishish yo'llari yotadi. "**Bahouddin**" — dinning faxri, bebahosi degani, karomatli kishi bo'lganligi uchun **Bahouddin Naqshbandga Balogardon** deb nom berishgan. "**Dilba yor-u, dast-ba kor**" (*Dil yor bilan, qo'l esa ishda bo'lsin*) degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. "**Hayotnoma**", "**Dalil ul-oshiqin**" asarlari muallifi. So'fiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 8 qoidasiga yana 3 qoida qo'shgan: **Vuqufi zamoniy**, **Vuqufi adadiy**, **Vuqufi qalbiy**.

Sulaymon Boqirg'oniy (vafoti 1186) Ahmad Yassaviyning shogirdi, Yassaviya tariqatining davomchisi edi. Xorazmning Boqirg'on kentidan. Turkiy xalqlar orasida **Hakim ota** nomi bilan ham mashhur. "**Boqirg'on kitobi**" asari muallifi.




ETNIK JARAYONLAR HAMDA O'ZBEK XALQINING TASHKIL TOPISHI


IX-XII asr o'zbek xalqining tashkil topishi davridir. **Sug'd, Xorazm, Parkana, Shak** va **Toxarlar** sharqiy eroniy tillarda so'zlashdilar. Turon qadimdan turkiyzabon va forsiyzabon nufuslarning doimiy muloqot maskani bo'lgan. Shimoldan turkiy qabilalarning, janubdan forsiyzabon xalqlarning ta'siri kuchli edi. Mil. avv. I mingyillik o'rtalarida turkiy qabilalarning janubga siljishi milod bo'sag'asida yue-chji, xunnlarning siljib kelishi bilan yanada kuchaydi. VII-VIII asrlarda turkiy aholining katta qismi **Yettisuv, Shosh** va **Farg'ona vodiysida**, kamroq qismi **Zarafshon** va **Qashqadaryo vohalarida** yashar edi. 639-yilgi sug'diy hujjatlarda turkiy xalqlar o'rnashgan o'lka "**Turkiston**" deb atalgan.

Shosh, Farg'ona va Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi, Xorazm, Amudaryoning so'l qirg'og'idagi tub aholining katta qismi turkiy tilda so'zlashar edi.

Xuroson va Movarounnahrga arab tili va islom dinining kirib kelishi bilan birga forsiy tilning mafkuraviy ahamiyatini kuchayadi. Sababi: Eronning forsiyzabon aholisini xalifalikning harbiy yurishlarida qatnashib, musulmonchilikning targ'ib qilishgan edi. XI asrda forsiy-dariy tilida so'zlashuvchi aholi o'zini "**tozi**", ya'ni "**tojik**" deb yurita boshlaydi.

XI asrda turkiy tilda so'zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuslaridan biriga aylanadi. IX-XII asr o'zbek xalqining tashkil topgan davrdir. O'zbek xalqi o'troq dehqon, hunarmand va chorvador aholining bevosita merosxo'rlari edi.





ABU RAYHON BERUNIY (973-1048)

- Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy
- Astronomiya, fizika, geologiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, tarix fanlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qoʻshgan
- 160 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan, ulardan faqat 30 ga yaqini yetib kelgan.
- Fan olamida katta shuhrat keltirgan asarlari: “Hindiston”, “Oʻtmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar”
- Falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb V asr muqaddam yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni oʻrta asrlarda 1- boʻlib ilgari surgan, Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi.
- 1029 ta yulduzning koordinatleri va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini va dunyoning geografik xaritasini tuzgan.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY (1075-1144)

- Abul Qosim az-Zamaxshariy
- Buyuk mutafakkir
- “Arablar va gʻayri arablar ustoz”, “Xorazm fahri”, “Jorulloh”
- Arab grammatikasi, lugʻatshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis, fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan
- “Al-mufasssal” arab grammatikasiga, “Al-Kashshof” Qurʼon tafsiriga bagʻ ishlangan mashhur asarlaridandir
- 1995-yilda 920 yilligi keng nishonlandi.

ABU ALI IBN SINO (980-1037)

- Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali
- Avitsenna
- “Shayx ul-rais”
- Tibbiyot, falsafa, botanika fanlar rivojiga katta hissa qoʻshgan.
- Tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Golen, oʻrta asr Sharqning buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning asarlarini puхта oʻrganadi.
- Adabiyot va sheʼriyatda mohir ijodkor boʻlgan
- 450 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan, ulardan 43 tasi tibbiyotga oid. Bizgacha 160 ga yaqin asari yetib kelgan.
- “Al qonun fit-tib” asari tibbiyotga bagʻ ishlangandir. Bu asar XII a. lotin tiliga tarjima qilinib, 30 martadan ortiq nashr qilingan.
- “Kitob ush-shifo”, “Donishnoma” asarlarida falsafa, mantiq, matematika, astronomiya haqida soʻz yuritilgan.
- “Tayr qissasi”, “Salomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” nomli qissalar yaratgan.
- Sharq, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri, arabcha qitʼalar yozgan. Tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi “Urjuza” nomli tibbiy asar yaratgan.

ISMOIL JURJONIY (1042-1136)

- Zayniddin Abul fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniyy al-Xorasmiy
- Mashhur tabib
- “Al-Xuffayl al-aʼloiy”, “Ar-Tibb al-mulukiyy”, “Zahirayye Xorazmshohiyy”, “Kitob al-ahrod”, “Kitob yodgor”, “Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi”.

ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY (VAFOTI 997)

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy
- Tilshunos va fan tarixchisi
- “al-kitob al-Xorazmiy” nomi bilan tanilgan
- “Imlar kaliti” asari bilimlarning barcha sohalarini oʻz ichiga oluvchi izohli terminologik lugʻat

MAHMUD CHAGʻMINIY (XII-XIII A.)

- Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chagʻminiyy
- Ahmad Fargʻoniy va Abu Rayxon Beruniyning ilmiy anʼanalarini davom ettirgan yirik faylasuflardan biri
- Astronomiya, riyoziyot, tabobat, geografiya fanlari bilan ijod qilgan
- Qadimgi yunon astronomiya maktabi yutuqlari bilan birgalikda Sharq olimlarining ilmiy ishlarini keng jalb etish orqali yangi xulosalar chiqargan
- Doiraviy trigonometriya asoslarini va I- marta koordinatlar tizimini mufasssal ishlab chiqqan va uning asosiy qoidalari “Mulaxxas fi-l-xayʼa” asarida oʻz ifodasini topgan
- “Astronomiya”ga oid qisqa toʻplam asarining muallifi

ADIBLAR

ABU ABDULLOH RUDAKIY (860-941)

- Abu *Abdulloh Ja'far Rudakiy*
- Mashhur shoir, yetuk olim
- Yoqimli ovozi, poetik iste'dodi va chang musiqa asbobini yaxshi chalishi bilan tezda Movarounnahrda dong taratgan
- She'rlar bitishda o'z zamondoshlari orasida 1-o'rinda turgan, fors mumtoz adabiyotiga asos slogan.
- She'rlarida muhabbat, oliyhimmatlik, sahiylik, mardlik, go'zal tabiat kuylangan
- "*Kalila va Dimna*", "*Sinbadnom*", "*Arois un-nafois*", "*Davroni ofob*" qasidalari: "*Jo'yi Mulyon*", "*Mayning onasi*", "*Qarilik*".

ABU MANSUR AS-SAOLIBIY (961-1038)

- Abu Mansur Abdulmalik ibn Ismoil as-Saolibiy*
- Adabiyotshunos olim va shoir.
- as-Saolibiy** – po'stin tikuvchi
- 50 ga yaqin asarlar yozib qoldirgan
- "*Yatimat-ad-dahr fi mahosin ahl al-asr*" (Asr ahli fozillari haqida zamona durdonasi) va "*Tatimmat al-Yatima*" nomli asarlar muallifi
- Xuroson va Movarounnahrda yashab, arab tilida ijod etgan 124 ta shoir haqida ma'lumot keltiradi

ABU MANSUR DAQIQIY (VAFOTI 977)

- Mashhur shoirlardan
- O'z ijodini Chag'oniyon hokimining saroyida boshlagan. Keyinchalik Buxoroga amir saroyiga taklif etilgan
- Amir Nuh "*Abu Mansur shohnomasini*" she'riy uslubga ag'darishga buyurgan, biroq o'z ishini oxiriga yetkaza olmaydi
- 977-y. o'z quli tomonidan o'ldirilgan

NOSIR HISRAV (1004-1088)

- Abu Muhammad Nosir Xisrav al-Qabodiyoniy al-Marvaziy*
- Fors-tojik shoiri, donishmand va mutafakkir
- "*Rushnoinoma*", "*Saodatnoma*" masnaviydari, "*Zod ul-musofirin*", "*Xon-ul-ixvan*", "*Din vajihi*", "*Bo'ston ul-utqul*", "*Jome'ul-hikmatayn*" ma'naviy-diniy asarlari, "*Safarnoma*" nasriy asar.

ABULOOSIM FIRDAVSIY (934-1020)


- Mashhur shoir
- "*Shohnoma*" asari tufayli shuhrat topdi.
- "*Yusuf va Zulayho*" dostonining muallifidir.


RASHIDUDDIN AL-VOTVOT (1114-1183)


- Mashhur shoirlardan
- Xorazmshohlar saroyida yashab, o'z she'rlari va nasriy asarlari bilan mashhur bo'lgan

SOBIR TERMIZIY (1089-1147)

- Adib Sobir Termiziy Shahobuddin ibn Ismoil*
- Mashhur adib, shoir, davlat arbobi
- Forsiy devoni bizgacha yetib kelgan
- She'rlarida tanqidiy, ijtimoiy, ta'lim-tarbiya, odob-axloqqa oid fikrlar keng o'rin olgan.







**BURHONUDDIN AL-MARG'INONIY
(1123-1197)**

- ▮ *Abulhasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'ioniy*
- ▮ Fiqhshunos, imom.
- ▮ «*Burhon ud-din va-l-milla*» islom olamidagi xalqlar va islom dinining dalili
- ▮ «*Hidoya*» asari-musulmon huquqi-fikh bo'yicha eng aniq, izchil mukammal asar sifatida tan olingan
- ▮ 2000-yilda 910 yilligi nishonlandi

**ABU MANSUR AL-MATURIDIY
(870-944)**

- ▮ *Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Hanafiy as-Samarqandiy al-Maturidiy*
- ▮ Buyuk kalom imomi va fikh olimi
- ▮ «*Imom al-Xuda*» va «*Imom al-mutakallimin*» (Xidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi) nomlari bilan ulug'langan
- ▮ Maturidiy oqimining asoschilardan
- ▮ «*Kitob Tavhid*», «*Ta'vilot ahli sunna*» asarlari mashhur
- ▮ 2000-yilda 1130 yilligi keng nishonlangan.

FAQIHLAR

Islom huquqshunosi

**KAFFOL ASH-SHOSHIY
(903-976)**

- ▮ *Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Qaffol ash-Shosiy al-Kabir*
- ▮ Hazrati Imom (Hastimom) nomi bilan mashhur
- ▮ Fiqhshunos, muhaddis, ilmi usul va lug'at olimi, shoir va adib
- ▮ «*Kaffol*»-qulfoz
- ▮ «*Odob al-qozi*», «*Odob al-bahs*», «*Husni jadal*» asarlari muallifi

Tasavvuf namoyondalari

YUSUF HAMADONIY
(1048 - 1140)

- ▮ Soʻfiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 11 qoidaning dastlabki 4 qoidasini boshlab bergan:
 - 1) «*Xush dar dam*», yaʼni tiriklik nafasda;
 - 2) «*Nazar bar qadam*», yaʼni nazar qadamda;
 - 3) «*Safar dar vatan*», yaʼni soliq har dam oʻz diliga nazar solishi, agar unda gʻubor izi paydo boʻladigan boʻlsa, darhol undan oʻtish va haq visoliga oʻz hushini bogʻlash;
 - 4) «*Xilvat dar anjuman*», yaʼni xalq ichida oʻzini bildirmay, koʻz-koʻz qilmay yashash, qoʻl ishda boʻlsa ham dil yorda(xudoda) boʻlishi

NAJMIDDIN KUBRO
(1145-1221)

- ▮ *Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy*
- ▮ **Najmiddin** (Dinning yulduzi), **Kubro** (Ulugʻ), **Abduljannob** (Dunyodan chetlanuvchi, Parhez etuvchi), **Valiytarosh** (Valiyarlarni tarbiyalovchi)
- ▮ Mutasavvuf donishmandlardan
- ▮ Markaziy Osiyoda *Kubraviya* maktabini asoschisi
- ▮ «*Favoix al-jamol va favotix al-jalol*», «*Al-usul al-ashara*» nomli asarlar muallifi
- ▮ Kubraviya sulukining asosini 10 qonun qoidalar ifodalaydi
- ▮ 1995-yilda 850 yilligi keng nishonlangan.

AHMAD YASSAVIY
(1041-1167)

- ▮ «*Turkiston mulking ulugʻ shayx-ul-mashoyixi*»
- ▮ «*Yassaviya*» tariqatining asoschisi
- ▮ Ilk turkiyzabon mutasavvuf shoir sifatida maʼlumdir. Uning tasavvufni targʻib etuvchi turkiyda yozilgan sheʼrlari xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur boʻlib ketdi
- ▮ «*Xikmat*» asarining muallifi

BAHOUDDIN NAQSHBAND
(1318-1389)

- ▮ *Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an Naqshband al-Buxoriy*
- ▮ «*Bahouddin*» - dinning faxri, bebahosi
- ▮ Karomatli kishi boʻlganligi uchun unga *Balogardon* deb nom berishgan
- ▮ «*Dil ba yor-u, dast-ba kor*»
- ▮ «*Hayotnoma*», «*Dalil ul-oshihin*» asarlari muallifi
- ▮ Soʻfiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 8 qoidasiga yana 3 qoida qoʻshgan:
 - 1) Vuqufi zamoniyy;
 - 2) Vuqufi Adadiy
 - 3) Vuqufi qalbiy
- ▮ 1993-yilda 675 yilligi keng nishonlandi.

ABDUHOLIQ GʻIJDUVONIY
(1103-1179)

- ▮ *Xoja Abduxoliq ibn Abduljamiil Gʻijduvoniy*
- ▮ *Naqshbandiya* tariqatining asoschisi
- ▮ Soʻfiylik tariqatining mohiyatini belgilab turadigan 11 qoidaning dastlabki 4 qoidasiga yana 4 qoida qoʻshgan:
 - 1) «*Yodkarab*», yaʼni yodlash, faqat Allohmini va uning rasulini tilda va dilda tutish;
 - 2) «*Bozgashab*», yaʼni qaytish, hamma vaqt munojotda boʻlish;
 - 3) «*Nigohdosht*», xotira boshqa tomonga chalgʻib ketmasligikerak;
 - 4) «*Yoddosht*», yaʼni eslash-xudoning yagonaligini esdan chiqarmaslik
- a. 2003-yilda 900 yilligi keng nishonlangan.

SULAYMON BOQIRGʻONIY
(VAFOTI 1186)

- ▮ *Hakim ota*
- ▮ Mutasavvuf, shoir.
- ▮ Ahmad Yassaviyning shogirdi, Yassaviya tariqatining davomchisi
- ▮ Xorazmning Boqirgʻon kentidan
- ▮ Turkiy xalqlar orasida *Hakim ota* nomi bilan ham mashhur
- ▮ «*Boqirgʻon kitobi*» asari muallifi

ETNIK JARAYONLAR HAMDA O`ZBEK XALQINING

Etnik jarayon

- n **IX-XII a.** - O`zbek xalqining shakllanishi
- n *Sug`d, Xorazm, Parkana, Shak va Toxarlar* - sharqiy eroniy tillarda so`zlashadilar
- n Turon qadimdan turkiyzabon va forsiyzabon nufuslarning doimiy muloqot maskani
- n Shimoldan turkiy qabilalarning, Janubdan forsiyzabon xalqlarning ta'siri kuchli
- n **Mil.av. I ming y. o`rt.** - turkiy qabilalarning janubga siljishi
- n **Milod bo`sag`asida** - *yue-chji, xunmlarning* siljib kelishi
- n **VII-VIII a.** - turkiy aholining katta qismi *Yettisuv, Shosh* va *Farg`ona vodiysida*, kamroq qismi *Zarafshon* va *Qashqadaryo* vohalarida yashashi
- n **639-y.** - sug`diy xujjatlarda turkiy xalqlar o`rnatilgan o`lka «*Turkiston*» deb atalishi
- n *Shosh, Farg`ona* va *Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo* va *Surxondaryo vohasi, Xorazm, Amudaryoning* so`l qirg`og`idagi tub aholining katta qismi turkiy tilda so`zlashishi

O`zbek xalqining shakllanishi

- n Xuroson va Movarounnahrda arab tili va islom dinining kirib kelishi bilan birga forsiy tilning mafkuraviy ahamiyatini kuchayishi
- n Sababi: Eronning forsiyzabon aholisini xalifalikning harbiy yurishlarida qatnashib, musulmonchilikning targ`ib qilishi
- n **XI a.** - forsiy-dariy tilida so`zlashuvchi aholi o`zini *tozi*, ya'ni *tojik* deb yurita boshlashi
- n **XI a.** - turkiy tilda so`zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuslaridan biriga aylanishi
- n **IX-XII a.** - o`zbek xalqining tashkil topishi
- n **O`zbek xalqi** - o`troq dehqon, hunarmand va chorvador aholining bevositi merosxo`rlari

TARIXIY SHAXSLAR

ABU JA'FAR TABARIY — fiqhshunos, u tomonidan arab tilida Qur'oni karimning 14 jildlik "*Tafsiri Tabariy*" nomli izohlar yoziladi. Somoniylar hukmdori *Mansur ibn Nuhning* farmoniga binoan 962-yilda Bxoroda "*Tafsiri Tabariy*" arab tilidan fors tiliga tarjima qilinadi.

ABU NASR IBN IROQ MANSUR IBN ALI (?-1036) — xorazmlik riyoziyotchi va falakiyotshunosh olim. Xorazmshoh saroyidagi *Abu Ali ibn Sino*, *Abu Sahl Masihiy*, *Abulhayr Hammor* va *Abu Rayhon Beriuniy* kabi olimlar bilan muloqatda bo'lgan. Xorazmshoh *Abul Abbas Ma'munga* bag'ishlab "*Kitob fi kuriyya as-samma*" ("Samoning shar shaklida ekani haqida kitob"), "*Risola filhalli shubhaten arazat fil-maloqat as-solis ashara min kitob al-usul*" ("Negizlar" kitobining o'n uchunchi maqolasida yuz bergan shubhani hal qilish haqidagi risola"), "*Risola fi sana al-usturlob bi-t-tariq as-si na i ila Abu Abdallah Muhammad ibn Ali al-Ma'muni*" ("Abu Abdiloh Muhammad ibn Ali al-Ma'munga usturlobni san'at usulida yasash haqida yuborilgan risola") kabi asarlar yozgan. O'z davrida "*Batlimusi soniy*" ("Ikkinchi Ptolemey") degan faxriy nom olgan.

ABU SAHL MASIHIY (XI asr) — riyoziyotchi olim. Urganchda xorazmshohlar saroyida faoliyat olib borgan zamonasining yirik mutafakkirlaridan.

ABU TAYIB TOHIR (IX asr oxiri — X asr o'rtasi) — shoir, *Rudakiyning* zamondoshi, "Husraviya" kuyini ijod qilgan.

ABU XAFS KABIR BUXORIY — fiqhshunos olim, Buxoro aholisining ilmi bo'lishida, Buxoroda ilmning keng tarqalashida, imom va ulamolarning hurmatli bo'lishida Abu Xafs Kabir Buxoriyning xizmati nihoyatda katta bo'lgan. *Narshaxiyning* yozishicha, shu olim tufayli Buxoro "*Qubbat ul-islom*", ya'ni "*Islom dinining gumbazi*" deb atalgan.

ABU XIFZ SUG'DIY (IX asr oxiri — X asr o'rtasi) — *Rudakiyning* zamondoshi, nayga monand shohrud nomli torli asbob yaratgan.

ABUL HAYR IBN XAMMOR — Urganchda xorazmshohlar saroyida faoliyat olib borgan zamonasining yirik mutafakkirlaridan.

AHMAD AL-FARG'ONIY (Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni) (taxminan 797-yil, Farg'ona — 865-yil, Misr) — astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan o'zbek qomusiy olimi. Sharqda *Al-Farg'oni*, Yevropada *Alfraganus* taxalluslari bilan mashhur. Uning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida juda oz, u ham bo'lsa, uzuk-yuluq ma'lumotlar yetib kelgan. Ahmad al-Farg'oni hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi. Ahmad al-Farg'oni *Xalifa Horun ar-Rashid* (786-809) vorislari *al-Ma'mun* (813-833), *Mu'tasim* (833-842) va *Mutavakkil* (846-861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, so'ngra

Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmi hay'at (falakiyotshunoslik), riyoziyot (matematika) va jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Ahmad al-Farg'oni dastavval (taxminan 811) Farg'onadan Marvga kelgan. Ilk o'rta asrlardayoq Marv shahri O'rta Osiyoning yirik madaniy va ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan, bu maskanda o'sha davrdayoq Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan ko'plab olimlaru fozillar va mutafakkirlar to'planib, Ajamning madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etganlar. 813-yilda *Abdulloh al-Ma'mun* nomi bilan taxtga o'tiradi. Biroq u xalifalik poytaxti Bag'dodga bormay, to 819-yilga qadar Marvda yashaydi. U o'z atrofiga olimlaru fozillarni to'playdi. 819-yil al-Ma'mun barcha saroy a'yonlari va olimlari bilan birga Marvdan Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida Ahmad al-Farg'oni ham bo'lgan. Bu davrda xalifalikda *Horun ar-Rashid* farmoni bilan bino qilingan ikkita rasadxona va boy kutubxona bor edi. *Abu Rayxon Beriuniy* ma'lumotiga qaraganda, rasadxonalardan biri Bag'dodning *ash-Shammosiya* mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinida *Kasiyun* nomli tog'da joylashgan edi. Rasadxonalarda *Horun ar-Rashid* asos solgan ilmiy markaz "*Bayt ul-hikmat*" ("Donishmandlar uyi") olimlari ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Ular orasida Ahmad al-Farg'oni ham bor edi. Ahmad al-Farg'oni avval Bag'doddagi rasadxonada ish olib bordi, so'ngra *al-Mo'min* topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha "*Zij*" yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832-833-yillarda Ahmad al-Farg'oni Shom (Suriya) shimolidagi Sanjar dashtida Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida yer meridianining bir darajasini uzunligi o'lchashda qatnashdi. Ahmad al-Farg'oni hayoti va ilmiy hamda amaliy faoliyati to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumot 861-yilga mansubdir. O'sha yili Abbosiy xalifa *Abul Fazl Ja'far al-Mutavakkil* (hukmronlik yillari 847-861) buyrug'iga binoan Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan inshoot barpo etish uchun Misrning Qohira yaqinidagi *Fustat* shahriga keladi. Ilmiy-texnik va me'moriy jihatdan g'oyat ulug'vor bu qurilma Nil daryosining *Sayyolar al-Rod* mavzesida hozirga qadar saqlanib qolgan. Garchi Ahmad al-Farg'oni haqida ma'lumotlar juda oz bo'lsada, ammo o'rta asrlarda Sharq ilmiy dunyosida uning nomi mashhur bo'lgan. *Ibn an-Nadim* (X asr), *Ibn al-Kiftiy* (XII-XIII asrlar), *Abul Faraj Bar Ebrey* (XIII asr) va *Xoji Xalifa* (XVII asr) kabi Sharq fihrastchilari uning nomini o'z asarlarida qayd etganlar. musulmon mamlakatlari bo'ylab safarga chiqqan *Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi ekspeditsiya* a'zolari 1997-yil 5-dekabrda MAR da bo'lishib, Ahmad al-Farg'oni hayotini o'rganishlari natijasida u Misrning *Fustat* shahrida vafot etganligi, Munattam tog'ining sharqiy qismidan sal narida joylashgan *Imom ash-Shofe* qabristoniga dafn etilganligini aniqlashdi. Vaqt o'tishi bilan uning qabri yo'qolib ketgan. U yerdan olib kelingan tuproq Farg'ona vodiysining Quva shahirda 1998-yil barpo etilgan ramziy qabrga qo'yildi. Ahmad al-Farg'oni ilk o'rta asr falakiyot, riyoziyot va geografiya ilmlari yo'nalishlarida bir

qancha ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Bizning davrimizgacha Ahmad Fargʻoniyning sakkiz asari saqlangan. Uning asosiy astronomik asari — “*Kitob al-harakat as-samoviya va javomia*” *ilm an-nujum*” (“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi”). Bu asar “*Astronomiya asoslari haqidagi kitob*” nomi bilan ham maʼlum boʻlib, 1145 va 1175-yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etiladi. Shundan soʻng Ahmad al-Fargʻoniy nomi lotinlashtirilib, “*Alfraganus*” shaklida Gʻarbda shuhrat topadi. Uning “*Astronomik asoslari haqidagi kitob*” asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani boʻyicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonisidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur boʻlgan bilimlarni oʻz ichiga olgan. Bu asar oʻrta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, soʻng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimgi yunon ilmi, jumladan astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali maʼlum boʻldi. Ahmad al-Fargʻoniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda tosh bosma usulida nashr etildi. 1669-yilda mashhur golland matematigi va arabshunosi *Yakob Golius* Ahmad al-Fargʻoniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan soʻng Ahmad al-Fargʻoniyning shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uygʻonish davrining mashhur olimi *Regiomontan* XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir maʼruzalarini Ahmad al-Fargʻoniy asarlari asosida oʻqigan. Ahmad al-Fargʻoniy nomi *Dante* (XIV a.) va *Shiller* (XVIII a.) tomonidan tilga olinadi. Ahmad al-Fargʻoniyning boy ilmiy merosini chuqur oʻrganish Oʻzbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* tashabbusi bilan Ahmad al-Fargʻoniyning 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Fargʻona shahrida Ahmad al-Fargʻoniy nomi bilan ataladigan istirohat bogʻi va qadimiy Quva shahrida Ahmad al-Fargʻoniy haykali oʻrnatildi. YUNESKO ning 1998-yildagi tadbirlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “*Ahmad al-Fargʻoniyning tavalludining 1200 yilligini nishonlash toʻgʻrisidagi qarori* (1997-yil 27-noyabr)ga koʻra alloma hayoti va ijodiga bagʻishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy koʻrgazmalar oʻtkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar (dramaturg *Hayitmat Rasulning* “*Piri koinot*”, *Yoʻldosh Sulaymonning* “*Fargʻona farzandi*”, *Nuroloxon hoji Abdulloh oʻgʻli* “*Bashar allomasi*”) sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi. Oydagi 20 km li yirik kraterlardan biriga Ahmad al-Fargʻoniy nomi qoʻyildi. Fargʻona shahridagi maydon, koʻcha, maktablarining biriga Ahmad al-Fargʻoniy nomi berilgan.

AHMAD YASSAVIY (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan XI asrning ikkinchi yarmi -1166) — tasavvufning mashhur namoyondalaridan biri, shoir. Otasi *Shayx Ibrohim* javonmardlik tariqatiga mansub nufusli zotlardan boʻlgan. Yassaviy tugʻilgach, koʻp oʻtmay onasi — Muso Shayxning qizi *Oysha xotun* vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi *Gavhar Shahnoz* mashgʻul boʻladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga koʻchib borgach, birinchi ustoz *Arslon Bob* bilan

uchrashadi va undan tahsil oladi. Yassaviy Yassida botin ilmi sirlarini mukammal oʻzlashtirgan. *Arslon Bob* koʻrsatmasi bilan Yassaviy Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va soʻfiysi *Shayx Yusuf Hamadoniy* bilan uchrashib unga murid tushadi. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf gʻoyalarini omma koʻngliga chuqur singdirish uchun sheʼriyatdan ham foydalangan. Ahmad Yasaviy *Yasaviya* tariqatiga asos solgan. Uning “*Devoni hikmat*” asarida tasavvufning asoslari bayon etiladi. Ahmad Yasaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz maʼrifat, maʼrifatsiz haqiqat boʻla olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini toʻldiradi va takomillashtiradi. Bu kamolat yoʻli sari toʻrt bosqich boʻlib, inson hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashkil etadi. Yassaviy sulukining asosida kamolatga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish gʻoyasi olgʻa suriladi. Unga faqat foniy dunyo rohati va farogʻatidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yoʻlida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Yassaviy sulukida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yoʻlida boʻlmogʻi hamda tarkidunyochilik targʻib etilsa-da, ammo inson zoti sharif darajasida ulugʻlanadi, uning harqanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi taʼkidlanadi. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. “*Devoni hikmat*”dagi barcha sheʼrlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ham ijod namunalari kiritilgan. Lekin Yassaviyning oʻnlab izdoshlarining hech biri ustozlari boshlagan gʻoyaviy, axloqiy, maʼnaviy—maʼrifiy va mafkuraviy oʻzgarishlarini oʻzgartirmagan. Uzoq vaqt mobaynida Yassaviy hayoti va ijodiyotini ilmiy jihatdan tadqiq etishga imkon berilmadi. Asarlarini nashr qilishga imkon berilmadi. XX asrning 70-yillarida Yassaviyning milliy madaniyat, til va adabiyot tarixidagi xizmatlarini toʻgʻri baholash yoʻlidagi urinishlar esa qoralandi. Mustaqillik arafasida, xususan, Oʻzbekiston istiqlolga erishganidan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli gazeta va jurnallarda “*Devoni hikmat*”dan namunalar eʼlon qilingan boʻlsa, 1990-92-yillarda uning 2 mustaqil nashri chop etildi. Ushbu nashrlar nafaqat Oʻzbekistonda, balki, boshqa turkiy davlatlarda ham bu buyuk mutasavivning hayoti, adabiy va maʼrifiy faoliyati izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirdi. 1993-yilda Oʻzbekistonda Yassaviyga bagʻishlanib ilmiy anjumanlar oʻtkazilib, maʼruzalar matni alohida majmua shaklida chop etildi. Matbuotda Yassaviyning shaxsiyati, tariqati, sheʼriyatidan bahs yuritilgan maqolalar bosib chiqilgan. Oʻzbekistondagi bir qancha koʻcha va mahalla Yassaviy nomi bilan ataladi. Yassi shahrida esa Yassaviy nomidagi universitet mavjud. Badiiy ijodda ham Yassaviy obrazini yaratish boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda. Yozuvchi *Saʼdulla Siyoyov* “*Yassaviyning soʻnggi safari*” romanining birinchi kitobini (1994-yilda) chop ettirdi.

AHMAD YUGNAKIY (Ahmad ibn Mahmud Yugnakiy) (XII asr oxiri, Samarqand, Yugnak qishlogʻi — XIII asrning birinchi yarmi, ?) — shoir, mutafakkir. Tarjimai holi haqida deyarli maʼlumot yoʻq. Ahmad Yugnakiyning faqat “*Hibat ul-haqoyiq*” (“Haqiqatlar tuhfası”) nomli asari bizgacha yetib kelgan. Asarning ayrim misralari va unga boshqalar tomonidan yozilgan sharhlar Ahmad Yugnakiy

hayoti va ijodi haqida bir oz bo'lsa-da, ma'lumot beradi. Asar nusxalaridan biriga temuriy amaldorlardan *Arslonxoji* tarxon tomonidan ilova qilingan 10 baytli masnaviyda Yugnakiy haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. *Alisher Navoiy* ham o'zining "*Nasoim ul-muhabbat*" ("Muhabbat shabadasi") tazkirasida Ahmad Yugnakiyning O'rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo'yib, uning tug'ma ko'rliigi to'g'risida so'zlaydi, yana *Navoiy* Husayn Boyqaroning o'g'li *Badiuzzamonga* yozgan xatlaridan birida "*Hibat ul-haqoyiq*" dan parchalar keltiradi. "*Hibat ul-haqoyiq*" asari shoir haqidagi ma'lumotlarni birmuncha to'ldirishga, Ahmad Yugnakiy yashab ijod etgan davrini tahlil qilishga imkon beradi. Ahmad Yugnakiy "*Hibat ul-haqoyiq*" da ta'kidlashicha, O'rta Osiyoning Yugnak nomli qishlog'ida tug'ilgan. Yugnakiy tug'ilgan joy olimlar o'rtasida ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan. Samarqand, Farg'ona va Turkistonda Yugnak degan joy borligi aytilsada, ko'pchilik uni Samarqand atrofida deyshga moyil va keyingi tadqiqotlar bu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi. XII asrda yashagan mashhur muarrix Abulkarim as-Sam'oni o'zining "*Al-Ansob*" ("Nasabnoma") kitobida ta'kidlashicha, Ahmad Yugnakiy Samarqandning Yugnak qishlog'idandir. Shoir "*Hibat ul-haqoyiq*" ni tugatib, uni hukmdori *Dod Sipohsolarbekka* taqdim etadi. O'z asarida Ahmad Yugnakiy ilm-fan, olim va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatlikni targ'ib etadi, kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi. Mashhur sharqshunos olim *Y.E. Bertels* bu asar qadimgi o'zbek adabiy tilidan mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda bir ko'pri bo'lganini aytadi. Asar tilida qadimgi turkiy so'zlardan ko'ra, arab va fors so'zlarining ko'p qo'llangani shundan dalolat beradi. Yugnakiy bu asari bilan o'zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan. "*Hibat ul-haqoyiq*" XII asr oxiri — XIII asr boshlarida yozilgan bo'lib, 14 bob, 512 misradan iborat. Bu asarning XV-XVI asrlarda ko'chirilgan uch nusxa qo'l yozmasi Turkiyada saqlanmoqda, qo'l yozmalardan biri uyg'ur yozuvi, ikkinchisi arab va uyg'ur xati, uchinchisi esa arab yozuvi bilan bitilgan. Yugnakiy o'zini shoir emas, balki adab muallimi, deb hisoblagan. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insoni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.

AMIR XUSRAV DEHLAVIY (taxallusi; to'liq nomi Yaminiddin Abdulhasan) (1253-yil, Patyoli — 1325-yil 27-sentabr, Dehli) — fors-tojik shoiri, adabiyotshunos, bastakor. Xusrav Dehlaviyning otasi *Sayfuddin Mahmud Kesh* (Shahrisabz)lik bo'lib, mo'g'ullar istilosi vaqtida turkiy sulolalar hukmronlik qilayotgan Hindistonga ko'chgan. Dehli sultoni *Shamsuddin Eltutmish* (1211-1236) unga amirlik unvonini bergan. *Sayfuddin Mahmud* mo'g'ullarga qarshi jangda halok bo'lgach (1261), yosh Xusrav Dehlaviyning bobosi *Imodulmulk* o'z tarbiyalasiga olgan. Uning shaxs va shoir sifatida shakllanishida onasi *Davlatnozbeimning* ham xizmati katta. Xushxat bo'lgani uchun xattot qilish maqsadida otasi uni dastlab *Qozi Sa'duddin Muhammad* ixtiyoriga bergan. Lekin bolaning she'r yozishga mayli kuchli ekanligini ko'rgan ustoz va bobosi uni shoir *Hoja Aziziddin* tarbiyasiga topshirganlar.

Yoshligidan alohida qobiliyati bilan ajralib turgan Xusrav Dehlaviy o'sha zamonning asosiy fanlari bo'yicha keng va chuqur bilim olib, turk, fors, arab va hind tillarini mukammal o'zlashtirgan. Shoir, olim, bastakor sifatida tanilgan Xusrav Dehlaviy saroy xizmatiga jalb qilingan. Uch sulolaga mansub 7 sulton saroyida xizmatda bo'lgan Xusrav Dehlaviy o'sha davr an'alariga ko'ra, o'z asarlarini ana shu sultonlarga bag'ishlagan. Xusrav Dehlaviy umrining oxirida saroy xizmatini tark etib, Shishtiya tariqatining mashhur shayxi *Nizomiddin Avliyoga* murid tushgan, tariqat bosqichlarini bosib o'tib, valiulloh maqomiga erishgan. Shohona Xusrav ismidan voz kechib, faqirona *Muhammad Kosales* nomini olgan. Navoiy "*Nasoyim ul-muhabbat*" tazkirasida uni avliyolar qatorida zikr etgan. Xusrav Dehlaviy Dehlida *Nizomiddin Avliyoning* oyoq tomoniga dafn etilgan. Ilk asarlarini "*Sultoniy*" taxallusida yozgan. Dehlida yashagani uchun keyin Dehlaviy taxallusini olgan. U Sharq adabiyotining deyarli barcha janrlarida ijod qilib, forsiy she'riyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan. U nafaqat she'riy, balki nasriy asarlar ham yozgan. O'zining aytishicha, merosi 500 ming baytga yaqin bo'lgan. Jomiy uning 99 ta kitob yozganini aytadi, ba'zi tazkiranavislar shoirni 199 kitob muallifi deb yozadilar. *Badiuzzamon Xurosoniyning* yozishicha, "*Shoirlardan hech biri o'zidan keyin Amir Xusravchalik ko'p she'r qoldirmagan. U forsiydan tashqari, urdu, hind va arab tillarida ham asarlar yozgan*". Hayoti davomida yozgan she'riy merosini umr fasllariga moslab, 5 devon tartib bergan shoir Sharq adabiyotida devon tuzish an'anasini boshlab bergan. Keyinchalik *Jomiy* va *Navoiy* ushbu an'anani davom ettirib, devonlarini shu tartibda tuzganlar. Bu devonlar "*Tuhfat us-sig'ar*" ("Yoshlik tuhfası", 1272), "*Vasat ul-hayot*" ("Umr o'rtasi", 1284), "*G'urra ul-kamol*" ("Kamolot ibtidosi", 1293), "*Baqiyai naqiya*" ("Saralarning sarasi", 1316), "*Nihoyat ul-kamol*" ("Kamolot nihoyasi" 1325) deb atalib, umumiy hajmi 32645 bayt. Shoirning 2000 dan ortiq g'azal, 300 atrofidagi qasida, 20 ga yaqin masnaviy, 1200 dan ziyod ruboiy, 500 tacha qit'a va boshqa janrlardagi asarlari ushbu devonlardan o'rin olgan. *Nizomiy Ganjaviy* "*Hamsasiga javob yozish bilan hamsanavislik an'anasini boshlab bergan. Uning 1239-1302-yillarda yozilib, Aloviddin Hijiya*ga bag'ishlangan "*Hamsasi* quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi: "*Matla ul-anvor*" ("Nurlarning chiqish joyi"), "*Shirin va Xusrav*", "*Majnun va Layli*", "*Oynai Iskandari*" ("Iskandar oynasi"), "*Hasht behisht*" ("Sakkiz jannat"). U *Nizomiy* dostonlarining shakli va syujeti obrazlari silsilasini saqlagan holda ularni o'ziga xos talqin etgan va yangi mazmun bilan boyitgan. *Nizomiy* dostonlari shoir dunyo qarashining kengligi va teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviyning "*Hamsasi* ruhiyat teranligi va qalb boyligiga ega. Xusrav Dehlaviyning "*Hamsasi o'zidan keyingi shoirlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Xusrav Dehlaviy o'z asarlarida barcha zamonlar uchun muhim bo'lgan ko'plab ijtimoiy-axloqiy masalalarni badiiy talqin etgan. Odil podsho orzusi, davlat mustahkamligi va mamlakat farovonligi, raiyat tinchligi, ma'rifat tantanasi, komil inson muammosi kabi g'oyalari shoir asarlarining asosiy mazmun mohiyatini tashkil etadi.*

Badiiy soʻzning qudratini namoyon qilgan asarlari ijod ahli uchun mahorat maktabi hisoblanadi. Xusrav Dehlaviy rang-barang janrdagi badiiy yuksak asarlari Hindistondagi forsiy zabon adabiyotining tamal toshini qoʻygan. Uning ijodi tufayli Xuroson va Movarounnahr soʻz sanʼatida mavjud boʻlgan barcha janrlar Hindiston adabiyotiga kirib borgan. Shoir asarlarining umuminsoniy ahamiyati hisobga olinib, YUNESKO qaroriga muvofiq, 1973-yil Xusrav Dehlaviyning 700 yilligi xalqaro miqyosda nishonlangan. Shoir asarlari oʻzbek xalqi orasida ham keng tarqalgan. Xususan, “Hamsasi va devonlari koʻplab koʻchirilgan. *Navoiy* oʻz “Hamsasini yaratishda *Nizomiy* bilan bir qatorda, Xusrav Dehlaviydan ham kuchli taʼsirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan.

ARSLONBOB (taxm. XI asr) — Turkistonlik mashhur soʻfi. Arslonbobning hayoti, soʻfiylik faoliyati haqidagi maʼlumotlar nasafnoma (shajara)larda va qoʻlyozma manbalarda qisqacha berilgan, lekin ular ilmiy tadqiq qilinmagan. *Ahmad Yassaviy*ning birinchi manaviy ustози boʻlgan. Yosh *Ahmad* uning rahbarligida soʻfiylik tariqatining murakkab amaliy va nazariy bilimlarini olgan. Rivoyat qilinishicha, Arslonbob Qirgʻiziston hududidagi shu nom bilan ataluvchi qishloqqa dafn qilingan. Maqbarasi hozirgacha saqlanib qolgan va ziyoratgoh hisoblanadi.

BAHOUDDIN NAQSHBAND, MUHAMMAD BINNI MUHAMMAD BAHOUDDIN AN-NAQSHBANDAL — BUXORIY (koʻproq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon, Xoʻjai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318 — Buxoro viloyati, hozirgi Kogon tumani — 1389) — mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi. U tugʻilgan qishloq *Qasri Hinduvon* (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga *Qasri Orifon*) deb atalgan. Uning oilasi va farzandlari toʻgʻrisida aniq maʼlumot yoʻq. Lekin Bahouddin Naqshband Muhammad paygʻambar avlodlariga mansub sayidzodalardan ekanligi qayd etilgan. Otasi toʻquvchi hamda oʻyma naqsh soluvchi (naqshband) boʻlgan. Bahouddin Naqshband taqdirida bobosining alohida xizmati bor. U sufiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uygʻotdi. Bahouddin Naqshbandning birinchi piri — ustози *Xoja Muhammad Boboyi Samosiy* edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni oʻrinbosarlaridan boʻlgan *Amir Sayyid Kulolga* topshirdi. U tariqat bobida bilganlarini oʻrgatib boʻlgandan keyin shogirdiga ijozat beradi. Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan boʻlmish *Qusam shayx* oldiga, Naxshab yaʼni hozirgi Qarshi shahriga boradi. Uch oy undan taʼlim oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland boʻlgan, ayni chogʻda *Qusam shayx* ham uni oʻz oʻgʻlidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda soʻfiylik bilan oʻtgan. U ikki marta haj qilgan. Gʻaribona hayot kechirgan, faqat oʻz mehnati — kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun koʻrgan. Xizmatkor yoki qul saqlashni gunoh deb bilgan. Bahouddin

Naqshband xalq orasida “*Balogardon*” (yaʼni duo bilan balo-qazoni daf qiluvchi) unvoni bilan ham mashhur. Xoja Bahouddin “*Hayotnoma*” va “*Dalil ul-oshiqin*” nomli asarlar yozib, oʻz tariqatini yaratadi. Oʻz taʼlimotini yaratishda *Yusuf Hamadoniy* va *Abdulholiq Gʻijduvoni* nazariyalariga asoslangan. Tarixda bu suluk “*Naqshbandiya*” nomi bilan shuhrat topadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Taʼlimotining asosida “*Dil-ba yor-u, dast-ba kor*” (“Koʻngil Xudoda boʻlsin-u, qoʻl ish bilan band boʻlaversin”) degan shior yotadi. Bahouddin Naqshband tasavvufidagi ilgari amalda boʻlgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, moʻtadillashtirdi, kundalik turmushga moslashdi. Bahouddin taʼlimoti asosida toʻat-ibodat va mehnat bilan kamol topib, Olloh visoliga yetishish, maʼnaviy-axloqiy kamolotga erishish yoʻllari yotadi. Uning tariqati insonlarni halol va pok boʻlishga, oʻz mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar boʻlishga chaqiradi. Bahouddin Naqshband tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targʻib etishi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini taʼminladi. Bahouddin Naqshband qabri azaldan ziyoratgoh hisoblanadi. Ilgari amirlar taxtga oʻtirishdan oldin, safarga chiqayotganda va qaytayotganda albatta Bahouddin Naqshband daxmasini ziyorat qilishgan. *Abdulazizxon* 1544-yil Bahouddin Naqshband maqbarasi yonida ulkan bir xonaqoh qurdirgan. Bahouddin Naqshband vafotidan keyin naqshbandiya tariqati keng yoyildi. XV asrda *Xoʻja Ahror Ubaydulloh Valiy* bu tariqatning eng yirik rahnamosi sifatida maydonga chiqdi. *Abdurahmon Jomiy*, *Alisher Navoiy*, *Zahiriddin Muhammad Bobur*, *Boborahim Mashrab* kabi shoirlar ham naqshbandiya tariqatida edilar. Ular ijodida naqshbandiya gʻoyalari keng va atroflicha targʻib etildi. Bahouddin Naqshband haqida, uning taʼlimoti xususida, naqshbandiy shayxlar toʻgʻrisida talay asarlar yaratilgan. Birgina Oʻzbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar xazinasining oʻzida naqshbandiyaga doir 195 kitob mavjud. Jumaladan, *Saloh ibn Muborak al-Buxoriy*ning “*Anisutoli-biyn va uddatu-s-solikiyn*” (“Toliblar oshnasi va soliklar rahnamosi”) asari (1383) da Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat soʻzlaridan namunalar berildi. Bu asar “*Maqomati hazrati Hojai naqshband*” nomi bilan yuritiladi. Shu muallifning 4 qismidan iborat “*Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband*” (“Hoja Bahouddin Naqshbandning taʼrif va tavsiflari”) asari ham bor. Bulardan tashqari Bahouddin Naqshbandning suyuqli xalifasi *Xoja Muhammad Porso* yozib qoldirgan bir necha asar orqali valiylikning taʼrifi, Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari, uning suhbatlari va hikmatli soʻzlari bilan tanishish, islom aqidasi, ibodat, shariat va tariqat ahkomlaridan bahramand boʻlish mumkin. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi (1993) munosabati bilan Oʻzbekistonda Bahouddin Naqshband taʼlimotini oʻrganishga ahamiyat kuchaydi. Buxoro davlat universiteti huzurida “*Naqshbandiya*” ilmiy markazi ish boshladi. U yerda tasavvufiy-irfoniy merosni tadqiq etish yoʻlga

qo'yildi. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida ham "Naqshbandiya" markazi tuzildi.

BAYHAQIY ABULFAZLMUHAMMADIBNHUSAYN AL-KITOB (995-1077-yillar) — tarixchi olim. Nishopur madrasalarida tahsil ko'rgan. Mahmud G'aznaviy saroyida kotib (1021). "Ziyinat al-kutob" ("Kotiblar ziynati") va 30 jildli "Tarixi oli Mahmud" ("Mahmud xonadoni tarixi") nomli asarlar yozgan. "Tarixi oli Mahmud" asarining Mahmud G'aznaviy o'g'li Mas'ud hukmronligi (1030-1041-yillar)ga oid qismigina saqlanib qolgan bo'lib, u "Tarixi Mas'udiy" va "Tarixi Bayhaqiy" nomi bilan ham mashhur.

BERUNIY ABU RAYXON MUHAMMAD IBN AHMAD BERUNIY (973-yil 4-aprel qadimgi Kot (Kat) shahri — 1048-yil 11 dekabr G'azna (hozirgi Afg'onistonda) — ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakkiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'dansunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Uning nasl-nasabida "berun" so'zi "tashqi shahar", "Beruniy" esa "tashqi shaharda yashovchi kishi" ma'nosini bildiradi. Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq kuchli bo'lgan. Mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qo'lida ta'lim oladi. Ibn Iroq falakkiyot va riyoziyotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ham ustozining ismini hamma vaqt zo'r hurmat bilan tilga oladi. Beruniy arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini egalladi. Keyinchalik, Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi. O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Beruniy Xorazmda yashagan davrida 990-yildan Kot shaharida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. Mamlakatda taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermadi. Qoraxoniylar somoniylarga qarshi hujum boshladi. Buning natijasida Xorazmda ham davlat to'ntarishi bo'lib, Kot Urganch amiri Ma'mun I tomonidan bosib olindi. Beruniy hayoti xavf ostida qolganini sezib, 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. U qadimgi Ray shahriga (hozirgi Tehron yaqinida) boradi. Rayda ancha og'ir hayot kechiradi, moddiy qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Olim 998-yildan keyin Jurjonga keladi va bu yerda ikkinchi ustoz tabib, falakkiyotshunos va faylasuf Ali Saxl Iso al-Masixiy bilan tanishib, undan ta'lim oladi. O'sha vaqtda Kaspiy oldi viloyatlarida ziyoriylar sulolasi (928-1042) hukmronlik qilgan; bu sulolaning vakili Qobus ibn Vashmgir (1012-yil o'ldirilgan) yosh olimni o'z himoyasiga oladi. Yoqut Hamaviyning yozishicha, Qobus ibn Vashmgir Beruniyga vazirlik lavozimini taklif qilgan, lekin olim bunga rozi bo'lmagan. Beruniy "Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. Beruniy 1005-yilda Xorazmga qaytadi va so'ngroq uni yangi hukmdor Ali Abbos Ma'mun II saroyga yaqinlashtiradi. O'sha davrda Urganchga Xorazmshoh saroyida ko'p mashhur olimlar to'planib, fanning turli sohalarida ilmiy ishlab olib boradilar. "Ma'mun akademiyasi" deb nomlanadigan bu

anjumanning faoliyatida Beruniy muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakat siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari ham uning Xorazmda turgan davrida bo'lgan. Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan (1017) bosib olingach, Beruniy Xorazmshoh saroyidagi boshqa bir qancha olimlar bilan birgalikda G'azna shahriga olib ketildi. Beruniyning G'aznadagi davri uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniy 1048-yilda G'aznada vafot etadi. Beruniyning falakkiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha qoldirgan ilmiy meros 154 kitob va risoladan iborat. Ko'pchilik asarlari o'z zamonasining o'ziga xos bir ensiklopediya hisoblangan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya", "Geodeziya" kabi asarlari shular jumlasidandir. Afsuski, hozircha olimning faqat 28 asargina ma'lum. Qolganlari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. Beruniyning falakkiyot sohasidagi xizmatlari ayniqsa kattadir. Beruniy yerning dumaloq shaklida ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniy o'zining falakkiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Tarixda Amerika qit'asini 1492-yil oktabr oyida dengiz sayyohi Xristofor Kolumb kashf etganligi qayd qilingan. Ammo Beruniy yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin Amerika qit'asi mavjudligini taxmin qilib, o'z asarlarida bir necha bor yozgan. Beruniyning g'arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to'g'risidagi fikri XV-XVI asrlarda o'z tasdig'ini topdi. Beruniy Yer aylanasi uzunligini o'lchashda yangi usul — matematik usulni ishlab chiqdi. U Yer meridiani yoyining bir darajasi 110275 metrga teng deb topdi. Bu hozir ma'lumotlariga juda yaqin. Beruniy ijodini o'rganish, uning asarlarini nashr etish, boshqa tillarga tarjima qilish ishlari o'tgan asr oxirlaridan boshlandi. Beruniyning boy va ilmiy merosi O'zbekiston va undan tashqarida chuqur o'rganilmoqda. Uning asarlari xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda. Hayoti va ijodi yozuvchi va san'atkorlar e'tiborini tortib kelmoqda. Beruniy haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari ikki qismdan iborat "Abu Rayhon Beruniy" filmi yaratganlar (1974). Uyg'un "Abu Rayhon Beruniy" pyessasini (1973) yozgan. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi shahar, tuman Beruniy nomiga qo'yilgan. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti, Toshkent texnika universiteti, metro bekati uning nomi bilan ataladi. Toshkent shahrida, Qoraqalpog'istonda, Xorazmda Beruniy nomida ko'cha, maydon, maktab va boshqa muassasalar bor. Dunyoda birinchi marta O'zbekistonda topilgan mineralga Beruniy nomi qo'yilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti joriy etilgan. Beruniyga Toshkent, Xiva va Beruniy shaharlarida haykal o'rnatilgan.

BOQIRG'ONIY SULAYMON (?-Xorazm viloyati Xazorasp tumani Boqirg'on qishlog'i — 1186) — tasavvufning yirik namoyondasi, shoir. Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi. Hayoti haqidagi ma'lumotlar turli

rivoyatlar bilan aralashib ketgan. Xalq orasida “*Hakim ota*” nomi bilan ham mashhur. *Yassaviyga* murid (shogird) bo‘lgan, o‘z iqtidori va she‘riy iste‘dodi bilan pirining e‘tiborini qozongan. Boqirg‘oniy Sulaymon ustozining tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib keng xalq ommasiga yetkazgan. *Yassaviyona* sodda, ravon uslubda ijod qilgan. Boqirg‘oniy Sulaymon she‘rlari “*Boqirg‘on kitobi*” nomi bilan mashhur. Uning “*Bibi Maryam kitobi*”, “*Oxir zamon kitobi*” kabi dostonlari bor. Bulara tasavvuf to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon etadi. Boqirg‘oniy Sulaymon turkiy she‘riyatini boshlovchilaridandir. She‘rlari tatar, boshqird va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

BURHONUDDIN AL-MARG‘INONIY (to‘liq ismi Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy al-Rishtoniy al-Marg‘inoniy) (1123.23.9. Rishton tumani, Dahbet qishlog‘i — 1197.29.10. Samarqand) — buyuk faqih, imom. Dastavval otasi *Abubakr ibn Abduljalil*, so‘ng imom *Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijobiy* qo‘lida tahsil ko‘rdi. Rishton, Marg‘ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlarida islomiy ta‘lim olib, *hanafiy* mazhabining buyuk faqih sifatida nom qozondi. Shayxulsilom bo‘lib yetishdi. 1149-yil haj safariga bordi. Burhoniddin Marg‘inoniy Samarqand shahridagi Shokardiza qabristoniga dafn etilgan. Burhoniddin Marg‘inoniy fiqh bo‘yicha asosiy asari “*Bidoyat ul-mubtadi*” (“Boshlovchilar uchun qo‘llanma”) ni hanafiya nazariyotchisi, shariat asoschilaridan *Abul Hasan al-Quduriy* (1029-yil vafot etgan) va *Muhammad ash-Shayboniy* (884-yil vafot etgan) asarlariga tayanib yozgan. Burhoniddin Marg‘inoniyning ushbu kitobi nazariy asar edi, undan amaliy jihatdan foydalanish qiyin bo‘lgan. Shu sababli Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi 8 jildli sharh — “*Kifoyat ul-muntahiy*” (“Yakunlovchilar uchun tugal ta‘limot”) ni yozishga qaror qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida “*Kitob al-Hidoya*” (qisqacha nomi “*Hidoya*” — “To‘g‘ri yo‘lni yaratadi (1178). Burhoniddin Marg‘inoniy bu kitobda o‘sha zamonlarda mo‘min-musulmonlar duch keladigan dolzarb hayotiy masalalar, jumladan oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va ma‘suliyatlariga taaluqli juda ko‘p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib berdi. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom sharqida bir necha tillarga tarjima etilib ma‘lum va mashhur bo‘lib ketdi. Bu kitob fiqh ilmi bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar bo‘lgan. Undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo‘yicha nufuzli huquqiy manba — asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasida ham “*hidoyat yo‘lining sarboni*” deya katta hurmat-e‘tibor topdi. Burhoniddin *val-milla* (islom dinining dalili, isboti) degan sharaflı nomga sazovor bo‘ldi. Burhonuddin Marg‘inoniy yana bir qancha asarlar yozgan: “*Nashr al-mazhab*” (“Mazhabning tarqalishi”), “*Kitob at-tajnis valmaziyd*” (“Fuqarolik huquqini taqdim etish”), “*Kitob ul-faroiz*” (“Majburiyatlar haqida kitob”), “*Maziyd fi furu ul-hanafiy*” (“Hanafiya mazhabiga qo‘shimchalar”) va boshqalar. U o‘z asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning turli shakllari (davlat va xususiy mulkchilik), moliyaviy faoliyat, jinoyat va jazoning huquqiy asoslarini,

fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti, qozilik muassasalari tarkibi, tartibi va jinoiy ishni ko‘rish masalalarini batafsil yoritib berdi. Bu asarlarda adolat tuyg‘usi o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olaytirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Burhoniddin Marg‘inoniyning o‘zi hayoti davomida ana shundy insoniy fazilatlariga amal qilib yashadi. Ilmu urfon yo‘lidagi fidoiyligi, kamtarligi o‘z asarlarida biron marta ham “*men*” degan so‘zni ishlatmay, “*bu zaif banda aytadi*”, deya hokisorlik bilan izoh berishida ko‘rinib turadi. Burhoniddin Marg‘inoniyning ilmiy merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jahondagi ko‘p oliy o‘quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi fanlari Burhoniddin Marg‘inoniyning fiqh ta‘limoti asosida o‘rganiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng uning ilmiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, asarlarini chop etish ishlariga katta e‘tibor berila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Burhoniddin Marg‘inoniy vafotining 800 yilligi (1997), tavalludining 910-yilligi (hijriy sana bo‘yicha) (2000) keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg‘ilon shahri markazida Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmui bunyod etilib, shu yerda uning ramziy maqbarasi o‘rnatildi.

BUXORIY, IMOM AL-BUXORIY (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810-yil 21 iyul, Buxoro — 870-yil 31-avgust, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘i) — islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilimining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi *Ismoil* o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, *Molik ibn Anas*ning shog‘irdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav) ning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — *al-Doxiliy*, *Muhammad ibn Salom al-Poykandiy*, *Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy*, *Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy* va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi *Ahmad* bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan *Ibrohim ibn al-Munzir*, *Mutrif ibn Abdulloh*, *Ibrohim ibn Hamza* va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan hadislar bo‘yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta‘kidlashicha, Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi.

Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu say'i harakatlari bu vaqtda Buxoroda hukmdorlik qilgan *Holid ibn Ahmad az-Zuhli*ga xush kelmaydi. Shu sababli Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykendga, keyin esa Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga kelib yashashga majbur bo'ladi va shu yerda vafot etadi. Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Tijorat qilganda topgan daromadidan oyiga besh yuz dirhamda faqiru miskinlarga, ilm taliblariga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan. Buxoriy umr bo'yi hadislarini to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir birlari bilan qilgan o'zaro muloqotlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "*sahih*" va ming "*g'ayri sahih*" hadisni yoddan bilgan. Buxoriy o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o'ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoiylilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi. Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning "*Al-Jomi as-sahih*" ("ishonchli to'plam") deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Uning bu asari musulmon Sharqida qariyb 12 asr davomida islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadislar va ularga berigan ko'pdan-ko'p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalani olmay, balki inson ma'naviy kamolatining ramzi hisoblanilgan mehr-muhabbat, hurmatu izzat, muruvvatu himmat, halolliq mehnatsevarlik, saxiyligi ochiq ko'ngillik hamda o'zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida ma'lumot berilgan. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991-1996-yillarda 4 jildda nashr etildi. Buxoriy yaratgan "*Al-Adab al-mufrad*" ("Adab durdonalari") asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimasini 1990-yil Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag'ishlangan "*Kitob al-kuna*" ("Kunyalar haqida kitobi") 1940-yil Hindistonda chop etilgan. Buxoriyning "*At-Ta'rix al-kabir*" ("Katta tarix") kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek "*At-ta'rix as-sag'iy*" ("Kichik tarix") ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan "*Kitob al-favoid*" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "*Al-Jomi al-kabir*" ("Katta tayanch"), "*Xalq af'ol al-ibod*",

("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "*Al-Musnad al-kabir*" ("Katta tayanch"), "*At-tafsir al-kabir*" ("Katta tafsir"), "*Kitob al-xiba*" ("Xayr-ehson haqida kitob") va boshqa asarlarning ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida "*Tafsir al-Qur'on*" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (sav) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolalar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqloq sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi el-yurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "*Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori* (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to'y-tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi. Buxoriyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi *Zohidullo Munavvarov*). Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni karim va Buxoriyning "Al-Jomi" as-sahih'i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg'arma o'zining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy "*Imom al-Buxoriy saboqlari*" jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma'naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarining sog'lom idrok etilishiga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda adabiy lashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qismli film (1995), "*Hadis ilmining sultoni*" 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan.

CHORBAKR — Buxoroda yashab o'tgan (IX-X asrlar) mashhur to'rt shayx, tasavvufning yirik namoyandalari. Chor Bakrlarning ajdodlari payg'ambar Muhammad (sav)ning nabirasi Imom *Husayn*ga borib taqaladi. Ular *Ali* avlodlaridan 4-imom bo'lgan *Ja'far as-Sodiq*ning nevaralari hisoblangan. *Abu Bakr Sa'd*, *Abu Bakr Ahmad ibn Xoja Sa'd Yamaniy* (IX asr oxiri — 971) Buxoroda tug'ilgan. Uning otasi *Xoja Sa'd Yamaniy* imom *Husaynning Zaynulobiddin* ismli o'g'lining farzandi bo'lib, u Buxoroga *Ali ibn al-Husayn* bilan birgalikda kelib qolgan (IX asrning so'nggi choragi). *Narshaxiy*ning yozishicha, somoniylar amiri *Ismoil Somoniy* unga Buxoro yaqinidagi Jo'yi Mo'liyon mavzeidagi serhosil yerlarning katta qismini vaqf qilib bergan. *Xoja Sa'd* Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog'ida chorbog', bog', sardoba, tegirmon, hovuz va boshqa binolar barpo etib, bu yerdan katta daromad olgan. *Abu Bakr Sa'd* va uning avlodlari somoniylar davrida

Buxoroda shayxulislomlik qilishgan. *Abu Bakr Sa'd* otasi vafot etgach, uning o'rniga *Ismoil Somoni*ning piri hisoblangan. U fiqh maktabini tashkil etib, ko'plab ulamolarga ustozlik qilgan. *Abu Bakr Fazl, Abu Bakr Muhammad ibn Fazl ibn Ja'far al-Buxoriy* (IX asrning ikkinchi yarmi — 937), *Imom Ja'far as-Sodiq* avlodidan. Somoniylar davrida Buxoroga kelib qolgan. Uning "*Musnadi Fazl*" kitobi ayniqsa mashhur bo'lib, bu asar *Chingizxon* Buxoroni bosib olganda yondirib yuborilgan. *Abu Bakr Muhammad, Abu Bakr Muhammad ibn Hamid* (IX asrning ikkinchi yarmi — 937). Unga "*shayx ul olam*" unvoni berilgan. U *Abu Bakr Fazl* bilan bir yilda vafot etgan va ikkalasining qabrlari ham bir joyda yonma-yon joylashgan. *Abu Bakr Tarxon, Imom Abu Bakr Tarxon* (IX asrning ikkinchi yarmi — 945). "*Kitobi Mullazoda*" asarida yozilishicha, *Jome*" va *musnad*" kitobini yozgan. Chor Barklar Buxoroda vafot etgan va shahar yaqinidagi Sumitan mavzeida dafn etilgan. Ularning qabrlari ustida *Abdullaxon II* (XVI asr) davrida hashamatli maqbara va boshqa me'moriy inshootlar qurilgan. Chor Bakrlar shajarasidan XVI asrda *Jo'ybor xojalari* nomi bilan mashhur bo'lgan naqshbandiya tariqatining yirik shayxlari yetishib chiqqan. Buxorolik shoir *Toshpo'lat Ahmad* Chor Bakrlar faoliyati haqida "*Chor Bakr*" (1999) dostonini yozgan.

DAQIQIY (asl ismi Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad) (956-yil, Balx — 980-yil, Buxoro) — fors-tojik shoiri. Daqiqiy yoshligida o'qish uchun Buxoroga kelgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab qolgan. Daqiqiy somoniy amirlaridan *Mansur ibn Nuh* (961-976 yillar hukmronlik qilgan) saroyida xizmat qilgan. Daqiqiy Sharq adabiyotida mavjud lirikaning barcha janrlarida she'rlar yozgan. Eski manbalarda uning qasida, g'azal, ruboiy, qit'a, bahoriyot, chiston singari janrlardagi asarlardan tarkib topgan devoni borligi ta'kidlangan. Lekin hanuzgacha shoirning qo'lyozmasi topilmagan. Shoir merosidan ayrim namunalar tazkira va lug'atlardagina saqlanib qolgan. Daqiqiy qasidago'ylik va g'azalnafislikda ustod san'atkor darajasiga ko'tarilgan. U o'z she'rlarida do'stlikni, muhabbatni, ma'rifatni kuylagan; qasidalarida donishmand, odil podsho boshchiligidagi markazlashgan davlat uchun kurash g'oyasini ifodalagan, Bundan tashqari Daqiqiy *Abulqosim Nuh ibn Mansur Somoniy* topshirig'i bilan qadimgi ajdodlar tarixi haqida "*Shohnoma*" yozishga kirishadi. Ammo 1000 baytdan iborat "*Arjasp va Gushtasp*" dostonini yozib tugatgan paytida o'z g'ulomi tomonidan o'ldiriladi. Keyinchalik *Firdavsiy* bu dostonni o'z "*Shohnomasiga* kiritgan. Asarda *Zardushtraning* paydo bo'lishi, *Gushtasp* bilan *Arjasp* o'rtasidagi urush hikoya qilingan. Mazkur jangnoma Eron va Turon xalqlari tarixini, jumladan, zardushtiylikning paydo bo'lishini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

FIRDAVSIY ABULQOSIM TUSIY (taxminan 943-yil — Tus shahri — 1030-yil) — fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda tahsil olgan. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o'rgangan. O'z davrining qomusiy olimi bo'lib yetishgani uchun ham uni hakim deb ulug'lashgan. U Eron, Turon, Yunon va Hindiston

olimlarining turli sohadagi asarlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Firdavsiy yoshligidayoq she'rlar mashq qila boshlagan. Bu haqda ma'lumotlar bo'lsa-da, she'rlarining o'zi yetib kelmagan. Uning "*Yusuf va Zulayho*" nomli doston yozganligi ham haligacha munozarali. Firdavsiy otasidan qolgan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan. Ba'zi manbalarda uning uzoq yillar sarbozlik xizmatida bo'lgani ham aytiladi. Firdavsiyning yoshlik yillari somoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Eron va Turon xalqlarining nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-ma'naviy hayotida ham bir ko'tarilish bo'lgan. O'zining kimligini anglash va uni boshqalarga ham ko'rsatish maqsadida ular Eron va Turonning shonli tarixini tiklashga intiladilar. Shu maqsadda qadimgi afsona va rivoyatlar, buyuk shohlar va bahodirlar tarixi to'planadi va yoziladi. Bu boradagi intilishlarni somoniy hukmdorlar qo'llab-quvvatlab turganlar va to'plangan ulkan materialni she'rga solishni *Abu Mansur Daqiqiy*dan so'rganlar. Lekin shoir endigina ming bayt ijod qilganda, fojiali ravishda o'ldirilgach, Buxoro amiri *Nuh ibn Mansur Somoniy* Firdavsiy huzuriga chorlab, unga chala qolgan "*Shohnomani* nihoyasiga yetkazishni buyuradi. Bundan maqsad shonli tarixi va buyuk shon-shavkatiga ko'ra forsiy xalqlarning arablardan kam emasligi, balki ustunligini ko'rsatish va ularga qarshi kurashda foydalanish edi. Vatanga va uning buyuk tarixiga muhabbat ruhida tarbiyalangan, bolalikdan qadimgi afsona va rivoyatlar, qahramonlik qissalari, jangnomalarni jon qulog'i bilan tinglab ulg'aygan Firdavsiyning o'zi ham xalq ichida yurib, ularni yozib olgan, ko'plab og'zaki va yozma materiallar to'plangan. Eron va Turon xalqlarining qariyb 4 ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan qalamga olingan "*Shohnoma*" ustida Firdavsiy 30 yildan ortiq mehnat qilgan. "*Shohnoma*" hajmi (60 ming baytni o'z ichiga oladi), mavzu ko'lami, obrazlar olami, qahramonlarning ko'p va xilma-xilligi, g'oyaviy motivlari va ko'tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asar. 100 dan ortiq dostonlardan tashkil topgan bu asarda mingdan ziyod katta-kichik personajlar ishtirok etadi. "*Shohnoma*" garchi shohlar kitobi deb atalib, 50 podshohlikdan iborat 4 sulolaning tarixini tadrijiy ravishda yoritgan bo'lsa-da, barcha kurashlar va qahramonliklar xalq ichidan chiqqan bahodirlar tomonidan amalga oshirilgan. "*Shohnoma*" ning asosiy g'oyasi — vatanni ulug'lash, xalq qudrati va zakovatini ko'z-ko'z qilish, millat farzandlarini vasf etish va shu orqali ularni birgalikka, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va tinchliksevarlikni madh etish, ezgulik, olijanoblik, halollik, mardlik, mehnatni tarannum etib, qonli urushlar, yovuzlik, jabru zulm, adolatsizlik, munofiqlikni qoralashdan iborat. Shoir jasadi otasidan qolgan bog'ning bir chekkasiga ko'milgan. 1934-yilda Firdavsiy tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan shoir qabri ustiga maqbara qurilgan va u shoir muxlislarining muqaddas ziyoratgohiga aylangan.

FOROBIY taxallusi; (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad Ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) (873-yil, Forob shahri — 950-yil, Damashq) — O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga

sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgani uchun "*al-Muallim as-soniy*" ("Ikkinchi muallim", Aristoteldan keyin), "*Sharq Arastusi*" nomlariga sazovor bo'ldi. Forobiy Sirdaryo sohilidagi *Forob* (O'tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. O'sha davrda Movarounnahrda somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo'lajak faylasuf boshlang'ich bilimni O'trorda olgan so'ng, o'qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Forobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag'dodga yo'l oladi. Olim Eronning shaharlari Ray, Hamadon, Isfaxon va boshqa joylarda bo'ladi. Bag'dodda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to'plangan edi. Bu yerda ko'zga ko'ringan olimu fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyondalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o'rgandi. Umrining oxirlarida Xalab va Damashq shaharlarida yashagan. Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. U Damashqdagi "*Bob as-sag'ir*" qabristoniga dafn etilgan. Forobiy riyozat, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Olimning Arastuning "*Metafizika*" asariga sharh, "*Musiqa kitobi*", "*Baxt-saodatga erishuv haqida*", "*Tirik mavjudot a'zolari haqida*", "*Fozil odamlar shahri*" va boshqa ko'pgina asarlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Forobiy asarlari XX asrning 70-80-yillarida Toshkent va Olmaotada "*Falsafiy risolalar*", "*Mantiqiy risolalar*", "*Matematik risolalar*", "*Ijtimoiy-axloqiy risolalar*", "*Tadqiqotchilar va tarjimalar*" nomlari ostida rus tilida nashr etilgan. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Forobiy o'rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. U Yaqin Sharq va O'rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. O'rta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi. Forobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Forobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm g'alabasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qomusiy olimning asarlari o'zbek tilida chop etila boshlandi, uning boy merosi xolisona, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida yoritila boshandi. Oliy o'quv yurtlari, maktab va kutubxonalar, ko'chalar uning nomi bilan ataladi.

FAXRIDDIN ROZIY (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husayn) (1149, Ray -1209, Hirotda) — mashhur kalom olimi va diniy falsafa

namoyandasi. Ray va Marog'ada tahsil olgan. Shofiiy va ash'ariy olim sifatida faoliyat ko'rsatgan. Xorazm, Buxoro va Samarqandda yashagan. G'aznada (1185-yilgacha) va Hindistonning Panjob viloyatlarida faoliyat olib borgan, keyinchalik Hirotda yashagan. Hirotda uning uchun maxsus madrasa ta'sis etilgan, shayxulislom laqabi bilan mashhur bo'lgan, qizg'in mudarrislik faoliyatini olib borgan. Shu bilan birga uning ko'plab muxoliflari ham bo'lgan. Ular Faxriddin Roziyini diniy falsafa, e'tiqod va aqida borasidagi qarashlari uchun islom asoslariga putur yetkazganlik, dinni buzganlikda ayblaganlar. 1209-yilda karromiylar tashviqi bilan zaharlab o'ldirilgan. Faxriddin Roziy "*Munozarot ul-alloma Faxriddin*" ("Alloma Faxriddin munozaralari") asaridan Movarounnahr olimlari bilan turli masalalar bo'yicha qilgan munozara va mubohasalari o'rin olgan. Metafizikaga oid "*Kitobi Muhassal afkor al-mutaqaddimin val mutaaxxirin*" ("Oldingi va zamondosh olimlar fikrlaridan namunalar") va Qur'on tafsiri bo'lgan "*Mafotih ul-G'ayb*" ("G'ayb sirlarini ochuvchi") ijodining keyingi davriga oid asarlaridir. Mazhab masalalariga bag'ishlangan "*Manoqib al-imom ash-Shofiiy*" ("Imom Shofiiy manoqibi"), fiqh masalalariga bag'ishlangan "*Kitob al-mahsul*" nomli, adabiyotshunoslikka doir "*Chahordah risola*" ("O'n to'rt risola") va nujum ilmiga doir qator asarlari uning qomusiy olim bo'lganligidan dalolat beradi. Faxriddin Roziyning mashhur ensiklopedik asarlaridan biri "Jome' ul-ulum" ("Ilmlar to'plami") bo'lib, xorazmshoh Alouddin Takash iltimosiga binoan yozilgan. Ushbu asar o'sha davr musulmon sharqidagi 60 fan haqida dastlabki ma'lumotlarni beradi. Mazkur asarning bo'lajak podshohlar uchun qo'llanma sifatida yozilgan. Asarlarining qo'lyozmalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti, Qohira, Parij, Drezden shaharlaridagi kutubxonalar fondida saqlanadi.

GARDIZIY ABU SA'ID ABDULXAY (XI asr) — fors tarixchisi. Uning hayoti haqida ma'lumot bizgacha yetib kelmagan. Gardiziyning 1050-105-yillarda yozilgan "*Zayn al-axbor*" ("Xabarlar ziynati") asarida peshdodiylardan boshlab, 1032-yilgacha bo'lgan arab xalifalari to'g'risidagi ma'lumotlar, 1041-yilgacha bo'lgan Xuroson tarixi va g'aznaviylar sultoni *Sulton Mahmud*ning nabirasi *Mavdud* zamonasigacha bo'lgan voqealar sharhlangan. Asar oxirida musulmon, majusiy, yahudiy, zardushtiy va hind bayramlari, Hindiston va turkiy qabilalar haqidagi boblar ilova qilingan. "*Zayn al-axbor*" ning tohiriylar, safforiylar, somoniylar va g'aznaviylar tarixiga oid qismi 1928-yil *Muhammad Nozim* tomonidan Tehronda nashr etilgan. "*Zayn al-axbor*" ning Xuroson tarixiga oid qismi O'zbekistonda nashr qilingan.

HAMADONIY YUSUF ABU YA'QUB (1048, Hamadonning Buzanjird qishlog'i — 1141, Afg'onistonning Bomiyon shahri) — tasavvufning yirik namoyandasi, olim. Bag'dodda *Abu Ishoq Sheroziy*dan tahsil olgan. Isfahon, Samarqand, Buxoroda bilimni oshirgan. Tasavvufni *Abu Ali Formadiy*, *Abdulloh Juvayniy* va *Hasan Simnoniy*dan o'rgangan. Zamonasining yetuk allomalari *Abdulqodir Giloniy*, *G'azzoliy*, *Hamiduddin Multoniy* bilan muloqotda bo'lgan. 30 marta haj ziyoratiga borgan. Hamadoniy Buxoroda uzoq muddat yashab, *Ahmad Yassaviy* va *Abduxoliq G'ijduvoniy* va boshqa yirik mashoyixlarga ustozlik qilgan.

U keyinchalik xojagon-naqshbandiya tariqatining ayrim qoidalarini ishlab chiqqan. *Xoja Abdulloh Barrahiy Xorazmiy, Xoja Hasan Andoqiy Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni* Hamadoniydan so'ng uning xalifalari sifatida muridlarning tarbiyasi bilan shug'ullanganlar. "*Rutbat ul-hayot*" ("Hayot mezon"), "*Kashf*", "*Risola dar odobi tariqat*", "*Risola dar axloq va munajat*" kabi asarlar yozgan. "*Hayot mezon*" risolasi o'zbek tilida nashr qilingan (Toshkent, 2003). Xoki Bomiyondan Marv shahriga olib kelinib, qayta dafn etilgan. *Abduxoliq G'ijduvoni, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy* asarlarida Hamadoniy haqida ma'lumotlar bor.

IBN HAVQAL, ABULQASIM IBN HAVQAL AN-NISIBIY (?-Bog'dod, 976) — arab sayyohi va geografi. 931-943-yillarda Mag'rib va Mashriq mamlakatlari, Sitsiliya oroli, Italiya, Ispaniya, Mesopotamiya, Eron bo'ylab sayohat qilgan; Kordovada ma'lum vaqt yashagan. 95-yilda *Istaxriyning "Kitob masolik al-mamolik"* ("*Mamlakatlar yo'llari haqida kitob*") asaridagi va xaritalaridagi chalkashliklarini uning roziligi bilan tuzatib, keyinchalik shu asnoda "*Kitob ul-masolik va-l mamolik*" ("*Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob*") deb atalgan mukammal asar yaratgan. Mazkur kitobni yozishda *Ibn Xurdodbeh, Jayhoni, Qudama ibn Ja'far* asarlaridan ham foydalangan. Ibn Havqalning Afrika va Yevropadagi mamlakatlariga oid xabarlari, xususan, etnik ma'lumotlarni o'sha davr ilm-fani uchun muhim yangilik bo'ldi.

IBN MOJA (to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja ar-Rabi al-Qazviniy) (824, Qazvin, — Eron — 886) — yirik muhaddis. Yoshlik yillaridan boshlab payg'ambar (sav)ning hadislarini va diniy ilmlarni o'rganishga kirishdi. Hadis yig'ish niyatida Iroq, Hijoz, Shom, Misr, Kufa, Basra va islom olamining boshqa shahar va davlatlariga sayohat qildi, ko'plab shayx va muhaddislaridan dars oldi, baxs, munozaralarda ishtirok etib hadis ilmining bilimdoniga aylandi. Ibn Moja ko'plab shogirdlar yetishtirgan. U keng qamrovli olim bo'lib, u o'z asrigacha yashagan kishilar va shaharlar haqida "*Kitob at-Tarix*", "*Tafsir al-Qur'on al-Karim*" asarlarini yozgan. Ibn Mojaning asosiy asari "*Kitob as-Sunan*" ni musulmon olamidagi ko'pchiligi "*Sehah as-sitta*" ("*Olti sahih hadislar to'plami*")ga oltinchi to'plam sifatida kiritgan. Bu asar 32 qism bir yarim ming bobdan iborat bo'lim unda 43-41 ta hadis jam qilingan, ulardan 3002 tasi sahih to'plamlarda berilgan hadislariga mos keladi. 1339 ta hadis esa qo'shimcha hisoblanadi.

IBN SINO, ABU ALI AL-HUSAYN IBN ABDULLOH IBN AL-HASAN IBN ALI (980.8, Afshona qishlog'i — 1037.18.6, Hamadon shahri, Eron) — jahon fani taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan o'rta osiyolik buyuk qomusiy olim. O'rta asrning buyuk allomasi Sharqda "*Shayx ur-ra'is*" ("donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"); "*Sharaf al-mulk*" ("o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi"); "*Hakim al-vazir*" ("donishmand, tadbirkor vazir") deb atalgan bo'lsa G'arbda esa *Avitsenna* nomi bilan mashhur. Ibn Sinoning otasi *Abdulloh Balx* shahridan bo'lib, Somoniylar amiri *Nux ibn Mansur* (967-997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Xurmaysan qishlogiga moliya amaldori

etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida *Sitora* ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi *Mahmud* edi. Husayn 5 yoshga kiringach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. Maktabni bitirgach, Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari hakim va faylasuf *Abu Abdulloh Notiliy* mantiq, falsafa, riyozat va fiqh ilmlarini o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'tib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi, shundan so'ng ota o'g'liga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi. Ayniqsa u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Golen hamda o'rta asr Sharqning buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy (864-925)ning asarlarini puxta o'rgandi. Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib *Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriy*ning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat darsini olib, bu ilmining ko'p sirlarini o'rgangan. *Qumriy* bu davrda ancha keksayib qolgan bo'lib, 999-yilda vafot etdi. Ibn Sino 17 yoshdayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib va olim sifatida tanildi. U amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Kutubxonada u bir yil davomida turli sohalaridagi ilmiy asarlarni mutolaa qilib, bilimlarini chuqurlashtiradi. IX asrning oxiri va X asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o'z ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh *Ma'mun* saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra *Mahmud G'aznaviy*ning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivard, Gurgon, Ray, Kazvin, Isfaxon a Xamadon shaharlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. U 1037-yilda Xamadonda 57 yoshida vafot etadi. Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohalarini bo'yicha 450 dan ortiq asar yozgan bo'lib, ulardan faqat 242 (160) tasi bizgacha yetib kelgan. Nazm va nasrda qalam yuritdi. Uning tibbiyotga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning ko'pgina g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalariga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Ibn Sinoning ko'proq falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilinib asrlar davomida qayta-qayta nashr qilib kelinmoqda. Uning "*Al-qonun fit-tib*" asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Garchi uning "*Avitsenna*" sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi xususan, "Tib

qonunlari” bo‘lsa-da, “Shayx ar-ra’is” nomi eng avvalo uning buyuk faylasufligiga ishoradir. Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr sharq va g‘arb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O‘zbekistonda maxsus ilmiy yo‘nalish — *sinoshunoslik* vujudga keldi. “Tib qonunlari”ning lotincha tarjimasini to‘liq holicha 40 marta nashr qilindi. Jahonning ko‘plab olimlari tomonidan Ibn Sinoning ijodini turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropologi M. M. Gerasimov bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykal-portretini yaratgan. Ibn Sino haqida O‘zbek film studiyasi ijodkorlari 1984-yilda “Dahoning yoshligi” tarixiy-geografik badiiy filmi yaratdilar. Mashhur shved botanigi shved botanigi Karl Linney (1707-78) doimo yashil bo‘lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsenniya deb atadi. O‘zbekiston yerida topilgan (1956) yangi mineral Ibn sino nomi bilan Avitsennit deb ataldi. Buxoro shahri va Afshona qishlog‘ida Ibn Sinoga haykal o‘rnatildi, Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo‘yilgan (2000) haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O‘zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o‘rta bilm yurtlariga, nashriyotga, sanatoriy, shifoxona, kutubxona, maktab, ko‘cha, jamoa xo‘jaliklari, turar joy mavzellariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta’sis etildi. O‘zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1999), “Ibn Sino” va “Sino” nomli xalqaro jurnallar nashr qilinadi.

IMOMI A‘ZAM ABU HANIFA NUMON IBN SOBIT AL-KUFIY (699-yil, Kufa — 777-yil, Bag‘dod) — hanafiylik mazhabi asoschisi. Ilohiyotchi, faqih, muhaddis. “*Imomi A‘zam*” (“*Ulug‘ Imom*”) ulug‘ligining e’tirofi o‘laroq berilgan unvon. Asli fors bo‘lib, o‘ziga to‘q zodagon oilada. Olim va fozil insonlar orasida voyaga yetdi. Otasidan qolgan katta boylikni ilm yo‘lida sarf etdi. Yoshligidan Qur‘onni yod oldi. Kalom ilmi va mantiqni o‘rgandi. 22 yoshida iroqlik ilohiyotchi Hamod ibn Abu Sulaymonga shogird tushib uning ta’limini oldi. Keyin Kufa va Basraning eng obro‘li faqih bo‘lib yetishdi va o‘zi shogirdlar tarbiyaladi. Kamtar, mehribon, taqvodor inson sifatida hurmat qozondi. Uning 55 marta haj qilganligi haqida ma’lumotlar bor. Imomi A‘zam 747-48-yillarda Iroq hokimi ibn Hubayra ta’qibidan qochib Makka ketadi. Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgach, Iroqqa qaytib, ulomolik faoliyatini davom ettiradi. Xalifa *al-Mansur* (754-775) unga yangi poytaxt Bog‘dodda qozilik yoki boshqa istagan yuksak lavozimini egallashini taklif etadi. Biroq, Imomi A‘zam bu taklifni rad etadi. Shunda *Mansur* uni qamab, turli qiynoqlarga solgan, kaltaklatgan. *Mansur* Imomi A‘zamga zahar ichirgan va u zot shu sababdan shahid bo‘lgan degan rivoyat ham bor. Imomi A‘zam islom ulomalari orasida eng yetuk olimlardan edi. U odamlarga qulay, toliblarga yengil bo‘ladigan yo‘lni topishga muvaffaq bo‘ldi: shar‘iy ilmi birinchi bo‘lib tasnif qilib, uni boblarga ajratib, tartibga soldi va kitob shakliga keltirdi. Imomi A‘zamni ilmi kalom, fiqh, hadis sarf ilmlariga oid bir necha kitoblari mavjud. Dunyoning ko‘p joylarida, jumladan O‘rta Osiya mamlakatlarida musulmonlar Imomi

A‘zam mazhabi qoidalari asosida ibodat qilib kelmoqdalar.

ISTAXRIY, ABU ISHOQ AL-FORISIY AL-ISTAXRIY (taxminan 850-934) — geograf olim, Eronning Fors viloyatida yashagan. Eronzamin, Movarounnahr, Arabiston yarim oroli, Misr, Ispaniya, Mag‘rib (Shimoliy Afrika) mamlakatlariga sayohat qilgan. Istaxriyning geografiya sohasidagi ilmiy merosi 930-933-yillarda arab tilida yozilgan “*Kitob masolik va-l-mamolik*” (“*Yo‘llar va mamlakatlar kitobi*”; boshqa nomi “*Kitob al-aqolim*” — “*Iqlimlar kitobi*”) asarida o‘z aksini topgan. Mazkur asar *Abu Zayd ibn Sahl Balxiy*ning “*Suvar ul-aqolim*” asari asosida tuzilgan va X asrning o‘rtasida ommalashgan. Istaxriy asarida Arab diyori, Mag‘rib, Shom, Iroq, Xuziston, Fors, Kermon, Ozarbayjon, Xuroson, Movarounnahr haqida geografik ma’lumotlar berilgan. O‘lkalar tavsifiga ularning xaritalari ham chizib ilova qilingan. Istaxriyning ushbu asarini 976 yil *ibn Xavqal* tuzatib, to‘ldirib yangi asar tuzdi va uni “*Kitob al-masolik va-l-mamolik*” deb atadi.

JAYHONIY, ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN AHMAD (X asr) — olim, Somoniylar amiri, *Nasr ibn Ahmad*ning (914-943) vaziri. Falsafa, astrologiya, astronomiyani qunt bilan o‘rgangan, geografiyaga oid bir qancha asar yozgan. “*Kitob al-masolik va-l-mamolik*” (“*Yillar va mamlakatlar haqida kitob*”) nomli asari haqida ma’lumotlar bor, xolos. Arab geografi *al-Ma’sudi*ning yozishicha, bu asarda shaharlar, dengiz va daryolar, shuningdek, turli xalqlar haqida ma’lumotlar berilgan, turli tuman rivoyatlar va voqealar hikoya qilingan. Bu asardan Sharqning ko‘p olimlari, jumladan *Beruniy* ham foydalangan.

MA‘MUN IBN MA‘MUN ABULABBOS (?-1017) — xorazmshohlar sulolasining 3-hukmdori. (1009-1017). Uning hukmronligi yillarida Urganch obod va madaniy shahar bo‘lgan. U ancha bilimli hukmdor bo‘lib, olim, shoir, san’atkor, naqqosh va musavvirlarga homiylik qilar edi. Urganchda xorazmshohlar saroyida zamonasining yirik mutafakkirlari *Ibn Sino* va *Beruniy*dan tashqari *Abu Sahl Masihiy*, *Abu Nasr ibn Iroq*, *Abul Xayr ibn Xammor*, *Abu Abdulloh al-Xorazmiy* kabi ko‘pgina olimlar to‘plangan edi. Gurganch (Urganch)da “*Ma‘mun akademiyasi*” (1004)ga asos solgan. Mahmud g‘aznaviyning Xorazmga qilgan yurishi (1017) natijasida bu yerdagi olimlarning ko‘pchiligi G‘aznaga majburan olib ketilgan, shahar inqirozga yuz tutgan. Saroyda uyushtirilgan suiqasd natijasida M‘mun ibn Ma‘mun o‘ldirilgan.

MAHMUD ZAMAXSHARIY (nisbasi; to‘liq ismi sharifi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad) (1075-yil 18-mart, Xorazm, Zamaxshar qishlog‘i — 1144-yil hozirgi Ko‘hna Urganch) — tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi. Oilasi islomning mu’tazila ta’limotiga e’tiqod qo‘ygan bo‘lib, Zamaxshariy dunyoqarashi dindor, taqvodor otasining ta’sirida shakllangan, dastlabki bilimni ham o‘z otasidan olgan. Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini, ayniqsa, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, shuningdek, o‘sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san’atini ham mukammal egallaydi. Ustozi — til, lug‘at va adabiyot sohasida mashhur olim *Abu Mudar Isfaxoniy* (1113-yil vafot etgan)dan ilm o‘rganadi. Talabalik yoshiga yetgach, bilimni yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish

maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Bu yerda u shayx ul-islom *Abumansur Nasr Horisiy*, *Abusa’d Shaqqoniy* va *Abulxattob ibn Abulbatr* kabi olimlardan saboq oladi. Bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo‘lib, kotiblik bilan shug‘ullanadi, hukmdorlarga yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib ko‘rmagach, o‘zga yurtlarga safar qiladi. Bilimga intilish uni Marv, Nishopur, Isfaxon, Shom, Bag‘dod, Hijoz va Makkada hayot kechirib, arab tili grammatikasi va lug‘ati, maqolalari, urf-odatlarini chuqur o‘rgandi. Mintaqa geografiyasiga doir ma‘lumotlarni to‘playdi. Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asarlar yaratgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag‘ishlangan *“Al-Mufasssal”*, xorazmshoh Otsizga bag‘shlangan *“Muqaddimat ul-adab”*, *“Tog‘lar, joylar va suvlar haqidagi kitob”* kabi asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. *“Notiqlik asoslari”* va *“Aruzda o‘lchov”* asarlari qimmatli manbalardan hisoblanadi. Zamaxshariyning Qur‘oni Karim tafsiriga oid *“Al-Kashshof”* asari musulmon olamida ayniqsa mashhurdir. Qohiradagi dunyoga dong‘i ketgan Al-Azhar diniy dorilfununining talabalari *“Al-Kashshof”* asosida Qur‘oni Karimni o‘rganadilar. Mahmud Zamaxshariyning keng bilimli, fanning turli sohalariga doir salmoqli va mazmundor asarlari u hayot paytlaridayoq musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan edi. *“Arab va g‘ayri arablar ustoz”*, *“Xorazm faxri”* kabi sharafli nomlar bilan ulug‘langan. U ko‘p asarlarini Makkada yozganligi uchun *“Jorulloh”* (*“Allohning qo‘shnisi”*) degan sharafli laqabga muyassar bo‘ladi. Mahmud Zamaxshariy 1144-yilda 69 yoshida Xorazmda vafot etgan. 1995-yilda O‘zbekistonda 920 yilligi keng nishonlanadi.

MAJIDUDDIN ADNON — tarixchi, *“Tarixi mulki Turkiston”* asari muallifi.

MOTURIDIY, ABUMANSURAL-MOTURIDIY (to‘liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy) (870 — Samarqand — 944) — imom, fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. *“Imom al-xudo”*, *“Imom al-mutakallimin”* (*“Hidoyat yo‘li imomi”*, *“Mutakallimlar imomi”*) nomlari bilan ulug‘langan. Moturid qishlog‘i (hozirgi Jomboy tumani)da tavallud topib, to umrining oxirigacha shu yerda yashagan, bu yerda katta bog‘ ham barpo etgan. Moturidiy Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida o‘qidi, mahalliy hanafiy faqihlardan ta‘lim oldi, *Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy*, *Abu Nasr Ahmad ibn al-Husayn al-Iyodiy*, *Nusayr ibn Muqotil ar-Roziy* unga ustozlik qilishdi. Keyin o‘zi fiqh va kalom ilmlaridan dars berdi. *Abu Ahmad al-Iyodiy*, *Abulhasan Ali ibn Sayyid ar-Rustug‘faniy*, *Abu Bakr as-Samarandiy*, *Makhul an-Nasafiy*, *Abulyusr al-Pazdaviy* kabi shogirdlar yetishtiradi. Vasiyatga ko‘ra, Samarqanddagi Shokardiza Qabristoniga dafn etildi. Moturidiyning asosiy asarlari *“Kitob at-tavhid”* (*“Yakkaxudolik haqidagi kitob”*), *“Ta’vilot ahl-as-sunna”* (*“Sunniylik an‘analari sharhi”*)dir. *“Kitob at-tavhid”* bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotshunosligining birinchi asari hisoblanadi. Moturidiy

sof din doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug‘laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Kitobda o‘sha davrdagi adashgan firqalar qarashlarining haqiqatdan yiroq ekanligi tahlil etilgan. Moturidiy *“din yo‘lidagi barcha adashuvlarning sababi — riyokor kimsalarga ko‘r-ko‘rona ergashishdadir”*, deb ta‘kidlagan edi. Moturidiy ilohiyotchi olim sifatida muhim aqidaviy masalalar — juz‘iy iztiyor, e‘tiqod, oxirat hayoti kabilarni qamrab oluvchi risolalar bitdi. *“Ma‘xaz ash-shari‘a”* (*“Shariat asoslari sarasi”*), *“Kitob al-usul”* (*“Diniy ta‘limot asoslari kitobi”*), *“Kitob al-jadal”* (*“Dialektika haqidagi kitob”*) kabi asarlari shular jumlasidandir. Moturidiy Abu Hanifa qarashlarini tushuntirib berib, uni rivojlantirdi. *Abul Hasan al-Ash‘ariy* (873-935) ishlab chiqqan islom aqidasi asoslarini takomillashtirib, uni sunniylik e‘tiqodiga kirib qolgan noto‘g‘ri, g‘ayri sahih aqidalardan tozaladi. Moturidiy qarashlari o‘z davrida mintaqaning madaniy va ilmiy ravnaqiga sabab bo‘lgan. Chunki Moturidiy din asoslarini mantiqan tushuntirgan, tanlov huquqi, dinlararo bag‘rikenglik, ijtimoiy hamjihatlikni qaror topdirish g‘oyalarini rivojlantirgan. Moturidiy jami 15 ga yaqin asar ta‘lif etgan. Uning kalomga oid 7 ta va huquqqa oid 2 ta asari bo‘lib, ular saqlanib qolmagan. Moturidiyning bizgacha yetib kelgan asarlari qisman tadqiq qilingan. Uning Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan *“Ta’vilot al-Qur‘on”* asari va uning uzviy davomi hisoblanmish *“Irshod al-mubtadiyin fiy tajvidi Kalomi rabbil olamin”* (*“Qur‘on o‘qishga kirishganlar uchun qo‘llanma”*) kitobi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik intetutida saqlanadi. Mamlakatimizda Moturidiy merosini o‘rganishga faqat mustaqillikdan keyingina kirishildi. O‘zR Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta‘limoti va uning islom olamida tutgan mavqega bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi. Moturidiy hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Moturidiy merosini o‘rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. 2001-yilda Gyottingen (GFR) universitetining professori *Ulrix Rudolf* qalamiga mansub *“Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti”* kitobi o‘zbek tilida nashr etildi. 2002-yilda mazkur kitobning keng ommaga, jumladan, oliy o‘quv yurtlarining talabalari va o‘rta maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan nashri amalga oshirildi. Endilikda xalqimiz Moturidiy merosi bilan o‘z ona tilida tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

MUSLIM IBN HAJJOJ, IMOM MUSLIM (817 yoki 821 Nishopur — 875) — muhaddis, imom. Imom Buxoriydan keyingi hadis ilmining bilimdoni. Fiqhdan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Yoshligida ko‘p mamlakatlarga safar qilgan, jumladan, Hijoz, Misr, Suriya, Iroqda bo‘lgan. Ulamolarning qayd etishlaricha, u 300 mingdan ziyod hadisni o‘rganib chiqib, ulardan 12 mingtasini ishonchli (sahih) deb topgan va o‘zining *“as-Sahih”* (*“Sahihi Muslim”*) asariga kiritgan. To‘plam musannaf shaklida tuzilgan. Mazmunan uni *“Sahihi Buxoriy”*ning o‘zginasi

deyish mumkin, lekin u boshqa manbalarga asoslanib yozilgan. Muslim ibn Hajjoj isnodga alohida ahamiyat bergan. Kitob 52 bo'limdan iborat, bo'limlarning har birida o'ziga tegishli hadislar to'plangan. Tarixiy va biografik mazmundagi hadislar bu kitobning boy manba sifatidagi qiymatini oshiradi. "As-Sahih" kitobi shariat bo'yicha qo'llanma vazifasini o'tashi lozimligi nazarda tutilgan. Bu asar ahli sunna nazdida 6 ta mashhur sahih kitobning ikkinchisidir. Muslim ibn Hajjoj bundan tashqari fiqhga oid asarlar va muhaddislarga bag'ishlangan biografik to'plamlar yaratgan, lekin yozganlari saqlanib qolmagan, bizgacha birgina "As-Sahih" asari yetib kelgan.

NARSHAXIY MUHAMMAD, ABU BAKR MUHAMMAD IBN JA'FAR IBN ZAKARIYYA AL-XATTOB IBN SHARIKAN-NARSHAXIY (899-959) — tarixchi olim. Buxoroning Narshax qishlog'ida tug'ilgan. Tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943-944-yillarda "Buxoro tarixi" ("Taxqiqi viloyati Buxoro") nomli asarini arab tilida yozib, uni somoniylar amiri *Nuh ibn Nasr* (hukmronlik davri: 943-954)ga bag'ishlagan. Narshaxiyning o'g'li *Abu Bakr Mansur* va nevarasi hadisshunos olim *Abu Rafi al-Ala ibn Mansur ibn Muhammad ibn Ja'far* asarni arab tilida davom ettirishib, *Mansur ibn Nuh* (hukmronlik davri: 997-999), ya'ni so'nggi somoniylar davrigacha to'ldirishgan. Nasafiyning "Kitob al-alqand" ("Samarqandiya") va *Abu Sa'd as-Sa'money* (1113-1167)ning "Kitob al-ansob" asarlarida Narshaxiy haqida ma'lumotlar mavjud. Narshaxiy o'z tug'ilgan qishlog'ida vafot etgan. Asarning asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. 1128-yil quvalik *Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy* asarni fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan. 1178-1179-yillarda asar ikkinchi marta qisqartirilgan. Tarjimonlar qisqartirish bilan birga uni yangi ma'lumotlar bilan ma'lum ma'noda to'ldirganlar. "Buxoro tarixi" 36 bobdan iborat bo'lib, asosan, Buxoro vohasining tarixiga bag'ishlangan. Kitobning bir necha bobi Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg', Zandana, Vardona, Afshona, Barkat, Romitan, Varaxsha, Baykand (Poykent), Forob va boshqa shahar va qishloqlarning tasviriga bag'ishlangan. Unda bu joylarning tarixi, aholisi va uning mashg'uloti, faoliyati hamda tashqi shaharlar bilan munosabatlari hikoya qilinadi. Buxoro aholisining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan muhim tarixiy voqealar bayon qilinadi. Kitobda O'rta Osiyoda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoro arablar tomonidan taqsimlab olinishi hamda xalifalikka qarshi kurashlar, ayniqsa, *Muqanna*, *Abu Muslim* va boshqalar boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlari batafsil hikoya qilinadi. "Buxoro tarixi"da IX asrda O'rta Osiyoning arab xalifaligidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar davlatining barpo bo'lishi va somoniylar davrida Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti tasvirlangan. Asarda Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid ma'lumotlar bo'lib, unda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi ham ark va shahristonning bino qilinishi hikoya qilinadi. Asar faqat Buxoro tarixinigina emas, balki butun O'rta Osiyo tarixini emas, balki butun O'rta Osiyo tarixini o'rganishda hamda nodir manbadir.

NUH IBN YAZID AL-MARVAZIY ABU ASOMA (?)

— **789/90** — o'rtaosiyolik ilk qomusiy olimlardan biri. Marv shahrining qozikaloni bo'lgan; turli fanlarni puxta egallaganligi tufayli *al-Jome* laqabini olgan. U Marvda 4 ta fan: hadisshunoslik, fiqh, arab tili grammatikasi va she'riyatidan dars bergan. *Sam'oniy*ning yozishicha, u Marvda birinchi bo'lib hanafiya mazhabi bo'yicha to'plam (jome) tuzgan, Marvda hamda Xuroson va Iroqning boshqa shaharlarida ko'plab shogirdlari bo'lgan.

NASAIY, ABU ABDURRAHMON AHMAD IBN ALI IBN SHUAYB IBN ALI IBN SINON IBN BAHR AL-XUROSONIY (827, Naso/Niso sh. — 915) — muhaddis, eng ishonchli 6 ta hadis to'plamidan biri ("Sunani Nisoiy")ning muallifi. 15 yoshida Hijoz, Iroq, Shom, Misr va boshqa mamlakatlarga borib diniy fanlarni puxta o'zlashtiradi. Damashqda ummaviylarga yon bosmagani sababli tazyiq ostida qoladi. Bir rivoyatga ko'ra, Makkada, boshqasiga ko'ra, Baytil-Maqdis (Quddus)da vafot etadi. "As-Sunan al-kubro" ("Katta sunan") to'plami uning shoh asari hisoblanadi. Bundan tashqari, "as-Sunan as-sug'ro" ("Kichkina sunan") yoki "al-Mujtabo" ("Saylanma"), "al-Xasois" ("Xususiyatlar"), "Fazoil as-sahoba" ("Sahobalarning fazilatlarlari"), "al-Manosik" ("Marosimlar") va boshqa kitoblarni ham yozib qoldirgan.

NASAVIY, SHIHOBIDDIN MUHAMMAD AN-NASAVIY (?-1249) — tarixchi, Ashxobod yaqinidagi Xurandiz qal'asi hokimi (1219-21). Nasaviy 1220-24-yill arda mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash olib borgan. 1224-yildan *Jaloliddin Manguberdin*ing shaxsiy kotibi bo'lgan, uning harbiy yurishlarida qatnashgan. 1241-yil arab tilida "Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdin" ("Sulton Jaloliddin Manguberdin hayoti tafsiloti") nomli asar muallifi. Asarda Movarounnahrni bosib olinishi bilan bog'liq voqealar bayon etilgan. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Asar XIII asr oxirlarida fors tiliga tarjima qilinib, Tehronda, uning arabcha nusxasi Parij, Qohirada, ruscha tarjimasi Bokuda va o'zbek tilida Toshkentda (1999) nashr etilgan.

NOSIR XISRAB (to'liq ismi: Abu-Mu'iniddin Nosir Xisrav al-Qubodiyoniy) (1004, Qubodiyon — 1088, Badaxshon) — fors-tojik shoiri, mutafakkiri. Boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida olgan, keyin Marv va Balx madrasalarida tahsilni davom ettirgan. Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Mas'ud saroyida mirzalik qilgan, soliq mahkamasini boshqargan. U 7 yil (1045-52) davomida Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Suriya, Misr, Arabiston, Iroq mamlakatlarini kezib chiqadi. Uning "Safarnoma" asari shu sayohat natijasida yaratilgan. Adolatli hukmdorlar tufayli osoyishta va farovon shaharlarni ko'rgan Nosir Xisrav keyinchalik o'z asarlari orqali odil podshoh g'oyasini ilgari suradi. Misrda 3 yil yashab, fotimiylar tariqatiga kiradi va ismoiliylar maslagini qabul qiladi. Fotimiylar butun dunyoni egallashni maqsad qilib, uni 12 jazira (orol)ga bo'lgan edilar. Nosir Xisrav Xuroson bo'yicha jazira boshlig'i — Hujjat etib tayinlanadi (ba'zi she'rlarida Hujjat taxallusini ham qo'llagan). Keyinchalik, 105-yilda Balxga qaytgan Nosir Xisrav bu yerda ismoiliylik g'oyalarini qizg'in targ'ib-tashviq qila boshlaydi. Bu harakati uchun Nosir Xisrav shialik va kofirlikda ayblanib, o'limga hukm qilinadi.

Shundan soʻng u qolgan 25 yillik umrini Badaxshonda — Hazrati Sayyid qishlogʻidagi Yumgʻon darasida oʻtkazadi. Uning daʼvatlari natijasida bu yerda ismoiliylar jamoasi vujudga keladi. Maqbarasi asrlar davomida ziyoratgohlardan biri boʻlib, mahalliy aholi tomonidan “Mozori Shoh Nosir” deb atalgan. Nosir Xisrav “Safarnoma”, “Zod ul-musofirin”, “Vajhi din”, “Saodatnoma”, “Roʻshnoinoma”, “Xon ul-ixvon”, “Boʻston ul-uqul”, “Dalil ut-mutaxay-yirin”, “Jome” ul-hikmatayn”, “Risola dar javobi 99 savoli falsafi”, “Kushoyish va rahoyish” kabi koʻplab sheʼriy va nasriy asarlar yaratgan. U fors-tojik va arab tillarida ikki devon ham tuzgan, lekin arab tilidagi devonining taqdiri hozirgacha nomaʼlum. Shoirning qasida, gʻazal, qitʼa va ruboiylarini oʻz ichiga olgan, 12 ming misradan iborat forsiy devoni esa Eronda bir necha marta chop etilgan. Dunyoviy ilmlarni chuqur oʻzlashtirgan Nosir Xisrav hur fikrli kishi boʻlgan. Olam va Odam mohiyati toʻgʻrisida aql vositasida falsafiy fikr yuritgan. Dunyoning nomukammalligi, inson tabiatining noqisligi xususida “Xudo bilan munozara” degan sheʼr ham yozgan. Ijodi orqali adolatsiz zamon, johil va manfaatparast kishilarni tanqid qilib, mehnatkash dehqonni, kosibu hunarmandni, ilm sohiblarini ulugʻlagan, insoniy kamolotga daʼvat qilgan. Uning hur fikrlari oʻzidan keyingi ijodkorlar, jumladan, Umar Xayyomga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Nosir Xisrav asarlari dunyoning koʻplab tillariga tarjima qilingan.

QOSHGʻARIY MAHMUD KOSHGʻARIY IBN HUSAYN IBN MUHAMMAD (XI asr) — turkshunoslik ilmining asoschisi, filolog olim, etnograf. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansuboshqa Otasi *Husayn ibn Muhammad* oʻsha davrdagi Barsgʻan shahrining amiri boʻlgan. Koshgʻariy boshlangʻish maʼlumotni oʻz qishlogʻida, yuqori maʼlumotni Koshgʻar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7-8 tilni puxta egallagan. Soʻng u Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur shaharlarida bilimni oshirgan. 1056-1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar natijasida olim oʻz vatanini tark etib, 15 yil davomida atrofda qardosh xalqlar orasida yurishga majbur boʻlgan. Ana shu yillarda u turkiy xalqlar yashaydigan oʻlkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urugʻlar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish oʻrinlari, urf-odatlarini, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab oʻrganadi. Soʻng Bagʻdodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qilgan, xususan, 1072-yil (baʼzi manbalarda-1074-yil va undan ham keyin) dunyoga mashhur asari “*Devonu lugʻotit turk*” (“Turkiy soʻzlar devoni”) ni yozib bitiradi va uni *abbosiy*lardan boʻlgan *Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtado Biamrillohga* bagʻishlaydi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lugʻatlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lugʻat boʻlib, oʻz muallifini dunyoga ulugʻ adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa koʻp fanlardan yaxshi xabardor boʻlgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi. Bu asarida olim turkiy qabila va urugʻlar (xalqlar) tillaridagi soʻzlar maʼnosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltiradi. Bu haqda Koshgʻariyning

oʻzi yozadi: “*Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli soʻzlar, sajʼlar, maqollar, qoʻshiq, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Men isteʼmoldagi soʻzlarnigina berdim, isteʼmoldan chiqqanlarini tashladim... Soʻngra men har bir qabilaga mansub soʻzlarning yasash xususiyatlarini va qanday qoʻllanishini qisqasha izohlab koʻrsatish ushuncha alohida yoʻl tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qoʻllanilib kelgan sheʼrlaridan, shodlik va motam kunlarida qoʻllanadigan hikmatli soʻzlaridan, maqollaridan keltirdim*”. Shuni aytish kerakki, “*Devon*”da berilgan adabiy parchalar, til faktlari faqat XI asrda adabiyotining namunalarini boʻlmay, ularning aksar qismi juda uzoq oʻtmish davrlarning mahsulidir. Shu jihatdan bunday parchalar turkiy tillarning kelib chiqish tarixini, rivojlanishini, adabiy harakatining juda uzoq tarixini belgilashga xizmat qiluvchi eng muhim hujjatdir. Asardagi bir qancha geografik, etnografik maʼlumotlar ham tegishli sohalar nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Mahmud Koshgʻariy mazkur asariga oʻzi tuzgan dunyo xaritasini il ova qiladi. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, togʻ, choʻl, dengiz, koʻl, daryo kabilarning nomlari yozilgan. Xaritada aks etmagan baʼzi bir nomlar lugʻat matnida izohlangan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga toʻgʻri keladi. Bu haqda Mahmud Koshgʻariyning oʻzi: “*Rumdan Moshingasha boʻlgan... shaharlar oʻrnini aniqlash maqsadida ularning hammasini er shaklidagi doirada koʻrsatdim*”, — deb yozadi. Shartli qabul qilingan boʻyoqlar rangi doira tashqarisida toʻrt joyda soʻz bilan izohlangan. Ayrim kamchiliklariga qaramay, Mahmud Koshgʻariy XI asrda tuzilgan xaritasi oʻz davri uchun mukammal, hozirgi davr uchun geografik maʼlumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi. Maʼlumotlarga koʻra, Koshgʻariyning “*Devonu lugʻotit turk*”dan avvalroq yaratilgan, “*Javohirun-nahvi fi lugʻotit turk*” (“Turkiy tillar sintaksisi qoidalari”) deb nomlangan asari ham boʻlgan. Ushbu asar hozircha topilgan yoʻq. Koshgʻariy 1080-yilda (yoki 1118) vataniga qaytib kelib, Oʻraldagi Aziq qishlogʻida, Hazrati Mullom togʻi etagidagi tepalikda joylashgan madrasada dars bergan va ilmiy ijod bilan mashgʻul boʻlgan (hozirgi mazkur madrasaning faqat poydevorlari saqlanib qolgan). Koshgʻariy 1105-yilda (yoki 1126-yilda) 97 yoshida vafot etib, Oʻraldagi uning ajdodlari maqbarasiga dafn etilgan. Maqbara hozirgacha “*Hazrati Mullom mozori*” nomi bilan mashhur.

QAFFOL SHOSHIY (toʻliq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy al-Kabir; 903-976) — shofiylik mazhabining yetakchi olimlaridan biri, muhaddis, faqih, tilshunos, shoir. *Hazrati Imom* (qisqacha — *Hastimom*) nomi bilan mashhur. Manbalarga koʻra, u ogʻirligi 0,5 g keladigan jajji qulf-kalit yasagani uchun “*Qaffol*” (“*Qulfchi*”) laqabi berilgan. Chuqur bilimi, ulkan ishlari evaziga *Imom al-Kabir* (“*Ulugʻ imom*”) deb taʼriflangan. Shosh (Toshkent)da hunarmand oilada tugʻildi. Samarqand, Buxoro, Termiz shaharlarida boʻlib, oʻzidan avval oʻtgan allomalar merosi bilan tanishdi. Taniqli muhaddis va ilohiyotchi *Haysam ibn Kulayb* qoʻlida taʼlim oldi. Arab Sharqi mamlakatlari boʻylab uzoq safarda boʻldi, ancha vaqt Bagʻdodda yashadi. Mashhur imom *Abul Abbos*

Ahmad ibn Umar ibn as-Surayjiy (850-918)ning shogirdi bo'lgan. Xalifalikda turli lavozim, vazifalarni ado etgan. Qaffol Shoshiy Movarounnahrda, xususan, Shoshda shofi'iylik mazhabini targ'ib etib, diniy bilimlarning tarqalishiga, shariat asoslari qaror topishiga hissa qo'shdi. Uning qonunshunoslik, mantiq kabi sohalarga oid "*G'ozining fe'l-atvori*", "*Odob al-bahs*" ("Bahs odobi"), "*Husni jadal*" ("Dialektika go'zalligi") kabi asarlari islom olamida mashhur bo'lgan. Qaffol Shoshiy she'rlar ham yozgan. Ulardan ayrim parchalar olim *Tojiddin as-Subkiyning* "*Tabaqot ash-Shofi'iy*" ("Shofi'iylik mazhabi darajalari") kitobi orqali saqlanib qolgan. Qaffol Shoshiy Toshkentda vafot etgan. Uning qabri ustiga maqbara qurilgan.

ROZIY (to'liq nomi Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy) (865-yil 28-avgust — Ray — 925-yil 26-oktabr) — Sharqning qomusiy olimi, tabib va mutafakkir. O'rta asr Yevropasida lotincha *Razes* nomi bilan tanilib, tabobat sohasida o'z davrining *Jolinus* (Galen) deb sanalgan. *Ibn Sino* yoshligida uning asarlarini puxta o'rgangan. Shuningdek, kimyo, botanika, matematika, astronomiya, mantiq va falsafa kabi fanlarni chuqur o'rgangan; adabiyot va musiqa bilan ham shug'ullangan. Roziy bir qancha vaqt Ray va Bag'dod shifoxonalari boshargan. U O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro ilm ahllari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ko'z kasalligiga uchrab, umrining oxirida ko'r bo'lib qolgan. Roziyning tabobatga oid asarlaridan 36 tasi bizgacha yetib kelgan. U terepiya, xirurgiya, diagnostika, sanitariya-gigiena, farmokagnoziya, farmakologiya, anatomiya, psixologiya kabi ilmlarni yangi g'oya va ixtirolar bilan boyitgan. Roziy mashhur kimyogar bo'lib, kimyo faniga oid 26 ta asar yozgan, biroq bizgacha ularning 4 tasigina yetib kelgan. Bular orasida "*Kitob ul-asror*" ("Sirlar kitobi") va "*Kitob sirr il-asror*" ("Sirlar siri kitobi") asarlari alohida o'rin tutadi; "*Kitob ul-asror*"da o'rta asr Sharq kimyosi o'zining to'la ifodasini topgan. Roziyning asarlari uning nazariy jihatdan bir metallni ikkinchi metallga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishonganini ko'rsatadi. Garchi amaliy jihatdan uning nazariyasi utopik bo'lsa-da, oltin va kumush hosil qilish yo'lidagi urinishlari tufayli Roziy hozirgi kimyoni bir qancha yangi moddalar, asboblari va kimyoviy amallar bilan boyitdi. Roziyning tibbiyot va kimyo sohasiga oid asarlari o'rta asrlarda Sharq va G'arbda shu sohalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Roziy o'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari falsafasida mavjud bo'lgan ta'limotlarning birortasiga bog'liq bo'lmagan holda borliq va uning mohiyati haqida o'z mustaqil ta'limotini yaratdi. O'rta asr falsafasi uchun erishgan eng katta yutuqlaridan biri — Roziyning narsalar moddiy atom zarralardan tuzilgani haqidagi ta'limotidir. U *Demokrit* va *Epikur* atomistik ta'limotini o'rta asrlarda birinchi marta qayta tikladi. Roziy *Suqrot*ni axloq sohasida o'zining va barcha faylasuflarning ustozlari deb hisoblaydi. O'rta asr manbalarida Roziy dinning ayrim aqida va tamoyillariga salbiy munosabatda bo'lgani hamda payg'ambarlik haqida aqidaga zid bo'lgan asar yozgani ta'kidlanadi. Lekin, uning tabiiy-ilmiy merosi va falsafiy qarashlari Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ma'naviy merosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Roziyning ilmiy

merosini birinchi marta o'rgangan olim *Abu Rayhon Beruniy*dir. *Beruniy* Roziyning tarjimai holi, dunyoqarashi va asarlarini tadqiq etib, "*Fehrist kutub Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy*" ("Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy kitoblarining ro'yxati") asarini yozgan. Roziyning asosiy asarlari o'rta asrlardayoq G'arbiy Yevropada mashhur bo'lgan, ba'zilar lotin va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinib, keng o'rganilgan. Keyingi davr olimlarining, jumladan, o'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida Roziy asarlarining ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan qo'lyozma nusxalari va ularning tarjimalari aniqlanmoqda, ayrim asarlari nashr etilmoqda.

RUDAKIY ABU ABDULLO JA'FAR (858-yil, hozirgi Tojikiston Respublikasi Panjrudak qishlog'i — 941-yil) — fors-tojik shoiri. Fors-tojik she'riyati asoschilaridan biri. Yoshligidan she'riyat va musiqaga ixlos qo'ygan, adabiyotni, arab tilini o'rgangan. Zamonasining mashhur cholg'uchisi *Abul Abbos Bahtiyordan* musiqa bo'yicha ta'lim olgan; barbat, chang, ud, rud, kabi cholg'u asboblari chalishni o'rgangan. Rudakiyning she'riyat va musiqadagi mahoratini eshitgan Buxoro hokimi *Nasr ibn Ahmad Somoniy* uni saroyga taklif etgan. Rudakiy Buxoroda vazir *Abul Fazl Bal'amiy* homiyligida ijod qilib, san'atda katta obro' qozongan. Rudakiy 40 yil saroyda shoirlarga boshchilik qilgan. Uning tug'ma ko'r bo'lganligi haqida naqlar bor. Aslida saroydagi ig'vo va fitnalari tufayli dushmanlari Rudakiyning ko'zlariga mil tortib ko'r qilgan, mol-mulkini talab, o'zini Buxorodan badarg'a qilishga erishganlar. Qarigan chog'ida Rudakiy o'z qishlog'iga qaytib, faqirlikda umr kechirgan. Manbalarida Rudakiy she'riyati 100 000 baytdan iboratligi qayd etilgan. Lekin bizga qadar uning 1000 bayt asari (2 qasida, 50 ruboiy, she'r va dostonlari) yetib kelgan. Rudakiy Movarounnahrda o'z she'rlaridan devon tuzgan ilk shoir hisoblanadi. "*Bo'i jo'i Mo'liyan oyad hame'*" ("Mo'liyon arig'ining isi kelmoqdadir") misrasi bilan boshlanadigan g'azali unga favqulodda shuhrat keltirgan. Unga 120 shoir tazmin bitgan, lekin birortasi Rudakiy darajasiga ko'tarila olmagan. Rudakiy va uning izdoshlari fors she'riyatida bir necha asr hukmronlik qilgan Xuroson (yoki Turkiston) uslubiga asos solib, uni rivojlantirganlar. Rudakiy aruzni chuqur o'rganib, uni xalq orasida keng tarqalgan qo'shiqlarga tatbiq qilish natijasida 9 ta yangi vaznlari kashf etgan. Ularning ko'pchiligi xalq qo'shiqlarining barmoq vaznlari asosida tuzilgan. Rudakiy ruboiylari janrning barcha talablariga javob beradigan dastlabki ruboiylardandir. Dunyoning tuzilishi, hayot hodisalari, inson fe'l-atvori, xatti-harakatlari haqida falsafiy xulosalar chiqarish, pand-nasihati shoir she'riyatining yetakchi xususiyati hisoblanadi. Rudakiy ishqu muhabbatni ham baland pardalarda kuylagan, dunyoviy sevgini ulug'lagan. U peyzaj lirikasining ham ustalaridan. Dunyo, zamon, inson mavzusi, turli illatlardan shikoyat motivlari ham Rudakiy ijodida, xususan, umrining oxirida yaratgan she'rlarida ko'p uchraydi. She'rlari *Munirxon Muinxoda* (1957) va *Sh. Shomammedov* (1988, 1994) tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Shoir haqida "*Rudakiy*" dramasi va "*Shoirning qismati*" kinofilmi yaratilgan. Rudakiy nomida Tojikiston Davlat mukofoti ta'asis etilgan.

SAMOSIY, XOJA MUHAMMAD BOBOYI



SAMOSIY (XIII-asr — 1354) — xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi, buxorolik 7 pirning beshinchisi. Xoja Ali Romitanii tahsil olib, uning vafotidan soʻng xojagonlik tariqatini boshqargan. *Bahouddin Naqshband* tugʻilganda uni maʼnaviy farzandlikka qabul qilib, *Sayyid Mir Kulolga Bahouddin* tarbiyasi bilan shugʻullanishni topshirgan. Samosiy bogʻbonlik bilan kun kechirgan. Samosiy kulohini *Bahouddinga* hadya etib, unga murshidlik qilgan. *Bahouddin Naqshband* ana shu kuloh sharofatidan balogardonlik karomatiga ega boʻlgan, deydilar. Samosiy tugʻilgan qishlogʻida dafn qilingan. Qabri ustidagi maqbara, atrofdagi masjid va toshquduq mustaqillik yillarida taʼmirlangan.

SHAMSULMULK, MALIK SHAMSULMULK (Nasr) ibn Ibrohim Tamgʻachxon (XI asrning birinchi choragi — 1080, Buxoro) — Qoraxoniylar hukmdori (1068-80-yillar). Gʻarbiy qoraxoniylar xoqonligi asoschisi *Ibrohim ibn Nasrning* oʻgʻli. Saljuqiylar sultoni *Alp Arslonning* bevaqt oʻlimidan keyin Shamsulmulk Termiz va Balxni qisqa muddat ishgʻol qilib turgan. Biroq tez orada Alp Arslonning vorisi *Malikshoh* bu shaharlarni oʻz davlatiga qayta qoʻshib olgan. Boshqa tarafdin *Qodir Yusuf Tamgʻachxon* va uning oʻgʻillari Shamsulmulkka qarshi kurash olib borib, undan Sirdaryoning shimoli va Fargʻona vodiysini tortib olganlar. Shamsulmulk Movarounnahr, xususan, Buxoroda katta qurilishlar olib borgan. “*Buxoro tarixi*” asarida keltirilishicha, Buxoro shahri va uning atroflarida qurilgan koʻplab meʼmoriy obidalar Shamsulmulk nomi bilan bogʻliqdir. U Buxorodagi Jome masjidini taʼmirlab, qayta qurgan (1069). Karmana yaqinidagi Choʻli Malikda hashamatli karvonsaroy va rabot va Hazora qishlogʻida Deggaroniy masjidini ham Shamsulmulk qurdigan.

SAYFIDDIN BOHARZIY (1190-yil 8-sentyabr, Xurosonning Boharz qishlogʻi — 1261-yil 20-oktyabr, Buxoro) — kubroviylik tariqatining yirik namoyandasi, mutasavvif va shayx. Hirot va Nishopur madrasalarida tahsil olgan. Makka va Madinaga safar qilgan. Keyinchalik Xorazm va Buxoroda muqim yashagan. Koʻhna Urganchda *Najmiddin Kubrodan* tasavvuf taʼlimotini oʻrgangan va uning xalifasi sifatida keyinchalik kubroviylik tariqatini rivojlantirgan. Sayfiddin Boharziydan kubroviylikning hind shoxobchasi — firdavsiya boshlanadi. *Jomiyning* yozishicha, Sayfiddin Boharziy *Kubro* tomonidan Buxoroga yuborilgan va u bu yerda 40 yildan ortiq yashagan. U moʻgʻullar bosqiniga qattiq qarshilik koʻrsatgan. Sayfiddin Boharziyning xalq oʻrtasidagi kuchli nufuzidan choʻchigan moʻgʻul hukmdorlari u bilan hisoblashishga majbur boʻlishgan. “*Tarixi Banokatii*” (XV asr) asarida keltirilishicha, moʻgʻul xoqonlari *Munkaxon* (1251-60), *Hulaguxon* (1256-65), *Xubilayxon* (1260-94)larning onasi — *Suyurkoʻktani beka* (Tuluyning bevasi) Buxoroda Xoniya madrasasi va xonaqoh qurdirib, unga juda koʻp qishloqlarni vaqf qilgan hamda shayx Sayfiddin Boharziyni mudarris va mutavalli qilib tayinlagan. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotda shayxning oʻrni katta boʻlgan. Oltin Oʻrda xoni *Berkaxon* ham unga eʼtiqod qilib Buxoroga kelgan va pirga murid tushib, islom dinini qabul qilgan (XIII asrning 50-yillari). *Berkaxon* musulmon boʻlgach, oʻziga *Barakaxon* nomini olgan va Shimoliy Kavkazdan to

Sibirgacha choʻzilgan ulkan davlati hududida islom dinini joriy qilib, masjid va madrasalar qurdigan. Bu voqeadan soʻng Sayfiddin Boharziyga *Shayx ul-olam* (Olam shayxi) unvoni, Buxoro shahriga esa, *Buxoroi sharif* maqomi berilgan. Sayfiddin Boharziy arab va fors tillarida “*Sharh al-asmo al-husno*” (“Allohnin goʻzal ismlari sharhi”), “*Risola dar ishq*” (“Ishq haqida risola”), “*Voqaei xilvat*” (“Xilvatdagi voqea”), “*Ruboiyot*”, “*Roʻznoma*”, “*Vasiyatnoma*” va boshqa asarlar hamda toʻrtliklar yozgan. Sayfiddin Boharziy Fathobod mavzeida (Qarshi darvozasi roʻparasida) dafn etilgan. Qabri ustiga maqbara qurilgan.

SAOLIBIY, ABU MANSUR ABDULMALIK IBN MUHAMMAD IBN ISMOIL AS-SAOLIBIY (961 — Nishopur — 1038) — yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi olim. Arabiston, Iroq, Ispaniya, Xuroson va Movarounnahr boʻylab sayohat qilgan. 992-yilda Buxoroga, soʻng Xorazmga kelgan. Xorazmshoh *Abul Abbos Maʼmun* (hukmronlik davri: 1009-1017) saroyida xizmat qilgan, unga atab asarlar yozgan. Saolibiyning “*Yatimat ud-dahr fi mahosin ahl al-asr*” (“*Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi*”) tazkisasi mashhur boʻlib, u oʻsha davr Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va arab adabiyoti haqidagi noyob manbadir. Asarning ilk nusxasi 994-1000-yillarda yozilgan boʻlib, muallif 1011-1017-yillarda uni qayta ishlab toʻldirgan va xorazmshoh *Abul Abbos Maʼmunga* taqdim etgan. Tazkira muqaddima va 4 qism (40 bob)dan iborat boʻlib, unda X asr hamda XI asr boshlarida arab tilida ijod qilgan movarounnahrlik va bir qancha xurosonlik shoirlar hayoti hamda ijodi yoritilgan. “*Tatimmat al-Yatima*” (“*Yagona durdonaga qoʻshimcha*”, 1032-1038) asarida esa “*Yatimat ud-dahr*”ga kirmay qolgan yoki keyinchalik tanilgan yana 209 shoir (ulardan 104 nafari Movarounnahr va Xurosondan) haqida maʼlumot berilgan. Saolibiyning “*Kitob latoif al-maorif*” (“*Ajoyib maʼlumotlar haqida kitob*”) asari buvayhiylar sulolasi vaziri *as-Sohib* (995-yil vafot etgan)ga bagʻishlangan. Saolibiy islomgacha va islom davrida oʻtgan koʻplab shoirlar, mashhur kishilar, xalifalar, lashkarboshilar va ularning taxalluslari toʻgʻrisida nodir maʼlumotlar keltirgan. Asarda muhim tarixiy-etnografik maʼlumotlar, Saolibiy va unga zamondosh arabiynavis shoirlarning sheʼrlaridan parchalar mavjud. “*Gʻurar axbor muluk al-furs va siyarihim*” (“*Eron podshohlari haqidagi xabar va hikoyalar sarasi*”) nomli tarixiy asar, “*Shohnoma*” va bir sheʼriy devon ham yaratgan. “*At-Tamassul val-muxozarat*” va “*Mubhiy*” asarlarini *Qobus ibn Vushmgir* (hukmronlik davri: 978-1012)ga bagʻishlagan. Saolibiyning koʻplab asarlari *Ismatulla Abdullayev* tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

TERMIZIY ABU ISO, IMOM TERMIZIY (toʻliq nomi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sullamiy Bugʻiy Termiziy) (824-yil, Termiz — 892-yil, Bugʻ qishlogʻi hozirgi Sherobod tumani) — buyuk muhaddis. *Sullamiy* deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan oʻsha vaqtdagi *Bugʻ* nomli qishloqda vafot etib, shu yerga dafn qilingan. Umrining oxirida koʻzi ojiz boʻlib qolgani uchun *ad-Darir* taxallusi bilan ham atalgan. Termiziyning yoshlik yillari Termiz shahrida oʻtgan,

dastlabki ma'lumotni ham shu yerda olgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobilyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o'rgangan, bu boradagi bilimlarini yanada oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlariga borgan. Uzoq yillar Iroq, Isfaxon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog'ida qiroat ilmi, bayon, fiqh, tarix, ayniqsa o'zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo'yicha o'sha davrning yirik olimlaridan ta'lim oladi. Mashhur muhaddislardan *Imom Buxoriy*, *Imom Muslim*, *Imom Abu Dovud*, *Qutayba ibn Said*, *Ishoq ibn Muso*, *Mahmud ibn G'aylon* va boshqalar uning ustozlari edi. Termiziy *Imom Buxoriy* bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashashgan) hadisning matnigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e'tirof etadi. O'z navbatida *Imom Buxoriy* o'z shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "*Sen mendan bahra topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim*", degan. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho edi. Termiziy yo'lda safarda bo'lganda ham, yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarini yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868-yil xorij safaridan o'z yurtiga qaytgan Temiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o'z obro'siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo mol-matosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g'amini yeyish Termiziyning hayoti tarzi edi. Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Ular ichida *Makhul ibn al-Fadl*, *Muhammad ibn Mahmud Anbar*, *Hamod ibn Shokir*, *Abd ibn Muhammad Nasafiy*, *Haysam ibn Kulayb Shoshiy*, *Ahmad ibn Yusuf Nasafiy* va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "*Al-Jomi as-sahih*" ("Ishonarli to'plam"), "*ash-Shamoil an-nabaviya*" yoki "*Ash-Shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam*" ("Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatleri"), "*al-Ilal filhadis*" ("Hadislardagi illatlar"), "*Risola fil-xilof val-jadal*" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "*at-Ta'rix*" ("Tarix"), "*Kitobuz-zuhd*" ("Zohidlik kitobi"), "*Kitob ul-asmo val-kuno*" ("Ismlar va kunyalar kitobi") va boshqa Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz "*al-Jomi as-sahih*" bo'lib, 6 ta ishonchli hadislar to'plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda "*Jomi at-Termiziy*", "*Sahihi Termiziy*", "*Sunani Termiziy*" nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri "*ash-Shamoil an-nabaviya*" Muhammad (sav)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatleri, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Bu kitob azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi g'oyatda oddiy. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. "*Ash-Shamoil an-nabaviya*" ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar payg'ambarning suvrat (tashqi qiyofasi)ga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosi-yu, axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag'ishlagan. Kitobning XVI asrga oid bir

qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kurubxonasida saqlanadi. "*Ash-Shamoil an-nabaviya*" o'zbek tiliga o'g'irilib so'nggi yillarda Toshkentda bir necha bor nashr etildi. 1990-yilligi yurtimizda Termiziyning tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

TABARIY, ABU JA'FAR MUHAMMAD IBN JARIR AT-TABARIY (839, Tabaristonning Amul shahri — 923-yil 16-fevral, Bag'dod] — tarixchi, faqih va filolog. Mahalliy zodagon oilasida tug'ilgan. Amul shahrida dastlabki ta'limni olgan. Rayda mashhur muhaddis va faqihlar qo'lida o'z bilimni oshirgan. So'ngra Bag'dod, Basra, Kufaga borib, zamonasining mashhur ulamolariga shogird tushgan. 867-yil Misrga borganida yetuk olim sifatida e'tirof etilgan. U Bag'dodga qaytgach, "al-Jaririyya" deb atalgan o'zining fiqh maktabiga asos solgan. Uning tarafdorlari *Ibn Hanbal* qarashlarini tanqid qilishgan. *Ahmad bin Komil Abu Bakr*, *Abdul-aziz bin Muhammad at-Tabariy*, *Abdulloh bin Ahmad al-Farg'oniy* uning yetuk shogirdlari edi. Tabariy fiqh va tarix ilmlarini mukammal egallab, bu ilmlar va Qur'on, hadislar bo'yicha arab tilida 20 dan ortiq asarlar yozgan. "Kitob ixtilof al-fuqaho" ("Faqihlarning ixtiloflari haqida kitob") asari turli maktablarga mansub faqihlar dunyoqarashining tahliliga bag'ishlangan. Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan "Tafsir al-Qur'on" asari uni musulmon olamiga tanitgan. "*Tarix ar-rusul va-l-muluk*" ("*Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi*"), "*Tarixi Tabariy*" nomi bilan mashhur) asarida qadimiy Eron podshohlari, Rim va Vizantiya imperatorlari, xalifalik hududidagi yurtlar (xususan, Xuroson va Movarounnahr)ning 915-yilgacha bo'lgan tarixi o'z ifodasini topgan. Asarda Turkiston xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi kurashi va qo'zg'olonlar (Buxoro, Vardona, Samarqand va Farg'onadagi janglar; *Abu Muslim harakati*, *Muqanna qo'zg'oloni*, *Rofe ibn Lays qo'zg'oloni*) ham ko'rsatilgan. "*Tarixi Tabariy*" asari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Uning arab tilidagi mavjud matni M. Ya. de Gue (1836-1909) tarafidan Leydenda 15 jild qilib nashr etilgan (1879-1901). Bu asarni *Bal'amiy* qayta ishlab va yangi ma'lumotlar bilan boyitib, fors tiliga tarjima qilgan. *Bal'amiy* asari ("Tabariy — *Bal'amiy tarixi*") nomi bilan ham mashhur)ni Tabariy Zotenberg fransuz tiliga (1874), Muhammad Yusuf *Bayoniy* o'zbek tiliga (1882) tarjima qilishgan. «*Tarixi Tabariy*» V.I. Belyaev tomonidan arabchadan rus tiliga qisqartirilgan holda tarjima qilingan va Toshkentda nashr etilgan (1987). O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondlarida bu asarning Muhammad Sodiq Koshg'ariy (XVIII asr) tomonidan uyg'ur, Bayoniy (XIX asr) tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasi saqlanadi.

UMAR XAYYOM (taxallusi; asl ism-sharifi G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy) (1048-yil 18-may — Nishopur — 1131-yil 4-dekabr) — matematik, astronom, faylasuf, hakim va mutafakkir shoir. Nishopurda boshlang'ich ma'lumotni olgach, Balx, Buxoro va Samarqandda tahsil ko'rgan. *Malikshoh* va *Nizomulmulk* (1019-92) da'vati bilan 1074-yilda Isfahonda rasadxona qurdirgan va unga rahbarlik

qilgan. Yulduzlar jadvali, 1079-yilda yangi isloh qilingan taqvim tuzgan. Bu taqvim Yevropada undan 500 yil keyin joriy qilingan Grigoriy kalendaridan ham aniqroq bo'lgan. Umar Xayyom ilmda ham, ijodda ham o'zini shayx ur-ra'is *Abu Ali ibn Sinoning* hassos va sadoqatli shogirdi hisoblagan. *Ibn Sino* asarlarini tushunmagan kishilar ularni izohlash va sharhlashni undan so'raganlar. U ustozining bir qator asarlarini arabchadan forschaga tarjima qilib, sharhlab bergan, uning g'oya va qarashlarini davom ettirgan hamda targ'ib qilgan. “*Risolat ul-kavn vat-taklif*” (“Koinot va uning vazifalari haqida risola”), “*Risola fi-l-vujud*” (“Borliq haqida risola”), “*Risola fi kulliyoti vujud*” (“Borliqning umumiyliigi haqida risola”) kabi falsafiy asarlarida *Ibn Sinoning* vorisi va izdoshi sifatida namoyon bo'lgan. 1077-yilda u yunon olimi *Evklid* kitobidagi bir necha geometrik shakllarni sharhlab yozgan “*Risola fi sharhi mo ashkala min musodarot kitob ul-Iqlidis*” (“Evklid kitobi muqaddimalaridagi mushkulotlar sharhi haqida risola) asarida butun sonlarning ildizini topish yo'llarini ko'rsatib bergan. “*Risola fi-l-barohiyn ala masoyil al-jabr va-l-muqobala*” (“Algebra va muqobala isbotlari haqida risola”), “*Mushkulot ul-hisob*” (“Arifmetika mushkulotlari”) asarlarida u yunon olimlarining aniq fanlarga oid fikrlarini arab tilida keng sharhlash bilan birga, ularning qarashlarini rivojlantirgan, matematik, fizik tenglamalarning modellarini topgan. XII asr fors nasrining nodir namunasi hisoblangan “*Navro'znom*” asarida Navro'zning kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog'liq an'ana va marosimlari keng yoritilgan, ko'plab hikoyat va rivoyatlar keltirilgan. Umar Xayyomga uning ruboiylari jahonshumul shuhrat keltirgan. Ularda shoir dunyo, odam haqida, hayot mazmuni haqida fikr yuritadi. Ruboiylarida ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma'nosi, insoniy fazilat va qusurlar, ma'rifat va jaholat kabi mavzular tashkil etadi. Tez-tez uchrab turadigan may obrazi esa ilohiy muhabbat, hayot lazozatlarini ulug'lash vositasidir. *Firdavsiy* masnaviyni, *Hofiz* g'azalni qanchalik takomilga yetkazgan bo'lsalar, Umar Xayyom ham ruboiyni shunchalik yuksak mavqega ko'tardi. Umar Xayyom ruboiylari dunyoning deyarli barcha asosiy tillariga tarjima qilingan. Bu ruboiylar o'zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. XIX asrdan G'arbda ham mashhur bo'lgan. Aynan u tufayli ruboiy jahon so'z san'atining mashhur janrlaridan biriga aylangan. U o'zining falsafiy jihatdan teran va sarmazmun ruboiylari bilan Sharq she'riyatida falsafiylikning chuqurlashuviga katta hissa qo'shgan. Amerikada Umar Xayyom asarlari asosida teatrlashtirilgan sahna asari, Londonda maxsus xayyomxonlar saroyi mavjud. Ularda shoir ruboiylari ham aslida, ham tarjimada badiiy so'z ustalari, mohir notiqlar tomonidan o'qiladi.

UTBIY, ABU MUHAMMAD IBN ABDULJABBOR AL-UTBIY (961, Ray — taxm. 1036, G'azna) — tarixchi olim. Badavlat va nufuzli zodagon oilasida tug'ilgan. Yoshligidan Xurosonda yashagan. Somoniylarning Xurosondagi noibi *Abu Ali Simjuriy*, so'ngra Xurosonda surgunlikda yashagan *ziyoriylar* hukmdori *Qobus ibn Vushmagirning* shaxsiy kotibi (sarkotibi), G'aznaviylar

(*Sabuktegin, Mahmud G'aznaviy, Mas'ud G'aznaviy*) saroyida yirik amaldor. Utbiy sulton *Mahmud G'aznaviyning* elchisi sifatida Garchiston viloyatiga borgan (999) va Bodhizning sharqiy qismidagi Ganj rustak viloyatida sohib barid bo'lib turgan. *Saolibiyning* yozishicha, Utbiy arab tilida “*Tarixi Yaminiy*” (“Yaminiy tarixi”), “*Latoif al-kuttob*” (“Kotiblarning latif so'zlari”) va boshqa tarixiy asarlar yozib qoldirgan. “*Tarixi Yaminiy*” asari *Sabuktegin* va *Mahmud G'aznaviy* davrida G'aznaviylar davlati tarkibiga kirgan Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan. Mazkur asar “*Yamin ud-davla*” (“Davlatning o'ng qo'li”) unvoniga sazovor bo'lgan sulton *Mahmud G'aznaviyga* bag'ishlanganligi uchun ham “*Tarixi Yaminiy*” deb atalgan. Asarda qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi (922-996) haqida nodir ma'lumotlar mavjud. Bu asar o'rta asrlar tarixshunosligiga xos og'ir uslub — saj' bilan yozilgan. “*Tarixi Yaminiy*”ning arabcha matni Dehli (1847), Buloq (1874) va Lohur (1883) da chop etilgan. Bu asarning forschalar tarjimasi Tehronda 3 marta nashr etilgan (1856, 1955, 1966). Inglizcha tarjimasi ham bosilgan (London, 1858). Undan ayrim parchalar fransuz, nemis, rus, o'zbek tillarida nashr qilingan.

VATVOT, RASHIDIDDIN, RASHID TAXALLUS-LARI (Vatvot — ko'rshapalak, uchar sichqon, adibning jussasi kichikligiga ishora); asl ismi Muhammad bin Abduljalol al-Umariy (1087, Balx — 1177/1183, Xorazm) — shoir, adabiyotshunos olim. Balxning “*Nizomiya*” madrasasida ta'lim olgan, falsafa, adab haqidagi ilmlarni chuqur o'rgangan. Keyinchalik Xorazmga kelib, Xorazmshoh *Otsiz* (1127-56) saroyida ijod qilgan. “*Sa'd-al-mulk*” (“*Mamlakat baxti*”) faxriy unvoniga sazovor bo'lgan. Fors va arab tillarida yozgan. G'azal, ruboiy, qit'alarida adolat, odamiylik, insoniy muhabbatni ulug'lagan. Qasidalari xorazmshohlarga bag'ishlangan. She'riyat nazariyasiga oid “Hadoiq as-sehr fi daqoyiq ash-she'r” (“She'riy nozikliklardan sehr bog'lari”) asari 1156-yilgacha Xorazmda yozilgan. Asar keyingi davr shoir va adabiyot olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Adabiyotshunos Sharafiddin Romiy (XIV asr) bu asarga “Hadoiq al-haqoyiq” (“Haqiqat bog'lari”) nomli sharh yozgan. Shams Qays Roziy, Ataulloh Husayniy she'riy san'atlar haqidagi asarlarida unga murojaat qilganlar. Bobur ham “Muxtasar” risolasida Vatvotni tilga olgan.

XORAZMIY, ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN AHMAD IBN YUSUF AL-XORAZMIY (X asr) — Urganchda xorazmshohlar saroyida faoliyat olib borgan zamonasining yirik tarixchi, mutafakkirlaridan. Balxda tug'ilgan, somoniylar amiri *Nuh ibn Mansur* saroyida xizmat qilgan. Somoniylar vaziri *Utbiyga* atab qomusiy asar “*Mafotih al-ulum*” (“Ilmlar kaliti”) nomli asar yozgan. Asarda arab tilida ko'p ishlatiladigan atamalarning izohlari berilgan. Atamalar fanlar bo'yicha alohida-alohida bo'lim (15 bo'lim) qilib berilgan. Ayniqsa, ma'muriy masalalarga (ish yuritish, soliqlar tartibi masalalari, suvdan foydalanish, shuningdek, ob-havo) oid bo'limlari muhim ahamiyatga ega.

XORAZMIY, ABU JA'FAR (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-yil, Xiva — 850-yil, Bag'dod)

— oʻrta osiyolik buyuk matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Dastlabki maʼlumotni Xiva shahrida olgan yetuk olim boʻlib shakllangan. Bunda arab istilosidan soʻng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani anʼanalari asosiy rol oʻynagan. *Xalifa Horun ar-Rashidning* oʻgʻli va uning Xurosondagi voliyasi *al-Maʼmun* huzuriga — Marvga taklif etilgan. 819-yilda Bagʻdodni egallagan *al-Maʼmun* turkistonlik olimlardan Xorazmiy, *Ahmad al-Fargʻoniy*, habash *al-Hosib Marvaziy*, *Abul Abbos Javhariy* va boshqalarni oʻzi bilan olib ketib, oʻziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa “*Bayt ul-hikmat*” (“Donishmandlik uyi”)ning oʻzagini tashkil etgan. Xorazmiy *xalifa Maʼmun* zamonida “*Bayt ul-hikmat*”da mudir sifatida faoliyat koʻrsatadi. U shu davrdan boshlab Bagʻdodda *al-Maʼmun* (813-833), soʻng *al-Moʻtasim* (833-842), *al-Vosiq* (842-847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan. Bogʻdodda u Suriya, Iroq, Eron, Xuroson va Movarounnahr olimlari bilan ijod qiladi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasing uzunligi va radiusini hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashgʻul boʻldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qoʻshdi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat bizgacha 10 tasigina yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari: “*Al-jabr val-muqobala*”, “*Hind hisobi haqida*”; geografiyaga oid kitoblari “*Kitob surat ul-arz*” (“Yer surati”); astronomiyaga oid asarlari “*Zij*” va “*Usturlub bilan ishlash haqida kitob*”; tarixga oid asarlari “*Kitob at-tarix*”, “*Yahudiylarning taqvimini va bayramlarini aniqlash haqida risola*” nomlari bilan atalgan. Amerikalik fan tarixchisi *Jorj Sarton* Xorazmiyni “*Oʻz zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar eʼtiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri*”, deb baholagan. Bunday baho Xorazmiyning matematika tarixida tutgan beqiyos oʻrni tufaylidir. Xorazmiy Bagʻdodda yunon fanining yutuqlarini oʻrganadi, hind va eron manbalari, hatto bevosita Bobildan qolgan ayrim faktlar hamda xitoy manbalari bilan ham tanishdi, ularni oʻzining muhim kashfiyotlari bilan boyitdi va fan tarixida abadiy iz qoldirgan fundamental asarlar yaratadi. Shuning uchun Xorazmiy oʻzigacha mavjud boʻlgan sivilizatsiya merosini sintez qilib, boyitib jahonga yoygan fan dahosi hisoblanadi. Xorazmiy algebra faniga asos solgani, bu fan atamasi uning “*Kitob muxtasar min hisob al-jabr val-muqobala*” (“Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) asari nomidan kelib chiqqani yaxshi maʼlum. Xorazmiy asari XII asrning boshlarida kremonalik *Gerardo*, Chesterlik *Robert* tomonidan lotinchaga tarjima qilingan, nomi qisqarib “*algebra*” (fransuz, ingliz tillarida), “*algebra*” (nemis, rus tillarida) deb atala boshlagan va fan nomiga aylanib ketgan. Xorazmiyning “*Aljabr*” asari asrlar davomida avlodlar qoʻlida yer oʻlchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va oʻlchov ishlarida dasturulamal boʻlib xizmat qildi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarini qayta—qayta ishlab, u asosda darsliklar yozadilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan oʻnlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropada, qolaversa, butun

dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Aljabrni mustaqil fan darajasiga koʻtardi. Vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos solib, tarixda oʻzidan oʻchmas iz qoldirdi.

YUSUF XOS HOJIB (taxminan 1019/1021 ?-yillar)

— turkigoʻy adib, olim va mutafakkir. “*Qutadgʻu bilig*” falsafiy-didaktik dostonining muallifi. Asl ismi Yusuf. Dostoni uchun qoraxoniylar hukmdorlaridan boʻlgan *Tamgʻochxon* (Tavgʻoch Ulugʻ Bugʻro Qoraxon abo Ali Xasan binni Arslonxon)dan Xos Hojib (eshik ogʻasi) martabasini olgan va Yusuf Xos Xojib nomi bilan shuhrat qozongan. Uning hayoti va faoliyati haqida maʼlumot beruvchi yagona manba “*Qutadgʻu bilig*” kitobidir. Shunga qaraganda adib Bolosogʻunda tugʻilgan, zamonasining ilm-fanini atroflicha oʻrgangan va oʻz asarini 1069-1070-yillarda yozgan. Muallif asarda oʻrta asr hukmdorlarining asriy orzusi — markazlashgan, mutlaq hokimga tobe davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adovatlariga barham berish kabi maʼmuriy-xoʻjalik hamda maʼrifat, obodonchilik, moddiy-maʼnaviy va boshqa masalalarga asosiy diqqatini qaratadi. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi oʻrni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. “*Qutudgʻu bilig*”da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va savdogarlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qoʻyadi. “*Qutadgʻu bilig*”da axloq, odob, sadoqat va va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli soʻzlar yuritadi. U ilm va maʼrifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham oʻz dostonini “*Qutadgʻu bilig*” deb ataydi. Unda ilm va maʼrifatni targʻib qiladi, olimlarni ulugʻlaydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan taʼlim olishga va ularning maslahatlari bilan ish koʻrishga daʼvat qiladi.

ZANGIOTA (asl ismi Oyxoʻja ibn Toshxoʻja) (?-1258)

— avliyo, tasavvufning taniqli vakili. *Arslonbobning* avlodi (avarasi). Toshkent shahrini Samarqand darvoza koʻchasidagi *Zangiota* taxallusida tugʻilib oʻsgan degan taxmin bor. Arab naslida, qora tanli boʻlgani uchun zangi (zangi), hurmat yuzasidan va oliy himmatligi uchun *Zangibobo Himmatli* deb atashgan. Zangiota yoshligida otasidan taʼlim oldi. Otasi vafotidan keyin *Ahmad Yassaviyning* xalifalisi va shogirdi boʻlmish *Hakim ota* (Sulaymon Boqirgʻoniy) huzuriga bordi. Bir necha yil uning mulozamatida boʻlib, undan yassaviylik tariqati sir-asrorlari, odobini oʻrgandi va bu tariqatning yetuk namoyondasi boʻlib yetishdi. Soʻng oʻz vatani — Shosh viloyatiga qaytib kelib, aholini ilohiy-ahloqiy, tasavvufiy yoʻl-yoʻriqlar bilan tarbiyalashga kirishdi, koʻplab mutasavviflar tayyorladi. Zangiotaning butun hayoti Movarounnahr xalqlarining ogʻir va dahshatli davriga toʻgʻri keldi. Moʻgʻul istilochilari mamlakatni xonavayron qilib, xalq ommasining qullik iskanjasiga solgan bir paytda Zangiota va uning izdoshlari xalq orasida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adlu insof, poklik, yaxshilik, mehr-shavqat, xudojoʻylik kabi umuminsoniy gʻoyalarni targʻib qildi. Zangiotaning murid va shogirdlari, xususan, *Uzun Hasanota*, *Sayyidota*, *Sadrota* va *Badrota* Dashti Qipchoq oʻzbeklari, Volgaboʻyi va Ural togʻi etaklaridagi tatar va boshqirdlar orasida islom

dinining yoyilishiga hissa qo'shdi. Zangiota podachilik qilib, halol rizq topib hayot kechirgan. Namoz va zikrni kanda qilmagan. Zangiotaning karomatlari va fazilatlarini *Xo'ja Ahror*, shoirlar *Maxtumquli*, *Kamiy*, *Toshkandiy* va boshqalar tilga olib, she'r va xotiralar yozib qoldirganlar, xalq rivoyatlar to'qigan. Ba'zi manbalarga ko'ra, Zangiota ustoz *Hakim ota* vafotidan so'ng uning xotini *Anbar bibini* nikohiga olib, undan bir necha farzand ko'radi. Farzandlar ham Zangiota kabi e'tiqodli, insfli kishilar bo'lib yetishadilar, xalqni haqiqat yo'lga boshlashda rahnomolik qiladilar. Zangiota Anbar bibining qabri Zangiota tumanidagi Zangiota qishlog'ida. Zangiota dafn etilgan mozor yonida masjid va madrasa qad ko'targan. U joy ziyoratgoh hisoblanadi.

ZAYNIDDIN JURJONIY, ABU IBROHIM IBN XASAN IBN MUHAMMAD IBN MAHMUD IBN AHMAD AL-HUSAYNIY (?-1137) — tib olimi, Xorazmning Jurjon shahrida tug'ilgan. Dastlab u *Otsiz Xorazmshohning* tabibi bo'lgan, so'ng Marvga ketib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Arab, fors tillarida ijod qilgan. Olim tibga oid "*Al-a'roz at-tibbiyya*" ("Kasalliklar belgilari") asarini *Otsiz Xorazmshohning* vaziri, olim *Majiduddin Abu-Muhammad* iltimosiga ko'ra yozgan. U *Zaxirai Xorazm — shohiy* ("Xorazmshoh xazinasi"), "*Ta'liq shayxir-ra'is*" ("Olimlar olimi ibn Sino sharhi"), "*Zubdat ut-tib*" ("Tib ilmining asosiy mag'zi") kabi asarlar muallifidir.

ZAYNIDDINBOBO, SHAYX ZAYNIDDIN BOBO KO'HI ORIFON TOSHKANDIY (1164-1259, Toshkent) — shayx. Otasi *Shayx Shahobiddin abu Hafs Umar Suhravardiy* Bog'dodning katta mutavvavsiilaridan bo'lgan, suhravardiy tariqatini yaratgan. O'g'li Zayniddinni Shoshga yuborgan. Zayniddinbobo hoziirgi Ko'kcha dahasida hayot kechirgan va tasavvuf ilmi bilan hayot kechirgan. Tarixiy manbalarda Zayniddinbobo "*sayyidlarning ulug'i va sharif kishilarning karomatlisi va buyugi*", "*oriflarning qutbi va ishonchli rahnamosi*" deb ta'riflanadi. *Amir Temur* 1391-92 va 1402-yillar Zayniddinbobo maqbarasini ziyorat qilgan va ta'mir ettirgan.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

ALGORITM, ALGORIFM — ma'lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Kibernetika va matematikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'rta asrlarda sanoqning o'nli tizimi bo'yicha to'rt arifmetik amal bajariladigan qoidani algoritm deb atashgan. Bu qoidalarni matematikaga IX asrda al-Xorazmiy kiritgan. Yevropada bunday qoidalar uning tug'ilgan yurtiga nisbatan lotinchalashtirilgan (Algoritmus yoki Algorithmus shaklida "algorizm" deyilgan), keyinchalik "algoritm" ga aylangan.

ALGEBRA (arabcha — al-Jabr) — matematikaning bir sohasi. Buyuk o'zbek olimi *Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy* "*Al-jabr val-muqobala*" asarida dunyoda birinchi marta algebrani izchil bayon qildi. Asar XII asrda lotin tiliga tarjima qilinib, algebra nomi bilan jahonga tarqalgan.

ALFRAGANUS — *Ahmad Farg'oniy* lotinlashtirib, shu nom bilan g'arbda shuhrat topgan.

"AL-JABR VAL-MUQOBALA" — *Muso al-Xorazmiyning* matematikaga oid asari. U *Al-jabr val-muqobala* kitobi bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. *Muso al-Xorazmiyning* "*Al-jabr*" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolovera butun dunyoda tarqalishiga buyuk ahamiyat kasb etdi.

"AL-MUFASSAL" — *Mahmud Zamaxshariyning* arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan asari.

"AL-KASHSHOF" — *Mahmud Zamaxshariyning* Qur'oni Karim tafsiriga bag'ishlangan asari.

ARAB VA G'AYRI ARABLAR USTOZI — mashhur mutafakkir *Mahmud Zamaxshariy* shu nom bilan ulug'langan.

AKADEMIYA (yunoncha — Akademos — afsonaviy qahramon Akadem nomidan) — ko'pgina ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarining nomi. Mil.avv. IV asrda *Platon* (Aflotun) asos solgan yunon falsafiy maktabi, Afina yaqinidagi joy ham uning nomi bilan atalgan. Sharq mamlakatlarida akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar VIII-IX asrlarda tarkib topa boshlagan. Xususan, arab xalifaligida *Horun ar-Rashid* hukmronligi davri (786-809) da "*Bayt ul-hikmat*" ning faoliyatida yanada rivoj topgan, uning rasadxonasi va katta kutubxonasi bo'lgan (buyuk matematik *Muso Xorazmiy* va astronom *Ahmad Farg'oniy* shu yerda ishlagan). Mashhur olim va shoir *Ibn Hamdon* (935-yil vafot etgan) Mosul shahrida kutubxonali "*Dor ul-ilm*" ("Ilm uyi") ochgan va bu joy ilmga intilganlarning kirishi uchun bemalol bo'lgan. Bunday akademiya Bag'dodda, shuningdek, Misrda ham ochilgan. 1004-yilda Urganchda Ma'mun akademiyasiga asos solingan. *Abu Rayhon Beruniy* shu akademiyaning rahbari bo'lgan (bu akademiya doirasida *Abu Ali ibn Sino*, *faylasuf Abu Sahl Masihiy*, *tabib Abulhasan Hammor* va boshqalar ish olib borishgan). *Amir Temur* tomonidan Samarqandda to'plangan olim, yozuvchi va me'morlar XV asr fani va madaniyati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi ham o'z davrining akademiya sifatida; bu akademiya Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk matematik hamda astronomlarni birlashtirgan. XV asrning ikkinchi yarmida ilmiy va madaniy markazga aylangan Hirotda, Navoiy atrofida olim, yozuvchi, rassom, sozanda va boshqalardan tarkib topgan o'ziga xos ilmiy va badiiy jamiyat yuzaga kelgan. Hirotda miniatyura maktabini o'rta asr Sharqida davlat tomonidan ta'sis etilgan birinchi badiiy akademiya deb hisoblash mumkin (Behzod shu akademiyaning eng yirik vakilidir). XV-XVI asrlarda Yevropada (Italiyada) turli ilmiy jamiyatlar akademiya deb atala boshlagan; ularning faoliyati, asosan, ijtimoiy fanlar yo'nalishida bo'lgan. XVII asrda bir qancha ilmiy jamiyatlar — akademiya tuzilib, ular, asosan, tabiatshunoslik masalalari bilan shug'ullangan. XVII asrning ikkinchi yarmidan davlat hokimiyati yordami bilan bir qancha

mamlakatlarda milliy ilmiy markaz sifatidagi akademiyalar tuzildi; masalan Londondagi Qirollik jamiyati (1660), Parij FA (1666), Berlindagi Prussiya FA (1700), Peterburg FA (1724).

“ARASTUNING “METAFIZIKA” ASARIGA SHARH” — *Abu Nasr Farobiyning asari.*

“ASTRONOMIYA ASOSLARI”, — *Al-Farg`oni*ning astronomiyaga oid asari. Asar “*Kitob al-harakat as-samoviya va javomia ilm an-nujum*” (“Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi”) nomi bilan ham mashhur. O`z zamonasining qomusi hisoblangan Al-Farg`oni²ning bu asari XV asrda lotin tiliga tarjima qilinib, bir necha asr mobaynida musulmon Sharqi va Yevropa astronomlari uchun dastur bo`lib xizmat qiladi. Uning “*Astronomik asoslari haqidagi kitob*” asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo`yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonisidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo`lgan bilimlarni o`z ichiga olgan. Bu asar o`rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so`ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.

AVITSENNA — O`rta asrning buyuk allomasi *Abu Ali ibn Sino* G`arbda shu nom bilan shuhrat topgan.

BAND — to`g`on, suv ombori.

BANNO — 1) IX-XIII asr boshi me`morlari. 2) Temuriylar davlatida g`isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar.

BASTA — o`n ikki maqom tizimidagi maqomlardan biri.

“BAXT-SAODATGA ERISHUV HAQIDA” — *Abu Nasr Farobiyning* ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga bag`ishlangan asari.

“BAYT UL-HIKMAT” (yoki “Hizonot ul-himat”) — olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa. Xalifa *Horun ar-Rashid* (766-809) Bag`dodda tashkil etgan. O`zbekcha asarlarda “Bilim uyi” yoki “Donishmandlar uyi” deb yuritiladi. *Muhammad Xorazmiy* xalifa *Ma`mun* davri (813-833-yillar) da “Bilim uyi” dagi juda boy kutubxonaga boshchilik qilgan. Kutubxonada hind, yunon, suryoniy (suriya), arab, fors tillarida 400 000 jild qo`lyozma kitob saqlangan. *Xorazmiy* o`sha kitoblardan foydalanib, hind usulida ilmi hay`at (astronomiya) ga oid “*Ziji Xorazmiy*” asarini yozgan. Hind raqamlari asosida hozirgi arab raqamlarini soddalashtirgan, kengaytirgan va birinchi marta arab tilini bayon etib, uning keng tarqalishiga hissa qo`shgan. Tarjima ishlarida turli mamlakatlardan kelgan olim va tarjimonlar, jumladan, Turkiston olimlaridan *Ahmad Farg`oni*, *Muhammad Xorazmiy*, *Abbos ibn Said Javhariy* va *Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar* qatnashgan. Bu yerda olimlar chet tildagi murakkab tushunchalarni berishga qodir arab atamashunosligini yaratishga va uni boyitishga katta hissa qo`shdilar.

BODA — O`n ikki maqom tizimidagi maqomlardan biri.

BORGOH — makon; dargoh; dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy), narigi dunyo.

BUSLIK — O`n ikki maqom tizimidagi maqomlardan biri.

“DEVONI LUG`OTIT TURK” (“Turkiy so`zlar

devoni”) — *Mahmud Qoshg`ari*ning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071-1072). Bu asarda XI asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyoda va G`arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug` va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, merologiyasi va astronomiyaga oid qimmatli qo`lyozma ma`lumotlar yozib qoldirilgan. “Devoni lug`otit turk” ning qo`lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo`lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa “Devoni lug`otit turk” yozilganidan salkam 200 yil keyin, ya`ni Mahmud Qoshg`ari²ning o`z qo`li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotih al-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko`chirilgan. “Devonu lug`otit turk” arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so`zlarni talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar) dan foydalanilgan.

DOVUL — katta nog`ora.

“DORULHIKMAT VAMAORIF” (“Hikmat va maorif uyi”) — Xorazmdagi Ma`mun akademiyasi. 1004-yilda shakllangan. Uning asosini *Abu Nasr ibn Iroq* (X a.-1034), *Abulhayr ibn Hammor* (991-1048), *Abu Sahl Masihiy* (970-1011), *Abu Rayhon Beruniy* (973-1048), *Abu Ali ibn Sino* (980-1037) va boshqalar tashkil qilgan. Ularning ilmiy faoliyati tufayli qadimgi Xorazm badiiy san`ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug`orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. 1017-yili *Mahmud G`aznaviyning* Xorazmga qilgan hujimi natijasida “Dorul hikmat va maorif” faoliyati tugatilgan, olimlarning ko`pchiligi G`azna shahriga majburan olib ketilgan.

ETNIK JARAYON — kelib chiqishi bir biriga yaqin bo`lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo`shilib borishi.

FALSAFA — hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o`rganuvchi fan.

FAQIHLAR MADRASASI — XII asrda Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun qurilgan maxsus madrasa.

FARJAK MADRASASI — X asrda Buxoroda Kovushdo`zlar timi yaqinida tashkil etilgan madrasa.

FAXRIDDIN ROZIY MAQBARASI — Ko`hna Urganchdagi me`moriy yodgorlik (XII asrning ikkinchi yarmi); Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hududida. Xorazm shohlari *Otsiz* (1128-1156) va *El Arslon* (1156-1172) davrida qurilgan deb taxmin qilinadi. Mahalliy aholi olim *Faxriddin Roziy* nomi bilan bog`laydi. Binoning asosiy qismi kubsimon shaklda (ichki o`lchami 3,5 S3,6 m, quyi qismi pastga tomon bir oz kengaygan), 12 qirrali poygumbaz ustiga 12 qirrali kulohiy gumbaz bog`langan. Uch tomonida tobadonli eshik joylashgan. Old tomoni silliqlangan g`ishtlar bilan 3 ta ravoqli to`rtburchaklarga bo`lingan, yuzasi barg va novdalarning nozik uyg`unligidagi o`yma naqshlar bilan jozibador bezatilgan, to`rtburchaklar o`zaro yozuvli hoshiya naqsh bilan birlashgan. Tashqi gumbaziga feruza rang g`ishtlar mavj usulida terilib handasiy naqshlar hosil qilingan; tashqi gumbazidan ancha past bo`lgan ichki gumbaziga muqarnaslar ishlangan.

“GEODEZIYA” — *Abu Rayhon Beruniyning* asari.

FIQH (arabcha — bilish, tushunish) — musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish

bilan shugʻullanuvchi islom taʼlimotining bir sohasi.

HADIS (arabcha) — islom dinida Qurʼondan keyingi manba. Muhammad hayoti, faoliyati va koʻrsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Qurʼon musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri — VIII asr boshida hadislar yozila boshladi. Hadislarda arab xalifaligidagi sinfiy ziddiyatlar, islom ilohiyoti, shariat talqini ifodalaniib, turli sinf va ijtimoiy guruhlar manfaati aks etgani uchun bir-biriga zid keladigan fikrlar yuzaga kelgan. Davrlar oʻtishi bilan hadislar tanlanib, kerakliklari bir tizimga solina boshladi. IX-X asr boshlarida dindorlar orasida obroʻli deb tanilgan hadisning 6 ta oʻplami vujudga kelgan. Bulardan ayniqsa 2 tasi — “*Sahihi Buxoriy*” va “*As-Sahih*” koʻproq eʼzozlanadi. Hadislar toʻplami sunna deb nom olgan. Hadislarni yigʻuvchi, sharxlovchi, targʻib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

HANDASA — geometriya.

HAZRATI IMOM MAYIN (Muin) majmuasi- Qashqadaryodagi meʼmoriy yodgorlik (XI-XIX asrlar). Hazrati Imom Mayin maqbarasi atrofida bunyod etilgan. Maqbara oldi ayvonli, naqshinkor 6 ustunga tayangan. Majmua devor bilan oʻralgan kichik (tashqi) va katta hovlidagi turli davrlarda qurilgan binolardan tashkil topgan. XI-XIV asrlarda maqbara (tarhi 5S5 m), ziyoratxona va masjid (7S7 m) qurilgan, maqbara hovlisida murabba tarhli (10S10 m) hovuz bor, hovuzning sharqida quduq mavjud. Maqbara 16 qirrali kulohiy gumbaz bilan yopilgan, yogʻoch sagʻana oʻyima naqshlar bilan ziynatlangan. Masjid gumbazli xonaqoh va 2 tomonli ayvondan iborat, ayvon shifti va ustunlari naqshlar bilan bezatilgan; masjid yonida chillaxona joylashgan. XIX-XX asrlarda xonaqohga tutash 2 xona qurilgan. 2004-yilda taʼmirlangan.

HAZRATI SULTON MAQBARASI — Qashqadaryo viloyatidagi meʼmoriy yodgorlik (XII-XIII asrlar). Maqbaraning qadimgi qismi uzun goʻrxona boʻlib, keng ravoqli yoʻlak orqali gumbazli ziyoratxonaga oʻtiladi. Ziyoratxonaga 3 ta goʻrxona tutash. Maqbara XVI-XVIII asrlarda qayta tiklangan.

“HIBAT UL-HAQOYIQ” — Ahmad Yugankiydan saqlanib qolgan yagona adabiy meros. U turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorligi hisoblanadi. Oʻz asarida shoir *Yusuf Xos Hojib* singari ilm-fan, olim va fozillarni ulugʻlaydi, maʼrifatparvarlikni targʻib etadi, kishilarni ilmi va maʼrifatli boʻlishga chaqiradi.

“HIDOYA” (arab. — yoʻllanma; toʻla nomi “Hidoya fi furuʼ al-fiqh” — “Fiqh sohalari boʻyicha yoʻllanma”) — hanafiylikda keng tarqalgan shariat qoʻllanmasi (kodeksi). Uni *Burhoniddin Margʻinoniy* 13 yil davomida yozgan. Qoʻllanmani yaratishda Qurʼon oyatlariga, dastlabki 4 xalifa, sahobalar va tobeʼinlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylikdagi 4 mazhab asoschilarining asarlariga tayangan. «Hidoya» 4 jild, 57 kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan. *Burhoniddin Margʻinoniy*ning «Hidoya» asari yozilish uslubi boʻyicha ajralib turadi. Unda huquqiy muammolarning yechimi dastavval mashhur faqihlarning fikr-xulosalarini bayon qilish va unga boshqa fiqh olimlarining eʼtirozlari va qoʻshilishlarini izhor qilish yoʻli bilan berilgan. Xuddi shunday umumeʼtirof etgan obroʻli

faqihlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda muayyan huquqiy muammoning eng maʼqul yechimini tanlab olish mumkin boʻlgan. Shu yoʻl bilan «Hidoya»da shariat qoidalarining aynan oʻzigina emas, balki ularning mukammal asos va dalillari ham asl ravishda berilgan. «Hidoya» bir necha asr davomida koʻp musulmon mamlakatlarida huquqshunoslik boʻyicha asosiy manba hisoblangan. «Hidoya» sudlov boʻyicha qoʻllanma sifatida Oʻzbekistonda XX asrning 20-yillarigacha — qozilar sudi bekor qilinib, shoʻrolar sud tizimi joriy qilinguncha amalda boʻldi. U baʼzi musulmon mamlakatlari oliy oʻquv yurtlarida oʻqitiladi. «Hidoya» bir necha tilga tarjima qilingan. «Hidoya»ning birinchi jildi oʻzbek tilida Toshkentda 2001-yilda chop etildi.

“HIKMAT” — Ahmad Yassaviy sheʼrlari topʻlami. Ushbu asarning aynan asli emas, balki keyingi nusxalarigina yetib kelgan boʻlsa-da, ammo bu asar turkiy adabiyotning va adabiy tilning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

“HIND HISOBI HAQIDA” — *Muso al-Xorazmiy*ning matematikaga oid asari.

“HINDISTON” — *Abu Rayhon Beruniy*ning asari. Olim “Hindiston” asarida Hindistonning geografiyasi, aholisining mifologik tasavvurlari haqida maʼlumot beradi.

ISMOIL SOMONIY MAQBARASI — Buxorodagi koʻhna meʼmoriy yodgorlik (taxminan 864-868). Somoniylar davlatining asoschisi *Ismoil Somoniy* va uning avlodlari maqbarasi. *Ismoil Somoniy* maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, jima gʻishtin bezaklari chiviqli toʻsiq yoki qamish, boʻyra toʻqimasini eslatadi. Devor qalinligi — 1,8 metr, tarhi tashqarisi 10,80x10,70 metr, ichkarisi 7,20x7,20 metr. Usti gumbaz bilan qoplangan. 4 burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba oʻrnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos gʻishtin tangachalar marjoni bilan chegralangan. Ikki chetiga mayda gʻishtdan chorsi tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bezak bilan uzviy bogʻliq boʻlib, uslub jihatdan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bagʻalidagi ustma-ust ravochalar ustunchalarga tayangan. Ravochalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqti (1927)da xona sahnida 2 yogʻoch sagʻana borligi aniqlangan. Yozma manbalar va rivoyatlarga koʻra, maqbrani *Ismoil Somoniy* otasi qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sagʻana *Ismoil Somoniy* otasi qabri (849-907) deb taxmin etiladi. *Narshaxiy* Buxoro tarixi kitobida *Ismoil Somoniy*ning oʻgʻli amir *Ahmad* (914) oʻz qullari tomonidan oʻldirilgan va mazkur maqbaraga qoʻyilgan deb yozadi. *Ismoil Somoniy* maqbarasi Oʻrta Osiyo meʼmorligi va sanʼati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimgi sugʻd meʼmorligining anʼanalari saqlanib qolgan buyuk meʼmoriy asardir. *Ismoil Somoniy* maqbarasi shahar madaniyat va istirohat bogʻi hududida joylashgan. *Ismoil Somoniy* maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlangan.

KALOM (arabcha — ravon nutq, jumla, gap, soʻz) — islom ilohiyot ilmi. VIII asrda arab xalifaligida paydo boʻlgan. Kalom islom diniy taʼlimotini asoslashga harakat

qiladi.

“KITOBAT-TARIX” — *Muso al-Xorazmiyning tarixga oid asari.*

“KITOB AT-TAVHID” (Allohning birligi) — *Al-Moturidiyning islomiy odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo’ljallangan asari. Unda diniy ta’limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanishidagi mohiyati talqin etilgan.*

“KITOB SURAT UL-ARZ” (Yer surati) — *Muso al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari.*

KOFIYA — arab tili morfologiyasi.

KORIZ (forscha) — yer osti suvlarini yig’ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti; aholini suv bilan ta’minlash va sug’orish maqsadlarida qo’llaniladi.

KOSHG’ARIY YODGORLIK MAJMU’I, MAHMUD KOSHG’ARIY YODGORLIK MAJMU’I — Xitoyning Qashg’ar (Koshg’ar) viloyati O’pal nohiyasidagi Aziq qishlog’ida, Hazrati Mullom tog’i etagidagi tepalikda joylashgan maqbara. Tepalikning bal. 40 m bo’lib, mahalliy xalq orasida *Mahmud Koshg’ariy* mozori nomi bilan mashhur. Olim dafn etilgan joyga o’sha davr an’anasiga mos ravishda peshtoqlik qabr qurilib, usti uy shaklida yopilgan. Shundan beri bu yer ziyoratgohga aylanib, mahalliy xalq tomonidan ta’mirlanib turilgan. 1958-yil maqbara to’la ta’mirlanib, yoniga muzey qurilgan va hukumat tasarrufidagi ziyorat maskaniga aylantirilgan. Uning tarkibida asosiy maqbara, hovli, qiroatxona, muzey, tahoratxona kabilar mavjud. Ularning umumiy mayd. 1160 kv. m ga teng. Qabr joylashgan tepalikning etaklari go’zal, manzarali boqqa aylantirilgan. Hozir ushbu ziyorat maskanining umumiy mayd. 75 ga ga yaqin. Maqbaraga chiqishda 92 ta zinani bosib o’tish lozim. Aytishlaricha, ushbu zinalar soni olimning yoshi soniga tenglashtirilgan. Zinapoya yonida o’sha davrdan beri saqlanib kelayotgan buloq mavjud. Mahmud Koshg’ariy muzeyi maqbaraning shim.tomonida joylashgan. Maqbara bilan muzey oralig’i taxm. 300 m keladi. 1999-2000-yillarda pastdan muzeyga chiqish uchun zinali yo’l ishlangan. Uning o’rta belida olimning kitob ushlab turgan haykali o’rnatilgan. Haykalning bal. 9,7 m.

KUBROVIYLIK — tasavvuf tariqati. XIII a. boshida Xorazmda *Najmiddin Kubro* asos solgan. Uning asarlarida tariqatning mohiyati, o’ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berilgan. Kubroviylik tariqati Yassaviy tariqatidan farqli o’laroq tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo’lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne’matlaridan bahramand bo’lishning joizligi g’oyasi ilgari suriladi. Kubroviylik tariqatida xalqqa va Vatanga bo’lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo’lib, har qanday og’ir damlarda ham omma bilan birga bo’lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da’vat etiladi.

MADRASA (arabcha darasa-o’rganmoq) — musulmonlarning o’rta va oliy o’quv yurti. Ulamolalar va maktabdorlar, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydi. VII-VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida

paydo bo’lgan. IX-XIII asrlarda islom diniga e’tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, O’rta Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. *Abu Bakr Muhammad Narshaxi*ning “*Buxoro tarixi*” asarida aytib o’tilgan 937-yilgi yong’inda zarar ko’rgan “*Forjak*” madrasasi O’rta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo’lgan. Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk — vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasaga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo’lgan. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo’lgan kunduzgi bo’lim va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo’lim talabalari toifalariga ajratilgan. Madrasa o’quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg’ulotlar, odatda, sentyabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyinoq) boshlangan. Madrasada ta’lim 3 bosqichda: boshlang’ich (adno), o’rta (avsat) va yuqori (a’lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi “*Aqoid*” kitobini o’qishga o’tguncha davom etgan, avsat bosqichi “*Aqoid*” kitobini o’qishdan boshlanib, “*Sharhi mulla*” kitobini o’rganguncha bo’lgan va undan keyingi murakkab qo’llanmalarni o’rganuvchilar a’lo bosqichi talabalari hisoblangan. Madrasada o’qish talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil davom etgan. O’rta Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblarni o’qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Madrasalarda to’liq kursni o’qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxm. 137 darslik — qo’llanmani o’zlashtirish talab etilgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarining mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug’rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o’qitilgan. Arab mamlakatlarida dastlabki madrasa vazir *Nizomulmulk* tomonidan Bag’dodda (XI asrning ikkinchi yarmida) qurilgan. O’rta Osiyoda madrasa maxsus me’morlik inshooti sifatida qurilgani haqida tarixiy ma’lumotlar saqlangan. Shohizinda tarkibida Samarqand hokimi *Tamg’och Bug’roxon Ibrohim* qurdirgan (XI a.) madrasa qoldiqlari topilgan.

MAFKURA (arabcha — fikrlar majmui) — ma’lum maqsadni ro’yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g’oyalar yig’indisi.

“MAFOTIH UL-ULUM” (“Fanlar kalitlari”) — *Abu Abdulloh al-Xorazmiyning* arab tilida yozgan mashhur asari. Ushbu kitob fanlarning rivojlanish tarixi va tasnifiga bag’ishlangan. Kitobda o’sha davrda mavjud bo’lgan huquq, falsafa, mantiq, aruz, matematika, geometriya, kimyo kabi turli fanlarga qomusiy ma’lumotlar berilib, ularning asoslari bayon etilgan. Alloma bu asarida faqat fanlar haqida tushuncha berib qolmay, balki ularning taraqqiyot darajalarini ham aniqlaganki, ushbu asar o’rta asrlarda O’rta Osiyoda aniq fanlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

MAQBARA (arabcha marqad, turbat) — biror

mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut (daxma, sag'ana). Maqbara usti qubballi chortoqli bino bo'lib, ramziy g'oyalarni o'zida ifodalagan. Chortoq — yer kurrasini ifoda etuvchi barqaror shakl, qubba — osmon gumbazi ramzi, bular birgalikda Koinotni anglatgan. «Koinot modeli»ning bu tarzda barpo etilishi borliqning Alloh tomonidan yaratilgani haqidagi aqidaga muvofiqlashtirilgan. Sharqda dastlab qabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat qurish man etilgan bo'lsa-da IX asrdan xalifalar sharafiga maqbaralar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham IX asrdan maxsus maqbaralar qurish odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli maqbaralar qurilgan. Oddiy maqbara gumbazli chorsi xonadan iborat bo'lgan, unga peshtoqli eshik orqali kirilgan (Arabota maqbarasi). Ba'zan xonaning 4 tomoni ravoqli-chordara shaklida bo'ladi (Ismoil Somoniy maqbarasi), keyinchalik maqbara qurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go'rxona, tagxona-sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo'lgan (Yassaviy majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Toj mahal maqbarasi Shohizinda ansambli va boshqalar).

MASJID, MACHIT (arabcha — sajda qilinadigan joy) — musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o'qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad (sav) qurdirgan. Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjidlarning to'rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o'ng tomonida va'zxonlik uchun mo'ljallangan minbar, ba'zilarida esa Qur'on o'qiladigan maxsus joylar ham bo'ladi. Ba'zi masjidlar huzurida maktablar ham bo'lib, ularda o'g'il bolalarga Qur'on o'qish o'rgatiladi. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o'qib, turli diniy masalalar bo'yicha va'zxonlik qiladi. Masjidlar VII-VIII asrlardan turli musulmon mamlakatlarning mahalliy me'morlik an'analariida yetakchi o'rinni egallab, o'ziga xos uslubda qurila boshlagan. Asosan murabba yoki to'g'ri to'rtburchak tarhli, markaziy qismida xonaqohi bo'lgan, hovli atrofi ravoqli ayvonlardan iborat. 8 qirrali, gumbaz tomli va ko'p ustunli, galereyalı masjidlar tosh, yog'och, g'isht, rangli koshin bilan hashamdor bezatilgan. O'rta Osiyoda dastlabki masjidlarlar Buxoro Histori ichida 713-yilda *Qutayba ibn Muslim* tomonidan mahalliy otashgoh butxona o'rnida qurilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Samarqanddagi birinchi masjidlar Hazrati Xizr masjidi o'rnida bo'lgan. X-XI asrlar masjidlar me'morligida ganch o'ymakorligi, g'ishtni bezakli qilib terish san'ati rivoj topgan. XIV-XV asrlarda masjidlar turlari va tuzilishi o'zgarib, u shaharning eng ko'zga ko'ringan yirik me'moriy jamoat binolari qatoridan o'rin olgan. Shahar markazlarida jome masjid, juma masjid va guzar, mahalla masjidleri keng tarqalgan. Movarounnahr me'morlik maktabida yaratilgan xalq ustalarining o'ziga xos merosi Eron, Xuroson, Ozarbayjon, Hindiston, Hirot me'morligi bilan o'zaro uyg'unlashib ketgan. XVI-XVII asrlarda masjidlar qurilishida gumbazlar tuzilishi ancha

murakkablashdi. Peshtoq, ravoq va mineralarning turli shakllari yaratildi. Bezagida muqarnas naqshlar, koshinkori bezaklar qo'llanildi: Buxoro, Samarqand, Shahrisabz shaharlaridagi Baland masjid, Xo'ja Zayniddin majmuasi, Bahouddin majmuasi. Shahar tashqarisida namozgohlar (Buxoro namozgohi, Qarshi namozgohi), ziyoratchilar uchun xonaqohlar (Qosim shayx xonaqohi, Fayziobod xonaqohi, Nodir Devonbegi xonaqohi va b.) qurildi.

MASJIDI KALON (forscha — katta masjid) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik. XII asrdagi qadimiy imorat qoldiqlari ustiga XIV-XV asrlarda qurila boshlanib, XVI a. boshlarida ta'mir etilgan (masjid hovlisi va atrofida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan). Masjid to'g'ri to'rtburchak tarhli (127S78 m), keng hovli atrofini gumbazli bostirma ayvon egallagan. 288 qubba (gumbazcha) 208 ustunga tayangan. Ular o'ziga xos mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, ustunlarga keyinchalik murabba tarhli poyustunlar o'rnatilgan. Hovlining to'rt tomoni markazida naq-shinkor peshtoqlar bor. Sharqdagi tashqi ulkan peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan alohida ajralib turadi. Masjidi kalonning tashqi 7 eshigi bo'lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravog'idagi boloxona va uning yon tomonidagi qirrali ravoqlar koshin va sirlangan g'ishtlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ganchkori ravoqlar alohida ajralib turadi. Peshtoq orqali hovli to'ri (yuqorisi)dagi xonaqoh-maqsuraga o'tiladi. Xonaqohning tashqi poygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Ichki gumbaz osti bag'allariga «qolibkori» uslubida qator mayda ravoqcha (16 ta)lar ishlangan mehrob bezakleri nafis koshinkorlik san'atining yuksak namunasidir, unda usta Boyozid Puroniy nomi va 1514-y. sanasi ko'rsatilgan. Peshtoq oldidagi sahnda kichik ko'shk (pavilon) bor, qurilishi (XX a.)da Usta Shirin Murodov qatnashgan.

MAG'OKI ATTORI MASJIDI — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (X-XVI asrlar). Mag'ok (chuqurlik)da va attor bozori yaqinida joylashgani sababli Mag'oki attori masjidi deb nomlangan. Qadimiy 4 ustunli Moh masjidi (IX a.) o'rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934-yilda arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan). XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. *Abdulazizxon* davrida (1541-42-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazleri qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35S17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o'rta gumbazi balandroq bo'lib, uning asosi (poygumbazi)dagi darchalar orqali bino ichiga yorug'lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g'ayriodatiy ravishda binoning yon tomoni (jan.)da joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismiga qayta qurilgan. Peshtoqining ko'rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o'ziga xos bezaklar muhim o'rin tutadi. Ganch va mayda g'isht bo'lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g'oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o'lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo'rtma bezaklar ishlangan. Ustungo'shalari o'yma naqshlar bilan, boshasi vazasimon shaklda ko'rkamlashtirilgan. Mag'oki attori masjidining bezakleri XII a. Buxoro me'morlik maktabining yuksak namunasi

sifatida O'zbekiston me'morlik tarixida alohida o'rin tutadi. 1939-49-yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta'mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan.

MA'MUN AKADEMIYASI — IX asrning birinchi yarmida Xalifa *Ma'mun ar-Rashid* (813-833-yillar) tomonidan Bag'dodda tashkil etilgan ilmiy markaz. Dastlab «*Bayt ul hikmat*» («Bilim uyi» deb atalgan). Bu akademiyada *Hunayn ibn Ishaq, Sobit ibn Kurra, Xubaysh, Baxtyashu, Qusto ibn Luqa al-Baaxbakkiy, Yahyo ibn Adiy, Ishaq al-Damashqiy, Masarjuvayxlar oilasi, Navbaxt, Ibn Muqaffa, Ibn Mojja, Ibn Vaxshiya* lar tomonidan yunon, yahudiy, sanskrit, suryoniy, fors tilidan juda ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga yoyildi. Ayni shu tarjima va sharhlar tufayli yunon, hind olimlari asarlari bizgacha yetib kelgan. 828-yili Ma'mun akademiyasi qoshida Bag'dodning *ash-Shammasiya* mahallasida birinchi rasadxona, 831-yili Damashq yaqinidagi *Kosion* tog'ida rasadxonaning bo'limi qurilgan. Rasadxonaga dastlab marvlik *Abu Ali Yahyo ibn Mansur*, keyinchalik *Muhammad Xorazmiy* rahbarlik qilgan. Ma'mun akademiyasida turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan. Chunonchi 830-yilda *Xorazmiy* boshchiligida G'arbiy Hindiston (hoz. Sharqiy Afg'oniston), Vizantiya, Volganing quyi oqimiga 3 ta ekspeditsiya uyushtirilgan. Ma'mun akademiyasida *Xorazmiy* bilan birga *Xolid ibn al-Malik al-Marvarrudiy, Al-Abbos ibn Said al-Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Fazl al-Hamid ibn Vase' ibn Turk al-Xuttaliy, Abu Yusuf Yoqub ibn Sabbox al-Kindiy* va boshqa ko'plab o'rtao'siyolik olimlar ijod qilib, turli fanlar rivojiga katta hissa qo'shdilar. XI asr boshida Xorazm poytaxti **Gurganj** (hozirgi Ko'hna Urganch) shahridagi ilmiy markaz ham Ma'mun akademiyasi deb nomlangan.

MEHROB (arabcha — harb joyi; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) — masjidning Makka (Ka'ba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh. Mehrob yarim aylana, ko'p qirrali, to'g'ri to'rtburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo'ladi. Ayrim mehroblar yog'och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravoqli hoshiyalar bilan bezatilgan. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan mavjud. Namoz vaqtida imom mehrobgga o'tib, qiblaga yuzlanadi va uning orqasidan jamoa bo'lib namoz o'qiladi.

MEHTAR (forscha — ulug', janob) — saroy mansablaridan biri. Somoniylar davlatida bo'bro' shaxslar, davlat arkonlari. Ba'zi manbalarda mehtar «*qishloq oqsoqoli*» yoki «*otboqar, sayis*» — ma'nolarida ham qo'llanilgan. Mehtar zimmasiga zakotdan, shuningdek, tovar, aqcha, don, chorva singari tushumlarning qonunga binoan, zarur o'rinlarda ishlatishni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

METAFIZIKA — sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.

MINORA (arabcha — mayoq) — gorizontal (eni

o'lchamiga nisbatan vertikal (tik) o'lchami ortiq bo'lgan baland inshoot. Minoralar aylana, ko'p qirrali yoki to'rtburchak shaklida barpo qilinib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Inshootning yuqorisiga chiqish uchun uning ichida aylanma zina bo'ladi. Qadimdan minoralar masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qurilgan. Muazzin minoraga chiqib azon aytib, namozxonlarni namozga chorlagan. Shuningdek, minoralardan soqchixonona (qorovul xonasi, burj, ding) sifatida ham foydalanilgan (Jarqo'rg'on minorasi, Vobkent minorasi va boshqalar). Dastlabki minora Ummaviylar xalifasi *Musaviy*ning buyrug'iga binoan 673-yili Misrda qurilgan. Ba'zi minoralar shaharga, ma'lum bir ansamblga ko'rk va salobat berish hamda uni qurdirgan shaxsning kuch-qudratini namoyish qilish uchun ham bunyod etilgan. Yevropa mamlakatlarida o'rta asrlarda ichida yotoqxona, oziq-ovqat ombori, quduq va boshqalar bo'lgan minora (donjon)lar to'rtburchakli yoki aylana tarhli silindrsimon qilib, qal'aning uzoq qamalga bardosh berishiga mo'ljallangan joyiga qurilgan. Buxorodagi Chor minor o'ziga xos to'rt minorali me'moriy yodgorlik hisoblanadi. O'zbekiston hududidagi qadimiy minoralarning tuzilishi o'ziga xos milliy me'morlik an'analari asosida qurilgan. G'ishtni mavj uslubida terib, yozuvlarni qo'llash orqali badiiy ifodaviylikka erishilgan. Minoralarga joziba baxsh etilgan. Qadimiy me'morlik an'alariga tayangan mahalliy me'morlik maktablarining rivojlanishi bilan minoralar bezagida rangli sopol koshinlar qo'llangan.

MINORAI KALON (Katta minora), Arslonxon minorasi — Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Muhandis va me'mor *Baqo* loyihasi asosida *Arslonxon* qurdirgan (1127). Minorai kalon o'rinda avval ham minora bo'lgan, u qulab tushgach, hoz.si mustahkam qilib qayta qurilgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan. Yer sathidan 9 m chuqur, bal. 50,0 m, kursisi qirrador, tanasi g'olasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko'shk bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofnii kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pilpoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht (27S27S4S5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g'ishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to'kilib ketgan). Minorai kalon shu turdagi qadimgi inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi, handasiy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Tanasi va muqarnaslari ta'mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan (1960). Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Minorai kalonda ta'mirlash ishlari olib borildi (1997). Minorai kalon Buxoro shahrining noyob va ko'hna yodgorliklari qatoridan markaziy o'rin egallagan.

“**MINERALOGIYA**” — *Abu Rayhon Beruiniyning* asari.

MIQYOS AN-NIL, GIDROMETR — daryo oqimi sathini o'Ichagich inshoot. *Ahmad Farg'oni* rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan.

MIQYOS AR-RUDAH — ostki qismi silindrsimon, yuqorigi ikki qismi esa kvadrat shaklida, markazida sakkiz qirrali baland ustunli chuqur hovuzdan iborat suv inshooti.

MOTURIDIY YODGORLIK MAJMUI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. *Imom al-Moturidiy* tavalludining 1130 yilligi (2000) munosabati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *I. A. Karimov* tashabbusi bilan Samarqand shahri markazida bunyod etilib, ramziy maqbarasi o'rnatilgan (hududi 4 gektarga yaqin). Yodgorlik Registon ansambli yaqinida, Vobkent, G'ijduvon va Buxoro ko'chalarida oralig'ida joylashgan. Bosh kirish qismi Vobkent ko'chasidagi xiyobon orqali. Loyihaga ko'ra, 3 qism (markaziy, bog' va xo'jalik inshootlari)ga bo'lingan, ular o'zaro bir-biri bilan xiyobonli yo'lka orqali bog'langan. Loyiha o'qi manzarali mujassamotda yaratilib, ramziy maqbara binosiga tutashgan. Sharsharali favvoralar xiyobonli yo'lka markazida qurilib, atrofi obodonlashtirilgan. Yodgorlik me'moriy loyihasi va badiiy yechimida o'zbek milliy mahobatli san'atining eng yaxshi an'analari qo'llangan. Maqbara pishiq g'ishtdan, murabba tarhli (12 S12 m), shifti gumbazli (bal. 15 m), poygumbazi 24 kichik ravochalarga bo'linib, ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Panjaralar yuqorisi murakkab tuzilishdagi muqarnaslar bilan to'ldirilgan. Xona markaziga qo'yilgan sag'anada arab yozuvida buyuk olimning hadis so'zlari bitilgan.

MOTURIDIYLIK — kalomdagi oqim, *Abu Mansur Moturidiy* asos solgan. IX asr oxiri — X asrda Movarounnahrda turli aqidaviy oqimlarning aqidalariga qarshi javob tarzida vujudga kelgan. *Imom Moturidiy* tarafdorlari bilishda faqat aqlga suyanish kerak, degan mu'taziliylardan farqli o'laroq, aql bilan naqlni qo'shib foydalanish zarur, deb hisoblaganlar. Imon e'tiqod xususida moturidiylik ta'limoti, ayniqsa, diqqatga sazovor. Moturidiylikda imonning shartlari 2 ta, ya'ni til bilan iqrar etish va dil bilan tasdiqlash, amallarning o'rni esa boshqa, deb ta'rif qilinadi. Moturidiylik har bir insonning taqdiri Alloh tomonidan belgilab qo'yilganiga qaramay, u o'z xatti-harakatlari uchun javobgardir, deb biladi. Moturidiylikka ko'ra, inson imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar berib qo'yilgan. U o'z xatti-harakatlarida ixtiyordir. Moturidiylik ta'limoti rivojlanib, XIII asrdan keyin Movarounnahr hududidan chiqib, musulmon Sharqi mamlakatlariga yoyildi. Saljuqiylar hukmronligi davrida hamma joyda islom aqidalarida moturidiylik tatbiq qilindi. Sunniylikning hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiluvchilarning barchasi aqida bobida imom Moturidiy, uning shogirdlari hamda izdoshlari yozib qoldirgan asarlarga tayanib ish ko'radilar. Islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrikada bu ta'limot hozir ham o'rta va oliy diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinadi.

“**MUALLIMUS-SONIY**” (“**Ikkinchi muallim**”) —

Forobiy bilimli, ma'rifatli, fikr-mulohazalarining kengligi va matig'ining teranligi tufayli Sharqda Arastudan keyingi yirik mutafakkir — “Muallimus soniy” nomi bilan shuhrat topgan.

MUZZIN (arabcha — e'lon etuvchi, chaqiruvchi) — masjidida azon aytib, namozga chorlovchi shaxs; xalq tilida so'fi deb ham ataladi.

MUZZINXONA (arabcha mi'zana) — masjid yonida minora tepasidagi ko'shksimon qurilma, qafasa. Zinalar orqali yuqoridagi M.ga muzzin chiqib namozxonlarni namozga chorlaydi.

MUHADDIS (arabcha — hadis rivoyat qiluvchi) — hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullangan ilohiyotchi. Muhammad (sav) vafotidan keyin hadislarni to'plash keng an'anaga aylana boshlanishi natijasida ilohiyotchilarning bir qismi bu sohada ixtisoslashgan va ular muhaddislar deb nom olgan. Hadis to'plamlari islom an'anasida e'tibor qozonib, muhaddislar (mas., *Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Ibn Moja* va boshqalar) islom tarixida mashhur bo'lib ketgan.

MURID (arabcha — ergashuvchi) — pir yoki eshon (murshid)ga qo'l berib, sufiylik yo'liga kirgan shaxs. Tasavvufda tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma'nosida ishlatiladi. Murid-murshidlik munosabatlari muridning o'z piriga so'zsiz itoat etishi, xizmat qilishi va uning izidan borishini taqozo qilgan. Umuman, murid atamasi sufiy va hatto oddiy musulmon ma'nolarini ham anglatadi.

MURSHID (arabcha — yo'l ko'rsatuvchi) — tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz.

“**MUSIQA kitobi**” — *Abu Nasr Farobiyning* asari.

MUTA'ABBID — o'ta dindor.

NADDOF — jun tituvchi, jun savalovchi.

NAQSHBANDIYA — tasavvuf tariqatlaridan biri. *Bahouddin Naqshband* asos solgan. Naqshbandiya xojagon tariqati negizida paydo bo'lib, *Yusuf Hamadoni, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy* qarashlarini omuxta etdi, ularga yangi ruh berib rivojlantirdi. XV-XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvador aholi orasiga keng yoyildi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Naqshbandiya ta'limotining asosida «*ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin*» («*dil ba yoru, dast ba kor*») shiori yotadi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya XVI-XVII asrlarda Misr va Hijoz (Arabiston)ga kirib boradi. Eronning Nishopur, Isfahon, Yazd shaharlariga tarqalib, shular orqali Falastin, Iroq, Iordaniyada ko'plab tarafdorlarga ega bo'lgan. Hindiston orqali u Indoneziya, Malayziya, Seylonga tarqaldi. Keyingi asrlarda Rossiya, Bosniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga yoyilgan. Hozirda AQSH, Kanada, Avstriyada naqshbandiya markazlari, xonaqolari, jamg'armalari bor. Naqshbandiya tariqatining umuminsoniy g'oyalar, ma'naviy kamolot, botiniy poklikni targ'ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keldi.

NAVO (forscha — kuy, ohang) — O'n ikki maqom tizimi



hamda Shashmaqom tarkibidagi uchinchi maqom.

NILOMETR — *Ahmad al-Fargʻoniy* boshchiligida abbosiy xalifa *al-Mutavakkil*ning amri bilan 861-yilda Qohira shahri yaqinidagi Ravzo orolida Nil daryosi suv sathini oʻlchash maqsadida qurilgan inshoot. Baʼzi Sharq mualliflari asarlarida «*Miqyos an-Nil*», deb ataladi. Nilometr murabba shaklidagi quduq koʻrinishida boʻlib, Nil daryosi bilan uchta yer osti suv yoʻllari orqali tutashgan. Quduq oʻrtasida oq marmar bilan qoplangan (bal. 10 m chamasida) sakkiz qirrali ustun oʻrnatilgan. Ustunda suv sathini oʻlchashga imkon beradigan yirik darajot boʻlib, u mayda darajotga boʻlingan. Yirik darajot arab tirsak birligi (taxm. 54 sm)ga, maydalari esa uning 1/24 qismi (qiroto)ga, yaʼni 2,25 sm ga teng. Kuzatuvchi suv sathi haqida hisob olish uchun aylanma zinapoyadan tushib chiqqan. Nilometr daryo suv sathini katta aniqlikda oʻlchashga imkon bergan. Jahon Meteorologiya Tashkilotiga aʼzo boʻlgan barcha davlatlarda suv havzalari (daryolar, koʻllar, suv omborlari, hatto dengiz va okeanlar)ning suv sathlari ham shu prinsipda oʻlchanadi.

NOV — kanal, jar, soy va yoʻllar ustidan suv oʻtkazish maqsadida quriladigan maxsus gidrotexnik inshoot (ensiz, qiya sunʼiy kanal, ariqcha). Ilgari charxpalakda chiqarilgan suv nov orqali ekinzorlarga yuborilgan. Nov Oʻzbekiston hududida qadimdan qoʻllanib kelingan. Asosan, yogʻoch va toshdan ishlangan.

PESHTOQ — madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa binolarning old tomoni — kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor meʼmoriy boʻlagi boʻlib, odatda, bino devori sathidan bir oz boʻrttirib chiqariladi. Asosiy oʻrinni markaziy ravoq, uning ikki yonidagi dahanasi va tepasidagi ikki uchburchak qanos va kitoba tashkil etadi. Oʻrta Osiyoda saqlanib qolgan peshtoqlarning eng qad. namunasi Arabota maqbarasidir. Peshtoq koshin va sirkor parchinlar, girih hamda diniy va falsafiy mazmundagi kitobalar bilan bezatilgan. Ulugʻbek madrasasi, Sherdor madrasa, Tillakori madrasa, Abdulazizxon madrasasi peshtoqlari oʻziga xos milliy meʼmorlik uslubida ser-hasham bezatilgan.

POYGUMBAZ — gumbaz oʻrnatiladigan qurilma, asos. Gumbazning gardishsimon ostki, binoning ustki qismi. Poygumbaz gumbazni binodan baland koʻtarib, ajratib turadi, unga salobat va koʻrkamlik bagʻishlaydi. Poygumbazning 4 yoki 2 tomonidan darcha ochilib, unga panjaralar ishlanadi. Poygumbaz gumbaz va bino rangiga mos ravishda turli xil koshinkori, girih naqsh, shakl va kitobalar bilan bezatiladi.

POYUSTUN — mahalliy meʼmorlikda ustun oʻrnatiladigan asos, tag kursi (baza). Yogʻoch ustunlarni chirishdan saqlash va ular balandligini oshirishga xizmat qiladi. Ustunga moslab yogʻoch yoki toshdan yoʻniladi, islimiy va girih naqshlar bilan bezatiladi. Poyustunlar yakka tartibdagi zamonaviy turar joy meʼmorligida ham keng qoʻllanilmoqda.

“QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” (asl nomi “Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya”) — *Beruniy*ning yirik ensiklopedik asari. 1000-03-yillarda Jurjon shahrida yozilgan va Jurjon hokimi *Qobus ibn Vashmgirga* taqdim etilgan. Asarda Oʻrta Osiyo xalqlari,

yahudiy, yunon va boshqa xalqlarning yil hisoblari, hayitlari, mashhur kunlari, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotining tarixi, urf-odatlari, dunyoqarashlari hamda Oʻrta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi haqida toʻliq maʼlumotlar berilgan. Unda olimning tabiiy fanlarning turli sohalariga, jumladan, astronomiya, matematika, fizika, xaritagrafiya va boshqa fanlarga oid kashfiyotlari oʻz ifodasini topgan. Asar Yevropada XIX asrning ikkinchi yarmida maʼlum boʻlgan. Nemis sharqshunosi E.Zaxau 1876-78-yillarda asarning arabcha matnini, 1879-yilda ingliz tilidagi tarjimasini («Sharq xalqlarining tarixi» nomi bilan) nashr ettirgan. Koʻpincha ilmiy adabiyotda «Xronologiya» deb ham ataladigan boʻlgan.

QASABA — oʻrta asrlarda qishloqcha.

QIRQQIZ QALʼASI — Surxondaryo viloyatidagi meʼmoriy yodgorlik (IX-X asrlar); Termiz tumanida (vayrona holida saqlangan). Nima maqsadda qurilganligi (qalʼa, saroy, xonaqoh, karvonsaroy) haqida maʼlumot yoʻq. Oʻrta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qalʼa shahar tashqarisidagi qoʻrgʻon vazifasini oʻtaganligini koʻrsatadi. U dunyo tomonlariga moslab qatʼiy mujassamotda bunyod etilgan. Qala toʻrtburchak tarhli (53,3x54,8 m), 1 qavatli, faqat yoʻlaklar umumiy balandlikda 2 qavatli boʻlib, xom gʻisht (30x30x5-5,5 sm)lardan qurilgan, toq va ravoqlarida shu oʻlchamdagi pishiq gʻishtlar ham ishlatilgan; qalin devor bilan oʻralgan (tashqi devor qalinligi ikkinchi 2,5 m), burchaklari hajmdor burjlar bilan mustahkamlangan; burjlar oraligʻida toqlar bilan yopilgan ayvonlar joylashgan, tarzlariga bir maromda takrorlanuvchi tuynuklar ishlangan. Qalʼaning barcha xonalari va markazdagi sahn (11,5x11,5 m) oʻzaro yoʻlaklar bilan bogʻlangan; markaziy sahn hovli yoki gumbazli zal boʻlgan deb taxmin qilinadi. Ayvon va yoʻlaklar binoni 4 qismga boʻlgan. Bular: 2 ta bir xil tuzilgan (5 xona va 3 tomonidan oʻralgan yoʻlak, eni 2,1 m) shimoli-gʻarbiy va shimoli-sharqiy hamda 2 ta janubi-gʻarbiy (2 ta yoʻlakcha bilan bogʻlangan 5 ta xona) va janubi-sharqiy (yoʻlakcha bilan bogʻlangan 2 ta xona va 3 ustunli katta mehmonxona) qismlardir. Yoʻlaklar va xonalar devordagi tuynuklar orqali yoritilgan. Qirqqiz qalʼasi yopmasida balxi hamda kesishgan gumbazsimon toqlar, boshqa turlardagi gumbazlar, toqlar va ravoqlar qoʻllanilgan. Ogʻzaki maʼlumotlarga koʻra, xalq dostonlarida zikr etilgan dushmanlar hujumini qaytara olgan qahramon qiz Guloyim va uning 40 dugonasi aynan shu yerda yashagan. Shuningdek, XX asrgacha xalq tomonidan Qirqqiz qalʼasi manzili «Shahri Somon» deb ham atalgan.

“QOBUSNOMA” — Sharq va Oʻrta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-taʼlimiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (XI a.). Tabariston (Mozandaron) hukmdori *Shams al-Maoliy Qobus*ning nabirasi *Unsur al-Maoliy* (Kaykovus, 1021-98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082-83) va «Nasihatnomai Kaykovus» deb atalgan. «Qobusnoma» shu asarning oʻzbekcha tarjimasidir. Muallif asarni oʻgʻli *Gilonshohga* bagʻishlagan. «Qobusnoma» asosini Qurʼoni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va koʻrsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Paygʻambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh neʼmatiga

shukur qilmoq haqida bo'lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi. «Qobusnoma» rus va G'arb sharqshunoslarining, Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri o'ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg'ur (1786-87), nemis (1811), o'zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan.

“QUBBAT UL-ISLOM” (Islom dinining gumbazi) — Buxoro IX asrdan shu nom bilan shuhrat topgan. *Narshaxiyning* yozishicha, mashhur fiqhshunos olim *Abu Xafs Kabir Buxoriy* xizmati tufayli Buxoro “*Qubbat ul-islam*” deb atalgan. Balx shahriga ham xuddi shunday faxriy nom berilgan.

QULUYINADDOF — jun to'quvchilar oqsoqoli.

QUSAM IBN ABBOS MAJMUASI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XI-XV asrlar); Shohizinda tarkibida. Majmua turli davrlarda qurilgan masjid, maqbara va chillaxonadan iborat. *Qusam ibn Abbos* qabri atrofida bunyod etilgan. Majmuaga chortoqningsharqiy ravog'idagi ikki tabaqali eshik orqali kiriladi. Yo'lakning o'ng tomonida yuqorisi mo'jaz qafasali bejirim minora (balandligi 12 m, XII asr) saqlangan. Masjid uchga bo'lingan, yon tomondagi devor ustunlar yordamchi hujralarga birlashtirilgan. Ichki devorining izorasi sirkori yulduzsimon parchinlar bilan bezatilgan. Namoyonlar qo'sh islimiy sirkori parchinli hoshiya bilan o'ralgan. Mehrobidagi kitobalari ham sirkori parchinlardan naqshlangan. Masjidning sharqida miyonxona bo'lib, uning jan.-sharqiy burchagidan maqbaraga o'tiladi. Dastlab murabba tarhli, gumbaz bilan yopilgan go'rxona-sag'ana, ziyoratxona va uning ostida joylashgan chillaxonadan iborat maqbara qurilgan. *Qusam ibn Abbos* sag'anasi *Amir Temur* davrida o'rnatilgan: sag'ana ustma-ust qo'yilgan uchta to'g'ri to'rtburchakli va ularning ustidagi 1 egri sirtli, jami to'rt qismdan tuzilgan, yon tomonlarining yuzasi zarhal islimiy naqshlar bilan ziynatlangan, ular orasiga Qur'on oyatlari, hadislar bitilgan. Sag'anani ziyoratxonadan ko'rish uchun go'rxonaning shimol devoriga yog'och panjara o'rnatilgan. Keyinroq masjid va boshqa binolar qurilgan. Bino bag'allariga muqarnaslar ishlangan, gumbazi sirkor qoplamaga ega. Majmuadagi eshiklar ikki tabaqali o'ymakori nafis naqshlar, suls xatidagi kitobalar bilan ziynatlangan. Majmua tarkibidagi xonalarning tarhiy bog'lanishi puxta hal etilganligi bilan ahamiyatga ega.

“QUTADG'U BILIG” (“Saodatga yo'llovchi bilim”) — *Yusuf Xos Hojib* asari, turkiy adabiyotning nodir namunasi, 1069-1070-yillarda yaratilgan. Muallifning asar muqaddimasida xabar berishicha, bu kitob o'z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo'lgan. Chin (Shimoliy xitoy)liklar uni “*Adab ul-muluk*” (“Hukmdorlar odobi”), mochin (Janubiy xitoy)liklar “*Oyin ul-mamlakat*” (“*Hukmdorlik qonun-qoidalari*”), Sharqiy xitoyliklar “*Ziynat ul-umaro*” (“Hukmdorlar ziynati”), eronliklar “*Shohnoma*’i turkiy” (“Turkiy “Shohnoma”), ba'zilar “*Pandnomai muluk*” (“Hukmdorlar pandnomasi”), turonliklar esa “*Qutadg'u bilig*” deb ataganlar. “*Qutadg'u bilik*” dostonini yaratar

ekan, muallif o'z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, *Tavg'achxon* bilan Eloxqonlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarni qo'ygan. Bu bilan *Yusuf Xos Hojib* o'z davrining yirik ma'rifatparvari va donishmandi sifatida gavdalanadi. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifa har tomonlama tahlil qilinadi. “*Qutadg'u bilig*” da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. *Yusuf Xos Hojib* ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand va savdogarlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qo'yadi. “*Qutadg'u bilig*” da axloq, odob va ilm-ma'rifatga doir ko'p qimmatli pand-nasihatlari keltiriladi. Muallif rostg'oylik, halollik, odob, sadoqat va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham o'z dostonini “*Qutadg'u bilig*” deb ataydi. Unda ilm va ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari ilm-fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat etadi. «*Qutadg'u bilig*» markaziga 4 masala qo'yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi — adolat bo'lib, u podshoh *Kuntug'di* timsolida, ikkinchisi — davlat bo'lib, vazir *Oyto'ldi*, uchinchisi — aql bo'lib, vazirning o'g'li *O'gdilmish*, to'rtinchisi — qanoat bo'lib, uning qarindoshi *O'zg'urmish* qiyofasida tasvirlanadi. Shunga muvofiq ravishda qo'yilgan masalalar voqealar rivoji, qahramonlarning o'zaro suhbatlari, bahs-munozarasi, savol-javoblari, pand-nasihatlari vositasida hal qilinadi. Muallif bahsli masalalar yuzasidan ham axloq-odob, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqonu hunarmandgacha — jamiyatdagi barcha toifalarning huquq va burchlari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'xtalgan *Yusuf Xos Hojib* odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi; bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. «*Qutadg'u bilig*» qoraxoniylar hokimiyatining o'ziga xos nazmiy nizomnomasi bo'lib, bu ramziy-timsoliy asar yurt egalari bo'lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va asarda ularga mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, raiyatga zulm qilmaslik, xalqning og'irini yengil qilish, turmushini farovon aylash, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, ilm-ma'rifatga keng e'tibor berish, iste'dod sohiblarini qo'llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo'yicha maslahat va tavsiyalar berilgan. Hukmdorlar adabnomasi — «*Qutadg'u bilig*» qoraxoniylar sulolasi misolida turkiy davlatchilik asoslari yangi bosqichga ko'tarilgan davrda zamon kun tartibiga qo'ygan siyosiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda asosiy dastur bo'lgan. Shoirning u yoki bu masala bo'yicha pand-nasihatlari xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o'xshab ketadi — ularning badiiy yuksakligi va ma'rifiy ahamiyati ham shunda. Asar muallifining so'nggi tahriridan o'tgan va *Tavg'ach Bug'roxonga* taqdim etilgan nusxasi

nasriy (38 misra) va she'riy (77 bayt) muqaddima, kirish boblar (390 bayt), asosiy qism (68 bob, 5896 bayt), xotima (2 qasida va masnaviy bob)dan iborat.

QO'BIZ, QOBUZ — turli musiqa cholg'usi. O'rta asr (*Mahmud Qoshg'ariy, Navoiy, Bobur, Darvishali Changiy* va boshqalar) manbalarida qo'buz turkiy xalqlarning eng sevimli torli-tirnama musiqa cholg'usi sifatida ta'riflangan. Bu shakldagi qo'buz (hozirgi do'mbiraga yaqin) Qirg'izlarda qo'buz, xakaslarda xomis nomi bilan saqlangan. O'zbek, qozoq, qoraqalpoqlarda qo'buz — torli-kamonli cholg'u sifatida mashhur. Rivoyatlarga ko'ra, ilk qo'bizni afsonaviy qo'rquq (o'g'uz baxshilarining piri) yasagan. Qoraqalpoq (XVIII asrga qadar qozoq) jirovlarida, shuningdek, baxshishomonlarda qo'biz asosiy cholg'u hisoblangan.

RABOTIMALIK, SHOHRABOTI — O'rta Osiyodagi monumental me'moriy yodgorlik (taxm. 1069-79). Qadimgi Buxoro — Samarqand yo'lining Cho'li Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida bunyod etilgan. Katta karvonsaroy, hozirgi Navoiy shahri yaqinida. Bizgacha uning faqat peshtoq qismi (diametri — 12,6 m.) saqlangan. Janubiy minorasi (bal. 5,5 m) 1930-yilgacha mavjud bo'lgan. Raboti Minora karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qo'rg'on sifatida ham muhim rol o'ynagan. Rabot katta keng hovli (22,5S22,5 m) va atrofi o'ralgan ikki qavatli xonahujralardan iborat bo'lib, ularga sopol quvurlar orqali suv o'tkazilgan. Markaziy qismi to'ridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5S13 m) 2 qanotiga joylashgan. 20 ta g'ishtin ustun ishlangan. Unga janubdagi peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Atrofi qalin devorlar bilan o'ralgan (jan. va shim. bal. 2,35 m, g'arb va sharqiy qismi 1,5 m, uz. 84-86 m, old devor bal. 12 m ga yaqin). Maydonga qaragan janubiy tarzi o'rtasidagi ulkan peshtoq (bo'yi 18 m, eni 12 m) O'rta Osiyoda eng qadimiy bo'lib, 8 qirrali yulduzlar, turli handasiy shakllar mavjud. Ikki chekkasida burj bo'lib, ular o'zaro baland devor bilan ulangan. Devor o'rtasida piltavor burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoqlar bilan bog'langan. Devor yuqorisi g'ishtin kufiy xatlar bilan hoshiyalangan. Burjlar tepasida ravoqli ko'shk bo'lib, undan atrofni kuzatish qulay bo'lgan. Ko'shk ostida ganchdan yasalgan ikki qator yirik sharafa va kufiy xat halqasi ko'zga tashlanadi. Rabot devorlarining o'zagi xom g'ishtdan (28S28S6,5 sm) terilgan, sirti pishiq g'ishtdan (24S24S4 sm) ishlangan. Bezaklari, asosan, g'ishtin, oz miqdorda o'yama ganch naqshlar ham uchraydi. R.M. xarobasi davlat muhofazasiga olingan.

RAIYAT (arabcha) — 1) biror o'lka yoki mamlakat aholisi; 2) o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida dastlab barcha soliq to'lovchi qishloq va shahar aholisi. Usmonli turk imperiyasida XVIII a. oxiridan boshlab «raiyat» (raiya) atamasi faqat musulmon bo'lmagan aholiga nisbatan ishlatilgan. Indoneziyada «raiyat» xalq ma'nosida qo'llaniladi.

RAVOQ — toqning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinlarining yuqori qismiga qo'yiladigan mehrobiiy yoysimon qurilma.

RASADXONA, observatoriya — astronomik, geofizik, meteorologik va boshqa tadqiqotlar uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassa joylashgan bino. Dastlab, ob'ektlarni kuzatish bilan shug'ullanadigan joy

sifatida paydo bo'lgan, keyin ilmiy tadqiqotlar muassasiga aylangan. O'rta asrlarda Sharqda ko'plab rasadxonalar qurilgan. Keyinchalik (XVI asr o'rtalaridan) Yevropada rasadxonalar optik, radiofizik va boshqa asboblardan ta'minlana boshladi.

RIYOZIYOT — matematika.

ROST — o'n ikki maqom, Shahmaqom va Xorazm maqomlaridan biri. O'rta asr musiqa risolalarida ko'p kuy va ashulalar rost tovush qatoriga mos kelgani uchun shu nom bilan atalganligi qayd etilgan.

RUDAH MIQYOSI — Fustat (Qohira) shahri yaqinida xalifa Umar (634-644) davrida yo'nilgan toshlardan qurilib, 961-yilda esa xalifa Mutavakkil farmoni IX asrning buyuk astronomi va matematigi Ahmad al-Farg'oniy rahbarligida bilan qayta tiklangan suv inшоati.

SAHIH (arabcha — to'g'ri, chin, sog'lom) — eng ishonchli deb hisoblangan hadis to'plamlarining nomi. Muhaddislar hadislarini haqiqiy va nohaqiqiyga ajratish (ya'ni, kodifikasiya qilish) bilan shug'ullanib, isnodni tekshirish yo'li bilan sahih (ishonchli), hasan (yaxshi) va daif (zaif, kuchsiz)dan iborat 3 toifaga bo'lganlar, ulardan asosan sahihlarini to'plashga intilganlar. Shu munosabat bilan ba'zi to'plamlarning nomi ham sahih deb atalgan (mas., «Sahihi Buxoriy», «Sahihi Termiziy»).

“SAHIHI BUXORIY” (asl nomi “al-Jomi” as-sahih” — “Ishonchli to'plam”) — 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning 4 jildidan iborat bu hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar to'plagan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To'plamda fiqh, oila, nikoh, meros, ilm-ma'rifat, imon, e'tiqod, axloq-odob, ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar yoritilgan. Unda islom arkonlariga aloqador mavzular bilan birga o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid ko'pdan-ko'p ma'lumotlar mavjud. Imom al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadis to'plab, ulardan takrorlanadiganlari bilan 7275 tasini ishonchli deb hisoblab kitobiga kiritgan. To'plamda takrorlanmaydigan hadislar soni 4000 tadan iborat. «Sahih», ya'ni ishonarli hadislarini boshqa hadislardan ajratib, alohida to'plam shakliga keltirish an'anasini birinchi bo'lib Imom al-Buxoriy boshlab bergan. Shundan keyin Imom Muslim, Imom at-Termiziy, Imom an-Nasoiy, Imom Abu Dovud, Ibn Moja kabi yirik muhaddislar ham uning izidan borib, sahih hadislarini alohida to'plam shaklida tasnif etishni boshlaganlar. Imom al-Buxoriyning bu shoh asari dunyo yuzini ko'rganiga qariyb 1200 yil bo'ldi. Lekin u to' shu vaqtgacha ham islom manbalari bo'yicha Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda. Ushbu asarning ko'plab nusxalari islom olami bo'ylab keng tarqalgan. Hatto o'rta asrda yashagan ayrim adib va xattotlar uchun bu asardan nusxa ko'chirib berish an'anasi bo'lgan. Asarning asrlar osha bizgacha yetib kelgan turli arab yozuvi uslubida bitilgan qo'lyozma nusxalari mamlakatimizda va xorijiy yurtlarda mavjud. “Sahihi Buxoriy” asariga ko'pdan-ko'p sharhlar yozilgan. Muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda.

“SAHIHI TERMIZIY”, «SUNANI TERMIZIY» — 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Iso Muhammad Termiziy yozgan. “al-Jomi” as-sahih” (“Ishonarli

to'plam"), "*al-Jomi ul-kabir*" ("Katta to'plam") nomlari bilan ham yuritiladi. "Sahih Termiziy" *Termiziyning* 20 yil davomida o'zga yurtlarda hadislarini o'rganib, yig'ib, so'ng ustoz va zamondoshi *Buxoriy* bilan maslahatlashib yiqqan to'plamidir. U tartibi eng ixchamligi, takrori eng ozligi bilan ajralib turadi. Unda boshqa hadis kitoblarida uchramaydigan xususiyatlar bor. Chunonchi, har bir bobning hadisi zikr qilingandan keyin, xuddi shu bobga tegishli hadis rivoyat qilganlarning ismlari sanab o'tiladi; fiqhiy masalalarda faqihlarning fikr-qarashlari zikr qilinadi; har bir hadisning ishonarlilik va zaiflik darajasi aniqlab beriladi va "sahih" ustiga "hasan" belgisi ("juda sahih", "beshak sahih" ma'nosida) kiritiladi. "Sahih Termiziy" kitobida *Imomi A'zam* mazhabi jihatlarini e'tiborga olingan. 6 jildidan iborat "Sahih Termiziy" birinchi jildining o'zbekcha tarjimasini 1999-yil Toshkentda nashr etildi.

"SAMOVYI HARAKATLAR VA UMUMIY ILMIIY NUJUM" ("*Kitob al-harakat as-samoviya va javomia ilm an-nujum*") — *Ahmad al-Farg'oni*ning astronomiyaga oid asari. Bu asar "*Astronomiya asoslari haqidagi kitob*" nomi bilan ham ma'lum bo'lib, 1145 va 1175-yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etiladi. Shundan so'ng *Ahmad al-Farg'oni* nomi lotinlashtirilib, "*Alfraganus*" shaklida G'arbda shuhrat topadi. Uning "*Astronomik asoslari haqidagi kitob*" nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Asardan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonisidagi astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga olgan.

SARDOBA (fors-tojikcha sard — sovuq va ob-suv) — suv tanqis hududlarda uni to'plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. O'rta Osiyo va Sharqdagi boshqa mamlakatlarda qurilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Movarounnahrda 44 ta sardoba bo'lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho'lida, 3 tasi Mirzacho'lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida, 1 tasi Karmana yaqinida — Cho'li Malikda qurilgan. XIX asr oxirigacha ishlatilgan sardobalardan biri hozirgi Tukmanistondagi Sandiqli cho'lida XVII asr o'rtalarida Kerki va Qarshi shaharlarida bog'lovchi karvon yo'lida qurilgan, hovuzning diametrik 17 metr bo'lgan Sangi suvloq sardobasidir. Sardobalar qadimda dasht va cho'llarda chorvani va savdo karvonlarini suv bilan ta'minlashda muhim o'rinda turgan.

SIPOHON — O'n ikki maqom tizimidagi maqomlardan biri.

SULTON (arabcha — hukmdor, podshoh) — musulmon davlatlari boshliqlarining unvoni. X asrda islom mamlakatlarida hukmdor sulton deb yuritilgan. Shohlar, xonlar va ularning farzandlari ismiga sulton so'zi qo'shib aytilgan. Rum sultonligi hukmdorlariga sulton unvoni XI asrning 30-yillaridan berila boshlangan. Mazkur unvonni birinchi bo'lib saljuqiylardan bo'lgan *To'g'rubek* 1038-yilda olgan va bu unvon 1055-yil Bag'dod zabt etilganidan so'ng xalifa tomonidan e'tirof etilgan. Usmonli turk hukmdorlari, Xorazmshohlar, G'aznaviylar singari mustaqil

davlat hukmdorlari ham sulton atamasi bilan ifodalangan. Mo'g'ul istilosidan keyin *Chingizxon* xonadonining har bir vakili sulton deb atalgan. Temuriylar saltanatida ham keng iste'molda bo'lgan. Shayboniylarda sulton hukmdorlar, sulola vakillariga berilgan.

SULTON SAODAT MAJMU'I — Termizdagi me'moriy yodgorlik (X-XVII asrlar). Termizning sharqida joylashgan bu ziyoratgoh 7 asr davomida shakllangan. 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga olgan. Unda Sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab shu atrofdagi yerlar egasi, payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lmish *Hasan al-Amir* (IX-a. ikkinchi yarmida vafot etgan) maqbarasi bunyod etilgan. Xalq orasida Sulton Saodat maqbarasi nomi bilan mashhur bo'lgan maqbaralar X asrda, qolganlari, asosan, XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilib, uzun hovlining ikki tomonini egallagan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalar (9x9,05 m va 10,15x10,25 m) dan iborat. Hovlining to'ridagi peshtoq va ikki qanotidagi gumbazli maqbaralar bir xil tarhda, janubidagi maqbara zinalar hisobiga kichikroq ko'rinadi. Shimoliy-g'arbidagi maqbaraning qurilma va bezaklari oddiy g'isht (27x27x5 sm) dan juft-juft qilib terilib, mavjli bezak hosil qilingan. Ichki xona devorlariga g'ishtdan hoshiyali bo'rtma ravoqlar ishlangan. Janubiy-g'arbdagi maqbara shimoliy-g'arbdagidan bir oz kichik, ko'rinishi oddiy, ganch suvoqli. Mazkur 2 maqbara orasidagi peshtoqli supa to'riga mehrob joylashgan. Sirkor koshinlar binoga alohida husn bag'ishlagan. XV-XVII asrlarda qurilgan maqbaralarda o'sha davrga xos yulduzsimon girih naqshlar, ganchkori bezaklar keng qo'llanilgan. Majmua mustaqillikdan keyin ta'mirlanib, ziyoratgohga aylantirilgan.

SULUK — ta'limot.

"SUNANI ABU DOVUD" — 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Muhaddis *Sijistoniyning* asari. Ungacha hadis to'plamlari "*al-Jomi*" yoki "*al-Musnad*" deb nomlangan bo'lsa, u o'z to'plamini "*as-Sunan*" deb atadi va unga sunnati nabaviya va shar'iy ahkomlarni mavzular bo'yicha boblarga bo'lib yozib chiqdi. "*Sunan*" da 4800 ta hadis rivoyat qilingan. To'plam 35 fasl, 1871 bobdan iborat. Unga 3 ta olim 3 xil sharh ham bitgan.

"SUNANI IBN MOJA" — 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Muhaddis *Ibn Mojaning* asari. Asar 32 fasl, 1500 bobdan iborat. *Ibn Moja* o'z to'plamini fiqhiy masalalarga xos mavzularga bo'lib chiqqan. "*Sunan*" dan jami 4000 ta hadis joy olgan. Ulamolar ushbu *Sunan*'ni mashhur hadislar to'plamlari qatoriga qo'shish yoki qo'shmaslik masalasida uzoq tortishganlar. Nihoyat, *Ibn Mojaning* "*Sunan*" i oltinchi o'rinda ishonchli to'plamlar safiga kiritilgan.

"SUNANI NASOIY" — 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Muhaddis *Nasoiyning* asari. *Nasoiy* birinchi bo'lib "*as-Sunan al-Kubro*" ("Katta hadislar to'plami") ni yozgan. So'ngra Ramla amirining iltimosiga binoan, uni qisqartirib, eng ishonchli hadislarini qoldirib, unga "*as-Sunan as-Sug'ro*" ("Kichik to'plam") yoki "*al-Mujtabo*", ya'ni "tanlangan hadislar to'plami") deb nom qo'ygan. Ulamolar fikricha, "*Sunan*" nomi bilan yozilgan barcha hadis to'plamlaridagi hadislarining hammasi sahih emas, balki ularda zaif hadislar ham mavjud. "*Sunan*" ga

Imom *Jaloluddin Suyutiy*, shayx *Abul-Hasan Muhammad al-Hanafiy as-Sindi* va Shayx *Sirojiddin Umar ash-Shofi'iy* sharh bitgan.

TAFSIR (arabcha — sharh, tushuntirish, ochib berish, izoh) — islom an'anasida, asosan, Qur'oni karim oyatlarini sharhlash, tushuntirib berish. Qur'on oyatlarini tafsir qilish *Muhammad (sav)* davrida vujudga kelib, bu ilm *Muhammad (sav)*dan sahobalarga, sahobalardan tobe'inlarga meros qoldi. Sahobalar va tobe'inlar asrida tafsir og'zaki rivoyat va naql shaklida bo'lib, ta'lif qilib yozilmagan. *Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'ud* va boshqalar mashhur tafsirchi bo'lganlar. Tafsirdan birinchi kitob yozgan shaxs *Abdumalik ibn Juraydir* (VIII asr). *Muhammad ibn Jarir Tabariy, Yahyo ibn Salom, Abu Bakr Nisoburiy* va boshqalar mufasssirlar tafsir yozishda shuhrat topdilar. Hozir dunyoda Qur'oni karimga 1700 dan ortiq tafsir yozilganligi ma'lum.

TAKASH MAQBARASI — Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (XIII asr boshlari). Xorazm shohi Takash (1200-yil vafot etgan)ga atab qurilgan. Maqbara murabba tarhli (11,45S11,45 m), poygumbazi (bal. 12,5 m) g'olasimon g'arovli, gumbazi kulohiy. Unga jan. tomondagi pesh toq orqali kiriladi. Peshtoq ravog'i sopol muqarnaslar bilan pardozlangan. Devor qalinligi 3,5 m, tashqi poygumbazidagi mayda yassi ravoqchalar ichi naqshlar bilan to'ldirilgan, ba'zilariga xonani yoritish uchun tobadonlar ishlangan, tepasi muqarnas kosachalar bilan bezatilgan. Ichki poygumbazi va gumbazida ham o'ziga xos me'moriy shakllar qo'llanilgan, ustun, eshik, mehrobidagi yog'och o'ymakorligi namunalari haqiqiy san'at asaridir. Tashqi qiyofasida o'sha davr Xorazm me'morligining o'ziga xos jihatlari aks etgan.

TAKYAXONA (arabcha — musofirxona) — musulmon mamlakatlarida boy-sarmoyador kishilar tomonidan qurilgan, musofir, kambag'al, uysiz shaxslarga vaqtincha yotoq, boshpana sifatida bepul xizmat ko'rsatadigan mehmonxona. Takyaxona asosan karvonlar yo'li ustida, turli ziyoratlar maqsadida tez-tez mehmonlar kelib turadigan joylarda qurilgan.

TARIQAT (arabcha — yo'l, usul) — tasavvufga xos tushuncha; tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l. O'rta Osiyoda naqshbandiya, kubroviyalik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan.

TARONA (forscha) — qo'shiq, ashula turi. O'tmishda ruboiy shaklidagi she'rlar bilan ijro etiladigan qo'shiq va ashulalar turi deb yuritilgan. Taronatamasi, ayniqsa XIV-XV asrlardan keng qo'llanila boshlagan. *Najmiddin Kavkabi* va *Darvishali Changiy*ning musiqa risolalarida kuy (qo'shiq)ning muayyan shakli sifatida tushuntirilgan; O'n ikki maqom tizimida Ushshoq maqomi tarona deb ham atalgan.

TASAVVUF, SUFIYLIK — musulmonlarni holollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o'zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da'vat etuvchi ta'limot.

“TA'VILOT AHLAS-SUNNA” — *Al-Moturidiy*ning

islomiy odob qoidalari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan asari. Unda diniy ta'limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanishidagi mohiyati talqin etilgan.

“TARIXI MULUKI TURKISTON” (“Turkiston mamlakati tarixi”) — *Majidduddin Adnoning* asari.

“TARIXI OLI MAHMUD” — *Abulfazl Bayhaqiy*ning 30 jildidan iborat bo'lgan tarix asari. “Tarixi oli Mahmud” asarining *Mahmud G'aznaviy* o'g'li *Mas'ud* hukmronligi (1030-1041-yillar)ga oid qismigina saqlanib qolgan bo'lib, u “*Tarixi Mas'udiy*” va “*Tarixi Bayhaqiy*” nomi bilan ham mashhur. Asarda *Sulton Mas'ud* davrida G'aznaviyalar saltanatining ijtimoiy-siyosiy ahvoriga keng o'rin berilgan. Bundan tashqari, asarda Safforiylar, Somoniylar, saljuqiylar tarixiga oid ma'lumotlar bor. Ayniqsa, G'aznaviyalar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati o'rtasida bo'lgan siyosiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

TERMIZIY MAQBARASI, ABU ISO TERMIZIY MAQBARASI — Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi me'moriy yodgorlik (XI-XII asrlar). *Abu Iso Muhammad Termiziy* qabri ustiga qurilgan. Hozirgi kunda yodgorlik bir-biridan ravoqlar orqali o'tuvchi 4 xona (bo'lma)dan iborat yaxlit bino ko'rinishida, xonalar tarhi 4,3S4,5 m. Shim.-sharqiy tarzi ayvon qurilishi munosabati bilan keyinchalik to'silgan. Uch xonali bo'lma murabba tarhli, ulardan jan.dagisi go'rxona. Unda marmar sag'ana bor. Sag'ana uch pog'onali, muqarnas naqsh va yozuvlar bilan pardozlangan. Go'rxonadan tor uzun yo'lka orqali xonaqohga o'tiladi. Xonaqoh poli go'rxonaga nisbatan pastroq bo'lib, ular oralig'i keng ravoq bilan ajratilgan. Xonaqoh gumbaz tomli, mehrobli. Yonidagi ikki xonadan shim.-sharqiy tarziga chiqiladi. Xonaqoh oldidagi uch ayvon gumbazli, qalqonsimon bag'alli, devorlariga to'rt ravoq ishlangan, pishiq g'ishtdan hoshiyalar terilgan. Termiziy maqbarasi ganchkori bezaklar bilan pardozlanib, tashqi devorlariga 6 g'ishtin ravoqli namoyonlar ishlangan. Tobadonlariga oq ganchdan panjaralar o'rnatilgan. Ravoqlari g'isht qalinligida hoshiyalangan. Termiziy maqbarasi bosh tarzini kichik ko'shksimon gumbazli qurilma egallagan. *Amir Temur* tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Termiziy maqbarasida ta'mirlash ishlari olib borildi. Sag'anasi va ganchkori panjaralari qayta o'rnatildi.

TERMIZIY ME'MORIY MAJMU, HAKIM TERMIZIY MAQBARASI — Termizdagi me'moriy yodgorlik (IX-XV asrlar). Majmua *Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy* nomi bilan bog'langan. Termiziy me'moriy majmui asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat bo'lgan. Dastlab xom g'ishtdan xonaqoh (IX a.) bunyod etilib, *Hakim Termiziy* shu yerda yashab mudarrislik qilgan. Binodan keng hovlining bir qismi, qalin devor to'siq va shim.-sharqiy burchagida uncha katta bo'lmagan yerto'lasimon hujra saqlangan. Vaqtlar o'tishi bilan qabr ustiga, xonaqohning jan. g'arbiy burchagida xom g'ishtdan jan.ga qaratib maqbara bunyod etilgan (IX a.). Termiziy maqbarasi xalq orasida ulug'lanib avliyo qabri, muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozlangan. Keyinchalik maqbaraning sharqiy devoriga tutashtirib kichik qorixona va o'g'li *al-Hakim*

Abdulloh maqbarasi (X a.), shimolda uncha katta bo‘lmagan hovliga qaragan uch gumbazli, ravoqli yo‘lak ko‘rinishidagi namozgoh masjid (XI-XII asrlar) hamda bir qator qo‘shimcha xonalar qo‘shilgan. Temuriylar hukmronligi davrida (XV a.) xonaqoh baland asos (bal. 1,5 m) ustiga pishiq g‘ishtdan qayta qurildi. Unga tutash bo‘lgan xonalar ta‘mirlandi. Xonaqohning shim. va jan. tomonlariga peshtoq ishlendi. Oddiy va aniq qurilmali xona devorlari ravoq ustunlari «romb» ko‘rinishidagi poyustunga tayangan. Hakim Termiziy maqbarasi IX asrda bunyod etilgan xonaqoh hujralaridan biri bo‘lgan. Xonaqoh hovlisining g‘arbidagi uch gumbazli masjid maqbaraga tutash, uch ravog‘i hovliga qaragan. Masjidning g‘arbiy devor markazida keng hoshiyali mehrob bor. Undagi bo‘rtma yozuv, sopol shakllar, oraliq zaminidagi o‘yma ganch bezaklar o‘ziga xos. Masjid ustunlari g‘ishtdan bezakli qilib terilgan. Masjidan ravoq orqali maqbaraga o‘tiladi. Maqbara ichi ganch o‘ymakorligida gilam nusxa bezakda serhasham pardozlangan. Gumbaz osti sharafasida kufiy xatida Qur‘onning 36-surasi o‘yib yozilgan. Xonaqoh ichi ham yulduzsimon girih naqshlar bilan pardozlangan. Ravoqlaridagi tobadonlariga panjaralar o‘rnatilgan. Maqbara ichidagi oq marmar sag‘ana temuriylar davridagi tosh o‘ymakorligi san‘atining yuksak namunasi. Sag‘ana uch pog‘onali, asosi islamiy naqsh va yozuvli hoshiyalar bilan, o‘rta qismidagi uch mehrobli tokchani markaziy (o‘rta) qismi muqarnas kosachalar bilan, ikki yoni shamchiroq tasviri bilan bezatilgan. Sag‘anadagi yozuvlarda Termiziy hayoti va faoliyati tavsiflangan. Kichik maqbarada ham ta‘mirlash ishlari olib borilgan. *Abdullaxon* hukmronligi davri (XVI a.)da hazira (hovli) hududida 9 gumbazli masjid (eski masjidni o‘z ichiga olgan) qurilgan. Oldida yengil ravoq-ustunli ayvon joylashgan. XIX asrda 9 gumbazli masjid o‘rta 4 gumbazli masjid bunyod etilgan. Janubdan kiraverishda yana bir maqbara (go‘rxona va ziyoratxonadan iborat) qurilib, ravoqli bo‘lmalar orqali Termiziy maqbarasi va xonaqoh bilan o‘zaro bog‘langan. Termiziy me‘moriy majmui 1955-57-yillarda ilmiy o‘rganilib XIV-XV asrlardagi ko‘rinishi qayta tiklandi. 1980-81-yillar va 2001-2002-yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozlandi. Majmuaning umumiy tarhi 28,0S29,0 m, maqbara 5,10S4,70 m.

TERMIZSHOHLAR SAROYI — Termiz hukmdorlarining qarorgohi. XI-XII a. me‘morligining diqqatga sazovor namunalaridan. 1926-28, 1936-37-yillarda qazib o‘rganilgan. Saroy majmuasi katta hududni ishg‘ol etib, to‘g‘ri to‘rtburchak tarhda qurilgan. Saroyning bosh tarzida peshtoq bo‘lib, keng hovli o‘rtasida hovuz (8,5 S8,5 m, unga sopol quvurlardan suv keltirilgan), mehmonxona (katta zal va dahlizli), zal oldida 4 ta murabba ustunli ayvon bor. Qazish paytida ganch panjara, rangdor oyna, ganchga bo‘yab ishlangan tasvir qoldiqlari topilgan. Saroy bir necha marta ta‘mir etilgan. XII asrda zal intereri ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan, devorlarga afsonaviy maxluqlarning tasvirlari ishlangan. 1220-yilda Termizni Chingizxon qo‘shinlari qamal qilgan, qattiq qarshilik ko‘rsatilgani uchun saroy boshqa ko‘pgina binolar qatori vayron qilingan, xarobalar saqlanmagan.

“TIB QONUNLARI” (asl nomi «Kitob al-Qonun fi-t-

tib») — *Abu Ali ibn Sino*ning tibbiyotga oid asari. “Tib qonunlari” o‘z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson sog‘ligi va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Oldinlari tabobat, asosan, hunar hisoblanar va u bilan shug‘ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat bermay uni amalda qo‘llash bilan cheklanar edilar. Ibn Sino esa tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi va yunon, rim, hind, Yaqin va O‘rta Sharq tabiblarining tajriba va fikrlariga tayanib “Tib qonunlari”da uning ham nazariy, ham amaliy masalalarini chuqur ishlab chiqdi. *Ibn Sino* “Tib qonunlari”ning birinchi kitobini Go‘rgonda, qolganlarini esa Ray va Hamadonda yashagan vaqtida yozgan (1015-1024). *Ibn Sino* “Tib qonunlari”ni yozishda yunon tabiblaridan *Gippokrat, Dioskorid, Galen, Oribaziy, Pavel*, Hindiston tabiblaridan *Charaka* asarlarining arab tiliga tarjimasidan; O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan yetishib chiqqan *Abu Jurayj, Masih ad-Dimashqiy, Ibn Mosavvayh, Sobur ibn Sahl, Sahorbuxt, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Sahl al-Masihiy* kabi olimlarning tibbiy asarlaridan manba sifatida foydalangan. “Tib qonunlari”ning har bir kitobi, o‘z navbatida, qismlarga (fan), bo‘limlarga (jumla), maqolalarga (maqola) va paragraflarga (fasl) bo‘lingan. XI asrning boshlarida yozib tugatilgan “Tib qonunlari”ning ko‘p sonli qo‘lyozma nusxalari tarqalib, tib ilmi bo‘yicha eng mukammal asarga aylanadi. U Sharqda naqadar mashhur ekanligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalarining ko‘pligidan ham bilsa bo‘ladi. Tadqiqotchilar “Tib qonunlari”ning 130 nusxasi keltirishgan. 1130-yil tarjimonlar guruhi tashkil qilinadi va kremonalik Gerard (1114-1187-y.) “Tib qonunlari”ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi, biroq bu ishni keyin XIII asrda yashagan *Gerard* oxiriga yetkazadi. Umuman “Tib qonunlari” lotin tilida 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir. XIX asrga kelib Yevropada “Tib qonunlari”ga bo‘lgan qiziqish orta boshladi va uning ayrim qismlari nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilindi. “Tib qonunlari» kitobi ko‘p asrlar davomida tibbiyotdan asosiy dastur bo‘lib kelgan, hozir ham bir qancha dorilfununlarda o‘rganiladi.

“TIRIK MAVJUDOTA’ZOLARI HAQIDA” — *Abu Nasr Farobiy*ning asari.

TURKISTON — turkiy aholi yashagan o‘lka.

“USTURLOB BILAN ISHLASH” — *Muso al-Xorazmiy*ning astronomiyaga oid asari.

USHSHOQ (arabcha — oshiq so‘zining ko‘pligi) — O‘n ikki maqom tizimida birinchi maqom. Lirik kuy va ashulalardan iborat bo‘lgani uchun ushshoq deb nom olgan. Qadimgi risolalarda ushshoq Umm ul-advor (Maqom davrlari onasi) va Tarona deb ham atalgan.

VOBKENT MINORASI — Buxoro viloyati Vobkent shahridagi me‘moriy yodgorlik (XII asr). O‘n ikki qirrali supa asosga o‘rnatilgan g‘o‘la (quyi qismining diametrik 6,19 metr, yuqori qisminiki — 2,81 metr) shaklida rangdor, pishiq g‘ishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud bo‘lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Bo‘rtma naqshli 10 belbog‘ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga o‘xshamaydigan qilib g‘isht terib naqshlangan, quyisida naqshlar orasida

qurilgan yili va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulazoz II) ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametrik 366 metr), g'isht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi g'isht panjara bilan to'silgan. Minoraning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan Minorai kalonga o'xshaydi, lekin muqarnaslari ancha soda. Minora supasi tupro ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 metr bo'lganini arxeologik tadqiqotlar ko'rsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 metr.

XATTOTLIK (arabcha — xusnixat yozuvchi) — yozuv (xat) san'ati, kitob ko'cherish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muhaqqah, nasta'liq, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riqo, riq'iy) mavjudligi haqida darak beradi.

XOJA (forscha — xo'ja, xo'jayin) — islom mamlakatlarida turli davrlarda turlicha ma'noda ishlatilib kelingan faxriy unvon va murojaat shakli. Ijtimoiy tabaqa sifatida sayyidlardan keyingi o'rinda turgan. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida har xil fikr bor. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalar choryorlardan tarqalgan deyilsa, boshqasida arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari deb hisoblanadi. Xo'jalar muayyan imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ba'zi mamlakatlarda bu imtiyoz ma'lum darajada saqlanib qolgan. Tasavvufda tariqat mashoyixlariga beriladigan unvon. Bu unvon, asosan, *Yusuf Hamadoniy*dan boshlab ishlatila boshlangan. Mas., *Xoja Yusuf Hamadoniy*, *Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy*, *Xoja Ahmad Yassaviy*, *Xoja Muhammad Samosiy*, *Xoja Bahouddin Naqshband*, *Xoja Ahror Valiy* va hakoza. Undan oldingi ulug' pirlarga "shayx" unvoni berilar edi.

XONBANDI — qadimgi suv ombori (X asr). Hozirgi Jizzax viloyati Forish tumani markazidan 12-15 km shimolda, Pasttog' darasi ichiga qurilgan. Xonabandi Nurota tog'idan oqib chiqadigan Osmonsoy va Ilonchisoyning sel suvlarini jamg'arib, yozda ekinlarni sug'orish uchun barpo etilgan. Xonbandi tog'oni granit toshlar va suvga chidamli maxsus qorishmalardan ishlangan. To'g'onning balandligi 15, 25 metr, uzunligi ustki qismida 51, 57 metr, asosida 24, 35 metr. Xonbandining uzunligi 1,5 km, eni tog'on oldida 52 metr, dara og'zida 200 metrga va suv sig'imi esa 1 mln 600 ming m² ga teng bo'lgan. Xonbandi tufayli Qizilqumning Mirzacho'l bilan tutashgan chegarasida taxminan 1,5 ming yer ga maydoni o'zlashtirilgan. Suv omboridan 6 km shimolda mustahkam rabot qad ko'targan, uning xarobalari Kaltepa deb yuritiladi. Kaltepada olib borilgan arxeologik tekshirishlar bu kichik vohaning X asrda obod etilib, XII asr oxirlarigacha hayot davom etganini aniqlab berdi. Suvni chiqarish uchun Xonbandi inshootining g'arbiy chekkasida 9 ta quvur o'rnatilgan. Ular oqib chiqadigan suvning dinamik ta'siriga qarshi konussimon qilib ishlangan. Xonbandi to'g'onning matematik o'lchovlariga qaraganda uni bino qilgan X asr irrigatorlari mazkur inshootni qurishda

tog'on oldiga to'planadigan 16 metr chuqurlikdagi suvning vertikal bosim kuchini hamda inshootni ag'daruvchi gorizonta kuchni aniq muhandislik hisobi asosida belgilab chiqqanlar. Shuning uchun ham Xonbandi tog'onining asosi yuqori qismiga nisbatan 4 baravar qilib ishlangan (qalinligi ostida 8 metr, yuqorisida 2 metr ga teng). To'g'on maxsus loyiha asosida bino qilingan.

XONIY — O'rta asrlarda O'rta Osiyoda podshoh, xon va sultonlar tarafidan elchilarga, mudarris va ilmiy toliblarga ularning maoshi uchun vaqt-vaqti bilan berib turiladigan pul in'omi. Bu in'om oluvchilarning martabalariga qarab berilgan.

XORAZM FAXRI — *Mahmud Zamaxshariy* shu nom bilan ulug'langan.

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI, MA'MUNIY-LAR AKADEMIYASI — Xorazmda X a. oxiri — XI a. boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit. Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o'rnatish bo'yicha tadbirlarni boshlab yuborgan. Kun tartibida davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan. *Ali ibn Ma'mun* (997-1010) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo'lgan. Uning baxtiga tog'asi, *Abu Nasr ibn Iroq* o'z davrining o'ta bilimdon olimi bo'lgan. 1004-yilning boshida *Ibn Iroq* taklifi bilan *Beruniy* Gurganjga qaytib kelgan; Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko'plab olimlar Gurganjga kelishgan. Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda "*Dorul hikmat va maorif*" (ba'zi bir manbalarda "*Majlisi ulamo*") nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "*Platon*", Bag'doddagi "*Bayt ul-hikmat*" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan; *Al-Xorazmiy*, *Al-Farg'oniy*larning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan. XVIII-XX a. tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga «*Ma'mun akademiyasi*» nomi berilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: *Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy* (X a. — 1034), *Abulxayr ibn Hammor* (941-1048), *Abu Sahl Iso ibn Yah'yo al-Masihiy al-Jurjoniy* (970-1011), *Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy*, *Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino*, *Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh* (1030-yilda vafot etgan), *Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysaburiy* (961-1038), *Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy* (1015-yilda vafot etgan), *Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy* (X-XI asrlar), *Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy* (X-XI asrlar) va boshqalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan

yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida O'rta Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. Masalan, *Abu Nasr ibn Iroq* astronomiyaga doir ilmiy asarlari tufayli "*Batlimusi soniy*" ("Ikkinchi Ptolemey") degan faxriy nom olgan. *Abulxayr ibn Hammor* mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun "*Buqroti soniy*" ("Ikkinchi Gippokrat") laqabiga sazovor bo'lgan. *Abu Sahl al-Masihiy* tabib, *Ibn Sinoning* ustozi bo'lgan. Akademiya rahbari *Abu Rayhon Beruniy* fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullangan. Uning geodeziya va matematika sohalari bo'yicha asarlari bugun ham dolzarbdir. *Beruniy* O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, tibbiyotga oid. "*Kitob as-Saydana fit-tib*" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi") asarini yozgan. *Beruniy* Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan taxminan 450 yil oldin aytib o'tgan. Uning "*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*" asarida qadimgi xalqlar (yunonlar, eroniylar, sug'diylar, xorazmiylar va boshqalar)ning yil hisoblari, bayramlari va mashhur kunlari, urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Xorazm Ma'mun akademiyasining yana bir zabardast qomusiy olimi *Ibn Sino* jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Xususan, uning "*Tib qonunlari*" asari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Xorazmda *Ibn Sino*, asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullangan. Olimning *Aristotel* ta'limoti xususida *Beruniy* bilan va o'zining shogirdi *Baxmanyor* bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Bu yozishmalar savol-javob tarzida bo'lib, unda *Beruniy* va *Ibn Sino* fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar. *Ibn Sino* xorazmshohlar vaziri *Abul Husayn as-Sahliy* bilan do'stlashib, unga atab alkimyoga oid "*Risola al-iksir*" ("Iksir haqida risola") asarini yozgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Xorazm tabiati, iqlimi, sug'orish tizimi, mineralogiyasi, yer osti suvlari, Amudaryo deltasining tarixi, korizlar qurish orqali tuproqni tozalash yo'llarini tadqiq etishgan. Akademiya a'zolaridan *Abu Bakr al-Xorazmiy*, tabib *Abu-l-Faraj ibn Hindu* she'riyatda yuksak mahoratga erishganlar. Xorazm tarixi, dinlari, taqvim, bayramlari, urf-odatlar, yozuvi, milliy qadriyatlar haqidagi qimmatli ma'lumotlar ularning faoliyati tufayli bizgacha yetib kelgan. Ularning o'zlariga xos shiori: "*Ilm — insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin*", — deya atalgan edi. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlariga ilmda qat'iylik xos bo'lgan. *Aristotel* yo'l qo'yan ko'p xatolar tekshirishlar davomida tuzatilgan, qutbdagi davomiy tun va kunlar masalasi osonlik bilan falakiyot fani nuqtai nazaridan tushuntirilib, yechilgan. *Beruniy* qayd etishicha, qadimda Xorazm astronomlari yulduzlar joylashish tartibini arablardan ko'ra yaxshiroq bilishgan. Xorazmshoh *Ma'mun ibn Ma'mun* (Ma'mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o'z davrida uzoq o'lkalarga tarqalgan. Bu esa *Mahmud G'aznaviy*ning g'ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqaqd natijasida 1017-yilning bahorida *Ma'mun II* o'ldirilgan va

o'sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan *Mahmud G'aznaviy* Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg'in va talon-torojliklar natijasida Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu yerdagi olimlarning ko'pchiligi G'aznaga majburan olib ketilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida*" gi farmoni (1997-yil 11 noyabr) O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli va fidoyi olimlarni qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an'analarni rivojlantirishda qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. 1997-yil noyabr oyida akademiyaning tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya muammolari bo'limlari tashkil qilinib, 9 ilmiy mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Arxeologiya, tarix va falsafa bo'limining xodimlari "*Xorazmda qadimgi va o'rta asrlar o'zbek davlatchiligi tarixi*", "*O'zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o'rni*", "*Xorazm viloyati arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish*" mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishdi. Til va adabiyot bo'limida, "*IX-XIII asrlarda Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki epos*", "*IX-XIII asrlar Xorazm yodnomalari tili*" mavzusi bo'yicha Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki afsonalari hamda rivoyatlar Avestodagi mifologik qatlam bilan qiyosiy tahlil qilindi. Og'zaki va yozma namunalar tahlili orqali adabiy va badiiy tillarga xos xususiyatlar, ularning o'zaro ta'siri o'rganildi. Biologiya muammolari bo'limida 4 ilmiy mavzu "*Xorazm vohasi tuproq — iqlimi sharoitida istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli ko'niktirilgan o'simliklar navlarini o'rganish*", "*Xorazm viloyati sharoitida ekinlarni almashlab ekishning biologik asoslarini ishlab chiqish*", "*Xorazm viloyati sharoitida asosiy, oraliq va takroriy ekishlarda ozuqaviy ekinlarni parvarish etishning samarali texnologiyalarini va makkajo'xoring urug'chilik tizimini barpo qilish*", "*Quy Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv-tuz rejimini yaxshilaydigan kollektor — zaxkash tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish*" bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi jamoasi ilmiy tadqiqotlarni xalq xo'jaligi talablari asosida shakllantirish, ularni dolzarb masalalarni echishga qaratish, byudjet mablag'larining samaradorligini oshirishda ustuvor fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga intilmoqda. 2003-yildan boshlab akademiya 2 fundamental va 8 amaliy dasturlar bo'yicha 58 xodim, shu jumladan, 2 akademik, 8 fan doktori va 24 fan nomzodlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-noyabrdagi qaroriga muvofiq, 2005-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.

XUSRAVONIY (forscha — shohlarga mansub) — O'rta Osiyo va Eron qadimgi bastakorlik san'ati, xususan, Borbad ijodiga nisbatan etilgan musiqiy asarlar turkumi. Dastlab, 7 qismdan iborat bo'lib, 7 xil pardada kuylanuvchi shohona (jasorat, mardlik va boshqalar) mavzularga oid (ayrimlari "Avesto" matnlaridagi) qo'shiqlardan tuzilgan. Keyinroq

bular asosida o'zga mavzular qamrovidagi turkumli asarlar yuzaga kelgan. Xusravoniy keyinchalik O'n ikki maqom tizimi va o'zga mukammal turkumlar shakllanishida omil vazifasini o'tgan.

XUTBA (arabcha — targ'ibot, nutq) — juma namozi oldidan va hayit namozidan keyin xatib (masjid imomi)ning va'zxonligi, diniy pand-nasihat. O'rta asrlarda xurbaning muhim siyosiy ahamiyati bo'lgan. Namozxonlar mamlakat hukmdori ismini aytib, uning haqiga duo qilishlari lozim edi. IX a. ikkinchi yarmidan ayrim hukmdorlar xutbada o'z ismlarini xalifa ismidan keyin qo'shib aytilishi uchun harakat qilishgan. Xutbada hukmdor ismining yodga olinishi hukmdorning mustaqil ekanligining asosiy tashqi belgilaridan biri hisoblangan.

“YAHUDIYLARNING TAQVIMI VA BAYRAMLARINI ANIQLASH HAQIDA RISOLA” — *Muso al-Xorazmiyning tarixga oid asari.*

YASOL (turkiycha yasa — safga tizish) — Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyoda qo'shinning harbiy safar hamda jang maydonida egallagan jangovar tartibi. Tarixiy ma'lumotlarning shahodat berishicha, har bir harbiy qism va bo'linalarning yasoldagi doimiy o'rinlari oldindan belgilab qo'yilgan. Yasoldagi qat'iy tartib-intizomni hech kim o'zboshimchalik bilan buzish huquqiga ega bo'lmagan. Vaqt o'tishi bilan yasol ham takomillashtirilgan, uning tuzilmasi murakkab tus olgan. Ikkinchi Turk xoqonligi ijtimoiy, siyosiy, madaniy turmush tarzini aks ettiruvchi qadimgi turkiy run bitiklaridan xoqonlik qo'shinining yasoli quyidagi tarzda bo'lganligini, ya'ni u, asosan, yelma, qaraku (avanpost, soqchi guruh), yizak, ilki su (avangard, ilg'or qism), o'ng (o'ng qanot) va so'l (chap qanot) qismlardan iboratligini ilg'ab olish mumkin. Qo'shin markazi va arergardning mavjud bo'lganligi, ularning qanday nomlanganligi haqida biron fikr aytish mushkul. XI asrda hukm surgan qoraxoniylar qo'shinining yasoli quyidagi shaklda bo'lgan: Markazda yadak (piyodalar), o'qchi (kamonkashlar) va yo'rtug' (og'ir qurolli suvoriylar) joylashgan. Mazkur yasol an'anaviy 5 qismdan tashkil topgan jangovar tartibning tipik namunasi hisoblanadi. *Amir Temur* jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib jangohda qo'shinni 7 bo'lakka taqsimlagan holda joylashtirishni joriy qilgan.

YASSAVIYLIK — tasavvufdagi tariqatlardan biri. Asoschisi *Ahmad Yassaviy*. XII asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur “Hikmat” asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatga toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Bu tariqatda mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi. Yassaviylik tariqati faqat Movarounnahrda emas, balki Xuroson, Ozarbayjon, Turkiyada ham keng tarqalgan.

“YATIMAT UL-BAHR” — *As-Saolabiyning asari. Asar*

994-1000-yillar orasida yozilgan. Bu asarda qayd etilishicha, Buxoro, Xorazm va Xorazmda 119 nafar arabiy zabon shoirlar ijod qilgan. Ularning deyarli barchasi saroy ahli, hukmron xonadon a'zolari va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan.

“ZAYN UL-AXBOR” (“Xabarlar ko'rki”) — *Gardiziyning tarixga oid asari. Asar 1049-1050-yillar orasida yozib tugatilgan va g'aznaviylardan Sulton Abdurashidga taqdim etilgan. Gardiziyning ushbu asari Xuroson va O'rta Osiyoning arablar istilosidan to XI asrning o'rtalarigacha bo'lgan siyosiy tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi.*

ZERAFKANDA — o'n ikki maqom tizimidagi maqomlardan biri.

ZIJ (forscha — bo'ya) — qadimgi astronomik jadval. O'rta asrlarda barcha astronomik rasadxonalar o'z oldiga Quyosh, Oy va oddiy ko'z bilan ko'rinadigan sayyoralarning yulduzlar orasidagi harakatlarini kuzatish, kuzatish ma'lumotlari asosida astronomik doimiylarning qiymatlarini hisoblab topish; Oy va Quyosh taqvimlariga tegishli ma'lumotlarning jadvallarini tuzish; shuningdek, yulduzlarning koordinatalari, yirik aholi punktlari va shaharlarning gografik koordinatalarini aniqlab, ularni jadvallarda aks ettirish kabi vazifalarni qo'yardi. Rasadxonalar faoliyatining katta qismi olingan kuzatish ma'lumotlari asosida jadvallar tuzishni taqozo qilardi. Bunday ko'p jadvallarni o'z ichiga olgan astronomik asarlar, odatda, “zij” deb yuritilar edi. Jadvallarning tik (vertikal) va yotiq (gorizontal) chiziqlari (sonlari bilan birga) bo'yroni eslatgani uchun ham mazkur risolalar shunday nom bilan atalgan, deb taxmin qilinadi.

“ZIJ” (astronomik jadval) — *Muso al-Xorazmiyning astronomiyaga oid asari.*

SHARIAT (arabcha — to'g'ri yo'l; islomda qonunchilik ma'nosida ishlatiladi) — islom huquq tizimi. Shariatda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy me'yorlar va amaliy diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Shariatga musulmon kishi uchun dunyoga kelishidan to o'limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to'plami sifatida qaralgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Keyinroq musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ilgan. Islom huquqshunoslari bir necha asr mobaynida shariat me'yorlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga Qur'on, sunna, ijmo va qiyos asos qilib olingan. Shariat huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat ilmlari islom dini va unga bog'liq bo'lgan masalalarni qamrab olgan. Bular tajvid (qiroat), tafsir, hadis, fiqh ilmlari, fiqhning far'iy (juz'iy) qismlari hamda kalom ilmidan iboratdir. Shariat ilmlari qatoriga arab tili va adabiyoti ham kiritiladi, chunki ularsiz shariat ilmlarini o'rganish mumkin emas, deb hisoblanadi.

SHASHMAQOM (fors-tojikcha — olti va maqom) — o'zbek-tojik xalqlari musiqasining klassik namunasi, sikl tarzida birlashtirilgan, bir-biri bilan lad va ohang nuqtai nazaridan uzviy bog'langan yirik hamda kichik shakldagi kuy va ashulalar majmui. Ular xalq musiqasi ohanglari (kuy intonatsiyasi) asosida to'plangan ko'p asrlilik boy tajriba

va izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom tarixiy taraqqiyot jarayonida professional musiqadagi qadimiy anʼanalarning bevosita rivojlantirilishi, oʻtmishdagi bastakorlik sanʼatining mahsulidir. Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan boʻlib, jami 250 dan ortiq yirik hamda kichik shakldagi kuy va ashulalardan iborat.

SHAYX UL-ISLOM — baʼzi mamlakatlarda oliy diniy unvon. X asrdan biror faqih yoxud sufiyga nisbatan ishlatilgan. XIII asrdan keyin muntazam qoʻllangan.

“SHAYX UR-RAIS” — donishmandlar sardori, Oʻrta asrning buyuk allomasi *Abu Ali ibn Sino* Sharqda shu nom bilan shuhrat topgan.

SHOHIZINDA — Samarqanddagi meʼmoriy yodgorlik (XI-XX asrlar); Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat ansambl. Ularning eng qadimgisi Qusam ibn Abbos maqbarasi boʻlib, xalq orasida Shohizinda (tirik shoh) nomi bilan mashhur. Ansambl bir-biri bilan yoʻlak orqali bogʻlangan 3 guruh binolardan iborat. Quyi guruhdagi inshootlar Ulugʻbek oʻgʻli nomidan qurdirgan Abdulaziz chortogʻi (1434-35), unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi (1812-13) tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshlar bilan nafisbezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya oʻrtaligʻining chap tomonida ziyoratxona va goʻrxonadan iborat qoʻshgumbazli maqbara (XV a.) joylashgan. Oʻrta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tugʻlu Tekin maqbarasi, Shirinbeka ogʻo maqbarasi, uning qarshisida Temurning boshqa singlisi Turkan ogʻo maqbarasi, 8 qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabilar. Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xoja Ahmad maqbarasi, 1360-61-yillarda qurilgan maqbara, Tuman ogʻo majmuasi (1405-06), 2 ta nomsiz maqbara (XIV a. oxiri)ning kiraverish devorigina saqlangan. Shuningdek, Tamgʻoch Bugʻroxon madrasasi (XI a.), Amir Burundiq maqbarasi (XIV a. oxiri) kabillardir. Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asrlarda ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. XVIII asrda vayron boʻlgan zina oʻrnida 40 pogʻonali gʻishtin yangi zina qurilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 16-iyul qaroriga asosan Shohizinda yodgorlik majmuasida katta koʻlamdagi taʼmirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

TARIXIY-GEOGRAFIK NOMLAR

BASRA (arabcha — Bassora) — Iroqning janubi-sharqidagi shahar. Shahar 637 yoki 638 yilda xalifa *Umar* davrida (634-644-yillar) qurilgan. VIII-IX asrlarda xalifalikning madaniy va iqtisodiy markazi boʻlgan.

FUSTAT — oʻrta asrlarda Qohiraning nomi.

GOʻRGON — oʻrta asrlarda *Ibn Sino* umrining oxirigacha hukmdorlar qoʻl ostida tabiblik va vazirlik qilgan shahar.

ISFAHON — Eronning markaziy qismidagi shahar, Zoyanderud daryosi boʻyidagi xushmanzara joyda. Isfahon qadimiy qoʻlyozmalar (masalan, Ptolemey asarlarida) Aspadana nomi bilan tilga olingan. Sosoniylar davri (III-

VII asrlar)da Markaziy Eronning iqtisodiy va madaniy markazi boʻlgan. VII asrda shaharni arablar egallagan. VIII-XIII asrlarda Isfahon Yaqin va Oʻrta Sharqdagi eng yirik hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri boʻlgan. 1237-yilda Isfahonni moʻgʻul bosqinchilari vayron qilgan, keyinroq shahar qayta tiklangan. 1387-yilda uni *Amir Temur* egallagan. Shahar XVI-XVII asr boshlarida Safaviylar davlatining poytaxti boʻlgan davrda ayniqsa ravnaq topgan. Isfahon XVII asr oʻrtalarida aholisi qariyb 600 ming kishilik katta shahar edi. 1722-yilda uni afgʻonlar bosib olib, talon-taroj qildilar. XVIII asr oxirida poytaxt Isfahondan Tehronga koʻchirilgan, shahar avvalgi mavqeni yoʻqotdi.

JARQOʻRGʻON — Surxondaryo viloyati Jarqoʻrgʻon tumanidagi shahar. Bu nom qadimda jar yoqasida joylashgan qoʻrgʻon nomidan kelib chiqqan. VIII-XII asrlarda Jarqoʻrgʻon oʻrnida Charmangan (Sarmangan) shahri boʻlib, arab-fors geografik adabiyotlarida koʻp tilga olingan. VIII asrda arablar, X asrda gʻaznaviylar, XI asrda saljuqiylar, XII asr birinchi yarmida Bomiyon gʻuriylari, XIII asr boshlarida xorazmshohlar qoʻlida, XIII asr oʻrtalarida Chigʻatoy ulusiga kirgan. Oʻsha davrlarda Jarqoʻrgʻon (Charmangan) mavqe jihatidan Termiz shahridan keyin ikkinchi oʻrinda boʻlgan. Geografik oʻrning qulayligidan Jarqoʻrgʻon qadimdan muhim xoʻjalik markazi boʻlib kelgan.

LASHKARGOH, Lashkari — Bozor — Janubiy Afgʻonistonda joylashgan ulkan tarixiy-maʼmuriy majmua; gʻaznaviylar (X-XII asrlar) va gʻuriylar (XII a. oʻrtasi — XIII a. boshi) sulolasi sultonlari qarorgohi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida XII asrga oid saroy va bogʻ-park inshootlari qoldiqlari topilgan. Umumiy maydoni taxm. 164x95 m dan iborat. Majmua tarkibi Lashkargoh janubda joylashgan bosh saroy (toʻrt tomoni ayvon bilan oʻralgan hovli sahni; bir necha zal, yotoqxonalar, xizmat xonalari alohida guruh boʻlib joylashgan; devoriy rasmlar, bezak qilib terilgan gʻishtlar), shuningdek, Lashkargohning markaziy va shimoliy qismida joylashgan 2 ta saroy, masjid, bogʻ koʻshklari, kaptarxona (kaptar minor), turar joy qoldiqlaridan iborat.

MAYMANA — Afgʻonistonning shim. qismidagi shahar. Baqtriya vodiysidagi vohada joylashgan. Ilk oʻrta asrlarda shahar Yahudiya (aholisining koʻpchiligini yahudiylar tashkil qilgani uchun), Katta Jahuzon deb atalgan. *Yoqut Hamaviyning* yozishicha, al-Yahudiya aholisi islomni qabul qilgach, XI asrdan boshlab shaharni Maymana deb atay boshlaganlar. *Mahmud ibn Valining* yozishicha, Maymana shahri qadimda Toliqon deb ham atalgan. IX asrda Maymanada Fariob noibi qarorgohi joylashgan. X asrda u savdo va hunarmandchilik rivojlangan boy shahar boʻlgan. XIII a. manbalarida shahar Maymand deb atalgan. 1855-y. afgʻon amiri Doʻstmuhammadxon Buxoro amirligiga qarashli Maymanani bosib olgan. 1873-y. Kobulda imzolangan Angliya — Rossiya shartnomasiga binoan, Maymana Afgʻonistonga oʻtgan. XIX asrda Maymana shahri mustahkam mudofaa devori bilan oʻrab olinib, uning 5 darvozasi boʻlgan. Shahar markazida baland va qiya tepalikda qadimiy ark — Bolo-Hisor joylashgan.

OBIVARD — oʻrta asrlarda *Ibn Sino* umrining oxirigacha hukmdorlar qoʻl ostida tabiblik va vazirlik qilgan shahar.

QAZVIN — oʻrta asrlarda *Ibn Sino* umrining oxirigacha

hukmdorlar qo‘l ostida tabiblik va vazirlik qilgan shahar.

QOHIRA — 969-yili Dotimiylar lashkarboshisi *Javhar al-Saqali* tomonidan Bobil qal‘asi (Memfis shahridan 30 km uzoqlikda) atrofida qurilgan. Javhar shsharni “Misr al-Qohira” (“G‘olib Misr”) deb atagan. Sekin-asta atrofidagi Fustat (Umaviylar davrida Misrning ma‘muriy markazi), Qatai (Tuluniylar davrida qurilgan) va boshqalar Qohira tarkibiga kirib ketgan. 973-1171-yillari Qohira Fotimiylar davlatining poytaxti. Ayyubiylar (1171-1250) va mamluklar davri (1250-1517)da yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lgan.

RAY, REY, QADIMDA RAGA — Erondagi qadimgi shahar. Tehrondan 8 km shim.-sharqda joylashgan. Ray nomi Avesto va Bihistun kitobalarida qayd etilgan. VII asrda arablar bosib olgan. Tohiriylar, Somoniylar, Buvayhiylar davlatlari tarkibiga kirgan. Ibn Sino Ray shahrida umrining oxirigacha hukmdorlar qo‘l ostida tabiblik va vazirlik qilgan. 1027-yili *Mahmud G‘aznaviy* egallagan. 1042-1194-yillarda Saljuqiylar davlati tarkibida. X-XII asrlarda Ray — Eronning eng yirik savdo-hunarmandchilik va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, ipak matolar va sopol qandillar ishlab chiqarish bilan mashhur bo‘lgan. 1194-1220-yillarda Ray Xorazmshohlar davlati tarkibida; XII a. oxiri va XIII asrlarda o‘zaro diniy nizolar natijasida ancha jabr ko‘rgan. 1220-yili mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. **Qozonxonning** Ray arkini qayta tiklash yo‘lida qilgan sa‘y-harakati natija bermagan.

SAYRAM — qadimgi shahar va viloyat. Aris daryosi vodiysida (Chimkent shahridan 8 km uzoqlikda) joylashgan. Tarixda Isfijob, O‘runkent, Yettikent, Madinat ul-bayzo, Saryom nomlari bilan qayd etiladi. Sayram qal‘asining qadimgi o‘rni 28 ga dan ko‘proq joyni egallagan. Qal‘a birinchi marta 840-yilda somoniylar amiri *Nuh ibn Asad* tomonidan lanish uchun devor juda qalin qilib qurilgan. Shaharning barpo etilgani yaqin paytlargacha 1,5 ming yildan ko‘proq vaqt o‘tgan deb yuritilardi. 1988-yilgi arxeologik qazishmalar shaharning ancha ilgari bunyod qilinganligini isbotladi. Qadimgi ajdodlar yashagan manzilgohdan I asrga oid buyumlar topildi. VI-XIX a. davomida Sayram 13 marta bosqinchilar hujumining guvohi bo‘lgan. Manbalarda Sayram nomi birinchi marta Xitoy sayyohi *Syuan Szan* (VII a.) tomonidan tilga olinadi. Arablar bosib olguniga qadar, Sayram xalqi buddizm, zardushtiylilik, xristianlik dinlariga e‘tiqod qilgan. Mas., uning ko‘hna darvozalaridan birining nomini budda ibodatxonasi sifatida tarjima qilish mumkin. *Muhammad Shayboniyxon* XV a. oxirida O‘tror, Yassi va Sayram shaharlarini o‘z qo‘liga oladi. Bu davrdagi tarixiy yodgorliklardan Abdul Aziz bobo va Qorasoch maqbarasi diqqatga sazovordir. 1510-yil qozoq xoni *Qosimxon* shayboniylar qo‘shinini tor-mor qilib, Sayramni Toshkentga boradigan muhim tayanch manziliga aylantirdi. Bu va undan keyingi sulton *Abulxayr* davrlarida Sayramdan 3 km uzoqlikda joylashgan Mortepada qozoqlar davlatining Kichik juz, O‘rta juz va Katta juz vakillari har yili may oyida to‘planishib, qarorlar qabul qilishgan, keyin uni Turkistonda tasdiqlashgan. Ular e‘zoz bilan Sayramni ona shahar, Turkistonni ota shahar deb bilishgan. 1683-yili Sayram *Abulxayr* ixtiyorida bo‘lgan bir paytda jung‘orlar

(qalmoqlar) hujumi boshlanadi. Qalmoq xoni *Xuntayji* Sayramni talagan. 40 ming asir haydab ketilgan. Asirlar bir yil mobaynida Ili daryosi bo‘yida ushlab turilgan, so‘ngra qadimgi Turfanga haydab ketilgan. Keyinchalik asirlar Qashqarda o‘zlarining boy Sayram shaharini barpo etishgan. 1758-yili Sayram Qo‘qon xonligi hududiga qo‘shib olindi. 1864-y. Rossiya bosib olgan. 1917-yilga qadar Sayramda 35 ta masjid bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib saqlanib qolgan tarixiy yodgorliklar: Qozi Bayzovo maqbarasi, jome masjidi qoldiqlari, Xizr masjid yonidagi mezana, Mirali bobo maqbarasi, shuningdek, shahar markazidagi yer osti yo‘li (uz. 3 km dan ortiq). Dushman hujum qilgan paytda aholi ushbu yer osti yo‘lidan foydalangan. Shahar eski qal‘asini buzish paytida XIII asrga oid tanga pullar, bir-biriga ixcham kiydirilgan sopol quvurlar, sopol buyumlar, eski o‘choq o‘rni va boshqalar topilgan.

SEYISTON, SAKISTON (qadimda — Drang‘iyona) — Eron va Afg‘oniston chegarasida joylashgan tarixiy viloyat. Drang‘iyona nomi birinchi marta Bihistun kitobalarida eslatilgan. Drang‘iyonaga sak qabilalari kelib joylashgani uchun (mil.avv. II a.) Sakiston, keyinchalik Seyiston deb atalgan. Seyiston Mauriyalar imperiyasi, Yunon-Baqtriya podsholigi (mil.av. III-II asrlarda) tarkibiga kirgan. Parfiya (mil. avv. III a. — mil. III a.), Sosoniylar davlati (III-VII asrlar.), Arab xalifaligiga tobe bo‘lgan. VIII-IX asrlarda xorijiy harakati markazlaridan biri. Yirik shaharlari: Zabol (Zobul) (Eronda), Zaranj (Afg‘onistonda).

SIG‘NOQ, SUNAX, SUG‘NOQ, SO‘NOQOTA, SO‘NAQ QO‘RG‘ON — Sirdaryoning quyi oqimi bo‘ylarida, Qizilo‘rda (Qozog‘iston) ning janubida joylashgan qadimgi shahar. O‘troq, madaniy viloyatlar bilan dasht o‘rtasidagi chegarada mil.avv. III asrda bino etilgan. U X asrda O‘g‘uzlarga tegishli bo‘lgan. XI asr o‘rtalaridan yirik savdo shahri, qipchoqlar poytaxti sifatida mashhur. 1219-yil yeti kunlik qamaldan so‘ng Sig‘noq mo‘g‘ullarning Jo‘jixon boshchiligidagi qo‘shini tomonidan vayron qilingan, lekin XIV asrda qayta tiklanib, XIV asr o‘rtasida Oq O‘rda poytaxtiga aylangan. XV asrda Sig‘noq o‘zbek xonlarining poytaxt shahri bo‘lgan, XVI asrda esa qozoq xonlari tasarrufiga o‘tgan. XIV-XVI asrlarda Sig‘noqda tangalar zarb etilgan, koshin parchalari bilan bezatilib pishiq g‘ishtdan ishlangan imoratlar (madrasa, masjid, maqbaralar) qurilgan. Manbalarda Sig‘noq haqida XVIII asrdan keyin ma‘lumot uchramaydi. Shahrison (10 ga) ni o‘ragan mudofaa devori va uning 15 minorasi xarobalari va rabod (taxminan 13 ga) ni muhofaza qilgan tuproq tepa, shuningdek, XIV-XVI asrlarga oid bir necha qancha binolarning qoldiqlari saqlangan.

TALIQON, TOLIQON, TALQON — o‘rta asrlarda Shimoliy Afg‘onistondagi qad. shahar va viloyat. Taliqon o‘rta asrlarda Toxaristonning poytaxti bo‘lsa-da, Balxdan 3 marta kichik edi. Taliqon Qunduzdan sharqda, Qunduzdaryo irmog‘i Taliqon daryosi bo‘yida joylashgan. Taliqon mustahkam istehkomli, savdo yo‘llari kesishgan yerda joylashgani uchun obod va boy shahar hisoblangan. O‘rta asrlarda uni, shuningdek, «Xuroson Taliqoni» deb ham atashgan, chunki ayni vaqtda bu nomdagi yana 2 shahar Qazvin va Rey viloyatlarida ham bo‘lgan. *Mahmud*

ibn Valining yozishicha, Maymana viloyatidagi shahar ham Taliqon deb atalgan. *Firdavsiyning* “*Shohnoma*”sida Taliqon shahri Afrosiyob podsholigi davri voqealari munosabati bilan qayd etilgan. Qadimda Taliqon atrofida chegara, tosh minorasi bo‘lgan, uni sasoniylar shohi *Varaxran V* (421-438-yillarda hukmronlik qilgan) bunyod etgan. Arablar istilosi arafasida Taliqon alohida bir mulk bo‘lib, uni *Sahrak* yoki *Suhrob* nomli shoh idora etgan. X asrda Taliqon shahri Guzmanon viloyati shohiga tobe bo‘lgan. XII asrda Taliqon manbalarda yana Xurosonning alohida viloyati tarzida qayd etilgan va unga bir qancha shahar va qishloqlar qaragan. Taliqon qal’asi o‘rta asrlarda Mansurko‘h yoki Nusratko‘h deb nomlangan. U juda mustahkam bo‘lib, XIII asrda *Chingizxon* qo‘shinlari uni kuch bilan egallay olmay, 7 oy qamal qilib olishga majbur bo‘lishgan. *Amir Temur* va temuriylar davrida Taliqon dastlab *Pirmuhammad ibn Jahongir* mulki, so‘ngra *Shohrux* davrida uning o‘g‘li *Ibrohim Sultonga* tegishli bo‘lgan. XVI a. oxirida Taliqonni temuriy *Sulton Mahmud Mirzo* va *Xisravshohning* noiblari idora etishgan. 1503-04-yillarda Toxariston va Badaxshonning katta qismini *Shayboniixon* qo‘shinlari bosib olganda bu viloyatlar *Shayboniixonning* ukasi *Mahmud Sultonga* in’om etilgan. *Shayboniixon* o‘limidan so‘ng (1510) Toxariston va Badaxshonning katta qismi yana temuriylar (*Mirzaxon* o‘g‘li *Sulaymonshoh*) tasarrufida bo‘lgan. Biroq uning nabirasi va vorisi *Shohrux Mirzo* davrida Taliqon Badaxshon shohlaridan *Shoh Imod* qo‘liga o‘tgan. 1584-yil Taliqonga shayboniylar qo‘shini kelib *shahar Mahmud sulton ibn Sulaymon sultonga* qaragan. U, o‘z navbatida, Shayboniylarning Balxdagi noibi *Abdulmo‘min Sultonga* tobe bo‘lgan. Taliqon viloyat markazi maqomini Ashtarxoniylar davrida ham saqlab qolgan. XVIII asrning birinchi yarmida Taliqon yoriylar sulolasidan *Mir Sultonshoh* tasarrufiga o‘tgan. XVIII a. o‘rtalaridan Afg‘oniston tarkibida.

TURKISTON — O‘rta Osiyoning o‘rta asr tarixiy-geografik adabiyotlarda uchraydigan nomi. Manbalarda Turon va Turkiston atamallari o‘rnida qayd etilgan. 639-yil Turfonda tuzilgan sug‘d hujjatida O‘rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “O‘rta Osiyo” va “Movarounnahr” nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Arablar istilosidan so‘ng “Turkiston” topnimini o‘zining siyosiy sarhadlari Uzoq shimol va sharqqa, Arab xalifaligi, Qarluq va Uyg‘ur xo‘qonliklari bilan chegaradosh bo‘lgan yerlargacha yoyilgan. Ayni mana shu davlatlar endilikda Turkiston nomi bilan arab tarixchi-geograflari asarlarida (VIII-X asrlar) qayd etilgan. O‘rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlari (Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i) Movarounnahr deb atala boshlagan.

VOBKENT (o‘g‘uz shevasidagi “vob” yoki “vahobkent” — “bo‘z, qo‘riqdagi qishloq” ma‘nosida) — Buxoro viloyatidagi shahar. Vobkent tumanining ma‘muriy markazi. Vobkent — ko‘hna shaharlardan biri. O‘rta asrlarda Vobkent atrofida bir necha qishloq-qo‘rg‘onlar bo‘lgan. Vobkentning g‘arbida joylashgan Narshax qishlog‘i shulardan biri. X asrda yashagan tarixchi olim Narshaxiy shu qishloqda tavallud topgan. Narshax qishlog‘i Muqanna qo‘zg‘oloni markazlaridan biri bo‘lgan. Vobkent

XIV asr hujjatlarida o‘z qozisiga ega bo‘lgan qasaba, ya‘ni shahar sifatida Vobkana nomi bilan tilga olinadi. XVI asrdan boshlab Vobkent ikki nom — Vobkana va Komot deb yuritila boshlagan. XVII asrning tarixchi olimi Mahmud ibn Valining (“Bahr ul-asror”; 1634-1641) kitobida Vobkent tumani nomi Komot shaklida keltiriladi. Vobkent haqida Mirzo Badening “Majma’ al-arqom” (“Raqamlar majmui”; XVIII asr) kitobida ham ma’lumotlar uchraydi. XIX asr ikkinchi yarmiga oid vaqf hujjatlarida keltirilishicha, Komot tumani (hozirgi Vobkent tumani) dagi Narchoq (Narshax) qishlog‘ida hunarmandlar ko‘p bo‘lgan. Vobkentda qadimda madrasa, hammom, bozor masjidi, Ko‘hna Vobkand, Vobkand Qo‘rg‘oni kabi tarixiy obidalar bo‘lib, hozirda saqlanmagan.

XAMADON — Shimoli-G‘arbiy Eronidagi qadimiy shaharlardan biri. O‘rta asrlarda *Ibn Sino* umrining oxirigacha hukmdorlar qo‘l ostida tabiblik va vazirlik qilgan.

YASSI, YASSI (asli — Saksi) — 1) Turkiston sh.ning eski nomi. Bu haqda *Mahmud ibn Vali* (XVII a.) «*Bahr ul-asror*» («Sirlar dengizi») asarida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “*Hozirgi Turkiston — bu Saksi shahri, avom xalq uni Yassi deb ataydi*”. Arab geograflarining yozishicha, Yassi o‘rnida X asrda Shavg‘ar shahri bo‘lgan. XI-XII asrlarda Yassi nomi tarixiy manbalarda uchraydi. *Amir Temur* va temuriylar davrida qishloq(qar‘ya). 1397-yil Sohibqiron Yassiga kelib shayx *Ahmad Yassaviy* mozorini tavof qilgan va uning mozori ustiga maqbara solishni buyurgan. Maqbara 2 yilda qurib bitkazilgan. Sohibqiron Xitoyga yurish qilganida (1404-yil noyabr) qo‘shinning amirzoda *Sulton Husayn* boshchiligidagi so‘l qanoti Yassi va Sabronda qishlaganlar. Dashti Qipchoq va Movarounnahr aholisi tomonidan muqaddas shahar sifatida e‘zozlanib kelingan va *Ahmad Yassaviyga* nisbat berilib Hazrat, Turkiston, Turkiston ota kabi nomlar bilan ham atalib kelingan. XVII a. oxiri — XVIII asrdan Yassi nomi manbalarda uchramaydi; 2) Farg‘ona vodiysining sharqida joylashgan dovon va uning atrofidagi viloyat — Yassi Dabon, Yassi dovon, Yassi viloyati. Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»sida yozilishicha, Sohibqiron 1376 yil erta bahorda *Qamariddinga* qarshi Mo‘g‘ulistoniga yurish qilganida Yassi viloyati va dovonidan o‘tgan.

CHOKARDIZA — tarixiy mavze. Samarqand shahrining Registon majmuasi yaqinida, hozirgi Vobkent, G‘ijduvon va Buxoro ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Ilk o‘rta asrlarda (V-VII asrlar) bu yerda harbiy istehkom bo‘lgan. Chokardiza — “*choker*” — jangchi va diza — qal’a, ya‘ni “*jangchilar qal’asi*”dan olingan. Qal’a yaqinidan Chokardiza kanali ham o‘tgan, u 1220-yilgacha “*Jo‘yi Arziz*”ga ulanib, Samarqandni suv bilan ta‘minlab turgan. IX asrda Chokardizada imom *Abu Ishoq ibn Ibrohim ibn Sammosi Mutava‘iyning* bog‘i, o‘rtasida esa masjid bo‘lgan. Imomning o‘zi ham shu erga dafn etilgan. Keyinchalik Chokardiza musulmon olamining eng tabarruk qabristonlaridan biriga aylangan. Chokardizada mashhur imomlar *Moturidiy*, *Burhoniddin Marg‘inoniy*, *Abu Hafis Najmiddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy* va boshqalar dafn etilgan. 2000-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *I.A. Karimov* tashabbusi bilan Chokardizada katta ta‘mirlash ishlari o‘tkazilib, *Moturidiy yodgorlik majmui* bunyod etildi.

TARIXY SANALAR

634-644-YILLAR — Xalifa *Umar* hukmronligi davrida Fustat shahri yaqinidagi suv o'Ichagich "miqyoslar yo'nilgan toshlardan bino qilinishi.

783-850-YILLAR - "*Aljabr va al-muqobala*" kitobi bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos solgan *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy* yashab ijod qilgan.

797-865-YILLAR — Yevropada *Alfraganus* taxallusi bilan shuhrat topgan *Ahmad Farg'oniy* (*Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy*) yashab ijod etgan.

810-870-YILLAR — Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblangan 7275 ta hadislarni o'z ichiga olgan "*Jomi as-Sahih*" nomli shoh asarni meros qilib qoldirgan *Imom al-Buxoriy* (*Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy*) yashab ijod etgan.

813-833-YILLAR — Arab xalifaligida *Ma'mun* hukmronligi davrida "*Bayt ul-hikma*"da *Muso al-Xorazmiy*ning mudir sifatida faoliyat ko'rsatishi.

824-894-YILLAR — *Imom al-Buxoriy*ning shogirdi *Iso Termiziy* (*Abu Iso Muhammad at-Termiziy*) yashab ijod etgan.

832-833-YILLAR — *Farg'oniy* Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oraliq'ida yer meridianining bir darjasini uzunligini o'Ichashda qatnashdi.

861-YIL — Xalifa *Mutavakkil* farmoni bilan *Farg'oniy* rahbarligida *Fustat* (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr — daryo oqimi sathini o'Ichagich "*Miqyos an-Nil*" inshoati va uning darajoti qayta tiklandi.

865-925-YILLAR — O'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri *Abu Bakr ar-Roziy* yashab ijod etgan.

870-944-YILLAR — "*Kitob at-Tavhid*" ("*Allohning birligi*") va "*Ta'vilot ahl as-sunna*" nomli asarlar muallifi *Abu Mansur al-Moturidiy* yashab ijod etgan.

873-YIL — *Abu Nasr al-Farobiy*ning Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Forob (O'tror) shahrida tavvalud topishi.

873-950-YILLAR — 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan *Abu Nasr Farobiy* yashab ijod etgan.

970-1011 YILLAR — *Abu Sahl Masihiy*ning hayot va faoliyati.

973-1048-YILLAR — falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 154 ta ilmiy asar yozgan *Abu Rayxon Beruniy* yashab ijod etgan.

976 977-YILLAR — Somoniylar davlatida *Mansur Somoniy* hukmronligi davrida uning saroyida qomusiy olim *Abu Abdulloh al-Xorazmiy* vazir lavozimida faoliyat ko'rsatishi.

980-1037-YILLAR — Sharqda "*Shayx ur-ra'is*", G'arbda esa "*Avitsenna*" nomlari bilan shuhrat topgan *Abu Ali ibn Sino* yashab ijod etgan.

980-YIL — *Abu Ali ibn Sinoning* Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga kelishi.

991-1048-YILLAR — *Abulhayr ibn Hammorning* hayoti va faoliyati.

1004-YIL — "*Dorul hikmat va maorif*" ("*Hikmat va*

maorif uyi") — "*Ma'mun akademiyasi*" shakllangan. Uning asosini *Abu Nasr ibn Iroq* (X asr-1034), *Abulxayr ibn Hammor* (991-1048), *Abu Sahl Masihiy* (970-1011), *Abu Rayxon Beruniy* (973-1048), *Abu Ali ibn Sino* (980-1037) boshqalar tashkil etgan. Ularning ilmiy faoliyati tufayli qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

1017-YIL — *Abu Rayxon Beruniy Mahmud G'aznaviy*ning talabi bilan G'azna shahriga borib umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan.

1037-YIL — *Abu Ali ibn Sinoning* Xamadon shahrida vafot etishi.

1048-YIL — *Beruniy*ning G'aznada vafot etishi.

1074-1144-YILLAR — turli soha ilmlariga oid 50 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan *Mahmud Zamaxshariy* (*Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy*) yashab ijod qilgan.

1123-YIL — mashhur faqih *Burhoniddin al-Marg'inoniy* Farg'ona vodiysining Rishton shaharchasida tavallud topishi.

1145-1221 YILLAR — "*Kubraviya*" tariqatiga asos solgan *Najmiddin Kubro* yashab o'tgan.

1147/1150-YILLAR ORALIG'I — *Ahmad Yugnakiy* tavallud topgan.

1166/67-YILLARI ORALIG'I — *Ahmad Yassaviy* tavallud topgan.

1221 YIL — *Chingizxon* boshliq mo'g'ul bosqinchilari bilan bo'lgan jangda *Najmuddin Kubroning* shahid bo'lishi.

1318-YIL — *Bahouddin Naqshband* Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keldi.

1997-YIL 11 NOYABR — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Xorazm Ma'mun akademiyasining qaytadan tashkil etish to'g'risida*"gi farmoni chiqdi.

1998-YIL — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* tashabbusi *Ahmad al-Farg'oniy*ning 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

1998-YIL OKTABR — buyuk mutafakkir imom *al-Buxoriy* tavalludining 1225-yilligi nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida "*Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui*" barpo etildi. 4 jildlik "*Al-Jomiy as-sahih*" kitobi ilk bor o'zbek tilida nashr etildi.

2000-YIL NOYABR — *Imom al-Moturidiy* tavalludining 1130-yilligi nishonlandi. Samarqandda *al-Moturidiy* xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmui barpo etildi, asarlari o'zbek tilida nashr etildi.

2000-YIL — *al-Marg'inoniy*ning 910 yilligini respublikamizda keng nishonlashi.

2005-YIL KUZI — Respublikamizda "*Xorazm Ma'mun akademiyasi*"ning 1000 yilligi nishonlandi.

IV-V ASRLAR — O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistondan kirib kelgan xiyoniylar, kidariylar va eftaliylar o'zbeklar etnogenizida muhim ahamiyat kasb etgan.

V-VII ASRLAR — Sug'dning harbiy yurishlari oqibatida Yettisuvda o'rtnashib qolgan sug'diylarni soni anchagina edi. Sug'dliklarning savdo va hunarmandchilik

qasaba va manzillari Talos va Chu vodiylarida, Chimkentdan to Ulug' Xitoy devorigacha bo'lgan yerlarda joylashgan edi.

VII ASR (639-YIL) — turkiy aholi o'rtnashgan o'lka "Turkiston" nomi bilan atala boshlandi.

VIII ASR — Movarounnahr va Xuroson shaharlarida yuz bergan tushkunlikdan keyin shaharlar kengayib, obodlashdi.

VIII ASR — arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, Movarounnahrda o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, sug'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yashaganlar.

VIII ASR O'RTALARI — o'rta asr davrining diniy falsafiy oqimi — *tasavvuf*, ya'ni sufiylik poklangan zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatuvchi diniy talimot bo'lib, u o'rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu diniy tasavvuf dastlab Iroqda yuzaga keladi.

IX ASR — Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turki etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lib, bu qatlam asosining aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

IX ASR — Buxoro aholisining ilmi bo'lishida, Buxoroda ilmning keng tarqalishida, imom va ulamolarning hurmatli bo'lishida, Buxoro "Qubbat ul-islom" — "Islom dinining gumbazi" nomi bilan atalishida fiqhshunos olim *Abu Xafs Kabir Buxoriy*ning xizmati nihoyatda katta.

IX ASR — Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dod shahrida "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") — islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan. "Bayt ul-hikma"da katta kutubxona hamda Bog'dod va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasatxonalar mavjud bo'lgan. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanganlar.

IX ASR IKKINCHI YARMI — Movarounnahrning madaniy hayotida yangi davr boshlandi. Xalifalik hukmronligi tugab, mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topishi bilan madaniy hayotning jonlanishi uchun keng yo'l ochildi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshladi. Qishloq aholisining aksariyati so'gdiy va xorazmiycha so'zlashada markaziy shaharlarda forsiy-dariy deb yuritilgan xalqning adabiy tili vujudga keldi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilindi. Dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlandi.

IX ASRNING OXIRI — X ASR BOSHLARI — Movarounnahr va Xurosonda yuzaga kelgan og'ir sharoitda *Ibn Sino* Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh *Ma'mun* saroyidagi olimlar qatoridan joy olgan bo'lsa, so'ngra *Mahmud Ga'znaviy* tazyiqi tufayli

Xorazmdan ham chiqib ketadi.

IX-XII ASRLAR — Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi, Nomozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari va ko'pgina boshqa inshootlar Movarounnahrda o'ziga xos me'morchilikning g'oyat rivoj topganligidan dalolat beradi. Monumental me'moriy binolardan tashqari yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshotlari, suv omborlari — bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar barpo etildi. Me'morchilik bilan bir qatorda naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topdi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarni bo'yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaldi. Naqqoshlik va tasviriy san'at o'zgacha tus oldi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlash murakkab geometrik islami gulli naqshlar ishlashga o'tiladi. Naqshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, miskarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi.

IX-XII ASRLAR — Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga kuchli ta'sir o'tkazdi.

IX-XII ASRLAR BOSHI — o'zbek xalqi tashkil topdi.

IX-XIII ASRLAR BOSHI — Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi rivojlanish bosqichida bo'ldi.

IX-XIII ASRLAR BOSHI — me'morchilik va unda ishlatilgan me'moriy naqsh uslublari xalq me'morlari — bannolarining sermazmun ijodini namoyish etadi. Musiqa san'ati ham g'oyat taraqqiy topdi. Xalq orasida ayniqsa qo'shiq janri keng tarqaldi. Xalq kuyalari asosida tojik va o'zbek xalqlarining mumtoz kuyi "Shashmaqom" uchun poydevor bo'lgan "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zerafkanda", "Buslik", "Sipohon", "Navo", "Basta", "Tarona" kabi yangi-yangi kuylar ijod etiladi. Movarounnahr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigachga ko'tarilgan islom dini va shariyat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan *Imom al-Buxoriy*, *Iso Termiziy* va *Mahmud Zamaxshariy* kabi aqoid ulamolar yetishib chiqdi.

X ASR — binokorlikda sichkori imoratlar keng tarqaldi. Yakkasinch va qo'shsinchlar binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlari-uy sarroflari va to'sinlarigacha yog'ochlarni poyvantlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan.

X ASR — Buxoro shahrida Kovushdozlar timi yaqinida dastlabki madrasa bino qilindi. U *Farjak madrasasi* deb yuritilgan.

X ASR — Nurota tizmalaridagi Past tog' darasi to'silgan va Xonbandi nomli suv ombori barpo etilgan. Bu suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to'plangan.

X ASR — 1034-yillar — *Abu Nasr ibn Iroq*ning hayot va foliyati.

X-XI ASRLAR — "Mafotih ul-ulum" ("Fanlar kalitlari") asarining muallifi *Abu Abdulloh al-Xorazmiy*

yashab ijod qilgan.

X-XI ASRLAR — paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan.

X-XII ASRLAR — Gardiziy "Zaynul axbor" ("Xabarlar ko'rki"), Bayhaqiyning 30 jildli tarixiy asari, Majiduddin Adnonning "Tarixi mulki Turkiston", Muhammad Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" kabi asarlari fors tiliga tarjima qilindi. Movarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyot yuzaga keldi. Qator didaktik poemalar bitildi. Ularning eng nodiri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi asar") nomli asaridir.

XI ASR — Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati tashkil topishi bilan qarluq, jikil, yag'mo va boshqa turkiy qabila hamda urug'larning Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy aholi bilan o'troq hayotga ko'chish jarayoni jadallashdi.

XI-XII ASRLAR — sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Sopol buyumlar nihoyatda yaxshi, sifatli bo'lib, chet el mamlakatlariga ham olib chiqilgan. Xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Xattotlik san'ati rivoj topdi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatilgan.

XII ASR — "Hikmat ul-haqoyiq" asarining muallifi Ahmad Yugnakiy va "Hikmat" nomli she'rlar to'plami muallifi Ahmad Yassaviylarning faoliyat ko'rsatishi.

XII ASR — Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun maxsus "Faqihlar madrasasi" qurildi.

XII ASR — Farg'oniyning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" asari lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon sharqidagi, balki Ispaniya orqali Yevropa mamalakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan so'ng Ahmad Farg'oni nomi lotinlashtirilib, "Alfraganus" shaklida G'arbda shuhrat topdi.

XII ASR — Movarounnahrda Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan tasavvufning Yassaviya tariqati keng yoyildi. Tasavvufning asoslari Yassaviyning mashhur "Hikmat" asarida bayon etiladi.

XII ASR — Xorazmiyning "Aljabr va al-muqobala" risolasi Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi.

XII ASR OXIRI — Najmuddin Kubro Xorazmda so'fiylik maktabini ochib, "Kubraviya" tariqatiga asos soldi.

XII-XVII ASRLAR — Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan Ibn Sinoning "Al-qonun fit-tib" asari lotin tiliga tarjima qilindi.

XIV ASR — Buxoroda Bahouddin Naqshband tomonidan tasavvufning "Naqshbandiya" tariqatiga asos solinishi.

XVII ASR — mashhur fransuz fizigi Blez Paskal suvning bosim kuchi to'g'risida qonun yaratdi.

TESTLAR

1. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan qanday o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi?

- A) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar
- B) xalqlar o'rtasidagi o'zaro madaniy yaqinlashuv
- S) turli davlat hukmdorlarining tinchlikparvar siyosati
- D) iqtisodiy islohatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi

2. Movarounnahr istilo qilingach, zabt etigan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Buning asosiy sababi nima edi?

- A) chunki arab tili xalqaro muloqat tili edi.
- B) chunki arab tili xalifalikning ham davlat tili, ham fan tili edi.
- S) chunki mahalliy aholining arab tilini joriy etilishiga mayilligi borligi sababli
- D) chunki ko'plab arablarni Movarounnahrda ko'chib kelganligi sababli

3. Ma'lumki, arab tiliga bo'lgan ehtiyoj va intilish tufayli Movarounnahrda arab tili va yozuvini yaxshi o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. Nima uchun davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi?

- A) chunki ko'plab arablar hali Movarounnahrda ko'chib kelmaganligi sababli
- B) chunki arab tili xalifalikning fan tili emas edi
- S) chunki mahalliy aholining arab tilini joriy etilishiga qarshiligi borligi sababli
- D) chunki arablar orasida bu paytda davlat boshqaruvi ishlariga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi.

4. IX-XIII asrlarda Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi qaysi shahar hisoblangan?

- A) Samarqand
- B) Damashq
- S) Bag'dod
- D) Buxoro

5. Nechanchi asrda Bag'dod shahrida "Bayt ul-hikmat" tashkil etilgan?

- A) X asrda
- B) IX asrda
- S) XI asrda
- D) XII asrda

6. IX asrda qaysi shaharlarda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi?

- A) Ray va Nishopur
- B) Bag'dod va Isfahon
- S) Bag'dod va Damashqda
- D) Damashq va Kat

7. "Bayt ul-hikmatga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda yana qanday ishlar bilan

shug`ullanardilar?

- A) qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish
- B) astronomik kuzatishlar olib borgan
- S) arab tilini jahon xalqlariga targ'ib qilish
- D) dunyo kutubxonalarda saqlanayotgan nayob kitoblarni ro'yxatini tuzish

8. "Bayt ul-hikmatda qaysi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilgan?"

- A) Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy, Yahyo bin Abi Mansur
- B) Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy
- S) Abu Nasr ibn Iroq, Abulhayr ibn Hammor, Abu Sahl Masihiy
- D) Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy

9. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 797-865-yillarda
- B) 810-870-yillarda
- S) 824-894-yillarda
- D) 783-850-yillarda

10. Muso al-Xorazmiy kimning hukmdorligi davrida "Bayt ul-hikmat"da mudir sifatida faoliyat ko`rsatgan?

- A) xalifa Mansur davrida
- B) xalifa Mu'tazid davrida
- S) xalifa Ma'mun davrida
- D) xalifa Abul Abbas Saffoh davrida

11. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nechanchi yillarda "Bayt ul-hikmat"da mudir sifatida faoliyat ko`rsatgan?

- A) 810-843-yillarda
- B) 832-833-yillarda
- S) 813-833-yillarda
- D) 813-843-yillarda

12. Ma'lumki, Muso al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozgan. Ulardan bizgacha nechtasi yetib kelgan?

- A) 8 tasi
- B) 15 tasi
- S) 20 tasi
- D) 10 tasi

13. Muso al-Xorazmiy qaysi fanlarni rivojiga ulkan hissa qo'shdi?

- A) matematika, astronomiya va geografiya
- B) Kalom ilmi
- S) tarix va geografiya
- D) matematika, astronomiya va tarix

14. Muso al-Xorazmiyning quyidagi keltirilgan asarlardan qaysilari matematikaga oid asarlar hisoblanadi?

- A) "Al-jabr val-muqobala", "Kitob surat ul-arz"

- B) "Al-jabr val-muqobala", "Hind hisobi haqida"
- S) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"
- D) "Hind hisobi haqida", "Kitob surat ul-arz"

15. Muso al-Xorazmiyning tarixga oid asarlari berilgan qatorni belgilang?

- A) "Kitob at-tarix", "Kitob surat ul-arz"
- B) "Al-jabr val-muqobala", "Hind hisobi haqida"
- S) "Zij", "Usturlob bilan ishlash haqida kitob"
- D) "Kitob at-tarix", "Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola"

16. Muso al-Xorazmiyning geografiyaga oid asarini aniqlang.

- A) "Kitob surat ul-arz"
- B) "Kitob at-tarix"
- S) "Zij"
- D) "Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola"

17. Quyidagi ko`rsatilgan asarlardan qay biri Muso al-Xorazmiyning astronomiyaga oid asari hisoblanadi?

- A) "Zij" va "Usturlob bilan ishlash haqida kitob"
- B) "Kitob at-tarix", "Kitob surat ul-arz"
- S) "Kitob at-tarix", "Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola"
- D) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"

18. Muso al-Xorazmiy nomi matematika fanida qanday atama shaklida o'z ifodasini topadi?

- A) Avitsenna
- B) Alfraganus
- S) Algoritm
- D) Alxokrismus

19. Muso al-Xorazmiyning qaysi asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosini taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturulamal bo'lib xizmat qilgan?

- A) "Usturlob bilan ishlash haqida kitob"
- B) "Al-jabr val-muqobala"
- S) "Kitob at-tarix"
- D) "Kitob surat ul-arz"

20. Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr val-muqobala" asari nechanchi asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan va qayta ishlangan?

- A) IX asrda
- B) XI asrda
- S) X asrda
- D) XII asrda

21. Muso al-Xorazmiy o'zining qaysi asari bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos slogan?

- A) "Al-jabr val-muqobala"
- B) "Hind hisobi haqida"
- S) "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"
- D) "Kitob surat ul-arz"

22. Buyuk astronom, matematik va geograf al-



Farg‘oniy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 783-850-yillarda
- B) 797-865-yillarda
- S) 810-870-yillarda
- D) 824-894-yillarda

23. Al-Farg‘oniy Yevropada qanday taxallus bilan shuhrat qozongan?

- A) Algoritm
- B) Alfraganus
- S) Avitsenna
- D) Alfraganus va Algoritm

24. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij yaratish ishlariga rahbarlik qilgan olimni aniqlang.

- A) ar-Roziy
- B) al-Xorazmiy
- S) Al-Farg‘oniy
- D) Abu Rayhon Beruniy

25. Al-Farg‘oniy nechanchi yillarda Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchashda qatnashgan?

- A) 813-833-yillarda
- B) 832-833-yillarda
- S) 834-835-yillarda
- D) 835-836-yillarda

26. Qachon Al-Farg‘oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr — daryo oqimi sathini o‘lchaydigan “Miqyos an-Nil” inshoati va uning darajoti qayta tiklandi?

- A) 861-yilda
- B) 832-833-yillarda
- S) 866-yilda
- D) 864-yilda

27. Al-Farg‘oniyning bizning davrimnizgacha nechta asari yetib kelgan?

- A) 8 ta
- B) 10 ta
- S) 20 ta
- D) 12 ta

28. Al-Farg‘oniyning qaysi asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan?

- A) “Kitob surat ul-arz”
- B) “Al-jabr val-muqobala”
- S) “Hind hisobi haqida”
- D) “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum”

29. Nechanchi yilda Al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi, Farg‘ona shahrida Al-Farg‘oniy nomi bilan bog‘ yaratildi va buyuk allomaga haykal o‘rnatildi?

- A) 2000-yilda
- B) 1998-yilda
- S) 1997-yilda

D) 2005-yilda

30. Mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 797-865-yillarda
- B) 810-870-yillarda
- S) 824-894-yillarda
- D) 783-850-yillarda

31. Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi at-Termiziy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 824-894-yillarda
- B) 810-870-yillarda
- S) 783-850-yillarda
- D) 797-865-yillarda

32. Imom al-Buxoriy islom ta’limotiga oid nechta asar yozgan?

- A) yigirmaga yaqin
- B) o‘ndan ortiq
- S) o‘ttizdan ortiq
- D) yigirmadan ortiq

33. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi` as-sahih” asariga nechta hadis kiritilgan?

- A) 7273 ta hadis
- B) 7572 ta hadis
- S) 7275 ta hadis
- D) 7585 ta hadis

34. 1998-yil oktabrda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining necha yilligi nishonlangan?

- A) 1130 yilligi
- B) 1200 yilligi
- S) 1225 yilligi
- D) 1000 yilligi

35. Buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilligi Vatanimizda qachon nishonlandi?

- A) 1996-yil oktabrda
- B) 2000-yil noyabrda
- S) 1997-yil noyabrda
- D) 1998-yil oktabrda

36. Imom al-Buxoriyning 4 jildlik “Al-Jomi` as-sahih” kitobi nechanchi yilda ilk bor o‘zbek tilida nashr etilgan?

- A) 1999-yilda
- B) 1998-yilda
- S) 2000-yilda
- D) 1997-yilda

37. Imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilligi munosabati bilan barpo etilgan “Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui” qayerda bunyod etilgan?

- A) Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida
- B) Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida
- S) Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida
- D) Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida

38. Kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk



alloma kim?

- A) Abu Mansur al-Motrudiy
- B) imom al-Buxoriy
- S) Abu Iso Muhammad at-Termiziy
- D) Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy

39. Abu Mansur al-Motrudiy nechanchi yilda va qayerda tug'ilgan?

- A) taxminan 870-yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida
- B) taxminan 870-yilda Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida
- S) taxminan 1318-yilda Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida
- D) taxminan 1123-yilda Farg'ona vodiysidagi Rishton qishlog'ida

40. Ma'lumki, Imom al-Motrudiy islomiy odob qoidalari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan. Ulardan qaysilari bizgacha yetib kelgan?

- A) "Al-Jomi" as-sahih"
- B) "Hidoya"
- S) "Kitob at-Tavhid" va "Ta'vilot ahl as-sunna"
- D) "Al-Kashshof" va "Al-Mufassal"

41. Imom al-Motrudiy nechanchi yilda vafot etgan?

- A) 944-yilda
- B) 865-yilda
- S) 870-yilda
- D) 850-yilda

42. Vatanimizda 2000-yil noyabrda Imom al-Motrudiy tavalladining necha yilligi nishonlangan?

- A) 1200 yilligi
- B) 1225 yilligi
- S) 1130 yilligi
- D) 1230 yilligi

43. Yurtimizning qaysi shahrida al-Motrudiy xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmui barpo etildi?

- A) Buxoro shahrida
- B) Samarqand shahrida
- S) Toshkent shahrida
- D) Marg'ilon shahrida

44. IX asrning ikkinchi yarmida nima sababdan Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshladi?

- A) xalifalik tugab, Somoniylar boshqaruvining qaror topishi bilan
- B) xalifalik tugab, Qoraxoniylar boshqaruvining qaror topishi bilan
- S) xalifalik tugab, Qarluqlar boshqaruvining qaror topishi bilan
- D) xalifalik tugab, Tohiriylar boshqaruvining qaror topishi bilan

45. Qachondan boshlab Movarounnahrning madaniy

hayotida uyg'onish davri boshlandi?

- A) X asrning ikkinchi yarmidan
- B) IX asrning ikkinchi yarmidan
- S) XI asrning ikkinchi yarmidan
- D) XII asrning ikkinchi yarmidan

46. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xorazmning qaysi shaharlarida kutubxonalar, kitob do'konlari qurilgan?

- A) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur
- B) Bolasog'un, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro
- S) Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent
- D) Bolasog'un, Koshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand, Buxoro

47. "Dorul hikmat va maorif" ("Hikmat va maorif uyi") — "Ma'mun akademiyasi" nechanchi yilda shakllangan?

- A) 1017-yilda
- B) 1004-yilda
- S) 1037-yilda
- D) 1074-yilda

48. "Ma'mun akademiyasi" asosini quyida keltirilgan olimlardan kimlar tashkil etgan?

- 1) Abu Nasr ibn Iroq; 2) Abulhayr ibn Hammor; 3) Abu Sahl Masihiy; 4) Abu Rayhon Beruniy; 5) Abu Ali ibn Sino; 6) Muso al-Xorazmiy; 7) al-Farg'oni.
- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- S) 1, 2, 4, 5, 6
- D) 1, 3, 4, 5, 7

49. Quyidagi qaysi olimlarning ilmiy faoliyati tufayli qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan?

- 1) Abu Nasr ibn Iroq; 2) Abulhayr ibn Hammor; 3) Abu Sahl Masihiy; 4) Abu Rayhon Beruniy; 5) Abu Ali ibn Sino; 6) al-Farg'oni; 7) Abu Nasr Farobiy
- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 3, 4, 5, 6, 7
- S) 1, 3, 4, 5, 7
- D) 1, 2, 4, 5, 6

50. Qachon va qaysi hukmdorning bosqini tufayli "Dorul hikmat va maorif" faoliyati tugatilgan?

- A) 1017-yilda Mahmud G'aznaviy bosqini tufayli
- B) 1017-yilda Sabuktegin bosqini tufayli
- S) 1038-yilda Ibrohim Bo'ritegin bosqini tufayli
- D) 1040-yilda Malikshoh bosqini tufayli

51. Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorazm Ma'mun akademiyasining qaytadan tashkil etish to'g'risidagi farmoni chiqdi?

- A) 2005-yil 11 sentabrda
- B) 1998-yil 11 oktabrda

- S) 2000-yil 11 noyabrda
D) 1997-yil 11 noyabrda

52. 2005-yil kuzida Respublikamizda “Xorazm Ma`mun akademiyasi”ning necha yilligi nishonlandi?

- A) 1130 yilligi
B) 910 yilligi
S) 1000 yilligi
D) 1225 yilligi

53. O`rta asrning mashhur olimi Abu Nasr ibn Iroqning yashab faoliyat ko`rsatgan davrini aniqlang.

- A) 10-a. — 1034-yil
B) 991—1048-yillar
S) 970—1011 yillar
D) 973—1048-yillar

54. 991 1048-yillarda yashab ijod etgan mashhur o`rta osiyolik olimni aniqlang.

- A) Abu Sahl Masihiy
B) Abu Nasr ibn Iroq
S) Abulhayr ibn Hammor
D) Abu Rayhon Beruniy

55. O`rta asrning mashhur olimi Abu Sahl Masihiyning qachon yashab o`tgan?

- A) 973—1048-yillar
B) 10-a. — 1034-yil
S) 970—1011 yillarda
D) 991—1048-yillar

56. Quyidagi ko`rsatilgan buyuk olimlardan qay biri 973—1048-yillarda yashab o`tgan?

- A) Abu Ali ibn Sino
B) Abulhayr ibn Hammor
S) Abu Nasr ibn Iroq
D) Abu Rayhon Beruniy

57. Abu Ali ibn Sinoning yashab o`tgan yillarni aniqlang.

- A) 980—1037-yillar
B) 970—1011 yillar
S) 973—1048-yillar
D) 991—1048-yillar

58. Abu Nasr Farobiy qachon va qayerda tug`ilgan?

- A) 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog`ida
B) 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida
S) 973-yilda qadimgi Kat shahrida
D) 873-yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Farob shahrida tug`ilgan

59. Abu Nasr Farobiy ilk bilimlarini quyida keltirilgan shaharlarning qaysilarida olgan?

- A) Farob, Samarqand, Buxoro va Bag`dod shaharlarida
B) Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur shaharlarida
S) Bolasog`un, Taroz, O`zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida
D) Samarqand, Buxoro, Termiz, O`zgan, Toshkent

60. Abu Nasr Farobiy umrining so`nggi yillarida qaysi

shaharlarda yashagan?

- A) Damashq va Bog`dod
B) Xalab va Damashq shaharlarida
S) Farob va Toshkent
D) Marv va Nishopur

61. 160 dan ortiq asar yozib, o`rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo`shgan vatandoshimiz kim?

- A) Abu Nasr ibn Iroq
B) Abu Rayhon Beruniy
S) Abu Nasr Farobiy
D) Abu Ali ibn Sino

62. Qaysi alloma Sharqda Arastudan keyingi yirik mutafakkir — “Muallimus soniy” nomi bilan shuhrat topgan?

- A) Abu Nasr Farobiy
B) Abu Ali ibn Sino
S) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy
D) al-Farg`oniy

63. O`rta osiyolik buyuk alloma Farobiy qaysi fan sohalarida ijod qilgan?

- A) riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot
B) astronomiya, matematika va geografiya
S) badiiy san`at, adabiyot, astronomiya, matematika
D) mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh

64. Quyidagi asarlardan qay biri buyuk alloma Farobiyga tegishli emas?

- A) “Tirik mavjudot a`zolari haqida”
B) “Fozil odamlar shahri”
S) “Geodeziya”
D) “Baxt-saodatga erishuv haqida”

65. Xorazmning yuksalishi, madaniy hayotining ravnaqiga imkon bergan omilni aniqlang?

- A) Somoniylar davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko`tarilish
B) Saljuqiylar davlatining inqirozga uchrashi
S) Arab xalifaligining zaiflashuvi
D) Xorazm davlatining tashqi siyosatdagi yutuqlari

66. Abu Ali ibn Sino qachon va qayerda tug`ilgan?

- A) 973-yilda qadimgi Kat shahrida
B) 873-yilda Farob shahrida tug`ilgan
S) 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tug`ilgan
D) 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog`ida

67. Abu Ali ibn Sino qanday oilada dunyoga kelgan?

- A) mahalliy savdogar oilasida dunyoga kelgan.
B) mahalliy amaldor oilasida dunyoga kelgan.
S) mahalliy hunarmand oilasida dunyoga kelgan.
D) mahalliy ziyoli oilasida dunyoga kelgan.

68. Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o`rgangan alloma kim?

- A) Abu Nasr Farobiy



- B) Abu Rayhon Beruniy
- S) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy
- D) Abu Ali ibn Sino

69. O'rta Sharqning buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy nechanchi yillarda yashab o'tgan?

- A) 991—1048-yillar
- B) 980—1037-yillar
- S) 973—1048-yillar
- D) 865-925-yillarda

70. Abu Ali ibn Sino necha yoshdan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rganadi?

- A) 15 yoshdan
- B) 16 yoshdan
- S) 17 yoshdan
- D) 18 yoshdan

71. Abu Ali ibn Sino tabobat ilmida kimlarning asarlarini puxta o'rganadi?

- A) Gippokrat, Galen va Abu Bakr ar-Roziy
- B) Aristotel, Gerodot va Abu Nasr ibn Iroq
- S) Gippokrat, Galen va Abulhayr ibn Hammor
- D) Gerodot, Gippokrat va Abu Bakr ar-Roziy

72. Ibn Sino necha yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi?

- A) o'n yetti
- B) o'n sakkiz
- S) o'n to'qqiz
- D) o'n olti

73. Sharqda "Shayx ur-ra'is", G'arbda esa "Avisenna" nomlari bilan shuhrat topgan vatandoshimizni aniqlang.

- A) al-Xorazmiy
- B) Abu Rayhon Beruniy
- S) Abu Nasr Farobiy
- D) Abu Ali ibn Sino

74. Abu Ali ibn Sino qanday xizmatidan so'ng somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi?

- A) "Shayx ur-ra'is" unvoniga sazavor bo'lgach
- B) Amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach
- S) "Dorul hikmat va maorif" qabul qilingach
- D) "Al-qonun fit-tib" asari yozib tugatgach

75. Ma'lumki, ibn Sino 450 dan ortiq asarlar yozgan, shulardan nechitasi tibbiyotga doir asarlar hisoblanadi?

- A) 40 tasi
- B) 43 tasi
- S) 50 tasi
- D) 100 tasi

76. Abu Ali ibn Sino qaysi asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy

tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan?

- A) "Al-Kashshof"
- B) "Qadimgi xalqlarlardan qolgan yodgorliklar"
- S) "Al-qonun fit-tib"
- D) "Tirik mavjudot a'zolari haqida"

77. Abu Ali ibn Sinonig "Al-qonun fit-tib" nechanchi asrda lotin tiliga tarjima qilingan?

- A) XII asrda
- B) XIII asrda
- S) XI asrda
- D) X asrda

78. Abu Ali ibn Sinonig "Al-qonun fit-tib" nechanchi asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan?

- A) XV asrgacha
- B) XVI asrgacha
- S) XVII asrgacha
- D) XVIII asrgacha

79. Ulug' mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 970 — 1011 yillarda
- B) 973-1048-yillarda
- S) 991 — 1048-yillarda
- D) 980 — 1037-yillarda

80. Abu Rayhon Beruniy qaysi shaharda tug'ilgan?

- A) Kat shahrida
- B) Forob shahrida
- S) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida
- D) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida

81. Abu Rayhon Beruniy qachon va qayerda vafot etgan?

- A) 1048-yilda G'azna shahrida
- B) 1037-yilda Hamadon shahrida
- S) 944-yilda Samarqand shahrida
- D) 1048-yilda Kat shahrida

82. Falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yich 160 dan ortiq asarlari bizgacha yetib kelgan alloma kim?

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Abu Nasr Farobiy
- S) Abu Rayhon Beruniy
- D) Ahmad al-Farg'oniy

83. Qaysi alloma o'zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrini o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surgan?

- A) Abu Ali ibn Sino
- B) Abu Rayhon Beruniy
- S) Ahmad al-Farg'oniy
- D) al-Xorazmiy

84. Beruniy nechta yulduzning koordinatalari va

yulduz kattaliklarini qayd etigan yulduzlar jadvalini va dunyoning geografik xaritasini tuzgan?

- A) 1029
- B) 1017
- S) 1004
- D) 1019

85. Quyidagi ko'rsatilgan asarlardan qay birlari Abu Rayhon Beruniy qalamiga oid?

- A) Arastuning "Metafizika" asariga sharh", "Musiqqa kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri"
- B) "Al-Mufassal", "Al-Kashshof"
- S) "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit-turk", "Hibat ul-haqoyiq"
- D) "Qadimgi xalqlarlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya"

86. Mahmud Zamaxshariy qachon va qayerda tug'ilgan?

- A) 873-yilda Farob shahrida tug'ilgan
- B) 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan
- S) 973-yilda qadimgi Kat shahrida
- D) 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida

87. Mahmud Zamaxshariy dastlabki ma'lumotini kimdan olgan?

- A) o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziydan
- B) otasidan
- S) mashhur muhaddis imom al-Buxoriydan
- D) mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziyan

88. Mahmud Zamaxshariy qaysi shaharlarda hayot kechirib, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarini, xattotlik san'atini, arab maqolalari va urf-odatlarini chuqur o'rgangan?

- 1) Buxoro; 2) Marv; 3) Nishpur; 4) Shom; 5) Bag'dod; 6) Hirot; 7) Makka.
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- S) 1, 3, 5,
- D) 1, 2, 4, 5, 7

89. Mahmud Zamaxshariyning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan asari qanday nomlanadi?

- A) "Al-Mufassal"
- B) "Hidoya"
- S) "Al-Jomi" as-sahih"
- D) "Al-Kashshof"

90. Mahmud Zamaxshariyning "Al-Kashshof" asari nimaga bag'ishlangan?

- A) Qu'roni Karim tafsiriga
- B) dunyoning yaratilishiga
- S) islom huquqshunosligiga
- D) diniy ta'limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanishidagi mohiyati

talqin etilgan

91. "Arab va g'ayri arablar ustoz", "Xorazm faxri" kabi sharaflil nomlar bilan ulug'langan buyuk allomalardan birini aniqlang.

- A) Abu Bakr ar-Roziy
- B) Burhonuddin al-Marg'inoniy
- S) Mahmud Zamaxshariy
- D) Abu Rayhon Beruniy

92. Dunyoga dong'i ketgan Al-Azhar diniy dorilfunun qaysi shaharda joylashgan?

- A) Damashq
- B) Bag'dod
- S) Qohira
- D) Ray

93. Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid nechta asarlar yozib qoldirdi?

- A) 50 dan ortiq
- B) 60 dan ortiq
- S) 70 dan ortiq
- D) 40 dan ortiq

94. 1123-yilda Rishtonda (Farg'ona vodiysida) tavallud topgan mashhur faqih kim?

- A) Mahmud Zamaxshariy
- B) Burhonuddin al-Marg'inoniy
- S) Abu Rayhon Beruniy
- D) Abu Mansur al-Moturudiy

95. Burhonuddin al-Marg'inoniyning eng nodir asari berilgan qatorni belgilang?

- A) "Al-Kashshof"
- B) "Al-Mufassal"
- S) "Hidoya"
- D) "Al-Jomi" as-sahih"

96. 2000-yilda Burhonuddin al-Marg'inoniy tavalludining necha yilligi nishonlangan?

- A) 910 yilligi
- B) 1130 yilligi
- S) 1000 yilligi
- D) 1225 yilligi

97. Islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm — bu ...

- A) Hadis
- B) Fiqh
- S) Tafsir
- D) Kalom

98. Sezgilar vositasidagi anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan qanday atalgan?

- A) falsafa
- B) metafizika
- S) fiqh
- D) antropologiya

99. Ma'lumki, Forobiy muallimus-soniy nomi bian

ulug‘langan. Birinchi muallim kim hisoblangan?

- A) Gerodot
- B) Aristotel
- S) Strabon
- D) Arrian

100. Hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o‘rganuvchi fanni aniqlang.

- A) falsafa
- B) tarix
- S) metafizika
- D) kalom

101. Shayx ur-ra'is — bu ...

- A) ruhoniylar rahbari
- B) donishmandlar sardori
- S) ulamolalar sardori
- D) islom bilimdoni

102. Quyidagi asarlardan qay biri Yusuf Xos Hojibga oid?

- A) “Qutadg‘u bilig”
- B) “Devonu lug‘atit-turk”
- S) “Hibat ul-haqoyiq”
- D) “Hikmat”

103. “Devonu lug‘atit-turk” asarining muallifini aniqlang.

- A) Ahmad Yassaviy
- B) Yusuf Xos Hojib
- S) Ahmad Yugnakiy
- D) Mahmud Koshg‘ariy

104. Quyidagi ko‘rsatilgan asarlardan qay biri Ahmad Yugnakiyga tegishli?

- A) “Devonu lug‘atit-turk”
- B) “Qutadg‘u bilig”
- S) “Hibat ul-haqoyiq”
- D) “Hikmat”

105. “Hikmat” asarining muallifini aniqlang.

- A) Ahmad Yassaviy
- B) Ahmad Yugnakiy
- S) Yusuf Xos Hojib
- D) Mahmud Koshg‘ariy

106. IX-XIII asr boshlarida me‘morchilik va san‘at sohalari ta‘sir etgan omilni aniqlang.

- A) jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi
- B) savdo-sotiqni taraqqiy etishi
- S) dehqonchilik va hunarmandchilikni taraqqiy etishi
- D) iqtisodiy islohatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi

107. IX-XIII asr boshlarida qaysi shaharlarda ko‘plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi?

- A) Samarqand, Buxoro, Termiz, O‘zgan, Toshkent

- B) Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand
- S) Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O‘zgan va Marv
- D) Toshkent, Samarqand, Buxoro

108. Ismoil Somoniy, Namozgoh, Minorayi Kalon kabi o‘rta asr me‘morchiligining yuksak namunalari qaysi shaharda joylashgan?

- A) Samarqand shahrida
- B) Buxoro shahrida
- S) Toshkent shahrida
- D) Urganch shahrida

109. Nurota tizmalaridagi past tog‘ darajasida barpo etilgan Xonbandi suv ombori nechanchi asrda qurilgan?

- A) IX asrda
- B) XI asrda
- S) X asrda
- D) XII asrda

110. Xonbandi suv omboriga necha metr kub suv to‘plangan?

- A) 1,5 mln kub metr
- B) 2,5 mln kub metr
- S) 3,5 mln kub metr
- D) 4,5 mln kub metr

111. Xonbandi to‘g‘oni qurilishida asosiy xomashyo sifatida nimalardan foydalanilgan?

- A) shag‘al va qumlardan
- B) tosh va sementdan
- S) marmar va harsang toshlardan
- D) granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan

112. Nechanchi asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqalgan?

- A) X asrda
- B) IX asrda
- S) XI asrda
- D) XII asrda

113. Quyidagi qaysi shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan X-XI asrlarda ham paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan imoratlar shahar me‘morchiligida asosiy o‘rinni egallaganligi ma‘lum bo‘lgan?

- A) Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand
- B) Samarqand, Buxoro, Termiz, O‘zgan
- S) Buxoro, Samarqand va Toshkent
- D) Marv, Samarqand, Buxoro va Shosh

114. IX-XII asr boshlarida san‘atning qanday sohalari ancha rivoj topdi?

- A) haykaltaroshlik, naqqoshlik va o‘ymakorlik san‘ati
- B) xatotlik va binokorlik
- S) qo‘shiqchilik
- D) xatotlik, musiqa, naqqoshlik va o‘ymakorlik san‘ati

115. Buxoro shahridagi Mag‘oki attoriy masjidi



nechanchi asrga oid?

- A) XII asrga
- B) XIII asrga
- S) XI asrga
- D) X asrga

116. IX—XII asr boshlarida naqqoshlik va tasviriy san'atdagi o'zgarishlarni qayd eting.

A) jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islami gulli naqshlar ishlashga o'tiladi. Imoratning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi.

B) jonli mavjudotlarni tasvirlashga o'tiladi.

S) jonli mavjudotlarni tasvirlashdan tabiat manzaralarini tasvirlashga o'tiladi.

D) jangu jadallarni tasvirlashga o'tdi.

117. IX-XIII asr boshlarida sozandalar qanday xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblaridan keng foydalanganlar?

A) ud, tanbur, qo'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay va qonun

B) doira, g'ijjak, karnay va surnay

S) tanbur, doira, g'ijjak

D) cnang, nay, surnay, karnay

118. IX-XIII asr boshlarida "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zerafkanda" "Buslik", "Sipohon", "Navo", "Basta", "Taron" kabi kuylar tojik va o'zbek xalqlarining qaysi mumtoz kuyi uchun poydevor bo'lgan?

A) "Isfahoniy"

B) "Ushshoq"

S) "Shashmaqom"

D) "Usuli ravon"

119. Ma'lumki, Movarounnahrda birinchi madrasa Buxoroda ochilgan. Ushbu madrasa nechanchi asrda ochilgan va qanday nom bilan atalgan?

A) X asrda, Farjak madrasasi

B) XII asrda, Faqihlar madrasasi

S) XIII asr o'rtasi, Ma'sudiya madrasasi

D) XIII asr o'rtasi, Xoniya madrasasi

120. XII asrda Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun maxsus qurilgan madrasa qanday nomlanadi?

A) "Farjak madrasasi"

B) "Faqihlar madrasasi"

S) "Ma'sudiya madrasasi"

D) "Xoniya madrasasi"

121. O'rta asr madrasalarida talabalariga shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o'rgatishda qaysi manba juda boy va qimmatli hisoblanadi?

A) "Dalil al-oshiqin"

B) "Fiqh"

S) "Hidoya"

D) "Tafsir"

122. IX-XIII asrlarda islom dini ta'limotining ravnaqi

va targ'ibotining kengayishida qaysi shahar markazga aylangan?

A) Buxoro

B) Samarqand

S) Poykand

D) Marv

123. Buxoro IX asrdan boshlab qanday nom bilan shuhrat topadi?

A) "Sayqali ro'yi zamin"

B) "Faqihlar shahri"

S) "Qubbat ul-islom"

D) "Dunyo poydevori"

124. O'rta asrda barpo qilingan ilk madrasalarda qaysi bilimlarni o'rganishga katta e'tibor berilgan?

A) Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilini

B) riyozat, handasa, tibbiyot va arab tilini

S) astronomiya, tibbiyot, tarix va arab tilini

D) Qur'oni Karim, ilmi aruz, geografiya, falsafa

125. Ma'lumki, musulmon aholisi orasida tasavvuf ta'limoti keng tarqalgan. Ushbu ta'limot qachon va qayerda yuzaga kelgan?

A) VIII asr o'rtalarida Iroqda

B) XII asrda Turkistonda

S) XII asr oxirida Xorazmda

D) XIV asrda Buxoroda

126. Tasavvuf ta'limoti asosida nima yotadi?

A) ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g'oyalar yig'indisi

B) musulmonlarning halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi

S) inson faoliyati va uning kamoloti

D) mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etish

127. Ma'lumki, IX-XIII asrlardan Turkiston va Movarounnahrning turli o'lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo'ldi. Turkistonda XII arda tasavvufning qanday tariqati vujudga kelgan?

A) Yassaviya

B) Naqshbandiya

S) Kubraviya

D) Qodiriya

128. Xorazmda keng tarqalgan Kubraviya tariqati qachon vujudga kelgan?

A) XI asr oxirida

B) XIII asr oxirida

S) XII asr oxirida

D) XIV asrda

129. XIV asrda Buxoroda tasavvufning qanday tariqati vujudga kelgan?

A) Naqshbandiya va Kubraviya

B) Yassaviya

S) Kubraviya

D) Naqshbandiya

130. Yassaviya tariqatining asoslari Ahmad



Yassaviyning qaysi asarida bayon etiladi?

- A) "Hikmat"
- B) "Tavsir"
- S) "Hayotnoma"
- D) "Dalil al-oshqin"

131. "Shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma`rifat, ma`rifatsiz haqiqat bo`la olmaydi". Bu so`zlar kimga tegishli?

- A) Najmiddin Kubro
- B) Ahmad Yassaviy
- S) Bahouddin Naqshband
- D) Ahmad Yugnakiy

132. Yassaviy tariqatining asosida qanday g`oya olg`a suriladi?

- A) kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g`oyasi
- B) bu dunyo noz-ne`matlaridan bahramand bo`lishning joizligi
- S) xalqqa va Vatanga bo`lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo`lib, har qanday og`ir damlarda ham omma bilan birga bo`lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da`vat etiladi
- D) mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ`ib etish

133. Tasavvuf ta`limotining buyuk siymolaridan biri Najmiddin Kubro nechanchi yillarda yashab o`tgan?

- A) 865-925-yillar
- B) 973-1048-yillarda
- S) 980-1037-yillarda
- D) 1145-1221 yillarda

134. Qaysi tariqat g`oyasida kamolot yo`lida olib boriladigan mashqsqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne`matlaridan bahramand bo`lishining joizligi ilgari suriladi?

- A) Kubraviya
- B) Yassaviya
- S) Naqshbandiya
- D) Yassaviya va Kubraviya

135. Qaysi tariqat g`oyasida xalqqa va Vatanga bo`lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo`lgan?

- A) Naqshbandiya
- B) Kubraviya
- S) Yassaviya
- D) Naqshbandiya va Yassaviya

136. Naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband qachon va qayerda tug`ilgan?

- A) 973-yilda Kat shahrida
- B) 1123-yilda Rishtonda tug`ilgan
- S) 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog`ida
- D) 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog`ida

137. Naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband qanday oilada dunyoga keladi?

- A) matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida

- B) binolarga naqsh bosuvchi me`mor oilasida
- S) qog`ozlarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida
- D) badavlat savdogar oilasida

138. O`zining "Hayotnoma" va "Dalil al-oshqin" nomli asarlari bilan o`z tariqatini yaratgan buyuk allomani aniqlang.

- A) Najmiddin Kubro
- B) Ahmad Yassaviy
- S) Bahouddin Naqshband
- D) Xo`ja Ahror

139. Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodolovchi hikmat qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) "shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma`rifat, ma`rifatsiz haqiqat bo`la olmaydi"
- B) "ko`ngil Allohda bo`lsin-u, qo`l ish bilan band bo`lsin"
- S) "bu dunyo noz-ne`matlaridan bahramand bo`lish joiz"
- D) "inson har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun"

140. Quyidagi tariqatlardan qay biri tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ`ib etadi?

- A) Kubraviya
- B) Yassaviya
- S) Naqshbandiya
- D) Fiqh

141. Musulmonlarning halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimning o`zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da`vat etuvchi ta`limot qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) tasavvuf
- B) tariqat
- S) mafkura
- D) kalom

142. Tariqat bu...

- A) tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya`ni, komil inson darajasiga erishishni ko`rsatuvchi to`g`ri yo`l
- B) musulmonlarning halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimning o`zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da`vat etuvchi ta`limot
- S) ma`lum maqsadni ro`yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g`oyalar yig`indisi
- D) islom diniy ta`limotini asoslab beruvchi diniy ilm

143. O`rta Osiyoning markaziy viloyatlari — Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g`arbiy mintaqalarida shakllangan xalq bu...

- A) qarluqlar
- B) qoraxoniylar
- S) o`zbek xalqi
- D) somoniylar



144. Qadimda mahalliy sug‘diylar, baxtariylar, xorazmiylar va farg‘onaliklarning asosiy mashg‘uloti nimalardan iborat bo‘lgan?

- A) savdo-sotiq va hunarmandchilik
- B) sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilik
- S) chorvachilik va dehqonchilik
- D) dehqonchilik va savdo-sotiq

145. Nechanchi asrda Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarining tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o‘ziga xos uyg‘unlashgan madaniyat shakllanadi?

- A) mil. avv. III asrda
- B) IV-V asrlarda
- S) VII asrda
- D) VIII asrda

146. Qaysi davrga kelib, O‘rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi aholi tashqi qiyofalarida hozirgi o‘zbek va voha tojiklariga xos O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i antropologik tipi (qiyofasi) to‘liq shakllanadi?

- A) IX-XII asr boshlarida
- B) mil. avv. III asrda
- S) IX asrda
- D) Mil.avv. II asrda

147. Qang‘ davlati davriga oid qaysi madaniy yodgorlik turkiyzabon etnoslar shakllanishda muhim rol o‘ynagan?

- A) Jonbasqal‘a madaniyati
- B) Sho‘rabashat madaniyati
- S) Tuproqqal‘a madaniyati
- D) Qovunchi madaniyati

148. IV-V asrlarda O‘rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung‘oriyadan, Sharqiy Turkistondan kirib kelgan qaysi xalqlar o‘zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar hisoblanadi?

- A) xioniylar, qoraxoniylar va eftaliylar
- B) sug‘diylar, baxtariylar, xorazmiylar va farg‘onaliklar
- S) xioniylar, kidariylar va eftaliylar
- D) qarluqlar, o‘g‘uzlar va qoraxoniylar

149. Nechanchi asrdan boshlab o‘lkamiz “Turkiston” nomi bilan atala boshlagan?

- A) V asrdan boshlab
- B) VIII asrdan boshlab
- S) VI asrdan boshlab
- D) VII asrdan boshlab

150. Arab va ajam xalqlari O‘rta Osiyoga nechanchi asrda kirib kelgan?

- A) VIII asrda
- B) VII asrda

- S) VI asrda
- D) IX asrda

151. Nechanchi asrda Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshadi?

- A) IX asrdan boshlab
- B) IV asrdan boshlab
- S) VII asrdan boshlab
- D) VIII asrdan boshlab

152. IX asrdan boshlab sug‘diylar va mahalliy etnoslar hayotida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?

- A) o‘troqlashish jarayoni jadallashgan
- B) savdo-sotiq ishlari jadallashgan
- S) turkiylashish jarayoni jadallashgan
- D) arablar bosqini oqibatida xo‘jalik izdan chiqdi

153. Kimlarning hukmronligi davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o‘tishi munosabati bilan sodir bo‘lgan etnik jarayonlar o‘zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo‘ldi?

- A) Qoraxoniylar davrida
- B) Somoniylar davrida
- S) Qarluqlar davrida
- D) Turk xoqonligi davrida

154. Qaysi davrda o‘zbek xalqining elat tili qaror topgan?

- A) Somoniylar davrida
- B) Qarluqlar davrida
- S) Qoraxoniylar davrida
- D) Turk xoqonligi davrida

155. Nechanchi asrlar davomida o‘zbek xalqi shakllangan?

- A) X-XI asr boshlarida
- B) IX-XIII asr boshlarida
- S) IX-XII asr boshlarida
- D) XI-XII asr boshlarida


156. Turkiy aholi o‘rnashgan o‘lka nima deb nomlanadi?

- A) Turkiston
- B) O‘zbekiston
- S) Turon
- D) Movarounnahr

157. Kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo‘lga turli qabila va etlanning asrlar davomida qo‘silib borish jarayoni nima deyiladi?

- A) mafkura
- B) etnik jarayon
- S) antropogenez
- D) sivilizatsiya

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: 1. Farg'ona vodiysidan chiqqan mashhur faqih. 3. "Hibat ul-haqoyiq" asari muallifi. 4. Algebra fanining asoschisi. 6. "Devonu lug'atit-turk" asari muallifi. 7. Tasavvufning mashhur namoyondalaridan biri, shoir. 9. Buyuk muhaddis. 12. "Mineralogiya" asari muallifi.

ENIGA: 2. "Ta'vilot ahl as-sunna" asarining muallifi. 5. Mashhur avliyo, tariqat asoschisi. 8. Tariqat asoschisi bo'lgan yirik tasavvuf namoyondasi. 10. Xorazmlik buyuk alloma. 11. Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-... 13. Buyuk muhaddis (824-894). 14. Buyuk tabib va qomusiy olim. 15. Sharqning qomusiy olimi, tabib va mutafakkir (865-925).

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Forobiy tug'ilgan qishloq. 3. Arastu asari. 5. Bag'doddagi Donishmandlar uyi. 8. Farg'oniyning Yevropadagi nomi. 9. Islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm. 11. Turkiy aholi o'r mashgan o'lka.

ENIGA: 2. Ahmad Yassaviyning asari. 4. X asrda barpo etilgan suv ombori. 6. Hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o'rganuvchi fan. 7. Beruniy tug'ilgan shahar. 10. Yusuf Xos Hojib asari. 11. Komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l. 12. Xorazmiy asos solgan fan. 13. Sufiylik. 14. Burhoniddin al-Marg'inoniy tug'ilgan shahar.

XRONOKROSS (yillar bo`yicha)



BO`YIGA: 1. Moturidiyning vafot etishi. 3. Ahmad Farg`oniyning tavallud topishi. 4. Abu Nasr Forobiyning tug`ilishi. 5. Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligi nishonlandi. 6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorazm Ma`mun akademiyasini qaytadan tashkil etish” farmonining chiqishi. 7. Imom al-Buxoriy tavalludi. 8. Mahmud G`aznaviyning Xorazmni zabt etishi. 10. Rishtonda Marg`inoniyning tavallud topishi. 11. Ma`mun akademiyasida faoliyat ko`rsatgan Abulxayr ibn Hammor tavalludi.

ENIGA: 1. Forobiyning vafoti. 2. Abu Ali ibn Sinoning Xamadon shahrida vafot etishi. 5. Mahmud Zamaxshariy tavalludi. 7. “Jomi` as-Sahih” asari muallifining vafoti. 8. 2000-yil Imom al-Moturidiyning necha yilligi nishonlandi? 9. Farg`oniy rahbarligida “Miqyos an -Nil” inshoati va uning darajotining qayta tiklanishi. 11. Abu Sahl Masihiy tavalludi. 12. Najmiddin Kubro vafoti.



V BOB

MO'G'ULLAR ISTILOSINI. VATANIMIZ XALQLARINING OZODLIK KURASHI

CHINGIZXON BOSQINI

MO'G'ULLARNING TURMUSH TARZI. Mo'g'ullarning ko'p sonli qavmlari Onon, Kerulen, Toli, Uryanaxaut daryolari vodiysida yashagan va tog'-kon ishlari bilan ham shug'ullanib kelganlar. Ular hozirgi Mo'g'uliston va Boyko'lortining shimoli-sharqiy hududlarida joylashganlar. IX asr boshlarida aymanlarning bir qismi Janubiy mo'g'ulistonga ko'chib o'tadi. U xitoy manbalarida "tatan", Yevropa manbalarida "tatar" degan nom bilan ataladi. Oradan 100 yil o'tib, qabila kuchayib ketib, alohida xalqqa aylanib, 1135-yildan "mo'g'ul" (xitoycha "moxe") deb atala boshlanadi. Mongol kumush degan ma'nosiga ham ega. Mo'g'ul va turk afsonalarida ularni yuqori malakali temirchilar deb ta'riflaydilar. Ularning unvoni bo'lgan darxonlik (temirchilik) mo'g'ul davlatining asoschisi **Temuchin** (temir ustasi)ning nomi singari eng faxrli unvon bo'lgan. 1139-yildan ular xitoy qo'shinlariga qarshi jang qiladilar. 1147-yilda Xitoy imperatorlari mo'g'ullar bilan ittifoq tuzadilar. Bunday holat mo'g'ullarni kuchayishiga olib keldi va Buyuk mo'g'ul podshohligini tuzilishiga olib keldi.

Urug'-qabilachilik munosabatlari mo'g'ul jamiyatining asosini tashkil etadi. Oila ijtimoiy birlik bo'lib, bir necha oila **aymanlar** (urug'lar)ni hosil qilgan. Bir necha aymanlar birlashuvidan **ovullar** (urug'lar birlashmasi), ovullar birikuvidan **o'rdalar** (qabilalar), o'rdalar qo'shiluvidan esa **uluslar** (elatlari) tarkib topgan.

Mo'g'ullarning turmush tarzi ko'proq yarim o'troq holda kechgan. Ular qish kezlarida qishloq (yoki qishlov) manzilgohlarida istiqomat qilsalar, bahor kelishi bilan yayloq (yaylov) joylarda o'z yilqilari, chorva mollarini boqish bilan mashg'ul bo'lganlar. Garchi mo'g'ullarda ibtidoiy jamoa tuzumining muhim negizlari, alomatlari XI-XII asrlarda ham saqlanib qolgan bo'lsa-da, biroq bu davrga kelib tabaqalanish kuchayib, mulkiy bo'linish ko'zga yaqqol tashlanib bormoqda edi. Bunda urug'ning oddiy a'zolarini o'ziga tobe qilgan chorvador no'yonlar qatlamidan iborat yuqori tabaqaning ajralib chiqishi yaqqol namoyon bo'ldi.

Mo'g'ullarning diniy rasm-rusmlari, e'tiqodida ham ibtidoiy tuzum ta'siri kuchli seziladi. Ularning mutloq ko'pchiligi majusiy bo'lib, shamanizmga sig'inganlar va shamanlar sehgiriligini ilohiy kuch, deb bilganlar. Mo'g'ullarda ayniqsa olovga topinish muqaddas sanalgan. Zero, olovni mensimaslik, unga tupurish, iflos narsa tashlash yoki suv sepib o'chirish kabi hollar katta gunoh deb hisoblangan hamda buni sodir etganlar munosib jazolangan.

MO'G'ULLAR DAVLATI. Chingizxon (Temuchin) 1155-yilda qiyot urug'idan bo'lgan mo'g'ul ulusi urug'idan bahodir **Esugay** oilasida dunyoga kelgan. Uni mo'g'ul qavm-qabilalari xoni bo'lib ko'tarilishi vaqti tarixiy manbalarda 1189 yoki 1190-yillarda sodir bo'lganligi qayd etiladi. U 40 yoshlaridayoq tatarlar va boshqa yirik qabilalar, elatlarni mo'g'ullar hukmronligiga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan ulug' hukmdor sifatida tarixiy shaxs bo'lib tanilgan edi. XII asr oxiri-XIII asr boshlarida Movarounnahr yerlari Xorazmshoh davlati tarkibida bo'lgan bir vaqtda, mo'g'ulistonda 1206-yilda **Chingizxon** nomini olgan **Temuchin** mo'g'ul qabilalarini birlashtirib, yarim ko'chmanchi mo'g'ul davlatini tashkil etadi. G. Xidoyatovning fikricha, Bosh shaman butun xalq oldida **Temuchinga Dengizxon**, ya'ni okean hukmdori unvonini qabul qilishini buyurayotganini e'lon qilib, bu nom asrlar osha davom etishiga va mo'g'ulistonning chin farzandlariga baxt-saodat keltirishiga ishonch bildirdi. Keyinchalik bu nom turli tillarda Chingizga aylandi. Chingizxon so'zi "**kuchli**", "**qudratli**", "**toza**" ma'nolarini bildiradi.

O'z davlatini kuchaytirib, uning barqarorligini mustahkamlash maqsadida Chingizxon mo'g'ullardan ko'p sonli yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo'shin tuzadi. Qo'shin yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar tomonidan boshqarilgan. Mo'g'ul qo'shinni intizomligi bilan emas, balki harbiy yurishlardagi g'oyatda chaqqonligi va janglardagi botirligi bilan ham ajralib turar edi. Asosiy qo'shindan tashqari Chingizxon ixtiyorida "**keshik**" deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etiladi. Keshik favqulodda sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlash uchun doimo janglar holatda tutib turilar edi.

Davlat ma'muriyatini markazlashtirish maqsadida Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z davlatini poytaxtiga aylantiradi. Mo'g'ullarning ilk ustozlari va dastlabki ma'murlari uyg'urlardan bo'lgan. Chingizxon 1206-yilda naymanlarni, 1207-1208-yillarda uyg'urlarni bo'ysundiradi. 1211-1214-yillarda Chingizxon Xitoyga hujum qilib katta o'ljalari bilan qaytadi. Chingizxon 1215-yili Xitoyga hujum qilib, Pekin shahrini egallaydi hamda Shimoliy Xitoyni mo'g'ullar davlatiga qo'shib oladi. Xitoyni bosib olinishi natijasida Chingizxon o'z qo'shinini zamonasining eng yaxshi harbiy qurol-aslaha bilan ta'minlaydi. Sababi Xitoy zamonasining ilg'or harbiy texnika san'atiga ega davlat edi. 1218-1219-yillarda Chingizxon

Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini qo'lg'a kiritib, Kuchluk davlatini tugatadi. Shunday qilib, XIII asrning 20-yillari boshida Go'bi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritov (Tyanshan) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan edi.

“O'TROR VOQEASI”. Chingizxon katta davlatni bunyod etib bo'lgach, o'z nigohini Xorazmshohlar davlatiga qaratadi. Chingizxon bir necha marta Xorazm shohi Muhammadga elchi va savdo karvonlarini yuborib, do'stlik munosabatlarini bog'lamoqchi ekanligini bildirgan edi. Dastlab 1216-yilda Chingizxon huzuriga Xorazmshoh Bahouddin Roziy boshchiligida o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon o'z elchilarini xorazmlik savdogar **Mahmud Yalovoel** boshchiligida Xorazmga yuboradi.

1218-yili Chingizxon savdo va elchi karvonlarini tayyorlab Xorazmshohga yuboradi, lekin O'tror shahriga yetganda Muhammadning roziligi bilan, O'tror shahrining noibi Inalxon farmoniga binoan karvon talanadi va odamlari qirib tashlanadi. Chingizxon Sulton Muhammadan aybdorlarni jazolashni va Inalxonni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qilib, **Ibn Kafroj Bug'roni** ikki ishonchli mulozimi kuzatuvchilari bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Xorazmshoh Chingizxon talabiga javoban elchini o'ldirishni va u bilan kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar Chingizxon va Xorazmshoh davlatlari o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosablari tamomila uzilganini bildirar edi.

XIII asr boshlarida Xorazmshohlar saltanati buyuk davlat bo'lib, Xorazm va Movarounnahrda tashqari, hozirgi Afg'oniston yerlari va Eronning kattagina qismi uning tasarrufida edi. Davlat qang'li-qipchoq va turkmanlardan tuzilgan muntazam qo'shinga ega edi. Bu qo'shinning umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Biroq, sirtidan juda kuchli, nufuzidan buyuk ko'ringan Xorazmshohlar davlati siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir paytda Xorazmshohlar davlati Chingizxon boshliq mo'g'ullarning bosqiniga duchor bo'ldi.

“O'TROR VOQEASI” va Chingizxon elchisi **Ibn Kafroj Bug'roning** o'ldirilishi Chingizxonga Movarounnahrda bostirib kirish uchun bahona bo'ldi. Movarounnahrda yurishni Chingizxon Sharqiy Turkiston va Yettisuvni zabt etishdan boshladi. Chingizxonning Movarounnahrda yurishi avvaldan rejalashtirilgan va chuqur o'ylab chiqilgan vaxshiyona hujum edi.

CHINGIZXON BOSQINI

MO'G'ULLAR BOSQINI. Xorazm davlati harbiy jihatdan birmuncha ustunroq bo'lsada, Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud itiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Harbiy kengashda Xiva vakili **Shahobiddin Xivaqiy** birdan-bir to'g'ri fikrni bayon qiladi. Biroq, harbiy kengash bo'lajak urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi. Xorazmshoh mo'g'ullarning asosiy zarbasi Movarounnahrning markazi — Zarafshon vodiysiga qaratsa kerak deb o'ylagan edi. Shuning uchun ham Samarqand va Buxoro shaharlarini mustahkamlashga buyruq berdi.

1219-yilning kuzida Chingizxon 200 mingga yaqin askari bilan Xorazmshohga qarshi yurish boshlaydi. Chingizxon O'tror yaqinida butun harbiy kuchlarini to'plab, Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun uni **to'rt qismga** bo'ldi. Uning *bir qismini* o'g'illari **Chig'atoy** va **O'qtoy** boshchiligida O'tronni qamal qilish uchun qoldirdi. *Ikkinchi qismga* **Jo'chi** boshliq bo'lib, Sirdaryodagi **Sig'noq**, **O'zgan**, **Jand**, **Yangikent** shaharlarini bosib olishga, *uchinchi qismga* **Oloqnuyon** hamda **Suketucho'rbiy** sarxanglari qo'mondonligida Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan *Binokat* va *Xo'jand* shaharlarini olishga, *to'rtinchi qismga* **Chingizxon** boshchiligida asosiy kuchlari bilan Buxoroga askar tortdi.

O'tror shahri **Inalxon** boshchiligida olti oygacha mudofaa qilinsada, mo'g'ullar tomonidan bosib olinadi. Chingizxonning asosiy kuchlari Sirdaryoning janubida joylashgan **Zerinoq** (Zarnuq) va **Nur** qal'alarini jangsiz bosib oladi. O'z ixtiyori bilan taslim bo'lgani uchun **Zerinoq** qal'asiga mo'g'ullar *“Qutli baliq”*, ya'ni *“Qutli shahar”* degan nom beradilar.

1220-yilning 16-fevralida mo'g'ullar Buxoroni egallaydilar. Buxoro aholisi xo'rlanadi va masxara qilinadi. Chingizxon amriga ko'ra, Buxoro shahriga o't quyilib, yondirib yuboriladi.

SAMARQANDNI OLINISHI. 1220-yil mart oyida Chingizxon Buxoroda qo'lg'a tushirgan asirlaridan tashqari o'g'illari **Chig'atoy** va **O'qtoylarning** O'trordan olib kelgan bandilari ham Samarqand qamaliga tashlanadi. Chingizxon shahar tashqarisida joylashgan Ko'ksaroy qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi. Qamalning beshinchi kuni ommaviy qirg'inni oldini olish maqsadida lashkar boshliqlari va shahar ahli mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qiladi. Shahar noibi **To'g'ayxon** boshchiligida 20 nafar sarkardalari o'z qo'shini bilan mo'g'ullar xizmatiga o'tishni izhor etadilar. Dastlab bu taklif Chingizxon tomonidan qabul qilinsa-da, ammo oradan bir oz vaqt o'tgach, To'g'ayxonning 30 minglik qo'shini tunda qurshab olinib, 20 nafar sarkardalari bilan birga qirib tashlanadi. So'ngra mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inshooti *“Qo'rg' oshin nova”* sini buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradi. Mo'g'ullar shaharga bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qiladilar. Janglarda shahar aholisini ko'pgina qismi qiriladi. 30 mingga yaqin hunarmand ahli asirga olinadi.

Bu davrda Jo'ji boshchiligidagi mo'g'ullar **Sig'noqqa** hujum boshlaydi. Shahar sakkiz kun mudofaa qilinib, taslim bo'ladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisini qirib tashlaydi. Bu voqeadan so'ng dahshatga tushgan O'zgan shahri mo'g'ullarga jangsiz taslim bo'ladi. Barchinlig'kent esa kuch bilan olinadi.

1220-yilning aprelida mo'g'ullar Jandga hujum boshlaganda uning noibi **Qutlug'xon** Xorazmga qochadi. Bebo



qoldirilgan shaharni bosqinchilar egallab, uni talaydilar va vayron qiladilar. Undan so'ng mo'g'ullar Binokat shahriga yurish qiladi. Shahar amiri Elathumalik shaharni to'rt kun mudofaa qilib, taslim bo'ladi. Binokat zabt etilgach, navbat Xo'jandga keladi. Xo'jand qamaliga 20 ming mo'g'ul va 50 ming nafar asir qatnashadi. Biroq, kuchlarning teng emasligi oqibatida shahar hokimi Temur Malik shaharni tashlab chiqib ketadi. Temur Malik Urganchga yetib kelgach, Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkariga boshchilik qiladi. Jo'chiga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, hatto undan Yangikent shahrini qaytarib oladi.

URGANCH QAMALI. 1220-yilning yozida Chingizxon Nahshab, kuzida Termiz shaharlarini bosib oladi. Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni Xorazmga tashlaydi. Bu harbiy kuchni Chingizxonning o'g'illari — Jo'ji, Chig'atoy va O'qtoylar boshqaradilar. 1221 yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari Urganchni qamal qilib, hujum boshlaydi. Amir Xumortakin Urganch darvozasini ochib berib, o'z qo'shini bilan mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Ko'cha janglarida Shayx Najmuddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan Ahmad ibn Umar Xivaqiyning "*Yo Vatan, yo sharofatli o'lim!*" xitobi har bir urganchliklarni shioriga aylanadi. Bu qonli kurash besh oy davom etgan bo'lib, mo'g'ullar to'g'ri paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Ilojsizlikdan holi tang bo'lib, taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-taroj qilinadi.

XORAZMSHOHLAR DAVLATINING HALOKATI. Urganch bosib olingach, mo'g'ullar Amudaryo janubida joylashgan yirik savdo va madaniyat markazlari hisoblangan Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga hujum boshlaydi. Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullarga qarshi bor kuchlarini birlashtira olmagan bo'lsa-da, uning o'g'li Jaloliddin mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berdi. Unga qarshi Chingizxon barcha kuchlarini birlashtirib, jangga kiradi. Biroq, ular bu yerda Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydi. Parvona dashtidagi jangda Jaloliddin mo'g'ullarni mag'lub etadi. Jangda harbiy taktika tarixida birinchi bo'lib, Jaloliddin dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish uslubini qo'llaydi. Mo'g'ullarning Parvona dashtidagi mag'lubiyati to'g'ri paytgacha jiddiy zarbaga uchramagan Chingizxonning asosiy kuchini urushga solishga va harbiy harakat rahbarligini o'z qo'lga olishga majbur etadi. Mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonilganidan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bu voqeadan so'ng Jaloliddin harbiy kuchi kuchsizlanib qoladi. 1221 yilning noyabrda Hind daryosi bo'yidagi jangda Jaloliddin taslim bo'lishni va o'z oilasini mo'g'ullar qo'lga tushishini hohlamay rafiqasi, onasi va bolalarini tik qirg'oqdan daryoga uloqtirib, o'zi esa otda Hind daryosining nariga qirg'ogiga suzib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Dushmaning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan qaytadi. Jaloliddin yana o'n ikki yil davomida mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi. Tinimsiz janglar olib borgan Jaloliddin Manguberdin 1231-yili kurd navkari tomonidan o'ldiriladi. Shu bilan birga 140 yil hukmronlik qilgan Buyuk Xorazmshohlar davlati va uni boshqargan xonadon batamom halok bo'ladi. Shunday qilib, 1221 yili butun Movarounnahr va Xuroson mo'g'ullar qo'lga o'tadi. Xorazmshoh davlati barbod bo'ladi.

MO'G'ULLAR ISTILOSINING OQIBATLARI. Movarounnahr va Xorazm mo'g'ullar istilosi davrida halokatga uchraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Urganch, Binokat, Xo'jand va boshqa shaharlar xarobazorga aylanadi. Osiyoning hech bir o'lkasi mo'g'ul bosqinchilarining vayrongarchiliklarini Jayxun va Sayxun oralig'idagi viloyatlar kabi dahshatli darajada his etmadi. Mo'g'ullar Movarounnahrda yuksak hunarmandchilik, ichki va tashqi tijorat hamda sug'orma ziroatchilik bilan kasb etilgan asosli idora usulini birinchi marta ko'rdilar. Butun Sharqda shuhrat topgan qurol-aslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi. Hosildor vohalar suvsizlikdan qurib qoldi, "Ipak yo'li" mo'g'ullar bosqini davrida butunlay barham topdi. Ilm-fanga katta ziyon yetkazildi.

O'LKALARNING TAQSIMLANISHI

SOLIQ TURLARI. Chingizxon zabt etgan yerlarni o'g'illari va nabiralari taqsimlab berdi. *Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo'yi, Xorazm va Darbandgacha* bo'lgan o'lka Chingizxonning to'ng'ich o'g'li **Jo'ji** va uning vafotidan keyin esa nabirasi **Botu** qo'lga topshirildi. *Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni* ikkinchi o'g'li **Chig'atoyga** berildi. *Mo'g'uliston va Xitoy*ni uchunchi o'g'li va vorisi **O'qtoyg**a, kenja o'g'li **Tuluga Xuroson, Eron va Hindiston** tegdi. Mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab, udel asosida boshqarishga kirishdi. Turkiy aholi odati bo'yicha podshoh "**qoon**" yoki "**xoqon**" deb, ulus hukmdorlari esa "**xon**" deb yuritilardi. Mo'g'ul xonlari mahalliy yer egaligi oqsuyaklari bilan birgalikda xalqni asoratga solgan, ikki yoqlama ularni ezganlar. Bu davrda zo'rlik va jabr-zulm nihoyatda kuchaygan, xalq haddan tashqari ko'p turli-tuman soliq to'lagan. Dehqonlardan olinadigan yer solig'i "**kalon**" deb yuritilgan, chorvadan "**qopchur**" solig'i olingan. Bu soliq bo'yicha har yuz bosh chorvadan bir bosh olingan. Davlat hazinasi uchun oziq-ovqat solig'i "**shulen**" olingan. "Shulen" har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar mahalliy xonlar tomonidan *barot* (ijara) tartibida avvaldan to'lanib, keyin yig'ib olish paytida aholidan oshirib undirilgan. Hunarmandlarning ahvoli og'irlashadi, ularning soni kamayib boradi.

Mo'g'ullarning hukmronligini dastlabki yillaridayoq mo'g'ul xoqonlari o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga turli yorliq va payzalar berardilar. Bunday payza yoki yorliqqa ega bo'lgan kishilar aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Bundan tashqari, mamlakat bo'ylab, savdo yo'llarida joylashgan bekat — "**yom**"larning xizmati va xarajati ham aholining bo'yniga yuklangan edi.

MAHMUD TOROBIY QO'ZG'OLONI. Zo'rlik, jabr-zulmning kuchayishi, xilma-xil majburiy to'lov va yig'imlarning



haddan tashqari ko'pligi mehnatkash ommaning mo'g'ullarga nisbatan noroziligini oshirib, istilochilar istibdodiga qarshi xalqni bosh ko'tarishga olib keldi.

1238-yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'idan chiqqan elakchi usta **Mahmud Torobiy** va **Shamsuddin Mahbubiy** boshchiligida mo'g'ullar hukmronligi va mahalliy mulkdorlarning zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar mo'g'ul bosqinchilariga qarshi zarba berib, Buxoroga etib keladilar. Bu yerda Mahmud Torobiy hokim deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonchilar bilan mo'g'ullar o'rtasida Karmana yaqinida katta jang bo'ladi. Jangda Mahmud Torobiy ham halok bo'ladi. Aholi shafqatsizlarcha jazolanadi.

Xalq harakatidan so'ng mo'g'ullar soliq tizimini tartibga solishga uringan bo'lishsa-da, lekin xalqning og'ir ahvoli o'zgaray qoladi.

CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

IJTIMOY-SIYOSIY HAYOT. XIII asr boshlarida **Chig'atoy Ulusi** tashkil topgan bo'lib, u XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi. **Chig'atoy Ulusi** tarkibiga **Movarounnahr**, **Yettisuv** va **Sharqiy Turkiston** kirgan bo'lib, ularni boshqarishga mo'g'ullarni uquvi yo'q bo'lgan. Hatto bunday viloyatlarni boshqara oladigan ma'murlar yo'q edi. Xorazmlik savdogar **Mahmud Yalovoch** mo'g'ullarni Movarounnahrdagi noibi etib tayinlanadi. U **Xo'jand** shahrini o'ziga qarorgoh qilib oladi. 1238-yilda **Mahmud Yalovoch** isyonkor hududlarda qo'zg'olon bostirishdagi sustkashligi uchun amaldan chetlashtiriladi. U **Dasin** (Pekin) shahriga hukmdor qilib tayinlanadi. Chig'atoy ulusiga Mahmud Yalovochning o'g'li **Ma'sudbek** noib va ijarador qilib tayin etiladi.

XIII asrning o'rtalarida mo'g'ullar davlatining umumsiyosiy ahvoli og'irlashadi. Bosh hukmronlik uchun chingiziylar o'rtasida keskin kurash boshlanadi. Bu kurash ayniqsa Guyukxon vafotidan so'ng kuchayadi. 1251-yilda **Munqa** mo'g'ulistonning ulug' xoqoni qilib saylanadi. Munqa davrida Chig'atoy mulk sifatida tugatiladi. U **Botu** bilan **Munqa** o'rtasida kelishuv asosida taqsimlanadi. Sirdaryogacha bo'lgan yerlarni Munqa, Movarounnahrga esa Botu egallab oladi. Ammo 1261-yilda Chig'atoyning nabirasi **Olg'uxon** Chig'atoy ulusini qayta tiklaydi.

1272-1273-yillarda **Xulaguxonning** askarlari Movarounnahrga bostirib kirib, **Kesh**, **Naxshob** va **Buxoroni** talab, g'arot qiladilar. Etti yil davomida Buxoro shahri deyarli jonsizdek yotadi.

XIII asrning o'rtalarida Chig'atoy mo'g'ul ma'murlari doirasida o'troq hayotga ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. O'troq hayotni ular davlat hazinasiga muttasil tushib, uni to'ldirib turadigan ulkan daromad manbai deb hisoblar edilar. Bunday siyosat tarafdorlaridan biri ulug' xoqoni **Munqa** va Chig'atoy ulusining noibi **Ma'sudbek** edi. Munqaning qonunlashtirilgan chora-tadbirlari cheklanmagan soliq va yig'implarni tartibga solib, o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan aholini ozod etadi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa tovar va pul munosabatlarining tiklanishida Ma'sudbek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U Movarounnahrdagi 16 shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi.

Farg'ona vodiysida **Tuvaxon** (1282-1306) tomonidan **Andijon** shahriga asos solinadi. Chig'atoy xonlaridan **Kebek** (1318-1326) Nasaf shahri yonida **Qarshi** saroyiga asos soladi. **Kebek** shu saroydan turib mamlakatni idora qiladi. **Kebek** davrida ma'muriy va pul islohoti o'tkaziladi. **Kebek**ning islohoti bo'yicha davlat viloyatlarga bo'linib, ular mo'g'ulcha «tuman» deb yuritiladi. Uning davrida malakatda yagona pul joriy qilinadi. **Kebek** ikki xil pul: kumush tanga — «**dinor**» va mayda kumush tanga «**dirham**»lar zarb qilinadi.

Movarounnahr mo'g'ullarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o'zgarishlar mo'g'ullarning etnik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi. Bu holat Yettisuvdagi mo'g'ullarning orasida hali juda zaif edi. Yettisuvlik mo'g'ullar Movarounnahrdagi yashovchi mo'g'ullarni «**qoraunas**», ya'ni «**duragay**» deb atasalar, Movarounnahr chig'atoylari Yettisuvlik chig'atoylarni «**jeta**», ya'ni «**qaroqchi-qoloqlar**» deb haqorat qilganlar.

XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketadi: **Dug'lat amirligi** (Sharqiy Turkiston va Yettisuv) va **Movarounnahr amirligi** tashkil topadi.

Mo'g'ullar davrida O'rta Osiyoda yerga egalikning to'rt xili mavjud edi: 1. **Mulki devon** — davlat yerlari. 2. **Mulki inju** — xon, noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar. 3. **Mulki vaqf** — masjid, madrasa, xonaqoh, mozar va maqbaralar ixtiyorida yerga. 4. **Mulklar** — xususiy yerlar. Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo'lib, ular «**iqto**» yoki «**suyurg'ol**» yerlar deb yuritilardi. Bunday yerlarga ega bo'lganlar barcha soliq va to'lovlardan ozod etilardi.

MADANIY HAYOT. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida iqtisodiy hayotni jonlanishi bilan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. Bu davrda shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yiladi. Mahalliy me'morlar tomonidan qurilgan masjidlar, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora va saroylar qad ko'taradi. Buxoro shahridagi Sayfuddin Buxorziy, Bayonqulixon maqbaralari, Samarqanddagi Shohizindadagi Qussam ibn Abbos maqbarasining ziriyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari shular jumlasidandir. XIII asrning o'rtalarida Buxoroda «Mas'udiya» va «Xoniya» madrasalari, **Kebek** tomonidan Nasaf shahri yonida **Qarshi** saroyi quriladi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida fors-tojik poeziyasining yirik namoyondalari **Jaloliddin Rumiy**, **Sa'diy Sheroziy**,

Amir Xusrav Dehlaviy kabi siymolar yashab ijod etganlar.

JALOLIDDIN RUMIY (1207-1273) buyuk tasavvuf shoir bo'lib, she'riyatda u so'fiy-falsafiy janrini rivojlantirib, o'zining "*Masnaviyi ma'naviy*" nomli poemasini yaratdi.

SA'DIY SHEROZIY (1219-1293) o'zining "*Guliston*" va "*Bo'ston*" nomli asrlaridagi g'azallari bilan fors-tojik adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. **Amir Xusrav Dehlaviy** (1253-1325) "*Xamsa*", "*Zafarlar kaliti*", "*Falakning to'qqiz gumbazi*" kabi asarlari muallifidir. XIII asrning ikkinchi yarmida tarixnavislik taraqqiy qiladi. Bu davrda **Juzjoniying** "*Tabaqati Nosiriy*", **Juvayniyning** "*Tarixi jahongushay*", **Fazlulloh Rashidudinning** "*Jome at-tavorix*" kabi qimmatli tarixiy asarlar yoziladi.

Bu davrda Xorazmda islom ahloqi, odobi va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot rivoj topa boshlaydi. Keyinchalik u "*Chig'atoy tili*" va "*Chig'atoy adabiyoti*" nomini oladi.

TARIXIY SHAXSLAR

A'ZAM MALIK — *Jaloliddinning* lashkarboshilaridan biri. Parvon dashtida bo'lgan jang (1221 yil)da *Jaloliddin* mo'g'ullarni mag'lubiyatga uchratgach, qo'lga kiritilgan qabul qiladi. Hatto, elchilardan *Sulton Muhammadni* o'ljalarni taqsimlashda *Jaloliddinning* lashkarboshilari G'arbning sohibqironi, o'zini Sharqning podshosi deb o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda hisoblashini Xorazmshohga yetkazishini so'raydi. O'zaro lashkarboshilaridan *Sayfutdin Ag'roq*, *A'zam Malik* va totuvlik va do'stlik qaror topib ikki mamlakat hududlarida *Muzaffar Maliklar* qo'shidan ajralib, o'z viloyatlari tomon savdogarlarning erkin qatnoviga xohish bildiradi. Bunga ketadilar. Bu voqeadan so'ng *Jaloliddinning* harbiy kuchi javoban *Chingizxon* qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga *Chingizxon* G'aznaga askar tortadi. 1221 yil Sind (Hind) yuboradi.

daryosi bo'yida bo'lgan jangda *Jaloliddin* qo'shini *Chingizxon* qo'shinidan mag'lubiyatga uchraydi.

ALI TOROBIY — *Mahmud Torobiyning* ukasi. U akasining o'limidan so'ng *Muhammad* bilan birgalikda qo'zg'oloniga boshliq qilib saylanadi. Biroq ularning harbiy tajribasi va omma o'rtasida yetarli obro'yi yo'q edi. Ularning bunday holati tez orada ayon bo'lib qoladi. Chunki oradan bir hafta o'tmay, ularga qarshi mo'g'ullarning yangi qo'shini hujum qiladi. Jangda qo'zg'olonchilar butunlay tor-mor qilinib, Torobiyning ukalari — *Ali* va *Muhammad* halok bo'ladilar (1238).

AMINUDDIN XARAVIY — savdogar, *Chingizxon* tomonidan 1218-yilda Xorazmga jo'natilgan 500 tuya va 450 musulmon savdogaridan tashkil topgan savdo karvoniga *Umarxo'ja O'troriy*, *Hammol Merokiy*, *Faxruddin Dizaki Buxoriy*, *Aminuddin Xaraviy* kabi savdogarlar karvon savdogarlar karvon sarbonlar va o'rda elchilari qilib tayin etilgan edi.

BADRIDDIN AMID — O'tror shahar hokimiyati vakili. O'tror qamalining dastlabki kunlarida *Sulton Muhammad* tomonidan O'tror qozisi qatl etilgan. Uning avlodlari *Badriddin Amid* va *Safiy Aqra hojib* boshchiligida qamalning dastlabki kunlaridayoq mo'g'ullar tomoniga o'tib ketadilar.

BADRIDDIN QOZIXON — Buxoro qozisi. 1220-yilning fevralida buxoroliklar himoyachilardan judo bo'lgach, Buxoro qozisi *Badriddin Qozixon* boshliq o'z oqsoqollarini *Chingizxon* oldiga shafqat so'rab yuboradi. Buxoro zabt etilgach, uning qismatiga tushgan vahshiyona shafqatsizlik va nomussizlik manzarasiga chiday olmasdan qozi *Badriddin*, *Imomzoda Rukniddin* va uning o'g'li g'azablanib, o'zlariga teng bo'lmagan mo'g'ullarga qarshi hujum qilib halok bo'ladi.

BAHOUDIN ROZIY — 1216-yilda *Chingizxon* huzuriga tashrif buyurgan Xorazmshoh elchilarining rahbari. *Chingizxon* Xorazmshoh elchilarini iltifot bilan

biri. Parvon dashtida bo'lgan jang (1221 yil)da *Jaloliddin* qabul qiladi. Hatto, elchilardan *Sulton Muhammadni* G'arbning sohibqironi, o'zini Sharqning podshosi deb hisoblashini Xorazmshohga yetkazishini so'raydi. O'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib ikki mamlakat hududlarida savdogarlarning erkin qatnoviga xohish bildiradi. Bunga javoban *Chingizxon* qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga yuboradi.

BERKAXON (RUS SOLNOMALARIDA — Berkay) (1209-1266) — Oltin O'rda xoni (1255-1266). *Chingizxonning* nabirasi, *Jo'jixonning* uchinchi o'g'li, *Botuxonning* ukasi. Berkaxon o'z davlatining harbiy-iqtisodiy qudratini oshirish uchun hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirishga katta ahamiyat bergan, shu maqsadda u 1257-yil bosqoqlik harbiy-siyosiy tashkilotini tuzib, uning vositasi bilan Oltin O'rdaga tobe yerlarda, jumladan, Rusda mahalliy hokimiyat ustidan nazorat o'rnatgan, aholini yalpi ro'yxatga olib, soliq undirish tizimini tartibga solgan. Mo'g'ullar Eronni bosib olib, Bag'dodni zabt etgach (1258), Berkaxon Ozarbayjonni Oltin O'rdaga qo'shib kurash boshlagan, bu borada u o'ziga ittifoqchi izlab Misr sultoni Beybars bilan yaqin diplomatik aloqalar o'rnatgan. 1264-yil Berkaxon *Hulokuxonga* qarshi qo'shin tortib, uni Kura daryosi sohilida mag'lub etgan, ammo 1265-yil Ozarbayjonga yana yurish qilganda to'satdan vafot etgan. Berkaxon hukmronligi davrida Oltin O'rda aholisi islom diniga kiritila boshlagan, ikkinchi poytaxt — Saroy Berka qurilgan.

BOTUXON, BOTU, SAINXON (1208-1255-yillar) — mo'g'ul xoni, *Jo'jixonning* ikkinchi o'g'li, *Chingizxonning* nabirasi. Botuxonning onasi qo'ng'iro't urug'idan bo'lgan *Elchi* noyonning qizi *Ukifuj xotun* edi. Otasining o'limi (1227)dan keyin *Jo'ji* ulusini idora qilgan, mo'g'ullarning barcha asosiy harbiy yurishlarida qatnashgan. Abulg'oziy Bahodirxonning yozishicha, *O'qtoyxon* Xitoyni zabt etib, mo'g'ulsitonga qaytib kelgach (1235), Botuxonni Tulixonning o'g'li *Menke*, o'zining o'g'li *Guyukxon* va *Chig'atoyning* o'g'illari hamrohligida rus, cherkas, bulg'or, turo, boshqird va boshqa xalqlar yerlarini bosib olish uchun jo'natadi. Ularga *Chingizxonning* eng yirik sarkardasi *Subutoy* bahodirni harbiy maslahatchi qilib tayinlaydi. Yurishda jami 14 mo'g'ul xoni ishtirok etib, qo'shinning soni 150 mingga yetadi. Botuxon 1236-1238-yillarda Volga-Kama Bulg'oriyasi, alanlar, qipchoqlar, O'rta Volga bo'yi

xalqlari, Ryazan, Vladimir knyazliklarini bo'sundiradi, Moskva, Kolomna, Vladimir, Rostov, Uglich, Yaroslav, Kostroma kabi 14 rus shahrini bosib oladi. 1240-1241-yillarda u Janubiy Rusdagi Kiev, Vladimir-Volinskiy, Galich va boshqa shaharlarni zabt etgach, Karpat dovonlari orqali Vengriyaga kirib qirol *Bela IV* ning 60 minglik qo'shinini tor-mor keltiradi. Botuxon mamlakatda savdo-sotiq va hunarmandchilikni taraqqiy ettirishga katta e'tibor bergan. Volganing sharqiy qirg'og'ida Astraxan (Ashtarxon) shahri yaqinida o'ziga poytaxt shahar — *Saroy-Botuni* qurdirgan. U mo'g'ullar imperiyasidagi davlat to'ntarishini (1251)da qatnashib, *Munke* (Mangu)ning ulug' qoon (xoqon) bo'lmog'iga ko'maklashgan.

CHAG'AN QO'RCHI — mo'g'ullar lashkarboshisi, *Mahmud Torobiy* boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirishda jonbozlik ko'rsatgan. Mo'g'ullarning *Elduz no'yon* va Chag'an Qo'rchi boshliq yangi qo'hinlari qo'zg'olonchilarni butunlay tor-mor qilib, har ikki tomondan 21 ming jangchi halok bo'ladi. *Torobiy*ning ikkala ukasi — *Muhammad* va *Ali* ham shahid bo'ladi. Buxoro aqoid ulamolari va kalontaronlarining had'ya (oltin) va turli nozu ne'matlar bilan mo'g'ul lashkarboshilari *Elduz no'yon* va Chag'an Qo'rchilarni qarshi olishlari hamda tiz cho'kib qilgan iltimoslari tufayli buxorliklar ommaviy qirg'in-barotdan omon qoladi. Buxoro esa katta jarima evaziga avf etilib, navbatdagi talon-taroj etilish va xarobachilikdan saqlab qolindi.

CHIG'ATOY, CHIG'ATOYXON (?-1242) — Chig'atoy ulusi hukmdori (1224-1242). *Chingizxon*ning ikkinchi o'g'li. Onasi *Bo'rtajin* (xotun) qo'ng'iroq urug'i vakili *Day no'yon*ning qizi bo'lgan. Saltanat qonun-qoidalari (to'ra), udumlar, xususan, *Chingizxon* yasosining beistisno bajarilishini nazorat qilish uning zimmasiga yuklatilgan. Chig'atoy *Chingizxon* boshliq mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlarida faol ishtirok etgan. 1211 yilda Xitoyga qarshi tashlangan harbiy safarda Chig'atoy ukalari *O'qtoy* va *Tulu* hamrohligida bir nechta yirik shaharlarni zabt etgan. O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishida faollik va qattiqqo'llik ko'rsatgan Chig'atoy *Jo'ji* va *O'qtoy* bilan birgalikda O'troni 3 oylik qamaldan so'ng (1219-yil) olgan. 1220-yil Urganch mudofaasi vaqtida Chig'atoy bilan akasi *Jo'ji* o'rtasida kelishmovchilik yuzaga chiqadi. Oqibatda *Chingizxon* lashkar qo'mondonligiga *O'qtoy*ni tayinlaydi. Chig'atoy 1221 yilning 25-noyabrida *Sulton Jaloliddin* bilan bo'lgan qaqshatqich jangda otasi yonida turgan. *Chingizxon*ning tangutlarga qarshi uyushtirgan harbiy safari chog'ida (1227) Chig'atoy yurti muhofaza qilish ishlariga boshchilik qilgan. 1224-yil *Chingizxon* mo'g'ullar zabt etgan yerlarni o'g'illariga mulk tarzida taqsimlab bergan. Sharqda nayman qabilalari yashaydigan Oltoydan g'arbda Jayxun (Amudaryo) gacha, Guljadan Samarqand Buxorogacha bo'lgan hududlar Chig'atoyga tekkan. Uning qarorgohi Ili daryosi vodiysida joylashgan. Chig'atoy o'ziga tegishli ulus boshqaruvini avval *Mahmud Yalavochga*, 1238-yil *Mahmud Yalavoch* O'qtoy tomonidan Pekin gubernatori (1254-yilgacha) etib tayinlangach, uning o'g'li *Mas'udbekka* (1238-1289) topshirgan. O'zi umrining oxirigacha *O'qtoy* qoon saroyida hukmdorning maslahatchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Chig'atoy nomi bilan uning ulusi Chig'atoy ulusi, Movarounnahr aholisi so'zlashadigan til esa Chig'atoy tili deb nom olgan.

CHINGIZXON (asl ismi Temujin, Temuchin) (taxminan 1155-yil, O'non daryosi yaqinidagi Delpun Bo'ldon mavzei — 1227-yil 25-avgust) — mo'g'ullar davlati asoschisi, sarkarda. Mo'g'ul qabilalari ittifoqi — tayjiutlar sardori *Yasugay* bahodirning *Helun Fujin* (xotun)dan tug'ilgan to'ng'ich farzandi. 13 yoshida otasidan yetim qolgan Chingizxon 27-yil davomida bir qancha urug' va qabilalarni tayjiutlar atrofida birlashtirish maqsadida harbiy harakatlar olib borgan. 1195-1204-yillarda Chingizxon keraitlar boshlig'i *Vanxon Tog'ril* (O'nxon) bilan ittifoqda merkit, nayman, kuralas, ikiras, durban, tatar va boshqa qabilalarni bo'ysundiradi. Biroq, keyinchalik ular orasidagi adovat tushgan. 1204-yil *O'nxon* bilan bo'lgan jangda g'alaba qozongan Chingizxon xonlik taxtini egallaydi. 1206-yil mo'g'ul aslzodalari, no'yonlari ishtirokida buyuk qurultoyda "*Chingiz*" (tengsiz-dengiz, okean) unvoni bilan sarafroz etiladi (Ulug'xon ma'nosida) va barcha qabila, urug', elatlarning buyuk xoni deb e'lon qilinadi. Davlatning ichki va tashqi siyosatini tartibga solishda Chingizxon tomonidan e'lon qilingan qonunlar to'plami — yaso (yasoq) muhim rol o'ynaydi. Ming kishilik shaxsiy gvardiya hamda yuz ming jangchidan iborat otliq armiyani shakllantirgan Chingizxon Sibirdagi bir nechta qabila elatlarni (1207), Shimoliy Xitoyni (1211-1221), Xuroson, Eronni (1221-1224) o'z tasarrufiga kiritadi. Mog'ullar tomonidan zabt etilgan hududlar vayron qilingan, aholisi qirib tashlangan, qullikka mahkum eutilgan. 1224-yil Chingizxon Mog'ullar davlatini 4 o'g'li — *Jo'ji*, *Chig'atoy*, *O'qtoy* va *Tulilarga* taqsimlab bergan. Shimoliy Xitoydagi tangut qabilalarining Si-sya davlati (X-XIII-asrlar)ga qarshi yurish qilgan vaqtida Chingizxon og'ir dard tufayli vafot etadi. Uni Mog'ulistondagi Burxon-Xaldun tog' etagida dafn etishadi.

DONISHMANDCHAXON — Chig'atoy ulusi hukmdorlaridan biri. *Chingizxon*ning uchinchi farzandi *O'qtoy*ning oltinchi pushti hisoblanadi. *Amir Qazag'on* (hukmronlik yillari 1346-58) *Qozon Sultonxon*ni qatl (1346) etib, Donishmandchaxonni xon deb e'lon qiladi va uning nomi bilan tanga zarb ettiradi. Donishmandchaxon Movarounnahr xoni sanalsada, aslida davlat ishlarini *Qazag'onxon*ning o'zi boshqargan. *Ulug'bek*ning ta'kidlashicha, Donishmandchaxon Chig'atoyxon avlodidan bo'lmaganligi bois *Amir Qazag'on* tomonidan o'ldirilgan (1348). *Amir Temur* hokimiyat tepkasiga kelgach, Donishmandchaxonning o'g'li *Suyurg'atmish*ni xonlik shohsupasiga (1370-88) ko'targan.

ELATHUMALIK — Binokat amiri. Uning hukmronligi davrida mo'g'ullar besh ming askarli qo'shin bilan Binokat va Xo'jand shaharlariga 1220-yil hujum qiladi. Elathumalik qang'li qabilasidan yig'ilgan askarlari bilan shaharni to'rt kun mudofaa qilib, so'ng taslim bo'ladi. Jand fojiasi binokatliklar ham boshiga tushadi. Uning qurolli aholisi qilichdan o'tkaziladi. Qolganlari qul qilinib, majburan mo'g'ul askarlariga qo'shib olinadi.

ELDUZ NO'YON — mo'g'ullar lashkarboshisi, *Mahmud Torobiy* boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirishda

jonbozlik ko'rsatgan. Mo'g'ullarning Elduz no'yon va *Chag'an Qo'rchi* boshliq yangi qo'hinlari qo'zg'olonchilarni butunlay tor-mor qilib, har ikki tomondan 21 ming jangchi halok bo'ladi. *Torobi*ning ikkala ukasi — *Muhammad* va *Ali* ham shahid bo'ladi. Buxoro aqoid ulamolari va kalontaronlarining had'ya (oltin) va turli nozu ne'matlar bilan mo'g'ul lashkarboshilari Elduz no'yon va *Chag'an Qo'rchi*larni qarshi olishlari hamda tiz cho'kib qilgan iltimoslari tufayli buxorliklar ommaviy qirg'in-barotdan omon qoladi. Buxoro esa katta jarima evaziga avf etilib, navbatdagi talon-taroj etilish va xarobachilikdan saqlab qolindi.

FAXRUDDIN DIZAKI BUXORIY — savdogar, *Chingizxon* tomonidan 1218-yilda Xorazmga jo'natilgan 500 tuya va 450 musulmon savdogaridan tashkil topgan savdo karvoniga *Umarxo'ja O'troriy*, *Hammol Merokiy*, *Faxruddin Dizaki Buxoriy*, *Aminuddin Xaraviy* kabi savdogarlar karvon savdogarlar karvon sarbonlar va o'rda elchilari qilib tayin etilgan edi.

GO'RXON — 1220-yil *Chingizxon* Buxoroni qamalga olganida shahar lashkariy kuchlaridan biri. U mo'g'ullardan qochib kelgan uyg'ur edi. 1210-yilda *Chingizxon* ta'qibidan qochib Mo'ngulistondan Yettisuv viloyatiga chekingan nayman sardori *Kuchluk* qarluqlar bilan birlashib, qoraxitoylarga zarba beradi. Hatto Go'rxonning O'zgendagi xazinasi qo'lga kiritadi. Bunday vaziyatdan foydalangan *Xorazmshoh*, Samarqand hukmdori *Usmon ibn Ibrohim* bilan birlashib, Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talos vodiysida Go'rxon qo'shinlari bilan to'qnashadilar. Jangda Xorazm askarlari ko'p talofat bergan bo'lsa-da, ikki tomondan zarbaga uchragan Go'rxon askarlari yengiladi. Hatto qoraxitoylar qo'shinining qo'mondoni *Tayang'u* asirga olinadi.

GUYUKXON (1205-1248) — mo'g'ullar imperiyasining ulug' qooni (1246-1248). *O'qtoyxon* (Ugiday) (1186-1241)ning to'ng'ich o'g'li. *Chingizxon*ning nabirasi. 1236-1241-yillarda mo'g'ul shahzodalarning *Botuxon* boshchiligida Rossiya va Sharqiy Yevropaga qilgan bosqinchilik yurishlarida qatnashgan, lekin otasining vafotini (1241-yil mart) eshitib, shoshilinch ravishda o'z yurtiga qaytgan. 1246-yil sentabrda Qoraqurumda bo'lib o'tgan *Chingizxon* avlodlari qurultoyida Guyukxon xonlik taxtiga o'tqazilgan. Otasi vafotidan keyin o'tgan besh yil mobaynida davlatni onasi *Turakina xotun* boshqargan. Guyukxon hukmronligi davrida Kavkazning janubi-sharqiy qismi, Koreyaning bir qismi bosib olingan. Xitoy va Eronni bosib olish kurash davom ettirilgan. Chig'atoy ulusining ichki ishlariga aralashgan. Oltin O'rda hukmdori *Botuxonga* qarshi urushga otlanib, yo'lga chiqqanda to'satdan vafot etgan. Uning vafotidan so'ng, bosh hukmronlik uchun Chingiziylar o'rtasida keskin kurash boshlanadi.

HAMID PURA — Buxoro shahar lashkariy kuchining boshliqlaridan. U mo'g'ullarga qarshi janglarning birida shahid bo'ladi.

HAMMOL MEROKIY — savdogar, *Chingizxon* tomonidan 1218-yilda Xorazmga jo'natilgan 500 tuya va 450 musulmon savdogaridan tashkil topgan savdo karvoniga *Umarxo'ja O'troriy*, *Hammol Merokiy*, *Faxruddin Dizaki Buxoriy*, *Aminuddin Xaraviy* kabi

savdogarlar karvon savdogarlar karvon sarbonlar va o'rda elchilari qilib tayin etilgan edi.

HASANXOJI — savdogar. *Jo'ji* Sig'noqqa Hasanxoji elchi qilib yuboradi va shaharni taslim bo'lishni taklif etadi. Sig'noq aholisi bu taklifni rad etadi. Hasanxoji sig'noqliklar tomonidan o'ldiriladi. Bunday voqeadan darg'ab bo'lgan *Jo'chi* katta qo'shin bilan shaharga hujum qilib, 8 kuni shaharni bosib oladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisining oxirgi kishisigacha qirib tashlaydi.

HUMORTAKIN — amalparast va o'ta qo'rqqoq amir. Xorazm shahzodalari *O'zloqshoh* va *Oqshohlar* Urganchni tark etib, qochib ketganlaridan so'ng, poytaxt taqdiri uning qo'lida qolgan. U o'zini Sulton deb e'lon qilib, Urganchni mo'g'ullardan himoya qilishga va'da qiladi. Urganchdek katta shaharni qamal qilish uchun shimoldan *Jo'ji*, Buxoro tomondan *Chig'atoy* va *O'qtoy* askarlari bostirib keladi. 1221 yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari Urganchni qamal qilib, hujum boshlaydi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahri mudofaasiga g'oyat baland ruh bilan kirishadilar. Lekin shahar hukmronligini o'z qo'lga olgan va'daboz xoin amir Humortakin Urganch darvozasini ochib berib, o'z qo'shini bilan mo'g'ullarga taslim bo'ladi.

IBN BATTUTA, SHAMSIDDIN ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ABDULLOH AL-LAVATIY AT-TANJIY (1304-yil 24-fevral, Tanja — 1369-yil, Fos) — mashhur arab sayyohi va geografi. Barbarlarning lavat qabilasiga mansub. Ibn Battuta 28 yillik sayyohatlari davomida quruqlik va dengiz orqali 120 ming km yo'lni bosib o'tgan. Ibn Battuta 1325-yil yozida Marokashdan hajga boruvchilar karvoniga qo'shilib safarga chiqqan va deyarli barcha musulmon davlatlarida bo'lgan. Dastlab Misr, Shom (Suriya), Livan, Falastin, Mesopotamiyaga borgan. Ibn Battuta Yaqin Sharq mamlakatlari orqali Turkiya va Qrimga bordi. Itil (Volga) daryosi orqali Hoji Tarxon (Astraxon)ga o'tib, Oltin O'rda xoni *O'zbekxon*ning huzurida bo'lgan; keyin Xorazm poytaxti Urganchga kelgan. XIV asrning 30-yillarida Movarounnahrda bo'lgan. Undan Buxoro, Naxshab, Termiz, Samarqand, Balx va Kobul, Mo'ltan orqali Hindistonga borgan va Dehli sultoni *Muhammad To'g'loq* saroyida qariyb 8 yil molikiylar qozisi lavozimida xizmat qilgan. U *Chingizxon* boshliq mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlarini to'g'risida qisqa bo'lsa-da, ammo qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Ibn Battuta sayohati davrida Buxoroda ham ba'zi bir tiklanish sodir bo'lganiga qaramay, shahar hali vayron etilganicha qolgan edi. "*Hozir ba'zi birlarini istisno etganda, — deb ta'kidlaydi arab sayyohi, — shahardagi masjidlar, madrasalar va bozorlar xaroba holiday yotibdi... Hozirgi paytda Buxoroda il-fanda iqtidorli odamlar qolmaydi, ilmga qiziqadigan odamlar ham qolmaydi*". Ibn Battuta Samarqanddan Termizga, undan esa Jayxun daryosi orqali Xurosonga o'tadi. Yo'l-yo'lakay, o'sha vaqtlarda aholi istiqomat qilmay, xaroba bo'lib yotgan Balx shahrini tasvirlaydi: "*Balxni ko'rgan odam uni qachonlardir gullab-yashnagan shahar ekanini, muhtasham binolarini beixtiyor eslaydi, hozir ularning ba'zilarigina saqlanib qolgan. U mahallaar bu katta athlarni*

egallagan ulug'vor shahar edi. Masjid va madrasalarning izigina, lojuvard peshtoqlaridagi xatlarning asarlarigina qolibdi". So'ngra sayohatni davom ettirib Indoneziya va Xitoyga borgan. 1349-yili Marokashga qaytgan. 1349-5-yillar orasida Ispaniyaning arablar tasarrufidagi joylariga, 135-53-yillarda Sudanga sayohat qilgan. Ibn Battuta borgan mamlakatlarning geografiyasi, tarix va iqtisodiy, etnografik va madaniy — maishiy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Ayniqsa, O'rta Osiyo shaharlari, jumladan, Samarqandning sifatli qog'ozi haqidagi yozganlari e'tiborga loyiq. Hulokuiylar hukmronligi davridagi Eronning iqtisodiy va madaniy hayoti batafsil tasvirlangan. Ibn Battuta yirik savdogar ham edi, sultonlarning farmoyishi bilan ba'zan elchilik vazifalarini ham bajargan. Ibn Battuta fors va turkiy tillarni ham yaxshi bilgan. Uning "*Tuxfat an-nuzzor fi g'aroyib al-ansor va ajoib al-afsar*" ("*Turli shahar va safarlardagi ajoyibotlar shoxida bo'lganlar uchun tuhfa*") asari Yaqin Sharq va O'rta Osiyo geografiyasi tarixini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. U ilmiy manbalarda "*Sayohatnoma*" deb ataladi. Ibn Battuta asarlari 80 dan ortiq Yevropa va Osiyo xalqlari tillariga tarjima qilingan.

IBN KAFROJ BUG'RO — *Chingizxon* nomidan ikki ishonchli kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga tashrif buyurgan elchi. *Chingizxon Sulton Muhammad*dan O'tror voqeasi aybdorlarni jazolashni va *Inalxon*ni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qiladi. Bunga javoban Xorazmshoh elchini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar Xorazmshoh va *Chingizxon* davlatlari o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirib, *Chingizxon*ning Movarounnahrda bostirib kirishi uchun bahona bo'ldi.

ILG'ATU MALIK, ILATG'U MALIK (XIII asr) — Xorazmshohlar davlatining harbiy arboblardan biri. *Muhammad Xorazmshoh*ning Banokatdagi noibi. Mo'g'ullar istilosi arafasida *Muhammad Xorazmshoh* Jand va Yorkent noibi *Amir Buji Pahlavon Qutlug'xon*ni 10 ming otliq askar bilan *Ilg'atu Malikka* yordamga jo'natgan. Banokat garnizoni, asosan, qang'lardan tashkil topgan bo'lib, ularga *Ilg'atu Malik* qo'mondonlik qilgan. *Chingizxon* O'troga kelib, Banokatni egallash uchun *Alaq no'yon*, *Saqdu* va *Buqa* boshchiligida 5 000 kishilik qo'shin jo'natgan. Ular tevarak atrofdan ularga qo'shilgan qo'shinlar bilan Banokatni qamal qilgan (1220). *Ilg'atu Malik* rahbarlik qilgan shahar mudofaachilari 3 kun mobaynida mo'g'ullar bilan qahramonona jang qiladi, biroq kuchlar teng bo'lmagani uchun qamalning 4-kuni Banokat taslim bo'lgan. Mo'g'ullar shahar aholisini shahardan tashqariga olib chiqib ularni jangchilar, hunarmandlar va oddiy fuqarolarga ajratgan. So'ngra jangchilarni qilich bilan chopib kamon bilan otib o'ldirgan. Qolgan xalqni minglik, yuzlik, o'nliklarga ajratgan yoshlarni hashar sifatida olib Xo'jand tomon yurish qilishgan.

IMOMZODA RUKNIDDIN — mo'g'ullar tomonidan Buxoro bosib olingach, Buxoro qismatiga tushgan vahshiyona shafqatsizlik va nomussizlik manzarasiga chiday olmasdan, qozi *Badriddin* va o'z o'g'li bilan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi hujum qilib halok bo'lgan vatanparvar.

INALXON, INALCHUQ (?-1220, Samarqand) — O'tror hokimi (1210-1220), *Muhammad Xorazmshoh*ning yirik sarkardalaridan, Turon xotinning amakivachasi. Majusiylikka e'tiqod qilib yurgan kezlaridagi ismi — *Yagan tug'di* (Yagan — qadimgi turkiychada filni anglatadi), islomni qabul qilganidan keyingi ismi esa *Tojuddin*. G'oyirxon (yoki Qadirxon) "qudratli hokim" degan unvon sohibi. Inalxon 1218-yili *Chingizxon*ning *Umar Xo'ja O'troriy*, *Jamol Marog'iy*, *Faxruddin Jizakiy* (Jizaxiy) *al-Buxoriy*, *Aminuddin Xiraviy* boshchiligidagi 450 kishilik savdo karvoni O'troga kelganda, mazkur karvon ahlini savdogarlar niqobi ostida jo'natilgan mo'g'ul josulari ekanini fahmlab, zudlik bilan shu haqda *Muhammad Xorazmshoh*ga xabar yuboradi. Ammo, u Xorazmshohning maxsus farmoni yuborilguncha, karvon ahlini ehtiyotlash zarurligi xususidagi buyrug'iga e'tibor qilmay, ularni deyarli barchasini qatl etib, mol-mulklarini musodara etadi. Shunda tasadifan omon qolgan bir mo'g'ul Pekinga qochib borib, *Chingizxon*ni bo'lgan voqeadan xabardor qiladi. *Chingizxon* Xorazmshoh huzuriga *Kafraj Bug'roni* ikki mo'g'ul hamrohligida elchi qilib jo'natib, Inalxonni ular qo'lga topshirishni talab qiladi. Lekin, Xorazmshoh Inalxonning o'ziga yaqin qarindosh, jasur sarkarda va qo'shinning asosiy qismida uning qavmiga mansub kishilar sarkarda ekanligini inobatga olib, *Chingizxon*ning bu talabini qat'iy rad etadi-da, *Kafraj Bug'ro* bilan ikki mo'g'ulni qatl ettiradi (Ibn al-Asirni yozishicha, faqat elchi o'ldirilib, uning hamrohlari soqollari qirib tashlangan holda qo'yib yuborilgan). Shundan so'ng, Inalxon mo'g'ullar bilan bo'lishi muqarrar jangga hozirlik ko'rib, 20 ming kishilik qo'shin to'playdi. Xorazmshoh unga 10 ming askarni madadga yuboradi. 1219-yil sentyabrda *Chingizxon* 100 mingdan ortiq askar bilan o'torni qamal qiladi. Inalxon besh oylik qamal davomida o'z qo'shini va shahar aholisi bilan birgalikda ulardan bir necha mingini halok etadi. Ammo, suv va yegulik tanqisligi kuchlarning teng emasligi oqibatida mudofaachilar holdan ketib, mo'g'ullar shaharga kirishga muvaffaq bo'ladi. Ikki o'rtada shiddatli jang bo'lib Inalxon qo'shini yengiladi. Inalxon oxiri-oqibatda qo'lga olinib, Samarqandga — *Chingizxon*ning huzuriga olib boriladi. *Chingizxon* uning ko'zu quloqlariga kumush eritib, quyishni amr qiladi. Shunday qilib, Inalxon Ko'ksaroyda qiynab o'ldiriladi.

INANCHXON, OG'IL HOJIB (asli ismi Badruddin O'g'il hojib) (?-1223) — anushteginiylardan — Xorazmshohlar amiri lashkarlaridan, hojib (XIII a.). *Muhammad Xorazmshoh* 1216-yilning yozidagi Irg'iz daryosi bo'yidagi jangda ko'rsatgan qahromonligi evaziga Inanchxon unvonini beradi. *Jaloliddin* Xorazmshoh etib tayinlangandan so'ng Urganchga kelganda Inanchxon qipchoq amirlarini unga qarshi uyushtirayotgan suiqasddan o'z vaqtda ogohlantirgan. 1219-yil Inanchxon amir *Ixtiyoruddin Kushlu* bilan birgalikda Buxoro mudofaasiga rahbarlik qiladi. Buxoro qamalining uchinchi kuni Inanchxon boshliq shaharni tark etgan lashkar mo'g'ul saflarini yorib o'tib, Amudaryoga tomon chekinadi. Dushman ta'qibidan zo'rg'a qutulib qolgan Inanchxon lashkarining kichik qismi bilan Amudaryoning narigi tomoniga o'tib oladi. Mo'g'ullar Buxoroni istilo

qilganlaridan so'ng Inanchxon Nasa (Niso) viloyatiga keladi. Bu yerda *Muhammad Xorazmshohning* to'zib ketgan askarlarining to'plashga erishadi, qurol-yarog', otlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat g'amlab, kurashni davom ettiradi. Nashjuvon qishlog'i yaqinida mo'g'ul bosqinchilarini tor-mor keltiradi. So'ngra Inanchxon Obivard tomon yurish qilgan. Bu yerda unga *Muhammad Xorazmshohning* yana anchagina jangchilari va amirlari kelib qo'shilgan. 1221 yil Inanchxon Sabzavorni o'z tasarrufiga kiritadi. Xurosonning katta qismiga hukmronlik qilishga muvaffaq bo'lgan Inanchxon 1223-yilda al-Xalqa mavzeida mo'g'ullar (10 ming kishi) bilan yana jang qiladi, lekin bu muharabada Inanchxon yengiladi. Ray shahrida turgan *G'iyosuddin Pirshoh* (Muhammad Xorazmshohning o'g'li) saroyidan panoh topadi va bir necha kundan so'ng zaharlab o'ldiriladi.

IXTIYORUDDIN QO'SHLU — Buxoro shahar lashkariy kuchining boshliqlaridan.

JALOLIDDIN MANGUBERDI, JALOLIDDIN (to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198-1231) — Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-1231), mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Xorazmshohlardan *Muhammadning* katta o'g'li. Onasi — *Oychechak* turkman kanizaklaridan bo'lgan. Jaloliddin burnida holi (mank) bo'lgani uchun *Mankburni* nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "*Manguberdi*" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarda hokim va taxt vorisi etib tayinlangan (1215). Biroq *Turkon xotun* va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli *Qutbiddin O'zloqshoh* foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan (qadimgi Irg'is daryosi bo'yidagi jang). *Chingizxon* boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida *xorazmshoh Muhammad* Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashur ada orolidan panoh topgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab, so'nggi damda Jaloliddinni o'z o'rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari *Oqshoh* va *Qutbiddin O'zloqshohlar* bilan birga Urganch mudofaasiga oshiqadi. Lekin Urganchdagi qipchoq amirlari *Turkon xotunning* akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi *Temur Malik* boshchiligidagi 300 kishilik suvoriylar bilan o'z vatani — Xorazmni tashlab Xurosonga ketishga majbur bo'ladi. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo'g'ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga mo'g'ullarga qarshi birlashishga da'vat etdi, bir oydan so'ng G'azni tomon yurdi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi *Aminalmulk* 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdu ularni tor-mor keltirgan. U

G'aznaga 1221 yil keldi. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i *Sayfuddin Ig'roq*, Balx voliysi *A'zam malik*, afg'onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar boshlig'i *Hasan Qarluq* kelib qo'shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberding o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi *Valiyon qal'asini* qamal qilayotgan *Takajuk* va *Malg'ur* boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ular tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'priki buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi. *Chingizxon* Jaloliddin Manguberdiga qarshi *Shiki Xutuxu* no'yonni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azna yaqinidagi *Parvon jangida* Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan ajoyib g'alabani qo'lga kiritadi. Biroq jangdan so'ng Jaloliddin Manguberding lashkarboshilari o'lja ustida o'zaro janjallashib qolib, oqibatda *Sayfuddin Ig'roq*, *A'zam malik* va *Muzaffar maliklar* Jaloliddin Manguberdingi tark etganlar. Jaloliddin Manguberding yonida faqat *Aminalmulk* o'z lashkari bilan qolgan, xolos. *Chingizxon* katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. G'ardiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi *Chingizxon* qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. *Chingizxon* qo'shini Jaloliddin Manguberdingi daryodan o'tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221 yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham cho'li Jaloliy deb ataladi). *Chingizxon* Jaloliddin Manguberding bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: "*Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!*", degan. Oradan bir necha kun o'tgach, Jaloliddin Manguberdi qo'shini soni 7 mingga yetdi. Unga *Ko'lbars bahodir*, *Kabkuh* va *Sa'diddin Ali ash-Sharabdor* kabi lashkarboshilar o'z kishilari bilan kelib qo'shildi. Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho'lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo'lgan Shatra viloyati rana (shoh) si Jaloliddin Manguberdiga hujum qilgan. Jaloliddin Manguberding merqanlik bilan otgan kamon o'qidani rana halok bo'ladi, qo'shini esa parokanda bo'lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o'ljani qo'lga kiritadi. Bu g'alabadan so'ng Sind, Uchcha, Mo'ltan, Lohur va Peshavor hokimi *Nosiriddin Qubacha* (1205-1227)ning Nandana va Sakundagi noibi *Qamariddin Karmoniy* Jaloliddin Manguberdiga o'zini xayrixohligini izhor etib, sovg'asalomlar jo'natgan. *G'iyosiddin* Pirshohdan ajralib ketgan amirlardan *Sanjoqonhon*, *Elchi pahlavon*, *O'rxon*, *Soyircha*, *Tekjoruq Xonkishilar* o'z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo'shildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal'alarini qo'lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo'shini hamda mamluklar sulolasidan bo'lgan Dehli sultoni *Shamsuddin Eltutmishdan* olgan qo'shimcha kuch bilan Jaloliddin

Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag'lubiyatga uchragan, uning xazinasi, qurol-yarog'lari o'lja tushgan. 1222-yil *Chingizxon* Jaloliddin Manguberdi izidan *To'rbay To'qshin* va *Bola no'yonni* 20 minglik qo'shin bilan jo'natadi. Lekin ular Mo'ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o'ziga qarshi mo'g'ul qo'shinlari jo'natilgani xabarini Parosravar qal'asini olgandan so'ng eshitgan. Jaloliddin Manguberdi Mo'lton tomon yo'l olib Qubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillarni qamal qiladi, qo'shini uchun tuyalar zarurligi tufayli Gujart viloyati markazi Nahrvalga *Xosxon* boshchiligida qo'shin jo'natadi. *Shamsuddin Eltutmish* Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo'shin (30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil) tortadi. Jaloliddin Manguberdi mardonavorlik bilan raqibiga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberding *O'zbek Toy Jahon Pahlavon* qo'mondonligi ostidagi ilg'ori *Eltutmish* ilg'ori bilan to'qnashib raqibidan ustin keladi. *Eltutmish* Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulh so'raydi. Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o'z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qilgan. Biroq vaziyat borgan sari murakkablashib bormoqda edi. *Eltutmish*, *Qubacha*, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o'zaro til birlashtirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo'lib qoldi. Jaloliddin Manguberding lashkarboshisi *Yazidak pahlavon* va *Sunqurjiq Toysilar* xiyonat qilib *Eltutmish* tomoniga o'tganlar. Qiyin vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqirgan. Amirlarning ko'pchiligi Iroq tomon yurish qilib, uni *G'iyosiddin Pirshohdan* tortib olishni taklif qiladi. Iroqda siyosiy parokandalik hukm surardi. Iroq tomon ketishga qaror qilinadi. Jaloliddin Manguberdi o'zining Hindistonda zabt etgan mulklariga *O'zbek Toy Jahon Pahlavoni*, G'ur va G'azni viloyatlariga *Hasan Qarluqni* noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo'l olgan. Cho'lu biyobonlarni kesib o'tishda Jaloliddin Manguberding ko'p jangchilari nobud bo'lgan, nihoyat u 4 ming jangchisi bilan Kirmonga yetib kelgan. *G'iyosiddin Pirshohning* Kirmondagi noibi *Baroq hojib* Jaloliddin Manguberdiga tobelik izhor qiladi. Shundan so'ng Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi Sherozga kelgan. Fors hokimi otabek *Sa'd ibn Zangiy* va Yazd hokimi otabek *Alouddavla ibn To'g'onshoh* unga tobelik bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo'shini qurol-aslaha bilan ta'minlanadi. Bu hol *G'iyosiddin Pirshohga* yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg'a-salomlar bilan miroxur Odekni elchi sifatida jo'natgan va o'zaro nizoni tinchlik bilan hal etgan. Qo'shin boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga o'tgan. 1225-yil Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonga yurish qiladi. So'ng Bag'dodga qarshi yurishga hozirlik ko'radi. Xalifa *Nosirgacha* elchi jo'natib, mo'g'ullarga qarshi birlashishga chaqiradi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga qarshi o'zining mamluki amir *Jamoliddin Qushtemir* boshliq 20 minglik qo'shin jo'natdi. Basra yaqinidagi jangda

Xalifa qo'shinlari tor-mor keltirildi. Xalifa Bag'dod mudofaasi bilan mashg'ul bo'ladi. Jaloliddin Manguberdi Bag'dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi. Ozarbayjon va Arron otabegi *O'zbek* ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o'z holiga tashlab qo'ygan edi, davlatni amalda uning xotini *Malika xotun* boshqarardi. 1225-yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog'a shahrini jangsiz qo'lga kiritadi. Damashq, Erbil hokimlari u bilan ittifoq tuzishga rozi bo'ladilar. *Otabek O'zbek* Tabrizni tashlab Ganjaga, so'ng Alinjo qal'asiga qochib o'sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi *Malika xotunga* uylanadi. Tabrizda bir necha kun turgandan so'ng o'z qo'shinini Gruziya tomon boshlaydi. 1225-yil avgustda Garni qal'asi yaqinida gurjilarning *Ivane Mxargdzel*i boshliq 60 minglik qo'shinini tor-mor keltiradi va Tiflisga qarab yuradi. Gruziya malikasi *Rusudana* Kutaisiga ko'chib o'tgan. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimlari o'z tobeliklarini bildirishgan. 1227-yil sentabrda Isfahondan 30 chaqirim sharqdagi Sin qishlog'i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning *Taynol no'yon* boshliq qo'shinini yenggan. *Taynol no'yon* Jaloliddin Manguberdi haqida: "*Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o'z tengqurlarining sarvari ekan*", degan. Jaloliddin Manguberding Ko'niya sultoni *Alouddin Kayqubod*, Jazira hokimi *al-Malik al-Ashrof Muzafariddin Muso*, Damashq hokimi *al-Malik al-Muazzam Sharafiddin Is* va Misr hokimi *al-Malik al-Komil Muhammadga* nomalar yozib, ularni mo'g'ullarga qarshi kurashish yo'lida birlashtirish yo'lidagi xatti-harakatlari behuda ketdi. Ustiga ustak *Alouddin Qayqubod* muxolif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberding kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog'a, Tabrizni egallab (1231) Jaloliddin Manguberdi ta'qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberding oz sonli qo'shinini tor-mor keltirdilar, Jaloliddin Manguberdini o'zi esa ta'qibdan qutulib Qurdiston tog'lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, fojiali ravishda halok bo'lgan. Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi *Nasaviy* shunday yozadi: "*Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bildirdi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so'zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko'ngil, to'g'ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo'yardi. U adolatsizliklarni yomon ko'rardi. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi*". O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida "*Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini*

nishonlash haqida” qaror qabul qildi (1998). Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalari va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdining harbiy yurishlarida hamroh bo‘lgan tarixchi *Nasaviy* Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlab “*Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi*” (“Sulton Jaloliddin Manguberdining holati”) nomli asar, Maqsud Shayhzoda esa “*Jaloliddin*” (1943-yil) dramasi yozgan. Jaloliddin Manguberdi haqida video film, doston, p‘esa va boshqalar yaratilgan. 2000-yilning 30-avgustida “*Jaloliddin Manguberdi*” ordeni ta‘sis etilgan.

JEBE NO‘YON, (XII asr oxiri — XIII asr birinchi yarmi) — *Chingizxonning* atoqli sarkarda — no‘yonlaridan biri. Nerun qabilasining yesut urug‘idan. *Chingizxonga* qo‘shilguncha tayjeut qabilasi boshliqlaridan sanalgan *Qadan* tayjening o‘g‘li to‘daning xos yigiti bo‘lgan. Jebe no‘yonning lashkarboshilik salohiyatini yuqori baholagan *Chingizxon* uni o‘ta mas‘uliyatli harbiy amaliyotlarga tayinlagan, jumladan, 1216-yilning bahorida naymanlar xoni *Kuchluqqa* qarshi o‘g‘li *Jo‘chi* va Jebe no‘yon boshchiligidagi 20 minglik qo‘shin jo‘natgan. Bu qo‘shin zafar bilan qaytayotganda Irg‘ez daryosi bo‘yidagi jangda *Muhammad Xorazmshohning* 60 ming kishilik qo‘shiniga ro‘baro‘ kelgan. *Chingizxonning* Xitoyga yurishi (1211 yil) paytida Jebe no‘yon Jo‘rja viloyatining yirik shahri Tunkinni egallash uchun jo‘natilgan. Jebe no‘yon o‘ziga xos harbiy taktik usul qo‘llab shaharni egallaydi. Shu yili Chamchil darasiga kirish yo‘lini qo‘riqlash topshirilgan Jebe no‘yon xitoyliklarning *Udun* qo‘mondonligidagi askariy qismlariga qo‘qqisdan hujum qilib, ularni tor-mor keltiradi. 1220-yil Movarounnahrni istilo qilish chog‘ida *Chingizxon* 20 ming kishilik qo‘shin bilan Jebe no‘yon va *Subutoy* bahodirni yurtini tark etgan *Muhammad Xorazmshohni* ta‘qib etish va uning tasarrufidagi Arron, Ozarbayjon, Eron va Shirvon yerlarini zabt etishga jo‘natgan. Ular dastavval Iroq ajamning Har, Semnon, Ray, Qum, Hamadon, Qazven, Ozarbayjonning Tabriz, Marog‘a, Nahechevan, Sarob, Ganja, Baylaqon kabi shaharlarni egallashgan. Gurjilar (gruzinlar)ning 30 ming kishilik qo‘shini harbiy hiyla bilan yakson etgan Jebe no‘yon va *Subutoy* bahodir qo‘shini Shirvonshohlar sulolasining bosh shahri Shamohiy (Shemaha)ni istilo qiladi va Darbanddan o‘tib, Shimoliy Kavkazga alanlar yurtiga bosib kiradi ularning qarshiligini sindirib, qo‘qqisdan qipchoqlarga hujum qiladi. Omon qolgan qipchoqlar Rus yerlariga qochishga majbur bo‘lishgan. Qish mavsumini qipchoqlarning sersuv yaylovlarida o‘tkazgan Jebe no‘yon va *Subutoy* bahodir Qrimning janubidagi Sug‘daqni zabt etadi. Kalka jangida rus knyazlari va qipchoqlarning birlashgan qo‘shinini yenggan mo‘g‘ullar ruslarning ko‘pdan-ko‘p shaharlarni istilo qilganlar, so‘ngra Volga-Kama Bulg‘oriyasida qattiq qarshilikka duch kelgach, orqaga qaytib, Qoraqurumga qaytayotgan *Chingizxonga* kelib qo‘shilganlar.

JO‘CHIXON, JO‘CHI, JO‘JI, CHJOCHI (taxminan 1184-1227) — mo‘g‘ullarning yirik sarkardasi, *Chingizxonning* katta o‘g‘li; uning harbiy rejalarini ro‘yobga chiqargan. Rivoyatlarga ko‘ra, *Chingizxonning* xotini *Borte* (Burta fujin) homiladorlik paytida market

qabilasi tomonidan asirlikka olingan. Keyinchalik uni asirlikdan halos etishgach, Jo‘ji tug‘ilgan. *Abug‘ozi Bahodirxonning* yozishiga ko‘ra “*Jo‘ji*”ning ma‘nosi “*mehmon bo‘lgan*” (“Shajarai turk”). Jo‘ji Xitoy (1711-1715), O‘rta Osiyo (1219-1221), Dashti Qipchoqni bosib olishda faol ishtirok etgan. Jo‘ji boshchiligidagi 20 ming nafar mo‘g‘ul qo‘shini Irg‘iz daryosi bo‘yidagi jangda Muhammad Xorazmshohning 60 minglik qo‘shini bilan jang qilgan, bu islom lashkarlarining mo‘g‘ullar bilan dastlabki to‘qnashuvi bo‘lgan. Faqatgina *Jaloliddin Manguberdining* harbiy mahoratigina Xorazmshoh qo‘shini mag‘lubiyatdan saqlab qolgan. *Chingizxon* qo‘shini O‘rta Osiyoga yurish qilganda, otasi Jo‘jini Sirdaryo bo‘yidagi Jand, O‘zgand, Sig‘noq kabi shahar qal‘alarni egallashni buyurgan. Jo‘ji bu qal‘alarni olgach, ukalari *Chig‘atoy* va *O‘qtoyxon* bilan birgalikda Xorazm poytaxti Urganchni qamal qilgan, shaharni yetti oylik janglardan so‘nggina egallagan. *Chingizxon* mo‘g‘ullar zabt etgan yerlarini o‘g‘illariga taqsimlab berganda (1224-yilda) Jo‘jiga Irtishdan Uralgacha va undan G‘arb tomonga cho‘zilgan yerlar mulk qilib berilgan. Jo‘ji Sharqiy Yevropaga qilmochi bo‘lgan harbiy yurishi boshlanmasdan oldin vafot etgan; ba‘zi malumotlarga ko‘ra, Jo‘jini markaziy hokimiyatdan ajralib chiqmoqchi ekanlikda gumonsiragan *Chingizxon* maxfiy buyruq berib qatl ettirgan. Jo‘jining qabri Jezqazg‘an shahri (Qozog‘iston)da joylashgan.

JUVAYNIY, ALOUDDIN OTAMALIK IBN BAHOUDDIN MUHAMMAD AL-JUVAYNIY (1126, G‘arbiy Xuroson, Juvayn viloyati, Ozodvor qishlog‘i — 1283-yil, Arron) — tarixchi olim va davlat arbobi. Yoshligidan arab, fors, mo‘g‘ul, uyg‘ur tillarini mukammal o‘rgangan. Xurosondagi mo‘g‘ul hukmdorlari *Qirqko‘z*, *Arg‘un og‘a* va *Hulaku* devonida xizmat qilgan. 1247-1253-yillarda Qoraqurum (Mo‘g‘uliston) ga borgan. Elxonlarning Bog‘doddagi noibi (1259-1283-yillar, tanaffuslar bilan). Juvayniy mo‘g‘uliston, O‘rta Osiyo hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini hikoya qiluvchi “*Tarixi Jahonkushi*” (1260-yil) nomli shoh asari bilan shuhrat topdi.

JUZJONIY (Jurjoniy) Abu Umar Minhajiddin Usmon ibn Sirojiddin (1193-1262) — o‘rta asr tarixchisi. Asli eronlik bo‘lib, Hindistonda yashagan. Dehli sultoni *Nosiriddin Mahmudga* bag‘ishlab, “*Taboqati Nosiriy*” (“Nosir turkumlari”) nomli tarixiy asar yozgan. Bu uning eng yirik asari bo‘lib, u kichik muqaddima va ummaviylar, abbosiylar, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, sanjariylar, xorazmshohlar tarixiga oid 23 tabaqa (turkum, bo‘lim)dan iborat. Juzjoniy ushbu asarning bir qismini tarixiy asarlarga, surishtirib bilgan voqealarga asoslanib, yozgan.

KEBEK — Chig‘atoy xonlaridan biri (1318-1326). U Movarounnahrdek madaniy o‘lka bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga va o‘troq hayot kechirishga intilgan. Kebek hokimiyatni bevosita o‘z qo‘liga olib, Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf shahri yonida o‘ziga saroy qurdiradi. Saroy mo‘g‘ul tilida “*Qarshi*” deb yuritilib, shu saroyda turib u mamlakatni idora qiladi. Keyinchalik bu saroy atrofida yangi shahar qad ko‘taradi va u ham “*Qarshi*” deb atala boshlaydi. Bora-bora Qarshi gavjumlashib, eski

Nasaf shahri xarob bo'ladi. Kebek davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul sohasida islohot o'tkazadi. Kebekning islohoti bo'yicha davlat viloyatlarga bo'linib, ular mo'g'ulcha "tuman" deb yuritiladi. Ammo ma'muriy islohot mahalliy hokimliklar va beklklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Mayda mahalliy hokimliklar va beklklar tumanlarga, viloyatlarga, ilgari hokimlar esa tumanlarning noibiga aylantiriladi. Avvalgi mahalliy hukmdorlar — maliklar va sadrlarning o'rinlarini turk-mo'g'ul urug' boshliqlari egallaydi. Kebek joriy qilgan ma'muriy bo'linish, garchi qadimiy an'analarga barham bera olmagan bo'lsa-da, u Movarounnahrda o'rta asr davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynaydi. Kebek davrida ichki savdo-sotiqni tartibga solish, qo'shin davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini yaxshilash uchun butun mamlakatda yagona pul joriy qilinadi. Erondagi Xulagular davlati va Oltin O'rta xonligining kumush tangalari namunasida Kebek ikki xil pul: kumush tanga — "dignor" va mayda kumush tanga "dirham"lar zarb etiradi. Kebek dinorining vazni 2 misqol, dirhamining og'irligi 1/3 misqolga teng bo'lgan. Kebek o'troq hayotga ko'chadi va uning noiblarining bu harakatiga garchi Movarounnahrning o'troq aholisi xayrixohlik bilan qarasa-da, ammo mo'g'ul ko'chmanchi ma'murlarning kattagina qismi unga norozilik bildiradi va qarshilik qiladi. Shunday bo'lsa-da, viloyatlarga kelib o'rnatilgan mo'g'ullar asta-sekin o'troq hayotga ko'chib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida, mo'g'ullarni borgan sari mahalliy, ayniqsa turkiy xalqlarning madaniyati, urf odatlarini, tilini qabul qilishga va ularga singib, turklashish jarayonini kuchayishiga olib keladi. Ular islom dinini qabul qila boshlaydilar. 1333-yilda Movarounnahrda bo'lgan arab sayyohlaridan biri Kebekning ukasi *Tamashirin* (1334-1376 yillar) masjidida uchratganligini qayd qilgan.

KUBRO, NAJMIDDIN KUBRO (taxallusi; asl ism-sharifi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy) (1145-1221) — ulug' shayx, tasavvufning taniqli vakillaridan biri, *kubroviylik* tariqatining asoschisi. Uning taxallusi "*dinning ulu'g yulduzi*" ma'nosini beradi. Kubroning karomat ko'rsatish, voqealarni oldindan bilishi, o'tkir nazari bilan ta'sir eta olish xislatiga ega inson bo'lganligi haqida rivoyatlar tarqalgan. Kubro yoshligidan ilmga qiziqqan, qobilyatli bo'lgan. Islom asoslari, shariat, hadis va tafsirni juda tez o'zlashtirib oladi. 16-17 yoshlarida tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Xorazmdan chiqib, Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi. Tariqatdan xabardor bo'lishga intilib, bir necha shayx *Ro'zbixon Vazzon Misriy* (1189-yil vafot etgan)ga murid tushadi, undan tariqat odobini o'rganadi, shayxning qiziga uylanadi. Kubro o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etgan. Ulardan asosiylari: "*Favoih al-jamol va favotih al-jalol*" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi"), "*Al-usul al-ashara*" ("O'nta usul"), "*Risola at-turuq*" ("Tariqatlar risolasi"), "*Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim*" ("Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola") va boshqalari. Kubroning fors tilida yozgan «*Fi odobus solikin*» («Soliklar odobi haqida») risolasi ham bor. U Qur'onga mutasavviflar nuqtai

nazaridan sharh berishni oxirigacha yetkaza olmadi, bu ishni uning shogirdlari tugalladi. Forscha ruboiylarida javonmardlik, pok axloq g'oyalari ifodalangan. Shayx Najmiddin Kubro 76 yoshida o'z do'st-u shogirdlari va behisob murid-u izdoshlari bilan Urganch shahrida mo'g'ullarga qarshi jangda ishtirok etadi. Najmiddin Kubroning iltijo bilan "*Yo Vatan, yo sharafli o'lim*" deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzari rasta, masjidi madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Manbalarda ta'riflanishicha, hatto *Chingizxon* Najmiddin Kubroga ahli a'yonlari, barcha yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx *Chingizxon* taklifini rad qilgan. Oqibat son jihatdan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmiddin Kubro o'lim oldida tig' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, qahramonlarcha shahid bo'ladi. Qabri Ko'hna Urganchda. Keksa shayx va donishmand insonning bu jangdagi qahramonligi, jasorati avlodlarga ibrat bo'lib qoldi. Kubro shaxsi va uning merosi O'zbekistonda mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi. 1995-yilda O'zbekistonda Kubro tavalludining 850 yilligi nishonlandi.

KUCHTEGIN PAHLAVON (XIII asr) — Xorazmshohlar davlati harbiy arboblardan biri. Mo'g'ullar istilosi davrida Marv mudofaasi rahbari. Mo'g'ullar Marvni 1221 yilning 25-fevralda bosib olganlar va shahar hokimligiga amir *Diyo-ad-Din Alini*, shixnalikka — mo'g'ul *Bormasni* tayinlashgan. 1221 yilning 7-noyabrda Marv aholisi qo'zg'olon ko'tarib *Bormasni* quvib yuborgan, *Diyo-ad-Din Ali* bu paytda shaharda bo'lmagan. U qo'zg'olonchilar tarafini olmagan va Marvga Kuchtegin Pahlavon kelishi bilan mo'g'ullar tomoniga o'tib ketgan va Murg' qal'asiga berkingan. Kuchtegin Pahlavon shahar mudofaa devorlarini qayta tiklagan, Murg'ob daryosidagi to'g'onni ta'mirlagan. Shundan so'ng u *Diyo-ad-Din Alini* bartaraf etgan. Mo'g'ullar katta kuch bilan kelib qo'zg'olonni bostirgan. Kuchtegin Pahlavon ming kishilik qo'shini bilan Marvni tark etgan. U Buxoroga yo'l olgan, Jayxundan o'tganda mo'g'ullarga to'satdan hujum qilib, ularning boshliqlarini (shixnasini) o'ldirgan. Shundan so'ng mo'g'ullar unga qarshi 10 ming kishilik otliq qo'shin tashlagan. Sangbast qishlog'i yonidagi jangda Kuchtegin Pahlavon mo'g'ullardan yengilgach, Sabzavorga ketgan. Sabzavorda Elchi Pahlavonning o'g'li *Ekanqu* bilan uchrashib, u bilan birga *Inonchxonga* qo'shilgan. Ularning orqalaridan quvib kelgan mo'g'ul qo'shinidan Jurjon jangi (1222)da mag'lubiyatga uchragan.

MAHMUD TOROBIY (?-1238-yillar) — Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon (1238-yil) rahbari. Hunarmand oilasida tug'ilgan. G'alvirchilik bilan shug'ullangan, ayni paytda tabiblik ham qilgan. U kuchli nufuzga ega, tasavvuf g'oyalari bilan tanish shaxs bo'lgan. Buxoroda mo'g'ullarga qarshi boshlangan qo'zg'olonga mashhur ulamo *Shamsuddin Mahbubiyning* taklifi bilan rahbarlik qilgan. Buxoro atrofida mo'g'ullarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan. Qabri ustiga XIII asrda qurilgan daxma vatanimiz mustaqillikka erishgach, qayta ta'mirlandi. Mahmud Torobiy haqida *Oybek "Mahmud Torobiy"* (1944-yil) opera librettosi va dostonini, *Asad*

Dilmurod "Mahmud Torobiy" (1998-yil) tarixiy romanini yozgan. Buxoro viloyati Jondor shaharchasida haykal o'rnatilgan.

MUBORAKSHOH (?-1266) — *Chig'atoy ulusi* xoni (1265-1266). *Qora-Hulagu va Ergene* (Orqina) xotun o'g'li. *Jamol Qarshiyning* yozishicha, 1265-yil mart oyida Ohangaronda xon deb e'lon qilingan. *Chig'atoy* avlodlaridan birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan. Shunday qilib O'rta Osiyoni ilk marotaba *Xubilay* qoon tomonidan tayinlanmagan mo'g'ul hukmdori boshqara boshlagan. Bu holga qarshi bo'lgan *Xubilay* Turkistonga boshqa bir Chig'atoy shahzoda *Baroq* (Baroqxon)ni yuborgan. 1266-yil sentabrda Muborakshoh Xo'jand yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchrab, asir olingan, shundan so'ng *Baroq* O'zgandda o'zini xon deb e'lon qilgan.

MUHAMMAD TOROBIY — *Mahmud Torobiyning* ukasi. U akasining o'limidan so'ng *Ali* bilan birgalikda *Torobiy qo'zg'oloni*ga boshliq qilib saylanadi. Biroq yangi rahbarlarning harbiy tajribasi va omma o'rtasida yetarli obro'yi yo'q edi. Ularning bunday holati tez orada ayon bo'lib qoladi. Chunki oradan bir hafta o'tmay, ularga qarshi mo'g'ullarning yangi qo'shini hujum qiladi. Jangda qo'zg'olonchilar butunlay tor-mor qilinib, Torobiyning har ikkala ukalari ham halok bo'ladilar.

MUNKE, MANGU (1208-1259-yillar) — mo'g'ullar davlatining 4-buyuk xoni (qooni) (1251-1259), *Chingizxonning* nabirasi, *Tulixonning* to'ng'ich farzandi. 1251-yil Qoraqurumda bo'lgan qurultoyda Botuxonning qaroriga binoan qoonlik shohsupasiga o'tirgan. Qurultoy paytida Munkening hukmdor etib saylanishiga qarshi chiqmoqchi bo'lgan O'qtoyxon tarafdorlari hibsga olinadi. 77 kishi qurultoydan keyin qatl etiladi, *Cheramun* va boshqa xonzodalar afv etiladi va mamlakatning turli chekka viloyatlariga jo'natiladi. Munke dushmanlik ruhida bo'lgan *Chig'atoy* va *O'qtoy* uluslarini bo'ysundirish hamda tasarrufidagi yerlar chegarasini *Botuxonga* tegishli bo'lgan Jo'ji ulusi sarhadlarigacha yetkazishga muvaffaq bo'ladi. Chig'atoy ulusiga *Ergana xotun* (Orqina xotun) hukmdor etib tayinlanadi. Uning davrida Chig'atoy ulusi mulk sifatida tugatiladi. Chig'atoy *Botu* bilan Munqa o'rtasida kelishuv asosida taqsimlanib, Sirdaryogacha bo'lgan yerlarni Munqa, Movarounnahrni esa *Botu* egallab oladi. Sharqiy Turkiston, Quljin, Yettisuv Munke tasarrufiga o'tadi. Munke davriga muayyan viloyat yoki yurtning millati va dinini e'tibordan qochirmagan holda boshqarishga katta e'tibor qaratiladi. Shu bois qoon devonida barcha millat vakillari faoliyat ko'rsatar, biror-bir yurt, elat xalqiga qarata qabul qilinadigan qaror yoki murojaatnomalar shu xalqning tilida va yozuvida bitilar edi. Munke soliq undirishning *O'qtoyxon* vaqtida o'rnatilgan tartibini qayta joriy etadi va bu boradagi mavjud boshboshdoqlikka chek qo'yadi. Soliqning miqdori aniq belgilangan, asosan, pul shaklida yig'ilgan. Rashiduddin fikricha, jonbosh solig'i Xitoy va Movarounnahrda eng ko'pi 15 dinor, Xuroson va Eronda eng ko'pi 7 dinor, eng kami esa, 1 dinorni tashkil qilgan. Munke *Chingizxon* vafotidan so'ng qabul qilingan barcha yorliq va payzalarni bekor etadi. Natijada xonzodalar barcha amallarini buyuk qoonning noiblari bilan maslahatlashgan

holda amalga oshirishga majbur bo'ldilar. U mahalliy ma'murlar, ruhoniya va savdogarlarning asosiy qismi ba'zi bir xonlar hamda harbiy ma'murlarning kichik bir qismi o'troq hayot tarafdori bo'lib, ular boshboshdoqlikka qarshi kurash olib borib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildilar. O'troq hayotni — dehqonchilik va savdoni ular davlat xazinasiga muttasil tushib, uni to'ldirib turadigan ulkan daromad manbai deb hisoblar va bu siyosat tarfdorlaridan biri edi. Munke 1259-yilda Xitoyga qarshi olib borilayotgan urush chog'ida vabo kasaliga chalinadi va 8 kunlik xastalikdan so'ng vafot etadi. Uning jasadi o'g'li Asutoy tomonidan mo'g'ulistonga keltiriladi. Munke Burhon Xoldun mavzeyida *Chingizxon* va *Tulixon* qabrlari yaqiniga dafn etiladi.

MUZAFFAR MALIK — *Jaloliddinning* lashkarboshilaridan biri. mo'g'ullar ustidan Parvona dashtida g'alaba qozonilgandan so'ng qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda *Sayfuddin Ag'roq*, *A'zam Malik* va *Muzaffar Malik* qo'shindan ajralib, o'z viloyatlari tomon ketadilar.

MAHMUD YALAVOCH, MAHMUD XORAZMIY (? — 1254, Pekin) — *Chingizxon* xizmatida bo'lgan xorazmlik savdogar. *Chingizxon* tomonidan *Muhammad Xorazmshoh* huzuriga elchi bo'lib kelganligi uchun *yalavoch* (elchi) laqabi bilan mashhur. Mahmud Yalavoch *qoraxitoylar* xizmatida ham bo'lgan (1211). *Chingizxon* savdo-sotiqqa katta e'tibor berib, karvon yo'llarining bexatarligini ta'minlash bilan birga musulmon savdogarlariga hurmati baland bo'lgan. Shu tufayli mo'g'ulistonga kelib savdo qilganlar orasida Buxoro, Samarqand, O'tror, Xo'jand kabi shaharlardan kelganlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular orasida Mahmud ham bo'lgan. 1218-yil bahorida *Chingizxon* uni buxorolik *Alixo'ja* (Ali xochje), o'trorlik *Yusuf Jahongir* (Yusufu-Jyanke) hamrohligida *Muhammad Xorazmshoh* saroyiga elchi (yalavoch) qilib yuborgan. Safar oldidan *Chingizxon* ularga katta miqdorda sovg'a-salomlar va o'z maktubini topshiradi. Maktubda *Chingizxon* Xorazmshohni "o'g'limdek yaxshi ko'raman" deb ta'kidlab uni itoatga chaqirgan. Mahmud Yalavoch boshchiligidagi elchilar Buxoroda *Muhammad Xorazmshoh* bilan uchrashib, unga *Chingizxonning* sovg'alar va maktubini topshirganlar. Xorazmshoh maktubni o'qigach, bironta so'z aytmay, kelgan elchilarni kuzatib qo'yishni buyurgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Mahmud Yalavoch Xo'jandga ko'chib kelib, bir necha vaqt *Chingizxon* nomidan Movarounnahrni idora qilgan, viloyatlarni boshqarishda *bosqoqlik* mansabini joriy etgan. Shunga ko'ra, u yig'ilgan soliqlarni *Chig'atoyxonga* emas, balki to'g'ridan to'g'ri *Chingizxon* saroyiga yuborib turgan. Bu hol *Chig'atoyga* yoqmas edi, chunki otasi unga suyg'ol qilib bergan hududga Mahmud Yalavoch hokimlik qilgan joylar ham kirar edi. Bundan tashqari, *Chig'atoy* budda diniga e'tiqod qilgani tufayli Mahmud Yalavochning islom diniga qattiq amal qilib, buzilgan shahar va uy-joylarni, iqtisodiy va madaniy hayotni tiklashiga, maktab va madrasalar qurilishiga katta e'tibor berishiga qarshi bo'lgan. Shu tufayli *Chig'atoy* Mahmud Yalavochdan qutulish yo'lini axtarib, fursat poylagan. 1227-yil Mahmud Yalavochni qo'llab-quvvatlab

turgan *Chingizxon* vafot etgan. 1238-yil Buxoroda *Mahmud Torobiy qo'zg'oloni* bo'lgan. Chig'atoy qo'zg'olonda Mahmud Yalavochni aybdor deb topib, uni javobgarlikka tortish uchun Xitoyga jo'natgan. Xitoy manbalarida Mahmud Yalavochni Torobiy qo'zg'olonining sababchisi sifatida javobgarlikka tortilgani yoki tortilmagani haqida ma'lumot yo'q. Yuan sulolasi tarixida ko'rsatilishicha, *O'qtoyxon* hukmronligining so'nggi yili, ya'ni 1241-yil 10-oyida Mahmud Yalavochga Xitoy aholisining ma'muriy ishlarini boshqarish vazifasi yuklatilgan. *Guyukxon* (1246-48) va *Munke* (1251-59) davrida ham Mahmud Yalavoch yuqori lavozimni saqlab qolgan. Xususan, 1251-yil u Pekin shahriga hokim etib tayinlangan. Xitoy manbalarida Mahmud Yalavoch G'arbiy o'lkalar (O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston)ni boshqaruvchi bosh nozir sifatida eslatib o'tilgan. Mahmud Yalavoch Pekinga qisqa muddat hokimlik qilgan bo'lsa-da, shahar qurilishi va obodonchiligi yo'lida katta ishlarni amalga oshirgan va unga ko'plab turkistonliklarni jalb qilgan. Mahmud Yalavochning kichik o'g'li *Alibek* (? — 1281) Sharqiy Turkistonning Ili viloyati hokimi etib tayinlangan. *Xubilay* mo'g'ullar ulug' qooni etib tayinlanganda (1260) u markaziy o'rdaga chaqirtirilib, davlat ishlariga jalb etilgan. 1267-yil — maslahatchi, 1272-yil o'ng qo'l vazir etib tayinlangan. Shunda unga Xenan o'lkasining ma'muriy ishlar boshlig'i vazifasi topshirilgan. 1276 yil u Jyangxuey o'lkalari hokimi etib tayinlangan. Biroq 1281-yil boshida *Alibek* tuxmat balosiga uchrab, xoqon amriga xiyonat qilganlikda ayblanib qatl etilgan.

MAS'UD YALAVOCH, MAS'UDBEK (?-1289) — Turkiston va Movarounnahrni mo'g'ullar nomidan idora etgan amaldor (1239-89). *Mahmud Yalavoch*ning o'g'li. *Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan* so'ng qo'zg'olonchilarga nisbatan yetarli darajada qattiqqo'l siyosat yurgizmagan otasi Xitoyga jo'natilgach, uning o'rniga *O'qtoyxon* tomonidan tayinlangan Mas'ud Yalavoch yarim asr mobaynida har qanday siyosiy to'ntarishlarga qaramay, Uyg'uristondan Xorazmga qadar bo'lgan O'rta Osiyo hududida yashagan o'troq aholi ishlarini idora qilgan. *Munke* davrida Uyg'uristonni ham boshqargan. *Juvayniy* Mas'ud Yalavoch davrida Buxoroda bunyod etilgan binolarni ayniqsa madh etadi. Xususan, malika *Suyurko'ktani beka* (Tulixon bevasi) mablag'i hisobiga qurdirgan “Xoniya madrasasi”, “Mas'udiya madrasasi” kabilarni ko'rsatib o'tadi. Bu ikki bino Registonga yaqin yerda qad ko'targan bo'lsa kerak, chunki *Juvayniy*ning so'zlariga ko'ra, ular Buxoro maydonining ko'rki bo'lishgan. Madrasalarning har birida 1000 tagacha talaba o'qigan. Malika garchi xristian dinida bo'lsa ham, madrasaga 1000 bolish pul ehson qilgan. “Xoniya madrasasi”ning mudarrisi va mutavalliysi mashhur sufiy *Sayfiddin Boharziy* edi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Koshg'ardagi madrasani ham Mas'ud Yalavoch qurdirgan. 1251-yil Mas'ud Yalavoch *Arg'un* bilan Beshbaliqda uchrashgan. 1255-yil kuzida *Hulokuni* Samarqand atrofidagi Konigilda 40 kun ziyofat qilgan. Keyinchalik Temuriylar davrida shuhrat qozongan ushbu mavze nomining tarixiy manbalarda ilk bor uchrashi shu davrga to'g'ri keladi. *Chig'atoy ulusiga* hukmronlik qilish uchun mo'g'ul shahzodalari o'rtasidagi o'zaro kurashlarda taxt da'vogarlari Mas'ud Yalavochga

siyosiy harakat qilishgan. Masalan, 1260-yillarda Chig'atoyning nabirasi *Algu* Mas'ud Yalavoch to'plagan mablag' hisobiga O'trojni *Berkaxondan* tortib olgan. Mas'ud Yalavoch ham otasi boshlagan siyosatni davom ettirib, ulus daromadini xoqon xazinasiga avvaldan to'lab, aholidan *barot* asosida uni ko'paytirib yig'ib olardi. 1273-yil yanvarda *Hulokuiylar* Buxoroni bosib, aholisini qirg'in qiladilar va shaharni 7 kun talon-toroj etib, so'ng o't qo'yadilar. Bosqin paytida shahardagi Mas'udiya madrasasi va katta kutubxona ham yonib ketadi. Faqat 1283-yilda Mas'ud Yalavoch Buxoroni (jumladan, Mas'udiya madrasasini) tiklash tadbirlarini ko'rgan. 1280-yillarda Mas'ud Yalavoch pul islohoti o'tkazgan. U Movarounnahrning 16 shahar va viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib muomalaga chiqargach, mamlakatda tovar va pul munosabatlari tiklana boshlagan. Mas'ud Yalavoch o'zi asos solgan Mas'udiya madrasasiga dafn qilingan.

OQBEK — mo'g'ul lashkarboshisi, Xuloguxonning farmoniga ko'ra Oqbek boshchiligidagi askarlar 1272-yili Movarounnahrda bostirib kirib, Kesh va Naxshob shaharlarini talaydilar.

O'QTOYXON, O'QTOYQOON, O'GEDEY, UGEDEY (1186-1241-yil 11 iyul) — mo'g'ullar davlati ulug' qooni (1229-1241-yil 11 iyul); *Chingizxon*ning birinchi xotini, ya'ni qo'ng'iroq urug'ining ko'zga ko'ringan vakili *Day* no'yon qizi *Bo'rt* *Fujindan* tug'ilgan 3-o'g'il. Mo'g'ullar tomonidan 1219-20-yillarda Movarounnahrning zabt etilishida faollik ko'rsatgan. *Chingizxon* hayotligida O'qtoyni taxt vorisi deb e'lon qilgan. *Chingizxon* o'limidan 2 yil o'tgach, 1229-yilda *Jo'jixon* o'g'lonlari, *Chig'atoy* va *Tulixon* farzandlari hamda *Bilgaday* no'yon va *Ilchidoy* no'yon singari arkoni davlat ishtirokida chaqirilgan buyuk qurultoyda O'qtoy ulug' qoon (bosh hukmdor) etib saylangan. O'qtoy hukmronligi davrida Shimoliy Xitoy butunlay mo'g'ullar qo'l ostiga o'tgan va qoon *Mahmud Yalavochga* bu yurtni boshqarishni topshirgan. O'qtoy Xitoyni zabt etib qaytgach, 1235-yil *Jo'jixon*ning to'ng'ich o'g'li *Botuxon* boshliq chingiziy xonzodalarni Dashti Qipchoq, Bulg'or, Rus, Alaniya, Mojariston, Cherkes, Boshqird va boshqa ellarni fath qilish uchun yuborgan. Ushbu harbiy yurishlar 1240-yilning iyunigacha davom etgan. Bu davrda *Qoraqurum*ni obod qilish ishlari amalga oshirilgan. Xitoydan keltirilgan ustalar va naqqoshlar yordamida ko'rkam ko'shklar, binolar quriladi. Xitoydan Qoraqurumgacha bo'lgan masofada bir-biridan uzoqligi taxminan 30 km dan iborat 37 yomxona bunyod etilgan. Mo'g'ullarning yurishi vaqtida vayronaga aylangan Hirot shahrini qayta tiklashga muvaffaq bo'lingan, aholi ro'yxatga olingan. Mo'g'ulistonning bir qismi, Jung'oriya va Xitoyning bir qismi O'qtoy tasarrufida bo'lgan. Ayshu ishratga berilish, haddan tashqari ko'p sharob ichish oqibatida O'qtoy 1241-yilning 11 iyulida vafot etgan. Taxt ma'lum muddatga uning bevasi *Turakina xotun* qo'lga o'tgan.

O'ZBEKXON — Oltin O'rda xoni (1312-1342).

O'ZLOQSHOH — *Muhammad Xorazmshoh*ning

o'g'li. Chingizxon istilosi davrida Urganchni tark etib, qochib ketgan.

OLG'UXON — XIII asrning 60-yillarida Oltin O'rda ma'murlariga qarshi keskin kurash olib borib, *Chig'atoy ulusini* qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan *Chig'atoyning* nabirasi.

OLOQ no'yon — *Chingizxon* qo'shinining uchinchi qismi qo'mondonlaridan. *Chingizxon* u bilan *Suketu Cho'rbiyini* besh ming kishilik qo'shin bilan Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimiga joylashgan Banokat va Xo'jand shaharlari tomon yuboradi.

OQSHOH (?-1221 yillar) — *Muhammad Xorazmshohning* o'g'li. Xorazmshoh o'limi oldidan Oqshoh va boshqa o'g'li *O'zloqshohni* chaqirib taxtni *Jaloliddin Manguberdi*ga berajagini bildirgan. Aka-ukalar Gurganjni mudofaa etish uchun kelishgan. Sobiq valiahd O'zloqshoh tarafdorlari Jaloliddinni tan olmaganlar. *Jaloliddin Gurganjni* tashlab ketishga majbur bo'lgan. 3 kundan so'ng mo'g'ullarning yaqinlashib kelayotganini eshitgan *O'zloqshoh* va Oqshohlar ham shaharni tark etganlar. Mo'g'ullar ularni ta'qib etib, Xabushon viloyatidagi Vashta qishlog'ida ularga yetib olganlar. Avvaliga shahzodalar mo'g'ullarning bir to'dasini yengishgan, g'alabadan kibrlanib, xavf-xatardan og'oh bo'lmay turganlarida mo'g'ullar ularni qurshab olib, askarlari bilan chopib tashlagan. Mo'g'ullar *Otsiz* va *O'zloqshohning* kallalarini nayzaga ilib mamlakat bo'ylab ko'tarib yurishgan. *Juvayniyning* yozishicha, *O'zloqshoh* va Oqshoh mo'g'ullar tomonidan asir olinib, 2 kundan so'ng qatl etilgan. *Rashidudinga* ko'ra, mo'g'ullar ularni shahzoda ekanliklaridan bexabar boshqalar qatori chopib tashlaganlar.

PAHLAVON MAHMUD, PURYOYVALIY, QITOLI (1247, — 1326, Xiva) — shoir va mutafakkir. Futuvvat-juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri. Fors tilida ijod qilgan. Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra, Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida *Umar Hayyomdan* so'ng faqat ruboiy yozgan shoir Pahlavon Mahmuddir. U *Hayyomning* oddiy taqlidchisi bo'lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan barobar turgan. Pahlavon Mahmud shahar hunarmand-kosiblarining futuvvat-juvonmardlik harakati (XIII-XIV asrlar) tashkilotchisi, ma'naviy rahnamosi bo'lgan. Ko'pchilik ruboiylari mardlik, marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik kabi juvonmardlik g'oyalari asosida yozilgan. Asarlarida tasavvuf ta'limotining nazariy g'oyalari bilan juvonmardlik tariqatining amaliy qoidalari o'zaro omuxta holda bayon qilingan. Ruboiylari fikrning ravshanligi, mazmunning teranligi, obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xorazmda yozilgan qo'lyozma *manoqibda* shoir hayoti haqida ma'lumotlar bor. Uning vasiyatiga ko'ra, jasadi o'zining po'stindo'zlik ustaxonasiga dafn etilgan. Vaqt o'tishi bilan maqbara atrofida *Pahlavon Mahmud majmuasi* vujudga kelgan.

PLANO KARPINI — sayyoh, 1246-yilda u mo'g'ulistonda xoqon qarargohida bo'lib, quyidagilarni yozib qoldirgan: "*Mo'g'ullar sarasinlar va boshqalarning yurtida o'zlarini xo'jayin deb hisblaydilar va eng yaxshi*

hunarmandlarni olib ketib ishlatadilar. Boshqa hunarmandlar esa o'z kasb-korlaridan ularga o'lpon to'laydilar. Ular hunarmandlarga kuniga ma'lum miqdorda non, shuningdek, haftada uch marta bir bo'lakdan go'sht beradilar. Mo'g'ullar go'shtni faqat shahrdagi hunarmandlargagina beradilar".

QORACHA HOJIB — Xorazmshohlar davlatida qo'mondon. O'tror qamali arafasida qal'a noibi *Inalxon*ga yordam berish uchun 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shilgan. Lekin qamal vaqtida u o'z askarlari bilan shahardan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Ammo chingizzodlar Qoracha Hojibning o'z podshohi va valene'matiga sotqinlik qilgani uchun uni barcha tarafdorlari bilan birgalikda qatl etadilar.

QUTLUG' TEMUR (XIV asr) — *Oltin O'rdaning* nufuzli amirlaridan. *O'zbekxonning* xolavachchasi va eng buyuk amiri, *O'zbekxonning* Xorazmdagi voliysi (1321 yildan). Qutlug' Temurning o'g'li *Horunbek* O'zbekxonning qiziga uylangan. Qutlug' Temurning zavjasi *To'rabekaxotun* (*To'rabekaxonim*) bo'lgan. *Ibn Xalduunning* yozishicha, Qutlug' Temur 1321 yil Qrim viloyati noibligidan olinib, Xorazmga yuborilgan. 1328-yil yana Qrimga noib etib tayinlangan. 1338-yil boshlarida Xorazmda bo'lgan sayyoh *Ibn Battuta* Urganchda Qutlug' Temur saroyida qabul qilingan. Qutlug' Temur Qrim va Xorazmda ko'plab quduq, sardoba, madrasa, masjid, minora, saroylar bunyod etgan.

QUTLUG'XON — Jand noibi. 1220-yilning mayida mo'g'ullar Jandga hujum boshlaganda Qutlug'xon qo'rquvdan Xorazm tomon qochib, shaharni butunlay bebosh qoldiradi. Bosqinchilar Jandni egallab, uni talaydilar. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. U 1221 yilning boshlarida Xorazm davlatining sultoni deb e'lon qilingan *Jaloliddin Manguberdi* Xorazm mudofaasiga jiddiy kirishganida, unga qarshi chiqadi. Qutlug'xon boshchiligidagi qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilgan fitna Jaloliddinni *Temur Malik* bilan Xurosonga jo'nashga majbur etdi.

QAZAG'ON, QAZAG'AN, AMIR QOZAG'ON (? — 1357/58) — Movarounnahr amiri (1346-58). So'nggi chingiziyulardan bo'lgan *Qozonxon*ga qarshi isyonga bosh bo'lgan, o'zaro urushlarda *Qozonxon* o'ldirilgan va mamlakat uning qo'l ostiga o'tadi. Qazag'on o'z xatti-harakatlariga qonuniy tus berish uchun chingiziyulardan bo'lgan "soxta xonlar" — avval *Donishmandcha*, so'ngra *Bayonqulixon* yordamida hokimiyatni boshqargan va uning nomidan tanga zarb etib, hokimiyatni qo'lida ushlab turadi. U mamlakatni adolatli boshqarish, tadbir bilan ishlarni olib borish, yurt osoyishtaligini saqlash, el-yurt hojatini chiqarishga alohida diqqat qaratadi. 1351-135-yillari Hirot ostonasida *Malik Husayn* lashkarini tor-mor etadi. Hirot amaldorlari *Malik Husayn*ni ag'darib, o'rniga ukasi *Malik Boqirni* qo'ymoqchi bo'lishadi. Fitnadan xabar topgan *Malik Husayn* 135-1353-yillari Qazag'on huzuriga yo'l oladi. Ma'lum muddatdan so'ng Hirotga qaytgan *Malik Husayn* qayta Hirot taxtni egallaydi. Shu kezlarda Qazag'onning o'g'li *Abdulloh* Samarqanddan lashkar tortib Xorazm tomon yurish qiladi va uni zabt etadi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Qazag'on qishni Soli Saroy va Qoratur (Amudaryo sohilidagi mavze), yozni esa Munk

(hozirigi Baljuvon) shahrida o'tkazgan va ko'p vaqtini ov qilishga sarflagan. Qazag'anni o'ranaytiyon qabilasidan bo'lgan kuyovi *Qutlug' Temur Bo'rildoy o'g'li* ov paytida o'ldirgan. Qazag'onning amir *Kayxusrav* boshliq amirlari *Qutlug' Temurni* Qunduz atrofida o'ldiradilar. Amirzoda *Abdulloh* otasi Qazag'on o'rniga o'tiradi.

QOZONXON, QAZON SULTON (? — 1347) — Chig'atoy ulusi xoni (1332-47). Chig'atoyxon naslidan bo'lgan *Yasavur o'g'lonning* farzandi. 1332-yil Movarounnahrda xonlik taxtiga o'tiradi. Qozonxonning hukmronlik vaqtida zo'ravonlik va zulm kuchayadi, aholining turmushi yomonlashadi. Amir *Qazag'on* ulusning tirik qolgan a'yonlari bilan ittifoq tuzib bosh ko'taradi va Soli-Saroyda qo'shin to'plab, Qozonxonga qarshi jangga tayyorlanadi. 1345-yilda Darayi Zangiy qishlog'i yaqinidagi dashtda har ikki qo'shin to'qnashadi. Bu jangda amir *Qazag'onning* qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. G'olib Qozonxon Qarshi shahar tomon yo'l oladi. Shu yili qishning qattiq sovug'idan Qozonxon lashkari ulovining ko'p qismi qirilib ketadi. Amir *Qazag'on* bu holatdan xabar topgach, zudlik bilan qo'shin jamlab, Qozonxonni yo'q qilmoq maqsadida raqibi tomon yuradi. 1347-yilda ikki tomon lashkarlari yana to'qnash keladi. Jang amir *Qazag'onning* g'alabasi bilan yakun topadi. Qozonxon jang maydonida qatl qilinadi.

RASHIDUDDIN, to'liq ismi Rashiduddin Fazluloh ibn Imomuddavla Abulxayr Hamadoniy, at-Tabib (1247-yil, Hamadon — 1318-yil 18-iyul, Tabriz) — Eron tarixchisi va davlat arbobi. Hulokiylardan *Abaqaxon* davri (1265-1282)da saroy xizmatida bo'lgan. 1298-1317-yillari Erondagi mo'g'ul hukmdorlari *G'ozonxon, Hljaytuxon, Abu Sa'id* saroyida vazir. Amalda davlatni idora etgan. Rashiduddin tashabbusi bilan o'tkazilgan *G'ozonxon* islohotlari mahalliy mulkdorlar ahvolini yengillashtirib, mo'g'ul amaldorlari o'zboshimchaligiga barham bergan. Mamlakatda xo'jalik tiklana boshlagan, yerlar iqto tarzida mo'g'ul harbiy boshliqlariga bo'lib berilgan. Rashiduddin vazirligi davrida mamlakatda eng yirik yer egasiga aylangan. 1318-yil Rashiduddin mulkdorlar ig'vosi bilan *O'ljaytuxonni* zaharlashda ayblanib qatl qilingan. Rashiduddin — yirik olim. U tarixdan tashqari tibbiyot, tabiiy fanlar va ilohiyotga doir risolalar yozgan. Uning "*Jome at-tavorih*" asari Hulokiylar davlati tarkibidagi mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixi, etnografiyasi, tili bo'yicha muhim manbadir.

RUMIY JALOLIDDIN (1207-yil, Balx — 1273-yil, Ko'nya) — shoir va mutafakkir. Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors va turkiy tillarida ijod qilgan. Otasi *Bahouddin Valad* sufiylar va fiqh donishmandi bo'lgan. Shu bois ham sulton *Muhammad Xorazmshoh* (1199-1220) saroyiga taklif etgan. Lekin *Valad* uning taklifini rad etib, maktabdorlik hamda ilmiy-ijodiy ish bilan mashgu'l bo'lgan. Xorazmshoh bilan kelisholmagan *Valad* haj safari bahonasida oilasi bilan Balx shahrini tark etgan. Rumiya Makka yo'lida *Farididdin Attor* bilan uchrashgan. 1220-yil Rum sultoni *Alouddin Kayqubod I* ning da'vati bilan Ko'nya (Kichik Osiyo)ga kelgan. Rumiya Halab, Damashq va Bag'dod madrasalarida o'qigan, mudarrislik qilgan. Rumiya ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi. Rumiya ning she'rlar devoni,

"*Makotib*", "*Ichindagi ichindadir*" ("Fih mo fih") hamda "*Masnaviyi ma'naviy*" kitoblari meros bo'lib qolgan. "*Masnaviyi ma'naviy*" 36 ming baytdan iborat bo'lib, unda so'filylik falsafasining asoslari talqin etiladi.

RABG'UZIY (taxallusi; asl ism-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o'g'li) (XIII asr oxiri — Xorazmning Raboto'g'uz mavzei — XIV asr boshlari) — shoir. Raboto'g'uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlari og'zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarni chuqur o'rgangan. O'zi ham ko'pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha "*Qisasi Rabg'uziy*" (1309-1310) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo'g'ul beklaridan *Nosiriddin To'qbug'aning* topshirig'i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba'zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Qur'oni karimdagi ba'zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va *Abu Ishoq Nishopuriyning* "*Qisas ul-anbiyo*"sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Rabg'uziyning bu asari o'zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda XIII-XIV asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

SAFIY AQRA HOJIB — O'tror shahri qamalining dastlabki kunlaridayoq u, *Badriddin Amid* hamda Sulton Muhammad tomonidan qatl etilgan O'tror qozisining avlodlari mo'g'ullar tomoniga o'tib ketadilar.

SAYFUTDIN AG'ROQ — *Jaloliddinning* lashkar-boshilaridan biri. mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonilgandan so'ng qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda *Jaloliddin* va uning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda Sayfutdin Ag'roq, *A'zam Malik* va *Muzaffar Maliklar* qo'shindan ajralib, o'z viloyatlari tomon ketadilar.

SHAHOBUDDIN XIVAKIY — sarkarda. Xorazmshohlar davlatining harbiy kengashida mo'g'ullarga zarba berishning yagona rejasi muhokama qilinayotganda Xorazmshohlar davlatining bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, mo'g'ullarni qarshi olish, uzoq yo'l safarda toliqib kelayotgan dushmanga hali o'zini o'nqlab olmasdan turib, bor bardam kuch bilan to'satdan zarba berish to'g'risidagi birdan-bir to'g'ri fikrni bayon qilgan Xiva vakili.

SHAMSIDDIN MAHBUBIY, Shamsiddin Ahmad ibn Jamoliddin Mahbubiy Buxoriy (XII asrning ikkinchi yarmi — Buxoro — 1238) — shayx va mashhur faqih. Unvoni: Sadr ash-Shari'a al-akbar (al-avval). Yirik faqih *Jamoliddin Ubaydullo ibn Ibrohim Ahmad* (1151-1233) xonadonida tug'ilgan. Shamsiddin Mahbubiy madrasa tahsilini olgan, fiqhga oid ko'plab asarlar yozgan. *Mo'g'ullar istilosidan* keyin Buxoro xalqining bosqinchilarga qarshi kurashida g'oyaviy rahnamolik qilgan. Uning taklifi bilan mo'g'ullarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlonga *Mahmud Torobiy* boshchilik qilgan. Qo'zg'olonchilar Buxoro shahrini egallagach, bosh sadr *Burhoniddin Shamsiddin Mahbubiy*ni shahar sadri qilib tayinlashga majbur bo'lgan. 1238-yilda Buxoro atrofida

mo'g'ullarga qarshi bo'lgan jangda *Mahmud Torobiy* bilan birgalikda Shamsiddin Mahbubiy ham halok bo'lgan. Buxoro shahridagi Chashmai Ayyubning sharqiy tomonidagi Sherobod mozorida dafn etilgan.

SUBUTOY, SUBEDEY (XIII asr) — *Chingizxonning* yirik sarkardalaridan biri. Shimoliy Xitoy, Movarounnahr, Xuroson, Kavkazorti, Dashti Qipchoq, Rus, Sharqiy Yevropani istilo etishda shuhrat qozongan. Uryanxat qabilasidan. *Chingizxonning* eng yaqin to'qqiz o'rлуq (safdosh)laridan. Janglardan birida bir ko'zidan ajralgan; jasorati uchun "bahodir" unvonini olgan. Subutoy mingboshi sifatida qo'shinning so'l qanotiga (qanot qo'mondoni — *Muxali* no'yon) mansub edi. Chingizxon Movarounnahrni istilo qilayotgan davrda (1219-20) Subutoy Nur qal'asi (Nurota)ni talon-toroj qilgan. So'ngra *Chingizxonning* amriga muvofiq *Jebe* no'yon bilan birga (20 ming kishilik qo'shin bilan) mamlakatdan qochgan *Muhammad* xorazmshohni ta'qib etib, Xuroson, Kaspiy dengizining janubidagi viloyatlar, Kavkazorti shaharlarini vayron qilgan va Shimoliy Kavkazga chiqqan. Bu yerda Kalka jangida ruslar va qipchoqlarning birlashgan qo'shinlarini butkul tor-mor keltirgan. Subutoy rus knyazliklarining chegara hududlari, qipchoqlarning yaylovlarini talon-toroj etib shimolga Volga Bulg'oriyasiga yurish qilgan, biroq bulg'orlarning qattiq qarshiligiga duch kelib, mo'g'ulistonga qaytib ketgan (1224-25). *O'qtoy* qo'noning Xitoyga qilgan yurishida (1230-35) qatnashgan. Subutoy *Botuxonning* Sharqiy Yevropaga qilgan yurishi (1236-42)da bosh harbiy maslahatchi sifatida doimo u bilan birga bo'lgan.

SUKETU CHO'RBIY — Chingizxon qo'shinining uchinchi qismi qo'mondonlaridan. *Chingizxon* u bilan *Oloqno'yonni* besh ming kishilik qo'shin bilan Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimiga joyashgan Banokat va Xo'jand shaharlari tomon yuboradi.

SUYUNSHXON — Buxoro shahar lashkariy kuchining boshliqlaridan.

SA'DIY SHEROZIY (taxallusi; asl ism-sharifi Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin) (1219—1293) — forsigo'y shoir, adib va mutafakkir. Sharq xalqlari orasida Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur. Otasi Sheraz otabegi *Sa'd binni Zanjiyning* mulozimlaridan bo'lgan. Otadan yosh yetim qolgan Sa'diy boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherazda olgach, tahsilni xalifalikning poytaxti, ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodda davom ettirgan. "Nizomiya" va "Mustansiriya" madrasalarida diniy, filologik, tabiiy va aniq fanlarni o'rgangan. O'z davrining dongdor mutasavvifi va faylasufi *Shahobiddin Suhravardiy* hamda yirik ilohiyotshunos *Abdulfaraj Abdurahmon ibn Jazviy* qo'lida tahsil olgan. Madrasani tugatgan Sa'diy Sharq mamlakatlari bo'ylab 20 yillik sayohati davomida, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqqan. Qiyinchiliklar bilan kechgan bu sayohatlarida Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishgan. XIII asr o'rtalarida Sherazga qaytib kelgan Sa'diy dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx *Abu Abdulloh Hafif*

xonaqosida faqirona hayot kechirgan. Fors-tojik adabiyotida Sa'diy maqomi juda yuksak. Xususan, Damashqda "*Bo'ston*" ("Sa'diynoma", 1257) va Sherazda "*Guliston*" (1258) asarlarini yozgan va sherazlik hukmdor *Abubakr ibn Sa'd* (1226-60)ga taqdim qilgan. U o'z asarlarida ona yerga bo'lgan muhabbat, insonparvarlik g'oyalari mohirona bayon etadi. Shoir zolimona hukmronlikni, kuchlilar o'zboshimchaligini qoralaydi. Hukmdorlarni fuqaroparvarlikka chaqiradi. Boylikka intilish va ta'magirlikni koyiydi. Sa'diy g'azalni mustaqil janr darajasiga ko'targan. Sa'diy Sheraziy g'azalchilikdagi o'zigacha olib borilgan tajribalarni rivojlantirib, takomilga yetkazgan, keyin bu janrni *Hofiz Sheraziy* yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Sa'diy g'azallari 4 devondan iborat bo'lib, ular "*Tayyibol*" ("Latif g'azallar"), "*Badoe*" ("Yangi g'azallar"), "*Xavotim*" ("Xotima g'azallar") va "*G'azaliyoti qadim*" ("Eski g'azallar")dan iborat. Sa'diy 2 tilda yoziladigan she'r turi — mulamma" (shiru shakar)ning ham asoschisi. Arab tilini yaxshi bilganligidan u arabcha misra va baytlarni forsiy bilan uyg'unlashtirib, ushbu shaklni ixtiro qilgan. Sa'diy tarjeband janrini ham rivojlantirgan. Sa'diy fors-tojik badiiy nasrining ham asoschisi hisoblanadi. Ungacha faqat maktublar, hujjatlar, ilmiy va tasavvufiy asarlar, adabiy xarakterdagi tarixiy lavhalargina nasrda yozilgan. Bundan tashqari, shoirning "*Sohibiya*" asari, arabcha va forscha qasidalari, qit'a, ruboiy va fardlari ham mashhur. Uning asarlari o'sha davrda yaratilgan ikki "Kulliyot"i orqali saqlangan. Bir umr xalq ichida yashagani, hayotning butun achchiq-chuchugini totgani uchun ham Sa'diy asarlari boshqa Sharq shoirlaridan hayratlanarli darajada hayotiyligi bilan alohida ajralib turadi. "*Bo'ston*" va "*Guliston*" hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so'ngida qissadan hissa tarzida keltirgan she'rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan jahon ilmu adab ahlini birday o'ziga tortib kelmoqda. BMT ning Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga "*Guliston*"dan olingan quyidagi misralar bitilgan: "*Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo'lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a'zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a'zolari ham o'z tinchini yo'qotadi*". Sa'diy o'zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shoir asarlari qadimdan o'zbek xalqi orasida ham mashhur. "*Bo'ston*" va "*Guliston*" madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelgan. *Navoiy* "*Devoni Foniy*"da Sa'diy g'azaliga 22 ta tatabbu' qilgan. *Navoiyning* "*Mahub ul-qulub*", *Avloniyning* "*Turkiy guliston*" asarlari bevosita Sa'diy ta'sirida yaratilgan. "*Guliston*" 1390-91 yildayoq *Sayfi Saroyi* tomonidan "*Gulistoni bit-turkiy*" nomi bilan o'zbek tiliga ijodiy tarjima qilingan. XIX asr ikkinchi yarmida *Ogahiy*, 1909-yil *Murodxo'ja* domla, shuningdek, *Sidqiy Xondayliqiy*, *G'afur G'ulom*, *Muinzoda*, *Shoislom Shomuhamedov*, *Rustam Komilovlar* o'zbek tiliga tarjima qilganlar. "*Bo'ston*" asari *Chustiy* tarjimasida nashr etilgan. 1958-yil Butunjahon Tinchlik qo'mitasining qarori bilan "*Guliston*"ning 700 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangan.

TARMASHIRIN, ALOUDDIN TARMASHIRIN (?-1334) — Movarounnahr sultoni (1326-1334).

Chig'atoylardan bo'lgan *Kebekxonning* ukasi. Tarmashirin yoshligida buddaviyicha *Darmashila* ("dharma, ya'ni Buddha qonuniga itoat etuvchi") nomi bilan atalgan. Islomni qabul qilgach, *Alouddin* deb atala boshlagan. Islomni qabul qilgani, ko'chmanchilar an'alarini buzib, shaharda yashay boshlagani, bu saltanat sharqidagi (Yettisuv va Issiqko'l bo'yidagi) ko'chmanchi mo'g'ullarning noroziligiga va ularni qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'lgan. Qo'zg'olonchilar Tarmashirinni o'ldirganlar, xonlar qarorgohi yana bir necha yilga Ili daryosi bo'ylariga ko'chirilgan.

TO'G'AYXON — Samarqand shahri noibi. *Sulton Muhammadning* tog'asi. Xorazmshoh 110 ming kishidan iborat kattagina kuchni unga qoldirgan edi. Ular qo'l ostida 20 ta fil ham bor edi. Mudofachilar o'rtasida garchi birlik, birdamlik zaif bo'lsa-da, shahar hunarmand ahli mayda savdogarlar, kosibu faqir-fuqarolar qo'shinining quvvatiga, oziq-ovqat jamg'armasining yetarli ekanligiga, Xorazmshohlarning yordam berishiga, jangda zafar qozonishlariga ishonardilar. *Chingizxon* ham Samarqandda jangni shiddatli bo'lishini bilar edi. Shuning uchun ham u askarlarining hammasini to'plashga kirishadi. *Chingizxon* Buxoroda qo'lga tushirgan asirlaridan tashqari o'g'illari *Chig'atoy* va *O'qtoylarning* O'trordan olib kelgan bandilarini ham Samarqand qamaliga safarbar etadi. Samarqandliklarning shahar atrofi aholisi bilan bo'lgan aloqasini to'sib, ularni tashqi ko'makdan mahrum etish maqsadida, avvalambor, u Samarqand tevarak atrofida joylashgan qal'alarni zabt etadi va ko'p askarlar to'playdi. *Chingizxon* shahardan tashqarida joylashgan Ko'ksaroy qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi. Shahar ostonasida uch kun shiddatli janglar davom etadi. Qamalning uchinchi kuni mudofachilar qamalni yorib chiqib mo'g'ullarga hujum qiladilar. mo'g'ullar Xorazmshoh lashkarboshilarining lavangligi va qo'rqqoligidan foydalanib, bir necha o'n ming kishini qirib tashlaydilar. Shunga qaramay, xorazmiylar o'limga tik boqib, jangni kun bo'yi davom ettiradilar. Qamalning beshinchi kuni ommaviy qirg'inning oldini olish maqsadida bo'lsa kerak, lashkar boshliqlari va shahar ahli mo'g'ullarga taslim bo'lishga qaror qiladilar. Qozi va shayxulislom boshchiligida mo'g'ullarga vakillar yuborilaadi. Hatto To'g'ayxon boshliq 20 nafar sarkardalari jon saqlash maqsadida o'z qo'shini bilan mo'g'ullar xizmatiga o'tishni izhor etadilar. Garchi bunday taklif avvalda *Chingizxon* tomonidan qabul etilsa-da, ammo oradan bir oz vaqt o'tgach, To'g'ayxonning 30 minglik qo'shini tunda qurshab olinib, 20 nafar sarkardalari bilan birga qirib tashlanadi.

TULIXON, TULI, TULUY (taxminan 1192-1230) — *Chingizxonning* kenja o'g'li, otasining harbiy ishlar bo'yicha bosh maslahatchisi, sarkarda. Mog'ullar davlatining 4 ulusidan birining egasi. Tulixon ulusi 50 ming xonadondan iborat bo'lgan. Tulixon "yeke(balig') no'yon" (ulug' janob, xoja) va "yezden" (hukmdor) kabi unvonlar bilan atalgan, u otasi mulki(yurt)ga merosxo'r bo'lgan. 1211-1215-yillarda *Chingizxonning* Shimoli Xitoyga qilgan yurishlarida akalari (*Jo'ji*, *Chig'atoy*, *O'qtoy*) bilan birga qatnashgan. Mo'g'ullar istilosi davrida otasi bilan Buxoroni egallagan

(1220). 1220-yil *Tag'ochor no'yon* bilan 80 ming kishilik qo'shinga bosh bo'lib Xurosonning Marv, Nishopur, Hirot kabi shaharlari, Tus, Sabzavor, Jojarm, Niso, Obivard, Saraxs, Qof viloyatlarini 3 oy davomida bosib olib ayron qilgan. So'ngra otasi farmoniga ko'ra, Toliqon, so'ng Badaxshon viloyatlari sari yo'nalib otasi o'rdu-siga kelib qo'shilgan. *Chingizxon* vafotidan o'ng (1227) 129 minglik mo'g'ul qo'shinidan 40 ming nafari hamda mo'g'uliston, Xitoy, Qirg'izlar yeri Tulixon ixtiyoriga berilgan. 1229-yildagi mo'g'ul shahzodalari, no'yonlari qurultoyi *Chingizxonning* 3-o'g'li *O'qtoy*ni buyuk qoon (xon) etib taxtga o'tirganligi qonuniylashtirmaguncha Tuli otasining udeli — Xalxa-Mongoliyani boshqargan. 1229-1230-yillar Xitoy yurishidan qaytishda yo'lda kasal bo'lib vafot etgan. Mo'gul tilida "*tuli*" — ko'zgu manosini bildiradi. Tuli vafotidan so'ng "ko'zgu" atamasini qo'llash taqiqlangan, uning mulkiga xotini *Surxuktani* (kerayit malikasi, xristian dinida bo'lgan) egalik qilgan. Tulixon mo'g'ullar orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan. Bu avlod vakillaridan ulug' qoonlar chiqqan (1248-1634). Tulixonning o'g'li *Xuloku* Erondagi elxoniyalar sulolasiga asos solgan. Ichki Mo'gulistonda hanuzgacha Tulixonning maqbarasi deb hisoblanadigan ko'hna ibodatxona mavjud.

TURKON XOTUN (asli Terkan — "oliy nasabli", "zodagon oilaga xos", "xotun" — malika) (?-1232/33-yil 18/oltinchi oktabr) — *Anushtegin* asos solgan xorazmshohlar sulolasining so'nggi hukmdori *Alouddin Muhammad* xorazmshoh (1200-20)ning onasi. *Juvayniyning* ta'kidlashicha, Turkon xotun qang'li urug'idan bo'lgan qipchoq xoni *Aqranning* qizi edi. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, *Sulton Muhammad* hukmronligi davrida Turkon xotun saltanat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan, uning farmoyishlari va maslahatlari o'g'li tomonidan so'zsiz bajarilgan. Turkon xotunning rahnamoligida saroy ahli, zodagonlar bir necha guruhga bo'linib, o'zaro adovat qilganlar. Qipchoqlardan tashkil etilgan oliy martabali sarkardalar Turkon xotun bilan yaqin bo'lib, aksariyat saroyda sultonga qarshi bo'lib turgan biron-bir guruhga boshchilik qilganlar. Saltanat ishlari deyarli Turkon xotun tomonidan boshqarilgan. Ko'p hollarda *Muhammad* xorazmshoh tarafidan e'lon qilingan hukm va farmoyishlar Turkon xotun tomonidan hech qanday asossiz, kengashsiz bekor qilinadi edi. *Juvayniyning* yozishicha, Gurganch (Urganch) Turkon xotunning xos poytaxti hisoblangan, uning xos saroyi va iqtosi mavjud bo'lgan. Turkon xotun nafaqat sulton, balki moliyaviy ishlar, arkoni davlat va saroy amaldorlari ustidan ham hukmronlik qilgan. *Ibn al-Asirning* qayd etishicha, Turkon xotun 1220-yil Ilol qal'asida mo'g'ullarga asir tushadi va xizmatkorlari bilan birgalikda Toliqonda turgan *Chingizxon* huzuriga yetkaziladi. Asirlar safida bo'lgan vazir *Malik Nosiruddin Hazoraspiy* qattiq qiynoqlarga solinadi va sultonning farzandlari qatori qatl etiladi. Mo'g'uliston tomon o'tlangan *Chingizxon* bir necha kun Samarqandda to'xtashga qaror qiladi hamda Turkon xotun va sultonning omon qolgan xotinlariga xorazmshohlar saltanati uchun aza ochish, ya'ni mo'g'ul askarlari oldiga chiqib baland ovoz bilan yig'lashni buyuradi. *Chingizxon* ko'rsatmasiga binoan, Qoraqurumga keltirilgan Turkon xotun

qashshoqlikda umr kechiradi va shu yerda vafot etadi.

TUVOXON — Farg‘ona vodiysida chig‘atoy-zodalardan (1282-1306). Andijon shahri asoschisi.

TEMUR MALIK (XII asr oxiri — XIII asrning birinchi yarmi) — xorazmshoh Muhammad hukmronligi davrida Xo‘jand hokimi, *Jaloliddin Manguberdin*ing yaqin safdoshi, mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurash olib borgan sarkarda, xalq qahramoni, 1219-yilning dekabrda 3 kunlik jangdan keyin *Banokatni* egallagan *Aloq no‘yon* boshliq 5 ming kishilik mo‘g‘ul qo‘shini Xo‘jandni qamal qilishga kirishadi. Temur Malik ilgariroq har ehtimolga qarshi Sirdaryo o‘rtasidagi orolda, suv 2 shoxga bo‘linib oqadigan joyda, bir mustahkam qal‘a qurdirib qo‘ygan edi. Mo‘g‘ul qo‘shini son va qurol-aslaha jihatdan ustun bo‘lgani bois shaharni mudofaa qilish qiyinlashadi. Natijada, Temur Malik 1000 kishilik otryadi bilan 1220-yilning aprelda orolga ko‘chib o‘tadi va tezlikda qal‘ani jangga tayyorlashga kirishadi. Shahar va qal‘a atrofini dushman halqa qilib o‘rab oladi. Manjaniqdan otilgan toshlar orolga yetmagandan so‘ng mo‘g‘ullar xo‘jandlik yoshlar va ilgari olingan asirlardan hashar tarzida foydalanishga qaror qiladilar. Taxminan 50 ming hasharchi tevarak-atrofdan tosh, shox-shabba va xashak keltirib daryoga tashlaydi, mo‘g‘ullarning 20 ming kishilik qo‘shini esa jangga kirishadi. Temur Malik usti namat hamda sirkali loy bilan suvalgan, o‘q otish uchun darichalari bor kemalar yasatadi. Kunda tongda har ikki tomonga 6 tadan kemada suzib kelib, yovga qirg‘in keltiradi. Oxir oqibat vaziyat tanglashgach, Temur Malik orolni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. U qolgan askarlari va yuklari ortilgan 70 qayiqda Sirdaryoning quyi oqimi bo‘ylab suzib ketadi. Barchinlig‘kent (Qizilo‘rdadan taxminan 50 km janubda bo‘lgan) yaqinida mo‘g‘ullar daryoni to‘sib qo‘yadilar. Temur Malik qirg‘oqqa tushib, dushman bilan jang qiladi. Ko‘p talafot berib, yolg‘iz o‘zi Qizilqum cho‘li orqali 1220-yilning yozida Xorazmga yetib keladi. Askar to‘plab *Jo‘jixon* qo‘shiniga kuchli zarba beradi. Kasba (Yangikent) shahrini mo‘g‘ullardan ozod qiladi. Ammo, saltanatda yuzaga kelgan mushkul siyosiy vaziyat tufayli Xorazmni tark etadi. Temur Malik 1221 32-yillar davomida *Sulton Jaloliddin* bilan birgalikda mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib boradi. Jaloliddin halokatidan keyin o‘z yurtiga qaytadi. Ma‘lum vaqtdan so‘ng Temur Malik mo‘g‘ullar tomonidan qo‘lga olinadi va qatl qilinadi. Temur Malik jasorati haqida *Mirmuhsin* “*Temur Malik*” romani (1986)ni yozgan. *Ashrafiy* “*Temur Malik*” nomli simfonik poema (1963) yaratgan va Navoiy teatrida uning “*Temur Malik*” baleti (1970) qo‘yilgan. Toshkent shahridagi shoh o‘chalarning biriga Temur Malik nomi berilgan.

UMARXO‘JA O‘TRORIY — savdogar, *Chingizxon* tomonidan 1218-yilda Xorazmga jo‘natilgan 500 tuya va 450 musulmon savdogaridan tashkil topgan savdo karvoniga *Umarxo‘ja O‘troriy*, *Hammol Merokiy*, *Faxruddin Dizaki Buxoriy*, *Aminuddin Xaraviy* kabi savdogarlar karvon savdogarlar karvon sarbonlar va o‘rda elchilari qilib tayin etilgan edi.

XOJA MUHAMMAD PORSO (to‘liq ismi Muhammad ibn Mahmud Hofiz al-Buxoriy) (1345, Buxoro — 1419, Madina) — naqshbandiya tariqati namoyandasi. Buxorodagi madrasalarda tahsil olgan. Qur‘on va hadislarni,

kalom ilmini chuqur o‘rgangan. *Bahouddin Naqshband* uni shogirdlikka qabul qilgan va «porso» (taqvodor, dindor) taxallusini bergan. Naqshband vafotidan so‘ng, uning o‘rniga tariqatga rahbarlik qilgan. X.M.P. o‘sha davrdagi siyosiy jarayon-larda faol ishtirok etgan. Movarounnahr hukmdori *Xalil Sulton* bilan muloqotda bo‘lgan, *Shohruh* bilan turli masalalar bo‘yicha yozishmalar olib borgan. Ulug‘bek saroyi (Samarqand va Buxoro)dagi ilmiy munozaralarda qatnashgan. Tasavvuf va islom tarixiga oid “*Risolai qudsiya*” (“Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqidagi risola”), “*E‘tiqod*” (“E‘tiqod haqida risola”), “*Tahqiqot*” (“Tasavvuf istilohlari bo‘yicha risola”), “*Tafsiri Qur‘on*” (“Qur‘on tafsiri”), “*Risolai kalifiya*” (“Karomatlar haqida risola”), “*Muxtasari tarixi Makka*” (“Makka shahrining qisqacha tarixi”), “*Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband*” (“Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti”), “*Haftodu dufirqa*” (“Etmish ikki firqa”) kabi 20 dan ortiq asar yozgan. Shariat va tariqat masalalariga bag‘ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari “*Fasl ul-xitob bi-vusuli-l ahhob*” (“Do‘stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob”) bo‘lib, u o‘rta asrlarda islom ulamolari uchun qo‘llanma vazifasini o‘tagan. Asar 494 ta masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning hammasi islomda bahsli hisoblangan va muallif turli asarlarga suyangan holda bu masalalarni yechib bergan. Asar bir necha marta chop etilgan. Xoja Muhammad Porso ikkinchi marta haj ziyorati paytida kasalga chalinib, Madinada vafot etgan.

XULAGU — Xulagular davlati hukmdori. U 1258-yilda abbosiyalar sulolasiga xotima beradi.

YASUGAY BAHODIR, ESUGAY BAHODIR (? — taxm. 1168) — mo‘g‘ulistonidagi ko‘chmanchi qabilalar ittifoqidan birining rahbari. *Chingizxon*ning otasi. Yasugay Bahodirning otasi — *Bartan bahodir*, bobosi — *Qobulxonlar* ham qabila sardori bo‘lishgan. Yasugay Bahodir kuchli totor qavmi bilan qattiq kurash olib borib, ular yurtini tobe ettirgan. Yasugay Bahodirning beshta o‘g‘li bo‘lgan: *Temuchin* (*Chingizxon*), *Jo‘chi Qasar*, *Qachun*, *Tamuka*, *Bilgutoy* o‘tchikin. Yasugay Bahodir o‘g‘illari va urug‘-aymog‘ining aksariyati oq yuzli va qora ko‘z bo‘lishgan; mo‘g‘ullar qora ko‘zli odamlarni *burjigin* deb atashgan. Shu tufayli Yasugay Bahodir urug‘i *burjigin* — *qiyot* (mo‘g‘ulcha qiyot — kuchli, shiddatli) deb nom olgan. Yasugay Bahodir vafot etganda *Chingizxon* 13 yoshda, ukalari esa yanada yosh bo‘lishgan.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

BAROT (arabcha — maktub, podshoh yoki xon guvohnomasi) — podshoh, sulton, xon tomonidan soliq yoki jarimadan ozod etish; yerga vaqtincha yoki to‘la egalik qilish huquqini beruvchi yorliq. Ma‘lum shart bilan biron mansabni egallash, xalqdan soliq to‘plash, u yoki bu kishidan ma‘lum hajmdagi pulni olish va boshqa uchun hukmdor devoni tomonidan berilgan maxsus yorliq, guvohnoma. Yorliq egasi barotdor deb atalgan. Barot podshoh, xonning tug‘rosi (gerb, davlat nishonasi) va muhri bilan tasdiqlangan.

BAYONQULIXON MAQBARASI — O‘rta Osiyo me‘morligi noyob namunasi (XIV asr o‘rtasi). Buxorodagi

shayxul olam Sayfiddin Boharziy qabri yaqinida Chig'atoy ulusi xoni Bayonqulixon qabri ustiga qurilgan. Maqbara binosi mo'jaz va serhasham. Ayniqsa peshtoqi mayda va nafis naqshga, sirkor bezaklarga boy. Ichkarisi gumbazli, sirkor bezakli ziyoratxona va kichik go'rxonadan iborat. Ular lojuvard, feruza, oq rangli, islmiy va girih naqshli o'ymakor, spool parchinlari bilan ishlangan. O'rta Osiyo maqbaralaridagi mana shunday rangdor manzarali bezak uslubi Shohizinda ansambli (Samarqand) da yanada rivoj topgan. Bayonqulixon maqbarasi Amir Temur davri me'morligining ilk namunalaridan hisoblanadi.

BOSQOQ — mo'g'ullar hokimlik qilgan XIII-XIV asrlardagi mahalliy hokim.

BOTMOM — og'irlik o'lchovi (XIV-XV asrlarda u 20 kg gatt eng bo'lgan).

“BO`STON” — *Sa'diy Sheroziyning* asari. U o`z asarini Damashqda (1257) yozgan va sherozlik hukmdor *Abubakr ibn Sa'd* (1226-60)ga taqdim qilgan. U o`z asarida ona yerga bo`lgan muhabbat, insonparvarlik g`oyalari mohirona bayon etadi. Shoir zolimona hukmronlikni, kuchlilar o`zboshimchaligini qoralaydi. Hukmdorlarni fuqaroparvarlikka chaqiradi. Boylikka intilish va ta`magirlikni koyiydi. “*Bo`ston*” hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so`ngida qissadan hissa tarzida keltirgan she`rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan jahon ilmu adab ahlini birday o`ziga tortib kelmoqda. “*Bo`ston*” madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o`qitilib kelgan.

DINOR — bir misqol (4,8 gr og'irlikda so`qilgan oltin yoki kumush tanga. Erondagi Xulagular davlati va Oltin O'rta xonligining kumush tangalari namunasida *Kebek* ikki xil pul: kumush tanga — “dinator” va mayda kumush tanga “dirham”lar zarb ettiradi. *Kebek* dinorining vazni 2 misqol, dirhamining og'irligi 1/3 misqolga teng bo'lgan.

DIRHAM (yunoncha drochme) — VII asr oxiri (695)dan XIV asrgacha Osiyoning musulmon mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada muomalada bo'lgan pul birligi — kumush tanga. XIV asr oxiridan boshlab kumush pul “tanga” nomi bilan atala boshladi. Dirham Hindistonda boburiylar davrida XVI asrda ham zarb qilingan. Erondagi Xulagular davlati va Oltin O'rta xonligining kumush tangalari namunasida *Kebek* ikki xil pul: kumush tanga — “dinator” va mayda kumush tanga “dirham”lar zarb ettiradi. *Kebek* dinorining vazni 2 misqol, dirhamining og'irligi 1/3 misqolga teng bo'lgan.

DUVAXON MAQBARASI — Xo`jand shahrida bino qilingan va keyinchalik vayron bo`lib ketgan maqbara.

ELXON — XIII-XIV asrlarda Erondagi mo'g'ul hukmdorlari unvoni; elxoniyalar — mo'g'ul xonlari sulolasi.

ESKI O`ZBEK TILI — o`zbek tilining XIV-XVI asrlardagi shartli nomi. Qadimgi turkiy tilning bevosita davomi, uning rivojtopgan bosqichi. Eski o`zbek tili “chig'atoy tili” deb ham atalgan. XI-XII asrlardan boshlab Eski o`zbek tilining roli birmuncha kuchaydi. Eski o`zbek adabiy tiliga jonli tildan ko`plab grammatik forma va elementlar kirib kela boshladi. Lekin u jonli tildan jiddiy farq qilardi. XIII-XIV asrlardagi yozma yodgorliklar tilida Eski o`zbek tili xususiyatlari to`la mujassamlashgan edi. *Xorazmiyning* “*Muhabbatnoma*”, *Durbekning* “*Yusuf va*

Zulayho” kabi asarlari sodda tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Eski o`zbek tili taraqqiyotida *Lutfiy*, *Atoiy*, *Sakkokiy*, *Yaqiniy*, *Amiriy*, *Mir Haydar*, *Muqimiy*, *Gadoiy*, *Bobur* kabi adiblar munosib hissa qo`shdilar. Bu sohada *Alisher Navoiyning* xizmatlari g`oyatda katta. *Navoiy* asarlari tili XV asr eski o`zbek adabiy tilining namunasi bo`lib o`sha davr til xususiyatlarini o`rganishda katta manbadir.

“GULISTON” — *Sa'diy Sheroziyning* asari. U o`z asarini Sherozda (1258) yozgan va sherozlik hukmdor *Abubakr ibn Sa'd* (1226-60)ga taqdim qilgan. U o`z asarida ona yerga bo`lgan muhabbat, insonparvarlik g`oyalari mohirona bayon etadi. Shoir zolimona hukmronlikni, kuchlilar o`zboshimchaligini qoralaydi. Hukmdorlarni fuqaroparvarlikka chaqiradi. Boylikka intilish va ta`magirlikni koyiydi. “*Guliston*” hayotiy hikoyatlardan tashkil topgani, donishmand shoirning bu hikoyatlar so`ngida qissadan hissa tarzida keltirgan she`rlari real turmushdan chiqarilgan xulosalar ekanligi bilan jahon ilmu adab ahlini birday o`ziga tortib kelmoqda. BMT ning Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga “*Guliston*” dan olingan quyidagi misralar bitilgan: “*Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo`lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabi dirlar. Binobarin, zamon uning bir a`zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a`zolari ham o`z tinchini yo`qotadi*”. “*Guliston*” madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o`qitilib kelgan.

HARBIY TAKTIKA — jangda ko`zlangan maqsadga erishish uchun aniq sharoitga mos ravishda jang olib borishning tanlangan shakli va usuli.

ISKANDARI SONIY — Ikkinchi Iskandar. *Muhammad Xorazmshoh* Iskandar Zulqarnaynga o`zini tenglashtirilib shu nom bilan atalgan.

JETA (Qaroqchi-qoloqlar) — Movarounnahr chig'atoylari yettisivlik chig'atoylarni shu nom bilan haqorat qiladilar.

“JOMEAT-TAVORIX” (“Tarixlar to`plami”) — XIII asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan tarixnafis *Fazluloh Rashiduddin*ning tarixga oid asari.

KALON — dehqonlardan hosilning 1/10 qismi hajmida olinadigan yer solig'i.

KESHIK (turkcha kezik — navbat, gap) — xonning xos gvardiyasi. *Chingizxon* 1203-yil Sharqiy mo'g'ulistonda hokimiyatni o`z tasarrufiga kiritgach, Keshik tuzilishiga alohida e'tibor qaratadi. Keshik kunduzgi xos soqchilar va tungi xos soqchilardan iborat etib tuziladi. Kunduzgi xos soqchilar (turgut) ning soni 70, tungi xos soqchi (kebteul) larning soni 80 nafardan iborat bo'ladi. Keshik tarkibiga, shuningdek, o`qchilar (xo`rchi), oshpazlar (baurchi), axtachilar, xo`jalik ishlari mutasaddi (cherbi) lari ham kiritilgan. Mo'g'ul zodagonlari va no`yonlar farzandlaridan tashkil qilingan keshik tarkibidan harbiy harakatlar chog`ida qo`shinning ilg`orida joylashgan, tinchlik onlarida esa saroyda soqchilik bilan mashg`ul bo`lgan bahodirlar ham o`rin olgan. Keshik soqchilari har 3 kunda navbat almashgan. 1206-yil *Chingizxon* keshik tuzilishiga sezilarli o`zgarishlar kiritadi, uning sonini 10 ming nafarga yetkazadi. Yuan imperiyasining asoschisi *Xubilay* davrida keshikning miqdori 12 ming kishidan iborat bo'lgan. Keshik tarkibini muttasil to`ldirib turish maqsadida har bir

mingboshining farzandi o'zi bilan 1 qarindoshi va 10 navkarni, o'nboshining o'g'li esa, 1 qarindoshi va 3 navkarni boshlab kelgan. Keshik qattiq tartib va intizomga bo'ysundirilgan. O'z navbati chog'ida xizmatga kelmagan xos gvardiyasi birinchi marta 30 tayoq, 20marta 70 tayoq, 3-marta esa, oldin 37 tayoq urish bilan jazolangan, so'ng keshikdan butunlay haydalgan. Keshik faqat xonning o'zi bevosita qo'mondonlik qilgan harbiy yurishlarda qatnashgan. Lashkargohdaquyilgan xon qarorgohining oldida bahodirlar, o'n tomonida o'qchi va kunduzgi xos soqchilar, keshikning qolgan 7 ming nafari chap tomonida joylashgan. Keshik saflaridan *Chingizxon* barpo etgan armiyaning ko'pdan-ko'p atoqli sarkardalari yetishib chiqqan.

KIBOR — ma'mur; zodagon.

MAHMUD TOROBIY QO'ZG'OLONI (1238) —

Buxoroda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati. Harbiy rahbari — *Mahmud Torobiy*, g'oyaviy mafkurachisi — *Shamsuddin Mahbubiy*. Chig'atoy ulusida mo'g'ullar istibdodi ostida ezilgan va zulmidan to'yan mahalliy aholi qo'zg'olon ko'tarishga bir necha marta harakat qilgan. Buxorodan 20 km g'arbdagi Torob qishlog'i (hoz. Buxoro viloyati Jondor tumani hududi) da boshlangan qo'zg'olon bu kurashning cho'qqisi hisoblanadi. Torob qishlog'i va uning atrofidagi dehqonlar va hunarmandlar majlislarida o'zaro kengashib, mo'g'ullar zulmiga qarshi ochiq kurash boshlashga qaror qilganlar. Qo'zg'olonchilar *Mahmud Torobiy* boshchiligida Buxoroga yurishdi va shahardagi *Malik Sanjar* qasri (1206-yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari qurdirgan)ni egallab, uni o'zlariga qarorgoh qilib olishdi. Ular safiga ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shilgan. Torobiyning opasi ham qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, bu tabib va duoxon ayol o'z mardligi, kuch-g'ayrati, jasorati va dushmanga nafrati bilan qo'zg'olonchilar orasida alohida ajralib turgan. *Juvayniyning* yozishicha, yirik tasavvuf shayxi va aqoid ulamosi *Shamsuddin Mahbubiy* qo'zg'olonchilarning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'shin va xalq o'rtasida katta tashviqot ishlarini olib borgan. Ular mo'g'ul bosqinchilari va ular xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishgan. Buxoro butunlay qo'zg'olonchilar qo'liga o'tgan. *Mahmud Torobiy* Robia saroyiga joylashib, sulton qilib ko'tarilgan, bosh sadr *Burhoniddin* uning talabi bilan *Shamsuddin Mahbubiy*ni shahar sadri etib tayinlagan. Mo'g'ul qo'shinlari va bosqinchilari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch kuch to'play boshlaganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Karmanadan yuborilgan mo'g'ul qo'shinlari Buxoro atrofida tor-mor keltirilgan, jangda 10 ming mo'g'ul askari o'ldirilgan. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni quvib, Karmanagacha borganlar. Biroq bu jangda *Mahmud Torobiy* va *Shamsuddin Mahbubiy* ham halok bo'lishgan. Qo'zg'olonga *Mahmud Torobiyning* 2 ukasi: *Muhammad* va *Ali* rahbarlik qilganlar. Mo'g'ullar ularga qarshi *Eldiz No'yon* va *Chekan Qurchi* boshliq yangi kuchlarni tashlashgan. Karmana yaqinidagi Raboti Malik (hozirgi Navoiy tumani markazi Malik rabot)da bo'lgan shiddatli jangda qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan, ulardan 20 ming kishi, jumladan, *Muhammad*

hamda *Ali* ham halok bo'lgan. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgan. Mo'g'ullar Buxoroga kirib, shahar va uning atrofidagi kishilarni talashga va o'ldirishga kirishgan. Xo'jandda turgan *Mahmud Yalavochning* bu yerga kelishi bilan Buxorodagi qirg'in to'xtatilgan. U talangan va vayron etilgan shahardan hech qanday soliq yig'ib bo'lmasligiga Chig'atoyni ishonтира olgan. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchrasa ham, u izzsiz ketmagan. Mo'g'ul ma'murlari endilikda mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lib, o'lpon va soliqlarni kamaytirishgan. Ma'lum muddat turli o'zboshimchaliklarga chek qo'yilgan. Chig'atoy ulusini mo'g'ul xoqon (qoon)lari nomidan boshqargan *Mahmud Yalavoch* va uning o'g'li *Mas'ud Yalavoch* bu paytda ham xoqonlar manfaatini ko'zlaydigan, ham mahalliy xalqqa xayrixoh nozik siyosatni yuritishgan.

MALIK (arabcha — ega, hukmron) — islomgacha bo'lgan arab davlatlarida hukmdor. Islom vujudga kelishi bilan "malik" atamasi musulmon bo'lmagan hukmdorlarga (monarx ma'nosida) nisbatan qo'llanildi. Arab xalifaligi parchalanib ketgach, xalifalik hududida vujudga kelgan mustaqil davlatlarning hukmdorlari malik deb atala boshlandi. Qur'oni karimda "malik" istilohi podshoh, shuningdek, Allohning sifatlaridan biri ma'nosida qo'llaniladi. Sosoniylar davriga oid "*Tansara maktublari*" asari (260-yil)da aytilishicha, malik unvoni shohanshoh tomonidan faqat shoh xonadoni a'zolari va chegara hududlaridagi "*alanlar, g'arbiy viloyatlar, Xorazm va Kobul hokimlari*"ga berilgan. Xorazmshohlar davlatida malik harbiy unvoni 10 ming kishilik otliq qo'shinga qo'mondonlik qilgan kishilarga berilgan (mas., A'zam malik, Temur malik va b.). Bu unvonga kamdan kam hollarda aholining quyi qatlamiga mansub kishilar sazovor bo'lishgan. Janglarda alohida jasorat ko'rsatgan maliklarga xon unvoni berilgan. Mo'g'ullar bosib olgan ba'zi mamlakatlarda (XIII-XIV asrlar) mahalliy hukmdorlar malik deb atalgan.

"MASNAVIYI MA'NAVIY" — fors-tojik poeziyasining yirik namoyondasi *Jaloluddin Rumi*ning asari. Asar 36 ming baytdan iborat bo'lib, unda so'fiylik falsafasining asoslari talqin etiladi.

MA'SUDIYA MADRASASI — Buxorodagi madrasa. Madrasada mingga yaqin talaba o'qigan. 1273-yilda Xulaguxonning askarlari tomonidan bu madrasa yondiriladi.

"MIFTOH UL-FUTUH" ("Zafarlar kaliti") — *Amir Xusrav Dehlaviyning* asari.

MULKI DEVONIY — davlat yerlari.

MULKI VAQF — masjid, madrasa, xonaqoh, mozar va maqbaralar ixtiyoridagi yerlar.

MULKLAR — xususiy yerlar. Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo'lib, ular "iqto" yoki "suyurg'ol" yerlari deb yuritilardi.

MULKI INJU-XON — noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar.

MO'G'UL — chet ellik, musofir, daydi, muhojir.

MO'G'ULLAR ISTILOS — *Chingizxon* boshchiligidagi mo'g'ullarning Osiyo va Sharqiy Yevropaga qilgan bosqinchilik yurishlari (XIII a.). Mo'g'ul no'yonlari harbiy

tashkilot tuzib, ko'p xalqlarni bosqinchilik urushiga tortdilar. Ular qo'shinining asosiy kuchi — ko'chmanchilardan iborat ko'p sonli va juda harakatchan o'tliq askarlar edi. Ular bosqinchilik urushlarida bosib olgan mamlakatlarining harbiy kuchi va texnika yutuqlaridan ham foydalanganlar. Qo'shin birlashgan qo'mondonlikka ega bo'lib, qattiq intizom va yaxshi qurollanganligi hamda o'zining jangovar sifatleri bilan qo'shni mamlakat qo'shinlaridan ustun turar edi. Osiyo va Sharqiy Yevropaning juda ko'p mamlakatlaridagi ichki nizolar va rahbar tabaqaning xoyinligi mo'g'ullarning osonlik bilan g'alabaga erishishiga qo'l keldi. Mo'g'ullar istilosi *Chingizxon* boshliq mo'g'ullar davlatining tashkil topishidan boshlanib, XIII a. oxiriga qadar davom etgan.

NAJMIDDIN KUBRO MAQBARASI — Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (XIV asr 20-30-yillari). Sufiylikdagi kubraviylik oqimining asoschisi, shoir, olim va shayx Najmiddin Kubro nomi bilan bog'liq. Maqbara 3 xona (Najmiddin Kubro sag'anasi joylashgan katta xona, bir necha qabrlari bo'lgan kichik xona va ziyoratxona) dan iborat. Miyonsaroy va xonalar gumbaz tomli, o'zaro bir-biri bilan bog'langan. Bosh tarsi chuquq ravoqli, peshtoq-gumbazli, koshinkori naqsh bilan hoshiyalangan, yozuvlarida qurilgan yili saqlangan, Peshtoq yuqorisi muqarnasli sharafa bilan yakunlangan. Peshtoq devorlari va sag'ana oq, ko'k, havo rang va jigarrang koshin bilan qoplangan. Yog'och o'ymakorligida ishlangan eshigiga islamiy naqsh tushirilgan. Katta xonaning ichki gumbaz osti bag'ali qalqonsimon, 16 qirrali, 4 burchagi toqu ravoqli, ganchkori muqarnaslar bilan bezatilgan. Xona o'rtasidagi sag'ana o'ziga xos milliy uslubda ishlangan. Bu keyinchalik Xorazm me'moriy yodgorliklarida namuna sifatida keng qo'llanilgan. Najmiddin Kubro maqbarasida Xorazm me'morligida musavvir va koshinpazlar tomonidan erishilgan barcha yutuqlar namoyon bo'lgan.

NAVKAR, NUKAR (mo'g'ulcha noxor — do'st, o'rtoq) — 1) mo'g'ul xonlari, no'yon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Navkarlar — qurollangan erkin kishilar bo'lib, no'yonlarga o'z ixtiyorlari bilan xizmat qilishgan va ularning qaramog'ida bo'lishgan. Urush paytida navkar avvalambor jangchi, tinchlik paytida esa qo'riqchi va "uy kishisi", xonadonga yaqin kishi bo'lgan. Navkarlar xizmatlari evaziga dastavval uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yarog', keyinchalik esa harbiy o'ljaning bir qismi, in'om etilgan yer mulki va qarollar bilan taqdirlanganlar, bu esa ularni yirik zodagonlarning vassallariga aylanishlariga imkon bergan. Xizmat pillapoyasida o'z iste'dodini namoyish etgan ko'pgina avkarlar keyinchalik turli harbiy bo'linma va qismlarga qo'mondon bo'lganlar; 2) Amir Temur va temuriylar davrida navkar atamasi — "xizmatkor", "askar", "qo'shin" ma'nolarida qo'llanilgan.

NAYMAN, NAYMANLAR — o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, no'g'oy va oltoy xalqlari tarkibiga kirgan qabila uyushmasi. 1204-yilda naymanning katta bir qismi mo'g'ullarga tobe bo'ladi. Mo'g'ullarga itoat etmagan naymanlar esa Balxash ko'lining g'arbidagi cho'llarda, janubda Olako'l bo'ylarigacha bo'lgan yerlarda, Sirdaryo bo'ylarida, Ulug'tog' hamda Ishim daryosi bo'ylarida

yashaganlar. Sirdaryo bo'ylaridagi naymanlarning katta qismi keyinchalik Xorazmga va Movarounnahrda ko'chib kelib o'mashganlar. Naymanlarning deyarli ko'pchiligi XIII asr boshlarigacha xristian dinida bo'lgan. Ularning bir qismi esa qora kidanlar ta'sirida budda dinini ham qabul qilganlar. Ammo nayman e'tiqodida ibtidoiy dinlarning, xususan shamanizm qoldiqlari kuchli bo'lgan. XIII-XIV asrlar davomida naymanlar islom dinini qabul qilganlar.

"NUH SIPEHR" ("falakning to'qqiz gumbazi") — *Amir Xusrav Dehlaviyning* asari.

NO'YON, NO'YONLAR (mo'g'ulcha noyon, noyan, noyin — janob, knyaz) — o'rta asrlarda mo'g'ulistonidagi oliy tabaq vakillari. Dastlab (XI a. — XII asrning birinchi yarmi) qadimgi mo'g'ullarning aslzoda urug' boshliqlarini anglatgan, so'ngra (XII asrning ikkinchi yarmida) — cho'l zodagonlarini, urug'chilik tuzumi yemirilib mulkdorlik munosabatlari shakllanayotgan davrda ajralib chiqqan aslzodalarni bildirgan. *Chingizxon* imperiyasi tashkil topgunga qadar no'yonlar o'zlariga taalluqli qavmlarga boshchilik qilgan. Mo'g'ullar davlatida (XIII-XIV asrlar) no'yon — chingiziy shahzodalar, tumanboshilar, mingboshilar, yuzboshilar, umuman barcha "oq suyaklar" ("sagan yasun"). No'yonlar aksariyat hollarda sechan (chechan), bayan, batur kabi yuqori unvonlarga sazovor etilgan. Etnik tarqoqlik sharoitida (XIV-XVII asrlar) noyon — markazlashgan xon hokimiyatidan mustaqil bo'lgan mulk hokimlari; ular mustaqil tashqi siyosat yurgizib, o'zlariga qaram aratlarni ezishga to'la huquqli bo'lganlar.

PALAXMON — tosh otar; harbiy qurol.

PARVON JANGI (1221) — *Jaloliddin Manguberding* mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan janglaridan biri. *Jaloliddin* o'zining turli qabilalardan tashkil topgan qo'shini (60-70 ming kishi) bilan mo'g'ullarga qarshi chiqib, Parvon yaqinida jang maydonini egallagan. U bu yerda turib dastavval Toxaristondagi Valiyon (yoki Valishton) qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinini tor-mor etgan. *Chingizxon Jaloliddinga* qarshi *Shiki-Xutuxu* no'yon boshchiligida qo'shin (30 ming, boshqa manbaga ko'ra, 45 ming kishi) jo'natgan. Parvondan bir farsax (oltinchi 7 km) masofadagi yerda bo'lgan jangda musulmonlarning o'ng qanotiga *Jaloliddinning* qaynotasi, qang'lilar qo'shini sardori *Amin al-mulk*, so'l qanotiga *Sayfuddin Ag'roq* turkman xalajlardan tashkil topgan qo'shinga boshchilik qilgan. Jang ikki kun davom etgan, *Juvayniyning* hikoya qilishicha, *Shiki-Xutuxu* no'yon ikkinchi kunga o'tar kechasi dushman mo'g'ullarga madad kuchlari yetib kelibdi deb o'ylashi uchun o'z qo'shiniga kigiz va choponlar orasiga poxol solib va bosh kiyim kiygizib qo'riqchi yasashni, ularni qo'shimcha otlar ustiga o'tqazib, tuyalar karvoni va aravalar orasiga saflashni amr qilgan. Dastlabiga bu ayyorlik ish bergan, ammo, *Jaloliddin* qo'shiniga dalda berib ularni olg'a boshlagan. Mo'g'ullar qattiq jangdan holdan toyganlarida *Jaloliddin* karnay chaldirib qo'shiniga otlarga minishga farmon bergan va umumiy hujumga o'tgan, shu bilan jang taqdiri hal bo'lgan. *Shiki-Xutuxu* faqat ozgina jangchilari bilan *Chingizxon* huzuriga qaytib kelgan. Parvon jangi mo'g'ullarning bu urushdagi eng katta mag'lubiyati bo'lgan. Mo'g'ullar bosib olgan ko'pgina shaharlarda xalq

qo'zg'olon ko'tarib mo'g'ul noiblarini o'ldirganlar. Ammo, Parvon jangidagi g'alaba *Jaloliddin* uchun halokatli oqibatlariga olib kelgan. Jangdan so'ng *Jaloliddin*ning lashkarboshilari o'lja (ajoyib arab oti) ustida janjallashib qolganlar. *Jaloliddin* ularni tinchita olmagan. *Sayfuddin Ag'roq*, *A'zam malik* va *Muzaffar malik* uni tark etganlar. *Jaloliddin*ning yonida faqat *Amin al-mulkgina* o'z qang'lilari bilan qolgan, xolos.

PAYZA, PAYDZA (xitoy-mo'g'ulcha) — yorliq. *Chingizxon* Yarasiga binoan joriy etilgan, oltin, kumush, cho'yon, jez hamda yog'och taxtachalarga bitilgan, mo'g'ul xonlari tomonidan mo'g'ullar hukmronligiga tobe mamlakatlarga tayinlangan noiblar, shuningdek, chopar va elchilarga, ularning lavozimlariga qarab beriladigan yorliq, buyruq. Noiblarga hamda elchilarga beriladigan oltin payzaga xonning buyruqlari yozilgan va ular noib yoki elchiga cheksiz vakolat huquqini bergan. Payza egasi istagan narsani talab qilishga haqli bo'lgan, uning talabi so'zsiz bajarilgan. Mahalliy hukumat vakillari payza bor ma'murga ot, yo'l ko'rsatuvchi kishi, oziq-ovqat va boshqa ximatlarni ko'rsatishga mas'ul bo'lganlar. Payzaning darajasiga qarab unga qush yoki hayvon rasmi solingan. Eng oliy darajali payza yuziga yo'lbars surati tushirilgan. Bu turdagi payza hukmronlik va daxlsizlik belgisi bo'lib ximat qilgan. Payzaga ega shaxslar talanish yoki jazolanishdan mustasno edilar.

QOPCHUR — chorva mollari bosh sonining 1 foiz miqdorida olingan soliq.

QORAUNAS (duragay) — Yettisuvlik mo'g'ullari Movarounnahrda yashovchi mo'gullarga nafrat ko'zi bilan boqib, ularni shunday nom bilan kamsitib ataydilar.

QUTLUG' TEMUR MINORASI — Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (1321-33); *Sulton Takash* maqbarasi yaqinida. O'rta Sharqdagi eng baland minoralardan (bal. 62 m). Pishiq g'ishtdan qurilgan minora yuqori tomon ingichkalashib boradi; minora mavj usulida terilgan g'ishtli belbog'lar va kitobalar bilan bezatilgan. Quyi qismida *Qutlug' Temur* va Oltin O'rda xoni *O'zbekxon*ning nomi kufiy yozuvida bitilgan. Jome masjid (saqlanmagan) tomi orqali eshikdan minoraga kirib, aylana zinapoya orqali yuqoriga chiqilgan. Quyi qismida muazzin uchun yog'ochdan ishlangan maxsus joy qoldiqlari saqlangan.

ROBIYA SULTON BEGIM MAQBARASI — Turkiston shahri (Qozog'iston) dagi me'moriy yodgorlik (XV asr). Yassaviy majmuasi tarkibida. *Ulug'bek*ning qizi *Robiya Sulton begim*ga atab qurilgan. Maqbara tarhi 8 qirrali, bosh tarzidagi peshtoq bo'rttirib ishlangan. Ichki qismi ham 8 qirrali, uning har bir qirrası ravoqli tokchalarga bo'lingan. *Robiya Sulton begim*ning marmar qabr toshi turli o'yma naqsh va yozuvlar bilan bezatilgan. 1898-yilda maqbara butunlay buzib tashlangan. 1972-1975-yillarda qayta tiklash va ta'mirlash ishlari olib borilgan.

SAMARQAND MUDOFAASI (1220) — mo'g'ullar istilosi davrida shahar aholisining qahramonona kurashi. 1220-yil 10-fevralda *Chingizxon* Buxoroni egallagach, o'z qo'shinini xorazmshohlar davlatining ikkinchi poytaxti bo'lgan Samarqandni egallash uchun tashlaydi. *Muhammad Xorazmshoh* Samarqand mudofaasiga alohida

e'tibor qaratgan. Shahar mudofaasida 110 ming jangchi, 20 ta jangovar fil turgan. Samarqand mudofaasiga *Tog'ayxon*, *Borsmasxon*, *Sirsig'xon*, *Uloqxon* (*O'ltonxon*), *Alp Erxon*, *Shayxxon* va *Boloxon* kabi amirlar bosh bo'lgan. Mo'g'ullar hujumi 8-martda boshlangan. Qamal paytida *Chingizxon* harbiy hiyla ishlatgan. U shahar qamali uchun qo'shinining ozgina qismini ajratgan, asosiy kuchlarni esa pistirmaga qo'ygan. Samarqand mudofaasi rahbarlari bu hiylaga uchib, mo'g'ullarning ozligini ko'rib shahardan qo'shinining katta qismini tashqariga chiqarganlar. Mo'g'ullar yolg'ondan chekinishgan, samarqandliklar ularni ta'qib eta boshlashgan. Pistirmaga duch kelgan Samarqand qo'shini qurshab olinib tor-mor qilinadi. *Ibn al Asir*ning yozishicha, mo'g'ullar 70 ming jangchini, *Juzjoni*ning xabariga ko'ra, esa 50 ming jangchini o'ldirganlar. So'ngra shahar devorlari tagiga son-sanoqsiz asirlarni haydab keltirib ularni jangovar tartibda yuzlik va o'nliklarga ajratib, har bir bo'linmaga bayroq topshirganlar. Samarqand mudofaachilarining jangovar fillar bilan ikkinchi bor shahardan chiqib jang qilishlari ham samarasiz chiqqan. Mo'g'ullar hujumni kuchaytirib, shaharni manjaniqlardan to'pga tutganlar. Shaharda sarosimalik boshlangan va nihoyat *Chingizxon* huzuriga shahar qozisi, shayxulislom va boshqa e'tiborli shaxslar boshchiligida vakillar jo'natilgan. Mo'g'ullar shaharga Namozgoh darvozasidan (shaharning shim.-g'arbiy tomonidan) bostirib kirib (12-mart) shahar istehkomlarini buzishga kirishganlar. Biroq shahar aholisi qarshilik ko'rsatishni davom ettirgan. *Alatxon* boshliq 1000 kishilik qo'shin mo'g'ullar safini yorib o'tib, keyinchalik *Muhammad Xorazmshoh*ga borib qo'shilgan. Qolgan jangchilar (20 ming kishi) *Tog'ayxon*, *Borsmasxon* va *Uloqxon* boshchiligida qal'aga yashirinib olib, 17-martgacha qarshilik ko'rsatishgan. Mo'g'ullar Jo'yi Arziz kanalini buzganlaridan so'nggina qal'ani olishga muvaffaq bo'lgan. Suv arkning atrofini bosib, uning devorlarining bir qismini yuvib ketgan. Qal'a taslim bo'lgandan keyin tirik qolgan himoyachilar (1000 kishiga yaqin) *Muhammad Xorazmshoh* tomonidan 1212-14-yillarda qurdirilgan Jome masjidiga yashirinib olishgan. Mo'g'ullar masjidga neft quyib, u yerdagi barcha odamlar bilan birga uni yondirib yuborishgan. 30 ming turk-qang'li 20 ta amirlari bilan qatl etiladi. Qozi, shayxulislom va ularga tegishli kishilar (50 mingdan ortiq kishi)dan boshqa Samarqand aholisining katta qismi qamal ishlari uchun haydab ketiladi. Shaharning deyarli barcha hunarmandlari (30 ming kishi) asir qilib olib ketiladi. Tirik qolgan shaharliklarga 200 ming dinor tovon to'lash sharti qo'yilgan.

SARBADORLAR QO'ZG'OLONI — Eron va O'rta Osiyoda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni (XIV a.). Birinchi yirik qo'zg'olon 1337-yil Sabzavor hokimining jiyani Boshtin qishlog'iga kelib, aholiga zulm qilishi natijasida ko'tarilgan. Sarbadorlar maqsadga erishish uchun ozodlik yo'lida dorga osilishga ham tayormiz degan shior ostida mo'g'ul bosqinchilari va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi kurash olib boradilar. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'g'ullar hukmronligini tor-mor qilib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo'lib, u 1337-

yildan 1381-yilgacha qariyb 45 yil hukm suradi. Sarbadorlar asosan dehqonlar, hunarmandlar, shayxlar va qullardan iborat edi. Ularning hukumati asosan demokratik tartibga qurilgan bo'lib, unda tabaqalar deyarli bir-biridan farq qilmagan. Masalan, qullar to'la ozod etilmagan bo'lsa ham, ular boshqalar bilan bir qatorda sanalganlar. 1353-yil oxirida mo'g'ul elxonini o'ldirib, o'rdasini yakson qilib Gurgon (Astrobod)ni ham o'z davlatlariga qo'shib oldilar. Bu davrga kelib Sarbadorlar davlatiga butun Jan. Xuroson ham kirgan. 1365-yil Samarqandda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Sarbadorlar qo'zg'oloni boshlanadi. Qo'zg'olonga *Mavlonozoda* rahbarlik qildi. *Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof, Xo'rdaq Buxoriy* unga yordamchi bo'ldilar. Shaharni mudofaa qilish maqsadida shaharning barcha darvozalarini berkitib, ko'chalar, bog'lar atrofiga g'ovlar qurdirdilar. Mo'g'ullar ikki kun hujum qilib Samarqandni ololmadilar. Uchinchi kuni Samarqand atrofi qishloqlarini talab, Movarounnahrni tark etdilar. Sarbadorlarning g'alabasi *Amir Husayni* xavotirga soldi. Amir Husayn Balx, Badaxshon, Qunduz, Bag'lon, Andxud, Shibirg'on viloyatlaridan qo'shin to'plab Samarqand sari yurdi. *Amir Husayn* Konigil maydoniga yetib kelgach, sarbadorlar tortiqlar bilan uning huzuriga keldilar. *Amir Husayn* ularni ziyofat qilib, sovg'a-salomlar bergan. Ertasi kuni sarbadorlar vakillarini Karbos mavzeida hibsga olgan va dorga osgan. Faqat shu kuni Konigilga yetib kelgan *Amir Temur Mavlonozodani* dor tagidan saqlab qolgan. 1373-yil mahalliy mulkdorlarga qarshi Kermonda Sarbadorlar qo'zg'oloni boshlangan. Mulkdorlarning mol-mulkini musodara qilishgan, amaldorlarni hibsga olishgan. 1374-yil shoh *Shujo Muzaffar* tomonidan qo'zg'olon bostirilgan.

SAYFIDDIN BOHARZIY MAQBARASI — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XIII-XIV asrlar). Buxoroning sharqiy qismi (eski Fathobod mavzei)da ikki maqbara — Bayonqulixon maqbarasi va Sayfiddin Boharziy maqbarasi bunyod etilgan. Sayfiddin Boharziy maqbarasining kichik go'rxonasi (XIII asr ikkinchi yarmi) va ziyoratxonasi (XIV a. ikkinchi yarmi) charxi gumbazli. Bosh tarzidagi peshtoq chuqur ravoqli, ikki yoniga guldastalar ishlangan. Peshtoq va guldasta oralig'idagi yassi mehrobiy tokchalarga tuynuklar qilingan. Peshtoq yuqorisida ravoqli darchalar bor. Ziyoratxona va go'rxona ichidagi gumbaz osti bag'ali 8 va 16 qirrali muqarnas bezaklar bilan to'ldirilgan. Maqbaraga *Shayx Sayfiddin Boharziy*, uning 2 o'g'li *Jamoliddin Muhammad* va *Mazhariddin Mutahhar*, shuningdek, nevarasi *Abu Mufaxir Yahyo*, evaralari *Xovand Burhoniddin, Ruhiddin Shayx Dovudlar* dafn etilgan. *Amir Temur* Buxoroga tashrif buyurganda Shayx qabrini albatta ziyorat qilgan. Uning farmoni bilan maqbara obod qilinib, ziyoratxona va sharqiy peshtoq qurilgan. Shayx qabri ustidagi yog'och sag'ananing yasaliish uslubi, zarhal bezaklari *Amir Temur* davri yog'och o'ymakorligi san'atining noyob yodgorligi hisoblanadi. Sag'anada tug'ilgan va vafot etgan sana, Qur'ondan oyatlar, Shayxni madh etuvchi mad-hiyalar, rang-barang naqshlar o'zaro uyg'unlashgan. Mustaqillikdan keyin Sayfiddin Boharziy maqbarasi qayta ta'mirlanib, yodgorlik atrofida go'zal Fathobod bog'i bunyod etildi.

SIND DARYOSI BO'YIDAGI JANG — *Jaloliddin Manguberdi* va *Chingizxon* qo'shinlari o'rtasidagi jang (1221 yil 24-26-noyab.). Parvon jangida mag'lub bo'lgan mo'g'ullar *Chingizxon* boshchiligida ulkan lashkar to'plab *Jaloliddinga* qarshi otlangan. Son jihatdan mo'g'ullar bir necha barobar ziyod bo'lgan, shu tufayli xorazmliklar Sind (Hind) daryosi tomon chekinishgan. *Jaloliddin* Parvonda avval uni tark etgan *Sayfuddin Ig'roq, A'zam malik* va *Muzaffar malik* kabi amirlar bilan birlashib, *Chingizxon*ga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Ammo, o'ylangan rejaning amalga oshishiga yov imkon bermaydi. Ildam etib kelgan *Chingizxon Jaloliddinning O'rxon* boshliq o'g'ruqiga hujum qilib, uni yakson etadi. Dushmanning lashkari bilan Sind daryosi orasida qolgan *Jaloliddinning* jangga kirishdan o'zga chorasi qolmaydi. Sind daryosi bo'yidagi jang 1221 yilning 24-noyabr erta saharda boshlanadi va 3 kun davom etadi. Dastlabki kun *Jaloliddin* xos askarlari bilan yovning *Chingizxon* joylashgan markaziga shiddatli hujum uyushtiradi va uni 2 bo'lakka ajratib yuboradi. Ammo, 10 ming kishilik mo'g'ullar pistirmasi uning yo'lini to'sadi. Bu pistirma *Jaloliddinning* qaynotasi *Amin ul-Mulk* qo'mondonligidagi o'ng qanotni tor-mor etadi, qolgan-qutganlarini esa *Jaloliddin* zo'r shijoat bilan jang olib borayotgan markazgacha quvib boradi. Xorazmliklarning so'l qanoti mo'g'ullarga bardosh berolmay yengiladi. Og'ir ahvolda qolgan *Jaloliddin* 700 ga yaqin otlig askarlari bilan mardlarcha qarshilik ko'rsatadi. *Chingizxon* uni tiriklayin qo'lga olishni buyuradi. Dushman sultonni qurshovga oladi, ular o'z niyatlariga yetay deb turganda *Jaloliddinning* tog'avachchasi va xos amirlaridan bo'lgan *Axos malik* uni halqa ichidan olib chiqishga erishadi. Jang vaqtida sultonning go'dak o'g'li yov qo'lga asir tushadi. *Chingizxon* uni qatl etishga hukm qiladi. Janggohdan chiqqan *Jaloliddin* qarindosh-urug'lari bilan vidolashadi va ularni Sindga g'arq qilishga ijizat beradi, so'ngra qayta hujumga tashlanadi, noiloj ahvolda qolgach, 10 gaz balandlikdan oti bilan daryoga sakraydi. Daryoning narigi qirg'og'iga sog'-salomat o'tib olgan sultonning bu qahramonligini ko'rgan *Chingizxon Jaloliddinni* ta'qib etishni man qiladi va o'z a'yonlari hamda farzandlariga qarata shunday deydi: "*Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!*". *Jaloliddin* Sinddan suzib o'tishga muvaffaq bo'lgan 4 mingga yaqin askarlari bilan birlashadi va Hindistonning shim. hududlari tomon yo'l oladi.

SULDUZ, SULDUS — turklashgan mo'g'ul qabilalardan biri. Sulduzlarning katta bir guruhi *Chingizxon* qo'shini tarkibida Dashti Qipchoq va qisman hozirgi O'zbekiston hududi hamda Afg'onistonning shimoliga kelib joylashgan, keyinchalik Ozarbayjon, Eronga ham o'tishgan. Toyjuvutlar qabilasi bilan urushganda katta yordam berganlari tufayli *Chingizxon* saroyidagi eng nufuzli amirlar sulduzlardan bo'lgan. Ular mo'g'ullar davlati tarkibidagi Movarounnahr, mo'g'uliston, Xitoy va Eronda xizmat qilishgan. Qo'ng'irotlar amiri *Qozog'on* (1346-58) vafotidan so'ng amir *Bayon Sulduz* bir necha yil Samarqandda hokimlik qilgan, Balx viloyatining bir qismiga sulduzlarning qabila boshlig'i *O'ljoy bug'o* sulduz rahbarlik qilgan. Sulduzlar *Amir Temur* va temuriylar davrida ham nufuzga

ega bo'lishgan. Keyinchalik sulduzlar *Shayboniyxon* xizmatiga o'tadilar. Tojikistonning Baljuvon bekligida Sulduz-bolo va Sulduz-poyon qishloqlari bo'lgan. Sulduz nomi o'zbek qabilalari ro'yxatiga kiritilgan o'rta asr manbalarida uchraydi. XVI-XVII asrlarda sulduzlar o'troqlashib, mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketgan. Ammo XX asrning boshlarida o'zbek urug'-qabilalari orasida sulduz nomi uchramaydi. Chunki bu davrda sulduzlar O'rta Osiyo va Afg'oniston aholisiga batamom qorishib ketishgan.

SZIN SULOLASI (1115-1215) — Xitoy davlati sulolalaridan biri. Chjurchjenlar tomonidan o'rnatilgan. 1215-yilda *Chingizxon* tomonidan tugatiladi.

“TABAQOTIY NOSIRIY” — XIII asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan tarixnafi *Abu Umar Minxojuddin Jo'zjoni*ning tarixga oid asari.

“TARIXIY JAHONGUSHAY” (“jahon fotihi tarixi”) — XIII asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan tarixnafi *Alouddin Otamalik Juvayni*ning tarixga oid asari.

TUMAN — Chig'atoy xoni *Kebek*ning islohoti bo'yicha davlat viloyatlarga bo'linib, ular shu nom bilan yuritiladi.

TURKLAR ONASI — *Sulton Muhammad*ning zabardast onasi *Turkxonotun* shu nom bilan shuhrat topgan.

TO'RABEKXONIM MAQBARASI, SO'FILAR SULOLASI MAQBARASI — Ko'hna Urganchdagi me'moriy yodgorlik (1333). Urganch hokimi *Qutlug' Temur* xotini, Oltin O'rda xoni *O'zbekxon*ning qizi *To'rabekxonim* nomi bilan bog'langan. Maqbara bizgacha ancha vayrona holda yetib kelgan. Peshtoq orqali mo'jiz miyonsaroyga, undan olti qirrali katta xonaqo'ha o'tiladi. Xona ichiga chuqur ravoqli tokchalar ishlangan. Tashqarisi 12 qirrali, har tomoniga chuqur ravoqlar ishlangan. Poygumbazi 24 qirrali, kulohiy gumbazli (sharqiy qismi saqlangan), bezaklarida nafis koshinkori naqshlar, muqarnaslar qo'llanilgan. To'rabekxonim maqbarasi XIV a. Xorazm me'morligining yuksak badiiy mahorati aks ettirilgan noyob yodgorlik namunasi.

ULUS (mo'g'ulcha — davlat, xalq, odamlar) — 1) mo'g'ullar davlati shakllanish davri (XIII a. boshi)da muayyan bir no'yonga tobe bo'lib, unga qarashli yerlarda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar guruhi; 2) *Chingizxon* tuzgan ilk mo'g'ul davlati; 3) mo'g'ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan *Chingizxon* farzandlariga bo'lib berilgan mulk (udal) lar (mas., Jo'ji ulusi, Chig'atoy ulusi va boshqalar). XIII asrning ikkinchi yarmida bu uluslar mustaqil davlatlarga aylanib, nomigagina saltanat hukmdori — ulug' qo'ng bo'ysunganlar. XV-XVII a. oxirlarida ulus — mo'g'ulistonidagi yirik yer mulki va musulmon adabiyotida Chingiziyalar davlatlarining atalishi. Mo'g'uliston manjurlar tomonidan bosib olingach, mamlakat aymoqlar va xoshunlarga ajratilgan. “Ulus” atamasi mulk ma'nosida qo'llanilmaydigan bo'lgan va asta-sekin «xalq» ma'nosini anglatib boshlagan. Hozirgi vaqtda «ulus» atamasi «davlat» atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

ULUSBEGI — ulus hokimi. XIII-XVIII asrlarda O'rta Osiyoda ulusbegi o'z ulusida oddiy hukmdor nomidan ish yurgizgan. Ulusbegi lavozimiga, odatda, xonning qarindosh

urug'lari tayinlangan. Ulusbegi oliy hukmdorning har xil topshiriqlarini bajargan, urush paytida safarga hukmdor bilan birga otlangan.

URGANCHMUDOFAASI, GURGANJ MUDOFAASI (1221 yil) — mo'g'ullar istilosi davrida shaharning qahramonona mudofaa qilinishi. Chingizxon xorazmshohlar saltanati poytaxti Urganch (Gurganj)ni osongina, ortiqcha kuch ishlatmay olish ilinjida *Muhammad Xorazmshoh*ning onasi *Turkon xotun* huzuriga hojib *Donishmand*ni elchi qilib yuboradi va shaharni jangsiz topshirsa unga Xorazm, Xuroson va Jayhunning narigi tarafi va ularga tutash joylarni berishga va'da qiladi. Ammo *Turkon xotun* o'g'li *Muhammad Xorazmshoh*ning qochganidan xabardor bo'lgach, o'g'lining xotinlari va bolalarini, uning xazinasi va qimmatbaho ashyolarini olib, shaharni tashlab ketgan. Hokimsiz qolgan Urganch ahli sarosimada qolgan. Shaharda hokimiyatni *Ali Kuhiy Darug'on* ismli bir firibgar o'z qo'liga olgan, natijada, tartibsizliklar yanada kuchaygan, o'zaro janjal va bosqinchiliklar boshlangan, fuqaro va devon mollari talon-toroj qilingan. Bir oz vaqtdan so'ng davlat devonining oliy mansabdorlari mushrif Imomiddin va *Sharafiddin Ko'ppak* Urganchga qaytib kelib, o'lgan xorazmshoh nomidan soxta vakolatnoma xati tuzib, hokimiyatni egallashgan. Shundan so'ng shaharda bir oz tartib o'rnatilgan. Tez orada Urganchga xorazmshoh *Jaloliddin Manguberdi* bilan uning ukalari *O'zloqshoh* va *Oqshohlar* kelishgan. Biroq sobiq valiahd *O'zloqshoh*ning tarafdorlari *Jaloliddin*ning davlat taxtiga bo'lgan haqini tan olishmagan. Ular *Turkon xotun*ning ukasi *Xumor teginni* sulton deb e'lon qilishgan. *Xumor tegin* va amirlardan *O'g'ul hojib*, *Shayxon*, *Er Bug'o Pahlavon* va *Qutlug'xon*ning qo'l ostilarida 90 ming turkiy askarlar bor edi. Bu amirlar *Jaloliddin*ga suiqasd uyushtirishgan, lekin, u bundan avvaldan ogoh bo'lgani sababli *Temur Malik* boshchiligidagi 300 askar bilan Urganchni tark etgan. 3 kundan so'ng mo'g'ullar yaqinlashib kelayotganini eshitgan *O'zloqshoh* va *Oqshohlar* ham shaharni tashlab ketishgan. Shaharni dastlab *Chingizxon*ning o'g'illari *O'qtoy* va *Chig'atoy* boshchiligidagi 100 ming kishilik qo'shin qamal qilgan. Mo'g'ullar o'sha zamonning eng mukammal qurol-aslahalaridan foydalanishgan. Mo'g'ullar harbiy hiyla ishlatib askarlarining bir qismini pistirmada qoldirib, oz sonli qo'shin bilan hujumga o'tganlar. Shahardan ko'plab otliq va piyoda guruhlar chiqib «chekinayotgan» mo'g'ullarni ta'qib eta boshlagan. Urganch yaqinidagi *Bog'i Xurram* bog'lari yonida pistirmadagi mo'g'ul qo'shini Urganch askarlarini o'rab olib, minglab kishilarni qirib tashlashgan, shaharliklarning ko'pchiligi *O'g'ul hojib* boshchiligidagi qurshovdan chiqib Xurosonga qochib ketgan. Mo'g'ullar xorazmliklarning qochganlarini quvib *Qobilon* darvozasi orqali Urganchning tashqi devorlarining ichiga kirganlar. Lekin ular shahar aholisining qattiq qarshiligiga duch kelganlar va shahardan butunlay haydab chiqarilganlar. Ertasi kuni mo'g'ullar *Qobilon* darvozasi orqali hujumga o'tishgan, lekin amir *Faridun G'uriy* askarlari tomonidan ulotqirib tashlangan. Urganch qamali cho'zilib ketgan, *Chingizxon* katta o'g'li *Jo'jini* yordamga yuborgan. *Jo'ji* otasi unga butun *Movarounnahr*ni mulk sifatida va'da qilgani uchun, boy

shahar Urganchni, unga zarar yetkazmay qo'lga kiritishga harakat qilgan. Shuning uchun shaharliklar oldiga o'z elchisini yuborib, shaharni g'oliblarning rahm-shafqatiga topshirilishini taklif etgan. Biroq *Chig'atoy* akasiga e'tiroz bildirib, Urganchni vayron qilinishini talab qilgan. Mo'g'ullarning qamali 7 oy davom etgan. *Chingizxon* o'g'illari orasidagi raqobatni bartaraf etish uchun barcha qo'shin va shahzodalarni *O'qtoyga* bo'ysundirgan. Shundan so'ng mo'g'ullar shaharga qattiq hujum uyushtirganlar. *Xumor tegin* va uning mulozimlari shahar darvozalarini ochib taslim bo'lishga qaror qilishgan. Mo'g'ullar shaharga yopirilib kirib, 7 kun davomida aholi bilan ko'cha janglari olib borganlar, bosib olingan uy va binolarni buzib, neft bilan yondirib borishgan. Mo'g'ullar mahallama-mahalla bosib borganlar, faqat 3 ta mahalla qolganda Xorazm muhtasibi faqih *Alouddin al-Hayyot* boshchiligidagi shahar elchilari omonlik so'rashgan. Biroq mo'g'ullar iltimosni rad etishgan. Ular shaharning tirik qolgan barcha aholisini shahar tashqarisiga chiqarib, mo'g'ulistoniga yuborish uchun 100 mingga yaqin hunarmandlarni ajratib olganlar, so'ngra mo'g'ullar Urganchning barcha tirik qolgan aholisini qatl etganlar. Aholidan o'ch olib bo'lgach, mo'g'ullar shaharni rejali ravishda vayron qilishga o'tgan. Ular Amudaryodagi to'g'onni buzib, shaharni suvga bostirganlar. Noyob madaniy yodgorliklar, kutubxonalar vayron qilingan. Urganch mudofaasidan so'ng mo'g'ullar harbiy harakatlarni Xurosonga ko'chirganlar.

XON — turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni. Dastlab qabila sardori, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshohlar davrida xon viloyat, shahar hokimi yoxud darajasiga ko'ra amir yoki malik lavozimlariga nisbatan yuqori hisoblangan, ayni paytda, mamlakat boshlig'i sultonga tobe bo'lgan turkiy boshliqni bildirgan. Xon arslon, bug'ra singari so'zlar bilan birikib qoraxoniylar davlati hukmdorlarini anglatgan. Mo'g'ul imperiyasiga asos solgan *Temuchin* "Chingizxon" unvonini qabul qilgan. Imperiya hududida tashkil topgan ulus hukmdorlari ham xon deb nomlangan. *Chingizxon* vafotidan so'ng, saltanat taxtiga o'tirgan chingiziylarga qoon unvoni berilgan. Mo'g'ul hukmronligi davrida Eronda nomusulmon hukmdorlar xon, musulmon hukmdorlar esa, sulton deb atalgan. Temuriylarda Chingizxon sulolasiga daxldor shaxslar xon unvoni bilan yuritilgan. Shayboniylarda xon hukmdor yoki taxt vorisini, sulton esa shahzodani ifodalagan. Safaviylar davrida xon unvoni viloyat boshliqlari — amirlarga berilgan va ular o'z rutbalariga ko'ra, 3-tabaqali zodagonlar sifatida e'tirof etilgan. Ayni vaqtda xon Eron va Afg'onistonning turli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalari orasida qabila yoki urug' sardori unvoni tarzida shuhrat topgan. Qo'qon va Xiva xonligi hukmdorlari ham o'zlarini xon deb atashgan. Bu nom ularning chingiziylar bilan qarindoshlik rishtalari mavjudligiga ham ishora hisoblangan. Qojarlar davlatida (XIX asr) turli darajadagi harbiy va ma'muriy amaldorlar, Hindistondagi musulmon davlatlarida turli martabadagi mansabdorlar ham xon deb yuritilgan.

XONIYA MADRASASI — XIII asrda Buxoroda shuhrat topgan madrasa. Unda mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.

YASOQ (mo'g'ulcha dzasaq — qonun; jazolash) — 1206-yil *Chingizxon* buyuk qurultoyda ulug' xon etib saylanganda e'lon qilingan qonunlar majmuasi; o'rta asrlar mo'g'ul huquqi to'g'risidagi asosiy manba.

"YO VATAN, YO SHARAFLI O'LIM" — *Najmiddin Kubroning* mo'g'ullar zulmiga qarshi iltijo bilan aytgan xitobi. Bu xitob rahnamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzari rasta, masjidi madrasa va har bir xonadon janggohga aylandi.

YOM — O'rta asrlarda savdo yo'llarida joylashgan bekat.

O'LPON — yer solig'i.

O'TROR MUDOFAASI (1219-yil sentyabr — 1220-yil mart) — mo'g'ullar istilosi davrida Xorazmshohlar davlatiga qarashli O'tror shahrini qahramonona mudofaa qilinishi. *Muhammad* xorazmshohning O'trordagi noibi Inolchiq tomonidan mo'g'ul savdogarlarining o'ldirilishi va mol-mulklarining musodara etilishi (1218-yil) O'rta Osiyoga istilochilik yurishini boshlash uchun Chingizxonga bahona bo'lgan. 1219-yil sentyabrda mo'g'ullar shaharni qamal qilishga kirishganlar. Inolchiq ixtiyorida shahar mudofaasi uchun 20 ming kishilik qo'shin bor edi. Shuningdek, *Muhammad Xorazmshoh* O'trorga *Qoracha hojib* boshliq 10 ming askarni ko'mak uchun jo'natgan edi. Shaharni osonlik bilan egallash mushkulligini fahmlagan *Chingizxon* o'g'illari *Chig'atoy* va *O'qtoy* boshchiligidagi qo'shinlarining bir qismini qoldirgan. Shundan so'ng lashkarining asosiy kuchlarini 3 qismga bo'lgan: birini u katta o'g'li *Jo'jixon* boshchiligida O'trordan shimoldagi Jand va Barchinlig'kentni bo'ysundirishga yuborgan, ikkinchisini — *Uloq* no'yon va *Suketu* cherbi boshchiligida O'trordan janubdagi Banokat bilan Xo'jandni bosib olishga jo'natgan. O'zi esa kichik o'g'li *Tuli* va mashhur *Jebe* no'yon va *Subutoy* bahodirlar bilan Buxoroga qarab yurgan. Manbalarga ko'ra, O'tror qamali 5 oy davom etgan. Mo'g'ullar shaharga oqib kiruvchi ariqlarni ko'mib tashlashgan, manjaniqlardan shaharga qarata tosh va yonuvchi moddalar irg'itganlar, qo'rg'on atrofidagi xandaqlar tuproq hamda shox-shabbalar bilan to'ldirilgan, devorlar ostidan lahimlar qazilgan, tevarak-atrofdagi dovdaraxtlar kesilib, uzun, ulama qamal shotulari yasalgan. O'tror mudofaasi davrida nafaqat qamaldagilar, balki mo'g'ullar ham katta talafot ko'rishgan. Qamaldagilarning safi kundan kun siyraklashib, oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. O'tror mudofaasining eng og'ir paytida *Qoracha hojib* shaharni mo'g'ullarga topshirishni taklif qilgan, ammo Inolchiq bu taklifni rad etgan. Shunda *Qoracha hojib* o'ziga qarashli 10 ming askari bilan *So'fixon* (So'fixona) darvozasidan chiqib mo'g'ullarga taslim bo'lgan. Biroq xiyonatkorlikni mo'g'ullar ham kechirishmagan, ular *Qoracha hojib* va uning askarlarini qatl etishgan. Mo'g'ul qo'shini manjaniq va arrodalar yordamida shahar devorlaridan raxnalar ochib ichkariga yopirilib kirgan. Inolchiq 20 ming askari bilan shahar ichidagi mustahkam qal'aga kirib olib, yana 1 oy davomida son jihatdan o'zidan bir necha yuz barobar ortiq g'anim bilan qahramonona jang qilgan. *Chig'atoy* Inolchiqni tiriklayin ushlashni buyurgan. *Chig'atoy* va *O'qtoy* uni qo'lga olib Samarqandga *Chingizxon* huzuriga keltirganlar. O'tror mudofaasi rahbari beshafqat qatl etilgan.

O‘TROR VOQEASI (1218-yil) — O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar istilosining boshlanishiga bahona bo‘lgan voqea. Bunda *Chingizxon* Xorazm bilan shartnoma tuzish uchun yuborgan savdo va elchilar karvoni *Muhammad Xorazmshohning* O‘trordagi noibi *Inalxon* (Qayrxon) tarafidan talon-toroj qilingan va karvon ahli o‘ldirilgan edi. Qimmatbaho molar va sovg‘alar ortgan mazkur karvon 500 tuyadan iborat bo‘lib, uni 450 kishi kuzatib kelgan. Ko‘pgina tarixchilarning fikricha, mazkur sovg‘a-salomlardan asl maqsad Xorazmni mo‘g‘ullarga tobe qilishdan iborat bo‘lgan, buni anglatgan Xorazmshoh karvonni talab, ahlini qirib tashlashga buyruq bergan.

SHULEN — oziq-ovqat solig‘i. Bu soliq har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan.

CHERIK (sanskritcha ksatrika — qo‘shin, lashkar) — Turk xoqonligi (VI-VIII asrlar), Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar, Xiva va Buxoro xonliklarida harbiy yurish vaqtida tuman, viloyat, o‘lka va uluslardan oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig‘iladigan muntazam qo‘shin. Cherik, asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Cherikni belgilangan joyga to‘plash vazifasi oliy bosh qo‘mondon ad‘yutanti — tavochi zimmasiga yuklatilgan. Cherik o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. Buxoro xonligida nomuntazam qo‘shin qora cherik deb nomlangan.

CHINGIZ — kuchli, qudratli, toza. 1206-yilda Onon daryosi bo‘yida chaqirilgan mo‘g‘ul urug‘ va qabila boshlqlarining qurultoyida *Timuchinga* berilgan laqab.

CHINGIZIYLAR — mo‘g‘ullar davlatining asoschisi va xoni (1206-yildan) *Chingizxon* nomidan kelib chiqqan, Osiyo va Sharqiy Yevropada hukmronlik qilgan sulola. Mo‘g‘ullar davlati hukmdorlari: *Chingizxon* (1206-27), *Tulixon* (1227-29), *O‘qtoy qoon* (1229-42), *Turakina xotun* (1242-46), *Kuyuk (Guyuk) qoon* (1246-48), *Munke (Mangu) qoon* (1251-59), *Xubilay* (1259-94), *O‘ljaytu — Temur qoon* (1295-1307), *Xaysanqulug qoon* (1307-11), *Ayurbaribad — Buyantu qoon* (1311-20), *Shidebala — Gegen qoon* (1320-23), *Yesun — Temur qoon* (1324-28), *Xo‘shila qoon* (1328), *Tug‘-Temur qoon* (1328-32), *Irijinbal qoon* (1332), *To‘g‘on Temur* (1333-70), *Ayushiridor qoon* (1370-78), *To‘kus Temur qoon* (1378-88). Jo‘ji ulusi (Oltin O‘rda) hukmdorlari: *Jo‘ji* (1224-27), *Botu* (1227-56), *Berkaxon* (1256-66), *Mangu Temur* (1266-?), *To‘da Mangu* (?), *To‘la bug‘a* (?), *To‘xtaxon* (1290-1312), *O‘zbekxon* (1312-40), *Jonibekxon* (1340-57), *Berdibekxon* (1357-59), *Navro‘z* (1359-60), *Xizraxon* (1360-61), *Mardud (Murud)* (1361-63), *Murodxo‘ja* (1363), *Qutlug‘xoja* (1364), *O‘rusxon* (1364-75), *To‘qtaqiya* (1375), *Temur Malik* (1375-76), *To‘xtamishxon* (1376-96), *Temur Qutlug‘* (1396-99), *Shodibek* (1399-1407). *Iroq (Ozarbayjon)*, *Fors*, *Xuroson*, *Kermon va Eronning G‘arbi*da hukm surgan Chingiziylar (hukmdorlar): *Hulokuxon* (1256-65), *Abaqaxon* (1265-82), *Ahmadxon* (1282-84), *Arg‘unxon* (1284-91), *Keyxotu (Gayxatu)xon* (1291-95), *Boyduxon* (1295), *G‘ozonxon* (1295-1304), *O‘ljaytuxon* (1304-16), *Abu Sa‘id Bahodirxon* (1316-35), *Ariaxon* (1335-36), *Musoxon* (1336), *Sulton*

Muhammadxon (1336-38), *Tag‘oy Temurxon* (1338; 1341-51), *Sulaymonxon* (1339-41). Sharqda Oltoydan to g‘arbda Amudaryogacha, G‘uljadan Samarqandu Buxorogacha bo‘lgan hududda, asosan, Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy naslidan bo‘lgan xonlar hukm surgan.

CHINGIZXON YASOSI, BUYUK YASOQ, BUYUK YASA (mo‘g‘ulcha “jasoq” — qonun, qaror, jazolash so‘zining turkiy «yasoq» shakli) — Chingizxon tomonidan mo‘g‘ul qabilalarining Onon daryosining boshlanish joyida chaqirilgan qurultoyi (1206)da qabul qilingan qonunlar majmui, o‘rta asrlar mo‘g‘ul huquqi to‘g‘risidagi asosiy yozma yodgorlik. *Chingizxon* amriga binoan yozilib, “Oltun daftar” (chingiziy xonlarning rasmiy tarixi) bilan birga xon xazinasida saqlangan. Mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi bilan Chingizxon yasosini takomillashtirish, yangi qonunlar bilan to‘ldirish zarurati tug‘ilgan. 1218-yilda unga muhim tuzatishlar kiritilgan. Chingizxon yasosining so‘nggi tahriri 1225-yildagi qurultoyda qabul qilingan. Dastavval Chingizxon yasosi, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan turfa tadbirlar, muayyan gunohlar uchun beriladigan jazo choralarini o‘zida mujassam qilgan. Chingizxon yasosi to‘la shaklda saqlanib qolmagan, uning ayrim parchalari bizgacha yetib kelgan. *Juvayniy* (XIII asr)ning yozishicha, Chingizxon yasosi uyg‘ur yozuvida tumor shaklida bitilgan bo‘lib, u “Yasa nomayi buzurg” (“Yasa buyuk kitobi”) deb nomlangan. Chingizxon yasosining parchalari musulmon tarixchilari *Juvayniy*, *Rashiduddin*, *Ibn Battuta*, *Taqiaddin Makriziy*; yevropalik sayyohlar *Plano Karpini*, *Villem Rubruk*, *Marko Polo* (XIII-XIV asrlar) asarlarida saqlanib qolgan. 1240-yilga oid — “Mo‘g‘ullarning maxfiy tarixi” va xitoy manbalarida ham yasoq haqida ba‘zi ma‘lumotlar mavjud.

CHIG‘ATOIYLAR — Chig‘atoy ulusini idora etgan chingiziy sulola (1224-1404). *Chingizxonning* ikkinchi o‘g‘li *Chig‘atoy* ismidan kelib chiqqan. Chig‘atoy ulusi hukmdorlari: *Chig‘atoyxon* (1224-42), *Qora Huloku (Haloku)* (1242-46, 1252), *Yesu Munke* (1246-57), *Orqina (Ergene) xotun* (125-61), *Olg‘u* (1261-65), *Muborakshoh* (1265-66), *Baroqxon* (1266-71), *Nikpay* (1271-72), *To‘g‘a Temur* (1272-74), *Duvaxon* (1274-1306), *Kunchak* (1306-08), *Toliq* (1308-09), *Kebak* (1309; 1318-26), *Esan bug‘o* (1309-18), *Elchigadoy* (1326), *Duva Temur* (1326), *Tarmashirin* (1326-34), *Jingshi (Jankshi)* (1334-35), *Buzan (Puran)* (1335-38), *Yesun Temur* (1338-40), *Ali Sulton (O‘qtoynaslidan)* (1340-42), *Muhammad* (1342-43), *Qozon* (1343-46), *Donishmandcha (O‘qtoy naslidan)* (1346-48), *Bayonqulixon* (1348-58). XIV a. o‘rtalarida Chig‘atoy ulusi parchalanib, ulusning sharqiy qismi — Sharqiy Turkiston va Yettisuvda turk va mo‘g‘ul qabilalarini o‘z ichiga olgan mo‘g‘uliston davlati tashkil topadi. *Tug‘luq Temur* mo‘g‘uliston xoni qilib ko‘tariladi. Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismida 1370-yil *Amir Temur* saltanati vujudga keladi. Sohibqiron taxtga chingiziylardan bo‘lgan *Suyurg‘atmishxon* (1370-88), *Sulton Mahmudxon* (1388-1404)larni rasman xon qilib ko‘tarib, hatto ularning nomidan yorliqlar chiqartirib, pullar zarb ettirgan.

CHIG‘ATOY ADABIYOTI — Chig‘atoy ulusi hukmronligi davrida Xorazmda islom axloqi, odobi va

taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot rivoj topa boshlaydi va u keyinchalik shu nomni oladi.

CHIG'ATOYLAR — XIII a. ikkinchi yarmi — XVI a. boshlarida Movarounnahr aholisi nomi. *Chingizxonning* o'g'li — *Chig'atoy* nomi bilan bog'liq. Ma'lumki XIII a. boshlarida Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Bu davrda (XIII-XIV asrlar) "Chig'atoy" atamasi dastlab Chig'atoy atrofidagi aslzodalar, qo'shini va ularning avlodlarini anglatgan. XIV asrda ko'chmanchi va o'troq turkiy aholining aralashuvi natijasida yangi elat shakllangan. Keyinchalik XV asrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonning turkiy aholisi Chig'atoylar deb atalgan. XV asr oxiri — XVI asr boshlarida Movarounnahrning turkigo'y va forsiqo'y o'troq aholisi Chig'atoylar deb ataldi. XVI-XVII asrlarda Movarounnahrning o'troq turkiy aholisining katta qismi o'zbek nomini qabul qildi. XVIII a. manbalarida Boburiylar saltanatining qo'shini Chig'atoylar deb atalgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Chig'atoylarning ma'lum qismi turkigo'y bo'lsa, qolgani forsiqo'y bo'lgan. Lekin, ularning ko'pchiligi ikki til — turkiy va forsiyda erkin so'zlashgan. XX a. boshlarida O'zbekiston va Tojikistonning janubda Shayboniixon yurishlarigacha yashagan aholi avlodlariga nisbatan Chig'atoylar atamasi ishlatilgan. XX asr boshlarida Chig'atoylarning asosiy qismi hozirgi O'zbekistonning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida va Tojikistonning janubida yashagan. Chig'atoylarning ma'lum guruhlari O'zbekistonning Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari hamda Shimoliy Afg'oniston va Pokistonda ham yashagan.

CHOPQUN — bosqinchilik, bosmachilik, talon-taroj qilish.

TARIXIY-GEOGRAFIK NOMLAR

BARCHINLIG'KENT, BARCHKEND, BARCHIN — Sirdaryo bo'yida joylashgan o'rta asr qal'a-shaharlaridan biri (XII-XIV asrlar); Jand viloyatiga kirgan. Oltin O'rda davrida Barchinlig'kentda zarb qilingan mis tangalarda "Barchin" yozuvi uchraydi. XIII asr ikkinchi yarmida Barchinlig'kentga tarixchi *Jamol Qarshiy* kelib, uni o'z asarida Barchkent deb qayd etgan. Bu davrda Barchinlig'kentda turkmanlar yashaganlar, shahar atrofida qo'rg'onlar va qum barxanlari yastanib yotgan, shaharda ilm-fan, ma'naviy hayot taraqqiy etgan. *Jamol Qarshiy* Barchinlig'kentda arab, fors, turkiycha she'rlar bitgan mahalliy olimning ma'ruzasini tinglaganini yozadi. XV asrdan so'ng Barchinlig'kent atamasi manbalarda tilga olinmaydi.

BOMIYON, BOMIKON, BOMYANNA — Afg'onistonning markaziy qismidagi shahar, Bomiyon viloyatining ma'muriy markazi. Aholisi 10 ming kishiga yaqin. Bomiyon I asrda barpo bo'lgan, VII asrda uni arablar fath etgan. X-XIII asr boshida Bomiyon dastlab g'aznaviylar, so'ng g'uriylar, keyin xorazmshohlarga tobe bo'lgan. 1221 yil Bomiyonni mo'g'ullar vayron qilgan, XVI asrdan u boburiylar tasarrufida bo'lgan. Bomiyon XVIII asr ikkinchi yarmidan Afg'oniston davlati tarkibida. Xitoylik sayyoh *Syuan Szan* va arab tarixchilari keltirgan

ma'lumotlarga ko'ra, Bomiyon islom dini kirib kelgunga qadar buddizmning yirik markazi hisoblangan. U yerda qoyatoshlarni yo'nib bunyod etilgan o'ndan ortiq butxona o'tmishda mavjud bo'lib, ularning mingdan ziyod rohib (monax) lari bo'lgan. Butxonalar o'yama naqshlar bilan bezatilgan, ularga ko'plab erkak va ayol qiyofasidagi tosh sanamlar o'rnatilgan. Erkak qiyofasidagi sanamlardan birining bo'yi 53 metr, ayol qiyofasidagilaridan birining bo'yi esa 35 metr bo'lgan. Afg'onistondagi Tolibon rahbariyati qaroriga muvofiq, mamlakatdagi islomiyotga qadar yaratilgan moddiy-madaniy obidalar, shu jumladan Bomiyondagi budda sanamlari vayron qilingan (2001-yil mart).

DARBAND (forscha — dar-eshik, dara; band — mustahkam, berk, tugun) — ikki tog' orasidan, daradan o'tgan yo'l. Surxondaryo viloyatidagi Buzgalaxona darasi Darbandi ohanin deb atalgan.

DASIN — o'rta asrlarda Pekin shahrining nomi.

DUG'LAT AMIRLIGI — XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketishi natijasida uning sharqiy qismi (Sharqiy Turkiston va Yettisuv)da tashkil topgan davlat.

ILI DARYOSI — Xitoy va Qozog'istondagi daryo. Sharqiy Tyanshandan Tekes va Kunges daryolari nomi bilan boshlanib, Sintszyanda (Xitoy) birga qo'shiladi va Balxash ko'liga quyiladi. Uzunligi (Tekes bilan birga) 1439 km, Kunges va Tekesning qo'shilgan yeridan hisoblangan 1001 km.

JAND — Sirdaryoning quyi oqimida o'rta asr shahri. Xorazmshohlar davlatining sharqiy istehkomi hisoblanadi. Bu yerlarni Saljuq bosib olmasdan ham Sirdaryo etagi qipchoqlar qo'lida mustaqil o'lka (mulk) bo'lgan. XII asr o'rtasiga kelib, Jand va Forob oralig'i buyunlay xorazmshohlar (Takash) qo'lga o'tgan. Xorazmshohlar Janddan turib qipchoqlar yeriga harbiy urishlar qilgan. O'sha davrda Orol dengizi ham Jand ko'lida deb atalgan. 1220-yil Jandni Jo'ji egallagan. S.P. Tolstov tadqiqotlari Jand Qozog'istonning Qizilo'rda shahri yaqinidagi Jan qal'a xarobalari o'rnida bo'lganligini ko'rsatadi.

MOVAROUNNAHR AMIRLIGI — XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketganishi natijasida uning g'arbiy qismidagi tashkil topgan amirlik.

MO'G'ULISTON — Chig'atoy ulusining parchalanishi (1348) natijasida tashkil topgan davlat. Unga *Qashqar*; *Ettisuv* o'lkasi va *Ili* vohasi qaragan. Mo'g'ul hukmdorlari va mulkdorlari o'rtasida bosib olingan mamlakatlarning xalqlariga ikki xil qarash mavjud bo'lib, ularning bir xili mahalliy zodagonlar, savdogarlar bilan yaqinlashish, hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirish, islom va musulmon madaniyatiga homiylik qilish tarafdori bo'lsa (O'qtoy qoon, Munke qoon, Chig'atoy ulusi hukmdorlaridan Muborakshoh, Baroqxon, Kepakxon va boshqalar), yana bir boshqa guruh o'troqlik va shahar hayotiga tamoman qarshi bo'lib, ko'chmanchilik an'alariga sodiq edilar. Ular shaharlarni tamoman buzib tashlash (chunki, shaharlar mustahkam qal'alarga tayanib, mo'g'ullarga qarshi kurash markaziga aylanib qoladi, deb hisoblardilar), ekinzorlar va bog'-rog'larni o'tlovlarga aylantirish tarafdorlari (Xaydu, Durra Temur, Buzan va

boshqalar) edilar. Chig'atoy xonlaridan Muborakshoh va Baroqxon qo'l ostidagi qabilalar bilan Yettisuvdan Movarounnahrqa ko'chib keladilar. *Muborakshoh* Ohangaron vohasiga, *Baroqxon* esa Chag'oniylarga kelib o'rtnashadi. Bu hol Chig'atoy ulusining ikkiga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab, ulusning sharqiy va shim.-sharqiy qismida qolgan turk va mo'g'ul qabilalari o'zlarini mo'g'ullar, mamlakatni esa mo'g'uliston deb atay boshladilar. Movarounnahrqa ko'chib ketgan qabilalar esa chig'atoylar nomi bilan mashhur bo'ldi. Mo'g'ullar Movarounnahrqa ko'chib ketgan qabilalarni *qoraunas* (duragay), ular esa mo'g'ullarni *jete* (qaroqchi, talonchi) deb atardilar. 1348-yilda chig'atoy naslidan bo'lgan *Tug'luq Temur* mo'g'uliston xoni qilib ko'tarildi. *Tug'luq Temur* vafotidan (1363) so'ng, *Amir Qamariddin* hokimiyatni qo'lga oldi. *Qamariddin*ning hukmronlik yillarida mo'g'ulistonga Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida o'z hukmronligini o'rnatgan *Amir Temur* 7 marta (1371, 1375, 1376, 1377, 1383, 1388, 1389) qo'shin tortgan. *Qamariddin* Temur qo'shinlarining ta'qibi ostida bir qism navkari bilan shimolga qochib ketdi. Taxtga *Xizrxo'ja* o'tirdi. *Xizrxo'ja* Temurning Eron va Iroq yurishlarida band bo'lganligidan foydalanib, mo'g'ulistonda tartib o'rnatish va markaziy hukumatni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi, keyinchalik (1397) u bilan qarindosh bo'lib (Temurga qizi Tuman og'ani bergan), o'z mamlakatining mustaqilligini saqlab qoldi. *Xizrxo'ja* vafotidan so'ng uning o'g'li *Sham" Jahon* hokimiyatni qo'lga oldi (1399). 1408-yil *Sham" Jahon* vafot etgach, taxtga ukasi *Muhammadxon* ko'tarildi. *Muhammadxon* davrida Movarounnahr qo'shinlari Qashqarni egallaganlar (1416). Muhammadxondan keyin taxtga o'tirgan *Sham" Jahon*ning o'g'li *Naqshi Jahon* Xitoy va Temuriylar saltanati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash yo'li bilan mo'g'uliston birligini saqlab qolmoqchi bo'ldi. Lekin, u 1418-yil boshlarida Sheralining o'g'li *Vaysxon* tomonidan o'ldirildi. *Vaysxon* hukmronligi yillarida mulkdorlar orasida kurash yanada kuchaydi. Mulkdorlarning bir guruhi *Vaysxon*, yana bir guruhi Muhammadxonning o'g'li *Shermuhammadxon* atrofida uyushgan edi. Bu kurashda *Vaysxon* va uning tarafdorlarining qo'li baland keldi. *Shermuhammadxon* Samarqandga qochib ketdi va 1421 yil *Ulug'bek*ning yordami bilan hokimiyatni *Vaysxondan* tortib oldi. Lekin oradan 3-4 yil o'tgach, u *Ulug'bek* hukumatiga bo'ysunmay qo'ydi. Natijada 1425-yil *Ulug'bek* katta qo'shin bilan mo'g'ulistonga yurish qilib, hokimiyatni *Vaysxonga* topshirdi. Ana shu yili Qashqar mo'g'ulistondan ajratilib, Samarqandga bo'ysundirildi. *Vaysxon* vafotidan so'ng uning ikki o'g'li: *Yunusxon* va *Esonbuqo* o'rtasidagi toj-taxt uchun kurashda *Esonbuqo* g'olib chiqdi. *Yunusxon* Samarqandga qochib ketdi. *Esonbuqo* mo'g'ulistondagi tarqoqlikka barham berdi, uning chegaralarini mustahkamladi. *Esonbuqo* vafot etgach, *Yunusxon* temuriy *Abu Sa'id* yordami bilan taxtga o'tirdi. *Abu Sa'id* vafotidan so'ng, Temuriylar saltanatida boshlanib ketgan ichki nizolardan foydalanib, hatto Movarounnahrning ichki ishlariga ham aralashib turdi va Andijon hokimi *Umarshayx Mirzoni* (Boburning otasi) kuyov qilib Sayram, Toshkent va O'sh viloyatini o'ziga

bo'ysundirib oldi. *Yunusxon* vafotidan so'ng, xon qilib ko'tarilgan *Sulton Mahmudxon* faqat nomigagina mo'g'ulistonning oliy hukmdori hisoblanardi. Aslida esa bu vaqtda mamlakat mayda-mayda qismlarga bo'linib ketgan edi. Mas.: Oqsuv, Qorashahar va Turfonda Sulton Ahmadxon, Chu va Qo'ziboshida qozoq sultonlari, Yettisuvda Muhammad qirg'iz mustaqil hukmdor edilar. Mo'g'uliston xonlari: *Tug'luq Temur* (1348-63), *Qamariddin* (1363-90), *Xizrxo'ja* (1390-99), *Sham" Jahon* (1399-1408), *Muhammadxon* (1408-16), *Naqshi Jahon* (1416-18), *Vaysxon* (1418-21, 1425-28), *Shermuhammadxon* (1421-25), *Esonbuqo* (1428-62), *Yunusxon* (1462-87), *Mahmudxon* (1487-1508), *Sayidxon* (1504-32).

MO'G'ULLAR DAVLATI — XIII asrning birinchi yarmida *Chingizxon* va uning vorislarining istilochilik urushlari natijasida barpo etilgan davlat. 1206-y. bahorda mo'g'ulistondagi turli toifa qabilalar sardorlarining qurultoyida *Temuchin* xon etib tayinlangan va unga "*Chingizxon*" ("Ulug' xon") deb nom berilgan, tashkil etilgan davlat "Yakka mongol ulus" deb atalgan. *Chingizxon* hokimiyatni mustahkamlash yo'lida bir qancha islohotlar o'tkazgan. Jumladan, ming oilani bir ma'muriy birlikka bo'lishga asoslangan va harbiy tus berilgan yangi ma'muriy tuzum joriy etilgan. Unga ko'ra, *Chingizxonga* tobe bo'lganlar jami 95 ta "ming oila" birligiga bo'lib chiqilgan va bularning har biriga urush davrida *Chingizxonga* sadoqat bilan xizmat ko'rsatgan kishilar boshliq qilib tayinlangan. Lekin amalda ayrim mingliklar bir necha ming oiladan iborat ham bo'lgan. Mingliklarni tashkil etishda imkon boricha bir toifadagi qardosh avlodlarni va qabilalarni bir-biridan ajratmaslikka e'tibor berilgan. Mazkur «ming oila»lar, o'z navbatida, g'arbiy «o'ng qanot» va sharqiy «so'l qanot», markaziy va tog'liklar kabi 4 qismga bo'lingan. Har bir ming oila yuzlikka va o'nlikka bo'lingan. Aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilgan. 15 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan erkaklar harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan. Qo'shinda qattiq tartib o'rnatilgan, qonunbuzarlar uchun qattiq jazo, qonun ustuvorligini himoya qilganlarga esa hurmat bildirilib, mukofot belgilangan. Savdo yo'llari, avvalambor Buyuk ipak yo'lining xavfsizligini ta'minlab, undan to'la foydalanishga e'tibor berilgan. Bu tadbirlar *Chingizxon* hokimiyatini mustahkamlashda ijobiy samara bergan. *Chingizxon* mo'g'ullardan ko'p sonli yaxshi qurollangan, qattiq intizomga asoslangan va uyushgan qo'shin tuzadi. XIII a. muallifi *Juwayniyning* yozishicha, osoyishtalik davrida chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan barcha mo'g'ul aholisi muhoroaba e'lon qilinishi bilan tezda o'n, yuz, ming, o'n ming jangchi — tuman bo'linmalaridan iborat muntazam qo'shinga aylantirilardi. Har bir jangchi harbiy yurish vaqtida o'ziga zarur bo'ladigan qurol-yarog', turli anjomlar va ot-ulovlarini oldindan tayyorlab qo'yishga majbur bo'lgan. Qo'shin yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar tomonidan boshqarilgan. Tuman bo'linmalariga, odatda, shahzodalar qo'mondonlik qilgan. Asosiy qo'shindan tashqari, *Chingizxon* ixtiyoridaharbiy zodagonlardan tuzilgan maxsus gvardiya ("keshik") ham tashkil etiladi. Bu gvardiya faqat favqulodda sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlanardi. Davlat ma'muriyatini markazlashtirish

maqsadida *Chingizxon* Qoraqurum qal'asini o'z imperiyasining poytaxtiga aylantiradi. Xat-savodga mutlaqo ega bo'lgan, madaniyati nihoyatda tuban mo'g'ullar davlat boshqaruv ishlarida uyg'urlardan hamda musulmon savdogarlaridan foydalandilar. Chingizxon va no'yonlarining maslahatchilari, mirzolari va ba'zi bir mulk ma'murlari, asosan, uyg'urlardan bo'lgan. Mas., Sharqiy uyg'urlar xoni *Idiqut* (Saodatbek) xonning yaqin do'sti va maslahatchisi edi. *Tashatun* ismli uyg'ur esa davlat muhrdori lavozimini hamda shahzodalarni xat-savodga o'rgatuvchi ustod vazifasini bajargan. *Chingizxon* tarqoq jangari mo'g'ul urug'larini birlashtirgach, tajovuzkorlik siyosatini yurgizdi. Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni *Chingizxon* 1224-yilda o'g'illari va nabiralarga taqsimlab berdi. Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Volga bo'yi, Xorazm va Darbandgacha bo'lgan o'lka *Chingizxonning* to'ng'ich o'g'li *Jo'jiga* (uning vafotidan keyin esa, nabirasi *Botuga* meros bo'lgan) topshirildi, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrning uning ikkinchi o'g'li *Chig'atoy* ega bo'ldi. *Chingizxon* o'z vatani mo'g'ulistonni, shuningdek, Xitoyni 3-o'g'li va vorisi *O'qtoyg*a berdi. Kenja o'g'li *Tuluga* esa Xuroson, Eron va Hindiston tegdi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab boshqarishga kirishadi. *Chingizxonning* nabirasi *Munke* hukmronligi davrida (1251-59) mo'g'ullar davlati tarkibiga mo'g'uliston, Shim. Xitoy, Koreya, tangutlarning Si-Sya podsholigi, Markaziy va O'rta Osiyo, Kavkazorti, Eron, Afg'oniston va Rus erlarining aksariyati kirgan. Biroq, mo'g'ullar davlatida ichki birlik yo'q edi, u turli tillarda so'zlashuvchi ko'plab xalqlarni zo'rlik bilan birlashtirgan edi, bu xalqlar turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida bo'lib, ularning ko'pchiligi taraqqiyot darajasiga ko'ra mo'g'ullardan ancha ustun edilar. *Munke* o'limidan so'ng mo'g'ullar davlati parchalanib keta boshlagan. Undan dastlab *Botu* (1236-55-yillar hukmronlik qilgan) va *Huloku* (1256-65-yillar hukmronlik qilgan) uluslari ajralib chiqib, mo'g'ullar sulolasi hukmronligi ostida mustaqil davlatlar tuzganlar (Oltin O'rda, Hulokuiylar davlati). Bu davlatlar mo'g'ullar davlati ishlariga aralashmaganlar va o'z navbatida, boshqalarning ham ularning ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymaganlar. *Munkening* o'rniga taxtga chiqqan ukasi *Xubilay* (1260-94-yillar hukmronlik qilgan) davrida mo'g'ullar Xitoyning butun hududini bosib olishgan. Xubilay va uning vorislari saltanati Yuan deb atala boshlagan. 1368-yil Xitoydagi xalq qo'zg'oloni natijasida mo'g'ullar u yerdan quvilganlar. Kulikovo jangidan so'ng mo'g'ullarning Rusdagi hukmronligiga darz ketgan. XIV asrning ikkinchi yarmida Eron, Kavkazorti va O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi tugatilgan. XIV asrning so'nggi choragida mo'g'ullar davlati barham topgan. XV asrda *Esenxon* (1440-55-yillarda xonlik qilgan) va *Dayanxon* (1479-1543-yillarda xonlik qilgan) kabi hukmdorlar birlashib mo'g'ullar davlatini tiklashga harakat qildilar. Ammo bu harakatlar natija bermadi. *Dayanxonning* o'limidan keyin mamlakat Janubiy Mongoliya va Shimoliy Mongoliyaga bo'linib ketdi. Shimoliy Mongoliya ham, o'z navbatida, G'arbiy va Sharqiy qismlarga ajraldi. XVI asrda Mongoliyaning 3 qismida jami 200 hokimlik (knyazlik) mavjud edi.

NUR — Sirdaryoning janubida joylashgan qal'a. Chingizxonning asosiy kuchlari tomonidan jangsiz ishg'ol etilgan. Bosqinchilar buyrug'iga binoan Nur aholisi qishloq xo'jalik asboblari, hayvonot va oziq-ovqatlarini olib, shaharni mo'g'ullarga bo'shatib beradilar. Nur qal'asi talon-toroj qilinadi va unga bir yarim ming dinor miqdorida tovon solinadi.

OLTIN O'RDA, JO'JI ULUSI — XIII asrning 40-yillari boshida *Jo'jixonning* o'g'li Botuxon (1238-1255) tomonidan asos solgan davlat. 1224-yil Jo'ji ulusi *Xorazm, Shimoliy Kavkazdan* iborat edi. 1236-1240-yillarda *Botuxonning* yurishlari natijasida *Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G'arbiy Sibir* Oltin O'rdaga qo'shib olindi. Rus knyazlari Oltin O'rdaga qaram bo'lib, xiroj to'lab turganlar. Rus manbalarida bu davlat Oltin O'rda, Sharq manbalarida Jo'ji ulusi deb atalgan. Oltin O'rda markazi *Botuxon* davrida Quyi Volgada, Saroy Botu edi. *Berkaxon* (1255-1266) davrida *Saroy Berkaga* ko'chirildi. Oltin O'rda oldin mo'g'ul qooniga qaram bo'lib, Botuning inisi *Berka* davrida mustaqillikka erishdi. Saroy Botu, Saroy Berka, Urganch, Sudak, Qofa (Feodasiya), Azoq savdo markazlari edi. Oltin O'rdani xon boshqargan. Zarurat tug'ilganda qurultoy chaqirilgan. Davlat ishlari bilan beklarbegi shug'ullangan. Devon ishlarini bilan vazir boshqargan. Soliq yig'ish dorug'a ixtiyorida bo'lgan. Zarur paytlarda bosqoqlar jo'natilgan. Yana quyidagi mansab va amallar bo'lgan: alpaut (zodagon), tuman, tumanbegi, elchi, bosqoq, devon bitikchisi, tamg'ach (boj yig'uvchi), tirnoqchi (tarozibon), shusunchi (ta'minotchi), yurtchi (me'mor), yo'l arachi (yo'l noziri), tutqovul (qorovul), ko'pirchi, kemachi, yomchi, ovchi. Qo'shinlarga tumanbegi, no'yon (amir), yuzboshilar qo'mondonlik qilganlar. Oltin O'rda *Jo'jining* 14 nafar o'g'lining 13 ulusidan iborat edi. Ular o'z uluslarini mustaqil boshqarishga intilganlar. Mustaqillik harakati *Mangu Temur* (1266-1282) vafotidan keyin kuchaydi. *To'da Mangu* (1282-1287), *Talabug'a* (1287-1291) xonliklari davrida tumanbegi *No'g'ayning* nufuzi ko'tarildi. 5 yil oradan o'tgach, yana isyon ko'tarildi. Unga *O'zbekxon* (1312-1342) barham berdi. U va vorisi *Jonibek* (1342-1357) davrlari Oltin O'rda harbiy salohiyotining eng kuchaygan davri bo'ldi. Hokimiyat markazlashdi. Uluslar viloyatlarga aylantirildi, ularni amirlar boshqargan; qurultoylar chaqirilmay qo'ygan. *O'zbekxon* davrida Oltin O'rda qurolli kuchlari 300 mingga yetgan. Lekin, ichki ziddiyatlar 1357-yil *Jonibekxonning* o'ldirilishi bilan yana yuzaga chiqdi. Shundan 1380-yilgacha 25 marta xon almashdi. XIV asrning 60-yillarida Xorazm mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqdi. Polsha va Litva davlati Dnepr daryosi havzasini bosib oldi. Hojitarxon (Astraxon) xonligi tashkil topdi. Faqat *To'xtamish* davri (1380-1395) ga kelib isyonlar to'xtadi. 1382-yil u Moskvani egallab, o't qo'ydi. Movarounnahrda tahdid sola boshladi. *Amir Temurning* 1389-yil, 1391 yil, 1395-1396-yillari *To'xtamishga* qarshi yurishlari Oltin O'rdani holdan toydirdi. *Idiqu* Oltin O'rdani tiklashga harakat qildi, natija bermadi. XV asrning 20-yillarida Sibir xonligi, 40-yil No'g'ay O'rda, 1438-yil Qozon xonligi, 1443-yil Qrim xonligi, 60-yillarda Qozoq xonligi tashkil topdi. 1480-yil Ahmad Rusni bo'ysundirishga urindi. XVI asr boshlarida Oltin O'rda quladi.

O‘TROR, TURARBAND, TARBAND, O‘TRORTEPA

— qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. I a. — mil. XVI a.). Jan. Qozog‘istondagi Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyida. O‘tror 3 qism (ark, shahriston, rabod)dan iborat bo‘lib, burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devori va xandaqlar bilan o‘ralgan. O‘trordan ko‘chalar, hammom, turar joy binolari qoldiqlari, uy-ro‘zg‘or, zargarlik buyumlari, kamon o‘qlari va boshqalar topilgan. Mo‘g‘ullar istilosiga qadar Xorazmshohlar davlatining savdo va hunarmandchilik shaharlaridan biri bo‘lgan. O‘tror mudofaasidan so‘ng mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. Oq O‘rda xonlari uni XIV asrda tiklaganlar. Bu davrda masjid, madrasa, xonaqoh qurilgan. *Amir Temur* va temuriylar davrida muhim harbiy shahar, qal‘a bo‘lgan. Bu davrda Yevropadan Osiyoga boradigan yangi savdo yo‘li vujudga kelgan; u Volga sohillaridan Uraldagi Saroychik shahri orqali Ko‘hna Urganch, O‘tror va Olmaliqqa borgan. Bu yo‘ldan musulmon savdogarlari ham, yevropalik tijoratchilar ham foydalanishgan. O‘trordan ko‘plab allomalar etishib chiqqan; shahar obodligi, chiroyi bilan nom chiqargan. XVI asrdagi o‘zaro ichki nizolar paytida huvillab qolgan.

QARSHI — Qashqadaryo vohasining markazida, Qashqadaryo bo‘yida, Qarshi O‘zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri. U turli davrlarda *Bolo*, *Nashebo*, *Naxshab*, *Nasaf* nomlari bilan yuritilib, XIV asrdan Qarshi deb atala boshlagan. «Qarshi» nomining kelib chiqishi to‘g‘risida turli fikr va taxminlar mavjud. *V.V. Bartold* shaharning nomi mo‘g‘ul xoni *Kepakxon* qurdirgan “Qarshi” (qadimgi turkiychada “saroy” ma‘nosini anglatgan) bilan bog‘liq deb ta‘kidlaydi. “*Qutadg‘u bilig*” dostonida “Qarshi” atamasi “saroy” va “qarama-qarshi turish” ma‘nosida qo‘llangan. “*Boburnoma*”da ham bu nom mo‘g‘ul tilidan olinganligi ta‘kidlangan. Keltirilgan taxminlarda atamaning “*qarshi*” — saroy, qasr ma‘nolari ko‘proq qo‘llanadi. Dastlabki shahar Qashqadaryo vohasida “*Naxshab*” (suv obod qilgan, suv naqsh bergan manzil) nomi bilan mil. avv. VII asrda Yerqo‘rg‘on o‘rnida vujudga kelib, uning atrofi qal‘a devori bilan o‘rab olingan (ushbu qal‘a devorlarining qoldiqlari arxeologlar tomonidan 1999-yilda o‘rganilgan). Shaharning yana bir nomi Novtak — Navtaka — yangi bino deb ham talqin qilinadi. Mil. avv. VI asrda shahar kengayib, ichki devor bilan o‘ralib, mayd. 35 ga ni tashkil etgan. Aleksandr Makedoniyalik bosqini davrida shahar vayron qilingan. Shundan keyin uning vohadagi yetakchi shahar sifatidagi maqomi pasayib borgan. Mil. avv. III-II asrlarda shahar tashqi qal‘a devori bilan o‘ralgan (mayd. 150 ga bo‘lgan). II-I asrlarda yangi harbiy-siyosiy markaz maqomini olgan Zakhoki-Moron qal‘asi bunyod etildi. Bu qal‘a ham Naxshab nomini olib asta-sekin kengaya bordi. Kidariylar o‘z qarorgohini 468-yilda yangi *Naxshab*ga ko‘chirdilar. 710-yilda arablar shahar (Naxshab arabcha talaffuzda “Nasaf”) va uning atrofidagi hududlarni bosib oldilar. IX-XIII asrlarda Naxshab (Nasaf) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topdi. X asrda Nasafda o‘sha davr musulmon olamida ilmiy kongress — “majlisi tadrīs” o‘tkazilgan. O‘rta asrlarda Nasaf orqali Eron va Hindistonni Rossiya va Yevropa davlatlari bilan bog‘lagan muhim karvon yo‘llari o‘tgan,

savdo-hunarmandchilik rivojlangan. 1220-yilda Nasafni *Chingizxon* qo‘shinlari vayron qildi. Undan keyingi davrda (XIV asrda) voha markazi 3-marta hoz. Qarshi shahrining eski shahar qismi o‘rnida qayta tiklandi. *Chig‘atoy* ulusi xoni *Kepakxon* (1318-26) Nasafdan 2 farsax (12-14 km) uzoqlikda qasr qurdirib, poytaxtni Qarshi deb atalgan bu qal‘aga ko‘chirgan. Shahar hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, bino qoldiqlari Qarshida XIV asrning birinchi yarmida bir qancha koshinkor imoratlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. XIV asrning ikkinchi yarmida shahar qo‘rg‘oni atrofi g‘isht va paxsa devor bilan o‘ralgan, shaharda Odina masjidi qurilgan. Qal‘a atrofida 2,5-3 m chuqurlikda xandaq qazilgan. Xandaq ustida 4 ta ko‘tarma ko‘prik bo‘lgan. Shahar qo‘rg‘oni hududi 40 ga ni tashkil etgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 29-sentyabrdagi “*Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida*”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 26-iyuldagi “*Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*”gi qaroridan keyin shaharda keng ko‘lamda tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Qarshidan “Nasafiy” taxallusi bilan ko‘plab olimlar, shoirlar yetishib chiqqan. Shulardan *Alisher Navoiy*ning “*Majolis un-nafois*” asarida tilga olingan *Mavlono Soyiliy*, *Mavlono Mir Qarshiy*, undan tashqari, *Mahmud Nasafiy* (musiq va san‘at sohasida), *Qusam Shayxlar* (diniy ilmlar sohasida) shuhrat qozonganlar.

QORAQURUM — mo‘g‘ulistonning Onon daryosi bo‘yida joylashgan shahar. Mo‘g‘ullar davlatining poytaxti.

QUTLUG‘ BALIQ (Qutlug‘ shahar) — mo‘g‘ullarga o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgani uchun *Zerinuq* qal‘asiga berilgan nom.

QO‘RG‘OSHIN NOVA, JO‘YI ARZIS — Samarqandning bosh suv inshooti. Uni mo‘g‘ullar buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradilar.

SAROY BERKA, YANGI SAROY — Oltin O‘rdaning poytaxti. Berkaxon tomonidan bunyod etilgan (taxminan 1260). XIV asrning birinchi yarmida ravnaq topgan. Saroy-Berka nafaqat Oltin O‘rda, balki butun o‘rta asr Yevropasining eng katta shaharlaridan biri sifatida shuhrat topgan. 1333-yil Saroy-Berkaga kelgan Ibn Battutaning guvohlik berishicha, Saroy-Berka kaftday tekislikda qurilgan shaharlar sirasiga kirib, odamlar bilan to‘la bo‘lgan, ajoyib bozorlari, keng ko‘chalari kishini hayratga solgan. Saroy-Berkaning aholisi 75 ming kishi atrofida bo‘lib, ular mo‘g‘ul, alan (os), qipchoq, cherkas, rus hamda vizantiyaliklardan iborat bo‘lgan. Shaharda hunarmandchilik ustaxonalari, turli tuman korxonalar, savdo-sotiq rastalari, karvonsaroylar ishlab turgan. Shaharning butunlay xarobaga aylanish vaqti haqida aniq ma‘lumot yo‘q. Sharq va G‘arbni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Saroy-Berkaning ko‘pdan ko‘p binolari rus podshosi Fedor Ivanovichning 1578-yildagi farmoniga ko‘ra, buzilgan va Astraxon shahri qurilishi uchun ishlatilgan. Xarobalari Volgograd viloyatidagi Sarev qishlog‘ida saqlangan. Saroy-Berkada A.V. Tereshchenko (1843-1851), F.B. Ballod (1922-yil), G.A. Fyodorov-Davidov (1959-1967) qazish ishlari olib borishgan.

SAROY BOTU, ESKI SAROY (yilnomalarda — Katta

saroy) — Botuxon tomonidan qurdirilgan shahar (1254). Dastlab Oltin Oʻrdaning asosiy siyosiy markazi hisoblangan. Saroy-Berkada koʻplab saroylar, masjidlar, hunarmandchilik dahalari (Cherepanoe pole) va boshqa boʻlgan. Saroy-Berka atrofida katta nekropol joylashgan. Oltin Oʻrda xonlarining oʻzaro kurashi va Amir Temurning yurishi (1395) natijasida qattiq shikastlangan. 1480-yil uzil-kesil vayoronaga aylangan. XVIII asr shahar oʻrnida selitra (oʻgʻit) zavodi joylashgan. Shahar xarobalari hozirgi astraxon viloyati Xarabali tumanidagi Selitrennoe qishlogʻida saqlanib qolgan. F.B. Ballod (1922), P.S. Rikov (1931) lar tomonidan qazish ishlari olib borilgan.

SULAYMONIYA — Iroqning shimoli-sharqiy qismidagi shahar, Sulaymoniya muhofazasining maʼmuriy markazi.

SZINDI — Pekin shahri.

XAMINA QISHLOGʻI — Buxoro arofidagi qishloq. 1299-yilga mansub vaqf hujjati bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, vaqf xoʻjaligining tashkilotchisi Buxorodan 4 farsax (28-32 km) uzoqlikda joylashgan, sugʻorilib obod etilgan shu qishloqni ekin yerlari bilan sotib olgan.

XULAGULAR DAVLATI — 1256-yil moʻgʻullar tomonidan Eronda tashkil qilingan davlat.

YOM-JOM — savdo yoʻllaridagi qoʻnoq.

ZERINUQ (Zarnuq) — Sirdaryoning janubida joylashgan qalʼa. Zerenuq aslida “gumbaz osti” maʼnosini anglatadi. *Chingizxonning* asosiy kuchlari tomonidan jangsiz ishgʻol etilgan. Oʻz ixtiyori bilan taslim boʻlgani uchun Zerenuq qalʼasiga moʻgʻullar “Qutlugʻ baliq”, yaʼni “Qutli shahar” degan nomni beradilar.

CHIGʻATOY ULUSI — *Chingizxon* tomonidan ikkinchi oʻgʻli *Chigʻatoy* va uning merosxoʻrlariga hukmronlik uchun berilgan (1224) hududning nomi. Chigʻatoy ulusi *Qashqar*, *Yettisuv* va *Movarounnahr* yerlarini oʻz ichiga qamrab olgan. Koʻchmanchilik bilan shugʻullanuvchi moʻgʻullarning oʻtroq aholini boshqarish tajribasi yoʻqligi bois *Chigʻatoyxon* oʻziga tegishli ulusni boshqarishni avval xorazmlik *Mahmud Yalavochga*, soʻngra uning oʻgʻli *Masʼudbekka* (1238-89) topshiradi. Oʻzi esa umrining oxirigacha ukasi *Oʻqtoy qoon* saroyida bosh maslahatchi tarzida faoliyat koʻrsatadi. Chigʻatoy ulusidan olinadigan daromadlarning asosiy qismi Qoraqurumga joʻnatilgan. Qolgan qismini mahalliy aholidan tayinlangan oliy hokim ulus ehtiyojlari hamda qoʻshin xarajatlari yoʻlida sarf qilish huquqiga ega boʻlgan. Chigʻatoy ulusida ham *Chingizxon* barpo etgan moʻgʻullar davlatidek mehnatkash omma nafaqat moʻgʻul bosqoqlari, dorugʻalari, balki mahalliy zodagonlar va oqsuyaklar tomonidan ham ezilgan. Dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar, chorvadorlar ilgari mavjud boʻlgan soliqlardan tashqari moʻgʻullar joriy qilgan yangi soliq va oʻlponlarni toʻlashga majbur edi. Oxir-oqibat Chigʻatoy ulusining qishloq va shaharlarida moʻgʻullarga va yerlik zodagonlarga nisbatan noroziliklar kuchaygan, qoʻzgʻolonlar boʻlib oʻtgan. Chigʻatoy vafotidan soʻng *Mangu qoon* va *Botuxon* Chigʻatoy ulusini mulk sifatida tugatib, uni Tuli va Joʻji vorislari oʻrtasida taqsimlashga kelishib olishgan. 1251-yil imperiya poytaxti Qoraqurumda boʻlib oʻtgan qurultoyda *Mangu qoon* etib saylangach, chigʻatoy xonzodalarning koʻpchiligi *Oʻqtoy qoon* avlodlari

qatori qatl qilingan. Chigʻatoy ulusini *Mangu qoon* va *Botuxon* boʻlishib olganlar. *Movarounnahr* *Botuxonga* qaram boʻlib qolgan. XIII asrning 60-yillarida Chigʻatoyning oltinchi farzandi *Baydarning* oʻgʻli *Olgʻu* (1261-65) chigʻatoylar hokimiyatini qayta tiklashga erishadi. *Olgʻu* vafot etgach, uning vorislari — *Muborakshoh* va *Baroqxon* mahalliy aholi bilan yaqinroq munosabatda boʻlish maqsadida musulmon dinini qabul qilganlar. 1266-yil Chigʻatoy ulusi xoni qarorgohi Yettisuvdan *Movarounnahr*ga — Ohangaronga koʻchiriladi. *Baroqxon* hukmronligi vaqtida *Xaydu* koʻrsatmasiga muvofiq *Masʼudbek* tomonidan Buxoro qayta tiklanadi. Fargʻona vodiysida yangi shahar — Andijonga asos solinadi. *Kebakxon* (1318-26) davrida qarorgoh Qashqadaryoga koʻchiriladi, qad. Nasaf yaqinida Qarshi shahri barpo etiladi. Ulus Erondagi kabi maʼmuriy birliklar hamda soliq undiriluvchi tumanlarga (Fargʻona va Qashqarda — oʻrchin) taqsimlanadi, yagona pul birligi — kebakiyga oʻtiladi. Ammo moʻgʻul mulklarini birlashtirish va markazlashtirish maqsadida oʻtkazilgan maʼmuriy va moliyaviy islohotlar siyosiy tarqoqlikka barham berishga qodir emas edi. XIV a. oʻrtalarida Chigʻatoy ulusi *Movarounnahr* va moʻgʻulistoniga boʻlinib ketgan. 1370-yil *Movarounnahr*da *Amir Temur* saltanatining oʻrnatilishi chigʻatoylar hokimiyatiga barham berdi.

CHJUNDU — Xitoy poytaxti Pekinning oʻrta asrlardagi nomi.

TARIXIY SANALAR

1155-1227-YILLAR — moʻgʻullar davlatining asoschisi *Chingizxon (Temuchin)*ning hayot faoliyati.

1204-1205-YILLAR — *Temuchin* moʻgʻulistonning koʻchmanchi chorvador urugʻlarini birlashtirib, markazlashgan harbiy moʻgʻul davlatini tashkil etdi.

1206-YIL — hamqavmlari bilan kurashda, turk xonlari bilan urushlarda gʻolibona harakat qilgani uchun Onon daryosi boʻyida chaqirilgan moʻgʻul urugʻ va qabila boshliqlarining quriltoyida Timuchinga “Chingiz” laqabi berildi. Shundan soʻng u *Chingizxon* nomi bilan atala boshladi.

1206-YIL — *Chingizxon* tomonidan naymanlarning boʻysundirilishi.

1207-1208-YILLAR — *Chingizxon* tomonidan Enasoy havzasi, soʻngra Yettisuv viloyatining shimoliy qismi zabt etildi va uygʻurlar taslim boʻldi.

1207-1273-YILLAR — tasavvuf falsafasining asoslarini talqin etadigan 36 ming baytdan iborat “*Masnaviyi maʼnaviy*” nomli poema muallifi *Jaloliddin Rumi*ning yashab ijod etgan yillari.

1211-1215-YILLAR — *Chingizxon* Xitoyga bir necha bor hujum qilib, katta oʻljalar bilan qaytdi.

1215-YIL — *Chingizxon* Shimoliy Xitoyning markazi Szindi (Pekin) shahrini ishgʻol qilib, Szin sulolasini taxtdan qulatdi. Shimoliy Xitoy yerlari moʻgʻuliston davlatiga qoʻshib olindi.

1216-1218-YILLAR — Xorazmshoh va *Chingizxon* aloqalarining yaxshilanishi.

1216-YIL — Xorazmshoh *Bahouddin Roziy*

boshchiligida o'z elchilarini *Chingizxon* huzuriga yubordi.

1218-YIL — Chingizxon *Sulton Muhammad*ga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini yubordi. Urganch shahri tomon borayotgan karvon O'tror shahri noibi *Inalxonning* farmoniga binoan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlandi. Faqat bir tuyakashgina o'limdan qutilib qoladi va Chingizxon qarorgohiga yetib borib bu voqeadan xabar beradi.

1218-YIL BAHOR — Xorazmlik savdogar *Mahmud Yalovoch* boshliq Chingizxon elchilarini *Sulton Muhammad* Buxoro shahrida qabul qildi.

1218-1219-YILLAR — *Chingizxon Sharqiy Turkiston* va *Yettisuv viloyatlarini* qo'lga kiritib, bu yerdagi *Kuchluk* davlatini tugatdi. Shunday qilib, Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' (Tyanshan) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan.

1219-YIL KUZ — Chingizxon o'g'illari *Chig'atoy*, *O'qtoy* va *Jo'ji* bilan birga Xorazmshohga qarshi yurish boshlaydi. Chingizxon qo'shini *Ili* daryosi bo'ylab Shimoliy Farg'onadan o'tib, Janubiy Qozog'istonda Sirdaryo bo'yida joylashgan O'tror shahri ustiga yurush qildi. Chingizxon O'trorda butun mo'g'ul harbiy kuchlari to'plab Movarounnahrni zabt etish uchun uni to'rt qisimga bo'ldi. Qo'shinning birinchi qismi *Chig'atoy* va *O'qtoy* boshchiligida O'torni qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qisimga *Jo'ji* boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi va Sig'noq, O'zgand, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olishni buyurdi. Uchinchi qo'shin *Oloqno'yon* hamda *Suketu Cho'rbiy* qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab uning yuqori oqimiga joylashgan Banokat va Xo'jand shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan dashtliklar orqali Buxoroga tomon askar tortdi.

1219-1221 YILLAR — mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashda Xo'jand hokimi *Temur Malik* jasorati.

1219-1293-YILLAR — "*Guliston*" va "*Bo'ston*" nomli didaktik asarlarining muallifi *Sa'diy Sheroziyning* hayot faoliyati.

1220-YIL — *Muhammad Xorazmshohning* Chingizxon ta'qibidan chekinishi va vafot etishi.

1220-YIL FEVRAL — Chingizxon o'z qo'shini bilan Buxoroga yetib bordi. Buxoroliklar dushmanga taslim bo'ldi va *Bahriddin Qozixon* boshliq o'z oqsqoqlarini Chingizxon oldiga shafqat so'rab yubordi.

1220-YIL 16-FEVRAL — mo'g'ullar Buxoroni bosib oladilar. *Chingizxon* amiri bilan Buxoro yoqib yuborildi.

1220-YIL MART — *Chingizxon* Ko'ksaroy qasridan turib Samarqandni 5 kun qamal qildi. Qamalning uchinchi kuni mudofaachilar qamalni yorib chiqib mo'g'ullarga hujum qiladilar. Mo'g'ullar ularni qirib tashlaydilar. Qamalning beshinchi kuni shahar taslim bo'ldi. Mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inшоati — Qo'rg'oshin novani buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradilar. Namozgoh darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qiladilar. Shahristondan aholi haydab chiqariladi va Samarqand talanadi. Mo'g'ullarning Samarqandni bosib

olish uchun qilgan janglarida shahar aholisining ko'pgina qismi qiriladi. 30 ming nafarga yaqin hunarmand ahli asirga olinadi. Qurol ko'tarishga holi bo'lganlar mo'g'ullar zulmi ostida askariy xizmatga majbur qilinadi.

1220-YIL APREL — mo'g'ullar Jandni egallab uni talaydilar. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi.

1220-YIL YOZ — Chingizxon Naxshab (Qarshi)ga bostirib kirdi va uni bo'ysundirdi.

1220-YIL KUZ — 11 kun qamaldan keyin Chingizxon **Termizni** bo'ysundirdi.

1220-1231-YILLAR — *Jaloliddin Manguberding* mo'g'ullarga qarshi kurash olib borishi.

1221 YIL BOSHI — Jaloliddin Manguberdi Xorazm davlatining Sultoni deb e'lon qilindi va *Temur Malik* bilan Xurosonga jo'neydi.

1221 YIL QISH — 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari Urganchga hujum boshlab, uni qamal qiladi.

1221 YIL YOZ — Parvona dashtidagi jangda *Jaloliddin Manguberdi* mashhur mo'g'ul lashkarboshchisi *Shiki Qutuhu no'yon* boshliq qo'shinni mag'lub etadi. Jangda harbiy taktika tarixida birinchi bo'lib Jaloliddin dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish uslubini qo'llaydi.

1221 YIL 25-NOYABR — Hind (Sind) daryosi bo'yida *Jaloliddin* va mo'g'ullar o'rtasida shiddatli jang bo'ladi. Jaloliddin *Chingizxon* qo'shining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangning oqibatini hal qiladi. Jaloliddin taslim bo'lishni va o'z oilasining mo'g'ullar qo'lga tushishini va xorlanishini xohlamay rafiqasi, onasi va bolalarini tik qirg'oqdan daryoga tashlashga amr etadi. O'zi esa otda Hind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa suzib o'tadi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib oladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan ham qaytadi.

1227-YIL — *Chingizxon* vafot etdi va *O'qtoy* mo'g'ullar davlatining ulug'xoni qilib tayinlandi.

1231-YIL — 140 yil hukmronlik qilgan Buyuk Xorazmshohlar davlati barham topdi.

1235-YIL — mo'g'ullar o'tkazgan qurultoyda chorvadan *'qopchur*" solig'i yig'ishga qaror qilindi. Bu soliq bo'yicha, har yuz bosh chorvadan bir bosh olingan.

1236-1241-YILLAR — mo'g'ullar tomonidan Rusiya zabt etildi va Oltin O'rda davlati vujudga keldi.

1238-YIL — *Mahmud Yalovoch* isyonkor hududlarda qo'zg'olonni bostirishda sustkashligi va ularga solinadigan soliqlarni kamaytirgani uchun *Chig'atoy* uni amalidan chetlashtirib, Movarounnahrdan chiqarib yuboradi. Mahmud Yalavoch O'qtoy huzuriga Qoraqurumga yetib borgach, u Dasin (Pekin) shahriga hukmdor qilib tayinlanadi. Chig'atoy ulusiga Mahmud Yalavochning o'g'li *Ma'sudbek* noib hamda ijarador qilib tayin etiladi.

1238-YIL — Torob qishlog'ida *Mahmud Tarobiy* va *Shamsuddin Mahbubiy* boshchiligida mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonning boshlanishi.

1246-YIL — yevropalik sayyoh *Plano Karpini* mo'g'ulistonda xoqon qarorgohida bo'ladi.

1248-YIL — Buyuk xoqon *Guyukxon* vafotidan so'ng

bosh hukmronlik uchun chingiziylar o'rtasida kurash kuchaydi.

1251-YIL — mo'g'ullar davlatining poytaxti Qoraqurumda bo'lib o'tgan qurultoyda chingiziylar orasida yoshi ulug'i Botu va uning ukasi berkalarning qo'llab quvvatlashi va ko'magida *Tuluxonning* to'ng'ich o'g'li *Munqa* Mo'ng'ilistonning ulug' xoni qilib saylandi.

1251-1259-YILLAR — mo'g'ul imperiyasida *Munqa* hukmronligi davri. Chig'atoy ulusi mulk sifatida tugatildi va *Botu* bilan *Munqa* o'rtasida kelishuv asosida taqsimlanib, Sirdaryogacha bo'lgan yerlarni *Munqa*, *Movarounnahr*ni esa *Botu* egallab oldi.

1253-1325-YILLAR — *Nizomiy Ganjaviy*dan so'ng "*Xamsa*" dostonini yozgan va "*Zafarlar kaliti*", "*Falakning to'qqiz gumbazi*" nomli asarlar muallifi *Amir Xusrav Dehlaviy* yashab ijod etgan.

1256-YIL — mo'g'ullar Eronni bosib olib, *Xulagular* davlatini tashkil qildi.

1258-YIL — *Xulagu* abbosiylar sulolasiga barham berdi.

1271-YIL — *Ma'sudbek* tomonidan pul islohoti amalga oshirildi. Islohot tovar va pul munosabatlarini tiklanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. *Ma'sudbek* *Movarounnahr*ning 16 ta shahar va viloyatlarida: *Samarqand*, *Buxoro*, *Taros*, *O'tror*, *Xo'jand* va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirdi.

1272-YIL — *Xulagulaxonning* *Oqbek* boshliq askarlari *Movarounnahr*ga bostirib kirib, *Kesh* va *Naxshab* shaharlarini talaydilar.

1273-YIL — *Xulagulaxonning* askarlari *Buxoroga* bostirib kirib, shaharni g'arot qiladilar. *Katta kutubxona* va "*Ma'sudiya*" madrasasi yondiriladi.

1282-1306-YILLAR — *Farg'ona vodiysida* chig'atoyzodalardan *Tuvoxon* hukmronligi davri. *Andijon* shahriga asos solinishi.

1299-YIL — *Buxoro* atroflari sug'orilib obod etilishi to'g'risida vaqf hujjatida qayd etilishi.

1318-1326-YILLAR — Chig'atoy ulusida *Kebek* hukmronligi davri. Uning hukmronligi davrida qadimgi *Nasaf* shahri yonida unga atab saroyi qurildi. Saroy mo'g'ul tilida "*Qarshi*" deb yuritilib, shu saroyda turib u mamlakatni idora qiladi. *Kebekxon* ma'muriy va pul islohotini o'tkazadi. U davlatni viloyatlarga — "tumanlarga bo'lib boshqaradi. *Kebek* ikki xil pul: kumush tanga — "dinor" va mayda kumush tanga — "dirhamlar"lar zarb ettiradi. "Kepaki" deb nom olgan bu tangalar *Samarqand* va *Buxoroda* zarb etilib, muomalaga chiqarilgan.

1333-YIL — *Movarounnahrda* bo'lgan arab sayyohlaridan biri *Kebekning* ukasi *Tarmashirinni* masjidga uchratganligini qayd etgan.

1334-1376 YILLAR — Chig'atoy ulusida *Tarmashirin* hukmronligi.

1348-YIL — Chig'atoy naslidan bo'lgan *Tug'luq Temur* mo'g'uliston xoni etib ko'tarildi.

1999-YIL — O'zbekistonda *Jaloliddin Manguberdi* tavalludining 800 yilligi nishonlandi. *Xorazmda* unga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha va maydonlarga uning nomi qo'yildi, videofilm, pyesa va dostonlar yaratildi.

2000-YIL 30-AVGUST — "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

XII ASR — mo'g'ullar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda O'rta Osiyoda eng qoloq aholi hisoblanar edi. Ularda hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Mo'g'ul urug' va qabilalari ichida mulkdorlik munosabatlari paydo bo'lib, ular o'rtasida sinfiy kurash avj olib bormoqda edi.

XII ASR OXIRI — XIII ASR BOSHI — mo'g'ul urug' boshliqlari orasida ichki kurashlarda *Timuchinning* g'olib chiqishi.

XIII ASR BOSHI — *Xorazmshohlar* saltanati buyuk davlat hisoblanardi. *Xorazm* va *Movarounnahr*dan tashqari hozirgi Afg'oniston yerlari va *Eronning* kattagina qismi uning tasarrufida edi. Davlat qang'li qipchoq va turkmanlardan tuzilgan intizomli qo'shinga ega bo'lib, qo'shinning umumiy soni *Chingizxon* harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Biroq, *Xorazmshoh* hokimiyati mustahkam bo'lmagan.

XIII ASRNING IKKINCHI YARMI — *Xorazmda* islom axloqi, odobi va taqvdorligi asosida turkiy tildagi adabiyot rivoj topa boshlaydi. U Chig'atoy tili va "Chig'atoy adabiyoti" nomini oladi.

XIII ASRNING IKKINCHI YARMI — XIV ASR BOSHI — Shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan mo'g'ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari tiklana boshlandi. Binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yildi. Fan va adabiyot, asosan, mo'g'ullar hukmronligi o'rnatilmagan viloyatlar *Kichik Osiyo*, *Janubiy Eron* va *Hindistonda* taraqqiy qiladi.

XIII ASRNING IKKINCHI YARMI — *Movarounnahr* va *Xurosonda* tarixnafislik taraqqiy topdi. Bu davrda *Juzjoniyning* "*Tabaqoti Nosiriy*", *Juvayniyning* "*Tarixi jahongushay*" ("*Jahon fotihi tarixi*"), *Fazlulloh Rashiduddin*ning "*Jome at-tavorix*" ("*Tarixlar to'plami*") kabi qimmatli tarixiy asarlar yoziladi.

XIII ASRNING 20-YILLARI — Chig'atoy tasarrufiga berilgan *Movarounnahr*, *Yettisuv* va *Sharqiy Turkistonda* Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Chig'atoyxonning ulusni boshqaradigan o'rdasi *Ili daryosi* bo'yida edi.

XIII ASRNING 20-YILLARI — Go'bi saxrosining sharqiy chegarasidan to *Tangritov* (*Tyanshan*) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan.

XIII ASR O'RTALARI — mo'g'ullar davlatining umumsiyosiy ahvoli og'irlashdi. Mo'g'ullar garchi *Osiyo* va *Yevropaning* katta qismida o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsalarda, ammo hali ular yagona davlatga ega emas edilar. Ulug' xoqon nomigagina hokim edi. Mo'g'ullar istilosi butun *Sharqiy Yevropaga* yoyildi.

XIII ASR O'RTALARI — Chig'atoy ulusining mo'g'ul ma'murlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchaydi.

XIII ASR O'RTALARI — *Buxoroda* "*Mas'udiya*" va "*Xoniya*" nomalari bilan shuhrat topgan ikki madrasa bino qilingan.

XIII ASRNING 60-YILLARI — Chig'atoyning nabirasi

Olg'uxon Oltin O'rda ma'murlariga qarshi kurash olib borib, Chig'atoylar ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi.

XIII ASR OXIRI — Buxoro shahri atroflarining sug'orilib obod etilishi.

XIV ASRNING BIRINCHI YARMI — Chig'atoy ulusining yuqori tabaqasida ko'chmanchilikdan o'troqlikka ko'cha boshlagan, mo'g'ul harbiy ma'murlari, mahalliy mulkdorlar: yirik yerdorlar, ruhoniylar va savdogarlardan iborat edi.

XIV ASRNING BIRINCHI YARMI — Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

XIV ASRNING 20-40-YILLARI — Movarounnahrda mo'g'ular amalga oshirgan vayronagarchilik hali tugatilmay, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq o'zining XIII asr boshlaridagi darajasiga ko'tarilmagan edi.

XIV ASRNING 30-YILLARI — Movarounnahrda bo'lgan arab sayyohi *Ibn Battuta* Chingizxon boshliq mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlarini to'g'risida ma'lumotlarni yozib qoldirishi.

XIV ASRNING 40-YILLARI — Chig'atoy ulusi barham topdi.

XIV ASRNING 40-YILLARI — Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketdi. Uning sharqiy qismida — Sharqiy Turkiston va Yettisuvda mo'g'ullarning *Dug'lat amirligi*, G'arbiy qismida esa *Movarounnahr amirligi* tashkil topdi.

XIV ASR OXIRI — XV ASR BOSHI — Movarounnahrda va Xurosonda adabiy muhitning jonlanishi.

TESTLAR

1. Qaysi asrda mo'g'ul qabilalari hayotida urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi?

- A) XI asrda
- B) VIII asrda
- S) XIII asrda
- D) IX asrda

2. Mo'g'ul qabilalari asosan ...

- A) ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishgan
- B) ko'chmanchi ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan
- S) dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan
- D) ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik, o'zaro mahsulot ayirbosh qilish bilan shug'ullanishgan.

3. Qachon mo'g'ul urug' va qabilalari o'rtasida o'zaro kurash avj olgan?

- A) X asrda
- B) VII asrda
- S) XIII asrda
- D) XI asrda

4. Mo'g'ullar davlati asoschisi Chingizxonning hayot faoliyatini belgilang.

- A) 1185-1231-yillarda

- B) 1155-1227-yillarda
- S) 1142-1225-yillarda
- D) 1167-1224-yillarda

5. Nechanchi yilda mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilingan?

- A) 1211 yilda
- B) 1208-yilda
- S) 1206-yilda
- D) 1215-yilda

6. Qaysi daryo bo'yida Temuchinga "Chingiz" laqabi berilgan?

- A) Onon daryosi
- B) Ili daryosi
- S) Volga
- D) Murg'ob

7. Qachon mo'g'ullar davlatiga asos solingan?

- A) 1168-yilda
- B) 1236-yilda
- S) 1206-yilda
- D) 1195-yilda

8. Chingizxon taxtga o'tirgach, birinchi bo'lib qaysi qavmni o'ziga bo'ysundirgan?

- A) qalmoqlarni
- B) naymanlarni
- S) uyg'urlarni
- D) orloltarni

9. 1207-1208-yillarda mo'g'ullar ...

1) Enasoy havzasini bosib oldi; 2) naymanlarni bo'ysundirdi; 3) Shimoliy Xitoyni egalladi; 4) Sharqiy Turkistonni bosib oldi; 5) Yettisuv viloyatining shimoliy qismini zabt etdilar; 6) Tangritog' tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan yerlarni egalladi; 7) uyg'urlarni bo'ysundirdi; 8) Kuchluk davlatini tugatdi.

- A) 1, 2, 6
- B) 1, 5, 7
- S) 2, 3, 7
- D) 1, 4, 8

10. Nechanchi yillarda Chingizxon boshliq mo'g'ul qo'shinlari Shimoliy Xitoyga hujum qilganlar?

- A) 1207-1208-yillarda
- B) 1206-1209-yillarda
- S) 1218-1219-yillarda
- D) 1211 1215-yillarda

11. XIII asr boshlarida Shimoliy Xitoyning markazi qaysi shahar bo'lgan?

- A) Szindi
- B) Chan'an
- S) Xonchjou
- D) Kayfin

12. Chingizxon Shimoliy Xitoyga hujum qilganida bu yerda qaysi sulola vakillari hokimiyat tepasida bo'lgan?

- A) Tan sulolasi

- B) Sun sulolasi
- S) Szin sulolasi
- D) Min sulolasi

13. Chingizxon Shimoliy Xitoyni bosib olgach, u yerdan ko'p o'ljalari, cho'rilar bilan kimlarni mo'g'ulistonga olib ketadi?

- A) harbiy qurol yasaydigan va ularni ishlata biladigan mohir hunarmandlarni
- B) shoir va yozuvchilarni
- S) ruhoniylar va adabiyot ahlini
- D) hunarmand va binokorlarni

14. Chingizxonga o'z qo'shinini zamonasining eng yaxshi harbiy qurol-aslahalari bilan ta'minlash imkonini bergan omilni aniqlang.

- A) Xorazmshohlar davlati tomonidan harbiy mutaxassislarini yuborishi
- B) Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini mo'g'ullar davlatiga qo'shib olishi
- S) Xitoyni bosib olishi
- D) Chingizxon tomonidan markazlashgan Mo'gullar davlatini barpo etilishi

15. Chingizxon Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini qachon mo'g'ullar davlatiga qo'shib olgan?

- A) 1216-1220-yillarda
- B) 1206-1210-yillarda
- S) 1207-1208-yillarda
- D) 1218-1219-yillarda

16. Chingizxon Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlariga qilgan hujumi natijasida qaysi davlat barham topdi?

- A) No'g'ay davlati
- B) Oyrot davlati
- S) Kuchluk davlati
- D) Katta juz davlati

17. Ma'lumki, Chingizxon mo'g'ullar davlati taxtiga o'tirgach, o'z davlati sarhadlarini kengaytirish uchun juda ko'plab istilochilik yurishlarini amalga oshiradi. Chingizxon Yettisuv va Sharqiy Turkistonni bosib olganidan so'ng mo'g'ullar davlatining hududi qanday ko'rinish oldi?

- A) Sirdaryoning quyi oqimi, Balxash ko'lidan to Dneprgacha bo'lgan hududlarni egallagan
- B) Parvon dashtidan to Irtish daryosigacha, Volga daryosidan to Kama daryosigacha bo'lgan hududlar birlashgan
- S) Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan hududni birlashgan
- D) Qizilqum shahridan to Tyanshan to'g'ining sharqiy etaklarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan

18. Chingizxon Xorazmshohlar davlatining kuch qudratini bilib olish va bu haqda ma'lumotlar to'plashda kimlardan foydalangan?

- A) musulmon elchilardan

- B) musulmon choparlardan
- S) musulmon josuslardan
- D) musulmon savdogarlardan

19. 1216-yilda Xorazmshoh Sulton Muhammad kim boshchiligida o'z elchilarini Chingizxon huzuriga yuboradi?

- A) Badriddin Qozixon
- B) Bahouddin Roziy
- S) Ibn Kafroj Bug'ro
- D) Mahmud Yalavoch

20. Xorazmshoh Sulton Muhammadning validasi qanday nom bilan shuhrat topgan edi?

- A) Uljoy Turkon
- B) Turkon Xotun
- S) Takina Xotun
- D) Turmush Og'o

21. 1216-yilda Sulton Muhammad yuborgan elchilariga javoban Chingizxon kimni Xorazmga elchi qilib jo'natgan?

- A) Mahmud Yalavoch
- B) Suketu Cherbi
- S) Oloq no'yon
- D) Ibn Kafroj Bug'ro

22. 1218-yilning bahorida ...

- A) Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida savdo shartnomasi tuzildi
- B) Chingizxon Samarqandni sakkiz kunlik qamaldan so'ng bosib oldi
- S) mo'g'ul qo'shinlari Binokat va Xo'jand shaharlariga hujum boshladi
- D) Sulton Muhammad Chingizxon elchilarini Buxoro shahrida qabul qildi

23. Xorazmshoh Sulton Muhammad o'zini kim deb hisoblardi?

- A) Iskandari Soniy
- B) Amir ul-mo'min
- S) Yetti iqlim sultoni
- D) Shahanshoh

24. Qachon Chingizxon Xorazmga har xil qimmatbaho mollar ortilgan 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlaridan tashkil topgan savdo va elchilar karvonini jo'natadi?

- A) 1218-yilda
- B) 1220-yilda
- S) 1216-yilda
- D) 1219-yilda

25. Nima uchun Chingizxon Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi?

- A) Sulton Muhammad bilan birgalikda Xitoyga harbiy yurish qilish uchun
- B) Ikki buyuk davlatlar o'rtasida savdo yo'lini barpo qilish uchun

S) Sulton Muhammaddan kechirim so‘rash va ikki davlat o‘rtasida harbiy ittifoq tuzish uchun

D) Sulton Muhammadga o‘z minnatdorчилигинi izhor etish va ikki buyuk qo‘shni davlatlar o‘rtasida shartnoma tuzish uchun

26. Chingizxonning Xorazmshoh Sulton Muhammadga yuborgan qimmatbaho mollar ortilgan katta karvoni kim tomonidan talangan?

- A) Oloqno‘yon
- B) Qutlug‘xon
- S) G‘oirxon
- D) O‘zloqshoh

27. Ma‘lumki, Chingizxonning Xorazmshoh Sulton Muhammadga yuborgan qimmatbaho mollar ortilgan katta karvoni O‘tror hokimi tomonidan talangan. Shundan so‘ng Chingizxon kimni Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi?

- A) Suketu Cherbi
- B) Xumortegin
- S) Inolchiq
- D) Ibn Kafroj Bug‘ro

28. Nima uchun Sulton Muhammad Xorazmga kelgan Chingizxonning elchisini o‘ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo‘ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyurgan?

A) Chingizxonning Sulton Muhammadni G‘arbning sohibqironi, o‘zini esa Sharqning podshosi deb hisoblagani uchun

B) Chingizxon Sulton Muhammadni qudratli podshoh sifatida bilib, uni o‘zining eng ardoqli o‘g‘illari qatorida ko‘rishini bildirgani uchun

S) Chingizxon Sulton Muhammaddan karvonni talagan O‘tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo‘natishni talab qilgani uchun

D) Chingizxonning musulmon savdogarlaridan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalangani uchun

29. Qaysi voqealar Xorazmshohlar va Chingizxon davlatlari o‘rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi?

A) Chingizxon tomonidan jo‘natilgan karvonni talanishi va Chingizxon elchisini Xorazmshoh tomonidan o‘ldirilishi

B) Chingizxon Sulton Muhammaddan karvonni talagan O‘tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo‘natishni talab qilganligi

S) Sharqiy Turkistonni Chingizxon tomonidan bosib olinishi

D) naymanlarga Xorazmshoh tomonidan harbiy madad berganligi

30. Qaysi voqea Chingizxonning Xorazmga yurish boshlashiga bahona bo‘ldi?

A) Qoraxitoylarni Xorazm tomonidan bosib olinishi

B) Movarounnahrda qoraxoniylar hokimiyatiga Xorazm tomonidan barham berilganligi

S) og‘ir soliqlardan ezilgan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e‘tiqodi susayib ketganligi

D) O‘tror voqeasi va Ibn Kafroj Bug‘roning o‘ldirilishi

31. Xorazmshohlar davlatida kim o‘z qabiladoshlari manfaati yo‘lida saroyda ko‘tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg‘unlashtirib qo‘ygan edi?

A) Turkon Xotun

B) Ibn Kafroj Bug‘ro

S) G‘oirxon

D) Mahmud Yalavoch

32. Nima sababdan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e‘tiqodi susayib ketgan edi?

A) davlat ishlarida qipchoqlarni mavqeni oshib ketishi

B) og‘ir soliqlar solinishi

S) harbiy ishlarga e‘tiborsizlik

D) hunarmandlarga og‘ir majburiyatlarni yuklatilishi

33. Qaysi vaziyatda Sulton Muhammad jangari mo‘g‘ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo‘ldi?

A) ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutganda

B) Xorazm iqtisodiy jihatdan kuchaygan paytda

S) Xorazm harbiy jihatdan kuchaygan paytda

D) Xorazmning tashqi siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirilgan paytda

34. Temuchinga berilgan “Chingiz” laqabining ma‘nosi nima?

A) Buyuk xon

B) yo‘lbars

S) kuchli, qudratli, toza

D) yengilmas, betakror

35. Quyidagi shaharlardan qaysi biri o‘rta asrlarda “Szindi” deb atalgan?

A) Shanxay

B) Shashi

S) Shandun

D) Pekin

36. Qaysi voqea Chingizxon boshliq mo‘g‘ul qo‘shinlariga Movarounnahrda bostirib kirishiga bahona bo‘ldi?

A) og‘ir soliqlardan ezilgan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e‘tiqodi susayib ketganligi

B) O‘tror voqeasi va Ibn Kafroj Bug‘roning o‘ldirilishi

S) Movarounnahrda qoraxoniylar hokimiyatiga Xorazm tomonidan barham berilganligi

D) Qoraxitoylarni Xorazm tomonidan bosib olinishi

37. Chingizxon Movarounnahrda yurishni qaysi o‘lkalarni zabt etishdan boshlagan?

A) O‘zgan va Yangikent

B) Binokat va Jand

S) Naxshab va Termiz

D) Sharqiy Turkiston va Yettisuv

38. Askarlarning umumiy soni jihatdan Xorazmshoh birmuncha ustunroq bo‘lishiga qaramasdan nima sababdan bu ustunlikdan foydalanish imkoni bo‘lmadi?



A) Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar

B) Xorazmshoh tomonidan amalga oshirilayotgan harbiy islohotlarni tugallanmay qolganligi

S) askarlar zamonaviy harbiy aslahalar bilan to'la ta'minlanmagan edi

D) sarkardalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar

39. Xorazmshoh Sulton Muhammad nima sababdan Chingizxon bilan bo'ladigan urush arafasida katta qo'shinni bir joyga to'plashdan qo'rqgan?

A) qo'shin bir joyda to'plansa mamlakatdagi shaharlar mudofaasiz qolishi mumkin edi

B) bir joyda to'plangan qo'shin uni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi

S) harbiy islohot tugallanmaganligi uchun

D) askarlar zamonaviy harbiy aslahalar bilan to'la ta'minlanmagan

40. Sulton Muhammad Chingizxon bilan bo'ladigan urushda qaysi jang usulini qo'llashga qaror qiladi?

A) pistirma qo'yish

B) mudofaachilik

S) to'lg'ama

D) pioda jang qilish

41. Chingizxon Sulton Muhammadga qarshi qachon yurish boshladi?

A) 1219-yilning kuzida

B) 1220-yilning fevralida

S) 1220-yilning martida

D) 1218-yilning yozida

42. Chingizxon Xorazmshohga yurish boshlaganida uning jami askarlar soni qancha edi?

A) 300 ming

B) 100 ming

S) 200 ming

D) 500 ming

43. Chingizxon qo'shini Xorazmshohga yurish boshlaganida dastlab qaysi shahar ustiga yurish qildi?

A) O'tror

B) Buxoro

S) Samarqand

D) Kesh

44. O'rta asrlardagi O'tror shahri qayerda joylashgan edi?

A) Amudaryoning quyi oqimida

B) Zarafshon bo'yida

S) Sirdaryo bo'yida

D) Amudaryo o'rta oqimida

45. Chingizxon Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun butun harbiy kuchlarini necha qismga bo'ldi?

A) 2 qismga

B) 5 qismga

S) 8 qismga

D) 4 qismga

46. Chingizxon O'troni bosib olish uchun kimlarni qo'shinga qo'mondon qilib tayinlaydi?

A) Jo'ji va Tuluni

B) Chig'atoy va O'qtoyni

S) Shiki Xutuxu va Xumorteginni

D) Oloqno'yon va Suketu Cherbini

47. Chingizxonning ikkinchi qo'shiniga kim boshchilik qilgan?

A) O'qtoy

B) Jo'ji

S) Oloqno'yon

D) Chig'atoy

48. Chingizxon o'g'li Jo'ji boshliq mo'g'ul qo'shiniga qaysi shaharlarni bosib olishni buyuradi?

1) Sig'noq; 2) Xo'jand; 3) O'tror; 4) Jand; 5) O'zgan; 6) Binokat; 7) Naxshab; 8) Yangikent.

A) 1, 4, 5, 8

B) 1, 2, 4, 7

S) 2, 3, 6, 8

D) 1, 3, 5, 7

49. Chingizxon Binokat va Xo'jand shaharlarini bosib olish uchun kimlarni uchinchi qo'shinga qo'mondon qilib tayinlaydi?

A) Shiki Xutuxu va Xumorteginni

B) Chig'atoy va O'qtoyni

S) Jo'ji va Tuluni

D) Oloqno'yon va Suketu Cherbini

50. 1219-yilda Chingizxon o'zining asosiy kuchlari bilan qaysi shaharga yurish boshlaydi?

A) Urganch

B) Xo'jand

S) Buxoro

D) Yangikent

51. Mo'g'ullar O'tror shahrini necha oy davomida qamal qilganlar?

A) 3 oy

B) 1 oy

S) 5 oy

D) 8 oy

52. Mo'g'ullar O'trorda kimni asir tushirishadi?

A) Inolchuq

B) A'zam Malik

S) Sayfutdin Ag'roq

D) Badriddin Qozixon

53. Mo'g'ullar kimni Samarqandga olib kelib, Ko'ksaroyda qiynab o'ldirishgan?

A) To'g'ayxon

B) Elathumalik

S) Qoracha Hojib

D) Inolchuq



54. Chingizxon qachon Buxoroga yetib keladi?

- A) 1220-yilning martida
- B) 1220-yilning fevralida
- S) 1219-yilning kuzida
- D) 1220-yilning yozida

55. Kim Chingizxon Buxoroga yurish qilgan paytda Buxoroda qozi lavozimida edi?

- A) Qoracha Hoji
- B) Hasanxoji
- S) Badriddin Qozixon
- D) Imomzoda Ruknuddin

56. Nima uchun 1220-yilning fevralida Buxoro qozisi o'z oqsoqollarini Chingizxon oldiga shafqat so'rab yuboradi?

- A) Buxoro dushman kuchini qaytarishga tayyor emasligi sababli
- B) Muhammad Xorazmshoh taslim bo'lganligi uchun
- S) Buxoroni vayronagarchiliklardan saqlab qolish uchun
- D) Buxoroni mudofaa qilish rejasi ishlab chiqilmaganli uchun

57. Mo'g'ullar qachon Buxoroni egallashdi?

- A) 1220-yilning 16-fevralida
- B) 1221 yilning qishida
- S) 1220-yilning aprelida
- D) 1220-yilning yozida

58. Qachon Chingizxon boshliq mo'g'ullar Samarqandga yetib kelganlar?

- A) 1220-yilning yozida
- B) 1220-yilning martida
- S) 1221 yilning 25-noyabrida
- D) 1220-yilning kuzida

59. Chingizxon qayerdan turib Samarqandni qamal qilish ishiga boshchilik qilgan?

- A) Al-fir qal'asidan
- B) Bo'stonsaroy qasridan
- S) Ko'ksaroy qasridan
- D) Oqsaroy qasridan

60. Chingizxon Samarqandni necha kun qamal qilgandan so'ng shahar taslim bo'lgan?

- A) 8 kun
- B) 5 kun
- S) 11 kun
- D) 4 kun

61. Quyidagi qaysi javobda mo'g'ullar tomonidan buzib tashlangan Samarqandning bosh inshoati nomi to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Darg'om kanali
- B) Qozonariq
- S) To'g'uzariq
- D) Qo'rg'oshin nova

62. Chingizxon boshliq mo'g'ullar Samarqandning

qaysi darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qilganlar?

- A) Namozgoh
- B) Oxanin
- S) Chorsu
- D) So'zangaron

63. Mo'g'ullar Samarqandni bosib olishganida qancha hunarmandni asirga olishgan?

- A) 15 ming
- B) 20 ming
- S) 30 ming
- D) 10 ming

64. Mo'g'ullar Xorazmshohlar davlatidagi boy shaharlarni, obod qishloqlarni talab, ularni vayron qilayotganida mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshoh qayerda turib voqealarni kuzatib turgan?

- A) Eronda
- B) Urganchda
- S) Chag'oniyonda
- D) Amudaryo sohillarida

65. Xorazmshoh Sulton Muhammad qayerda vafot etgan?

- A) Urganchda
- B) Ashura orolida
- S) Katda
- D) Dehistonda

66. Muhammad Xorazmshoh kimni taxt vorisi etib tayinlaydi?

- A) Temur Malik
- B) Qutlug'xon
- S) Sayfuddin Ag'roq
- D) Jaloliddin Manguberdi

67. Ashura oroli qayerda joylashgan?

- A) Kaspiy dengizining janubida
- B) Orol dengizining janubida
- S) Amudaryo quyi oqimida
- D) Sirdaryo quyi oqimida

68. Mo'g'ullarning Jo'ji boshliq askariy qismi Sirdaryo bo'yida joylashgan qaysi shaharga birinchi bo'lib hujum qilganlar?

- A) Sig'noq
- B) Binokat
- S) Jand
- D) O'zgan

69. Quyidagi shaharlarning qaysi birini mo'g'ullar 8 kun qamaldan so'ng bosib olgan?

- A) Naxshab
- B) Xo'jand
- S) Sig'noq
- D) Buxoro

70. Mo'g'ullar Sirdaryo bo'yida joylashgan Jand shahrini qachon bosib olgan?



- A) 1221 yilning fevralida
- B) 1220-yilning avgustida
- S) 1220-yilning aprelida
- D) 1219-yilning kuzida

71. Mo'g'ullar Sirdaryo bo'yidagi Binokat shahrini necha kunlik qamaldan so'ng bosib olganlar?

- A) 5 kun
- B) 8 kun
- S) 4 kun
- D) 10 kun

72. Quyidagi shaharlarning qaysi biri Sirdaryoning ikkiga ayrilgan yerda joylashgan?

- A) Binokat
- B) Jand
- S) O'zgan
- D) Xo'jand

73. Temur Malik qaysi shaharni mo'g'ullarning hujumidan mudofaa qilishda jasorat ko'rsatgan?

- A) Sig'noq
- B) O'zgan
- S) Xo'jand
- D) Binokat

74. Temur Malik mo'g'ullar bilan jang qilish uchun nechta qayiq yasattirgan?

- A) 23 ta
- B) 10 ta
- S) 15 ta
- D) 12 ta

75. Ma'lumki, Temur Malik mo'g'ullar bilan jang qilish uchun qayiqlar yasashga farmoyish bergan. Bu qayiqlarning qanday o'ziga xos xususiyati bo'lgan?

1) dushmanning o'qi o'tmaydigan bo'lgan; 2) qayiqlarni yondirib bo'lmagan; 3) qayiqlarni cho'ktirib bo'lmagan; 4) bitta qayiqqa 50 taga yaqin jangchilar siqqan; 5) qayiqlarning usti yopiq bo'lgan.

- A) 2, 3
- B) 1, 4
- S) 1, 2, 5
- D) 1, 3, 5

76. Ma'lumki, Temur Malik mo'g'ullarga qarshi uzoq mudofaa janglarini olib borgan. Biroq, kuch kamligi uchun bor oziq-ovqatlarini va qurol-yarog'larni kemaga yuklatib, Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Temur Malik oziq-ovqat va qurol-yarog'larni necha kemaga yuklatib suzib ketadi?

- A) 50 ta
- B) 80 ta
- S) 40 ta
- D) 70 ta

77. Mo'g'ullar Temur Malikning yo'lini qayerlarda to'sishga harakat qilishadi?

- A) Yangikent, Sig'noq, O'zgan
- B) Binokat, Barchinlig'kent, Jand

- S) Naxshab, Termiz, Binokat
- D) Barchinlig'kent, Jand, Yangikent

78. Mo'g'ullar Temur Malikning yo'lini to'sish maqsadida qayerga zanjir tortib qo'yadilar?

- A) Barchinlig'kent
- B) Binokat
- S) Jand
- D) Yangikent

79. Xo'jandliklar mo'g'ullar bilan qayerda so'nggi jangga kiradilar?

- A) Jand, Yangikent yaqinida
- B) Yangikent, Barchinlig'kent yaqinida
- S) Binokat, O'zgan yaqinida
- D) Barchinlig'kent va Jand yaqinida

80. Temur Malik Barchinlig'kent va Jand yaqinidagi jangda ...

- A) mo'g'ullarni qirib tashladi
- B) Jand shahrini mo'g'ullar qaytarib oldi
- S) qo'shini va safdoshlaridan batamom ayrildi
- D) Barchinlig'kentni mo'g'ullar ta'siridan qutqarib qoldi

81. Temur Malik ko'rsatgan jasoratni eslang. Temur Malik mo'g'ullardan kimga qarshi muvaffaqiyatli jang qilib, Sayhun daryosining quyi oqimidagi qaysi shaharni qaytarib oladi?

- A) O'qtoidan Binokat shahrini
- B) Jo'jidan Yangikentni
- S) Chig'atoydan Xo'jandni
- D) Oloqno'yondan Naxshabni

82. Chingizxon qachon Naxshabga bostirib kiradi va uni egallaydi?

- A) 1220-yilning mart oyida
- B) 1220-yilning fevralida
- S) 1220-yilning kuzida
- D) 1220-yilning yozida

83. Chingizxon 1220-yilning kuzida qaysi shaharga hujum qilgan?

- A) Termizga
- B) Yangikentga
- S) Naxshabga
- D) O'zganga

84. Quyidagi ko'rsatilgan shaharlardan qay biri mo'g'ullar tomonidan 11 kun qamaldan so'ng egallangan?

- A) Naxshab
- B) Xo'jand
- S) Termiz
- D) Binokat

85. Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni qayerga tashlaydi?

- A) Xorazmga
- B) Eronga



- S) rus yerlariga
D) Kavkazortiga

86. Chingizxon qo‘shinlari qachon Urganchga yurish boshlaydi?

- A) 1221 yilning boshida
B) 1220-yilning avgustida
S) 1220-yilning o‘rtalarida
D) 1219-yilning oxirida

87. Chingizxon Urganchga yurish qilgan paytda Xorazm yurtining sultoni kim edi?

- A) Temur Malik
B) Sulton Muhammad
S) Jaloliddin Manguberdi
D) Qutlug‘xon

88. Xorazm davlatining Sultoni deb e‘lon qilingan Jaloliddin Manguberding hokimiyatini kim tan olmagan?

- A) Elathumalik
B) O‘zloqshoh
S) Qutlug‘xon
D) Turkon Xotun

89. Chingizxon Urganchga yurish boshlaganda nega Jaloliddin Manguberdi Temur Malik bilan Xurosonga jo‘nashga majbur bo‘ladi?

- A) asosiy kuchlarni bir joyga to‘plash uchun
B) Chingizxon kuchlarini b‘olib yuborish uchun
S) Qutlug‘xon boshliq qipchoq lashkarboshlari tomonidan uyushtirilgan suiqqasd tufayli
D) Urganchni vayronagarchilikdan saqlab qolish maqsadida

90. Sulton Jaloliddin Temur Malik bilan Xurosonga jo‘nashga majbur bo‘lganda, shahzodalardan kimlar tez vaqt ichida Urganchni tark etib, qochib ketadilar?

- A) O‘zloqshoh va Oqshoh
B) Xumortegin va Mahmud Yalavoch
S) Qutlug‘xon va Badriddin Qozixon
D) G‘oirxon va Oqshoh

91. Chingizxon qo‘shinlari Urganchni qamal qilgan paytda hokimiyatni kim o‘z qo‘liga olgan edi?

- A) Takina Xotun
B) Amir Xumortegin
S) Qutlug‘xon
D) Jaloliddin Manguberdi

92. Mo‘g‘ullar Urganchdek katta shaharni qamal qilish uchun shimoldan Jo‘ji, Buxorodan esa ...

- A) O‘qtoy va Tulu qo‘shinlari bostirib keladi
B) Tulu va Chig‘atoy qo‘shinlari bostirib keladi
S) O‘zloqshoh va Qutlug‘xon qo‘shinlari bostirib keladi
D) Chig‘atoy va O‘qtoy qo‘shinlari bostirib keladi

93. Mo‘g‘ullar qachon va necha ming askarlari bilan Urganchga hujum boshlab qamal qiladi?

- A) 1220-yilning aprelida, 30 ming
B) 1221 yilning yozida, 10 ming

- S) 1220-yilning kuzida, 20 ming
D) 1221 yilning qishida, 50 ming

94. Mo‘g‘ullar Urganchni qamal qilgan paytda zamonasining buyuk allomasi bo‘lgan Shayx Najmiddin Kubro necha yoshda edi?

- A) 76 yoshda
B) 58 yoshda
S) 65 yoshda
D) 84 yoshda

95. Quyidagi “Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim” degan xitob kimga tegishli?

- A) Temur Malikka
B) Badriddin Qozixonga
S) Najmiddin Kubroga
D) Qutlug‘xonga

96. Chingizxon Urganchni qamal qilganida kimga ahli a‘yonlari, barcha yor-u do‘stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan?

- A) Najmiddin Kubro
B) Muzaffar Malik
S) Sayfuddin Ag‘roq
D) Jaloliddin Manguberdi

97. Mo‘g‘ullarga qarshi Urganch shahrining mudofaasi necha oy davom etgan?

- A) uch oy
B) besh oy
S) to‘rt oy
D) ikki oy

98. Mo‘g‘ullar Movarounnahrning qaysi shahrini egallashda ko‘p qurbon bergan?

- A) Urganch
B) O‘tror
S) Xo‘jand
D) Binokat

99. Mo‘g‘ullar tomonidan Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo‘g‘ul jangarilarining bosqinchilik yurishi qaysi shaharlarga yo‘naltiradi?

- A) G‘azna, Bomiyon, Guch, Bust va Hindiston
B) Yangikent, Naxshab, Dehiston
S) Balx, Hirot, Marv va G‘azna
D) Astrobod, Niso, Nishopur va Mashhad

100. Jaloliddin Manguberdi avval qaysi hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi?

- A) G‘azna, Bomiyon, Guch, Bust va Hindiston
B) Balx, Hirot, Marv va G‘azna
S) Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo‘yi, Xorazm va Darbandgacha
D) Kashon, Isfahon, Qum va Ray

101. Jaloliddin Manguberdi G‘azna tomon borayotganda yo‘lda unga qayerning noiblari o‘z qo‘shinlari bilan kelib qo‘shilib bordi?

- A) Eron
- B) Movarounnahr
- S) Xuroson
- D) Hindiston

102. Sulton Jaloliddin qaysi shaharlar yonida mo'g'ul qo'shnlari qaqshatqich zarbalar berib, G'aznaga yetib keldi?

- A) Marv, Balx
- B) Balx, Peshovar
- S) Xurmuz, Xirot
- D) Niso, Qandahor

103. Jaloliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi qayerda yuz berdi?

- A) Niso, Qandahor
- B) Parvon dashtidagi jang
- S) Sind bo'yidagi jang
- D) Valiyon qal'asi yonida

104. Chingizxon kimni Jaloliddin Manguberdi qarshi 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi?

- A) Shiki Xutuxu no'yonni
- B) Oloqno'yon
- S) Suketu Cherbi
- D) Jo'ji

105. Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kim ustidan g'alaba qozondi?

- A) Jo'ji boshchiligidagi 50 minglik qo'shin ustidan
- B) Oloqno'yon boshchiligidagi 35 minglik qo'shin ustidan
- S) Suketu Cherbi boshchiligidagi 45 minglik qo'shin ustidan
- D) Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi 45 minglik qo'shin ustidan

106. Nima sababdan Parvon dashtidagi g'alabadan so'ng Jaloliddin lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlandi?

- A) Xurosonga hokim tayinlashda
- B) Movarounnahrni mo'g'ullardan qaytarib olish rejasini ishlab chiqishda
- S) g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda
- D) Sind daryosi bo'yida bo'ladigan jang rejasini ishlab chiqishda

107. Qaysi voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi kuchsizlanib qoladi?

- A) Sind daryosi bo'yida bo'lgan jangdan so'ng
- B) Valiyon qal'asi yonida bo'lgan jangdan so'ng
- S) Parvon dashtidagi g'alabadan so'ng
- D) "Cho'li Jaloliy"da bo'lgan jangdan so'ng

108. Jaloliddin Manguberdi qo'shından ajralib ketgan lashkarboshilarni ko'rsating.

- A) Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar
- B) Temur Malik, Badriddin Qozixon va Qutlug'xon
- S) Xumortegin, O'zloqshoh va Oqshoh
- D) Inolchuq, Ibn Kafroj Bug'ro va Bahouddin Roziy

109. Qaysi vaziyatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi?

- A) Parvon dashtidagi jangdan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
- B) Sind daryosi bo'yida bo'lgan jangdan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
- S) Valiyon qal'asi yonida bo'lgan jangdan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchini kuchsizlanib qolganidan
- D) Jaloliddinning hindlar bilan bo'lgan jangdagi mag'lubiyatidan so'ng

110. Sind (Hind) daryosi bo'yida Chingizxon bilan Jaloliddin o'rtasidagi jang qachon bo'lib o'tadi?

- A) 1220-yilning 16-fevralida
- B) 1221 yilning 25-noyabrda
- S) 1220-yilning 25-martda
- D) 1221 yil 10-yanvarda

111. Qaysi daryoning bir tomoni "Ot sakrash", narigi tomoni "Cho'li Jaloliy" deb ataladi?

- A) Murg'ob
- B) Ganga daryosi
- S) Amudaryo
- D) Sind (Hind) daryosi

112. Sind (Hind) daryosi bo'yidagi jangdan so'ng Jaloliddin Manguberdi yana necha yil davomida goh Eron, goh Ozarbayjon hududlarida mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi?

- A) o'n bir
- B) o'n besh
- S) o'n ikki yil
- D) o'n sakkiz

113. Jaloliddin Manguberdi Kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ladi. Qaysi sabab uning bunday orzusining ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qilgan?

- A) Jaloliddin Manguberdi qo'shining bir qismini tarqab ketishi
- B) Jaloliddin Manguberdi lashkarboshilari o'rtasidagi nizolar
- S) bu o'lkada mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar
- D) Jo'jining Kavkazga bostirib kelishi

114. Xorazmshohning hukmdorligi qaysi yilda tugaydi?

- A) 1230-yilda
- B) 1231-yilda
- S) 1221 yilda
- D) 1219-yilda

115. Necha yil hukmronlik qilgan Buyuk Xorazmshohlar davlati va uni boshqargan xonadon batamom halok bo'ladi?

- A) 140 yil
- B) 130-yil
- S) 120-yil
- D) 148-yil

116. Qaysi yili Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda keng nishonlandi?



- A) 1998-yili
- B) 1997-yili
- S) 1999-yili
- D) 2000-yili

117. Qachon “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgan?

- A) 1999-yil 30-avgust
- B) 2000-yil 30-oktabr
- S) 2001-yil 30-avgust
- D) 2000-yil 30-avgustda

118. Mo’g’ullar tomonidan buzib tashlangan Marv vohasining sug’orish tarmoqlarining bosh to’g’onini aniqlang.

- A) Qo’rg’oshin nova
- B) Turuqband
- S) Sultonband
- D) Xonbandi

119. Jaloliddin jangda harbiy taktika tarixida birinchi bo’lib qanday jang qilish uslubini qo’llaydi?

- A) dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish
- B) to’lg’ama jang qilish
- S) poroxli miltiq otish
- D) pistirmadan turib jang qilish

120. Harbiy taktika — bu ...

- A) qo’shinning bo’linmalarga bo’linishi
- B) jangchilarning to’qqiz va o’n olti qatordan saf tortishi
- S) harbiy hiyla
- D) jangda ko’zlangan maqsadga erishish uchun aniq sharoitga mos ravishda jang olib borishining tanlangan shakli va usuli

121. Ma’lumki, zabt etilgan o’lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog’idayoq o’g’illariga taqsimlab berdi. Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo’yi, Xorazm va Darbandgacha bo’lgan hududlar kimga bo’lib berilgan?

- A) Jo’ji
- B) Chig’atoy
- S) O’qtoy
- D) Tulu

122. Quyidagi hududlardan qay biri Chingizxon tomonidan Chig’atoyga bo’lib berildi?

- A) Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo’yi, Xorazm va Darbandgacha
- B) G’arbiy mo’g’uliston, Tarbag’atoy
- S) Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr
- D) mo’g’uliston, Xitoy va Qirg’izlar yeri

123. Chingizxon qaysi o’g’liga G’arbiy mo’g’ulistonni va Tarbag’atoyni taqsimlab beradi?

- A) Tuluga
- B) O’qtoyga
- S) Jo’ji
- D) Chig’atoyga

124. Chingizxonning qaysi o’g’liga mo’g’uliston, Xitoy va Qirg’izlar yeri beriladi?

- A) Tuluga
- B) O’qtoyga
- S) Chig’atoyga
- D) Jo’ji

125. Chingizxonning vorisini aniqlang.

- A) Tulu
- B) Chig’atoy
- S) Jo’ji
- D) O’qtoy

126. Qay tartibda mo’g’ullar bosib olingan viloyatlarni boshqarishdi?

- A) uluslarga taqsimlash asosida
- B) mahalliy hokimlar orqali
- S) markazlashgan holda
- D) tumanlarga bo’lib

127. Kim Chingizxon vafotidan so’ng mo’g’ullar davlatining ulug’ xoqoni qilib tayinlandi?

- A) Tulu
- B) Chig’atoy
- S) O’qtoy
- D) Jo’ji

128. Mo’g’ullar davrida uluslarning hukmdorlari qanday nom bilan yuritilardi?

- A) “bek”
- B) “podshoh”
- S) “xon”
- D) “xoqon”

129. Mo’g’ullar davrida Ulug’ xoqonning qarorgohi qayerda joylashgan edi?

- A) Bolasog’un
- B) Qoraqurum shahrida
- S) Ninsya
- D) Turfan

130. Qayerdan turib Ulug’ xoqon xonlarning xatti-harakatini qattiq nazorat qilib borar edi?

- A) Qoraqurumdan
- B) Bolasog’un
- S) Turfan
- D) O’tror

131. Qaysi yillarda Rusiya zabt etilib, Oltin O’rda davlati tashkil topadi?

- A) 1211—1215-yillarda
- B) 1236—1241-yillarda
- S) 1219—1221-yillarda
- D) 1217—1219-yillarda

132. Qachon Eron batamom bosib olinib, Hulokuiylar davlati vujudga keladi?

- A) 1256-yilda
- B) 1241-yilda
- S) 1246-yilda
- D) 1231-yilda



133. Qachon Huloku abbosiylar sulolasiga xotima beradi?

- A) 1256-yilda
- B) 1236—1241-yillarda
- S) 1258-yilda
- D) 1227-yilda

134. Mo'g'ullar Osiyo va Yevropaning katta qismida o'z hukmronligini o'rnata olgan bo'lsalar-da, ...

- A) yagona markazlashgan davlat tuza olmadilar.
- B) iqtisodiy jihatdan yagona bozor yarata olmadilar.
- S) mahalliy hukmdorlarning qarshiligini sindira olmadilar.
- D) yagona pul birligini joriy eta olmadilar.

135. Qaysi hududlarda XIII asrning 20-yillarida Chig'atoy ulusi tashkil topdi?

- A) Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo'yi, Xorazm va Darbandgacha
- B) G'arbiy mo'g'uliston, Tarbag'atoy
- S) Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda
- D) mo'g'uliston, Xitoy va Qirg'izlar yeri

136. Chig'atoyxonning ulusni boshqaradigan o'rdasi qayerda joylashgan edi?

- A) Ili daryosi bo'yida
- B) Chu daryosi bo'yida
- S) Irtish daryosi bo'yida
- D) Volga daryosi bo'yida

137. Viloyatlar va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda Chig'atoy kimlar xizmatidan foydalanadi?

- A) ko'chmanchi qabila boshliqlaridan
- B) o'ziga bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan
- S) mo'g'ul zadoganlardan
- D) musulmon savdogarlardan

138. Kimga Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan Movarounnahrni bevosita idora etish ishlari beriladi?

- A) Botuga
- B) Mahmud Yalavochga
- S) Shiki Xutuxuga
- D) Oloqno'yonga

139. Kim mo'g'ullar davrida Xo'jand shahrini o'ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerda turib, Movarounnahrni idora qila boshlaydi?

- A) Mahmud Yalavoch
- B) Shiki Xutuxu
- S) Oloqno'yonga
- D) Tuluga

140. Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan Movarounnahrda harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari kimlar qo'lida bo'lgan?

- A) parvonachi
- B) xon
- S) to'qsoba

D) dorug'achi va tamg'ach deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari.

141. Mo'g'ul bosqoqlari (mahalliy hokim) ixtiyoridagi ko'p sonli askarlar kimning izmiga bo'ysundirilgan edi?

- A) Shiki Xutuxu
- B) Mahmud Yalavoch
- S) Chig'atoy
- D) Tulu

142. Mahmud Yalavoch kimlarga suyanib mo'g'ul xoqonlari talabini ijro qilar va o'zining cheksiz hukmronligini amalga oshirar edi?

- A) mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli askarlarga
- B) mahalliy hokimlar ixtiyoridagi ko'p sonli askarlarga
- S) mahalliy zadogonlarga
- D) mahalliy chokarlarga

143. Chig'atoy ulusi davrida ziroatchi dehqonlardan olinadigan yer solig'i nima deb yuritilgan?

- A) "targ'u"
- B) "shulen"
- S) "qopchur"
- D) "kalon"

144. Chig'atoy ulusi davrida "qopchur" solig'i kimlarga solingan?

- A) chorvadorlarga
- B) dehqonlarga
- S) hunarmandlarga
- D) savdogarlarga

145. "Shulen" — bu ...

- A) davlat xazinasi uchun undirilgan oziq-ovqat solig'i.
- B) ziroatchi dehqonlardan olinadigan yer solig'i.
- S) chorvadorlardan olinadigan soliq.
- D) hunarmandlar va savdogarlardan undirilgan soliq.

146. Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olonchilar bilan bo'lgan jangda mo'g'ullardan qanchasi halok bo'ladi?

- A) 15 mingga yaqin kishi
- B) 25 mingga yaqin kishi
- S) 10 mingga yaqin kishi
- D) 5 mingga yaqin kishi

147. Qaysi soliqqa ko'ra har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan?

- A) "qopchur"
- B) "kalon"
- S) "targ'u"
- D) "shulen"

148. Chig'atoy ulusi davrida hunarmandlar va savdogarlardan qanday solig' undirilgan?

- A) "qopchur"
- B) "kalon"
- S) "targ'u"
- D) "payza"

149. Chig'atoy ulusi davrida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning o'ttizdan bir qismi hajmida undirilgan soliqni aniqlang.

- A) targ'u
- B) jiz'ya
- S) zakot
- D) ushr

150. Chig'atoy ulusi davrida soliqlar qay tartibda undirilardi?

- A) barot (ijara) tartibida
- B) bir yo'la
- S) hosilning yetilishiga qarab
- D) bir yilda ikkiga bo'lib olinardi.

151. Mo'g'ullar hukmronligining dastlabki yillaridayoq mo'g'ul xoqonlari o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga nima berardilar?

- A) iqt'o
- B) suyurg'ol
- S) turli yorliq va payzalar
- D) tarxon

152. Payza nimalardan iborat bo'lardi?

- A) temirdan
- B) misdan
- S) oltin, kumush, jez va yog'ochdan yasalgan taxtachalardan
- D) sopoldan

153. Payza yoki yorliqqa ega bo'lgan kishilar qanday huquqqa ega edilar?

- A) soliqlarni undirib olish
- B) aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish
- S) qishloq yoki tumanni boshqarish
- D) ulus kengashlariga bemalol kirish

154. Yom — bu ...

- A) mo'g'ullar davrida savdo yo'llarida joylashgan bekat.
- B) oltin, kumush, jez va yog'ochdan yasalgan taxtachalar
- S) soliq turi
- D) aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni olish huquqini beruvchi yorliq

155. Yomlarning xizmati va xarajati kimga yuklangan edi?

- A) mahalliy zadogonlarga
- B) savdogarlarga
- S) aholining bo'yniga
- D) hunarmand va savdogarlarga

156. 1238-yilda ...

- A) Mahmud Torobiy qo'zg'oloni bo'lib o'tdi.
- B) Chingizxon vafot etdi.
- S) Ma'sudbek pul islohoti o'tkazdi.
- D) Xorazmshohning hukmdorligi tugaydi.

157. Chig'atoy ulusining qayerida mo'g'ullar va mahalliy mulkdor zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlanadi?

- A) Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida
- B) Kesh shahridagi Som qal'asi
- S) Buxoroning Torob qishlog'ida
- D) samarqandning xartang qishlog'ida

158. Mahmud Torobiy qo'zg'olonida kimlar qatnashadi?

- A) dehqonlar va qullar
- B) hunarmandlar va dehqonlar
- S) mahalliy zadogonlar va chorvadorlar
- D) dehqonlar va chorvadorlar

159. Mahmud Torobiy kim bo'lgan?

- A) toroblik g'alvir yasovchi hunarmand
- B) sarhang
- S) kudungar
- D) najjor

160. Shamsiddin Mahbubiy kim bo'lgan?

- A) Buxoro hokimi
- B) Torobiy qo'zg'olonini bostirgan lashkarboshi
- S) Torobiy qo'zg'olonida faol qatnashgan hunarmand
- D) Mahmud Torobiyning yaqin safdoshi

161. Mahmud Torobiy o'z tarafdorlari bilan Buxoroga kirib olgach, shahar ichidagi qaysi saroyini qarorgoh qilib oladi?

- A) Ko'ksaroy
- B) Robiya
- S) Al-Fir
- D) Maxuvon

162. Mahmud Torobiy o'zini Buxoro va atrof viloyatlarining xalifasi, ya'ni hukmdori deb rasmiy ravishda e'lon qilgach, kimni Buxoro sadri deb e'lon qiladi?

- A) Shamsiddin Mahbubiy
- B) Mahmud Yalavoch
- S) Ma'sudbek Yalavoch
- D) Badriddin Qozixon

163. Mahmud Torobiy Buxoroda o'z hukmronligini o'rnatgach, mo'g'ul tarafdorlari bo'lgan mahalliy amaldorlar ...

- A) unga sodiqlik bildirishadi.
- B) unga moliyaviy yordam berishadi.
- S) Buxorodan qochib ketadi.
- D) qo'l ostidagi jangchilarni Mahmud Torobiyga berishadi.

164. Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan qochib ketgan amaldorlar va mo'g'ullar noib Mahmud Yalavoch yordamida qayerda kuch to'plab, Buxoro ustiga yuradilar?

- A) Miyonqol yaqinida
- B) Karmana yaqinida
- S) Nurota yaqinida
- D) Narshah yaqinida

165. Karmana yaqinida bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olon boshliqlari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy

shahid bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar ularning o'rniga kimlarni boshliq qilib saylaydilar?

- A) Torobiyning ukalari Muhammad va Alini
- B) Badriddin Qozixon
- S) Xumortegin
- D) Qutlug'xon

166. Chig'atoy qachon Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatishga majbur bo'ldi?

- A) 1237-yilda
- B) 1240-yilda
- S) 1239-yilda
- D) 1238-yilda

167. Chig'atoy Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatgach uning o'rniga kimni noib etib tayinlaydi?

- A) Botuxon
- B) O'qtoy
- S) Mas'udbek
- D) Tug'luq Temur

168. Ulug'xoqon O'qtoy Mahmud Yalavochni qayerga hokim etib tayinlaydi?

- A) Pekin shahriga
- B) Qaraqurum shahriga
- S) Bolasog'un shahriga
- D) Qoshg'ar shahriga

169. Yosoq kitobi — bu ...

- A) aholini ro'yhatga olish kitobi.
- B) aholini soliqqa tortish kitobi.
- S) mo'g'illarning muqaddas kitobi.
- D) mo'g'illarning huquqiy qonunlari to'plami.

170. Mo'g'ullar davrida hosilning 1/10 qismi hajmida olingan soliq turini aniqlang.

- A) kalon
- B) qopchur
- S) shulen
- D) targ'u

171. Qopchur — bu ...

- A) har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan soliq.
- B) hunarmandlardan olingan soliq
- S) hosilning 1/10 qismi hajmida olingan soliq.
- D) chorva mollari bosh sonining 1% miqdorida olingan soliq.

172. Mo'g'ullar hukmronligi davrida joriy qilingan soliqlarni qayd qiling.

- 1) "kalon"; 2) "qopchur"; 3) "shulen"; 4) "targ'u"; 5) tuz solig'i; 6) jun solig'i; 7) kumush solig'i; 8) salg'ut; 9) ushr; 10) zakot; 11) tamg'a; 12) xiroj; 13) jiz'ya
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- B) 1, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13
- S) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 11, 12, 13
- D) 1, 2, 3, 4, 12, 13

173. Mahmud Torobiy qo'zg'olonining tarixiy ahamiyati nimadan iborat edi?

- A) xalqni ozodlikka erishishi
- B) mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonilishi.
- S) qo'zg'olon mo'g'ullar va mahalliy hukmron doiralari qarshisida jiddiy xalq kuchi, vatanparvar xalq yetakchilari borligini ko'rsatdi.
- D) dehqon va hunarmandlarni soliqlardan ozod bo'lishiga erishishi

174. Qachon Chig'atoy ulusining mo'g'ul amaldorlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi?

- A) XIII asr o'rtalarida
- B) XIII asr oxirida
- S) XIII boshida
- D) XII asr oxirida

175. Mo'g'ulistonning qaysi ulug'xoqoni soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus farmon — yorliq chiqaradi?

- A) Jo'ji
- B) Botu
- S) Munke
- D) Chig'atoy

176. Mo'g'ulistonning qaysi ulug'xoqoni davrida Movarounnahr aholisi o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'ladi?

- A) O'qtoy
- B) Tulu
- S) Munke
- D) Botu

177. Mo'g'ulistonning qaysi ulug'xoqoni chiqargan maxsus farmonida yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi?

- A) O'qtoy
- B) Munke
- S) Tulu
- D) Botu

178. Mo'g'ullar davrida shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa tovar va pul munosabatlarining tiklanishida ...

- A) Mas'udbek tomonidan 1271-yilda amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ladi.
- B) mo'g'ullarning o'troq hayotga o'tishi ahamiyatga ega bo'ladi.
- S) mo'g'ullar tomonidan yagona ichki bozorni yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.
- D) Munkexon tomonidan o'tkazilgan davlat boshqaruvi islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

179. Qachon Chig'atoy ulusi noibi Mas'udbek tomonidan Movarounnahrda pul islohati o'tkaziladi?

- A) 1238-yilda
- B) 1348-yilda

- S) 1271-yilda
- D) 1227-yilda

180. Mas'udbek Movarounnahrning nechta shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi?

- A) 12 ta
- B) 10 ta
- S) 14 ta
- D) 16 ta

181. Qachon Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi

- A) XIV asrning birinchi yarmida
- B) XIII asrning boshida
- S) XIV asrning o'rtasida
- D) XIV asrning oxirida

182. Movarounnahr madaniy o'lka bilan mustahkam aloqa o'rnatishga va o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan birini aniqlang.

- A) Ma'sudbek
- B) Chig'atoy
- S) Kebek
- D) Jo'ji

183. Chig'atoy xoni Kebek hukmronlik davrini aniqlang.

- A) 1318—1326-yillar
- B) 1236—1241-yillar
- S) 1207—1273-yillar
- D) 1253—1325-yillar

184. Chig'atoy xoni Kebek qayerda o'ziga saroy qurdiradi?

- A) Termiz shahri yonida
- B) Xo'jand shahri yonida
- S) Nasaf shahri yonida
- D) Koshg'ar shahri yonida

185. Saroy mo'g'ul tilida ...

- A) "shulen" deb yuritiladi.
- B) payza deb yuritiladi.
- S) "Qarshi" deb yuritiladi.
- D) "yom" deb yuritiladi.

186. Qaysi hukmdor o'z qarorgohini mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib Movarounnahrda ko'chiradi?

- A) Chig'atoy
- B) Kebekxon
- S) Munke
- D) Jo'ji

187. Kebekxon qarorgohi qaysi nomda yuritilgan?

- A) Nasaf
- B) "Qarshi"
- S) Saroy Berka
- D) Saroy Botu

188. Kebek davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida qanday islohat o'tkazadi?

- A) harbiy
- B) davlat boshqaruvi
- S) iqtisodiy va harbiy
- D) ma'muriy va pul islohoti

189. Kebekning islohoti bo'yicha davlat yurtlarga, Movarounnahr hududlari ...

- A) tumanlarga bo'linadi.
- B) viloyatlarga bo'linadi.
- S) beklklarga bo'linadi.
- D) uluslarga bo'linadi.

190. Kebek o'tkazgan ma'muriy islohatiga ko'ra Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysi nechta tumanga bo'linadi?

- A) Samarqand viloyati 9 ta, Farg'ona vodiysi 7 ta tumanga bo'linadi
- B) Samarqand viloyati 7 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'linadi
- S) Samarqand viloyati 5 ta, Farg'ona vodiysi 11 ta tumanga bo'linadi
- D) Samarqand viloyati 3 ta, Farg'ona vodiysi 9 ta tumanga bo'linadi

191. Ma'lumki, Kebekning ma'muriy islohoti mahalliy hokimliklar va beklklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Ilgarigi mahalliy hokimlar ...

- A) tumanlarning noibiga aylantiriladi.
- B) viloyatlarning noibiga aylantiriladi.
- S) beklkning noibiga aylantiriladi.
- D) ulusning noibiga aylantiriladi.

192. Kebekning ma'muriy islohotiga ko'ra mahalliy hukmdorlar — maliklar va sadrlarning o'rinlarini kimlar egallaydi?

- A) mahalliy ruhoniylar egallaydi.
- B) musulmon harbiy boshliqlari egallaydi.
- S) ulus xoni egallaydi.
- D) turk-mo'g'ul urug' boshliqlari egallaydi.

193. Qaysi Chig'atoy xoni joriy qilgan ma'muriy bo'linish, garchi qadimiy an'analarga barham bera olmagan bo'lsa-da, davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynaydi?

- A) Chig'atoy
- B) Munke
- S) Kebek
- D) Ma'sudbek

194. Kebek davrida ichki savdo-sotiqni tartibga solish, qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini yaxshilash uchun butun mamlakatda nima joriy qilinadi?

- A) yagona ichki bozor
- B) yagona pul
- S) yagona soliq
- D) yagona boj

195. Kebekxon qaysi davlatlar namunasida pul zarb qildiradi?

- A) Sharqiy Turkiston va No'g'ay xonligi
- B) Xitoy va Movarounnahr
- S) Dehli sultonligi va Xuroson
- D) Erondagi Hulakuiylar davlati va Oltin O'rda xonligi

196. Kebekxon tomonidan necha xil turdagi pul zarb qildiradi?

- A) kumush tangalari namunasida ikki xil pul
- B) oltin tangalari namunasida ikki xil pul
- S) jez tangalari namunasida ikki xil pul
- D) mis tangalari namunasida ikki xil pul

197. Kebekxon tomonidan zarb qildirgan og'irligi 8 grammlik katta tanga qanday nomda atalgan?

- A) "dinar"
- B) "dirham"
- S) "kepaki"
- D) "fals"

198. Kebekxon tomonidan zarb qildirilgan "dirham" tanga pullari necha grammni tashkil etgan?

- A) 2 gramm
- B) 1 gramm
- S) 3 gramm
- D) 4 gramm

199. Kebekxon tomonidan zarb qildirilgan tangalar qanday nom bilan atalgan?

- A) "fals"
- B) "daroyi"
- S) "kepaki"
- D) "ismoiliy"

200. Kebekxon tomonidan zarb qildirilgan tangalar qayerda zarb etilib, muomalaga chiqarilgan?

- A) Samarqand va Buxoroda
- B) Qarshi va Xo'jand
- S) Temiz va Qarshi
- D) O'ratepa va O'tror

201. Mo'g'ullar istilosi davrida xarob bo'lgan shaharlarning qayta tiklanishiga nima sabab bo'ladi?

- A) dehqonchilikning rivojlanishi
- B) madaniyat va hunarmandchilikning rivojlanishi
- S) hunarmandchilik va ichki-tashqi savdoning jonlanishi
- D) dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi

202. Kebekxon davrida qaysi shaharlar qayta tiklanadi?

- A) Xiva va Buxoro
- B) Samarqand va Buxoro
- S) Urganch va Samarqand
- D) Urganch va Buxoro

203. Kebekxon davrida iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki bo'lgan sababni aniqlang.

A) mamlakat ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar.

B) mamlakat boshqaruv hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar.

S) mamlakat siyosiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar.

D) mamlakat harbiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar.

204. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yer egaligining qanday shakllari mavjud edi?

- A) dehqon, vag'nze, jamoa yerlar
- B) mulki sultoniy, mulk, iqto', vaqf yerlar, jamoa yerlar
- S) iqto', mulk, vaqf yerlar, jama yerlar
- D) mulki devon, mulki inju, mulki vaqf va mulk

205. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yer egaligining nechta shakli mavjud bo'lgan?

- A) uch xil
- B) to'rt xil
- S) ikki xil
- D) besh xil

206. Mo'g'ullar hukmronligi davrida mavjud bo'lgan mulki devon qanday yer egaligi edi?

- A) davlat yeri
- B) xususiy shaxslar yerlari
- S) ruhoniylarga qarashli yerlar
- D) jamoa yerlar

207. Mulki inju — bu ...

- A) davlat yerlar
- B) hukmdor avlodlari va noiblariga qarashli yerlar.
- S) jamoa yerlar
- D) xususiy shaxslar yerlari

208. Mo'g'ullar hukmronligi davrida xususiy yerlar nima deb atalgan?

- A) mulki inju
- B) mulk yerlar
- S) mulki devon
- D) mulki vaqf

209. Mo'g'ullar hukmronligi davrida harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar nima deb yuritilardi?

- A) payza
- B) tarxon
- S) iqto'
- D) suyurg'ol yerlari

210. Mo'g'ullar hukmronligi davrida qaysi yer egalari barcha soliq va to'lovlardan ozod etilgan va bu yerlar avloddan-avlodga meros tariqasida o'tardi?

- A) suyurg'ol egalari
- B) payza
- S) tarxon
- D) iqto'

211. Qaysi yerlarga mo'g'ullar hukmronligi davrida



yersiz yoki kam yerli dehqonlar biriktirilib, ular bunday mulklarda hosilning 1/3 evaziga ijarachi bo'lib ishlar edilar?

- A) mulki vaqf
- B) mulk yerlariga
- S) mulki devon
- D) mulki inju

212. Yettisuvda yashayotgan mo'g'ullar Movarounnahrda ko'chib kelganlarni nima deb atashgan?

- A) "qora malaqayli"
- B) "qoraxitoy"
- S) "jete"
- D) "qoraunas"

213. Movarounnahrda yashayotgan mo'g'ullar Yettisuvda yashayotgan mo'g'ullarni nima deb ataganlar?

- A) "qoraunas"
- B) "qoraxitoy"
- S) "qora malaqayli"
- D) "jete"

214. Chig'atoy ulusi qachon ikkiga bo'linib ketdi?

- A) XIV asrning 30-yillarida
- B) XIV asrning 40-yillarida
- S) XIV asrning 20-yillarida
- D) XIV asrning 50-yillarida

215. Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketgach, uning Sharqiy Turkiston Janubiy Sibir va Yettisuv qismi qanday nom bilan atala boshlandi?

- A) Buyuk xon ulusi
- B) Turkiston
- S) mo'g'uliston
- D) Oltin O'rda

216. Kim 1348-yilda mo'g'uliston xoni etib ko'tarildi?

- A) Ilyosxo'ja
- B) Tug'luq Temur
- S) Kebekxon
- D) Sibirg'on

217. Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketgach, uning qaysi qismida Movarounnahr tashkil topdi?

- A) sharqiy qismida
- B) shimoliy qismida
- S) g'arbiy qismida
- D) janubiy qismida

218. Chig'atoy ulusi davrida shaharsozlik bilan bog'liq bo'lgan qaysi sohalar yo'lga qo'yiladi?

- A) binokorlik va me'morchilik
- B) xatodlik
- S) temirchilik
- D) zeb-ziynat ishlab chiqarish

219. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi me'moriy obidalar mo'g'ullar hukmronligi davrida bunyod etilgan?

- 1) Sayfuddin Boxarziy maqbarasi; 2) Bayonqulixon

maqbarasi; 3) Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi; 4) Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli ulug'vor minora; 5) Najmiddin Kubro maqbarasi; 6) To'rabekxonim maqbarasi; 7) "Ma'sudiy" madrasasi; 8) "Xoniya" madrasasi; 9) Mag'oki-attoriy masjidi; 10) Raboti Malik

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10
- S) 6, 7, 8, 9, 10
- D) 1, 2, 5, 6, 7, 8, 9, 10

220. Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbaralari qaysi shaharda bunyod etilgan?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- S) Xo'jand
- D) Qarshi

221. Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi qaysi me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan?

- A) Shohizinda
- B) "Ma'sudiy" madrasasi
- S) "Xoniya" madrasasi
- D) Raboti Malik

222. Mo'g'ullar hukmronligi davrida qaysi shaharda balandligi 62 metrli ulug'vor minora qurilgan?

- A) Buxoroda
- B) Ko'hna Urganchda
- S) Samarqand
- D) Qarshi

223. Ma'lumki, XIII asr o'rtalarida "Mas'udiya" va "Xoniya" nomlari bilan shuhrat topgan ikkita madrasa bino qilinadi. Bu madrasalar qayerda bunyod etilgan?

- A) Xo'jandda
- B) Ko'hna Urganchda
- S) Samarqandda
- D) Buxoroda

224. "Mas'udiya" va "Xoniya" madrasalarning har birida nechtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'rgan?

- A) saksontagacha
- B) yuztagacha
- S) mingtagacha
- D) beshyuztagacha

225. Fors-tojik she'riyatining yirik namoyandalaridan kimlar XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida yashab ijod etganlar?

- A) Rashiddin al-Votvot, Ismoil Jurjoniy, Mahmud Chag'miniy
- B) Burhouddin al-Marginoniy, Yusuf Hamodoniy va Istaxriy
- S) Jaloliddin Rumi, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy
- D) Juzjoniy, Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh

226. Jaloliddin Rumiyning hayot faoliyatini aniqlang.

- A) 1207—1273-yillar
- B) 1219-1293-yillar
- S) 1253—1325-yillar
- D) 1145-1221 yillar

227. Jaloliddin Rumiyning qaysi asarida tasavvuf falsafasining asoslari talqin etiladi?

- A) “Guliston”
- B) “Bo‘ston”
- S) “Zafarlar kaliti”
- D) “Masnaviyi ma‘naviy”

228. Buyuk tasavvuf shoiri Jaloliddin Rumiyning qaysi asari 36 ming baytdan iborat edi?

- A) “Guliston”
- B) “Xamsa”
- S) “Zafarlar kaliti”
- D) “Masnaviyi ma‘naviy”

229. 1219-1293-yillarda yashab ijod etgan adibni aniqlang.

- A) Jaloliddin Rumi
- B) Sa‘diy Sheroziy
- S) Amir Xusrav Dehlaviy
- D) Juzjoni

230. “Guliston” va “Bo‘ston” nomli asarlar kimning qalamiga mansub?

- A) Sa‘diy Sheroziy
- B) Amir Xusrav Dehlaviy
- S) Jaloliddin Rumi
- D) Juvayniy

231. Qanday g‘oyalar “Guliston” va “Bo‘ston” nomli asarlarda bayon etilgan?

- A) insonlarni halol va pok bo‘lishga, o‘z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo‘lishga
- B) mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni
- S) ona yerga bo‘lgan muhabbat va insonparvarlik
- D) inson faoliyati va uning kamoloti

232. Amir Xusrav Dehlaviy qaysi yillarda yashab ijod etgan?

- A) 1207—1273-yillar
- B) 1219-1293-yillar
- S) 1145-1221 yillar
- D) 1253—1325-yillarda

233. Quyidagi ko‘rsatilganlardan qay biri Nizomiy Ganjaviydan so‘ng “Xamsa” dostonini yozgan ham shoir, ham musiqashunos mutafakkir edi?

- A) Jaloliddin Rumi
- B) Amir Xusrav Dehlaviy
- S) Sa‘diy Sheroziy
- D) Juvayniy

234. Amir Xusrav Dehlaviy quyidagi ko‘rsatilgan qaysi asarlarni yozgan?

- A) “Masnaviyi ma‘naviy”

- B) “Xamsa”, “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi”
- S) “Tabaqoti Nosiriy”
- D) “Tarixi jahonkushoy”

235. XIII asrning ikkinchi yarmida qaysi tarixchilar o‘zining mashhur asarlarini yozgan?

- A) Juzjoni, Juvayniy, Rashiduddin Fazlullo
- B) Jaloliddin Rumi, Sa‘diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy
- S) Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy
- D) Burhouddin al-Marginoniy, Yusuf Hamodoniy va Istaxriy

236. Quyidagi ko‘rsatilgan qaysi asarlar mo‘g‘ullar davr tarixi, ayniqsa mo‘g‘ullar istibdodini o‘rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi?

- A) “Tabaqoti Nosiriy”, “Tarixi jahonkushoy”, “Jome at-tavorix”
- B) “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi”
- S) “Guliston”, “Bo‘ston”
- D) “Ziynat ul-kitob”, “Tarixi Oliy Mahmud”, “Jome‘ fi tarixi Oliy Sabuqtakin”

237. Kim tomonidan “Tabaqoti Nosiriy” (“Nosir turkumlari”) asari yozilgan?

- A) Juvayniy
- B) Rashiduddin Fazlullo
- S) Juzjoni
- D) Abulfazl Bayhaqiy

238. Quyidagi ko‘rsatilgan qaysi asar Juvayniy tomonidan yozilgan?

- A) “Tabaqoti Nosiriy” (“Nosir turkumlari”)
- B) “Jome at-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”)
- S) “Tarixi jahonkushoy” (“Jahon fotihi tarixi”)
- D) “Siyar al-mulk” (“Podsholar hayoti”)


239. Kim tomonidan “Jome at-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”) nomli tarixiy asar yozilgan?

- A) Rashiduddin Fazlullo
- B) Juzjoni
- S) Juvayniy
- D) Abulfazl Bayhaqiy

240. Qaysi davrda turkiy tildagi adabiyot rivoj topib, keyinchalik u Chig‘atoy tili” va “Chig‘atoy adabiyoti” nomini oladi?

- A) mo‘g‘ullar
- B) somoniylar
- S) qoraxoniylar
- D) o‘g‘uzlar

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: 1. "Guliston", "Bo'ston" asarlari muallifi. 2. Mo'g'ullarga qarshi kurashgan Xo'jand hokimi. 3. "Turklar onasi". 4. Qarshi shahri asoschisi. 6. Chingizxonning ikkinchi o'g'li. 7. Jo'jining nabirasi. 9. Chingizxonning asl ismi. 11. Chingizxonning to'ng'ich o'g'li.

ENIGA: 3. Chingizxonning kenja o'g'li. 5. Xorazmlik mo'g'ul elchisi. 8. Xorazmshoh tomonidan o'ldirilgan mo'g'ul elchisi. 10. Abbosiylar sulolasiga xotima bergan mo'g'ul xoni. 11. Mo'g'ullarga qarshi kurashda jasorat ko'rsatgan xorazmshoh. 12. "Masnaviyi ma'naviy" poemasining muallifi. 13. "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deb aytgan xorazmlik qahramon. 14. Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni (1251-1259).

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Hunarmandlar va savdogarlar solig'i. 2. Davlat xazinasi uchun olingan oziq-ovqat solig'i. 3. Mo'g'ullar vayron etgan Marv vohasidagi to'g'on. 5. Chingizxon Xorazmshohga qilgan bosqinida bosib olingan dastlabki shahar. 7. Duragay. 8. Temuchinga berilgan laqab. 10. Mo'gullar va Jaloliddin o'rtasidagi jang. 11. Savdo yo'llarida joylashgan bekat.

ENIGA: 4. Mo'g'ullar bosqini natijasida Movarounnahrda vujudga kelgan davlat. 6. Movarounnahrda ko'chib kelgan mo'g'ul. 7. Samarqand bosh suv inшоati. 9. Chorva mollari bosh sonining 1 % miqdorida olingan soliq. 12. Ziroatchi dehqonlar solig'i. 13. Davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar. 14. Sa'diy Sheroziy asari.

XRONOKROSS (yillar bo`yicha)



BO`YIGA: 2. Chingizxon vafoti. 3. Buyuk Xorazmshohlar davlatining barham topishi. 4. Amir Xusrav Dehlaviy tavalludi. 7. Chig`atoy ulusida Kebek hukmronligining barham topishi. 8. Sa`diy Sheroziyning tug`ilishi. 9. Jaloliddin Manguberdining Xorazm davlatining sultoni deb e`lon qilinishi. 10. Chingizxon Samarqandni bosib olishi.

ENIGA: 1. Mo`g`ullarning Rusiyani uzil-kesil zabt etishi. 3. Ma`sudbekning pul islohati. 5. Chingizxonning Enasoy havzasini zabt etishi. 6. Tasavvuf shoiri Jaloliddin Rumiy vafoti. 8. Jaloliddinning o`ldirilishi. 11. Chingizxonning Xiyotga hujumi. 12. Xulagular davlatining tashkil topishi. 13. Temuchinning "Chingiz" laqabini olishi.



VI BOB

AMIR TEMUR SALTANATI

AMIR TEMUR MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

SIYOSIY TARQOQLIK. XIV asr o'rtalariga kelib Chig'atoy ulusi yer egaligi tarqoqlik davrini boshdan kechirayotgan edi. **Kebekxonning** ma'muriy islohotlari yer egalarning o'zboshimchaligiga barham bera olmadi. **Qozonxonning** 40-yillarda xon hokimiyatini qayta tiklash yo'lidagi urinishlari o'zining o'limi (1346-y.) va Chingiziylarning Movarounnahrda hukmronliklarining barham topishi bilan yakunlandi. Qisqa muddat davomida hokimiyat **Amir Qozog'on** qo'lga o'tdi. XIV asrning 60-yillarda Movarounnahr bir necha yer egaligi mulklardan iborat bo'lib, ular uzluksiz o'zaro urush olib borardilar. Fursatdan foydalanib Yettisuv va Sharqiy Turkiston xoni **Tug'luq Temur** 1360-yilda Movarounnahrda bostirib kirib, Qashqadaryogacha yetib bordi. **Tug'luq Temur**dan so'ng taxtga uning o'g'li **Ilyosxo'ja** o'tirdi.

AMIR TEMURNING SIYOSIY FAOLIYATI. Ana shunday sharoitda zo'r harbiy va tashkilotchilik iste'dodiga ega bo'lgan **Temur** hukmron doira orasida katta obro' qozonadi. 1336-yilda Kesh yaqinidagi **Xo'ja Ilg'or** qishlog'ida dunyoga kelgan Temur 1360-yillarning boshlarida Kesh viloyatining hukmdori bo'lishga erishadi. 1361-yilda u Qozog'onning nabirasi **Amir Xusayn** bilan ittifoq tuzadi. Amirlar ittifoqi Movarounnahrda katta kuchga aylanadi. **Amir Temur** va **Amir Husayn** isyonkor amirlar va mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradilar. Bu ittifoq 1363-yilda Qunduz shahri yonida dastlabki sinovdan o'tdi. Qunduz shahri yonida **Temur** va **Husayn Ilyosxo'ja** ustidan g'alaba qozanadilar. 1364-yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradilar. Biroq, 1365-yilning 22-mayida **Ilyosxo'ja** qo'shinlari Toshkent bilan Chinoz o'rtasida bo'lib o'tgan "**Jangi loy**" jangida **Temur** va **Husayn** qo'shinlariga zarba berib, Samarqand tomon yo'l oladilar. Himoyasiz qolgan shahar mudofaachilariga **Mavlonzoda**, **Abu Bakr Kalaviy** va **Xurdaki Buxoriy** kabi **sarbadorlar** boshchilik qiladilar. Sarbadorlar harakati dastlab 1337-yilda Xurosonda boshlangan. Mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq ozodligi harakati qatnashchilari o'zlarini **sarbadorlar** deb atashgan. "**Sarbador**" so'zining ma'nosi "*boshini dorga tikkan*"dir, ya'ni istiqloq yo'lida qurbon bo'lishga tayyorlikni bildiradi. Xurosonning g'arbida mo'g'ullar hukmronligi tor-mor qilib, markazi **Sabzavor** shahri bo'lgan mustaqil **Sarbadorlar davlatini** barpo etadilar. Sarbadorlar asosan dehqonlar, hunarmandlar, shayxlar va qullardan iborat bo'lgan bo'lib, ularning hukumati asosan demokratik tartibga qurilgan. Bu davlat 45 yil hukm suradi.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan kuchayib ketadi. Samarqand harakat markaziga aylanadi. Shahar himoyachilari mo'g'ullar ustiga tinmay tosh yog'dirib ularni kaltakladilar. Bir muncha vaqt qamal qilib turgandan keyin Ilyosxo'ja Samarqandni, so'ngra Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, Samarqandda mo'g'ullar hukmronligi tugatilib, sarbadorlar hokimiyati o'rnatildi. Bundan xabar topgan Temur va **Amir Husayn** o'z qo'shinlari bilan 1366-yilda Samarqandga qaytib keladilar va sarbadorlar harakatiga barham berib, hokimiyatni egallaydilar. Ammo Temur va **Husayn** o'rtasidagi ittifoq uzoqqa cho'zilmadi. 1370-yilning bahorida Amir Temur Balx hukmdori **Amir Husayn**ga qarshi qo'shin tortib boradi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga etganda aslzodalardan **Sayyid Baraka** Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora — tabl va yalov — bayroq tortiq qiladi. Amir Temur Balx yaqinida mashvirat o'tkazib, qadimiy qonun-qoidaga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan **Suyurg'otmish o'g'lon** (1370-1388) mamlakat podsholigi taxtiga o'tkaziladi. 1370-yil 9-aprelda Balx shahri taslim bo'lib, Amir Husayn asirga olinadi va qatl etiladi. 1370-yilning 10-aprelda katta quroltoy o'tkazilib, Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u **Movarounnahrning amiri** deb e'lon qilinadi. Garchi saltanat taxtiga, an'anaga ko'ra dastlab nomigagina **Suyurg'atmish**, so'ngra uning vafotidan keyin **Sulton Mahmud** (1388-1402) o'tkazilgan bo'lsa-da, amalda markaziy hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi. Amir Temur Samarqandni o'ziga poytaxt qilib, uni mustahkam qal'aga aylantirdi.

Temur o'ziga xos tashkilotchilik qobiliyatiga va harbiy iste'dodga ega edi. U O'rta Osiyoda yer egalarning urushlariga barham berdi. Temur 1372-1388-yillarda Xorazmga besh marta harbiy yurish qilib, uni Oltin O'rda xonligidan ajratib olib, o'ziga bo'ysundirdi. Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. 1370-yilning kuzi va 1371-yil bahorida Zinda Chashmga zarba berilib, Shiburg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar. 1371-1390-yillarda Amir Temur mo'g'ulistoniga yetti marta yurish

qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alaba qozondi. Buning natijasida Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlikka, o'zaro nizo va Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'ydi.

1380-yildan Temur boshqa mamlakatlarga harbiy yurishlarga otlanadi: Oltin O'rda, Eron, Kavkaz, Suriya, Misr, Hindiston, Turkiyani bosib oldi. Sohobqiron harbiy yurishni **Xurosondan** boshlaydi. 1381-yili Amir Temur Hirotni egallaydi. **Saraxs, Jom** va **Qavsiya** shaharlari jangsiz taslim bo'ladi. 1381-1384-yillar davomida Eronning katta qismi bo'ysundiriladi. Amir Temur **Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom** (Suriya) ustiga uch marta qo'shin tortib boradi. Bu yurishlar tarixda **uch, besh** va **yetti yillik** urushlar nomi bilan shuhrat topadi. **Uch yillik** (1386-1388) harbiy yurishlari oqibatida **Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston** va **Armanistondagi** yerlar egallanadi. **Besh yillik** (1392-1396) urushi davomida **G'arbiy Eron, Iroqi Ajam** va **Kavkazni** egallaydi. Amir Temurning Hindistonga qarshi qilgan harbiy yurishi (1398-yil may-1399-yil mart) o'n bir oy davom etadi. U yerdan Amir Temur katta o'lja olib qaytadi. **Yeti yillik** (1399-1404) urush eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida **Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Dimishq** kabi yirik shaharlar va **Iroqi Arabning Ubiliston o'lkasi** bilan **Bog'dod** shahri va **Turkiyaning kattagina** qismi fath etiladi. Amir Temur Oltin O'rda davlatini tor-mor (1395) keltirib, rus knyazlarining mo'g'ullar qaramligidan qutulishlariga imkon yaratdi. 1402-yili Anqara yonida Turkiya sultoni **Boyazid I Yildirim** qo'shinlarini engib, Bolqon yarim oroli xalqlarini turklar asoratidan saqlab qoldi. Temur katta qo'shin bilan Xitoy safariga chiqqan vaqtida, 1405-yili fevralda O'tror shahrida vafot etdi. Amir Temur Go'ri Amirda dafn etilgan.

Amir Temur faoliyati qo'yilgan maqsad va rejaları jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. **Birinchi bosqich** (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi va **ikkinchi bosqichi** (1386-1405)da olib borilgan **“uch yillik”, “besh yillik”** va **“yetti yillik”** harbiy yurishlarni amalga oshirib, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabt etdi.

AMIR TEMUR SALTANATINING MA'MURIY VA HARBIY TUZILISHI

SALTANAT BOSHQARUVI. Amir Temur nasl-nasabi chingiziyarga mansub bo'lmaganligi sababli o'zi barpo etgan davlatida o'zini „qonuniy xon“ deb e'lon qilmadi. Shuning uchun ham chingiziyalar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra Amir Temur avval o'z huzurida **Suyurg'atmishni** (1370-1388), so'ngra uning vafotidan keyin uning o'g'li **Sulton Mahmudni** (1388-1402) rasmiy xon qilib ko'tarib, ularning nomidan yorliqlar chiqaradi, pullar zarb ettiradi. Amir Temur o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berib, uni mustahkamlab olish maqsadida **Qozonxonning** qizi, Amir Husaynning tul xotini **Saroy Mulkxonimga** uylanadi. 1370-yildagi bu nikoh tufayli Amir Temur o'zining amirlik darajasiga **“ko'ragon”, ya'ni “xonning kuyovi”** unvonini qo'shib oldi va rasmiy xujjatlarda **“Amir Temur ko'ragon”** nomi bilan yuritdi.

Temur o'z davlatini boshqarishga katta e'tibor berdi: buning uchun davlatni mustahkamlaydigan qonunlar joriy qildi. O'z davlatini o'g'il va nabiralari, lashkarboshilariga suyurg'ol (merosiy boshqaruv va soliqlar yig'ishga huquq bergan yerga egalik shakli) tariqasida bo'lib berdi. Amir Temur o'z davlatini to'rt ulusga bo'ldi: To'ng'ich o'g'li **Muhammad Jahongirga** Balx viloyati bilan 12 ming navkarli qo'shin, ikkinchi o'g'li **Umar Shayxga** Fors viloyati bilan 10 ming qo'shin, uchinchi o'g'li **Mironshohga** Ozarbayjon, Iroq va Armaniston bilan 9 ming qo'shin, kenja o'g'li **Shohruhga** Xuroson, Jurjon, Mozondoron, Seiston bilan 7 ming askar berdi. Markaziy hokimiyatni o'zi boshqardi.

QO'SHIN TUZILISHI. Amir Temur ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u harbiy islohga katta ahamiyat berardi. Shu bois Amir Temur manbalarda zamonasining mashhur sarkardasi va yirik lashkarboshchisi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste'dodi, sarkardalik mahorati, qo'shinlarning tuzulishida Oltin O'rda xoni To'xtamish, Dehli sultoni **Mahmud** va Turkiya sultoni **Boyazidlar** bilan olib borgan shiddatli mahorabalarida va jang maydonlarida qo'llagan jang qilish uslublarida namoyon bo'lgan. Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Qo'shin **“tuman”** — o'n minglik, **“hazora”** — minglik, **“ho'shun”** — yuzlik va **“ayl”** — o'nlik birikmalariga bo'lingan. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo'shinda 100 ming nafardan ortiq bo'lgan. Temur 10 minglik askarni boshqarish uchun **“tuman og'asi”**, minglik bo'linmalar uchun **“mirhazora”**, yuzlik uchun **“ho'shinboshi”** va o'nliklar uchun esa **«aylboshi»** kabi harbiy mansablarni ta'xis etadi. Bo'linma boshliqlari — amirlar Amir Temurga tobe bo'lgan 40 aymoq (qabila)dan 12 tasi: barlos, arg'in, jaloir, tulkichi, duldoy, mo'g'ul, sulduz, to'g'ay, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar orasidan saylab olgan. Amirlik martabasi Amir Temur faoliyatining dastlabki yillarida unga sodiq bo'lgan 313 nafar kishiga berilgan. Viloyatlar asosiy hamda rezerv qismlarni to'plab berardi. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi.

Qo'shinlar harbiy yurishga chiqqan vaqtda intizomga qattiq rioya qilingan. Safarda eng oldinda har bir qo'shin qismlari **“xabargiri”**, ya'ni xabarchilar deb yuritilgan ayg'oqchi kuzatuvchilar bo'linmasi yurgan. Habarchilar orqasidan soqchilar bo'linmasi yo'llangan, u **“yasovul”** deb atalgan. Qo'shinning asosiy qismlari oldida **“mingmanglay”** — avangard qismlar harakatda bo'lgan. Manglay asosiy kuchlardan, ba'zan esa bir necha tumanlardan iborat bo'lgan. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon atrofida zahira qismlar joylashgan bo'lib, u izofa deb yuritilgan. Urush jaryonida jang oqibatini ana shu izofa qismlar hal qilgan. Temur qo'shinining asosiy jangovar qismi markaz, o'ng va so'l qanotlardan iborat bo'lgan. Uning o'ng qanoti **“burong'or”**, so'l qanoti esa **“juvong'or”** deb yuritilgan. Har bir qanotning oldida qo'shimcha qo'riqchi manglay — avgard, yon tomonida esa bitadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar — **“kanbul”** lari bo'lardi. Shu tariqa qo'shin yetti qism — **“qo'llar”** dan iborat

bo'lib, bulardan uchta: markaz, burong'or, juvong'orlar mustaqil, to'rtta: ikki manglay va ikki kanbullar tobe qismlar edi. Qo'shinning bunday joylashtirilishi o'ziga xos tomoni shunda ediki, uning qanoat qismlari markaziy qismga qaraganda kuchli edi. O'rta asr muallifi **Sharafiddin Ali Yazdiy** qo'shinni yetti qo'lga — qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan mahsus asar yaratilib, u "**Temur tuzuklar**" nomi ostida shuhrat topadi. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amir Temur o'z reja va maqsadlarini ro'yobga chiqarishda ko'proq mulkdorlar va harbiy jangchilar orasida shuhrat topgan taqvodor ruhoniylar tabaqasi vakillariga suyanardi. U imom **Sayyid Barakani** o'zining piri deb hisoblardi.

Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy san'at sohasida o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi.

MAMLAKAT OBODONCHILIGI YO'LIDA

SHAHAR OBODONCHILIGI. Amir Temur o'zining binokorlik sohasidagi faoliyatida siyosiy maqsadlarini ko'zda tutgan. Masalan, Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroyning peshtoqiga "**Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq**" degan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan. Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi. Unda dunyoga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Sahibqiron Keshni O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar "**Qubbatul ilm val adab**" unvoniga ega bo'ldi. Samarqand poytaxt qilib olingach, u alohida imtiyozga ega shaharga aylandi. Samarqand shahri Amir Temur hukmronligi davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda qaytadan qurildi. Shahar tevaragi Ohanin, Shayxzoda Chorsu, Korizgoh, Suzangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali devor bilan o'rab chiqiladi. Shahar arkida Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bino qilingan.

SAMARQAND DAVLAT POYTAXTI. Samarqandda ommaviy binolar (madrasa, masjid, saroy, ko'priklar, sug'orish inshootlari) qurilishiga e'tibor berdi. Ispaniya qirolligining elchisi **Klavix** (1403-1406) Amir Temur saroyida mingga yaqin hunar egasining maxsus korxonalarida qurol-yarog', kiyim-kechak tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Tarixchi **ibn Arabshohn**ning yozishicha, Temur Samarqand atrofida qator shaharchalar bunyod etib, ularga dunyoning mashhur shaharlarini nomini bergan: Misr, Damashq, Bog'dod, Sultoniy, Sheroz, Forish (Parij) va hokazo. Samarqand aholisi muayyan hunar bilan shug'ullanuvchi mahallalarda (Zargaron, Kulolon, Allofon, So'zangaron va hokazo) istiqomat qilardi. Amir Temur hayotligida Shohi Zinda, Bibixonim, Ko'k Saroy, Go'ri Amir, Ruhobod kabi me'morchilik inshootlari qurildi. Samarqand atrofida **Bog'imaydon, Bog'inaqsh, Bog'ibaland, Bog'idilkusho, Bog'ibihshit, Bog'ishamol** singari o'ndan ortiq chorbog' (bog')lar qurildi. Ular o'z davrining go'zal san'at namunalari hisoblangan.

AMIR TEMURNING G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN ALOQALARI

XALQARO-SIYOSIY VAZIYAT. Amir Temur mamlakat iqtisodi va madaniyati yuksalishiga imkoniyat yaratdi. Qo'shni mamlakatlar bilan elchilik va savdo munosabatlari yo'lga qo'yildi. Bu davrda bir tomondan harbiy qudrati tobora oshib borayotgan Turkiya Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu qudratli davlatning o'zi G'arbiga tomon shiddat bilan bosib kelayotgan havfli raqib Amir Temur davlatini kuchli tazyiqiga duchor bo'lgan edi. Amir Temurning Kichik Osiyo va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalari uning G'arbiga — Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashishi rejaları ko'zda tutiladi. Boyaziddan yengilib, o'z yeri va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temurdan madad istab uning Qorabog'dagi o'rdogohiga borib, qaror topadilar. O'zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi **Ioann VII Paleolog**, Fransiya qiroli **Karl VI** (1360-1422), Angliya qiroli **Genrix IV** (1399-1413), Kastiliya va Leon qiroli **Genrix III de Trastamara** (1390-1407)lar bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, yozishmalar olib boradi. Anqara jangidagi g'alabadan so'ng Amir Temur G'arbiy Yevropa davlatlari bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarni yo'lga qo'yish kabi masalalariga ahamiyat beradi.

ELCHILIK ALOQALAR. G'arbiy viloyatlar hokimi **Mironshoh** G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian rohiblariga hayrihohlik bildirib, savdogarlarning dahlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarini amalga oshirdi. Shu sababli **Mironshoh** tez orada "katolik dinining homiysi" sifatida shuhrat qozondi. **Amir Temur, Mironshoh va Genrix IV** larning o'zaro diplomatik yozishmalaridan ma'lum bo'lishicha, Angliya bilan elchilik aloqalarini o'rnatib, savdo-sotiqning jonlantirish yo'lida olib borilgan harakatlarida, ayniqsa **Mironshohn**ing tashabbusi katta bo'lgan. Buning sababi savdo aloqalari avvalo **Mironshohga** tegishli o'lkalardan o'tar edi.

Kastiliya (Ispaniya) qiroli **Genrix III** 1402-yilning bahorida o'z elchilarini Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboradi. Elchilar Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va sovg'alar bilan kuzatiladi. 1403-yilda **Klavix** boshchiligidagi ikkinchi maxsus elchilarini Samarqandga yuboriladi. Elchilar Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinadi. **Klavix**ning safar taassurotlari "**Buyuk Amir Temur tarixi**" va "**Temur qarorgohi**",

“Samarqandga *saforot kundaligi*” nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

Amir Temur vafotidan so‘ng mamlakatda boshlangan siyosiy boshboshdoqlik va uni bir necha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketishi oqibatida G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan Amir Temurning o‘rnatgan bevosita savdo va elchilik aloqalari asta-sekin susaydi. Bu esa O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa va unda shakllanayotgan jahon tashqi savdo bozoridan ajralib, o‘rta osiyoliklarning dunyo xalqlarining taraqqiyotidan chetga qolishining asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

TARIXIY SHAXSLAR

ABBOS BAHODIR, ABBOS BAHODUR QIPCHOQ, ABBOSBEK (?-1387) — Amir Temurning safdoshi, yirik lashkarboshi, bolaligidagi do‘sti va maktabdoshi. U yoshligida Amir Temur, *Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek* va boshqalar bilan to‘planib, birgalikda mashq qilib, musobaqalarda ishtirok etib, asta-sekin navkar bo‘lib, harbiy guruhga birlashib shakllana borgan. Jetta mo‘g‘ullariga qarshi kurashda faol qatnashgan. Abbas Bahodir yangi loyda Amir Temur cherikning qambulida (markazida) turib, katta jasorat ko‘rsatgan. 1370-yil *Amir Husayn* bilan bo‘lgan so‘nggi jangda Amir Temur tarafida jang qilib, ko‘p bahodirlik ko‘rsatgan. 1370-yil 9-aprelda *Amir Husayn* ustidan to‘la g‘alabaga erishilgach, *Amir Temur* Abbas Bahodirga boshqa yirik lashkarboshilari qatorida amiri lashkari (cherik begi) harbiy unvonini bergan. Abbas Bahodirning yoshi Sohirqironga nisbatan ulug‘roq bo‘lgan bo‘lsa kerak, chunki u 1385-yilgacha bo‘lgan harbiy yurishlarda faol qatnashib, shu yildan e‘tiboran ko‘proq o‘g‘riqda qoldirilgan. Xususan u 1386-yilda boshlangan “uch yillik yurishi”da ishtirok etmay, Samarqandda “*Movarounnahr viloyatining zabti uchun*” qoldirilgan. 1387-yil oxirida *To‘xtamishxon* Movarounnahrda bostirib kelganda u bilan O‘trorda 5 km sharqroqda joylashgan Chukalak mavzeida bo‘lgan jangda yarodar bo‘lib, vafot etgan.

ABDULHAY (XIV-XV a.) — miniatyurachi rassom. 1396-yilda *Amir Temur* uni Bog‘doddan Samarqandga chaqirib olgan va saroydagi badiiy ustaxonalarning boshlig‘i qilib tayinlagan. Bizgacha san‘atkor asarlarining juda oz qismi yetib kelgan. Berlindagi antiqalar orasida mavjud bo‘lgan “*Saroy*” albomida rassomning ikki miniatyurasi (“*O‘rdak*”, “*Jang manzarasi*”), Istambulda *To‘pqopu* saroyida Abdulhayning imzosi bo‘lgan ikki asari saqlanadi.

ABDUQODIR IBN SAYID ABDULVAHHOB — xurosonlik mashhur xatot, Amir Temurning kotiblaridan biri. Uning ikkita dastxat kitobi bo‘lgan.

ABU BAKR KULUIY (KALAVIY) NADDOF (?-1366) — hunarmand (jun tituvchilar oqsoqoli, jun tituvchi-naddof), 1365-1366-yillarda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi Samarqandda ko‘tarilgan sarbadorlar qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri. Qo‘zg‘olon mo‘g‘uliston xoni *Ilyosxo‘ja* 1365-1366-yillarda Movarounnahrda hujum qilgan davrda boshlandi. Qo‘zg‘olon rahbari *Mavlonozoda* va Abu Bakr Kuluiy Naddof Samarqand amiri qochib ketgach, shahar mudofasini o‘z qo‘llariga olib, fuqaroning qurollantirganlar va mo‘g‘ullar hujumini qaytarganlar. Shundan so‘ng sarbadorlarning bevosita ishtirokida shahar aholisini talash va zo‘rovonlik boshlangan. *Amir Husayn* Samarqandga yurish qilib, Konigilda sarbadorlar boshliqlari ustidan

shar‘iy sud jarayoni o‘tkazib, Abu Bakr Kuluiy Naddofni o‘limga mahkum etgan.

AHMAD BOG‘ISHAMOLIY, PIR AHMAD BOG‘ISHAMOLIY (XV asr) — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan rassom. Samarqanddagi Bog‘i Shamol va boshqa saroylarni mohirona bezagan. Ahmad Bog‘ishamoliy *Abdulhayning* zamondoshi bo‘lib, uning ijodiy uslubini davom ettirgan. Rassomning miniatyura asarlariga bizgacha yetib kelmagan. Mutahasislarning fikricha, *Jomiyning* “*Selsilat o‘z-Zahab*” (“Oltin zanjir”) asari oxirida berilgan ikki betli deptexni Ahmad Bog‘ishamoliy bajargan.

AHMAD IBN JALOIR IBN SULTON UVAYS (?-1410) — jaloyiriylar soltoni (1382-1410). Akasi *Husayn* hukmronligi davrida Barsa noibi bo‘lgan (1375-yildan). 1382-yil isyon ko‘tarib poytaxt Tabrizni egallagan va akasini qatl etishga farmon bergan; biroq qolgan akalari bilan bo‘lgan shiddatli kurashlardan so‘nggina davlatning oliy hukmdori deb tan olingan (1384-yildan). Hukmronligining dastlabki yillari (1386-87)da Tabrizni *To‘xtamishxon*, so‘ng *Amir Temur*, keyin qora quyunlar boshlig‘i *Qora Muhammad* egallagan. 1393-yil Tabrizdan keyingi ikkinchi yirik shahar — Bag‘dod ham *Temur* tomonidan zabt etilgan. Ahmad Jaloir Misrga qochgan va 1394-yil yanvarda Bag‘dodga qaytib qora quyunlilardan *Qora Yusuf* yordamida bir necha yil hokimiyatni boshqargan. 1401-yil iyulda Bag‘dod *Temur* tomonidan ikkinchi marotaba fath qilingan; Ahmad Jaloir shaharni ilgariroq tashlab chiqib *Qora Yusuf* bilan birga avval Shom (Suriya)ga so‘ngra Kichik Osiyoga yo‘l olgan. *Temur* va *Boyzid* o‘rtasidagi urushdan foydalanib, Bag‘dodni qisqa muddat egallab turgan, so‘ng ittifoqchisi *Qora Yusuf* bilan yana Shomga qachgan. Bag‘dodni egallagan temuriy shaxzoda *Abu Bakr* ularni ta‘qib qilgan. Shomda Ahmad Jaloir va *Qora Yusuf* hibsga olingan va 1405-yilda *Temur* vafotidan keyingina ozod qilingan. 1410-yil 30-avgustda Ahmad Jaloir qo‘shini Tabriz yaqinida *Qora Yusuf* tomonidan tor-mor keltirilgan, o‘zi esa qatl etilgan. Manbalarga ko‘ra Ahmad Jaloir shafqatsiz, makkor hukmdor bo‘lsada, jasur jangchi, olimlar, shoirlar rahnamosi bo‘lgan, arab va fors illarida she‘rlar va musiqaga oid bir qancha risolalar yozgan.

ALEKSANDR — Dominikan monaxi. U monax *Fryansis* bilan 1401-yilning avgustida Konstantinopol noibi *Ioann VII Paeolog* tomonidan Qorabog‘ga *Temur* qarorgohiga *Boyzidga* qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan elchi qilib yuborilgan.

AMIR BAYON SULDUZ (?-1361) — Chig‘atoy ulusi beklaridan, asli Sulduz urug‘idan. Samarqand hokimi. *Amir Qazag‘on* o‘ldirilgach (1358-yil), Movarounnahr taxtiga o‘tirgan uning o‘g‘li *Abdulloni* jangda yengib, hokimiyatdan cheklangan va mamlakatni *Amir Xoji Barlos* bilan birga boshqargan, biroq Bayon Sulduz mayishatparast bo‘lganligi sababli davlatni boshqarishni

uddasidan chiqolmagan. Bundan foydalangan mo'g'uliston (Jeta) xoni *Tug'luq Temur* Movarounnahrğa ikki marta — 1360, 1361-yillari bostirib kelgan va Bayon Sulduzni qatl qildirgan.

AMIR BOYAZID JALOYIR (?-1361) — chigatoy ulusi beklaridan, jaloyir urug'ining beki. Xo'jand mulki Boyazid Jaloyir tasarrufida edi. *Amir Qazag'on* o'ldirilganidan (1358) keyingi g'alayonli yillarda *Amir Temur* bilan goh raqobatda, goh kelishuvda bo'lgan. 1361-yilning bahorida Mo'guliston (Jeta) xoni *Tug'luq Temur* tomonidan qatl etilgan. *Amir Temurning* xotinlaridan biri — *Tuman og'* oning onasi *Orzumulk og'o* Boyazid Jaloyirning qizi edi.

AMIR KAYXISRAV — 1370-yil 10-aprelda Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, *Amir Temurning* piri *Sayyid Baraka* ishtirokida bo'lib o'tgan qurultoy ishtirokchilaridan.

AMIR TEMUR, TEMUR, TEMURBEK (1336-yil 9-aprel Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani) — 1405-yil 18-fevral O'tror shahri, Samarqandda dafn etilgan) (to'liq ismi Amir Temur ko'ragoniy ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Burqul — Yozma manbalarda u Temurlang, Yevropa adabiyotida Tamerlan nomlari bilan ta'riflanadi) — o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. Amir Temurning onasi *Takinaxotun* buxorolik mashhur faqih *Toj ash-sharia* (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan *Ubaydulla ibn Mas'ud*ning avlodi (1350-yil vafot etgan) edi. Uning otasi *Amir Tarag'ay* barlos urug'ining oqsoqolilaridan bo'lib, Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari esa Chig'atoy saroyi mulozimlari qatoridan o'rin tutgan. Ular Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtida hokimlik qilgan. Shu boisdan Amir Temurning otasi *Amir Tarag'aybek* ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt bek va biylarining umum qurultoyiga taklif etilar va bunday yig'inlarda qatnashardi. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirish turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishadi. Bu guruh orasida *Abbos Bahodir*, *Jahon Shohbek*, *Kimori Inoq*, *Sulaymon Shohbek*, *Sayfuddinbek* va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasiga ko'tarilganlar. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do'stlarni atrofga jalb qila olgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan

boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temur aql-zakovati, shijoati va jasorati to'g'risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval *Joku Barlos*, so'ngra *Amir Qazog'on* (1346-1358) bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir *Joku Barlos*ning qizi *Turmish Og'oga* uylantiradi. 1362-yilda Amir Temur Qazog'onning nabirasi, *Amir Husayn*ning singlisi *Uljoy Turkon Og'oni* o'z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog'langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz Amir Temur bilan *Amir Husayn* o'rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va mo'g'ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki harakati XIV asrning 60-yillar boshlaridan boshlangan. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, *Amir Qazag'on* o'ldirildi. Oqibatda mamlakatda siyosiy parokandalik vujudga kelib ulus bir qancha mustaqil beklilarga bo'linib ketadi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan *Tug'luq Temur* va uning vorisi *Ilyosxo'ja* 1360-1361, 1365-yillarda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Biroq Movarounnahr aholisi mo'g'ullarga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Kesh viloyatining hukmdori *Hoji Barlos* Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada Amir Temur maydonga kiradi. Kuchlar teng emasligini hisobga olgan Amir Temur 1360-yilning boshida *Tug'luq Temur* tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayin etiladi. Biroq, ko'p o'tmay Movarounnahrning hukmdori etib tayinlangan *Ilyosxo'ja* bilan Amir Temur murosasi kelishmay qolishi natijasida 1361-yilning oxirida mamlakatni tark etib, Xorazmga yo'l oladi. U yerda amir *Husayn* bilan uchrashadi va mo'g'ullarga qarshi kurashda ikkovlon birlashib, kuch to'plashga kirishadi. Dastlab ular, *Tug'luq Temurxonning* farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi *To'qol* (Tavakkal) bilan jang qildilar. So'ngra 1362-yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori *Malik Qutbiddin*ning tarafida turib, mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda, Amir Temur o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlandi. Nihoyat, *Ilyosxo'ja* boshliq Jeta lashkalari bilan bir necha marta jang qilib, mo'g'ullarni Movarounnahr hududidan 1364-yil oxirida quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Biroq, *Ilyosxo'ja* 1365-yili bahorida Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Toshkent va Chinoz o'rtasida sodir bo'lgan "*Loy jangi*"da amir *Husayn*ning hiyonati oqibatida Amir Temur qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Samarqandni o'z qo'lga olgan mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarilib, shahar mudofasini o'z qo'lga olgan sarbadorlar mo'g'ullarni mamlakatdan butunlay haydab chiqardi. Bundan xabar topgan amir *Husayn* tomonidan sarbadorlar boshliqlari qatl ettiriladi. Natijada, 1366-yili amir *Husayn* Movarounnahrda hokimiyatni o'z qo'lga oladi, ammo ko'p o'tmay amir *Husayn* va Amir Temur o'rtasidagi munosabat

keskinlashib ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Ular o'rtasida 1366-70-yillarda bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Amir *Husayn*ga qarshi Balxga yo'l olayotgan Amir Temur Termiz yaqiniga kelganda makkalik shariflardan *Sayyid Baraka* Amir Temur faoliyatini qo'llab quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora — *tabl* bilan *yalov* — bayroq tortiq qiladi. 1370-yili 10-aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur chingiziyulardan bo'lgan *Qozonxon*ning qizi *Saroymulxonim*ni o'z nikohiga oladi va “*ko'ragon*” unvonini olishga muvassar bo'ladi. Garchi saltanat taxtiga, an'anaga ko'ra dastlab nomigagina *Suyurg'amish* (1370-1388), so'ngra uning vafotidan keyin *Sulton Mahmud* (1388-1402) o'tqazilgan bolsa-da, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi. 1372-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi. Xorazm 1388-yilda uzil-kesil Temur davlatiga qo'shildi. Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda tarqoqligiga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Amir Temur davlatiga Mog'iliston davlatining doimiy hujumini bartaraf etish uchun yigirma yil (1371-1390) mobaynida Mog'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari *Anqoto'ra* va *Qamaruddin* ustidan g'alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlikka, o'zaro nizo va mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'ydi. Sohobqiron bu bilan qanoatlanmay, qo'shni davlatlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Sohobqiron harbiy yurishni Xurosondan boshlaydi. 1381-yili Amir Temur Hirotni egallaydi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ladi. 1381-1384-yillar davomida Eronning katta qismi bo'ysundiriladi. Avval (1381) *Kalot*, *Turshiz* va *Sabzavor*, keyin (1383) *Seistonning Zireh*, *Zova*, *Farah* va *Bust* qal'alari, 1384-yilda esa *Astrobod* viloyati va Ozarbayjonning *Omul*, *Sori*, *Sultoniya* va *Tabriz* shaharlari bo'ysundiriladi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda “*uch yillik*”, “*besh yillik*”, “*yetti yillik urush*”lar nomi bilan mashhur. *Uch yillik* (1386-1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi. Amir Temur shu bilan birga shimoli-g'arbdan, ya'ni Oltin O'rda tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida *To'xtamish*ga qarshi uch marta qo'shin tortadi. 1389-yilda Dizakning *Achchiq* mavzeida, 1391 yili *Qunduzcha* jangida, 1395-yil *Tarak* daryosi bo'yidagi janglarda g'alaba qozonib, dushman qo'shinini tor-mor etdi. Amir Temurning *To'xtamish* ustidan qozongan g'alabasi, faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi. Shundan so'ng, Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. U *besh yillik* (1392-1396) urushi davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va

Kavkazni egallaydi. Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan g'azovoti (1398-may-1399-yil mart) qariyb o'n bir oy davom etadi. Hindistondan u katta o'lja, shu jumladan 120 ta jangovar fillar bilan qaytadi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga tarqatilib, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga ishlatiladi. 1399-1404-yillardagi yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Shomning *Xalab*, *Kumis*, *Baalbek*, *Dimishq* (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning *Ubuliston* o'lkasi bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi. Natijada ikki buyuk sarkarda: Sohobqiron Amir Temur bilan sulton *Boyazid Yildirim*larning to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu ikki turkiy davlatlarning har biri ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqshatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo'ylab, g'arbgacha tomon o'z hududlarini kengaytirayotgan Usmonlilar davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayishidan Amir Temur ham shunchalik manfaatdor edi. Amir Temur hayot-mamot yo'lida *Boyazid Yildirim* bilan bo'ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Rumga yuzlanib, avval *Qamoh* qal'asini fath etadi, so'ngra *Anqara* shahrini qamalga oladi. Amir Temur bilan *Sulton Boyazid* qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi va hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida *Chibukobod* mavzeida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda “*Anqara jangi*” nomi shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda Amir Temur g'alaba qozondi. Amir Temur Usmonli turklari davlatini saqlab qoldi va Boyazid vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli *Karl VI* (1380-1422), Angliya qiroli *Genrix IV* (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli *Genrix III* (1390-1407) tabriklab, unga o'z muborak nomalarini yubordilar. Chunki Sohobqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi. Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur vafot etganda, uning xotinlaridan to'rtasi — Saroy Mulk xonim, Tuman og'o xonim, Tukul xonim va Ruh Parvar og'o xonimlar hali hayot edilar. Shuningdek, Amir Temur vafot qilgan vaqtda undan ikki o'g'il, 19 nevara va 15 chevara, jami 36 shahzoda hayot edi. Bulardan tashqari sohobqironning kichik qizi — Sulton Baxt begim va katta qizi — Og'o begimdan tug'ilgan o'gil — Sulton Husayn Mirzo nomli nevarasi ham bor edi. Tarixiy ma'lumotlarning dalolaticha sohobqiron Amir Temur o'n sakkiz marta uylangan. Bundan tashqari u 22 nafar xos kanizaklarini ham o'z shabistoniga mahram qilgan. Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jang'u jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlar zabt etildi. Oqibatda Hindiston hamda

Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qoʻltigʻiga qadar boʻlgan gʻoyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don boʻylari, Balxash koʻli va Ila daryosi, Shimoliy Hindistongacha boʻlgan mamlakatlarni oʻziga boʻysundirdi. Bu mamlakatlardan Amir Temur katta oʻljalar bilan bir qatorda koʻzga koʻringan olimlar, hunarmandlar va mohir ustalarni Samarqand, Shahrisabz va Buxoroga koʻchirib olib keldi. Bu shahar va qishloqlar obod qilindi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki boʻysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. *Bagʻdod*, *Darband* va *Baylakon* shaharlarini qayta tikladi. Karvon yoʻllarida rabotlar, qalʼalar, koʻpriklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bogʻ-u boʻstonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan Gʻarbni bogʻlovchi qadimiy karvon yoʻllarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qoʻshdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar oʻrnatdi. Amir Temurning harbiy yurishlari, jang-u jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni taʼkidlash kerakki, uning faoliyati qoʻyilgan maqsad va rejalarini jihatidan ikki bosqichga boʻlinadi. *Birinchi bosqich* (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yoʻlida kurashdi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yoʻlida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi. Amir Temur faoliyatining *ikkinchi bosqichi* (1386-1405)da olib borilgan “*uch yillik*”, “*besht yillik*” va “*yetti yillik*” harbiy yurishlarni amalga oshirib, Oltin Oʻrda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabt etdi. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy sanʼati va davlat boshqarish uslubiga bagʻishlangan maxsus asar yaratilib, u “*Temur tuzuklari*” nomi ostida shuxrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning ogʻzidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari yoʻnalishi va vazifalari, vazir va qoʻshin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qoʻshin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida koʻrsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanqa bilimni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. Amir Temur hayotligi chogʻida saltanatni asosan toʻrt qism (ulus)ga boʻlib, oʻgʻil, nabiralari taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xiro) Shohruxga, Gʻarbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armoniston (makazi Tabriz) Mironshohga, Fors, yaʼni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afgʻoniston va Shimoliy Hindiston (markazi Gʻazna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suygʻol qilib berilgan. Amir Temur

davlati oʻziga xos tartib qoidalarga asoslangan holda idora qilingan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud boʻlib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Amir Temur imom *Sayyid Barakani* oʻzining piri deb bilgan. *Sayyid Baraka* Temur qilich bilan nimaniki qoʻlga kiritgan boʻlsa, shularni toat-ibodat hamda fatvolar berib, dugoʻylik bilan mustahkamlab berishga harakat qiladi. Amir Temur haqidagi birinchi kitob 1553-yili Florensiya (Italiya)da chiqqan. Italiyalik olim *Perondini* qalamiga mansub boshqa shu asrda ispan tarixchisi *Pero Meksikaning* “*Buyuk Temur tarixi*” degan asari ham chop etildi. 1582-yili Sevilyada mashhur Ispaniya elchisi *Klavixoning* “*Esdaliklar*”i nashrdan chiqdi. Ingliz dramaturgi *Xristofor Morloning* “*Buyuk Temur*” degan sahna asari ham shu asrda yaratildi. Shoʻrolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. Oʻzbekiston Mustaqillikka erishganidan soʻng, bunday qarashlarga barham berildi. Oʻzbekistonning birinchi prezidenti *Islom Karimov* say-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan oʻrni oʻz joyiga qoʻyila boshladi. Oʻzbekistonda uning faoliyatini oʻrganishga va uni ommalashtirishga keng yoʻl ochildi. “*Sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari boʻlmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning butun maʼrifiyinsoniyatning boyligi*”ga aylandi (I. Karimov). Uning nomi Oʻzbekistonda abadiylashtirildi. Koʻplab shahar va qishloqlardagi shoh koʻchalar, maydonlar, jamoa xoʻjaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqalar uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal oʻrnatildi. Toshkentdagi Amir Temur hiyobonida *Temuriylar davri muzeyi* barpo etildi (1996), “*Amir Temur*” ordeni taʼsis etildi (1996) va *Xalqaro Amir Temur jamgʻarmasi* tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohobqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va sheʼriy hamda nasriy asarlar yaratildi.

AMIR ULJOYTU SULDUZ — Balx hokimi. XIV asming 50-60-yillarida Movarounnahrda tarqoqlik gʻoyatda kuchayib, oʻzaro kurash yanada keskinlashgan bir paytda, Balxda oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qildi. 1370-yil 10-aprelda Chigʻatoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida boʻlib oʻtgan qurultoy aʼzolaridan biri.

AMIR XOJIBARLOS — Kesh viloyatining hukmdori. Amir Temurning amakisi. moʻgʻul xoni *Tugʻluq Temurning* 1360-1361-yillarda Movarounnahrda hujum qilganda Xuroson tomon qochadi.

AMIR YASOVURIY — Histori Shodman chegarasi hokimi. XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahrda tarqoqlik gʻoyatda kuchayib, oʻzaro kurash yanada keskinlashgan bir paytda, oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qildi.

AMIR ZINDA CHASHM — Shiburgʻon hokimi; moʻtabar maʼmur. 1370-yil 10-aprelda Chigʻatoy ulusining

bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, *Amir Temurning* piri *Sayyid Baraka* ishtirokida bo‘lib o‘tgan qurultoy ishtirokchilaridan. Biroq, *Amir Temur* 1370-yilning iyul oyida Samarqandda chaqirgan qurultoyida qatnashmagan.

ANKA TO‘RA (XIV asr) — Jeta (Mo‘g‘uliston) xonlari *Tug‘luq Temur* va *Ilyosxo* ‘jalardan so‘ng Jetada yuz bergan parokandalikda taxt talab bo‘lib siyosiy sahnaga chiqqan xonzodalar va amirlardan biri. 1388-yil bahorida *Amir Temur* Xorazmda ekanligidan foydalanib, avvalgi bitimlarga xilof ravishda O‘zgan tarafidan Andijonga hujum qiladi. Lekin *Umarshayx Mirzodan* zarba olib, Oloy tog‘lariga chikingan. *Anka To‘ra*ning bu xuruji *Amir Temurning* 1389, 1390-yillarda Jeta tomon ikki marta yurishiga sabab bo‘ldi. Bu yurishlar natijasida harbiy va iqtisodiy qudrati sindirilgan Jeta *Amir Temur* mulkiga qo‘shib olingan. *Anka To‘ra* Oltoy tomonga chekinib, dom-daraksiz yo‘qolgan.

ARDASHER QAVCHIN (XIV asr) — *Amir Temurning* safdoshi va lashkarboshishi, qavchin urug‘ining beklaridan. *Amir Husaynga* qarshi kurashda faol qatnashgan. 1370-yilning aprelida uning ustidan g‘alala qozonilganidan so‘ng Ardasher Qavchiga amiri lashkar (cherik beki) harbiy unvoni berilgan.

ARG‘UNSHOH AXTACHIBURDALIG‘TY (XIV asr ikkinchi yarmi — XV asr boshi) — *Amir Temur* lashkarboshilaridan. *Amir Temurning* *Amir Husayn* bilan qilgan janglarida faol qatnashgan, Movarounnahrni dushmanlardan tozalashda jasorat va shijoat ko‘rsatgan. *Amir Temurning* ko‘p harbiy yurishlarida qatnashgan. Hindiston yurishi (1398-1399) va “*yetti yillik yurishi*” (1399-1404) yillari Arg‘unshoh bir necha amirlar bilan birga “*mo‘g‘ul sarhadining zabti*” uchun qo‘yilgan. *Amir Temur* 1404-yil 27-noyabrda Xitoy yurishiga ketayotib, Arg‘unshohni Samarqandda kutvol lavozimida qoldirgan. Biroq 1405-yil 18-fevralda *Amir Temur* vafotida so‘ng yuz bergan tartibsizliklar va *Halil Sulton* tomonidan uyushtirilgan fitnada u shahzoda tarafida bo‘lgan va *Saroymulx xonim*, *Tuman og‘o*, *Ulug‘bek*, *Ibrohim Sultonni* va lashkarboshilardan *Amir Shohmalik*, *Shayx Nuriddinlarni* Samarqandga kiritmagan. Bu bilan u *Amir Temur* barpo etgan davlatga putur yetishiga sababchilardan biri bo‘lgan.

ATALMISH QAVCHIN (XIV asr o‘rtasi — XV asr boshlari) — *Amir Temur* saroyidagi yirik davlat va siyosat arbobi, uning yaqinlaridan biri Atalmish Qavchiga muhim siyosiy va harbiy vazifalar topshirilgan. Xususan, 1383-yil *Amir Temur* Atalmish Qavchinni bir necha amirlar bilan Jetaga, Qamariddinga qarshi yuborgan. 1394-yil “*besht yillik yurish*” paytida Atalmish Qavchin sharqiy Anadoludagi Avnik qal‘asiga kutvol qilib tayinlangan. 1395-yil Sohibqironning *To‘xtamishga* qarshi yurishi chog‘ida *Qora Yusuf Turkman* Avnikka hujum qilib, Atalmish Qavchinni asir olgan va uni Misr sultoni *Barquqqa* yuborgan. Anqara jangidan so‘ng *Barquqning* o‘g‘li *Faraj Atalmish Qavchinni* o‘z elchilari bilan birga *Amir Temur* huzuriga qaytargan. 1404-yil Sohibqiron Atalmish Qavchiga Sharqiy Anadoludan Qora Totor elini Jetaga ko‘chirib borish vazifasini topshirgan. *Amir Temur* vafotidan so‘ng Atalmish Qavchin nomi shahzodalar, xonimlar va *Shayx*

Nuriddin, *Shohmaliklar* bilan birga Samarqandga kirolmay 1405-yilning martida Buxoroga borganlar qatorida qayd etib o‘tilgan.

BAHRUM JALOYIR (?-1373) — Chig‘atoy ulusi beklaridan, jaloyir urug‘idan. 1361-yil oxirida Amudaryo bo‘yida *Amir Temur* qo‘shini safiga kelib qo‘shilgan. Lekin Jeta xoni *Tug‘luq Temur*dan hayiqib Hindistonga qochib ketgan. 1362-yil Badaxshonda yana *Amir Temurga* kelib qo‘shilgan va bir muddat mo‘g‘ullarga qarshi kurashlarda qatnashgan, biroq 1365-ilning oxirida butun urug‘ini olib Jetaga ketgan. U yerda bir yilcha turgach, yana *Amir Temur* huzuriga qaytib u bilan birga *Amir Husaynga* qarshi kurashgan. 1373-yil Xorazmga qilingan ikkinchi yurish chog‘ida halok bo‘lgan.

BAYON QULIXON (Buyon Qulixon) Surg‘atu o‘g‘li (?-1358) — Chig‘atoy ulusi xoni (1348-58). Chig‘atoylardan. Davlat ishlarini aslida uning nomidan *Amir Qazag‘on* boshqargan. 1358-yil qishda *Qazag‘on* fitnachilar tomonidan o‘ldirilgach, uning o‘g‘li *Amir Abdulla* Bayon Qulixonga qarshi Hisor hokimi Bayon Sulduz va Kesh (Shahrisabz) hokimi *Hoji Balos* bilan birgalikda bosh ko‘targan. Samarqandga yaqin yerda bo‘lgan jangda Bayon Qulixon qo‘lga olinib, qatl qilingan.

BIBIXONIM (asl ismi Saroymulxonim) (1341-1408) — *Amir Temurning* katta xotini, Chig‘atoy ulusi xoni — *Qozonxonning* qizi. Dastlab amir *Qazog‘onning* nabirasi — *Husayn ibn Musallabga* (1355), keyin (Husayn qatl etilgach) *Amir Temurga* nikohlangan (1370). Shu bois *Amir Temur* “*Ko‘ragon*” unvoniga musharraf bo‘ladi. Otasi xon avlodiga mansub *Saroymulxonim* haramdagi barcha maliklardan ulug‘ hisoblanib, “*Katta xonim*” yoxud “*Bibixonim*” degan unvonga noil bo‘ladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim o‘z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdon va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek, husn-latofat bobida ham benazar edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma‘rifatga alohida e‘tibor berar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi. Sohibqiron *Amir Temurning* harbiy yurishlarida ko‘pincha hamkorlik qilgan. Bibixonim saltanati boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. *Amir Temur* Bibixonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Bibixonim o‘z jamg‘armasi hisobidan Samarqandda ulkan madrasa qurdirgan. Bibixonim farzand ko‘rmagan bo‘lsa-da, sohibqiron o‘z nabiralari — *Muhammad Sulton*, *Xalil Sulton*, *Ulug‘bek* va boshqa mirzolari bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi. Samarqandda *Amir Temur* Bibixonimga atab qurdirgan Bibixonim jome‘ masjidini mavjud. Bibixonim haqida xalq orasida ko‘plab rivoyatlar saqlanib qolgan.

BOBO SANGU (XIV a.) — *Amir Temur* pirlaridan biri. Andxud shahridan 1381-yilning fevralida *Amir Temur* Xurosonga qilgan birinchi yurishida uni ziyorat qilgan. Shunda Bobo Sangu jazava holatda Sohibqironning oyog‘i ostiga qo‘yning to‘shini tashlagan. *Amir Temur* bundan

“Xuroson yer yuzining to‘shidir, bizga tangri uni berguvsidir”, deb xulosa chiqargan.

BOYAZID I YILDIRIM (1359-1403) — usmonlilar sulolasiga mansub Turkiya sultoni (1389-1402), sulton *Murodxon I* (1359-1389)ning to‘ng‘ich o‘g‘li, sulton *O‘rxon* (1326-1359)ning nabirasi. Otasi Kosovo jangida xalok bo‘lgach, 30 yoshida taxtga o‘tirgan. Boyazid I Yildirim ota-bobolari siyosatini davom ettirib, tez orada Dunay bo‘yi davlatlarini o‘ziga bo‘ysundirdi. So‘ng, Vizantiya imperatori *Ioann* bilan uning o‘g‘li *Andronik* o‘rtasidagi itxtilofdan foydalanib, *Andronikka* harbiy yordam ko‘rsatdida, uni Vizantiya taxtiga o‘tqazdi, *Ioanni* esa zindonga tashladi. Ammo, ikki yildan so‘ng (1394) *Andronikni* taxtdan tushirib, *Ioanni* yana taxtiga o‘tqazib qo‘ydi. Shunday qilib, Boyazid Vizantiyani butunlay o‘ziga qaram qilib oldi. Keyin, Boyazid 1395-1396-yillarda Bolgariya, Makedoniya, Fessaliyani fath etdi, Gretsiyaga bostirib kirib Argos shahrini butunlay vayron qildi, Bolqon arxipelagidagi orollarga Chopqun qilib, Moreya va Vengriyaga tahdid sola boshladi. Shunda Bog‘miya va Vengriya qiroli *Sigismund I* (1368-1437) turli mamlakatlardan katta qo‘shin to‘plab Boyazidga qarshi yurish qildi, ammo 1396-yil 28-sentabrda Nikopol shari yonida (Dunay bo‘yida) gi jangda tor-mor keltirildi. Jangdan so‘ng, Boyazid asir olingan 3 ming kishini qatl ettirdi. Boyazid bu yirik g‘alaba tufayli Bosniya, Vengriyani ham qo‘lga kiritib, Bolqon yarim orolida o‘z mavqeni mustahkamlab oldi. Biroq, ketma-ket qozongan g‘alabalaridan kibrlanib ketgan Boyazid Anqara jangida *Amir Temur* tomonidan butunlay tor-mor etilib, o‘zi asir olindi va ko‘p o‘tmay vafot etdi.

DILSHOD OG‘A BEGIM (?-1383) — *Amir Temurning* xotinlaridan biri. *Amir Temur* 1374-yil Jeta (Mo‘g‘uliston) hukmdori *Qamariddinga* qarshi qo‘shin tortib, raqibni ta‘qib etib Uchfarmon va Otboshi orqali Sharqdan Farg‘ona vodiysiga kirganlar, o‘g‘li *Jahongir mirzo Qamariddinning* lashkarboshisi *Shamsiddinbekning* xotini *Bo‘yon Og‘o* va qizi *Dilshod Og‘oni* asir olib tushirib otasi O‘rdugohi (Arpa mavzeyi)ga keltirgan. *Amir Temur* Dilshod og‘a begimga mayl bildirib unga uylangan. Dilshod og‘o begim *Amir Temurning* harbiy safarlarida unga doimo hamroh bo‘lgan. *Amir Temur* Xurosondagi Xabushon shahri (hozirgi Kuchon)ni egallagan paytda (1383) *Sharafiddin Ali Yazdiyning* yozishicha, “... *Mahdiy ul yo Dilshod Og‘oga marazi paydo bo‘lib, Samarqand sori yibardilar... To‘ngquz yilida, yettiyuz sekson beshta (1383-yilning yozi) hazrat sohibqironning haram muhtarami Dilshod og‘o vafot bo‘ldi*”. Dilshod og‘o begimdan farzand bor yo‘qligi haqida aniq ma‘lumot yo‘q.

DOVUBBEK DUG‘LAT, AMIR DUVUD (XIV asr) — *Amir Temurning* xos mulozimi, safdoshi va lashkarboshisi va inglisi *Qutlug‘ Turkon og‘oning* eri. Sohibqironning ilk faoliyati davrida u bilan yelkama-yelka turgan, ko‘p janlarida katta jasorat ko‘rsatgan. 1370-yil *Amir Temur Amir Husayn* ustidan uzil-kesil g‘alaba qozonganidan keyin Dovudbek Dug‘latga Samarqand voleyligini va devonbegi lavozimini bergan. 1374-yilning martida Xorazmga, *Jahongir Mirzoga* qayliqlikka *Sevinbeka* (Xonzoda)ni keltirishga yuborilgan.

ERNAN Sanches Palasuelos — Ispaniya elchisi, Kastiliya qiroli *Genrix III* tomonidan *Payo de Sotomayor*

va *Ernan Sanches Palasuelos* boshchiligidagi elchilar 1402-yilning bahorida *Amir Temurning* Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga *Temur* va *Boyazidning* kuch-qudrati, boyligi va qo‘shining adadini bilish hamda ular qo‘l ostida yashiyotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida aniq ma‘lumotlar to‘plash topshiriladi. Elchilar *Amir Temur* tomonidan qabul qilinib, ularga qo‘shib *Muhammadqozini* Ispaniyaga elchi qilib yuboriladi.

GREKOV Boris Dmitriyevich (1882-1953) — rossiyalik tarixchi. U *Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi, faqat O‘rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyati kasb etadi*”, — deb ta‘kidlagan.

FRANSIS — Dominikan monaxi. U monax *Aleksandr* bilan 1401-yilning avgustida Konstantinopol noibi *Ioann VII Paeolog* tomonidan Qorabog‘ga *Temur* qarorgohiga *Boyazidga* qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan elchi qilib yuborilgan.

IBN Xaldun Abdurahmon Abu Zayid ibn Muhammad (1332, Tunis — 1406, Qohira) — arab tarixchisi va faylasufi. Ibn Rushdning izdoshi. 1349-75-yillarda Tunis, Fis, G‘arnota, Bujjoya (Jazoirda) hukmdorlari saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan. 1382-yilda Misrga kelib, mudarrislik qilgan, umrining oxirida molikiylar mazhabi qozisi bo‘lgan. Ibn Xaldun Damashq shahrining *Amir Temurga* topshirilishi shartlari haqida muzokara olib borgan elchilikning tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun *Amir Temur* bilan shaxshan suhbatlashishga musharraf bo‘lgan. Ibn Xaldunning dalolat berishicha, *Amir Temur* undan Mag‘rib mamlakatlari, uning manzillari va shaharlarini batafsil bayon qilib berishni so‘ragan. Ibn Xaldun *Amir Temur* tashqi siyosiy faoliyatiga salbiy nazar bilan qarashidan qat‘iy nazar, sohibqiron shaxsiga munosib baho bergan. U *Amir Temurning* harbiy tarix sohasidagi teran bilimidan hayratga tushgan, uni “munozara — bahslarni yaxshi ko‘radigan o‘tkir zakovatli va teran zehni inson”, deb ta‘riflagan. Asosiy asari: “*Kitob ul-ibar*” (“*Ibratli misollar kitoblar*”). Asarda Ibn Xaldun jamiyat taraqqiyoti xususida o‘z fikrlarini hamda Sharq musulmon xalqlarini (xususan, Mag‘rib) tarixini bayon qilgan.

IBROHIM I DARMANDIY (?-1417) — Darbandiya sulolasi asoschisi, Shirvon shohi (1382-1417). Ibrohim I rivoyatlarga ko‘ra, Anushervon naslidan bo‘lib, davlatni adolat va tadbirkorlik bilan idora qilgan. *Amir Temur* bilan *To‘xtamishning* manfaatlarini Ozarbayjonda to‘qnash kelgan (1385-1386) u Shirvonni mustahkamlash va unga Ozarbayjonning bo‘lak yerlarining birlashtirish siyosatini ustalik bilan amalga oshirgan. Chunonchi, Ibrohim I *Amir Temurdek* jahongirga qarshilik ko‘rsatmoq aqldan emasligini idrok etib, darhol uning nomiga xutba o‘qitgan, tanga zarb qildirgan. So‘ng, katta hadiyalar bilan unga peshvoz chiqib, unga itoatkorlik bildirgan va bu bilan o‘z jonini, taxti hamda mamlakatini omon saqlab qolgan. *Amir Temur* vafot etgach (1405) Ibrohim I Temuriylar o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurashdan foydalanib, Ozarbayjon mulkdorlari yordamida Shirvon mustaqilligini tiklagan, Gurjiston bilan ittifoqlikda Tabrizni egallagan (1406). Lekin u ittifoqchilari — Xaxetiya podoshohi va Sheki hokimi bilan birgalikda qoraquyunlilarga qarshi jang qilib yengilgach

(1410) Shirvon yana o'z mustaqilligini yoqotgan.

IDIKU IBN QUTLUG' QABO (135-1419) — No'g'ay O'rda xoni (1396), Oltin O'rdada amiri lashkar (1397 yildan), uning amaldagi hukmdori (1399-1412 yillar). Mang'it biylaridan bo'lmish Idiku Oltin O'rda xoni O'rusxon taqibidan qochib *Amir Temur* huzuriga kelgan va uning qo'shinida amirlik qila boshlagan. 1391 yilda *Amir Temurning To'xtamishga* yurishida ishtirok etgan. So'ng, 1396-yilda Itil (Volga) va Yoyiq (Ural) oralig'idagi hududda Oltin O'rdadan mustaqil No'g'ay O'rda davlatini tashkil qilgan. 1397-yilda Oltin O'rdani zabt etib, *O'rusxonning* nabirasi *Temur Qutlug'*ni rasman taxtga o'tqazgan bo'lsada, amalda davlatni o'zi idora qilgan, hokimiyatni qo'ldan chiqarmaslik maqsadida 20 ta o'g'lini Oltin O'rdaning turli viloyatlariga noib etib tayinlagan. *Temur Qutlug'* vafot etgach (1399), Idiku taxtga uning o'g'li *Shodibekni* o'tqazgan. Ammo, *Shodibek To'xtamish* bilan til biriktirib Idikuga qarshi jang qilgan, yengilgach Darbandga qochgan. Shundan keyin Idiku Oltin O'rda taxtiga *Shodibekning* o'g'li *Po'lod Sultonni* o'tqazib Litva knyazi *Vitovat* (1350-1430) va uning panohiga qochib borgan *To'xtamishga* qarshi yurish qilgan hamda ularning birlashgan qo'shinini Vorskla daryosi bo'yidagi jangda tormor keltirgan (1399). 1408-yilda Idiku Oltin O'rdaga xiroj to'lamay qo'ygan Rusga bostirib kirib, uni ko'plab shaharlarini vayron qilgan, Moskvani esa qurshab olib, katta tovon evazigagina vayron etmay orqaga qaytgan. Idiku 1410-1412 yillarda Oltin O'rda shahzodalari o'rtasida bo'lgan taxt uchun kurash oqibatida hokimiyatdan ajrab Xorazmga qochgan, lekin *Shohruh* tomonidan u yerdan quvib chiqarilgan (1414). So'ng, u *To'xtamishning* og'illari *Karimberdi* va *Qodirberdi* bilan bo'lgan jang (1419) yilda o'ldirilgan.

Ilyosxo'ja (XIV asr) — mo'g'uliston xoni (1363-1365). *Tug'luq Temurning* o'g'li. Ilyosxo'jaga Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Tyanshan etaklari, Irtish va Emil daryolari atrofidagi yerlar qaragan. 1361-yil kuzida otasi Movarounnahrda zafarli yurish qilib, Ilyosxo'jaga Movarounnahr hukumatini boshqarib turishni topshirgan. Mo'g'ullarning Movarounnahrda hukmronligini saqlab qolish maqsadida bir necha marta *Amir Temur* va *Husaynga* qarshi jang qilgan. 1364-yil hozirgi Shahrizabz tumanining Namaton qishlog'ida yaqinida Ilyosxo'ja xon *Temurbek* hamda amir *Husayn* boshliq qo'shin bilan bo'lgan jangda asirga tushgan. Biroq, asir olgan sipohiylar uni bir necha beklari bilan qo'yib yuborgan. Ko'p sonli lashkar bilan takroran Movarounnahrda harbiy yurish qilgan Ilyosxo'jaxon 1364-yil yozida Toshkent va Chinoz oralig'ida *Amir Temur* va amir *Husayn* bilan qayta jangga kiradi va tarixida Jangi loy ("Loy jangi") deb nom olgan ushbu to'qnashuvda g'alaba qozongan va Samarqandga yurish qilgan, biroq sarbadorlar va shahar aholisining qarshiligiga uchrab Movarounnahrni tashlab qochgan. 1365-yil Ilyosxo'ja Qaboqin mavzeida Sohibqiron va Amir husayn bilan bo'lgan navbatdagi jangda mag'lub bo'lgan va Jeta tomonga qochgan. U yerda Ilyosxo'ja dug'lat aymog'ining sardori, taxt da'vogari *Qamariddin* tomonidan o'ldirilgan. Ilyosxo'jaxonni Chig'atoy ulusining poytaxti bo'lgan Olmaliq (Yettisuvdagi ko'hna shahar)da otasi *Tug'luq*

Temurxon qabri yoniga dafn qilishgan.

IOANN GALONIFONTIBUS — Vatikan vakili, arxiepiskop, Amir Temur Turkiya bilan bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchiligida elchilar yuboradi. Temurning Anqara jangidan keyin Fransiya va Angliya bilan olib borgan yozishmalari, o'zaro savdo shartnomasini tuzishga qaratilgan diplomatik yozishma bo'lib, bu masalada Ioann Galonifontibus muhim rol o'ynagan. Amir Temur 1402-yil yozida yuborgan Ioann Galonifontibus boshchiligidagi elchilik Parijga 1403-yil mayda yetib boradilar. Bu yerda Ioann tantanali vaziyatda Temurning Turkiya ustidan qozongan g'alabasi, Sulton Boyazidning asirga olingani, turklar asir olgan xristianlarning ozod qilingani to'g'risida xabar berib, ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo'lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashga taklif etadi.

IOANN VII PALEOLOG (1360-taxminan 1410) — Konstantinopol noibi. 1401-yilning avgustida Ioann VII Paleolog Boyazidga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan Qorabog'ga *Temur* qarorgohiga Dominikan monaxlari *Fryansis* bilan *Aleksandrni* elchi qilib yuboradi. *Amir Temurning* 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo'llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Tranezud imperatori Manuil III *Boyazidga* qarshi kurashda *Amir Temurga* xizmat qilish, hatto unga "odamlar va har qaysisi 20 ta dan 40 ta harbiy kemalar bilan" yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Temurga to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi *Klavixo* ham o'z kundalik daftarida qayd qilib o'tadi.

IOANN SULTONIYSKIY — arxiepiskop, u *Amir Temurga Boyazidga* qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan murojaat qilgan.

ISKANDAR MIRZO (1384-1415) — Iroq va Fors hokimi (1412-1414). Temuriylardan. *Amur Temurning* nabirasi, *Umarshayx Mirzoning* o'g'li. Onasi — *Milkat Og'o begim*. 1399-yil bobosi safarga ketayotib, uni Farg'ona hokimi etib tayinlagan. Samarqand taxtida o'tirgan muvaqqat hukmdor *Muhammad Sulton* Iskandar Mirzoni bebosh, o'zboshimcha siyosatidan norozi bo'lib uni Samarqandga chaqirtirgan hamda Iskandar Mirzoning otabegi va 26 navkarini qatl ettirib o'zini esa qamoqqa olgan. 1401-yil Iskandar Mirzo qamoqdan chiqarilib, unga kaltak jazosi berilgan. Anqara jangida zahiradagi qismlarga boshchilik qilgan. *Amir Temur* qo'shinining markazi va qanotlari ortida jang holatini muttasil kuzatgan holda dushmanga to'satdan beriladigan hal qiluvchi zarbaga tayyor turgan. Sohibqiron 1403-yilda Iskandar Mirzoni Hamadon viloyatining hokimi etib tayinlagan. *Amir Temur* vafotidan so'ng Iskandar Mirzo akalari *Pirmuhammad Mirzo* va *Rustam Mirzolar* bilan Fors, Huziston, Kermon, Qum viloyatlarida o'zaro nizolashib kurash olib borgan. *Pirmuhammad Mirzo* 1410-yil xiyonatkorona o'ldirilgach, Iskandar Mirzo akasining vorisi sifatida Sheroz shahrini

egallaydi. Iskandar Mirzo Kermon (1411), Qum (1412)ni egallab, Iroq va Fors hukmdoriga aylanadi. U Isfaxonni o'ziga poytaxt qiladi, o'z nomidan pul zarb ettirib, xutbani Shohrux nomiga emas, o'z nomiga o'qitadi, Xuroson hududida bosqinlar uyushtiradi. *Shohrux* qo'shini bilan bo'lgan jangda Iskandar Mirzo yengiladi, Isfaxon shahri egallanadi (1414-yil 20-iyul). *Shohrux* Iskandar Mirzoni va unga tobe yerlarni *Rustam Mirzoga* topshiradi. *Rustam Mirzo* Iskandar Mirzoning ko'zlariga mil tortib ko'r qiladi va maxsus nazoratda saqlaydi. Biroq, *Shohrux* bundan xabar topib, Iskandar Mirzoni ukasi *Bayqaro Mirzo* huzuriga jo'natadi. Iskandar Mirzo ukasini saltanatga qarshi kurashga gij-gijlaydi. *Bayqaro Mirzo* akasi so'ziga kirib Sherozga qo'shin tortadi. *Rustam Mirzo* Iskandar Mirzoni qo'lga olib, yana hibsdan saqlay boshlaydi; 1415-yil 9-iyunda *Bayqaro Mirzoni* Sherozga kirganidan xabar topgach, Iskandar Mirzoni qatl ettiradi.

ISO — *Boyazid Yildirimning* o'g'li. U Anqara jangida *Boyazid* qo'shinining orqasiga — aryergardida *Musa* va *Mustafo* bilan joylashgan edi. *Boyazid* yengilgach, *Amir Temur* Iso Chalabiyni Onato'la yarim orolining shimoliy-g'arbiy qismi suyurg'ol sifatida in'om etilib, Brussa shahri uning poytaxti bo'lib qoldi.

JAHON SHOHBEK — *Amir Temurning* bolaligidagi do'sti va maktabdoshi. U yoshligida *Amir Temur*, *Abbos Bahodir*, *Kimori Inoq*, *Sulaymon Shohbek*, *Sayfuddinbek* va boshqalar bilan to'planib, birgalikda mashq qilib, musobaqalarda ishtirok etib, asta-sekin navkar bo'lib, harbiy guruhga birlashib shakllana borgan. Keyinchalik, *Amir Temur* qo'shinida lashkarboshilik darajasiga ko'tarilgan.

JAHONGIR — *Amir Temurning* yaqin safdoshlaridan biri. *Amir Temur* qo'shinini boshqargan barlos, sarhang.

JAHONSHOH BAHODUR (XIV asr oxiri — XV asr boshi) — *Amir Temurning* lashkarboshilaridan; *Jakubek* barlosning o'g'li, 1384-yilning boshida otasi vafot etganidan so'ng Kobuliston viloyati unga xos mulk qilib beriladi. 1392-yilning bahorida butun Afg'oniston va G'arbiy Hindiston yerlari *Pirmuhammad Jahongirga* mulk qilib berilganidan so'ng Jahonshoh bahodur Qunduz va Bag'lonning hokimi etib tayinlanadi va mazkur amirzodaning xos amirlari qatoriga kiritiladi. Shu bilan birga u Sohobqironning deyarli barcha katta harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Jumladan, u 1391, 1395-yillardagi *To'xtamishxon* bilan bo'lgan janglarda katta mahorat va idrokni namoyish qilgan. 1404-yil bahorida G'arbiga qilingan "yetti yillik urush" dan qaytayotib, *Amir Temur* mirzo *Umar ibn Mironshohga* *Xulakuxonga* taalluqli ulusni ("Rum va Istanbulgacha, Shomu Misrgacha, Iroq va Forsgacha") meros qilib beradi va Jahongir bahodurni uning maslahatchisi etib, "*Jahonshohbek so'zidan chiqmag'aysen va har nekim ul maslahat ko'rsa, anning birla amal qilg'aysen*" deb ta'kidlaydi.

JAKUBEK BARLOS, amir Jaku, to'liq ismi Jakubik ibn muborak ibn To'g'on ibn Qoldon ibn Shar'a ibn Qarochor No'yon (?-1384) — barlos urug'ining yirik beklaridan. *Amir Temurning* qarindoshi, safdoshi va qaynotasi, xos kishisi. 1370-yil 10-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon

ayonlari hamda Termizning xonzodalari, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida bo'lib o'tgan qurultoy ishtirokchilaridan. U 1371-yilda *Zinda Chashmning Amir Temurga* qarshi uyushtirgan fitnasini bostirgan. Shu voqeadan bir oz keyin *Amir Temur* uni Kobul shahari va viloyatining hokimi etib tayinlaydi. 1384-yilning boshida u Kobulda vafot etganidan so'ng, sohobqiron unga taalluqli Kobuliston mulkini o'g'li *Jahonshoh Bahodirga* va keyingi avlodlariga mulk qilib beradi.

JALOL XOKIY — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan biri.

KIMORI INOQ — *Amir Temurning* bolaligidagi do'sti va maktabdoshi. U yoshligida *Amir Temur*, *Abbos Bahodir*, *Jahon Shohbek*, *Sulaymon Shohbek*, *Sayfuddinbek* va boshqalar bilan to'planib, birgalikda mashq qilib, musobaqalarda ishtirok etib, asta-sekin navkar bo'lib, harbiy guruhga birlashib shakllana borgan. Keyinchalik, *Amir Temurning* safdoshiga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasiga ko'tarilgan.

KLAVIXO, Rui Gonsales de Klavixo (? — 1412) — Kastiliya qiroli *Genrix III* (Enriko III)ning *Amir Temur* huzuriga yuborgan ikkinchi elchiligi (tarkibida olim *A. Paes* va saroy shoiri *Gomes de Salasar* ham bo'lgan) rahbari. Klavixo qadimiy va badavlat xonadonda tug'ilgan. Elchilar 1403-yil 21 mayda *Kadis* shahridan yo'lga chiqib, dengiz orqali Konstantinopolga o'tib, u yerdan Trapezunga, bu yerdan quruqlik orqali Eronni kesib o'tib Balxga yetib kelishadi. Bu shahar yaqinida Amudaryodan kechib o'tib, avval Termiz va Kesh shaharlarida bo'lishadi, so'ngra 15 oydan so'ng Samarqandga yetib kelgan. Klavixo tomonidan yozilgan elchilik kundaligi (1403-1406) bosib o'tilgan manzillar (*Kadis*, *Balear* orollari, *Gaeta*, *Messina*, *Rodos*, *Xios*, *Konstantinopol*, *Trapezum*, *Arzirum*, *Tabriz*, *Tehron*, *Nishopur*, *Mashhad*, *Balx*, *Buxoro*, *Samarqand*)ning batafsil bayoni va etnografik ma'lumotlardan tashqari, *Amir Temur* saltanatining mukammal siyosiy-iqtisodiy tafsilotidan iborat. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib keladi. Oradan biro y o'tgach, Klavixo Samarqand safarida bo'lgan Ispaniya elchiligi haqidagi axborotni yozib Kastiliya qiroli *Genrix III* ga topshiradi. Keyinchalik uning bu axborotnomasi "*Buyuk Temur tarixi*" va "*Temur qarorgohi Samarqandga saforot kundaligi*" nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

LAZAREVICH — Serb knyazi, *Boyazid Yildirimning* qaynisi. U Anqara jangida *Boyazid* qo'shinining o'ng qanotiga qo'mondonlik qilgan. O'ng qanot qo'shinini 20 ming nafarli serb polklaridan tashkil topgan edi.

MANUEL III TRAPEZUNSKIY — Yunoniston imperatori, u *Amir Temurga Boyazidga* qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan murojat qilgan.

MAVLONO ABDUJABBOR XORAZMIY — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

MAVLONO ABDULLO LISON — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

MAVLONO ALOUDDIN KOSHIY — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

MAVLONO BAHRIDDIN AHMAD — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

MAVLONO SHAMSUDDIN MUNSHI — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

MIRONSHOH, JALOLIDDIN AMIRANSHOH (1366-1408) — Xuroson (1380), Eron, Iroq (1393) va Eron Ozarbayjon (1402) hukmdori. *Amir Temurning* 3-o'g'li. Onasi *Minglibiy og' o*. Mironshoh Mirzo yoshligidanoq harbiy san'atdan ma'lum darajada xabardor, jasur va yovga nisbatan shavqatsiz jangchi sifatida nom taratgan. Shuningdek o'ta makkor, mayxo'rlik va maishatga berilgan kishi edi. Mironshoh *Temurning* Xuroson yurishida qatnashgan (1380). *Temur* Mironshohni Xurosonga hokim, 1393-yil Eron va Iroq hukmdori qilib tayinlaydi. *Temur* 1397-yil Mironshoh bilan birga Eron Ozarbayjoniga yurish qilib 1402-yil uni egallaydi va Mironshohga topshiradi. Mironshoh o'z poytaxtini Tabrizdan Ozarbayjonning Sultoniya shahriga ko'chiradi. 1382-yilda marhum akasi *Jahongir Mirzoning* katta bevasi *Xonzoda (Sevin beka)* begimga uylanadi. Xonzoda begim *O'zbekxonning* nabirasi bo'lgani tufayli "*Ko'ragon*" degan nomni olishga musharraf bo'ladi. XV asrning oxiridagi diplomatik yozishmalardan hozirgacha saqlanib qolgan va lotin tilida bo'lgan ikki hujjat (xususan, Angliya qiroli *Genrix IV* bilan yozishmalar) Mironshoh nomi bilan bog'liq. Keyingi paytlarda Mironshoh maishatga berilib, davlat ishlariga qaramay qo'yadi. Uzluksiz bazm va ko'ngil ochar o'yinlar xazinaga sezilarli darajada zarba beradi. Mamlakatda tartib buziladi. Bundan xabar topgan *Amir Temur* 1399-yil Sultoniyaga kelib Mironshohni hokimiyatdan chetlatadi. 1408-yil 21 aprelda Mironshoh Ozarbayjon hukmdori *Qora Yusuf* bilan bo'lgan jangda o'ldiriladi va Surxob tumaniga dafn qilinadi. Bir necha muddat o'tgach, uning hoki Shahrisabzga — Temuriylar daxmasiga, keyinchalik esa Samarqandga olib kelinib Go'ri Amirga dafn etiladi. Mironshohdan *Abubakr Mirzo, Umar Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Suyurg'atmish Mirzo, Iyjal Mirzo, Sulton Muhammad Mirzo* va bir necha qiz qolgan.

MUHAMMADQOZI — *Amir Temur* tomonidan Ispaniyaga yuborilgan elchi. Kastiliya qiroli *Genrix III* tomonidan *Payo de Sotomayor* va *Ernan Sanches Palasuelos* boshchiligidagi elchilar 1402-yilning bahorida *Amir Temurning* Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilar *Amir Temur* tomonidan qabul qilinib, ularga qo'shib *Muhammadqozini* Ispaniyaga elchi qilib yuboriladi.

MUHAMMAD JAHONGIR MIRZO, Jahongir Mirzo (1356-yil yozi — 1376 yil o'rtalari) — *Amir Temurning* to'ng'ich o'g'li. 1355-yil Sohibqiron amir *Qazag'onning* nabirasi, *Husayn ibn Musallabning* singlisi *O'ljoy Turkon og'oga* uylanadi. 1356-yil yozida ularning nikohidan *Muhammad Jahongir Mirzo* tug'iladi. *O'ljoy Turkon og' o* 1366-yil oxirida vafot etadi. Sohibqironning bu xotinidan *Muhammad Jahongir Mirzodan* tashqari qizi *Sultonbaxt begim* ham bor edi. Movarounnahrni birlashtirish uchun bo'lgan kurashlarda Jahongir otasiga faol yordam bergan. 1374-yil iyunida Xorazm hokimi *Yusuf So'fiyning* ukasi *Oq So'fiyning* qizi *Sevin bekaga* uylangan. *Oq So'fiy* Oltin O'rda xoni *O'zbekxonning* qizi *Shakarbekaga* uylangan edi. Shuning uchun bularning qizi *Sevin beka* ko'proq *Xonzoda* nomi bilan ma'lum edi. Amir Temur mo'g'ulistonga yurishi chog'ida suyuqli o'g'li *Jahongir*

og'ir betob bo'lganidan xabar topib darhol orqaga qaytgan. *Muhammad Jahongir Mirzo* 1376 yil o'rtalarida 20 yoshida vafot etadi. Uni Shahrisabz (Dor-us-siyodat)ga dafn etadilar. Undan ikki farzand: *Xonzodadan* tug'ilgan 11 oylik *Muhammad Sulton* va otasining o'limidan qirq kun keyin *Ilyos Yasovuriyning* qizi *Baxt Mulk og'odan* tug'ilgan *Pirmuhammad* qolgan.

MUSA — *Boyazid Yildirinning* o'g'li. U Anqara jangida Boyazid qo'shinining orqasi -aryergardida *Iso* va *Mustafo* bilan joylashgan edi.

MUSTAFO — *Boyazid Yildirinning* o'g'li. U Boyazid qo'shinining orqasi — aryergardida *Musa* va *Iso* bilan joylashgan edi.

MAVLONZODA SAMARQANDIY (XIV asr) — 1365-1366-yillarda Samarqandda ko'tarilgan sarbadorlar qo'zg'oloni rahbari. Mo'g'uliston xoni *Ilyosxo'ja* Movarounnahrda hujumi paytida Samarqand mudofaasiga boshchilik qilgan. Mo'gullar Samarqandni egallash uchun otlanganlarida shahar hokimi qochib ketgan. Shunda Mavlonzoda jome masjidida oldida to'plangan 10 ming kishilik shahar aholisi o'rtasida qizg'in nutq so'zlab xalqni kurashga chorlagan va Samarqandni mudofaa etishga rahbarlik qilishni o'z zimmasiga olgan. *Hofizi Abruning* "*Zubdat ut-tavorix*" asarida yozilishicha, Mavlonzoda Buxoro ulug'zodalaridan, donishmand kishi bo'lib, u kamondan yaxshi o'q otar, o'ta jur'atli va dovyurakligi bilan mashhur edi. *Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof* bilan birgalikda shahar mudofaasiga tayyorlangan, xususan, shahardagi barcha darvozalarni berkitgan. Ko'chalar, bog'lar atrofiga g'ovlar qurdirgan. Faqat bir ko'chani ochiq qoldirib, shu yerda Mavlonzodaning o'zi 500 kishisi bilan pistirmada o'tirgan. Dushmanning qorovul qismlari hech qanday xavotirsiz shaharga kirib kelganda, Mavlonzodaning ishorasi bilan do'mbiralalar chalingan. Dushmanga har tomondan o'q-yoqlar, toshlar yog'dirilgan, ularni tayoqlar bilan savalaganlar. Natijada mo'g'ullarning 1000 askari majruh bo'lgan, 100 tasi esa qo'lga olingan. Ertasi kuni ham mo'g'ullar butun kuchlarini ishga solib hamla qilsalar, turli harbiy hiylalar qo'llasalar ham shaharni ololmaganlar. Keyinchalik ularning otlariga o'lat tegib, qirila boshlagach, mo'g'ullar Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ldi. Shahardagi hokimiyatni qo'lga kiritgan sarbadorlar aholiga zulm qila boshladi. *Hofizi Abruning* yozishicha, bundan xabar topgan *Amir Husayn Balx, Badaxshon, Qunduz, Bag'lon, Andxud* va *Shibirg'on* lashkarini to'plab, Samarqand tomon yuzlangan. U sarbadorlarga maktub yo'llab, unda ularga ishonishini, hatto o'z amirlaridan ham yaqin tutishini yozgan va Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesiga yetgunicha uning huzuriga kelmaslikni iltimos qilgan. Sarbadorlar uning takallufini chin bilib, fursatni qo'ldan boy berganlar. *Amir Husayn* Konigilga yetib kelgach, unga izzat-ikrom bildirish, tortiqlar taqdim etish uchun istiqboliga chiqqanlar va xizmatiga shay bo'lib turganlar. *Amir Husayn* birinchi kuni sarbadorlarga iltifotlar ko'rsatgan. Bundan sarbadorlar yanada ruhanib, ko'ngillaridan xavf-xatar g'ubori ko'tarilib, ertasi kuni ko'proq sovg'alar va kamyob mollar bilan uning huzuriga yo'l olganlar. Karbosga yetganlarida *Amir Husaynning* buyrug'iga ko'ra, ularning hammasi qo'lga olinib qatl

etilgan. Faqat Mavlonzodani *Amir Temur* iltimos qilib, dor tagidan qutqarib qolgan. Tarixchi *Abdurazzoq Samarqandiyning* yozishicha, *Amir Temur* Mavlonzoda uchun shafolat tilab uni xalos etgan. Bunga *Amir Temurning* ilgari ham sarbadorlarning ayrim rahbarlari bilan aloqada bo'lganligi taxmin qilinadi.

O'GIBEGI XONIM (asl ismi Tag'ayshoh) (? — 1382) — *Amir Temurning* katta qizi. Onasi *Turmush Og'o*. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* yozishicha, O'gi Begi xonim husn bobida tengi yo'q, aql-idrokda benazir bo'lgan. *Amir Temur* bu qizini yaxshi ko'rgan va o'ziga yaqin tutgan. O'gi Begi xonimni amir *Musoning* o'g'li *Muhammadbekka* nikoh qilganlar. O'gi Begi xonim *Muhammadbekdan* bir o'g'il tuqqan, ismi *Sulton Husayn Mirzo*. 1382-yilda O'gi Begi xonim bedavo kasallikdan vafot etgan.

OLLOHDOT — 1395-yil 28-fevralida bo'lib o'tgan *Amir Temur* hamda *To'xtamishxon* jangida qahramonlik ko'rsatgan.

PAYO DE SOTOMAYOR — Ispaniya elchisi, Kastiliya qiroli *Genrix III* tomonidan *Payo de Sotomayor* va *Ernan Sanches Palasuelos* boshchiligidagi elchilar 1402-yilning bahorida *Amir Temurning* Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga *Temur* va *Boyazidning* kuch-qudrati, boyligi va qo'shinining adadini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi. Elchilar *Amir Temur* tomonidan qabul qilinib, ularga qo'shib *Muhammadqozini* Ispaniyaga elchi qilib yuboriladi.

PIRHUSAYN — *Amir Temurning* yaqin safdoshlaridan biri. *Amir Temur* qo'shinini boshqargan barlos. U boshqargan janglarda shuhrat topgan.

QAMARUDDIN — mo'g'ul hukmdori. Uning Movarounnharga bo'lgan talonchilik xurujlarining kuchayishi *Amir Temur* bilan to'qnashuviga olib keladi. 1370-1371-yillarda *Qamaruddin* Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqinchilik qilib, shaharni talab qaytadi, 1376 yilda u hatto *Farg'ona vodiysining* anchagina qismini bosib oladi. Mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan muttasil bo'lib turgan tahdidni bartaraf qilish uchun *Amir Temur* *Qamaruddinga* zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371-1390) mobaynida *Sohibqiron Mog'ulistoniga* yetti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari *Anqoto'ra* va *Qamaruddin* ustidan g'alaba qozonadi.

QUTLUG' TURKON OG'O (1331-1383-yillar) — *Amir Temurning* opasi. *Amir Dovudbek* dug'latning xotini. *Sohibqiron* 1360-yillarning boshlarida g'anamlari ta'qibi tufayli *Samarqandga* kelib *Qutlug' Turkon og'o* uyida 48 kun turgan. 1375-yili *Sohibqiron O'zganda Dilshod og'oga* uylangan chog'da *Qutlug' Turkon og'o* no'yonlar va amirlar bilan to'yga yetib kelgan. *Nizomiddin Shomiyning* yozishicha, 1383-yili *Dilshod og'o* vafotidan bir necha kun o'tgach, "o'zining xayrli ishlari, in'omu ehsoni bilan zamonasi xotinlaridan o'zgan, o'z xolis mollaridan madrasalar, xonaqohlar qurdirgan, har nav ezguliklari bilan jahon xalqiga foyda yetkazgan ulug' xotun — *Amir Sohobqironning opasi*" *Qutlug' Turkon og'o* vafot etgan. *Sohibqiron* bundan qattiq iztirobga tushgan. Bir necha muddat mamlakat va davlat ishlari bilan shug'ullanmay

qo'ygan. *Qutlug' Turkon og'o* nihoyatda dono va zakovatli ayol bo'lgan. *Amir Temur* barpo etgan ko'p binolar uning maslahati bilan ishlangan. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* yozishicha, "uning qabrini... *Qusam ibn Abbosning mazoriga yaqin qazdilar va qo'ydilar*".

SAYFUDDINBEK, HOJI SAYFUDDIN (? — 1401-yil, Nishopur) — *Amir Temurning* yaqin safdoshi va atoqli sarkardalaridan biri. Nukuz urug'i vakili. *Sohibqironning* taxt tepasiga kelishida, mo'g'ullarni *Movarounnahr* sarhadlaridan quvib chiqarishda *Sayfuddin Joku*, *Abbos* bahodir, *Sulaymonshoh*, *Dovud* kabi beklar qatori jonbozlik ko'rsatgan. 1365-yil yuz bergan Jangi loyda *Sayfuddin Amir Temur* qo'mondonlik qilgan juvang'ar — so'l qanotning qo'l-markazidan o'rin olgan. 1365-yil *Sohibqironning* 243 nafar safdoshi, 12 ming kishilik lashkari bilan *Naxshabda* turgan amir *Husaynga* qarshi yurish qiladi. Ushbu yurishda boshqa xos beklar qatori *Sayfuddin* ham jasorat ko'rsatgan. *Sayfuddinbekga* amiri lashkar unvoni beriladi. *Sayfuddin*ning 1395-yil 28-fevralida bo'lib o'tgan *Amir Temur* hamda *To'xtamishxon* jangida qahramonlik ko'rsatgan qo'mondon. *Sayfuddin*ning sarkardalik iste'dodli, matonati, tadbirkorligi 1395-yil *Terek daryosi* bo'yidagi jangda yaqqol namoyon bo'lgan. *Boyazid Yildirimga* qarshi yurish davrida, *Amir Temur* qo'shiniga qo'shilish maqsadida *Samarqanddan Muhammad Sulton mirzo* bilan safarga chiqqan *Sayfuddin Nishopurga* yetgach, betob bo'lib vafot etadi.

SAYYID BARAKA, MIRSAYYID BARAKA (?-1404-yillar) — *Amir Temurning* piri. *Sharafiddin Ali Yazdiyning* yozishicha, asli *Makka* shahridan bo'lib, *Amir Temur* bilan dastlab *Termiz* shahrida uchrashgan. *Makka* va *Madinaning* vaqf (*Makka* va *Madina* shaharlari islom olamida muqaddas shaharlar deb atalgani sababli islom davlatlari hukmdorlari har yili bu shaharlarga vaqf mablag'i yuborib turishni sharafli burch deb bilganlar)larini undirish uchun *Balxga Amir Husayn* huzuriga kelgan. *Amir Husayn* u talab qilgan mablag'ni berish u yoqda tursin, hatto *Sayyid Barakaga* iltifot ham ko'rsatmaydi. U bunday sovuq munosabatdan xafa bo'lib, *Termizga* qarab ketadi va *Termiz* yaqinida *Amir Temur* bilan uchrashadi. *Amir Temur* u talab qilgan mablag'ni ortig'i bilan beradi. *Sayyid Baraka Amir Temurga* nog'ora bilan bayroq tortiq qiladi. *Amir Temur* 1370-yil saltanatni qo'lga olgach, *Andxo'y* (*Afg'oniston*) viloyatini barcha qishloqlari bilan *Sayyid Barakaga* "iqto" tarzida in'om qiladi. *Sayyid Baraka Sohobqironning* *Mozandaron*, *Dashti Qipchoq* harbiy yurishlarida unga hamroh bo'lgan, qo'shinning ruhini ko'targan. *Sayyid Baraka* harbiy safarlarga qatnashmagan paytda *Samarqand* va *Andxo'yda* yashagan. 1404-yil qishda *Sayyid Baraka og'ir kasallikdan* so'ng vafot etadi. Bu xabarni eshitgan *Amir Temur Sayyid Barakaning* jasadini *Andxo'yda* dafn etishni buyuradi. 1409-yil *Shohruh Mirzo* *Movarounnahr* taxtini *Xalil Sultondan* tortib olgach, *Sayyid Barakaning* xokini *Andxo'ydan Samarqandga* keltirib, *Amir Temur* maqbarasiga dafn ettiradi.

SULAYMON CHALABIY — *Boyazidning* katta o'g'li. U *Anqara* jangida *Rum* askarlaridan iborat qo'shinning so'l qanotiga rahbarlik qilgan. Bu qanot turk suvoriylari bilan kuchaytirilgan edi. *Boyazid* yengilgach, *Amir Temur*

Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim qilib, unga hukmdorlik toji va yorliqlar in'om etgan va mansabdorlik sarposini kiygizdi.

SULAYMONSHOH BAHODIR — *Amir Temurning* sarkardalaridan biri, amir. *Dovudbekning* o'g'li. *Amir Husayn* bilan kurashida Sohibqironga yaqindan yordam bergan. Navqat (Kesh va Nasaf orasidagi qadimgi shahar) yaqinidagi Jeta lashkari (5000 kishi) bilan bo'lgan zafarli jangda (1366) Sulaymonshoh Sohibqiron qo'shinida (600 kishi) bo'lgan. *Amir Temurning* Eronga qilgan 3 yillik urushida (1386-1388) *Abbos bahodir* bilan Movarounnahrni himoya qilish uchun qoldirilgan. *To'xtamish Amir Temurning* safardaligidan foydalanib, Movarounnahrni chopqun qilib Samarqand viloyatini talon-taroj qilgan chog'da (1388) Sulaymonshoh bahodir va *Abbos bahodir* Samarqand shahrini mudofaasiga bosh bo'lganlar. *To'xtamish* va *Qamaruddinga* qarshi yurishlarda ishtirok etgan. *Yodgor barlos*, Shamsuddin *Abbos* va *G'iyosuddin Tarxonlar* bilan Turkistonda turgan qo'shinni boshqargan va Sohibqironning amriga ko'ra, mo'g'ulistoniga chopqun qilib ko'p o'ljalarni qo'lga kiritgan (1388-1390). 1391 yil *To'xtamishga* qarshi yurishda *Sulton Mahmudxon* bilan tumanga boshchilik qilgan. 1394-yil *Ulug'bek* tug'ilgan davrda Samarqand hokimi edi, *Shohruhni* peshkash bilan kutib olgan. *Amir Temur* Xurosonni *Shohruhga* berganida Sulaymonshohni ham uning mulozamatiga bergan (1397). Anqara jangidan so'ng qanot amirlaridan bo'lgan.

SULTON BAXT BEGIM (1360/66-1430, Nishopur) — *Amir Temurning* qizi. Onasi — *O'ljoy Turkon Og'o begim*. Sulton Baxt begim tabiatan shaddod, o'jar va erkaklarga xos tabiatga molik bo'lib, erkaklarni unchalik yoqtirmagan. Sulton Baxt begim *Sher Bahromning* o'g'li *Muhammad Mirkaga* nikohlangan. Sohibqiron kuyoviga Xuttalon viloyatini in'om qilgan. Biroq *Muhammad Mirka* 1388-yil isyon ko'targan, isyon bostirilib *Muhammad Mirka* ukasi *Abulfath* bilan Sohibqironning o'g'li *Umar Shayx Mirzo* farmoniga ko'ra qatl etilgan. 1389-yil malika Sulton Baxt begim amir *Dovud* dug'latning o'g'li amir *Sulaymonshohga* nikoh qilgan.

SULTON MAHMUDXON (?-1404) — *Amir Temur* hukmronligi davrida nomigagina Movarounnahr taxtiga o'tqazilgan xon (1388-1404). *Suyurg'atmishxonning* o'g'li. *Amir Temur* Xorazmga qilgan 4-yurishidan qaytib kelgach, Buxoroda olamdan o'tgan *Suyurg'atmishxon* o'rniga Sulton Mahmudxon o'tqazilgan. Sulton Mahmudxon nomiga tangalar zarb qilingan. 1395-yil *To'xtamishga* qarshi qilingan ikkinchi yurish vaqtida Sulton Mahmudxon o'g'ruq-oboza boshchilik qilgan va jangdan keyin hozirgi Saratov shahri yaqinida joylashgan Yuluqluq va Uzuqluq nomli mavzeda Sohibqironga kelib qo'shilgan. 1398-1399-yillardagi Hindiston fathida faollik ko'rsatgan Sulton Mahmudxon qo'shinining so'lqanoti juvong'arga rahbarlik qilgan. 1402-yildagi *Anqara jangida Boyazid I Yildirimni* asir olishga muvaffaq bo'lgan.

SUYURG'ATMISHXON, SUYURG'ATMISH O'G'LON (to'liq ismi Suyurg'atmishxon ibn Donishmandcha ibn Hindu ibn Burhon ibn Molik ibn O'qtoyxon) (?-1388-yillar) — Balx yaqinidagi O'rpuz

mavzeida *Amir Temur* tomonidan nomigagina Movarounnahr taxtiga o'tqazilgan *Chingiziy xon* (1370-1388). Xonlik darajasiga ko'tarilgunga qadar *Suyurg'atmishxon* Sohibqironning ulug' beklaridan biri bo'lib, qator harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Saltanat *Amir Temur* tasarrufiga kirgandan so'ng arkoni davlat, beklar, amirlar va no'yonlar bilan ittifoqlikda xonlikning *Suyurg'atmishxon*ga tayin qilinganligi qayta e'tirof etilgan. Chingizxon o'z saltanatini o'g'illariga taqsimlab bergan vaqtda (1224) Xorazmdagi Xiva va Kot shaharlari Chig'atoyxon avlodiga berilgan edi. Sohibqiron davlat tepasiga kelgach, *Husayn So'fidan* bu yerlarni *Suyurg'atmishxon*ga topshirishni talab qilgan. *Amir Temurning* 1371-1372-yil Xorazmga uyushtirgan birinchi yurishida *Suyurg'atmishxon* ham bevosita ishtirok etadi. 1388-yil *Amir Temur* 4-marta Xorazmga yurishga ketgan paytda *Suyurg'atmishxon* Buxoroda betob bo'lib qoladi va bir necha kundan keyin vafot etadi. Xorazmdan qaytgan Sohibqiron no'yonlar, beklar va davlat arkonlari bilan o'tkazilgan qurultoyda xonlik kursisiga *Suyurg'atmishxonning* o'g'li *Sulton Mahmudni* ko'taradi.

TO'XTAMISH, TO'XTAMISHXON (1342-1408) — Oltin O'rda hukmdori (1380-1397). *Jo'jixon* naslidan bo'lmish *To'yojoning* o'g'li. Otasi 1375-yil Oq O'rda hukmdori O'rusxon tomonidan qatl etilgandan so'ng *To'xtamish Amir Temur* huzuriga (1376) keladi va Sohibqironning beg'araz madadi tufayli avval Oq O'rda (1377), keyin *Mamay* qo'shinlarining *Kulikovo* jangida yengilganidan foydalanib Oltin O'rda taxtini qo'lga kiritadi (1380). *To'xtamish* ichki nizolarga barham berib, 7 yil ichida Oltin O'rda davlat birligini qayta tiklashga erishadi. Sirdaryodan Dnestrgacha, Sig'noq va O'trordan Kievgacha cho'zilgan ulkan saltanatning xoniga aylanadi. Unga qarshi bosh ko'targan rus knyazliklari hamda litvaliklarni ma'lubiyatga uchratadi. 1382-yil hiyla bilan Moskvani oladi, shaharni talon-toroj qilib yoqib yuboradi. Muvaffaqiyatlardan ma'lum darajada esankiragan *To'xtamish Amir Temur* saltanati hududlarini qo'lga kiritishga oshiqadi. *Amir Temurning* g'arb safardaligidan (1381) foydalanib, Ozarbayjon hamda Movarounnahrni bostirib kiradi, Samarqand va Buxoroni qamal qiladi. Lekin bu shaharlarni olishni uddasidan chiqolmaydi. 1388-yilning fevralida Sohibqiron qo'shini bilan *To'xtamishga* qarshi Sherozdan yo'lga chiqadi. *To'xtamish Amir Temur* bilan yuzma-yuz to'qnashishdan voz kechib, zudlik bilan Dashti Qipchoqqa qaytib ketadi. 1391-1395-yillarda *To'xtamish* Sohibqiron bilan bo'lgan *Qunduzcha* hamda *Terek* daryosi bo'yidagi janglarda mag'lubiyatga uchragan. Oltin O'rda poytaxti Saroyini ishg'ol qilgan *Amir Temur* qochoq *To'xtamish* o'rniga *Temur Qutlug'*ni xon etib ko'taradi. 1397-1399-yillarda *To'xtamish* Litva qiroli *Vyutaytas* yordamida *Temur Qutlug'* va *Indiqu* (Edigey)ga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. *Temur Qutlug'* vafotidan (1401) keyin *To'xtamish* Oltin O'rda taxtini qayta egallash harakatida bo'ldi. 1408-yil Tyumen shahri atroflarida qo'lga tushirilgan *To'xtamish Idiqu* tomonidan o'ldirilgan.

TUG'LUQ TEMUR (? — 1362 yoxud 1363) — Mo'g'uliston davlati asoschisi va xoni (1348-yildan).

Sharqiy Turkistonda uning avlodlari XVI asrning 70-yillarigacha hukmronlik qilgan. Chig'atoy ulusi parchalanishi jarayonida uning sharqiy qismida *Amir Po'lodchi* yordamida Tug'luq Temur tuzgan davlat tarkibiga Sharqiy Turkiston, Janubiy Sibir va Yettisuv kirgan. 1360-1361-yillardagi harbiy yurishlar natijasida Tug'luq Temur Movarounnahrni egallagan. Tug'luq Temur vafotidan so'ng o'g'li *Ilyosxoja* bilan bo'lgan kurashlarda Sohibqiron *Amir Temur* mo'g'ullarni Movarounnahr hududidan quvib chiqargan. Tug'luq Temur vorislari faqat Sharqiy Turkistonga egalik qilganlar, xolos.

TURMISH OG'O — *Joku Barlosning* qizi. 135-yili *Amir Temur* Turmush og'oga uylangan.

TAKINA XOTUN, TEGINA BEGIM, TEGINA MOHBEGIM (taxminan 1318, Buxoro — 1353, hozirgi Shahrisabz) — *Amir Temurning* onasi. *Amir Muhammad Tarag'ayning* xotini. O'rta asr manbalari, xususan, *Fasih Havofiyning* "*Mujmali Fasihiy*" asarida keltirilishicha, Takina xotun Buxoro ulamolarning peshvosi mavlono *Sadr ash-Shari'a Ubaydulloh al-Buxoriy ibn Toj ash-Shari'a Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy al-Buxoriyning* qizi bo'lgan. Takina xotunning bobosi "*Toj ash-Shari'a*" ("Shariat toji"), otasi "*Sadr ash-Shari'a*" ("Shariat ulug'i"), amakisi *Mahmud "Burhon ash-Shari'a"* ("Shariat hujjati") kabi mo'tabar unvonlarga sazovor bo'lgan. Takina xotun 16 yoshida Kesh amiri *Muhammad Tarag'aybekka* uzatilgan (1334). Keyinchalik yaratilgan "*Qissai Temur*" ("Malfuzoti Temuriy"), "*Temur qissasi*" va Toshkentlik tarixchi *Salohiddin Toshkandiyning* "*Temurnoma*" (1908) asarida Takina xotun hayotiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. "*Temurnoma*"da bo'lajak sohibqiron *Amir Temurning* tavallud topish (1336-yil 9-aprel) tafsilotlari taqdirning ilohiy hukmi sifatida tasvirlangan. *Amir Temurning* kelajakda buyuk inson bo'lib yetishuvida onasining hissasi katta bo'lgan. Takina xotun erining vafoti (1360)dan ancha avval qazo qilgan (1353). Sohibqiron *Amir Temur* keyinchalik onasi va otasi dafn etilgan Keshdagi oilaviy xilxona ustida muhtasham maqbara qurdirgan. *Amir Temur* katta o'g'li *Jahongir Mirzo* 20 yoshida vafot etgach (1376), uni ota-onasining qabri yonida dafn etgan. Sohibqiron onasi xotirasiga atab, Keshda mashhur Oqsaroyni bunyod ettirgan va Buxorodagi Chashmai Ayyub maqbarasini ta'mirlatgan.

TARAG'OY, AMIR TARAG'OY, TARAG'OYBEK (?-1360) — *Amir Temurning* otasi. Chig'atoy ulusining nufuzli beklaridan biri, barlos qabilasi oqsoqollaridan bo'lgan. Tarag'ay ajdodlari *Chingizxon* va *Chig'atoy* saroyiga yaqin bo'lishgan, keyinchalik ular Kesh viloyatini idora etganlar. Tarag'oyning o'zi ham *Amir Qazag'onning* ishonchli beklaridan sanalgan. Chig'atoy ulusi hukmdorlari tomonidan Ili daryosi bo'yida har yili chaqiriladigan qurultoyga boshqa viloyat beklari qatorida Tarag'oy ham qatnashgan. Tarag'oyning Movarounnahr va mo'g'ulistondagi mashhur amirlardan do'stlari ko'p bo'lgan, bu hol keyinchalik *Amir Temurga* qo'l kelgan. Tarag'oy beklar xonadoniga mansub bo'lsada, otasi *Amir Bargul* kabi harbiy ishga mayli bo'lmagan. Tarag'oy taqvodor musulmon bo'lib, ko'p vaqtini darveshlar bilan o'tkazgan. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* yozishiga ko'ra,

"*Tarag'oybek ulamo va sulaho va muttaqiylarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...*". Tarag'oy *Shamsuddin Kulol*ni o'ziga pir tutgan. Tarag'oyning xotini Buxoro fuzalolarining peshvosi — sadr ul-shar'ia (shariat qonunlarini sharhlovchi)ning qizi *Takina xotun* bo'lgan. Tarag'oy farzandi *Temurbekni* yoshligidan maxsus murabbiylar nazorati ostiga topshirib, chavandozlik, ovchilik, kamondan o'q otish, qilichbozlikdan harbiy ta'lim olishiga alohida e'tibor bergan. Bular uni kelajakda buyuk sarkarda bo'lib etishida katta rol o'ynagan. va boshqadan Kesh (Shahrisabz)dagi oilaviy xilxonaga dafn etilgan. Sohibqiron keyinchalik jome masjid yaqinida, shayx *Shamsuddin Kulol maqbarasi* yonida yangi maqbara qurdirib otasining xokini o'sha yerga ko'chirgan. *Amir Temur* harbiy safarlardan qaytishda Keshda to'xtab, otasi, o'g'li *Jahongir*, piri shayx *Shamsiddin Kulol* qabrlarini ziyorat qilgan.

ULJOY TURKON OG'O — *Amir Qazog'onning* nabirasi, *Amir Husaynning* singlisi. 1362-yili *Amir Temur* Uljoy Turkon Og'oni o'z nikohiga oladi. Bu nikoh tufayli Balx amiri bilan bog'langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz *Amir Temur* bilan *Amir Husayn* o'rtasidagi ittifoqni yuzaga keltiradi va mo'g'ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

UMARSHAYX, UMARSHAYX MIRZO (1356 — Xarmotu — 1394) — temuriy shahzoda. *Amir Temurning* ikkinchi o'g'li. Onasi *To'lun og'o (To'mlun og'o)*. Yoshligidan mohir chavandoz va mard jangchi bo'lib yetishgan. Keyinchalik ko'p janglarda ko'rsatgan jasurligi va qahramonligi evaziga bahodir unvoniga erishgan. 1370-yil *Amir Temurning Husayn ibn Musallab* bilan bo'lgan jangida, Umarshayx Balx qal'asini qamal qilish chog'ida mardona kurashgan, lekin jang oxirida oyog'idan yaralangan. U mo'g'ullarga qarshi olib borilgan ko'pgina janglarda faol qatnashib, Sohibqiron qo'shinidagi iste'dodli sarkardalar qatoridan o'rin olgan. 1393-yil *Amir Temur* Umarshayxni Fors viloyatini zabt etish ishiga mas'ul etib tayinlaydi. Umarshayx Istahr, Farak, Shahriyor va boshqa qal'alarni egallab, navbatdagi Sarjon qal'asini egallash uchun uni qamal qiladi. Ayni shu chog'da *Amir Temur* Misr va Shom (Suriya)ni qo'lga kiritish uchun *Diyorbakr* tomon qo'shin tortadi. Shu bois Sohibqiron Umarshayxni o'z huzuriga yetib kelishini buyuradi. Umarshayx Sarjon qal'asini qamal qilish amaliyotini amir *Idiku* barlosga topshirib, o'zi Sherozga keladi. Bu yerda Umarshayx ishonchli amiri *Sevinchakni* Forsni zabt etish ishiga mutasaddi qilib, o'zi otasini qoshiga yo'l oladi. Umarshayx safar paytida Bag'dod (ba'zi manbalarda Shavliston) yo'li bilan yurib Bag'doddan to'rt manzil masofadagi Kurdistondan o'tib borayotganida yo'l chekkasidagi Xarmotu qal'asiga duch kelgan. Umarshayx ushbu qal'ani yaxshiroq tomosha qilish maqsadida bir tepalikka chiqadi. Shu payt qal'a ichidan otilgan nogahoniy kamon o'qi Umarshayxning qulog'i ostidagi ko'k tomirga tegadi. Umarshayx shu zahoti olamdan ko'z yumadi. Uning qo'shini Xarmotuni yer bilan yakson etadi. Ushbu voqeadan xabar topgan *Amir Temur* qattiq iztirobga tushadi. U amir *Uchqaro* bahodirni Umarshayxning jasadini Sherozga olib kelish uchun Xarmotu tomon jo'natadi. Umarshayxning jasadi Sherozga olib kelingach, motam

tutilib, mirzoni muvaqqat dafn qiladilar. Ma'lum fursatdan so'ng Umarshayxning xotinlari — *Sevinch Qutluq og'ο begim*, *Beka Mulk og'ο begim* va *Mulka og'ο begim*lar hamda hali voyaga yetmagan o'g'li *Iskandar* mirzolar jasadni Sherozdan Kesh (Shahrisabz)ga olib keladilar va temuriylar xonadoni uchun maxsus barpo etilgan daxмага dafn etadilar. Umarshayx vafotidan so'ng *Amir Temur* Fors mamlakati yerlarini boshqarishni to'ng'ich o'g'li *Pirmuhammad* mirzoga topshiradi. Umarshayxdan shuningdek, yana besh o'g'il — *Rustam* mirzo, *Iskandar* mirzo, *Ahmad* mirzo, *Said Ahmad* mirzo va *Boyqaro* mirzolar qolgan edi.

URUSXON (?-XIV asrning 70-yillari ikkinchi yarmi)

— Jo'ji ulusining sharqiy qismi — Oq O'rda xoni (XIV asrning 60-yillari birinchi yarmidan). Urusxon davlatining poytaxti Sig'noq shahri bo'lgan. Urusxon Oq O'rdadagi hokimiyatini mustahkamlab olgach, Oltin O'rdani ham o'z tasarrufiga kiritishga harakat qilgan. 70-yillar o'rtalarida u Hojitarxon, Volga-Kama Bulg'oriyasi va Saroy Berka shahrini egallagan. *To'xtamish* bilan ko'plab janglar qilgan. Bu janglarda g'alaba doim Urusxon tomonida bo'lgan. *To'xtamish Amir Temur* huzuriga qochib borib, undan yordam so'ragan. Sohibqiron Jo'ji ulusida bo'lib o'tayotgan voqealarni ziyraklik bilan kuzatib borardi. Chunki Shimoliy Xorazm va Oq O'rda Movarounnahrğa chegaradosh edi. U Oltin O'rda xoni o'ziga tarafkash, tobe bo'lishini istardi. Shu tufayli u *To'xtamish*ni yaxshi kutib olib Urusxonga qarshi kurashida unga bir necha marta harbiy madad bergan. Biroq Urusxonning o'g'li *To'xtaqiya* *To'xtamish*ga qaqshatqich zarba bergan, yarador *To'xtamish* Sirdaryo bo'yidagi qamishzorlarga yashiringan, so'ngra Sohibqiron panohiga qochib borgan. Urusxon *Amir Temur*ning Buxorodagi qarorgohiga elchilar yuborib *To'xtamish*ni topshirishni talab qilgan. Sohibqiron bu taklifni qat'iy rad etib, tez orada o'zi jangga kirishini aytgan. *Amir Temur* Urusxonga qarshi yurish boshlagan, qo'shinni Sirdaryodan o'tkazib, O'tror atrofidagi tekislikda qarorgoh qurgan. Urusxon qo'shini esa, *Sharafuddin Ali Yazdiyning* ma'lumotiga ko'ra, O'trotdan 24 farsax naridagi Sig'noqda joylashgan edi. Qattiq qish, tinimsiz yomg'ir va qor har ikki qo'shin faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan. Ular mayda to'qnashuvlarni hisobga olmaganda, deyarli uch oy bir-birlariga qarshilik ko'rsatmasdan ro'baro' turganlar. Har ikki sarkarda hech bir natijaga erisholmagach, ortlariga qaytishgan. Shundan so'ng *Amir Temur* bir necha oy Keshda bo'lgan va Urusxonga qarshi yurish boshlash uchun o'ziga *To'xtamish*ni yo'lboshlovchi qilib olgan. *Jayronqamish*ga yetganlarida Urusxonning vafot etganidan xabar topishgan. Urusxonning to'ng'ich o'g'li *To'xtaqiya* ham ko'p o'tmay (1375) vafot etgan. Sohibqiron *To'xtamish*ga kerakli aslahalarni berib, uni shu yerda qoldirib, o'zi Samarqandga qaytgan. Urusxon davrida Oq O'rdada suyg'ol in'om etish keng amaliyotda bo'lgan. Urusxon vafotidan so'ng va uning vorislarining qisqa muddatli hukmronligidan keyin Urusxonning barcha yer-mulklarini *To'xtamish Amir Temur* yordamida egallab olgan (XIV asrning 70-yillari oxiri).

XONZODA BEGIM, SEVINBEKA (?—1411 yil 3-noyabr, Tus) — Xorazm malikalaridan biri. *O'zbekxonning* nabirasi. Xonzoda begim nomi bilan mashhur bo'lgan.

1374-yili Xonzoda begim izzat-ikrom bilan Samarqandga keltirilgan va *Jahongir* Mirzoga nikohlab berilgan. Ularning nikohidan *Muhammad Sulton* Mirzo tug'ilgan. 1376 yili *Jahongir* Mirzo vafotidan so'ng Xonzoda begim *Amir Temur*ning 3-o'g'li *Mironshoh* nikohiga kirgan (1383). *Mironshohdan* *Xalil Sulton* Mirzo dunyoga kelgan. Xonzoda begim o'tkir zehni, aql-farosatli hamda tadbirkorligi tufayli *Amir Temur*e'tiborini qozongan. 1407-yilda Xonzoda begim Makkatullo ziyoratiga ketgan. Ziyoratdan qaytgach, *Abdurazzoq Samarqandiyning* ma'lumotiga qaraganda o'g'li, *Xalil Sulton* Mirzoning o'limidan bir necha kun ilgari vafot etgan.

XO'JAAEZAL — *Amir Temur* saroyida xizmat qilgan ulamolardan.

XURDAKI BUXORIY (?-1366) — Samarqanddagi sarbadorlar qo'zg'olonining boshlig'i. U *Abu Bakr* va *Mavlonzoda Samarqandiy* bilan birlashib, qo'zg'olonga boshchilik qilgan vatanparvar. Amir Husayn buyrug'iga ko'ra qatl etilgan.

SHAMSUDDIN KULOL, SAYYID AMIR KULOL, SAYYID SHAMSIDDIN FAXURIY (? — 1371-yil, Kesh) — shayx. Naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan namoyandalariidan; *Xoja Bahouddin Naqshbandiya* ustozlik qilgan; *Amir Tarag'ay Bahodir* bilan o'g'li *Amir Temurga* ham pir bo'lgan. “*U qadrli shayx Shamsuddin Kulolga sidqidildan ixlos qilardi va uning muborak qabriga (ziyorat uchun) tez-tez borib turardi*”, deb yozadi *Ali Yazdiy*. Shamsuddin Kulol tasavvufda suhravardiylik tariqatiga mansub bo'lgan. Ayni paytda u xojagon tariqatiga ham hurmat bilan qaragan. Sohibqiron *Amir Temur*ning ham unga nisbatan ixlosi juda kushli bo'lgan, saltanatni boshqargan chog'larida ham Shamsuddin Kulol qabrini ziyorat qilib turgan. 1373-74-yillari *Amir Temur* Shamsuddin Kulol qabri yonida bir gumbaz-maqbara qurdiradi va otasining xokini o'sha yerga ko'chirtirib, Shamsuddin Kulol qabrining qibla (g'arb) tomoniga dafn etadi.

YAKUBOVSKIY ALEKSANDR YUREVICH (1886-1953) — rossiyalik sharqshunos. U *Amir Temur*ning *To'xtamish* ustidan qozongan g'alabasi, faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyati kasb etadi”, — deb ta'kidlagan.

YODGOR BARLOS BINNULO (XIV asr) — *Amir Temur*ning xos mulozimi, *Chig'atoyning* maslahatchisi *Qorachor* no'yonning avlodi. Sohibqiron unga muhim vazifalarni topshirgan: 1374-yilning bahorida u elchilik bilan Xorazmga yoborilgan; 1388-yil Sohibqiron *To'xtamishxonni* Sabron tarafidan ta'qib qilganida uni beklardan *Sulaymonshoh*, *Shamsiddin Abbos* va *G'iyosiddin Tarxon* bilan birga Turkistonning muhofazasiga qo'ygan: “*Besh yillik yurish*” paytida (1393, 1395-yillar) bir qancha beklar bilan birga uni o'g'ruqning muhofazasiga qo'ygan.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR



AHMAD YASSAVIY MAQBARASI (XIV-XV asrlar)

— Buyuk mutasavvif shoir *Qul Xoja Ahmad Yassaviy* qabriga *Amir Temur* tomonidan Turkistonda (Yassi) qurdirgan mashhur me'morlik yodgorliklaridan biri. Oltin O'rdaga qarshi urushlar davrida *Ahmad Yassaviy* qabrini ziyorat qilgan *Amir Temur*, uning qabri ustiga muhtasham maqbara qurishga buyruq berib, katta mablag' ajratgan. Minora ichida bir necha xonalar bo'lib, markaziy qismida qozonli xona joylashgan. Bunda qirq quloqli qozon bo'lgan. Yodgorlik o'z zamonasining mashhur me'morchilik asari bo'lishi bilan birga, katta muhandislik inшоati hamdir.

AMIR TEMUR BOG'LARI — *Amir Temur* Samarqand atrofida bunyod ettirgan bog'lar. *Amir Temur* bog'lari xususidagi dastlabki ma'lumotlar o'tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, *Amir Temur* bog'lari o'rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. *Amir Temur* bog'lari tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan: 1) Chorbog'lar — geometrik (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak) shaklda bo'lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo'lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qarab qurilgan; 2) Tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy, qo'l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko'shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan.

ANQARA JANGI (1402-yil 20-iyul) — *Amir Temur* va usmonli turk sultoni *Boyazid I Yildirim* qo'shinlari o'rtasida Anqara yonida bo'lib o'tgan ulkan jang. Unda *Amir Temur*ning taxminan 200 ming, Turkiya sultonining 160 ming askari qatnashgan. Ushbu jangning sodir bo'lishiga, asosan, quyidagi omillar sabab bo'lgan: Iroq, Shom, Dashti Qipchoq, Xuroson, Hindiston, Jeta singari mamlakatlarni o'ziga itoat ettirishga muvaffaq bolgan *Amir Temur* o'z saltanatining janubi-g'arbiy hududlariga yaqin joylashgan Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Ismonlilar davlatining kuchayib ketayotganligidan xavotirda edi, chunki G'arbiy Yevropa ritsarlaridan tashkil topgan katta armiyani tor-mor etgan, Bolqon davlatlarini egallagan usmoniy turklar *Amir Temurga* taalluqli viloyatlarga ham tahdid sola boshlagan edi. Tarixning guvohlik berishicha, *Amir Temur* o'z qo'shini bilan Sharqiy Anadolu sarhadlariga 1386-yil qadam qo'yan va Arzinjon shahri yaqinida turklarning katta harbiy kuchlarini mag'lub etgan. 1395-yil Sohibqiron bu o'lkalarga ikkinchi bor yurish qiladi, Sivosni qo'lga kiritadi. *Amir Temur* Anqara jangiga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlandi: 1399-yil Rumga yuzlanadi va *Boyazid* tomonidan fath qilingan Kamoh qal'asini qamal qiladi. Kamoh fath etilgach, ko'p fursat o'tmay *Amir Temur* Anqarani qamal qiladi. Sohibqironning bu harakati aslida taktik tadbir bo'lib, tajribali sarkardaning asosiy maqsadi *Boyazid*ni asosiy kuchlarini shahar mudofaasiga

tashlashga majbur etib, so'ng unga qaqshatqich zarba berish edi. To'qat sharhi yonida asosiy harbiy kuchlari bilan turgan *Boyazid I* Sohibqiron askarlarining Anqarani muhosara qilganligidan xabar topadi va qamaldagilarga ko'mak berishga oshiqadi. *Amir Temur* Anqara qamalini bekor qiladi va raqibini kutib olish taraddudini ko'radi. Qo'shin qismlarini janggohning (Chibukobod degan yerda) qulay yerlarga joylashtiradi. Lashkargoh atrofida xandaqlar qazilib, xavfsizlik choralari ko'riladi. Natijada *Boyazid I* qo'shini o'zi uchun o'ta noqulay shart-sharoitda jangga kirishga majbur bo'ladi. Sulton qo'shini, ayniqsa, suv tanqisligi tufayli vujudga kelgan tashnalikdan qattiq azob chekadi. Sohibqiron qo'shini o'zining an'anaviy jangovar tartibi — yasolda harakat qiladi. Qo'shinning qirq qismdan tashkil topgan markazi — qo'lga *Amir Temur* bevosita rahbarlik qiladi. So'l qo'l — juvang'arga *Shohruh* mirzo va *Xalil Sulton* mirzo, juvang'ir hiravuli — ilg'origa *Sulton Husayn* mirzo, o'ng qo'l — barang'arga *Mironshoh* mirzo, barang'ar hiravuliga *Abu Bakr* mirzo etakchilik qiladi. Markaz — qo'lning o'ng tarafida *Umarshayx* mirzoning o'g'li *Ahmad* mirzo, *Toshtemir* o'g'lon, *Shohsuvor* singari sarkardalar joylashadi. Qo'lning chap tomonidan Jalol Islom, Tavakkal qarqara, Ali Muhammad kabi bahodirlar o'rin oladi. Qo'shinning saflari oldida 30 ta jangovar fil muhorabaga shay qilingan edi. Qarshi tarafda *Boyazid I* Rum va Farang mamlakatlaridan jamlangan cherikiga tartib berib, jangga hozir bo'lib turdi. Qo'shinning o'ng qanoti — barang'arda serb knyazi Stefan (*Boyazid I* ning qaynisi) 20 ming kishilik farangliklar bilan, chap qanoti — juvang'arda esa Musulmon (Sulaymon) *Chalabiy* (*Boyazid I* ning o'g'li) Rum lashkari bilan saf tortib turdi. *Sulton Boyazid I* ning o'zi qo'shin markazida qolib, uch o'g'li *Muso*, *Iso* va *Mustafolarni* chag'davul (qo'shin orti) ga qo'ydi. Jang *Mironshoh*ning mirzo qo'l ostidagi barang'arning dushman juvang'ariga qilgan shiddatli hujumi bilan boshlandi. *Boyazid I* qismi amir *Jahonshoh* va amir *Qora Usmon* rahbarligidagi qismlar tomonidan qilingan hujumga bardosh bera olmay jang maydonini tashlab qochadi. *Boyazid I* qo'shini saflarida paydo bo'lgan sarosimalikni payqagan *Amir Temur* barcha amirzodalar, umarolar, no'yonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishini hukm qiladi. Shiddatli to'qnashuv uzoq va keskin davom etadi. Nihoyat, Sohibqiron kuchlarining qisuviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekina boshlaydi. *Boyazid I* qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi damgacha qarshichilik ko'rsatadilar. Yanicharlar bitta qolmay qirib tashlangandan so'ng *Boyazid I* va uning ikkinchi o'g'li *Musoni Amir Temur* tomonidan 1388-yil Chig'atoy ulusi xonligiga ko'tarilgan *Sulton Mahmudxon ibn Suyurg'atmishxon* asir oladi. Sohiqqiron *Boyazid I* qo'shinlarining qolgan-qutgan qismini ta'qib etib, Bursa, Izmirmi egallaydi va Marmar dengizi sohillariga chiqadi. *Amir Temur* tomonidan *Boyazid I* qo'shinining tor-mor etilishi Usmonli turk saltanatining ma'lum muddatga zaiflashishiga sabab bo'ldi. Konstantinopolning turklar tasarrufiga kirishini hamda ularning Markaziy va G'arbiy Yevropaga qilmoqchi bo'lgan yurishlarini birmuncha fursatda orqaga surdi.

ARKBEGI — podsho qarorgohini boshqaruvchisi.

ARLOT, ARLAT, ALLOT — o‘zbek urug‘laridan biri. *Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai turk”* asarida arlot ma‘nosi haqida quyidagi misralar bor: “Aning ma‘nosi otaning sevar o‘g‘li temak bo‘lur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi ko‘p sevar erdi. Aning uchun Arlat tedilar. Barcha Arlat eli aning nasli tururlar”. Manbalarga ko‘ra, *Chingizxon* tomonidan Chig‘atoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan 4 ming kishilik qo‘shin boshliqlaridan biri ham arlot urug‘idan (qolgani jaloyir, barlos, qavchin) bo‘lgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Shimoliy Afg‘oniston hududiga o‘rnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi O‘zbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek, Xorazmga ko‘chib o‘tganlar.

AR‘ERGARD (fransuzcha arriere — orqasida, garde — soqchi, qo‘riqchi, qorovul) — Yevropa davlatlari armiyalarida harbiy yurish, hujum yoki chekinish vaqtida asosiy kuchlarning ketidan boruvchi va ularning shu tomondan xavfsizligini ta‘minlovchi askariy qo‘shilma, qism yoki bo‘linma. Turkiy xalqlar harbiy qo‘shinida soqa deb yuritilgan.

AYL — *Amir Temur* askariy qismlarining o‘n nafarli bo‘linmasi.

AYLBOSHI — o‘n nafarli askariy bo‘linmaning kichik zobiti; askarboshi.

BARLOS, BARULAS, BALLOS — o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. XIII asrning ikkinchi yarmida Ila (Ili) daryosi bo‘ylaridan Qashqadaryo vohasiga ko‘chib kelgan. XIV-XV asrlarda shu voha aholisining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. *Amir Temur* barlos qabilasidan bo‘lib, sarkarda va viloyat amirlarini, asosan, shulardan tayinlagan. Barloslar turkiy tilning qorluq-chigil lahjasida so‘zlashgan.

BESH YILLIK URUSH (1392-1396-yillar) — *Amir Temurning* olib borgan urushlaridan biri. Besh yillik urush davomida G‘arbiy Eron, Iroqijam va Kavkaz egallanadi.

BIRINCHI VAZIR — *Amir Temur* davrida yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlariga ma‘sul bo‘lgan.

BOG‘I BALAND — *Amir Temur* Samarqandning shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi) ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamalakatlar bog‘chiligi san‘ati ustalari hamda me‘morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirlar va olmazorlar boqqa go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

BOG‘I BEHISHT — *Amir Temur* Samarqandning g‘arbida suyakli xotini *Tuman o‘g‘o* (Xayruniso)ga atab qurdirgan (1378). Yozma manbalarda “Bog‘i Jannat” nomi bilan ataladi. Tarixchi *Sharafuddin Ali Yazdiyning* yozishicha, bog‘ o‘rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun‘iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali qurilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog‘chasi ham bo‘lgan.

BOG‘I CHINOR — *Amir Temur* Samarqandning sharqida (Kongilning janubi-g‘arb tarafida, hozirgi “Qo‘sh tamg‘alik” tepaligi o‘rnida) barpo qildirgan (1404). Unda chinorlar ko‘p bo‘lgan. Markazida xochsimon tarxli saroy

joylashgan.

BOG‘I DAVLATOBOD — *Amir Temurga* Hindiston yurishidan qaytgan kuni (1399-yil 22-aprel) hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, u Samarqanddan 13 km janubda, Katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. *Amir Temur* bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan. Arxeologik qazishlar natijasida bog‘ning 1350x900 metr maydoni egallangani, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgani va unda ariqlar, 4 hovuz (biri 62x28 m, ikkitasi 25x25 metr, yana biri 32x32 metr) hamda saroy (poydevori 70x70 metr) bo‘lgani aniqlandi. Saroy sun‘iy tepa (balandligi 12 metr) ustiga qurilgan, atrofi xandaq (eni 20 metr) bilan o‘ralgan.

BOG‘I DILKUSHO (Ko‘ngil ochuvchi bog‘) — *Amir Temur* xotinlaridan biri — *To‘qalxonim* sharafiga qurdirgan (1397). Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimgi Hinduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga *Amir Temur* olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘yilgan. *Amir Temur* Ispaniya elchisi *Rui Gonzales de Klavixoni* ana shu bog‘da qabul qilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

BOG‘I JAHONNAMO (Jahon ko‘zgusi) — *Amir Temur* Samarqanddan 7 farsax (42 km) narida, Zarafshon tog‘i etagida qurdirgan (1398-yil). Unda saroy va qal‘a bo‘lgan. “Zafarnoma”da yozilishicha, bu bog‘ning hududi benihoyat katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan.

BOG‘I MAYDON — *Amir Temur* Samarqandning shimolida, Cho‘ponota tepaligi etagida qurdirgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog‘da hashamatli bir ayvon (ko‘shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo‘lgan. *Mirzo Ulug‘bek* bu bog‘ni yanada obod qilgan. *Bobur* shu haqda bunday deb yozadi: “*Bu bog‘ning o‘rtasida (Ulug‘bek) bir oliy imorat qilibdur. Chil (qirq) sutun derlar, du (ikki) oshyona (qavat), sutunlari tamomi toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida manordek burjlar qo‘porib turlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjindur. O‘zga tamom yerlarda toshdin sutunlardir. Ba‘zini morpech xiyora (burama, ko‘pqirrali) qilib turlar. Yuqorigi oshyonaning to‘rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdan. O‘rtasi chordora uydur. Imorat kursini tamom toshdan farsh qilibdirlar*”. Bu bog‘ o‘rni hozir ham Bog‘i Maydon deb ataladi.

BOG‘INAV (Ayngi bog‘) — *Amir Temur* Samarqandning janubida qurdirgan (1404-yil). Lolazor qishlog‘i o‘rnida joylashgan. Bu bog‘ to‘rtburchak shaklda bo‘lib, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, har burchagida minora qad ko‘tarib turgan. Markazida boshqa bog‘lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo‘lgan.

BOG‘I SHAMOL — *Amir Temur* 1397-yil nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Samarqandning g‘arbida bo‘lgan. Undagi saroy to‘rtburchak shaklda bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qora yog‘och va fil suyagidan ishlangan.

Bu bog' joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham "Bog'i Shamol" deb ataladi.

BOLO HISOR — *Chingizxon* tomonidan xarob qilingan Samarqand shahrining boro'si (mudofaa inshoati) va chuqur xandaqi hozirgi kungacha saqlanib qolgan va u shu nom bilan ataladi.

BORO' — mudofaa inshoati. XV asr muallifi ma'lumot berishiga qaraganda, ilgari Samarqand shahrining ulug'vor qo'rg'oni bo'lib, uning ustma-ust qurilgan bir nechta boro'si va chuqur xandaqi bor edi.

BURG'U — karnay.

BURONG'OR — *Amir Temur* qo'shinining o'ng qanoti.

BO'STONSAROY — Samarqand arkidagi *Amir Temurning* ikkita qarorgohidan biri.

BO'YXUSHUNI — *Amir Temurning* 27 qismdan iborat saralangan qismi. Bu qism 1395-yilning 15-aprelida Oltin O'rda xoni *To'xtamish* bilan Tarak daryosi bo'yidagi jangda, dushmanga favqulodda holatda zarba berish uchun pistirmaga qo'yiladi.

DAVLATALAMI — bayroq.

DIPLOMATIYA — davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish borasidagi faoliyat.

DODXOH — shikoyatlarni ko'ruvchi.

DORUG'A, DARUXACHI, DORUG'ACHI (mo'g'ulcha — nazoratchi, shahar boshlig'i) — 1) mo'g'ullar davlatida mahalliy hokimlar huzuridagi ulug' qoon vakili, noibi. Dorug'a zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: aholini ro'yxatga olish; mahalliy xalqdan qo'shin to'plash; pochta aloqalarini yo'lga qo'yish; soliqlar yig'ish; to'plangan soliq-to'lovlarni ulug' qoon saroyiga yetkazish; 2) Temuriylar va shayboniylar davrida viloyat, shahar hokimi. Dorug'aning vazifasiga shaharni idora qilish, aholi ro'yxatini olish va uni hisob-kitob qilib borish, soliq undirish kabilar kirgan.

DORUG'ONA — dorug'alar foydasiga to'planadigan to'lov.

DULDOY — *Amir Temur* bo'linma boshliqlarini saylab olgan o'n ikkita qabilalar orasida shu qabila ham mavjud edi.

GO'RIAMIR (Amir Temur maqbarasi) — XIV asr oxiri — 1405-yilgacha qurilgan Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (*Mir Sayyid Baraka*) deb nomlanib kelinadi. Maqbara temuriylar sulolasiga mansub kishilar (*Amir Temur*, uning piri *Mir Sayyid Baraka*, o'g'illari *Umarshayx*, *Mironshoh* va *Shohruh*, nabiralari *Muhammad Sulton*, *Ulug'bek* va b.) dafn etilgan. Boburning ta'kidlashicha, dastlab *Temurning* nabirasi *Muhammad Sulton Mirzo* Samarqand qal'asi janubida Toshqo'rg'on — chaqarda madrasa qurdirgan. *Muhammad Sulton* halok bo'lgach (1403), *Amir Temur* uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan *Muhammad Sulton* qurdirgan madrasa va xonaqoh qoldiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorsi hovlining sahrqiy va g'arbiy tomonlarini egallagan. Hovlining janubida gumbazli maqbara

joylashgan. Maqbaraga janubdan, *Ulug'bek* qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarxli ziyoratxonasi baland toqi — ravoqli, tepasi yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashqi gumbazi 64 qaburg'ali, baland poygumbaz (diametrik — 15m, balandligi 12,5m)ga o'rnatilgan. Ziyoratxona o'rtasidagi marmar panjara bilan o'ralgan murabba xazira sag'niga qator qabrtoshlar qo'yilgan. Yuqorisi (to'g'ri)da *Amir Temurning* harbiy yurishlarida unga hamroh bo'lgan va uning yuksak hurmatini qozongan *Mir Sayyid Baraka* sag'anasi joylashgan. *Sayyid Baraka* qabrining oyoq tomoniga *Amir Temurning* o'zi dafn qilingan. Uning uch tomonida *Muhammad Sulton*, *Mironshoh*, *Umarshayx* qabrlari bor. Keyinchalik bu yerga *Temurning* nabiralari va evaralarining qabr toshlari qat'iy tartibda joylashtirilgan. *Temur* sag'anasiga qo'yilgan ko'k nefrit qabrtoshini *Ulug'bek* mo'g'ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada *Temurni* ulug'laydigan so'zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o'ymakori yozuvlarda bitilgan. Hamma sag'analar *Ulug'bek* tomonidan yaxlit o'yma marmar panjara bilan o'ralgan. 1740-yilda Samarqand ishg'ol qilingandan keyin *Nodirshohning* buyrug'iga binoan *temurning* qabri ustidagi nefrit tosh bilan bilan Bibixonim masjidining ikki qavatli temir darvozasi Mashhadga olib ketilgan. Ularni ko'zdan kechirgandan keyin *Nodirshoh* toshni ham, darvozani ham yana Samarqandga qaytarib yuborishni va o'z o'rniga qo'yishni buyurgan. Ziyoratxonaning sharqiy qismidagi ravoqdan zina orqali ostki qavatidagi go'rxonaga tushiladi. Go'rxona sakkiz qirrali undagi sag'analar yuqori qavatda qanday joylashgan bo'lsa, bu yerda ham shu tartibda joylashgan. Ziyoratxonadagi qabrtoshlarning har biri yuksak san'at asaridir. Ziyoratxona serhasham bezaklarga boy. Bo'rtma bezak kundallar zaminiga lojuvard rang gullar ishlangan. Izorasi yashil toshdan girih shaklida terilgan. To'rtta chuqur ravoqlardagi darchalarga o'sha vaqtida rangli oyna o'rnatilgan. Oltin va kumush qandillardagi shamlar yonganda ziyoratgoh ichkarisi ulug'vor va afsonaviy tus olgan. Tashqarisi sirkor g'ishtchalar bilan bezatilgan. Gumbaz va uning poyidagi bezaklar, turli arabiy yozuvlar alohida ko'zga tashlanadi. Maqbara darchalarida yog'ochdan ishlangan nafis panjaralar, eshiklarida esa murakkab qo'sh zaminli o'ymakor bezaklar bo'lgan. Maqbaraning g'arbiy tomoniga baland peshtoq yondashgan. Taxminlarga ko'ra bu peshtoq qoldiqlari XVII asrga mansub. Tashqi peshtoq darvozasining tepasida me'mor-usta "*Muhammad binni Mahmud al-banno Asfaxoniy*" nomi saqlangan. Keyinchalik maqbara bir necha bor ta'mirlandi, gumbazi qayta tiklanib, xonaqoh va madrasa qoldiqlari kavlab topildi, ichki va tashqi bezaklar ta'mir etildi. 1941-yilda musulmon odatiga zid ravishda *Amir Temur* va *Ulug'bek* qabrlari ochib tekshirilib, ular ruhlari bezovta etildi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ushbu noyob san'at durdonasining qimmatini yanada oshdi. Memoriy majmuada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Islom Karimov* tashabbusi bilan 1991-1996-yillarda ta'mir ishlari olib borildi. 1996-yili Sohibqiron *Amir Temur* tug'ilganligiga 660 yil to'lishi munosabati bilan u qayta ta'mirlandi. Ta'mirdan so'ng maqbaraning ko'rinishi o'zgacha chiroy ochdi. Uni

ko'rgan kishida unutilmas taassurot qoladi. Go'ri Amir maqbarasi chiroyi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Har yili hamisha go'zal va navqiron Samarqand shahriga va ayniqsa, G'ori Amir maqbarasiga dunyoning turli burchaklaridan ko'plab sayyohlar tashrif buyuradilar. Maqbara hozirgi kunlarda ham shaharning husniga husn qo'shib turibdi.

IKKINCHI VAZIR — *Amir Temur* davrida askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan vazir.

IZNOM — Ommaga ruxsat etilgan bazm.

IZOFA — zaxira qism, urush jarayonida jang oqibatini ana shu izofa qismlar hal qilgan.

JALOYIRLAR, JALOIRLAR — turkiy xalqlardan biri.

*Rashiduddin*ning yozishiga ko'ra, jaloyirlar XII asrda Onon va Kerulen daryolari bo'yida yashashgan. Ular 10 bo'lakka (qabilaga) bo'lingan, har bir qabilarning o'z sarkardasi (qabila boshlig'i) bo'lgan. Jaloyirlarning katta bir qismi kidonlar bilan bo'lgan urushda yengilgach, *Chingizxon* ajdodlariga tobe bo'lgan. *Chingizxon* hukmronligi davrida, jaloyirlardan bir qancha e'tiborli beklar va lashkarboshilar yetishib chiqqan. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida jaloyirlarning katta qismi Yettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlari (Ohangaron vodiysi va Xo'jand tumani) ga ko'chib kelib o'rnatilgan. 1370-yilda *Amir Temur* bu guruhni o'ziga tobe etadi, ammo jaloyirlar tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishgan. 1376 yildagi qo'zg'olon bostirilgach, ular bir qancha guruhlariga ajratilib, bir bo'lagi Toshkent vohasida qoldirilgan, qolganlari Movarounnahrning bir qancha tumanlariga (asosan, Zarafshon bo'ylariga) ko'chirilgan. Shu tarzda *Amir Temur* jaloyirlarning Ohangaron va Xo'jand ulusini tarqatib yuboradi. O'zbekistonda jaloyir nomi bilan bog'liq qishloqlar bor. XIII asr davomida jaloyirlarning katta bir guruhi Ozarbayjon va Iroqqa ko'chib o'z davlatini barpo etganlar. O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashovchi jaloyirlar keyinchalik o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz millatlari tarkibiga kirgan.

JANGI LOY, LOY JANGI — *Amir Temur* va amir *Husayn ibn Musallab*ning Jeta (Mo'g'uliston) xoni Ilyosxo'jaga qarshi jangi (Nizomiddin Shomiyning "*Zafarnoma*" siga ko'ra 1360-yil 16-iyunda, *Sharafiddin Ali Yazdiyning* "*Zafarnoma*"siga binoan esa 1365-yil 22-mayda bo'lib o'tgan). 1361-yil *Amir Temur* va amir *Husayn* mo'g'ullar istilosiga qarshi bosh ko'tarib, 3 yil davom etgan janglardan so'ng, nihoyat 1364-yil oxirida ularni Movarounnahr hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'lishadi. Biroq, 1364-yil bahorida *Ilyosxo'ja* Movarounnahrda katta qo'shin bilan yurish qiladi. Shunda *Amir Temur* va amir *Husayn* Toshkent bilan Chinoz oralig'ida, Chirchiq daryosi bo'yida unga qarshi lashkar to'playdi. Ilyosxo'ja Konibodom tomonidan ularga yaqinlashib kelgach, ikki taraf lashkarlari qarama-qarshi saf tortadi. *Amir Husayn* qo'shinining barang'ariga, uning qunbuliga esa arlot qabilasidan Tilonchi, hirovuliga O'ljaytu qo'mondonlik qiladi. Juvang'arga *Amir Temur*, uning qunbuliga qipchoq qavmidan *Sori Bug'o*, hirovuliga *Temir Xo'ja O'g'lon* bosh bo'ladi. G'ulda *Joku*, *Sayfuddin*, *Murod*, *Abbos Bahodir* kabi atoqli amir va beklar jangga hozir turadi. *Amir Temur* va amir *Husayn*ning birlashgan

bu qo'shini son jihatdan dushman lashkaridan ancha ko'p edi. *Sharafiddin Ali Yazdiyning* yozishicha, shunda *Ilyosxo'ja* halol jangda g'olib kelolmasligini payqab, bir hiyla ishlatadi: yadachi yada toshi yordamida kuchli jala yog'diradi. Natijada jang maydoni loylanib, *Amir Temur* va *amir Husayn* qo'shini mushkul ahvolda qoladi, kiyim-kechak, qurol-yarog'lar shu darajada namiqib ketadiki, otlarning ham, piyodaning ham qimirlashga majoli yetmaydi (shu bois bu jang tarixda Jangi loy nomi bilan mashhur). *Ilyosxo'ja* lashkari esa kigiz yopinib, o'zlarini yomg'irdan pana qiladilar. Shunday og'ir sharoitga qaramay, *Amir Temur* dushmanning barang'ariga qattiq zarba beradi. Lekin, shu asnoda dushman qo'shinining qonbuli Tilonchi yetakchiligidagi qunbuldan ustun kelib, uni amir *Husayn* boshchiligidagi juvang'argacha quvib boradi. *Amir Husayn* askarlari sarosimaga tushib, qocha boshlaydi. Qo'shinning o'ng qanotidagi bu xatarli vaziyatni ko'rgan *Amir Temur* o'z qo'l ostidagi navkarlar bilan dushmanning amir *Shamsuddin* boshchiligidagi juvang'ariga kuchli zarba berib, uni to'zitib yuboradi. So'ng, u amir *Husayn*ga chopar yuborib, qo'lga kiritilgan g'alabani mustahkamlash uchun dushmanning asosiy kuchlariga birgalikda hujum qilish lozimligini ma'lum qiladi. Ammo, amir *Husayn* bunga ko'nmaydi. Ertasi ertalab yana jang boshlanib, *Ilyosxo'ja* qo'shini yengiladi. *Amir Temur* va amir *Husayn* uni quvib ketayotib, amir *Shamsuddin* boshchiligidagi juvang'ardan ajralib qolgan mo'g'ullar to'dasiga duch kelib, ular bilan jang qilishga majbur bo'ladi. Shunda dushman parokanda navkarlarini to'plab, qayta tartibga keltirishga muvaffaq bo'ladi-da, tashabbusni o'z qo'lga olib, kuchli zarba bilan *Amir Temur* va amir *Husayn* qo'shinini ikkiga ajratib yuboradi va g'alaba qozonadi. 10 mingdan ortiq askaridan ayrilgan *Amir Temur* va amir *Husayn* Kesh tomon chekinadi.

JARIB — 958 kv. m. yer maydoni.

JUVONG'UR, JAVONG'OR, JUNG'AR (turkiycha — chap qo'l) — 1) moziyda O'rta Osiyoda davlat tasarrufidagi yerlarning chap tomoni. Ko'chmanchi xalqlarda mamlakat va uning aholisini ikki qanotga o'ng va so'lga taqsimlash qadimdan odat tusini olgan; 2) qo'shinning so'l qanoti. Juvang'ar istilohi bu ma'noda o'zbek tiliga XIII asrning 30-yillarida o'zlashgan. *Chingizxon* qo'shini juvang'arining soni 62 ming askardan iborat bo'lgan. *Temur* va temuriylar qo'shinida juvang'arga temuriyodalardan va atoqli lashkarboshilar qo'mondonlik qilgan. Odatga ko'ra, juvang'ar jangchisining barang'ardan o'rin olishi harbiy intizomni buzish deb baholangan. Juvang'ar istilohi harbiy ma'noda XX asr boshigacha iste'molda bo'lgan. Juvang'ar toponimik nom sifatida Jung'ariya atamasida saqlanib qolgan.

KANBUL — qo'riqchi askariy bo'linma.

KATOLIK DINING HOMIYSI — *Mironshoh Amir Temur* keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixolik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G'arabda *Mironshoh* tez orada shu nom bilan shuhrat qozongan.

KATOLIK MISSIONERLARI — katolik dinini boshqa

xalqlar orasida yoyish maqsadida targ'ibot ishlari bilan shug'ullanuvchilar.

KUCHORCHI — yo'l boshlovchi.

KO'KGUMBAZMASJIDI — Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik. *Ulug'bek Mirzo* otasi *Shohrux Mirzo* nomidan qurdirgan (1434-1436). Peshtoq ravog'ida ularning nomlari va qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar saqlangan. Ko'k gumbaz masjidi Dor ut-tilovat ansambli tarkibidagi asosiy jome masjid. Ko'k koshin bilan qoplangan gumbazi (nomi ham shundan), peshtoqining o'ng va chap tomonidagi ustunlari, boloxonasi buzilib ketgan. Binoga sharqdan peshtoq (ravog'ining kengligi 10 m) orqali kiriladi. Peshtog'ida serjilo handasiy bezaklar ko'p ishlatilgan. Ustunlarida, asosiy ravoq va qanoslarida guldor sopollardan foydalanilgan. Xonaqoh (12,7 S12,7 m) tashqi poygumbazida sirkor moviy, ko'k va oq rangli bezaklar orasiga Qur'on oyatlari bitilgan. Ichki qismidagi 8 ta mayda ravoqchalar romb shaklidagi qalqonsimon bag'allar bilan o'zaro birlashtirilgan va ravoq shaklidagi 16 tayanchiqqa tayantirilgan. G'ishtin devor burchaklarida 4 ta aylanma zina orqali ayvon tomiga chiqilgan. Ayvonning yon taxmonlariga keng ravoq orqali o'tilgan. Hozir ular berkitib qo'yilgan. Ko'k gumbaz masjidi 1970-yillarda hamda *Amir Temurning* 660 yilligi munosabati bilan (1995-1996) qayta ta'mirlangan.

KO'KSAROY — Samarqand arkidagi *Temurning* ikkita qarorgohidan biri. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun u shunday nom bilan shuhrat topadi. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga o'tqizish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqizadigan toshdan taxt kursi — Ko'ktosh qo'yilgan edi. Bulardan tashqari, arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar zarb qilinadigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi.

KO'RAGON, KURAGON, GURGON (mo'g'ulcha — kuyov) — *Chingizxon* xonadoniga mansub malikalarga uylangan shaxslarga berilgan unvon. Tarixiy manbalarga qaraganda, *Chingizxonning* otasi *Yasugay* bahodir o'g'liga sovchi bo'lib *Daychechenning* huzuriga borganda, u «*Mayli qizimni beray, sen esa o'g'lingni «kuyov» (gurgun-kurgun) qilib tashlab o'zing ketaber*», deydi. *Yasugay* bahodir 9 yoshli o'g'li *Chingiz — Temuchinni Daychechen* xonadonida «kuyov» qilib qoldirgan. *Chingizxon* va uning avlodlari qizlariga uylangan qator shaxslar ko'ragon unvonini olganligi bilan faxrlanib yurganlar. Ko'ragon Movarounnahrda mo'g'ullar istilosidan so'ng iste'molda bo'lgan. *Amir Temur* va Temuriylar davrida bu unvon kishi ismiga qo'shib aytilgan. Masalan, *Amir Temur Ko'ragon, Ulug'bek Ko'ragon, Mironshoh Ko'ragon* va boshqalar. Shuningdek, temuriylar zarb etgan tangalarda ham «Ko'ragon» unvoni bitilgan. Ko'ragon unvoniga ega amirning boshqa amirlarga qaraganda imtiyozlari katta bo'lgan.

LAVH (arabcha — taxta) — 1) maktabxonalarda talabalar savod chiqarish uchun ishlatgan yozuv taxtasi. Odatda, lavh taxtadan ishlangan. Samarqandda Bibixonim masjidining hovlisida, Toshkentdagi Temuriylar davri tarixi

davlat muzeyida marmardan ishlangan katta lavh bor. Lavh ishlash an'analari o'zbek xalq amaliy san'atining yog'och o'ymakorligida saqlanib qolgan.

MANGLAY — ilg'or, avangard qism.

MANJANIQ — toshotar harbiy qurilma. Eshilgan pay, tola yoki junning egiluvchanlik kuchi ostida harakatga keltirilgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda katapulta nomi bilan yuritilgan. Asosan, qal'a va qo'rg'onlarni qamal qilishda qo'llanilgan. Manjaniq yordamida qamaldagilarga qarata tosh yadrolar irg'itilgan. Tosh topilmagan kezlarda turli daraxtlardan tayyorlangan g'ola va kundalardan foydalanilgan. Xususan, mo'g'ul bosqinchilari Urganchni 7 oy davomida qamal qilish asnosida tevarak-atrofdan tosh topmay, tutning kundalarini kesib, manjaniqqa solib shaharga otganlar. Manjaniqdan otilgan tosh, kunda, g'olalar bir necha yuzmetrga borib tushgan. Manjaniq qal'a, qo'rg'on devorlarini buzish, raxna ochish yoki binolarni yakson qilish, shuningdek, qamaldagilarga qiron keltirish uchun ham mo'ljallangan. *Amir Temur* armiyasida ham manjaniq mavjud bo'lgan. Tikrit, Mordin kabi mustahkam qal'alarni egallashda manjaniq qo'l kelgan. O'rta Osiyoda XV asrdan e'tiboran o't sochish quroli — to'p, zambarakning qator turlari qurollanishidan muhim o'rin egallashi sababli manjaniqdan asta-sekin voz kechilgan. Toshotar qurilmaning manjaniqqa nisbatan kichik turi arroda deb nomlangan.

MARKAZLASHGAN DAVLAT — mamlakatning barcha hududida yagona hukmdor hokimiyati o'rnatilgan davlat.

MINGBOSHI — harbiy ma'muriy mansab; ming kishidan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni. Turk xoqonligi, qoraxoniylar, temuriylar armiyasida mingbegi. Mingboshi tug', karnay, soyabon va chodirga ega bo'lgan. Dubulg'a, zirh, sovut, nayza, qilich, sadoq va o'q-yoy bilan ta'minlangan, o'nboshi, yuzboshilar mingboshiga bo'ysungan. Mingboshining noibi — o'rinbosari bo'lgan. *Amir Temur* qo'shinida yuzta mingboshi harbiy qismlarga sardorlik qilgan, jangda zafar quchgan. Mingboshi, viloyat voliysi mansabi bilan taqdirlangan.

MIRIHAZORO — minglik harbiy bo'linmaning amiri.

MOLIOMON — o'lpon.

MUHASSIL — soliq undiruvchi.

OQSAROY — Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (1380-1404). *Amir Temur* qurdirgan. Shaharning shimoli-sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Bir zamonlar muhtasham, hashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Bu salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash — old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 metr, balandligi 40 metr, umumiy balandligi 50 metrdan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. Oqsaroyning avvalgi holati to'g'risida faqat yozma manbalarga qarab fikr yuritish mumkin. Yozma manbalarga, Oqsaroy turar joy va jamoat binosi sifatida qurilib, xonalar hovli atrofida joylashgan. Bobur ma'lumotlariga ko'ra, hovli

o'rtasida hovuz, to'rida gumbazli katta xona — devonxona, yonlarida maslahatchilar uchun kichik xona, hashamatli ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram va amirning xonasi joylashgan. Devonxona peshtoqida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining 3 halqa shaklidagi nishoni bo'lgan. Gumbaz ichi va yonlariga, burchaklardagi minoralarga koshin g'ishtlardan qalqon shaklidagi girih naqshlar ishlangan. Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Hovuzga suv Taxtaqoracha dovonidan qo'rg'oshin quvurlar orqali oqib kelib, undan sharshara hosil qilib pastga tushirilgan. 1707-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon Oqsaroy peshtoqi ostida toj kiyib, taxtga o'tirganligi peshtoqning o'sha paytda butun ekanligidan darak beradi. 1973-1975-yillarda arxeologik tadqiqotlar, 1994-1996-yillarda konservatsiya ishlari olib borilgan.

PARCHIM — bayroq yoki tug' uchiga bog'lanadigan shoda, qo'tos dumi, ipak shoda.

PARCHIN — sirlangan rang-barang g'isht parchalarining qadamalari.

PIR — oliy rahnoma.

QIPCHOQ — Amir Temur bo'linma boshliqlarini saylab olgan o'n ikkita qabilalar orasida shu qabila ham mavjud edi.

QUBBATUL ILM VA ADAB — Sohibqiron Keshga alohida e'tibor berib, uni O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirishga harakat qilgani uchun bu shahar shunday unvonga ega bo'lgan.

QUNDUZCHA JANGI (1391.18.6) — Amir Temur qo'shinlari bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish qo'shini o'rtasida hoziorgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida, Volga daryosining sharqiy sohilida joylashgan Qunduzcha (hoz. Kondurcha) mavzeida sodir bo'lgan jang; o'rta asrlardagi eng yirik janglardan biri. Sohibqironning Eron, Kavkazortigi mavqe ortib borayotganini g'arazgo'ylik bilan kuzatayotgan To'xtamish Amir Temurga qarshi Misr bilan ittifoq tuzishni rejalashtirgan. U Sohibqironning Erondaligidan foydalanib, hatto Movarounnahrnga ham bosqinlar uyushtiradi. Amir Temur To'xtamishxonning g'animlik harakatlariga chek qo'yish maqsadida 1391 yil unga qarshi yurishga jizm etadi va umumiy safarbarlik e'lon qiladi. 200 ming kishilik qo'shin O'tror tomon yo'l oladi. Qozog'istondagi Ulug'tog' qoyalarida Sohibqironning bu yurish haqida yozib qoldirgan xotira yozuvi saqlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, To'xtamishxon qo'shini Amir Temurnikidan ancha ko'p bo'lgan. Qunduzcha jangida har ikki tomondan 500 mingga yaqin jangchi ishtirok etgan. Amir Temur qo'shinni an'anaviy tartib — markaz, so'l va o'ng qanot holidan o'zgacha tartibda tuzishga ahd qiladi va jangovar tartibning yangi usulini qo'llaydi, qo'shin 7 qo'lga taqsim etiladi. Markazdagi qo'lga amalda amir Sulaymonshoh qo'mondon bo'lgan. Uning ortidan Muhammad Sulton bosh bo'lgan qo'l joylashgan, bu qo'l ketidan Sohibqiron qo'l ostida bo'lgan 20 qo'shin (bo'luk) zaxiradagi qism sifatida borgan. Barong'arga Mironshoh mirzo, qunbul (qanot)ga amir Xoji Sayfuddin barlos, juvong'arga Umarshayx mirzo, unga qunbul sifatida amir Berdibek, Saribug'o qo'llari joylashgan. O'g'ruq va zaxira qismlarga qo'mondonlikni

Amir Temur o'z zimmasiga olgan. Uning maqomi markaz ortida bo'lib, kim yordamga muhtoj bo'lsa o'shanga ko'mak yuborishga tayyor turgan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha jang taqdirini ushbu harbiy qism hal etgan. To'xtamishxon qo'shinini 5 qo'lga taqsimlab, ularga Jo'ji xonadoniga mansub shahzodalar hamda eng oliy darajadagi amirlarni qo'mondon qilib tayinlaydi. Ikki tomon qo'shini bir-birini ko'ra oladigan masofaga kelganda Amir Temur dushman ko'z o'ngida o'tov, chodirlar o'rnatishni, gilamlar yozishni buyuradi. Bunday namoyishkorona sovuqqonlik dushman ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, uni esankiratib qo'yishi lozim edi. Jang kuni erta tongda (18 iyun) Sohibqiron qo'shini ko'z o'ngida otdan tushib Allohdan madad tilab ikki rakat namoz o'qigan. Bayroq va tug'larni ko'targan qo'shin nog'ora chalib, suron aytib, ulkan jang karnaylari sadolari ostida jangni boshlaydilar. Umarshayx qo'mondonligi ostidagi so'l qanot To'xtamish tomonidan berilgan zarba natijasida mushkul ahvolda qoladi, raqib qo'shini so'l qanotni yorib o'tib orqa tomondan hujum uyushtirishga erishadi. Amir Temur bu paytda qipchoqlarning asosiy qismini ta'qib etmoqda edi, lekin u zaxiradagi qism bilan o'zining so'l qanotiga yordamga keladi va dushman ulotqirib tashlanadi. Shundan so'ng To'xtamish asosiy zarbani Shayx Temur Sulduz rahbarligidagi qismlarga qaratadi va uning favjini yakson etib o'rtni yorib chiqadi, lekin qarshisidan Umarshayx mirzo qo'shini chiqib muhorabaga kirishadi. Shu tariqa Hoji Sayfuddin barlos boshchiligidagi qanot qo'shinlari g'animning juvang'ariga hujum qilishi boshlanadi, bu hujum dushman juvang'ari qarshiligini sindiradi. To'xtamish Hoji Sayfuddiniga qarshi kuch tashlaydi, biroq ularga qarshi amir Jahonshoh qismi tashlanadi. Shayx Temur Sulduz qatorlarining yorib o'tilishi ham to'xtatilgan. Ibn Arabshohning yozishicha, To'xtamish qo'shinining bir qismi ikki lashkarboshi o'rtasida chiqqan nizo tufayli jang maydonidan qochgan. Qunduzcha jangi Sohibqiron foydasiga hal bo'lgan. To'xtamish qochgan, uning ketidan amirlar, sarkardalar va qolgan-qutgan qo'shini ham ergashgan. Sohibqiron nihoyat otdan tushib Allohga hamdu sano aytgan. Amir Temur har o'n otlidan yettitasini dushmanni ta'qib etishga jo'natgan. Volga daryosigacha ta'qib etilgan Oltin O'rda jangchilari o'ldirilgan yoxud asir olingan. Bir oyga yaqin dam olgan Sohibqiron katta o'lja bilan Movarounnahrnga qaytgan.

QO'L — qism, Amir Temur qo'shini 7 qo'llardan iborat bo'lgan. Ulardan uchtasi: markaz, burong'or, juvong'orlar mustaqil, to'rttasi: ikki manglay va ikki kanbullar tobe qismlardir.

RADANDOZ — o't va tosh irg'itgich; harbiy qurol.

SADOQ — o'qdon.

SADOQXONA — tir.

SADRIA'ZAM — vaqf mulklari boshqaruvchisi.

SARBADORLAR — mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni qatnashchilari. Qo'zg'olonga keng xalq ommasi — ziroatchi, hunarmand, ziyoli, mayda yer egalari, kambag'allar ishtirok etishgan. 1337-yil Sabzavor vaziri (hokimi) ning jiyani Boshtin qishlog'iga kelib, aholidan sharob va parichehrlar talab qildi. Shu kechasi uni qo'lga olib o'ldirdilar. Tong otgach, Boshtin qishlog'i chekkasida dor tikdilar. Marhumning salla va taqya (do'ppi) sini dorga

ilib, toshbo‘ron qildilar, o‘qqa tutdilar. Bu zolimlarning boshi dorda bo‘lg‘usi, deganlari edi. Qasoskorlar o‘zlarini sarbadorlar deb atadilar; shu yerda 700 kishi qasamyod qildi. Xon yuborgan qo‘shinlari yengib sarbadorlar Sabzavorni egallab, bu yerda o‘z davlatlarini tuzdilar. Sarbadorlar davlati 50 yilcha hukm surdi. Sarbadorlar hukmdorlari: *Abdurazzoq* (1337-1338), *Xoja Mas‘ud ibn Fazlulloh Boshkiniy* (1338-1344), *Kolu Isfandiyor* (1346-1347), *Xoja Shamsiddin ibn Fazlulloh* (1347-1349), *Xoja Ali Shamsiddin Chashmiy* (1349-1355), *Amir Yahyo Kurrobiy* (1355-1358), *Xoja Zahiriddin Kurrobiy* (1358-1359), *Pahlavon Haydar qassob* (1359-1360), *Amirzoda Lutfulloh ibn Xoja Mas‘ud* (1360-1361), *Pahlavon Hasan Domg‘oniy* (1361-1365), *Xoja Najmiddin Ali Muayyad* (1365-1386). Samarqandda (1365-1366) va Kermonda (1373-1374) sarbadorlar qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tgan.

SARISHUMOR — jonbosh solig‘i.

SAVQULJAYSH — strategiya.

SIXG‘ALTAK — charxli ko‘tarma.

SOHIBQIRON (arabcha — saodatli, zafarli, g‘olib)

— 1) ilmi nujum (astrologiya) va afsonalarda — Zuhra va Mushtariy yoki Zuhra va Quyosh sayyoralarining birlashishi, ya‘ni ular ekliptikaning ma‘lum bir darajasida to‘qnash kelishi vaqti (qiron)da tug‘ilgan bola, bunday bolaning baxtli, ulug‘ martabali bo‘lishi oldindan bashorat qilingan; 2) Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron va Turonzaminda qudratli hukmdor, jahongir unvoni 3) *Amir Temurning* sharafli unvoni.

SULDUZ, SULDUS — turklashgan mo‘g‘ul qabilalaridan biri. Sulduzlarning katta bir guruhi Chingizxon qo‘shini tarkibida Dashti Qipchoq va qisman hozirgi O‘zbekiston hududi hamda Afg‘onistonning shimoliga kelib joylashgan, keyinchalik Ozarbayjon, Eronga ham o‘tishgan. Toyjuvutlar qabilasi bilan urushganda katta yordam berganlari tufayli Chingizxon saroyidagi eng nufuzli amirlar suduzlardan bo‘lgan. Ular mo‘g‘ullar davlati tarkibidagi Movarounnahr, mo‘g‘uliston, Xitoy va Eronda xizmat qilishgan. Qo‘ng‘irotlar amiri *Qozog‘on* (1346-1358-yillar) vafotidan so‘ng amir *Bayon Sulduz* bir necha yil Samarqandda hokimlik qilgan, Balx viloyatining bir qismiga sulduzlarning qabila boshlig‘i *O‘ljoy bug‘o sulduz* rahbarlik qilgan. Sulduzlar Amir Temur va temuriylar davrida ham nufuzga ega bo‘lishgan.

SUYURG‘OL (mo‘g‘ulcha — in‘om, sovg‘a) — biror hukmdor (xon, sulton, shoh) tomonidan saltanat oldida alohida xizmat ko‘rsatgan arkoni davlat yoki sarkardalarga berilgan mol-mulk, yer-suv. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Yaqin Sharq mamlakatlarida rasm bo‘lgan. Suyurg‘olga beriladigan yer nasldan naslga meros bo‘lib o‘tgan. Suyurg‘ol egasi davlatga to‘lanadigan soliqlardan ozod etilib, olgan daromadi va o‘ziga qaram aholidan ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo‘lgan. *Amir Temur* va Temuriylar saltanatida suyurg‘ol keng qo‘llanilgan. Suyurg‘ol yerlari hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega bo‘lgan shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo‘lgan. Odatda shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg‘ol shaklida in‘om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar ko‘pincha hukmron sulola namoyandalari yoki

yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Bunday suyurg‘ol yer va mulkdor ko‘pincha avloddan-avlodga meros bo‘lib qolardi. Suyurg‘ol egasiga o‘z suyurg‘oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to‘lovlarni to‘plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. *Abdurazzoq Samarqandiyning* yozishicha, *Shohruh* davrida Xorazm — Shohmalik, Farg‘ona — *Mirza Ahmad*, Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o‘z ichiga olgan Xuroson — Boysung‘ur, Kobul, G‘azna va Qandahor viloyatlari *Mirzo Qaydubahorning* suyurg‘oli edi. Suyurg‘ol yorlig‘iga ega bo‘lgan viloyat hukmdorlari Markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo‘lib, odatda ular deyarli mustaqil edi. Suyurg‘ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba‘zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma‘muriy va adliya jihatdan haq-huquqlarini cheklab qo‘yar edi. Suyurg‘ol egasi markaziy hukumatga bo‘ysunmagan taqdirda suyurg‘ol huquqidan mahrum bo‘lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi. Bo‘ysunmagani uchun *Shoxruh* 1414-yilda *Mirza Iskandarni*, 1415-yilda esa *Mirzo Boyqaroni* suyurg‘oldan mahrum qilgan edi. Sohibqiron zabt etgan mamlakatlarning ba‘zi viloyat va tumanlarini shu yerlarning oldingi egalari, o‘z o‘g‘illari, nevaralari, qarindoshlari, atoqli lashkarboshilar, amir va beklarga suyurg‘ol tarzida bergan va ular «*darbasta suyurg‘ol*» deb yuritilgan. *Amir Temur* o‘zining eng iste‘dodli sarkardalaridan biri amir *Shohmalikka* bir qancha yerlarni suyurg‘ol qilib bergan. *Shohruh* davrida *Shohmalik* Xorazm viloyatiga darbasta suyurg‘ol etib tayinlangan. *Shohmalik* vafotidan keyin Xorazm uning o‘g‘li *Ibrohim Sultonga* topshirilgan. Temuriylar davrida maydoni jihatdan mayda va haq-huquqi jihatidan ancha-muncha cheklangan suyurg‘ol yerlari ham bo‘lgan. Bunday mayday suyurg‘ol yerlari odatda xizmat ko‘rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi askarlarigacha berilgan. Boburning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo‘shinining har biri askariga 80 jarib, ya‘ni 40 tanobdan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlardan ham mutlaqo soliq va to‘lovlar olinmagan.

TABIYAT UL — JAYSH — harbiy taktika.

TABL (arabcha tabl — urma cholg‘u) — ikki tomonli hind nog‘orasi. 1370-yil bahorida Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘ida Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, unga tortiq qilgan oliy hokimiyat ramzi.

TARXON — *Amir Temur* bo‘linma boshliqlarini saylab olgan o‘n ikkita qabilalar orasida shu qabila ham mavjud edi.

TAVOCHI — qo‘shin to‘plovchi.

TEMUR TUZUKLARI — *Amir Temurning* harbiy va siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beruvchi tarixiy asar. «*Tuzuki Temur*» va «*Tuzukoti Temur*» nomlari bilan atalgan. *Amir Temurning* «Tuzuklar» muallifi ekanligini e‘tirof etadigan olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar XVI-XVII asrlarda Hindistonda yozilgan. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda *Amir Temurning* tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi,

siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni *Boyazid I Yildirimga* qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pand-nasihatlari va o'g'itlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarning tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiyarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi. Asar *Amir Temur* davridagi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

TEREK DARYOSI BO'YIDAGI JANG (1395-yil 15-17-aprel) — *Amir Temur* va Dashti Qipchoq hukmdori *To'xtamishxon* qo'shinlari o'rtasida Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo'yida, No'g'ay dashtida sodir bo'lgan jang. *Amir Temur* 250 ming atrofidagi qo'shinini 7 qo'lga bo'lib, janggohga joylashtirgan. Markazda asosiy qo'l, uning oldida bosh hiravul (mang'lay), ortida esa chag'davul (arergard) turgan. Qo'shinning o'ng va so'l qanotlari qunbullar bilan mustahkamlangan. Taktik jihatdan bu harbiy qo'shilmalar mustaqil harakat qilgan va faqat oliy bosh qo'mondonga bo'ysungan. Sohibqiron qo'llayotgan jangovar tartib usulining ustun tomonlarini 1391 yilgi jang paytida payqab olgan *To'xtamishxon* ham o'z armiyasini jang maydonida xuddi raqibdek joylashtirgan. 15-aprel chorshanba kuni qarama-qarshi tomon qo'shinlari (taxm. 450-500 ming) jangovar bayroq va tug'larini ko'tarib, takbir nidosini aytib bir-biriga yuzlanadi. Jang muqaddimasi *Kuncha o'g'lon, Bek Yorliq o'g'lon, Oqtau, Dovud so'fi* va *Udurqu* qo'mondonligidagi *To'xtamishxon* qismlarining Sohibqiron qo'shini juvang'ariga qattiq hujumi bilan boshlangan. So'l qanotning qo'qqisidan berilgan zarba oqibatida og'ir ahvolga tushib qolganligini ko'rgan *Amir Temur* markaziy qo'ldagi 27 sara qismdan ko'mak ajratadi. Yordamga o'z vaqtida yetib kelgan askarlar dushman shiddatini qaytarib, qarshi hujumga o'tadi va g'animni qochishga majbur etadi. Qochayotganlarni ta'qib qilishga berilib ketgan anchagina suvoriylar janggohdan uzoqlashib ketadi. Temuriy jangchilarning yo'l qo'ygan taktik ehtiyotsizligi natijasida vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalangan *To'xtamishxon* o'z askariy saflarini qayta tartibga solib, ta'qibchilarga zo'r beradi va ularni to'zitib yuboradi. Kutilmaganda Sohibqiron qo'l ostida turgan qismlar dushman iskanjasiga tushib, *Amir Temurning* hayoti xavf ostida qoladi. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* tasvirlashicha, Sohibqironga birinchi bo'lib ko'makka yetib kelgan amir *Shayx Nuriddin* rahbarligidagi otlqlar zudlik bilan otdan tushib, yopirilib kelayotgan xon askarlarini yoylardan tinmay otilyotgan o'qlar bilan to'xtatadi. *Muhammad Ozod, Alishoh* va *To'kal* bavurchi kabi beklar

aravalarni bir-biriga bog'lab g'ov yasaydilar. Sohibqiron shu aravalar, ular ustiga qo'yilgan tura (qalqon) va chapar (chetan) panohida bo'ladi. Aylana mudofaada qolgan Sohibqironga *Allohdod, Jaku, Husayn Malik* qavchin boshliq bo'limlar yordamga keladi. Ammo, *To'xtamishxon* qo'shinining hamlasi borgan sari kuchayadi. Asosiy qo'ldan ko'makka tashlangan *Muhammad Sulton Mirzo* hamda *Ustaybek* qo'mondonligidagi qismlarning jangga kirishi, amir *Jahonshoh* va amir *Hoji Sayfuddin* qo'l ostidagi jangchilarning pistirmadan turib Dashti Qipchoq armiyasi so'l qo'lga kuchli zarba berishi vaziyatning ma'lum darajada o'nglanishiga sabab bo'ladi. Jangning ikkinchi kuni yana *To'xtamishxon* qo'shinining hujumi bilan boshlanadi. Xon *Isabiy* va *Baxshi Hoji* qismlaridan iborat juvang'arini muhorabaga tashlaydi. Sohibqironning hirovuli (avan-gard)ni uloqtirishga erishgan bu qo'shin qanoti *Amir Temur* barang'arida jang qilayotgan amir *Hoji Sayfuddin* tumanini qurshab oladi va tarqatib yuboradi. Bir qancha askarlarning to'z'g'ib ketishiga qaramay *Hoji Sayfuddin* qolgan safdoshlari bilan qarshilik ko'rsatishni davom ettiradi. O'z qismdoshlarining matonat bilan kurashayotganini ko'rgan askarlar ortga qaytib, ular qatoriga qo'shiladi. Qiyin ahvolda qolgan bu tumanga *Jahonshoh* bahodir, *Temur Xoja Oqbo'g'a* va *Rustam* mirzolar madadga keladi. Kechgacha davom etgan jang hech bir tomonning ustunligisiz to'xtaydi. Jangning so'nggi kuni tag'in Dashti Qipchoq qo'shinining shiddatli hujumi bilan boshlanadi. *To'xtamishxon* otliq va piyodani safga tizib, markaz va qanotlarni qo'shimcha kuchlar bilan mustahkamlab, tashabbusni o'z qo'lga olish ilinjida jasur va sara askarlarini jangga kiritadi. Ayni vaqtda xonning ishonchli sarkardalaridan biri *Yag'liboy* ham juvang'ar bilan jang-ga tashlanadi. *Amir Temur* ushbu dushman juvang'arining ancha zaiflashib qolganligini bilgan holda asosiy zarbani unga qaratadi. Natijada, Sohibqiron jangchilarning kuchli hujumlariga bardosh berolmay parokanda bo'lgan xon askarlari qochishga tushadi. *Yag'liboy* qismlari *Usmon* bahodir boshchiligidagi barang'ar tomonidan yakson etilib, uloqtirib tashlanadi. *Yag'liboy Usmon* bahodir bilan kechgan yakkama-yakka olishuvda halok bo'ladi. Nihoyat, Sohibqiron butun jang maydoni bo'ylab hal qiluvchi hujumga o'tadi. 3 kun davom etgan shafqatsiz olishuv tufayli tinkasi qurigan Dashti Qipchoq armiyasi qarshilikni bas qiladi va uzil-kesil mag'lubiyatga uchraydi. *To'xtamishxon* janggohni xos qo'riqchilari panohida tashlab qochishga muvaffaq bo'ladi. *Amir Temurning* ushbu dahshatli to'qnashuv vaqtida o'ta tang vaziyatga tushib, undan faqat bor iste'dod, g'ayrat hamda kuchni ishga solib sharaf bilan chiqib ketishi uning *To'xtamishxon*dek qudratli harbiy kuchga ega bo'lgan, salohiyatli sarkardadan ustun kelganligini ko'rsatadi.

TRKASH — kamondan o'q uzadigan nishon tuynugi.

TULKICHI — Amir Temur bo'linma boshliqlarini saylab olgan o'n ikkita qabilalar orasida shu qabila ham mavjud edi.

TUMAN — o'n minglik harbiy qism.

TUMAN OG'O — o'n minglik askariy qism amiri, qo'mondon.

TUMANBOSHI — 10 ming jangchidan iborat harbiy

qism, diviziya qo'mondoni. Turkiy manbalarda no'yon, tuman oqosi, tumanbegi kabi ma'nodoshlari ham qayd etiladi. *Chingizxon* qo'shinida mo'g'ul zodagonlarining ko'zga ko'ringan vakillari — no'yonlar tumanboshi vazifasini o'tagan. Ular ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va hakoza hayotning muhim masalalari hal qilinadigan qurultoylarda qatnashish va o'z fikrini ochiq-oydin ifoda etish huquqiga ega bo'lgan. Tumanboshi, odatga ko'ra, yo'lbars tasviri tushirilgan oltin payza bog'lab yurgan va bu lavozim nasldan naslga meros sifatida o'tgan. *Amir Temur* qo'shinida tumanlarga boshchilik qilgan shaxslarga alohida talablar qo'yilgan. G'anim kuchlarini tor-mor qilgan yoki uning hududlarini zabt etgan tumanboshi tug' va dovul bilan taqdirlangan hamda «bahodir» faxriy unvoni bilan sarafroz etilgan. Sohibqiron dan biror chegara viloyatni boshqarish uchun suygur'ol tarzida qabul qilgan. Tumanboshi mashvaratu kengashlarda qatnashish huquqiga ham ega bo'lgan. Tumanboshiga mingbegi, yuzbegi va o'nbegilar bevosita bo'ysungan. Tumanboshi lavozimi, asosan, adadi bir necha 10 yoki 100 mingdan iborat qo'shinlar tarkibida ko'proq ko'zga tashlanadi. Bobur qo'shinida tumanboshi lavozimi mavjud bo'lmagan, chunki qo'shinning soni 12 mingdan ortiq emas edi.

TO'R — yer osti harbiy istehkomi.

TO'RTINCHI VAZIR — Amir Temur davrida saroy xarajatlarini boshqargan.

TUG'OY — Amir Temur bo'linma boshliqlarini saylab olgan o'n ikkita qabilalar orasida shu qabila ham mavjud edi.

TUG'RO — davlat nishonasi, ramzi.

UCH YILLIK URUSH (1386-1388) — *Amir Temurning* olib borgan urushlaridan biri. Uch yillik harbiy yurushlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko'li atrofidagi) yerlar egallandi.

UCHUNCHI VAZIR — *Amir Temur* davrida harbiylar, ularning lavozim-u mansablarga tayinlanishi va meros ishlariga ma'sul bo'lgan.

ULTON — charm oshlangan teri.

VISOQBOSHI — to'rt nafarlik askariy guruh boshlig'i; chodir boshlig'i.

XABARGIRI (xabarchilar) — ayg'oqchi-kuzatuvchilar bo'linmasi.

XARAJU MARAJ — boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, beboshlik.

XAZARA — minglik askariy bo'linma.

XORO — tovlanuvchi, yaltiroq ipak mato.

XO'SHUN — yuz nafarlik harbiy bo'linmasi.

XO'SHUNBOSHI — yuzlik bo'linma zobiti; komandir.

YASOL — Sohibqiron qo'shinining an'anaviy jangovar tartibi. Anqara jangida yasol janggohning qulay qismiga joylashtirilgan.

YASOVUL — hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi soqchi.

YENICHER — turklarning piyoda askari.

YETTI YILLIK URUSH (1399-1404-yillar) — *Amir Temurning* olib borgan urushlaridan biri. Yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Dimishq (Damashq) kabi

yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o'lkasi bilan Bag'dod, shuningdek, Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi.

YILDIRIM — chaqmoq, yashin.

O'NBOSHI — harbiy unvon, 10 kishidan iborat eng kichik harbiy bo'linma boshlig'i. Turkiy xalqlar tuzgan eng qadimgi davlatlar (mas., Hunlar va Turk xoqonligi)da ilk marta joriy qilingan. O'nboshi bevosita yuzboshiga bo'ysungan. *Amir Temur* davrida o'nboshi oddiy askarga nisbatan 10 barobar ortiq maosh olgan (bu paytda oddiy askarning oyli mingan otining narxiga teng bo'lgan). O'rta Osiyo xonliklari davrida ham o'nboshining harbiy mavqe o'zgarmagan. So'nggi o'rta asrlarda o'nboshi Rossiyada «desyatnik» deb atalgan. XX asrda sovet armiyasi safida 10 kishidan iborat harbiy bo'linma bo'lib, uni bo'lim komandiri (efreytor yoxud kichik serjant) boshqargan.

O'RDA (turkiy) — 1) turkiy va mo'g'ul xalqlarida harbiy-ma'muriy tashkilot, manzilgoh. O'rta asrlarda oliy hukmdorlar qaorgohi, poytaxti. Yirik turk va mo'g'ul feodal davlatlari hamda ko'chmanchi qabilalar ittifoqlari (masalan, Oltin O'rda, No'g'ay o'rdasi) uning nomi shundan kelib chiqqan; 2) Podshoh, xon yoki biror oliy martabali shaxsning harami.

O'RDUGOH — qo'shin lageri to'xtaydigan qo'noq; podsho qarorgohi.

G'UL — turk-mo'g'ul qo'shinining markazida va flanglar oldida turuvchi maxsus muntazam qo'shin. Markazda turuvchi g'ul katta g'ul, flanglardagisi esa kichik g'ul atalgan. Harbiy yurish vaqtida hirovul oldiga ham g'ul qo'yilgan. Katta g'ulga xonning o'zi yoki ishbilarmon amirlardan biri qo'mondonlik qilgan.

SHIKOR — ov.

SHOHIZINDA ANSAMBLI — Samarqanddagi arxitektura yodgorligi. Afrosiyob tepaligi janubida, qabristondagi maqbaralardan iborat. Ularning eng qadimiysi Qusam ibn Abbos maqbarasi (Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Abbosning o'g'li, Samarqandga 676 yilda islom dinini targ'ib qilish uchun arab istilochilari bilan birga kelib, shu yerda o'ldirilgan va dafn etilgan) bo'lib, uning atrofida mo'tabar kishilar dafn qilingan, Tabg'och Bug'ro madrasasi qad ko'targan. XIII asrda mo'g'ullar istilosi davrida Afrosiyob vayron bo'lgach, xalq bu yerni tark etgan. Amir Temur va Ulug'bek davrida bu yerda qurilish ishlariga ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishmalardan aniqlanishicha, Afrosiyobning qadimiy qal'a devori yon bag'rida qilingan, zina XVIII asrda vayron bo'lgan, keyinchalik 40 pog'onali g'ishtin yangi zina va chortoq qurilgan, bular hozirgacha saqlangan. Shohi Zinda ansamblidagi inshootlarning ko'pchiligi XIV asrga taalluqli. Ansamblning bosh darvozasi janubda ko'chaga qarab qurilgan. Darvozaxonani Ulug'bek hijriy 838 (milodiy 1434-1435) yilda o'g'li Abdulazizga atab qurdirgan. Katta zina oldida ikki gumbazli maqbara Temur xonadoniga mansub O'lja oyim qabri ustiga qurilgan. Zinadan ikkinchi chortoq va dahlsizga chiqiladi. Bu yerda 1375-1476 yillarda Tug'li Tekin maqbarasi qurilgan. Ikkinchi maqbara Amir Temurning singlisi Shirinbika oqa maqbarasidir. Uning qarshisida Amir Temurning opasi Turkan oqa maqbarasi

mavjud. Nasaf (Qarshi) lik usta Ali qurgan maqbara, shuningdek, Amir Temurning xotini Tuman oqa qurdirgan bir guruh binolar (masjid-xonaqoh, maqbara, chortoq) yaqinida usta Muhammad Shayx ibn Hojibek Tabriziy tomonidan 1405-1406-yillarda qurilgan Tuman oqa maqbarasi bor. 1398-1399-yillarda usta Yusuf Sheroziy ishlagan ikki tabaqali qayrag'och eshikdan XVI asrda qurilgan Jome masjidga kiriladi. Samarqandda yagona va yaxshi saqlangan, XI-XII asrlarda qurilgan minora ham diqqatga sazovor. Minoraning ichida mezanaga olib chiqadigan zina bor. XI asrning oxirlarida qurilgan Qusam ibn Abbas maqbarasi ikki bino: go'rxona va masjid (ziyoratxona) dan iborat. Umuman, bir necha maqbara va masjidlardan tashkil topgan Shohizinda ansambli XIV-XV asrlardagi me'morlik namunasidir. Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshoot xalq san'atining noyob durdonasi sifatida davlat muhofazasiga olingan.

CHORSU (forscha chor-to'rt, suq-bozor; chorrahadagi bozor joy) — tarixiy shaharlarning asosiy chorrahasidagi odatda usti yopiq bo'lgan savdo-sotiq joyi; aksari shaharning o'rtasida qurilib, markaziy mujassamotiga ega bo'lgan.

TARIXIY-GEOGRAFIKNOMLAR

ACHCHIQ — 1389-yilda *Amir Temur To'xtamish* qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan Dizak (Jizzax) viloyatidagi mavze.

BANOKAT, SHARQIYA, SHOHRUXIYA — Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi karvon yo'li yoqasida joylashgan qadimgi shahar xarobasi (I-XVIII asrlar). Tadqiqotlarga ko'ra, dastlab (I asr) uning mudofaa devori bo'lami, atrofidagi daryo, shuningdek jarliklar tabiiy mudofaa vositasi rolini o'tagan, ilk o'rta asr (V-VI asr)da burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Banokat hududi 22 ga bo'linib, arki taxminan 2 ga ni egallagan. XII-XIII asr boshlarida kengaygan (140 ga); u ark, 3 shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Qazishmalar natijasida turli sopol buyumlar (naqshinkor ko'z, kosa, sirlangan lagan va boshqalar), tanga pul va taqinchoqlar topilgan. Banokatda zargarlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa rivojlangan, mis, kumush tangalar zarb etilgan. Mo'g'ullar istilosi davrida (1220) Banokat vayron bo'lgan. 1392-yilda *Amir Temur* Banokatni qayta tiklab, o'g'li *Shohrux* sharafiga Shohruxiya deb atalgan. XVIII asr boshlarida o'zaro urushlar natijasida vayron bo'lgan. Banokat xarobasining bir qismini Sirdaryo yuvib ketgan.

BAYLAKON — Araks va Kura daryolari birlashadigan yerga yaqin bo'lgan shahar (Arronda). 1221 yilda mo'g'ullar istilosi davrida vayron qilingan va 1403-yilda Amir Temur tomonidan qayta tiklangan. Baylakonda Amir Temur 1403-yil ulamolarning majlisini chaqirib, Temur nutqida mamlakat hamda fuqarolarni boshqarishni, turli xil inshootlar va jamoat binolarini qurishda unga olimlar va fuzalolar o'z maslahatlari bilan ko'maklashishlarini so'ragan.

BIYO QISHLOG'I — Termiz yaqinidagi qishloq. Bu yerda 1370-yilning bahorida Amir Temur kuchli raqib, sobiq ittifoqdoshi, Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga

chiqqanida, aslzodalardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora-tabl bilan yalov-bayroq tortiq qilgan.

DIZAK — Jizzax viloyatining o'rta asrlardagi nomi.

HOJITARXON (Astraxon) — Qadimgi shaharlardan biri. Shahar mo'g'ullar hukmronligi yillarida (XIII asr) Itilning chap sohilida joylashgan Ashtarxon (Hoji Tarxon) o'rnida qurilgan. 1395-yil Amir Temur tomonidan bo'ysundiriladi. 1459-yildan Astraxon Astraxon xonligining poytaxti. 1556-yilda shaharni Astraxon xonligi bilan birga Rossiya bosib olgan. Astraxon XVII-XVIII asrlarda hukumatga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarning markazi bo'lgan. 1717-yildan guberniya shahri. 1943-yildan viloyat markazi.

IZMIR — Turkiyaning g'arbidagi shahar, yirik port. Izmir elining ma'muriy markazi. Egay dengizining Izmir qo'ltig'i sohilida. Izmir mil.avv. ikkinchi ming yillikda bunyod etilgan va Amirna (yunoncha Smirne) deb atalgan. XV asrdan Usmonli turklar saltanati tarkibida. XVIII asr oxiridan Izmir Turkiyaning iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri. 1919-yil 15 mayda shaharni Gretsiya askarlari okkupatsiya qildi; 1922-yil 9-sentabrda ozod qilindi. ikkinchi jahon urushidan keyin izmir porti harbiy dengiz bazasiga aylantirildi.

JOM — 1381-yil *Amir Temur* jangsiz egallagan shahar.

JURJON, JURJONIYA (forscha Go'rgon) — o'rta asrlardagi viloyat va shahar. Kaspiy dengizining janubi-sharqida, Eronning shimolida joylashgan. Arablar Jurjon viloyatini Xurosonga nisbatan kech zabt etganlar (717). Jurjon shahri arablar davrida bunyod etilgan. X-XI asrlarda Jurjon shahri mahalliy ziyoriylar sulolasi poytaxti bo'lgan. Jurjonning siyosiy mavqe pasaygan bo'lsa ham, arab geograflarining ta'kidlashlariga qaraganda, Kaspiy bo'yi viloyatlarida eng katta shahar hisoblangan. Jurjon viloyati hosildorligi, turli xildagi madaniy o'simliklari, o'zining ipagi bilan shuhrat qozongan. Jurjon shahridan o'tgan daryo uni 2 qismga: Shahriston va Bakrobodga ajratgan, ular o'zaro ko'prik bilan bog'langan. Shahriston o'ng qirg'oqda, Bakrobod so'l qirg'oqda joylashgan. X asrdayoq shahar Somoniylar va Buvahiylar o'rtasidagi urushlar natijasida tanazzulga uchragan, ziyoriylar kim g'olib bo'lsa o'sha tomonga o'tib turishgan. Ziyoriylar davrida qurilgan Qobus ibn Vashmgir maqbarasi (1007-1007) hozirgacha saqlanib qolgan. Jurjonning dengiz porti bo'lib Go'rgon daryosi quyi oqimida, hozirgi Kumushtepa qishlog'i o'rnida joylashgan Abeskun gavani xizmat qilgan. Uning yonida sanoat shahri sifatida Astrobod ham qayd etib o'tilgan. Amir Temur va temuriylar davrida Astrobod shahri yuksalib, viloyat ham uning nomi bilan mashhur bo'lgan. O'rta asrlarda ilm-fan taraqqiy etgan Jurjondan ko'plab olimu fuzalolar yetishib chiqqan.

KASTILIYA VA LEON — Ispaniyadagi davlat.

KESH (arabcha manbalarida Kashsh, Kass, Kiss) — tarixiy shahar va viloyat. Hozirgi Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismini egallagan. Dastlab Kesh Kitob o'rnida bo'lgan, keyin IX-X asrlarda Shahrisabz hududiga ko'chgan. Kesh nomining xitoycha talaffuzi birinchi marta VII asrga oid xitoy yozma manbalarida Susha shaklida uchraydi. Uning sug'd tilidagi nomi esa VII asr oxiri va VIII asr boshlarida hukmronlik qilgan Kesh hokimi Axurpat

tangalarida hamda VIII asr o'rtalarida Keshni idora qilgan hokim Ixridning dastlabki arabcha fals (tanga) larida ilk bor zikr etilgan. "Kesh" atamasining kelib chiqishi Qashqa-Qashqrud nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqa bir fikrga ko'ra (A. Muhammadjonov), "Kesh" toponimining ma'nosi ilk bor — uy, qishloq, shahar, poytaxt, viloyat, el-yurt, diyor, hatto "Kishvar" shaklida esa mamlakat va Vatan kabi ma'nolarni anglatgan. Xitoy yozma manbalarida qayd etilishicha, hokim *Digja* (Dichje) (VI asr oxiri — VII asr boshlari) Keshga asos solgan bo'lib, o'sha vaqtda shahar aylanasi 1 km ga yetgan. Arab tarixchisi *Yaqubiyning* yozishicha, Kesh milodiy VII asr o'rtalarida yuksalib, Sug'dning bosh shahriga aylangan. Kesh bu davrda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat yuksak rivojlangan shaharga aylanib ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Ichki shahar mudofaa devor va 4 darvozaga ega edi. VI asrda arkning g'arbiy qismida shahar hokimi Digja tomonidan yangi qarorgohga asos solingan. VII asr oxiri — VIII asrning birinchi yarmida Keshni arablar bir necha bor fath etgan. 751-yilda Kesh hukmdori Ixrid Xuroson noibi *Abu Muslim* buyrug'i bilan qatl etilgan bo'lib, at-Tabariyning guvohlik berishicha, arablar Keshda katta o'ljani qo'lga kiritganlar. 775-776 yillarda Kesh viloyati *Muqanna* qo'zg'olonining asosiy markazlaridan biri bo'lgan. Somoniylar davrida Kesh hududi eni va bo'yiga 1/3 farsax (2 km ga yaqin) maydonni tashkil etgan. Bu vaqtda aholi Keshning ko'handiz va madinasini tark etgan bo'lib, hayot faqat uning rabodida davom etayotgandi. Asta-sekin aholi rabodni ham tark etib, hozirgi Shahrisabz o'rnida yangi shaharga asos solgan. Arxeologik tekshiruvlar Kitob o'rnidagi Keshning aynan shu vaqtda barham topganligini isbotladi. Keshning bundan keying tarixi Shahrisabz bilan bog'liq bo'lib, bu nom XIV asrda xalq ongiga uzil-kesil o'rnamashgan. Shunday bo'lsa-da, shaharning qadimgi nomi talay vaqt uning yangi nomi bilan bir qatorda aytilib yurgan. Shaharda ilm-ma'rifat rivoj topishi oqibatida "*Koshiy, Keshiy*" taxallusi bilan mashhur olim-fozillar yetishib chiqqanligi tufayli Kesh shahri "*Qubbat ul-ilm val adab*", ya'ni "*Ilm va ta'lim gumbazi*" degan sifat bilan shuhrat topgan.

KONIGIL — 1366-yil bahorida Amir Temur va Amir Husayn kelib tushgan Samarqand yaqinidagi mavze. Ispaniya elchisi Klavixoni Konigil mavzeida bo'lib o'tgan shohona izdahom (yig'ilish), hayratda qoldirgan. Konigilda 10-15 ming chodir o'rnatilib, izdahomda saroy ahli, vazir-vuzarolardan tashqari, aholining turli tabaqa vakillari qatnashgan.

KURLAR DAVLATI, KARTLAR DAVLATI (1245-1389) — kurtlar sulolasi tomonidan Hirot vohasi va G'ur tog'li viloyati hududida barpo etilgan davlat. Markazi — Hirot shahri. Kurtlar davlati hulokuiylarga qaram bo'lsa-da, mustaqil bo'lishga intilgan. Shu sababli Hirot bir necha marta hulokuiylar qo'shini tomonidan vayron va talon-toroj qilingan. Mo'g'ullar hokimiyati zaiflashgach (14-asr ikkinchi yarmi), kurtlar amalda mustaqillikka erishgan. *Muiz-ad-din* (1331-70) Murg'ob daryosi va Afg'onistonning bir qismigacha bo'lgan sharqiy Xurosonning deyarli hamma qismini bosib olgan. Biroq Kurtlar davlati turli mulklarning nomigagina harbiy-ma'muriy birlashmasi bo'lganligi tufayli

14-asrning 80-yillarida *Amir Temur* tomonidan tobe etilib, tugatilgan.

MOZANDARON — Erondagi tarixiy viloyat. Gilon bilan Xuroson oralig'ida. Hozirgi ma'muriy bo'linish bo'yicha oston (viloyat). IX-XII asr manbalarida Tabariston nomi bilan ma'lum. XIII asrdan esa Mozandaron deb atalgan. Sosoniylar davrida mustaqil hokimlik bo'lgan; keyinchalik arablar, somoniylar, saljuqiylar, mo'g'ullar qo'l ostiga o'tgan, ammo hokimiyatni mahalliy hokimlar boshqargan. Mozandaranni XIV asr oxirida Amir Temur qo'shinlari egallagan. XVI asr boshida Mozandaron yana mahalliy hukmdorlar qo'lga o'tgan. Abbas I davrida Mozandaronda mahalliy sulola tugatilib, Mozandaron Safaviylar davlatiga qo'shilgan. 1920-1921 yillarda Mozandaronda demokratik harakatlar avj olgan. 1946-1951-yillari Mozandaroning ayrim shaharlari (Bobil, Sari) da Angliya — Eron neft kompaniyasiga qarshi ommaviy miting va namoyishlar bo'lib o'tgan.

MUZAFFARIYLAR DAVLATI — XIV asrning 40-50-yillari boshida Eronda mavjud bo'lgan davlat. Hulokuiylar davlatining inqirozidan keyin vujudga kelgan. Unga mo'g'ullarning Yazddagi noibi *Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffar* (Elxoniyarning Yazddagi noibi) asos solgan. U Erondagi mo'g'ul davlatining tanazzulga uchraganidan foydalanib, Kermon (1340), Fors (1353) va Isfahon (1356)ni o'z davlatiga qo'shib olgan. *Amir Temur* 1393-yilda Janabiy Eronni bosib olgandan keyin Muzaffariylar davlati barham topgan. Muzaffariylar davlati hukmdorlari: *Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffar* (1314-58); *Shoh Mahmud* (1358-64); *Jaloliddin Shoh Shujo* (1364-84); *Mansur* (1387-93).

PERA — Konstantinopol atrofidagi mavze. Uning hokimi Tranezud imperatori *Manuil III* va Konstantinopol noibi *Ioann VII Paleolog* vositasida *Temurni* Turkiyaga qarshi yurish boshlashga undaydilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning *Boyazidga* to'lab kelgan bojini bundan buyon *Temurga* to'lashga va'da qiladilar.

QAMOQ QAL'A — Amir Temur Anqara shahrini qamalga olishidan oldin fath etgan qal'a.

QAVSIYA — 1381-yil Amir Temurga jangsiz taslim bo'lgan shahar.

QORA QO'YUNLILAR DAVLATI — o'rta asrlarda Ozarbayjon va G'arbiy Erondagi davlat (1410-68). Bahorlu qabilasi yetakchiligida ko'chmanchi turk-o'g'uz qabilalari birlashmasi tomonidan barpo etilgan. Bu qabilalar dastlab (XIV a.) Van ko'lining sharqiy hududida yashaganlar. *Amir Temur* G'arbiy Osiyoga harbiy yurish qilganida qora qo'yunlilar (qora qo'yililar) qabilalari Sohibqiron va uning ittifoqchisi oq qo'yunlilarga qarshi kurashganlar. Qora qo'yunlilar Usmoniylar va Jaloyiriylar davlatini qo'llab-quvvatlashgan. *Amir Temur* vafotidan so'ng qora qo'yunlilar sardori *Qora Yusuf* jaloyiriylarga *Mironshohni* yengishda yordam bergan (1408), biroq keyinchalik Jaloyiriylar bilan nizolashib, ular qo'shinini Tabriz yaqinida tor-mor keltirgan (1410), Ozarbayjon (Kura daryosining jan.dagi yerlar), Iroq, Armanistonni egallab olgan. *Qora Yusuf* (1410-20) va *Iskandar* (1420-37) davrida Qora qo'yunlar davlati temuriylar, shirvonshohlar va Gruziya bilan urushlar olib borgan. 1435-yil *Shohrux* shirvonshoh

bilan birgalikda Qora qo‘yunlar davlati qo‘shinini tor-mor keltirgan. Temuriylarga tobelikni tan olishga majbur bo‘lgan *Jahonshoh* (1437-67) taxtga o‘tqazilgan. *Shohrux* vafotidan so‘ng (1447) *Jahonshoh* o‘zini mustaqil deb e‘lon qilgan. 1453-57-yillarda qora qo‘yunlilar G‘arbiy Eronni bosib olishgan. 1467-yil *Jahonshoh* qo‘shini oq qo‘yunlilar tomonidan tor-mor keltirilgan, *Jahonshoh* o‘ldirilgan. 1468-yil Qora qo‘yunlar davlati hududi Oq qo‘yunlilar davlati tarkibiga qo‘shib olingan.

QUNDUZCHA — 1391 yilning 18-iyunida Amir Temur To‘xtamish qo‘shiniga qaqshatqich zarba bergan hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig‘ida joylashgan Kondurcha daryosining vodiysi.

RYAZAN — Oka daryosi bo‘yidagi qadimgi shahar. Shahar 1237-yilda mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilingan. XIV asr o‘rtalarida knyazlik markazi Pereyaslav — Ryazanskiy shahriga ko‘chirilgan (bu knyazlik 1521 yilda Moskva davlati tarkibiga qo‘shildi). 1395-yil Amir Temur To‘xtamishxonni quvib Ryazangacha keladi va Yelets shahrini ishg‘ol qiladi. Shahar 1778-yildan Ryazan deb atala boshlagan.

SARAXS — 1381-yil Amir Temurga jangsiz taslim bo‘lgan shahar.

SAROYCHIQ — Oltin O‘rda shaharlaridan biri. Gurev shahridan 60 km masofada, Ural daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan (XIII asrning ikkinchi yarmi). Shaharning nomi qo‘lyozma manbalar hamda XIV asrda shu yerda zarb qilingan tangalar orqali yaxshi ma‘lum. Saroychiq ancha muddat davomida O‘ltin O‘rda va G‘arbiy Yevropa tojirlari uchun Osiyo mamlakatlari bilan tijorat ishlarini yuritishga o‘ziga xos ko‘priq vazifasini o‘tagan. Saroychiq bir tomondan Oltin O‘rda xonligini Saroy Berka bilan, ikkinchi tomondan esa Xorazm markazi Urganch bilan mustahkam bog‘langan. Ushbu yo‘l XIII-XIV asrlarda Sharq va G‘arbn birlashtiruvchi bosh karvon yo‘li hisoblangan. Saroychiqdan Urganchgacha bo‘lgan yo‘lning har 30 km da quduqlar qazilgan, karvon saroylar barpo etilgan. Ushbu savdo-sotiq yo‘li Oltin O‘rdaning bir qancha yirik shaharlari, xususan, Urganch orqali Saroychiqqa yo‘naltirilgan. Bu yerda yo‘l shimol va janub tomonlarga qarab bo‘lingan. Yo‘lning shimoliy qismi Saroy-Berka (Saroy al-jadid), janubiy qismi esa Hojitarxon orqali Mojar hamda Azov bilan bog‘langan. 1395-yil *Amir Temur* tomonidan bo‘ysundiriladi. Manbalarning dalolat berishicha, 1580-yil Yoyiq kazaklari hujumi paytida butunlay vayron qilingan.

SOLISAROY — “Jangi loy” dan so‘ng Amir Husayn qishni o‘tkazgan Amudaryo bo‘yidagi shahar.

SULTONIYA — Eronda hukmronlik qilgan Hulokuiylar davlati poytaxti (XIV a.). Shahar qurilishi elxonlardan sulton *Arg‘un* davrida (1284-91) boshlanib, *O‘ljoytuxon* hukmronligi vaqtida (1304-16) yakunlangan. Sultoniya beshta muhim karvon yo‘llari tutashgan yerda joylashgani tufayli XIV asrda uning ahamiyati kuchaygan. *Amir Temur* Yaqin va O‘rta Sharqqa yurishlari chog‘ida Sultoniya qarorgoh qurgan. *Mirzo Ulug‘bek* shu shaharda tug‘ilgan. Hozir Sultoniya Eronning shim.-g‘arbida Zanjon va Qazvin shaharlari oralig‘ida joylashgan shahar.

TRAPEZUND — Turkiyaning shimoliy-sharqidagi

shahar. Bu shahar Qora dengizning sohilida joylashgan.

TRAPEZUND IMPERIYASI (1204-1461) — Kichik Osiyoning sharqida salibchilar tomonidan asos solingan davlat.

TEREK — Shimoliy Kavkazdagi daryo.

XONBALIQ — o‘rta asrlarda Xitoy poytaxti Pekin.

XO‘JA ILG‘OR QISHLOG‘I (Yakkabog‘) — Amir Temur tavallud topgan qishloq. Shahrisabz yaqinida joylashgan.

O‘RPUZ — 1370-yil Amir Temur Balxga yetmasdan amir va no‘yonlar bilan mashvarat (majlis) o‘tkazgan mavze.

SHAHRISABZ — Qashqadaryo viloyatidagi shahar. Shahrisabz tumanining ma‘muriy markazi (1926-y.). Kitob-Shahrisabz vohasida. Katta O‘zbekiston trakti yoqasida joylashgan. Shahrisabz janubdan Tanxozdaryo, shimoldan Oqsuv daryosi oqib o‘tadi. Shahrisabz O‘zbekistondagi qadimgi shaharlardan biri. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, shaharga mil. avv. birinchi ming yillikning o‘rtalarida asos solingan. Shahrisabz mil. boshlarida va ilk o‘rta asrlarda turli nomlar bilan atalgan. XIII asrdan Shahrisabz nomi ham urf bo‘lgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida shahar tarixi yozma manbalarda deyarli yoritilmagan. 1351-yilda zarb etilgan kumush tangalarda «Shahrisabz» nomi uchraydi. *Sharafuddin Ali Yazdiy* (XV a.) shahar to‘g‘risida: «*Shahrisabz, uni turkiylar Kesh deb ataydilar*» deb yozgan. Shahrisabz yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (hoz. Yakkabog‘ tumani hududi)da Sohobqiron *Amir Temur* tavallud topgan. Shahrisabz o‘sha davrda «*Qubbat-ul-ilm va-l-adab*» nomi bilan yuritilgan. *Xusrav Dehlaviy*, *Bedil*, *Mirzo G‘olib* kabi allomalarning ota-bobolari Shahrisabzda tug‘ilgan. *Amir Temur* va Temuriylar davrida Shahrisabz ulkan saltanatning yirik shahriga, barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan. Oqsaroy va Dor us-siyodat majmuasi qurilgan. Shahar atrofi qal‘a devori bilan o‘rab olingan. Ispaniya elchisi *Klavixo* o‘z kundaligida Shahrisabzda ko‘plab mahobatli binolar va masjidlar borligini va qurilayotganligini ta‘kidlaydi. Keyinroq ham ko‘plab me‘moriy obidalar (Dor ut-tilovat majmuasi, Ko‘k gumbaz masjidi va b.) qurildi. *Hofizi Abru* shaharda ko‘hna devor (bandi qadim) bo‘lganligi, biroq u XV a. boshlarida buzilib ketganligini ham yozadi. O‘sha paytda Shahrisabzning 4 darvozasi: Ark (shim.), Kunchiqar (sharqiy), Kushxona (g‘arbiy), Termiz (jan.) darvozalari bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002-yil 29-martda Shahrisabzning 2700 yillik yubileyini nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu yubiley butun mamlakatimizda va Shahrisabzda keng nishonlandi. Bu tantanalarda YuNESKO vakillari ham qatnashdi. Shahrisabz Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan (2002-yil dekabr). Shaharda ko‘plab anjumanlar va konferensiyalar o‘tkaziladi. Shahrisabz ahlining Temuriylar davri ulkan madaniy va ma‘naviy merosi, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari qilib tarbiyalash va ularni ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib voyaga yetkazish ishiga qo‘shgan alohida xizmatlari e‘tiborga olinib hamda sohobqiron *Amir Temur* tavalludining 660 yilligi munosabati Shahrisabz «Amir Temur ordeni» bilan mukofotlandi (1996-yil oktyabr).

SHIBURG'ON — Shimoliy Afg'onistonning mashhur obod shahar va viloyatlaridan. Balxning g'arb tarafida, Mozori sharif bilan Andxud o'rtasida o'rnashgan shahar. XV-XVI asrlarda unga 70 ga yaqin qishloq qaragan.

SHOM — Suriyaning o'rta asrlardagi nomi.

CHIBUKOBOD MAVZEI — Anqara jangi bo'lib o'tgan mavze.

TARIXIY SANALAR

1336-1405-YILLAR — *Sohibqiron Amir Temur* hayot faoliyati.

1336-YIL 9-APREL — *Amir Temur* Kesh (Shaxrisabz) shahri yaqinida Xo'jailg'or qishlog'i (Yakkabog')da tavllud topdi.

1337-YIL — Xuroson (hozirgi Avfg'oniston va Eronning shimoli)da dastlab sarbadorlar harakatining boshlanishi. Xurosonning G'arbiy qismida sarbadorlar mo'g'ullar hukmronligini tor-mor qilib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahri bo'lib, u qariyb 45 yil hukm suradi.

1346-1358-YILLAR — Movarounnahrning nufuzli amirilaridan biri bo'lgan *Amir Qazog'onning* yashab o'tgan yillari.

1348-1363-YILLAR — mo'g'uliston davlati asoschisi va xoni *Tug'luq Temurning* hukmronlik davri.

135-YIL — *Amir Temur* Amir Joku Barlosning qizi *Turmush og'oga* uylandi.

1355-YIL — *Amir Temur* Qazag'onning nabirasi *Amir Husaynning* singlisi *Uljoy Turkon Og'oz* nikohiga oldi. Balx amiri bilan bog'lagan qarindoshlik aloqalari *Amir Temur* bilan *Amir Xusayn* o'rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va mo'g'ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

1360-1361-YILLAR — mo'g'ul xoni *Tug'luq Temur* Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kirdi. Mo'g'ul xonlarining g'orati — vayronagarchilik yurushlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlandi.

1360-1386-YILLAR — *Amir Temur* faoliyatining birinchi bosqichida u Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi.

1360-YIL BOSHI — *Amir Temur* Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqazosi bilan Kesh viloyatini butunlay qo'ldan chiqarib yubormastlik maqsadida xon xizmatiga o'tadi. Natijada *Tug'luq Temurning* yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayinlanadi.

1361-YIL OXIRI — Movarounnahrning hukmdori etib tayinlangan *Ilyosxo'ja* bilan *Amir Temur* murosasi to'g'ri kelmay mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi. *Amir Temur* Movarounnahrning nufuzli amirilaridan *Husayn* bilan ittifoq tuzadi.

1361-1365-YILLAR — *Amir Temur* va *Amir Husayn* yaqinlashgan davr.

1362-YIL — *Amir Temur* Seistonda bo'lgan jangda o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlanib bir umrga oqsoqlanib qoldi.

1362-YIL — *Amir Temur* turkman *Ali Bekka* asir tushib, 62 kun tutqinlikda bo'lishi.

1363-YIL — Amudaryoning chap sohilida Qunduz

shahri yonida *Amir Temur* va *Amir Husayn* umumiy dushman ustidan dastlabki g'alabasiga erishdi.

1364-YIL OXIRI — *Amir Temur* va *Amir Husayn* *Ilyosxo'ja* boshliq mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradilar.

1365-YIL BAHOR — *Ilyosxo'ja* Movarounnahr ustiga qo'shin tortdi.

1365-YIL 22-MAY — tarixda "Jangi loy" nomi bilan shuhrat topgan Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida *Ilyosxo'ja* va *Amir Temur* o'rtasida bo'lib o'tgan. Jangda *Ilyosxo'ja* g'alaba qozondi. Bu g'alabdan so'ng *Ilyosxo'ja* Xo'jand va Jizzax shaharlarini egallab Samarqand ustiga yurush qildi. Samarqandliklar mo'g'ullar humronligiga qarshi Sarbadorlar xalq harakatini ko'taradi.

1366-YIL BAHOR — *Amir Temur* va *Amir Husayn* Samarqandga yo'l oladilar va shahar yaqinidagi Konigil mavzeiga kelib tushadilar.

1366-1370-YILLAR — *Amir Husayn* Movarounnahr hukmdori bo'lgan davr.

1366-1370-YILLAR — *Amir Temur* va *Amir Husayn* o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar sodir bo'ldi.

1366-1408-YILLAR — Buyuk g'arbiy viloyatlar hokimi Mironshohning hukmronligi davrida Angliya qirolli *Genrix IV* o'rtasida diplomatik yozishmalar bo'lib o'tgan.

1370-YIL — *Saroy Mulkxonim* bilan nikoh tufayli *Amir Temur* amirlik darajasiga "ko'ragon", ya'ni "xonning kuyovi" unvonini qo'shib oladi va rasmiy hujjatlarda "Amir Temur ko'ragon" nomi bilan yuritilishiga musharraf bo'ladi.

1370-YIL BAHOR — *Amir Temur* Balx hukmdori *Amir Husaynga* qarshi yo'lga chiqdi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Buyo qishlog'iga yetganida *Sayid Baraka* *Amir Temurga* oliy hokimiyat va saltanat ramzi bo'lgan katta nog'ara — tabl bilan yalov — bayroq tortiq qildi. Balxga yetmasdan O'rpuz mavzesida amir va no'yonlar bilan mashvarat (majlis)da qadimiy qonun-qoidalarga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan *Suyurg'atmish o'g'lon* mamlakat podshohligi taxtiga o'tqizildi.

1370-YIL 9-APREL — Balx shahri *Amir Temurga* taslim bo'ldi va *Amir Husayn* asir olinib, qatl etildi.

1370-YIL 10-APREL — Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, shuningdek *Amir Temurning* piri *Sayyid Baraka* ishtirokida qurultoy o'tkaziladi va *Amir Temurning* hukmronligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

1370-YIL MAY — *Amir Temur* Samarqandga qaytadi va shaharda devorlar, qal'alar hamda saroylar bino qilishga kirishadi. Bu imoratlar Samarqand mo'g'ullar tomonidan vayron etilgandan keyin 150 yil o'tgach, birinchi marta bunyod qilingan umumjumhuriy inshootlar edi.

1370-YIL IYUL — *Amir Temur* Samarqandda qurultoy chaqirdi. Qurultoyda Shibirg'on hokimi amir *Zinda Chashmdan* boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'plandilar. Ikki daryo oralig'ida yashovchi turk-mo'g'ul qabila boshliqlari, barcha amirlar *Amir Temur* hokimiyatini tan oladilar. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilindi. *Amir Temur* mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. *Amir Temur* yirik harbiy

bo'linmalarining boshliqlari etib *Joku*, *Sayfuddin*, *Abbos*, *Iskandar*, *A'lam Shayx*, *Ardasher qavchin* va boshqalarni tayinladi. Tajribali harbiylar sipohsolarlikka tayinlandi.

1370-YIL KUZ — 1371-YIL BAHOR — Amir Temur *Zinda Chashmga* zarba berib, Shiburg'on viloyatini bo'ysuntirdi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldi.

1370-1371-YILLAR — mo'g'uliston hokimi *Qamaruddin* Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqinchilik qilib shaharni talab qaytadi.

1370-1388-YILLAR — Movarounnahrda *Suyurg'atmish o'g'lon* hukmronligi davri.

1370-1405-YILLAR — Movarounnahrda Sohibquron *Amir Temur* hukmronligi davri.

1371-1373-YILLAR — Sohibqiron Amir Temur shaharbandni bunyod etdi.

1371-1390-YILLAR — Sohibqiron Amir Temur mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ul xonlari *Anqoto'ra* va *Qamaruddin* ustidan g'alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlikka, o'zaro nizo va mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'ydi.

1372-YIL — Amir Temur Xorazmga dastlabki yurishi. *Husayn So'fini* Amir Temurga boj to'lamasligi harbiy yurishga sabab bo'ldi. Qiyot shahrini Amir Temur qo'shinlari tomonidan ishg'ol etilishi *Husayn So'fini* Amir Temur bilan yarishishga, uni talablarini bajarishga rozi bo'ladi.

1373-YIL — Amir Temurning Xorazmga ikkinchi yurushi. *Husayn So'fini* vafotidan so'ng Xorazm hokimiyati tepasiga kelgan uning akasi *Yusuf So'fi* Qiyot shahrini bosib olib. Amir Temurga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik harakatiga o'tishi harbiy yurishga sabab bo'ldi. Ammo bu harbiy to'qnashuvigacha bormaydi, chunki Yusuf Amir Temurga tavba qilib yarash shartlarini so'zsiz bajarishga va'da beradi. Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

1376-YIL — Amir Temurning Xorazmga qilgan uchinchi yurushi. Oltin O'rda xoni *To'xtamishning* Xorazmga da'vosi tufayli Amir Temurning bu yurishiga sabab bo'ladi.

1376-YIL — mo'g'uliston hokimi *Qamaruddin* Farg'ona vodiysining anchagina qismini bosib olishi.

1379-YIL — Amir Temurning Xorazmga uyushtirgan to'rtinchi yurushi.

1380-1422-YILLAR — Fransiyada *Karl VI* hukmronligi.

1381-YIL — Amir Temur Hirot, Seiston va Mozandaronni egallaydi. Saraxs, Jom, Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ladi.

1381-1384-YILLAR — Amir Temur Eronning katta qismini bo'ysundiradi.

1386-1388-YILLAR — Amir Temurning uch yillik harbiy yurishlari oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko'li) atrofidagi yerlarni bo'ysundiradi.

1386-1405-YILLAR — Amir Temur faoliyatining ikkinchi bosqichida olib borilgan "Uch yillik", "Besh yillik" va "Yetti yillik" harbiy yurishlarini amalga oshirib, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabt etdi.

1388-1402-YILLAR — Movarounnahrda nomigagina *Sulton Mahmud* hukmronligi.

1388-YIL — Amir Temur Xorazmga beshinchi marta yurish qildi va uni uzil-kesil bosib oldi hamda so'fiylar sulolasini tugatdi. Oltin O'rda xoni *To'xtamishning* Xorazmga hujum qilib, Xorazm hokimi Sulaymon So'fini Amir Temurga qarshi qo'zg'olon ko'tarishi bu harbiy yurishga sabab bo'ldi.

1389-YIL BAHOR — Amir Temurning Dizak (Jizzax)ning Achchiq mavzesida *To'xtamishxonga* zarba berishi.

1390-1407-YILLAR — Kastiliya va Leonda *Genrix III* hukmronligi.

1391-YIL 18-IYUN — Hozirgi Samara va Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan (Qunduzcha) *Kondurcha* daryosi vodiysida *To'xtamish* qo'shiniga qaqshatqich zarba berishi.

1392-1396-YILLAR — Amir Temurning besh yillik yurishlari davomida G'arbiy Eron, Iroq Ajam va Kavkazni egallaydi.

1393-YIL — *Mironshoh* Shimoliy Eron, Iroq hamda Tabriz Sultoniyanini o'z ichiga olgan xulagular tasarrufidagi mulklarga hokim qilib tayin etilgan.

1395-YIL 15-APREL — Amir Temur Shimoliy Kavkazda *Tarak* daryosi bo'yida *To'xtamish* qo'shiniga zarba berdi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida *Quyit Itil* (Volga) viloyatlari, *Saroy Berka*, *Saroychik* va *Hojitarxon* (Astraxan) kabi shaharlar bo'ysundirildi. Amir Temur *To'xtamishni* quvib *Ryazan* viloyatigacha boradi va *Yelets* shahrini ishg'ol qiladi.

1398-YIL MAY — 1399-YIL MART — Amir Temurning 11 oy davom etgan Hindistonga qilgan yurishi.

1399-1404-YILLAR — Amir Temurning yetti yillik urushi oqibatida *Shomning Xalab*, *Kumis*, *Baalbek*, *Dimishq* (Damashq) kabi yirik shaharlari Iroq Arabning *Uburiston* o'lkasi bilan *Bog'dod*, shuningdek Turkiyaning kattagina qismini bosib oldi.

1399-1413-YILLAR — Angliyada *Genrix IV* hukmronligi.

1402-YIL BAHOR — Kastiliya (Ispaniya) qiroli *Genrix III* o'z elchilarini Temurning *Kichik Osiyodagi* qarorgohiga yuborishi.

1402-YIL 15-MAY — *Amir Temur* Konstantinopol noibi *Ioann VII Paleolog* nomiga xat yo'llashi.

1402-YIL YOZ — Amir Temur Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali *Karl VI* hamda *Genrix IV* nomlariga maktublar yo'llaydi.

1402-YIL YOZ — Usmonli turklar davlatining hukmdori *Yildirim Boyazid* ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli *Karl VI*, Angliya qiroli *Genrix IV* hamda Kastiliya va Leon qiroli *Genrix III* tabriklab, unga o'z nomalarini yuboradilar.

1402-YIL 20-IYUL — Anqara yaqinida *Chibukobod mavzeida* Amir Temur bilan *Sulton Boyazid* o'rtasida so'nggi va hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi va Sohibqironning g'alabasi bilan yakunlandi. Bu jang tarixda "*Anqara jangi*" nomi bilan shuhrat topdi.

1402-YIL BIRINCHI AVGUST — Amir Temur Fransiya qiroli *Karl VI* ga maktub yo'llashi.

1403-YIL — *Baylakon* shahrida Amir Temur ulamolarning majlisini chaqirib, unda nutq soʻzlagan. Mamlakat hamma fuqorolarni boshqarishni turli xil inshootlar va jamoat binolarini qurishda unga olimlar va fuzalolar oʻz maslahatlari bilan koʻmaklashishlarini soʻragan.

1403-YIL 9-MART — Turk sultoni *Yildirim Boyazid* vafot etdi.

1403-YIL MAY — *Amir Temur* yuborgan elchilar Parijga yetib borishi.

1403-YIL 21 MAY — Kastiliya (Ispaniya) qiroli *Genrix III* Amir Temur huzuriga ikkinchi marta *Klavixo* boshchiligida maxsus elchilar yuboradi

1403-YIL 21 MAY — 1404-YIL SENTABR — Ispan elchisi *Rui Gonzales de Klavixon*ing Samarqandda boʻlishi. Shu bilan birgalikda Shohi Zinda meʼmoriy yodgorliklari: Shodimulk ogʻa, Amir Husayn, Shirinbeka ogʻa kabi qator ajoyib maqbaralari, hozirgi vaqtda Bibixonim nomi bilan mashhur boʻlgan Jomeʼ Masjidi, Goʻri Amir daxmasi va shu kabi ajoyib binolar bunyod qilindi.

1403-YIL 15-IYUN — Fransiya qiroli *Karl VI* Amir Temurga javob maktubini yoʻllashi.

1404-YIL — Samarqandda boʻlgan Ispaniya elchisi *Klavixon*ing yozishicha Samarqand chorsusi Amir Temur farmoni bilan 20 kunda qayta qurilgan.

1404-YIL SENTABR-NOYABR — Kastiliya (Ispaniya) elchisi *Klavixon*ing Samarqandga kelishi.

1404-YIL 21 NOYABR — Ispaniya elchilari Samarqanddan joʻnab ketishi.

1404-YIL 27-NOYABR — Amir Temur 200 ming qoʻshin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqadi. Biroq Xitoy ustiga yurish (bu davrda Xitoyda *Min sulolasi* hukmronlik qilayotgan edi) Amir Temurning toʻsatdan vafot etishi tufayli amalga oshmay qoldi.

1405-YIL 18-FEVRAL — *Amir Temur* Oʻtror shahrida vafot etishi.

1406-YIL MART — *Klavixo* Ispaniyaga qaytib keldi.

XIV ASR 50-YILLARI OXIRI — Movarounnahrda amirlarning oʻzaro kurashi kuchayib, *Amir Qazogʻon* oʻldiriladi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, har jihatdan ogʻir tanglik sodir boʻldi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan moʻgʻul xonlari Movarounnahrda ogʻir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu oʻlkadan oʻz hokimiyatini oʻrnatishga harakat qiladilar.

XIV ASRNING 50-60 YILLARI — Movarounnahrda tarqoqlik nihoyatda kuchayib, oʻzaro kurash yanada keskinlashdi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmronlikka ajralib, ular oʻrtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushga aylanadi. Xondamirning yozishicha, ulus oʻnga yaqin mustaqil beklklarga boʻlinib ketadi. Samarqand viloyatida *Amir Bayon Sulduz*, Keshda *Amir Hoji Barlos*, Xoʻjandda *Amir Boyazid Jaloir*, Balxda *Oʻljaytu Sulduz*, Hisori Shodmon chegarasida *Amir Xusayn* va *Amir Yasovuriylar* oʻzlarini mutlaq hokimi deb eʼlon qiladilar.

XIV ASRNING 60-YILLARI BOSHI — *Amir Temur* Movarounnahrni birlashtirish yoʻlidagi dastlabki harakat boshlagan.

XIV ASRNING 60-YILLARI — Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda ogʻir siyosiy va iqtisodiy vaziyat

mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi.

XIV ASRNING 60-YILLARI — Sarbadorlar harakati Movarounnahrda mongʻul xonlarining hujumi munosabati bilan kuchayib ketdi. Samarqand butunlay harakat markaziga aylandi. Qoʻzgʻolonga *Mavlonzoda Samarqandiy*, *Abu Bakr* va *Hardaki Buxoriylar* boshchilik qiladilar.

XIV ASRNING 60-YILLARI OXIRI — Oltin Oʻrdada yuz bergan gʻalayonlar vaqtida Qoʻngʻirot soʻfiylari Shimoliy Xorozmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. Soʻngra Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar.

XIV ASR OXIRI — XV ASR BOSHI — Turkiya sultoni *Boyazidga* zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keldi.

TESTLAR

1. XIV asrning 50—60-yillarida Movarounnahr nechta mustaqil beklklarga boʻlinib ketgan?

- A) 10 ga yaqin
- B) 15 ga yaqin
- S) 8 ga yaqin
- D) 18 ga yaqin

2. XIV asrning 50—60-yillarida Samarqand viloyatida kim oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qiladi?

- A) Amir Boyazid Jaloir
- B) Amir Hoji Barlos
- S) Amir Bayon Sulduz
- D) Oʻljaytu Sulduz

3. XIV asrning 50—60-yillarida Amir Hoji Barlos qayerda oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qiladi?

- A) Samarqand viloyatida
- B) Keshda
- S) Xoʻjandda
- D) Balxda

4. XIV asrning 50—60-yillarida Xoʻjandda kim oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qiladi?

- A) Amir Husayn
- B) Amir Yasovuriy
- S) Amir Bayon Sulduz
- D) Amir Boyazid Jaloir

5. Qayerda XIV asrning 50—60-yillarida Oʻljaytu Sulduz oʻzini hokimi mutlaq deb eʼlon qiladi?

- A) Xoʻjandda
- B) Samarqand viloyatida
- S) Balxda
- D) Keshda

6. Kimlar XIV asrning 50—60-yillarida Hisori Shodmon chegarasida oʻzlarini hokimi mutlaq deb eʼlon qiladilar?

- A) Amir Husayn va Amir Bayon Sulduz

- B) Amir Bayon Sulduz va Amir Boyazid Jaloir
- S) Amir Hoji Barlos va Amir Yasovuriy
- D) Amir Husayn va Amir Yasovuriy

7. Ma'lumki, XIV asrning 50—60-yillarida Movarounnahr bir necha mustaqil beklklarga bo'linib ketgan. O'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qilgan mahalliy hokimlarni o'z viloyatlarini to'g'ri ko'rsatgan holda belgilang.

1) Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz; 2) Keshda Amir Hoji Barlos; 3) Xo'jandda Amir Boyazid Jaloir; 4) Balxda O'ljaytu Sulduz 5) Hisori Shodmon chegarasida Amir Husayn va Amir Yasovuriy; 6) Samarqand viloyatida Amir Husayn; 7) Keshda Amir Yasovuriy; 8) Xo'jandda O'ljaytu Sulduz; 9) Balxda Amir Boyazid Jaloir; 10) Hisori Shodmon chegarasida Amir Bayon Sulduz.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 6, 7, 8, 9, 10
- S) 2, 3, 4, 5, 10
- D) 1, 6, 7, 8, 9

8. Amir Temur qachon va qayerda tavallud topgan?

- A) 1336-yil 9-aprelda Kesh shahri yaqinida Xojailg'or qishlog'ida
- B) 1336-yil 9-aprelda Buxoro yaqinidagi Hinduvon qishlog'ida
- S) 1336-yil 9-aprelda Fargo'naming Rishton qishlog'ida
- D) 1336-yil 9-aprel Xorazmning Zamaxsar qishlog'ida

9. Amir Temurning onasi Takina xotun qaysi yurtning obro'li bekalaridan hisoblangan?

- A) Buxoro
- B) Kesh
- S) Samarqand
- D) Termiz

10. Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay barlos urug'ining oqsoqollaridan bo'lib, ajdodlari ...

- A) Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtta hokimlik qilgan.
- B) Xo'jand va Balx viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtta hokimlik qilgan.
- S) Samarqand va Hisori Shodmon viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtta hokimlik qilgan.
- D) Kesh va Xo'jand viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtta hokimlik qilgan.

11. Amir Temurning yoshligi qayerda kechdi?

- A) Hisori Shodmonda
- B) Keshda
- S) Samarqandda
- D) Xo'jandda

12. Necha yoshga to'lgach, otasi Amir Temurni o'qishga beradi?

- A) sakkiz
- B) olti
- S) yetti
- D) besh

13. Kim Temurbekning piri bo'lgan?

- A) Xoja Ubaydulloh Ahror
- B) Bahouddin Naqshband
- S) Shayx Shamsiddin Kulol
- D) Ahmad Yassaviy

14. Amir Temur yoshligida nimalarga ishqiboz bo'lib, qanday ishlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi?

A) chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi.

B) ovga ishqiboz bo'lib, savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi.

S) otlarga ishqiboz bo'lib, dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi.

D) yugurishga ishqiboz bo'lib, tengdoshlari bilan turli musobaqalar tashkil qilishni yoqtirar edi.

15. Amir Temur qanday shaxs sifatida voyaga yetadi?

A) davlat ishlarini uddaburonlik bilan uddalay oladigan shaxs sifatida

B) dushmanlarga nisbatan qahrli va shafqatsiz, hunarmandlarni ezozlaydigan shaxs sifatida

S) tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida

D) dehqonchilikni uddalay oladigan shaxs sifatida

16. Ma'lumki, Amir Temurning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishardi. Bu guruh orasida kimlar keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar?

A) Amir Bayon Sulduz, Amir Hoji Barlos, Amir Boyazid Jaloir

B) Abbas Bahodir, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek

S) O'ljaytu Sulduz, Amir Husayn, Amir Yasovuriy

D) Amir Joku Barlos, Amir Husayn, Tug'luq Temur, Ilyosxo'ja

17. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur nima qilishdan boshlagan?

A) mo'gul xonlariga xizmat qilishdan

B) otasining qo'shinida xizmat qilishdan

S) amakisi Amir Hoji Barlos xizmat qilishdan

D) ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan

18. Otasi Amir Temurni qachon Amir Joku Barlosning qizi Turmush Og'oga uylantiradi?

A) 135-yilda

B) 1355-yilda

S) 1358-yilda

D) 1362-yilda

19. Qachon Amir Temur Qazog'onning nabirasi Uljoy Turkon Og'oni o'z nikohiga oladi?

A) 1355-yilda



- B) 1358-yilda
- S) 1362-yilda
- D) 135-yilda

20. Kimni nikohi tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi Amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga keladi?

- A) Turmush Og'oga
- B) Saroy Mulk xonim
- S) Uljoy Turkon Og'o
- D) Cho'lpon Mulk Ogo begim

21. Qachon Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi?

- A) XIV asrning 50-yillari boshida
- B) XIV asrning 50-yillari oxirida
- S) XIV asrning 50-yillari o'rtasida
- D) XIV asrning 40-yillari oxirida

22. Kim 1360—1361-yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kiradi?

- A) mo'g'uliston xoni Ilyosxo'ja
- B) mo'g'uliston xoni Amir Qozog'on
- S) mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur
- D) mo'g'uliston xoni Kebek

23. Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos qaysi tomon qochadi?

- A) Hindiston
- B) Xuroson
- S) Badaxshon
- D) Xorazm

24. Tug'luq Temurning yorlig'i bilan Amir Temur o'z viloyatining dorug'asi etib tayinlanganda Amir Temur necha yoshda edi?

- A) 18 yosh
- B) 20 yosh
- S) 24 yosh
- D) 22 yosh

25. Amir Temur qanday tarixiy sharoitda Movarounnahrda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi?

- A) mo'g'ullar Movarounnahrdan ommaviy ko'chib keta boshlangan paytda
- B) mo'g'ulistonda taxt uchun kurash boshlangan paytda
- S) Movarounnahrda barqaror siyosiy vaziyat vujudga kelgan paytda
- D) siyosiy vaziyat keskinlashgan, uning mustaqilligini ta'minlash zaruriyati ko'ndalang bo'lib turgan paytda

26. Tug'luq Temur kimni Movarounnahrning hukmdori etib tayinlab, mo'g'ulistonga qaytib ketadi?

- A) Amir Temurni
- B) Amir Husaynni
- S) o'g'li Ilyosxo'jani
- D) Amir Hoji Barlos

27. Amir Temur kim bilan ittifoq tuzib, mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi?

- A) Ilyosxo'ja bilan
- B) sarbadorlardan Mavlonozoda Samarqandiy biulan
- S) Balx hokimi Husayn bilan
- D) Samarqand viloyati hokimi Amir Bayon Sulduz

28. 1363-yilda qayerda Amir Temur bilan Amir Husayn Ilyosxo'ja ustidan g'alaba qozonadilar?

- A) Qunduz shahri yonida
- B) Balx shahri yonida
- S) Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida
- D) Marv shahri yonida

29. Qachon Amir Temur bilan Amir Husayn mo'g'ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar?

- A) 1363-yilda
- B) 1360-1361-yillarda
- S) 1366-yil bahorida
- D) 1364-yil oxirida

30. Ilyosxo'ja qachon Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi?

- A) 1366-yil bahorida
- B) 1365-yil bahorida
- S) 1364-yil oxirida
- D) 1365-yil 22-mayda

31. 1365-yil 22-mayda ...

- A) 1366-yil bahorida
- B) 1365-yil bahorida
- S) "Loy jangi" bo'lib o'tadi.
- D) 1364-yil oxirida

32. "Loy jangi" kimlar o'rtasida bo'lib o'tgan?

- A) Amir Temur bilan Amir Husaynning qo'shinining Tug'luq Temur boshchiligidagi mo'g'ullarga qarshi
- B) Amir Temur bilan Amir Hoji Barlosning qo'shinining Ilyosxo'ja boshchiligidagi mo'g'ullarga qarshi
- S) Amir Temur bilan Amir Husaynning qo'shinining Abu Bakr Kuluiy boshchiligidagi mo'g'ullarga qarshi
- D) Amir Temur bilan Amir Husaynning qo'shinining Ilyosxo'ja boshchiligidagi mo'g'ullarga qarshi

33. "Loy jangi" qayerda sodir bo'ladi?

- A) Samarqand bilan Kattaqo'rg'on yaqinidagi zarafshon daryosi bo'yida
- B) Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida
- S) Kesh bilan Nasaf yaqinidagi Qashqadaryo yaqinida
- D) Qunduz shahri yonida

34. "Loy jangi" qanday natija bilan tugaydi?

- A) Ilyosxo'ja g'alabasi bilan
- B) Amir Temur g'alabasi bilan
- S) o'zaro sulh bilan
- D) Ilyosxo'ja mag'lubiyatga uchrasada, Amir Husayn bilan bir tomonlama sulh tuzishga erishdi



35. Ilyosxo‘ja “Loy jangi”dan so‘ng qaysi shaharlarni egallab, Samarqand ustiga yuradi?

- A) Xo‘jand va Jizzax
- B) Samarqand va Buxoro
- S) Toshkent va O‘tror
- D) Xo‘jand va Toshkent

36. Sarbadorlar harakati Movarounnahrda qachon va nima sabadan vujudga keldi?

- A) XIV asrning 60-yillarida Amir Temur mag‘lubiyati bilan
- B) XIV asrning 60-yillarida Ilyosxo‘ja mag‘lubiyati bilan
- S) XIV asrning 60-yillarida Erondagi turkmanlar hujumi bilan
- D) XIV asrning 60-yillarida mo‘g‘ul xonlarining hujumi munosabati bilan

37. Samarqand sarbadorlariga kimlar boshchilik qiladilar?

- A) Abbos Bahodir, Jahonshohbek, Qimori Inoq
- B) Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek
- S) Mavlonozoda Samarqandiy, Abu Bakr Kuluyi va Xurdaki Buxoriy
- D) Amir Husayn va Amir Yasovuriy

38. 1366-yilning bahorida Amir Temur va Amir Husayn Samarqandning qayeriga kelib tushadilar?

- A) Urgut tumaniga
- B) Kattaqo‘rg‘on tumaniga
- S) Konigil mavzeyiga
- D) Chelak tumaniga

39. Qaysi yillar davomida Amir Temur bilan Amir Husayn o‘rtasida bir necha bor o‘zaro to‘qnashuvlar bo‘ladi?

- A) 1360-161-yillar
- B) 1362-1363-yillar
- S) 1364-1365-yillar
- D) 1366—1370-yillar

40. Pir — bu ...

- A) sadr
- B) oliy rahnamo
- S) tuman boshlig‘i
- D) xoqon

41. Boshini dorga tikkanlar, mo‘g‘ullar zulmiga qarshi xalq qo‘zg‘oloni qatnashchilari qaysi nom bilan atalgan?

- A) sarbadorlar
- B) sarkorlar
- S) sohibqironlar
- D) tudunlar

42. Amir Temur markazlashgan davlat tuzishni amalga oshirishda kimlarga suyanadi?

- A) mahalliy zodagonlarga
- B) ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlarga

- S) dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarga
- D) mo‘g‘ul zadoganlar va mahalliy hokimlar

43. Amir Temur markazlashgan davlat tuzishni ro‘yobga chiqarish ishini avvalo nima qilishdan boshlaydi?

- A) ichki g‘animlariga qarshi kurashdan
- B) ma‘muriy islohatdan
- S) harbiy va ma‘muriy islohatdan
- D) pul islohatdan

44. Qachon Amir Temur butun qo‘shinlari bilan Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo‘lga chiqadi?

- A) 1370-yil bahorida
- B) 1366-yil bahorida
- S) 1365-yil bahorida
- D) 1370-yil kuzida

45. Amir Temur qo‘shini qayerga yetganida uning huzuriga taniqli sayidlardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi?

- A) Samarqand yaqinidagi Konigil mavzeyida
- B) Kesh shahri yaqinidagi Xojailg‘or qishlog‘ida
- S) Chirchiq daryosi bo‘yida
- D) Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘iga

46. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, unga nima tortiq qiladi?

- A) tulpor ot
- B) Oliy hokimiyat ramzi qilich va xanjar
- S) Oliy hokimiyat ramzi tabl bilan yalov-bayroq
- D) Oliy hokimiyat ramzi oltin kalit

47. Qachon Balx shahri Amir Temurga taslim bo‘ladi?

- A) 1365-yilning 22-mayida
- B) 1370-yilning 10-iyulida
- S) 1370-yilning 10-aprelida
- D) 1372-yilning 20-aprelida

48. Qachon Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e‘lon qilinadi?

- A) 1370-yilning 11 aprelida
- B) 1370-yilning 10-aprelida
- S) 1365-yilning 22-mayida
- D) 1370-yilning 10-iyulida

49. 1370-yil iyulida Amir Temur qayerda qurultoy chaqiradi?

- A) Balxda
- B) Buxoroda
- S) Termizda
- D) Samarqandda

50. 1370-yil iyulida Amir Temur tomonidan chaqirilgan qurultoyda kim ishtirok etmaydi?

- A) Samarqand viloyati hokimi amir A‘lam Shayx
- B) Shibirg‘on hokimi amir Zinda Chashm
- S) Kesh hokimi Ardasher qavchin
- D) Xo‘jand hokimi amir Sayfuddin

51. Qachon Samarqand Amir Temur davlati poytaxti deb e'lon qilindi?

- A) 1370-yil aprelda
- B) 1370-yil iyulida
- S) 1370-yil iyunida
- D) 1370-yil avgustida

52. Amir Temur hukmronligining dastlabki yilida kimlarni yirik harbiy bo'linmalarining boshliqlari etib tayinladi?

- A) Sayyid Baraka, amir Zinda Chashm, Tug'luq Temur
- B) Amir Husayn va Amir Yasovuriy
- S) Joku, Sayfuddin, Abbos, Iskandar, A'lam Shayx, Ardasher qavchin
- D) Amir Bayon Sulduz, Amir Hoji Barlos, Amir Boyazid Jaloir

53. Qachon Shibirg'on Amir Temurga bo'ysundirilib, uning hokimi Zinda Chashm Amir Temur xizmatiga o'tadi?

- A) 1372-yilda
- B) 1370-yilda
- S) 1371-yilda
- D) 1373-yilda

54. Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon yurish qilib, qayerlarni o'z tasarrufiga oldi?

- A) Farg'ona vodiysi hududlarini, O'tror, Yassi va Sayramni
- B) Hisor, Badaxshon, Qunduzni
- S) Hirot, Seiston, Mozandaronni
- D) Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavorni

55. Qaysi viloyat amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olib, unga bo'ysundilar?

- A) Hisor, Badaxshon, Qunduz
- B) Farg'ona vodiysi, O'tror, Yassi va Sayram
- S) Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor
- D) Hirot, Seiston, Mozandaron

56. Qachon Amir Temur Hirot, Seiston, Mozandaronni egallaydi?

- A) 1370-yilda
- B) 1372-yilda
- S) 1381-yilda
- D) 1380-yilda

57. Qaysi shaharlar jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi?

- A) Hisor, Badaxshon, Qunduz
- B) Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor
- S) Farg'ona vodiysi, O'tror, Yassi va Sayram
- D) Hirot, Seiston, Mozandaron

58. Qaysi davlat Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida qaror topgan edi?

- A) Xorazm
- B) Xuroson
- S) Movarounnahr
- D) Sharqiy Turkiston

59. Xorazm mo'g'ullar davrida necha qismga ajralgandi?

- A) Ikki
- B) uch
- S) to'rt
- D) besh

60. XIII asrning 70-yillarida markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm qayerga bo'ysundirilgan edi?

- A) Movarounnahr
- B) Chig'atoy ulusiga
- S) mo'g'uliston
- D) Oltin O'rdaga

61. XIII asrning 70-yillarida Chig'atoy ulusiga Xorazmning qaysi qismi bo'ysundirilgan edi?

- A) Shimoliy Xorazm
- B) Sharqiy Xorazm
- S) G'arbiy Xorazm
- D) Janubiy Xorazm

62. Xorazmning qaysi qismi markazi Kat qal'asi bo'lgan?

- A) Shimoliy Xorazm
- B) Sharqiy Xorazm
- S) G'arbiy Xorazm
- D) Janubiy Xorazm

63. XIV asrning 60-yillari oxirida qayerda yuz bergan g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar?

- A) mo'g'ulistonda
- B) Oltin O'rdada
- S) Movarounnahrda
- D) Sharqiy Turkistonda

64. Kimlar Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar?

- A) Minglar so'filari
- B) Mang'it so'filari
- S) Qo'ng'iro't so'filari
- D) Barlos so'filari

65. Nima uchun Amir Temur Xorazmni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi?

- A) chunki Amir Temur butun Xorazmni davlatiga xavf soluvchi davlat deb hisoblar edi.
- B) chunki Amir Temur butun Xorazmni Oltin O'rda ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi.
- S) chunki Amir Temur butun Xorazmni mo'g'ulistonning ajralmas qismi deb hisoblar edi.
- D) chunki Amir Temur butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi.

66. Qachon Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi?

- A) 1370-yilda
- B) 1372-yilda



- S) 1371-yilda
- D) 1375-yilda

67. Amir Temur Xorazmga necha marta harbiy yurish qildi?

- A) besh marta
- B) uch marta
- S) ikki marta
- D) to'rt marta

68. Qaysi davlatni Amir Temur 1388-yilda uzil-kesil bo'ysundirildi?

- A) Oltin O'rdani
- B) Chig'toy ulusini
- S) Xorazm
- D) mo'g'ulistonni

69. Amir Temur qayerlarni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi?

- A) Oltin O'rda, Chig'toy ulusi, mo'g'ulistonni
- B) Jo'ji ulusi, Xurosonni
- S) Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni
- D) Eron va Hindistonni

70. Mamlakatning barcha hududida yagona hukmdor hokimiyati o'rnatilgan davlat nima deb ataladi?

- A) respublika
- B) aristokratiya
- S) aslzodalar hokimiyati
- D) markazlashgan davlat

71. Tabl — bu ...

- A) bayroq
- B) xanjar
- S) qilich
- D) katta nog'ora

72. Amir Temur saltanatiga dastlabki davrda qaysi davlatlar xavf solib turardi?

- A) Eron va Hindiston
- B) Oltin O'rda va Xuroson
- S) mo'g'uliston xonlari va Jo'ji ulusi xonlari
- D) Chig'atoy ulusi va Xorazm

73. Qaysi davlatlar Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf edi?

- A) mo'g'uliston va Chig'atoy ulusi
- B) Oq O'rda va Oltin O'rda
- S) Eron va Oltin O'rda
- D) Turkiya va Xulagidlar ulusi

74. Nima maqsadda Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib, uni kuchsizlantirishga jiddiy harakat qiladi?

A) Oltin O'rdaning Movarounnahrda tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga olish hamda uning poytaxti Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko'zlaydi.

B) Movarounnahrda shimoldan bo'ladigan jiddiy xavfni oldini olishni ko'zlaydi.

S) Oltin O'rda taxtiga o'z o'g'lini o'tkazib, Movarounnahrda qo'shib yuborishni ko'zlaydi.

D) Oltin O'rda orqali Turkiyani shimoldan zabt etishni ko'zlaydi.

75. Amir Temur Oltin O'rdani o'ziga bo'ysundirish maqsadida qanday vaziyatdan foydalanadi?

A) mo'g'uliston bilan Oltin O'rda o'rtasida boshlanib ketgan urushdan uddaburonlik bilan foydalanadi.

B) Oltin O'rdaning Xorazmga qilgan tajovuzidan uddaburonlik bilan foydalanadi.

S) Oltin O'rdada boshlangan iqtisodiy inqirozdan uddaburonlik bilan foydalanadi.

D) Jo'ji ulusidagi o'zaro ichki kurashdan uddaburonlik bilan foydalanadi.

76. Amir Temur yordamida chingizlilardan qay biri Oltin O'rda taxtini egalladi?

- A) Mahmud Yalavoch
- B) Suketu Cherbi
- S) Munke
- D) To'xtamish

77. Amir Temur To'xtamishga qarshi necha marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi?

- A) ikki marta
- B) uch marta
- S) to'rt marta
- D) besh marta

78. Qachon Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo'yida Amir Temur bilan To'xtamish o'rtasida jang bo'lib o'tadi?

- A) 1365-yilning 22-mayida
- B) 1395-yilning 15-aprelida
- S) 1370-yilning 11-aprelida
- D) 1404-yilning 27-noyabrida

79. Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasining tarixiy ahamiyatini qayd eting.

A) Amir Temur davlatiga shimoldan bo'ladigan xavfni bartaraf etadi.

B) mo'g'uliston davlatining inqirozini boshlab berdi.

S) O'rta Osiyo, Sharqiy Yevropa, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun buyuk ahamiyat kasb etdi.

D) Turkiyani Yevropaga qiladigan tajovuzini oldini oldi.

80. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga necha marta askar tortadi?

- A) ikki marta
- B) uch marta
- S) to'rt marta
- D) besh marta

81. Nima maqsadda Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga askar tortadi?

A) o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida

B) o'z saltanatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida

S) o'z saltanatining sharqiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida

D) o'z saltanatining g'arbiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida

82. Amir Temurning Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga yurishlari tarixda qanday nom olgan?

A) to'rt yillik, olti yillik va sakkiz yillik

B) ikki yillik, besh yillik va yeti yillik

S) uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlar

D) uch yillik, to'rt yillik va yeti yillik

83. 1386—1388-yillarda Amir Temurning qaysi yurishlari bo'lib o'tdi?

A) besh yillik

B) uch yillik

S) yetti yillik

D) ikki yillik

84. Amir Temurning qaysi harbiy yurishlari natijasida Eron (Fors), Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko'li atrofidagi) yerlar egallanadi?

A) uch yillik

B) besh yillik

S) yeti yillik

D) uch va yeti yillik

85. Amir Temur qaysi shaharlarga tegmagan, qo'shinlarini bunday shaharlarga kiritmagan?

A) o'z qo'shinini Amir Temur ixtiyoriga jo'natsa.

B) o'z ixtiyori bilan taslim bo'lib, moli omon to'lasa.

S) barcha qurol yarog'ini topshirsa.

D) hunarmandlari Amir Temur saltanatining poytaxtini bunyodkorligida o'z hissi bilan qatnashsa

86. Qaysi sabablar Amir Temurning Eronga yana yurish qilishiga olib keldi?

A) Eronning turklar tomonidan bosib olinishi

B) Eronning Movarounahrga qilgan tajovuzi

S) Eronning Amir Temurga boj to'lashdan bosh tortishi

D) Muzaffariylar, Jaloyiriylar sulolasi vakillarining ayirmachilik harakatlari, Mozandaron, Janubiy Eronda ko'tarilgan qo'zg'olonlar

87. Nechanchi yillarda Amir Temurning besh yillik urushi bo'lib o'tadi?

A) 1392—1396-yillar

B) 1386—1391 yillar

S) 1391 1396-yillar

D) 1392-1397-yillar

88. Qaysi hududlar besh yillik urush davomida egallanadi?

A) Eron, Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armaniston

B) G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkaz

S) Hindiston, Xitoy

D) Eron, Qozoq ulusi

89. Qachon Amir Temurning yetti yillik urushi bo'lib o'tadi?

A) 1399-1405-yillar

B) 1399—1404-yillarda

S) 1398-1404-yillar

D) 1398-1405-yillar

90. Qaysi yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qilindi?

A) 1399—1404-yillarda

B) 1399-1405-yillar

S) 1399-1403-yillar

D) 1398-1404-yillar

91. Amir Temurning Hindistonga yurishi qaysi urush nomi bilan kirgan?

A) uch yillik urushi

B) besh yillik urushi

S) yetti yillik urushi

D) to'rt yillik urushi

92. Amir Temur Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan necha marta xat almashish tashabbuskori bo'lgan?

A) 3 marta

B) 4 marta

S) 5 marta

D) 2 marta

93. Qaysi omillar tufayli Amir Temur davlati bilan Usmonli turklar o'rtasida to'qnashuv bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi?

A) Boyazid qoraqo'yunlilar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlaganligi sababli

B) Xuroson masalasidagi ziddiyatlar

S) Boyazidning Movarounahrga talonchilik yurishlari

D) Boyazidning Oltin O'rda davlati bilan ittifoqda Xorazmga tajovuzi

94. "Anqara jangi" qachon bo'lib o'tadi?

A) 1395-yilning 15-aprelida

B) 1402-yil 20-iyulda

S) 1365-yilning 22-mayda

D) 1370-yilning 11 aprelda

95. "Anqara jangi" kimlar o'rtasida bo'lib o'tadi?

A) Amir Temur bilan Ilyozxo'ja qo'shinlari o'rtasida

B) Amir Temur bilan To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida

S) Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasida

D) Amir Temur bilan Amir Husayn qo'shinlari o'rtasida

96. "Anqara jangi"da hammasi bo'lib qancha askar qatnashadi?

A) 200 ming nafar

B) 500 ming nafar

S) 360 ming nafar

D) 150 ming nafar



97. Amir Temur qo‘shining markaziy qismiga kim qo‘mondonlik qiladi?

- A) Mironshoh
- B) Umarshayx
- S) Shohruh
- D) Amir Temur

98. Sohibqiron kuchlari turk qo‘shinini tor-mor etgach Sulton Boyazid bilan birga kim asirga tushadi?

- A) o‘g‘li Sulaymon
- B) o‘g‘li Iso
- S) Sayfuddin
- D) o‘g‘li Muso Chalabiy

99. “Anqara jangi” dan so‘ng Amir Temur qayerlik askarlarni ta‘qib etib Bursa va Izmir shahrini zabt etadi?

- A) suriyalik
- B) rumlik
- S) yunon
- D) turk

100. Qaysi shaharlarni zabt etib Amir Temur salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham beradi?

- A) Isfahon va Tabriz
- B) Bag‘dod va Anqara
- S) Bursa va Izmir
- D) Istanbul va Quddus

101. “Anqara jangi” dan so‘ng qaysi davlat Amir Temurga o‘z itoatkorligini izhor etadi?

- A) Misr
- B) Suriya
- S) Kastiliya
- D) Vizantiya

102. “Anqara jangi” dan so‘ng Vizantiya va boshqa xristian olamidan Boyazidga beriladigan bojlar kimga to‘lanadigan bo‘ldi?

- A) Karl VIga
- B) Genrix IIIga
- S) Amir Temurga
- D) Mironshohga

103. 1403-yilning 9-martida ...

- A) Amir Temur Xitoyga harbiy yurish boshladi.
- B) Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang sodir bo‘ldi.
- S) Usmonli turk sultoni Sulton Boyazid vafot etdi.
- D) Amir Temur Hindistonga harbiy yurishi boshlandi.

104. Amir Temur Usmonli turk sultoni Sulton Boyazid vafot etgach uning yerlarini kimga suyurg‘ol qilib beradi?

- A) Sulton Boyazidning o‘g‘illari Sulaymon, Iso va Musolarga
- B) Amir Temurning o‘z o‘g‘illari Mironshoh, Umarshayx, Shohruh
- S) Amir Temurning o‘z sarkardalari Joku, Sayfuddin, Abbos
- D) Amir Temurning o‘z sarkardalari Iskandar, A‘lam Shayx, Ardasher qavchin

105. Nima sababdan Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi?

- A) kelajakda Yevropa davlatlariga harbiy yurishda ittifoqdosh bo‘lishi zaruriyatidan
- B) Usmonli turklar qo‘l ostidagi davlatlarni saqlab qolish maqsadida
- S) ko‘chmanchi xalqlarning hujumidan saqlanib turish uchun
- D) salib yurishlarining oqibatlari, Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi umidlari

106. Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba bilan Amir Temurni qaysi davlat hukmdorlari tabriklab, unga o‘z muboraknomalarini yuboradilar?

- A) Misr, Suriya, Eron
- B) Italiya, Portugaliya, Fransiya
- S) Rossiya, Vizantiya, Serbiya
- D) Fransiya, Angliya hamda Kastiliya va Leon

107. Quyidagi hukmdorlardan qay biri 1380—1422-yillarda hukmronlik qilgan?

- A) Karl VI
- B) Genrix IV
- S) Genrix III
- D) Karl IV

108. Angliya qirol Genrix IV qaysi yillarda hukmdorlik qilgan?

- A) 1390—1407-yillarda
 - B) 1380—1422-yillarda
 - S) 1380—1396-yillarda
 - D) 1399—1413-yillarda
109. Genrix III ...
- A) 1390—1407-yillarda Kastiliya va Leonda hukmdorlik qilgan.
 - B) 1380—1422-yillarda Fransiyada hukmronlik qilgan.
 - S) 1399—1413-yillarda Angliyada hukmdorlik qilgan.
 - D) 1390-1407-yillarda Venetsiyada hukmdorlik qilgan.

110. Nima sababdan Yevropaning ayrim davlatlari Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba bilan Amir Temurni tabriklab, unga o‘z muboraknomalarini yuboradilar?

- A) Yevropa hukmdorlari Amir Temur bilan teng savdo-sotiq qilishga o‘tganligi
- B) Sohibqiron endigina uyg‘onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.
- S) Buyuk Ipak yo‘lining Usmonli turklar tomonidan xavfi bartaraf etilishi.
- D) Amir Temur davlati bilan harbiy ittifoqni vujudga kelishi

111. Amir Temur Samarqanddan Xitoyga harbiy yurishiga qachon va qancha qo‘shin bilan chiqdi?

- A) 1405-yil 18-fevralida 200 ming qo‘shin bilan
- B) 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo‘shin bilan
- S) 1402-yilning 20-iyulida 160 ming qo‘shin bilan
- D) 1395-yilning 15-aprelida 200 ming qo‘shin bilan

112. 1405-yil 18-fevralda ...

A) Amir Temur Samarqanddan Xitoyga harbiy yurishiga chiqdi.

B) Sulton Boyazidning to'satdan vafot etdi.

S) Amir Temurning to'satdan vafot etdi.

D) "Anqara jangi" bo'lib o'tdi.

113. Qaysi davlat ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi tufayli amalga oshmay qoldi?

A) Misr

B) Suriya

S) Xitoy

D) Hindiston

114. Amir Temur necha yil davomida mamlakatni boshqardi?

A) 36 yil

B) 35 yil

S) 45 yil

D) 40 yil

115. Amir Temur qayerga qadar bo'lgan hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi?

A) Tibetdan O'rta Yer dengizigacha va Volga daryosidan Fors qo'ltig'igacha

B) mo'g'ulistondan Kaspiygacha va Uraldan Arabiston dengizigacha

S) Balxash ko'lidan O'rta Yer dengizigacha va Irtish daryosidan Erongacha

D) Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga

116. Amir Temur qaysi mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi?

A) Mo'g'liston, Chig'atoy ulusi, Xitoy, Misr

B) Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ila daryosi, Shimoliy Hindiston

S) Rusiya, Tibet, Arabiston yarimoroli

D) Kichik Osiyo, Oq O'rda, Shimoliy Hindiston, Ural

117. Ma'lumki, Amir Temur nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Quyidagi ko'rsatilgan shaharlardan qay birlarini qayta qurdirgan?

A) Isfahon, Anqara, Istanbul

B) Bag'dod, Darband va Baylakon

S) Bag'dod, Sheroz, Marv

D) Balx, Darband, Hirot

118. Quyidagi qay biri Amir Temurning Movarounnahr, Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shganligini ko'rsatadi?

1) Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berdi; 2) Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi; 3) Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik

qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi; 4) Bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini qayta qurdirdi; 5) Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'u bo'stonlar barpo etdi; 6) Bo'ysundirilgan mamlakatlarda pul islohotini o'tkazdi; 7) Sharq bilan G'arb uchun yagona bo'lgan o'lchov birliklarini joriy qildi; 8) Oltin O'rda davlatida iqtisodiy va siyosiy islohotlar joriy qildi.

A) 1, 2, 3, 4, 5

B) 1, 4, 5, 6, 7, 8

S) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

D) 2, 3, 4, 6, 7, 8

119. Amir Temur tomonidan Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy oqibatlariga olib kelganligini qayd eting.

1) iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi; 2) sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi; 3) yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi; 4) hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi; 5) fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi; 6) Bo'ysundirilgan mamlakatlarda pul islohotini o'tkazdi; 7) Sharq bilan G'arb uchun yagona bo'lgan o'lchov birliklarini joriy qildi; 8) Oltin O'rda davlatida iqtisodiy va siyosiy islohotlar joriy qildi.

A) 1, 4, 5, 6, 7, 8

B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

S) 1, 2, 3, 4, 5

D) 2, 3, 4, 6, 7, 8

120. Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda yana qanday nomlar bilan ulug'lanadi?

A) "yildirim" va "sohibqiron"

B) "arablar va g'ayri arablar hukmdori"

S) "Sohibi jahon" va "Sohibi adl"

D) "sohibi adl" va "shayx ur-ra'is"

121. "Yildirim" qanday ma'noni anglatadi?

A) okean, dengiz

B) kuchli, toza

S) erkin, ozod

D) chaqmoq, yashin.

122. O'lpon ma'nosini anglatuvchi so'zni aniqlang.

A) boj

B) xiroj

S) Moli omon

D) yasoq

123. Jahongir, saodatli, zafarli, g'olib hukmdor degan ma'nolarni anglatuvchi so'zni aniqlang.

A) "sohibi adl"

B) "yildirim"

S) "shayx ur-ra'is"

D) sohibqiron

124. Sohibqiron Amir Temur davlat qurilishida nimalardan keng foydalandi?



- A) O‘zbekistonning o‘tmishidagi davlatchilik tajribasidan, tartib-qoidalaridan
- B) chet el maslahatchilaridan
- S) Usmonli turklar davlat boshqaruvi andozasidan
- D) Chingizxonning davlat boshqaruvidan

125. Amir Temur davlatining tarkibiy tuzilishi qanday tartiblarga asoslangan?

- A) xalq kengashlari
- B) diniy
- S) harbiy-siyosiy
- D) urug‘-aymoqchilik

126. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi qanday idoradan iborat bo‘lgan?

- A) dargoh
- B) dargoh va vazirlik (devon)
- S) devon
- D) oqsoqollar kengashi va devon

127. Amir Temur saltanatida dargohni kim boshqargan?

- A) xon
- B) devonbegi
- S) Oliy hukmdorning o‘zi
- D) amir

128. Amir Temur saltanatida ijroiya hokimiyat — devonni kim boshqargan?

- A) xon
- B) Oliy hukmdorning o‘zi
- S) amir
- D) devonbegi (bosh vazir)

129. Devonda faoliyat yuritgan vazirlarni qayd eting.

1) harbiy vazir; 2) mulkchilik va soliq ishlari vaziri; 3) saroy xarajatlari — moliya vaziri; 4) sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi uch vazir; 5) mustovfiy vaziri; 6) amid ul-mulk vaziri; 7) sohbi shurat vaziri.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 5, 6, 7
- S) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- D) 1, 3, 6, 7

130. Markaziy hokimiyat tizimida qanday lavozimdagi amaldorlar xizmat qilgan?

- A) hokim, bek, amir, oqsoqol
- B) hokim, dodxoh, yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib
- S) shayxulislom, qozikalon, sadri a‘zam, dodxoh, yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib
- D) xon, bosh hojib, amir, xazinabon, xonsolar, qo‘shchi, bakovul, kotiblar

131. Amir Temur saltanatida bosh hojib, xazinabon, xonsolar, qo‘shchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dasturxonchilar davlat boshqaruvining qaysi idorasida xizmatda bo‘lgan?

- A) dargohda

- B) devonda
- S) hukmdor huzurida
- D) vazirlar mahkamasida

132. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o‘lkalarni qay tarzida boshqardi?

- A) uluslarga bo‘lib
- B) tumanlarga bo‘lib
- S) suyurg‘ol tarzida
- D) iqto” tarzida

133. Qayerdan tashqari o‘z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o‘g‘il va nabiralari orasida taqsimlaydi?

- A) Movarounnahr
- B) Xuroson
- S) Hindiston
- D) Eron

134. Ozarbayjon, G‘arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni Amir Temur kimga suyurg‘ol qilib beradi?

- A) Mirzo Umar ibn Mironshohga
- B) Pirmuhammad ibn Umar Shayxga
- S) Shohruh Mirzoga
- D) Pirmuhammad Jahongirga

135. Amir Temur Pirmuhammad ibn Umar Shayxga qayerni suyurg‘ol qilib beradi?

- A) Ozarbayjon, G‘arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni
- B) Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni
- S) Forsni
- D) Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga

136. Amir Temur kimga Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni suyurg‘ol qilib beradi?

- A) Ibrohim Sultonga
- B) Pirmuhammad ibn Umar Shayxga
- S) Mirzo Umar ibn Mironshohga
- D) Shohruh Mirzoga

137. Amir Temur kimga Sulton Mahmud G‘aznaviy mulkini Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga taqsimlab beradi?

- A) Ulug‘bekka
- B) Pirmuhammad Jahongirga
- S) Mirzo Umar ibn Mironshohga
- D) Shohruh Mirzoga

138. Quyidagi ko‘rsatilgan hududlardan qay biri Amir Temur tomonidan Ulug‘bekka suyurg‘ol qilib beriladi?

- A) Farg‘ona, Tarozdan to Xo‘tangacha
- B) Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga
- S) Toshkent, Sayram, O‘ror va Ashparadan to Xitoy chegarasigacha
- D) Xuroson, Mozandaron, Ray va Seistonni

139. Farg‘ona, Tarozdan to Xo‘tangacha, ya‘ni Sharqiy Turkistonning janubi-g‘arbini Amir Temur kimga suyurg‘ol qilib beradi?

- A) Ulug‘bekka
- B) Shohruh Mirzoga
- S) Ibrohim Sultonga
- D) Mirzo Umar ibn Mironshohga

140. Amir Temur saltanatida uluslarning markaziy hukumatga tobeligi nimalardan iborat edi?

- A) yagona pul zarb qilinishi
- B) yagona xazinaning mavjudligi
- S) xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan
- D) yagona qo‘shinning mavjudligi

141. Amir Temur suyurg‘ol yerlarni kimlarga bergan?

- A) mahalliy zodagonlarga
- B) xizmat ko‘rsatgan amirlarga
- S) yirik harbiy boshliqlarga
- D) o‘g‘illari, nabiralari va xizmat ko‘rsatgan amirlarga

142. Amir Temur ichki va tashqi siyosatida asosan nimaga suyanar edi?

- A) ruhoniylarga
- B) qo‘shinga
- S) do‘stlariga
- D) mahalliy hokimlarga

143. Amir Temur qo‘shinning qaysi masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi?

- A) zamonaviy qurol-aslaha bilan ta‘minlanganligiga
- B) kasbiy mahoratiga
- S) qo‘shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom
- D) doimiy ravishda qo‘shin saflarini mahalliy yoshlar bilan ta‘minlanib turilishiga

144. Amir Temur qo‘shini nima asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi?

- A) o‘n minglik
- B) o‘ntalik askariy birikmalar
- S) minglik
- D) yuzlik

145. Lashkar qanday birikmalariga bo‘lingan?

- A) tuman, hazora, qo‘shun va ayl
- B) yetti qism — qo‘llar
- S) qo‘shun va ayl
- D) manglay, burong‘or va juvong‘or

146. Ma‘lumki, Amir Temur lashkari bir necha birikmalarga bo‘lingan. O‘n minglik birikma qanday nom bilan atalgan?

- A) tuman
- B) hazora

- S) qo‘shun
- D) ayl

147. Amir Temur lashkarining hazora birikmasi nechta askariy birikmani tashkil qilgan?

- A) o‘n minglik
- B) yuzlik
- S) ming
- D) o‘nlik

148. Amir Temur qo‘shinidagi yuzlik askariy birikmasi ifodalovchi atamani toping.

- A) ayl
- B) hazora
- S) tuman
- D) qo‘shun

149. Amir Temur qo‘shinidagi ayl ...

- A) o‘n minglik askariy birikmadir.
- B) minglik askariy birikmadir.
- S) yuzlik askariy birikmadir.
- D) o‘ntalik askariy birikmadir.

150. Amir Temur qanday harbiy mansablarni ta‘sis etadi?

- A) tavochi, burong‘or, juvong‘or, qanbu
- B) bosh hojib, xonsolar, qo‘shchi, bakovul
- S) tuman og‘asi, mirihazora, qo‘shunboshi va aylboshi
- D) devonbegi, harbiy vazir, dodxoh, yasovul, muhassil

151. Qaysi xizmati uchun Amir Temur tomonidan amir bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bimalol kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan?

- A) biron qo‘shinni yenggan, biror mamlakat yoki viloyatni zabt etgan
- B) zabt etilgan mamlakat aholisi yil davomida qo‘zg‘olon ko‘tarmagan bo‘lsa
- S) zabt etilgan viloyatni obodonlashtirgan bo‘lsa
- D) biron qo‘shinni yengish haqidagi taklifi amalga oshsa

152. Amir Temur davlatida askariy qismlarni viloyatlardan to‘plash bilan qaysi mansabdagi amaldorlar shug‘ullanar edi?

- A) bosh hojib
- B) tavochi
- S) bakovul
- D) qozikalon

153. Amir Temur qo‘shinda qattiq harbiy intizom o‘rnatadi. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkarga qanday talablar qo‘yilgan?

- A) inizomni qat‘iy bajarishga majbur bo‘lib, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi va adolatli bo‘lishi lozim hisoblangan.
- B) jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan.
- S) intizomni qat‘iy bajarishga majbur bo‘lib, zabt etilayotgan mamlakat aholisi tilini yaxshi bilishi shart edi.

D) zabt etilgan mamalakatning moddiy madaniy obidalariga zarar yetkazmaslik

154. Amir Temur harbiy yurish paytida qo‘shin qay tartibda borardi?

A) oldinda izofa, ular orasidan xabarchilar bo‘linmasi, undan keyinroqda manglay — avangard qism borardi.

B) oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo‘linmasi, undan keyinroqda manglay — avangard qism

S) oldinda manglay — avangard, ular orasidan xabarchilar bo‘linmasi, undan keyinroqda izofa qism borardi.

D) oldinda yasovul bo‘linmasi, ular orasidan xabarchilar, undan keyinroqda qanbullar borardi.

155. Amir Temur harbiy yurish paytida manglay bilan qo‘shinning asosiy qismlari oralig‘ida nima joylashgan?

A) markaz, burong‘or va juvong‘or

B) qo‘mondonning qarorgohi va izofa

S) xabarchilar, yasovul bo‘linmasi, manglay

D) qanbullar

156. Amir Temur qo‘shinining zaxira qismlari nima deb yuritilgan?

A) qanbullar

B) juvong‘or

S) izofa

D) burong‘or

157. Amir Temur qo‘shinining asosiy jangovar qismlari qanday qanotlaridan iborat bo‘lgan?

A) qanbullar

B) xabarchilar, yasovul bo‘linmasi, manglay

S) markaz, burong‘or va juvong‘or

D) tuman, hazora, qo‘shun va ayl

158. Amir Temur qo‘shinidagi qo‘riqchi askariy qo‘shilmalar qanday nom bilan yuritilgan?

A) xabarchilar

B) manglay

S) burong‘or

D) qanbullar

159. Amir Temur qo‘shini necha qism — qo‘llardan iborat edi?

A) to‘rt

B) besh

S) olti

D) yetti

160. Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temur qo‘shindagi qaysi tartibni birinchi bo‘lib joriy qilgan deb yozgan?

A) qo‘shinni tuman, hazora, qo‘shun va aylga bo‘lib joylashtirish

B) qo‘shinni markaz, burong‘or va juvong‘orga bo‘lib joylashtirish

S) qo‘shinda tuman og‘asi, mirihazora, qo‘shunboshi va aylboshi harbiy lavozimlarni joriy qilishi

D) qo‘shinni yetti qo‘lga — qismga bo‘lib joylashtirish

161. Amir Temur qo‘shinidagi qo‘llar kimga bo‘ysungan?

A) oliy hukmdorga

B) tuman og‘asiga

S) tavochiga

D) faqat qo‘shin qo‘mondoniga

162. “Temur tuzuklari” — bu ...

A) Amir Temurning badiiy asari.

B) Amir Temurning bolaligiga bag‘ishlangan asar.

S) Amir Temurning harbiy san‘ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar.

D) Amir Temurning ma‘rifiy, ahloqiy asari.

163. “Temur tuzuklari”da nimalar haqida bayon etiladi?

A) diniy ta‘limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanishidagi mohiyati talqin etilgan.

B) kamolot yo‘lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne‘matlaridan bahramand bo‘lishning joizligi g‘oyasi ilgari suriladi.

S) mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ‘ib etadi.

D) mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi

164. Amir Temur kimlar tarixini chuqur bilgan?

A) hind va uyg‘ur

B) turk, arab va eronliklar

S) fors va xitoy

D) turk, mo‘g‘ul va xitoy

165. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanaqa bilimni, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan har bir masalani hal etishda Amir Temur kimlar bilan maslahatlashardi?

A) shu sohaning bilimdonlari va ulamolar bilan

B) pirlari bilan

S) ilm-fan ahli bilan

D) harbiy kengash bilan

166. Amir Temur davlat ishlarining necha ulushini kengash, tadbir va mashvarat bilan amalga oshirgan?

A) o‘n

B) sakkiz

S) to‘qqiz

D) yetti

167. Amir Temur davlat boshqaruvida shikoyatlarni ko‘ruvchi amaldor qanday nomda yuritilgan?

A) tavochi

B) muhassil

S) dodxoh

D) muhtasib

168. Amir Temur davlat boshqaruvida muhassil qanday vazifani bajargan?

A) shikoyatlarni ko‘ruvchi

B) shariat qoidalarini ijrosi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi

S) vaqf mulklari boshqarish

D) soliq undiruvchi

169. Muhtasib — bu ...

A) shikoyatlarni ko'ruvchi

B) vaqf mulklari boshqarish

S) shariat qoidalarini ijrosi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi

D) soliq undiruvchi

170. Amir Temur davrida sadri a'zam qanday vazifani bajargan?

A) soliq undiruvchi

B) shariat qoidalarini ijrosi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi

S) vaqf mulklari boshqaruvchisi

D) shikoyatlarni ko'ruvchi

171. Suyurg'ol — bu ...

A) vaqf mulklari boshqaruvchisi

B) aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega amaldorlar

S) oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan yer-mulk.

D) ziroatchi dehqonlardan olinadigan yer solig'i

172. Amir Temur davrida hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi qanday nomda yuritilgan?

A) Muhtasib

B) Muhassil

S) Dodxoh

D) Yasovul

173. Sohibqiron Amir Temur dunyoni nimasi bilan lol qoldirdi?

A) yengilmasligi bilan

B) Sulton Boyazidni yengishi bilan

S) davlatni boshqarish va harbiy sohada o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan

D) Yevropa va Rus davlatini mo'g'ullardan ozod etishi bilan

174. Amir Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun qaysi shaharning obodonligiga alohida ahamiyat beradi?

A) Samarqand

B) Kesh

S) Buxoro

D) Urganch

175. Amir Temurning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani qanday nishonlash odati bo'lgan?

A) nabiralarini to'yini o'tkazish

B) hunarmandlar ko'rigini o'tkazish

S) muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan

D) ilm-fan ahli bilan bahs-munozara o'tkazish

176. Amir Temur Movarounnahrda muhtasham me'morlik obida barpo etish maqsadda qayerdan mohir g'isht teruvchilar olib kelingan?

A) Erondan

B) Hindistondan

S) Turkiyadan

D) Misrdan

177. Qayerning mashhur usta-hunarmandlarini Amir Temur olib kelib Movarounnahrning imorat-u inshootlarini bino qiladilar?

A) Sheroz, Isfahon va Damashq

B) Balx, Marv, Mashhad

S) Nishopur, Bag'dod, Damashq

D) Astrobod, Dehiston, Qunduz

178. Amir Temur zabt etilgan qaysi shaharlarda bino qurdirdi?

A) Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara

B) Balxda masjid, Xirotda saroy, Bag'dodda madrasa, Najmiddin Kubro qabri ustiga maqbara

S) Buxoro shahridagi Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbaralari, Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli ulug'vor minora, Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari

D) Ismoil Somoniy maqbarasi, Mag'oki-attoriy masjidi, Raboti Malik

179. Amir Temur o'zining saxovati va himmatini qaysi shaharlarda oliy imoratlar qurdirishda ko'rsatdi?

A) Buxoro va Samarqandda

B) Toshkent va Nasafda

S) Shahrisabz va Samarqandda

D) Termiz va Urganchda

180. Amir Temur qayerda otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga maqbara qurdirdi, katta jome masjidini bunyod etdi?

A) Buxoroda

B) Nasafda

S) Shahrisabzda

D) Samarqandda

181. Qayerda dunyoga dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi?

A) Buxoroda

B) Samarqandda

S) Nasafda

D) Shahrisabzda

182. Qaysi me'morchilik obida peshtoqiga "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq" degan xitobnoma bitilgan?

A) Ko'ksaroy

B) Bo'stonsaroy

S) Ahmad Yassaviy maqbarasi

D) Oqsaroy



183. Qaysi shaharda Ahmad Yassaviy maqbarasi bino qilingan?

- A) Samarqand
- B) Shahrisabz
- S) Turkiston
- D) Buxoro

184. Kimning davrida mo'g'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda boshdan oyoq yangitdan qayta quriladi?

- A) Ismoil Somoniy
- B) Mahmud Yalavoch
- S) Amir Temur
- D) Ulug'bek

185. Qaysi shahar tevaragi Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi olita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- S) Shahrisabz
- D) Nasaf

186. Samarqand arkida Amir Temurning qaysi qarorgohi bino qilindi?

- A) Oxanin va Oxanin
- B) Shayxzoda va Feruza
- S) Korizgoh va So'zangaron
- D) Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy

187. Quyidagi ko'rsatilgan inshootlardan qay biri to'rt qavatli bo'lib, gumbazlar va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun u shunday nom bilan shuhrat topadi?

- A) Shayxzoda
- B) So'zangaron
- S) Bo'stonsaroy
- D) Ko'ksaroy

188. Amir Temur davrida qayerda xonlarni podsholik taxtiga o'tqizish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqizadigan toshdan taxt kursi — Ko'ktosh qo'yilgan edi?

- A) Bo'stonsaroy
- B) Ko'ksaroyda
- S) So'zangaron
- D) Shayxzoda

189. Amir Temur arkida qanday imoratlar joylashgan edi?

- A) davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zarbxona, qamoqxona
- B) hukmdor va amaldorlar uy-joylari
- S) hunarmandlar savdo rastalari
- D) Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi qal'alar

190. Amir Temur davrida Samarqandda qanday inshootlar quriladi?

- A) karvonsaroy va qasrlar
- B) Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi
- S) Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari
- D) saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar

191. Nechanchi yillarda Samarqandda Ispaniya elchisi Klavixo bo'lgan?

- A) 1402—1403-yillarda
- B) 1403—1404-yillarda
- S) 1404—1405-yillarda
- D) 1405—1406-yillarda

192. Qachon hozirgi vaqtda Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Jome masjidi bino qilinadi?

- A) 1403—1404-yillarda
- B) 1402—1403-yillarda
- S) 1404—1405-yillarda
- D) 1405—1406-yillarda

193. Amir Temur Samarqand atrofida barpo qilgan bog'larni qayd qiling.

1) Bog'i Dilkusho; 2) Bog'i Chinor; 3) Bog'i Bihisht; 4) Bog'i Baland; 5) Davlatobod; 6) Bog'i Nav; 7) Bog'i Shamol; 8) Bog'i Jahonnamo; 9) Bog'i Maydon; 10) Chinnixona

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
- B) 1, 2, 5, 6, 7, 8, 9, 10
- S) 6, 7, 8, 9, 10
- D) 1, 2, 3, 4, 9, 10

194. Ma'lumki, Amir Temur davridagi bog'lar tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan. Birinchi turdagi bog'lar qanday ko'rinishga ega bo'lgan?

A) tabiiy daraxtzor va chakalakzorlar bag'rida barpo etilgan.

B) har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan to'rtburchak shakldagi chorbog'lardir.

S) bunday bog'lar hukmdor shikor qilishi uchun mo'ljallangan.

D) bu turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan.

195. Amir Temur davridagi qaysi bog'lar tabiiy daraxtzor va chakalakzorlar bag'rida barpo etilgan?

- A) bunday bog'lar barpo etilmagan
- B) birinchi va ikkinchi turdagi
- S) birinchi turdagi
- D) ikkinchi turdagi

196. Amir Temur davridagi barpo qilingan qaysi bog'lar hukmdor shikor qilishi uchun mo'ljallangan?

- A) bunday bog'lar barpo etilmagan.
- B) birinchi va ikkinchi turdagi
- S) birinchi turdagi
- D) ikkinchi turdagi

197. Amir Temur davridagi qaysi turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan?

- A) bunday bog‘lar barpo etilmagan.
- B) birinchi va ikkinchi turdagi
- S) ikkinchi turdagi
- D) birinchi turdagi

198. Amir Temur davrida barpo qilingan Bog‘i Dilkusho Samarqandning qaysi tomonida joylashgan?

- A) shimol tomonida
- B) sharq tomonida
- S) g‘arb tomonida
- D) janub tomonida

199. Amir Temur Klavixoni qaysi bog‘da qabul qilgan?

- A) Bog‘i Chinor
- B) Bog‘i Baland
- S) Bog‘i Bihisht
- D) Bog‘i Dilkusho

200. Amir Temur o‘z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari nomlari bilan atadi. Bu qaysi shahar edi?

- A) Forij, G‘azna, Hamodon, Kobul
- B) Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz
- S) Qunduz, Qandahor, Laxor, Dehli
- D) Forij, G‘azna, Bag‘dod, Dehli, Sultoniya va Sheroz

201. Nima sababdan Amir Temur o‘z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari nomlari bilan atadi?

- A) chunki Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi.
- B) chunki turli joylardan kelgan hunarmandlar o‘z vatanini qumsamasligi uchun
- S) chunki turli joylardan kelgan hunarmandlar Samarqandda barpo qilinadigan saroylar Sharqning mashhur shaharlari kabi bo‘lishi kerak edi.
- D) chunki Sharqning mashhur shaharlari Samarqanddan kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan ustunroq ekanligi sababli

202. Amir Temur davrida qaysi shaharda savdo va hunarmandchilik juda ham rivoj topgan?

- A) Samarqandda
- B) Buxoroda
- S) Keshda
- D) Termizda

203. Amir Temur davrida Samarqandga ma‘danlar qayerdan olib kelinardi?

- A) Hind va Sinddan
- B) Xitoydan
- S) Suriyadan
- D) Xurosondan

204. Amir Temur davrida Samarqandga Hind va Sinddan nima olib kelinardi?

- A) ma‘danlar
- B) atlas, yashin toshi, mushk
- S) mo‘yna, teri va mum
- D) yoqut, olmos

205. Amir Temur davrida Samarqandga atlas, yashin toshi, mushk qayerdan olib kelinardi?

- A) Hind va Sinddan
- B) Xitoydan
- S) Xurosondan
- D) Erondan

206. Klavixo 800 tualik savdo karvoni qayerdan kelganini o‘z kundaligida qayd etgan?

- A) Hindiston poytaxti Dehlidan
- B) Xuroson poytaxti Hirotdan
- S) Usmoniylar poytaxti Anqaradan
- D) Xitoy poytaxti Xonbaliqdan

207. Qaysi omil Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorligiga olib keldi?

- A) Sulton Boyazidning Amir Temurdan yengilishi
- B) Oltin O‘rda davlatining Amir Temur tomonidan fath etilishi
- S) Buyuk ipak yo‘lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta‘minlash
- D) Amir Temurning uch, besh, yetti yillik harbiy yurishlari

208. Jome masjidi — ...

- A) juma namozi o‘qiladigan masjid.
- B) juma kuni barpo qilingan masjid.
- S) hayit namozi o‘qiladigan masjid.
- D) ilm toliblari uchun barpo qilingan madrasa ichidagi masjid.

209. Shikor qanday ma‘noni bildiradi?

- A) ov
- B) shikoyatlarni ko‘ruvchi.
- S) soliq undiruvchi.
- D) shariat qoidalari ijrosi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi.

210. XV asr boshlarida xalqaro siyosiy vaziyat qanday edi?

- A) bir tomondan, sulton Boyazidning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o‘zi Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo‘lgan edi.
- B) bir tomondan, sulton Boyazidning Bolqon yarim oroli davlatlari bilan harbiy ittifoq bo‘lishga intilayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o‘zi G‘arbiga tomon shiddat bilan siljib borayotgan edi.
- S) bir tomondan, sulton Boyazidning Russiyaga xavf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Oltin O‘rda Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo‘lgan edi.
- D) bir tomondan, Amir Temur butun Yevropaga xavf



solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o'zi G'arbiga tomon shiddat bilan siljib borayotgan edi.

211. Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari Boyazidga qarshi kurashish maqsadida yordam so'rab Amir Temurga murojaat qiladilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida ...

A) Amir Temurga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashga va'da qiladilar.

B) Amir Temurga Konstantinopol va Perani tortiq qilishga va'da beradilar.

S) Genuya va Venetsiyaga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashga va'da qiladilar.

D) Trapezund va Konstantinopolni g'alabadan so'ng Amir Temurga bo'sunishiga va'da beradilar.

212. Amir Temur Boyazid bilan bo'lajak to'qnashuvda qayerning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi?

- A) Genuya va Venetsiya
- B) Konstantinopol va Pera
- S) Trapezund va Konstantinopol
- D) Ispaniya va Portugaliya

213. Amir Temur 1402-yil 15-mayda kimning nomiga xat yo'llaydi?

- A) Karl VI
- B) Genrix IV
- S) Ioann VII Paleolog
- D) Genrix III de Trastamara

214. Yevropa shaharlaridan qay biri Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi 20 ta dan 40 ta harbiy kemalar bilan yordam berish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar?

- A) Fransiya va Angliya
- B) Genuya va Venetsiya
- S) Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi
- D) Ispaniya va Portugaliya

215. Amir Temur Boyazid bilan bo'lajak to'qnashuvi arafasida Yevropaning qaysi hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, yozishmalar olib boradi?

A) Fransiya qiroli Genrix IV, Angliya qiroli Karl VI, Kastiliya va Leon qiroli Ioann VII Paleolog

B) Fransiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrix III de Trastamara, Kastiliya va Leon qiroli Genrix IV

S) Fransiya qiroli Ioann VII Paleolog, Angliya qiroli Genrix VI, Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara

D) Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara

216. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo'shini ustidan qozonilgan buyuk g'alabadan so'ng Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bo'lgan

aloqalarining mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda Amir Temur ular bilan ...

A) harbiy sohada birgalikda islohotlar o'tkazishga ahamiyat beradi.

B) Buyuk Geografik kashfiyotlarda qatnashishga ahamiyat berdi.

S) dengizda savdo qilish uchun savdo kemalar qurishga ahamiyat berdi.

D) do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarga ahamiyat beradi.

217. Amir Temur qachon Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo'llaydi?

- A) 1402-yil yozida
- B) 1403-yil mayda
- S) 1403-yil yozida
- D) 1404-yilning sentabr-noyabrda

218. Amir Temur Fransiya va Angliyaga jo'natgan elchilari qachon Parijga yetib keladi?

- A) 1403-yil mayda
- B) 1402-yil yozida
- S) 1404-yilning sentabr-noyabrda
- D) 1403-yil yozida

219. Amir Temur Fransiya va Angliyaga jo'natgan elchilari orqali ularga nimalarni taklif etadi?

- A) dengizda savdo qilish uchun savdo kemalar qurish
- B) harbiy sohada birgalikda islohotlar o'tkazish
- S) ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va agar qirool hamda gersoglar rozi bo'lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni
- D) Buyuk Geografik kashfiyotlarda qatnashish

220. Sohibqiron Amir Temur tomonidan qaysi hukmdorga quyidagi maktub yuborilgan: "Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning o'lkangizga o'tgan ajdodlarimiz davridagidek borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, ko'p xursand bo'lar edik. Shuni aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi."

- A) Fransiya qiroli Karl VI ga
- B) Angliya qiroli Genrix IV
- S) Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III
- D) Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog

221. Fransiya qiroli Karl VI qachon Amir Temurga javob maktubini yo'llagan?

- A) 1404-yilning sentabr-noyabrda
- B) 1403-yil 15-iyunida
- S) 1402-yil 15-iyunida
- D) 1403-yil 15-mayda

222. Kim Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarida faol qatnashdi?

- A) Fors hokimi Pirmuhammad ibn Umar Shayx
- B) g'arbiy viloyatlar hokimi Mironshoh
- S) Xuroson hokimi Shohruh Mirzo
- D) g'arbiy viloyatlar hokimi Pirmuhammad Jahongir

223. Kim Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniya o'z ichiga olgan mulklar hokimi bo'lgan?

- A) Pirmuhammad ibn Umar Shayx
- B) Mironshoh
- S) Shohruh Mirzo
- D) Pirmuhammad Jahongir

224. Kim Amir Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi?

- A) Shohruh Mirzo
- B) Mironshoh
- S) Ulug'bek
- D) Pirmuhammad

225. Nima sababdan Mironshoh xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi?

- A) Amir Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etish
- B) Buyuk ipak yo'lini tiklash maqsadida
- S) Buyuk geografik kashfiyotlarda qatnashish maqsadida
- D) Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida

226. Nima sababdan G'arbda Mironshoh katolik dinining homiysi sifatida shuhrat qozondi?

- A) Sharq va G'arbi bo'g'lab turuvchi Buyuk ipak yo'lini tiklagani uchun
- B) musulmon hukmdorlari ichida ilk bor Buyuk geografik kashfiyotlarda xristian hukmdorlari bilan birgalikda qatnashganligi uchun
- S) xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirganligi sababli
- D) xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlardan olinadigan bojni bekor qilgani uchun

227. Dastlab Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga qachon yuboriladi?

- A) 1402-yilning yozida
- B) 1402-yilning kuzida
- S) 1402-yilning bahorida
- D) 1402-yilning qishida

228. Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga jo'natilgan ispan elchilariga nimalar haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi?

- A) Amir Temurning xazinasi haqida
- B) Amir Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi va qo'shinining sonini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida

- S) Amir Temurning harbiy ittifoqchilari haqida
- D) Amir Temurning harbiy va iqtisodiy qudrati haqida

229. Kimni Ispaniya elchilariga qo'shib Amir Temur Ispaniyaga elchi qilib yuboradi?

- A) Jahonshohbek
- B) Muhammadqozi
- S) Sayfuddinbek
- D) Sulaymonshohbek

230. Qachon Genrix III Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi?

- A) 1403-yil 21 mayda
- B) 1403-yil 15-iyunida
- S) 1404-yil 21 noyabrda
- D) 1402-yil 15-mayda

231. Genrix III tomonidan kim Amir Temur huzuriga jo'natilgan ikkinchi maxsus elchilarga boshliq qilib tayinlanadi?

- A) Ioann VII Paleolog
- B) Foma Akvinskiy
- S) Klavixo
- D) F.Biondo

232. Amir Temur bilan diplomatik munosabatlar olib borgan Genrix III qayerning hukmdori edi?

- A) Fransiya qiroli
- B) Angliya qiroli
- S) Konstantinopol noibi
- D) Kastiliya (Ispaniya) qiroli

233. Qachon Klavixo boshliq Ispaniya elchilari Samarqandda bo'ladilar?

- A) 1406-yilning mart oyida
- B) 1402-yilning bahorida
- S) 1403-yilning mayida
- D) 1404-yilning sentabr-noyabr oylarida

234. Qachon Ispaniya elchilari Samarqanddan jo'natib yuboriladi?

- A) 1402-yilning 15-mayida
- B) 1403-yilning 15-iyunida
- S) 1404-yilning 21 noyabrda
- D) 1403-yilning 21 mayda

235. Nima sababdan Klavixo boshliq Ispaniya elchilari Samarqanddan jo'natib yuboriladi?

- A) o'z oldiga qo'rgan maqsadiga erishganligi uchun
- B) Amir Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan
- S) Amir Temur maktubini zudlik bilan G'arbiy Yevropa hukmdorlariga yetkazishi zarurligidan
- D) do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish zarurligidan

236. Qachon Klavixo Ispaniyaga qaytib keladi?

- A) 1402-yilning bahorida
- B) 1403-yilning mayida



- S) 1404-yilning sentabr-noyabr oylarida
- D) 1406-yilning mart oyida

237. Klavixoning safar taassurotlari qaysi nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi?

- A) “Buyuk Temur tarixi” va “Temur qarorgohi”, “Samarqandga sayohat kundaligi”
- B) “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”
- S) “Temur Yevropa haloskori”, “Temur qarorgohi”
- D) “Temurning harbiy qudrati», “Samarqandga sayohat kundaligi”

238. Davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish borasidagi faoliyat qanday nom bilan ataladi?

- A) diplomatiya
- B) doktrina
- S) missiya
- D) aneksiya

239. Katolik missionerlari — bu ...

- A) katolik dinining savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchilari

- B) xristian dinining boshqa davlatdagi elchilari
- S) katolik dinini boshqa xalqlar orasida yoyish maqsadida targ‘ibot ishlari bilan shug‘ullanuvchilar
- D) xristian dinining musulmon davlatlardagi maxsus vakillari


240. Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa G‘alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun qaysi qirol o‘z navbatida Amir Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga urinar edi?

- A) Karl VI
- B) Genrix IV
- S) Genrix III de Trastamara
- D) Ioann VII Paleolog

241. Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qaysi davlat qirolini jiddiy qo‘llab-quvvatlaydi?

- A) Italiya qirolini
- B) Kastiliya va Leon qirolini
- S) Angliya qirolini
- D) Fransiya qirolini

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: **1.** Sulton Boyazid o'g'li. **4.** Movarounnahrda bostirib kirgan mo'g'uliston xoni. **5.** Movarounnahrda mo'g'ul xoni (1363-1365). **6.** Amir Temur onasi. **7.** Oltin O'rda hukmdori (1380-1397). **11.** Katolik dinining homiysi. **13.** Usmonli turklar sultoni.

ENIGA: **2.** Amir Temur otasi. **3.** O'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. **8.** Umar Shayxning o'g'li. **9.** Amir Temurning o'g'li. **10.** Amir Temurga maktub yozgan Fransiya qiroli. **12.** Amir Temurning piri. **14.** Amir Temurning birinchi xotini. **15.** Amir Temurga tabrik maktubini yo'llagan ingliz qiroli. **16.** Sulton Boyazid o'g'li.

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO'YIGA: 2. Amir Temurga berilgan nom. 3. Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik. 4. Qo'shin to'plovchi. 6. O'n minglik lashkar. 8. Shikoyatlarni ko'ruvchi lavozim. 10. Amir Temur qo'shinining so'l qanoti. 12. Amir Temur va Sulton Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan jang.

ENIGA: 1. Hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi. 3. Shikor. 5. Amir Tarag'ay oqsoqol bo'lgan urug'. 7. Boshini dorga tikkanlar. 9. 1365-yil 22-maydagi jang. 11. Davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni amalga oshirish borasidagi faoliyat. 13. Harbiy yurish paytida qo'mondon qarorgohining yon-atrofidagi zaxira qism. 14. Amir Temur tug'ilgan qishloq. 15. Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi jang.

XRONOKROSS (yillar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. "Loy jangi"ning bo'lishi. 3. Turk sultoni Boyazid Yildirimning vafoti. 5. Tug'luq Temurning Movarounnahrda ikkinchi hujumi. 6. Sarbadorlar harakati. 8. Amir Temurning Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga zarba berishi. 10. Amir Temurning Hirotni egallashi. 12. Anqara jangining bo'lib o'tishi.

ENIGA: 2. Amir Temurning tavallud topishi. 4. Ispan elchisi Klavixoning vataniga qaytishi. 5. Amir Temurning Turmush Og'oga uylanishi. 7. Amir Temurga Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlarining jangsiz taslim bo'lishi. 9. Amir Temur uch yillik harbiy yurishining boshlanishi. 11. Klavixo boshliq ispan elchilarining Samarqandga kelishi. 13. Amir Temurning O'tror shahrida vafoti etishi. 14. Amir Temurning Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinishi.

VII BOB

TEMURIYLAR DAVRIDA MAMLAKATNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

ULUG'BEK DAVRIDA MOVAROUNNAHR

ULUG'BEK — MOVAROUNNAHR HUKMDORI. Temur vafotidan keyin temuriylar o'rtasida toju-taxt uchun kurash boshlandi. Samarqand taxtini Mironshohning o'g'li **Xalil Sulton** (1405-1409) egalladi, ammo kurash besh yilcha davom etdi va Temurning kenja o'g'li **Shohrux** (1377-1447) g'alabasi bilan yakunlandi. U o'ziga Xirotni poytaxt qilib, Samarqandni o'g'li **Mirzo Ulug'bekka** (1394-1449) topshirdi.

Ulug'bekning asl ismi **Muhammad Tarag'ay** bo'lib, u **Amir Temurning** Yaqin Sharqda besh yillik yurishlari vaqtida 1394-yilda Sultoniya shahrida tavallud topadi. U katta onasi **Saroy Mulkxonim** va onasi **Gavharshodbegimlarning** bevosita panohida tarbiyalanadi. Besh yoshidan boshlab **Shayx Ozariy** nomi bilan keyinchalik shuhrat topgan mashhur olim **Shayx Orif** murabbiyligida tarbiyalanadi. Otaliq etib tayinlangan **Amir Shohmalikdan** davlatni idora qilish san'ati bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ldi. **Ulug'bek Og'abekga** unashtirilishi munosabati bilan "ko'ragan" unvoniga sazovor bo'ldi.

Ulug'bek Samarqand taxtiga o'tirgan vaqtida 15 yoshda bo'lgan. Shahzoda balog'at yoshiga yetgunga qadar davlatni boshqarishni **Shohrux** o'zining sodiq amaldorlaridan biri **Shohmalikka** topshiradi.

Ulug'bek mamlakatni 40 yil davomida idora qilishi davrida mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin kurash davom etgan bo'lsa-da, ichki urushlar deyarli bo'lmadi. U Movarounnahrning birligini saqlashga, davlatni mustahkamlashga, iqtisodiy hamda madaniy hayotini ko'tarishga harakat qildi. 1410-yilda Turkiston hokimi **Shayx Nuriddin** Hisor hokimi **Muhammad Jahongir**, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi **Amir Abdulholiq** va oq'rdalik xonzodalardan **Chingiz O'g'lonlar** bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. 1410-yilning 20 aprelda Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeida isyonkor ittifoqchilar bilan **Mirzo Ulug'bek** qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Bu jangda **Ulug'bek** mag'lubiyatga uchrab, Kalifga chekinadi. **Shohrux** katta qo'shin bilan kelib, isyonni bostiradi. 1412-yilda **Shohrux Shohmalikni** Samarqanddan olib ketganligi sababli Movarounnahr va Turkistonni boshqarish 18 yashar **Ulug'bek** qo'liga o'tadi.

HARBIY YURISHLARI. 1414-1415-yillarda **Ulug'bek** Farg'onaga harbiy yurishlar qilib, bu o'lkada o'z hukmronligini o'rnatadi. 1425-yilda **Ulug'bek** Mo'g'uliston ustiga muvaffaqiyatli harbiy yurishni amalga oshiradi. Mo'g'uliston urushi **Ulug'bek** olib borgan jiddiy va so'nggisi edi. Bu zafarli yurishning nishoni sifatida Jizzax yaqinida **Ilono'tti** darasida 1428-yilda **Ulug'bek** tomonidan o'ziga xos "zafarnoma" yozdiradi. 1427-yilda **Ulug'bek** Dashti Qipchoqda o'z siyosiy mavqeini mustahkamlab olgan Baroq O'g'longa qarshi muvaffaqiyatsiz harbiy yurish qiladi. 1449-yil oktyabrda Damashq qishlog'ida o'z o'g'li **Abdullatif** bilan bo'lgan jangda yengiladi va 1449-yilning 27 oktyabrida **Ulug'bek** 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda shahid bo'ldi.

ULUG'BEK — ILM-FAN HOMIYSI. **Ulug'bek** o'z saroyiga o'sha davrning riyoziyot, falakkiyot, tarix, adabiyot bo'yicha mashhur olim va shoirlarni to'plab ularga homiylik qildi. **Samarqand** (1417-1420), **Buxoro** (1420) va **G'ijduvon** (1432-1433)da madrasalar bino qildi. **Ulug'bek** 1424-1428-yillarda Samarqandda rasadxona qurib, u yerda o'z davrining mashhur olimlari-**Qozizoda Rumi**y (1360-1437), **G'iyosiddin Jamshid Koshiy** (1383-1456), **Alovuddin Ali Qushchi** (1403-1447) kabi olimlar bilan tadqiqot ishlarini olib bordi. Rasadxona uch oshiyonlik bo'lib, uning kengligi 47 metr, balandligi 31 metr edi. Unda quyosh, yulduzlar va sayyoralarini kuzatish asbobi-sekstant o'rnatilgan edi. Ilmiy ishlar natijasida 1018 yulduzlarning joylashishi aniqlangan "**Ziji Jadidi Ko'ragoniy**" asari yaratildi. Bu asar XVII-XVIII asrlarda Yevropa tillariga tarjima qilinib, Sharq G'arbda fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ulug'bek bobosi **Amir Temurdek** bunyodkor bo'lib, mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrda qator masjid, xonaqoh, hamom, sardoba va karvonsaroylar qad ko'taradi. Mozorat va ziyoratgohlar obod etiladi. **Ulug'bek** davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllandi. Bu yerda "**Masjidi Muqatta**", "**Ko'kaldosh**" jome" masjidi va **Ulug'bek** madrasasi bino qilinadi. Uning davrida yana bir yirik me'moriy kompleks — Shohizinda to'liq qurib bitkaziladi. Samarqand shahrida "Chil sutun" va "Chinnixona" saroylari nihoyatda muhtasham va ko'rkam bo'lgan.

TEMURIYLAR DAVLATIDA IJTIMOY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR

DEHQONCHILIK, YER EGALIGI MUNOSABATLARI. XV asrda temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv vohalarida, Tus vodiysida hamda Hirot va uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Temuriylar davrida amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida qadimgi **Angor** kanalini qayta tiklanishi bo'ldi. **Ulug'bek** davrida **Somonjuq** dashtiga (Buxoro vohasi) suv chiqarilib yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Shohruh tomonidan **Sultonbandning** tiklanishi natijasida Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. **Sulton Husayn Mirzo** davrida **Marviruddindan** yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi. Bu davrda Hirot va Mashhad atroflari **Alisher Navoiy** tashabbusi bilan **Turuqband suv omborini** qurdirishi natijasida obod etiladi.

Temuriylar davrida yer va mulkchilikning to'rt shakli: "**mulki devoniy**"-davlat yerlari, "**mulk**" — xususiy yerlar, "**mulki vaqf**" — madrasa va ibodatxonalarga tegishli yerlar, "**jamo'a yerlari**" bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Temuriylar davrida davlat yerlarini "**suyurg'ol**" tarzida in'om qilish keng tarqalgan. Bu davrda bosh hukmdor tomonidan yirik yer egalari biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'ini berish keng tarqalgan. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan.

XV asrda Movorounnahr va Xurosonda yer egalari "**dehqon**", ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni "**muzoriy**" deb yuritilgan. Muzoriylar to'rt guruhga bo'lingan: **1)** davlat yerlarida yashovchi muzoriylar, **2)** mulkdorlarning yerlarida yashovchi muzoriylar, **3)** o'z yeriga ega bo'lgan muzoriylar, **4)** vaqf mulklarida yashovchi muzoriylar.

SOLIQ TURLARI. Soliq hosilga va yerning unumdorligiga qarab belgilangan. Sug'orma dehqonchilik yerlarida olinadigan asosiy soliq "**xiroj**" deb atalgan. Obikor yerlardan xiroj hosilning 3/1 qismi miqdorida (33%) olingan. Xiroj hosil yig'ib olinadigan paytda mahsulot yoki pul holida to'langan. Lalmikor yerlardan hosilni 6/1 qismidan to 8/1 qismida, ya'ni 16,5% dan 12,5% miqdorida soliq undirilgan. Mulki yerlarining bir qismidan "**ushr**", ya'ni hosilning 10/1 qismi miqdorida soliq olingan. Chorva mollaridan 40/1, ya'ni 2,5% miqdorida "**zakot**" olingan. Aholi soliq yig'ish va uning hisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimdagi ma'murlarning xizmati uchun bir qator yig'imlar to'lashga majbur bo'lgan. Asosiy soliqlardan tashqari mehnatkash aholi hukmdor va yirik mulkdorlar foydasiga tekin ishlab berishga majbur edi. Bu davrda qurilish ishlari kengayib, unda mehnatkash aholi kuchidan foydalanilgan. Bunday hashar ishlari "**begor**" deb atalgan. Begorda qatnashgan har bir hasharchi ishlash uchun kerakli asbob-uskuna va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan.

HUNARMANDCHILIK. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlari aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining namunali hunarmandchilik va gavjum savdo markaziga aylanadi. Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik yetakchi o'rinni egallagan edi. Duxoba to'qish bu davr uchun texnika jihatidan ancha murakkab kasb hisoblangan. Bu Samarqandda to'qimachilik dastgohlari va to'qish san'atining yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi. XV asrda temir buyum, qurol-yarog' va asboblarni yasash yuqori darajaga ko'tariladi. Bu davrda Samarqand avvalgidek qurol-yarog' yasaladigan markaz bo'lib qoldi. Shaharlarda, xususan Samarqand va Hirotida zargarlik rivoj topadi. O'rta asr hunarmandchiligida **kulolchilik** eng rivoj topgan sohaga aylanadi. U **kosagarlar**, **xum** va **xumchasoqlar** hamda **tandirsoqlar** kabi bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Kulolchilik bilan bir qatorda u bilan chambarchas bog'liq holda binokorlik ashyolari ishlab chiqaradigan pishiq g'isht va g'isht taxtalar pishiradigan **kirpichpazlik** ham g'oyat keng avj oladi.

Bu davrda yirik viloyat shaharlari, xususan Samarqand va Hirotida binokorlarning ahamiyati oshib ketadi. Binokor ustalar kasblariga ko'ra g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar "**banno**" va peshtoqu ravoq hamda toqlariga parchin va girihlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar "**ustod**" deb yuritilgan. Binokorlik va to'qimachilik rivojida yog'ochsozlik muhim ahamiyat kasb yetgan. Yog'ochsozlar xilma-xil yog'och asbob-uskanalar hamda buyumlar yasashgan. Samarqand qog'oz o'rta asr Sharqi xatotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum qismi chet o'lkalarga chiqarilgan.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonning deyarli hamma yirik shaharlarida o'rta asr hunarmandchiligining barcha tarmoq va sohalari bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar, do'konlar, ustaxonalar va rastalar bo'lgan. Hunarmandchilik mahsulotlarining aksariyati shaharlarning markaziy bozori atrofida joylashgan do'konlarda tayyorlanib, sotilar edi. Bu davrda hunarmandchilikning asosini keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar yoki do'kon kabi ustaxonalar tashkil etardi. Korxonalar boshlig'i "usta" deb yuritilgan, uning qo'l ostida bir necha "xalifa" kasb-hunar o'rganar va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarar edi. Hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasi guruhiga mansub kishilar edi.

SAVDO ALOQALARI. XV asrda Temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volga bo'yi va Sibir bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni davlatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynaydi. **Ulug'bek** va **Shohruh** davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilar almashib turgan. Xitoy Movarounnahr va Xurosondan yilqi sotib olardi. 1418-yilda **Ardasher** boshliq **Shohruh** elchilari Xitoyda bo'ladilar. 1419-yilda bunga javoban **Li-Do** va **Jong-Fu** Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi

bo‘lib keladilar. 1420-yilda *Shohruh* va *Ulug‘bek* 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo‘natadilar. *Shohruh* va *Ulug‘bek* zamonida Tibet va Hindiston bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari o‘rnatilgan. 1421 yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. 1441-1442-yillarda Shohruh Hindistonga *Abdurazzoq Samarqandiy* boshchiligida elchilar yuboradi.


PUL MUOMALASI. O‘z zamonisi uchun nodir va favquloddagi voqeasi hisoblangan *Ulug‘bek*ning pul islohoti hunarmandchilikning ichki chakana savdosi uchun keng yo‘l ochib bergan edi. 1428-yilda *Ulug‘bek* muomaladagi **fulusiy** pullar islohotini amalga oshiradi. Mehnatkash aholini ichki chakana savdo munosabatlariga kengroq jalb etish maqsadida *Ulug‘bek* yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisi bilan almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo‘lgan talabni qondirish uchun bir vaqtning o‘zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi. Keyinchalik mis pullar zarbini markazlashtirish maqsadida faqat Buxoro zarbxonasi saqlab qolinib, boshqa shahardagi zarbxonalarga barham berildi. Xalq o‘rtasida “**fulusi adliya**”, ya‘ni “**adolatli chaqa**” nomi bilan shuhrat topgan bu mis fuluslar davlatning ichki savdosini naqdina (naqd pul) bilan to‘la ta‘minlaydi. *Ulug‘bek* tashqi savdodan kelgan daromadni oshirish maqsadida “**tamg‘a**”ni birmuncha oshirdi.


TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

ILM-FAN RAVNAQI. *Shohruh*, *Ulug‘bek*, *Abusaid* va *Sulton Husayn* davrlarida ilm-fan va madaniyat yanada jonlandi. Bu davrda Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ham, Xurosonning markazi Hirotida ham Amir Temur an‘analari davom ettirilib, olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlar, me‘morlar-u binokorlar, naqqoshlaru mohir hunarmandlarning kattagina guruhi to‘plangan edi. Tibbiyot, riyoziyot, tarix, jo‘g‘rofiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, axloq, fiqx fanlari bilan birgalikda, tasviriy san‘at, xattotlik va musiqa san‘atida ulkan siymolar yetishib chiqdilar. *Ibn Arabshoh*, *Nizomiddin Shomiy*, *Sharofiddin Ali Yazdiy*, *Xofiz Abru*, *Abdurazzoq Samarqandiy*, *Mirxond*, *Xondamir* kabi tarixchilarning nomlari shuhrat topgan edi. Xattotlik va tasviriy san‘atda *Mirali Tabriziy*, *Sulton Ali Mashhadiy*, *Mirak naqqosh*, *Qosimali*, *Mahmud Muzahhib*, *Hoji Muhammad naqqosh*, *Shohmurod* va shubhasiz *Sharq Rafaeli* nomini olgan *Kamoliddin Behzod* nom qozongan edilar. Madaniy hayotda *Ulug‘bek*ning ukasi *Mirzo Boysunqur* chuqur iz qoldirgan. Bu davr adabiyotining yuksalishida *Qutb Sayfiy*, *Saroiy*, *Durbek*, *Amiriy*, *Lutfiy*, *Sakkokiy*, *Atoiy*, *Binoiy*, *Atoiy*, *Haydar Xorazmiy*, *Abdurahmon Jomiy* va *Alisher Navoiy* katta hissa qo‘shdilar.


ADABIYOT. *Alisher Navoiy* (1441-1501) o‘zbek adabiy tiliga asos soldi, badiiy yuksak saviyadagi asarlari bilan o‘zbek va fors adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning “*Xamsa*”, “*Xazoyin ul-maoniy*”, “*Majolisun nafoyis*”, “*Muhokamatul-lug‘atayn*”, “*Mezonul-avzon*” kabi asarlari butun jahonga mashhur. *Navoiy*ning ustoz *Abdurahmon Jomiy* (1414-1492) zamonasining buyuk shoirigina bo‘lib qolmay, gramatika, falsafa, boshqa fanlardan ham yaxshi xabardor edi.

Alisher Navoiy va *Abdurahmon Jomiy*ning do‘stligi o‘zbek va tojik xalqlari do‘stligi timsolidir. *Navoiy* va *Jomiy*larning zamondoshi, bu ikki buyuk zotning mehri va hurmatiga sazovar bo‘lgan shaxs *Xo‘ja Ahror Valiy* edi. U davlat boshliqlariga katta ta‘siri bo‘lganligidan foydalanib, o‘zaro urush va nifoqlarni bartaraf etgan.





1470-y. - Hirotda aholiga o`zboshimchalik bilan favqulodda soliq solinishi *Yodgor* boshch. qo`zg`olonga sabab bo`lgan



TARIXIY SHAXSLAR

ABDULLATIF (1423—1450) — temuriylardan. *Ulug'bekning* o'g'li. *Shohrux* saroyida tarbiya olgan, harbiy yurishlarda qo'shinning o'ng qanotiga qo'mondonlik qilgan. *Gavharshod begim* va tarxon amirlar *Shohrux* o'limidan so'ng (1447) Abdullatifni oliy bosh qo'mondonlikka tayinlab, uning amakivachchasi *Alouddavlani* taxtga o'tqazishgan. Bu qarordan norozi bo'lgan Abdullatif *Alouddavlag*a qarshi urush ochgan, lekin Nishopur yaqinidagi jangda (1447) yengilib, hibsga olingan. *Ulug'bek* farzandi hayotini saqlab qolish maqsadida *Alouddavla* bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan. Unga ko'ra, *Alouddavla* Xuroson hukmdori deb tan olinib, Abdullatifga Balx ulusi berilgan. Abdullatif *Ulug'bekning* 1448-yil ilk bahoridan yozigacha *Alouddavla* va *Abulqosim Boburga* qarshi janglarida qatnashgan. So'ng, toj-taxtni egallash maqsadida otasiga qarshi *Abulqosim Bobur* bilan ittifoq tuzgan. *Ulug'bek* Abdullatifga qarshi qo'shin tortgan va Amudaryo bo'yida ikki tomon qo'shini 3 oy muqobil turgan (1449). Samarqandda qolgan beklar isyoni tufayli *Ulug'bek* poytaxtga qaytishga majbur bo'lgan, natijada Abdullatif Amudaryodan o'tib Termiz, Shahrisabzni egallagan. Samarqand yaqinidagi Damishq qishlog'i yonida otasini yengib, taxtni egallagan (1449). Abdullatifning roziligi bilan *Ulug'bek* va ukasi — *Abdulaziz Mirzo* qatl etilgan. Abdullatif olti oylik hukmronligidan so'ng, *Ulug'bekning* xos navkarlaridan *Bobo Husayn* bahodir tomonidan o'ldirilgan (1450-yil 8-may). Abdullatif o'jar, xudbin va shuhratparast bo'lsada, otasi *Ulug'bek* kabi ilm axliga ixlosmand edi. U o'zi ham falakkiyot va tarix ilmi bilan shug'ullanar, she'rlar bitardi.

ABDURAHMON JOMIY (taxallusi; asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) (1414-yil 7-noyabr, Jom — 1492-yil 8-noyabr, Hirot) — fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili. Lirik sohasida *Sa'diy*, *Hofiz* va *Kamol Xo'jandiy* qatorida turgan Jomiy sermahsul olim va iste'dodli adib edi. Jomiyning otabobolari asli Dashtlan bo'lib, Jomda, keyinchalik Hirotida hayot kechirishgan. Jomiy madrasa yoshidan ancha erta Hirotidagi "Dilkash" (Navoiy ma'lumotiga ko'ra, "Nizomiya") madrasasiga kirib, o'z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrisilari qo'lida tahsil olgan. Shu davridayoq u arab tilini mukammal o'rgana boshlagan. Keyinroq Jomiy o'z bilimini oshirish uchun Samarqandga keladi va *Ulug'bek* madrasasida buyuk falakkiyotshunos *Qozizoda Rumiy*, *Ali Qushchi*, fiqhshunos *Fazlulloh Abullays* kabilardan ta'lim oladi. Bu yillarda u til va adabiyotnigina emas, riyoziyot, falakkiyot, falsafa, huquqshunoslik fanlari, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini ham chuqur o'rganadi, olimlarning turli mavzulardagi munozara va mulohazalarida qatnashib, yetuk olimligi bilan tanila boshlaydi. Jomiy, Hirotga qaytgach, tasavvuf yo'lga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi. U o'ziga pir qilib *Shayx Sa'diddin Koshg'ariy* (vafoti — 1456)ni tanlaydi, Hirotning jome" masjidida uning suhbatlarini tinglaydi. *Sa'diddin Koshg'ariy* tasavvufda *Muhammad Naqshband* sulukiga mansub edi. Jomiy mashhur sufiylar

bilan yaqindan muloqotda bo'ladi. *Muhyiddin ibn al-Arabi*ning asarlarini chuqur mutolaa qiladi. O'zining mutasavviflik faoliyatida *Bahouddin Naqshband* g'oyalari shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyondasi — *Xo'ja Ahror* bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman o'zini kundalik "Malomatiya" tariqatiga mansub deb hisoblansa-da, asarlarida Naqshbandga ixlosi baland bo'lgan. Jomiy Xurosonda temuriylardan *Shohrux*, *Abulqosim Bobur*, *Abu Said* va *Husayn Boyqaro* podshohlari davrida yashadi. Xurosonda Hirot taxtiga temuriy *Sulton Husayn Boyqaro* o'tirgandan so'ng Jomiyning mamlakatdagi mavqei juda ortadi, chunki *Sulton Husayn* va uning ko'p avlodlari o'zlarini unga murid, deb e'lon qilganlar. Jomiy 1472-yil xajga boradi. Bu safari vaqtida Nishopur, Sabzavor, Bastom, Domgon, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi bir qancha shaharlarda bo'ladi. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, yaqin do'sti *Xo'ja Ahror* taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mozoratlarni ziyorat qilgan. Jomiy katta yer-mulk egasi bo'lgan. Jomiy *Alisher Navoiy* bilan birinchi marta *Abu Said* hukmronligi davrida Xiyobon mavzesida hamma qatori ko'rishgan. Shunda Jomiy unga o'zining bir risolasini taqdim qilgan. 1476-1477-yillarda *Navoiy* ham Jomiy o'ziga pir, deb taniydi. Garchi Jomiyning *Navoiy*dan yoshi ancha ulug', rasman pir hisoblansa ham mohiyatan ular chin do'st va hamkor bo'lganlar. Jomiy o'zining ("Nafahotul-uns", "Baqoriston" va boshqa) bir qancha asarlarida *Navoiy*ni, *Navoiy* ham o'z asarlari ("Xamsat ul-mutahayyirin", "Majolis un-nafois", "Tuhfat ul-afkor" va boshqa)da Jomiyni hurmat bilan tilga oladi. Jomiy "Nafahot ul-uns" ("Azizlar nafasi"), "Risolai musiqi" ("Musiqi risolasi"), "Risolai muammo" ("Muammo risolasi") kabi o'ndan ortiq asarini *Navoiy* maslahati bilan yozgan. Jomiy vafotidan sal burun lirik she'rlarini 3 devonga bo'lib, ularga "Fotixat ush-shabob" ("Yoshlikning boshlanishi"), "Vositat ul-iqd" ("O'rtadagi dur") va "Xotimat ul-qast" ("Hayot xotimasi", 1479-1491) deb nom berar ekan, bunda *Navoiy* maslahatini e'tiborga olgan edi. *Navoiy* va Jomiyning do'stligi adabiy hamkorlik bilan chegaralanmagan. *Navoiy Husayn Boyqaro* saroyida bosh vazir bo'lib turar ekan, o'z siyosiy va ijtimoiy faoliyatida Jomiydan maslahatlar olib turgan. Masalan, *Sulton Husayn* Qunduz viloyatiga qarshi yurishga o'tlanmoqchi bo'lganda, Jomiy *Navoiy*dan podshohni bu safardan qaytarishni iltimos qilgan. Saroydagi fitna va fujurlar *Navoiy*ning joniga tegib, u o'z vazifasidan ketmoqchi bo'lganda Jomiy uni bunday qarorlardan voz kechtirgan. Chunki *Navoiy*dek xalqparvar arbob saroydan ketsa, xalq va mamlakat ahvoli yanada og'irlashishini u yaxshi tushunar edi. Jomiy o'z asarlarini fors-tojik tilida yozgan, arab tilini ham yaxshi bilgan. Xorazmlik tilshunos *Ibn al-Hojib*ning arab tili nahv (sintaksis)i haqidagi "Al-Kofiya" darsligiga 1492-yilda g'oyat yaxshi sharh bitgan. Bu kitob Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida so'nggi vaqtlargacha maktab va madrasalarda arab tilidan qo'llanma bo'lib keldi. *Navoiy* bergan ma'lumotga ko'ra, Jomiy turkiy tilni yaxshi bilgan.

Jomiydan ulkan va rang-barang adabiy hamda ilmiy meros qolgan. Ba'zi olimlar Jomiy asarlarning umumiy soni 99 ta deb taxmin qiladilar. *Navoiy* "*Xamsat ul-mutahayyirin*" da uning 38 asarini nomma-nom sanab ko'rsatadi. Jomiy asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning turli xil janrlariga oid. Jomiyning ijodiy faoliyati ko'p qirrali bo'lsa ham u Sharq xalqlari madaniyati tarixida ko'proq mashhur shoir va mutafakkir — olim sifatida tanilgan. Bu jihatdan uning epik va lirik merosi g'oyat diqqatga sazovordir. So'nggi asr adabiyotshunoslari xaqli ravishda uni fors-tojik adabiyotining ilk taraqqiyot davrdagi (X-XV asrlar) buyuk mutafakkir-ijodkor deb ataydilar. Jomiy, asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin etadi, tasavvufning XV asrdagi yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning "*Naqshi fusus*" ("Ma'nolar naqshi"), "*Shavohidi nubuvva*" ("Payg'ambarlikka dalillar"), "*Sharhi qasidayi Toiya*" («Radifda "to" harfidan foy-dalanib yozilgan qasida sharhi»), "*Naqdi nusx*" ("Matnni tanqid"), "*Sharhi qasidayi Xamriya*" ("Xamriya" qasidasi sharhi), "*Naqshbandiya ta'limoti haqida risola*", "*Voxid*" atamasi haqida risola", "*Zikr*" shartlari haqida risola", "*Haj qilish yo'llari haqida risola*" kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin. Jomiy falsafasining asosini tasavvufiy g'oyalar tashkil etadi, Jomiyning "*Lujjat ul-asror*" ("Sirlar dengizi", 1475), "*Ashiat ul-lamoat*" ("Yiltillagan nur", 1476) diniy-falsafiy qasidasi *Ibn Sinoga* bag'ishlangan. Dostonlarida xalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan. 7 dostonidan iborat "*Haft avrang*" ("Yetti taxt" yoki "Katta ayiq", 1480-1487)dagi "*Silsilat uz-zahab*" ("Oltin zanjir", 1472), "*Tuhfat ul-axror*" ("Nuroniylar tuhfasini" 1481-1482), "*Sibhat ul-abror*" ("Taqvodorlar tasbehi", 1482-1483) dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ'ib qilgan, kishilarni ma'rifatga, yurtparvarlikka, to'g'rilik, insof va iymonga chaqirgan. "*Yusuf va Zulayho*" (1483), "*Layli va Majnun*" (1484), "*Salomon va Absol*" (1479-1480) dostonlari ishqiy mavzuda. "*Xiradnomai Iskandariy*" dostoni (1485) *Nizomiyning* "*Iskandarnoma*"siga taqlidan yozilgan. Bu asarida u despotizm, zulm, ochko'zlik va qizg'anchilikni qoralaydi, mehnatsevarlik, insonparvarlikni, kishilar o'rtasida o'zaro yordam va hamkorlik haqida, tenglik to'g'risida orzu qiladi. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida *Muhammad Rizo Ogahiy* Jomiyning "*Yusuf va Zulayxo*"sini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Adabiyotshunos va tilshunos olim sifatida ham Jomiy xizmati ulkandir. U o'zining "*Bahoriston*" tazkirasida fors-tojik alabiyotining bir qancha namoyandalari va *Navoiy* haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Uning "*Risolai aruz*" asari aruz haqidagi eng mukammal qo'llanmalardan biridir. Jomiy "*Nafahot ul-uns*" asarini yozish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvif hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 nafari ayollardir, Ushbu asarni *Navoiy* ma'lum bir to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan, Jomiy faqat mashhur sufiylar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmay, qator shoir va adiblarning hayoti va ijodiga ham to'xtaladi.

Navoiy bu asarni o'zbek tiliga "*Nasoim ul-muhabbat*" ("*Muhabbat shabadalari*") nomi bilan tarjima qilgan ekan, uni o'zbek shoirlari va adiblari haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Sharq musiqa ilmi tarixida Jomiyning "*Risolai musiqa*"si ham alohida o'rin tutadi. Jomiyning musiqaviy tafakkuri adabiy-badiiy ijodida ham o'z ifodasini topgan. Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, bir necha marta nashr etilgan. "*Qoftiya sharqi risolasi*", "*Sharhi Mullo*" (yoki "Mullo Jomiy") O'rta Osiyo va Idil (Volga) bo'yi tatarlari madrasalarida arab tili grammatikasidan darslik sifatida o'qitilgan. O'zbekiston va Tojikistonning bir qancha jamoa xo'jaliklari, ko'chalar, maktablar Jomiy nomi bilan ataladi. Samarqand shahrida *Navoiy* bilan Jomiy haykali o'rnatilgan (1970).

ABDULAZIZ IBN SHAROFIDDIN (XIV asr oxiri-XV asr boshi) — rixtagar. *Amir Temur* saroyida yashab ijod etgan. *Ahmad Yassaviy maqbarasi* uchun qo'ygan "*Nazirniyoz qozoni*" oz davri amaliy san'atining nodir namunalaridan biridir.

ABDULAZIZ MIRZO (1430—?) — *Ulug'bekning* kichik o'g'li. *Abdulatifning* ukasi. *Ulug'bek Mirzo* kenja o'g'li *Abdulaziz Mirzoni Abdullatif Mirzoga* nisbatan yaxshi ko'rgan hamda ko'p sohalarida uning ko'ngliga qarab ish tutgan. Binobarin, *Abdulaziz Mirzo* erkatoy va arzanda bo'lib o'sgan. Natijada, uning xatti-harakatlari otasi *Ulug'bek Mirzoga* pand bera boshlagan. 1449-yil *Ulug'bek Mirzo Abdullatif Mirzoga* qarshi jangga ketayotib, *Abdulaziz Mirzoni* o'z o'rniga qo'yib ketadi. *Abdulaziz Mirzo* ota taxtiga o'tirishi bilan hech bir istisnosiz beibolarcha harakat qiladi. U Samarqand shahridagi kazo-kazolar, jumladan otasi *Ulug'bek Mirzo* bilan jangga ketgan bek va amirlarning xonadonlaridagi go'zal qiz-juvonlar, chiroyli kanizaklarni majburan saroyga keltirib, aysh-ishratga mashg'ul bo'ladi. Bunday sharmandalikka qarshi shahar zodagonlari jangdohda turgan bek va amirlar hukmdor *Ulug'bek Mirzoga* qarshi isyon ko'taradilar. Garchi *Ulug'bek Mirzoning* qo'llagan oqilona choratadbirlari natijasida xavf solayotgan isyon tinchlik bilan bartaraf qilingan bo'lsa-da, biroq saltanat akobirlarining ko'nglida *Ulug'bek Mirzoga* nisbatan tug'ilgan gina-qudurat mamlakat poydevoriga rahna solgan edi. *Ulug'bek Mirzoning* jangda mag'lubiyatga uchrab, *Abdulatif Mirzo* huzuriga bosh egib borishining, taslim bo'lishining ham bosh omili shunda edi. Voqeaning bunday qaltis rivojlanishida arzanda o'g'il *Abdulaziz Mirzoning* hissasi katta edi. *Z.M. Bobur* va "*Tarixiy Rashidiy*"ning muallifi *Muhammad Haydarlarning* yozganlaridan ma'lum bo'lishicha, *Ulug'bek Mirzo* kenja o'g'li *Abdulla Mirzoning* yoshligidayoq *Yunusxonning* (keyinchalik Toshkent xoni) singlisini beshik ketti qilib qo'ygan ekan. Binobarin, *Abdulaziz Mirzo* 1434-yildan boshlab "xon" unvoniga ega edi.

ABDULLA MIRZO (1433-1451) — *Movarounnahr* hukmdori (1450-1451). *Temuriylardan*. *Ulug'bekning* ukasi *Ibrohim Mirzoning* kenja o'g'li. Otasi vafotidan so'ng, Fors viloyatiga hokim qilib tayinlangan. Biroq u hali yosh bo'lgani sababli davlat ishlarini onasi *Ruqiya begim* bilan otabek *Shamsiddin Sheroziy* boshqargan. 1447-yil amakivachchasi *Sulton Muhammad Mirzo* Fors viloyatini

bosib olgach, Hirotga qochib kelgan. 1448-yilda esa amakasi *Ulug'bek*ning xizmatiga kirib, uning qiziga uylangan. *Abdullatif*dan keyin Movarounnahr taxtiga o'tirgan. Ammo toju taxt da'vogari *Sulton Abu Said* Mirzoga qarshi jangda halok bo'lgan.

ABDULLO XOTIFIY (?-1521 yil dekabr) — tarixchi, shoir; *Abdurahmon Jomiy*ning jiyani (singlisining o'g'li). “*Xusrav va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Haft manzar*”, “*Shoh Ismoil janobi oliylari Shohnomasi*” kabi asarlar yozgan. *Sulton Husayn Boyqaroga* bag'ishlab, *Amir Temur* zafarlarini madh etuvchi “*Temurnoma*” (yoki “*Zafarnoma*”) tarixiy dostonini yozgan. Qo'lyozmasi ko'pgina kutubxonalarda saqlanib qolgan.

ABDUQODIR NAYIY (XV a.) — mohir sozanda.

ABDURAZZOQ SAMARQANDIY, TO'LIQ ISMI KAMOLIDDIN ABDURAZZOQ IBN JALOLIDDIN ISHOQ SAMARQANDIY (1413-yil 7-noyabr — 1482-yil, Hirot) — mashhur sayyoh, elchi va tarixchi. Tafsir, hadis, tarix, til va adabiyot fanlarini puxta egallagan. Hayotining ko'p davri Samarqandda o'tgani uchun Samarqandiy nisbasini olgan. Abdurazzoq Samarqandiy arab tili grammatikasiga bag'ishlangan “*Risolai Azudiya*” ga sharh yozadi. *Shohruh* saroyida diplomatik yozishmalarni olib borishda qatnashadi, elchilar boshlig'i sifatida 1441-1442-yillarda Hindiston janubidagi Kalikut, Xinovar, Mangalur, Bilur, Bokanur va Bijanagar rojaligiga borib keladi. U Kermon, Ormuz va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi. 1446-1447-yillarda *Shohruh* uni diplomatik topshiriq bilan Gilonga jo'natadi. U hayotining keyingi davrlarida *Abulqosim Bobur* saroyida xizmat qildi. *Boburning Mozandaronga* (1453-yil), so'ngra Samarqandga (1454-yil) qilgan yurishlarida qatnashdi. 1463-yil *Abu Said mirzo* Abdurazzoq Samarqandiy Hirotidagi *Shohruhiya* xonaqosiga shayx etib tayinlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Movarounnahr va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV-XV asrlardagi tarixiga oid boy ma'lumotlarni o'zida jam qilgan “*Matlai sa'dayn va majmai bahrain*” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi”) nomli tarixiy asari bilan mashhur (1467-1469-yillarda fors tilida yozilgan). Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarini *Amir Temur* va temuriylar hukmronlik qilgan davrga bag'ishladi.

ABU BAKR MIRZO (1382-?) — temuriylardan, *Mironshohning* o'g'li. Onasi *Xonika* begim. 1399-yilda *Amir Temur* Mironshoh Mirzoni jazolab, uni hokimiyatdan mahrum etgach, uning tasarrufidagi viloyatlarga Abu Bakr Mirzoni hokim etib tayinlaydi. Ammo Abu Bakr Mirzo otasi *Mironshohga* bo'lgan hurmati yuzasidan bobsini taklifini rad etadi. *Temur* nabirasi Abu Bakr Mirzoni ko'ngli bo'shlikda ayblab, hokimiyatga *Mironshohning* ikkinchi o'g'li — *Umar Mirzoni* tayinlaydi. *Amir Temur* Abu Bakr Mirzoga Bag'dodni suyg'ol qiladi. *Temur* vafotidan so'ng, Movarounnahrda temuriylar o'rtasida kurash borayotgan bir davrda *Umarshayx Mirzo* bilan Eron va Ozarbayjonda mutloq hokimi bo'lib oladi. *Umar Mirzo* akasi Abu Bakr Mirzoga nisbatan pinhoniy dushmanlik ruhida bo'lib, 1405-yil aprelda Sultoniya kelgan akasi Abu Bakr Mirzoni ushlatib, qal'aga qamatadi va unga tegeshli haram va barcha mol-mulkni o'ljaga oladi. Shu yilning yozida Abu

Bakr Mirzo bandilikdan qochib, Xurosonga ketadi. Abu Bakr Mirzo Sultoniya qo'lga kiritib taxtga o'tiradi. 1408-yil aprelda Abu Bakr Mirzo Ozarbayjonning Sardrud mavzesida turkman amir *Qora Yusuf*dan yengilib orqaga chekinadi.

ABULALI BIRJANDIY (XV a.) — olim, u Samarqand astronomik maktab namoyandalari asoslaridan va matematik jadvallariga sharhiy asarlar yozgan.

ABULQOSIM BOBUR (1422, Hirot — 1457-yil mart, Mashhad) — temuriylardan, *Boysunqur* mirzoning o'g'li. Bobosi *Shohruh* mirzo qo'l ostida tarbiyalangan. Xuroson taxti uchun kurashda g'olib chiqib, 1449-yil fevralda Abulqosim Bobur Hirotni egallaydi. Temuriylarning Xurosondagi hukmdori (1149-1157). 1454-yilda Samarqand uchun muvaffaqiyatsiz yurish qiladi va qirq kunlik qamaldan so'ng *Sulton Abu Said* bilan bitim tuzib, Hirotga qaytadi. Bitimga ko'ra Amudaryo ilgarigidek ikkala davlat o'rtasidagi chegara bo'lib qolgan. U shoirlarni to'plab mushoiralar o'tkazgan va o'zi ham turkiy, fors tillarida she'rlar yozgan.

ALI QUSHCHI (taxallusi; asl ismi-sharifi Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy) (1403, Samarqand — 1474-yil, Istanbul) — falakiyotshunos va riyoziyotchi olim, mutafakkir, *Ulug'bek ilmiy maktabining* atoqli namoyondalaridan biri, uning yaqin shogirdi. *Amir Temur* qarorgohi boshlig'ining o'g'li. *Ulug'bek* saroyida qarchig'aylar boqqani uchun uni “*Qushchi*” deyishgan. Ali Qushchi boshlang'ich ma'lumotlarni Samarqandda oladi (*Qozizoda Rumi*dan tahsil ko'radi), o'z ma'lumotini oshirish uchun 1414-yilda Eronning Kirmon shahriga boradi va u yerdagi madrasada 3 yil ta'lim oladi, ayniqsa tabiiy fanlarni, xususan falakiyot, riyoziyotni puxta o'rganadi, 1417-yil Samarqandga qaytadi. Bu vaqtda Samarqandda *Ulug'bek madrasasi* qurilayotgan edi. Ali Qushchi shu madrasada ham ta'lim olishni davom ettiradi, *Qozizoda Rumi* va *G'iyosiddin Koshiylardan* ilm sirlarini o'rganadi. Madrasani bitirgach, shu yerda falakiyot va riyoziyotdan mashg'ulotlar olib boradi, ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. *Ulug'bek rasadxonasini* qurish ishlarida ham faol qatnashadi. Shu davrda “*Hisob risolasi*” va “*Astronomiya risolasi*” asarlarini yozadi va ilm ahli orasida katta obro' qozonadi. 1428-yilda *Ulug'bek rasadxonasi* ishga tushirilgach, bu yerda *Ulu'bek* rahbarligida kuzatuvlar olib boradi, risolalar yozishni davom etadi. *Ulug'bekning* “*Ziji jadidi ko'ragoniy*” asari yozilishda Ali Qushchining hissasi katta. 1438-yil *Ulug'bek* Ali Qushchini Xitoy saltanatiga elchi qilib yuboradi, u Xitoydan qaytib kelgach, “*Matematika va astronomik jug'rofiya*” asarini yozadi. *Ulug'bek* vafotidan (1449) so'ng uning Samarqanddagi mashhur kutubxonasi xavf ostida qoladi. Kutubxonani Ali Qushchi saqlab qolgan degan taxminlar bor; rivoyatlarga qaraganda kutubxonadagi kitoblarning ko'p qismini Ali Qushchi Samarqand yaqinidagi Hazrat Bashir qishlog'iga ko'chirgan. Ko'p o'tmay, ta'qiblardan qochib, Ali Qushchi Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo'ladi. U avval Karmana va boshqa shaharlarda yashab, 1465-yil Turkiyaning Istanbul shahriga boradi. Turk sultoni *Muhammad II* (1451-1481) taraqqiyparvar shaxs bo'lib, o'z atrofiga olim va shoirlarni to'plar edi. Ali Qushchining

dong'ini eshitgan sulton uni saroyga xizmatga taklif qiladi va olimlarga rahbar qilib tayinlaydi. Ali Qushchi Turkiyada olimlar, faylasuflar, shoirlarni o'z atrofiga to'plab, ilmiy ishlarni taraqqiy ettirishga intiladi, o'zi esa riyoziyot, falakiyot, falsafa, mantiq, adabiyot, musiqa va boshqa fan sohalaridan risolalar yozadi. Ali Qushchidan 20 dan ortiq ilmiy asar meros bo'lib qolgan. U ko'p olimlarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa Ali Qushchining "*Ulug'bek zijiga sharh*" asari astronomiya tarixida katta ahamiyatga ega. U "*Zij*" ni geometrik teoremlar yordamida sharhlaydi. Ali Qushchi asarlarining ko'pchiligi Turkiyadagi Ayo-So'fiya madrasasi kutubxonasida saqlanib qolgan. Ulug'bek maktabi namoyondalari va xususan Ali Qushchining asarlari va dunyoqarashlari ilm-fan tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Ali Qushchi XVI-XVII asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida riyoziyot fani rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ali Qushchi Samarqand ilmiy maktabi an'alarini davom ettirib, bu ilmiy maktabning fan sohasidagi katta yutuqlarini O'rta, Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga tarqatishda faol ishtirok etadi. Ali Qushchi vafotidan so'ng uning shogirdlari — *Mirim Chalabiy*, *Husayn Birjandiy*, *Bahovaddin Omuliy*, *Najmiddin Alixon* va boshqalar uning ilmiy ishlarini davom ettirdilar.

ALISHER NAVOIY, Navoiy (taxalluslari; asl simi Nizomiddin Mir Alisher) (1441-yil 9-fevral — Hirot — 1501-yil 3-yanvar) — buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi *Amir Temurning Umar Shayx* ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik *Umar Shayx* va *Shohruhning* xizmatida bo'lgan. Otasi *G'iyosiddin Bahodir* esa *Abulqosim Boburning* yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi (ismi nomalum) Kobul amirzodalaridan *Shayx Abusaid Changning* qizi. Alisher Navoiyning bolaligi *Shohrux* hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyodalardan, xususan bo'lajak podshoh *Husayn Boyqaro* bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-yil 12-martda mamlakat podshohi *Shohrux* vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishadi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur "*Zafarnoma*" tarixiy asari muallifi, shoir *Sharafiddin Ali Yazdiy* bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. Alisher Navoiy 10-12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan. Tarixchi *Xondamirning* yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono *Lutfiy* uning mashhur g'azaliga o'zining 10-12 ming forsiy va turkiy baytini alishtirmoqchchi bo'lgan. Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. Sherlarini turkiy (*Navoiy* taxallusi bilan) va forsiy (*Foniy* taxallusi bilan) tillarida yozgan. Alisher Navoiyning 13-14 yoshlarida otasi hayotdan ko'z yumadi. Uni *Abulqosim Bobur* o'z tarbiyasiga, katta badiiy iste'dodi uchun g'oyat e'zozlaydi. 1456-yil oktabrda mamlakat poytaxti Hirotidan Mashhadga

ko'chiriladi, *Abulqosim* yosh Alisherni ham, o'z xizmatida bo'lgan *Husayn Boyqaroni* ham Mashhadga olib ketadi. 1457-yilning bahorida to'satdan *Abulqosim Bobur* ham vafot etadi. Alisher Navoiy uchun bu, otasi vafotidan keyingi, ikkinchi og'ir judolik bo'ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o'qishni davom ettiradi. Do'sti *Husayn Boyqaro* esa Marv va Chorjo'y tomonlarga omad qidirib ketadi. Alisher Navoiy *Husayn Boyqaroning* eng xavfli siyosiy raqibi — *Yodgor Muhammad Mirzoni* tunda qo'lga olishda shaxsiy jasorat ko'rsatadi. Yangi hukumatning ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Shu voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, *Husayn Boyqaro* hukumatidagi muhrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir *Shayxim Suhayliy* tayinlanadi. Alisher Navoiyning maqsadi saroyda maslahatchi bo'lib qolish, ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanish edi. Biroq *Husayn Boyqaro* 1472-yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga "*Amiri kabir*" unvonini beradi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi. Buyuk insonparvar Alisher Navoiy o'rta asrdagi Uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarni fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga oldi. *Sulton Husayn Boyqaro* podshohlik qilgan, Alisher Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan yillarda hech bir mamlakatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Bosh vazir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida taniladi. Uning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqq boshladi. 1500-yilning dekabrda *Husayn Boyqaro* isyon ko'targan o'g'li — *Muhammad Husayn* bilan sulh tuzib, Hirotga qaytar ekan, Alisher Navoiyni ham uni kutib olishi lozimligiga ishorat qiladi. Orada ikkinchi 3 kunlik yo'l bor edi. Alisher Navoiy o'zining so'nggi she'rini Poyob rabotida yozgan va undan nusxa ko'chirtirib, kelayotgan *Husayn Boyqaroga* yuborgan. Uchinchi kuni Alisher Navoiy hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o'zini yomon his etgan, u bilan ko'rishayotganda xushidan ketib, qaytib o'ziga kelmagan va hayotdan ko'z yumgan. Ulug' shoir ijodining shoh asari 5 dostonidan iborat "*Xamsa*" dir. "*Lison ut-tayr*" — Alisher Navoiyning so'nggi dostoni "*Xamsa*" dan 14 yil keyin — 1498-1499-yillarda yaratilgan. Bu asarini shoir "*Foniy*" taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'g'irgan, aniqrog'i, bu

dunyo sidan ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani — *Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr"* ("Qushlar tili") dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, "*tarjima rasmi bila*" yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. O'rta asrning bu buyuk adibi turkiy zabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. *Mirzo Haydarning* yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming "*shohruhiya*" dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhuri bo'yida bir qancha binolar: "*Ixlosiya*" madrasasi, uning qarshisida "*Xolisiya*" xonaqohi, "*Qudsiya*" jome' masjidi, "*Shifo'iya*" davolash uyi, "*Safo'iya*" hammomi va ular qoshiga toshhovuz qurdirdi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. "*Ixlosiya*" madrasasi va "*Xolisiya*" xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lgan. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha "*Xolisiya*" xonaqohida har kuni zaifa va miskinlar ziyofat qilinib, lazzatli taomlar bilan to'ydirilgan. Yangitdan quriladigan har bir bino yoki ta'mir etilib qayta tiklanadigan har bir yodgorlikka mukammal me'moriy zeb berish uchun Navoiy qurilishga hamma vaqt ko'plab turli kasbdagi binokor ustalarni jalb qilgan. Ta'mirlash ishlari bevosita Navoiy boshchiligida amalga oshirilgan. *Xondamirning* yozishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'iga 52 rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 19 hovuz, 9 hammom 16 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlatirgan. Astrobod shahrida qurilgan "*Mir saroyi*" va "*Jome masjidi*" shuningdek, Marv shahrida bino qilingan "*Xusraviya*" nomli madrasa shular jumlasidandir. Shu bilan birga Navoiy jang-u jadallar va zizilalar asoratida vayron bo'lgan ko'pgina jamoat binolarini ta'mir etib, qayta tiklashdek murakkab ishlarga ham qo'l urgan. Movarounnahr va Xurosonning XV asr me'morchiligida o'zining mukammalligi va bajargan vazifasi jihatidan jamoat binolari orasida ayniqsa shifoxonalar, hammomlar, istirohat bog'lari alohida o'rin tutadi. Alisher Navoiy Injil anhuri bo'yida "*Shifo'iya*" ni qurishga kirishar ekan, avvalo uning zamonasida qarovsiz qolgan Hirot Dorushifosini qayta tiklab uni obod etadi. Bu davrda Hirot Dorushifosi, ayniqsa kahollari — ko'z kasalligi tabiblari g'oyat shuhrat topgan. Xalq salomatligi va tozaligi yo'lida jamoat binolaridan hammomlarning g'oyat muhimligini yaxshi tushungan Navoiy Hirot va uning atrofida bir nechta hammomlar qurdiradi. XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, olim, mutafakkir Alisher Navoiyning hissasi g'oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U ulug' insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o'zbek adabiy tili, o'zbek klassik adabiyotining yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, iste'dodli qomusiy olim bo'lib yetishdi. U davrining madaniy hayotiga raxbar, ilm-fan,

san'at va adabiyot ahllariga homiy, ko'plab shogirdlar yetishtirgan ustoz bo'ldi. Navoiy til adabiyot, musiqa, tarix, falsafa, astronomiya, tarbiya nazariyasi sohasida juda ko'p qimmatli ilmiy asarlar, 30 dan ortiq yirik badiiy asarlar yozdi, "*Hamsa*", "*Xazoyin ul-maoniy*", "*Mahub ul-qulub*", "*Lison ut-tayr*" shular jumlasidandir. Navoiy "*Foniy*" taxallusi ostida tojik tilida ham ijod qilib, "*Devoni Foniy*", "*Xasbi xol*", "*Tuhfat ul-afkor*" kabi lirik asarlar yaratdi. Navoiy asarlarida muhabbat va sadoqat, do'stlik va qardoshlik, adolat va tinchlik zo'r mahorat bilan tarannum etiladi. U odamlarni insonga muhabbatli bo'lishga da'vat etadi, mehnatni ulug'laydi. Shoir odamlarni fanni egallashga, bilimlarni o'zlashtirishga chaqiradi, savodli bo'lishning amaliy ahamiyatini o'qtiradi. Navoiy tarixni bilishning ahamiyati, ayniqsa katta ekanini aytib, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. Navoiy ta'kidlashicha, xalqning farovonligi, davlatning ravnaqi — dehqonlar va kosiblarning og'ir va mashaqqatli mehnati natijalariga bog'liq shu sababli ularni hurmatlab, mehnatni ardoqlash lozim. Navoiy shohlarning, beklarning va boshqa amaldorlarning hunarmand kosiblarga, dehqonlarga zulum o'tkazishlariga qarshi chiqadi. Navoiy odamlarni insofli, olihimmat, mehnatsevar bo'lishga da'vat etadi. Jahondagi barcha ma'murchilikning manbai mehnat deb, uni maqtaydi. Alisher Navoiy o'zidan boy she'riy, nasriy va ilmiy meros qoldirgan bo'lib, bu merosning hajmi, "*Lison ut-tayr*" dostonida shoirning o'zi ta'kidlashicha, 100 ming baytdan iboratdir. U boy meros bilan Navoiy o'zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko'tardi va o'zbek adabiy tiliga asos soldi. O'zbek adabiyotida Navoiy nomi bilan bog'langandir. Navoiy asarlari o'nlab xalqlarning tillariga tarjima bo'lgan. Turkistonda XX asr boshidan boshlangan, tashabbuskori jadidlar bo'lgan ma'rifiy uyg'onish Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatining o'rganishda ham o'z ifodasini topdi. Biroq qariyb bir yarim asr davom etgan mustamlakachilik davrida, ayniqsa sho'ro tizimi davrida madaniy merosimizni xalqimizga yot mafkura qolipiga solib talqin qilishga urinishlar bo'ldi. Bu hodisa Alisher Navoiy ijodiga munosabatda ham o'z ifodasini topdi. Uni yo'qsillarning do'sti, mulkdorlarning muholifi qilib ta'riflashga intilishdi. Jahon adabiyotining durdonasi bo'lgan asarlardagi (masalan "*Hayrat ul-abror*" dostonidagi) ajoyib boblar qisqartirib nashr etildi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi Allohga imon keltirgan, Qur'oni karimdagi har bir oyatni muqaddas deb bilgan, naqshbandiya tariqatini qabul qilgan adib va mutaffakkirning hayoti va ijodidir. Uning ijodi mohiyatini anglab yetmoq uchun din tarixini yaxshi bilgan, Qur'oni karimni o'qib, ma'nosini anglab yetgan kishi bo'lishi kerak. Sho'ro tizimida esa diniy ilmlarni targ'ib qilish taqiqlanadi. Shu bois, garchi navoiyshunos olimlar shoir ijodini targ'ib qilish bo'yicha ancha ishlar qilgan bo'lsalar ham, Alisher Navoiy ijodi ko'pchilik kitobxonlar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan. Mustaqillik bizga barcha qadriyatlarimiz qatori Alisher Navoiy merosini o'rganishning keng ufqlarini ochdi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi

tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti ta' sis etildi. Respublika Prezidenti *Islom Karimov*ning tashabbusi va rahbarligida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning salobatli haykali qad ko'tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi (2000-yilga qadar 16 jildli chop etildi). Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e'zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti (Samarqand davlat universiteti) Toshkentdagi davlat kutubxonasi, O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti, adabiyot muzeyi, Toshkentdagi katta akademik opera va balet teatri, san'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug'ilgan kun 9-fevralda ilmiy-an'anaviy konferensiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaldi.

ALOUDDAVLA (1417-1460) — *Boysung'urning* o'g'li. *Shohruh* vafotidan so'ng toju-taxt talashib, ukasi *Abulqosim Bobur* bilan *Ulug'bek*ka qarshi harakat boshlaydi. U 1447-yilning bahorida *Ulug'bek*ning katta o'g'li *Abdulatif*ning qo'shinini tor-mor keltirib, uni asirga olgan va Hirot dagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'yadi. O'g'lining qurbon qilinishini istamagan *Ulug'bek* Alouddavla bilan sulh tuzadi. Bitimga ko'ra, *Abdulatif*ozod qilinib, *Ulug'bek* esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p vaqt o'may *Abdulatif* bilan Alouddavla musonabatlari yana keskinlashib ketadi. 1448-yilning bahorida *Ulug'bek* va *Abdulatif*ning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi. Tarnob yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilib, Hirot qo'lga kiritiladi.

AMIR ABDULXOLIQ — Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi. U 1410-yil Turkiston noibi *Shayx Nuriddin*, Hori Shodmon noibi *Jahongir* hamda oqo'rdalik xonzodalardan *Chingiz Og'lon*lar bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi ishyon ko'taradi. 1410-yil 20-aprelida Samarqand yaqinida Qizilvarot mavzeida ittifoqchilar bilan *Mirzo Ulug'bek* va *Shohmalik*larning qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda *Ulug'bek* mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon qochadi. Oradan ko'p o'tmay *Shohruh* ittifoqchilarni mag'lubiyatga uchratadi..

AMIRAK AHMAD MIRZO (1488-1425) — temuriyzoda, *Umarshayx Mirzo Bahodir*ning o'g'li. Farg'ona noibi, *Ulug'bek*ning amakivachchasi. 1404-yil oxirida Ahmad Mirzo sohibqiron *Amir Temurning* Xitoyga qarshi mashhur yurishida qo'shinning o'ng qanotiga *Xalil Sulton Mirzo* bilan birgalikda rahbarlik qilgan. Sohibqiron vafotidan so'ng, Ahmad mirzo *Shohruh Mirzo* mulozimati bo'ldi. 1409-yilda Movarounnahr saltanati *Shohruh mirzo* qo'lga o'tgach, Ahmad Mirzoga Farg'onadan to O'zgangacha bo'lgan hududni in'om qilgan. Ahmad Mirzo u yerning istehkomlarini ta'mirlab, obodonchilik ishlarini yanada rivojlantirishga harakat qiladi. Shuningdek, *Shohruh Mirzoning* talabiga muvofiq, o'z navkarlari bilan uning harbiy yurishlarida qatnashib

turgan. 1413-yilda *Ulug'bek Mirzo* harbiy kengash bahonasida, Ahmad Mirzoni Samarqandga taklif qiladi. Ammo Ahmad Mirzo *Ulug'bek Mirzoning* fe'li dan hadiksirab Samarqandga kelmaydi. *Ulug'bek Mirzoning* tinch yo'l bilan Ahmad Mirzoni tobe etishga harakat qilishi natija bermagach, 1414-yilda *Ulug'bek Mirzo* Farg'ona ustiga qo'shin tortadi. Amirak *Ulug'bek* qo'shiniga bas kelolmaslikdan qo'rqib, Andijon va Axsini jangsiz topshirib, O'sh va Oloy orqali Koshg'arga qochadi. Ko'p vaqt o'tmay Amirak Ahmad o'z taxtini egallaydi. *Ulug'bek* 1415-yilning bahorida yana Farg'onaga qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Bu gal ham Amirak Ahmad *Ulug'bek*dan cho'chib yana Koshg'arga qochadi. *Shohruhning* Amirak Ahmad nomiga ishonchnoma yuborib, bu ishga aralashuvi tufayli shahzodalar o'rtasidagi o'zaro nizo bartaraf etilib, Farg'ona unga tobe bo'lib, Koshg'ar ham *Ulug'bek*ning qo'lga o'tadi. 1416-yilda Ahmad Mirzo Qashg'ardan Hirotga qaytib keladi. Uni qaytadan biror viloyatga hukmdor qilib tayinlanmaydi, Hirot dan tashqariga chiqarmasdan nazoratda saqlaydilar. Ahmad Mirzo betinim sharobxo'rlik bilan mashg'ul bo'lgan. Ba'zi fitnachilar uning ko'ngliga saltanat vasvasasini solganlar va fitna qo'zg'ashga uringani jazoga mustahiq qilingan. Cunonchi Ahmad Mirzo Ka'batulloh ziyoratiga jo'natishga farmon berilgan. Ahmad Mirzo Ka'batulloh ziyoratidan qaytib kelmagan. U 1425-yilda o'sha yerda vafot etgan.

AMIRIY, YUSUF AMIRIY (XV asr Hirot) — shoir. *Boysunqur Mirzo* himoyasida yashagan. Turkiy va forsiyda ijod qilgan. *Alisher Navoiy* "*turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe bo'libtur*" ("Majolis un-nafois") deb yozsa, *Davlatshoh Samarqandiy* "*Shohruh davrida katta shuhrat qozondi*" ("Tazkirat ushshuaro") deb ta'riflaydi. Amiriyning Turkiyadagi bir devoni hamda "*Dahnamo*", "*Chog'ir va Bang munozarasi*"da saqlangan. Devoniga kirgan she'rlarida shoir hayot haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi, ishq muhabbatni ulug'laydi ("Ey ko'za...", "Telbaman", "Ey ko'ngul" va boshqalar). "*Chog'ir va Bang munozarasi*" bilan munozara janri imkoniyatlarini boyitdi. *Ubayd Zakoniy* ta'sirida yozilgan bu asarda amaldorlarning salbiy axloqiy-ma'naviy qiyofalari, xislatlari hajv qilinadi, adovat, johillik, o'zaro qirg'in urushlar qoralanadi. Amiriy "*Dahnom*" (1429) asari bilan noma janrini rivojlantiradi.

ARDASHER — 1418-yili *Shohruh mirzo* nomidan Xitoyda bo'lgan elchilar rahbari. 1419-yida bunga javoban Li-di va Jong-ku Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar.

ARDASHER SAYID HASAN (1418-Hirot-1489) — turkiy shoir, olim. Ardasherning otasi temuriylardan *Boysunqur Mirzo* xizmatida ov qushlarini o'rgatuvchi bo'lib, qushbegilik lavozimigacha ko'tarilgan. Shuning uchun Ardasher o'z ismiga "*sayid*" laqabini qo'shgan. Arab tili, badiiy ilmi, tarix, musiqa nazariyasi, she'r san'atini chuqur bilgan. Turkiy, fors tillarida ijod qilgan. *Navoiy* bilan Mashhadda tanishgan (1456-y.), uning ijodiy kamolatiga katta ta'sir ko'rsatgan. "*Majolis un-nafois*"da *Navoiy* Ardasher haqida ma'lumot berib, uning bir qit'a va bir baytini namuna sifatida keltiradi. Ardasher ijodidan boshqa asarlari bizgacha yetib kelmagan.

ARSLON XOJA TARXON — XV asr birinchi yarmida

yashagan davlat arbobi, shoir. *Ulug'bekning* ishonchli amirlaridan. Sarbon shahri hokimi bo'lgan. *Sakkokiy* ma'lum davr uning saroyida yashagan. Arslon Xoja Taraxon zukko olim va iqtidorli shoir bo'lganligi qator manbalarda qayd etilgan. Arslon Xoja Tarxon o'z saroyida ijodkorlar yig'ini o'tkazishni hush ko'rgan. Qadimgi turkiy qo'lyozmalarni maxsus ko'chirtirgan va ba'zi asarlarni arab, fors, turkiy tilga tarjima qildirgan. Arslon Xoja Tarxon turkiy adabiy til va turkiy (uyg'ur) yozuvining bilimdoni bo'lgan. U *Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq"* dostonini uyg'ur yozuvida ko'chirtirgan (1444-yil), qo'lyozma oxiriga adib *Ahmad* haqidagi "*Adibning eri oti Yugnak erur, Sifoti ajab er, ko'ngillar yorur...*" misralari bilan boshlanuvchi 10 baytli masnaviyini ilova qildirgan. Arslon Xoja Tarxon ijodidan hozircha faqat shu 20 satr masnaviy ma'lum. Shoir haqida ba'zi ma'lumotlar *Sakkokiy* qasidalarida, *Shotibiyning "Qur'on o'qish san'ati haqida"* gi risolasi tarjimasining debochasida uchraydi.

ATOIY (XV asr, Balx) — shoir. *Yassaviy* avlodidan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o'rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Atoiy g'azalnafis — lirik shoirdir. Uning g'azallarida muhabbat mavzui bilan bir qatorda may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go'zalliklari va lazzatlari vasf etiladi. May Atoiyda *Umar Hayyom* ruboiylari va *Hofiz* g'azallaridagi kabi hayot timsolidir. Atoiy lirikasida xalq iborolari, ta'birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so'zlar ko'p. G'azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan; vazni yengil, misralari qisqa, so'zlari oddiy, uslubi soda va ravon. Shuning uchun ham uning she'rlari xalq qo'shiqlariga aylanib ketgan. Atoiy tajohuli orifona, laf va nashr kabi tasvir vosita va usullari ham yaratgan. Shoir ijodi bizgacha to'la yetib kelmagan. Devonining taxminan XVI asrda ko'chirilgan, 260-g'azalni o'z ichiga olgan qo'lyozma nusxasi Sankt Peterburgda saqlanadi.

BADIUZZAMON (1458, Hirot — 1515, Istanbul) — Xuroson hukmdori (1506-1507). *Husayn Boyqaroning* to'ng'ich o'g'li, onasi — Marv hokimi *Sanjar Mirzoning* qizi *Beka Sulton* begim (1488-yil vafot etgan). Badiuzzamon 1473-yildan Seyiston, keyinchalik Mozandaron hokimi. Astrobod hokimi amir *mo'g'ul* hiyonatidan so'ng, *Husayn Boyqaro* uni Astrobodga hokim qilib tayinlagan (1493-yildan). So'ng, u 1496-1506-yillarda Balx hokimi bo'lgan. *Boburning* yozishicha, "*Sulton Husayn Mirzo Balxga kelganida Movarounnahr foydasini ko'zlab Balxni Badiuzzamonga beradi, uning mulki — Astrobodni esa Muzaffar Husayn Mirzoga topshiradi. Badiuzzamon shu tufayli arazlagandi. Shuncha yillar davom etgan dushmanlik va isyon sababi ayni shu holat edi*". Badiuzzamon Astrobodni uning o'g'li *Muhammad Mo'min Mirzoga* sunnat to'yini qilayotganda in'om qilgan edi. Oqibat ota-o'g'il o'rtasidagi mojaro urushga aylanadi. 1497-yil Badiuzzamon Puli Chirog' darasidagi jangda mag'lubiyatga uchraydi. Xuddi shu kuni *Muzaffar Husayn Mirzo* Astrobod yonida *Muhammad Mo'min Mirzoni* yengadi. *Husayn Boyqaro* Balxni o'g'illaridan *Ibrohim Husayn Mirzoga* beradi. Yengilgan Badiuzzamon qolgan-qutgan lashkari bilan Qunduzga qochadi, so'ng

Xusravshoh huzuridan panoh topadi. *Xusravshoh* Balxga qo'shin, qurol-yarog' bilan yordam bergach, u Qandahor va Zamondevorga boradi. 1505-yil Badiuzzamon otasi bilan yarashib, uning xizmatiga kiradi. Otasi vafot etgach, ukasi *Muhammad Mirzo* bilan birgalikda taxtga o'tiradi.

BAROQ, BUROQ, BAROQ O'G'OLON (?-1428-yillar) — dashti qipchoqlik hukmdor (1423-1428). *O'rusxonning* nabirasi. Baroq 1419-yil may oyida taxt uchun kurashda ko'mak istab Samarqandga *Ulug'bek* huzuriga kelgan. *Ulug'bek* unga harbiy yordam beradi va shu yilning avgust oyi oxirida o'zi ham katta qo'shin bilan safarga chiqib, 5-sentabrda Chinoz yonida Sirdaryodan kechib o'tadi. Dushman (Tug'a Temur avlodi Muhammadxon) jang qilmasdan tarqab ketgan, shuning uchun *Ulug'bek* 22-oktabrda Samarqandga qaytib kelgan. Baroq bir muncha vaqtdan so'ng (1423) *Muhammadxonning* o'rdasini, 1425-yil boshida esa uzil-kesil taxtni egallaydi. Mustaqil bo'lib olgach, Baroq bilan *Ulug'bek* oralaridagi munosabat buziladi. Bunga sabab Baroqning Sig'noq atrofidagi yerlarni da'vo qilib chiqishi bo'lgan. Baroq Sig'noq shahri uning bobosi *O'rusxonning* qarorgohi bo'lgani va bobosi obod qilganini da'vo qiladi. Bunga javoban *Ulug'bek* 1427-yili bahorida ukasi *Muhammad Jo'qiy* bilan Baroqqa qarshi otlangan. *Ulug'bek* Baroq tomonidan kechirim so'rab sulh taklifi bilan yuborilgan elchini qaytarib yuborgan. Sig'noq atrofidagi tepalik yerlardan hech qanday chora tadbirlarini ko'rmasdan o'tib borayotgan *Ulug'bek* qo'shiniga Baroqning kam sonli qo'shini to'satdan hujum qilib raqibini parokanda qilib yuborgan. Baroq Samarqand atrofini talab orqaga qaytgan. *Ulug'bek* otasi *Shohruh* yuborgan Hirot qo'shini hamda *Muhammad Jo'qiyning* mulki Qandahordan kelgan qo'shinlarni jamlab, yana Baroqqa qarshi otlanganda, Toshkentgacha kelgan, biroq Baroq qo'shini dasht ichkarisiga chekingan. Sig'noq shahri *Ulug'bek* qo'l ostida qolgan. Baroq mo'g'ulistoniga qarshi yurishida *Sulton Mahmud o'g'lon* tomonidan o'ldirilgan. Oradan ikki yil o'tgach U Dashti Qipchoqda o'z siyosiy mavqeni mustahkamlab oladi. O'zbek ulusi taxtiga katta yordam bergan *Ulug'bekning* muruvvatini unutib, endilikda Sirdaryo bo'yidagi O'tror, Sabron va Sig'noq singari shaharlarga da'vogar bo'lib chiqadi. Unga qarshi yurishda *Ulug'bekning* omadi kelmaydi. Baroq O'g'lon Sig'noq yaqinida tunda *Ulug'bek* qo'shinini chor-atrofdan bosib, unga qattiq zarba beradi. Uning lashkari uni Samarqand ostonalarigacha ta'qib qilib boradi. Bu mag'lubiyatdan keyin *Ulug'bek* el-yurt va otasi oldida yuzi shuvut bo'lib, Samarqand taxtidan va Movarounnahr hukmdorligidan ajralishiga sal qoladi.

BEHZOD KAMOLIDDIN (1455-Hirot-1536) — buyuk minyaturachi musavvir, Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori. Hirot miniatyura maktabi asoschisi; muzahhublar yetakchisi, ustoz. "Ikkinchi Moniy" degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan. Keyingi davr olimlari tomonidan "*Sharq Rafaeli*" deb ulug'langan. Tarixchilardan *Mirzo Muhammad Haydar, Do'st Muhammad* va *Qozi Ahmadning* ma'lumotlariga ko'ra, Behzodni *Sulton Husaynning* kitobdori *Mirak Naqqosh* o'z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni *Pir Said Ahmad Tabriziydan* o'rgangan, o'z ijodida musavvir *Xalil*

Mirzo Shohruxiy badiiy uslubini davom ettirib, uni rivojlantirgan va kamolga yetkazgan, yosh musavvir iste'dodi juda tez shakllangan. Bunda *Alisher Navoiy*ning murabbiylik faoliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. *Navoiy*ning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning yetuk san'atkorlari *Mirak Naqqosh*, *Hoji Muhammad* kabi musavvirlar, *Hofiz Muhammad*, *Zayniddin Mahmud*, *Sulton Muhammad Nur* kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot *Sultonali Mashhadiy* va *Yoriy Muzahhib* bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu yerda — *Navoiy* va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan. Behzod musavvir sifatida tanilgach, *Sulton Husayn* saroyiga xizmatga chaqirilgan. 1487-yil *Sulton Husayn* farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Keyinchalik bu joy o'z davrining badiiy akademiyasiga aylanadi. Uni mutaxassislar "*Nigorxonayi Behzod*" yoki "*Behzod akademiyasi*" deb ataganlar. Musavvir Hirotida *Navoiy* va *Sulton Husayn* hayotlik davrida qizg'in ijod bilan band bo'ldi, ko'plab mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishga rahnamolik qildi, ma'lum qismini nafis rasmlar bilan ziynatlashda shaxsan ishtirok etdi, qator zamondoshlarining — *Navoiy*, *Jomiy*, *Sulton Husayn* va boshqalarning portretlarini yaratdi, bir guruh yoshlarga rassomlik sirlarini o'rgatdi. 1507-1510-yillarda Behzod Hiroti egallagan *Muhammad Shayboniyxon* xizmatida bo'ldi. Bu davrdan bizgacha Behzod yaratgan *Shayboniyxon* portreti yetib kelgan. 1510-yilda Hirot shahri safaviylar qo'liga o'tadi. 1520-yilda *Shoh Ismoil* yosh shahzoda *Tahmosibga* rasm o'rgatishi uchun Behzodni o'z saltanati poytaxti Tabriz shahriga taklif etadi, 1522-yil esa maxsus farmon bilan rassomni o'z kutubxonasidagi kitobat ahliga mutasaddi etib tayinlaydi. 1524-yil *Shoh Ismoil* vafotidan keyin *Shoh Tahmosib* davrida ham Behruz katta obro' va e'tiborga ega bo'lgan. Tabrizda Behruz *Sulton Muhammad*, *Og'a Mirak* va *Mir Mansur* kabi musavvirlar bilan hamkorlikda ijod qildi. *Qozi Ahmadning* ma'lumotiga ko'ra, Behzod hayotining oxirida ona shahri Hirotga qaytgan va shu yerda vafot etgan. Musavvirning qabri Ko'hi Muxtor (Murod tog'i; Afg'oniston hududida)ning xushmanzara joyida. Ustod san'ankor sifatida Behzod Xirotda va Tabrizda qator shogirdlarni tarbiyalab yetkazdi. Uning shogirdlari Behzod an'analarni butun O'rta Sharqqa yoydilar. Behzod an'analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Behzod ijodi va merosi san'atshunoslar, rassomlar tomonidan keng o'rganiladi. Uning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, u tarixiy siymolar portretlaridan tortib, to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta'sirli qilib bera olgan. Aynisa, *Dehlaviyning* "*Layli va Majnun*" poemasi bag'ishlangan uning lirik manzaralari yoki *Sharofuddin Ali Yazdiyning* "*Zafarnoma*" asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniatyuralari nihoyatda jozibador va ta'sirchandır. Tasviriy san'at asarlarida xattotlarning husnixati, muqovasiz va zarhalchilarning san'ati uyg'unlashib, g'oyat ko'rkam bir tusga kiradi. Bularning barchasi san'at turlari bilan badiiy adabiyotning o'zaro uzviy aloqada ravnaq topganini, bir

ikkinchisiga samarali ta'sir etganini ko'rsatadi. Behzod nomini abadiylashtirib, O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning farmoni (1997-yil 23-yanvar)ga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi; Milliy rassomlik va dizayn insitutiga Behzod nomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga (1997-yil 23-dekabr)ga binoan, Toshkent, Samarqand shaharlarida va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi (2000-yil noyabr), uning va izdoshlarining ijodini o'rganish, merosiga oid ashyolarni to'plashga hamda Toshkent shahrida Behzod nomidagi memorial bog' barpo etishga kirishildi. 2000-yil 3-noyabrda Toshkentda Temuriylar tarixi Davlat muzeyida Behzodga bag'ishlab Buyuk Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. Yubeley munosabati bilan Behzod hayoti va ijodiga bag'ishlangan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, "*Kamoliddin Behzod*" hujjatli film yaratildi (2 qismli, 2000-il). uni mo'yqalami bilan chizilgan tasvirlar o'zining nafisligi, yorqinligi va bo'yoqlarining jozibadorligi jihatdan Sharq musavvirlik san'atida alohida o'ringa egadir.

BERDIBEK — amir, temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash bo'layotgan bir paytda, Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram uning tasarrufida bo'lgan.

BINOIY (taxallusi; asl simi Kamoliddin Ali Muhammad Sabz) (1453, Hirot — 1512-yil, Qarshi) — shoir, musiqashunos, tarixchi. Forsiyda ijod qilgan. 1487-yilgacha Hirotida adabiyot, she'r ilmi, musiqa va tarix fanlarini o'rgangan. Binoiy 1487-yilda Tabrizga ketgan. U yerda *Ogahiy*, *Xurramiy*, *Mazhariy*, *Ruhiy*, *Qozi Isolar* bilan muloqotda bo'lgan. 1491 yil Hirotga qaytgach, 1495-yilda Samarqandga kelgan. Bu yerda 2 qismdan iborat "*Behruz va Bahrom*" masnaviysini yozib tugatgan (1500-yil). Masnaviyda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar ifodalangan. Samarqand hokimi *Sulton Ali Mirzoga* bag'ishlab "*Majma*" ul g'aroyib" qasidasini yozgan (1498-yil). *Shayboniyxon* saroyida xizmat qilgan, harbiy yurishlarida tarixchi sifatida ishtirok etgan. *Shayboniyxon* vafotidan so'ng Binoiy Qarshiga kelgan (1510-yil). Safaviylar Movarounnahrda yurish qilib, bu yerda uyushtirgan ommaviy qirg'in paytida o'ldirilgan. Shoiring 4182 misradan iborat she'riy devoni, "*Futohoti xoniy*", "*Hikoyati safari Binoiy*" kitoblari musiqa ilmiga doir. Rost maqomida bastalangan ("To'qqiz rang") asari ilmiy va badiiy qimmatga ega.

BOYSUNG'UR, BOYSUNQUR, BOYSUNQAR (1397-yil 16-sentabr — Hirot — 1433-yil 20-dekabr) — temuriy shahzoda. *Shohruh Mirzo* bilan *Gavharshod* boshlab o'g'li. Boysung'ur 1414-yil Mozandaron, Astrobod va Jurjon viloyatlari hokimi, 1416-1420-yillarda esa otasi *Shohruxning* vaziri bo'lgan. Eron Ozarbayjoni (1420) va Astrobod (1431) hokimi. Og'ir dardga chalinib 36 yoshida vafot etgan. Boysung'ur insonparvar, adolatpesha, ilm va adab ahliga muruvvatli hukmdor bo'lish bilan birga, o'zi ham g'azallar bitgan, xattotlik va naqqoshlik san'atini mukammal egallagan. U Hirotida noyob qo'lyozmalar

jamlangan juda boy kutubxona tashkil qilgan, unda 40 dan ortiq xattot mo'g'ullar istilosi davrida yo'q qilingan qo'lyozmalarning bo'lak nusxalarini topib, ulardan nusxalar ko'chirish yoki yaroqsiz holga kelganlarini tiklash bilan mashg'ul bo'lgan. Hirotidagi Gavharshodbegim masjidi bezaklari va kitoblarini shaxsan Boysung'urning o'zi bajarganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Uning rahbarligi va bevosita ishtirokida *Abulqosim Firdavsiy* "Shohnoma"ning tanqidiy matni tuzilgan (1425-1426). Unga Boysung'urning o'zi so'z boshi yozgan. "Shohnoma"ning bu nusxasi "Shohnomai Boysung'uriy" deb atalgan. Shuningdek Boysung'ur jahon san'ati tarixida muhim o'rin tutgan Hirot miniyatura maktabiga asos solgan. Bu maktab vakillari tomonidan ko'chirilgan asarlarning ko'pchiligi Istanbul kutubxonalarida saqlanadi.

BOYSUNG'UR, BOYSUNQUR, BOYSUNQAR (1477/1478 — 1499) — Movarounnahr hukmdori (1495-yil, 1497-yil). Temuriylardan. *Sulton Mahmud Mirzoning* o'g'li, otasi hayotlik chog'ida Buxoro hokimi bo'lgan. U vafot etgach, ikki marta Samarqand taxtini egallagan, ammo tez orada aka-ukalar o'rtasida taxt uchun kurashda halok bo'lgan. *Bobur* uni jasur va adolatli hukmdor deb ta'riflaydi. Boysung'ur "Odiliy" taxallusida g'azallar ham bitgan.

CHINGIZO'G'OLON — Oqo'rdalik xonzodalardan biri. U 1410-yil Turkiston noibi *Shayx Nuriddin*, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi *Amir Abdulholiq* hamda Hisori Shodmon noibi *Jahongir* bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ishtirokchisi. 1410-yil 20-aprelida Samarqand yaqinida Qizilvarot mavzeida ittifoqchilar bilan *Mirzo Ulug'bek* va *Shohmaliklarning* qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda *Ulug'bek* mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon qochadi. Oradan ko'p o'tmay *Shohruh* ittifoqchilarni mag'lubiyatga uchratadi.

DARVESHALI (XV asr o'rtasi — XVI asr boshi) — Balx hokimi (1482-90). *Alisher Navoiyning* ukasi. *Navoiy* vazirlik vaqtida (1472-yil) uning kitobdori bo'lgan. 1482-yil amirlik unvoni beriladi va u *Sulton Husayn Bayqaroning* voyaga yetmagan o'g'li *Ibrohim Husayn* nomidan Balxni idora qila boshlagan. Darveshali *Majiddiddin* va uning tarafdorlari tomonidan *Alisherga* qarshi qilinayotgan bo'xton va adolatsizliklardan norozi bo'lib, 1490-yil Hisor hokimi *Sulton Mahmud* qutqusi bilan *Sulton Husayn Bayqaroga* qarshi bosh ko'targan. *Sulton Husayn Bayqaro Navoiyga* "agar Darveshali yarashsa, buni o'zimga eng yaqin kishi qilaman, hech qanday jazoga mustahiq qilmayman", degan bo'lsada, Darveshali tavba qilib kelganda, uni sulton farmonini qalbakilatishda ayblab, zindonga soldirgan. 1494-yilda Darveshali Makkaga hajga borishga ruhsat oladi. Qaytib kelgach, 1498-yil *Sulton Husayn Bayqaro*, o'g'li Marv hukmdori *Abulmuhsin Mirzo* huzuriga Darveshalini elchi qilib jo'natadi. *Navoiy* vafotidan (1501) so'ng Darveshali *Bobur* xizmatiga o'tadi. 1511 yilda *Bobur* Samarqandni olganda Darveshali u bilan birga bo'lgan. Uning shundan keyingi taqdiri noma'lum.

DARVISHAHMAD QONUNIY (XV asr, Samarqand) — sozanda (qonun, chang, rubob), xonanda, bastakor. Mashhur *Hofiz Kichik*, *Sulton Ahmad Noyi* kabilar bilan birga ko'proq *Xo'ja Ahror* yig'inlarida ijod etgan. Mashqlari Samarqand musiqa shinavandalariga kuchli ta'sir qilgan.

Xalq sayillarida faollik ko'rsatgani uchun *Xo'ja Ahror* tomonidan qimmatbaho so'vg'alar bilan taqdirlangan.

DARVISH MAQSUD ANDIJONIY (XV asrning oxiri, Andijon — XVI asr, Buxoro) — sozanda, bastakor. *Axiy Hraviyning* shogirdi. Musiqiy iste'dodi Hirotida kamolga yetgan. *Shayboniyxon* Hirotni olgach (1507), *Hofiz Ushshoqiy*, *Xoja Boboyi Changiy*, *Xoja Hamzaiy Toshkandiy*, *Hofiz Miroqiy Buxoriy* va *Hofiz Boqiy Rudi* singari mashhur san'atkorlar bilan birga Darvesh Maqsud Andijoniy Buxoroga olib kelgan. *Darveshali Changiyning* musiqa risolasida Darvesh Maqsud Andijoniy — *Jomiy* g'azallariga ko'pgina savt va naqshlar bastalanganligi qayd qilingan.

DARVISH SHAYXIM QALANDARIY (XV asrning oxiri, Hirot — XVI asr, Balx) — sozanda, xonanda, bastakor. *Darveshali Changiy* o'z risolasida uning xushovozligini yuksak baholagan. Darvish Shayxim Qalandariy "Navo dashtining xushxon bulbuli" nomi bilan mashhur bo'lgan. Shayboniylardan *Kisri Qora Sulton* Hirotni ishg'ol etgach, Darvish Shayxim Qalandariy Balxga ko'chgan (1506). Balx hokimi *Pirmuhammad Sulton Segoh* yo'lidagi naqshlariga maftun bo'lib, uning shuhratiga shuhrat qo'shgan. Darvish Shayxim Qalandariy asarlariga ustod *Abdulloh Nayi*, ustod *Poyandai Qobuziy*, ustod *Muhammad Surnoyi*, ustod *O'zbek G'ijakiy* va boshqalar ham yuqori baho berishgan.

DAVLATSHOH SAMARQANDIY (to'liq ismi Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh as-Samarqandiy) (taxminan 1436/37-1495) — o'zbek shoiri adabiyotshunos va davlat arbobi. Otasi *Shohrukning* nufuzli amirlaridan bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy zamonasining yirik olimi *Fazlulloh Samarqandiy* qo'lida tahsil ko'rgan. 1480-yilgacha saroy xizmatida. Umrining oxirlarida saroy va harbiy xizmatlarni tark etib, ijod bilan shug'ullangan. Turkiy va forsiyda yozgan. Davlatshoh Samarqandiyga shuhrat keltirgan yirik asari "Tazkirat ush-shuaro"dir. ("Shoirilar tazkirasini", 1486-yilda yozib tugallangan). Tazkiralari *Alisher Navoiyga* bag'ishlangan bo'lib, juda ko'p ilmiy tarixiy manbalar asosida yaratilgan. Tazkira X-XV a. adabiy jarayon, uning namoyondalari hayoti, ijodini hamda madaniy, ilmiy va tarixiy sharoitni o'rganishda muhim manba.

DEVONAI GULXANIY (XIII asr o'rtalari — Bag'dod — XIV asr boshlari) — sozanda, bastakor, musiqashunos va shoir. Darveshali Changiyning musiqa risolasida ta'kidlanishicha, So'fiuddin Urmaviy butun Sharqda mashhur 12 maqom tizimini ayni Devonai Gulxaniyning taklifi bilan ishlab chiqqan. Devonai Gulxaniy ko'pgina naqsh, savd, peshrav, debocha kabi shakllarda asarlar yaratgan.

DEVONAI HISOBIY (XV asr, Xiva, Qorako'l) — sozanda, bastakor, xonanda va shoir. *Xoja Ahror* taklifiga binoan Qorako'ldan Samarqandga ko'chib kelgan va uning xonaqohida o'zga xofizlar bilan birgalikda *Jaloliddin Rumiy*, *Qosim Anvar* va o'zining g'azallariga yaratilgan asarlarni kuylagan. *Darveshali Changiyning* musiqa risolasida devonai *Hisobiydan* ko'pgina naqshlar, peshravlar va she'riy devonlar qolgani ta'kidlanadi.

DURBEK (XIV asr oxiri — XV asr boshi) — o'zbek

shoiri. Uning “*Yusuf va Zulayho*” (1409) dostonigina yetib kelgan.

FAZLULLOX ABULAYS SAMARQANDIY — mashhur olim, falsafa, mantiq, huquq, arab tili, adabiyot va poetikaning oʻtkir bilimdoni. *Navoiy* Samarqandga koʻchib borganida Fazlullox Abulays Samarqandiydan saboq olgan.

GʻIYOSIDDINALIYAZDIY (XIV asr oxiri) — hayoti va faoliyatiga oid maʼlumotlar kam. *Amir Temurning* topshirigʻi bilan ulugʻ Jahongirning 1399-yili Hindiston ustiga qilgan harbiy yurishi tarixini yozgan. Olimning “*Ruznome gʻazavoti Hindiston*” (“Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan yurishi kundaligi”) deb ataladigan ushbu asari 1399-1403-yillar orasida yozilgan. Asarda 1399-yildan to 1403-yilgacha davom etgan bu yurish tarixi kunma-kun va batafsil yozilgan.

GʻIYOSIDDIN JAMSHID KOSHONIY (taxminan 1430-yilda Samarqandda vafot etgan) — atoqli matematik va astronom, Samarqand astronomik maktabining koʻzga koʻringan namoyandalaridan biri. Asli Eronning Koshon shahridan boʻlib, boshlangʻich matematik maʼlumotni shu yerda olgan va XV asrning boshida Ulugʻbekning taklifi bilan Samarqandga kelgan. Bu yerda *Qozizoda Rumi*y bilan birga Ulugʻbek rasadxonasining asosiy oʻlchov asbob uskunasi — ulkan sekstantni oʻrnatishda va Ulugʻbek madrasasi qurilishiga rahbarlik qilgan. Gʻiyosiddin Jamshid Ulugʻbek qoʻl ostida ishlagan *Husayn Birjoniy*, *Ali Qushchi* va boshqalarning kamolotga yetishishiga katta hissa qoʻshgan. Gʻiyosiddin Jamshid astronomiyaga oid “*Ziji haqoniy*”, “*Bogʻlar sayri*” va “*Osmon narvoni*”, matematikaga oid “*Xorda va sinuslar*” kabi asarlar yozdi. Gʻiyosiddin Jamshid Koshoniy Oʻrta asr Sharq matematikasini yuqori bosqichga koʻtarishga katta hissa qoʻshdi.

GAVHARSHODBEGIM, GAVHARSHOD OGʻA (1379-1457) — *Shohruhning* xotini. Janglardan birida *Chingizxonni* oʻlimdan saqlab qolgan mulozim qishlik avlodi — Chigʻatoy zodagon *Gʻiyosuddin Tarxonning* qizi. 1393-yil *Shohruhga* tekkan, undan uch oʻgʻil (*Ulugʻbek*, *Boysungʻur*, *Muhammad Juqi*) va ikki qiz koʻrgan. *Shohruh* davlatni idora qilishdan koʻra koʻproq toat-ibodat, diniy kitoblar mutolaasi bilan mashgʻul boʻlmoqni afzal koʻrganidan, avval unga devon ishlarini boshqarishni, soʻng viloyat hokimlari va qoʻshin sarkardalarini tayinlash, hatto kimga qanday inʼomu, kimga qanday jazo berish huquqini ham topshirib qoʻygan. Masalan, 1440-yil mashhur tarixchi — *Fasih Ahmad Xavofiy* Gavharshodbegimning buyrugʻi bilan ikki marta zindonga tashlangan. Gavharshodbegim saltanat taxtiga valiahd tayinlash borasida ham oʻz ixtiyori boʻyicha ish tutib, *Shohruhning Muhammad Joʻqini* taxt vorisi qilib tayinlash niyatida ekanligiga qaramay, nabirasi *Alouddavlani* valiahdlikka tayinlaydi. Ammo, *Shohruh* tez kunda shifo topib, uning bu rejasi amalga oshmay qoladi. Gavharshodbegim Qazvin, Ray, Qum viloyatlari hokimi — nabirasi *Sulton Muhammad Hamadon* va *Isfaxonni* egallab, Sherozni qamal qilganda (1446) *Shohruh* bilan birgalikda unga qarshi qoʻshin tortadi-da, *Sulton Muhammadni* isyonga undagan amaldorlar qatorida bir necha sayyidlarni

ham qatl etmoqni *Shohruh*dan qattiq talab qiladi. Shunda *Shohruh* uning soʻziga kirib, hatto *Amir Temur* ham qatl etmoqqa jurʼat qilmagan sayyidlarni oʻlimga buyuradi. Sayyidlar dor ostida turib *Shohruh*ni duoibad qiladilar. Keyin, *Shohruh Sherozdan* *Hirotda* qaytayotib yoʻlda toʻsatdan vafot etadi (1447-yil 12-mart). *Davlatshoh Samarqandiy Shohruhning* oʻlimi va uning avlodlarining tez orada qirilib ketganini mazkur sayyidlarning qarqʻishi bilan bogʻlaydi. Shundan soʻng *Gavharshodbegim* qoʻshin qoʻmondonligini nabiralardan biri — *Abdulatifga* topshirib, *Alouddavla Mirzoga* *Hirotda* mudofaa inshootlarini mustahkamlash zarurligi haqida maxfiy maktub yoʻllaydi. Bundan ogoh boʻlgan *Abdulatif* buvisi *Gavharshodbegimni* hibsga olib, otasi — *Ulugʻbekka* bobosi *Shohruhning* vafot etgani xususida xabar joʻnatadi. Natijada temuriylar oʻrtasida taxt uchun kurash boshlanib, *Sulton Abu Said* *Hirotni* egallaydi-da, *Gavharshodbegimni* qatl qiladi. *Gavharshodbegim* *Boysungʻur* daxmasida dafn qilingan.

HAYDAR XORAZMIY — XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda yashab ijod etgan zamonasining isteʼdodli shoiri va adibi.

HOFIZ, XOJA HOFIZ SHEROZIY (taxalluslari; asl ismi Shamsiddin Muhammad ibn Muhammad (taxminan 1325-1389-yillar) — fors shoiri. Lirik sohasiga katta hissa qoʻshgan sermahsul olim va isteʼdodli adib. *Kambagʻal* hunarmand oilasida tugʻilgan. Bolaligidanoq Qurʼonni yoddan qiroat bilan oʻqigani uchun hofiz nomini olgan. U koʻp hadis va sheʼrlarni ham yod oʻqigan. Yaxshi xattot boʻlgan. Xofiz vaqti-vaqti bilan shohlar saroyida ham xizmat qilgan, *Shoh Shujoʻ Muzaffariyning* (1358-1384) taxtga chiqishini qutlagan, *Shoh Mansurni* (1388-1392) ulugʻlab, unga 6 gʻazal, 1 qasida hamda soqiyнома bagʻishlagan, lekin hayoti hamisha yoʻqchilikda oʻtgan. Baʼzi asarlarida oʻzining quvgʻinga uchraganligi (1366)ni yozgan. Xofizning shuhratini oshirgan ishqiy gʻazallaridir. U *Saʼdiy Sheroziy* va *Xusrav Dehlaviy* shakllantirgan gʻazal janrini eng yuksak pogʻonaga koʻtardi. Xofiz gʻazaliyotga may va muhabbat, ayriliq jafosi, visol nashʼasi kabi anʼanaviy mavzular keng oʻrin egalladi. Hofizning adabiy merosi bitta lirik sheʼrlar devonidan iborat. “*Devon*” shoir vafotidan 35 yil keyin sherozlik adabiyotshunos *Muhammad Gulandom* (XIV-asr oxiri — XV asr boshlari) tomonidan tuzilgan va u XIX asrda Yevropada nashr etilgan boshqa nusxalar uchun asos boʻlgan.

HOFIZI ABRU, TOʻLIQ ISMI SHAHOBUDDIN ABDULLOH IBN LUTFULLOH IBN ABDURRASHID AL-HAVOFIY (?-1430) — tarixchi olim, Hofizi Abru *Amir Temur* va *Shohruh* saroyida istiqomat qilgan va har ikkala hukmdor bilan yaqindan munosabatda boʻlgan. U *Shohruhning* topshirigʻi bilan ikkita yirik asar yozgan. Bulardan biri tarixiy-geografik mazmunda boʻlib, 1414-1420-yillar orasida yozilgan. U X asrda arab tilida bitilgan nomaʼlum bir kitob asosida yozilgan. Hofizi Abru *Shohruhning* koʻrsatmasi bilan oʻzidan avval oʻtgan mazkur tarixchilar: *Tabariy*, *Rashiduddin* hamda *Nizomuddin Shomiylarning* asarlariga qoʻshimchalar (zayl) ham yozgan. 1412-1418-yillar orasida yozilgan bu qoʻshimchalar “*Majmua-yi Hofizi Abru*” deb ataladi. Hofizi Abru temuriy

Boysung'urning topshirig'i bilan 1423-1425-yillari "*Zubdai tavorix*" ("Majmu at-tavorix") nomli katta tarixiy asar ham yozgan. Bu asarning 4-qismini u Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrga bag'ishlagan.

HOJIMUHAMMAD NAQQOSH — XV asr va XVI asr boshlarida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan musavvir.

HUSAYN BOYQARO, HUSAYNIY (to'liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438 — Hirot-1506) — Xuroson hukmdori (1469-1506), o'zbek shoiri. Temuriylardan *Umarshayx*ning evarasi. Husayn Boyqaro saltanat uchun *Abu Said Mirzoga* qarshi kurashib, 1469-yilda Hirot taxtini egalladi. *Alisher Navoiy*ni muhrdor, so'ng Bosh vazir qilib tayinlaydi (1472). Husayn Boyqaro davlati shimolda Xorazmdan janubda Qandahor va Seyistongacha, sharqda Balx va G'aznada g'arbda Damgongacha bo'lgan maydonni o'z ichiga olgan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davrida mamlakatni obodonlashtirish va Hirotni madaniy markazga aylantirish ishlariga ancha e'tibor berildi. Keyinchalik mahalliy urushlar, Husayn Boyqaroning va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashdi. Uning vafotidan so'ng Hirot Shayboniylar tomonidan zabt etildi (1507). Husayn Boyqaro she'riyatga ham qiziqqan. Ko'proq g'azal janrida ijod qilib, devon tuzgan; g'azallarida, asosan, dunyoviy sevgini kuylagan. "*Risolai Husayn Boyqaro*" (taxminan 1485) nomli nasriy asarida davr, hokimiyat, siyosat bilan aloqador masalalar, madaniyat, adabiy hayot haqida fikr yuritgan.

HUSAYN UDIY (XV a.) — mohir sozanda.

HAYDAR SABUHIY (XV asr — Hirot — 1498) — shoir. *Alisher Navoiy*ning jiyani, tog'asi *Mir Said Kobuli*ning o'g'li. Toju taxt uchun kurashda *Husayn Boyqaro* tomonida turib urushgani sababli *Abusaid Mirzo* otasini tutib qatl etgach, uning tarbiyasi bilan *Navoiy* shug'ullangan. "*Sabuhiy*" (tasavvufiy ma'noda poklik, haqiqat nuri) taxallusi bilan she'rlar yozgan. *Navoiy* ko'pincha uni yonida olib yurgan. Astrobodda ham u *Navoiy*ning xos mulozimlaridan bo'lgan. *Navoiy* uni ba'zi rasmiy topshiriqlar bilan Hirotga yuborganida, bir davrada *Navoiyga* suiqasd qilingani, oshpaz unga zahar qo'shilgan taom bermoqchi bo'lgani, bundan xabar topgan shoir g'azabga minib, *Husayn Boyqaroga* qarshi isyon ko'tarmoqchi ekanligini aytadi. Bu gap Hirotida ovoza bo'lib ketadi. *Husayn Boyqaro* darhol *Navoiyga* maktub yo'llab, bu ishdan mutlaqo xabari yo'qligini ma'lum qiladi. Shu voqeadan keyin *Husayn Boyqaro Navoiy*ning Hirotga qaytishiga ruxsat beradi. *Navoiy* o'z javobida bu gapni rad etadi va jiyaning xatosini kechirishini iltimos qiladi. *Husayn Boyqaro* garchi kechirganligini aytib, do'stini xotirjam qilsa-da, o'z xonadoni sha'niga qilingan bu tuhmatni unutmaydi. Haydar Sabuhiy barcha xizmatlardan chetlatiladi. U Badaxshonga ketib, bir necha yil o'sha yerda xizmat qiladi. 1498-yilda Badaxshondan Hirotga elchi bo'lib kelganida, *Husayn Boyqaro* uni tutib, qatl ettiradi.

IBN ARABSHOH SHIHOBUDDIN AHMAD IBN MUHAMMAD IBN ABDULLOH IBN IBROHIM (1388, Damashq — 1450, Qohira) — arab tarixchisi. *Amir Temur* 1401-yilda Shom (Suriya)ni egallagach ibn Arabshohni

qarindosh-urug'lari bilan Samarqandga keltirgan. Bu yerda u mashhur olimlardan ta'lim olgan, fors, mo'g'ul va turk tillarini o'rgangan hamda adabiyot va ilohiyot bilan shug'ullangan (1401-1408). U Xorazm, Mo'g'uliston, Xitoyda va Oltin O'rda poytaxti Saroyda bo'lgan. Astraxonda huquq fani bilan shug'ullangan. Qrim orqali Adrianopolga kelgan. 10 yil davomida turk sultoni *Muhammad I* ning maxsus kotibi bo'lgan. Ibn Arabshoh bir necha tarixiy kitob yozgan. "*Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur*" ("*Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajayibotlari*") ibn Arabshohning eng mashhur asaridir. Bu asar "*Amir Temur tarixi*" nomi bilan o'zbek tilida ham nashr etilgan. Asarda Temur davlati va unga chegaradosh mamlakatlar siyosiy, xo'jalik va madaniy turmushini qo'shimcha ravishda oydinlashtirib beruvchi ko'pdan-ko'p diqqatga sazovor ma'lumotlarni keltirgan. Ibn Arabshoh *Amir Temurga* naqadar salbiy nazar bilan qaramasin, har holda uning shaxshini munosib baholagan.

IBROHIM MIRZO, IBROHIM SULTON ABULFATH (1394-1435-yil 4-may) — Balx va Toxariston (1409-1415) hamda Erondagi Fors o'lkasining hokimi (1415-1435), shoir, adib, Hirot xattotlik maktabining yirik vakili. Temuriylardan *Shohruh*ning ikkinchi o'g'li. Onasi — *To'ti begim*. *Amir Temurning* xotini *Tuman og'o begim* tarbiyasiga topshirilgan. Ibrohim mirzo ilm fanga, san'atga homiylik qilgan, mamlakat obodonchiligida bosh-qosh bo'lgan. *Sharafiddin Ali Yazdiy* "*Zafarnoma*" asarini Ibrohim Mirzoning toshirig'i bilan yozgan. Ibrohim Mirzo Sherozda va mamlakatning boshqa shaharlarida binolar qurdirgan. Ibrohim Mirzo olti xil xatda tengi yo'q xattot bo'lgan. Shuning uchun ayrim masjid va madrasalar peshtoqiga o'z qo'li bilan kitobalar ham yozgan.

ISMOIL IBN TOHIR (XIV—XV a.) — isfahonlik me'mor. Buxorodagi *Ulug'bek madrasasini* qurgan. Binoning bezaklari orasiga me'morning nomi yozilgan.

IZZADDIN IBN TOJUDDIN ISFAXONIY — ustahunarmand, u 1397-yilda *Temurning* buyurtmasi bilan katta jez qozon va ikkita shamdon yasagan.

JAHONGIR MIRZO (1396-1433-yil 24-iyun) — Movarounnahr xoni (1405-1409-yillar), Hisor hokimi (1409-1433-yillar). Temuriylardan. *Muhammad Sulton* mirzoning katta o'g'li. 1405-yilda *Amir Temur* vafotidan so'ng, *Halil Sulton* Samarqand taxtiga o'tirgach, 9 yoshli Jahongir Mirzoni xon ko'tarib, o'zi otabeklik mansabida hukmronlik qilgan. 1409-yilda *Shohruh Mirzo* Movarounnahrn egallab Samarqand taxtiga *Ulug'bekni* o'tqazgan. Jahongir Mirzoga Hisor hokimligini berib, unga yosh bo'lganligi uchun *Hamza Sulduz*ni otabek qilib tayinlagan. Movarounnahrdagi hokimiyatni qayta egallash uchun *Ulug'bekka* qarshi kurashgan. Biroq Qizil Rabot mavzeida *Shohruh* qo'shini bilan bo'lgan jangda (1410-yil 12-iyul) yengilgan.

JAHONSHOH, MIRZO JAHONSHOH (XV asr) — qora quyunlilar sulolasiga mansub hukmdor, Qora quyunlilar davlatining asoschisi — *Qora Yusuf*ning o'g'li. Jahonshoh 1437-yilda temuriylardan *Shohruh* tomonidan Ozarbayjonga hokim etib tayinlanib, Gruziya hududining talaygina qismini zabt etgan. *Shohruh* vafot etgach esa Temuriylar davlatiga qarshi yurish qilib Eronning anchagina

qismini va Xurosonni qo'lg'a kiritgandan so'ng, Oq quyunlilar davlatiga hujum qilgan, ammo, *Uzun Hasan* tomonidan tor-mor etilib, qochgan va 1467-yilda qo'lg'a olinib, qatl etilgan.

JONG-FU — 1419-yil *Li-Do* bilan Samarqand va Hirotda bo'lgan Xitoy elchisi. Elchilar Ardasher boshliq Shohruh elchilariga javoban tashrif buyurishgan. Ular *Ulug'bek* va *Shohruh* nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a — salomlarni topshiradilar.

JURJONIY, ABULHASAN ALI IBN MUHAMMAD SAYYID SHARIF (1339, ASTROBOD YAQINIDAGI TOG'U (Toju) qishlog'i — 1413, Sheroz) — *Amir Temur* davrida yashab ijod etgan yirik mutakallim faylasuf, shoir va munajjim. Sherozdagi "*Dorush shifo*" madrasasida mudarrislik qilgan, Oltin O'rdada uzoq muddat yashab, *Jonibek* davri (1341-1357-yillar)da yirik alloma sifatida shuhrat qozongan, mazkur xonga atab arab tili grammatikasiga doir "*Mutavval*" asarini yozgan. *Amir Temur* Sherozni zabt etgach, uni Samarqandga olib kelgan (1387). Samarqandda Jurjoniy butun Movarounnahr olimlari rahbari darajasiga ko'tarilgan. U bu yerda mudarrislik qilish bilan birga arab va fors tillarida ilmi kalom, falsafa, mantiq, nahvga doir ko'plab risolalar ("*Al-Usul ul-mantiqiyya*", "*Tarjumon ul-Qur'on*", "*Fann ul-muammo va usuli va tasarrufi baforsiy*" — "*Muammo fani va uning fors tilidagi usuli va turlanishi*" va boshqalar) bitdi, usuli fiqh, falsafaga doir eng muhim asarlar (masalan, Sakkokiy, Zamaxshariy, Qutbiddin Roziy, Taftazoniy va boshqa risolalari)ga sharhlar yozdi. Jurjoniy she'riyat muxlisi bo'lib, o'zi ham go'zal g'azallar bitgan. U *Amir Temur* vafotidan keyin Sherozga qaytib ketib, o'sha yerda vafot etgan.

KAMOL XO'JANDIY (XIV asrning ikkinchi yarmi — XV asr boshlari) — shoir, dunyoviy adabiyot vakillaridan biri. Lirika sohasiga katta hissa qo'shgan sermahsul olim va iste'dodli adiboshqa Xo'jandiy haqida biografik ma'lumotlar saqlanmagan. Bizgacha uning "*Latofatnoma*" asari yetib kelgan. Asar *Xorazmiyning "Muhabbatnoma"* sig'a nazira tarzida yozilgan. Doston o'nta noma (maktuba)dan iborat. Asarda sevgi tarannum etilib, visol ishtiyoqi va hijron iztiroblari tasvirlangan.

KOSHIFIY HUSAYN VOIZ (taxallusi; asl ismi Kamoliddin; Voiz — laqabi) (taxminan 1442/46, Sabzavor qishlog'i — 1505, Hirotda) — voizlik san'ati namoyandasi va nazariyotchisi, mutafakkir, ilohiyotchi olim. Arab, fors, turk tillarini yaxshi bilgan, matematika, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fiqhdan to'la ma'lumot olgan. Yoshligidan voizlik bilan shug'ullangan. Nishopur va Mashhadda (1455-1468), keyinchalik Hirotda (1468-yildan) yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan. *Navoiy* bilan ijodiy hamkorlik qilgan, unga bag'ishlab asar yozgan ("*Mavohibi oliya*" — "*Oliy tuhfar*"). Falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, din tarixi, voizlik, she'r san'ati kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar muallifi. Axloq haqidagi eng mashhur asarlaridan biri "*Axloqi muhsiniy*" ("*Yaxshi xulqlar*") *Husayn Boyqaroning* o'g'li *Abulmuhsin Mirzoga* bag'ishlangan. "*Futuvvatnomai sultoniy yoxud juvonmardlik tariqati*" asari o'zbek tilida nashr etilgan (1994). Koshifiyning 45 nomdagi asarlarining 197 qo'lyozma

va 75 toshbosma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

LI-DO — 1419-yil *Jong-Fu* bilan Samarqand va Hirotda bo'lgan Xitoy elchisi. Elchilar *Ulug'bek* va *Shohruh* nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a — salomlarni topshiradilar.

LUTFIY (1366- Hirotda — 1465), Mavlono Lutfiy — o'zbek shoiri, orif va mutafakkir. O'z zamonining "*malik ul-kalomi*". Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Dehikanor mavzei deb ko'rsatib kelingan. *Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bekka* bag'ishlab yozilgan "*Funun ul-balog'a*" asari topilgach, undagi "*ma'dan ul-latoiyif Lutfiyi Shoshiy*" jumlariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo'lgan, degan fikr ham ilgari surildi. Lutfiyning hayot yo'li singari, ijodiy taqdiri ham juda ibratli: u 99 yil yashagan. Umrining asosiy qismi o'qish, o'rganish va badiiy ijod mehnati bilan o'tgan. Navoiy so'zi bilan aytganda, u "*forsiy va turkiyda naziri yo'q*" shoir bo'lgan. Lutfiy garchi o'z ona tili — turkiy tilda yaratilgan she'rlari bilan mashhurlikka yetishgan bo'lsa-da, forsiyda ham o'zining shoirlik iqtidori va mahoratiga ko'pchilikni iqror eta olgan. Lutfiy she'riyat bilan tariqatni, majoz bilan haqiqatni uyg'unlashtirgan edi. Ammo u so'nggi nafasigacha shoirlik burchi va ilhomiga sodiq qolib, o'zbek she'riyati xazinasini biri biridan qimmatli nazm durdonalari bilan boyitdi. Shu bilan bir qatorda, shoirlik nechog'lik "*ma'ruf va mashhur*" bo'lmasin, "*darveshlik tariqini dag'ilikdan*" (Navoiy) chiqarmagan edi. Xuddi shu narsa uning nafaqat o'z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko'tarilishiga bir asos bo'lgan. Haqiqatan ham Lutfiyning she'riyati — xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat. Bizgacha shoirning XVI-XX asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalarida va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Olimlarning e'tiroficha, Lutfiy qalamiga mansub mavjud she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g'azallarida milliy his-tuyg'ular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy nainki g'azallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafasat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning — zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikru tuyg'ularini tarannum etgan. Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iborat bo'lsa-da, shoir deyarli har bir she'rda mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, xususan, irsoli masal san'ati namoyon

bo'lgan. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit'alarini ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan. Yaqin-yaqingacha "*Gul va Navro'z*" dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi *Haydar Xorazmiy* ekanligi aniqlandi. Lutfiy — turkiy she'riyatda maktab yaratgan san'atkor. Bu ijod maktabidan *Alisher Navoiy* va *Mirzo Bobur* saboq olishgan. Lutfiy she'riyatining ta'siri faqat O'rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga ham yetib borgan.

MAJDIDDIN MUHAMMAD, XOJA MAJDIDDIN MUHAMMAD XAVOFIY (?-1494-yil avgust) — *Husayn Boyqaro* davlatining yirik mansabdor shaxslaridan biri, vazir (1487-1490). Otasi *G'iyosiddin Pir Ahmad Xavofiy* Hirotda *Shohruxning* vaziri (1417-47) bo'lgan. Majdiddin Muhammad *Abu Said* davrida oddiy mirza, so'ngra *Husayn Boyqaroning* jiyani *Mirzo Muhammad Sultonning* vaziri bo'lgan. *Sulton Husayn Boyqaro* undan Majdiddin Muhammadni so'rab olib, parvonachi mansabiga o'tqazgan (1472), Majdiddin Muhammad saroy va mamlakatdagi ishlar xususida sultonga axborot berar, qabul qilingan qarorlarni yozib olar va o'z muhrini sulton muhri bilan yonma-yon qo'yardi; shu tufayli hukmdorlarning noibi (o'rinbosari) hisoblangan. Biroq Majdiddin Muhammad bilan *Alisherbekning* o'zaro munosabatlari murakkab edi. Buning ustiga saroy vazirlari *Nizomulmulk* va *Xoja Afzaliddin Muhammadlar* Majdiddin Muhammadga qarshi fitna qo'zg'atib, uni sultonga qoralay boshlab, Majdiddin Muhammadni 60 ming din or to'lashga majbur etishgan. U parvonachi mansabini saqlab qolgan, biroq devon ishlariga aralashmasligi lozim bo'lgan (1478-yil). 1487-yil *Alisherbek* Astrobod hokimi etib tayinlangach, Majdiddin Muhammad devon ishlariga yana aralasha boshlagan, dastlabiga u ma'lum hokimiyatga ega bo'lmagan. Xazina bo'shab qolib, sultonga 2 tuman pul zarur bo'lib qolganda Majdiddin Muhammad sultonga nafaqat 2 tuman balki 2000 tumanni ham osonlik bilan topishi mumkinligini aytadi. Ertasi kuni Majdiddin Muhammadga keng vakolatlar beriladi: unga hukmdor nomidan muhr bosish, barcha ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish huquqi beriladi. Majdiddin Muhammad "saltanat va podshohlikning ishonchli kishisi" unvoniga ega bo'lgan. Amaldorlar poraxo'rliklari uchun javobgarlikka tortilgan va qisqa muddat ichida ulardan 2000 tuman pul to'plab olingan. *Alisherbek* 1490-yil Hirotda qaytgach, Majdiddin Muhammadning ta'siri zaiflasha boshlagan. Balxda *Darveshali* qo'zg'olon ko'targanligi haqidagi xabar Hirotda yetib kelganda, sulton *Husayn Boyqaro* davlat manfaatlarini ko'zlab, Majdiddin Muhammadni vaqtincha hokimiyatdan chetlashtiradi. Majdiddin Muhammadni barlos beklari, mashhur sufiy shoir *Abdurahmon Jomiy* qo'llab-quvvatlaydi. Majdiddin Muhammad barlos beklari yordamida sulton qabuliga kirishga muvaffaq bo'ladi, u hukmdorga 20 ming dinor peshkash qiladi, lekin oradan bir necha kun o'tgach, barlos beklari va Majdiddin Muhammad hibsga olinadi. Majdiddin Muhammad barcha gunohlarni o'z bo'yniga olgan. Uning mol-mulki taftish qilinganda hech kim kutmagan nodir, qimmatbaho buyumlar topilgan. Majdiddin Muhammad bir qancha to'lov shartnomalarga imzo chekkach, ozod qilingan. Majdiddin Muhammad farangilar (yevropaliklar) karvoni bilan Kirmonga qochadi, u yerdan Makkaga, haj

ziyoratiga jo'naydi, biroq manzilga yeta olmaydi, yo'lda, Arabistondagi Tobuk degan yerda vafot etadi.

MAHMUD MUZAHHIB (XV asr oxiri — XVI asr 60-yillari) — naqqosh, musavvir. *Kamoliddin Behzodning* shogirdi. Ijodi Hirotda boshlangan. Rassom *Do'st Devona*, hattot *Sultonali Mashhadiy* bilan hamkorlik qilgan. Ilk asarlaridan *Alisher Navoiy* portreti (Mashhaddagi Ostoni Quds majmuasida), *Abdurahmon Jomiyning* "*Devon'i*" (Vashingtondagi Lafayet universiteti kutubxonasida) va boshqa Q'olyozmalarga ishlagan miniatyuralari bizgacha yetib kelgan. 1507-yildan Buxoroda yashagan, Buxoro miniyatura maktabi badiiy uslubining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Mahmud Muzahhib yaratgan asarlarida badiiy ifoda vositalari lo'nda, aniq, portretlarida psixolog tasvir yetakchi. Mahmud Muzahhib ijodida *Sa'diy* va *Jomiy* asarlari alohida o'rin tutadi. *Sa'diyning* "*Bo'ston*", *Nizomiyning* "*Mahzan ul-asror*" ("Sirlar xazinasi"), *Jomiyning* "*Tuhfat ul-axror*", "*Bahoriston*", "*Yusuf va Zulayho*" asarlari va boshqa q'olyozmalarni bezagan.

MIRALI TABRIZIY (1330-1405) — xattot, nasta'liq xatining ixtirochisi. *Sultonali Mashhadiyning* ta'kidlashicha, Mir Ali Tabriziy bu xatni nasx va ta'liq yozuvlari asosida yaratgan. *Amir Temur* va *Shohrux Mirzo* xizmatida bo'lgan. Nasta'liq xatining qonun-qoidalari bayon etilgan risola yaratgan, ko'plab shogirdlar tayyorlagan. U ko'chirgan q'olyozmalar, jumladan, *Kirmoniyning* "*Xumoy va Humoyun*", "*Kamolnoma*", "*Ravzat al-anvar*" dostonlari, *Sa'diyning* "*Kulliyot*", "*Bo'ston*" asari (1377), *Nizomiy* va *Dehlaviyning* "*Xamsa*"lari va qit'alar bizgacha yetib kelgan.

MIRAK NAQQOSH (?-1507-yillar) — musavvir, xattot hamda naqqosh. "*Said Rahullo*", "*Said Mirak*", "*Xoja Mirak*" nomlari bilan mashhur bo'lgan. *Kamoliddin Behzodning* ustoz. *Alisher Navoiy* kutubxonasida ishlagan, *Sulton Husayn Mirzo* saroy kutubxonasining boshlig'i bo'lgan. Kitobat san'atining mohir ustasi, hattot ham bo'lgan. Hirot jome masjidi kitobalarini yaratgan va boshqa binolarni bezagan.

MIRIM CHALABIY (XV a.) — olim, *Qozizoda Rumiyning* nabirasi, u tomonidan Samarqand astronomik maktab namoyandalari asoslari va matematik jadvallariga yozilgan sharhlar muhim ilmiy ahamiyatga ega.

MIRONSHOH QAVCHIN — Samarqand amiri. 1449-yil oktabrida Damashq qishlog'i yaqinida *Abdulatif* va *Ulug'bek* o'rtasida qattiq jang bo'lib, *Ulug'bek* mag'lubiyati bilan tugaganidan so'ng Samarqand shahri darvozalarini berkittirib *Ulug'bekni* ichkariga kirishga qo'ymagan.

MIRZO BOYQARO (1393-1423) — *Amir Temurning* nabirasi, amirzoda *Umar Shayx Mirzoning* eng kichik o'g'li. Onasi *Mulakat og'o begim*. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Mirzo Boyqaro husn va tarovatda ikkinchi Yusuf, jur'atda esa ikkinchi Rustam bo'lgan. Sohobqiron *Amir Temur* vafotidanm so'ng, Mirzo Boyqaro *Shohruh Mirzo* saroyida mulozimatda bo'ladi. 1414-yilda *Shohruh Mirzo* Hamodan hukumatini, Buruja va Nehovand qal'alari hamda butun Luristonni Mirzo Boyqaroga suyg'ol qilib beradi. Mirzo Boyqaro *Shohruh Mirzoga* qarshi isyon ko'taradi. Isyon bostirilgach, 1415-yilda *Shohruh* uni

markaziy hukumatga bo'ysunmagani uchun suyurg'oldan mahrum etadi. 1417-yilda Mirzo Bayqaro Samarqandga — *Ulug'bek Mirzo* huzuriga jo'natiladi. *Davlatshoh Samarqandiyning* ma'lumotlariga ko'ra, 1423-yilda Ulug'bek Mirzoning farmoniga ko'ra, Mirzo Boyqaro lashkargohda o'ldiriladi. Mirzo Bayqarodan uch o'g'il — *Muzaffar Mirzo, Muhammad Mirzo va G'iyosiddin Mansur Mirzolar* qolgan edi.

MIRZO MUHAMMAD HAYDAR (1500-1551) — yirik tarixchi olim. Muhammad Haydar Mirzo Toshkentda tug'ilgan. Otasi o'ldirilganidan keyin *Muhammad Husayn*ga sodiq kishilar uni birmuncha vaqt Buxoroda asraganlar, so'ng Badaxshonga olib borib qarindoshi *Sulton Uvays Mirzoning* qo'lga topshirganlar. Muhammad Haydar keyinchalik Kobulga keladi va 1513-yilgacha *Z.M. Bobur* xizmatida bo'ladi. 1512-yilning kuzida u Andijonga, *Sulton Saidxon* huzuriga keladi va u bilan qo'shilib, Koshgarga ketib qoladi. *Sulton Saidxon* ko'p o'tmay bu yerda *Abubakr* dug'lot ustidan g'laba qozonadi va Koshg'ar hamda Yorkandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Muhammad Haydar 1533-yilgacha, ya'ni *Sulton Said* vafotiga qadar uning xizmatida bo'ladi: dastlab xonzoda *Abdurashidxon*ga tarbiyachilik (otaliq) qiladi, song yirik harbiy bo'linmalarga boshchilik qiladi va xonning bir qancha harbiy yurishlarida faol ishtirok etadi. 1541-yili *Humoyunning* harbiy yordami bilan Kashmirni bo'ysundiradi va u yerda 10 yil hukmronlik qiladi. U 1551-yili tog'lik qabilalar bilan to'qnashuv vaqtida halok bo'ladi. Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. *Bobur Mirzoning* guvohlik berishicha, Muhammad Haydar durustgina shoir, xatot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Muhammad Haydardan bizning zamonimizgacha ikki yirik asar yetib kelgan. Bularidan biri "*Jahonnoma*" atalib, ertak mazmunida yozilgan. Olimning ikkinchi asari "*Tarixi Rashidiy*" (1544-1546) dir.

MIRZO SULTON HUSAYN (1380-1405) — *Amir Temurning* kuyovi *Muhammadbekning* o'g'li, onasi *Amir Temurning* qizi *O'gi begim*. Sulton Husayn Mirzoga *Mironshoh Mirzoning* qizi *Qutulug' Sulton begim* nikoh qilingan. Sulton Husayn Mirzo yoshlikdan takabbur, o'zboshimcha va tabiatan ig'vo-fitnaga moyil bo'lib, undagi bu nuqson barcha temuriy shahzodalar hamda amir va beklarga ma'lum edi. 1400-yilning oxirida *Temur* o'z qo'shini bilan Damashqni qamal qilgan vaqtda, Sulton Husayn Mirzo o'z odamlaridan ajrab, dushman tomoniga o'tib, o'z kishilariga qarshi kurashadi. Keyinchalik Sulton Husayn Mirzoning bu qilmishi uchun *Amir Temur* tomonidan unga tayoq jazosi beriladi. Sulton Husayn Mirzo bahodir yigit bo'lsa-da, lekin o'ta buzuqi va beoqibat bo'lgan edi. U Andxo'y tevaragida hech bir sababsiz bobosi *Amir Temur* o'rdasidan qochib, Kesh atrofida *Sulton Holid Mirzo* huzuriga borgan va uning inoyatiga sazovor bo'lgan. Sulton Husayn Mirzo *Amir Temurning* Hindiston, Iroq, Ozarbayjon, Shom va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlarida faol qatnashgan. Jumladan, *Temurning* 1405-yildagi Xitoyga qilgan mashhur yurishida u qoshinning chap qanotiga boshliq qilib tayinlangan. 1405-yil fevralda *Temur* vafot etganda Sulton Husayn Mirzo o'ziga

biriktirilgan qo'shin bilan Sabronda qishlamoqda edi. *Temurning* vafoti haqida O'trotdan xabar kelishi bilan oq, u Samarqand taxtini egallash vasvasasi bilan o'ziga qarashli qo'shinni Samarqandga qaytishga undaydi. Biroq qo'shindagi harbiy sarkarda va beklar orasida hamjihatlik bo'lmagach, u o'ziga sodiq mingta otliq askarni olib, shitob bilan poytaxtga qarab yo'l oladi. Ammo Samarqand taxtiga *Sulton Xalil Mirzo* o'tirganini eshitgach, o'z qo'shini bilan *Xalil Sulton Mirzo* huzuriga kelib, uning mulozamatida bo'ladi. *Xalil Sulton Mirzo* unga ishonch bildirib, 30 minglik qo'shinga boshliq qilib tayinlab, *Pirmuhammad Mirzoga* qarshi yuboradi. 1405-yil mayda Sulton Husayn Mirzo qoshini Balxni egallaydi. Ana shundan so'ng, Sulton Husayn Mirzo ko'nglida saltanat, toju-taxt vasvasasi paydo bo'ladi. Sulton Husayn Mirzo samarqanddan Balxga — *Pirmuhammad Mirzo* huzuriga kelayotgan *Muhammad Sulton Mirzoning* harami *Xonika begimni* to'xtatib, barcha mol-mulklarini talab, g'orat qiladi. Saltanatga tegishli mol-mulkni qo'shinga taqsimlagach, Samarqandga yurish boshlaydi. Biroq u Xalil Sulton Mirzodan mag'lubiyatga uchrab, Andxo'yda hokim bo'lib turgan *Temurning* jiyani (opasining o'g'li) *Sulaymonshoh* huzuriga keladi. U yerdan *Shohruh Mirzo* huzuriga keladi. Sulton Husayn Mirzo *Shohruh Mirzo* farmoniga muvofiq qatl etiladi.

MIRXOND, MIR MUHAMMAD IBN SAYID BURHONUDDIN XOVANSHOH IBN KAMOLIDDIN MAHMUD (1433-yil 22-iyun — 1498-yil 24-fevral) — tarixchi olim. Ota-bobolari asli buxorolik bo'lib, fiqh ilmida mashhur bo'lishgan. Mirxond Buxoroda madrasani tugatib, otasi vafotidan keyin Hirotda kelgan. *Alisher Navoiy* Mirxondga yirik bir tarixiy asar yozishni topshirgan. Unga Xalosiya xonaqohida joy, maosh tayinlab, o'zining boy kutubxonasidan foydalanish uchun imkon yaratadi. Mirxond shu yerda 1494-yilgacha 7 jildli "*Ravzat us-safo fi siyaratul-anbiyo val-muluk val-xulafo*" ("*Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i*") asarining 6 jildini yozib tugatadi. "*Ravzat us-safo*"ning mazmuni quyidagichadir: birinchi jild (daftar) — dunyoning yaratilishidan sosoniylar sulolasi inqiroziga; ikkinchi jild Muhammad (as.) va to'rt xalifa tarixi; 3-jild umaviy va abbosiylar xalifalari tarixi; 4-jild — umaviy va abbosiylar davrida O'rta Osiyo; 5-jild — Chingizxon va chingiziylar tarixi; oltinchi jild — Amir Temurdan Abu Said vafotigacha bo'lgan davr tarixi; 7-jild — Sulton Husayn va uning avlodi davri tarixi. Bu jildning davomini nabirasi *Xondamir* (bobosi vafotidan keyin) yozib tugatadi. Dastlabki 6 jild matni *Alisher Navoiy* tahriridan o'tadi. O'zbekchaga tarjimasi *Muhammad Rahimxon Feruz* davri (1865-1873)da Munis va Ogahiylar tomonidan amalga oshiriladi.

MO'MIN MIRZO, MUHAMMAD MO'MIN MIRZO (1486-1497) — temuriy shahzoda. *Badiuzzamonning* o'g'li. *Husayn Boyqaro* nevarasi. Aqlli, ziyarak va jasoratli bo'lgan. 11 yoshida Astrobodda otasi o'rnida hokim. Mo'min Mirzo amakisi *Muzaffar Husayn Mirzo* Astrobodni undan tortib olmoq niyatida qo'shin bilan kelayotganini otasi yuborgan maktub orqali bilgach, shoshilinch ravishda jangga hozirlanib, shahar tashqarisiga chiqib jang qilgan. Lekin, kuchlar teng bo'lmagani tufayli Mo'min Mirzo asirga olinib,

Hirotda jo'natilgan va Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'yilgan. *Husayn Boyqaroning* xotini *Xadicha begim* o'g'li *Muzaffar Mirzoning* taxtni egallashida asosiy g'ov deb Mo'min Mirzoni bilardi. U vazir *Nizomulmulk* bilan kelishib, *Husayn Boyqaroning* qattiq mastligidan foydalanib, Mo'min Mirzoni zudlik bilan qatl qilish haqidagi farmonga muhr bostirib olgan.

MUINUDDIN ISFIZORIY — xurosonlik tarixchi, Hirotda tarixini yozgan.

MUHAMMAD JAHONGIR MIRZO (1396-1433) — *Muhammad Sulton Mirzoning* katta o'g'li, *Amir Temurning* katta o'g'li *Muhammad Jahongir Mirzoning* nabirasi. *Xalil Sulton* 1405-yilda saltanatni egalagach, 9 yoshli shahzoda Muhammad Jahongir Mirzoni xon qilib ko'taradi va o'zi xuddi bobosi kabi otaliq mansabida bo'ladi. 1409-yilda *Xalil Sulton* hokimiyatdan tushirilgach, *Shohruh mirzo Muhammad Jahongir Mirzoga* Hisori Shodmonmi in'om qiladi. Muhammad Jahongir Mirzo hali yosh bo'lganligi sababli unga amir *Hamza Sulduz* otabek qilib tayinlanadi. Biroq amir *Shohmalik*ni katta mansabga tayinlanganidan norozi bo'lgan raqiblari — amir *Shayx Nuriddin* va amir *Hamza Sulduz*lar unga qarshi kurash boshlaydilar. 1410-yil 20-aprelida har ikki amir birlashib, *Shohmalik* va *Ulug'bek Mirzoga* qarshi Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeida urush ochadi. Jangda *Ulug'bek* mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon chekinadi. Oradan ko'p o'tmay *Shohruh* ittifoqchilarni mag'lubiyatga uchratadi. 1413-yilda Muhammad Jahongir Mirzo *Shohruh Mirzoning* qizi *Maryam Sulton begimga* uylanadi. Muhammad Jahongir Mirzo umrining oxirigacha Hisorda hukmronlik qiladi va 1433-yilda vafot etadi.

MUHAMMAD SOLIH (1455-yil, Xorazm — 1535-yil, Buxoro) — shoir. Xorazm hokimi amir Nursaidbek oilasida tug'ilgan. Bobosi *Shohmalik Ulug'bek* saroyida, otasi *Nursaidbek* esa *Ulug'bek, Jo'gi Mirzo, Abu Said* saroylarida e'tiborli arboblardan bo'lgan. Muhammad Solih Xorazmda savod chiqargach, Hirotda borib, *Abdurahmon Jomiydan* ilm o'rgangan. Otasi vafot etgach, *Husayn Boyqaro* va boshqa temuriylar saroyida ma'lum muddat xizmat qilgan. Biroq otasining o'limiga sababchi bo'lgan temuriyodalardan bilan ishlashni xohlamay, 1499-yilda *Shayboniyxon* xizmatiga kirgan. Buxoro, Shorjo'y, Niso viloyatlariga hokimlik qilgan. "*Amir ul-ulamo*", "*Malikush-shuaro*" unvonlariga sazovor bo'lgan. *Shayboniyxon* vafotidan so'ng Buxoroga qaytgan. Muhammad Solih turkiy va forsiyda ijod qilgan. She'rlari ishqi, biografik, siyosiy mavzuda. O'zbek adabiyoti tarixida ilk realistik tarixiy doston — "*Shayboniyнома*" ni yozgan.

MUHAMMAD SULTON MIRZO (1376-1403) — *Amir Temurning* suyuqli nabirasi, *Jahongir mirzoning* katta o'g'li. Onasi Xorazm hukmdori *Yusuf So'fning* qizi — *Xonzoda begim* edi. *Amir Temur* suyuqli o'g'li *Jahongir Mirzo* vafotidan so'ng, o'zining barcha orzu-umidlarini Muhammad Sulton Mirzoga bog'lab, unga e'timod qo'ydi. O'zidan so'ng taxt-tojining yagona vorisi deb bilardi. Muhammad Sulton Mirzo bobosi *Amir Temurga* o'xshab jasoratli, qat'iyatli, zukko, dushmanga nisbatan shafqatsiz, dovyurak jangchi edi. Olimlar, fozillarga o'ta hayrixoh bo'lgan. Shuningdek, u saltanat ishiga ziyon yetkazgan

kishini shafqatsiz jozalardi. 1399-yilda *Amir Temur* navbatdagi harbiy yurishga ketayotib, Samarqand hukmdorligini 23 yoshli Muhammad Sulton Mirzoga topshirib ketadi. Shu yili Muhammad Sulton Mirzo bilan Farg'ona hokimi 16 yoshli *Iskandar Mirzo* nizo chiqadi. Muhammad Sulton Mirzo *Iskandar Mirzoni* Samarqandga chorlab keltirib, avaxtaga tashlatadi. *Iskandar Mirzo* bilan birga kelgan 26 nafar navkari hamda shahzodaning otabegisini qatl qildiradi. Keyinchalik *Amir Temur* Samarqandga qaytib kelgach, shahzodalar orasida vujudga kelgan nizoni tekshirib ko'radi va Muhammad Sulton Mirzoning qilgan ishini nohaq deb topadi. 1401-yil martida *Amir Temur* Damashqdan nabirasi Muhammad Sulton Mirzoga sobiq Xulaguxon tasarrufida bo'lgan viloyatlarni boshqarish haqida farmon yuboradi. Natijada, 1401-yil noyabr oyida bobo bilan nabira Qorabog'da uchrashadilar. 1402-yilda *Amir Temurning* Kichik Osiyoga — *Boyazid* Yildirimga qarshi yurishida Muhammad Sulton Mirzo faol qatnashadi. U hatto Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'igacha boradi. Biroq u yerdan qaytayotganda shamollab, 1403-yil 12-martda Qora Hisor mavzeida 27 yoshida vafot etadi. Muhammad Sulton Mirzodan uch o'g'il va bir qizi qolgan. O'g'illari — *Muhammad Jahongir Mirzo, Sa'd Vaqqos Mirzo, va Yahyo Mirzolar* edi. Qizining nomi *Og'begim* edi. *Og'obegim Ulug'bekka* 10 yoshida unashtirilib qo'yilgan.

MUHAMMAD HUSAYN MIRZO (1476-1503) — temuriy shahzoda. *Husayn Boyqaroning* 4-o'g'li. Onasi — *Minglibiy Og'acha* begim. Sulton *Husayn Boyqaro Badiuzzamon Mirzo* isyon ko'targan vaqtda Astrobodni Muhammad Husaynga in'om qilgan (1499). Muhammad Husayn Astrobod bilan cheklanmay, yangi-yangi yerlarni o'z tasarrufiga kiritish xayoliga tushadi. 1500-yil u Isfaroingacha hujum qiladi. Isfaroing hukmdori amir *Badriddin Husayn Boyqaroning* eng yaqin kishilaridan edi. Jangda amir *Badriddin* qo'shini yengilib, o'zi ham halok bo'ladi. Bu xabarni eshitgan *Muzaffar Husayn Mirzo* ukasi Muhammad Husaynga qarshi qo'shin yuboradi, lekin jang uning mag'lubiyati bilan tugaydi. Muhammad Husayn qo'shini Nishopurgacha g'orat qilib boradi. Johil farzandlarini tinchlantirish uchun *Husayn Boyqaro* Hirotni amir *Alisher Navoiy* va amir *Muhammad Valibek* ixtiyoriga topshirib, o'zi Astrobodga askar tortadi. Muhammad Husayn otasining katta qo'shiniga dosh berolmasligini sezib, Astrobodni tashlab qochadi. *Husayn Boyqaro* Astrobodga kelib, 3-4 kunda osoyishtalik o'rnatadi. Shu asnda Muhammad Husayn o'z otasiga qilgan xatti-harakatlaridan afsuslanib, shahanshohdan uzr so'rab, elchi yuboradi. *Husayn Boyqaro* o'g'lining gunohlarini kechirib, Jurjon mulkini in'om qilib, o'zi Hirotda qaytadi. Ammo, ko'p o'tmay (1503-yil) Muhammad Husayn xasba (qora bezgak) kasaliga uchrab, 28 yoshida vafot etadi.

MUHAMMAD JO'GIY MIRZO (1402-1444) — temuriy shahzoda. *Shohruxning* o'g'li. Onasi — *Gavharshodbegim*. 1433-yil Garmsir viloyati hokimi, 1443-yildan Balx hokimi. 1419-yil Mo'g'uliston xoni *Sham'i Jahonning* qizi *Mehr Nigor* og'oga uylangan. 1427-yil 15-fevralda otasining topshirig'iga ko'ra, *Baroqxonga* qarshi harbiy yurish qilgan akasi *Ulug'bekka* yordam berish

uchun Hirotdan qo'shin bilan otlangan va Samarqanddan Sig'noqqa boradigan yo'lda unga qo'shilgan. Sig'noq yaqinidagi qirlarda son jihatdan ko'p bo'lsa-da, raqibga nisbatan tegishli xavfsizlik tadbirlarini ko'rmagan shahzodalar *Baroqxon* qo'shinidan mag'lubiyatga uchrashgan. *Ulug'bekning* shu yilning aprelda uyushtirgan qayta yurishida Muhammad Jo'giy Mirzo betobligi sababli Samarqandda qolgan. *Shohruxning* Muhammad Jo'giy Mirzoni o'ziga valiahd qilish niyati bor edi, lekin Hirotda amaldagi hokimiyat *Gavharshodbegim* qo'lida bo'lib, devondagi muhim masalalarni hal qilishga uni yaqinlashtirmas edi. Muhammad Jo'giy Mirzo ko'p vaqtini Hirotda o'tkazgan, otasining G'arbiy Eronga qilgan yurishlarida qatnashgan. Hirotdagi *Gavharshodbegim* madrasasidagi Boysunqur maqbarasiga dafn etilgan.

MUHAMMAD YODGOR — Hirotdagi qo'zg'olon rahbari. *Sulton Husayn* ma'murlari o'zboshimchalik bilan aholisiga favqulodda soliq solgani oqibatida 1470-yilda Muhammad Yodgor boshchiligida Hirot aholisi qo'zg'olon ko'taradi. *Navoiyning* sa'y harakati va ta'siri bilan qo'zg'olin bostirilsa-da, ammo *Sulton Husayn* farmon chiqarib Hirot va uning atrofida yashovchi dehqonlar, muzoriylar va qo'shinni boqish uchun solinadigan to'lovlardan ozod qilishga majbur bo'ladi.

NIZOMUDDIN SHOMIY (? — taxminan — 1412) — tarixchi olim. O'rta Osiyo hamda Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining XIV asrdagi hayotiga oid ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Adabiyotlarda Shomiy nisbasi bilan mashhur bo'lsa-da, ba'zan *Shanbi G'ozoniy* nisbasi bilan ham uchraydi (Shom, Shanb yoki Shanbi G'ozon — Tabriz yaqinidagi mavze). Nizomiddin Shomiyning hayoti va tarixnavislik faoliyati haqida to'liq ma'lumot yo'q. Ilmiy adabiyotda mavjud bo'lgan juda oz ma'lumot esa uning *Amir Temur* farmoni bilan yozilgan asari "*Zafarnoma*" dan olingan. Nizomiddin Shomiyning "*Zafarnoma*" asari aniq manbalar va muallif o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar asosida yozilgan. Uning so'ziga qaraganda, mamlakatda hokimlar o'rtasida doimo nizolar va g'alayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan mo'g'uliston amirlari Movarounnahrni bosib olish maqsadida bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talaydilar. mo'g'uliston amirlarining vayrongarchilikka olib keluvchi yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi.

NUR SAIDBEK (?-1467) — temuriylardan *Ulug'bek* va *Abu Said* mirzolarining nufuzli amirlaridan biri. *Amir Temur*, *Shohrux* va *Ulug'bekning* amirlaridan bo'lgan *Shohmalikning* o'g'li, mashhur tarixchi, "*Shayboniyнома*" asari muallifi *Muhammad Solihning* otasi. Bilqut qabilasidan. Dastlab, Nur Saidbek *Ulug'bek* xizmatida bo'lib, uning o'limidan so'ng (1449), boshqa Chig'atoy beklari qatori padarkush *Abdullatifga*, so'ngra temuriylarning yangi hukmdori *Abu Saidga* bo'ysunishdan bosh tortgan. Nur Saidbek Buxoroning Nur qishlog'i yaqinidagi tog'larni maskan tutib, Samarqand va Buxoro

atroflariga chopqunlar qilib turgan. Uni murosaga keltirish uchun *Abu Said* bir necha marta o'z vakillarini, jumladan *Xoja Ahrorni* yuborgan. Biroq Nur Saidbek ularga bo'ysunishdan voz kechgach, Samarqand qo'shinlari uni Nurdan quvib yuborgan. Nur Saidbek qisqa fursatdan so'ng *Abu Said* huzuriga bosh egib kelgach, afv qilinib, tumanboshi etib tayinlangan. 1460-yil Nur Saidbek qo'shini Xorazm orqali Xurosonga bostirib kirgan *Husayn Boyqaroga* qarshi yuborilgan. Biroq Sabzavor yo'lida u Movarounnahrqa qaytib, Shohruxiya yaqinida *Abu Saidga* qarshi isyon ko'targan *Muhammad Jo'giy* (*Ulug'bekning* nabirasi) bilan qo'shilgan. *Muhammad Jo'giy* ko'chmanchilar yordamida Turkiston, Sayram, Toshkent va Shohruxiyani egallab olgan edi. 1462-yilgacha Nur Saidbek uning xizmatida bo'lgan. *Abu Said* faqat *Xoja Ahrorning* yordamidagina Shohruxiyani egallab (1462-yil 5-oktabr), isyonni bostirgan. Afv etilgan amir Nur Saidbek Xorazm hokimi (voliysi) etib tayinlangan. *Husayn Boyqaro* Dashti Qipchoqdan Xorazmga bostirib kirganda Nur Saidbek viloyatni mudofaa etishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yg'an. Natijada taxtdan tushirilib, Hirotga chaqirtirilgan va qatl etilgan. *Muhammad Solihning* so'ziga ko'ra esa Nur Saidbek birmuncha payt Marvda yashagan va Husayn Boyqaro farmoniga ko'ra shu yerda qatl qilingan.

OG'OBEGIM — *Muhammad Sultonning* qizi. Og'abegim *Ulug'bekga* 10 yoshida unashtirilib qo'yilgan. U ona tomonidan, nasl-u nasabi Oltin O'rda xoni *O'zbekxon* (1312-1342) xonadoniga mansub bo'lgan.

PIR ALI TOZ (?-1408) — amir, *Pirmuhammad Mirzoning* vaziri. 1407-yili 22-fevralda *Pirmuhammadni* o'ldirgan fitnachilar rahbari. *Abdurazzoq Samarqandiyning* yozishicha, Pir Ali Toz oddiy navkar bo'lib yurgan kezarida, *Pirmuhammad Mirzo* uni o'z panohiga olib, oddiy navkarlikdan amirlik darajasiga ko'targan. Ko'pgina tarixiy manbalar ma'lumotlariga qaraganda, Pir Ali Toz ig'vogar, shuhratparast va niyati buzuq shaxs edi. Pir Ali Toz 1405-yilda *Xalil Sulton Mirzo* qo'shinida xizmat qilgan. *Sulton Husayn Mirzoni Xalil Sulton Mirzoga* qarshi oyoqlantirgan ham Pir Ali Toz edi. *Abdurazzoq Samarqandiyning* ma'lumotiga qaraganda, Pir Ali Toz *Amir Temur* vafot qilgach, darhol *Xalil Sulton Mirzo* qo'shinidan ajrab, Balxga kelgan. *Pirmuhammad Mirzo* o'ldirilgach, Pir Ali Tozdan qasos olish maqsadida *Shohruh Mirzo* askar yuboradi. Jangda Pir Ali Toz yengilib, Balxga qochgan. Biroq Pir Ali Tozning hazora qavmidan bo'lgan sardorlar maslahatlashib, uni tutib qatl etishadi.

PIRMUHAMMAD MIRZO (1376 yil — 1407-yil 22-fevral) — temuriy shahzoda. *Amir Temurning* nabirasi, *Muhammad Jahongir Mirzoning* o'g'li. Otasining o'limidan 40 kun o'tgach, *Baxt Mulk Og'obegimdan* tug'ilgan. 1392-yilda *Amir Temur* G'azna, Kobul, Zobuliston, Qandahor viloyati va Sind daryosigacha bo'lgan yerlarni Pirmuhammad tasarrufiga topshirgan edi. U bobosi *Amir Temurning* bir necha harbiy yurishlarida, jumladan, Hindiston fathiga qatnashgan. *Amir Temur* vafoti oldidan Pirmuhammadni o'ziga valiahd deb e'lon qilgan. Biroq Pirmuhammadni boshqa temuriy shahzodalar va hatto O'trorda turgan qo'shin boshliqlari (amir *Shoh Malik* va *Shayx Nuriddin* va boshqalar) ham tan olmaganlar. Har bir

viloyat hokimi Sohibqiron vafotidan so'ng o'z nomidan xutbaga qo'shib aytadigan bo'lgan. Temuriylar taxtiga *Xalil Sulton* boshchiligida qo'shin (30000 kishi) tortgan va Balxni egallagan. *Sulton Husayn Xalil Sultonga* qarshi isyon ko'tarib Samarqandga yurish qilgan. *Xalil Sulton* uni 6 iyulda Shekdolik (Shahrisabz janubida)da tor-mor keltirgan va uni ta'qib etib Balxni egallagan. *Sulton Husayn* Shopurgon va Andxud hokimi *Sulaymonshoh* (Amir Temurning jiyani) huzuridan panohtopgan. Pirmuhammad *Sulaymonshohdan Sulton Husaynni* berishini qattiq talab qilgan, rad javobi olgach, unga qarshi 3000 otlidan iborat qo'shin jo'natgan. *Sulaymonshoh* va *Sulton Husayn* Hirotda, *Shohrux* huzuriga qochib borishgan. *Shohrux* Pirmuhammadning talabini to'g'ri deb topgan, *Sulton Husayn* qamoqqa olinib, qatl etilgan va uning bosh terisi ichiga somon to'lg'izib Pirmuhammadga jo'natilgan. Pirmuhammad *Sulaymonshoh* ustidan qozongan g'alabasidan keyin Balxni olgan va Movarounnahrda qarshi birgalikda kurashish uchun *Shohrux* bilan muzokaralar olib borgan. *Shohrux* undan yurishni kechiktirishni so'ragan, biroq Pirmuhammad o'jarlik qilib, Qarshi yaqinida *Xalil Sulton* bilan jang qilib mag'lubiyatga uchragan. Pirmuhammad Balxga qochgan va bir yildan so'ng qotil *Pir Ali Toz* tomonidan o'ldirilgan. *Shohrux* Pirmuhammadni o'chini olish maqsadida qo'shin tortib Balxni egallab olgan va 1370-yil Amir Temur tomonidan buzib tashlangan shahar qo'rg'onini qayta tiklagan.

QOSIM RABBONIY — mahoratli sozanda, bastakor va hofiz. U XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida yangi va mahsuldor kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratilishiga ulkan yordam bergan.

QOSIMALI (aslida Qosim ibn Ali; tug'ilgan, o'lgan yillari nomalum) — minyaturachi rassom, *Behzodning* shogirdi, Hirotda miniatyura maktabining yirik vakillaridan. XV asr oxiri-XVI asr boshlarida sulton *Husayn Boyqaro* saroyidagi kitobxonada (qo'l yozma kitoblar ustaxonasi)da ishlagan. 1520-yillarda *Muhammad al-Husyan al-Veraminiyning* "*Axsan al-kibor*" asari (1433)ga ishlagan miniyaturalari rangga boyligi, kishilarning o'zlariga xos xarakterlarini ko'rsatishga intilganlik, rasmlar tiniqligi bilan diqqatni tortadi.

QULMUHAMMAD SHAYXIY (XIV-XV asrlar) — mohir sozanda, bastakor va hofiz.

QUTB SAYFIY — XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrlarda yashab ijod etgan zamonasining iste'dodli shoiri.

QAVOMUDDIN SHEROZIY (?-1440) — me'mor; *Shohrux* saroyidagi bosh me'mor (XV asr). An'anaviy me'morlikda shakli shamoyillarni mahorat bilan tadbiiq etgan, ravoqlar kesishishi uslubini rivojlantirgan. Mashhaddagi *Gavharshod begim me'moriy majmuasi* (1405-18), Hirotdagi *Musallo majmuasi* (1417-38) va *Xoja Abdulla Ansoriy maqbarasi* (1428-29), Hargirdagi madrasa (1440) va boshqa mahobatli binolarning tarhini tuzgan va qurilishiga rahbarlik qilgan.

QORA YUSUF (?-1420-yil 13-noyabr, Ujon) — Qora qo'yunli turkman qabilasi amiri *Qoramhammad* turkmaning o'g'li. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* "*Zafarnoma*" asarida qayd etilishicha, *Amir Temur* G'arbiy

yurishlari chog'ida Qora Yusufning hajga boruvchilar va savdo karvonlarini talab, qaroqchilikni kasb etganini bilgach, uni qattiq ta'qib ostiga oladi. Qora Yusuf *Amir Temurga* qarshi Iroq hokimi *Ahmad Jaloyir* bilan ittifoq tuzadi, biroq ular Sohibqiron hujumiga dosh berolmay Misr va Rum sultonlaridan panoht izlaydilar. *Amir Temur* vafotidan so'ng, Qora Yusuf Tabrizga qaytadi va tez orada o'zini tiklab Temuriylar saltanatiga xavf tug'dira boshlaydi. 1408-yil 13-aprelda Tabriz yaqinidagi Shanbi G'ozonda mirzo *Abubakr ibn Mironshoh* bilan Qora Yusuf o'rtasida qattiq jang bo'ladi va Qora Yusuf lashkari g'olib keladi, *Mironshoh* mirzo shu jangda halok bo'ladi. Shundan so'ng Iroq Ajam, Ozarbayjon, Arron, Mug'on, Diyorbakr, Iroq Arabdan iborat hududlar uning hukmi doirasiga o'tadi va Qora Yusuf Temuriylarga qarashli Sultoniya da'vogarlik qiladi. *Shohrux* mazkur xavfni bartaraf etish va akasi *Mironshoh* o'limi uchun ham qasos olish maqsadida katta lashkar bilan Qora Yusuf ustiga yurish boshlaydi. U Rayga yetib borganida Qora Yusufning Ujonda o'lgani haqida xabar keladi. Qora Yusuf vafotidan so'ng, uning o'g'illaridan amir *Iskandar* Temuriylar saltanatiga tajovuz qilgan. *Shohrux* uning ustiga katta lashkar tortib 1429-yil 17-18-sentabrda Salmos yaqinidagi shiddatli jangda amir *Iskandar* lashkarini tor-mor etgan.

RUMIY QOZIZODA (Salohiddin Muso ibn Muhammad) (taxminan 1360-yil, Kichik Osiyodagi Brussa shahri (hozirgi Turkiyaning Bursa shahri) — 1437-yil, Samarqand) — matematik va astronom. Xuroson va Movarounnahrda bilim olgan. Taxminan 1400-yilda Samarqandga o'qish va ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun kelgan. *Amir Temur* saroyining bosh astronomi *Mavlono Ahmad* qo'lida ham o'qigan. *Ulug'bek* ilmiy maktabining yaratilishida Rumiyning ishtiroki katta. Xususan, Rumiylar tashabbusi bilan *G'iyosiddin Jamshid Koshoniy* va boshqa olimlar Samarqandga taklif etilgan. U *Ulug'bek* madrasasida matematika va astronomiyadan ma'ruza o'qigan. Rumiylar zamondoshlari "*Aflotuni zamon*" ("o'z davrining Plotoni") deb atashgan. *Ulug'bek* rasadxonasi qurilishining rahbarlaridan biri. Koshiy vafotidan so'ng umrining oxirigacha uning noziri. Rumiylar *Ulug'bekning* barcha ilmiy tadbirlarida, jumladan, "*Ziji Ko'ragoniy*" tuzishda ishtirok etgan. Rumiylar arifmetikaga oid tenglamalarni yechishning *Koshiy* taklif qilgan interatsion usuliga oid "*Arifmetikaga oid*" risola, "*Sinus haqida*", "*Shakllar asosiga sharh*" va "*Astronomiyaning mohiyatiga izohlar*" nomli asarlar yozgan. *Koshiyning* bu muhim ixtirosi bizgacha faqat Rumiylar va *Mirim Chalabiy* asarlari orqali (har ikkisi turlicha bayonda) yetib kelgan.

RUSTAM MIRZO (1381-1424) — temuriylardan. *Umarshayx Mirzoning* ikkinchi o'g'li. Iroq va Fors hukmdori (1414-1424). 1403-yil *Amir Temur* Rustam Mirzoga Isfaxon hukmronligini bergan. 1406-yilda u akasi *Pirmuhammad Mirzo Sheroziy* (1379-1410) va *Umar Mirzo* bilan birgalikda *Abubakr Mirzoga* qarshi urush qilgan. Xarbura mavzeida bo'lgan bu jangda uning qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Keyinchalik aka-ukalar o'rtasida paydo bo'lgan ixtilofga Rustam Mirzo ning beklaridan amir *Said Barlos* o'z "hissasi"ni qo'shgan. Rustam Mirzo ukasi

Iskandar Mirzo bilan ittifoq tuzib, akasi *Pirmuhammad Mirzoga* qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Biroq tezda u *Iskandar Mirzo* bilan ham ixtilofga boradi va jangda mag'lubiyatga uchrab (1410), *Qora Yusuf* turkman huzuriga yordam so'rab ketadi. 1412-yilda u Tabriz orqali Isfaxon, so'ngra Hirotga kelgan. 1414-yil *Shohruh* uni *Iskandar Mirzo* o'rniga Iroq va Fors hukmdori qilib tayinlaydi. Fursatni g'animat bilan Rustam Mirzo o'z ukasi *Iskandar Mirzoning* ikki ko'ziga mil torttirib, ko'r qiladi va keyinchalik qatl qildiradi (1415-yil iyun). Rustam Mirzoning ikki o'g'li b o'lib, ular otasi tirikligida vafot etishgan.

SAKKOKIY (XV asr) — shoir. Ismi, tug'ilgan va vafot etgan yillari noma'lum. Samarqandda *Xalil Sulton* (1405-1409) va *Ulug'bek* (1409-1449) hukmronligi davrida yashab, ijod etgan. Sakkokiy xalqining boy o'g'zaki ijodini, salafari asarlarini puxta o'rgangan va ijodiy oziqlangan. Turkiy tilda asarlar yaratish, uning boy ichki imkoniyatlardan foydalanish borasida ko'p ish qilgan. Asarlarida inson muhabbati, orzu-tilaklarini, dard-alamlarini, tabiat go'zalliklarini tasvirlagan. G'azallarida ma'no va shakl birligini saqlab, so'z o'yinlari va qochirmalardan unumli foydalangan. Uning lirikasida jaholat va nodonlikka qarshi adolatparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Bunday g'oyalar Sakkokiyning qasidalarida ochiqroq namoyon bo'lgan. Sakkokiy o'zbek adabiyotida qasida janriga asos solgan shoirlardan. *Xoja Muhammad Porso*, *Xalil Sulton*, *Ulug'bek* va *Arslon Xoja Tarxon*larga bag'ishlab qasidalar yozgan. Sakkokiyning adabiy faoliyati zamondoshlari *Lutfiy*, *Gadoiy*, *Atoiy* kabi *Navoiy* ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatgan; o'zbek dunyoviy lirikasini ham mazmun, ham shakl jihatdan boyitgan. Shoir g'azallari va qasidalari devon qilib to'plagan bo'lsa-da, to'liq nusxasi bizgacha yetib kelmagan.

SAROIIY — XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrlarda yashab ijod etgan, zamonasining iste'dodli shoiri.

SAYFIY BUXORIY, MAVLONO SAYFIY, SAYFIY ARUZIY BUXORIY (XIV asr ikkinchi yarmida — Buxoro — 1503-yil) — shoir, adabiyotshunos olim. Buxoro va Hirot madrasalarida tahsil olgan. *Sulton Husayn Boyqaro* Xuroson hukmdori bo'lgach, XV-asr 70-yillarida Hirotga borgan va u yerdagi adabiy muhitda nom qozongan. "*Sanoe' ul-badoe'*" nomli kitobi Hirotida shuhrat qozongan bo'lib, undagi yuz g'azalning har biri bitta kasb va san'at sohasiga bag'ishlangan. Sayfiy Buxoriyning 2 ta devoni hamda "*Risola aruz*" va "*Risoi musiqiy*" asarlari mavjud. birinchi risola she'r va shoirlik, aruz qonun-qoidalari, bahri va doiralari anchayin soda va ravon til hamda uslubda tadqiq etilgan. U o'z g'azallarida dehqonlar va kasb-hunar egalarini madh etgan. Sayfiy Buxoriy Movarounnahrqa qaytgach (1487), bir necha muddat Samarqand hokimi Boysunqur Mirzoga murabbiylik qilgan. 1498-yilda u Buxoro qaytgan va shu yerda vafot etgan.

SULTON ABU SAID (Sulton Abu Said Mirzo ibn Sulton Muhammad) (1424-1469) — temuriylardan. *Mironshohning* nabirasi. *Shohruh* va *Ulug'bek* vafotidan so'ng Temuriylar davlatida boshlangan taxt uchun kurash chog'ida *Ulug'bekning* o'g'li *Abdulatif* tomonidan Buxoro zindoniga tashlangan. *Abdulatifning* o'limidan so'ng (1450) ozod qilingan. Abu Said Movarounnahr taxtiga

o'tirgan *Mirzo Abdullaga* qarshi *Abulxayrxon* yordamida qo'shin tortgan va 1451-yil Bulung'ur jangida uni tor-mor keltirib, Samarqand taxtini egallagan. U minnatdorchilik sifatida *Ulug'bek* mirzoning qizi *Robiya Sultonbegimni* *Abulxayrxonga* xotinlikka bergan. So'ng Abu Said Toshkentdan o'z piri *Xoja Ahrorni* chaqirtirib olgan. Xuroson hokimi *Abulqosim Bobur* vafoti (1458)dan so'ng Hirot, Astrobod, Mozandaron Abu Said qo'liga o'tib, markaziy hokimiyat tiklangan. Biroq mamlakatning g'arbiy hududlari notinch edi, xususan G'arbiy Eron temuriylar tasarrufidan chiqib, qora qo'yunlilar sulolasi qo'liga o'tib qolgandi. Abu Said 1468-yil kuzida ularga qarshi qo'shin tortadi, lekin 1469-yil qishida Mug'on dashtida oq qo'yunlilardan *Uzun Hasan* bilan bo'lgan jangda yengilib, halok bo'ladi. Abu Said davrida Movarounnahr va Xurosonda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan, qo'shni mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. U Hirotida saroy, kamonchilar mashqgohi, ko'priklar, ko'shklar, shahar darvozalari qurdirgan, ariq va hovuzlar qazitib, bog'-rog'lar bunyod etgan.

SULTON ALI MIRZO (1483-1500) — Movarounnahr hukmdori (1498-1500). *Temuriylardan*. *Sulton Mahmud Mirzoning* 3-o'g'li. Onasi — *Zuhra begim*. Otasining vafotidan so'ng Qarshi viloyati hokimi bo'lib, keyinchalik akasi *Boysung'urdan* Buxoroni (1497-yil dekabr), *Bobur* esa, Samarqandni tortib olgan. Bobur ota meros shahri Andijon dushman qo'liga o'tishi mumkinligi haqida xabar topib, beklaridan birini Samarqandda qoldirib, Andijon tomon yurgan. Bundan foydalangan Sulton Ali Mirzo Samarqandni ishg'ol qiladi (1498-yil fev.-mart). 1499-yilda Sulton Ali Mirzo bilan *Muhammad Mazid* tarxon orasida nizo vujudga keladi. Tarxonlar Movarounnahrda katta nufuzga ega edilar. *Mazid* tarxon Samarqand va uning atrofidagi mulklarni o'z o'g'illari, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilari ixtiyoriga berib qo'ygan edi. Sulton Ali Mirzo taxtga muqim o'rnatilib olgach, *Mazid* tarxonga qarshi siyosat yuritadi. Natijada *Mazid* tarxon Samarqanddan chiqib ketadi. Shunda Toshkent hokimi *Sulton Mahmudxon* jiyani *Xon Mirzoni* (Mirzoxon, Sulton Ali Mirzoning ukasi) mo'g'ul qo'shinlari bilan Samarqandni zabt etishga jo'natadi. Sulton Ali Mirzo Samarqand tashqarisida, Yoriyloqda bo'lgan jangda g'olib chiqadi. Onasi *Zuhra begimning* nodonligi tufayli yozilgan maktub sabab *Shayboniyxon* Samarqandni jangsiz egallaydi (1500). Sulton Ali Mirzo Qo'lba yalangligida qatl etiladi.

SULTON AHMAD MIRZO (1451-yil, Samarqand — 1494-yil, Oqsuv mavzesi, O'ratepa) — Samarqand hokimi (1469-1494). Temuriylardan. *Abu Said Mirzoning* katta o'g'li. Onasi — *O'rda Bug'a Tarxonning* qizi. Otasi unga Samarqand va Buxoro viloyatlari hokimligini bergan. Keyinchalik Toshkent, Shohruhiya va Sayramni o'z tasarrufiga kiritgan. Toshkent va Sayramni ukasi *Umar Shayx Mirzoga* topshirgan. Xo'jand bilan O'ratepa ham bir necha muddat uning tasarrufida bo'lgan. 1493-yil Sulton Ahmad Mirzo kuyovi, Toshkent xoni Sulton Mahmudxon bilan ittifoq tuzib Andijonga — Umar Shayx Mirzoga qarshi yurish boshlaydi, ular Andijon, Axi va Marg'ilonni qamal qiladilar. Shu paytda Axi Umar Shayx Mirzo to'satdan vafot etib, taxtga 12 yoshli Bobur o'tirgan.

Bek va amirlar xalqni dushmanga qarshi safarbar etadilar. Sulton Mahmudxon Toshkentga qaytib ketgan. Sulton Ahmad Mirzo *Boburga* Farg'ona hukmronligini "in'om" etib Samarqandga qaytgan, biroq O'ratepaga yetganda vafot etgan. Sulton Ahmad Mirzo Movarounnahrda nufuzi nihoyatda baland bo'lgan *Xoja Ahrorni* o'ziga pir tutgan. *Oysha Sulton begim* va *Ma'suma Sulton begim* ismli qizlari *Boburning* xotinlari bo'lgan.

SULTON MAHMUD MIRZO (1453 — Samarqand — 1495-yil) — Samarqand hokimi (1494-1495). Temuriylardan. *Abu Said mirzoning* 3-o'g'li. Otasi davrida Astrobod viloyati hokimi. *Abu Said Mirzo* vafoti (1469)dan so'ng Termiz, Chag'oniyon, Hisor, Xatlon, Quduz, Badaxshon va Hindikush tog'larigacha bo'lgan yerlar uning tasarrufiga o'tgan. Akasi Sulton Ahmad Mirzoning vafoti (1494)dan so'ng esa, Samarqand taxtiga o'tirgan. U zulmi haddan oshirgani uchun mamlakatning katta kichik aslzodalari, sipohiylar va oddiy xalq har tarafga tarqalib qocha boshlagan. Sulton Mahmud Mirzo taxtga da'vogar bo'lib kelgan amakivachchasi *Malik Muhammad Mirzo* va u bilan birga kelgan mirzolari qatl ettirgan. Sulton Mahmud Mirzo o'z hukmronligi davrida 2 marta *Husayn Boyqaro* bilan jang qilib, ikkalasida ham mag'lub bo'lgan. *Boburning Sulton Nigor xonim* ismli xolasi uning 4-xotini.

SULTON MUHAMMAD MIRZO (1418-1452) — *Shohruhning* nabirasi. *Boysunqur Mirzoning* ikkinchi o'g'li. 1442-yilda Sulton Muhammad Mirzo uchun Eronning Sultoniya, Qazvin, Ray va Qum viloyatlaridan iborat yangi hokimlik tashkil qilinadi. Ammo shahzoda Sulton Muhammad Mirzo o'z qo'l ostidagi viloyatlar bilan qanoatlanmadi. 1446-yilda u bobosi *Shohruh Mirzoga* qarshi isyon ko'tarib, Isfaxonni bosib oladi va Sherozni qamal qiladi. Ammo 1446-yilda bobosining qo'shin tortib kelayotganligidan xabar topib Sherozni qamaldan bo'shatib, toqqa qochadi. 1449-yilda Sulton Muhammad Mirzo Xurosonga qo'shin tortib kelib, ukasi *Abulqosim Bobur* Mirzo qo'shinini tor-mor etadi va Hirotni egallaydi. Ammo Sulton Muhammad Mirzo Hirotda uzoq tura olmaydi. 145-yilda *Abulqosim Bobur* Hirotni qayta qo'lga kiritadi. Mag'lub akasini qatl qildiradi.

SULTONALI MASHHADIY (1437 — Mashhad — 1520) — xattot, shoir, xat nazariyotchisi; *nasta'liq* xati rivojiga va keng tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan. "Sulton ul-xattotini" ("Xattotlar sultoni") va "Qiblat ul-kuttob" ("Kotiblar qiblasi") nomli yuksak unvonlar sohibi. *Xattotlikka* bolaligidan ishtiyoqi baland bo'lgan. Sultonali Mashhadiyning ustozlari — xattot *Zahiriddin Azhar* va *Xoja Hofiz Muhammad*. Sultonali Mashhadiy madrasada ta'lim olgan, so'ng madrasada dars bergan. 1451-yildan Hirotda yashab, *Sulton Abu Said* va *Sulton Husaynlar* xizmatida bo'lgan. Hirotdagi badiiy muhit — san'atkorlar davrasi, ayniqsa, *Abdurahmon Jomiy* va *Alisher Navoiylar* bilan ijodiy hamkorlik qilish natijasida Sultonali Mashhadiy ustod san'atkor darajasiga ko'tarildi (Navoiyning shaxsiy kutubxonasida kitobat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan). Ayniqsa, Sultonali Mashhadiyning *Navoiy* ijodiga munosabati o'zgacha bo'lib, shoirning aksar asarlarini bir necha nusxalarda ko'chirgan; jumladan, *Navoiyning* "Ilk devon"ini o'zi tartib etgan (1465; dastxat nusxasi Rossiya

milliy kutubxonasida). O'z navbatida ulug' shoir ham xattotga chuqur xurmat bilan qaragan, "*Majolis un-nafois*" asarida unga yuqori baho bergan. Sultonali Mashhadiy Hirotda xattotlariga rahbarlik qilgan; yosh musavvir *Kamoliddin Behzodga* o'z farzandidek munosabatda bo'lgan; ularning o'zaro hamkorligi tufayli yuksak darajadagi san'at asarlari-qo'lyozmalar yuzaga kelgan. *Sulton Muhammad Nur*, *Sulton Muhammad Xandon*, *Mir Ali Hiraviy*, *Muhammad Qosim* va boshqa ko'plab xattotlarni tarbiyalagan. Sultonali Mashhadiy ko'chirgan va tartib qilgan mo'tabar qo'lyozmalar ham o'zbek mumtoz adabiyotining noyob namunasi, ham Hirotda kitobat san'atining shoh asarlari, durdonalari sifatida qadrlidir. Shulardan 50 dan ortiq kitob va 500 ga yaqin qit'alar bizgacha saqlangan. U yaratgan g'azal, ruboiy, qit'alar muraqqa" va tazkiralarda dunyo kutubxona va muzeylarida saqlanadi. Sultonali Mashhadiyning xat san'atiga oid "Qavoidi xutut" ("Xat qoidalari", 1519) she'riy risolasida xattot va shoirning nozik didi va holati o'z aksini topgan: risola matni nasta'liq xatida kitobat qilinish, oltin suvi bilan hallangan; qo'lyozma sahifalari hoshiyalariga o'simlik va hayvonlar tasvirlari ishlangan. Sultonali Mashhadiy ushbu risolada xat uslublari (jumladan, nasta'liq xati) ustida to'xtalgan, *Ibn Muqla*, *Ibn Bavvob* va boshqa xattotlarning xat usullarini ta'riflagan. Sultonali Mashhadiy imoratlar, yog'och va toshlarga o'yib yoziladigan xatlarni bitishga ham mohir bo'lgan. Sulton Husayn qurdirgan binolariga kitobalar, uning marhum qarindosh va yaqinlarining qabr toshlariga bitiklar bitgan. Sultonali Mashhadiy faoliyati, u ko'chirgan va bitgan qo'lyozmalar, qit'a, kitoba va bitiklar o'z davrida va undan keyin ham yuqori baholangan: *Bobur*, *Xondamir* ("Habib us-sig'ar"), *Mirxond* ("Ravzat us-safo"), *Mirzo Muhammad Haydar* ("Tarixi Rashidiy"), *Abdurazzoq Samarqandiy* ("Matlai sa'dayn va majmaibahrayn") va boshqalar.

SHAMSUDDIN MUHAMMAD HAVOFIY — *Ulug'bekning* Samarqanddagi madrasasida yetakchi mudarris. Zamonasining iqtidorli olimlaridan. U 1420-yili *Ulug'bekning* Samarqanddagi madrasasi ochilgan kuni birinchi darsni o'qigan. Darsda olimlardan 90 nafari qatnashgan, lekin darsning ma'nisiga *Ulug'bek Mirzo* bilan *Qozizoda Rumi*dan boshqa hech kim tushunmagan.

SHAMSUDDIN MUHAMMAD MISKIN — shahar qozisi. U *Ulug'bekning* o'limiga qarshilik bildiradi, lekin *Abdulatif* jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi.

SHAYX NURIDDIN — amir, *Amir Temurning* lashkarboshisi, Turkiston noibi. Temuriylarga qarshi bo'lib o'tgan isyon ishtirokchisi. U 1410-yil Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi *Amir Abdulholiq*, Histori Shodmon noibi *Jahongir* hamda oqo'rdalik xonzodalardan *Chingiz Og'lonlar* bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. 1410-yil 20-aprelda Samarqand yaqinida Qizilvarot mavzeida ittifoqchilar bilan *Mirzo Ulug'bek* va *Shohmaliklarning* qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda *Ulug'bek* mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon qochadi. Oradan ko'p o'tmay *Shohruh* isyoni bostiradi.

SHERMUHAMMAD O'G'LON — mo'g'uliston xoni. U *Ulug'bek* ko'magi bilan mo'g'ulistonda hokimiyatini

qo'lg'a oladi. Uning hukmronligi davrida *Ulug'bek* otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Shermuhammad O'g'lon mag'lubiyatga uchraydi. *Ulug'bek* katta o'lja bilan Samarqandga qaytadi.

SHOHMUZAFFAR — XV asr va XVI asr boshlarida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan musavvir.

SHOHQULI GIJAKIY — mahoratli sozanda, bastakor va hofiz. U XIV-XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida yangi va mahsuldor kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratilishiga ulkan yordam bergan.

SHARAFUDDIN ALI YAZDIY (?-1454, Yazd shahri yaqinidagi Taft qishlog'i) — temuriylar davri mashhur tarixnavisi. 1414-1435-yillar mobaynida *Shohruxning* o'g'li, Fors o'lkasi hokimi *Ibrohim Mirzo* xizmatida bo'ladi va uning topshirig'i asosida mashhur "*Zafarnoma*" asarini yozadi. *Ibrohim Mirzo* vafotidan so'ng Sharafuddin Ali Yazdiy Sultoniy, Ray va Qum viloyatlari hokimi bo'lgan Shohruxning nabirasi *Sulton Muhammad* xizmatiga o'tadi. 1445-1446-yil *Muhammad Sultonning* markaziy hukumatga qilgan isyoniga aralashib qolgan Sharafuddin Ali Yazdiy *Ulug'bekning* o'g'li *Abdullatif* tomonidan jazodan saqlab qolinadi va Hirotga yuboriladi. *Kamoliddin Abdulvose'an-Nizomiyning* "*Maqomoti mavlaviy Jomiy*" asarida keltirilishicha, Sharafuddin Ali Yazdiy Hirotga kelib, *Jomiyning* suhbatida bo'lgan. *Shohrux* vafotidan so'ng (1447-yil) o'z vatani Taftga qaytib keladi va xonaqohga joylashib, umrining oxirigacha o'sha yerda yashaydi. *Navoiy* "*Majolis un-nafois*" asarida yozishicha, 6 yoshida "*Shohrux Sulton buzug'lig'ida*" (ya'ni Shohrux vafotidan so'ng mamlakatda yuz bergan nizolar chog'ida) katta jamoat bilan Xurosondan Iroqqa ketayotganda, Taftda Sharafuddin Ali Yazdiy yashagan xonaqohda bo'lib, uni ko'rgan. *Navoiy* ushbu asarida Sharafuddin Ali Yazdiyning bilimdonligiga yuqori baho berib: "*Mavlononing sohib kamollig'i olam ahli qoshida musallamdur*", deb yozgan. Shundan keyingi yillarda, ya'ni 145-yil tarixchi *Abdurazzoq Samarqandiy* ham Taftda Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashib suhbatlashgan. Mo'g'uliston xoni *Yunusxon* yoshligida Shohrux topshirig'iga ko'ra, uzoq yillar Sherozda Sharafuddin Ali Yazdiy tarbiyasida bo'lgan va sulton *Abu Said* uni olib kelib, mo'g'ulistonga xon etib tayinlagan. Sharafuddin Ali Yazdiy adabiyot va til uslubi, she'riyat nazariyasi, nujum ilmi, tarix, musiqa, tasavvufning nazariy masalalari bo'yicha bir nechta asarlar yozgan; "*Sharaf*" taxallusi bilan she'r bitgani ham ma'lum. Shuningdek, Sharafuddin Ali Yazdiyning "*Hullali mutarraz dar muammo va lug'az*" ("Muammo va topishmoqlar borasida bezakli noma"); "*Muntaxabi hulal*" (mazkur asarning qisqartirilgan bayoni); "*Mavotin yo manozir dar muammo*" ("Muammo fanida joy va manzaralar"); "*Qunh uz-zod dar ilmi vaqfi a'dod*" ("Adadlar muvofiqligi ilmida haqiqat cho'qqisi"); "*Al-kitob fi ilm il-usturlobi*" ("Usturlab ilmi bo'yicha kitob"); "*Devoni Sharaf Yazdiy*" ("Sharaf Yazdiyning devoni"); "*Haqoyiq at-tahlil*" ("Tahlil, ya'ni "Lo ilaha illalloh"ning haqiqatlari"); "*Sharhi-Qasidai*

Burda" ("Qasidai Burda"ning sharhi); "*Sharhi Asomoi Alloh*" ("Alloh ismlari" sharhi); "*Tuhfat ul-faqir va hadyat ul-haqir*" ("Faqirning tuhfasiyu, haqirning hadyasi"); "*Munshaot*" (Xatlar to'plami); *Amir Temur* tarixiga bag'ishlangan she'riy asarlari ma'lum.

SHOH G'ARIB MIRZO (taxallusi G'aribiy) (XV asr ikkinchi yarmi, Hirot) — shoir, temuriy shahzodalardan biri. *Husayn Boyqaroning* o'g'li. Zamondoshlari tomonidan o'z davrining nodir iste'dodli shoiri sifatida e'tirof etilgan. *Navoiy* "*Farhod va Shirin*" dostonida Shoh G'arib Mirzoga alohida bob ajratib, unga ko'pgina yaxshi nasihatlar qilgan. Keyinchalik vafot etganda ham, uning vafotiga ulug' shoir marsiya bag'ishlagan. Shoh G'arib Mirzo o'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Uning forscha va o'zbekcha she'rlaridan iborat devonining qo'lyozma nusxasi Gamburg milliy kutubxonasi saqlanadi. Unda Shoh G'arib Mirzoning forscha 37 g'azal, 1 qit'a va 1 muxammasi (umumiy hajmi 557 misra) va o'zbekcha 76 g'azal va 4 muxammasi (umumiy hajmi 1210 misra) o'rin olgan. Uning lirik she'rlarida ishq, vasl, hijron, sog'inch, vafo, jafo, sadoqat, may va bulardan hosil bo'ladigan kayfiyatlar, ya'ni quvonch, qayg'u, saodat, hasrat, ma'shuqaning go'zalligini ta'riflash kabi mavzular yetakchi o'rinni egallaydi. U g'azalnavis bo'lib, uning ijodida 5 muxammas va 1 qit'adan tashqari, barcha asari g'azal janrida yozilgan. Ijodida badiiylik, yangilik, o'ziga xoslik kuchli. O'zbekcha va forscha she'rlari nihoyatda ravon til, go'zal uslubda yaratilgan. G'azallarida mavzu va holatni saqlashga uringan. She'rlarida xalqning, xususan, Hirot aholisining urf-odatlari, an'analari, tushunchalari, kiyinishlari, turmush tarzi, hatto sport o'yinlari ham o'z aksini topgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi ham uning she'rlariga, ijodiga muayyan ta'sir o'tkazgan. Ijodiga fors va o'zbek she'riyatining mumtoz namoyondalari, ayniqsa, *Husayniy, Navoiy* va *Jomiyning* ta'siri sezilarli. She'r musiqiylikni oshirish uchun musiqali so'zlarni tanlash, so'zlarni takrorlash, bir joydan chiqadigan undosh harflarni yonmayon keltirish, har bayt yo har misrani bir so'z bilan boshlash kabi usullardan foydalangan.

SHOH MAHMUD MIRZO (1446-1459) — temuriylardan, *Abulqosim Bobur Mirzoning* o'g'li. 1457-yilda *Abulqosim Bobur Mirzo* vafot etgach, uning arkoni davlati va yaqin kishilari 12 yoshli Shoh Mahmud Mirzoni Mashhadda shoh deb e'lon qiladilar. 1457-yil 16-mayda Hirot taxtiga o'tiradi. Biroq *Sulton Ibrohim Mirzo* bilan taxt uchun bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, Mashhadga qochadi. Keyinchalik Shoh Mahmud Mirzo Seyistonga qochib boradi. Seyiston hukmdori amir *Xalil Hinduka* shahzodani yaxshi kutib oladi va Kobul hukmdori amir *Boboga* qarshi jangga birga olib ketadi. Jangda nagohon kamondan otilgan o'q Shoh Mahmud Mirzoga tegib, o'sha yerning o'zida halok bo'ladi. Bu voqea 1459-yilning oxirida sodir bo'ladi. Shoh Mahmud Mirzo 14 yoshida olamdan o'tadi.

SHOH MUZAFFAR (XV asr, Hirot) — musavvir va xattot; *Sulton Abu Said Mirzo* hukmronligi (1451-1469) davrida ijod qilgan ustoz *Mansurning* o'g'li. *Sulton Husayn* davri (1469-1506)da *Alisher Navoiy* tarbiyasida voyaga etgan noyob iste'dod egasi, tasavvufga oid asar ham

yoʻzgan. *Zahiriddin Bobur*, *Mirzo Muhammad Haydar Shoh Muzaffarga* yuksak baho berishib, uning nomini *Behzod* nomi bilan birga qayd etishgan. Musavvir 24 yoshida vafot etsa ham yirik san'atkor sifatida mashhur bo'lgan. U ishtirok etgan bezakli qo'lyozmalardan: Alisher Navoiyning "Xamsa" asarining 1485-yil shahzoda *Badiuzzamon Mirzo* uchun (Buyuk Britaniya, Oksford, Bodli), safaviy shahzoda *Bahrom Mirzo* uchun yaratilgan alohida muraqqa" (Turkiya, Istanbul, To'pqupu saroyi), *Sharafuddin Ali Yazdiyning* "Zafarnoma" (AQSH, Baltimor, Eyzenxaur kutubxonasi) qo'lyozmalari miniatyuralarini ko'rsatish mumkin.

SHOHIIY (taxallusi; asl nomi Sulton Mas'ud Mirzo Shohiy) (1475 — G'azna — 1507) — shoir, temuriy shahzodalardan biri. Otasi *Sulton Mahmud Mirzo* sobiq qiron *Amir Temurga* 5-bo'g'in avlodidir. Onasi *Xonzodabegim Mir Buzurg Termiziyning* qizi. Shohiy boshqa temuriyodalardan kabi yoshligidan ilmga, adabiyotga havasmand bo'lgan. Otasi unga Hisor hokimligini topshirgan va u otasining vafotiga qadar (1495) bu yerni boshqarib turgan. Samarqandni olish uchun qilgan yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Hisor ham qo'ldan ketgach, *Husayn Boyqaro* saroyidan panohtopgan va yana saltanat ilinjida Movarounnahrqa qaytgan. Vazir *Xusravshoh* Shohiyni asir olib, ko'ziga mil tortgan. Yana *Husayn Boyqaroning* ruxsati bilan Xurosonga qaytgan va uning qizlaridan biri — *Begim Sultonga* uylangan. U keyingi hayotini ijodga bag'ishlagan va Hirot adabiy hayotida faol qatnashgan. 1507-yilda *Shayboniyxonning* Xurosonga yurishlari vaqtida o'ldirilgan va G'aznada dafn etilgan. Shohiy haqida Alisher Navoiy o'zining "*Majolis un-nafois*" tazkirasining 7-majlisida shunday ta'rif beradi: "*Sulton Mas'ud Mirzo — ravshan zehnlilik va mustahsan ta'bliq va pokiza hisol va mahmud faol yigitdur. Vafu va diljo'qliq aning shiori, saxo va darveshxo'qliq uning atvori*". Amakivachchasi va qaynisi *Zahiriddin Muhammad Bobur* ham "*Boburnoma*"ning bir necha joylarida uni yaxshi xotiralar bilan eslaydi. Tazkiranavis — *Faxri Hirotiy* (XVI asr) "*Latoyifnoma*" asarida (*Alisher Navoiy* "*Majolis un-nafois*" tazkirasining forschaga erkin, ijodiy tarjimasini) ta'kidlashicha, u turkiy she'rilarida "*Shohiy*", forsiy she'rilarida esa "*Orifiy*" taxalluslarini qo'llagan va bu ikki tilda alohida-alohida devon tuzgan. Shohiyning turkiy "*Devon*"i 1140 baytni tashkil qilib, undagi she'rilar g'azal, ruboiy, fard va tarje'band janrlaridadir. Shohiy she'riyatida Navoiy an'analarini davom ettirgan. *Navoiy* va *Husayniy* g'azallariga taxmislar, tatabbu'lar bog'lagan.

SHOHMALIK, AMIR SHOHMALIK, AMIR G'IYOSIDDIN SHOHMALIK (?-1426-yil 21 yanvar, Xorazm, Mashhadga dafn etilgan) — *Amir Temur* va *Shohrux* saltanatida xizmat qilgan dongdor amir. *Amir Temur* uni yoshligidan tarbiyalagan, harbiy salohiyatni o'rgatgan. *Sharafuddin Ali Yazdiyning* "*Zafarnoma*"sida Shohmalik dastlab *Amir Temurning* 5 yillik yurishi, aniqrog'i Takrit qal'asining olinishi (1393-yil) voqealari bayonida qo'shin boshlig'i sifatida eslatilgan; *Muhammad Sultonni* Hurmuz viloyatini egallashga jo'natganda esa, Shohmalik lashkar tarkibida hazorani (minglik qo'shin qismini)

boshqargan. Shohmalik *Amir Temurning* Hindistonga yurishida faol qatnashgan lashkarning turli qismlarida tuman sardori bo'lgan. *Amir Temurning* 7 yillik yurishi chog'ida Shohmalik Sobiqqironning eng ishonchli kishilaridan sanalgan. *Sulton Boyazid* bilan jangda Shohmalik nomdor no'yon sifatida lashkarning markaziy (qo'l) qismiga belgilangan. *Amir Temur* O'tror shahrida vafot qilgan paytida Shohmalik uning yonida bo'lgan va oxirgi vasiyatlari, jumladan, *Pirmuhammadni* valiahd qilgani haqidagi vasiyatni bevosita eshitgan. Sobiqqironning jasadi joylashgan tobut, oilasi, nevaralarini O'trordan Samarqandga olib kelishda bosh bo'lgan. *Amir Temurning* vafotidan so'ng, Samarqand taxtini *Xalil Sulton* egallagach, Shohmalik *Mirzo Shohruxning* o'g'illari *Ulug'bek* va *Ibrohim Sultonni* olib, dastlab Buxoroga, so'ngra Xurosonga *Shohrux* xizmatiga borgan. *Shohrux* Movarounnahrni to'la o'z ixtiyoriga olgach (1409-1410), uni *Ulug'bekka* suyurg'ol qiladi va u hali yosh bo'lgani sababli, mamlakat ishlarini boshqarib turishga Shohmalikni mutasaddi qilib qoldiradi. Mazkur tadbirdan *Ulug'bekning* ko'ngliga malollik kelganini bilgan *Shohrux* (1411-1412) Shohmalikni Xurosonga chaqirib oladi. Keyingi 1405-1413-yillar davomida Shohmalik *Shohruxning* topshirig'i bilan Xuroson, Mozandaron, Movarounnahr, Xorazmga harbiy yurishlarda, isyonlarni bostirishda qatnashgan. *Shohrux* (1412-1413) Xorazmni Shohmalikka butkul (darbasta) suyurg'ol qiladi. Shohmalik Xorazm hokimi bo'lganidan keyin ham *Shohruxning* harbiy viloyatlarga yurishlarida ishtirok etgan. Shohmalikning Temuriylar davri xalqaro elchilik munosabatlarida ham ma'lum hissasi bor. 1419-1422-yillarda Temuriylardan Xitoyga borib kelgan katta elchilik safarida Xorazmdan Shohmalikning *O'rduvon* ismli elchisi ham qatnashgan. *Abdurazzoq Samarqandiyning* "*Matlasi'dayn*"ida keltirilishicha, *Amir Temur* o'z vaqtida Shohmalikning sadoqatli buyuk xizmatlarini qadrlab, juda ko'p joylarni unga suyurg'ol tarzida in'om qilgan. Shohmalik o'ziga tegishli mulklarda madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, rabotlar va hovuzlar kabi ko'p xayrli qurilishlarni amalga oshirgan, ularga ekinzorlar barpo etib vaqflar belgilagan. Shohmalik vafot qilgach, uning jasadini Xorazmdan Mashhadga keltirib, Imom Rizoning qabri yoniga o'zi qurdirgan maqbaraga dafn qilishgan.

SHOHRUX, AMIRZODA SHOHRUX, MIRZO SHOHRUX, SHOHRUX MIRZO, XOQONISA'ID, ABU NASR SHOHRUX BAHODIR SULTON (1377-yil 20-avgust, Samarqand — 1447-yil 19-mart, Ray) — *Amir Temurning* 4-o'g'li, Temuriylar hukmdori. Yoshlik yillari Samarqandda o'tgan, shu yerda dunyoviy va diniy ta'lim olgan. *Amir Temur* 1390-91 yillar Dashti Qipchoqqa va 1392-yil harbiy mamlakatlarga 5 yillik yurishlari chog'ida *Shohruxni* mamlakatni boshqarishga tayinlab qoldirgan. Ko'p o'tmay, *Amir Temur* *Shohruxni* o'z yoniga chaqirib oladi va 17 yoshli *Shohrux* jangovar harakatlarda qatnasha boshlaydi. *Amir Temur* uni lashkarning *mang'lay* va *juvang'ar* qismlariga tayinlaydi, keyinroq esa, Samarqandga qaytarib, poytaxtni boshqarib turishni topshiradi. *Amir Temur* 1396-yil *Shohruxga* Xuroson o'lkasini *suyurg'ol* qiladi va tegishli qo'shin hamda elat bilan birga uni o'z mulkiga jo'natadi. *Shohrux Amir*

Temurning 7 yillik yurishida, xususan, Yaqin Sharqdagi harbiy harakatlarda bevosita qatnashgan, lashkarning *ilg'or*, mang'lay, juvang'ar qismlarini boshqargan; janglarda shaxsiy dov-yuraklik va mahorat namoyish etgan. Uni adolatparvar, riyat tinchligini ko'zlovchi shaxs sifatida bilganlar; qamalda qolgan shaharlar aholisi aksari hollarda sulh taklifi bilan Shohruxga murojaat qilganlar va u ham o'z yordamini ayamagan. Ba'zi hollarda, Amir Temur Shohruxni lashkarning o'g'ruq qismini qo'riqlashga mutasaddi qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" da yozishicha, Amir Temur hayotining keyingi yillarida Shohruxning davlatdorlik sifatlariga alohida e'tibor bergan. Chunonchi, Xitoyga yurishi chog'ida, saltanat xavfsizligini ta'minlash, xususan, harbiy o'lkalarni idora etish kabi katta mas'uliyatni Shohrux zimmasiga yuklaydi va uni Xurosonda qoldiradi. Sohibqiron 1391-92-yillar mo'g'ullar bosqini davrida butunlay xarob qilingan *Banokat* shahri o'rniga yangi shahar barpo etib, u yerga atrof yerlardan aholini ko'chirib obod qiladi hamda uni Shohruxga suyurg'ol qiladi va bu shahar *Shohruxiya* nomi bilan shuhrat topadi. Amir Temur vafotidan so'ng, 1405-yil martda Shohrux rasmiy ravishda Temuriylar saltanati hukmdori sifatida Xuroson taxtiga o'tirdi va o'z nomidan xutba o'qitib, pul (tanga) zarb qildirdi. Shohrux hukmdorligining dastlabki yillarida Temuriylar saltanatida kuchli tarqoqlik yuzaga kelib, saltanatning turli qismlarida yakkahokimlik uchun kurash boshlanib ketdi. Movarounnahrda Samarqand taxtini *Xalil Sulton* egalladi, Ozarbayjon va Ajam Iroqini *Qora Yusuf*, Arab Iroqi hududini *Sulton Ahmad* o'z qo'liga kiritdi. Eronzaminida temuriy shahzodalar o'zaro nizolashardilar, Mozandaron, Balx, G'ur va boshqa viloyatlarda ham isyonlar yuzaga keldi. Shohrux saltanatda vujudga kelgan nizolar, isyonlar, yakkahokimlik uchun chiqishlarni teran qobiliyati, mahorati, tafakkuri, olib borgan siyosati tufayli birin-ketin bostirishga muvaffaq bo'ldi. Shohrux o'z hukmdorligi chog'ida Temuriylar saltanatining hududiy kengligi, harbiy salohiyati, kuchli iqtisodiy mavqeini saqlashga intildi. Buning uchun Movarounnahr, Eronzamin, Ozarbayjonga yurishlar qilib g'alaba qozondi; 1429-yil Shohrux Ozarbayjonda xavfli kuchga aylangan amir *Iskandar ibn Qora Yusuf* ustiga deyarli butun saltanati hududidan lashkar yig'ib yurish qiladi. Salmos cho'lida ikkala tomon o'rtasida qattiq jang bo'ladi; Shohrux o'g'illari Mirzo *Boysung'urni* lashkarning juvang'arini, *Ibrohim Sultonni* barang'arini boshqarishga belgilaydi; *Muhammad Jo'giyni* esa o'ziga tegishli bo'lgan g'ul qismda qoldiradi. Shiddatli jangdan so'ng Shohrux lashkari zafar quchadi. Shohrux Seyiston va Badaxshonga lashkar jo'natib, u yerlardagi isyonlarga chek qo'yadi. 1405-yildan 7 yil davomida Xorazmni zabt etib turgan Dashti Qipchoq amirlariga qarshi Shohrux katta lashkar jo'natadi va g'olib kelib, Xorazmni Temuriylar saltanati tarkibiga kiritadi hamda viloyatni boshqarishga sarkarda amir *Shohmalikni* belgilaydi. Shohrux ko'pgina nizolarni sulh yo'li bilan bartaraf qilgan va bunda taniqli davlat arboblari va shayxlar xizmatidan keng foydalangan. Umuman, Shohrux hukmdorligi davrida sharqda mo'g'ulistondan tortib g'arbda Misr va Rum yerlarigacha, janubda Hindistonning markaziy qismidan boshlab shimoldan to Dashti Qipchoq

chegaralarigacha bo'lgan joylar Temuriylar saltanati tarkibiga kirgan. Saltanatni suyurg'ol tizimi bo'yicha boshqargan; mamlakat hududini o'g'illari, nevaralari, qarindoshlari, xizmat ko'rsatgan sadoqatli amirlariga suyurg'ol qilib bergan. Tarixchi *Hofizi Abruning* "Zubdat at-tavorix" asarida yozilishicha, Shohrux 1443-yil Misr podshosiga elchi yo'llab Ka'ba uyiga yopinchiq kiygazishni so'raydi va rozilik oladi. Shu asosda 1444-1445-yil ka'bapo'sh tayyorlatib, uni shayx *Nuriddin Muhammad al-Murshidiy* va mavlono *Shamsiddin Muhammad Abhariy* vositasida Makkaga jo'natadi; ular ka'bapo'shni muqaddas Ka'ba uyiga yopib qaytadilar. Shohrux podshohlik devonida kundalik ishlarni doim nazorat qilib borgan; qarorlar qabul qilishda kengash va maslahatga keng o'rin ajratgan, ko'pchilik fikrini inobatga olgan holda adolatli hukmlar chiqargan. Shuningdek, devonda diniy va dunyoviy masalalar yuzasidan yetuk allomalar ishtirokida suhbatlar, fiqh, tib, nujum, geografiya, tilshunoslik va boshqa fan sohalari bo'yicha bahs-munozaralar tashkil qilgan, o'zi ham ularda faol qatnashgan. Shohrux saltanati hududida bunyodkorlik faoliyati uchun katta imkoniyatlar yuzaga keldi. Shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo, dehqonchilik, ilm-fan, madaniyat tez sur'atlar bilan rivojlandi. Shohrux bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug'orish tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib Hirot (1405-yil), Balx (1407-yil) shaharlarini tiklashga oliy farmon bergan. *Chingizxon* yurishi chog'ida xarob qilingan (1220-yil) Marv shahrini qayta barpo etilib, unga Murg'ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi. Sug'orish tizimi yaxshilandi, yangi yerlar o'zlashtirildi, ekin maydonlari kengaydi. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlandi, ko'plab madaniy-ma'naviy muassasalar — madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurildi. Shohrux ilm-fan rivojiga alohida e'tibor berdi. Hirot, Samarqand, Buxoro, Mashhad, Sheroz va boshqa shaharlarda ilm-fan keng rivoj topdi. Movarounnahrda Mirzo *Ulug'bek* rasadxona barpo etib aniq fanlar rivojlandi; Naqshbandiya ta'limoti yozma meros tarzida shakllandi va shu yo'nalishda bir qancha asarlar yozildi. Hirot va Sheroz shaharlarida tarixnavislikka katta e'tibor qaratildi. Amir Temur va temuriylar tarixiga oid bir qancha yirik asarlar yaratildi. Temuriylar saltanatida kitobat va miniatyura san'ati yuksaldi. Hirotida Mirzo Boysung'ur va Sherozda Ibrohim Sulton bu sohalarning rivojiga katta hissa qo'shdilar. Shohrux hukmdorligi davrida Temuriylar saltanatining xalqaro miqyosdagi nufuzi ortdi; davlatlar o'rtasidagi elchilik munosabatlariga Shohrux juda katta e'tibor bergan. Uning huzuriga Xitoy, Hindiston, Misr, Shom, Rum, Yevropa, Dashti Qipchoq hukmdorlaridan elchilar kelgani va Shohrux ham o'z elchilarini jo'natgani haqida Temuriylar davri tarixiy manbalarida ma'lumotlar qayd etilgan va ikkita elchilik haqida mukammal kundalik ham yozilgan. 1419-1422-yillar Xitoyga borib kelgan safar xotirotlari, unda bevosita qatnashgan G'iyosiddin Naqqoshning kundaligi hamda 1442-1444-yillar Janubiy Hindistonga borib qaytgan elchilarning safar tafsilotlari, uni boshqargan *Abdurazzoq Samarqandiyning* safarnomasida aks etgan. Shohruxning elchilar vositasida yo'llagan maktublarida savdo yo'llari xavf-sizligini

ta'minlash va xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirish alohida ta'kidlangan. Buyuk ipak yo'li orqali savdo va elchilik karvonlari muntazam qatnab turgan. Shohrux o'zining xalqaro siyosatida davlatlararo tinch-totuvlik va do'stona munosabatlar ta'minlanishini ustuvor yo'nalish deb bilgan. Shohruxning davlatchilik siyosatida bunyodkorlik ishlariga katta e'tibori natijasida ilm-fan va madaniyat rivojida o'ziga xos uyg'onish (renessans) bo'ldi va bu XV asrning ikkinchi yarmida *Alisher Navoiy* davrida Xurosonda ilm-fanning yuksak rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

TUSIY NOSIRIDDIN (to'liq ism-sharifi Abu Ja'far Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan Nosiriddin Tusiy, 1201-1274) — o'rta osiyolik astronom va matematik olim. Tusiy Eron Ko'histonining ismoiliylar hokimi Nasriddin Muhtasham saroyida xizmat qilgan. "*Axloqi Nosiriy*", "*Tajrid*" kabi asarlari Sharqda keng tarqalgan. Tusiy 1256-yilda Eronga bostirib kirgan mo'g'ul istilochilari boshlig'i *Xuloku* saroyiga xizmatga olindi. Tusiy o'zining mavqedan foydalanib, Yaqin sharq va O'rta Sharq madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. 1259-yilda Marog'a rasadxonasi qurilishiga rahbarlik qildi, atrofiga turli mamlakat olimlarini to'plab, Marog'a ilmiy maktabini yaratdi. Bu rasadxona o'sha davrning mukammal astronomik jadvallardan biri "*Ziji Elxoniy*" tuzilgan. Tusiy matematika, minerologiya, tibbiyot, fizika, mantiq, falsafa va boshqa sohalarga oid asarlari ham ma'lum. U ko'pgina yunon olimlari asarlarini arab tiliga tarjima qilgan.

ULUG'BEK (taxallusi; asl ismi Muhammad Tarag'ay) (1394-yil 22-mart, Sultoniya sh., Eron Ozarbayjoni — 1449-yil 27-oktabr, Samarqand) — buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. *Shohrux*ning o'g'li, *Amir Temurning* nabirasi. Sohibqironning "*besh yillik yurish*"ida (1392-96) Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qilish chog'ida tug'ilgan. *Sharafuddin Ali Yazdiy* "*Zafarnoma*" asarida yozishicha, *Amir Temur* huzuriga chopar kelib Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning o'z nabirasiga *Muhammad Tarag'ay* va *Ulug'bek* deb ism qo'rganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog'lash mumkin. *Amir Temur* Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. *Klavixoning* qayd etishicha, Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404-yil Konigilda o'tkazilgan tantanalarda *Amir Temur* oltita nabirasining (jumladan, Ulug'bekning) nikoh to'ylarini o'tkazgan. To'yda Sohibqiron Ulug'bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hoz. Taroz), Ashpara va mo'g'ulistonni to'xtitoy hududigacha suyurg'ol qilib bergan. *Amir Temur* O'trorda vafot etgan chog'da Ulug'bek ham o'sha yerda bo'lgan. Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O'trordan qaytgan *Shohrux* farzandlari — Ulug'bek va *Ibrohim Sulton*ni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panohtopishgan. Samarqand taxtini *Xalil Sulton* egallagan. Xurosonni boshqarib turgan *Shohrux* Ulug'bekka dastlab Andxo'y bilan Shibirg'inni, keyinchalik

Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410-yil *Shohrux* Movarounnahrni o'z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug'bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug'bek yosh (15 yosh) bo'lgani sababli amir *Shohmalik* unga homiy etib belgilangan. Lekin *Shohmalik*ning raqibi — O'trordagi *Shayx Nuriddin* va *Muhammad Jahongir*ning Hisordagi voliylari 1410-yil bahorida Ulug'bek va *Shohmalikka* qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida *Shohrux* ishtirokida bo'lgan jangda *Shohmalik* va Ulug'bek g'alaba qilganlar. 1411 yil sentabrda *Shohrux* Samarqandga kelib, *Shohmalik*ni o'zi bilan Hirotga olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtdan boshlab Ulug'bek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. *Shohrux* Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, *Histori Shodmonni Muhammad Sulton*ning o'g'li *Muhammad Jahongir mirzoga*, O'zgand viloyatini *Umarshayx*ning o'g'li *Amirak Ahmadga* suyurg'ol qilgan edi. Biroq ular Ulug'bekka tobe edilar. 1414-15-yil ular o'rtasida ixtilof chiqib, Ulug'bek *Amirak Ahmad* ustiga qo'shin tortgan va uni yenggan. *Shohrux Amirak Ahmad*ni Xurosonga chaqirtirib olgan; Qashg'ar ham to 1428-yilgacha Ulug'bekka tegishli bo'lgan. Ulug'bek o'z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida 1425-yil Mo'g'uliston xoni *Shermuhammad o'g'lon* (1421-1425) o'zini mustaqil xon deb e'lon qilganda, Ulug'bek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulug'bekning ikkinchi yurishi Sig'noq shahri tomon bo'lgan. Sirdaryoning quyi havzasi Ulug'bek tasarrufida edi. Ulug'bek 1427-yil Sig'noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan *Baroq o'g'lon* bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan. Dushman Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli *Shohrux* Xurosondan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi. *Shohrux* vafoti (1447, 12 mart)dan keyin Ulug'bekning katta o'g'li *Abdullatif*voris sifatida Temuriylar hukmdori bo'lib qoladi. Lekin *Shohrux*ning qattiqqo'l xotini *Gavharshod begim* bu haqda o'z fikriga ega edi. U *Shohrux* davrida Temuriylarning poytaxti bo'lib qolgan Hirot taxtiga marhumning 3-o'g'li bo'lmish *Boysung'ur* mirzoning o'g'li va suyukli nabirasi *Alouddavla* mirzoni o'tqazish tarafdori edi. *Gavharshod begim* Hirot taxtiga *Alouddavlani* o'tqazganini Ulug'bekka nisbatan isyon deb qaralmog'i kerak edi. Shuning uchun Ulug'bek 1448-yil bahorida *Abdullatif* bilan birgalikda 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida bo'lgan jangda *Alouddavlani* tor-mor qiladi. G'alaba *Abdullatif*ning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik iste'dodi tufayli erishilgan bo'lsa ham, Ulug'bek fathnomani kichik o'g'li *Abdulaziz* nomidan e'lon qiladi. Undan tashqari, bobosi *Shohrux* tomonidan *Abdullatifga* vasiyat qilingan Hirot dagi *Ixtiyoriddin* qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulug'bek *Abdulazizga* beradi. Shundan so'ng Ulug'bek bilan *Abdullatif* o'rtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi. Ulug'bek Samarqandda *Abdulaziz*ni qoldirib, lashkar bilan katta o'g'liga qarshi jangga yuradi. *Abdullatif* ham

o'z lashkari bilan Amudaryo yoqasiga kelib turadi. Ikkala lashkar ham daryoning 2 sohilida uzoq muddat turib, suvni kechib o'tishga botinmaydi. Bu orada Ulug'bek, *Abdulaziz* lashkardagi amirlarning oilalarini ta'qib etayotir, — degan xabarni eshitib, Samarqandga qaytib kelishga majbur bo'ladi va shahar aholisining *Abdulaziz*ga qarshi isyon ko'targanining guvohi bo'ladi. Tezda shaharni tartibga keltirib, yana *Abdullatif*ga qarshi jangga yo'llanadi, lekin Samarqand yaqinida undan mag'lubiyatga uchraydi. Oradan ko'p o'tmay, Ulug'bek *Abdullatif* buyrug'i bilan qatl etiladi. Uning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan. Ulug'bek otasi *Shohrux* davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil bo'lgan. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432-33) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitildi, ko'proq aniq fanlarga ahamiyat berildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poyoniga etkazildi. Bundan tashqari, mamlakatda ko'plab jamoat inshootlari (karvonsaroy), tim, chorsu, hammomlar va boshqa ham bunyod etilgan. Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi — Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari *Qozizoda Rumiy*, *G'iyosiddin Jamshid Koshiy* edi. Ulug'bekning ilmiy maktabi o'z faoliyatida o'rtaosiyolik mashhur olimlar *Muhammad Xorazmiy*, *Ahmad al-Farg'oniy*, *Abul Abbas al-Javhariy*, *Ibn Turk al-Xuttaliy*, *Xolid al-Marvarrudiy*, *Ahmad al-Marvaziy*, *Abu Nasr Forobiy*, *Abu Rayhon Beruniy*lar boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslanar edi. Ulug'bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim — *Ali Qushchini* Ulug'bek "*Ziji*"ning so'zboshisida "*farzandi arjumand*", ya'ni "*aziz farzandim*" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "*Zij*" ustida ishlar poyoniga yetkazilguniga qadar ustoziga yordam bergan. Ulug'bek Samarqandda 2 ta madrasa: biri — Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambli tarkibida barpo qilgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug'bekning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan. Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "*Zij*" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Ulug'bekning yana bir matematik asari "*Risolai Ulug'bek*" deb ataladi va uning birinchi nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o'rganilmagan. Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "*Zij*"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo'lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan. "*Zij*"ga

ilk sharhni Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi "*Charhi Ziji Ulug'bek*" nomi bilan yozgan. O'sha XV asrning o'zida qohiralik munajjim *Shamsiddin Muhammad as-So'fiy al-Misriy* "*Tashil Ziji Ulug'bek*" ("Ulug'bek "*Zij*"ini osonlashtirish") nomli asar yozib, unda Ulug'bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Ulug'bek "*Zij*"iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so'nggi namoyandasi *Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandi*ning (1525-yil v.e.) 1523-yil yozib tugatilgan "*Sharhi Ziji Ulug'bek*" asaridir. Ulug'bekning nomi Yevropada va umuman G'arb mamlakatlarida buyuk bobosi *Amir Temurning* shuhrati tufayli ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a'zolari haqida birinchi bo'lib Samarqandga 1403-1405-yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi *Rui Gonsales de Klavixodan* eshitgan. *Klavixoning* "Kundaliklar"i 1582-yil Sevilyada va 1607-yil Parijda nashr etilganidan so'ng yevropaliklar darhol *Amir Temur* va uning oila a'zolari bilan qiziqqanlar. Ulug'bek nomi XVII asr boshidanoq (1601-yildan) Amir Temurga bag'ishlangan dramatik asarlarda eslatiladi. Bevosita Ulug'bekka bag'ishlangan Yevropadagi birinchi nashr ingliz astronomi *Jon Grivs* (1602-52) qalamiga oid. Uning 1648-yil nashr etilgan asarida Ulug'bek yulduzlar jadvalining bir qismi (98 ta yulduz) ilova qilingan. 1665-yil yana bir ingliz olimi *Tomas Xayd* (1636-1703) Grivs bilan bog'lanmagan holda "*Zij*"dagi yulduzlar jadvalini forsiy va lotincha tarjimada nashr etgan. 1690-yil Gdanskda polyak astronomi *Jan Geveliy* chop ettirgan "Yulduzlar osmonining atlas"i dagi ikkita gravyrada o'sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug'bekka faxrli o'rin bergan, unda Ulug'bekning yulduzlar jadvalini *Ptolemey*, *Tixo Brage*, *Richchioli*, *Vilgelm IV* va o'zining jadvallari bilan solishtirgan. 1711 yil Oksfordda Ulug'bekning geografik jadvali 3-marta nashr etilgan. 1807-yil o'sha yerda bu jadval yangi grek tilida ham nashr etilgan. 1725-yil ingliz astronomi *D. Fletmetid* (1646-1719) Ulug'bekning yulduzlar jadvalini *Ptolemey*, *Tixo Brage*, *Vilgelm IV*, *Jan Geveliy* va o'zining jadvallari bilan birga nashr etgan. 1908-09-yillar *V.L. Vyatkin* Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi — kvadrantini kavlab topgandan so'ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada 1918-yil *V. V. Bartoldning* "*Ulug'bek va uning davri*" asari nashr etilgan. Sovet davrida Ulug'bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo'yicha *T.N. Qori-Niyoziy* ko'p sa'y-harakat qilgan. Ulug'bek ijodini targ'ib qilishda *G'. Jalolov* va *V. P. Shcheglovlarning* nashrlari ham diqqatga sazovordir. XX asrning 80-yillari boshiga kelib Ulug'bek "*Zij*"ining to'liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta'minlangan tarjimasini *A. Ahmedov* 1994-yil amalga oshirib, nashr ettirdi. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi *Mirzo Muhammad Haydar* "*Tarixi Rashidiy*" asarida "*Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand (va) "To'rt ulus" (tarixi)ni (ham) yozib qoldirgan edi*", deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "*Tarixi arba*" ulus" ("To'rt

ulus tarixi”) asari *Chingizxon* bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini oʻrganishda muhim manbadir. *Navoiyning “Majolis un-nafois”* va *Abu Tohirxojaning “Samariya”* asarlarida ham uning sheʼrlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida koʻpgina asarlar arab va fors tilidan eski oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Ulugʻbek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob boʻlgan. Ulugʻbek yoshligidan oʻzga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid 5 ta risola ham yozgan. *“Risola dar ilmi musiqa”* nomli asari musiqa tarixiga bagʻishlanib, unda “12 maqom bayoni”ga doir maxsus bobi ham boʻlgan. Ulugʻbek *“bulujiy”*, *“shodiyona”*, *“axloqiy”*, *“tabriziy”*, *“usuli ravon”* va *“usuli otlig”* kuylarini ijod qiladi. Ulugʻbek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar oʻtkazildi. Shu yili Toshkentda Ulugʻbekka haykal oʻrnatildi. Ulugʻbek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulugʻbekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda Oʻzbekiston milliy universiteti, tuman, koʻcha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bogʻi, shaharcha Ulugʻbek nomi bilan ataladi. Fargʻona pedagogika universitetiga, Samarqand arxitektura-qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga, qishloq, maktab va boshqaga Ulugʻbek nomi berilgan. Ulugʻbekning hayoti va faoliyati haqida pesa (*M. Shayxzoda*, *“Mirzo Ulugʻbek”* tragediyasi), roman (*O. Yoqubov*, *“Ulugʻbek xazinasi”*); *S. Borodin*, *“Samarqand osmonida yulduzlar”*), opera (*A. Kozlovskiy*, *“Ulugʻbek”*), poema (*M. Boboiev*, *“Ulugʻbek”*), balet (*M. Bafoev*, *“Ulugʻbek burji”*), film (*Rej. Latif Fayziyev*, *“Ulugʻbek yulduzi”*, 1965) va boshqa yaratilgan.

UZUN HASAN, ASL ISMI HASANBEK (taxm. 1423-1478) — *Oq qoʻyunli* davlati hukmdori (1453-yildan), sarkarda. *Qoraqoʻyunli* davlatini tor-mor keltirib (1467), Tabriz shahrini poytaxt qilgan (1468-yildan). Koʻchmanchi turk zodagonlari separatizmiga qarshi kurash olib borgan. Uning davrida koʻpriklar, bozorlar, madrasalar, sugʻorish kanallari bunyod etilgan. Mulchilik munosabatlari uchun Uzun Hasan *“Qonunnoma”* chiqargan. Usmonli turk imperiyasiga qarshi kurash olib borgan. Bunda u Venetsiya bilan ittifoq tuzgan (1463); Vengriya, Polsha va boshqa Yevropa davlatlari bilan ittifoq boʻlish haqida muzokaralar olib borgan. *Shirvonshohlar* bilan birgalikda temuriy *Abu Saidni* magʻlubiyatga uchratgan (1469). 1473-yilda Uzun Hasan dastlab turk sultoni *Mehmed II* ni yenggan, biroq keyinchalik u tomonidan tor-mor keltirilgan. Uning saroyida boʻlgan venetsiyalik elchilar *Katarino Zeno*, *Iosafat Barbaro*, *Ambrodjo Kontarinilar* Uzun Hasan davridagi Oq qoʻyunlilar davlati haqida qimmatli yozma maʼlumotlar qoldirishgan.

VYATKIN VASILY LEVRENTIVICH (1869—1932) — arxeolog, professor (1923). Toshkent oʻqituvchilar semenariyasini tugatgan (1894). Samarqand oʻlkani oʻrganish muzeyini tashkilotchisi (1896) va direktori. Vyatkin 1905-31-yillarda Afrosiyobda qazish ishlarini olib

borib, tadqiqotlari haqida *“Afrosiyob — koʻhna Samarqand oʻrni”* (1926) asarini yozgan. 1908-yili mahalliy aholi oʻrtasida “Naqshi jahon” nomi bilan shuhrat topgan tepalikda Ulugʻbek rasadxonasi (XV asr) xarobalarini topishga va uning faxriy sekstanti yer osti qismini kovlab ochishga muvassar boʻlgan. Samarqand meʼmoriy yodgorliklarini oʻrganish va muhofaza qilishga katta eʼtibor bergan (*“Mirzo Ulugʻbek va uning Samarqanddagi rasadxonasi”*, *“Qadimgi Samarqand yodgorliklari”*, 1927, *“Qadimgi Samarqand arxitekturasi”*, 1929). Buxoro (1920) va Xorazm (1929)da muhim arxeologik tadqiqotlar olib borgan. Oʻrta asrlarga doir koʻplab Sharq qoʻlyozmalarini toʻplagan, sarflangan va nashr ettirgan. Rus maktablari uchun *“Oʻzbek tili darsligi”* va *“Fors tili darsligi”*ni tuzgan (1920). Ulugʻbek rasadxonasini yoniga dafn etilgan.

XALIL SULTON (1384—1411) — temuriylardan boʻlgan Movarounnahr hukmdori (1405-1409). *Amir Temurning* nabirasi. *Mironshohning* oʻgʻli. *Saroy Mulxonim* (Bibixonim) tarbiya qilgan. 15 yoshli Xalil Sulton Sohibqironning Hindistonga qilgan yurishida (1399-1400) qatnashib jasorat koʻrsatgan. Quyi tabaqadan chiqqan *Shodimulka* uylanishi bilan *Amir Temurning* gʻazabiga uchragan, soʻng kechirilgan. Sohibqironning Xitoyga qilgan yurishida Xalil Sulton qoʻshinning oʻng qanoti boshligʻi etib tayinlangan. *Amir Temurning* vasiyatiga muvofiq *Pirmuhammadni* taxtga oʻtqizish tarafdorlari kuchli boʻlsa-da, biroq 1405-yilning 18-martida Samarqandni egallab, oʻzini Movarounnahrning oliy hukmdori deb eʼlon qilgan. U garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzi aʼyon va kibarlaridan maʼlum qismini oʻz tarafiga ogʻdirib Movarounnahr taxtini egallab olgan boʻlsa-da, ammo koʻp vaqt oʻtmay u *Amir Temurning* sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi boʻlib, Turkiston hamda Fargʻonaning hokimi amir *Xudaydod* bilan *Shayx Nuriddin* Xalil Sultonga qarshi isyon koʻtaradilar. Hatto uning oʻz ukasi *Mirzo Sulton Husayn* Amudaryoning chap sohili viloyatlarida oʻz hokimiyatini oʻrnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh koʻtaradi. Oʻz navbatida *Amir Temur* taxtining asosiy valiahdi *Pirmuhammad* Amudaryodan kechib oʻtib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon askar tortadi. *Amir Xudaydod* Oʻratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qoʻlga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi boʻyida sodir boʻlgan jangda Xalil Sulton qoʻshini magʻlubiyatga uchraydi, oʻzi esa asirga olinadi. U davlat xazinasini behuda sarflab, hokimiyatni boshqarishda xotining soʻzlariga amal qilgan. Saroydagi katta mansablarga tasodifiy kishilar tayinlangan. Bu boshqa temuriylarning qattiq noroziligiga uchragan. Xuroson hukmdori *Shohruh* katta qoʻshin bilan Movarounnahrda yurish qilib, Samarqandni egallagan. *Shohruh* bilan tuzilgan shartnoma (1409) natijasida Movarounnahrda voz kechgan. Xalil Sultonga Ray berilgan. Umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Xalil Sulton vafot etgach, *Shodimulk* ham oʻzini oʻldirgan.

XOJA AHROR (taxallusi; asl ismi Xoja Ubaydulloh ibn Xoja Mahmud ibn Xoja Shahobiddin Shoshiy) (1404-1490) — oʻrtaasriylik mutafakkir, naqshbandiya tariqati

rahnamlaridan. Otasi shayx *Xoja Mahmud* naqshbandiyaning xojagon sulukida bo'lgan, tijorat va ziroat ishlari bilan shug'ullangan. *Shayx Xovandi Tohur* ona tomondan uning bobosidir. Xoja Ahrorning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o'tgan. Toshkent va Samarqand madrasalari (Qutbuddin Sadr)da tahsil olgan. Keyinchalik Xoja Ahror Toshkent va Kobulda madrasa bino qilgan. U tasavvuf ilmiga qiziqadi, shu maqsadda Hirotga borib *Shayx Bahouddin Umar*, *Shayx Zayniddin Xavofiy* kabi taniqli mutasavviflar suhbatida bo'ldi. *Bahouddin Naqshbandning* shogirdi shayx *Yoqub Sharxiy* (1447-yilda vafot etgan)dan naqshbandiya tariqati asoslarini o'rgandi. U *Yoqub Sharxiy*dan irshod huquqini olib, murshidi komillik maqomiga yetgach, Toshkent, Turkiston atroflarida shuhrat topa boshlaydi. Naqshbandiya ta'limotining davomchisi sifatida ulamolar o'rtasida katta obro' orttirdi va "valiy" ("avliyo") sifatida tanilib "Ahror" ("Hur", "Ozod") nomiga ega bo'ldi. Xoja Ahror, ayni vaqtda, dehqonchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullanadi. Juda katta yer-suv, mol-mulk uning tasarrufida edi. Shu bois O'rta Osiyoda beqiyos iqtisodiy va siyosiy qudratga ega bo'lib, mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida yetakchi o'rin egallaydi. U faqat Movarounnahrda emas, Xuroson, Hindistonda ham savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'ygan. Butun umri davomida el-yurt va xalqning manfaati yo'lida ko'p savob, xayrli ishlar qilgan. O'z xo'jalik faoliyatidan olgan daromadning ko'p qismini aholi to'lashi lozim bo'lgan soliqlarni to'lashga, diniy ishlarga, madaniy qurilishlarni amalga oshirishga sarflagan. Hojatmand insonlarga va oilalarga muttasil yordam berib, mehr va muruvvatini ayamagan. Jamiyatdagi tutgan yuksak mavqeidan foydalanib taxt uchun kurashgan shahzodalar o'rtasidagi nizolarni tinchlik yo'li bilan bartaraf qilgan. Xoja Ahror Amir Temur tuzgan buyuk saltanat parchalanayotgan, tahlakali va o'ta murakkab davrda yashadi. Shunday sharoitda u fuqarolar, el-yurt manfaatini ko'zlab, siyosiy voqealarda ishtirok etishga majbur bo'ldi. Garchi soliqlar siyosatdan uzoq turishni afzal ko'rgan bo'lsalar-da, Xoja Ahror bu an'anani buzdi. Xoja Ahrorning sulton va podshohlar bilan muloqotda bo'lishi shunchaki yuksak martaba, shaxsiy manfaat va shuhrat ketidan quvish uchun emas, balki oddiy fuqarolar manfaatini himoya qilish uchun zarur edi. U shu tariqa mazlumlarning homiysiga aylandi. *Jomiy*, *Navoiy*, *Bobur* Xoja Ahrorni o'zlariga ma'naviy pir-ustoz deb bilganlar. U mamlakat urush xavfi ostida qolib, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan paytlarda yurt boshiga tushgan musibatlarni daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi. 1454-yilda Hirot hokimi *Abulqosim Bobur* Movarounnahrda bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida, 1463-yili uch hukmdor: Samarqand podshosi *Sulton Ahmad* bir tarafdin, Andijonda Farg'ona hokimi *Umarshayx Mirzo* bilan Toshkent hokimi *Sulton Mahmudxon*, ikkinchi tarafdin Xavas yaqinida katta qo'shin bilan to'qnashib turganda, Xoja Ubaydulloh Ahror mojarolarga qat'iy anaralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi. Uning el-yurt tinchligi yo'lida ko'rsatgan vatanparvarligi va jonbozligi shubhasiz hukmron tabaqalarning maqsad va manfaatlari bilan chambarchas birikkan bo'lsa-da, ammo u o'z obro'si bilan

o'zaro urushning oldini olib, mamalakatni navbatdagi vayrongarchilikdan xalos etgan edi. Xoja Ahrorning 3 risolasi bizgacha yetib kelgan. Bular birinchi "*Faqarot ul-orifin*" ("Oriflar so'zlaridan parchalar"), ikkinchi "*Volidiya*" ("Otaga bag'ishlov") bo'lib, uni o'z otasi iltimosiga ko'ra yozgan. Unda tariqat yo'lga kirgan kishining axloqi, odobi, faqr va fano tushunchalari haqida so'z boradi. Bu risola o'z davrida keng shuhrat qozonib, *Abdurahmon Jomiy*, *Alisher Navoiy* unga munosib baho bergan. *Zahiriddin Muhammad Bobur* bu risolani fors tilidan o'zbek tiliga she'riy tarjima qilgan. Uchinchi risola "*Havroiyya*" deb atalib, mashhur mutasavvif shoir *Abu Said Abdulxayr* (XI asr)ning "*Havro*" ("Hurlar" yoki "Farishtalar") so'zi bilan boshlanuvchi bir ruboiysini sharhlashga bag'ishlangan. Bu asarlardan boshqa Xoja Ahrorning o'z zamondoshlariga yo'llagan maktublari ham bizgacha yetib kelgan. Ular Xoja Ahrorning o'z davri ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Xoja Ahror tasavvuf nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shgan. Uning madaniy merosida Qur'on oyatlarining tafsiri, hadislarning sharhlari alohida o'rin egallaydi. *Faxriddin Ali Safiyning* "*Rashahot*" asarida Xoja Ahrorning 120 ga yaqin tafsiru sharhlari rashha (tomchi)lar tarzida berilgan. Xoja Ahror musulmon dunyosining buyuk mutasavviflar silsilasida mo'tabar o'rin tutadi. Musulmon dunyosida 356 ta avliyo o'tgan bo'lib, ulardan 3 tasi Qutb ul-Aqtoq (ulug' darajaga yetgan avliyo) sifatida e'tirof etilgan. Shu 3 zotning biri Xoja Ahror bo'lgan. O'zbekistonda istiqloq tufayli Xoja Ahrorning ma'naviy merosi chuqur o'rganilmoqda. Xoja Ahror tavalludining 600 yilligini keng nishonlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2004-yil 25-mart) uning ana shu merosidan xalqni bahramand etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

XONDAMIR G'AYOSIDDIN MUHAMMAD IBN XOJA HUMOMUDDIN IBN XOJA JALOLIDDIN MUHAMMAD IBN BURHONIDDIN MUHAMMAD IBN MUHAMMAD SHEROZIY (1473/1476 1534) — tarixchi. Ona tomondan *Mirxondning* nabirasi va shogirdi. Otasi temuriylardan *Sulton Mahmud* mirzoning vaziri bo'lgan. 10 yoshida *Navoiyning* kutubxonasi kutubxonachi, 1498-yil mudir. 1503-yildan Balxda *Badiuzzamon Mirzo* saroyida xizmat qilgan. 1507-1510-yillarda Shimoliy Afg'onistonda (Basht qishlog'ida) adabiy ijod bilan shug'ullangan. 1510-yil Hirotga qaytib kelgan. 1528-yil Xondamir Hindistonga qaytib kelgan. 1528-yil Xondamir Hindistonga, boburiylar poytaxti Agraga, ya'ni *Bobur* huzuriga borgan va 1529-yil Boburning Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishida qatnashgan. Xondamir 13 ta asar yozgan, bizgacha 8 tasi yetib kelgan; "*Ma'osir ul-muluk*" ("*Hamasr podshohlarning tarixi*") (1498-1499); *Alisher Navoiyga* bag'ishlangan: "*Xulosat ul-axbor fi-bayon ul-ahvol ul-axyor*" ("*Xayrli kishilar ahvolini bayon etishbayon etish borasida xabarlar xulosasi*") (1498-1500) va "*Makorim ul-axloq*" ("*Oliyjanob xulqlar*") (1501), *Sulton Husayn* hukmronlik qilgan davr voqealariga bag'ishlangan "*Habib us-siyar*" (1515-1523) asari va boshqalar.

XUDAYDOD HUSAYNIY — amir, Amir Temurning lashkarboshisi, O'ratepa bilan Farg'ona hokimi. 1409-yil

bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashganidan foydalanib Amir Xudaydod O'ratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda *Xalil Sulton* qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi.

YAQINIY — XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrlarda yashab ijod etgan zamonasining iste'dodli shoiri.

YODGORMIRZO, MIRZO YODGORMUHAMMAD IBN MIRZO SULTON MUHAMMAD IBN MIRZO BOYSUNG'UR IBN MU'INUDDIN SHOHRUH IBN TEMUR (1451-1470) — Shohuh Mirzo avlodining eng so'nggi namoyandasi, Sulton Muhammad mirzoning kenja o'g'li, otasining qatlidan so'ng tug'ilgan (1451). Yodgor Mirzo yoshlikdan erka va tantiq bo'lib o'sgan. U nihoyat darajada xushbichim, qaddi-qomati kelishgan, chiroyli yigit edi. Biroq, Yodgor Mirzo boshqa temuriy shahzodalardек harbiy salohiyatli, jang ko'rgan, chiniqqan emas edi, saltanatga ega bo'lish istagi bo'lsa-da, ammo uning uchun jo'shqin harakat, g'ayrat yo'q edi. U aysh-ishratga mukkasidan ketgan va sharobxo'rlikni har narsadan ustun qo'yardi. Yodgor Mirzoning ammasi Poyanda Sulton begim shahzodaning murabbiyasi bo'lib, jiyanining qulog'iga "*Xuroson taxti biz uchun ota meros*" degan gapni quyardi. Yodgor Mirzoning Xuroson uchun boshlagan yurishida ammasi, tadbirkor, jasur malika Poyanda Sulton begim rahnamolik qilardi. U turkman hukmdori Hasanbekdan katta harbiy yordam olib, yosh shahzoda Yodgor Mirzoni Jurjon hokimining ustiga qo'qqisidan hujum qilishga ko'ndiradi. Jurjonni osongina qo'lga kiritgach, Yodgor Mirzoda Hirot taxtiga o'tirib, toj kiyish havasi paydo bo'ladi. 1469-yil sentabrda Yodgor Mirzo turkman qo'shinining yordami bilan Xuroson hududiga qarab yuradi va Chinoron yaqinida Husayn Boyqaro qo'shinlari to'qnash kelib, shiddatli jang sodir bo'ladi. Jangda turkman qo'shini parokandalikka uhab, Yodgor Mirzo chekinishga majbur bo'ladi. Ammo ko'p o'tmay, turkman hukmdori amir Hasanbek Yodgor Mirzoni yangi qo'shin bilan ta'minlab, Xurosonga jo'natadi. Yodgor Mirzo qo'shini Nishopur, Sabzavorga bostirib kiradi, Astrobodni qo'lga kiritadi. Oxir-oqibatda Yodgor Mirzo Hirotni bosib oladi va Xuroson hukmdori deb e'lon qilinadi. Biroq saltanat ishini ammasi Poyanda Sulton begim olib boradi. O'zi esa ayshu ishratga berilib, ertayu kech mayxo'rlik va chiroyli qizlar og'ushida edi. Turkman qo'shini shahar xalqini talash, mol-mulk orttirish bilan mashg'ul edilar. 1470-yilda Husayn Boyqaro o'z qo'shini bilan Hirotga yaqinlashib kelib, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy bilan birgalikda, Bog'i zog'onda g'afolat uyqusida mast holda yotgan Yodgor Mirzoni qo'lga oladilar. Sulton Husayn Boyqaro yosh shahzoda Yodgor Mirzoni rahm-shafqat yuzasidan uni o'ldirmaslikka qaror qilgan bo'lsa-da, biroq arkon davlat darhol shahzodani qatl qilishni talab qiladilar. Shuning uchun Husayn Boyqaro Yodgor Mirzoni qatl qilishga farmon beradi. Shu bilan Xurosonda Shohruh Mirzo avlodining hukumatdorligi batamom tugatiladi.

ZAYNIDDIN VOSIFIY (taxallusi; asl ismi Zayniddin Mahmud ibn Abduljamil) (1485/86, Hirot — 1551 yoki

1566, Toshkent) — adib *Munshiy* oilasida tug'ilgan. Vosifiy arab yili, adabiyot, fiqh va boshqa bilimlarni puxta egallagan. Hirotta Shohruh madrasasida tahsil ko'rgan (1511 yilgacha). *Husayn Boyqaroning* o'g'li Faridun Husaynga kotiblik, boshqa o'g'illariga muallimlik qilgan. 16 yoshida *Alisher Navoiy* bilan tanishgan. Ijodini Hirotta, *Navoiy* adabiy maktabida boshlagan. *Shoh Ismoil ta'qibidan* qochib, Movarounnahrqa qochgan. Samarqand, Buxoroda yashagan (1512-1515), so'ng Farqat (hozirgi Parkent), Toshkent, Shahrisabzga sayohat qilgan. 1518-yilda *Keldimuhammadxon* (Sulton Muhammad) tomonidan Shohruxiyaga chaqirilgan, 1525-yildan umrining so'nggi yillarigacha Toshkentda yashagan.

Keldimuhammadxonning Xurosondagi yurishlarida qatnashgan (1528-1529). 1540-yildan Baroqxon saroyida davlat hujjatlarini tuzgan. Uning bir qancha she'riy, nasriy asarlarini o'z ichiga olgan "*Badoe ul-vaqoe*" ("Nodir voqealar", birinchi qism, 1517-1518-yillar; ikkinchi qism, 1539) kitobida Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi 1532-yilgacha bo'lgan davrlardagi ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayoti aks ettirilgan.

XADICHA BEGIM (1451, Hirot — ?) — *Husayn Boyqaroning* xotini. 1457-64-yillarda *Abu Saidning* xos kanizagi. 1469-yil Abu Said vafotidan so'ng *Husayn Boyqaro* nikohiga kirgan. Ma'lum fursatdan so'ng haramda ulug' bekalik o'rnini egallagan. U *Sulton Husayn Boyqarodan* 2 o'g'il ko'rgan — kattasi *Shohg'arib Mirzo* (1471-1499), kichigi — *Muzaffar Husayn Mirzo* (1473-1509). Xadicha begim kichik o'g'lini valiahd qilib tayinlashga erishish uchun bor kuchini ishga solgan. Biroq, odatga ko'ra, valiahdlik *Badiuzzamonga* tegishli bo'lgan. Ayni vaqtda *Alisher Navoiy* boshliq arkoni davlat valiahdlikka *Badiuzzamonning* 11 yoshli o'g'li *Muhammad Mo'min Mirzoni* munosib hisoblagan. 1497-yilda otasi tomondan *Muzaffar Husayn Mirzoning* Astrobod hokimi etib tayinlanishi *Husayn Boyqaro* va *Badiuzzamon* o'rtasida ixtilofning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. *Muzaffar Husayn Mirzo* qo'shini Astrobodni zabt etgan va *Muhammad Mo'min Mirzoni* asir olib, Hirotidagi *Ixtiyoruddin qal'asiga* qamagan. Xadicha begim vazir *Nizomulmulk* ishtirokida *Muhammad Mo'min Mirzoni* zudlik bilan qatl qilish haqidagi farmonga muhr bostirib olgan, hukm o'sha tundayoq ijro etilgan. 1506-yil *Husayn Boyqaro* vafot etgach, Xadicha begimning saltanat ishlariga aralashuvi tufayli taxtga 2 shahzoda — *Badiuzzamon Mirzo* va *Muzaffar Husayn Mirzo* o'tirgan. *Shayboniyxon* Hirotni egallagach (1507), Xadicha begimni amiri *Shoh Mansur* baxshi ixtiyoriga topshirgan.

XOJA FAZLULLOH, XOJA JAMOLUDDIN FAZLULLOH ABULLAYSIY (XV asr) — samarqandlik shoir, mudarris. *Alisher Navoiyning* ustози. Falsafa, fiqh fanlarini, fors va arab tillarini yaxshi bilgan. Fiqh ilmi borasida "*Ikkinchi Abu Hanifa*" laqabini olgan. *Alisher Navoiy* Samarqandda o'qib yurgan chog'larida (1465-1469), Xoja Fazlulloh xonadonida yashagan, ta'lim olgan. *Navoiy* keyinchalik "*Majolis un-nafois*" tazkirasining ikkinchi majlisida u haqda: "*Faqih Abdullays avlodidandir. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar edi va arabiyat (arab filologiyasi)da Ibn Hojib (arab tili grammatikasi*

bo'yicha "al-Kofiya" nomli mukammal darslik muallifi kaffasida tutarlar erdi", deb yozadi. Xoja Fazlulloh madrasada dars berish huquqini ustoz, buyuk tilshunos olim Sayid Sharifdan olgan. Xoja Fazlulloh katta tilshunos bo'lish bilan birga ijodiy ishlar bilan ham shug'ullangan. Uning she'rlari, xususan, muammolari o'z davrida mashhur bo'lgan. Xoja Fazlulloh XV asr ilmiy va adabiy muhitida, ma'naviy hayotida katta o'rin tutgan.

XOJA ABDULQODIR MAROG'IY (to'liq ismi Xoja Abdulqodir bin G'oibi al-Hofiz al-Marog'iy) (XIV asr ikkinchi yarmi, Marog'a shahri — 1434/35) — sozanda (ud, chang, nay), xonanda, bastakor va musiqashunos. Hayoti asosan Jaloyiriylar davlatida o'tgan. Amir Temur uni Bag'doddan Samarqandga olib kelgan va 1394-1405-yillarda u Sohibqiron, so'ng Shohrux Mirzo, Xalil Sulton saroylarida umrining oxirigacha xizmat qilgan. Xoja Abdulqodir Marog'iy musiqa nazariyasi sohasida boy meros qoldirgan: "Kanz ul-alhon" ("Kuylar xazinasi"), "Jome ul-alhon" ("Kuylar majmuasi"), "Maqosid ul-alhon" ("Kuylar hosil qilish o'rni"), "Sharh-al-advor" (Safiuddin al-Urmaviyning "Kitob ul-advor"iga sharh). Shuningdek, u "Kitob ul-advor"ni turk tiliga tarjima qilgan. Xoja Abdulqodir Marog'iy asarlarida Forobiy, Safiuddin al-Urmaviy, Mahmud ash-Sheroziylarning musiqaga oid nazariy fikrlarini rivojlantirib, qator masalalarda aniqliklar kiritgan. U o'z davrida qo'llanilgan 45 cholg'uni tavsiflagan. Xoja Abdulqodir Marog'iy udi murassa" deb atalgan torli soz ixtiro qilgan. Bastakor sifatida Sharq xalqlari musiqasida mashhur *tasnif, peshrav, amal, savt* shakllarida kuy va ashula yo'llari, yangi doira usullari yaratgan, ularning ba'zilar hozir ham ijro etiladi. U fors va turk tillarida g'azallar ham yozgan; g'azallari ravonligi va musiqiyliigi bilan ajralib turadi. Xoja Abdulqodir Marog'iyning merosi Eron, Ozarbayjon, Xuroson, Iroq, Turkiya, O'rta Osiyo (xususan, O'zbekiston) xalqlari musiqa tarixini o'rganishda muhim manbalardandir.

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

AVORIZOT — favquloddagi xarajatlar uchun to'planadigan yig'im.

AFQOF — masjid va madrasalarning vaqf xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi.

AFLOTUNI ZAMON — Ulug'bek bilan birga ijod qilgan *Qozizoda Rumi*y zamondoshlari o'rtasida shu nom bilan shuhrat qozongan.

BANNO — g'isht teruvchi binokor.

BAXMAL, OLA BAXMAL, DUXOBA — mayin, silliq, patli gazlama. Patlari tabiiy yoki sun'iy ipakdan, zamini ip yoki kanopdan to'qiladi. Buxoro va Samarqandda qadimdan ishlab chiqariladi. Boburning ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand jahondagi ko'pgina mamlakatlarga och qizil baxmal chiqarib sotgan.

BEGOR (hindcha) — o'rta asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharqda (Eron VIII asrdan, O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistonda esa X asrdan) mavjud bo'lgan majburiyat. Mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va zamindorlarning turli qurilishlari (qal'a, saroy, yo'l qurilishlari, kanal va ariqlar qazish va boshqalar)da tekinga

ishlab berishga majbur qilingan. Begorda qatnashgan har bir hasharchi ishlash uchun kerakli asbob-uskuna va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim edi.

BOJ — savdogarlardan olinadigan soliq.

BOG'I JAHONORO — *Husayn Boyqaro* barpo etgan bog'.

BO'Z, KARBOS — bo'z pishirilgan paxta ipidan sodda to'qilgan mato; qalin, pishiq va tana haroratini bir xilda saqlaydigan mahalliy ip-gazlama. Qadimdan qo'l dastgohlarida to'qilgan.

DIGIR — chig'ir va charxpalak ko'zchalari.

DORUSHSHIFO — O'rta asrlarda Xirotdagi jamoat shifoxonasi. Hirot shahrida mana shunday jamoat shifoxonalaridan biri *Sulton Abu Saidning* (1389-1469) katta xotini *Milkat Og'a* tomonidan qurdiriladi. Unga Xirotning yetuk tabiblaridan *Mavlonar Darvesh Ali* muddaris qilib tayinlanib, barcha muolaja ishlari unga topshirilgan edi. Bunday jamoat shifoxonasi "*Dorushshifo*" nomi bilan yuritilib, ularda zamonasining bilimdon tabiblari bemorlarni davolaganlar. Dorushshifoda maxsus dorixonalar bo'lib, ularda doripazlar bemorlar uchun dori-darmonlar tayyorlab berganlar. Alisher Navoiy Injil anhuri bo'yida "Shifoiya'ni qurishga kirishar ekan, avvalo uning zamonida qarovsiz qolgan Hirot Dorushshifosini qayta tiklab, uni obod etadi. Bu davrda Xirotda Dorushshifosi, ayniqsa, *qahhollari* — ko'z kassaligi tabiblari g'oyat shuhrat topadi. Bir safar hatto *Hoja Ahrorning Navoiy* nomiga yozgan maxsus maktubi bilan *Mavlonar Fayzulloh* davolanish uchun samarqanddan Xirotda yuboriladi. *Xoji Ahror* kasal bo'lganida esa *Navoiy* farmoniga binoan *Nizomuddin Abdulhay* tabib Samarqandga keladi. *Alisher Navoiy* tabobat fani asoslarini yaxshi bilishi va u bilan qiziqishi hamda insonparvarligi tufayli Hirotida dorushshifoni ochadi. Unda mashhur tabiblarning to'planishiga va tabobat ilmining rivoj olishiga qulaylik yaratiladi. Eng qizig'i shundaki, shifoxonada davolash uchun ham, davolanish uchun ham barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lib, bemorlarga dori-darmonlar, yemaklik uchun oziq-ovqat muhayyo etilgan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog'och o'ymakorligida pardozlangan. Hovli sahni (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobadoniga panjaralar ishlangan. Hujralar yoz kunlari ham salqin bo'lgan.

DUDANG — hosilning 2/6 hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.

FIRUZSHOH MADRASASI — Ulug'bek davrida Samarqandda qurilgan madrasa.

FULUS — mayda mis chaqa puli. Ulug'bek 1428-yilda Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida muomalaga qo'ygan bir xil vazndagi salmoqdor pul. Bu fulus xalq o'rtasida "fulusi adliya", ya'ni "adolatli chaqa" nomi bilan shuhrat topadi, Movarounnahrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina (naqd pul) bilan bo'la ta'min etadi. Ichki chakana pul munosabatlaridagi tanqislikni fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan hal etilishi, o'rta asrlar zamonasida nodir va favquloddagi voqea bo'lsa-da, har holda Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib bergan.

FUTA — ip yoki ipakdan to‘qilgan sallabop mayin mato.

GYOL — koriz lag‘mi gardishi.

“HABIB US-SIYAR” — *Xondamir* tomonidan yozilgan tarixga oid asar. Asarning to‘liq nomi *“Habib us-siyar fi axbor ul-bashar”* (*“Inson habiblari va fardlarida do‘stning tarjimai holi”*) bo‘lib, unda O‘rta Osiyo hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etilgan. Asar 1521-1524-yillar orasida yozilgan. Lekin olim Hindistonda turgan yillari ham ushbu asar ustida ko‘p ishlagan, uni yangi ma‘lumotlar va fikrlar bilan boyitgan, qayta-qayta tahrir qilib to‘la ravishda 1529-yili tamomlagan. *“Habib us-siyar”* muqadimma, xotima va uch jilddan iborat. Har bir jild o‘z navbatida to‘rt qismdan iborat. *Xondamir* o‘z asarining bir qismini *Sulton Husayn* hukmronlik qilgan davr voqealari bayoniga bag‘ishlagan. *“Habib us-siyar”* asarida XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahrda yagona uyushgan davlatning yo‘qligi, uning siyosiy jihatdan maydalanib ketganini quyidagicha tasvirlaydi: *“Amirzoda Abdullo binni amir Qozag‘on (1346-1358) vafotidan so‘ng Turkiston ahvolidan haraju maraj (boshboshdoqlik) yo‘l topib, har shaharda mustaqil shohlikka intilishlar maydonga keladi. Har qasabada bir uyatsiz davlat iqbol havosi bilan qo‘zg‘olishga oyoq bosdi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda ichkilik, ayshu-ishratga berildi. Amir Xoji Barlos ... Kesh shahrida hukumat bayrog‘ini ko‘tardi. Amir Boyazid Jaloir Xo‘jandda davlat masnadi (taxti)ga o‘ltirdi. O‘ljoytu Sulduz Balxda mamlakat hukmronligining visoliga ko‘ngul bog‘ladi. Muhammad Hoja Yazdiy Shibirg‘onga o‘zini hokimi mutlaq xayol qildi. Badaxshon shohi, u Ko‘histonda istiqloq kamarini beliga bog‘lab, boshqalarga itoat qilishdan bosh tortdi. Amir Husayn binni Amir Milal binni Amir Qozag‘on va Amir Hizr Yasovuriy Hisori Shodmon chegarasida askar to‘plab har lahzada viloyatlarga chopqun yasab xarob qilar edi”*.

HAFTJO‘SH — yetti xil metal qotishma. Bibixonim jome masjidi eshiklari shu metal qotishma bilan qoplangan.

“HAYRAT UL-ABROR” (*«Yaxshi kishilarning hayratlanishi»*) — *Alisher Navoiy* «Xamsa»sining birinchi dostoni (1483). Pand-nasihati ruhidagi ta‘limiy-axloqiy, falsafiy doston. 3988 baytdan iborat bo‘lib, 64 bob, 29 maqolatdan tashkil topgan. Aruzning sare‘ bahrida yozilgan. Navoiy dostonida umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollar qo‘yadi va keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob beradi. Dostonida o‘sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan.

HAZRATI IMOM MAQBARASI — Shahrisabzdagi me‘moriy yodgorlik (XIV asr). Dor us-siyodat me‘moriy yodgorligi tarkibidagi *Jahongir Mirzo* maqbarasi Hazrati Imom maqbarasi nomi bilan mashhur. Dastlab sardoba, keyinroq ustiga to‘rtburchak tarhli ziyoratxona tiklangan, tashqi tomonda kichik peshtoq ham bo‘lgan. Hazrati Imom maqbarasi yangi madrasa peshtog‘i bag‘rida qolib ketgan, maqbara qaddini rostlash uchun ziyoratxona tepasi qo‘shimcha devor orqali ancha baland ko‘tarilgan va ustiga yangi kulohsimon cho‘qqi gumbaz o‘rnatilgan. Arxeologik tadqiqotlar vaqtida maqbaradan 3 ta jasad

topilgan. *Sharafuddin Ali Yazdiy* «Zafarnoma»sida Keshda yashagan Buxoro va samarqandlik mashhur imomlar orasida *Hazrati Imom* nomi bilan mashhur *Abu Muhammad al-Kashshiy*ni tilga olgan. *Amir Temur* ajdodlari xilxonasi yaqinida shu imomning qabri bo‘lgan (lekin qabr saqlanmagan). Hazrati Imom nomi yangi bunyod etilgan oliy madrasa — Dor us-siyodat qoldiqlariga ko‘chib qolgan.

HOJIBEK MIRABDUVALIMADRASASI — Ulug‘bek davrida Samarqandda qurilgan madrasa.

ILMIARUZ — poetika.

ILMI HAY‘AT — astronomiya.

ISHRATXONA — Samarqanddagi me‘moriy yodgorlik. *Amir Temur* davrida qurilgan (1397-1398) bog‘i Dilkusho o‘rtasidagi ko‘shk binosi. Ishratxonaning me‘moriy shakllari, nafis bezaklari hashamatli. Baland devor bilan o‘rab olingan bog‘ o‘rtasidagi ko‘rkam imorat — ko‘shki Dilkusho (tarhi 30x22,4) peshtoqining ikki qanotiga ikki oshyonli xonalar yondoshgan. Izorasi toshdan, bezaklari silliq g‘ishtdan, choklari feruza va lojuvard rang koshin bilan qoplangan. Peshtoq ravoqi ichida yana bir kichik ravoq bo‘lib, uning ichki devoriga izora ishlangan. Ikki yonidagi kichik eshikchalar va darvoza orqali ichkariga kirilgan. Ikki oshyon balandligidagi katta xonaqoh — miyonsaroy (tarhi 8x8 metr) to‘ridagi eshik orqali tashqariga chiqilgan. Janubdan 3 xonali saroyga o‘tiladi. Shimoldan esa mehrobli, uzunchoq xonai xos (taxminlarga ko‘ra, ko‘shk masjidi) ga o‘tilgan. Miyosaroyning tashqi burchaklarida 4 aylana zina bo‘lib, ular orqali yuqoridagi oshyon xona (xujra) larga va gumbaz tomga chiqilgan. Miyonsaroy ostidagi 8 qirrali yer osti “sardoba” — tagxonasida saroy mulki va oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan. Tagxona izorasi koshin va toshdan ishlangan. Miyonsaroy shipi juda murakkab o‘zaro kesishuvchi ravoqlar va burchaklaridagi qalqonsimon bag‘allardan tashkil topgan. Izorasi koshinkori naqsh, uning tepasi oppoq ganch ustiga ishlangan rang-barang naqshinkor gullar chamanzoriga aylangan. Ular orasida bir oz bo‘rtib turgan kundal gullari xonani yanada jilvador etgan. Miyonsaroy usti tashqi tomondan ikkinchi gumbaz bilan qoplangan. Bu gumbaz baland davra chambarakka o‘rnatilgani uchun ham qaddi raso va mahobatli. Chambarak yuzasi girihli koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz butunlay feruza g‘ishtlar bilan qoplangan. Shuning uchun ham ko‘shk keyinroq “ko‘k gumbaz” nomi bilan atalgan. Ishratxonadagi islamiy va girih naqshlar, zarhal kundal bezaklar milliy me‘morlik xazinasidagi noyob durdonalardan hisoblanadi. Hozir ham ishratxonaning qoldiqlari garchi ancha qismini yo‘qotgan bo‘lsa-da, ko‘rkam va jozibali ko‘rinadi. Uning baland gumbazi 1903-yildagi kuchli zilzila vaqtida qulab tushgan. Lekin gumbaz tuzilishini 1872-yilda olingan suratdan aniqlab olish mumkin. Ishratxona binosi *Amir Temur* Samarqand atrofida alohida ixlos bilan, shaxsan o‘zi nazoratida qurilgan, bog‘ ko‘shklari ichida eng mashhuri va eng muhtashami sifatida, ayniqsa, saqlanib qolgan yagona namuna sifatida O‘zbekiston me‘morligi tarixida alohida o‘rin tutadi.

JOMAIQATONIY — qimmatbaho cho‘pon, u kanop tolasidan to‘qilgan qatondan tayorlangan.

JIBA — hujum va mudofaa qurol-yarog‘i.
KAHHOL — ko‘z kasalligi tabiblari.
KARBOS — bo‘z.
KEMUXTAGAR — teri ishlash, charm pishirish kasbi.
KIRPICHPAZLIK — xumdonda pishiq g‘isht pishirish.
KITIBA — lavha.
KITOBXONA DORUG‘ASI, KITOBDOR — saroy kitobxonalari boshliqlari.
KORDAGARON — pichoqchi.
KOSHIN — sirli pishiq g‘isht.
KOCHI — marza.
KO‘KALDOSHJOME‘ MASJIDI — Ulug‘bek davrida Samarqandda qurilgan jome‘ masjid. U 210 gumbazli bo‘lgan.
LAJOMDO‘Z — yuganchi.
LALMIKOR YERLAR, BAHORIKOR YERLAR — adir zonasidagi sug‘orilmay dehqonchilik qilinadigan yerlar.
LAVVOHLIK — lavha chizish.
“LISON UT-TAYR” (arab. — “Qushlar tili”) — *Alisher Navoiyning* dostoni, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan. 1498-99-yillarda fors shoiri *Fariddin Attorning* «*Mantiq ut-tayr*» asari ta‘sirida yozilgan. Asar mazmuni va bosh g‘oya xususida *Attorga* izdoshlik qilgan. «Lison ut-tayr» falsafiy doston bo‘lib, shoir unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarni ifodalagan. *Navoiy* asarda Xudo tashqarida emas, sening o‘zingda, degan fikrni olg‘a suradi. Shu yo‘sinda insonni ulug‘laydi, uning kamolotga erishish yo‘lini yuksak she‘riy mahorat bilan bayon etadi. «Lison ut-tayr» 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo‘lib, aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun — foilotun — foilon) vaznida yozilgan. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda *Navoiy* buyuk hikoyanavis sifatida ko‘zga tashlanadi. “Lison ut-tayr” *Alisher Navoiyning* 20 jildli *Mukammal asarlar to‘plami* 12-jildi (T., 1996) dan o‘rin olgan.
MADINAT AR-RIJOL — erlar shahri, o‘rta asrlarda **Termizga** berilgan faxriy nom.
“MAJOLIS UN-NAFOIS” (“Nafislar majlislari”) — *Alisher Navoiy* tazkisasi (1490-91; 1497-98-yillarda qayta ishlangan). Turkiy tazkirachilikning ilk namunasi. Asarda XV asrda Xuroson va qo‘shni mamlakatlarda yashagan shoir, yozuvchi va olimlar (jami 459 kishi) ijodiga oid qisqa ma‘lumotlar berilgan. Ma‘lumotlar yillar, geografik o‘rinlar hamda sulolaviy tartiblarga tayanib joylashtirilgan. 8 qism — «majlis»dan iborat. birinchi ikkinchi majlislarda muallifning salafarlari — tazkira yozilayotgan vaqtda hayot bo‘lmagan shoirlar, 3-majlisda o‘ziga zamondosh shoirlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. 5-oltinchi majlislarda Xuroson, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon, Qazvin, Sova, Kirmon, Sheroz va boshqa joylardan chiqqan qalam ahlari haqida; 7-majlisda esa temuriylarga mansub shoirlar haqida fikr yuritilgan. 8-majlis Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Tazkirada shoirlarning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashi, mehnatga munosabati kabi xususiyatlari alohida ko‘rsatilgan. Har bir shoirga berilgan tasnif uning ijodidan namuna keltirish bilan asoslangan. Asarda badiiy

ijod asosi va mohiyatini belgilovchi nazariy masalalar yuzasidan ham fikr yuritilgan: mazmun va shakl haqida fikrlar ilgari surilgan, shoirlar ijodiga baho berishda asarlarning g‘oyaviy mazmuni bilan birga badiiy mahoratiga ham e‘tibor qaratilgan. Navoiy o‘z davri adabiy muhitining qizg‘in manzarasini, adabiyotdagi poetik janr va turlar rang-barangligini ko‘rsatib bergan. Asar qiziqarli va sodda, ravon uslubda yozilgan, fikrlar puxta va ixcham ifodalangan. Tazkira XV a. o‘zbek ilmiy nasrining go‘zal namunasi hisoblanadi. «Majolis un-nafois» boshqa xalqlar tillariga ham tarjima qilingan va tazkirachilik ishiga samarali ta‘sir ko‘rsatgan.

“MALIK UL-KALOM” (arabcha — so‘z podshosi) — ijodkorning yuksak qobiliyati, badiiy-poetik mahorati va shuhratini e‘tirof etish, uning o‘z davri, zamondoshlari adabiy muhitida tutgan yetakchi mavqe, obro‘-e‘tiborini ko‘rsatish uchun qo‘llangan unvon. Malik ul-kalom so‘z san‘atida o‘ta yuksak marralarga, ijod cho‘qqilariga ko‘tarilgan, o‘ziga zamondosh va halaf ijodkorlar uchun ustoz darajasiga yetgan so‘z san‘atkorlaridir. Shu ma‘noda *Alisher Navoiy* keksa zamondoshi *Mavlono Lutfiy*ni shu unvonga loyiq ko‘rgan va «Majolis un-nafois» tazkirasida «*Mavlono Lutfiy o‘z zamonasining malik ul-kalomi erdi. Forsiy va turkiyda benazir erdi*», deb qayd qilgan edi.

“MATLAI SA‘DAYN VA MAJMAI BAXRAYN” — *Abdurazzoq Samarqandiyning* tarixga oid asari. “*Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn*” (“*Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi*”) 1467-1469-yillarda fors tilida yozilgan. *Abdurazzoq Samarqandiy* o‘z asarida Eron va O‘rta Osiyoning 1304-1470-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, shuningdek, Temuriylar davlatining qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan savdo, siyosiy va madaniy aloqalar tarixini bayon etadi. Asarning ma‘lum qismi *Amir Temur* va temuriylar hukmronlik qilgan davrga bag‘ishlangan.

MINIATYURA (fransuzcha miniature; lotincha minium — qizil bo‘yoq) — badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan kichik hajmli (mo‘jaz) tasviriy san‘at asarlari. O‘rta asr qo‘lyozmalarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo‘jaz rasmlar, shuningdek, suyak, pergament, mag‘zi soxta (toshqog‘oz), metall, chinni, ba‘zan maishiy buyumlar (tamakidon, soat, uzuk va boshqa)ga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham miniatyura atamasi qo‘llanadi. Badiiy miniatyuraning kitob va portret miniatyurasi kabi sohalari keng tarqalgan. Temuriylar davrida alohida varaqlarga miniatyura ishlash va ulardan muraqqa tuzish an‘anaga aylangan, alohida shaxslar tasviri (portreti)ni ishlash taraqqiy etgan, xususan, Hindistonda Boburiylar davrida yuksak darajaga ko‘tarilgan. XIV a. oxirida Samarqandda Samarqand miniatyura maktabi shakllangan, keyinchalik u Hirot miniatyura maktabining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan; *Amir Temur* qurgan bog‘lardagi ko‘shklar ham devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar saroylarida alohida kitobxonalar tashkil etilib, u yerda mohir xattot va kitobat ahli, jumladan, musavviralar ham faoliyat ko‘rsatgan. *Husayn Boyqaro* va *Alisher Navoiy* davrida ham kitobat san‘ati va miniatyura taraqqiyotiga katta e‘tibor berilgan.

MIRZOYI HAMMOMI VA KARVONSAROYI — *Registon* maydonida qurilgan, hammom va karvonsaroy.

MISKARON — miskarlik.



“**MONIYISONIY**” (**Ikkinchi moniy**) — XV asr tasviriy sanʼatining ulugʻ namoyondasi Kamoliddin Behzod zamondoshlari tomonidan shu nom bilan nomlangan.

MOL SARDARAX — bogʻ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.

MUMALLIKAYI XOS — davlat mulklari boshqaruvchisi.

MUQATTAʼ MASJIDI — Ulugʻbek tomonidan qurdirilgan Registon maydonida qad koʻtargan masjid. Muqattaʼ masjidining devoridan tortib, toqu ravoqlarigacha, ustunlaridan to eshik va panjaralarigacha naqshkor yogʻochdan ishlangan edi. Rasadxona hali qurilib ishga tushirilganga qadar osmon yoritgichlarini holatini kuzatish ishlarini maʼlum darajada Ulugʻbekning Samarqand madrasasida va Muqattaʼ madrasasida olib borilgan.

MUZZAHHIB — zarhal beruvchi moʻyqalam sohibi.

MUZORIY — qoʻshchi, ziroatkor, ekin ekuvchi. Ular qishloqning mehnatkash tabaqasi boʻlib, ular 4 guruhga boʻlingan: 1) davlat yerlarida yashuvchi muzoriylar; 2) mulkdorlarning yerlarini ishlovchi muzoriylar; 3) oʻz yeriga ega boʻlgan dehqonlar; 4) vaqf yerlarida yashovchi muzoriylar. Muzoriy davlat yoki vaqf yerlarida ham, tarxon yoki suyugʻol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida ham yolanma ziroatchi boʻlib, dehqonchilik qilgan. Ularning hosildan oladigan hissasi yer egalari yerdan tashqari urugʻlik, omoch, hoʻkiz, ot va arava kabilarni berganiga qarab belgilangan. Qanday yerda dehqonchilik qilishdan qatʼiy nazar muzoriy hamma vaqt soliqlarni toʻlar va majburiyatlarni oʻtar edi.

MUXOLIFAT — mavjud hokimiyat siyosatiga qarshi kuchlar.

MUXASSILONI — soliq yigʻuvchilar.

MUTAFAKKIR — chuqur tafakkur isteʼdodi egasi.

NAQSHI JAHON — Ulugʻbek rasadxonasining ichki devorlarida koinot-u Yer sharining umumiy manzarasi tasvirlangan boʻlib, shu tufayli bu mavzu aholi oʻrtasida shu nom bilan shuhrat topadi.

“**NASOYIM UL-MUHABBAT**” («**Sevgi shabadalari**») — *Alisher Navoiy* asari. 1495-96-yillarda *Abdurahmon Jomiy*ning «*Nafohat ul-uns*» asari taʼsirida yozilgan. *Jomiy* asariga tanqidiy qaragan *Navoiy* «*burungʻi zamondagʻi mashoyihdin barchasining zikrin qilmaydurlar va oʻz muosirlarining koʻpini, oʻzlarin ham bitmaydurlar*» der ekan, asarda *Jomiy*, *Lutfiy*, *Ashraf Muflisiy*, *Shayx Sanʼon*, *Nosir Xisrav*, *Nasimiy* va shular qatori *Ahmad Yassaviy*, *Sulaymon Boqirgʻoniy* kabi «turk mashoyixlari» haqida maʼlumot beradi. *Navoiy* asarda ilova qilingan shaxslarning faqat sufiyona qarashlarinigina yoritmasdan, adabiyot va jamiyatdagi oʻrnini belgilashga ham katta eʼtibor bergan. «N. ul-m.» Navoiyningdidaktik qarashlari, tarjimonlik va tadqiqotchilik faoliyati hamda estetik qarashlarini oʻrganish uchun muhimdir.

NASTAʼLIQ — xattotlik uslubi, arab mumtoz xat uslublaridan biri. XIV asrda shakllangan, nazariy asoschisi *Mir Ali Tabriziy*. Bu xat nasx va taʼliq xat uslublari asosida yaratilgan boʻlib, harflarning 5/6 qismi egri va 1/6 qismi toʻgʻri chiziq asosida yoziladi. Dastlab moʻtabar qoʻlyozmalarni, asosan, badiiy adabiyot namunalari

koʻchirishda va alohida qitʼalarni bitishda foydalanilgan. Keyinchalik bu yozuv kitobat sanʼatidan nasx va suls yozuvlarini siqib chiqaradi. Nastaʼliq uslubi ayniqsa *Sulton Ali* boshliq Hirot hatotlari faoliyati bilan keng tarqaladi va oʻz takomilining yuksak bosqichiga koʻtariladi. “*Xatti Hirotiy*” deb shuhrat topgan bu uslub Oʻrta Osiyo, Eron, Ozarbayjon, Afgʻoniston va Hindistonda keng tarqalgan. *Jaʼfar Boysunquriy*, *Azhar Tabriziy*, *Sultonali Mashhadiy* va uning shogirdlari nastaʼliqda ijod qilgan. Ayniqsa, *Mir Ali Haraviy*ning nastaʼliqni Movarounnahrda tarqalishida xizmati katta. *Darvish Muhammad* («*Favoid ul-xutut*»), *Munis Xorazmiy* («*Savodi taʼlim*»), *Muhammad Azim* («*Mir*”oti taʼlim») asarlarida nastaʼliq xatining asoslarini oʻrganish bayon etilgan.

NAʼLBANDON — taqachilar.

OQSAROY — Samarqanddagi meʼmoriy yodgorlik (XV a.). Temuriylarning soʻnggi dahmasi. Oqsaroy qoʻshimcha dahma sifatida Abu Said (1449-69) va Sulton Ahmad Mirzo (1469-94) hukmronligi davrida qurilgan. Maqbara pishiq gʻishtdan ganch qorishmasida terilgan. Oqsaroy chortoq tarhli katta xona va qarama-qarshi joylashtirilgan xonalardan iborat. Bosh tarzi janubga qaragan. Oʻrtadagi miyonsaroy tagida sardoba joylashgan. Oqsaroy qurilishida oʻsha davr meʼmorligiga xos murakkab usullar qoʻllanilgan: katta xona gumbazi 4 katta ravoq va oʻzaro kesishgan ravoqchalar hamda toqilar yordamida yopilgan. Bu qurilmalar sharafa va ganch bezaklari bilan pardozlangan. Bezaklarning koʻp qismi kundal uslubida bajarilgan. Nafis ishlangan oq, koʻk ranglar oltin hal bilan oʻzaro uygʻunlashib ajoyib koʻrinish kasb etgan. Naqsh shakllari oʻzaro takrorlanmagan. Bir ravoqdagi naqshda bir-biriga oʻxshamaydigan 67 xil bezak-gul boʻlgan. Binoning tashqi meʼmorligi nihoyasiga yetkazilmagan. Katta xona tashqi gumbazi, 8 qirrali poygumbazi tugallanmagan. Oqsaroy temuriylar davri meʼmorligining noyob namunasi hisoblanadi.

QAZNOQ — omborxon.

QATON — kanob poyasidan toʻqilgan mato.

QOZIZODA RUMIY MAQBARASI — Ulugʻbek davrida Shohizinda ansambli kompleksining markaziy qismida qad koʻtargan naqshinkor obidalar orasida, meʼmoriy jihatdan eng ajoyibi. U peshtoqli ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat boʻlib, koshinkor va beqiyos jilvali rango-rang parchinlar bilan naqshlangan.

“**QUBLAT UL-QUTTOB**” (**Kotiblar qiblasi**) — Oʻrta asrning mashhur xatoti Sultonali Mashhadiy shu nom bilan shuhrat topgan edi.

QUTBUDDIN SADR MADRASASI — Ulugʻbek davrida Samarqandda qurilgan madrasa. Bu madrasada dastlabki saboqlarni *Xoja Ubaydulloh* olgan.

QOʻSH — bir juft hoʻkiz bilan haydaladigan yer maydoni.

RANGREZ — mato va kalavalarga boʻyoq beruvchi.

“**RAVZATUS SAFO**” — *Mirxondning* tarixga oid asari. *Alisher Navoiy*ning koʻrsatmasi va homiyligi bilan yaratilgan asarning toʻliq nomi “*Ravzat us-safu fi siyrat al-anbiyo va-l-xulafa*” (“*Paygʻambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bogʻi*”) boʻlib, unda dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Oʻrta

Osiyo, Yaqin va O`rta sharq mamlakatlarida, shuningdek O`zbekistonda bo`lib o`tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etilgan. “*Ravzat us-safo*” muqaddima, xotima va yetti jilddan iborat. Asarning so`nggi jildi *Xondamir* tomonidan yozilgan. Unda *Sulton Husayn Boyqaro* va avlodining tarixi bayon etilgan.

REGISTON ANSAMBLI — Samarqandning Registon maydonida 3 madrasa (*Ulug`bek madrasasi*, *Tillakori madrasa*, *Sherdor madrasa*) dan iborat me`moriy majmua. Dastlab Ulug`bek madrasasi (1417-1420) bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga — maydon sharqiga Ulug`bek xonaqohi (1424), shimolga Mirzoyi karvonsaroyi, janubga Alika Ko`kaldosh Juma masjidi (1430) qurdirgan, yonida esa yog`ochdan xotamkori uslubida masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan. XV asrning 20-40-yillarida Registon hashamatli me`moriy ansamblga aylangan. XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto`sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug`bek xonaqohi o`rniga Sherdor madrasa (1619-1635/36) ni, Mirzoyi karvonsaroyi o`rniga Tillakori madrasa-masjidi (1646/47-1659/60) ni qurdirgan. Registon ansambli o`zining rang-barang koshinkori bezaklari; naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O`rta Osiyo me`morligining noyob yodgorligi hisoblanadi.

“RISOLA DARILMI MUSIQA” (“Musiq ilmi haqida risola”) — *Mirzo Ulug`bek*ning musiq tarixiga bag`ishlangan asari. Unda “o`n ikki maqom bayoni”ga doir maxsus bob bo`lgan.

“SAB`AI SAYYOR” («Yetti sayyora») — «*Xamsa*» (*Alisher Navoiy*)ning to`rtinchi dostoni (1484), ishqiy-sarguzasht xarakterda. 37 bob (5000 baytdan oshiq). Sharqda keng tarqalgan «Bahrom Go`r» afsonasi asosida. Afsona Eronning sasoniy hukmdori *Varaxran V* (420-438-yillar hukmronligi) nomi bilan bog`liq (*Varaxran* — dariycha *Bahrom*). U go`r-qulon oviga o`chligi uchun *Bahrom Go`r* nomi bilan mashhur. Afsonani yozma adabiyotga, dastlab *Firdavsiy* olib kirgan. So`ng *Nizomiy*, *Xisrav Dehlaviy* va boshqalar shu mavzuda asarlar yozganlar. *Navoiy* bu tajribalarni umumlashtirib, mukammal original doston yaratgan. Doston Sharqda «*Bahrom va Gulandom*», «*Bahromnoma*», «*Haft manzari Bahrom*» nomlari bilan shuhrat qozongan. «Sab`ai sayyor» an`anaga ko`ra, hamd, munojot va na`t bilan boshlangan, so`ng voqealar bayon etilgan. Mundarijasi «*Xamsa*»dagi boshqa dostonlardan farq qiladi; hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. *Bahrom* va *Dilorom* voqeasi asarda qoliplovchi hikoya bo`lib, uning ichida yana 7 hikoya keltirilgan. Ular asarning umumiy yo`nalishi bilan chambarchas bog`lanib, yaxlit bir badiiy asarning uzviy qismlarini tashkil etadi. Ayni vaqtda hikoyaning har biri mustaqil hisoblanadi va mavzular davrning, xalq turmushining muhim tomonlarini qamrab oladi; xalq hayoti, tinchlik va osoyishtalik, adolat va vatanparvarlik, sevgi va ma`rifat g`oyalari ilgari suriladi, munofiqlik va zolimlik qoralanadi. *Bahrom* — 7 iqlim shohi. Ovda uni izlab kelayotgan *Moniy*ni uchratadi. *Moniy* xitoylik go`zal *Dilorom* haqida xabar beradi, o`zi chizgan qizning suratini ko`rsatadi. Shoh suratni ko`rib telbalarcha oshiq bo`ladi. Xitoyning 1 yillik xirojini to`lab, qizni saroyga keltiradi. Shoh qizga butunlay mahliyo bo`lib, mamlakat ishlarini unutadi. Mastlik bilan sevgilisidan ham ajraladi,

so`ng uzlatga beriladi. Undagi savdoyilikni daf etmoq uchun 7 iqlim shohi 7 rangdagi 7 qasr qurdiradi. *Bahrom* ularning har birida har kuni 1 musofirdan hikoya tinglaydi, tuzala boshlaydi. Nihoyat 7-kun oq qasrda *Dilorom*ning daragini eshitadi va uni topadi. Yana ovga, aysh-ishratga beriladi va navbatdagi ov paytida butun arkoni davlati bilan yer yutadi. *Navoiy Bahrom* obraziga juda katta ma`no-mazmun yuklagan. Uning timsolida oshiqlik va shohlikning bir tanga sig`masligini ko`rsatgan. *Navoiy* asar voqealarini Xurosonu Movarounnahr hayoti bilan bog`lashga harakat qilib, qissaga turkona ruh bergan. «Sab`ai sayyor» voqealari, qahramonlarining xatti-harakatlari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. *Navoiy*dan so`ng og`zaki va yozma adabiyotda «Sab`ai sayyor»ning bir necha variantlari yaratildi.

“SADDI ISKANDARIY” (“Iskandar devoir”) — «*Xamsa*» (*Navoiy*)ning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 baytdan iborat bo`lib, *Navoiy* ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning mutaqorib bahrida turkiyda yozilgan. Xamsanavislikning buyuk namoyandalari: *Nizomiy Ganjaviy*, *Xisrav Dehlaviy*, *Abdurahmon Jomiy* va *Alisher Navoiy*lar Iskandar to`g`risida doston yozib, o`z «*Xamsa*»lariga kiritganlar. Dastlab musulmon dunyosida Qur`oni karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zul-qarnayn (Ikki shoxli, 18-sura, 83-98-oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi *Aleksandr*ni bitta shaxs deb bilishgan va u sharqda *Iskandar Zulqarnayn* nomi bilan mashhur bo`lgan. Mazkur Iskandarnomalarga *Iskandar* timsolidagi *Aleksandr* faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda *Iskandar* timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to`qima obrazga aylana borgan. Har bir xamsanavis Iskandar timsolida o`z ideallarini talqin etishga harakat qilgan. *Navoiy* o`z asari avvalida, salafalaridan farqli o`laroq, tarixiylikka, ko`proq tarix kitoblariga tayanib ish ko`rganini yozadi. *Navoiy* bu o`rinda o`z asarida *Iskandar* haqidagi boblar izchilligining Qur`ondagi *Zul-qarnayn* haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs *Aleksandr* faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning «Saddi Iskandar» deb nomlanishida ham Qur`oni karimning *Navoiy* uchun birlamchi manba bo`lganligi seziladi. *Navoiy* talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufirdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib-qoidalarni katta olamdagi tartib-qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa sufiyona talqin bo`lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko`rish mumkin. Mas., *Iskandar* shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko`rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo`lini tobutdan chiqarib qo`yishlarini so`raydi. Asarda *Navoiy* insonni bu foni dunyo hoyu havaslariga ortiqcha ruju qo`ymaslikka chaqirib, garchi *Iskandar* jahonni egallagan jahongir bo`lsa-da, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi. Doston turkiy adabiyotda ko`plab naziralar yozilishiga turtki bo`lgan.

SAHHOF — kitobni muqovalovchi usta, muqovasoz.

SAHHOFLIK — hunarmandlik turi, qog`ozni sahifalash va kitobni muqovalash kasbi



SAMARQAND MINIATYURA MAKTABI — oʻrta asrlarda Samarqandda shakllangan tasviriy sanʼatdagi uslubiy yoʻnalish. Eng rivojlangan davri XIV a. ikkinchi yarmi — XV a. va XVII asrlarga toʻgʻri keladi. Temuriylar davrida Samarqand yirik madaniyat markaziga aylangan, meʼmorlik va kitobat sanʼati beqiyos darajada taraqqiy etgan. Yozma manbalar, saqlanib qolgan sanʼat yodgorliklari Samarqandda tasviriy sanʼat qadimdan rivojlanganligini koʻrsatadi. Amir Temur bogʻlaridagi saroylar devorlariga mahobatli rasmlar ishlangan, shohona chodirlar tasvirlar bilan bezatilgan, keyinchalik Mirzo Ulugʻbek davrida ham binolar tasviriy lavhalar, syujetli asarlar bilan bezatilgan: shoh, uning yaqinlari va safdoshlari portretlari, qabul marosimlari, ziyofat, safar va jang lavhalari, ov va boshqa manzaralar aks ettirilgan; ayniqsa, Mirzo Ulugʻbek rasadxonasi devorlariga osmon gumbazi, yulduzlar olamiga taalluqli jismlarning ramziy tasvirlari ishlangan. Xuddi shunday tasvirlar bilan olim Abdurahmon as-Soʻfiyning astronomiyaga oid risolasi ham Samarqand miniatyura maktabi vakillari tomonidan bezatilgan. Samarqand miniatyura maktabi ustalari yaratgan rasmlarda voqealar, asosan, manzara zaminida tasvirlanadi; romantik tasvirlarda Oʻrta Osiyo tabiatiga xos manzaralar, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, mahalliy xalq qiyofalari oʻz aksini topgan. Mujassamotdagi originallik, bezak tuzilishi va badiiy ifoda vositalaridagi aniqlik, yirik shakli, kenglikni simmetrik tuzilishi, sokin ritmi va boshqa oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan Samarqand miniatyura maktabida qiyofalar roʻparadan chizilgan, voqealar past-baland adirlarda, koʻshk, chodir zaminida tasvirlangan; ayniqsa, zarrin och sariq — och binafsha rangli vazmin kolorit diqqatni tortadi. *Ustod Gung, Gʻiyosiddin, Amir Temur saroyida yashagan Xoja Abdulhay, uning shogirdi Pir Ahmad Bogʻishamoliy, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalar Samarqand miniatyura maktabining yirik vakillaridan. Nizomiyning «Xamsa», «Mirzo Ulugʻbek oʻz aʼyonlari bilan» alohida miniatyura, Muhammad Shodining «Fathnoma», «Tarixi Abulxayrxoniy», Firdavsiyning «Shohnoma», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» va boshqa qoʻlyozma kitoblar Samarqand miniatyura maktabi vakillari tomonidan badiiy bezatilgan.*

SANAD — shahodatnoma, hujjat.

SANGTARASHON — toshlarovchilar, tosh yoʻnuchchi.

SARROJON — egarchi.

SEKSTANT (lotincha sextans — oltinchi) — osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun moʻljallangan koʻzguli-qaytargichli asbob.

SIMKASHON — sim choʻzuvchilar.

SIYOSAT — davlat hokimiyatini boshqarish.

SUDSI FAXRIY — sekstant.

SULTON UL-XATTOTIN (Xattotlar sultoni) — mashhur xat nazariyotchisi Sultonali Mashhadiy shu nom bilan shuhrat topgan.

SOʻZANGARON — ignasozlik.

TAVAJJUHOTI XORLIJY — favquloddagi xarajatlar soligʻi.

TAZAR — yer osti kanalizatsiya inshooti.

TAMGʻA — savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.

TANOB — ikkinchi 2,5 ming kv.m. hajmidagi yer maydoni.

TARGʻU — zigʻir poyasidan toʻqilgan dagʻalroq mato.

“TARIXI ARBA” ULUS” (“Toʻrt ulus tarixi”) — Mirzo Ulugʻbek tomonidan yozilgan tarixiy asar. Asar 1425-yildan keyin yozib tamomlangan. Mirzo Ulugʻbekning “Tarixi arba” ulusi” kitobi turklarning ajdod va avlodlari, mungʻul qabilalari, hamda Chingizxon vafotidan keyin tashkil topgan Ulugʻ yurt, Joʻchi, Chigʻatoy va Elhoniylar ulusining qisqacha tarixiga bagʻishlangan.

“TARIXI RASHIDIY” — *Mirzo Muhammad Haydarning tarixga oid asari. Asar 1544-1546-yillar orasida Kashmirda yozilgan boʻlib, unda Moʻgʻuliston xalqlarining tarixi Tugʻluq Temurdan (1348-1362) to Abdurashidxonning taxtga oʻtirishigacha (1533) boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi.* “*Tarixi Rashidiy*” asari Oʻrta Osiyo, Koshgʻar, Afgʻoniston hamda Shimoliy Hindistonning XIV-XVI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

TEMURIYLAR, TEMURIYLAR DAVRI — oʻrta asrlarda sobiqron *Amir Temur* asos solgan markazlashgan buyuk saltanatni idora etgan sulola. Temuriylar hududi shimolda Ili daryosi va Xorazm (Orol) dengizidan jan.da Fors qoʻltigʻiga qadar, sharqda Xitoy va Hindistondan gʻarbda Trabzun (Qora dengiz)ga qadar ulkan maydonni qamragan. Davlat tuzilishi, qonun va qoidalari jihatidan Temuriylar musulmon Sharqida oʻrta asrlarda hukm surgan davlatlardan katta farq qilmasa-da, ammo uning boshqaruv tizimi Turkiston va Movarounnahr davlatchiligining asriy anʼanalari, saltanatga kirgan mamlakatlar bilan madaniy aloqalar asosida yangi tartib va qoidalar bilan takomillashtirilgan. Markazlashgan davlat tepasida: *Temur ibn Taragʻoy Bahodir* (1370-1405); *Shohrux ibn Temur* (1409-47); *Ulugʻbek ibn Shohrux* (1447-49); *Abu Said ibn Sulton Muhammad* (1458-69); Movarounnahrda (poytaxti Samarqand): *Xalil Sulton* (1405-09); *Ulugʻbek* (1409-49); *Abdullatif* (1449-50); *Abdullo Mirzo* (1450-51); *Abu Said ibn Sulton Muhammad* (1451-69); *Sulton Ahmad Mirzo* (1469-94); *Sulton Mahmud Mirzo* (1494-98); *Sulton Ali Mirzo* (1498-1500). Xurosonda (poytaxti Hirot): *Shohrux* (1396-1447); *Ulugʻbek* (1447-49); *Abulqosim Bobur* (1449-57); *Shoh Mahmud Mirzo* (1457); *Abu Said ibn Sulton Muhammad* (1458-69); *Yodgor Mirzo* (1470), *Husayn Boyqaro* (1470-1506); *Badiuzzamon ibn Sulton Husayn* (1506-07); *Muzaffar Mirzo* (1506-07). Nihoyatda kengayib ketgan davlat *Amir Temur* vafotidan soʻng vorislar oʻrtasidagi nizolar natijasida zaiflasha boshladi. 1405-yilning 16-mart kuni *Mironshohning* oʻgʻli *Xalil Sulton Samarqandni* egallab, oʻzini Movarounnahrning hukmdori deb eʼlon qiladi. Oqibatda shahzoda, amir va viloyat noiblarining noroziligi kuchayib, isyon va gʻalayonlar koʻtariladi. Dastavval Fargʻonada *Xudoydod* bilan *Shayx Nuriddin Xalil Sultonga* qarshi qoʻzgʻalib, Oʻratepa va Fargʻonani egallab oldi. Bu davrda Xurosonda *Shohrux*, Balx, Gʻazni va Qandahorda *Pirmuhammad*; Gʻarbiy Eron va Ozarbayjonda *Mironshohning* oʻgʻillari *Umar Mirzo* va *Abubakr Mirzo* hokimi mutlaq boʻlib oladilar. Turkiston,

Sabron, O'tror, Sayram viloyatlari amir *Berdibek*ning tasarrufiga o'tadi, Oltin O'rda amirlaridan Idiku Xorazmni zabt etadi. 1405-08-yillarda Balx, Xuroson, Seyiston, Kermon va Ozarbayjonda temuriy shahzoda va ayrim amirlarning birin-ketin ko'tarilgan g'alayonlari kuchayib ketadi. Valiahd *Pirmuhammad* bunday g'alayon va fitnaning qurboni bo'ladi (1407-yil 22-fevral). 1408-yil 22-aprel kuni qoraqu'yunli turkmanlarning yetakchisi *Qora Yusuf* bilan bo'lgan jangda *Mironshoh* halok bo'lib, Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi. XV asrning 20-yillarida bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan bo'lib, uni *Shohrux* boshqargan (markazi Hirot sh.) edi. Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda — Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelib (poytaxti Samarqand sh.) uni *Ulug'bek* idora etgan edi. *Ulug'bek* otasi *Shohrux*ning ko'magi bilan avval (1413) Xorazmni, so'ngra (1415) Farg'ona va Qashg'arni o'z tasarrufiga olib, davlatining g'arbiy va sharqiy chegaralarining xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa-da, ammo uning shimol va shimoliy-sharqiy tomonlari xavotirli edi. Shu boisdan XV asrning 30-40-yillari otasi *Shohrux* bilan birga Dashti Qipchoqda *Abulxayrxon* bilan kurash olib borishiga to'g'ri keladi. Chunki ko'chmanchi chorvadorlar Movarounnahrning viloyatlariga muttasil bostirib kirar va o'troq aholini g'orat qilard edi. Movarounnahrni idora etishda, ayniqsa, tashqi siyosatda *Ulug'bek* Temuriylarning bosh hukmdori *Shohrux*ning irodasini izchil amalga oshiradi. Tashqi va ichki siyosatga aloqador har qanday masalani u otasi bilan maslahatlashib va kelishib, uning rozi-rizoligi bilan hal etgan. *Shohrux* 1447-yil 12-mart kuni nevarasi *Sulton Muhammad* isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. *Shohrux* vafotidan so'ng, Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasidagi nizolar yana avj oladi. Bu kurash oqibatida zamonasining mashhur olimi va hukmdori *Mirzo Ulug'bek* 1449-yil 27-oktyabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda halok bo'ladi. *Ulug'bek* Movarounnahrni 40 yil (1409-49) idora etdi. Bu davrda mamlakatning siyosiy hayotida keskin kurash davom etganligiga qaramay, u shiddatli harbiy yurishlar uyushtirishga intilmadi. Aksincha, u o'z davlatini mustahkamlashga, mamlakat birligini saqlab qolishga va madaniy hayotni ko'tarishga harakat qildi. *Ulug'bek* fojiasidan so'ng, hokimiyatga bir vaqtning o'zida Samarqandda *Ulug'bek*ning kuyovi *Abdullo Mirzo*, Buxoroda esa *Mironshoh*ning nabirasi *Sulton Abu Said*lar podshoh qilib ko'tariladi. *Abdullo Mirzo* mamlakatda barqarorlikni tiklash uchun barcha choralarni ko'radi, ammo temuriylar taxtida uzoq vaqt o'tira olmaydi. Avval u amakivachchasi *Abu Said* bilan, so'ngra qarindoshi *Alouddavla* bilan kurashadi. Muhorabada ittifoqchilar g'alaba qozonadi. *Abdullo Mirzo* jangda halok bo'ladi. *Abu Said Abulxayrxon* yordamida Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib qoladi. Temuriylar mulkining Xuroson qismi bu davrda *Shohrux*ning nabirasi *Abulqosim Bobur* tasarrufida edi. 1457-yilgacha u Xurosonni o'z qo'lida tutib turadi. Har ikkala davlat o'rtasida nizo kuchayib bordi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, Xurosonda boshboshdoqlik avj olib, u

bo'laklarga bo'linib keta boshladi. 1457-yilda *Abulqosim Bobur* vafot etgach, *Abu Said* Hirot shaharni egallab, saltanatning har ikki qismini birlashtiradi. Bu davrda *Sulton Husayn* (Umarshayxning nabirasi) Xorazmni egallab oladi. 1469-yil bahorida *Abu Said* (Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqgacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan) oqqu'yunli turkmanlarga qarshi yurish qiladi. Mug'on (Ozarbayjon) cho'lida *Uzun Hasan* bilan bo'lgan jangda *Abu Said* halok bo'ladi. Otasining o'limidan so'ng, *Abu Said*ning vorislari *Sulton Husayn* bilan to'qnashmay Movarounnahrda qaytadilar. 1469-yilning 24-martida *Sulton Husayn* Xuroson hokimi sifatida Hirotning taxtini egallaydi. Natijada temuriylar mulki yana 2 mustaqil qismga bo'linib ketadi. Movarounnahrda *Abu Said*ning o'g'illari *Sulton Ahmad Mirzo*, *Sulton Mahmud Mirzo* va *Sulton Ali Mirzo* hokimlik qiladi. Bu davrda Movarounnahr ham o'zaro ixtilofdagi shahzodalar va mulkdor zodagonlarning viloyat hokimliklariga bo'linib ketadi. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida so'fiylik ta'limotining yirik namoyandalari, xususan *Xoja Ahrorning* ta'siri kuchayadi, hatto u siyosiy hayotda ham muhim rol o'ynay boshlaydi. Mas., mamlakat urush xavfi ostida qolib, el-yurt boshiga og'ir tashvishlar tushgan paytda *Xoja Ubaydullo Ahror* bir necha bor uni bartaraf qilishga jonbozlik ko'rsatadi. *Sulton Husayn Boyqaro* idora qilgan davlat Sharqiy va Shim. Eron viloyatlari va Xorazmni birlashtirgan edi. U temuriylarning qariyb 40 yil hukm surgan so'nggi yirik saltanati bo'lib, unda siyosiy vaziyat osoyishta emas edi. Xurosonda beto'xtov davom etgan o'zaro urushlarga, shahzoda va amirlarning boshboshdoqligiga qaramay mamlakat aholisining turmush tarzi va madaniy hayoti Movarounnahrda nisbatan yuksakroq edi. Ammo mamlakatning siyosiy hayotida kuchayib borayotgan keskinlik ichki munosabatlarda tobora ta'siri ortib borayotgan Dashtiqipchoqlik o'zbeklarning Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga olishini hamda temuriylar sulolasining zaiflashuvini yanada tezlashtirdi.

TEMURIYLAR HARBIY SAN'ATI — jahon harbiy san'ati rivojiga *Amir Temur* va uning avlodlari, xususan, *Bobur* qo'shgan salmoqli hissa. Bu mutaxassislar, sarkardalar tomonidan haqli ravishda e'tirof etilgan. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish *Sohibqiron* intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. *Amir Temur* va temuriylar armiyasi chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham askar to'plagan. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. *Sohibqiron* Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o't sochar qurol — to'p(ra'd)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzhan, farangi, qozon va hakoza) keng yoyildi. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. *Amir Temur* jahon harbiy ish tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida an'anaviy 5 bo'lakdan farqli

ravishda 7 qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik *To'xtamish, Shayboniyxon* singari sarkardalar tomonidan o'zlashtirilgan. *Ibn Arabshohning* guvohlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan. Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman mudofaasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarning uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib, qishloq, shahar, tuman, viloyatlarni birin-ketin zabt etish, dushmani batamom yakson etgungacha ta'qib qilish, taslim bo'lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va temuriylarga ko'plab zafarlar olib kelgan. Taktika jihatdan *Amir Temur* armiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va choralar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O'nlik, yuzlik, minglik va tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy bosh qo'mondon mas'ul hisoblangan. Sohibqironning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri — jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va, o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — qunbulning joriy etilishi bo'lgan. Bunday yangi harbiy qism *Aleksandr, Gannibal, Chingizxon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix* kabi atoqli sarkardalar qo'shinida bo'lmagan. *Shayboniyxon* armiyasida bunday qism mavjud edi va u to'lg'ama atamasi bilan nomlangan. Qo'shin to'plash haqida maxsus buyruq (tunqol) e'lon qilingach, hukmdor tomonidan tuzilgan ro'yxatga binoan jangchilar ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan to'planish yeriga yetib kelgan. Har bir askarga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bitta qalqon, bitta qo'shimcha ot, yarim man og'irligida arqon, bir dona pishiq teri xalta va bitta qozon ajratilgan. Har 10 jangchi bir chodir, 2 belkurak, bir kerki, bitta o'roq, bir arra, bir tessa, bitta bolta va 100 dona nina olib yurishi shart hisoblangan. Sara jangchilarning har 5 tasi bitta chodirga joylashgan. O'nbegining alohida chodiri va 5 ta qo'shimcha oti bo'lgan. Yuzbegiga ham alohida chodir va 10 ta qo'shimcha ot berilgan. Mingbegi chodirdan tashqari soyabon bilan ham ta'minlangan. Sohibqiron armiyasining turli bo'linma va qismlariga 313 bek boshchilik qilgan. Ulardan dastlabki 100 tasi o'nbegilik, ikkinchi 100 tasi yuzbegilik, uchinchi 100 tasi mingbegilik lavozimlarini egallagan. Diviziya — tumanlarga Amir Temurning farzandlari, nabiralari va nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Yetarli miqdorda qo'shin to'plangach, u ko'rikdan o'tkazilgan. Temuriylar davrida yurish yoki jangdan oldin lashkarni ko'rikdan o'tkazib, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash izchillikka

aylangan. Qo'shinning jangovar holatini nazardan o'tkazish imtihon qilish usuli sifatida e'tirof etilgan ovgart (ov uyushtirish)dan unumli foydalanilgan. Temuriylar harbiy yurishlarga ko'proq ko'klam, yoz va kuz mavsumlarida o'tlanishni ma'qul bilganlar. Safar qoidasiga ko'ra, har bir sarkarda o'z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo'linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo'shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to'silgan, xandaqlar bilan ihota qilingan, soqchi bo'linmalar tomonidan qo'riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, qismning o'z paroli — o'ron belgilangan. Armiya safar chog'ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang'lay (hiravul)(avangard), barang'ar, juvang'ar, qo'l(markaz), chag'davul (arergard) yurgan. Qo'shin ketidan o'g'ruq (oboz) peshma-pesh kelgan. Oliy bosh qo'mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo'shin qismlarini joylashtirishga qulay bo'lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo'lishi hamda jang vaqtida quyosh nurining askarlar ko'ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug'lar bilan bezatilgan oliy qo'mondon borgohi balandlikka o'rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, *Amir Temurning* 12 ming kishilik qo'shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan mashg'ul bo'lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari — barang'ar hiravuli va juvang'ar hiravuli madadida asosiy ilg'or qism — mang'lay jangga kirgan. Mang'lay ortidan barang'ar hamda juvang'arning qolgan 2 bo'laki — chapavul va shag'avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmani mag'lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo'mondon (amir ul-umaro) boshchiligidagi markaz (qo'l)(g'o'l) hal qiluvchi hujumga tashlangan: Sohibqiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo'lgan: qo'shin markazi 40 bo'luk — polkka taqsimlangan va Oliy bosh qo'mondonga itoat qilgan. Ushbu bo'luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo'luki safning birinchi qatorida, qolgan 28 bo'luki ikkinchi va 3-qatorlarda joylashgan. Qirq bo'lukning o'ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so'l tarafi oldida qarindoshlar va ittifoqchilar qismlari saf tortgan. ikkinchi qatorning barang'arida 6 bo'luk o'z ilg'ori — hiravul bilan o'rin egallagan. Ayni shu miqdordagi bo'luk va hiravulga juvang'ar ham ega bo'lgan. ikkinchi qator barang'ari va juvang'ari oldida yuqoridagi tartibda birinchi qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or — mang'lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo'lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo'luk armiyani qo'qqisdan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan: Bobur qo'shini dastlab an'anaviy 5 qismdan tashkil etilgan holda harakat qilgan. Keyinchalik bu jangovar tartibga jiddiy o'zgartirishlar kiritilgan, markaz

(g'ol) kuchaytirilgan. Markaz o'ng qo'l va so'l qo'lga taqsimlangan hamda o'ng yon va so'l yondan iborat xossa tobin oldida birinchi qator vazifasida harakat qilgan. Xossa tobin o'ng va so'ldan tarkib topgan, 3-qator vazifasini o'tagan shaxsiy gvardiya bo'y oldidan joy olgan. Saralangan askarlardan tuzilgan xossa tobin markaz (g'ol)dan kuchsizroq, bo'ydan esa kuchliroq hisoblangan: Temuriylarga ko'plab zafarlar keltirgan bu harbiy tartib keyingi davrlarda Shayboniylar, Ashtarxoniyalar va O'rta Osiyo xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) davrida ancha o'zgarishlarga duch kelgan.

TUMAN OG'O MAJMUASI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XIV-XV asrlar). Shohizinda ansambli tarkibida. Majmua *Amir Temurning* xotini *Tuman og'o begim* nomi bilan bog'langan. Tuman og'o majmuasi maqbara, masjid, hujralar va chortoqdan iborat, turli davrlarda bunyod etilgan. Bezaklari XV a. boshlarida ishlanib, uning yaxlitligini ta'minlagan. Maqbara xochsimon tarhli, moviy gumbazli, poygumbazi baland qilib qurilgan. Izorasi yorqin yashil rangli, 6 qirrali koshin g'ishtlar bilan yakunlangan, tilla halli qilib pardoqlangan. Tarzi o'yama koshin, islimiy va girih naqshlar bilan bezatilgan, yozuvlar bilan to'ldirilgan. Yozuvlarni «suls» xatida usta *Shayx Muhammad ibn Hoji Bandgir at-Tug'ro Tabriziy* bajargan. Ichki bezagida ko'k, oq va qizil rangli naqshlar manzarali rasmlar bilan uyg'unlashtirilgan. Maqbaraning janubida 3 gumbazli masjid joylashgan. Uning mehrobi yorqin rangli parchin bilan qoplangan. Shohizinda ansamblining yuqori guruhida joylashgan ushbu yodgorliklarga yuqori chortoq orqali kiriladi. Chortoqning ichki gumbazi muqarnas kosachalar bilan to'ldirilgan. Peshtog'i g'isht va yig'ma koshin bilan qoplangan. Hujraga kiraverishdagi yozuvda masjidga amir *Muso qizi Tuman og'o* asos solganligi qayd qilingan. Umumiy tarhi 5,7S6 m.

TURKAN OG'O MAQBARASI, SHODIMULK OG'O MAQBARASI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (1372). Shohizinda ansambli tarkibida. *Amir Temurning* opasi *Turkan og'o* vafot etgan qizi *Shodimulk og'o* (1370-71)ga atab qurdirgan. 1383ilda *Turkan og'oning* o'zi ham qizi yoniga dafn etilgan. Maqbara (8,65x9,85 m) bir xonali, gumbazi qobirg'ali, tashqi tomonlari bezaksiz. Peshtog'i va ichki tomoni sirkori g'ishtchalar, o'ymakor sirli parchin bezaklari feruza rangda nafis bezatilgan. Ichkarisidagi izora va namoyonlari, gumbazi serhasham bezaklarga boy. Shipi 8 bo'lakka bo'linib, 8 qirrali yulduzchalar ichi naqshlar bilan to'ldirilgan va har biriga alohida turunj ishlangan. Muqarnaslar yuzasi va peshtog ustunida samarqandlik Shamsiddin, Badriddin va buxorolik Zayniddin ustalarning nomlari yozilgan. Maqbara 1954-yilda ilmiy o'rganilib, ta'mirlash ishlari olib borilgan. Maqbarada XIV-XV asrlardagi xalq ustalarining me'morlik va naqqoshlikda erishgan yutuqlari yuksak mahorat ila aks etgan.

ULUG'BEK ASTRONOMIK MAKTABI— *Ulug'bek* rahbarligida Samarqandda barpo etilgan ilmiy dargoh. Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida *Ulug'bek* 1424-1428-yillarda shahar yaqinida Obirahmat anhuri bo'yida rasadxona qurdirtdi. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun hujralar

quriladi. Uning etagida esa o'zi uchun *Ulug'bek* ikkita chorbog' barpo etadi. Ulardan biri *Bog'imaydon*, ikkinchisi esa *Chinnixona* nomi bilan shuhrat topadi. *Ulug'bek* faol ishtiroki bilan va uning bevosita rahbarligi ostida rasadxona Movarounnahr, xususan uning poytaxti Samarqandda zamonasining ancha boy kutubxonasiga ega bo'lgan va o'sha zamon sharoitiga nisbatan mukammal astronomic asbob va uskunalari bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgo'ha aylanadi. Rasadxonada *Ulug'bek* bilan birga mashhur matematik va astronomlardan zamondoshlari o'rtasida "Aflotuni zamon" deb nom olgan *Salohiddin Muso ibn Muhammad* — *Qozizoda Rumi*, *G'iyosiddin Jamshid Koshiy*, "o'z davrining *Ptolomeyi*" nomi bilan shuhrat qozongan *Aluddin Ali ibn Muhammad* — *Ali Qushchi* va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, *Ulug'bek* Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratadi. Samarqandda *Ulug'bek* rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda olumshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobeta (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarining Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. *Ulug'bek* maktabining erishgan eng muhim va ajoyib muvaffaqiyatlardan biri matematika sohasida bo'ldi. Ular tomonidan 3-darajali algebraik tenglama yechilib, 1 darajali yoyning sinusi aniqlandi. O'sha davrda aniq fanlarning rivojlanishi, ana shu sohaga oid ajoyib asarlarning yozilishi va nihoyat buyuk astronom va matematiklar bilan hamfikir hamda yaqin munosabatlarda bo'lish *Ulug'bek* maktabi ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishini belgilab berdi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalarida asosida matematika va astronomiya oid qator nodir asarlar yaratildi. Garchi bu asarlarning ko'pi bizning davrimizgacha yetib kelmagan bo'lsa-da, ammo bizgacha saqlanib qolgan qo'lyozmalarning ozgina qismining o'zi ham o'sha davrda Samarqand astronomik maktabi erishgan yutuqlardan va jahon astronomiya fani rivojiga bu ilmgo'ha namoyandalari qo'shgan ulkan hissadan guvohlik beradi. Samarqand astronomik maktabining ko'zga ko'ringan nomayandalardan biri *G'iyosuddin Jamshiddin*, u astronomiyaga oid: "*Ziji haqoni*", "*Bog'lar sayri*" va "*Osmon narvoni*", matematikaga bag'ishlangan: "*Xorda va sinuslar haqida risola*", "*Hisob kaliti*" va "*Doira haqida risola*" kabi asarlarini yozadi. Bu borada *Qozizoda Rumi*ning "*Arifmetikaga oid risola*", "*Astronomiyaning mohiyatiga izohlar*", "*Shakllar asosiga sharh*" va "*Sinos haqida risola*" nomli asarlari, ayniqsa diqqatga sazovordir. Ushbu maktabning yana bir iste'dodli namoyandasi *Ulug'bek*ning shogirdi *Ali Qushchi* bo'lib, u astronomiya, arifmetika va algebra oid 6 ta risolaning muallifidir. Samarqand astronomik maktab namoyandalari asoslari va matematik jadvallariga o'sha davr olimlaridan *Qozizoda Rumi*ning nabirasi *Mirim Chalabiy* va *Abul Ali Berjandiylar* tomonidan yozilgan sharhiy asarlar, ayniqsa muhim ilmiy ahamiyatga ega. XV asr samarqandlik

astronomlar o'z asarlarida dunyoning garchi yapaloq (geosentrik) deb ko'rsatsalar-da, ammo yerning yumoloq (geliosentrik)ligi ular uchun yot bo'lmagan. O'z ustida muntazam ishlash va bilimlarning tinmay chuqurlashtirish natijasida Ulug'bek o'zining ko'pgina zamondoshlaridan o'zib ketdi. Samarqand rasadxonasida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar samarasi, Sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamlashtirgan va uni yangi dalil-isbotlar bilan boyitgan shoh asar *Ulug'bekning "Ziji jadidiy Ko'ragoniy"* ("*Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali*") nomli kitobidir. Ulug'bekning astronomik maktabini o'z davrining o'ziga xos akademiyasi deb atash mumkin. Ulug'bek tevaragiga uyushgan 100 dan ortiq olimlarni o'z bag'rida yetishtirgan, nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o'tagan. "Samarqand akademiyasi" dastavval bundan 225 yil muqaddam mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778) tomonidan e'tirof etilgan. "Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiya asos soldi, Yer kurasining o'lchashga buyurdi va astronomik jadvalarini tuzishda ishtirok etdi" deb yozgan edi Volter bu haqda. Darhaqiqat, "Samarqand akademiyasi" Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganchda tashkil topgan, o'ziga xos akademiya — "Donishmandlar uyidan" keyingi ikkinchi "Dor ul-ilm" edi. Bu dor ul-ilmning poydevori bo'lgan Ulug'bekning astronomik maktabi O'rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

ULUG'BEK MADRASASI — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (1417-yil). Ulug'bek qurdirgan 3 madrasaning eng qadimiysi. *Abdullaxon II* davrida katta ta'mir ishlari olib borilgan (1586). Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtog'ida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Miyonsaroy ichki gumbazi 12 qirrali, g'isht-dan to'rsimon shakl qilinib, oralariga ko'k va havo rang koshin terilgan. Hovli (26S25 m) atrofini 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli 2 ayvon egallagan. Hovlining shim. va jan. tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Madrasa (53S41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo'j'jaz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos. Masjid (15,5S5,5 m) va darsxona (5,5S5,5 m) gumbazli, miyonsaroyning 2 yon tomonida joylashgan. Miyonsaroyning ikkinchi qavatida kutubxona bor. *Xo'ja Sa'd Jo'yboriy* tomonidan tashqi peshtog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib (1586), peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta *Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy* nomi saqlangan. *Abdurazzoq Samarqandiy*ning xabar qilishicha, *Ulug'bek* (1419-yil 28-noyabrda) madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in'omlar ulashgan. Bizgacha Ulug'bek madrasasi ancha o'zgargan holda yetib kelgan. XVI-XVII asrlarda, 1950-70 va 1990-96-yillarda ta'mirlangan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p. Ayvon ustunlari

zarhallangan. Eshik tabaqalariga arab tilida «*Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir*», degan ibora o'yib yozilgan.

ULUG'BEK MADRASASI — G'ijduvon (Buxoro viloyati)dagi me'moriy yodgorlik (1433-yil). Ulug'bek Samarqand va Buxoroda qurdirgan madrasalardan eng kichik va soddarog'i. Madrasa bir qavatli, murabba tarhli (33S30 m), masjid, darsxona va yotoqxonadan iborat. Peshtog'i chuqur ravoqli. O'rtada miyonsaroy, 2 yonida masjid va darsxona (8S4,6 m), burchaklarida guldasta joylashgan. Miyonsaroy to'ridagi eshikdan hovliga chiqiladi. Hovli (15S13 m)ning 2 yonida 5 ta hujra bo'lib, uning 4 tasi murabba tarhli, tomi qubbali. Bizgacha Ulug'bek madrasasining bosh tarzi (XV asr), unga tutashgan ayvon va minora saqlangan. Bosh tarzida *Ulug'bek* nomi va qurilgan sanasi yozilgan. Madrasaning g'arbida shayx *Abduxoliq G'ijduvoniy* qabri joylashgan. *G'ijduvoniy*ning 890 yilligi (1993-yil) munosabati bilan Ulug'bek madrasasi ta'mirlangan. Bosh tarzi peshtog'i yoniga ustunli, tekis tomli ayvon (bostirma) qurilib, ichi koshin bilan bezatilgan, peshtoq yonlaridagi hujralarga bosh tarzidan kiriladigan eshik, tobadonlarga ganchkori panjaralar o'rnatilgan. Serhasham naqshinkori bezaklari tiklangan. G'ijduvoniy daxmasi ustiga 2003-yili tomi ustunli yog'och o'ymakori gumbaz bilan yopilgan, ayvon qurildi. Daxma bezaklari qaytadan tiklandi. Madrasa oldi, daxma va yangi qurilgan masjid joylashgan hudud zamonaviy talablarga mos qilib obodonlashtirildi.

ULUG'BEK MADRASASI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (1417-1422-yillar). Registon ansamblining g'arbida joylashgan. 2 qavatli, to'g'ri to'rtburchak tarhli (56S81 m). Bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq (bal. 16,5 m), uning 2 yonida guldastalar (bal. 32 m) bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari o'ziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharafalar bilan yakunlangan. Peshtoq ravog'i cheti morpech shaklida, tokchasidagi namoyonlar o'ziga xos uslubda pardozlangan. Peshtog'i, guldastasi va tashqi devorlarida girih naqshining turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorug'lik tushib turadi. Moviy va ko'k koshin hamda sopol g'ishtlar vositasidageometrik naqshlar bilan bezatilgan devor sathi yozuvlar bilan o'zaro uyg'unlashib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali chorsi hovli (30S30 m)ga o'tiladi. Hovli atrofi 2 qavatli hujralar (48 ta) bilan o'ralgan, har bir hujra qaznoq, yotoqxonasi, umumiy xonadan iborat. Madrasaning shim. va jan. tarzlari o'rtasida tashqi tomondan alohida peshtoqlar bor. Madrasaning 4 tomonini darsxona va ayvon egallagan. Masjid (22S8 m) jan.-sharqiy tomonga cho'zilgan. Tashqi to'rt burchagida 4 ta baland minora bor. Xonaqoh va ba'zi hujralar ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardozlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi. Vayron bo'lgan ikkinchi qavati, qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi ko'chib ketgan bezaklar qayta tiklangan (1936), V. Shuxov va M. Mauerlar loyihasi asosida shim.-sharqiy minorasi ta'mirlangan (1932). E. Gendel qiyshaygan minorani o'z holiga keltirgan (1965). Ulug'bek madrasasi me'moriy shakli, tuzilishi jihatidan O'rta Osiyo me'morligida shu turdagi binolar orasida eng mukammal yuksak san'at namunasi hisoblanadi.

ULUG‘BEK RASADXONASI — Samarqanddagi XV asr me‘morligining nodir namunalari biri, ko‘hna astronomik kuzatuv muassasasi. Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428-29-yilda Ko‘xak (Cho‘ponota) tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalar («Boburnoma»)ga ko‘ra, bal. 30,4 m dan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblari bo‘lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadrantning jan. qismi yer ostida, qolgan qismi shim. tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to‘g‘ri keladi. Rasadxona o‘rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo‘lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari — ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik presessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va b. fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan. Rasadxonada kichik o‘lchamli asboblari: zot-ul-usturlab, zot ul-halqa, zot ul-suqbatayn, zot ashshu‘batayn, shomila, quyosh hamda yulduz soatlari va boshqalar bo‘lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan. Bu ilmiy uskanalarni *Ali ibn Iso Usturlobiy*, *Abu Mahmud Xo‘jandiy* va *usta Ibrohim* kabi mohir asboboz misgar hunarmandlar tomonidan yasalgan. *Mirzo Ulug‘bek*ning eng yirik astronomik asari «*Ziji Ko‘ragoniy*» rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati *Ulug‘bek* taklifi bilan yig‘ilgan qator mashhur olimlar *G‘iyosiddin Koshiy*, *Qozizoda Rumiy*, *Ali Qushchi* va boshqalar nomi bilan bog‘liq. Ulug‘bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yilda *V.L. Vyatkin* rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan. Xususan, bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g‘isht bo‘lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo‘shaloq yoydan iborat ulkan bosh qurilmaning qoldiq qismlari aniqlangan. Uning katta zallari, turli katta-kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozishicha, Ulug‘bek rasadxonasining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona ichiga o‘rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlik bilan o‘rganilgan. Rasadxonada 15 ming jild kitob saqlangan kutubxona ham bo‘lgan. Ichki devorda osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog‘, dengiz, mamlakatlar belgilangan Yer shari tasviri ishlangan. Keyinchalik u qarovsiz qolib, XVI asrda vayron qilingan. Hozir Ulug‘bek rasadxonasidagi katta asbob — kvadrantning yer ostida saqlangan qismi balandligi bilan 11 m keladi. 1964-yil Ulug‘bek rasadxonasi yonida Ulug‘bek muzeyi ochildi. Ulug‘bek rasadxonasining asl ko‘rinishi, ichki tuzilishi, bosh qurilmasi haqida O‘zbekiston va chet el olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

USTA — korxonasi boshlig‘i.

USTURLAB — astronomiya asbobi, astrolyabiya.

VALIAHD — toju-taxt vorisi. Hukmdor tirikligi davrida har ehtimolga qarshi voris tayilab qo‘yardi.

XALFA — 1) o‘rta asrlar ustaxonalarida hunar o‘rganuvchi shogird. Shogirdlik muddatini o‘tagach, usta qo‘lida bir necha yil ishlab, o‘zi usta bo‘lgan; 2) eski maktabda o‘quvchilar yetakchisi, maktabdor domla

(o‘qituvchi) ga dastyor; 3) hunar-kasb o‘rganuvchi shogirdlar boshlig‘i.

“XAMSA” — *Alisher Navoiy*ning 5 dostonidan iborat shoh asari. Bular “*Hayrat ul-abror*” (“Yaxshilar hayrati”), “*Farhod va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Sab‘ayi sayyor*” (“Yeti sayyora”), “*Saddi Iskandariy*” (“Iskandar devori”) dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamkaslikka javob sifatida o‘zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan *Alisher Navoiy* “Xamsa’si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik XV asr islom tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o‘ziga xos qomusi edi.

XAMSACHILIK — Sharq xalqlari adabiyotida dostonnavislik shakllaridan biri; «Xamsa» yozish bilan bog‘liq adabiy an‘ana. *Nizomiy Ganjaviy* asos solgan. Ijodkorlar *Nizomiy* “Panj ganj”ini (“Besh xazina”) tashkil etuvchi “*Mahzan ul-asror*”, “*Xusrav va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Haft paykar*”, “*Iskandarnoma*” dostonlarining mavzui, mazmuni, qahramonlari, vazni, joylashish tartibini saqlagan holda mustaqil asar yaratganlar. Bu badiiy ijodda katta mahorat maktabi sanalgan. Xamsa dostonlarining har biri mavzui, qahramonlari, hatto qo‘yilgan masalalarigacha aniqlikka ega bo‘lib, bu janrda ijod qilgan yozuvchi o‘z mahoratini ana shu an‘anaviy vositalar yordamida ko‘rsatishi, shu orqali o‘z davri ideallarini ifodalashi lozim bo‘lgan. An‘anaga ko‘ra, xamsadagi birinchi dostonning asosini falsafiy-axloqiy masalalar tashkil etgan. ikkinchi 3-dostonlar sevgi orqali aks ettirilgan ijtimoiy-ma‘naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. 4-doston sarguzasht asar bo‘lib, unda adolatli shoh masalasi ko‘tarilgan. So‘nggi doston avvalgilarining xulosasi, umumlashmasi bo‘lib, unda ijodkorning ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari aks etgan. Sharqda badiiy qimmat turlicha bo‘lgan 50 dan ortiq xamsalar vujudga kelgan. Xamsaning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Lekin bizgacha bu asarlarning hammasi ham yetib kelgan emas. Xamsa dostonlaridan faqat birigagina javob yozib, yuksak darajada shuhrat qozongan ijodkorlar ham bo‘lgan (Fuzuliy, “*Layli va Majnun*”). Xamsachilikda eng ko‘p dostonlar “*Layli va Majnun*” mavzuida yaratilgan. Keyingi o‘rinlarda tegishli ravishda “*Xusrav va Shirin*”, “*Mahzan ul-asror*”, “*Iskandarnoma*”, “*Haft paykar*” mavzuidagi dostonlar turadi. Xamsanavislar o‘z asarlarida epik-romanik, qahramonlik yoki sufiylik mavzuini birinchi o‘ringa qo‘yganlar. *Nizomiy Ganjaviy* “Xamsa’sining mazmuni va mavzulari turli xalqlar badiiy adabiyotlariga ta’sir etib, XIII-XX asrlar mobaynida 600 dan ortiq asar yaratilgan. *Nizomiy* “Xamsa’sini fors tilida yozgan. Boshqa xalqlar xamsachilik an‘anasini o‘z tillarida davom ettirganlar. Turkiy, urdu, pushtu, kurd, arman va boshqa tillarda xamsalar yaratilgan. Davrlar o‘tishi bilan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoitda belgilangan mavzu, mazmuni, obrazlarga ega bo‘lgan “Xamsa” dostonlarining mazmuni, tarkibi o‘zgarib borgan. Xamsachilik an‘anasi Kavkazorti, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston mamlakatlarida davom ettirilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida xamsachilikka qiziqish XIII-XIV asrlardan boshlangan. *Qutb Xorazmiy* *Nizomiy*ning “*Xusrav va Shirin*” dostonini, *Haydar Xorazmiy* she‘riy

shaklini saqlagan holda ayrim o'zgarishlar bilan "*Mahzan ul-asror*" dostonini turkiy tilga tarjima qilgan. Turkiy (o'zbek) tilida "*Hayrat ul-abror*", "*Farhod va Shirin*", "*Layli va Majnun*", "*Sab' ai sayyor*", "*Saddi Iskandariy*" nomlari bilan 5 doston — "Xamsa" yaratgan *Alisher Navoiy* xamsachilik taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan va xamsachilikni turkiy xalqlar adabiyotida *Nizomiy* darajasiga ko'tardi. Bunda *Navoiy* o'zigacha bo'lgan buyuk xamsanavislar — *Nizomiy Ganjaviy*, *Amir Xusrav Dehlaviy* va *Abdurahmon Jomiy*larni o'ziga ustoz deb bildi va ularning X.dagi g'oyaviy-badiiy an'alarini mahorat bilan rivojlantirdi. Xamsachilikni yuqori pog'onaga olib chiqdi. *Navoiy* xamsachilikda an'anaviy obrazlar hisoblangan *Farhod*, *Shirin*, *Dilorom*, *Layli*, *Majnun*, shohlardan *Xusrav*, *Bahrom*, *Iskandar* obrazlarini yangicha, o'z davri adabiyotining insonparvarlik g'oyalari nuqtai nazaridan talqin etdi. *Navoiy* "Xamsa'si turli xalqlar dostonchiligining keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilgan. O'zbek shoiri *Xoja* ("Maqsad ul-atvor"), turk shoiri *Lomiy* va uyg'ur shoiri *Nizoriy* ("Farhod va Shirin"), ozarbayjon shoiri *Fuzuliy* ("Layli va Majnun") o'zlarining dostonlarini *Navoiy*ning "Xamsa" dostonlari ta'sirida yaratganlar. *Navoiy* "Xamsa'si ayni vaqtda o'zbek adabiy tilining boyligi, mukammal va rang-barangligini ham namoyish etadi.

"XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN" — *Alisher Navoiy* tomonidan uning piri va ustoz *Abdurahmon Jomiy* vafoti munosabati bilan 1494-yilda yozilgan, adabiyotning xotira turiga oid asar nomi. «Xamsat ul-mutahayyirin» iborasi «hayratlanarli beshlik» ma'nosida. *Jomiy* 14-asrning 40-yillari oxiri va 50-yillarida Samarqandda Ulug'bek madrasasida, so'ng boshqa madrasalarda o'qib yurar ekan, darslarni yaxshi o'zlashtirishda u boshliq 5 talaba «Xamsat ul-mutahayyirin» deb nom chiqargan. «Xamsat ul-mutahayyirin» deganda odatda 5 yorug' yulduz (aniqrog'i, sayyoralaridan *Atorud*, *Zuhra*, *Mirrix*, *Mushtariy*, *Zuhul*) ko'zda tutiladi. Bunda *Navoiy* o'sha iboradan foydalangan. «Xamsat ul-mutahayyirin» risolasi ham 5 qismdan tashkil topgan bo'lib, muqaddima, 3 maqolat hamda xotimadan iborat.

XATTI HIROTIY — xattotlik uslubi, arab mumtoz xat uslublaridan biri. XIV asrda shakllangan, nazariy asoschisi *Mir Ali Tabriziy*. Nasta'liq uslubi ayniqsa *Sulton Ali* boshliq *Hiro*t xatolari faoliyati bilan keng tarqaladi va o'z takomilining yuksak bosqichiga ko'tariladi. "*Xatti Hirotiy*" deb shuhrat topgan bu uslub qator Sharq o'lklarida keng tarqalgan.

XATTOTLIK (arabcha — husnixat yozuvchi) — yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobalarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar huzurida guruh bo'lib ishlagan. Jumladan, temuriy shahzoda *Boysung'ur Mirzo* (1397-1433) *Hiro*t tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va b. ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar

tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan. Xattotlik san'atiga bag'ishlangan ko'plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muhaqqaq, nasta'liq, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riqo, riq'iy) mavjudligi haqida darak beradi. O'rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari bo'lgan. Qadimiy yozuvlardan bo'lgan kufiy yozuvi ko'pgina me'moriy va boshqa yodgorlik obidalarining bezagida saqlanib qolgan. Jumladan, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur'oni ham ana shu kufiyda ko'chirilgan. Qur'on ko'chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari ham bo'lgan. XV asrdan kitob ko'chirish (fors, eski o'zbek tillari)da nasta'liq xati rasm bo'lgan. Xattotlik O'rta Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so'nggi sulolalar (ashtarxoniyalar, mang'itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. *Amir Temur* davrida *Mavlono Shamsuddin Munshiy*, sangtarosh va xattot *Oltun* juda mashhur bo'lgan. *Alisher Navoiy*ning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik san'atkorlar (*Sultonali Mashhadiy*, *Abduljamil Kotib*, *Darvesh Muhammad Toqiy* va boshqalar) xattotlikda samarali ijod qilgan. «Xattotlar sultoni» *Sultonali Mashhadiy*, *Mir Ali Tabriziy* va boshqalar nasta'liq xatini san'at darajasiga ko'targan. Temuriy shahzodalar (*Ibrohim bin Shohruh*, *Boysung'ur Mirzo*, *Badiuzzamon Mirzo* va boshqalar) ham xattotlikka homiylik qilish bilan birga o'zlari bu san'at turi bilan shug'ullangan; *Zahiriddin Muhammad Bobur* esa yangi xat va alifbo «Xatti Boburiy» ixtirochisidir. Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlar keng qo'llanilgan. Shayboniylardan *Muhammad Shayboniyxon* va *Ubaydullaxon* xattotlik bilan shaxsan shug'ullangan va nasx xatida yuksak mahorat bilan yozgan. XVI a. Movarounnahr xattotlik maktabini yuzaga kelishida *Mir Ali Hiraviy*ning hayoti va ijodi alohida o'rin tutadi. Bosmaxona paydo bo'lguniga qadar kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Bu borada *Boysung'ur Mirzo*, *Alisher Navoiy*, *Muhammad Rahimxon II* (Feruz) va boshqalarning faoliyatlari diqqatga sazovor. XX asrda yirik kutubxonalarda xattotlar qo'lyozma kitoblar nusxasini ko'paytirish bilan shug'ullandilar.

"XAZOYIN UL-MAONIY" («Ma'nolar xazinasi») — *Alisher Navoiy*ning asari. 1491-96-yillarda tartib berilgan. «Xazoyin ul-maoniy» — "*G'aroyib us-sig'ar*" ("Yoshlik g'aroyibotlari"), "*Navodir ush-shabob*" ["Yigitlik nodirlik (she'r)lari"], "*Badoe' ul-vasat*" ("O'rta yosh badialari") va "*Favoyid ul-kibor*" ("Keksalik foydalari") nomli devonlardan tarkib topgan mukammal yig'ma devon. Xalq orasida "Chor devon" deb ham yuritiladi. "Xazoyin ul-maoniy"ning tuzilish tarixini *Alisher Navoiy*ning o'zi "*Xamsat ul-mutahay-yirin*", "*Munshaot*", "*Muhokamat ul-lug'atayn*", ayniqsa, "Xazoyin ul-maoniy"ga maxsus yozgan «Debocha»sida bayon etgan. Ushbu asarlarda yozilishicha, *Abdurahmon Jomiy* o'z she'rlarini to'plab (1491-92), 3 devon tuzgan va *Navoiy*ga taqdim etgan. *Navoiy* bu devonlarning aralashib ketmasligi uchun ularga maxsus nomlar qo'yishini maslahat bergan. *Navoiy*

maslahati *Jomiyga* ma'qul tushgan va u devonlarini "*Fotihat ush-shabob*" ("Yoshlikning boshlanishi"), "*Vositat ul-iqd*" ("Bog'lanish vositalari"), "*Xotimat ul-hayot*" ("Hayot xotimasi") kabi nomlar bilan atab, umumiy "*Debocha*" yozgan hamda bu fikrning *Navoiydan* chiqqanligini alohida ta'kidlagan. Shundan so'ng, *Navoiy* ham ustozlari bilan barcha lirik she'rlarini to'plab "*Xazoyin ul-maoniy*"ni tuzishga kirishgan. "*Xazoyin ul-maoniy*"ning yuzaga kelishi *Jomiy* va *Navoiy* do'stligining, o'zbek va tojik adabiyotlari o'rtasidagi aloqalarning yorqin dalilidir. "*Xazoyin ul-maoniy*" 45 ming misraga yaqin, 3130 dan ortiq lirik she'rlardan tuzilgan. Unga shoirning 7-8 yoshidan boshlab umrining oxiriga qadar yozgan o'zbekcha she'rlari kiritilgan. "*Xazoyin ul-maoniy*" o'z davridagi ma'naviy hayotning o'ziga xos qomusi bo'lib, shoir o'z she'rlarida hayotni, insonni, uning olijanob tuyg'u va intilishlarini ulug'lagan. "*Xazoyin ul-maoniy*"ni yaratish uchun shoir o'zining butun umrini sarflagan. *Alisher Navoiy* "*Xazoyin ul-maoniy*" bilan o'zbek she'riyatining janr va mavzu doirasini yanada boyitdi. O'zbek she'riyatida biron ijodkor bunday mukammal devon tuzish darajasiga ko'tarila olmagan. Shoirning bu devoni qo'lyozma nusxalarda to'la va qisqartirilgan holda bir qancha mamlakatlarda qayta-qayta ko'chirilgan va ko'p bor nashr etilgan.

XOJA AHMAD MAQBARASI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XIV a. 60-yillari); Shohizinda xazirasining yuqori hovlisi (to'ri)da joylashgan. Maqbara peshtoq-gumbazli, to'rtburchak tarhli (7,6S3 m) xonadan iborat bo'lib, xona o'rtasida 4 ta nomsiz sag'ana bo'lgan. Bino ichi, gumbaz osti tuzilishi XII a. me'morligi uslubini eslatadi. Old tomondagi peshtog'i rang-li sirkori koshinlar bilan bezatilgan, suls va kufiy xatidagi kitobalar va bezaklar mahorat bilan uyg'unlashtirilgan. O'ymakori bezaklar orasida "... amali usta Faxr Ali..." yozuvi saqlangan. Xoja Ahmad nomi bitilgan yozuv qismi saqlanmagan. Tamg'och Bug'roxon vaqfnomasi shu manzilda Ahmad muqassis — qissago'y maqbarasi borligini qayd qilgan.

XOJAAHROR MAJMUASI — Samarqand atrofidagi me'moriy yodgorlik (XV-XX asrlar); Samarqand tumanidagi Ulug'bek qishlog'i hududida. Xoja Ahror qabri yaqinida turli davrlarda bunyod etilgan Nodir Devonbegi madrasasi, ikki ayvon, masjid, minora hamda hovuzli hovlidan iborat majmua. Majmuaning markazi 8 yoqli hovuz, uning jan.da Xoja Ahrorning oq marmarli qabrtoshi bor, qabrtoshiga arab yozuvida husnixat bilan marsiya yozilgan. Shimolda Nodir Devonbegi madrasasi, to'rtburchak hovlining atrofida hujralar joylashgan; hovlining g'arbida ayvon bor, bezaklari XVII asrga xos, marmar kursili ustunlar boshasi muqarnasli, shifti 3 qismga bo'linib, yulduzsimon shakldagi hovuzaklar ishlangan. Ikkinchi murabba tarhli ayvonning sharqiy tomoni ochiq, qolgan uch tomoni qalin devor bilan o'ralgan, devorlariga chuqur ravoqlar ishlangan; yon tomonidan masjidga kiriladi. Masjid sinchli bino bo'lib, to'g'ri to'rtburchak tarhli, yog'och ustun-to'sinli, shifti vassali, nafis naqshlar bilan serhasham bezatilgan. Masjid izorasiga koshinkori naqshlar ishlangan, mehrob va ravoqlari muqarnaslar bilan to'ldirilgan, yuqoridagi hoshiya qatorlar qirma usulida bajarilgan. Hujralar hovlining shim.da

joylashgan, sodda, bezaksiz. Hovuz yonida tagi 6 qirrali minora qad ko'targan. Ta'mir vaqtida tomi tunuka bilan yopilgan.

XONASHUMOR — har xonadondan olinadigan jonbosh soligi.

XORO — tovlanuvchi yaltiroq ipak mato.

XUROFIY — soxta, uydirma, asossiz.

XUSRAVIYA — Alisher Navoiy tomonidan Marv shahrida bunyod etilgan madrasa.

YASSAVIY MAJMUASI, XOJA AHMAD YASSAVIY ME'MORIY MAJMUASI — Turkiston (qadimgi Yassi) shahridagi me'moriy yodgorlik (1389-95); Qozog'iston hududida. Dastlab *Xoja Ahmad Yassaviy* qabri ustida kichik maqbara qurilgan (XII a.). Keyin *Amir Temur* tomonidan ulkan mahobatli maqbara majmui bunyod etilgan, bino loyihasini ishlab chiqishda uning o'zi shaxsan ishtirok etgan. Qurilishga devonning xayriya ishlari boshlig'i Mavlono Ubaydulla Sadr bosh etib tayinlangan. Qurilish qisqa muddatda zudlik bilan boshlanib jadal qurila boshlangan, biroq Amir Temurning vafoti (1405)dan so'ng qurilish to'xtab qolgan. Bino oldidagi ulkan peshtoqni Buxoro hukmdori *Abdullaxon II* (1583-98) tiklashga harakat qilgan. Yassaviy maqbarasi ko'lami jihatdan o'sha davrlarda bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Shahrizabdagi Oqsaroy va Dor us-Siyodat majmuiga tenglashadi. Yassaviy maqbarasi janubdan shim.ga cho'zilgan to'rtburchak tarhli (46,5x65,5 m), peshtoq-gumbazli; mujassamot markazida jamoatxona va uning atrofida go'rxona, masjid, katta va kichik oqsaroy, kitobxona, halimxona, quduqxon va ikki qavatli hujralar (jami 35 dan ortiq xonalar) joylashgan; majmuaning jan-g'arb tomonidagi yer osti chillaxonasi Yassaviy davrida paydo bo'lgan, keyingi davrlarda qayta tuzatilgan. Majmua tashqi devorlarining qalinligi 1,8-2 m, jamoatxona devorining qalinligi 3 m. Mahobatli bino jamoatxona bilan bog'langan 2 qavatli 8 yo'lak (dahliz)lar bilan simmetrik tarzda 8 qismga bo'lingan (yo'laklardan 2 tasining boshi berk); go'rxonaga jamoatxona bilan bog'lanmagan alohida yo'lak orqali kiriladi, kirish eshigi tepasidagi tosh lavhaga majmua *Amir Temur* buyrug'iga binoan bunyod etilgani qayd etilgan. Majmuaning bosh tarzidagi ulkan peshtoq (kengligi 50 m, ravog'iniki 18,2 m)ning ikki yoniga guldastalar, orqa burchaklariga ustungo'shalar ishlangan, peshtoq orqali jamoatxonaga kiriladi, jamoatxona (bal. 37,5 m) katta gumbaz (diametri 18,2 m) bilan yopilgan; xona o'rtasiga qirq quloqli nazir-niyoz qozoni o'rnatilgan (usta *Abdulaziz ibn Sharafiddin* ishi), bu yerda haftada 2 marta kambag'al bechoralar va musofirlarga halim tortilgan. Jamoatxona to'ridagi go'rxona (7,15S7,15 m)da yashil yashma toshidan ishlangan sag'ana (3,25S2,2 m) bo'lib, unda o'yima naqshlar va kitobalar saqlangan. Go'rxona va masjid qo'shqavatli gumbaz bilan yopilgan: go'rxonaning tashqi gumbazi (diametri 10 m, bal. 21 m) 52 ta qovurg'ali bo'lib, sirkori koshinlar bilan kitobalar bitilgan baland poygumbazga o'rnatilgan, masjid gumbazining poygumbazida 16 ta panjarali darchalari bor, shiftidagi 6 qirrali yulduz shakli xonaga jozibadorlik baxsh etgan, ayniqsa mehrob (3,5S2,5 m) hashamdor bezatilgan. Jamoatxona, go'rxona, masjidning ichki devorlariga ravoqlar

ishlanib, xonalar ichi kengaytirilgan, gumbaz va ravoqlar muqarnaslar bilan to'ldirilgan. Bino ko'lamini uning tashqi bezaklaridagi koshinkori handasiy naqsh va kitobalar ham ta'kidlaydi. Ya.m.ning tashqi devor yuzasi 3 qismga bo'linib, poydevoriga (bal. 1,85 m) koshinkori girih naqshlar, o'rta asosiy qismga yirik handasiy shakllar va yuqori hoshiya (friz) qismiga (bal. 2,62 m) kitobalar ishlangan. Go'rxona va masjid ichkarisi hallangan rangli koshinlar bilan ziynatlangan. Bino eshiklari yog'och o'ymakorligida bezatilgan, metall qismlari rixtagarlik, kandakorlik usulida bajarilgan. Yassaviy maqbarasi bezaklari orasida usta *Safar Hoji Hasan Sheroziy* (1397), *Shams Abd ul-Vahhob Sheroziy*, *Izzatiddin ibn Tojiddin Isfahoniy* nomlari saqlangan. Yassaviy maqbarasida *Ulug'bekning* qizi *Robiya Sulton begim* maqbarasi bunyod etilgan (XV a.). XVI asrda Yassaviy maqbarasiga qo'shimcha binolar qurilgan, majmuaning ayrim xonalaridan go'rxona sifatida foydalanilgan (mas., *Abulxayrxon* va *boshqalar* dafn etilgan). XIX asrda Qo'qon xoni tomonidan majmua atrofidagi hudud g'isht devor bilan o'ralib, qal'aga aylantirilgan. Yassaviy maqbarasi turli davrlarda ilmiy o'rganilgan, ta'mirlangan, poydevori mustahkamlangan. 1975-yilda me'moriy hudud (65 ga)ni himoyalash bosh rejasini qabul qilingan. Yassaviy maqbarasi 1978-yildan muzeyga aylantirilgan.

“ZAFARNOMA”, FATHNOMAYI TEMURIY, TARIXI JAHONGUSHOYI TEMURIY — *Amir Temur* davlati tarixiga bag'ishlab yozilgan asar. *Sharafiddin Ali Yazdiy* tomonidan *Ibroim Sulton* farmoniga ko'ra, 1419-1425-yillarda Sherozda fors tilida yozilgan. “*Zafarnoma*” aslida “*Fathnoma*” yoki “*Fathnomayi Temuriy*” yoki “*Tarixi Jahongushoyi Temuriy*” deb nomlangan bo'lsa-da, *Nizomiddin Shomiyning* “*Zafarnoma*” siga mazmunan yaqinligi tyafayli keyinchalik “*Zafarnoma*” nomi bilan shuhrat topgan. Asar 2 qismga: *Temurdan* oldingi davr tarixidan umumiy tarzda so'zlovchi “*Muqaddima*” va *Temur* davri tarixini yorituvchi asosiy qism “*Zafarnoma*” ga bo'linadi. XV-XVI asrlarda “*Zafarnoma*” qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l bilan: o'zbek tilida shoir *Lutfiy* va fors tilida *Hotifiy* tomonidan kuylangan. XVI asr boshlarida shayboniylardan *Ko'chkhunchixonning* topshirig'iga muvofiq, *Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy* tomonidan “*Zafarnoma*” o'zbek tiliga tarjima qilingan. O'zbekiston mustaqil davlat bo'lishi sharofati bilan temuriylar tarixini haqqoniy yoritish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi.

“ZIJIKO RAGONIY”, “ZIJ JADIDI KO RAGONIY” (“Ko'ragoniy yangi astronomik jadvali”), “Ulug'bek ziji” — Samarqand yaqinidagi rasadxonada *Mirzo Ulug'bek* rahbarligida yaratilgan (1437) ilmiy asar. Ikki bo'limdan (batafsil yozilgan muqaddima va 1018 ta sobita yulduzning jadvalidan) iborat. Muqaddima 4 qismga ajratilgan. Asarning bosh muqaddima qismi astronomiyaning nazariy masalalari, Sharq xalqlaridagi yil hisobi usullari, astronomiyaning amaliyoti, sayyoralarining nazariyasi, hamda astronomiya va astrologiya masalalariga bag'ishlangandir. “*Ziji jadidi Ko'ragoniy*”ning ikkinchi qismi astronomiya va trigometriyaning amaliy masalalariga bag'ishlangan. *Ulug'bek* asarining bu qismi 3-darajali

algebraik tenglama yangi original uslub bilan mufaqqiyatli ravishda hal qilinib, natijada aniqligi milliarddan bir bo'lgan 9 xonali trigometrik jadval tuzilgan. Shuni qayd etish joizki, *Ulug'bekning* astronomik jadvali o'sha zomondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Masalan, falak al-buruj tekisligini xatti istofaga og'maligi *Ulug'bek* jadvalida 23 daraja, 30 daqiqa, 17 soniyaga teng bo'lib, hozirgi hisob bo'yicha u 23 daraja, 30 daqiqa va 49 soniyani tashkil etadi. Bu ikki raqamlar o'rtasidagi tafovut hammasi bo'lib, minus 32 soniyaga teng xolos. Shungdek, *Ulug'bekning* yil hisobini hozirgi aniq hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'g'i 1 minutu 2 soniyaga farq qiladi. Bular XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir. “*Ziji Ko'ragoniy*”da keltirilgan yulduzlar jadvali Samarqandda olib borilgan kuzatishlar asosida tuzilgan. Jadval yulduzlar soni va kuzatishlarning originalligi jihatdan astronomiya tarixida *Gipparx* — *Ptolemey* jadvalidan keyin (I asr) ikkinchi o'rinda turadi. Optik asboblari ixtiro qilingunga qadar tuzilgan zizlar orasida “*Ziji Ko'ragoniy*” eng mukammal hisoblanadi. Undan vaqtni aniqlash va geografik koordinatalarni o'lchashda, shuningdek, turli astronomik masalalarni hal qilishda XVII asrga qadar Sharqda va Yevropada foydalanib kelindi. “*Ziji Ko'ragoniy*” fors tilida yozilgan; keyinchalik, arab va turk tillariga tarjima qilingan. *Ulug'bekning* shogirdi *Ali Qushchi* zij qo'lyozmalarining keng tarqalishiga katta hissa qo'shdi. “*Ziji Ko'ragoniy*” Yevropada birinchi marta 1648-yilda (Angliya) nashr qilindi; keyinchalik, ko'pgina Yevropa tillariga tarjima qilindi.

ZOT SUHBATAYN — dioptr (tirgish).

ZOT SHO'BATAYN — trekver (astronomik asboblarning qismi).

ZOT UL-USTURLAB — astrolyabiya.

ZOT UL-HALQA — astronomik o'lchov asbobi.

ZO'G'ATA — qayrilma pixli (nashtar) mix yoki qalmoq; paykon.

“ZUBDAI TAVORIX” — *Hofizi Abruning* tarixga oid asari. *Hofizi Abru* temuriy *Boysung'urning* topshirig'i bilan 1423-1425-yillari “*Zubdai tavorix*” (“*Majmu at-tavorix*”) nomli katta tarixiy asar yozgan. Bu asarning 4-qismini u *Amir Temur* va temuriylar hukmronlik qilgan davrga bag'ishlangan.

O'TLOQ VA SUVLOQ — yaylovlardan olinadigan soliq.

“O'Z DAVRINING PTOLOMEYI” — *Ulug'bek* mirzoning shogirdi *Ali Qushchi* zamondoshlari o'rtasida shu nom bilan shuhrat qozongan.

G'UL — muntazam qo'shin.

G'ULBA — suv quvuri.

SHAMSUDDIN KULOL MAQBARASI — Shahrizabddagi me'moriy yodgorlik (XV a.). *Amir Temurning* otasi *Amir Tarag'oyning* piri *Shamsuddin Kulol* qabri ustiga qurilgan. Go'rxonaning tarhi to'rtburchak (12,1S10,6 m), pishiq g'ishtdan qurilgan, to'rdagi devori ravoqli toqlardan iborat. O'ymakori eshigi mayda gulli, uning islmiy naqshi va kufiy yozuvi nodir. Maqbaraning kulohiy (qirrador) gumbazi XX a. boshlarida buzilib tushgan, o'rni bir ustunli tekis tom bilan ta'mirlangan.

Shamsuddin Kulol maqbarasi *Amir Temur* davrida shakllangan yangi me'moriy uslubning ilk namunasi hisoblanadi, ayniqsa, bino ichidagi gumbaz osti tuzilmasi — o'zaro kesishgan ravoqlar va ular orasidagi qalqonsimon bezaklar me'moriy uslubga muhim ta'sir ko'rsatgan.

SHARQ Rafaeli — XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyondasi Kamoliddin Behzod keyingi davr olimlari tomonidan shu nom bilan nomlangan.

SHAYX ZAYNIDDIN BOBO MAQBARI — Toshkentdagi me'moriy yodgorlik (XIII-XIV asrlar). Rivoyatlarga ko'ra, maqbara *Amir Temur* davrida *Shayx Zayniddin* (XIII a.)ga atab barpo qilingan. Shahar hududida, qabriston o'rtasidagi balandlikda joylashgan, peshtoq-gumbazli, cho'zinchoq maqbara-xonaqohlar turiga mansub. Atrofida boshqa turli binolar — tobutxona, chillaxona (XII-XIII asrlar), oshxona, ayvonli masjid, chortoq va boshqalar bor. Old ko'rinishi jan.-sharqqa qaratilgan, ko'chadan unga qo'shimcha binolarni birlashtiruvchi xiyobon orqali kiriladi. To'rtburchak tarhli (16S18 m), bal. 20,7 bara markazida Shayx Zayniddin sag'anasi, burchaklarida boshqa shaxslarning qabrlari bor. Maqbaraning jan.-g'arbiy peshtog'idagi yozuvga ko'ra, hijriy 1339-yilda (mil. 1920-21) ta'mirlanib, maqbaraning eski g'ishtlari yangi g'ishtlar (26S12S6 sm) bilan almashtirilib, gumbazi kvadrat (24S24S5 sm) g'ishtdan terilgan.

SHIFOIYA — *Alisher Navoiy* Injil anhuri bo'yida qurdirgan davolash uyi. "*Shifoiya*" shifoxonasi "*Ixlosiya*" madrasasining ro'parasida joylashgan bo'lib, gumbazi naqshinkor moviy koshinlar bilan qoplangan. Devorlari qizil g'ishtlardan terib chiqilgan. Hovlisida sarhovuz bo'lib, sahnidan mayin tog' shabadasi muttasil esib turgan. "*Shifoiya*" hozirgi zamon iborasi bilan yuritilganda shifoxonali tabobat ilmgohi tarzida bo'lib, unda tabib va hakimlar bemorni davolashdan tashqari tabobat ilmi bilan ham shug'ullanganlar. *Alisher Navoiy*ning inoyati bilan o'sha davrda yetishib chiqqan *G'iyosuddin Muhammad*, *Nizomuddin Abdulxay*, *Darvesh Ali*, *Muhammad Yusuf*, *Abdulhay Tuniy*, *Muhammad Muin*, *Xutbiddin Odam* kabi mashhur tabiblar "*Shifoiya*"da uzoq vaqt faoliyat ko'rsatganlar.

SHIRINBEKA OG'A MAQBARI — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (XIV a. oxiri); Shohizinda tarkibida. *Amir Temurning* singlisi Shirinbeka og'oga atab qurilgan. Maqbara ravog'i ichidagi arabiy bitikda muhim tarixiy hujjat saqlangan (tarjimasi): «*Bu qabr malikai muazzama, mukarrama Shirinbeka og'o Tarag'ay (bek) qiziniki. Ravzasini Alloh nurli etsin. Sana 787*» (mil. 1385/6). Maqbara peshtoq-gumbazli, bir xonali (ziyora-xona, 6,2 S6,2 m), xona to'rida daxma bor. Ziyora-xona tagida kichikroq sardoba — go'rxona joylashgan. Maqbaraning bosh tarzi serhasham koshinkori bezatilgan, turli naqsh va yozuvlar qoldig'i saqlangan (qolgan tarzlari bezaksiz). 4 mehrobiy ravoq ustiga gumbaz bog'langan; gumbazning naqshlari sopol koshin va g'ishtchalardan terilgan, ranglar uyg'unlashib, juda nafis va ser-hasham ko'rinadi. Ichki devorlariga tilla halli islamiy naqshlar, qushchalar, manzaralar tasviri ishlangan. Kesma koshin ishlatilgan dastlabki yetuk inshoot bo'lgan Shirinbeka og'a maqbarasi shaklu shamoyili, bezaklari jihatidan XIV a. 90-yillarida erishilgan

me'moriy yuksalishning mukammal namunasi sifatida qadrlidir.

SHOHMALIK MADRASASI — Ulug'bek davrida Samarqandda faoliyat ko'rsatgan madrasa.

CHILUSTUN SAROYI (Qirq ustun) — "*Bog'i maydon*"da qad ko'targan saroy. *Boburning* ta'riflashicha, Chilustun saroyi muhtasham va ko'rkam bo'lgan. Chilustun toshlardan farsh qilingan baland tagkursi ustida qad ko'targan ikki qavatli saroy bo'lib, uning burchaklarida minoralari bo'lgan. Minoralarning ichki doirasi bo'ylab ishlangan aylanma zinapoyalar saroyning yuqori qavatiga olib chiqqan. Ikkinchi qavatning markazida chordara uslubida qurilgan uy bo'lib, uning to'rt tarafi o'ymakor tosh ustunli ayvon bilan o'ralgan.

CHINNIXONA — "*Bog'i maydon*"da qad ko'targan saroy. *Boburning* ta'riflashicha, Chinnixona saroyi muhtasham va ko'rkam bo'lgan. Chordara uslubida bino qilingan Chinnixona saroyining devorlari, xususan ularning izora (pastki) qismlari Xitoydan keltirilgan rangdor va naqshli chinnilar bilan qoplangan bo'lib, shu sababli bu oliy imorat shu nom bilan shuhrat topgan.

CHIQR — tuya yoki xo'kiz qo'shib aylantiriladigan suv inshooti.

CHORIKOR (forscha — to'rt dan birga ishlovchi) — hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo'shchi ziroatkor.

CHORBOG' — Sharq mamlakatlarida atrofi devor bilan o'rab olingan ko'shk, ayvon, qo'rg'onli tartib asosida tuzilgan bog'. Chorbog' uchun tekis, suvli, daraxtli joy tanlanadi; notekis (nishabli) joylar pog'ona-pog'ona sahnalarga keltiriladi, sun'iy sharsharalar qilish imkoniyatlari yaratiladi. Chorbog' murabba yoki to'rtburchak tarhli bo'lib, kirish har 4 tarafning o'rtalaridan tashkil etiladi; hududi yo'lka va ariqlar yordamida ayrim bog'chalarga, bog'chalar esa yana o'z navbatida chamanzorlarga bo'linib, chorchamanlarni tashkil qiladi. Chorbog' mujassamotining markazini bino (qo'rg'on, ko'shk) egallaydi. Baland bo'lyli daraxtlar devorga yaqin ekiladi, undan so'ng mevali daraxtlar va gullar tartib bilan ekiladi, ularning erta bahordan kech kuzgacha ochilib turishiga e'tibor beriladi. Bino mujassamoti chorbog'ni turli nuqtalardan ko'rish imkonini beradigan tarzda, birinchi 2 qavatli, markaziy mujassamotli qilib quriladi: o'rtada atrofini ayvonlar o'rab olgan chordara xona bo'lib, ikkinchi qavatga bino burjlaridagi zinalar orqali chiqiladi. Suv inshootlaridan katta ariqlar va hovuzga suv keladi, hovuz shakllari hamda favvoraga alohida e'tibor beriladi. Chorbog'da, shuningdek, o'tov, chodir kabilarni o'rnatish uchun joylar ajratiladi. Chorbog'dagi qushlar unga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi. Chorbog' qadimdan yaratilib kelingan, temuriylar va boburiylar davrida ravnaq topgan, mohir bog'soz ustalar yetishib chiqqan.

TARIXIY-GEOGRAFIK NOMLAR

ANGOR KANALI — Zarafshon daryosidan bosh olgan Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi kanal. Bu kanalning qayta tiklanishi temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlardan biri bo'ldi.

ASTRABOD — Jurjonning kattaligi jihatidan ikkinchi o‘rinda turgan shahri. Kaspiy dengizining sharqi-janubiy tarafida, Mozandaron chegarasida joylashgan. Hozir Go‘rgon deb ataladi.

BIJANGAR SAROYI — Hindistondagi mashhur saroylardan biri. 1441-1442-yillarda *Shohruh* Bijangar saroyiga tarixchi *Abdurazzoq Samarqandiy* boshchiligida elchilar yuboradi.

BULUNG‘UR (mo‘g‘ulcha bulugar — loyqa suv) — Zarafshon vodiysidagi eng qadimgi kanallardan biri.

DASHTI QIPCHOQ — Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g‘arbiy yonbag‘ridan to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo‘lgan hudud.

GURGANCH — Xorazmning qadimgi poytaxti.

HIROT — Xurosonning to‘rt yirik shahri (Marv, Nishopur, Balx, Hirot)dan biri; poytaxt shahar. Xurosonning ijtimoiy-siyosiy va madaniyat markazi.

ILONO‘TTI DARASI — Jizzax yaqinidagi dara. Ilono‘ttida hijriy 828 (1428)-yilda Ulug‘bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o‘ziga xos “zafarnoma” hozirgi kungacha saqlangan.

INJIL — Xurosondagi anhor. Bu anhorda Alisher Navoiy Shifoiyani qurdiradi.

KALIF — Amudaryo bo‘yidagi qadimgi shahar va kechuv nomi. Amudaryoning eng tor yerida qurilgan. *Ibn al-Asir*ning yozishicha, Amudaryoga qurilgan dastlabki suzuvchi ko‘prik (ponton) XI asrda *Mahmud G‘aznaviy* tomonidan qurilgan. *Sulton Mahmud* qoraxoniylar xoqoni *Arslonxon*ning da‘vatiga binoan, *Qodirxonga* qarshi chiqqanda shu yerdan o‘tgan. Daryoning bu yerdagi kengligi 3 ming qadamga yaqin bo‘lgan. O‘rta asrlarda Kalif shahrining ahamiyati shu qadar oshganki, hatto Amudaryo “Kalif daryosi” deb ham atala boshlagan. XII asrda Kalif mustahkam qal‘a bo‘lgan. *Amir Temur* va temuriylar davrida ham Kalif muhim kechuv yeri sanalgan. XVII asr Kalif shahri faqat daryoning so‘l qirg‘og‘ini egallagan. Uning mudofaa devorlari bu davrda vayron qilingan bo‘lib, unda faqat kemachi hunarmandlar va xiroj to‘plovchi amaldorlar yashagan.

MARVIRUD, MARVARRUD — Bolo Murg‘ob shahrining eski nomi. Murg‘ob daryosining bo‘yida (Afg‘oniston hududida) joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda Marvirud o‘rnida qadimda Iskandar Makedonskiy tomonidan Marg‘iyonada qurilgan Aleksandriya shahri bo‘lgan, keyinchalik uni salavkiylardan Antiox qayta tiklagan. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Marvirud muhim strategik shahar va istehkom sifatida mashhur bo‘lgan. Marvirud nomi so‘nggi bor *Sharafiddin Ali Yazdiyning* “Zafarnoma”sida uchraydi. *Yazdiyning* qayd etishicha, uning davrida shahar Murg‘ob nomi bilan mashhur bo‘lgan. *Sulton Husayn Mirzo* hukmronlik qilgan davrda esa uning tashabbusi bilan Marviruddan yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug‘orilib obod etiladi.

SULTONBAND — Murg‘ob daryosining bosh to‘g‘oni. Qurib qolgan shahar atrofidagi yerlarga qayta suv chiqarib, sug‘orma dehqonchilik yer maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron etilgan Sultonbandning *Shoxruh*

tomonidan tiklanishi va sug‘orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg‘ob vohasining suv ta‘minoti tubdan yaxshilandi.

OBIRAHMAT — Samarqand yaqinidagi anhor. *Ulug‘bek mirzo* 1424-1428-yillarda Obirahmat bo‘yida rasdaxona qurdirgan.

QIZILRAVOT — Samarqand yaqinidagi mavze. Qizilravotda 1410-yilning 20-aprelida Tukiston noibi Shayx Nuriddin, Muhammad Jahongir, Yangi va Sayram viloyatlarining Chingiz O‘glonlar bilan Mirzo Ulug‘bek va Shohmaliklarning qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi.

SABRON, SAVRON — Turkiston shahrining shimolida mavjud bo‘lgan qadimgi shahar va viloyat. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, Sabron yirik turk qabilasi — o‘g‘uzlar qo‘lida bo‘lgan. Sabron X asrda kuchli chegara qal‘a hisoblangan. *Maqdisiyning* yozishicha, u 7 qator devor bilan o‘ralgan. XI asrdan shahar bir necha asr o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, chunki *Chingizxon* yurishlari haqidagi asarlarda Sabron umuman tilga olinmaydi. *Yoqut Hamaviy* (XIII asr) ham uning ajamlar (arab bo‘lmagan xalqlar), ya‘ni turkiy xalqlar shahri bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Sabron o‘g‘uzlar hududi bilan qo‘shni turkiy qabila — kimaklar (qipchoqlarning bir toifasi) yeri chegarasida joylashgan bo‘lib, baland devorlar bilan ihota qilingan. 1065-yil sabron saljuqiylar sultonlardan bo‘lgan *Alp Arslon* tomonidan zabt etilgan. XIII asrda Jo‘ji ulusining sharqiy qismi — Oq O‘rdaga tobe bo‘lgan. Amir Temurning Oltin O‘rdaga qilgan yurishlari davrida qattiq shikastlangan.

SOMONJUQ DASHTI — Buxoro vohasining janubiy-sharqiy chegarasiga yondashgan dasht. *Ulug‘bek* hukmronligi davrida (1409-1449) Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o‘zlashtiriladi.

TIBET, TIBET (xitoycha Sizyan) — Xitoyning janubiy-g‘arbiy qismidagi ma‘muriy birlik. Tibet tog‘ligida.

TURUQBAND — Tus viloyatining yuqori qismida joylashgan Chashmag‘ul mavzeida qurilgan suv ombori. Turuqband *Alisher Navoiy* tashabbusi bilan qurilgan. Turuqband suv omborida jamg‘arilgan suv Mashhadga olib kelinadi. Natijada Mashhad suv bilan ta‘min etilib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi.

URGANJIY DASHTI — Markaziy Qizilqumning sharqiy hududlari. Buxoro vohasining dehqonchilik yer maydoni birmuncha kengayib, vohaning g‘arbiy chegarasi Urganjiy dashti tomon ichkariga qarayib 5-6 km kirib boradi.

TARIXIYSANALAR

1312-1342-YILLAR — Oltin O‘rdada *O‘zbekxon* hukmronligi davri.

1330-1404-YILLAR — mashhur xattot *Mirali Tabriziy* o‘zining hayot faoliyatida nasta‘lig‘ deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qilishi.

1366-1465-YILLAR — “Zafarnoma” va “Gul va Navro‘z” poemalarining muallifi *Lutfiyning* yashab ijod etgan yillari.

1394-YIL — asli ismi *Muhammad Tarag‘ay* bo‘lgan *Mirzo Ulug‘bek* Temurning Yaqin Sharqda besh yillik yurishlari vaqtida Sultoniya shahrida tavallud topdi.

1397-1447-YILLAR — Temuriyzoda *Shohruh*

hukmronligi davrida mo'g'ullar bosqini davrida vayron qilingan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni — Sultonbandning tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi.

1399-1404-YILLAR — eshiklari yetti xil metal qotishma "haftjo'sh" bilan qoplangan *Bibixonim Jome'* masjidi bino qilindi.

1405-1408-YILLAR — Shohrux Mirzo *Xalil Sulton*dan Samarqandni tortib olib, Otasi Amir Temurning toj taxtini egallashga harakat qilsada, ammo buning uddasidan chiqa olmaydi. Bunga Balx, Seiston, Xuroson va Ozarbayjonda Temuriy shahzodalar va ayrim iqtidorli amirlarning birin-ketin ko'tarib turgan g'alayonlari to'sqinlik qiladi.

1405-YIL 18-MART — Mironshohning o'g'li *Xalil Sulton Mirzo* Samarqandni egallab o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi.

1407-YIL 22-FEVRAL — *Pirmuhammad* o'z vaziri *Pir Ali Toz* boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'ladi.

1408-YIL 22-APREL — *Mironshox* Qoraqayunli turkmanlarining qabila boshligi *Qorayusuf* bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari Temuriylar qo'lidan ketadi.

1409-1449-YILLAR — Movarounnahrda *Mirzo Ulug'bek* hukmronligi davrida Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib yangi yerlar o'zlashtirildi.

1409-YIL — *Shohrux* Samarqandan Hirotga qaytish oldida *Mirzo Ulug'bek*ni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi.

1409-YIL 25-APREL — *Shohrux Mirzo* Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi va jangsiz shaharni egallashga muvaffaq bo'ladi.

1409-YIL BAHOR — Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudaydod O'ratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchradi, o'zi esa asirga olinadi.

1410-YIL — *Shayx Nuriddin, Muhammad Jahongir, Amin Abulxoliq* hamda oq o'rdalik xonzodalardan Chingiz O'g'lonlar ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi.

1410-YIL 20-APREL — Samarqand yaqinida *Qizilrabot mavzeida* isyonkor ittifoqchilar bilan *Mirzo Ulug'bek* va Shohmaliklarning qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda *Ulug'bek* mag'lubiyatga uchrab Kalifga tomon qochadi.

1410-YIL YOZ — *Shohrux* isyonni bostirish uchun katta kuch bilan Samarqandga yetib keladi. *Shayx Nuriddin* isyoni bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan shaharlar: *Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram, Yangi* yana Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi va bu o'lkalarni idora qilish *Ulug'bek*ning zimmasiga yuklanadi.

1412-YIL — *Shohrux Shohmalik*ni Samarqanddan olib ketishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng batamom Movarounnahr va Turkistonni boshqarish *Ulug'bek* qo'lga o'tadi.

1413-YIL — *Shohrux* tomonidan Xorazm Oltin O'rda

xonlari tasaruffidan qaytarib olingach, *Ulug'bek* davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining havfsizligi muqumlashgan bo'lsa-da, ammo uning shimoliy-g'arbiy va shimoliy-sharqiy tomonlari xavotirli edi.

1414-1492-YILLAR — O'z davrining buyuk mutaffkkiri, fan va adabiyotning turli masalalarga oid 99 ta kitob yozgan va XV asr adabiyotida mavjud bo'lgan deyarli barcha janrlarda asarlar yaratgan Abdurahmon Jomiyning yashab ijod etgan yillari.

1414-YIL — *Shohrux Mirzo Iskandar* bo'ysunmagani uchun suyurg'oldan mahrum qilishi.

1414-YIL — *Ulug'bek* Farg'onaga yurish qiladi. *Ulug'bek*ning qo'shiniga bas kelishga ko'zi yetmagan Farg'ona hokimi *Amirak Ahmad* jangsiz Andijon va Axsini topshirib, Koshg'arga qochadi.

1415-YIL — *Shohrux Mirzo Boyqaro* bo'ysunmagani uchun suyurg'oldan mahrum qilishi.

1415-YIL BAHOR — *Ulug'bek* Farg'ona ustiga ikkinchi marta yurish qiladi. Farg'ona va Koshg'ar *Ulug'bek* tasarrufiga o'tadi.

1417-YIL — *Ulug'bek*ning farmoni bilan Buxoroda madrasa qurildi.

1417-1420-YILLAR — *Mirzo Ulug'bek*ning farmoni bilan Samarqandda madrasa qurilishi.

1418-YIL — *Ardasher* boshliq *Shohrux* elchilari Xitoyda bo'lishi.

1419-YIL — 1418-yilda Xitoyga borgan *Ardasher* boshliq *Shohrux* elchilariga javoban *Li-Do* va *Jong-Fu* Samarqand va Hirotga elchi bo'lib kelishlari.

1420-YIL — Samarqanddagi *Mirzo Ulug'bek* madrasasi ochilgan. Bu madrasa 50 hujrali bo'lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq (omborxonona), yotoqxona va darsxonalariga bo'lingan. Madrasada 100 dan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lim olgan. *Ulug'bek* madrasasida birinchi darsni o'z davrining yetakchi mudarrisi *Shamsiddin Muhammad Havofiy* o'qigan.

1420-1422-YILLAR — *Shohrux* va *Ulug'bek* 530 nafardan iborat elchilar karvonini Xitoyga jo'natadilar. *Shohrux* elchilariga *Shodixoji* bilan *Amir Ko'kcha*, *Ulug'bek* elchilariga *Sultonshoh* bilan *Muhammad baxshi* boshchilik qiladilar. *G'iyosuddin* naqqosh kotib etib tayinlanadi. Temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq Xitoyda bo'lib, o'z vatanlariga qaytib keladilar.

1421 YIL — Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi.

1422-YIL — Xitoyga yuborilgan *Shohrux* va *Ulug'bek* elchilari o'z vatanlariga qaytib keladilar.

1424-1428-YILLAR — Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida *Ulug'bek* rasadxonasining bunyod etilishi. Uch qavatli doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasi 47 metr, balandligi 31 metr bo'lgan.

1425-YIL BAHOR — *Mirzo Ulug'bek* mo'g'ulistoniga ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda *Ulug'bek* mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi va katta o'lja bilan Samarqandga qaytadi. Mo'g'uliston urushi *Ulug'bek* olib borgan jiddiy urushlarning birinchisi va so'nggisi edi.

1428-YIL — mo'g'uliston yurishi nishonasi tarzida

Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida Mirzo Ulug'bek tomonidan qoyatoshga o'ziga xos "Zafarnoma" ni yozdirishi.

1428-YIL — Ulug'bek muomaladagi "fulusiy" pullar islohotini amalga oshiradi. Eski chaqalarni yangisiga almastirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi.

1428-1468-YILLAR — Dashti Qipchoqda Abulxayrxon hukmronligi davri.

1429-YIL — Hirotidagi Boysung'ur kutubxonasida *Abulqosim Firdavsiy*ning mashhur "*Shohnoma*" asari ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniaturalar bilan bezatilgan.

1429-YIL — Samarqand akademiyasi "Dorul ilm"ga asos solinishi.

1430-YIL — Ulug'bek Dashti Qipchoq hukmdori *Baroq O'g'longa* qarshi Sig'noq yaqinida bo'lib o'tgan jangda mag'lubiyatga uchraydi.

1431-1435-YILLAR — *Abulxayrxon* boshchiligida ko'chmanchilar Xorazmgacha bostirib kirib uning g'arbiy qismini Urganch bilan qo'shib zabt etadilar.

1432-1520-YILLAR — xattot *Sultonali Mashhadiy* yashagan davr.

1433-YIL — G'ijduvonda Ulug'bekning farmoni bilan madrasa qurildi.

1437-YIL — Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astranomik jadvali) nomli asari yozib tugalgan bo'lsa ham, unga muallif umrining oxiriga qadar bajarilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida kuzatishlar va qo'shimchalar kiritib bordi. Ushbu asar asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 ta yulduzlarning o'rni va holati aniqlab berigan jadvallardan iborat.

1441-1442-YILLAR — Shohrux Hindistondagi Vijayanagar saroyiga tarixchi *Abdurazzoq Samarqandiy* boshchiligida elchilar yuboradi. U Kermon, Xurmuzd (Ormuz) va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi.

1441-1501-YILLAR — *Alisher Navoiy* yashab ijod etgan.

1441-YIL 9-FEVRAL — Hirot shahrida Alisher Navoiyning dunyoga kelishi.

1447-YIL 12-MART — *Shohrux mirzo Sulton Muhammad* isyonini bostirish paytida Ray viloyatida olamdan o'tdi.

1447-YIL BAHOR — *Boysunqurning* o'g'li *Olouddavla Ulug'bekning* katta o'g'li *Abdulatifning* qo'shinini tor-mor keltirib, uni asirga olgan va Hirotidagi *Ixtiyoriddin qal'asiga* qamab qo'ygan. Ulug'bek *Olouddavla* bilan bitim tuzadi va unga ko'ra, *Abdulatif* ozod qilinib, Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan vos kechadi.

1448-YIL BAHOR — *Ulug'bek* va *Abdulatifning* qo'shini Hirotga yurish qiladi. Tarnoq yaqinida bo'lgan jangda *Olouddavla* qo'shini tor-mor keltirilib, Hirot qo'lga kiritiladi.

1449-YIL 27-OKTABR — *Mirzo Ulug'bek* 55 yoshida fojiali suratda shahid bo'ldi.

1449-YIL OKTYABR — *Abdulatif* Damashq qishlog'i yaqinida *Ulug'bekni* yengadi.

1450-1457-YILLAR — *Abulqosim Bobur* Xuroson hukmdori.

1450-YIL 9-MAY — otasi Ulug'bek vafotidan so'ng olti yarim oy o'tgach *Abdulatifga* qarshi saroyda fitna uyushtirildi va o'ldirildi.

1451-YIL — *Abulxayrxon* katta qo'shin bilan *Abu Said* ishtirokida Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali Samarqandga yurish qiladi. Shiroz qishog'i yaqinida *Bulung'ur* anhuri yoqasida bo'lgan jangda ittifoqchilar g'alaba qozonadi va *Mirzo Abdullo* halok bo'ladi. *Abulxayrxonning* yordamida *Abu Sayid Samarqandni* egallab, *Movarounnahr*ga hokim bo'lib oladi.

1454-YIL — Hirot hokimi *Abulqosim Bobur* *Movarounnahr* ustiga bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida *Xoja Ubaydullox Ahror* mojarolarga qat'iy anaralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi.

1456-YIL — Samarqandda ikki qavatli "Xoja Ahror madrasasi" bunyod etildi.

1457-YIL — *Abu Sayid* Hirot taxtini egallaydi va Temuriylar davlatining har ikki qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

1457-YIL — Xuroson hokimi *Abulqosim Bobur* vafot etdi va Xurosonda siyosiy vaziyat yana mushkullashdi.

1463-YIL — Uch hukmdor: Samarqand podshosi *Sulton Ahmad* bir tarafdand, Andijonda Farg'ona hokimi *Umarshayx Mirzo* bilan Toshkent hokimi *Sulton Mahmudxon*, ikkinchi tarafdand Xavas yaqinida katta qo'shin bilan to'qnashib turganda, *Xoja Ubaydullox Ahror* mojarolarga qat'iy anaralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi.

1464-YIL — Samarqandda "Ishratxona" qurilgan.

1469-1493-YILLAR — *Sulton Ahmad* hukmronligi.

1469-1506-YILLAR — sulton *Husayn Boyqaro* hukmronligi davrida *Marviruddan* yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi. *Alisher Navoiyning* tashabbusi bilan Hirot va Mashhad atroflarida sug'orish ishlari amalga oshirildi. *Navoiy Tus viloyatining* yuqori qismida *Turuqband* suv ombori qurdiradi.

1469-YIL — *Sulton Husayn* Hirotni egallagach *Alisher Navoiyni* o'z huzuriga taklif etadi. U *Alisherni* dastlab muhrdorlik lavozimiga, keyinroq esa vazir qilib tayinlaydi.

1469-YIL 24-MART — *Husayn Boyqaro* Xuroson hokimi bo'ldi va natijada Temuriylar davlati yana ikki mustaqil qismga: *Sulton Husayn* hukmronligidagi Xuroson va *Abu Sayid* o'g'illari hukmronligidagi *Movarounnahr*ga bo'linib ketadi.

1469-YIL BAHOR — *Abu Sayid* Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan turkmanlarga qarshi yurish qildi va Ozarbayjondagi *Mo'g'on ko'lidagi* jangda halok bo'ldi.

1494-1495-YILLAR — *Sulton Mahmud Mirzo* hukmronligi.

1498-1501-YILLAR — *Sulton Ali* hukmronligi.

1694-1778-YILLAR — mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim *Volterning* yashab ijod etgan.

1908-YIL — arxeolog *V.L.Vyatkin* Ulug‘bek rasadxonasining xarobalarini topishga va uning faxriy sektanti yer osti qismini kovlab ochishga muayassar bo‘ldi.

IX-XII ASRLAR — musiqa san‘ati ahillarining ijodiy faoliyati bilan duvozda (o‘n ikki) maqom vujudga keldi.

XIV ASR IKKINCHI YARMI — XV ASR — O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotida taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo‘ldi. O‘rta Osiyo xalqlari xususan o‘zbek hamda tojik adabiyoti o‘rtasida aloqa va hamkorlik mustahkamlandi. O‘zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi.

XIV-XV ASRLAR — O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa san‘ati taraqqiyotida yangi va mahsuloldor bir bosqich bo‘ldi. *Abduqodir Nayiy*, *Qulmuhammad Shayxi*, *Husayn Udi*, *Shohquli G‘ijakiy*, *Qosim Rabbobiy* kabi mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishib chiqdi. Ulug‘bek “*bulujiy*”, “*shodiyona*”, “*axloqiy*”, “*tabriziy*”, “*usuli ravn*” va “*usuli otlig*”; Navoiy “*isfaxoniy*” kuylarini ijod qiladi. Jomiy va Binoiylar musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar.

XIV-XV ASRLAR — sirli sopol buyumlar yasash yuksak darajada rivojlandi.

XV ASR — Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikning asosan 4 shakl — “*mulki devoniy*” — davlat yerlari, “*mulk*” — xususiy yerlar, “*mulki vaqf*” — madrasa va ibodatxonalar tasarufidagi yerlar hamda “*jamoat yerlari*” bo‘lgan.

XV ASR — temir buyum, qurol-yarog‘ va asboblardan yasash yuqori darajaga ko‘tarildi. Samarqand davlatning poytaxti avvalgidek, qurol-yarog‘ yasaladigan markaz bo‘lib qoladi. Shaharda hatto maxsus sovetsozlar mahallasi qaror topadi.

XV ASR — aniq fanlarning, xususan astranomiya ravnagi va Samarqand astranomalari qozongan olamshumul muvaffaqiyatlarida, ayniqsa *Ulug‘bekning* hissasi beqiyosdir.

XV ASR — charmdan yengsiz kamzul, poyafzal, ot va arava anjomlari tikilgan. Harbiy yurish o‘zaro kurashlar sharoitida charmdan yasalgan sadoq (o‘qdon)lar, kamonning charm g‘iloflari, pichoq va qilichlarning charmdan qoplangan qinlariga talab katta bo‘lgan.

XV ASR — Go‘ri Amir va Shohizindaning oyatlar bilan bitilgan naqshinkor eshiklari xalq ustalarining yog‘och o‘ymakorligi san‘atidagi eng nodir namunalardan hisoblanadi.

XV ASR — Hirot Dorulshifosi (davolash uyi), ayniqsa kahnollari — ko‘z kasalligi tabiblari nihoyatda shuhrat topgan. Hirotning tabib va hakimlari tabobat sohasida ko‘plab kitob va risolalar yaratgan.

XV ASR — Hirotida me‘morchilik bilan bir qatorda kitobat san‘ati, ya‘ni qo‘lyozma asarlarini ko‘chirib yozish va u bilan bog‘liq bo‘lgan *xattotlik*, *musavirlik*, *lavvohlik* (lavha chizish) va *sahhohlik* (muqavasoqlik) san‘ati ham nihoyatda yaxshi taraqqiy etadi.

XV ASR — Mirzo Ulug‘bekning “*Ziji jadidi Ko‘ragoniy*” hamda “*Tarixi arba ulus*” (To‘rt ulus tarixi) nomli asarlari yaratildi.

XV ASR — mo‘g‘ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan Movarounnahrning suv xo‘jaligi to‘la tiklandi, uning dehqonchilik yer maydoni birmuncha kengaydi.

XV ASR — Movarounnahr va Xurosonda obodonchilik ishlari amalga oshirilgan.

XV ASR — Movarounnahr va Xurosonda yer egalari “dehqon”, ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni “muzoriy” deb yuritilgan.

XV ASR — Movarounnahr va Xurosonning deyarli hamma yirik shaharlarida o‘rta asr hunarmandchiligining barcha tarmoq va sohalar bo‘yicha iqtisoslashgan korxonalar, do‘konlar, ustaxonalar va rastalar bo‘lgan.

XV ASR — Movarounnahr va Xurosonning me‘morchiligida o‘zining mukammalligi va bajargan vazifasi jihatdan jamoat binolari orasida ayniqsa shifoxonalar, hammomlar, istirohat bog‘lari alohida o‘rin tutgan.

XV ASR — Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ilmiy-tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlarning ijodiy faoliyati, astranomiya va matematika fanlari sohasida qilgan kashfiyotlari, yaratilgan nodir asarlarining barchasi *Ulug‘bekning* o‘ziga xos akademiya tuza olganligi tufaylidir.

XV ASR — o‘rta asr hunarmandchiligida kulolchilik eng rivoj topgan sertarmoq sohaga aylanadi. U kasogalar, xum va xumsozlar hamda tandirsozlar kabi bir necha tarmoqlarga bo‘linadi.

XV ASR — qurilish ishlari kengayib, saroylar, jamoat binolari mudofaa va sug‘orish inshootlari hamda yo‘l qurilishi va tuzatishlari mehnatkash aholi kuchidan keng foydalanilgan. Bunday hasher ishlari “begor” deb yuritilgan.

XV ASR — Samarqand va Hirotida me‘morchilik, naqqoshlik, tasviriy san‘at va adabiyot nihoyatda taraqqiy etdi.

XV ASR — Samarqand, Buxoro, Marv, Hirot va boshqa ko‘pgina shaharlar atrofida go‘zal oromgohlar bunyod etildi.

XV ASR — Samarqandda bosh kiyimlar rastasi qurildi.

XV ASR — shishasozlik taraqqiy topdi. Samarqandda hatto shishasozlar mahallasi qaror topdi.

XV ASR — Temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volga bo‘yi va Sibir bilan muntazam savdo — sotiq qilar edi.

XV ASR — XVI ASR BOSHI — tasviriy san‘at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. *Kamoliddin Behzod*, *Mirak naqqosh*, *Qosimali*, *Mahmud Muzahhib*, *Hoji Muhammad naqqosh* va *Shohmuzaffar* kabi mo‘yqalam sohiblari yetishib chiqdi.

XV ASR — zamondoshlari tomonidan Moniyi soniy “Ikkinchi moniy” keyingi davr olimlari tomonidan “Sharq Rafaeli” deb nomlangan tasviriy san‘atning ulug‘ namoyondasi *Kamoliddin Behzodning* yashagan davri.

XV ASR 70-YILLARI — “Oqsaroy” imorati qurilgan.

XV ASR BOSHI — *Shohrux*, *Ulug‘bek*, *Abu Sayid* va *Sulton Husayn* hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma‘lum darajada qaror topgan osoyishtalik tufayli ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi.

XV ASRNING BOSHI — Samarqandda *Amir Temur* tomonidan o‘tkazilgan tantanalarda hunarmand va savdo ahlilari ham qatnashgan. Unda Hirotning kimxob to‘quvchilari ko‘chma dastgohda mato to‘qib, o‘z hunarlarini namoyish etishgan. Duxoba to‘qish texnika jihatidan ancha murakkab kasb hisoblangan.

XV ASR OXIRI — Movarounnahr va Xurosonda

mulkdor viloyat hokimlarining o'zaro nizolari va markaziy hukumatga qarshi isyonlar kuchayib, dorulsaltanatda fitnafasotning avj olib ketishi oqibatida boshlangan siyosiy tanglik uning iqtisodiy va madaniy hayotiga salbiy ta'sir etdi va uni og'ir tushkunlikka olib keldi.

XV ASRNING BIRINCHI CHORAGI — *Shohrux* va *Ulug'bek* davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilarning almashinib turilishi.

XV ASRNING BIRINCHI YARMI — Hirotida *Ulug'bek*ning ukasi *Boysung'ur* kutubxonasida 40 ta xattot va bir qancha naqqoshlar qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan.

XV ASRNING BIRINCHI YARMI — o'tkazilgan pul islohatlari natijasida Movarounnahr va Xurosonning iqtisodiy hayotida, ayniqsa hunarmandchilik va ichki savdo munosabatlari taraqqiy etdi.

XV ASRNING 20-YILLARI — *Shohrux Mirzo* Amir Temur merosining Suriya va Arabistondan tashqari asosiy qismini o'z tasarrufiga oladi.

XV ASRNING IKKINCHI YARMI — Hirotida kitobot san'ati yanada rivoj topdi. *Husayn Boyqaro* va *Alisher Navoiy* saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'amxo'rlik qiladilar.

XV ASRNING IKKINCHI YARMI — beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar davlati inqirozga yuz tutdi.

XV ASRNING IKKINCHI YARMI — Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandda hashamatli qurilishlar anchagina cheklangan bo'lsada, ikki qavatli "Xoja Ahror madrasasi", "Ishratxona" va "Oqsaroy" kabi bir nechta imoratlar qad ko'tardi.

XV ASRNING IKKINCHI YARMI — Movarounnahrning ma'naviy hayotida so'fiylik tariqatining ta'siri kuchayib, dunyoviy ilmlarga deyarli ahamiyat berilmay Samarqand rasadxonasi bo'lgan "Dor ul-ilm" qarovsiz qolganda Xuroson shaharlari, xususan unig poytaxti Hirot obodonlashib, u ilm-fan, adabiyot va san'atning markaziga aylandi.

XV ASRNING 30-40-YILLARI — *Mirzo Ulug'bek* otasi *Shohrux* bilan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qiluvchi aholini o'ziga bo'ysundirgan Abulxayrxonga qarshi kurash olib boradi.

XV ASRNING 60-YILLARI — *Husayn Boyqaro* katta qo'shin bilan Xurosonga yurish qildi. U Hirot, Obivart, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarga yurish qildi.

XV ASRNING O'RTALARI — Xurosonda siyosiy tarqoqlik avj olib, 11 bo'lakka ajralib ketdi.

XV ASR OXIRLARI — mamlakatda iqtisodiy tanglik shu darajaga yetgan ediki, hatto Xo'janddek shahar 100, 200 nafar navkarni, Farg'onadek unumdor voha esa 3-4 ming nafar navkarni ta'min eta olmay qolgan edi.

XV-XVI ASR BOSHI — badavlat hunarmandlar va mayda savdogarlar orasidan shoirlar, musiqachi-sozandalar va muarrixlarning yetishib chiqishi.

XV-XVI ASR BOSHI — hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib keng ist'emol mollarini ishlab chiqarish g'oyat ko'paygan. Ichki chakana savdo va pul munosabatlari kengaygan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa ko'pgina shaharlar aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining namunali hunarmandchilik va gavjum savdo markaziga aylanadi.

TESTLAR

1. Amir Temur saltanatining parchalanishining asosiy sababi nimada edi?

A) Xalil Sulton Mirzoning o'zboshimchalik bilan o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilishi

B) Pirmuhammadning o'z vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'lishi

S) Qoraqayunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'lishi

D) saltanat tasarrufiga olingan yurtlar va ellar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilganligi, ulardagi muxolifatchi kuchlar ajralib chiqish uchun harakat qilishi

2. Amir Temur saltanatning parchalanishida nima sabab bo'ldi?

A) Amir Temur vorislari o'rtasidagi toj-taxt ilinjida uzoq yillar davom etgan o'zaro ziddiyat va urushlar

B) Xalil Sulton Mirzoning o'zboshimchalik bilan o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilishi

S) Pirmuhammadning o'z vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'lishi

D) Qoraqayunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'lishi

3. Kimni Amir Temur vafoti oldidan taxt vorisi etib tayinlagan edi?

A) nabirasi Pirmuhammadni

B) nabirasi Xalil Sulton Mirzo

S) Mironshoh

D) Shohrux

4. Kim XV asrning boshida Kobul, Qandahor va Hindiston viloyatlarining hukmdori edi?

A) Shohrux

B) Pirmuhammad

S) Xalil Sulton Mirzo

D) Sulton Husayn Boyqaro

5. Qachon Xalil Sulton Mirzo Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi?

A) 1407-yil 22-fevral

B) 1408-yil 22-aprel

S) 1405-yil 18-fevral

D) 1405-yil 18-mart

6. Xalil Sulton Mirzo kimning o'g'li edi?

A) Shohruxning

B) Umarshayx Mirzoning

S) Mironshohning

D) Jahongir Mirzoning

7. Kim Pirmuhammadning yo'lini to'sib, uning rejalarini buzib yuborish niyatida Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlarni o'z hokimiyatiga qo'shib oladi?

A) Sulton Husayn Mirzo

B) Xalil Sulton Mirzo

S) Abu Bakr Mirzo

D) Xudoydod Husayniy

8. Nimalar vositasida Xalil Sulton Sohibqironning nufuzli a'yon va kibarlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib Movarounnahr taxtini egallab olgan?

- A) suyurg'ollar vositasida
- B) ko'plab tarxonlar berishi orqali
- S) Amir Temurdan qolgan xazinalar vositasida
- D) Amir Temur bergan voris yorlig'i vositasida

9. Kimlar birinchi bo'lib Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar?

- A) Turkiston hamda Farg'onaning hokimi amir Xudoydod bilan Shayx Nuriddin
- B) Xuroson hokimi Sulton Husayn Mirzo
- S) Amir Temur taxtining qonuniy valiahdi Pirmuhammad
- D) Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan Idiku

10. Ma'lumki, Sulton Husayn Mirzo Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida Xalil Sulton Mirzoga qarshi bosh ko'taradi. Sulton Husayn Mirzo Xalil Sulton Mirzoga kim bo'ladi?

- A) akasi
- B) amakisi
- S) jiyani
- D) ukasi

11. Kim Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon askar tortadi?

- A) Shohrux
- B) Mironshoh
- S) Pirmuhammad
- D) Umarshayx Mirzo

12. Kim temuriylar davrida boshlangan o'zaro va sulola kurashlari davrida Xurosonda hokimi mutlaq bo'lib oladi?

- A) Mironshoh
- B) Sulton Husayn Mirzo
- S) Shohrux
- D) Xalil Sulton Mirzo

13. Pirmuhammad XV asr boshida qayerda hokimi mutlaq bo'lib oladi?

- A) Xurosonda
- B) G'arbiy Eron va Ozarbayjonda
- S) Balx, G'azna va Kandahorda
- D) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda

14. Kimlar temuriylar davrida boshlangan o'zaro va sulola kurashlari davrida G'arbiy Eron va Ozarbayjonda hokimi mutlaq bo'lib oladilar?

- A) Umarshayx Mirzo bilan Abu Bakr Mirzolar
- B) Pirmuhammad
- S) Xalil Sulton Mirzo
- D) amir Berdibek

15. Xalil Sulton Mirzo taxtda o'tirganda amir Berdibekning tasarrufida qaysi viloyatlar qoladi?

- A) Xorazm
- B) G'arbiy Eron va Ozarbayjon
- S) Balx, G'azna va Kandahor
- D) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram

16. Kim XV asrning boshida O'ratepa bilan Farg'onani egallab oladi?

- A) Shohrux
- B) amir Xudoydod Husayniy
- S) Pirmuhammad
- D) Umarshayx Mirzo

17. Temuriylar davrida boshlangan o'zaro va sulola kurashlari davrida Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan Idiku qayerni bosib oladi?

- A) Xurosonni
- B) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramni
- S) O'ratepa bilan Farg'onani
- D) Xorazmni

18. Qachon Pirmuhammad vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'ladi?

- A) 1407-yil 22-fevralda
- B) 1408-yil 22-aprelda
- S) 1409-yil 25-aprelda
- D) 1405-yil 18-martda

19. Kim 1408-yil 22-aprelda Qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi?

- A) Pirmuhammad
- B) Pir Ali Toz
- S) Mironshoh
- D) Ulug'bek

20. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketishining sababini ko'rsating.

- A) Pirmuhammadning o'z vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'lishi
- B) Xalil Sulton Mirzoning o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilishi
- S) Mironshohning Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda halok bo'lishi
- D) Movarounnahr va Turkistonda Ulug'bek boshchiligidagi davlatni vujudga kelishi

21. Kim 1409-yil bahorida O'ratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi?

- A) Amir Xudoydod
- B) Mironshoh
- S) Pirmuhammad
- D) Shohrux

22. Sheroy yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini kimdan mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi?

- A) Amir Xudoydod
- B) Shohrux
- S) Ulug'bek
- D) Pirmuhammad

23. Qachon Shohrux Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi?



- A) 1408-yil 22-aprelda
- B) 1407-yil 22-fevralda
- S) 1409-yil 25-aprelda
- D) 1405-yil 18-martda

24. Qanday maqsadda Shohrux boshlagan harakat mamlakat fuqarolarining ko'pgina tabaqalari tomonidan quvvatlanadi?

- A) temuriyzodalar va amirlar o'rtasida sulh tuzilishiga erishish
- B) temuriyzodalar va amirlar o'rtasidagi kurashga xotima berish
- S) temuriyzodalar va amirlar tomonidan Xalil Sultonni tan olinishiga erishish
- D) Movarounnahr va Xurosonda Pirmuhammad hukmronligini o'rnatishga harakat qilishi

25. Quyidagi sabalardan qay biri Shohruxning Movarounnahrda beshliklarga chek qo'yib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hukmronligini o'rnatishga hamda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga muvaffaq bo'lishga imkon berdi?

- A) Movarounnahr va Xurosonda Pirmuhammad hukmronligini o'rnatishga harakat
- B) mamlakat fuqarolarining ko'pgina tabaqalari tomonidan Shohrux boshlagan harakatni quvvatlanishi
- S) Xalil Sulton Mirzoning o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilishi
- D) muxolifatchi kuchlarning ajralib chiqish uchun harakat qilishi

26. Shohruxning hukmronligi davrida mamlakat necha davlatga bo'lingan edi?

- A) ikki
- B) uch
- S) to'rt
- D) besh

27. Shohrux boshchiligidagi Amudaryodan janubda joylashgan davlatning markazi qaysi shahar edi?

- A) Marv
- B) Balx
- S) Hirot
- D) G'azna

28. Shohruxning hukmronligi davrida Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelgan davlatga kim boshchilik qilardi?

- A) Xalil Sulton Mirzo
- B) Sulton Husayn Mirzo
- S) Ulug'bek
- D) Umarshayx Mirzo

29. Shohruxning hukmronligi davrida Samarqand qaysi davlatning poytaxti edi?

- A) Movarounnahr va Turkiston
- B) Turkiston
- S) Movarounnahr
- D) Movarounnahr va Xuroson

30. Valiahd — bu ...

- A) mavjud hokimiyat siyosatiga qarshi kuchlar
- B) toj-u taxt vorisi
- S) davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish borasidagi faoliyat.
- D) hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi

31. Mavjud hokimiyat siyosatiga qarshi kuchlar ifodasini beruvchi so'zni aniqlang.

- A) muxolifat
- B) valiahd
- S) muhassil
- D) muhtasib

32. Qachon Shohrux Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi?

- A) 1409-yilda
- B) 1410-yilda
- S) 1411 yilda
- D) 1412-yilda

33. Ulug'bekning hokimiyati dastavval faqat qaysi viloyatlar bilangina cheklanardi?

- A) Balx, G'azna va Kandahor
- B) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram
- S) Samarqand, Buxoro va Nasaf
- D) O'ratepa bilan Farg'ona

34. Shohrux avval boshdan Amirak Ahmadga qayerni in'om qilgan edi?

- A) Turkiston hamda Farg'ona
- B) Farg'onadan to O'zgangacha
- S) O'ratepa bilan Farg'ona
- D) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram

35. Shohrux Hisori Shodmonni avval boshdan kimga in'om qilgan edi?

- A) Amirak Ahmadga
- B) Shayx Nuriddinga
- S) Amir Abdulholiqqa
- D) Muhammad Jahongirga

36. Qaysi hokim na Ulug'bek va na Shohruxni tan olardi?

- A) Hisori Shodmon hokimi Muhammad Jahongir
- B) Balx, G'azna va Kandahor hokimi Pirmuhammad
- S) Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram hokimi amir Berdibek
- D) Turkiston hokimi Shayx Nuriddin

37. 1410-yilda Turkiston hokimi Shayx Nuriddin kimlar bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi?

- A) Sulton Husayn Mirzo, Xalil Sulton, Umarshayx Mirzo
- B) Muhammad Jahongir, Amir Abdulholiq hamda Chingiz o'g'lon
- S) Abu Bakr, amir Berdibek, amir Xudoydod Husayniy
- D) Pir Ali Toz, Qora Yusuf, Shayx Nuriddin

38. Kim Shayx Nuriddin temuriylarga qarshi isyon ko'targanda Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi bo'lgan?

- A) Shayx Nuriddin
- B) Amirak Ahmad
- S) Amir Abdulholiq
- D) Chingiz o'g'lon

39. Quyidagi ko'rsatilganlardan qay biri oq o'rdalik xonzodalardan bo'lgan?

- A) Chingiz o'g'lon
- B) Shayx Nuriddin
- S) Amirak Ahmad
- D) Amir Abdulholiq

40. Qachon Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi?

- A) 1447-yil 12-martda
- B) 1410-yil 20-aprelda
- S) 1409-yil 25-aprelda
- D) 1408-yil 22-aprelda

41. Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida bo'lgan jangda ...

- A) Ulug'bek mag'lubiyatga uchrab, Kalifga tomon chekinadi.
- B) Shayx Nuriddin mag'lubiyatga uchrab, Kalifga tomon chekinadi.
- S) Ulug'bek va Shayx Nuriddin qo'shinlari teng kelib, o'zaro kelishuvga erishadilar.
- D) Ulug'bekka Muhammad Jahongir va Amir Abdulholiq qo'shinlari taslim bo'ladilar.

42. Kim Shayx Nuriddin isyonini bostiradi?

- A) Ulug'bek
- B) Boysung'ur
- S) Shohrux
- D) Alouddavla

43. Movarounnahr va Turkistonni boshqarish to'liq Ulug'bek qo'lga o'tganda Ulug'bek necha yoshda edi?

- A) 18 yashar
- B) 20 yashar
- S) 24 yashar
- D) 22 yashar

44. Qachon Ulug'bek Farg'ona va Koshg'arni egallaydi?

- A) 1412-yilda
- B) 1413-yilda
- S) 1414-yilda
- D) 1425-yilda

45. Kim tomonidan 1413-yilda Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olinadi?

- A) Ulug'bek
- B) Shayx Nuriddin
- S) Idiku
- D) Shohrux

46. Ulug'bek davlatining qaysi chegaralarining tomonlari xavfsizligi muqimlashgan?

- A) sharqiy va janubiy
- B) g'arbiy va janubiy
- S) g'arbiy va shimoliy
- D) shimoliy va sharqiy

47. Ulug'bek davlatining chegaralarining qaysi tomonlari xavfsizligi hali xavotirli edi?

- A) g'arbiy va shimoliy
- B) g'arbiy va janubiy
- S) shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy
- D) janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy

48. Nima sababli Ulug'bek Dashti Qipchoqda boshlangan o'zaro nizoga hamda mo'g'ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi?

- A) mo'g'uliston taxtiga temuriy shahzodani o'tkazish maqsadida
- B) Xorazmni Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olish uchun
- S) davlatining shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy chegaralarining xavfsizligini ta'minlash uchun
- D) mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etish maqsadida

49. Ulug'bek qachon mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi?

- A) 1425-yilning erta bahorida
- B) 1425-yilning erta kuzida
- S) 1425-yilning erta yozida
- D) 1425-yilning erta qishida

50. Ulug'bek qayerda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi?

- A) Qizilravot mavzeyida
- B) Tarnob yaqinida
- S) Damashq qishlog'i yaqinida
- D) Issiqko'l yaqinida

51. Ulug'bekning mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlashga olib kelgan voqeani qayd eting.

- A) 1425-yilda Ulug'bekning mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonishi
- B) 1449-yil oktabrda Damashq qishlog'i yaqinida Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchilarni tor-mor etishi
- S) Tarnob yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilishi
- D) 1425-yilda Ulug'bekning Dashti Qipchoq ustidan g'alaba qozonishi

52. Ulug'bekning qayerdagi jangda qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi bor edi?

- A) Qizilravot mavzeyida
- B) Tarnob yaqinida
- S) Issiqko'l yaqinidagi jangda
- D) Damashq qishlog'i yaqinida



53. Ulug‘bek mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonishi natijasida nefritdan nima yasattiriladi?

- A) suv turadigan xum
- B) Amir Temur maqbarasi uchun qabr toshi
- S) ziyofatlar uchun qadah
- D) taxt kursi — Ko‘ktosh

54. Qayerda mo‘g‘ulistonda bo‘lgan urushda Ulug‘bek qozongan g‘alabani nishoni tarzida 1428-yilda Ulug‘bek tomonidan qoya toshga o‘ziga xos “zafarnoma” yozdirilgan?

- A) Jizzax yaqinida Ilono‘tti darasi ichida
- B) Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo‘yida
- S) Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida
- D) Issiqko‘l yaqinida

55. Qayerga qarshi qilingan yurishda Ulug‘bekning omadi kelmaydi?

- A) Xorazmga
- B) mo‘g‘ulistonga
- S) Dashti Qipchoqqa
- D) Xurosonga

56. Shohrux qachon vafot etadi?

- A) 1449-yil 27-oktabrda
- B) 1447-yil 12-mart
- S) 1469-yil 24-martda
- D) 1409-yil 25-aprelda

57. Kim Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida vafot etadi?

- A) Ulug‘bek
- B) Xalil Sulton
- S) Pirmuhammad
- D) Shohrux

58. Nima sababdan 1447-yilda Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-taxt uchun kurash yana avjga minib, mamlakat beqarorlik va chuqur ijtimoiy-siyosiy larzalarga duchor bo‘ldi?

- A) Shohruxning vafot etishi
- B) Ulug‘bekning vafot etishi
- S) Sulton Muhammad isyoni
- D) Alouddavla Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatifning qo‘shinini tor-mor qilib, uni asirga olishi

59. Ma‘lumki, Shohrux vafot etgach odatga ko‘ra Hirot taxtiga Shohruxning to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek o‘tirishi kerak edi. Ammo taxtni kim egallaydi?

- A) Abulqosim Bobur
- B) Abdulaziz
- S) Boysung‘ur
- D) Boysung‘urning o‘g‘li Alouddavla

60. Qachon Alouddavla Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatifning qo‘shinini tor-mor qilib, uni asirga oladi?

- A) 1449-yilning oktabrda
- B) 1447-yilning bahorida
- S) 1448-yilning bahorida
- D) 1447-yilning kuzida

61. Ulug‘bek bilan Alouddavla o‘rtasida tusilgan sulhga ko‘ra ...

- A) Abdullatif ozod qilinadi, Ulug‘bek esa Hirot va Xurosonga bo‘lgan da‘vosidan voz kechadi.
- B) Abdulaziz ozod qilinadi, Ulug‘bek esa Hirot va Xurosonga bo‘lgan da‘vosidan voz kechadi.
- S) Abdullatif ozod qilinadi, Ulug‘bek esa Movarounnahrda bo‘lgan da‘vosidan voz kechadi.
- D) Alouddavla Movarounnahr hukmdori deb tan olinadi.

62. Qachon Ulug‘bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo‘shini Hirotga yurish qiladi?

- A) 1447-yilning kuzida
- B) 1447-yilning bahorida
- S) 1448-yilning bahorida
- D) 1448-yilning kuzida

63. Qaysi jangda Alouddavla qo‘shini tor-mor keltirilib, Hirot qo‘lga kiritiladi?

- A) Damashq qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda
- B) Tarnob yaqinida bo‘lgan jangda
- S) Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida bo‘lgan jangda
- D) Issiqko‘l yaqinida bo‘lgan jangda

64. Movarounnahrda Ulug‘bekka qarshi isyon boshlanganligi sababli ...

- A) Ulug‘bek Abdullatif boshchiligida isyonni bostirish uchun Samarqandga qo‘shin jo‘natadi.
- B) Ulug‘bek Hirot va Xurosonga bo‘lgan da‘vosidan voz kechadi.
- S) Ulug‘bek Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o‘zi Samarqandga qaytadi.
- D) Ulug‘bek Xurosonni Alouddavlagga qaytarib beradi.

65. Abdullatifning otasiga nisbatan adovat paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan bahonani qayd eting.

- A) Ulug‘bekning Alouddavla bilan sulh tuzishi
- B) Ulug‘bekning Abulqosim Bobur foydasiga Xurosonga bo‘lgan da‘vosidan voz kechishi
- S) Ulug‘bek tomonidan Abdullatifni Balxga noib qilib tayinlanishi
- D) Alouddavla ustidan qozonilgan g‘alaba to‘g‘risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olingani, Ixtiyoriddin qal‘asidagi xazina Ulug‘bek tomonidan olib qo‘yilgani

66. Abdullatif Hirotida necha kun hokimlik qiladi?

- A) olti oy
- B) o‘n besh kun
- S) uch oy
- D) yigirma besh kun

67. Kimning qo‘shinining Xirotga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib Abdullatif poytaxtni jangsiz bo‘shatib, Movarounnahr tomon qochadi?

- A) Abulqosim Bobur
- B) Alouddavla
- S) Boysung‘ur
- D) Abdulaziz

68. Ulug‘bek farmoni bilan Abdullatif qayerga noib qilib tayinlanadi?

- A) Hirotga
- B) Kobulga
- S) Balxga
- D) G‘aznaga

69. Abdullatif qayerda “tamg‘a” solig‘ini bekor qilib, savdogarlarni o‘z tarafiga og‘dirib oladi?

- A) Hirotga
- B) Kobulda
- S) Balxda
- D) G‘aznada

70. Kim bilan Abdullatif bog‘lanib, uni birlashib Ulug‘bekka qarshi kurashga undaydi?

- A) Abulqosim Bobur
- B) Alouddavla
- S) Boysung‘ur
- D) Abdulaziz

71. Hirotidan Samarqandga qaytar ekan, Ulug‘bek old tomondan kimlarning hujumiga duchor bo‘ladi?

- A) Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi Amir Abdulholiq hamda oq o‘rdalik xonzodalardan Chingiz o‘g‘lonlarning
- B) Dashti Qipchoq ko‘chmanchilarining
- S) Oltin O‘rda hukmdorining
- D) Turkiston hokimi Shayx Nuriddinning

72. Ulug‘bek hukmronligi davrida Abulxayrxon boshchiligidagi ko‘chmanchilar qayerlarni talab, vayron qiladilar?

- A) O‘ror, Toshkent, Xo‘jand tevaragidagi qishloqlarni
- B) Kat, Urganch, Marv tevaragidagi qishloqlarni
- S) Yangikent, Jand, O‘ror tevaragidagi qishloqlarni
- D) Toshkent, Shohruxiya, Samarqand va Buxoro tevaragidagi qishloqlarni

73. Samarqand amirlarining kimga qarshi noroziligi kuchayib, Ulug‘bek uni bartaraf qilishga majbur bo‘ladi?

- A) Abdullatif
- B) Abdulazizga
- S) Alouddavla
- D) Abulxayrxon

74. Abdullatif qulay fursatdan foydalanib, Amudaryodan kechib o‘tib, qayerlarni osongina zabt etadi?

- A) Toshkent, Shohruxiya, Samarqand va Buxoro
- B) O‘ror, Toshkent, Xo‘jand
- S) Yangikent, Jand, O‘ror
- D) Termiz, Shahrisabz va Xuzorni

75. Qachon Damashq qishlog‘i yaqinida Ulug‘bek bilan Abdullatif o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi?

- A) 1449-yil oktabrda
- B) 1448-yilning bahorida
- S) 1447-yilning bahorida
- D) 1425-yilning erta bahorida

76. Qaysi Samarqand amiri shahar darvozalarini berkitirib Ulug‘bekni ichkariga kirishga qo‘ymaydi?

- A) Shamsiddin Muhammad Miskin
- B) Mironshoh Qavchin
- S) Muhammad Jahongir
- D) Amir Abdulholiq

77. Ulug‘bek Samarqanddan tashqari yana qaysi shaharga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo‘lishga majbur bo‘ladi?

- A) Toshkent
- B) Samarqand
- S) Buxoro
- D) Shohruxiya

78. Kimning qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o‘ldirilishini uyushtiradi?

- A) shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning
- B) Samarqand amiri Mironshoh Qavchinning
- S) o‘g‘li Abdulazizning
- D) Dashti Qipchoq hukmdori Abulxayrxonning

79. Ulug‘bek Movarounnahrni necha yil idora qildi?

- A) yigirma yil
- B) o‘ttiz yil
- S) qirq yil
- D) ellik yil

80. Qachon va necha yoshda mashhur olim va hukmdor Mirzo Ulug‘bek Samarqand yaqinida fojiali suratda halok bo‘lgan?

- A) 1449-yil 27-oktabrda 65 yoshida
- B) 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida
- S) 1448-yil 27-oktabrda 55 yoshida
- D) 1449-yil 17-oktabrda 50 yoshida

81. Siyosat — bu ...

- A) davlat hokimiyatini boshqarish
- B) mavjud hokimiyat siyosatiga qarshi kuchlar
- S) davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish borasidagi faoliyat
- D) hukmdorning shaxsiy topshirig‘ini bajarish

82. Qayer Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshan-ni-g g‘arbiy yonbag‘ridan to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo‘lgan hududni egallagan?

- A) Oq O‘rda
- B) Oltin O‘rda
- S) mo‘g‘uliston
- D) Dashti Qipchoq

83. Ulug‘bek qatl etilib, oradan bir necha kun o‘tgach, Abdullatif nima maqsadida o‘z inisi Abdulazizni hamda otasiga sodiq bo‘lgan amirlarni o‘ldirtirdi?

- A) har qanday yordam olishni bartaraf etish
- B) Abulqosim Boburdan madad kelmasligi uchun
- S) Dashti Qipchoqdan kelayotgan Abulxayrxonni qaytarib yuborish
- D) taxt da‘vogaridan qutulish

84. Abdullatif qay tartibda temuriylarning Movarounnahrda toj-u taxtini batamom egallab oldi?

- A) har qanday yordam olishni bartaraf etgach
- B) o'z inisi Abdulazizni hamda otasiga sodiq bo'lgan amirlarni o'ldirib
- S) Xurosondan kelayotgan qo'shinni mag'lubiyatga uchratib
- D) Dashti Qipchoqdan kelayotgan Abulxayrxonni qaytarib yuborib

85. Kim aholi tomonidan "padarkush" ("ota qotili") deb la'natlangan?

- A) Abdullatif
- B) Abdulaziz
- S) Abulqosim Bobur
- D) Alouddavla

86. Oradan qancha vaqt o'tib Abdullatifga qarshi saroyda fitna uyushtirilib, u o'ldirildi?

- A) besh yarim oy o'tar-o'tmas
- B) olti yarim oy o'tar-o'tmas
- S) yetti yarim oy o'tar-o'tmas
- D) uch yarim oy o'tar-o'tmas

87. Abdullatif o'ldirilgach kimlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanadi?

- A) Abdulaziz va Abulqosim Bobur
- B) Alouddavla va Abulqosim Bobur
- S) Mirzo Abdullo va Abu Said
- D) Mironshoh Qavchin va Shamsiddin Muhammad Miskin

88. Qayerdagi hukmdorlar uchun XV asrning o'rtasida Movarounnahr va Xurosonda muttasil davom etib turgan o'zaro kurashlar juda qo'l keladi?

- A) Dashti Qipchoq
- B) Oltin O'rda
- S) Xuroson
- D) mo'g'uliston

89. Qachon Abulxayrxon katta qo'shin bilan Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi yurish qiladi?

- A) 1457-yilda
- B) 1469-yilda
- S) 1449-yilda
- D) 1451-yilda

90. Abulxayrxon katta qo'shin bilan Samarqandga Mirzo Abdulloga qarshi yurish qilganda qaysi joylar orqali o'tadi?

- A) Toshkent, Chinoz va Jizzax orqali
- B) Termiz, Shahrisabz va Xuzorni
- S) Toshkent, Shohruxiya, Buxoro
- D) yangikent, Jand, O'tror

91. Kimlar o'rtasida Sheroz qishlog'i yaqinida Bulung'ur anhuri yoqasida jang bo'ladi?

- A) Mirzo Abdullo bilan Abu Said
- B) Abdulaziz bilan Abulqosim Bobur
- S) Alouddavla bilan Abulqosim Bobur
- D) Abulxayrxon bilan Abu Said

92. Kim Sheroz qishlog'i yaqinida jangda yengiladi va halok bo'ladi?

- A) Abu Said
- B) Abulxayrxon
- S) Mirzo Abdullo
- D) Alouddavla

93. Kimning yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib oladi?

- A) Alouddavla
- B) Abdulaziz
- S) Abulqosim Bobur
- D) Abulxayrxon

94. Qayer Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi?

- A) Movarounnahr
- B) Dashti Qipchoq
- S) Hiyor Shodmon
- D) Xuroson

95. Temuriylar davri muarrirlarining yozishicha, Abulqosim Bobur davrida Xuroson necha bo'lakka ajralib ketadi?

- A) o'n besh
- B) o'n bir
- S) o'n sakkiz
- D) o'n ikki

96. Qachon Abulqosim Bobur vafot etadi?

- A) 1457-yilda
- B) 1451-yilda
- S) 1469-yilda
- D) 1458-yilda

97. Qanday qulay vaziyatdan foydalangan Abu Said Hirot taxtini egallaydi?

- A) Abulqosim Bobur vafot etishi
- B) Abulqosim Boburga qarshi Sulton Husaynning isyoni
- S) Xurosonning Eronga qarshi harbiy yurishi
- D) Abulqosim Boburning turkmanlarga qarshi jangga ketishi

98. Abu Said Hirot taxtini qachon egallaydi?

- A) 1451-yilda
- B) 1469-yilda
- S) 1457-yilda
- D) 1458-yilda

99. Kim Shohruxning vafotidan so'ng Movarounnahr va Xurosonni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi?

- A) Abulqosim Bobur
- B) Abu Said
- S) Abdullatif
- D) Abdulaziz

100. Abu Said qaysi holatga barham bera olmaydi?

- A) Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining talonchiligiga

B) mo'g'ulistonning har yilgi bosqinchiligiga
S) Lahor masalasida Hindiston bilan kelishmovchilikka
D) viloyat hokimlarining mustaqil hukmronlikka intilishlariga, tarqoqlikka

101. Abu Saidni hammadan ko'proq nima tashvishlantiradi?

A) Xorazmdagi Sulton Husaynning isyonlari
B) Lahor masalasida Hindiston bilan kelishmovchilik
S) mo'g'ulistonning har yilgi bosqinchiligi
D) Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining talonchiligi

102. Abu Said qachon va kimlarga qarshi jangda halok bo'ladi?

A) 1451-yilning erta bahorida, Dashti Qipchoq ko'chmanchilarga
B) 1469-yilning erta bahorida, mo'g'ullarga
S) 1469-yilning erta bahorida, turkmanlarga
D) 1469-yilning erta bahorida, hindlarga

103. Abu Said davrida Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni kimlar egallab turgan?

A) usmoniy turklar
B) turkmanlar
S) Dashti Qipchoq o'zbeklari
D) mo'g'ullar

104. Qachon Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida Hirotga kirib boradi?

A) 1449-yil 27-oktabrda
B) 1447-yil 12-martda
S) 1469-yil 24-martda
D) 1410-yil 20-aprelda

105. Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida Hirotga kirib borishi natijasida ...

A) Temuriylar saltanati yana yagona davlatga birlashadi.
B) Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga bo'linib ketadi.
S) Movarounnahr va Turkistonni kuchayishiga olib keladi.
D) mahalliy kuchlarning mustaqillikka intilishini kuchaytiradi.

106. Xurosonda Sulton Husayn taxtga o'tirganda Movarounnahrda kim hukmronlik qilardi?

A) Sulton Ahmad
B) Sulton Mahmud
S) Sulton Ali
D) Abu Said

107. Qaysi yillarda Movarounnahrda Sulton Ahmad hukmronlik qildi?

A) 1498—1501-yillarda
B) 1494—1495-yillarda
S) 1469—1494-yillarda
D) 1469-1507-yillarda

108. 1494—1495-yillarda Movarounnahrda kim hukmronlik qildi?

A) Sulton Ahmad
B) Abu Said
S) Sulton Ali
D) Sulton Mahmud

109. Sulton Ali mustaqil hokimlik qiladi?

A) 1498—1501-yillarda
B) 1494—1495-yillarda
S) 1469—1494-yillarda
D) 1451-1469-yillarda

110. Mamlakat, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan paytlarda sufiylik tariqatining namoyandalaridan qay biri musibatlarini daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi?

A) Shamsiddin Muhammad Miskin
B) Xoja Ubaydulloh Ahror
S) Mironshoh Qavchin
D) Shayx Shamsiddin Kulol

111. Kim 1454-yilda Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrda bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida mojaroga qat'iyon aralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi?

A) Shayx Shamsiddin Kulol
B) Shamsiddin Muhammad Miskin
S) Sayyid Baraka
D) Xoja Ubaydulloh Ahror

112. Xoja Ubaydulloh Ahror o'z obro'yi bilan ...

A) diniy ta'limot, islomiy urf-odatlarini targ'ib qildi.
B) turkiy adabiy tilini rivojiga muhim hissa qo'shdi.
S) o'zaro urushning oldini olib, mamlakatni vayronagarchilikdan xalos etgan edi.
D) insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi.

113. Sulton Husayn Boyqaroga oid bo'lgan ma'lumotlarni qayd eting.

1) Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmdori edi; 2) o'z tasarrufida Xuroson, Xorazm hamda Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlarini birlashtirgan edi; 3) qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori edi; 4) uning davrida mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti yuksaldi; 5) Xurosonning obod etilishida, ravnaq topishida zamonasining tadbirkor va dono hukmdori; 6) Sarbadorlar harakatini qo'llab-quvvatlagan; 7) Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi; 8) qo'shinni yetti qo'lga — qismga bo'lib joylashtirish tartibini joriy qilgan; 9) Dashti Qipchoqqa qarshi jangda yengiladi; 10) Movarounnahr va Xurosonni yagona davlatga birlashtiradi.

A) 1, 2, 3, 4, 5
B) 6, 7, 8, 9, 10
S) 1, 2, 3, 4, 5, 9, 10
D) 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10

114. Alisher Navoiy 1441-yilda qayerda dunyoga kelgan?

- A) Shiroz
- B) Qandahor
- S) Balx
- D) Hirot

115. Alisher Navoiyning ota-bobosi qayerda xizmat qilgan?

- A) chig'atoylar saroyida
- B) temuriylar saroyida
- S) g'aznaviylar saroyida
- D) somoniylar saroyida

116. Ma'lumki, Sulton Husayn bilan Alisher bir maktabda o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq qaysi hukmdorning xizmatida bo'lganlar?

- A) Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur
- B) Xuroson hukmdori Shohrux
- S) Xuroson hukmdori Boysung'ur
- D) Xuroson hukmdori Alouddavla

117. Sulton Husayn bilan Alisher Navoiy necha yil davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar?

- A) 10 yil
- B) 12 yil
- S) 14 yil
- D) 16 yil

118. Sulton Husayn avval Xorazmda, so'ngra Xurosonning Hirot, Obivard, Niso, Mashhad darbadarlikda yurib, kuch to'plab Abu Saidga qarshi isyonlar ko'taradi. Alisher Navoiy bu yillarda ...

- A) Mashhad va Hirotida o'qiydi.
- B) Sulton Husaynga qo'shin to'plab beradi.
- S) "Hamsa" yozib tugatadi.
- D) Abu Said saroyida dastlab muhrdorlik lavozimida, keyinroq esa vazir sifatida faoliyat ko'rsatadi.

119. Alisher Navoiy o'ziga nisbatan Abu Saidda adovat kayfiyatini sezib qolgach, qayerga ko'chib borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi?

- A) Hirot
- B) Samarqand
- S) Buxoro
- D) Balx

120. Samarqandda Alisher Navoiy kimdan saboqlar oladi?

- A) Fazlulloh Abullays Samarqandiydan
- B) Xoja Ubaydulloh Ahrordan
- S) Abdurahmon Jomiydan
- D) Lutfiydan

121. 1469-yilda Sulton Husayn Hirotni egallagach, Alisher Navoiyni dastlab ...

- A) muhtasib lavozimiga, keyinroq esa o'ziga valiahd qilib tayin etadi.
- B) devonbegi lavozimiga, keyinroq esa yasovul qilib tayin etadi.

S) vazir lavozimiga, keyinroq esa muhrdorlik qilib tayin etadi.

D) muhrdorlik lavozimiga, keyinroq esa vazir qilib tayin etadi.

122. Sulton Husayn hukmronligi davrida Alisher Navoiy mamlakatda ko'rsatgan xizmatlarini qayd eting.

1) mustahkam markazlashgan saltanat vujudga kelishi; 2) viloyatlar sug'orilib obod etilishi; 3) qishloqlarda dehqonchilik taraqqiy qilishi; 4) shaharlarda hunarmandchilik va savdoning kengayib taraqqiy qilishi; 5) Sarbadorlar harakatini qo'llab-quvvatlagan; 6) amalda Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmdori edi.

- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- S) 2, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 3, 6, 7

123. Alisher Navoiy nima tarafdori edi?

- A) adabiyotni tarqqiy ettirish
- B) turkiy tilni davlat tili darajasiga ko'tarish
- S) adabiyot, san'at va ilm-ma'rifatning ravnaqi, aholining tinch va osoyishta istiqomat qilishi
- D) aholini toza ichimlik suvi bilan ta'min etish, bepul shifoxonalar barpo etish

124. Qanday ahvol bosh vazirlik vazifasida turgan Navoiyning saroydan, hatto poytaxtdan uzoqlashishiga olib keladi?

1) viloyat hukmdorlari, hatto toj-u taxt valiahdlari Badiuzzamon va Muzaffar Husayn Mirzo isyonlari yuz beradi; 2) zulm oqibatida Hirot va uning viloyatlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi; 3) o'z manfaatlarini ko'zlagan ochko'z saroy ma'murlari fitna va fasodni avj oldirib, uning botqog'iga Sulton Husaynni ham botirishlari; 4) mustahkam markazlashgan saltanat vujudga kelishi; 5) Sarbadorlar harakatini avj olishi; 6) viloyatlar sug'orilib obod etilmasligi.

- A) 1, 2, 3
- B) 1, 2, 3, 4, 5
- S) 3, 4, 5, 6
- D) 1, 2, 4, 5

125. Sulton Husayn davlati nimaga asoslangan edi?

- A) tarxon tartibiga asoslangan
- B) suyurg'ol tartibiga asoslangan
- S) iqto" tartibiga asoslangan
- D) xalq hokimiyatiga asoslangan

126. Qachon beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi?

- A) XIV asrning ikkinchi yarmi
- B) XV asrning ikkinchi yarmi
- S) XVI asrning ikkinchi yarmi
- D) XV asrning birinchi yarmi

127. Xususiy sohibkorlarning qanday faoliyati temuriylar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi?

- A) aholini doimiy ravishda begorga jalb qilishi
- B) qo'shinni doimo oziq-ovqat bilan ta'minlab turishi
- S) aholidan soliqlarni begor tartibi orqali yig'ib olishi
- D) dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib,

bog' ko'kartirish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati

128. Temuriylar sohibkorlarning qanday faoliyati uchun bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etiladi?

A) dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog' ko'kartirish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etishi

B) dehqonchilik va polizchilikdan mo'l hosil olishi

S) aholiga toza ichimlik suvini keltirish

D) o'z mablag'lari hisobiga to'g'on va suv omborlarini bunyod etishlari

129. Temuriylar davrida eng yirik sug'orish ishlari-dan birini aniqlang.

A) Sultonbandning tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi bo'ldi.

B) Marviruddan yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etilishi bo'ldi.

S) Angor kanalining qayta tiklanishi bo'ldi.

D) Turuqband suv ombori qurilishi bo'ldi.

130. Qaysi kanal Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan, Darg'om anhoridan chiqarilgan?

A) Angor kanali

B) Sultonband

S) Marvirud

D) Turuqband

131. Temuriylar davrida Angor kanali orqali qayerga qo'shimcha suv chiqariladi?

A) Zarafshon vohasiga

B) Qashqadaryo vohasiga

S) Murg'ob vohasiga

D) Surxondaryo vohasiga

132. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda qayerga suv chiqarilib yangi yerlar o'zlashtiriladi?

A) Samarqand vohasiga

B) Qashqadaryo vohasiga

S) Somonjuq dashtiga

D) Murg'ob vohasiga

133. Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasida qanday dasht joylashgan?

A) Angor

B) Marvirud

S) Turuqband

D) Somonjuq dashti

134. Sultonbandning Shohrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli qayerning suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi?

A) Marv shahri va Murg'ob vohasining

B) Hirotning

S) Mashhad

D) Qashqadaryo vohasi

135. Murg'ob daryosining bosh to'g'onini aniqlang.

A) Angor

B) Marvirud

S) Sultonband

D) Turuqband

136. Kimning hukmronlik qilgan davrda Marviruddan yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi?

A) Sulton Husayn Mirzo

B) Shohrux

S) Ulug'bek

D) Abu Said

137. Alisher Navoiyning tashabbusi bilan Turuqband suv ombori qayerda qurdiriladi?

A) Marv shahrida

B) Tus viloyatining yuqori qismida

S) Hirotida

D) G'azna viloyatining yuqori qismida

138. Turuqband suv omborining qazilishi natijasida qayer suv bilan ta'min etilib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi?

A) Hirot

B) G'azna

S) Mashhad

D) Marv

139. Temuriylar davrida xo'jalikning iqtisodiy hayotida dehqonchilik bilan yaylov chorvachiligi muhim o'rin tutgan. Yaylov chorvachiligining qaysi sohalari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etgan?

A) qo'ychilik va zotdor otlarni yetishtirish

B) yilqichilik, tuyachilik hamda podachilik

S) yilqichilik va qoramol yetishtirish

D) podachilik

140. Butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikning asosan necha shaklda bo'lgan?

A) ikki

B) uch

S) besh

D) to'rt

141. Temuriylar davrida dehqonchilik yerlarining eng katta qismi ...

A) xususiy mulk hisoblangan.

B) davlat mulki hisoblangan.

S) vaqf mulki hisoblangan.

D) jamoa yerlar hisoblangan.

142. Ma'lumki, Temuriylar davrida davlat yerlarini "suyurg'ol" tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Odatda qayer suyurg'ol shaklida in'om etilgan?

A) shahar yoki viloyatlardan tortib to alohida qishloqqacha

B) tuman

S) bir necha qishloq

D) bir necha tuman va viloyat



143. Temuriylar davrida butun bir shahar yoki viloyatlar odatda kimlarga berilgan?

- A) ruhoniylarga
- B) mahalliy hokimlarga
- S) hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga
- D) zodagonlarga

144. Temuriylar davrida suyurg'ol yer va mulklar ko'pincha qay tarzda berilgan?

- A) 15 yil muddatga
- B) avloddan avlodga meros qilib
- S) harbiy yoki davlat lavozimida bo'lgan vaqtgacha
- D) umrbod

145. Temuriylar davrida suyurg'ol egasiga qanday huquqlar berilgan?

- A) o'z suyurg'ol doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash
- B) o'z suyurg'ol doirasida kengashlar o'tkazish
- S) davlat kengashlarida maslahat ovozigga ega edi
- D) boshqa davlatlar bilan elchilik munosabatlarini o'rnatish

146. Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat qanday tadbir qo'llardi?

- A) har bir suyurg'ol egasiga markaziy hokimiyatdan maslahatchilar tayinlanardi.
- B) suyurg'ol yerida mavjud bo'lgan qo'shin qo'mondoni faqat oliy hukmdorga bo'ysunardi.
- S) ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning haq-huquqlarini cheklab qo'yar edi.
- D) markaziy hokimiyat oltin va kumush tangalar zarb qilardi, suyurg'ol egasi bunday imkoniyatga ega emas edi.

147. Suyurg'ol egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda ...

- A) suyurg'ol huquqidan mahrum etilar va boshqa shaxsga berilar edi.
- B) ularning haq-huquqlarini cheklab qo'yilar edi.
- S) ular tasarrufidagi yer maydonlari qisqartirilardi.
- D) suyurg'ol egasi davlat kengashlarida ishtirok etishidan mahrum etilardi.

148. Temuriylar davrida yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarga tegishli mayda paykallar ham qaysi mulk qatoriga kirgan?

- A) vaqf mulk yerlari
- B) xususiy mulk yerlari
- S) jamoa yerlari
- D) davlat yerlari

149. Temuriylar davrida bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalari biron xizmati uchun nima berish keng tarqaladi?

- A) iqto" yorlig'i berish
- B) vaqf yorlig'i berish
- S) tarxonlik yorlig'i berish
- D) iqto" va tarxonlik yorlig'i berish

150. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar qanday imtiyozlarga ega bo'lgan?

- A) amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan.
- B) barcha soliq va to'lovlarni yig'ish
- S) o'z yerini boshqarish
- D) barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan.

151. Tarxonlik yorlig'i odatda kimlarga berilgan?

- A) yirik harbiy va davlat mansabdorlariga
- B) hukmron sulola namoyandalari
- S) yirik ruhoniylarga
- D) amirlar, beklar, saroy amaldorlari, saidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga

152. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdor ismiga qaysi so'z qo'shib aytilgan?

- A) "tarxon"
- B) "bek"
- S) "mirzo"
- D) "amir"

153. Qanday yerlar "mulki vaqf" deb atalgan?

- A) masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilgan yer va suvlar, vaqf qilingan do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor rastalari, karvonsaroylar.
- B) shahar yoki viloyatlardan tortib to'aloqda qishloqgacha
- S) yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari, ziroatchilarga tegishli mayda paykallar
- D) qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan yerlar.

154. Vaqf mulkidan tushgan daromad nima uchun sarf etilgan?

- A) qishloq jamoasining ehtiyojlari uchun
- B) yetim-yesirlarni ta'minlash uchun
- S) masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri, jihozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarajlari uchun
- D) hukmdor xazinasini to'ldirib turish uchun

155. Temuriylar davrida jamoa yerlari ko'proq qayerda keng tarqalgan edi?

- A) suvga tanqis tog'oldi hududlarida
- B) vohalarda
- S) cho'llarda
- D) zich yashaydigan qishloqlarda

156. Temuriylar davrida kimlar davlat yoki vaqf yerlarida, tarxon yoki suyurg'ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida mehnat qilishgan?

- A) dehqonlar
- B) kadivarlar
- S) kashovarlar
- D) muzoriylar

157. Temuriylar davrida sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq nima deb atalgan?

- A) "ushr"
- B) "xiroj"
- S) zakot
- D) begor

158. Xiroj qay tartibda to'langan?

- A) faqat pul holida
- B) faqat mahsulot holida
- S) hunarmand buyumlari holida
- D) mahsulot yoki pul holida

159. Xiroj nimaga qarab belgilangan?

- A) mansabga qarab
- B) bajarilgan ishiga qarab
- S) hosilga va yerning unumdorligiga
- D) soliqlarni to'lab borilishiga qarab

160. Temuriylar davrida daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan obikor yerlardan xiroj hosilning qancha miqdorida olingan?

- A) oltidan bir (16,5%)
- B) uchdan bir qismi (33 foiz)
- S) sakkizdan bir (12,5%)
- D) o'ndan bir qismi (10%)

161. Temuriylar davrida lalmikor yerlardan hosilning qancha miqdorida soliq undirilgan?

- A) oltidan bir (16,5%) dan to sakkizdan bir (12,5%)
- B) uchdan bir qismi (33 foiz)
- S) o'ndan bir qismi (10%)
- D) to'rtidan bir (25%)

162. Temuriylar davrida mulk yerlarining bir qismidan hosilning o'ndan bir qismi (10%) miqdorida olingan soliqni aniqlang.

- A) "xiroj"
- B) targ'u
- S) kalon
- D) ushr

163. Qanday yerlar odatda zamonasining ilm-fani, ma'rifati va ma'naviy hayotida muhim nufuzga ega bo'lgan ulamolalar va mashoyixlar tasarrufida bo'lgan?

- A) ushr yerlar
- B) mulk yerlar
- S) mulki devoniy
- D) mulki vaqf

164. Temuriylar davrida chorva mollaridan qancha miqdorda zakot olingan?

- A) to'rtidan bir (25%)
- B) oltidan bir (16,5%)
- S) qirqdan bir (2,5%)
- D) sakkizdan bir (12,5%)

165. Temuriylar davrida mehnatkash aholiga yuklatilgan saroy, jamoat binolari, mudofaa va sug'orish

inshoatlarini hamda yo'l qurilish va tuzatish ishlarida tekkinga ishlab berish majburiyati nima deb atalgan?

- A) barot
- B) begor
- S) kalon
- D) qopchur

166. Temuriylar davrida ekin maydonlarida ishlov beruvchi yollanma ziroatchi qanday nom bilan atalgan?

- A) dehqon
- B) muzoriy
- S) kadivar
- D) kashovarz

167. Begorda qatnashgan har bir kishi ishlash uchun kerakli asbob-uskuna va yetarli yemaklarni ...

- A) davlat omborxonasidan olishi kerak edi.
- B) maxsus birlashtirilgan amaldorlardan olishi lozim edi.
- S) o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan.
- D) tarxon egasidan olishi kerak edi.

168. Movarounnahrning qaysi shaharlari temuriylar davrida hunarmandchilik markaziga aylanadi?

- A) Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi
- B) Sayram, Jand, Sig'noq, Toshkent, Andijon, O'zgan
- S) Xo'jand, Termiz, Balx, Kobul, Peshovar, G'azna
- D) Samarqand, Buxoro, Toshkaent, Hirot, Isfaxon, Dahiston

169. Temuriylar davrida ko'pgina shaharlarda qanday hunarmandchilik mahallalari bo'lgan?

- A) to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik
- B) temirchilik va binokorlik
- S) zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik, toshlarashlovchilar, shishasozlar, ko'pchilik
- D) uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilar

170. Temuriylar davrida qaysi hunarmandchilik sohalari yetakchi o'rinni egallagan edi?

- A) to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik
- B) uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilar
- S) zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik
- D) shishasozlar, ko'pchilik

171. XV asrda metall buyum yasovchilarining aksariyati kimlardan iborat edi?

- A) to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik buyumlari yasovchilar
- B) zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik buyumlari yasovchilar
- S) uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilardan
- D) zeb-ziynat yasovchilar



172. Temuriylar davrida qaysi shaharlarda zargarlik rivoj topadi?

- A) Samarqand va Buxoroda
- B) Samarqand va Hirotida
- S) Hirot va Buxoroda
- D) Samarqand va Balxda

173. Temuriylar davrida shahar zargarlari orasida qanday mohir ustalar soni ko'payadi?

- A) uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilar
- B) to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik buyumlari yasovchilar
- S) zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovtsozlik buyumlari yasovchilar
- D) oltin, kumush va jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziyinatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga badiiy ishlov beruvchi

174. Nima uchun temuriylar davrida naqshinkor badiiy buyumlar faqat mulkdor tabaqalargagina mansub edi?

- A) chunki ular haqiqiy san'at shaydolari edi.
- B) chunki mulkdor tabaqalar zeb-ziyinat yasovchilardan iborat edi.
- S) chunki ular boylik hashamlari hisoblangan.
- D) chunki mulkdor tabaqalar bunday buyumlarni hukmdorga tortiq qilish huquqiga ega edi.

175. O'rta asr hunarmandchiligida eng rivoj topgan sertarmoq sohani aniqlang.

- A) to'qimachilik
- B) kulolchilik
- S) chilangarlik
- D) zargarlik

176. Kulolchilik qanday tarmoqlarga bo'linadi?

- A) kosagarlar, xum va xumchasoqlar va tandirsoqlar
- B) uy-ro'zg'or buyumlari va qishloq xo'jaligi buyumlari yasovchilar
- S) chaynaksoqlar va piyolasoqlar
- D) xum va xumchasoqlar, piyolasoqlar

177. Qaysi davrda tosh yo'nish, unga sayqallar berib, o'ymakor naqshlar va xushxat yozuvlar bitish san'ati kamolotga yetadi?

- A) Somoniylar
- B) Qoraxoniylar
- S) Temuriylar
- D) Chingiziylar

178. Qaysi joylarda jimjimador naqshlar chizilgan, o'ymakor oyatlar, marsiyalar va tarixlar yozilgan?

- A) Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha zamonning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi.
- B) Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbaralari, Shohizinda me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan

Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli ulug'vor minora, Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari

S) Bibixonim jome masjidida Qur'onni qo'yish uchun o'rnatilgan ulkan tosh lavh, Go'ri Amirdagi nefrit qabr toshi, Shohizinda sag'analarga

D) Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino

179. Temuriylar davrida qaysi shaharlarda qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi?

- A) Samarqand va Buxoroda
- B) Hirot va Buxoroda
- S) Samarqand va Balxda
- D) Samarqand va Hirotida

180. G'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar qanday nom bilan yuritilgan?

- A) "ustod"
- B) "banno"
- S) "tamg'a"
- D) "fulus"

181. "Ustod" deb kimlar yuritilgan?

- A) peshtoq-u ravoq hamda toqilarga parchin va girixlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar
- B) g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar
- S) me'moriy obida tarxini chizuvchilar
- D) hunarmandning ustozlari

182. Quyidagilardan qaysilar XV asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalardan hisoblanadi?

A) Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino

B) Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbaralari, Shohizinda me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli ulug'vor minora, Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbaralari

S) Go'ri Amir va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari

D) Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha zamonning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi.

183. Qayerning qog'ozi o'rta asr Sharqi xattotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum bir qismi chet o'lkalarga chiqarilgan?

- A) Samarqand
- B) Hirot
- S) Buxoro
- D) Marv

184. XV asrda Temuriylar qaysi mamlakatlar bilan muntazam savdo-sotiq qilardi?

- A) Usmoniylar saltanati, Misr, Suriya, Xuroson
- B) Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volga bo'yi va Sibir
- S) Arab xalifaligi, Xuroson, Rusiya, Volga bo'yi va Sibir
- D) Usmoniylar saltanati, Misr, Suriya, Xitoy, Hindiston

185. Temuriylar davrida Xitoydan Samarqandga asosan nimalar olib kelingan?

- A) ipak, shoyi matolar, xususan atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk
- B) nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar
- S) surp, marvarid, durlar
- D) mo'yna, teri va mum

186. Temuriylar davrida Samarqandga qayerdan nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar olib kelingan?

- A) Xitoydan
- B) Rusiya, Tatariston va Sibirdan
- S) Tibet va Erondan
- D) Hindistondan

187. Temuriylar davrida surp, marvarid, durlar qaysi mamlakatdan olib kelingan?

- A) Xitoydan
- B) Rusiya, Tatariston va Sibirdan
- S) Erondan
- D) Hindistondan

188. Temuriylar davrida Samarqandga Rusiya, Tatariston va Sibirdan qanday mahsulotlar olib kelinardi?

- A) ipak, shoyi matolar, xususan atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk
- B) qimmatbaho mo'yna, teri va mum
- S) ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar
- D) surp, marvarid, durlar

189. Temuriylar davrida Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga nimalar olib kelingan?

- A) ipak, shoyi matolar
- B) qimmatbaho mo'yna, teri va mum
- S) ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar
- D) gazmollar, movuti, cherkas pichog'i

190. Temuriylar davrida Samarqanddan chet mamlakatlarga, xususan Rusiya, Tatariston va Sibirga qanday mahsulotlar chiqarilgan?

- A) farang gazmollari, movuti, cherkas pichog'i
- B) surp, marvarid, durlar
- S) arzon narxli ip matolar, asosan bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalava (yigirilgan ip)lar
- D) atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk

191. Qaysi mamlakat bilan Ulug'bek va Shohrux muntazam ravishda elchilar almashib turishgan?

- A) Hindiston
- B) Xitoy
- S) Eron
- D) Tibet

192. Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari Xitoyning qaysi shahariga qatnab turishgan?

- A) Qoshg'ar
- B) Xo'tan
- S) Bolasog'un
- D) Xonbaliqqa

193. Qachon Ardasher boshliq Shohrux elchilari Xitoyda bo'ladilar?

- A) 1418-yilda
- B) 1419-yilda
- S) 1420-yilda
- D) 1421 yilda

194. 1419-yilda kimga javoban Li-Do va Jong-Fu Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar?

- A) Abdurazzoq Samarqandiy boshliq Shohrux elchilariga
- B) Ardasher boshliq Shohrux elchilariga
- S) Ulug'bek boshliq Shohrux elchilariga
- D) Alouddin Ali Qushchi boshliq Shohrux elchilariga

195. Qayerga 1420-yilda Shohrux va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini jo'natadilar?

- A) Hindistonga
- B) Eronga
- S) Usmoniylar saltanatiga
- D) Xitoyga

196. Qaysi davlatda temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq bo'lib, 1422-yilda o'z vatanlariga qaytib keladilar?

- A) Hindistonda
- B) Xitoyda
- S) Eronda
- D) Usmoniylar saltanatida

197. Shohrux bilan Ulug'bek zamonida qaysi davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatiladi?

- A) Rusiya, Volga bo'yi va Sibir
- B) Xitoy, Hindiston va Eron
- S) Xitoy, Tibet va Hindiston
- D) Usmoniylar saltanati, Misr va Suriya

198. Qachon Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi?

- A) 1421 yilda
- B) 1418-yilda
- S) 1419-yilda
- D) 1420-yilda

199. 1441—1442-yillarda Shohrux qayerga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida elchilar yuboradi?

- A) Hindistonga Vijayanagar saroyiga
- B) Xitoyga Min saroyiga
- S) Eronga xulukiylar saroyiga
- D) Usmoniylar davlatiga Muso saroyiga

200. Temuriylar davrida qaysi tarixchi Kermon, Xurmuzd va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi?

- A) Ardasher
- B) Qozizoda Rumi
- S) Abdurazzoq Samarqandiy
- D) Alouddin Ali Qushchi

201. Qachon Ulug‘bek muomaladagi fulusiy pullar islohotini amalga oshirdi?

- A) 1418-yilda
- B) 1419-yilda
- S) 1428-yilda
- D) 1420-yilda

202. Ulug‘bek fulusiy pullar islohotini amalga oshirganda qanday pullarni man etdi?

- A) soxta kumush va mis tangalarni
- B) yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni
- S) jez va mis tangalarni
- D) jez aralashgan kumush tangalarni

203. Ulug‘bek qaysi shaharlarda zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi?

- A) Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya va Andijon
- B) Yangi kent, Jand, O‘tror, Toshkent
- S) Hirot, Buxoro, Samarqand, Shohruxiya va Andijon
- D) Hirot, Xo‘jand, Termiz, Balx, G‘azna

204. Ulug‘bek davrida fuluslar zarb ettirish uchun faqat qayerdagi zarbxona saqlab qolinib, boshqa shahardagi zarbxonalar bekildi?

- A) Hirot
- B) Samarqand
- S) Toshkent
- D) Buxoro

205. Ulug‘bekning fuluslari xalq o‘rtasida qanday nom bilan shuhrat topgan?

- A) “fulusi tamg‘a”
- B) “fulusi adliya”
- S) “fulusi banno”
- D) “fulusi ustod”

206. Temuriylar davrida kim amalga oshirgan islohot natijasida Movarounnahrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina (naqd pul) bilan to‘la ta‘min etadi?

- A) Amir Temur oltin pul islohati
- B) Shohruh kumush pul islohati
- S) Abu Saidning fulusiy pul islohati
- D) Ulug‘bek fulusiy pullar islohati

207. Ulug‘bek tomonidan ichki chakana savdodagi pul munosabatlaridagi tanqislikning qay yo‘l bilan hal etiladi?

- A) fulusning vazni va qiymatini tushurish bilan
- B) fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan
- S) yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni ko‘paytirish
- D) yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni man etish bilan

208. Ulug‘bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko‘paytirish maqsadida qaysi soliqni birmuncha oshirdi?

- A) xiroj solig‘ini
- B) zakot solig‘ini
- S) tamg‘a solig‘ini
- D) ushr solig‘ini

209. Ulug‘bek zamonida mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining hajmini oshirib, kasb-hunar tarmoqlarining rivojiga aylangan asosiy omillardan birini aniqlang.

- A) ichki va tashqi savdoning kengayishi
- B) dehqonchilikning rivoji
- S) Ulug‘bek fulusiy pullar islohati
- D) hunarmandchilikning rivoji

210. Tamg‘a — bu ...

- A) mayda mis chaqa
- B) savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.
- S) mehnatkash aholiga yuklatilgan saroy, jamoat binolari, mudofaa va sug‘orish inshootlarini hamda yo‘l qurilish va tuzatish ishlarida tekinga ishlab berish majburiyati
- D) ekin maydonlarida ishlov beruvchi yollanma ziroatchi

211. Ulug‘bek davrida mayda mis chaqa pul qanday nom bilan atalgan?

- A) fulus
- B) tamg‘a
- S) kepaki
- D) dinor

212. XV asrda qayerda olimlar-u fuzarolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to‘plangan edi?

- A) Samarqand va Hirotda
- B) Samarqand va Buxoro
- S) Hirot va Buxoro
- D) Samarqand va Kesh

213. Kim mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi.

- A) Shohruh
- B) Amir Temur
- S) Ulug‘bek
- D) Abu Said

214. Ulug‘bek kimlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemeylarning mumtoz asarlari bilan ham tanishadi?

- A) Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino
- B) Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos Javhariy va Yahyo bin Abi Mansur
- S) Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziy
- D) Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abu Bakr ar-Roziy

- 215. Ulug‘bek farmoni bilan qayerlarda madrasalar qad ko‘taradi?**
 A) Buxoro, Samarqand va Hirot
 B) Buxoro, Samarqand va Toshkent
 S) Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda
 D) Buxoro, Samarqand va Xo‘jand
- 216. Qachon Ulug‘bek farmoni bilan Buxoroda madrasa quriladi?**
 A) 1417-yilda
 B) 1420-yilda
 S) 1433-yilda
 D) 1424-yilda
- 217. 1417—1420-yillarda Ulug‘bek farmoni bilan qayerda madrasa quriladi?**
 A) Buxoroda
 B) Hirotida
 S) G‘ijduvonda
 D) Samarqandda
- 218. Ulug‘bek farmoni qachon G‘ijduvonda bilan madrasa quriladi?**
 A) 1417-yilda
 B) 1433-yilda
 S) 1417-1420-yillarda
 D) 1424-yilda
- 219. Ulug‘bek farmoni bilan qurilgan qaysi shahar madrasasining darvozasiga “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir” degan kalima o‘yib yozib qo‘yiladi?**
 A) G‘ijduvonda
 B) Hirotida
 S) Buxoro
 D) Samarqand
- 220. Ulug‘bek davrida Movarounnahrning zamonasining dorilfununi bo‘lgan ilmgohlarni aniqlang.**
 A) Buxoro, Samarqand va Hirotidagi madrasalar
 B) Buxoro, Samarqand va G‘ijduvondagi madrasalar
 S) Buxoro, Samarqand va Toshkentdagi madrasalar
 D) Buxoro, Samarqand va Xo‘janddagi madrasalar
- 221. Ulug‘bek farmoni bilan barpo qilingan madrasalarda ilohiyat ilmlari bilan bir qatorda dunyoviy ilmlardan qaysilari o‘qitilardi?**
 A) riyoziyot, handasa, ilmi hay‘at, tibbiyot, tarix, jo‘g‘rofiya, ilmi aruz, arab tili va uning morfologiyasi
 B) Qur‘on, hadis, tafsir, fiqh, ilmi hay‘at, ilmi aruz
 S) tasviriy san‘at, musiqa, suxondonlik, tarix, jo‘g‘rofiya
 D) tafsir, fiqh, ilmi hay‘at, ilmi aruz, arab tili va uning morfologiyasi
- 222. Ma‘lumki, Ulug‘bek farmoni bilan ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo‘lgan. Har bir hujra necha xonaga bo‘lingan?**
 A) ikki: yotoqxona va darsxonaga
 B) uch: qaznoq (omborxonaga), yotoqxona va darsxonaga
 S) ikki: qaznoq (omborxonaga) va darsxonaga
 D) uch: nomozxonaga, yotoqxona va darsxonaga
- 223. Ulug‘bek farmoni bilan ochilgan Samarqand madrasasida qancha talaba istiqomat qilgan va ta‘lim olgan?**
 A) mingdan ortiq
 B) yuzdan ortiq
 S) ikki yuzdan ortiq
 D) to‘qson nafar
- 224. Mavlono Shamsiddin Muhammad Havofiy qaysi madrasada yetakchi mudarris bo‘lgan?**
 A) Buxoro madrasasida
 B) G‘ijduvon madrasasida
 S) Samarqand madrasasida
 D) Hirot madrasasida
- 225. Samarqand madrasasida kimlar dars berganlar?**
 A) Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih
 B) Nizomiy, Attor, Hofiz Sa‘diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro
 S) Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino
 D) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug‘bek va Alouddin Ali Qushchilar
- 226. Kim Samarqand madrasasi ochilgan kuni birinchi darsni o‘qigan?**
 A) Qozizoda Rumiy
 B) Shamsiddin Muhammad Havofiy
 S) G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy
 D) Mirzo Ulug‘bek
- 227. Samarqand madrasasi ochilgan kuni darsda tolibi ilmlardan necha nafari qatnashgan?**
 A) yuzdan ortiq
 B) ikki yuzdan ortiq
 S) mingdan ortiq
 D) to‘qson nafari
- 228. Samarqand madrasasida Qozizoda Rumiy qaysi fandan dars bergan?**
 A) ilmi hay‘at (astronomiya)dan
 B) riyoziyot (matematika)dan
 S) handasa (geometriya)dan
 D) ilmi aruz (poetika)dan
- 229. Samarqand madrasasida kamida necha yil tahsil ko‘rilgan?**
 A) 17-18 yil
 B) 18-19 yil
 S) 15—16 yil
 D) 19-20 yil
- 230. Samarqand madrasasi dasturi bo‘yicha fanlarni to‘la o‘zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o‘z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga nima yozib berilgan?**
 A) suyurg‘ol
 B) tarxon
 S) fulus
 D) sanad

231. Qaysi yillarda Mirzo Ulug‘bek Samarqandda rasadxona qurdirdi?

- A) 1417—1420-yillarda
- B) 1417-yilda
- S) 1424—1428-yillarda
- D) 1433-yilda

232. Mirzo Ulug‘bek Samarqandning qayerida rasadxona qurdirdi?

- A) Obirahmat anhuri bo‘yida
- B) Zarafshon bo‘yida
- S) Sheroz yaqinida
- D) Konigil mavzeyida

233. Ulug‘bek rasadxonasining balandligi necha metr edi?

- A) 30 metr
- B) 35 metr
- S) 31 metr
- D) 33 metr

234. Ulug‘bek rasadxona joylashgan mavze mahalliy aholi o‘rtasida qaysi nom bilan shuhrat qozongan?

- A) “Konigil”
- B) “Bog‘i Maydon”
- S) “Naqshi jahon”
- D) “Chinnixona”

235. Kim boshchiligida rasadxonaning asosiy o‘lchov asbob-uskunasi — ulkan sekstant o‘rnatilgan?

- A) G‘iyosiddin Jamshid
- B) Qozizoda Rumiy
- S) Ulug‘bek
- D) Alouddin Ali Qushchi

236. Ulug‘bek davridagi qariyb o‘n besh ming jild kitob saqlangan zamonasining boy kutubxonasi qayerda tashkil etigan?

- A) Buxorodagi madrasa qoshida
- B) Samarqanddagi madrasa qoshida
- S) rasadxona qoshida
- D) G‘ijduvondagi madrasa qoshida

237. Rasadxona etagida ikkita chorbog‘ barpo etiladi. Ular qaysi nom bilan shuhrat topadi?

- A) Bog‘i Dilkusho va Bog‘i Chinor
- B) Bog‘i Bihisht va Bog‘i Baland
- S) Davlatobod va Bog‘i Nav
- D) Bog‘i Maydon va Chinnixona

238. Ulug‘bek rasadxonasida Ulug‘bek bilan birga qaysi olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar?

- A) Shamsiddin Muhammad Havofiy, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy
- B) Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy
- S) Hofiz Sa‘diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy
- D) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi

239. Mashhur matematik va astronomlardan qay biri Aflotuni zamon deb nom olgan?

- A) Qozizoda Rumiy
- B) G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy
- S) Shamsiddin Muhammad Havofiy
- D) Ali Qushchi

240. Mashhur matematik va astronomlardan kim “o‘z davrining Ptolemeyi” nomi bilan shuhrat qozongan?

- A) Qozizoda Rumiy
- B) G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy
- S) Ali Qushchi
- D) Shamsiddin Muhammad Havofiy

241. Temuriylar davrida kim Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi?

- A) Shamsiddin Muhammad Havofiy
- B) Ali Qushchi
- S) Qozizoda Rumiy
- D) Ulug‘bek

242. Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli nechta qo‘zg‘almas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi?

- A) 1008
- B) 1018
- S) 1016
- D) 1020

243. Ulug‘bekning qaysi kitobi shoh asari hisoblanadi?

- A) “Temur tuzuklari”
- B) “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum”
- S) “Kitob surat ul-arz”
- D) “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”

244. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asosan necha qismdan iborat?

- A) ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo‘zg‘almas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.
- B) ikki qismdan: keng muqaddima va sayyoralarning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.
- S) ikki qismdan: keng muqaddima va yerning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.
- D) ikki qismdan: keng muqaddima va quyosh va oyning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

245. Ulug‘bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo‘lsak qanchaga farq qiladi?

- A) ikki minut-u ikki sekundga
- B) bir minut-u uch sekundga
- S) bir minut-u ikki sekundga
- D) uch minut-u ikki sekundga

246. Ulug‘bek astronomik jadvaldan tashqari yana qanday asarlar yozgan?

- A) “Temur tuzuklari” nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola
- B) “Tarixi arba” ulus” nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola

S) “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” nomli astronomik asar hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola

D) “Kitob surat ul-arz” nomli yer o‘lchoviga oid asar va musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola

247. Quyidagi misralar kim tomonidan yozilgan: “Ulug‘bek Samarqandda bo‘lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o‘lchashga buyurdi va astronomiya jadvallarni tuzishda ishtirok etdi”.

- A) Volter
- B) I.Nyuton
- S) V.Leybnits
- D) Jan Jak Russo

248. Samarqand akademiyasi” ...

A) IX asrda Bag‘dodda tashkil etilgan “Bayt ul-hikmat”dan keyingi ikkinchi “Dor ul-ilm” edi.

B) Mirzo Ulug‘bek tomonidan tashkil etilgan dastlabki “Dor ul-ilm” edi.

S) IX asrda Bag‘dodda tashkil etilgan “Bayt ul-hikmat” va Xorazmda tashkil etilgan “Donishmandlar uyi”dan keyingi uchinchi “Dor ul-ilm” edi.

D) 1004-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganjda tashkil etilgan “Donishmandlar uyi”dan keyingi ikkinchi “Dor ul-ilm” edi.

249. Akademiya — bu ...

A) oliy ilmgoh bo‘lgan madrasa.

B) olimlar uyushib faoliyat ko‘rsatadigan rasadxona.

S) oliy ilmiy tashkilot.

D) Osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa.

250. Osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino qanday nom bilan atalgan?

- A) Rasadxona
- B) Akademiya
- S) Sanad
- D) Sekstant

251. Sanad — bu ...

A) Osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo‘ljallangan ko‘zgu-qaytargichli asbob.

B) shahodatnoma.

S) Osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa.

D) oliy ilmiy tashkilot.

252. Osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo‘ljallangan ko‘zgu-qaytargichli asbob quyidagi qaysi nom bilan atalgan?

- A) Sekstant
- B) Sanad
- S) Rasadxona
- D) Akademiya

253. XV asrda kitobat san‘ati bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarni qayd eting.

A) xattotlik, musavvirlik, lavvohlik va sahhoflik

B) zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik, toshlarashlovchilar, shishasozlar, ko‘nchilik

S) sarojlik, ko‘nchilik, lavvohlik va sahhoflik

D) xattotlik, musavvirlik, miskarlik, ignasozlik

254. Mashhur xattotlardan qay biri 1330—1404-yillarda yashab ijod qilgan?

- A) Sultonali Mashhadiy
- B) Mahmud Muzahhib
- S) Mirali Tabriziy
- D) Kamoliddin Behzod

255. Mashhur xattotlardan kim nasta‘liq deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qiladi?

- A) Mirali Tabriziy
- B) Sultonali Mashhadiy
- S) Kamoliddin Behzod
- D) Mahmud Muzahhib

256. Sultonali Mashhadiy qaysi yillarda yashab ijod etgan?

- A) 1330—1404-yillar
- B) 1366—1465-yillar
- S) 1394-1449-yillar
- D) 1432—1520-yillar

257. Sultonali Mashhadiy qaysi shoirlarning asarlarini ko‘chirgan?

A) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa‘diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro

B) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug‘bek

S) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Alouddin Ali Qushchi

D) Jaloliddin Rumiy, Sa‘diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy

258. Mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan qancha kitob hozirgi vaqtgacha yetib kelgan?

- A) 20 dan ziyod
- B) 30 dan ziyod
- S) 50 dan ziyod
- D) 40 dan ziyod

259. Sultonali Mashhadiy hatotlikdan tashqari yana qaysi san‘atda ham mohir bo‘lgan?

- A) musavvirlik
- B) lavvohlik
- S) sahhoflik
- D) o‘ymakorlik

260. Kim tomonidan Husayn Boyqaroning “Bog‘i Jahonoro” bog‘idagi saroy devorlaridagi bitiklar, Husayn Boyqaro qabr toshidagi lavha o‘yib bitilgan.

- A) Mirali Tabriziy
- B) Sultonali Mashhadiy
- S) Mahmud Muzahhib
- D) Kamoliddin Behzod

261. Kim temuriylar davrida xattotlik san'ati turlari haqida maxsus asar yozgan?

- A) Sultonali Mashhadiy
- B) Mirali Tabriziy
- S) Mahmud Muzahhib
- D) Kamoliddin Behzod

262. Kim "Qiblat ul-qutub" (Kotiblar qiblisi) va "Sulton ul-xattotin" (Xattotlar sultoni) nomlari bilan shuhrat topadi?

- A) Kamoliddin Behzod
- B) Sultonali Mashhadiy
- S) Mahmud Muzahhib
- D) Mirali Tabriziy

263. Temuriylar davrida qayerda maxsus saroy kitobxonalarini tashkil etilgandi?

- A) Samarqand va Buxoro
- B) Hirot va Balx
- S) Samarqand va Toshkent
- D) Samarqand va Hirotida

264. Temuriylar davrida kitobxonada ishlariga kim boshchilik qilgan?

- A) dodxoh
- B) kitobxonada dorug'asi yoki kitobdor
- S) muhassil
- D) yasovul

265. 1429-yilda qaysi kitobxonada Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" dostoni ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan?

- A) Alisher Navoiy kitobxonasida
- B) Husayn Boyqaro kitobxonasida
- S) Boysung'ur kitobxonasida
- D) Amir Temur kitobxonasida

266. Quyidagilardan qay birlari saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'amxo'rlik qiladilar?

- A) Ulug'bek va Shohruh
- B) Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy
- S) Abu Said va Husayn Boyqaro
- D) Badiuzzamon va Muzaffar Husayn Mirzo

267. XV asrda kim Hirot musavvirlik maktabiga asos solgan?

- A) Kamoliddin Behzod
- B) Mahmud Muzahhib
- S) Sultonali Mashhadiy
- D) Mirali Tabriziy

268. Temuriylar davri tasviriy san'ati obidalari qanday tasvirlardan iborat bo'lgan?

- A) hayvonat va o'simlik olami
- B) hunarmandlarni mehnat qilayotgani
- S) jangu jadallar
- D) portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan

269. XV asrda siymolar qiyofasi tasvirlari orasida kimlarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan?

- A) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro
- B) Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy
- S) Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Durbek, Sakkokiy
- D) Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur

270. Qaysi mashhur rassom tomonidan chizilgan Navoiy tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va olijanoblik ko'zga yaqqol tashlanib turadi?

- A) Mahmud Muzahhib
- B) Kamoliddin Behzod
- S) Mirali Tabriziy
- D) Sultonali Mashhadiy

271. Kamoliddin Behzod tomonidan qaysi tarixiy siymolarning portretlari chizilgan?

- A) Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur
- B) Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Durbek, Sakkokiy
- S) Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy
- D) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro

272. Qaysi mussavir tomonidan Dehlaviyning "Layli va Majnun" dostoniga bag'ishlangan lirik manzaralari, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari uchun shiddatli jang tasvir etilgan miniatyuralari chizilgan?

- A) Sultonali Mashhadiy
- B) Kamoliddin Behzod
- S) Mirali Tabriziy
- D) Mahmud Muzahhib

273. Kamoliddin Behzod zamondoshlari tomonidan qanday nom bilan ulug'langan?

- A) Moniyi Soniy
- B) Qiblat ul-qutub
- S) Sulton ul-xattotin
- D) kitobxonada dorug'asi

274. XIV—XV asrlarda mahoratli sozandalar, mashshoqlar bastakorlar va hofizlarni qayd eting.

- A) Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy
- B) Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy, Qosim Rabboniy
- S) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy
- D) Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniy

275. Temuriylar davrida qaysi mutafakkir va shoirlar musiqa san'ati bilan shug'ullanib, uning rivojiga ma'lum hissa qo'shadilar?

- A) Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy
- B) Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy
- S) Hofiz, Sa'diy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy
- D) Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Boyqaro

- 276. Ulug‘bek qaysi kuylarni ijod qiladi?**
 A) “Isfahoniy” va “Usuli otlig”
 B) “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Isfahoniy”
 S) “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon” va “Usuli otlig”
 D) “Yusuf va Zulayho”, “Isfahoniy”
- 277. “Isfahoniy” kuyini kim ijod etgan?**
 A) Navoiy
 B) Jomiy
 S) Binoiy
 D) Ulug‘bek
- 278. Qaysi mutafakkir va shoirlar temuriylar davrida musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar?**
 A) Ulug‘bek
 B) Navoiy
 S) Jomiy va Binoiy
 D) Husayn Boyqaro
- 279. Temuriylar davrida yashab ijod qilgan zamonasi-ning iste‘dodli shoirlari va adiblarni qayd eting.**
 A) Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih
 B) Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G‘ijjakiy, Qosim Rabboniy
 S) Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa‘diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro
 D) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug‘bek, Alouddin Ali Qushchi
- 280. Durbek tomonidan qaysi doston qayta ishlangan?**
 A) “Yusuf va Zulayho”
 B) “Guliston” “Bo‘ston”
 S) “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”
 D) “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi”
- 281. Temuriylar davrida ijod qilgan shoir Atoiy qayerlik edi?**
 A) samarqandlik
 B) buxorolik
 S) toshkentlik
 D) hirotlik
- 282. Temuriylar davri badiiy adabiyotining durdonalari bo‘lgan asarlarni qayd eting.**
 A) Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” dostoni
 B) Durbek tomonidan qayta ishlangan “Yusuf va Zulayho” dostoni, Atoiyning devoni
 S) Amir Xusrav Dehlaviyning “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi” dostonlari
 D) Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” nomli asarlari
- 283. Lutfiy qaysi yillarda yashab ijod etgan?**
 A) 1432—1520-yillar
 B) 1330—1404-yillar
 S) 1366—1465-yillar
 D) 1394-1449-yillar
- 284. Lutfiy ijodida qanday fikrlar katta joy olgan?**
 A) insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga
 B) ona yerga bo‘lgan muhabbat va insonparvarlik g‘oyalarini mohirona bayon etadi.
 S) adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har bir kishi o‘zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini
 D) haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo‘lishni targ‘ib qilish, ilm va san‘atni sevish
- 285. XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida kimlarning hissalarini g‘oyat buyukdir?**
 A) Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro
 B) Ulug‘bek va Alisher Navoiy
 S) Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy
 D) Lutfiy va Abdurahmon Jomiy
- 286. Kim butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o‘zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san‘at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishladi**
 A) Alisher Navoiy
 B) Abdurahmon Jomiy
 S) Lutfiy
 D) Ulug‘bek
- 287. Alisher Navoiy nechta yirik badiiy asar yozdi?**
 A) yigirmadan ortiq
 B) o‘ttizdan ortiq
 S) qirqdan ortiq
 D) ellikdan ortiq
- 288. Alisher Navoiy tomonidan yozilgan asarlarni qayd eting.**
 A) “Bulujiy”, “Shodiyona”, “Axloqiy”, “Tabriziy”, “Usuli ravon” va “Usuli otlig”
 B) “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi”, “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”
 S) “Guliston”, “Bo‘ston”, “Zafarlar kaliti”, “Falakning to‘qqiz gumbazi”
 D) “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”
- 289. Navoiy tarixni bilishning ahamiyati katta ekanini ta‘riflab, odamlarni tarixni o‘rganishga da‘vat etadi. Uning fikricha, ...**
 A) tarix fanini adabiyot bilan, she‘riyat bilan bog‘lab o‘rganish kerak.
 B) tarix fani mamlakat tarixini shohlar, hukmdorlarning tarjimai holi bilan o‘rganish kerak.
 S) tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o‘rganishi kerak.
 D) tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini o‘rganishi kerak.
- 290. Navoiy nimalarni tarix ko‘rsatib berishi lozim deb hisoblaydi?**
 A) mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar

farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo'lishini, xalqqa farog'at va baxt keltirishini

- B) xalqning o'tmishini, bosqinchilardan himoya qilishni
- S) adolatli hukmdorni
- D) xalqning baxtli kelajagini

291. Kim Alisher Navoiyning zamondoshi, ustози va do'sti edi?

- A) Nizomiy
- B) Atoiy
- S) Abdurahmon Jomiy
- D) Husayn Boyqaro

292. Chuqur tafakkur iste'dodi egasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) alloma
- B) iqtidor
- S) akademik
- D) mutafakkir

293. Lavvoh — bu ...

- A) chuqur tafakkur iste'dodi egasi

B) lavha yasovchi usta.

- S) muqovasozlik
- D) shahodatnoma


294. Arab mumtoz xati uslublaridan qay birida yozilgan yozuvlarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa to'g'ri chiziqlar asosida yoziladi?

- A) ko'fiy xati
- B) naxs xati
- S) nasta'liq xati
- D) rayhona xati

295. Muqovasozlik o'rta asrlarda quyidagi ko'rsatilgan qaysi nom bilan atalgan?

- A) sahhoflik
- B) lavvoh
- S) sekstant
- D) muhtasib

KROSSVORD (tarixiy shaxslar bo'yicha)




BO'YIGA: 1. Ulug'bekning o'g'li. 3. Tasviriy san'atning ulug' namoyondasi. 5. Nasta'liq uslubidagi xatni kashf qilgan xattot. 6. Temuriy hukmdor (1405-1409). 8. Dashti Qipchoq hukmdori. 9. "Shohnoma" dostonining muallifi. 10. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. 14. Xuroson hukmdori.

ENIGA: 2. Padarkush hukmdor. 4. Buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. 7. Amir Temurning rasman taxt vorisi. 11. Qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i. 12. Movarounnahrda so'nggi temuriy hukmdor. 13. Temuriylar saltanatini har ikki qismini birlashtirgan hukmdor. 15. "O'z davrining Ptolameyi". 16. Movarounnahr hukmdori (1494-1495).

KROSSVORD


(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Navoiy tashabbusi bilan qurilgan suv ombori. 2. Ali Yazdiyning asari. 5. Osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus bino. 8. Osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo'ljallangan ko'zgu-qaytargichli asbob. 9. Mayda mis chaqa pul. 11. Mehnatkash aholiga yuklatilgan qurilish va tuzatish majburiyati. 13. Shohruh vafot etgan viloyat.

ENIGA: 3. Ota qotili. 4. G'isht terib imorat qaddini bino qiluvchi. 6. Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hudud. 7. Shohruh tiklagan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni. 8. Muqovosozlik. 10. Toj-u taxt vorisi. 12. Ekin maydonlarida ishlov beruvchi yollanma ziroatchi. 14. Ulug'bek va Abdulatif hamda Alouddavla o'rtasidagi jang.

XRONOKROSS (yillar bo'yicha)



BO'YIGA: 1. Xalil Sultonning Movarounnahr oliy hukmdori deb e'lon qilinishi. 2. Ulug'bekning Farg'ona va Koshg'arni egallashi. 4. Mirzo Ulug'bekning Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlanishi. 6. Sulton Husaynning Xuroson hokimi bo'lishi. 7. Shohruxning vafot etishi. 8. Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilarning kelishi. 9. Shohrux va Ulug'bek elchilarining Xitoyga jo'natilishi.

ENIGA: 1. Alisher Navoiyning tavallud topishi. 3. Ulug'bekning mo'g'ulistonga yurishi. 4. Mironshohning vafoti. 5. Abu Saidning Movarounnahr hokimi bo'lib olishi. 7. Movarounnahr taxtiga Sulton Mahmudning chiqishi. 10. Xitoy elchilari Li-Do va Jong-Fularning Samarqand va Hirotga kelishi. 11. Mirzo Ulug'bek tomonidan qoyatoshga o'ziga xos "zafarnoma" yozdirilishi. 12. Pirmuhammadning fitnachilar qo'lida vafot etishi.

TEST JAVOBLARI

| I bob. Ilk o`rta asrlarda Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti | | | | | | | |
|--|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1-D | 28-D | 55-B | 82-B | 109-S | 136-D | 163-B | 190-B |
| 2-S | 29-S | 56-B | 83-S | 110-S | 137-S | 164-A | 191-S |
| 3-A | 30-D | 57-S | 84-S | 111-A | 138-B | 165-B | 192-D |
| 4-A | 31-B | 58-S | 85-A | 112-A | 139-A | 166-S | 193-A |
| 5-B | 32-S | 59-D | 86-A | 113-A | 140-A | 167-D | 194-B |
| 6-D | 33-S | 60-D | 87-B | 114-A | 141-A | 168-A | 195-S |
| 7-S | 34-A | 61-A | 88-S | 115-B | 142-B | 169-A | 196-D |
| 8-D | 35-B | 62-A | 89-D | 116-B | 143-B | 170-D | 197-D |
| 9-D | 36-S | 63-A | 90-B | 117-D | 144-B | 171-D | 198-S |
| 10-S | 37-D | 64-A | 91-A | 118-D | 145-S | 172-D | 199-B |
| 11-S | 38-A | 65-A | 92-S | 119-D | 146-S | 173-D | 200-A |
| 12-S | 39-A | 66-A | 93-B | 120-B | 147-S | 174-A | 201-B |
| 13-S | 40-A | 67-D | 94-A | 121-B | 148-A | 175-A | 202-S |
| 14-A | 41-A | 68-S | 95-B | 122-A | 149-B | 176-S | 203-D |
| 15-A | 42-B | 69-B | 96-S | 123-D | 150-S | 177-S | 204-S |
| 16-B | 43-B | 70-A | 97-D | 124-S | 151-D | 178-S | 205-A |
| 17-A | 44-B | 71-B | 98-S | 125-A | 152-A | 179-A | 206-A |
| 18-A | 45-D | 72-S | 99-A | 126-D | 153-A | 180-D | 207-A |
| 19-B | 46-D | 73-A | 100-S | 127-D | 154-A | 181-S | 208-A |
| 20-D | 47-A | 74-B | 101-S | 128-B | 155-D | 182-B | 209-D |
| 21-A | 48-D | 75-D | 102-A | 129-A | 156-D | 183-D | 210-D |
| 22-D | 49-S | 76-S | 103-B | 130-A | 157-S | 184-S | 211-D |
| 23-D | 50-B | 77-B | 104-A | 131-B | 158-B | 185-A | 212-S |
| 24-A | 51-A | 78-A | 105-D | 132-S | 159-A | 186-A | 213-B |
| 25-B | 52-D | 79-S | 106-S | 133-D | 160-B | 187-B | 214-A |
| 26-B | 53-A | 80-D | 107-A | 134-A | 161-D | 188-S | |
| 27-D | 54-A | 81-A | 108-S | 135-B | 162-A | 189-A | |

| II bob. O`rta Osiyoning arablar tomonidan fath etilishi, uning oqibatlari xalq ozodlik qo`zg`olonlari | | | | | |
|--|------|------|------|------|-------|
| 1-D | 19-B | 37-B | 55-D | 73-S | 91-S |
| 2-S | 20-S | 38-S | 56-B | 74-D | 92-A |
| 3-B | 21-B | 39-D | 57-A | 75-A | 93-B |
| 4-A | 22-S | 40-A | 58-B | 76-A | 94-D |
| 5-B | 23-A | 41-A | 59-S | 77-A | 95-A |
| 6-S | 24-A | 42-A | 60-A | 78-A | 96-A |
| 7-D | 25-S | 43-S | 61-B | 79-B | 97-S |
| 8-A | 26-S | 44-A | 62-S | 80-S | 98-D |
| 9-A | 27-B | 45-B | 63-D | 81-B | 99-A |
| 10-B | 28-A | 46-A | 64-S | 82-S | 100-A |
| 11-S | 29-S | 47-B | 65-A | 83-A | 101-B |
| 12-A | 30-A | 48-A | 66-B | 84-D | 102-B |
| 13-A | 31-A | 49-S | 67-D | 85-A | 103-A |
| 14-B | 32-B | 50-B | 68-B | 86-A | 104-S |
| 15-S | 33-S | 51-A | 69-B | 87-B | 105-S |
| 16-D | 34-B | 52-A | 70-B | 88-D | 106-A |
| 17-A | 35-S | 53-B | 71-B | 89-A | 107-A |
| 18-A | 36-A | 54-S | 72-B | 90-B | |

| III bob. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti | | | | | | | | |
|--|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1-B | 28-D | 55-D | 82-D | 109-B | 136-A | 163-B | 190-B | 217-S |
| 2-A | 29-B | 56-S | 83-S | 110-A | 137-D | 164-S | 191-S | 219-B |
| 3-S | 30-A | 57-D | 84-S | 111-B | 138-A | 165-D | 192-D | 220-D |
| 4-B | 31-D | 58-A | 85-A | 112-B | 139-B | 166-S | 193-S | 221-B |
| 5-B | 32-S | 59-B | 86-A | 113-B | 140-S | 167-S | 194-B | 222-S |
| 6-D | 33-S | 60-A | 87-A | 114-D | 141-D | 168-B | 195-A | 223-S |
| 7-B | 34-A | 61-D | 88-D | 115-A | 142-B | 169-S | 196-D | 224-B |
| 8-B | 35-S | 62-S | 89-B | 116-B | 143-D | 170-A | 197-B | 225-D |
| 9-D | 36-B | 63-A | 90-S | 117-S | 144-A | 171-B | 198-A | 226-A |
| 10-B | 37-A | 64-S | 91-A | 118-B | 145-S | 172-D | 199-B | 227-A |
| 11-B | 38-B | 65-A | 92-A | 119-S | 146-B | 173-S | 200-D | 228-A |
| 12-A | 39-A | 66-A | 93-S | 120-D | 147-S | 174-A | 201-S | 229-S |
| 13-D | 40-S | 67-S | 94-B | 121-S | 148-D | 175-A | 202-A | 230-B |
| 14-S | 41-A | 68-S | 95-D | 122-S | 149-B | 176-B | 203-A | 231-D |
| 15-A | 42-D | 69-B | 96-A | 123-A | 150-S | 177-S | 204-B | 232-D |
| 16-B | 43-B | 70-D | 97-D | 124-B | 151-B | 178-D | 205-S | 233-B |
| 17-S | 44-B | 71-A | 98-S | 125-S | 152-A | 179-B | 206-A | 234-B |
| 18-A | 45-S | 72-S | 99-D | 126-D | 153-S | 180-S | 207-D | 235-B |
| 19-B | 46-D | 73-B | 100-B | 127-S | 154-B | 181-A | 208-A | 236-D |
| 20-D | 47-A | 74-D | 101-A | 128-B | 155-S | 182-B | 209-S | 237-S |
| 21-A | 48-S | 75-A | 102-S | 129-D | 156-D | 183-A | 210-A | 238-S |
| 22-A | 49-A | 76-S | 103-B | 130-A | 157-A | 184-S | 211-B | 239-B |
| 23-S | 50-A | 77-B | 104-D | 131-B | 158-B | 185-B | 212-B | 240-A |
| 24-B | 51-A | 78-A | 105-A | 132-D | 159-B | 186-S | 213-A | 241-S |
| 25-A | 52-S | 79-A | 106-D | 133-S | 160-B | 187-S | 214-S | |
| 26-B | 53-S | 80-B | 107-A | 134-A | 161-A | 188-B | 215-B | |
| 27-B | 54-A | 81-B | 108-B | 135-S | 162-B | 189-A | 216-A | |

| IV bob. IX-XIII asr boshlarida madaniy hayot | | | | | |
|---|------|------|-------|-------|-------|
| 1-A | 28-D | 55-S | 82-S | 109-S | 136-D |
| 2-B | 29-B | 56-D | 83-B | 110-A | 137-A |
| 3-D | 30-B | 57-A | 84-A | 111-D | 138-S |
| 4-S | 31-A | 58-D | 85-D | 112-A | 139-B |
| 5-B | 32-D | 59-A | 86-D | 113-A | 140-S |
| 6-S | 33-S | 60-B | 87-B | 114-D | 141-A |
| 7-A | 34-S | 61-S | 88-A | 115-A | 142-A |
| 8-A | 35-D | 62-A | 89-A | 116-A | 143-S |
| 9-D | 36-B | 63-A | 90-A | 117-A | 144-B |
| 10-S | 37-S | 64-S | 91-S | 118-S | 145-A |
| 11-S | 38-A | 65-A | 92-S | 119-A | 146-B |
| 12-D | 39-A | 66-S | 93-A | 120-B | 147-D |
| 13-A | 40-S | 67-B | 94-B | 121-D | 148-S |
| 14-B | 41-A | 68-D | 95-S | 122-A | 149-D |
| 15-D | 42-S | 69-D | 96-A | 123-S | 150-A |
| 16-A | 43-B | 70-B | 97-D | 124-A | 151-A |
| 17-A | 44-A | 71-A | 98-B | 125-A | 152-S |
| 18-S | 45-B | 72-A | 99-B | 126-S | 153-A |
| 19-B | 46-A | 73-D | 100-A | 127-A | 154-S |
| 20-D | 47-B | 74-B | 101-B | 128-S | 155-S |
| 21-A | 48-A | 75-B | 102-A | 129-D | 156-A |
| 22-B | 49-A | 76-S | 103-D | 130-A | 157-B |
| 23-B | 50-A | 77-A | 104-S | 131-B | |
| 24-S | 51-D | 78-S | 105-A | 132-A | |
| 25-B | 52-S | 79-B | 106-A | 133-D | |
| 26-A | 53-A | 80-A | 107-S | 134-A | |
| 27-A | 54-S | 81-A | 108-B | 135-B | |

| V bob. Mo'g'ulbar ishtirok. Vatandosh sifatlarining amaliy kuzatishi | | | | | | | | |
|--|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1-A | 28-S | 33-S | 83-D | 109-A | 138-A | 163-S | 190-B | 217-S |
| 2-D | 29-A | 36-A | 83-A | 110-B | 137-B | 164-B | 191-A | 218-A |
| 3-D | 30-D | 37-A | 84-S | 111-D | 138-B | 165-A | 192-D | 219-A |
| 4-B | 31-A | 38-B | 83-A | 112-S | 139-A | 166-D | 193-S | 220-B |
| 5-S | 32-B | 39-S | 86-A | 113-S | 140-D | 167-S | 194-B | 221-A |
| 6-A | 33-A | 60-B | 87-S | 114-B | 141-B | 168-A | 195-D | 222-B |
| 7-S | 34-S | 61-D | 88-D | 115-A | 142-A | 169-D | 196-A | 223-D |
| 8-B | 35-D | 62-A | 89-S | 116-S | 143-D | 170-A | 197-A | 224-S |
| 9-B | 36-B | 63-S | 90-A | 117-D | 144-A | 171-D | 198-B | 225-S |
| 10-D | 37-D | 64-D | 91-B | 118-S | 145-A | 172-A | 199-S | 226-A |
| 11-A | 38-A | 65-B | 92-D | 119-A | 146-S | 173-S | 200-A | 227-D |
| 12-S | 39-B | 66-D | 93-D | 120-D | 147-D | 174-A | 201-S | 228-D |
| 13-A | 40-B | 67-A | 94-A | 121-A | 148-S | 175-S | 202-D | 229-B |
| 14-S | 41-A | 68-A | 95-S | 122-S | 149-A | 176-S | 203-A | 230-A |
| 15-D | 42-S | 69-S | 96-A | 123-B | 150-A | 177-B | 204-D | 231-S |
| 16-S | 43-A | 70-S | 97-B | 124-A | 151-S | 178-A | 205-B | 232-D |
| 17-S | 44-S | 71-S | 98-A | 125-D | 152-S | 179-S | 206-A | 233-B |
| 18-D | 45-D | 72-D | 99-S | 126-A | 153-B | 180-D | 207-B | 234-B |
| 19-B | 46-B | 73-S | 100-A | 127-S | 154-A | 181-A | 208-B | 235-A |
| 20-B | 47-B | 74-D | 101-S | 128-S | 155-S | 182-S | 209-D | 236-A |
| 21-A | 48-A | 75-S | 102-D | 129-B | 156-A | 183-A | 210-A | 237-S |
| 22-D | 49-D | 76-D | 103-D | 130-A | 157-S | 184-S | 211-B | 238-S |
| 23-A | 50-S | 77-B | 104-A | 131-B | 158-B | 185-S | 212-D | 239-A |
| 24-A | 51-S | 78-B | 105-D | 132-A | 159-A | 186-B | 213-D | 240-A |
| 25-D | 52-A | 79-D | 106-S | 133-S | 160-D | 187-B | 214-B | |
| 26-S | 53-D | 80-S | 107-S | 134-A | 161-B | 188-D | 215-S | |
| 27-D | 54-B | 81-B | 108-A | 135-S | 162-A | 189-A | 216-B | |

| VI bob. Amir Temur xalqatini | | | | | | | | |
|------------------------------|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1-A | 28-A | 35-A | 82-S | 109-A | 136-D | 163-D | 190-D | 217-A |
| 2-S | 29-D | 36-S | 83-B | 110-B | 137-B | 164-B | 191-B | 218-A |
| 3-B | 30-B | 37-B | 84-A | 111-B | 138-S | 165-A | 192-A | 219-S |
| 4-D | 31-S | 38-A | 83-B | 112-S | 139-S | 166-S | 193-A | 220-A |
| 5-S | 32-D | 39-A | 86-D | 113-S | 140-S | 167-S | 194-B | 221-B |
| 6-D | 33-B | 60-D | 87-A | 114-B | 141-D | 168-D | 195-D | 222-B |
| 7-A | 34-A | 61-D | 88-B | 115-D | 142-B | 169-S | 196-D | 223-B |
| 8-A | 35-A | 62-D | 89-B | 116-B | 143-S | 170-S | 197-S | 224-B |
| 9-B | 36-D | 63-B | 90-A | 117-B | 144-B | 171-S | 198-B | 225-D |
| 10-A | 37-S | 64-S | 91-S | 118-A | 145-A | 172-D | 199-D | 226-S |
| 11-B | 38-S | 65-D | 92-B | 119-S | 146-A | 173-S | 200-B | 227-S |
| 12-S | 39-D | 66-B | 93-A | 120-S | 147-S | 174-A | 201-A | 228-B |
| 13-S | 40-B | 67-A | 94-B | 121-D | 148-D | 175-S | 202-A | 229-B |
| 14-A | 41-A | 68-S | 95-S | 122-S | 149-D | 176-B | 203-D | 230-A |
| 15-S | 42-B | 69-S | 96-S | 123-D | 150-S | 177-A | 204-D | 231-S |
| 16-B | 43-A | 70-D | 97-D | 124-A | 151-A | 178-A | 205-B | 232-D |
| 17-D | 44-A | 71-D | 98-D | 125-S | 152-B | 179-S | 206-D | 233-D |
| 18-A | 45-D | 72-S | 99-B | 126-B | 153-A | 180-S | 207-S | 234-S |
| 19-A | 46-S | 73-B | 100-S | 127-S | 154-B | 181-D | 208-A | 235-B |
| 20-S | 47-S | 74-A | 101-A | 128-D | 155-B | 182-D | 209-A | 236-D |
| 21-B | 48-A | 75-D | 102-S | 129-A | 156-S | 183-S | 210-A | 237-A |
| 22-S | 49-D | 76-D | 103-S | 130-S | 157-S | 184-S | 211-A | 238-A |
| 23-B | 50-B | 77-B | 104-A | 131-A | 158-D | 185-A | 212-S | 239-S |
| 24-S | 51-B | 78-B | 105-D | 132-S | 159-D | 186-D | 213-S | 240-A |
| 25-D | 52-S | 79-S | 106-D | 133-A | 160-D | 187-D | 214-S | 241-D |
| 26-S | 53-B | 80-B | 107-A | 134-A | 161-D | 188-B | 215-D | |
| 27-S | 54-A | 81-A | 108-D | 135-S | 162-S | 189-A | 216-D | |

| VII lok. Tenzorlar daraja namaklaring (Sizni) - (Sizni), (Sizni) va (Sizni) kuydi | | | | | | | | | | |
|---|------|------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1-D | 28-S | 35-S | 82-D | 108-A | 138-A | 163-A | 190-S | 217-D | 244-A | 271-S |
| 2-A | 29-A | 36-B | 83-D | 110-B | 137-B | 164-S | 191-B | 218-B | 245-S | 272-B |
| 3-A | 30-B | 37-D | 84-B | 111-D | 138-S | 165-B | 192-D | 219-S | 246-B | 273-A |
| 4-B | 31-A | 38-A | 85-A | 113-S | 139-B | 166-B | 193-A | 220-B | 247-A | 274-D |
| 5-D | 32-A | 39-D | 86-B | 115-A | 140-D | 167-S | 194-B | 221-A | 248-D | 275-A |
| 6-S | 33-S | 40-B | 87-S | 114-D | 141-B | 168-A | 195-D | 222-B | 249-S | 276-S |
| 7-B | 34-B | 41-A | 88-A | 115-B | 142-A | 169-S | 196-B | 223-B | 250-A | 277-A |
| 8-S | 35-D | 42-S | 89-D | 116-A | 143-S | 170-A | 197-S | 224-S | 251-B | 278-S |
| 9-A | 36-D | 43-B | 90-A | 117-B | 144-B | 171-S | 198-A | 225-D | 252-A | 279-A |
| 10-D | 37-B | 44-S | 91-A | 118-A | 145-A | 172-B | 199-A | 226-B | 253-A | 280-A |
| 11-S | 38-S | 45-D | 92-S | 119-B | 146-S | 173-D | 200-S | 227-D | 254-S | 281-S |
| 12-S | 39-A | 46-B | 93-D | 120-A | 147-A | 174-S | 201-S | 228-A | 255-A | 282-B |
| 13-S | 40-B | 47-A | 94-D | 121-D | 148-B | 175-B | 202-B | 229-S | 256-D | 283-S |
| 14-A | 41-A | 48-S | 95-B | 122-A | 149-S | 176-A | 203-A | 230-D | 257-A | 284-D |
| 15-D | 42-S | 49-S | 96-A | 123-S | 150-D | 177-S | 204-D | 231-S | 258-S | 285-S |
| 16-B | 43-A | 50-A | 97-A | 124-A | 151-D | 178-S | 205-B | 232-A | 259-D | 286-A |
| 17-D | 44-S | 51-B | 98-S | 125-B | 152-A | 179-D | 206-D | 233-S | 260-B | 287-B |
| 18-A | 45-D | 52-D | 99-B | 126-B | 153-A | 180-B | 207-B | 234-S | 261-A | 288-D |
| 19-S | 46-B | 53-B | 100-D | 127-D | 154-S | 181-A | 208-S | 235-A | 262-B | 289-S |
| 20-S | 47-S | 54-D | 101-A | 128-A | 155-A | 182-S | 209-A | 236-S | 263-D | 290-A |
| 21-A | 48-S | 55-A | 102-S | 128-S | 156-D | 183-A | 210-B | 237-D | 264-B | 291-S |
| 22-A | 49-A | 56-B | 103-B | 130-A | 157-B | 184-B | 211-A | 238-D | 265-S | 292-D |
| 23-S | 50-D | 57-D | 104-S | 131-B | 158-D | 185-A | 212-A | 239-A | 266-B | 294-B |
| 24-B | 51-A | 58-A | 105-B | 132-S | 159-S | 186-D | 213-S | 240-S | 267-A | 294-S |
| 25-B | 52-S | 59-S | 106-A | 133-D | 160-B | 187-S | 214-A | 241-D | 268-D | 295-A |
| 26-A | 53-B | 60-B | 107-S | 134-A | 161-A | 188-B | 215-S | 242-B | 269-D | |
| 27-S | 54-A | 61-A | 108-D | 135-S | 162-D | 189-D | 216-A | 243-D | 270-A | |

KROSSVORDLAR JAVOBLARI

I bob. Ilk o'rtta asrlarda vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Pero'z. 2. Grumbat. 3. To'nyabg'u. 8. Abruy. 9. Bumin.

ENIGA: 4. Shopur II. 6. Zenon. 7. Mazdak. 10. Vaxshunvar. 11. Afrig'. 12. Kidar.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 2. Rabod. 4. Afrosiyob. 5. Toxariston. 6. Dehqon. 8. Eftaliylar. 12. Ixshid.

ENIGA: 1. Ark. 3. Afrig'iylar. 7. Chokar. 9. Turk xoqonligi. 10. Kashovarz. 11. Moniylik. 15. Kadivar.

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 627-yil. 3. 558-yil. 4. 579-yil. 5. 563-yil. 6. 484-yil. 7. 55-yil. 8. 459-yil. 11. 630-yil.

ENIGA: 1. 618-yil. 2. 555-yil. 4. 575-yil. 6. 488-yil. 7. 558-yil. 9. 305-yil. 10. 456-yil. 12. 309-yil.

II BOB. O'RTA OSIYONING ARABLAR TOMONIDAN FATH ETILISHI, UNING OQIBATLARI. XALQ OZODLIK QO'ZG'OLONLARI

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Dovud. 2. Divashtich. 3. Muoviya I. 4. Ubaydulloh. 9. Abu Bakr. 10. Nuh. 12. Nasr.

ENIGA: 5. Hoshim. 6. Qutayba. 7. G'urak. 8. Marvon I. 11. Abu Muslim. 13. Rofe. 14. Ahmad. 15. Hurzod.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Xuroson. 2. Jiz'ya. 3. Hadis. 5. Arab xalifaligi. 7. Movarounnahr. 9. Kudungar. 10. Zakot.

ENIGA: 4. Muqanna. 6. Ummaviylar. 8. Abbosiylar. 11. Oq kiyimliklar. 12. Poykand. 13. Xalifa. 14. Xiroj. 15. Islom.

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 667-yil. 3. 749-yil. 5. 750-yil. 7. 661-yil. 8. 737-yil. 9. 570-yil. 12. 806-yil.

ENIGA: 1. 654-yil. 2. 777-yil. 4. 717-yil. 6. 529-yil. 8. 705-yil. 10. 673-yil. 11. 748-yil. 13. 710-yil. 14. 769-yil.

III bob. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Amin. 3. Horun ar-Rashid. 4. Sabuktegin. 6. Chag'oniy. 7. Otsiz. 8. Malikshoh. 10. Ismoil. 12. Ma'mun.

ENIGA: 2. Muhammad. 5. Talxa. 8. Mu'tazid. 9. Takash. 10. Ibrohim Bo'ritakin. 11. Nasr II. 13. Ibrohim.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Sarrof. 2. Muhammadiy. 3. Xutba. 4. Poykor. 5. Barzikor. 6. Muhtasib. 10. Ustod. 11. Muqto.

ENIGA: 2. Marv. 7. Safforiylar. 8. Ushr. 9. Tamg'achxon. 11. Mustovfiy. 12. G'oziy. 13. Iqto.



XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 999-yil. 2. 1141-yil. 3. 1040-yil. 5. 1193-yil. 7. 821 yil. 8. 1200-yil. 9. 893-yil. 10. 1137-yil.

ENIGA: 2. 1210-yil. 4. 914-yil. 6. 1008-yil. 9. 813-yil. 10. 1212-yil. 11. 943-yil. 12. 809-yil.

IV BOB. IX-XIII ASR BOSHLARIDA MADANIY HAYOT.

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Marg'inoniy. 3. Yugnakiy. 4. Xorazmiy. 6. Koshg'ariy. 7. Yassaviy. 9. Buxoriy. 12. Beruniy.

ENIGA: 2. Moturidiy. 5. Naqshband. 8. Kubro. 10. Zamaxshariy. 11. Farg'oniy. 13. Termiziy. 14. Ibn Sino. 15. Roziy.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Forob. 3. Metafizika. 5. Bayt ul-hikmat. 8. Alfraganus. 9. Kalom. 11. Turkiston.

ENIGA: 2. Hikmat. 4. Xonbandi. 6. Falsafa. 7. Kat. 10. Qutadg'u bilig. 11. Tariqat. 12. Algebra. 13. Tasavvuf. 14. Rishton.

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 944-yil. 3. 797-yil. 4. 873-yil. 5. 1998-yil. 6. 1997-yil. 7. 810-yil. 8. 1017-yil. 10. 1123-yil. 11. 991 yil.

ENIGA: 1. 950-yil. 2. 1037-yil. 5. 1074-yil. 7. 870-yil. 8. 1130-yilligi. 9. 861-yil. 11. 970-yil. 12. 1221 yil.

V BOB. MO'G'ULLAR ISTILOS I. VATANIMIZ XALQLARINING OZODLIK KURASHI

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Sheroziy. 2. Temur Malik. 3. Turkon xotun. 4. Kebek. 6. Chig'atoy. 7. Botu. 9. Temuchin. 11. Jo'ji.

ENIGA: 3. Tulu. 5. Mahmud Yalovoch. 8. Ibn Kafroj Bug'ro. 10. Huloku. 11. Jaloliddin. 12. Rumi. 13. Kubro. 14. Munke.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Targ'u. 2. Shulen. 3. Sultonband. 5. O'tror. 7. Qoraunas. 8. Chingiz. 10. Parvon. 11. Yom.

ENIGA: 4. Chig'atoy ulusi. 6. Jete. 7. Qo'rg'oshin nova. 9. Qopchur. 12. Kalon. 13. Suyurg'ol. 14. "Bo'ston".

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 2. 1227-yil. 3. 1231-yil. 4. 1253-yil. 7. 1326-yil. 8. 1219-yil. 9. 1221 yil. 10. 1220-yil.

ENIGA: 1. 1241-yil. 3. 1271-yil. 5. 1207-yil. 6. 1273-yil. 8. 1231-yil. 11. 1211 yil. 12. 1256-yil. 13. 1206-yil.

V BOB. AMIR TEMUR SALTANATI

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Sulaymon. 4. Tug'luq Temur. 5. Ilyosxo'ja. 6. Takina xotun. 7. To'xtamishxon. 11. Mironshoh. 13. Boyazid.

ENIGA: 2. Amir Tarag'ay. 3. Amir Temur. 8. Pirmuhammad. 9. Shohruh. 10. Karl VI. 12. Sayyid Baraka. 14. Turmush Og'o. 15. Genrix IV. 16. Chalabiy.



KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 2. Sohibqiron. **3.** Oqsaroy. **4.** Tavochi. **6.** Tuman. **8.** Dodxoh. **10.** Juvong'or. **12.** Anqara.

ENIGA: 1. Yasovul. **3.** Ov. **5.** Barlos. **7.** Sarbadorlar. **9.** Loyjangi. **11.** Diplomatiya. **13.** Izofa. **14.** Yakkabog'. **15.** Tarak.

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 1365-yil. **3.** 1403-yil. **5.** 1361-yil. **6.** 1365-yil. **8.** 1395-yil. **10.** 1381-yil. **12.** 1402-yil.

ENIGA: 2. 1336-yil. **4.** 1406-yil. **5.** 135-yil. **7.** 1381-yil. **9.** 1386-yil. **11.** 1403-yil. **13.** 1405-yil. **14.** 1370-yil.

VII BOB. TEMURIYLAR DAVRIDAMAMLAKATNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY, IQTISODIIY VA MADANIY HAYOTI

KROSSVORD

(tarixiy shaxslar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Abdulaziz. **3.** Behzod. **5.** Tabriziy. **6.** Xalil Sulton. **8.** Abulxayrxon. **9.** Firdavsiy. **10.** Navoiy. **14.** Shohrux.

ENIGA: 2. Abdulatif. **4.** Ulug'bek. **7.** Pirmuhammad. **11.** Qora Yusuf. **12.** Ali. **13.** Abu Said. **15.** Koshoniy. **16.** Mahmud.

KROSSVORD

(atama, tushuncha va geografik nomlar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. Turuqband. **2.** Zafarnoma. **5.** Rasadxona. **8.** Sekstant. **9.** Fulus. **11.** Begor. **13.** Ray.

ENIGA: 3. Padarkush. **4.** Banno. **6.** Dashti Qipchoq. **7.** Sultonband. **8.** Sahhoflik. **10.** Valiahd. **12.** Muzoriy. **14.** Tarnob.

XRONOKROSS

(yillar bo'yicha)

BO'YIGA: 1. 1405-yil. **2.** 1414-yil. **4.** 1409-yil. **6.** 1469-yil. **7.** 1447-yil. **8.** 1421 yil. **9.** 1420-yil.

ENIGA: 1. 1441-yil. **3.** 1425-yil. **4.** 1408-yil. **5.** 1451-yil. **7.** 1494-yil. **10.** 1419-yil. **11.** 1428-yil. **12.** 1407-yil.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. **Abdullayev I.** Beruniy zamondosh shoirlar. Toshkent, "Fan", 1975.
2. **Abdullayev I., Hikmatullayev H.** Samarqandlik olimlar. Toshkent, "Fan", 1969.
3. **Abduraxmonov A.** Ulug'bek Akademiyasi. Toshkent. "Qomus", 1994.
4. **Agibalova E. V., Donskoy G. M., Salimov O'.** Jahon tarixi. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. O'rta asrlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
5. **Ahmedov Bo'riboy.** "O'zbekiston tarixi manbalari". Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
6. **Ahmedov Bo'riboy.** O'zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. Toshkent, "Cho'lpon" nashriyoti, 2003.
7. **Asamma F.M., Lapina Z.G., Meyer M.S.** Istoriya stran Azii i Afriki v sredniy veka. Ch.birinchi 2, MGU, 1987.
8. **Ashraf Ahmad.** Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394-1449). Toshkent, Xalq merosi, 1994.
9. **Asqarov A. A.** "O'zbekiston tarixi". Toshkent, "O'qituvchi". 1994.
10. **Avdiyev V. I.** Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent, "O'rta va oliy maktab". 1964.
11. **Ayniy S.** "Muqanna qo'zg'oloni". Dushanba, Qissalar, maqolalar kitobidan. 1993.
12. **Bartold V.V.** Ulug'bek va uning davri. Asarlar, II-jild, II-kitob, Moskva, 1964.
13. **Bekmuhammedov. X. Y.** Tarix terminlari izohli lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1978.
14. **Bekmuhammadov H.Y.** "Tarix terminlarining izohli lug'ati". Toshkent, "O'qituvchi" 1986.
15. **Bobobekov H. va boshqalar.** "O'zbekiston tarixi". Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000.
16. **Bolalar ensiklopediyasi.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
17. **Bolshoy spravochnik Istoriya dlya shkolnikov i postupyayushix v vuzi.** Moskva, Izdatelskiy dom «Drofa», 1999.
18. **Bopishaya Ensiklopediya Kirilla i Mefodiya.** Sovremennaya universalnaya rossiyskaya multimedia-ensiklopediya. Moskva, OOO "Kirill i Mefodiy", 2007.
19. **Boytsov M., Shukurov R.** Istoriya srednix vekov. Moskva, 1995.
20. **Buniyatov Z.M.** Anushtagin, Xorazmshohlar davlati (1087-1231). Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 1998.
21. **Ensiklopediya dlya detey.** Tom 1. Vsemirnaya istoriya. Moskva, Avanta+, 2001.
22. **Ensiklopediya dlya detey.** Tom 5. Istoriya Rossii (chast 1). Moskva, Avanta+, 2001.
23. **Ensiklopediya dlya detey.** Tom 13. Strani. Narodi. Sivilizatsii. Moskva, Avanta+, 2002.
24. **Fayziyev T.** Temuriylar shajarasi. Toshkent, "Yozuvchi", 1995.
25. **Filipp de Kommin.** Memuari. Moskva, "Nauka" 1986.
26. **G'ulomov Y. G'.** Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. Toshkent, "Fan", 1960.
27. **Gutnova E.V.** Istorioografiya istorii srednix vekov. Moskva, Visshaya shkola, 1974.
28. **Hamid Ziyoyev.** "O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi". Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001.
29. **Hidoyatov G. A.** "Mening jonajon tarixim". Toshkent, "O'qituvchi" 1992.
30. **Ibrohimov N.** Ibn Batuta va uning O'rta Osiyo bo'ylab sayohati., Toshkent, 1993.
31. **Irisov A.** Abu Rayhon Beruniy. Toshkent, 1960.
32. **Irisov A.** Beruniy va Hindiston. Toshkent, "Fan" 1963.
33. **Irisov A.** Ulug' tabib va olim Abu Ali ibn Sino. Toshkent, "Fan", 1960.
34. **Irisov A., Nosirov A., Nizomiddinov I.** O'rta osiyolik 40 olim. Toshkent, "Fan", 1961.
35. **Is'hoqov M.** So'g'diyona tarix chorrasasida. Toshkent, "Fan", 1990.
36. **Is'hoqov M.** Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, "Fan", 1990.
37. **Is'hoqova M., Kontetskiy V.** "O'zbekiston xalqlari tarixi" Toshkent, "O'qituvchi". 1992.
38. **Islom Karimov.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
39. **Islom Karimov.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, "Sharq", 1998.
40. **Islom Karimov.** Turkiston umumiy uyimiz. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.
41. **Islom ensiklopediya.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
42. **Istoriya mirovoy kulturi.** Moskva, 1997.
43. **Jalilov Sayfiddin.** "Bobir va Yuliy Sezar". Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2001.
44. **Jo'rayeva Saida.** "Haqiqat manzaralari 96 mumtoz faylasuf". Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2002.
45. **Kardini F.** Istoki srednevekova ritsarstva. Moskva, Progress, 1987.
46. **Karimov Sh., Shamsudinov R.** Vatan tarixi. Birinchi kitob. Andijon, "Meros", 1995.
47. **Karimov Sh., Shamsudinov R.** Vatan tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
48. **Kurbongaliyeva R.** O'rta asrlar tarixidan. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent, O'qituvchi, 1989.
49. **Ma'naviyat yulduzlari** (Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalalar, adiblar), Toshkent, "Meros nashriyoti", 1999.
50. **Malaya ensiklopediya gorodov.** Moskva, "Topsing", 2001.

- 51. Muhammadjonov A.** O'zbekiston tarixi. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. O'rta asrlar. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
- 52. Muhammadjonov A.** Temur va temuriylar saltanati. "Qomus", 1994-1996.
- 53. Muhammadjonov A., Usmonov Q.** O'zbekiston tarixi. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. O'rta asrlar. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
- 54. Nabiyev A.S.** Tarixiy o'lkashunoslik. Toshkent, 1998.
- 55. Nazarov Q.** "G'arb falsafasi". Toshkent, "Sharq" 2004.
- 56. Nuriddinov M.** Boburiylar sulolasi. Toshkent, 1994.
- 57. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.** Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
- 58. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi birinchi tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
- 59. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ikkinchi tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
- 60. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 3-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
- 61. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 4-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
- 62. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
- 63. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi oltinchi tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
- 64. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 7-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
- 65. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 8-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
- 66. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 9-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
- 67. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 10-tom.** "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005.
- 68. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 11 tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
- 69. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 12-tom.** Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
- 70. O'zbekiston tarixi.** Mas'ul muharrirlar: A.S. Sagdullayev, B. J. Eshov. Toshkent, "Universitet". 1997.
- 71. O'zbekiston xalqlari tarixi.** Birinchi jild. Ahmadali Asqarov tahriri ostida. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining "Fan" nashriyoti. 1992.
- 72. Saidqulov T.** "O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar". Toshkent, "O'qituvchi", 1993.
- 73. Salimov T., Mahkamov S.** Jahon tarixi. Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. O'rta asrlar. Toshkent, "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahririyati, 1999.
- 74. Skazkin S.D.** Kniga dlya chteniya po istorii srednix vekov. Moskva, Prosvesheniye, 1969.
- 75. Udalova Z.V.** Istoriya krestyanstva v Yevrope. Tom birinchi 3, Moskva, "Nauka", 1985.
- 76. Skazkin S.D.** Xrestomatiya po istorii srednix vekov. Tom birinchi 2, Moskva, 1961-1962.
- 77. Sulaymonova Fozila.** "Sharq va G'arb". Toshkent, "O'zbekiston" 1997-yil.
- 78. Udalova Z.V.** Istoriya Yevropi. Tom 1, Moskva, "auka", 1988.
- 79. Usmonov Q., Jo'rayev U., Ahmedov B.** Tarixdan hikoyalar, Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
- 80. Valixojayev B.** O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent, O'zbekiston, 1993.
- 81. Vamberi Xerman.** Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, 1990.
- 82. Yastrebitskaya A.L.** Zapadnaya Yevropa XI-XIII vv. Moskva, "Iskustvo", 1978.
- 83. Ziyozamat.** O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, "Sharq", 2000.
- Zohidov V.** Uch daho (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino). Toshkent, 1987.

MUNDARIJA

Kirish.....

I QISM. O‘ZBEKISTON O‘RTA ASRLARIDA

I BOB. ILK O‘RTA ASRLARIDA VATANIMIZNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY, IQTISODIIY VA MADANIY HAYOTI

Ilk o‘rta asr davlatlari.....

Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi.....

VI-VII asrlarda madaniy hayot.....

Chizma.....

Tarixiy shaxslar.....

Atama va tushunchalar.....

Tarixiy-geografik nomlar.....

Tarixiy sanalar.....

Testlar.....

Krossvord.....

II BOB. O‘RTA OSIYONING ARABLAR TOMONIDAN FATH ETILISHI, UNING OQIBATLARI, XALQ OZODLIK QO‘ZG‘OLONLARI

Arablar o‘rta Osiyoni fath etishi.....

Arablar hukmronligiga qarshi xalq harakatlari.....

Chizma.....

Tarixiy shaxslar.....

Atama va tushunchalar.....

Tarixiy-geografik nomlar.....

Tarixiy sanalar.....

Testlar.....

Krossvord.....

III BOB. IX-XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING SHAKLLANISHI, IJTIMOIIY-IQTISODIIY VA SIYOSIIY HAYOTI

Mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi.....

Somoniylar davlati.....

Qoraxoniylar davlati.....

G‘aznaviylar davlati.....

Saljuqiylar davlati.....

Xorazm davlati.....

Chizma.....

Tarixiy shaxslar.....

Atama va tushunchalar.....

Tarixiy-geografik nomlar.....

Tarixiy sanalar.....

Testlar.....

Krossvord.....

IV BOB. IX-XIII ASR BOSHLARIDA MADANIY HAYOTI

Ilm-fan ravnaqi.....

Me‘morchilik, san‘at, musiqa.....

Diniy e‘tiqod.....

Etnik jaroyonlar va o‘zbek xalqining shakllanishi.....

Chizma.....

Tarixiy shaxslar.....

Atama va tushunchalar.....

Tarixiy-geografik nomlar.....

Tarixiy sanalar.....

Krossvord.....

Testlar.....



**V BOB. MO‘G‘ULLAR ISTILOISI. VATANIMIZ XALQLARINING
OZODLIK KURASHI**

Chingizxon bosqini.....
Mo‘g‘ullar istilosining oqibatlar.....
Chig‘atoy ulusining tashkil topishi.....
Chizma.....
Tarixiy shaxslar.....
Atama va tushunchalar.....
Tarixiy-geografik nomlar.....
Tarixiy sanalar.....
Krossvord.....

VIBOB. AMIR TEMUR SALTANATI

Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.....
Amir Temur saltanatining ma‘muriy va harbiy tuzilishi.....
Mamlakat obodonchiligi yo‘lida.....
Amir Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar.....
Chizma.....
Tarixiy shaxslar.....
Atama va tushunchalar.....
Tarixiy-geografik nomlar.....
Tarixiy sanalar.....
Krossvord.....

**VII BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA MAMLAKATNING IJTIMOY-SIYOSIY,
IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI**

Ulug‘bek davrida Movarounnahr.....
Temuriylar davlatida ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar.....
Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.....
Chizma.....
Tarixiy shaxslar.....
Atama va tushunchalar.....
Tarixiy-geografik nomlar.....
Tarixiy sanalar.....
Krossvord.....
Test va krossvordlar javobi.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

Muharrir *H. Nishonov*
Badiiy muharrir *A. Tursunov*
Sahifalovchi *A. Mamadaliyev*
Musahhah *Sh. Nishonov*



Tuzuvchi — mualliflar: Farhod Sultonov,
Bozorboyev Farruh

O‘RTA ASRLAR TARIXI

(O‘zbekiston tarixi)

(maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari, abituriyentlar va tarix fani o‘qituvchilari uchun
qo‘llanma)

Original makyt «M‘YDIANASHK» MCHJ
kompyutryk maqqazida tayyoqlandi.

Bosishga ruxsat etildi 31.10.2007.
Bichimi 84 x 108 $\frac{1}{8}$ Ofset bosma. Bosma tabog‘i 52.
Shartnoma № 00 Buyurtma № 00 Adadi 5 nusxa.

